market, makes it difficult to effectively provide the population with books, and also hinders the development of regional book publishing, including the publication of books in the languages of the peoples of Uzbekistan. As already mentioned, the publishing system operating today in Uzbekistan from the very beginning was formed as a market one, focused mainly on the fact that its equal participants are independent business entities operating on the basis of uniform rules determined by civil law legislation. This fundamentally distinguishes it from the publishing system of the Soviet period, which was based on an administrative-command resource and in which the publishing house itself was mainly an ideological institution that carried out the party-state order for the release of a certain information product with the specified properties of impact on a potential reader and the expected feedback. The state took upon itself the problems of selling these products, providing the corresponding working capital to the state bookstore for centralized buying up and subsequent distribution of published literature. Under these conditions, the publishing system itself was nothing more than a state entity. The nationalization of book publishing, which began at the end of the 20s of the last century, led by the end of the century to the establishment of total party-state control and control over the activities of the entire publishing business in the country. Therefore, the most important component of the reform of book publishing on a democratic, market basis was its denationalization, that is, its transformation from a completely state-owned to a predominantly non-state one. At present, it is non-state structures that form the basis of the country's publishing system [3, 55].

A serious factor in the development of the publishing business during this period was the increasing development and application of new information technologies. The legal and economic aspects of the book business received a scientific and technological basis, which made it possible in just a few years to cover a path that would previously have taken decades to overcome. Finally, the formation of a new publishing system in Russia was largely facilitated by the globalization of the information space, the integration of domestic book publishing into the world publishing community. This made it possible to study rich international experience and use it more productively in domestic practice. Of course, as in other countries, not all registered publishing structures are equally active in the book publishing business. If we take as a criterion for the inclusion of an organization in the publishing system the fulfillment by it of the requirements of Law "On the legal deposit of documents" on the submission to the Uzbekistan Book Chamber of the established number of legal copies of each published publication, then it turns out

that the country's book market is active every year. 5-6 thousand publishing houses. At the same time, it should be pointed out that the overwhelming majority of this abundance of publishing organizations is made up of medium and mainly small enterprises, which, generally speaking, is a reflection of a more general trend in the development of modern entrepreneurship, which concerns not only the book business and not only our country. In the development of the modern publishing system in Uzbekistan, a long-standing trend is clearly traced, which is inherited from the pre-revolutionary past [2, 25].

Despite the negative nature that she wears, she still cannot be overcome. We are talking about the attraction of the entire book business to the central regions of Russia and the high concentration of publishing entrepreneurial activity here. Domestic printing in recent years has made a powerful breakthrough in its qualitative and quantitative development. New printing complexes have been created, thousands of modern printing houses have emerged, hundreds of operating enterprises have undergone a comprehensive modernization. Investment activity in the printing industry had a stable positive trend. Nevertheless, the issues of unfavorable developments in the regional and federal printing markets have been constantly discussed in the professional business community recently: increased competition, falling profitability as a result of increasing production capacity in isolation from the idea of the real state of the printed products market and the prospects for its development; price pressure from customers, competition with foreign polygraph base.

## **CONCLUSION**

The last decade of the last century was the time of formation and development of a new publishing system in Russia. The number of publishing houses has increased many times, the printing system has expanded, today publishing organizations operate in more than 300 cities of world [1,35].

Suffice it to say that at the same time, all pre-printing processes began to be almost completely concentrated in the publishing house, proofreading exchanges and other routine operations have become a thing of the past, and the quality of publishing preparation and printing execution of publications has significantly improved. Particularly noteworthy is the fact that modern information technologies make it possible to solve issues related to the constant decline in the circulation of many publications to levels that were previously unprofitable for either publishing houses or printing companies. Today, processes and technologies have been



developed to produce high-quality publications in multiple copies, which greatly expands the capabilities of the new publishing system. It should also be noted that the factors put forward and substantiated are constantly acting stimulants for further self-development and self-improvement of the publishing and printing system in Russia. In this regard, the study of the factors stimulating the development of the system should become permanent, since in the foreseeable future both the book and book publishing will remain an important information resource of society, allowing a person, on the basis of consistent coexistence with constantly improving information technologies, to master new knowledge and solve a variety of problems in the economic, cultural and social spheres, in all areas of life.

### **REFERENCES**

1. Есенькин, Б. С. Предпринимательство в книжном деле: Учебное пособие / Б. С. Есенькин, А. Ф. Коган. М.: МГУП, 2004.
2. Жарков, В. М. Экономика и организация издательского дела: Краткий курс / В. М. Жарков, Б. А. Кузнецов, И. М. Чистова. М.: МГУП, 2002.
3. Жарков, И. А. Технология редакционно-издательского дела: Конспект лекций / И. А. Жарков. М.: МГУП, 2002.
4. Ильницкий, А. М. Книгоиздание в современной России / А. М. Ильницкий. М.: Вагриус, 2002.

## “МАЖОЛИС УН-НАФОИС” ВА “ЛАТОЙИФНОМА” ТАЗКИРАЛАРИДА ЗУЛЛИСОНАЙНЛИК АНЪАНАСИ ИФОДАСИ

**Бобур Курбонов**

Самарқанд давлат чет тиллар институти  
Яқин шарқ тиллари ўқитувчиси (Ўзбекистон)  
Тел: +998973970300

### АННОТАЦИЯ

Мақолада “Мажолис ун-нафоис” ва “Латойифнома” тазкираларида зуллисонайнлик, яъни икки тиллилик анъанасининг ифодаси хусусида фикр юритилади. Маълумки икки тилда ижод қилиш туркий ва форсий халқлар адабиётидаги муҳим анъаналардан бири ҳисобланади. Адабиётишунослигимизда туркий ва форсий тилларда ижод қилган кўплаб шоирлар хусусида маълумот берилган. “Мажолис ун-нафоис” ва “Латойифнома” тазкираларидаги зуллисонайнлик анъанаси деганда асосан форсий ва туркий тилларда ижод қилган шоирлар ва адиблар ижоди намуналари назарда тутилади. Чунки бу икки тазкирада асосан мазкур икки тилда ижод қилган шоирлар хусусида маълумот келтирилган. “Мажолис ун-нафоис”да форсий ва туркий тилларда ижод қилган 480 дан ортиқ шоир ва адибларнинг исмлари зикр қилинган бўлиб, булар орасида иккала тилда ҳам ижод қилганлар мавжуд. “Латойифнома”да эса “Мажолис ун-нафоис”даги шоирлардан ташқари яна 190 та шоирнинг исми келтирилган ва булар орасида ҳам зуллисонайн шоирлар кўп.

Мазкур икки тазкира муаллифлари, яъни Мир Алишер Навоий ва Фахрий Ҳиравийларнинг ўзлари ҳам машҳур зуллисонайн адиблар сирасидандирлар. Шунинг учун иккала тазкирада ҳам зуллисонайнлик анъанасига алоҳида эътибор қаратилган.

**Калит сўзлар:** Зуллисонайн, тазкира, “Мажолис ун-нафоис”, “Латойифнома”, Навоий, Фахрий, форсий, туркий, манба, қўлёзма.

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается выражение билингвальной (двуязычной) традиции в антологиях “Мажолис ун-нафоис” (Собрание избранных) и «Латойифнома». Известно, что двуязычие является одной из важнейших традиций в литературе тюркских и персидских народов. В нашей литературе даются сведения о многих поэтах, писавших на турецком и персидском языках. Билингвальная традиция в “Мажолис ун-нафоис” и «Латойифнома» относится в основном к произведениям поэтов и писателей, писавших в

основном на персидском и турецком языках. Потому что эти два тазкира (антология) содержат информацию о поэтах, писавших на этих двух языках. «Мажолис ун-нафоис» упоминает имена более 480 поэтов и писателей, писавших на персидском и турецком языках среди которых есть поэты которые писали на обоих языках. Помимо поэтов «Мажолис ун-нафоис», «Латойифнома» упоминает еще более 190 поэтов, многие из которых являются известными двуязычными поэтами.

**Ключевые слова:** Двуязычный, тазкира, «Мажолис ун-нафоис», «Латойифнома», Наваи, Фахри, персидский, турецкий, источник, рукопись.

### ABSTRACT

*The article deals with the expression of the bilingual tradition in the anthologies “Mazholis un-nafois” (Collection of the Chosen Ones) and “Latojifnoma”. It is known that bilingualism is one of the most important traditions in the literature of the Turkic and Persian peoples. Our literature provides information about many poets who wrote in Turkish and Persian. The bilingual tradition in “Mazholis un-nafois” and “Latojifnoma” refers mainly to the works of poets and writers who wrote mainly in Persian and Turkish. Because these two tazkira (anthology) contain information about the poets who wrote in these two languages. “Mazholis un-nafois” mentions the names of more than 480 poets and writers who wrote in Persian and Turkish, among which there are poets who wrote in both languages. In addition to the poets “Majolis un-nafois”, “Latoifnoma” mentions more than 190 poets, many of whom are famous bilingual poets.*

**Keywords:** Bilingual, tazkira, "Mazholis un-nafois", "Latoifnoma", Nava'i, Fahri, Persian, Turkish, source, manuscript.

### КИРИШ

Зуллisonайнлик - яъни икки тилда ижод қилиш узок йиллардан бери муҳим ижодий анъана сифатида намоён бўлган ва буюк шоиру адибларнинг икки халқ тили ва маданиятини тараннум этувчи асарларида ўз аксини топган. Қадим замонлардан ислом динини дунёнинг кўплаб мамлакатларига тарқалгани боис араб тили ва маданияти ҳам кенг тарқалган ва исломни қабул қилган халқлар ўз асарларини ҳам она тилларида, ҳам араб тилида ижод қилганлар. Йиллар ўтиб икки тиллик, яъни зуллisonайнлик анъанага айланган. Араб ва форс тилларида ижод қиладиган шоирлар ўз ижод намуналари билан машҳур бўла бошладилар. Масалан, форс тилида ижод қилган биринчи шоира Балхий тахаллуси билан машҳур бўлган Робиа бинти Кааб аслида араб

саркардаларининг оиласида туғилган. Унинг оиласи Хуросонга кўчиб келиб Балх шаҳрида яшаган ва Робиа ушбу шаҳарда дунёга келган. Робиа Балхий араб ва форс тилларида ижод қилган зуллисонан шoirларининг биринчиларидан ҳисобланади. Ундан ташқари кўплаб шoirлар ва олимлар ўз асарларини ҳам арабий ва ҳам форсийда яратганлар, масалан Ибн Сино, Умар Хайём ва бошқалар. Кейинчалик бу анъана форсий ва туркий тилларда ижод қиладиган шoirлар тарафидан давом эттирилди.

### **АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР**

Ишда “Мажолис ун-нафоис” ва “Латойифнома” тазкиралари нусхалари ҳамда мавзуга оид асарлар ва илмий мақолалардан фойдаланилди. “Латойифнома” тазкираси нодир китоблар қаторига киради, чунки мазкур тазкира ҳалигача тўлиқ ўрганилмаган. Ушбу мақолада “Латойифнома”нинг бундан тақрибан бир аср олдин Покистонда чоп этилган нусхасидан фойдаланилди. Ушбу нусха араб алифбосига асосланган форс ёзувининг настаълиқ услубида ёзилган. Китобнинг бошланишида асар хусусиятига оид урду тилида ҳам қисқача маълумот берилган. Китоб Покистоннинг Панжоб университети профессори Муҳаммад Иқбол Мужаддадий савъ ҳаракати билан Милодий 1931 йили нашр қилинган. “Латойифнома”нинг бир нечта қадимий нусхалари мавжуд, аммо бу нусхалар жуда нодир ҳисобланади. Тазкиранинг энг янги нусхаси 2019 йил Эроннинг Фирдавсий университети ёш навоийшунос тадқиқотчиси Ҳоди Бедакий томонидан нашр қилинди. Буларнинг барчаси “Латойифнома”ни тадқиқ этиш учун жуда муҳим адабиёт ҳисобланади, аммо айти дамда биз фақатгина Муҳаммад Иқбол Мужаддадий томонидан Покистонда нашр қилинган нусхадан фойдаланиш имкониятига эгамиз.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Форсий ва туркий тилларда ижод қилувчи шoirларнинг энг буюк намояндаси бу шаксиз Мир Алишер Навоийдир. Маълумки, Навоийнинг форсий ва туркий тилларда битилган ижод намуналари дунё адабиётидаги энг сара ва энг самарали асарлар қаторига киради. Навоийдан олдин ҳам туркий ва форсий тилларда ижод қиладиган шoir ва ёзувчилар бўлган, аммо Навоийнинг заҳматлари ва мислсиз истеъдоди натижасида икки тилда ижод қилиш анъанаси ғоят юксалди. Шу боис Навоийни форсий ва туркий тилларда ижод қилиш анъанасининг асосчиси, деб баҳоласак хато бўлмайди. Мир Ҳазратларининг икки таҳаллус билан, яъни туркий асарларини Навоий таҳаллуси билан ва форсий асарларини эса Фоний таҳаллуси билан ижод қилганлари барчага

маълум. Аммо Навоийнинг зуллисонанлик анъанаси ривожига қўшган ҳиссаси фақатгина Навоий ва Фоний тахаллуслари билан ижод қилган девонлари билан чегараланиб қолмайди. Зуллисонанлик анъанаси Мирнинг барча асарларида ўз аксини топган, жумладан “Мажолис ун-нафоис” тазкирасида. Маълумки мазкур тазкирада исмлари зикр қилинган шоирларни асосан форс тилида ижод қилганлар ҳамда туркий тилда ижод қилган шоирлар ташкил этади. Булар орасида зуллисонан шоирлар, яъни ҳам форсий ва ҳам туркий тилларда ижод қилган шоирлар ҳам кўп.

Тазкирани ўқиганда илк навбатда Мир Алишернинг мазкур икки тилни қай даражада мукамал билганлари сезилади. Бу икки тилнинг луғавий бойлиги ва нозиклигидан қандай моҳирона фойдаланганлигини айнан “Мажолис ун-нафоис” тазкирасида кўришингиз мумкин. Мисол тариқасида “Мажолис ун-нафоис”нинг саккизинчи бобида Султон Ҳусайн Бойқарони таъриф ва тавсифида баён қилинган бир жумлани назардан кечирсак, бир жумланинг ўзида иккита тилнинг жозибадорлигини мужассам этадиган мухташам маҳорат маҳсулини кўришимиз мумкин. “Султанат баҳрининг дурри яктоси, ва хилофат сипехрининг хуршеди жаҳонороси, саховат хавосининг абри гуҳарбори ва шижоат бешасининг ҳузабр шикори, адолат чаманининг сарви сарбаланди ва мурувват маъданининг гавҳари аржуманди, кўшиш размгоҳининг Рустами достони ва бахшиш базмгоҳининг Ҳотами замони, фасоҳат илмининг нукта бирла сеҳрсози ва балоғат жаҳонининг диққат била муъжизапардози Султон ус-салотин Абдулғози Султон Ҳусайн Баҳодирхон”. Бу даражадаги баён қобилиятига эга бўлиш учун иккала тил, яъни ҳам форсий ва ҳам туркийни мукамал билиш талаб этилади.

Мазкур икки тазкирада муаллифларнинг зуллисонанлик қобилиятига эга бўлганликларидан ташқари бошқа зуллисонан шоирларни ҳам тарғиб ва ташвиқ этилганлигини кўришимиз мумкин. “Мажолис ун-нафоис”нинг ўзида йигирмага яқин зуллисонан шоирлар исмлари зикр қилинган. Буларнинг асосийлари Мавлоно Абулҳасан, Ҳаримий Қаландар, Мавлоно Тархоний, Мавлоно Лутфий, Мавлоно Яқиний, Мавлоно Билолий, Сайид Ҳасан Ардашер, Амир Шайх Сухайлий, Мавлоно Осафий, Шерам (“Латойифнома”да Шерам Шағол деб ёзилган), Соқий, Бобур Мирзо, Сайид Аҳмад Мирзо, Султон Бадиуззамон Мирзо, Шоҳ Ғариб Мирзо, Фаридун Ҳусайн Мирзолар бўлиб, иккала тазкирада ҳам деярли барчаларининг ҳам форсча ва ҳам туркча шеърларидан намуна келтирилган. “Латойифнома”да таржима қилинган саккизта мажлисдан ташқари яна бир мажлис илова қилинган ва бу мажлисда

“Мажолис ун-нафоис”да зикр этилмаган 190 дан кўпроқ шоирларни исмлари келтирилган ва улар орасида бир қанчалари зуллисонайн шоир эканлиги таъкидланган ҳамда туркча ва форсча ижод намуналаридан мисоллар келтирилган. “Латойифнома”нинг ушбу бобидаги зуллисонайн шоирларнинг энг биринчиси Мир Алишер Навоийнинг ўзидир. Тўққизта қисмдан иборат бўлган ушбу мажлиснинг биринчи қисми Ҳазрат Навоийга бағишланган. Муаллиф Навоийни таърифлар экан, албатта унинг илм аҳлига қилган беғараз кўмаги ва барча илм соҳаларига ружу қилган ёшларнинг парваришига берган эътиборини таъкидлаб ўтган. Бу орада албатта туркий ва форсий шеърият дунёсидаги мавқеига ҳам тўхталиб ўтган. Фахрий Навоийга оид қўйидаги гапларни баён қилган: *“Ва он миқдори бемислу нодир аз хаттоту хонандаву созандаву наққошу музҳибу муҳарриру муаммоиву шоир ки ба тарбияти ў дар нашъу намо омаданд маълум нест ки дар ҳеч замон қилвагар бошад. Ва ў низ аз фунуни ин чамоъат баҳраи тамом дошт, хосса дар шеъру шоирӣ ва пеши туркон хирадманди фозил ва тозизабонони туркидон комил, муқаррар аст, ки то бинои назми туркӣ шуда, мисли ў касе қадам дар он водӣ наниҳода, сарвари ин қаламрав ўст ва ўро дар миёни атрок қаринаи Мавлоно Абдурахмон медонанд”*<sup>1</sup>.

Таржимаси: Унинг тарбияси остида нашъу намо топган хаттот, хонанда, созанда, наққош, музҳиб, муҳаррир ва шоирларнинг сони шунчалик кўп эдики бунақасини ҳеч бир давру замонда ҳеч ким кўрмаган эди. Ва ўзи жамият фанларидан тамомила баҳраманд эди, хоссатан шеър ва шоирликда турклар олдида фозил хирадманд ва туркчани биладиган тозизабонлар олдида комилдир, муқаррардирким туркий назм биноти этилгунга қадар бу водийга унга ўхшаган ҳеч бир киши қадам қўймаган, бу манзилнинг сарвари удир, уни атрок(турклар) орасида Мавлоно Абдурахмоннинг қаринаси, деб биладилар. Айтиш жоизки, Навоийга бу қадар юксак баҳо берган буюк алломалар ниҳоят кўпдир ва уларнинг асосий қисмлари форсигўй адиблар ҳисобланадилар. Бу эса икки халқ ўртасидаги муштарақлик нишонасидир. Бошқа томондан қарайдиган бўлсак, Мир Алишер Навоий ва бошқа туркийзабон алломалар ҳам форс адабиёти намояндалари ва уларнинг асарларига юксак эҳтиром билан қараганлар. Алишер Навоийнинг бир қанча ғазаллари Ҳофиз Шерозий, Саъдий, Жомий, Румий каби форс шоирлари ғазалларининг татаббуида (илҳомланган ҳолда) ижод қилинган. Мирнинг жаҳоншумул “Хамса”си буюк форс-тожик

<sup>1</sup> لطایف نامہ فخریہ روی مرتب محمد عقبال مجددی. نشریات دانشگاه پنجاب. پاکستان. ۱۹۳۱ میلادی

шоири Низомий Ганжавий “Хамса”сидан илҳомланиб ёзилган. Бундан ташқари бир қанча шоирлар борки форсий шеърятдан илҳомланган ҳолда ижод қилганлар. Бунинг натижасида икки халқ адабиёти бир-бирдан ажралмас шаклда ривожланди. Ушбу муштараклик “зуллисонайнлик” анъанасининг ривожланишига муҳим омил бўлди.

Фахрий “Латойифнома”сининг тўққизинчи бобида Навоидан кейин яна ўнлаб зуллисонайн шоирларнинг исмлари зикр қилинган. Булар қаторида Абулқосим Бобур ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Мавлоно Маҳмуд, Мавлоно Мажлисий, Мавлоно Абдуллоҳ, Мавлоно Афсарий, Мавлоно Ишқий, Шохмуҳаммад Қўрчи, Мирзо Қосим, Мавлоно Хожакалон, Амир Рустамали, Султонмуҳаммад Баҳши, Султон Масъуд Мирзо, Убайдуллоҳон ва бошқаларни айтишимиз мумкин.<sup>2</sup> Бу икки тилли шоирларнинг ҳар бирига ўзига хос тарзда таъриф берилган. Уларнинг туркий ва форсий назмда моҳир эканлиги алоҳида таъкидлаб ўтилган. “Латойифнома”нинг тўққизинчи мажлисидан жой олган зуллисонайн шоирларнинг бири Мавлоно Хожакалон бўлиб, унинг таърифини Фахрий шундай баён этган: “*Аз вилояти Андиҷон аст, мулозими махсус ва парвоначи Бобур Мирзо аст, бағоят хуштабъ ва ошиқпеша аст, назми туркӣ ва форсӣ нек мегӯяд*”.<sup>3</sup>

Таржимаси: Андиҷон вилоятидандир, Бобур Мирзонинг махсус мулозими ва парвоначисидир, ғоят хуштабъ ва ошиқпешадир, туркий ва форсий назмни яхши айтади. Бу таърифдан сўнг унинг ижод намуналаридан икки байт келтирилган ва ушбу байтларнинг бири форсча ва иккинчиси туркчадир:

Надорам тоби дидан пеши он бадхў рақибонро  
Аз он бо субҳи васли ў гузидам шоми саҳроро.<sup>4</sup>

Туркий тилдаги ижод намуналаридан бири:

Ҳар кимга ки кўнглунг тиласа меҳру вафо қил,  
Кўнглунг тилаган жавру жафо ёрли манго қил.<sup>5</sup>

Мирзо Бобурнинг мулозими бўлган ушбу шоирпеша инсоннинг таърифидан шуни тушуниб олишимиз мумкинки, Темурийлар салтанати даврида икки халқ, яъни туркийзабон ва форсийзабон халқларнинг маданияти юксак даражада ривожланди. Темурийлар амирзодаларининг форс-тожик

<sup>2</sup> لطایف نامہ فخریہ روی مرتب محمد عقیبال مجددی. نشریات دانشگاه پنجاب. پاکستان. ۱۹۳۱ میلادی

<sup>3</sup> لطایف نامہ فخریہ روی مرتب محمد عقیبال مجددی. نشریات دانشگاه پنجاب. پاکستان. ۱۹۳۱ میلادی

<sup>4</sup> لطایف نامہ فخریہ روی مرتب محمد عقیبال مجددی. نشریات دانشگاه پنجاب. پاکستان. ۱۹۳۱ میلادی

<sup>5</sup> لطایف نامہ فخریہ روی مرتب محمد عقیبال مجددی. نشریات دانشگاه پنجاب. پاکستان. ۱۹۳۱ میلادی

адабиёти юксалишига кўшган ҳиссаларини минглаб мисоллар билан исботлашимиз мумкин.

### **ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР**

Зуллисонайнлик анъанаси узоқ йиллардан бери давом этиб келаяпти ва адабиётнинг муҳим жиҳатларидан бири ҳисобланади. Ҳар қандай адабиёт бевосита тилга боғлиқдир. Тил эса ҳар доим ўзгариб турадиган ҳодисадир. Тилнинг ўзгаришига бевосита бошқа тиллар ва замоннинг янгиланиши сабаб бўлади. Бунга албатта турли халқларнинг яшаш тарзи, урф одатлари, тили ва бошқа муҳим ҳаётий жиҳатларининг бирлашиши алоҳида ўрин тутди. Бир минтақада яшовчи бир неча миллат ва элатлар вакиллари албатта бир-бирларининг тиллари ва адабиётидан баҳраманд бўладилар. Форсий ва туркий тилларда сўзлашиб ижод қилган халқлар узоқ йиллардан бери ёнмаён яшаб келмоқдалар. XIV-XV асрларда Мовароуннаҳр ва Хуросонда яшаб ижод қилган шоир ва адиблар орасида форс-тожик ва туркий-ўзбек тилларини биладиган ва ушбу тилларда ижод қилган шоирлар жуда кўп. Ушбу зуллисонайн шоирлар хусусида батафсил маълумот берадиган ва айнан ушбу даврда икки тиллилик анъанасининг ривожланганлигини ёрқин баён эта оладиган асосий манба “Мажолис ун-нафоис” тазкирасидир ва унинг таржималаридир. Мазкур даврдаги зуллисонайнлик анъанасига доир муфассал тадқиқот олиб бориш учун биринчи навбатда Мир Алишернинг мазкур тазкираси ва барча таржималарини мукаммал ўрганиш, уларни транслитерация қилиш ва ўзбек тилига таржима қилиб ўзбек адаб аҳли эътиборига ҳавола этиш муҳимдир.

### **АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ**

1. لطائف نامه. محمد عقبال مجددی. نشریات دانشگاه پنجاب. پاکستان. ۱۹۳۱ میلادی.
2. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993
3. Бертельс. Е.Э. Навай и Джамии. – Москва: Наука, 1965
4. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”нинг форсий таржималари” //Алишер Навоий ва форс-тожик адабиёти конференцияси материаллари. 2002, 30-январь.
5. Воҳидов. Р. “Мажолис ун-нафос”нинг таржималари/ масъул муҳаррир: Б. Валихўжаев. – Т.: Фан, 1984.
6. Муҳиддинов. М. Адабий анъана ва ижодий ўзига хослик. – Тошкент, Ўқитувчи, 1990.-85 б.
7. Болтабоев. Ҳ. Мумтоз сўз қадри. – Тшкент: Адолат, 2004. -192 б.



- 
8. Салоҳий. Д. Навоийнинг Рум диёрига туҳфаси// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2006 йил 3 февраль. №5(3834). Б. 4.; “Йатимат ад-дахр” тадқиқот услуби ҳақида//Мутафаккир ва мумтоз шеърият. – Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро маркази” нашриёти, 2018. Б. 141-148.
  9. علی اصغر حکمت. تذکرہ مجالس النفائس. کتابخانہ منوچہری. تهران، ۱۳۴۳ش
  10. ہسامالدین راشدی. فخری و سہ اثر او. مشهد، ۱۳۵۰
  11. <http://navoi.natlib.uz>

## **XORIJIY DAVLATLARDAGI OILAVIY MEDIATORLARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR VA ADVOKATNING MEDIATOR SIFATIDAGI OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISH TAJRIBASI**

**Qudrat Matkarimov Qalandarovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti “Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va advokatura” kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchisi, yuridik fanlari doktori  
E-mail: matkarimovqudrat79@gmail.com

**Xoliqov Shohrux Ikromali o‘g‘li,**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti  
E-mail: shohrux.lawyer\_xoliqov@mail.ru

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada oilaviy nizolar va nizolarni hal etishda mediatsiya tartib-taomilini o‘tkazish bo‘yicha xorijiy tajriba muhokama qilinadi, xorijiy mamlakatlardagi mediatorlarga qo‘yiladigan talablar tahlil qilinadi. Mediatsiyaning joriy etilishi bugungi kunning tabiiy tendentsiyasi, oilaviy sohadagi nizolarni hal etish, nizolashayotgan tomonlarga ko‘proq mos keladigan natijani olish imkonini beruvchi vosita ekanligi ta’kidlandi. Oilaviy nizolarni hal qilish mas’uliyatli vazifadir, shuning uchun aksariyat xorijiy mamlakatlarda mediatorga kasbiy malaka, oilaviy mediatsiya sohasida qo‘shimcha maxsus tayyorgarlik, yosh va amaliy tajribaga oid maxsus talablar mavjud. Shu bilan birga, mediatorning kasbiy mahoratiga qo‘yiladigan talablardan tashqari, mediatorning axloqiy fazilatlariga qo‘yiladigan talablar ro‘yxati ham mavjud. Xulosa qilinadiki, dunyoning aksariyat rivojlangan mamlakatlarida mediator faoliyati qonun bilan tartibga solinadi va ham professional, ham noprofessional asosda amalga oshiriladi, biroq bir qator mamlakatlarda subyektlar qonunchiligida qo‘shimcha huquqbuzarliklar belgilanishi mumkin. mediatorga qo‘yiladigan talablar. Shu bilan birga, O‘zbekistonda bo‘lgani kabi, professional mediatorlar ko‘pincha oliy ma’lumotli yoki qo‘shimcha kasbiy ta’lim olgan shaxslardir.*

**Kalit so‘zlar:** Mediatsiya, oilaviy nizo, oilaviy mediatsiya, mediator, huquqiy nizo va nizolarni muqobil hal etish, konflikt.

---

**REQUIREMENTS FOR FAMILY MEDIATORS IN FOREIGN  
COUNTRIES AND THE EXPERIENCE OF A LAWYER IN RESOLVING  
FAMILY DISPUTES AS A MEDIATOR**

**Kudrat Matkarimov Kalandarovich,**

Acting Associate professor of the Department of Judicial, law enforcement  
agencies and advocacy, Tashkent State University of Law, (DSc)

E-mail: matkarimovkudrat79@gmail.com

**Khalikov Shohrux Ikromali ugli,**

Master of Tashkent State University of Law,

E-mail: shohrux.lawyer\_xoliqov@mail.ru

**ANNOTATION**

*The article discusses the foreign experience of conducting the mediation procedure in resolving family disputes and conflicts, analyzes the requirements that apply to mediators in foreign countries. It is emphasized that the introduction of mediation is a natural trend of the present time, a way to resolve conflicts in the family sphere, allowing you to get the result that suits the parties to the dispute the most. The settlement of family conflicts is a responsible task, therefore, in most foreign countries, special requirements are imposed on the mediator regarding professional qualifications, additional special education on the profile of family mediation, age, practical experience. However, in addition to the requirements for professional skills and skills of the mediator, there is also a list of requirements for the moral qualities of the mediator. It is concluded that in most developed countries of the world, activities. The mediator is regulated by law and is carried out both on a professional and non-professional basis, however, in a number of countries, the legislation of subjects may establish additional requirements for the mediator. At the same time, as in Uzbekistan, professional mediators are most often persons with higher education or who have received additional professional education on the application of the mediation procedure..*

**Keywords:** Mediation, family dispute, family mediation, mediator, conflict, alternative resolution of legal disputes and conflicts.

## **ТРЕБОВАНИЯ К СЕМЕЙНЫМ МЕДИАТОРАМ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ И ОПЫТ ЮРИСТА В РАЗРЕШЕНИИ СЕМЕЙНЫХ СПОРОВ В КАЧЕСТВЕ МЕДИАТОРА**

**Кудрат Маткаримов Қаландарович,**

Ю.ф.д., и.о. доцент кафедры суд, правоохранительные органы и  
адвокатуры, Ташкентского государственного юридического университета  
E-mail: matkarimovkudrat79@gmail.com

**Халиков Шохрух Икромали угли,**

Магистр Ташкентского государственного юридического университета,  
E-mail: shohrux.lawyer\_xoliqov@mail.ru

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается зарубежный опыт проведения процедуры медиации при разрешении семейных споров и конфликтов, анализируются требования, которые предъявляются к медиаторам в зарубежных странах. Подчеркивается, что внедрение медиации является закономерной тенденцией настоящего времени, способом разрешения конфликтов в семейной сфере, позволяющим получить результат, который в наибольшей степени устраивает участников спора. Урегулирование семейных конфликтов является ответственной задачей, поэтому в большинстве зарубежных стран к медиатору предъявляются особые требования, касающиеся профессиональной квалификации, дополнительного специального обучения по профилю семейной медиации, возраста, наличие практического опыта. Однако помимо требований к профессиональным умениям и навыкам медиатора существует еще и список требований к нравственным качествам посредника. Делается вывод, что в большинстве развитых стран мира деятельность медиатора регулируется законодательно и осуществляется как на профессиональной, так и не на профессиональной основе, вместе с тем в ряде стран законодательство субъектов может устанавливать дополнительные требования к медиатору. При этом, как и в Узбекистане, профессиональными медиаторами чаще всего являются лица, имеющие высшее образование или получившие дополнительное профессиональное образование по вопросам применения процедуры медиации*

**Ключевые слова:** Медиация, семейный спор, семейная медиация, медиатор, конфликт, альтернативное разрешение правовых споров и конфликтов.

## **KIRISH**

Bugungi kunda quyidagi tendentsiyani qayd etish mumkin: mediatsiya o'tgan asrning oxiridan beri qo'llanilgan ko'plab davlatlarda sud jarayoni boshlanishidan oldin mediatsiya xizmatlaridan foydalanish majburiydir. Xorijiy mamlakatlarda oilaviy huquq doirasiga kiruvchi nizolarni hal qilishda sudga murojaat qilish o'rniga uchinchi shaxslar – mediatorlarga murojaat qilish an'anasi bor. Mediator – “mustaqil shaxs, taraflar tomonidan nizoning mohiyati bo'yicha qaror ishlab chiqishda yordam berish uchun nizoni hal qilishda vositachi sifatida jalb qilingan mustaqil shaxslar” [Ошибка! Источник ссылки не найден.]

Nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki boshqa mamlakatlarda ham sud amaliyotiga asoslanib, shuni ta'kidlash kerakki, voyaga etmaganlar haqidagi nizo hal qilinadigan har qanday oilaviy nizo, agar nizoda ota-onalar o'rtasida kelishuvga erishilsa, yanada samaraliroq hal qilinadi. Amalda, oilaviy nizolarni hal qilishda ota-onalar ko'pincha bolaning huquqlarini e'tiborsiz qoldiradilar. Bolalar manfaatlarini himoya qilish uchun mediatorlarni jalb qilish kerak. Oilaviy nizolarga nisbatan qo'llaniladigan mediatsiya oilaviy mediatsiya deb ataladi. [1].

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mazkur maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazkur maqolada mediatsiya – oilaviy nizolarini hal etishning muqobil usuli va uning bugungi kundagi xususiyatlari, xorij tajribalari hamda mediatorlarga qo'yilgan talablar haqida fikrlar tahlil qilindi. Xorij davlatlarining «Mediatsiya to'g'risida»gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasining «Mediatsiya to'g'risida»gi 2018-yil 03-iyul O'RQ-482-O'RQ metodologik manba bo'lib belgilandi. Shu bilan birga Xudoykina T.V, Sayfetdinova A.F, Krsova V.G., Kolyasnikova Yu.S, Gaydayenko-Sher N.I va yuridik fanlar nomzodi Ponasyuk, Andrey Mixaylovich kabi huquqshunos olimlarning ilmiy ishlari hamda tajribalaridan keng foydalanildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Oilaviy nizolarni hal qilish juda mas'uliyatli vazifadir, shuning uchun ham ayrim xorijiy mamlakatlarda mediatorga alohida talablar qo'yiladi.

Germaniyada 2012-yil 21-iyuldagi «Mediatsiyani qo'llab-quvvatlash va nizolarni suddan tashqari hal etishning boshqa tartiblari to'g'risida»gi qonunga muvofiq mediator mediatsiya asoslari va uning tartib-qoidalari bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lishi, mediatsiya muzokaralarni amalga oshirish va muloqot qilish

texnikasiga hamda nizolarni boshqarish, mediatsiya huquqi(magistratura), amaliy mashg'ulotlar va rolli o'yinlar texnikasi sohalarda bilimga ega bo'lish lozim [2].

Oilaviy munosabatlarda nizolarni hal etishning muqobil usullarini ishlab chiqish va joriy etishning hal qiluvchi omillaridan biri oila markazlari advokatlarining ushbu usullarga munosabati, ularning oiladagi konfliktlarni boshqarish tizimini yaratishdagi ishtiroki hisoblanadi. Germaniya advokatlar kasb etikasiga asosan advokatlar qonunni haqiqiy vaziyatlarda qo'llash uchun o'qitilishi tushuntirilgan. Advokatlar faoliyat sohasiga qarab mavjud vaziyatlarda professional mediatorlik faoliyatini ham amalga oshiradi. Ular nizo tomonlari va oila a'zolari, hech kimni ortda qoldirmasdan, barcha ishtirokchilarga mos keladigan yechim topishga mas'ul hisoblanadi. Advokat mediator sifatida sud muhokamasidan farqli o'laroq, uchinchi shaxs tomonlarningning shaxsiy manfaatlarini hal qilmaydi.

Buyuk Britaniyada mediatsiyadan foydalanishni tartibga soluvchi yagona qonunchilik hujjati mavjud emas, shuning uchun mediatsiya asosan xususiy tashabbuslar, sudyalarning hamjamiyatining faol ishtiroki bilan mediatsiyani rivojlantirishga qaratilganligi tufayli rivojlanmoqda. Asosan, mediatsiya instituti sud amaliyoti yordamida shakllanadi. Mediatsiya to'g'risidagi normalar alohida hujjatlarda, oilaviy protsessual qonun hujjatlarida, sudlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida, jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning vakolatlari to'g'risidagi qonunda va boshqalarda o'z ifodasini topgan. Quyidagi xususiyatlarni ta'kidlash lozimki, mediatsiya doimo ixtiyoriy jarayondir. Ba'zi hollarda mediatsiya uchun murojaat qilish tizimi mavjud. Oilaviy nizoni hal etish bo'yicha mediatsiya tartib-taomilida ishtirok etishdan bosh tortgan taqdirda, tomonlarga nisbatan jazo choralari qo'llanilmaydi. Turli tashkilotlar mediatsiya xizmatlarini bepul taqdim etadi, shu jumladan sud mediatsiya dasturlari doirasida ham. Shu bilan birga, mediatsiya xarajatlari sud jarayonidagi kabi bir xil shartlar va printsip bo'yicha bepul yuridik yordam ko'rsatishda qoplanishi mumkin. Angliya va Uelsda sudyalarning mediator sifatida qatnashishi mumkin emas. Biroq, sudlar mediator sifatida harakat qilishlari mumkin. Birlashgan Qirollikda mediatsiyaning maxfiyligi asosan tomonlar va mediator o'rtasidagi kelishuv bilan tartibga solinadi va amalga oshiriladi. [3]

Advokatlar ham to'g'ridan to'g'ri oilaviy nizolarda mediatorlik faoliyatini olib boorish imkoniyatiga egas emas. Keng doiradagi milliy va xalqaro oilaviy huquq assotsiatsiyalarida, shu jumladan Xalqaro oilaviy huquqshunoslar akademiyasi va Xalqaro hamkorlikdagi professionallar akademiyasida vakillik qiladigan advokatlik firmalariga a'zo advokatlar oilaviy nizolarni hal qilishda tomonlar ixtiyori bilan

mediativ kelishuv tuzish huquqlari berilgan. Agarda advokat tomonlardan birining hinoyachisi bo'lgan holda mediatorlik vazifasini bajara olmaydi.

Buyuk Britaniyada Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan Fuqarolik mediatsiya bo'yicha qo'llanmasiga asosan mediatorlar va advokatlarning oila, biznes sohasidagi nizolarda mediatsiyani qo'llash jarayonida nizoni hal qilishning turli variantlarini ko'rib chiqishga yordam beradi, lekin ular maslahat bermaydilar. Ularning vazifasi taraflar va boshqa tomon o'rtasidagi suhbatni osonlashtirishdan iboratligi nazarda tutilgan.

Avstriyada, Germaniya kabi, mediator ishiga qo'yiladigan talablarni taqdim etishning aniq tizimi mavjud. Avvalo, talablarning mavjudligi mediatorning Federal Adliya vazirligi reestriga kiritilishi istagiga bog'liq. Agar shaxs reestrda ro'yxatdan o'tmasdan mediatsiya xizmati ko'rsatish niyatida bo'lsa, u holda bu shaxsga hech qanday talab qo'yilmaydi va u mediatsiya bilan erkin shug'ullanishi mumkin. Agar biror kishi ushbu reestrga kirishni xohlasa, u rasmiy yozma ariza bilan murojaat qilishi kerak. 2004 yil 1 maydagi «Fuqarolik ishlari bo'yicha mediatsiya to'g'risida» Federal qonunining talablariga muvofiq, mediator 28 yoshdan katta bo'lishi, kasbiy malaka va fuqarolik javobgarligi sug'urtasiga ega bo'lishi kerak. Yuqoridagi talablar bajarilgan taqdirda, shaxs Federal Adliya vaziri tomonidan reestriga kiritiladi.[4]

Shveysariyada ham vaziyat taxminan bir xil. Akkreditatsiyadan o'tish uchun vositachiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: oliy yuridik yoki gumanitar ma'lumotga ega bo'lishi; treningdan o'tish. Bunday treningning davomiyligi 18 oy ichida kamida 200 soat bo'lishi kerak. Ushbu soatlarning 160 soati boshlang'ich ta'limga, uning bir qismi tanlangan mutaxassislikka (bu holda oilaviy huquq mediatsiyasi) va 40 soati tajribali mediator nazorati ostidagi amaliyotga bag'ishlangan; 3) amaliy tajribaning mavjudligi. Amaliy tajriba talablari asosiy tayyorgarlikni tugatgandan so'ng oilalar va juftliklar bilan kamida ikki yil ishlashni o'z ichiga oladi [4].

Agar mediator oliy ma'lumotga ega bo'lmasa, akkreditatsiyadan o'tish uchun mediator ijtimoiy ish sohasida umumiy yoki o'rta kasb-hunar ma'lumoti va mediatsiya sohasida katta amaliy tajribaga ega ekanligini tasdiqlashi kifoya qiladi. Katta amaliy tajriba deganda kamida yigirmata ishda ishtirok etish tushuniladi, ularning har biri ikki yildan besh yilgacha bo'lgan muddatda kamida uchta sessiya tayinlangan. Shu bilan birga, ushbu muddatdan kamida beshta ish mediatsiya bitimi imzolanishi bilan yakunlanishi, qolgan beshta ish bo'yicha esa nazorat o'rnatilishi shart.

Mediator oilaviy nizoni hal qilishda insoniy munosabatlarning o'zaro ta'siri va rivojlanishi dinamikasiga va psixologik jihatda tomonlarni yarashtirishga harakat qiladi. Konfliktga tomonlarning vaziyatlaridan kelib chiqib baholaydi va ularni bir markazga kelishi uchun imkoniyatni yaratadi. Nafaqat oilaviy nizolarda balkim boshqa nizolarda ham advokat mediator sifatidagi vazifasida konfliktga mavhum, obyektiv, shaxssiz yondashuvni ishlab chiqadi. Bu advokatga sud va arbitrajda yaxshi imkoniyatni ta'minlaydi.

Advokatlar odatda his-tuyg'ular bilan ishlashga o'rgatilmaganligi sababli, ular uchun mediatorlik haqida gap bo'lmaydi. Bundan tashqari, ularda konfliktga nisbatan egosentrik, optimistik, o'ziga haddan tashqari ishonchli qarash, mag'lubiyatdan qo'rqish paydo bo'ladi. Ma'lumki, sudda bir tomon g'alaba qozonadi, ikkinchisi yutqazadi. Shuning uchun hamkorlikka asoslangan integrativ muzokaralar va vositachilikdan rad etish holatlari uchrab turadi. Shunday bo'lsa-da advokatlar mediator sifatida oilaviy masalalarini samarali va tezkor hal qilish imkonini beruvchi muzokora, mediatsiya kabi nizolarni sudga qadar hal qilish usullarini taklif qilmoqda.

Eng rivojlangan talablar tizimi Kanadaga tegishli. Ushbu mamlakatda mediatsiya 1985-yilda tashkil etilgan Kvebek oilaviy mediatorlar assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Uning tarkibiga 295 nafar mutaxassis: advokatlar, notariuslar, ijtimoiy xodimlar, oilaviy mediatsiya bo'yicha qo'shimcha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan pedagogik psixologlar kiradi. Mediatorlarning kasbiy tayyorgarligini tan olish Kvebek Fuqarolik protsessual kodeksining bir qismi bo'lgan Oilaviy vositachilik qoidalariga bo'ysunadi. Akkreditatsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi: nomzod Nizomda belgilangan muddatda yakuniy akkreditatsiya uchun barcha talablarni bajargan taqdirda Uyushma tomonidan taqdim etiladigan vaqtinchalik akkreditatsiya va kasbiy uyushma tomonidan taqdim etiladigan yakuniy akkreditatsiya a'zosi barcha shartlarga javob bergan nomzod qabul qilinadi [4].

Oilaviy mediatorlik reglamentiga ko'ra, mediatorlar vaqtinchalik akkreditatsiyadan o'tishlari va quyidagi mezonlarga javob berish shart:

1) Kvebek advokatlar assotsiatsiyasi, Kvebek notariuslar palatasi, kasbiy va ta'lim bo'yicha maslahatchilar professional gildiyasi, Kvebek psixologlari gildiyasi, Kvebek ijtimoiy ishchilari va oilaviy terapevtlari professional uyushmasi, kasbiy uyushma a'zosi bo'lishi lozim. Pedagogik psixologlar yoki mudofaa markazi bo'lgan muassasada ishlash to'g'risidagi qonun ma'nosida bolalik va o'smirlilik davrida sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, shuningdek, yuqoridagi kasbiy birlashmalardan kamida bittasining talablariga javob berishi;



2) Uyushmaga a'zo bo'lish to'g'risidagi arizadan oldingi besh yil ichida qabul qilish oilaviy mediatsiya bo'yicha 60 soat davom etadigan ixtisoslashtirilgan o'quv kursi;

3) Soha mutaxassislik bo'yicha nomzod a'zo bo'lgan kasbiy uyushmada kamida uch yillik amaliy ish stajiga ega bo'lishi yoki advokatlik faoliyati bilan kamida 1 yil amaliy ish stajiga egaligi;

4) Akkreditatsiyadan o'tgandan keyin ikki yil mobaynida Assotsiatsiya tomonidan akkreditatsiya qilingan mediator nazorati ostida kamida 10 ta oilaviy mediatsiya o'tkazish majburiyatini oladi. Mediatorlardan kamida 40 ta oilaviy mediatsiyani o'tkazish tajribasiga ega bo'lishi talab qilinadi. Xuddi shu muddatda nomzod kamida 45 soat oilaviy mediatsiya bo'yicha malaka oshirish kursidan o'tishi kerak. Oila mediatorlarini tayyorlashning asosiy kursi rejasiga quyidagilar kiradi:

Oilaviy mediatsiyaning iqtisodiy, huquqiy va soliq jihatlarini bo'yicha 15 soatlik mashg'ulotlar va mediatsiya tartibi bo'yicha 24 soat mashg'ulotlar advokat tomonidan o'tkazilishi kerak;

Ijtimoiy ishchi tomonidan psixologik va psixo-ijtimoiy jihatlar bo'yicha 15 soatlik mashg'ulotlar;

Oilaviy zo'ravonlik bo'yicha 6 soat darslar. Bunday mashg'ulotlar o'tkazilishi mediatorlarga talab sifatida keltirilgan.

Kvebek oilaviy mediatorlar assotsiatsiyasi mediatorlarga daslab advokatlar tomonidan o'quv mashg'ulotlar olib borishini aniq belgilab bergan. Chunki advokatlar mediator sifatida ham taraflarni ish jarayonida hatto ijro bosqichlarida ham yarashtirish imkoniyatidan foydalanish huquq borligini nazarda tutgan. Kanada advokatlar assotsiatsiyasida advokatlarni ro'yhatga o'ish bilan birgan mediatorlik imtixonlaridan ham o'tkazadi. Bu bilan advokatlar professional mediator sifatida ham faoliyat olib bo'rish mumkinligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunida Mediatorning faoliyati professional yoki noprofessional asosda amalga oshirilishi mumkinligi hamda ularga qo'yilgan talablar belgilangan. Unga ko'ra Professional asosdagi mediator faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tgan, shuningdek Professional mediatorlar reyestriga kiritilgan shaxs amalga oshirishi mumkin.

Noprofessional asosdagi mediator faoliyatini yigirma besh yoshga to'lgan va mediator vazifalarini bajarishga rozilik bergan shaxs amalga oshirishi mumkin.

Noprofessional asosdagi mediator faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs ham O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo‘yicha maxsus o‘quv kursidan o‘tishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining «Mediatsiya to‘g‘risida»gi qonunida mediatorlik faoliyati bilan shug‘ulanish taqiqlangan holatlar ham nazarda tutilgan. davlat vazifalarini bajarish uchun vakolat berilgan yoki unga tenglashtirilgan shaxs, (bundan notariuslar mustasno), muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi to‘g‘risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo‘lgan shaxs, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs va o‘ziga nisbatan jinoiy ta’qib amalga oshirilayotgan shaxslar mediatorli faoliyatini amalga oshira olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasi 3-qismning 3-bandiga asosan patent vakili va mediator sifatidagi faoliyat shug‘ulanishi mumkinligi belgilanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida ham advokatlar mediator sifatida faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga egaligi va mamalaka talablari to‘g‘ri kelishligi qonunlar bilan tartibga solingan.

Afsuski, hamma mamlakatlarda ham vositachilarga qo‘yiladigan aniq talablar tizimi mavjud emas. Buyuk Britaniyada hozirda mediatorlik kasbiga qabul qilishning yagona tartibi mavjud emas. Mediatsiya maxsus tayyorgarlik yoki biron bir asosiy kasbiy ta’limni talab qilmaydi. Mediatorlarni akkreditatsiya qilish va attestatsiyadan o‘tkazish masalalari xususiy tashkilotlarga yuklangan.

Shu munosabat bilan, Angliya va Uelsdagi fuqarolik va tijorat mediatsiya sohasidagi eng yirik o‘zini o‘zi tartibga soluvchi organ bo‘lgan Fuqarolik vositachiligi kengashi mediatorlarni sertifikatlashda eng talabchan hisoblanadi. Ushbu tashkilotdagi akkreditatsiya tizimi quyidagilarni belgilaydi:

mediator huquq sohasida professional malakaga ega bo‘lishi yoki fuqarolik yoki tijorat mediatsiyasi sohasida ishlash uchun qonunchilikni etarli darajada bilishini namoyish qilishi kerak;

mediator xulq-atvor qoidalariga rioya qilishi kerak;

mediatorlik tartib-taomillarida ishtirok etish tajribasiga ega bo‘lsa (yillik mediatsiyalar soni belgilanadi), mediator har yili o‘z malakasini oshirishi shart.

AQShda mediatorga qo‘yiladigan talablarning yagona ro‘yxati ham yo‘q. Mediator o‘z xizmatlarini taqdim etayotgan davlatga qarab, unga turli xil talablar qo‘yilishi mumkin, ularni 3 toifaga bo‘lish mumkin:

**Trening.** Mediator rasmiy hujjatga ega bo'lishi kerak, yigirma dan qirq soatgacha davom etadigan maxsus mashg'ulotlarda qatnashgan bo'lishi lozim;

**Tajriba.** Bu toifa mediatorning ustoz nazorati ostida muayyan miqdordagi ishlarda ishtirok etishi kerakligini anglatadi. Ishlar soniga bo'lgan talab shtatdan shtatga farq qiladi. Ba'zi shtatlarda protsessda ishtirok etish shart emas, mediator sifatida litsenziyaga ega bo'lish kifoya.

**Ta'lim.** Ba'zi shtatlarda huquqshunoslik darajasi etarli. Pensilvaniya kabi boshqa mamlakatlarda, huquqshunoslik darajasiga qo'shimcha ravishda, mediator kamida quyidagi sohalarda bakalavr darajasiga ega bo'lishi kerak: psixiatriya, psixologiya, psixologik maslahat va oilaviy terapiya yoki sotsiologiya kabi ma'lumotlarga ega bo'lishi nazarda tutilgan [6].

Mediatorning ishiga qo'yiladigan turli talablarning yorqin misoli Texas va Minnesota shtatlarining qonunlaridir. Texas mediatorning o'tishini ta'minlaydi. Kamida qirq soatlik sertifikatlangan o'quv dasturi. Minnesota ham xuddi shunday talablarga ega, ammo ular faqat bolalarni vasiylik qilish bo'yicha advokat-mediatorlarga nisbatan qo'llaniladi. [7]

Biroq mediatorning malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, mediatorning axloqiy fazilatlariga ham qo'yiladigan talablar ro'yxati mavjud. Mediatorlar uchun Yevropa odob-axloq kodeksi mavjud bo'lib, u ko'pincha mediatorga qo'yiladigan axloqiy talablarni aniqlab beradi. Ushbu Kodeksga muvofiq, mediator oilaviy nizolarni hal etishda quyidagilarga majburdir:

1) mustaqil bo'lish. Mediator o'z mustaqilligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan yoki manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarda mediatsiya faoliyatini amalga oshirishga haqli emas. Bunday holatlarga tomonlardan biri bilan shaxsiy yoki ish munosabatlari kiradi; bevosita yoki bilvosita, moliyaviy yoki boshqa manfaatdorlik, vositachilik natijalari;

2) har qanday tarafga nisbatan xolis va xolis harakat qilish, "betaraflik"ni saqlash;

3) halol(adolatli) bo'lish. Mediator, agar u yaqinlashib kelayotgan kelishuvni amalga oshirish mumkin emas yoki noqonuniy deb hisoblasa, o'z faoliyatini to'xtatishi shart;

4) hurmatda bo'lishi. mediator odamni u kabi qabul qilishga harakat qilishi kerak va unga o'z fikrini qadrlashini va hurmat qilishini ko'rsatish lozim;

5) xushmuomalalikni saqlash. Har holda, haqorat yoki boshqa har qanday holatda aloqaning zo'ravon shakllaridan qochish;

6) nizo taraflarini qo'llab-quvvatlash;

7) mediatsiya jarayonida ixtiyoriy ravishda ishtirok etish;

8) maxfiylikni saqlash. Mediator shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmasligi kerak [8]

Advokatning mediator rol ham xorij davlatlari tomonidan tartibga solingan. Advokatlar bir vaqtning o'zida mediatorlik faoliyati bilan ham shug'ullanishi mumkin. Advokat-mediatorlarga ham talablar va majburiyatlar belgilab qo'yilgan. Mediator rolini bajarish advokatdan tegishli ixtisoslikka va yangi kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi. Advokat tomonidan "Mediator ishtirokida nizolarni hal qilishning muqobil tartibi (mediatsiya tartibi) to'g'risida" Federal qonunida nazarda tutilgan professional mediatorlar uchun malaka oshirish kursini tamomlash advokatning professional mediatorlar malakasiga ega bo'lishining minimal zarur kafolati bo'ladi. Mediator, uning darajasi huquqiy nizo taraflarida shubha tug'dirmasligi kerak. Advokat tegishli maxsus tayyorgarlikdan o'tgunga qadar advokatlikni mediator sifatida amalga oshirish va reklama qilish qabul qilinishi mumkin emas.

Agar advokat mediator sifatida huquqiy nizoni hal etishda yordam bersa, mediatsiyani tashkil etish va o'tkazishga oid har qanday ma'lumotlar advokat siri bo'ladi va faqat huquqiy nizoning barcha taraflari (ko'rsatuvchilar) birgalikda advokatni ozod qilishga haqli bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasi yuridik fanlar nomzodi Ponasyuk, Andrey Mixaylovichlar o'zlarining "Huquqiy nizolarni mediatsiya orqali hal etishda advokatning ishtiroki" ilmiy tadqiqotlari natijasiga ko'ra "Rossiya Federatsiyasida advokatura va advokatura to'g'risida"gi Federal qonunning 6-moddasida Advokatning mediator sifatida mediatsiya tartib-taomilida ishtirok etishidagi bo'liqlarni bartaraf qilish maqsadida "Vositachi ishtirokida nizolarni hal qilishning muqobil tartibi to'g'risida" Federal qonunining qoidalari (protsedurasi) belgilab qo'yilishini tadqiqot natijalarida isbotlab berilgan. Unga muvofiq advokat bir ish bo'yicha manfaatlari bir-biriga zid bo'lgan bir necha tarafning maslahatchisi, himoyachisi yoki vakili bo'lishga haqli emas, lekin mediator sifatida ishtirok etuvchi tomonlarning yarashuviga ko'maklashishi tadqiqot natijasiga ko'ra mumkinligi ko'rsatilgan.[8]

Advokat tomonidan huquqiy nizolarni hal etishda mediatorning roliga faqat advokatlik faoliyati doirasida yo'l qo'yiladi. Taraflarga nizoni hal etish bo'yicha o'zaro maqbul yoki o'zaro manfaatli kelishuvga erishishda yordam berish orqali advokat-mediator bir vaqtning o'zida tomonlarning har birining manfaatlarini ko'zlab ish yuritadi, lekin hech qanday tarzda bir tomonning manfaatlarini ko'zlab, nizoni hal etishda manfaatdor bo'lmaydi. Ushbu shaklda advokatlikni amalga oshirishda

XX asrning so'nggi choragiga kelib ko'p asrlik qo'shiqchilik an'analari yangi shakllarda bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotida qayta jonlandi, shuningdek, navqiron musiqiy estrada sohasining asosiy janriga ham aylanib ulgurdi. O'zbek estrada qo'shiqchiligining poydevori M.Burhonov, I.Akbarov, M.Leviyev, A.Berlin, iste'dodli xonandalar, jumladan B.Zokirov, L.Zokirova, K.Jalilova, R.Sharipova, E.O'rozboyevlar ijro dasturida o'zbek kompozitorlari yaratgan qo'shiqlar o'rin olgan edi<sup>7</sup>.

O'zbek estrada qo'shiqlari konsertlar, kino va sahnaviy asarlar orqali ommalashdi, bugungi kunda ham estrada xonandalari va guruhlar tomonidan "kaverversiya"<sup>8</sup> uslubida "takrorlanayotgan" o'sha davr qo'shiqlari ( "Ra'no", "Dilbarim" ) aytilmoqda.

Keksa avlod kompozitorlari ijodida shakllangan muayyan badiiy to'qimalar o'rta avlod kompozitorlari tomonidan vorisona o'zlashtirilib, ijodiy davom ettirilmoqda. Bunga jumladan R.Abdullayevning M.Mirzo she'riga bastalangan "Jannat maskanim" qo'shig'i misol bo'lishi mumkin. Bolalar uchun ham estrada uslubida o'zbek kompozitorlari barakali ijod qilmoqdalar. Ta'kid joizki, bolalar estrada musiqasi sohasida milliy ohanglarni o'zga badiiy unsurlar bilan hamohang etish masalasi anchagina ijobiy natijalar bermoqda. Bu borada N. Norxo'jayev, A. Mansurov, D. Omonullayeva, A. Rasulov, M. Otajanov, X. Hasanovalar faol ijodiy mehnat qilmoqdalar.

Xususan, N. Norho'jayevning "Salom, qo'shiq bayrami", "Kapalak va kamalak", D. Omanullayevaning "Turkiston farzandlarimiz", "Humo qushim", M. Otajanovning "Bolalarning ko'zlari", "Onajon O'zbekiston", X. Hasanovaning

<sup>7</sup> Mutaxassislar orasida musiqiy estrada janrlarini "shahar folklori"ning tarkibiy qismi sifatida qarashlar ham bor. (98bet)

<sup>8</sup> Kaver-versiya-jaz musiqasi istilohidan olingan bo'lib, rok yo'nalishidagi xonanda va guruhlar tomonidan mavjud asarni yangi aranjirovka asosida talqin etishni anglatadi

“Turnalar”, “Sog‘lom avlod”, G.Qo‘chqarovaning “O‘zim aylanay”, “Bahor” kabi qo‘shiqlarida bolalar folklor ohanglariga xos jihatlar estrada musiqasining ayrim uslublari “pop-folk”, “pop-rok” bilan mohirona uyg‘unlashtirilgan. Bunday uslubdagi qo‘shiqlar minglab o‘zbek bolalari tomonidan sevib tinglanadi va kuylanadi. Misol sifatida N.Norxujayevning «Shaftolimga savolim» qo‘shig‘i e‘tiborimizni o‘ziga tortadi. Kompozitor P.Mo‘min she‘riga kuy bastalash jarayenida xalqimizning mavsumiy marosim aytim ohanglaridan foydalanagan. Bolalar folklori tarkibida yetib kelgan “Boichechak”, “Chittigul”, “Laylak keldi”, “Chamandagul” ohanglari tashkil etadi. Muhimi muallif bu kabi ohanglarni jaz musiqasining “sving” uslubi bilan hamohang eta olganligidadir. Bu holat nafaqat jo‘rnavoza, balki kuyning ritmik tuzilmasida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

A.Mansurovning “Oq terakmi, ko‘k terak?” qo‘shig‘iga ham xalqimiz mavsumiy marosim o‘yin aytimi asos bo‘lgan, “jaz-rok” uslubi bilan uyg‘unlashtirgan holda qayta ishlangan. Natijada kompozitor ijodaning mahsuli bo‘lgan original qo‘shiq yuzaga kelgan. Bundan farqli o‘laroq A.Mansurovning “Bu chamanzor kimniki” ko‘shig‘ida esa “rep” uslubiga xos badiiy xususiyatlar milliy ohanglar bilan bog‘langan, bugungi kunda minglab tinglovchilar, o‘zbek bolalar va o‘smirlari qalbidan mustaqkam joy olmoqda. A.Mansurovning X.Qayumovning she‘riga bastalagan “Oq terakmi, ko‘k terak?” qo‘shig‘i rivojlangan band-naqoratli shaklda namoyon bo‘ladi, bunda ayniqsa jonli va raqsboq ritmik harakatlar muhim o‘rin tutadi. Kompozitorning ommaga taqdim etayotgan qo‘shiqlarning barchasini birdek ijobiy baholab bo‘lmaydi. Odatda bu kabi qo‘shiqlar yuksak ma‘nodagi chinakam milliylikdan uzoq.

O‘zbek estradasi qo‘shiqchiligi janrlariga e‘tibor qaratisa, pop yo‘nalishi bilan birga rok yo‘nalishining ham san‘atimiz va madaniyatimizga ta‘sir o‘tkazib kelayotganligi ko‘zga tashlanadi. Rok – estrada musiqamizda G‘arbdan kirib kelgan va kirib kelayotgan yo‘nalishlar orasida ikkinchi o‘rinda turadi, deyish mumkin. Aslida Rok (rok) atamasi ingliz tilidan olingan bo‘lib, qimirlash, titrash kabi ma‘nolarni anglatadi. Rok 1920-1930 yillarda vujudga kelgan negrlar raqs janri<sup>9</sup>.

Kompozitorlarning “musiqiy estrada” uslubi asosida yirik asarlarini ijod etish tajribalari yaqin o‘tmishda ham bo‘lgan. A. Mansurov, V Saparov A. Nabiyev, S.Absalyamov kabi kompozitorlarimiz asarlarini keltirish mumkin. Xususan, S.Absalyamovning sintezator uchun turkum pyessalari, A.Ergashevning qator bolalar sahnaviy asarlariga musiqasi, S.Absalayamovning rok-opera ustida ilk urinishlari, V.Saparovning cholg‘u guruhlar uchun ko‘plab asarlari fikrimiz dalil bo‘lishi

<sup>9</sup> Saodat Muzaffarova, “O‘zbek milliy estrada san‘ati taraqqiyotida janr masalalari” T., 2019



mumkin. Bu yoʻnalishda ham estrada unsurlarini milliylik bilan uygʻunlashtirish masalasi bir qadar ijobiy yechimga kelayotganligini koʻramiz. Jumladan, A.Ergashevning bolalar uchun “Balli, uloqcha”, “Sehrli harflar oroli”, “Yarash-yarash” kabi sahnaviy asarlarga, shuningdek, “Sharif va Maʼrif”, “Tilla bola” nomli kinofilmlarga yozgan musiqasida estradaning badiiy unsurlarini milliy ohang-ritmlari bilan mushtarak etishga intilish sezilib turadi. Shuningdek, M.Mahmudov, N.Norxujayev, A.Hasanov, A.Ikromov, Q.Komilov kabi bastakorlarimiz ijodida ham shu kabi eʼtiborli holatlarni kuzatamiz. Kompozitorlik janri sifatida mustaqil badiiy ahamiyatga ega musiqiy namunalar yirik asarlarning gʻoyasini ifoda etish, masalan, obrazlar ifodasida uslubiy kontrast yaratish maqsadga muvofiq qoʻllaniladi. Bu kabi ijodiy vazifalar yangi hayotning rang-barang voqeligini turli uslublar qiyofasida ifoda etish bilan bogʻliq yuzaga kelganligidir. Bunga, masalan, A. Latifzodaning kamer orkestr uchun “Amerkalik Toshkentda” regtaymi, E.Soliqovning ikki royal, skripkachilar va violonchelchilar ansambllari hamda simfonik orkestr uchun “Konsert kuyi” kabi asarlari misol boʻla oladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, soʻnggi yillarda kompozitorlarimizning musiqiy estradaga murojaat etishlari sezilarli darajada ortdi. Bu jarayonda uslublar yangi jihatlar bilan boyidi, xususan kuy-ohang, shakllarda hamda garmonik izchilligida ayrim qirralar kashf etildi, didga yaqin boʻlgan asarlar ijod etila boshlandi. Bundan tashqari, musiqiy estrada bevosita aranjirovka bilan ham shugʻullanuvchi kompozitorlar zamonaviy “texnik” cholgʻular sintezator, musiqiy kompyuterdan foydalanish bilimlariga ega boʻlishdi. Oʻzbek kompozitorlarining bolalar musiqiy estrada sohasidagi faoliyatlari samarasi asosida, badiiy yetuk asarlar ijod etilishi uchun muhim zamin yaratilgan.

### **REFERENCES**

1. Davlat Mullajonov, Kompozitor va musiqiy estrada xususida (Oʻzbek musiqa ijodiyoti masalalari toʻplami ) T., 2002
2. Ulugʻbek Mirzahmedov, “Keling birga kuylaymiz” T., 2017
3. Saodat Muzaffarova, “Oʻzbek milliy estrada sanʼati taraqqiyotida janr masalalari” T., 2019;
4. T.Ismailov; “CHARACTERISTICS OF KHOREZM DOSTON ART” "Экономика и социум" №3(82) 2021;
5. T.Kh.Ismailov; “Musical currents and the formation of Russian classical music” “Вестник магистратуры” 2021. №5 (116);

## **ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI**

**Hakimova Muhabbat Alimovna**

BDTI, Xalqaro fakulteti, Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada badiiy asar tili va uslubi masalalari, badiiy nutq uslubi, asar tiliga munosabat, badiiy asarda syujetning yaratilishi, badiiy ifoda vositalari, asar tarkibidagi so'zlar hamda iboralar tasviri haqida bayon qilingan. Shu bilan bir qatorda, badiiy asar tilini ifodalashning o'ziga xos xususiyatlari hamda badiiy matnda tashqi tuyg'u va tasvirning ifodalanishi namoyon etilgan. Badiiy asar tili o'rganishda muallif nutqi va personajlar nutqining o'zaro aloqadorligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy muammolari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** badiiy asar tili, badiiy nutq uslubi, janr va uslub, syujet.

## **LANGUAGE OF LITERATURE AND ARTISTIC SPEECH IN LITERATURE**

**Hakimova Muhabbat Alimovna**

BDTI, International Faculty, Department of English

### **ABSTRACT**

*The article describes the language and style of a work of literature, the style of artistic speech, attitude to language, creation of a plot in a work of art, means of artistic expression, the description of words and phrases in a work. At the same time, the features of the expression of the language of a work, as well as the expression of external feelings and images in a literary text are shown. The study of the language of the work analyzes the interrelationships between the author's speech and the speech of the characters, the central problems of the style of artistic speech.*

**Keywords:** the language of fiction, the style of artistic speech, the genre and style, the plot

## **ЯЗЫК ЛИТЕРАТУРЫ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ РЕЧЬ В ЛИТЕРАТУРЕ**

**Хакимова Мухаббат Алимовна**

БДТИ, международный факультет, кафедра английского языка

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье описаны язык и стиль художественного произведения, стиль художественной речи, отношение к языку, создание сюжета в*

художественном произведении, средства художественного выражения, описание слов и фраз в произведении. При этом показаны особенности выражения языка художественного произведения, а также выражения внешних чувств и образов в художественном тексте. Изучение языка художественного произведения анализирует взаимосвязь авторской речи и речи персонажей, центральные проблемы стиля речи.

**Ключевые слова:** язык художественной литературы, стиль художественной речи, жанр и стиль, сюжет.

## **KIRISH**

Badiiy asar tiliga munosabat, uni badiiy-uslubiy jihatdan o'rganish uzoq tarixga ega. Biroq unga jiddiy e'tibor XX asrning 30-yillarida ancha kuchaydi. Jahon va rus adabiyotshinosligida, keyinroq o'zbek adabiyotshunosligida bajarilgan ko'pgina tadqiqotlar buni tasdiqlaydi. Akademik V.Vinogradov: "Badiiy adabiyot tilini tadqiq qilish tilshunoslik va adabiyotshunoslikka yaqin, biroq ularning har ikkisidan ajralib turuvchi maxsus filologik fanning tekshirish ob'yekti bo'lishi lozim",-deb ta'kidlaydi.<sup>10</sup>

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Umuman, adabiyotshunoslikda janr va uslub eng murakkab kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ana shu ma'noda badiiy asar tilining ta'sirchanligi, ohangdorligi masalasini o'rganish adabiyotshunoslik fanining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Badiiy asar tili bilan shug'ullanish XIX asrda boshlangan edi. Masalan, italyan tilshunosi Banedetto Krochening fikricha, estetik kategoriyalar individual bo'lganidek, badiiy asar tili bilan bog'liq lingvistik kategoriyalar ham individuallik kasb etadi. Chunki badiiy asar individual shaxs (yozuvchi, shoir yoki dramaturg)ning o'z nutqiy faoliyati mahsulidir. Badiiy asarda til o'zining insonlar orasida aloqa quroli vazifasini to'la saqlagan holda o'zining ekspressiv funksiyasini namoyon etadi. Badiiy til umumxalq tili va adabiy til bilan o'zaro munosabatda bo'lsa-da, farqli tomonlarga ham egadir.<sup>11</sup>

Til badiiy -adabiyotning birinchi elementi, obraz yaratishdagi asosiy quroli sanaladi. Badiiy asarda muallif nutqi va bayonchi nutqi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Personajlar nutqini tipiklashtirish va individuallashtirishning badiiy asarda o'ziga xos mezonlari va tamoyillari mavjud. Arxaizm, neologizm, dialektizm kabi leksik vositalar, omonim, sinonim, antonim va paronim singari so'zning shakl hamda

<sup>10</sup> Виноградов В. О языке художественной литературы.-М.: Гостехиздат, 1957.-С.4

<sup>11</sup> Yo'ldoshev B, Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. Samarqand. 2006. B.88.

ma'no munosabatiga ko'ra turlari badiiy asarlarda muhim uslubiy funkciyalarga egadir. Umuman olganda, adabiy til taraqqiyotida mashhur, talantli yozuvchilarning alohida o'rni bor. Badiiy asar tili va uslubi masalalari deb nomlangan tanlanma fanda ana shu muammolar xususida fikr yuritiladi, filolog talabalarga badiiy asar tili xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish ko'nikmalarini singdirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu tanlanma fan badiiy asarning g'oyaviy-estetik qiymatini belgilashda til vositalarining o'rni va ularni o'rganish usullari haqida talabalarga ixcham va asosli ma'lumotlar beradi.

Shubhasiz, badiiy asarda kompozitsiya u yoki bu ijodiy ishning ketma-ketligini, mantiqiy davomiyligini tartibga keltiruvchi asosiy belgilardan biridir. Kompozitsiya lotin tilidan olingan bo'lib, compositio ijod, asar degan ma'noga ega. Kompozitsia har qanday badiiy asarning asosiy qismlaridan biri bo'lib, ijod mahsuliga yagona birlik va umumiylikni taqdim etadi, uning elementlarini bir-biriga mos kelishini ta'minlaydi. Badiiy klassik adabiyotda eng ko'p tarqalgan kompozitsion tur bu rivojlanish (oshib borish, o'sish) kompozitsiasi hisoblanadi, u bir nechta murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladigan komponentlardan iboratdir.

Syujet ( fransuzcha - sujet predmet, mazmun ) - adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi voqealar sistemasi, aniq voqealar tizmasida namoyon bo'ladigan harakatlar tarixidir. Badiiy asar tarkibida so'zlar hamda iboralar sehrli va maftunkor raqqosalarga o'xshaydi, degan edi mashhur rus yozuvchisi M.Prishvin. So'zlar va iboralardagi ana shunday xususiyatni to'g'ri anglash va ularning estetik qiymatini haqqoniy izohlash maqsadida "Badiiy asar tili va uslubi masalalari" tanlanma fani oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakulteti o'quv dasturiga kiritilgan.<sup>12</sup>

Epistolary adabiyotda so'z va gaplar obraz, manzara yaratishning o'ziga xos libosi, materialidir. Talantli yozuvchilarning qalami sehri ostida so'zlar hayotdagi narsa va hodisalarni inson ongida aniq tiklaydigan, gavdalantiradigan vositadir. Badiiy nutq faqat ko'chma ma'nodagi so'zlarning qo'llanilishidan iborat matn bo'lmay, majoziy vositalar badiiy nutqning o'ziga xos yordamchi vositasidir. Badiiy asarda leksik va frazeologik vositalarning obrazlar xatti-harakatini, ularning boshqa obrazlar bilan munosabatini ko'rsatishdagi roli hisoblanadi .

Badiiy nutq muallif nutqi, personajlar nutqi va hikoyachi bayonidan iborat matndir. Muallif nutqi va personajlar nutqining o'zaro aloqadorligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy muammolaridan biridir.

<sup>12</sup>Doniyorov X, Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. Toshkent: Fan. 1988. B.71.

Ayniqsa, badiiy asar tilini o'rganishda va uni tahlil qilishda yozuvchining yoki maktub egasining so'zga munosabati, so'z tanlash, so'z qo'llashdagi mahorati muhim ekanligini, til vositalarini, so'zlarni ishlatishda uning o'ziga xos uslubi, mahorati namoyon bo'lishini akademik V.Vinogradov "Badiiy asar tilini tahlil qilish asar goyasi bilan bog'liq hissiy mazmuni ifoda etuvchi lingvistik vositalarni ko'rsatib berishdir",<sup>13</sup>—deyar ekan, u to'la haqlidir.

Badiiy asarda syujetning yaratilishini g'oyaviy mazmun boshqaradi, g'oyaviy mazmunning talabiga uyg'un holda xarakterlar namoyon bo'ladigan va hayot ziddiyatlarini umumlashtiradigan voqealar silsilasi kashf etiladi. Voqealar silsilasi o'z navbatida asar g'oyasini badiiylashtiradi, uni tiriltiradi.

Syujet obrazlarning o'zaro aloqalari, ular o'rtasidan qarama-qarshiliklar, simpatiyalar va antipatiyalar ekan, demak, u hayot ziddiyatlarini ham ixtiro qiladi, umumlashtiradi, kashf etadi. hayotiy ziddiyatlar asarga ifoda etilgan g'oyalar, tasvirlangan xarakterlar, kayfiyatlar kurashi tarzida ko'chadi va u konflikt deb yuritiladi.

Badiiy asar tili- obrazli til. Yozuvchi o'z asarida bir qancha yo'llar bilan tilning obrazligiga, tasiriyligiga erishadi. Shulardan biri maxsus badiiy tasviriy vositalarini, maxsus leksik pesurslarni, poetik figuralarni, so'z o'yinlarini mohirona qo'llash yo'li bilan asar tilining obrazliligiga erishishdir. Badiiy asar tilining poeyikligi, obrazliligi, tasviriyligi asar g'oyasini, shuningdek qahramon xarakterini jozibali qilib ochishga xizmat qiladi.<sup>14</sup>

Badiiy asar tili ko'plab o'xshatish va tasviriy vositalarga boy bo'ladi va his tuyg'uga to'la bo'ladi, ilmiy asar tili esa teskarisi. Unda aytilayotgan fikr jo'n, sodda, hech qanday odamni to'lqinlantiradigan so'z tasviri ishlatilmaydi. Badiiy asar tilining asosiy maqsadi go'zallik qonuniyatlariga muvofiq dunyoni rivojlantirish, badiiy asar muallifining ham, o'quvchining ham estetik ehtiyojlarini qondirish, badiiy tasvirlar yordamida o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatishdir. Umuman badiiy adabiyot tilining xususiyatlari bir necha omillar bilan belgilanadi. U keng metafora bilan ajralib turadi, deyarli barcha darajadagi til birliklarining obrazliligi, barcha turdagi sinonimlardan foydalanish, polememiya, so'z boyligining turli uslublari kuzatiladi. Badiiy uslubda (boshqa funktsional uslublarda bilan solishtirganda) so'zni idrok etish qonuniyatlari mavjud. So'zning ma'nosi ma'lum darajada muallifning maqsadga muvofiqligi, badiiy asarning janri va kompozitsion xususiyatlari bilan belgilanadi, birinchidan, ma'lum bir adabiy asar kontekstida lug'atlarda yozilmagan badiiy noaniqlikni qo'lga

<sup>13</sup> Виноградов В. О теории художественной речи. —М., 1971. —С. 105-211.

<sup>14</sup>Umurov H. Adabiyot qoidalari. Toshkent: O'qituvchi. 2002. B.5-8

kiritishi mumkin, ikkinchidan, uni saqlab qoladi ushbu asarning mafkuraviy va estetik tizimi bilan bog'liqligi biz tomonidan chiroyli yoki chirkin, ulug'vor yoki poydevor, fojiali yoki kulgili deb baholanadi.<sup>15</sup>

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Badiiy adabiyotda lingvistik vositalardan foydalanish oxir-oqibatda muallifning xohishiga, asarning mazmuniga, tasvir yaratilishiga va u orqali adresatga ta'sir ko'rsatishiga bog'liq. Yozuvchilar o'z asarlarida, avvalambor, ular fikrni, his-tuyg'ularni to'g'ri yetkazish, qahramonning ma'naviy olamini chinakam ochib berish, til va qiyofani real ravishda qayta tiklashdan kelib chiqadi. Nafaqat tilning me'yoriy dalillari, balki umumiy adabiy normalardan chetga chiqish ham muallifning niyatiga, badiiy haqiqatga intilishiga bog'liq. Adabiyotda til o'ziga xos mavqega ega, chunki bu qurilish materiali, quloq yoki ko'rish orqali seziladigan, ularsiz asar yaratib bo'lmaydi. Tilning eng yaxshi tomoni, uning kuchli qobiliyatlari va noyob go'zalligi badiiy adabiyot asarlarida mavjud bo'lib, bularning barchasiga tilning badiiy vositalari orqali erishiladi. Badiiy ifoda vositalari xilma-xil va ko'p sonlidir.

Tilning ekspressiv vositalariga nutqning stilistik shakllari yoki shunchaki nutq figuralari kiradi: anafora, antitez, birlashmaslik, gradatsiya, inversiya, ko'p foydalanish, parallelizm, ritorik savol, ritorik murojaat, sukut, ellips, epifora. Badiiy ifoda vositalariga ritm (she'r va nasr), qofiya, intonatsiya kiradi.

Odatda, badiiy nutq uslubi uchun odatda va umumiy tomonidan ta'qib qilinadigan alohida va tasodifiy narsalarga e'tibor beriladi. Badiiy olam - bu "yangidan yaratilgan dunyo", tasvirlangan voqelik ma'lum darajada muallifning fantastikasi, demakdir nutqning badiiy uslubida asosiy rol subyektiv lahzani o'ynaydi. Atrofdagi barcha voqelik muallifning tasavvurida aks etadi. Ammo badiiy matnda biz nafaqat yozuvchining dunyosini, balki bu dunyodagi yozuvchini ham ko'ramiz: uning afzal ko'rganlari, tanqidlari, hayratlari, radlari va boshqalar. Badiiy nutq uslubining hissiyotlilik va ekspressivligi, metaforik, mazmunli xilma-xilligi yozuvchining qo'llagan badiiy mahoratiga ham bog'liqdir.<sup>16</sup>

Badiiy matnda birinchi o'ringa tashqi tuyg'u va tasvirning ravshanligini namoyon qiladi. Ilmiy nutqda aniq belgilangan mavhum tushunchalar, gazeta va jurnalistik nutqda ijtimoiy umumlashtirilgan tushunchalar, badiiy nutqda aniqlangan ko'plab so'zlar aniq, hissiy ifodalarni qamrab oladi. Shunday qilib, uslublar bir-birini to'ldiradi. Badiiy nutq uchun, ayniqsa, she'riy, inversiya xarakterlidir, ya'ni so'zning

<sup>15</sup>Yo'ldoshev B, Bobojonov F, Pardayev Z. Badiiy asar tili masalalari. Navoiy: Navoiy DPI nashri. 2001. B.7-11.

<sup>16</sup>Yo'ldoshev B, Bobojonov F, Pardayev Z. Badiiy asar tili masalalari. Navoiy: Navoiy DPI nashri. 2001. B.7-11

semantik ma'nosini oshirish yoki butun iborani maxsus stilistik rang berish uchun jumladagi so'zlarning odatiy tartibini o'zgartirish xosdir. Badiiy nutqning sintaktik tuzilishi muallifning obrazli va hissiyotlari oqimini aks ettiradi, shuning uchun bu yerda har xil sintaktik tuzilmalarni topishingiz mumkin. Har bir muallif o'zlarining mafkuraviy va estetik vazifalarini amalga oshirish uchun lisoniy vositalarni taqdim etadi. Badiiy nutqda hatto to'g'ri ma'nosida qo'llangan so'z lug'atdagi ayni shu so'z bilan teng kelmasligini, u estetik jihatga ega bo'lgan yaxlit badiiy asar matni tarkibida boshqa so'zlar bilan faqat ma'no va grammatik jihatdangina emas, balki hissiy-estetik jihatdan ham munosabatga kirishish mumkinligini M.M.Yo'ldoshev to'g'ri ko'rsatib o'tadi.<sup>17</sup>

Biror asarni o'qish aniq va oson, boshqa uslublardan foydalanish faqat rang va haqiqiylikni yaratish uchun juda muhimdir. Ammo badiiy uslubda maqolalar yozayotganda, tilni diqqat bilan kuzatib borishingiz kerak. O'quvchining qahramonlarga yoki voqealarga munosabatini shakllantirish uchun muallif o'z his-tuyg'ularini yetkazadi. Bundan tashqari, uning munosabati ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin. Badiiy asar tilini ifodalashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu rang-tasvirdir. Yozuvchi rangni atmosferani namoyish qilish, qahramonlarni tavsiflash uchun ishlatadi. Ohanglar palitrasi asarga chuqurroq kirib borishga, muallif tomonidan tasvirlangan voqealar rivoji va qahramonni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Tilshunos S.Karimov badiiy asar tiliga e'tibor qaratib "Til tasviriy vositalarining paydo bo'lishi badiiy ijod namunalarini bir qadar go'zal, jarangdor, ta'sirli qilib bayon etish zaruriyatidan kelib chiqqan",<sup>18</sup> degan fikrni bejiz aytmagan. Badiiy olam - bu muallif ko'rgan dunyo: uning hayratlanishi, afzal ko'rish, rad etilishidir. Bu hissiyotga va kitob uslubining ko'p qirrali bo'lishiga olib keladi.

Badiiy uslub - bu asar yaratish uchun qurilish materialidir. Fikrni to'g'ri ifoda etish uchun kerakli so'zlarni topib, syujet va qahramonlarni faqat muallifgina topishi mumkin. Faqatgina yozuvchi o'quvchilarni o'zi yaratgan maxsus olamga kirishga va qahramonlarga mehr uyg'otishga qodir.

## **XULOSA**

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlarning o'zi ham ko'rsatib turibiki, badiiy asar tiliga munosabat, uni jiddi o'rganish yoki epistolyar texnikaning badiiy xususiyatlarini tahlil etish olimlarning doim e'tiborida bo'lgan. Chunki badiiy adabiyotni, uning til xususiyatlarini o'rganmay turib asar g'oyasi va mazmunini

<sup>17</sup> Виноградов В. Наука о языке художественной литературы и ее задачи. –М.: АН СССР, 1958. –С. 3-5.

<sup>18</sup> Каримов С. Узбек тилининг бадий услуби: Филол. фанлари д-ри дис. ... автореф. –Самарканд: Зарафшон, 1993. -216.

yaxlit holda chuqur idrok etish mumkin emas. Badiiy asar tilini o'rganish va tahlil qilish rus va o'zbek tilshunosligida, shu jumladan, jahon tilshunosligida qator tadqiqotlar amalga oshirilganligini ta'kidlash mumkin.

## REFERENCES

1. Виноградов В. О языке художественной литературы.-М.: Гостехиздат, 1957.-С.4
2. Yo'ldoshev B, Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. Samarqand. 2006. B.88.
3. Doniyorov X, Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. Toshkent: Fan. 1988. B.71.
4. Виноградов В. О теории художественной речи. –М., 1971. –С. 105-211.
5. Umurov H. Adabiyot qoidalari. Toshkent: O'qituvchi. 2002. B.5-8
6. Yo'ldoshev B, Bobojonov F, Pardayev Z. Badiiy asar tili masalalari. Navoiy: Navoiy DPI nashri. 2001. B.7-11.
7. Yo'ldoshev B, Bobojonov F, Pardayev Z. Badiiy asar tili masalalari. Navoiy: Navoiy DPI nashri. 2001. B.7-11
8. Виноградов В. Наука о языке художественной литературы и ее задачи. – М.: АН СССР, 1958. –С. 3-5.
9. Каримов С. Узбек тилининг бадий услуби: Филол. фанлари д-ри дис. ... автореф. –Самарканд: Зарафшон, 1993. -21б.
10. Habibova, M. N. (2021). JORJINA HOUELLNING “QUEEN OF THE DESERT” BIOGRAFIK ASARIDA GERTRUDA BELL TIMSOLI TASVIRI. *Academic research in educational sciences*, 2(2).  
<https://doi.org/10.24411/2181-1385-2021-00260>
11. Habibova, M. N. (2021). The theme feminism in the epistolary novels in modern times. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11(103), 1101-1105.
12. Ravshanovna, K. K. (2021). The image of babur mirza in the interpretation of stephen meredith. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 239-244.
13. Hasanovna, D. M. (2021). SEMANTIC IMPLEMENTATION OF RESULTATIVE STRUCTURES. *METHODS*, 7(6).



## **KOGNITIV METAFORA NAZARIYASI: YANGI YO‘NALISHLAR**

**Abduolimova Maftuna Nurulloxon qizi**  
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Bugun tilshunoslikda oilaviy bog‘liqlik (o‘xshashlik) tamoyiliga asoslangan konseptual metafora nazariyasining istiqbolli yo‘nalishlari va yetakchi manbalari shuningdek, uning asosida tadqiqotga kognitiv yondashuvning murakkab ilmiy prototipi shakllandi.*

***Kalit so‘zlar:** kognitiv metafora nazariyasi, kontseptual metafora nazariyasi, metaforik modellashtirish, o‘zgarmaslik gipotezasi, metaforik oqibatlar, kontseptual bog‘lanish, metaforaning tanqidiy tahlili, metaforaning kognitiv matn tahlili.*

## **COGNITIVE THEORY OF METAPHOR: NEW DIRECTIONS**

**Abduolimova Maftuna Nurulloxon qizi**  
Teacher of Fergana State University

### **ABSTRACT**

*Today in linguistics there are promising directions and leading sources of the theory of conceptual metaphor based on the principle of family connection (similarity), as well as on its basis formed a complex scientific prototype of a cognitive approach to research.*

***Keywords:** cognitive theory of metaphor, theory of conceptual metaphor, metaphorical modeling, hypothesis of invariance, metaphorical some consequences, conceptual integration, critical analysis of metaphor, cognitive discursive analysis of metaphor.*

## **КОГНИТИВНАЯ ТЕОРИЯ МЕТАФОРЫ: НОВЫЕ ГОРИЗОНТЫ**

**Абдуолимова Мафтуна Нуруллохон қизи**  
Преподаватель Ферганского государственного университета

### **АННОТАЦИЯ**

*Выделены ведущие источники и перспективные направления дальнейшего развития теории концептуальной метафоры, которые объединены по принципу «фамиль-ногосходства», и на его основе сформирован сложный научный прототип когнитивного подхода к исследованию метафоры.*

*Ключевые слова: когнитивная теория метафоры, теория концептуальной ме-тафоры, метафорическое моделирование, гипотеза инвариантности, метафоричес-кие следствия, концептуальная интеграция, критический анализ метафоры, когнитивно-дискурсивный анализ метафоры.*

## **KIRISH**

Bugun tilshunoslikda metafora haqida yetarlicha bilim va ko‘nikmalar mavjud bo‘lishiga qaramay, unga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu esa, til va psixik hodisalarning o‘zaro ta‘siridagi tadqiqotlarning dolzarblashuvi tufayli metaforologiyaning sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tishi bilan bog‘liqdir. So‘nggi paytlarda metafora hodisasiga faylasuflar, mantiqchilar, sotsiologlar, psixologlar, tilshunolar, adabiyotshunolar va gumanitar fan vakillari ham muntazam ravishda murojaat qilmoqdalar. Ushbu metaforologik bunga turtki bo‘lib, metaforaning kognitiv nazariyasida o‘z ifodasini topgan metafora mohiyati haqidagi yangi g‘oyalar edi. O‘tgan asr so‘nggida E.S.Kubryakova “Kognitiv fan bu- dunyoni idrok etish, tasniflash, baholash va tushunish doirasida bilimlarni aks ettirish va saqlashni o‘rganadigan fan”dir deb yozadi [5,34].

Kognitiv jarayondagi asosiy vazifa inson miyasining analogik qobiliyatlarining voqea hodisasi sifatida metaforalar tomonidan amalga oshiriladi. Kognitiv jarayonlarda inson ongining o‘xshash imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi sifatida metafora muhim ro‘l o‘ynaydi.

Zamonaviy kognitiv fanda metaforaga tushuntirish, baholash, qabul qilish va idrok etish kabi psixik jarayonlarning asosi sifatida qaraladi. Inson metafora yordamida o‘z fikrini bayon etibgina qolmay, ularning estetik imkoniyatlaridan foydalanadi, shuningdek, metafora bilan fikr yuritadi, ular yordamida o‘zi yashab turgan olamni o‘rganadi. Metaforalar bizga qabul qiluvchining ongida mavjud bo‘lgan dunyoning lingvistik suratini o‘zgartirishga, yaxshi tanish bo‘lgan hodisalarni yangicha toifalar bilan tanishtirishga yordam beradi. Bunda metaforaning estetik salohiyati, borliqni emotsional baholash qobiliyati muhim ro‘l o‘ynaydi. Kognitiv metafora nazariyasining tobora yangi modifikatsiyalarining ortib borishi ushbu ilmiy yo‘nalish tarixini, hozirgi holati va kelajakdagi rivojlantirish istiqbollari har tomonlama tushunishni talab qiladi.

Ma‘lumki, kognitiv metaforani o‘rganish nazariyasi va amaliyotiga oid zamonaviy nashrlar J.Lakoff va M.Johnson ning “Biz yashayotgan metaforalar” (Metaphors by which we live) klassik tadqiqotiga asoslanadi [17]. Ushbu nazariyaga

ko'ra, metaforizatsiya ikki bilim tuzilmasi (kontseptual sohalari: manba sohasi va maqsadli soha) o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik jarayoniga asoslanadi. Insonning tevarak-atrofdagi olam bilan bir yo'nalishli metafora bo'lishi natijasida sfera-manba elementlari kognitiv qobiliyatning mohiyatini tashkil etuvchi kontseptual maqsadmanbani hosil qiladi. Metaforik barqarorlik nafaqat ikki bilim strukturasi alohida elementlari o'rtasida balki kontseptual sohalarning butun tuzilmalari o'rtasida ham sodir bo'ladi. Kontseptual metafora nazariyasining keyingi rivojlanishi bir necha yo'nalishlarda bo'lib, ularning har biri inson ongini o'ziga xos g'oyalar va metodlar bilan boyitdi. Maqsadli sohada metaforik proektsiya paytida manba sohasi tuzilmasi qisman saqlanib qoladi degan taxmin "o'zgarish gipotezasi" deb nomlanadi [16,28]. Ushbu xususiyat tufayli metaforada aniq ifodalanmaydigan, lekin tashqi bilimlar natijasida kelib chiqadigan metaforik hodisalar bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, manba sohasining kognitiv tipologiyasi ma'lum darajada maqsadli sohani o'ylash usulini belgilaydi va qaror qabul qilish va harakat qilish uchun asos vazifasini o'taydi. Konseptual metafora asosidagi zamonaviy tadqiqotning xilma-xilligi J.Lakoff va M.Johnson nazariyasiga qiziqish ortib borayotganidan dalolatdir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Konseptual metafora inson tajribasining butun sohasini qamrab oladi va muhim kognitiv imkoniyatlarga ega degan qarash hozirgi paytda konseptual metafora bo'yicha ko'plab tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. Xususan, V.Budayev, A.P.Chudinov kabilarning ilmiy nashrlarida konseptual metaforaga sharhlar berilgan. Hozirgi bosqichda oilaviy o'xshashlik tamoyili asosida birlashtirilgan metaforani o'rganishga kognitiv yondashuvning murakkab ilmiy prototipini tashkil etuvchi bir-biriga ta'sir qiluvchi, to'ldiruvchi va bir-birini inkor etuvchi bir nechta yo'nalishlarni farqlash mumkin.

Zamonaviy metaforologik nazariyalar: J.Lakoff va M.Johnson [17] konseptual metaforaning klassik nazariyasi, M.Turner va J.Fokonie [29,30], J.Grady [12,13] asosiy metafora nazariyasi, B.Shpelmanidr [26] metaforaning izchil modeli, L.Ritchi [22,23] metafora talqinining bog'lovchi nazariyasi, A.N.Baranov va Yu.X.Kapaylov [1,2], A.P.Chudinov [6,7] metaforik modellashtirish nazariyasi va boshqalar. Ushbu yo'nalishlarning har biri o'z tarafdorlariga ega, ularning aksariyati o'zlarining asl g'oyalarini boyitadi.

Yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay, tadqiqotchilar hali ham kontseptual metafora nazariyasining individual qoidalarini o'zgartirib, to'ldirishda davom etmoqdalar.

Shunday qilib, A.Musolf o'zining bir qator ishlarida manba sferasining tuzilishi maqsadli soha subektlarini tushunishni qat'iy belgilaydigan metafora haqidagi o'sha nuqtayi nazarni qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. [18,19]

Haqiqatan, metaforizatsiya jarayoni doimiy ravishda sfera-manba va sfera-maqsad o'rtasida o'zaro ta'sir qiladi, bu esa butunlay o'ziga xos hodisalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Tadqiqotchilar bor e'tiborlarini "tana aqli" nazariyasi haqiqatlarini aniqlashtirish va tushunishga qaratmoqdalar.

J.Zinken [31,32] voqelikni metaforik idrok etishda shaxsning hissiy-harakat tajribasi muhimligini qayd etib, metaforalarni tahlil qilishda madaniy va milliy qarashlarni hisobga olish zarurligini aytib o'tadi. Matn ichidagi metaforalarni alohida guruh sifatida ajratib ko'rsatgan tadqiqotchi, siyosiy voqealarni tushunish uchun ularning g'oyaviy ahamiyatini ko'rsatdi.[32].

Bu yondashuv I.Hellstenning umumiy tuzilmaviy metafora va tarixiy metaforalarni farqlash zarurligi haqidagi g'oyasiga mos keladi, ularning avlodi tarixiy nomlar va hodisalar zamonaviy siyosiy vaziyatlarga prognoz qilingan [14]. Xuddi shunday pozitsiyani P.Paris [21] egallab, tarixiy metaforalarni alohida guruh sifatida ajratib ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tana ongining nazariyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan metaforalar asosan dunyoning turli qismlarida yuzaga keladigan metaforik oqibatlarning parallelligini belgilaydi, ular juda farq qiladi. Shu bilan birga, milliy tarix va madaniyat xususiyatlari metaforalarning milliy o'ziga xosligini belgilab beradi. Boshqa bir guruh metaforalar esa, odamlarning din, madaniyat va tarix bilan bog'langan oddiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ularning ko'pchiligi Bibliyaga asoslangan umumiy nasroniy metaforalar hisoblanadi. Keyinchalik metafora haqida boshqa qarashlarni D.Ritchi metaforik talqinning biriktiruvchi nazariyasida taklif qildi. Tana tajribasi orqali fikrlashning asoslari haqidagi tezisga tayanib, tadqiqotchi metaforalarni kognitiv va kommunikativ matnda tahlil qilish kerakligini, shu jumladan, og'zaki muloqotning batafsil taqdimoti va aloqa ishtirokchilarining oldingi tajribasini ta'kidlaydi [22]. Metaforalarning talqin qilish bevosita muloqot ishtirokchilarining umumiy hususiyatlariga bog'liq bo'lib, shuning uchun, tadqiqotchi sfera-manba va sfera-maqsad, shuningdek, ular o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rib chiqishda ushbu jihatga alohida e'tibor qaratishi muhimdir. Har bir metafora o'ziga xos, alohida kommunikativ matnda talqin qilinadi va har bir talqin sezilarli darajada farqlanishi mumkin[23].

Tadqiqotchilarning aytishicha, yanada murakkab belgi bu konseptual sohalar o'rtasidagi munosabatlardir. Masalan, nizo haqida o'ylaganimizda "urush" asosiy tushuncha emas. Chunki nizo kelib chiqqan joyda bahs-munozara bo'lishi ham mumkin, lekin bu urush tushunchasi emas. Bu yerda bahs talqinining murakkab tuzilmasi mavjud (oddiy muhokamadan tortib, raqobat va urushgacha).

Metaforalarni matndan tashqarida tahlil qilganimizda ular ifodalayotgan ma'noni tushunish biroz mujmalroq bo'ladi. Masalan: agar "himoya", "pozitsiya" metaforalariga e'tibor qaratsak, ular urushga aloqador so'zlar ekanligini tushunish unchalik qiyin emas. Lekin "manevr", "taktika" so'zlari "urush" ni nazarda tutyaptimi yoki sport musobaqasi yoki shaxmat o'yini nazarda tutyaptimi aniqlash qiyindir. Buning uchun bizga albatta matn asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Matn ichida aynan metafora bog'langan birliklar yordamida o'sha metaforalar anglatayotgan ma'no aniqroq namoyon bo'ladi. Shuni aytib o'tish kerakki, g'oyalarning umumiy rivojlanishi kognitiv ravishda uning aloxida yo'nalishlarining rivojlanishiga, shuningdek, kognitiv metafora nazariyasining rivojlanishiga doimiy ta'sir qiladi. Konseptual metafora nazariyasining paydo bo'lish davrida metafora rivojlanishi bir yo'nalishli bo'lib, bunda sfera-manba maqsadli soha tarkibini belgilaydi deb faraz qilingan. Biroq, metaforik proektsiyani bir yo'nalishliligi haqidagi tezis haqida savollar ko'payib, metaforik o'zgarishlarning ko'p yo'nalishliligi to'g'risidagi faktlar tobora ko'proq muhokama qilinmoqda. Shunday qilib, S.Koulson [10] metafora bo'lishi mumkinligini aytib o'tdi, bunda maqsadli soha manba sferasini teskari tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu pozitsiyani "Birodarlar Menendez" komputer virusining metaforik nominatsiyasini tahlil qilish orqali tasvirlaydi. Ma'lumki, jinoyatchi aka-ukalar o'z ota-onalarini o'ldirishgan, va meros huquqi bo'yicha katta boylikka ega bo'lishlari kerak edi. Ochiq sud jarayonida, aka-uka Menendezlar jinoyatni sababini uzoq vaqtdan buyon ota-onalari tomonidan zo'ravonlikka uchragani, va jinoyatni o'zi esa qasddan qotillik emas, balki o'z-o'zini himoya qilishdir deb izohlaydilar. Bu esa haqiqiy faktlarga tomomila zid edi, chunki qotillik paytida ota-ona quolsiz bo'lishgan, va ikkala aka-uka ham 20 yoshdan katta bo'lishgan. "Birodarlar Menendez" komputer virusi, fayllarni buzish orqali, foydalanuvchining yo'q qilingan fayllar tufayli jismoniy zo'ravonlik qurboni bo'lganligini ma'lum qilgan. Bir tomondan, virus metaforik proektsiya uchun nishon bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan aka-uka Menendezlar bilan sodir bo'lgan haqiqiy voqea-hodisani baholovchi xulosalarni o'z ichiga oladi. Kognitiv metaforaning tahliliga aloxida yondashuv konseptual bog'liqlik nazariyasi doirasida rivojlantirilgan.

Ushbu nazariya asoschilari M.Terner va J.Fokonier metaforalash maqsadli sferadan maqsadli sferaga proektsiya qilish bilan cheklanib qolmaydi, degan xulosaga kelishgan. Ushbu nazariya doirasida metaforaga kognitiv yondashuv J.Fokonier tomonidan psixik fazolar nazariyasi va konseptual metafora nazariyasi sintezi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, uning ayrim qoidalari qayta ko‘rib chiqilgan [10,28-30].

Dastlab, M.Terner va J.Fokonier ikki bosqichli metafora modeliga va ko‘p bosqichli metafora modeliga muqobil bo‘lgan modelni taklif qilgan edi. Tadqiqotchilarning fikricha, sfera-manbadan sfera-maqsadgacha bir yo‘nalishli metaforik proektsiya turli xil murakkab, dinamik maxsus vaziyat bo‘lib, uni tushinishda kognitiv metafora nazariyasiga ikki o‘rtadagi bo‘shliqni kiritish kerak bo‘ladi. Shunday qilib, J.Lakoff va M.Johnson nazariyasidagi ikki konseptual sohadan farqli o‘laroq, to‘rtta aqliy bo‘shliqni ko‘rib chiqishni taklif etadi: ikkita boshlang‘ich bo‘shliq (kirish fazosi), umumiy makon (umumiy fazo) va aralash makon (aralash fazo). Garchi manba maydonlarining miqdori ikkitadan oqrtiq bo‘lsa ham, konseptual metafora nazariyasida manba maydonlari manba-sfera va maqsad-sferaga bog‘liqdir.

Umumiy makon har bir asl makonga xos bo‘lgan ro‘llar, ramkalar va sxemalarni o‘z ichiga oladi, ya‘ni eng mavhum darajada metaforizatsiyaning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Aralashmada, asl bo‘shliqlarning elementlari aralashiriladi va natijada sifat jihatidan yangi konseptual struktura xosil bo‘ladi. Bu struktura avvalgisiga bog‘liq bo‘lmagan xolda keying rivojlanish uchun o‘z imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Bunday yondashuvni, masalan, Vashingtonda mashhur bo‘lgan siyosiy metafora bilan ko‘rsatishimiz mumkin: “ Agar Klinton Titanik bo‘lganda edi, aysberg cho‘kib ketgan bo‘lardi” ( If Clinton were the Titanic, an iceberg would sink) [30]. Bunda asosan ikki dastlabki aqliy bo‘shliq konseptual bog‘liqligi inobatga olingan: ya‘ni prezident kema bilan aloqador, jang esa aysberg bilan aloqador.

Blend ramka tuzilishini Titanik ramkasidan (kema sayohati va suvda ulkan narsa bilan to‘qnashuv bor) va sabab va hodisalar tuzilishini mashhur Klinton senariysidan (Klinton omon qolgan, halokatga uchramagan) oladi. Ushbu misolda umumiy makonga faoliyatga jalb qilingan va aniq maqsad bilan boshqariladigan, birinchi obektning faoliyati uchun katta xavf tug‘diradigan boshqa obekt bilan to‘qnashadigan bitta obekt kiradi.

Ko‘rinib turibdiki, umumiy maydonda bu to‘qnashuvning natijasi oldindan belgilanmagan. Ichki maydon proektsiyasida metaforik belgi mavjud, biroq, aralash maydonda manba ramkasidan olinmagan sabab-hodisa tuzilmasi mavjud.

Chet tilshunosligida ham metaforaning tanqidiy tahlili nazarasiyasi keng tarqaldi, bu esa, kognitiv tuzilmalarni modellashtirishni tahlil qilinayotgan voqealarni gumanistik tushunish bilan birlashtirishga imkon beradi [8,9,15,20,25].

Ayni shu paytda baʼzi tadqiqotchilar bu metodikaga tanqidiy baho berdilar. Jumladan, kognitiv metafora maydonidagi mashhur mutahassis P.Chilton aytib oʻtadiki, metaforani tanqidiy tahlil qilish tarafdorlari “turli xildagi adolatsizlikka qarshi kurashishga harakat qilmoqdalar”[9,53]. Albatta, bu tezis yordamida muhokama qilish mumkin va zarurdir: linguistik-kognitiv tadqiqotning asosiy vazifasi adolatsizlikning barcha koʻrinishlariga qarshi tezkor kurashish emas, balki ijtimoiy adolatsizlikning barcha koʻrinishlariga jamoatchilik eʼtiborini jalb qilishdir. Zamonaviy rus tadqiqotlarining oʻziga xos xususiyati-metafora tahliliga kognitiv-munizarali yondashuvning nazariy va amaliy rivojlanishi bilan karakterlanadi. Siyosiy dunyoni turkumlashtirish va konseptuallashtirishda metafora rolining birlashtiruvchi tavsifini A.N.Baranov, Yu.X.Karaulov, E.S.Kubryakova, T.G.Skrebtsova, A.P.Chudinov, Z.V.Budayev lar asarlarida koʻproq uchratishimiz mumkin.

## **XULOSA**

Bu yondashuv metaforaning kognitiv va diskursiv oʻlchamlari oʻrtasida katta farq mavjud emasligi toʻgʻrisidagi tezisga asoslanadi. Shunga koʻra, tadqiqotchilarning asosiy harakatlari metaforaning kognitiv va diskursiv xususiyatlarini aniqlashga qaratilgandir. Metafora bir vaqtning oʻzida ham aqliy ham linguo-ijtimoiy hodisadir. Masalan, siyosiy matnlarni oʻrganib shunga xulosa qilishimiz mumkinki, mahsus metaforaning yolgʻiz kognitiv yoki yogʻiz diskursiv tarafdin tasniflash metafora imkoniyatlarini toʻlaligicha ochib bera olmasligi mumkin [3,7]. Hozirgi tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, metafora tahliliga kognitiv yondashuv metaforologiyada muhim roʻl oʻynaydi, biroq kognitiv nazariyaning koʻp taraflari hali ham nomaʼlumligicha qolmoqda. J.Lakoff va M.Johnson ilgari surgan gʻoyalari butun dunyo boʻylab keng tarqaldi va koʻplab amaliy natijalarga erishildi. Shu bilan birga, bu nazariya koʻplab ilmiy maktablar va yoʻnalishlarda oʻrganilib talqin qilinmoqda, keyingi rivojlanishlar uchun yangi usul va metodlar ishlab chiqilmoqda.

## **REFERENCES**

1. Баранов А. Н. О типах сочетаемости метафорических моделей // Вопр. языкознания. 2003. № 2. С. 73–94.
2. Баранов А. Н., Караулов Ю.Н. Словарь русских политических метафор. М., 1996. 351 с.

3. Будаев Э.В., Чудинов А.П. Метафора в политической коммуникации. М., 2008. 248 с.
4. Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика—психология—когнитивная наука // Вопр. языкознания. 1994. №4. С. 3–15.
5. Кубрякова Е.С. Языкознание: на пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. М., 2004. 560 с.
6. Чудинов А. П. Россия в метафорическом зеркале: когнитивное исследование политической метафоры (1991–2000). Екатеринбург, 2001. 238 с.
7. Чудинов А. П. Метафорическая мозаика в современной политической коммуникации. Екатеринбург, 2003. 248 с.
8. Chilton P. A. Security Metaphors. Cold War Discourse from Containment to Common House. New York; Bern; Frankfurt a/M, 1996. 468 p.
9. Chilton P., Lakoff G. Foreign Policy by Metaphor // Language and Peace /ed. By Ch. Schaffner, A. Wenden. L.; N. Y., 2004. P. 37–74.
10. Coulson S. The Menendez Brothers Virus: Analogical Mapping in Blended Spaces // Conceptual Structure, Discourse, and Language /ed. by A. Goldberg. Palo Alto, 1996. P. 67–81.
11. Fauconnier G., Turner M. Conceptual Integration Networks // Cognitive Science. 1998. Vol. 22 (2). P. 133–187.
12. Grady J., Taub S., Morgan S. Primitive and Compound Metaphors // Conceptual Structure, Discourse and Language / ed. by A. Goldberg. Stanford, CA, 1996. P. 177–187.
13. Grady J. Theories are buildings revisited // Cognitive Linguistics. 1997. Vol. 8 (G). P. 267–290.
14. Hellsten I. Door to Europe or Outpost Towards Russia? Political metaphors in Finnish EU journalism // Journalism at the Crossroads: Perspectives on Research / ed. J. Koivisto, E. Lauk. Tartu, 1997. P. 121–141.
15. Kelly-Holmes H., O'Regan V. «The spoilt children of Europe». German press coverage of the Nice Treaty referenda in Ireland // Journal of Language and Politics. 2004. Vol. 3, №1. P. 81–116.
16. Lakoff G. The Invariance Hypothesis: Is Abstract Reason Based on Image Schemata? // Cognitive Linguistics. 1990. Vol. 1, №1. P. 39–74.
17. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live by. Chicago, 1980. 242 p.
18. Musolff A. Metaphor and Political Discourse. Analogical Reasoning in Debates



about Europe. Basingstoke, 2004. 224p.

19. Musolff A. Metaphor Scenarios in Public Discourse // Metaphor and Symbol. 2006. Vol. 21 (1). P. 23–38.
20. Oberhuber F., Barenreuter C., Krzyzanowski M. et al. Debating the European Constitution: On representations of Europe / the EU in the press // Journal of Language and Politics. 2005. Vol. 4 (2). P. 227–271.
21. Paris R. Kosovo and the Metaphor War // Political Science Quarterly. 2002. Vol. 117, №3. P.423–450.
22. Ritchie L. D. «Argument is War» — Or is it a Game of Chess? Multiple Meanings in the Analysis of Implicit Metaphors // Metaphor and Symbol. 2003. Vol. 18 (2). P. 125–146.
23. Ritchie L. D. Common Ground in Metaphor Theory: Continuing the Conversation // Metaphor and Symbol. 2004. Vol. 19 (3). P. 233–244.
24. Santa Ana O. Brown Tide Rising: Metaphors of Latin osin Contemporary American Public Discourse. Austin, TX, 2002.402 p.
25. Santa Ana O. 'Like an animal I was treated': anti-immigrant metaphor in US public discourse // Discourse and Society. 1999. Vol. 10, № 2. P. 191–224.
26. Spellman B., Ullman J., Holyoak K. A Coherence Model of Cognitive Consistency: Dynamics of Attitude Change During the Persian Gulf War // Journal of Social Issues. 1993. Vol. 49 (4). P. 147–165.
27. Straehle C. et al. Struggles Metaphor in European Union Discourses on Unemployment // Discourse and Society. 1999. Vol. 10, № 4. P. 67–100.
28. Turven M. Aspects of the Invariance Hypothesis // Cognitive Linguistics. 1990. Vol. 1, № 2. P. 247–255.
29. Turven M., Fauconnier G. Conceptual Integration and Formal Expression // Metaphor and Symbolic Activity. 1995. Vol. 10 (3).P. 183–204.
30. Turven M., Fauconnier G. Metaphor, Metonymy, and Binding // Metaphor and Metonymy at the Crossroads: A Cognitive Perspective / ed. A. Barcelona. Berlin; New York, 2000. P. 133–145.
31. Zinken J. Ideological Imagination: Intertextual and Correlational Metaphors in Political Discourse // Discourse and Society. 2003. Vol. 14(4). P. 507–523.
32. Zinken J. Imagination im Diskurs. Zur Modellierung metaphorischer Kommunikation und Kognition: Dissertation zur Erlangung der Würde eines Doktors im Fach Linguistik. Bielefeld, 2002. 262 S.

УДК: 811.112.2'373

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA REALIYALAR

**Nazarova Nodira Gulomjonovna**

Farg'ona politexnika instituti assistenti, Farg'ona, O'zbekiston

E-mail: [nodisha1986@gmail.com](mailto:nodisha1986@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Realialarni tarjima qilish jarayonida tarjimondan nafaqat keng tarjimashunoslik to'g'risida nazariya bilimlardan, balki, o'zga xalqlar turmush sharoiti, madaniyati, urf-odatlar haqidagi bilimlardan ham boxabar bo'lishi talab etiladi. Umuman badiiy asarni tarjima qilish, tarjimoning shaxsiga, uning intellektiga, uning qobiliyati va tarjimasiga, tarjimashunoslik sohasidan xabardorligiga, tarjima jarayoniga va matn uslubiga ham bog'liq. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy o'ziga xoslikni ifoda etuvchi realiyalar, ularning kelib chiqishi va ular o'rtasidagi farqlar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** realiya, til, madaniyat, ingliz, o'zbek, jargonizmlar, lokalizm, professionalism.*

## РЕАЛИИ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

**Назарова Нодира Гуломжановна**

ассистент, Ферганский политехнический институт, Фергана, Узбекистан

E-mail: [nodisha1986@gmail.com](mailto:nodisha1986@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

*В процессе перевода реалий от переводчика требуется не только обширные теоретические знания перевода, но и знание условий жизни, культуры и обычаев других народов. Как правило, перевод произведения искусства зависит от личности переводчика, его интеллекта, его способностей и способностей к переводу, его знаний в области перевода, процесса перевода и стиля текста. В данной статье описаны реалии национальной идентичности британского и узбекского народов, их происхождение и различия между ними.*

***Ключевые слова:** реалия, язык, культура, английский, узбекский, жаргон, местничество, профессионализм.*

## **REALIA IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

**Nazarova Nodira Gulomjonovna**

Assistant, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

E-mail: [n.nazarova@ferpi.uz](mailto:n.nazarova@ferpi.uz)

### **ABSTRACT**

*The translator must not only have a broad theoretical knowledge of translation, but also knowledge of other people's living conditions, culture, and customs in order to translate realities. In general, the personality of the translator, his intellect, his skill to translate, his knowledge of the field of translation, the translation process, and the style of the text all play a role in the translation of a work of art. The reality of British and Uzbek national identity, as well as their origins and differences, are described in this article.*

**Keywords:** *reality, language, culture, English, Uzbek, jargon, localism, professionalism.*

### **KIRISH**

Dunyo tili va madaniyatlarini solishtirishda mos keladigan va kelmaydigan unsurlar ajralib turadi. Madaniyatning tarkibiy qismi sanalgan til mos kelmaydigan unsurlar sirasiga kiradi. Solishtiriladigan tillar qanchalik o'ziga xos bo'lsa, qanchalik uning tarixida madaniy aloqalar kamroq bo'lsa, shunchalik ular birbiridan butunligicha yoki qisman farq qiladi. Mos kelmaydigan unsurlarga avvalambor ekvivalentsiz leksika bilan belgilanadigan predmetlar va bir tilga xos so'zlar hamda boshqa tilda mavjud bo'lmagan yoki so'zlarda farq qiladigan konnotatsiyalar kiradi [1-4].

Realia bu faqat muayyan millat va xalqlarga tegishli bo'lgan moddiy madaniyat ashyolari, tarixiy faktlar, davlat institutlari nomi, milliy va folklor qahramonlarning ismlari, mifologik mavjudotlar va h.k. nomlaridir. Tillarni chog'ishtirganda ushbu holatlarni anglatuvchi so'zlarni ekvivalentsiz leksikaga kiritadilar. Ekvivalentsiz leksika boshqa madaniyatda mavjud bo'lmagan va qoidaga ko'ra boshqa tilga bitta so'z bilan tarjima qilinmaydigan, o'ziga tegishli til doirasidan tashqarida muqobili bo'lmagan tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladigan so'zlar hisoblanadi. Ingliz tilidagi realialarni tarjima qilishda odatda tarjimonlar uzundan uzoq ta'riflarga tayanishgan yoki o'zlarining neologizmlarini taklif qilishlariga tog'ri keladi. Masalan: Victrola (muayyan markadagi apparat; Victor-radio va teleapparatura ishlab chiqaruvchi firma nomi); book-maker (poyga paytida

tomoshabinlar tikadigan pulni qabul qiluvchi kishi); roadster (usti ochiladigan ikki oʻrindiqli mashina) [-3-7].

Ekvivalentsiz leksika tillarni solishtirganda oson aniqlanadi, chunki unda mazkur til tomonidan voqelikning boʻlinib ketish xususiyati va madaniyatning oʻziga xosligi yaqqol namoyon boʻladi. Agar ekvivalentsiz leksikaga nafaqat kundalik turmush realiyasi belgilarini, balki davlat-siyosiy tuzumi, xalqning madaniy hayoti va ishlab chiqarish turli sohalarining oʻziga xos nomlanishini kiritisa, har bir xalq tilidagi realiyalar soni yanada oshadi [6-11].

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Til va madaniyatlarni solishtirganda anglanadigan (realiyadan tashqari) va anglatuvchi (shakldan tashqari) orasidagi farqni ajratib koʻrsatish mumkin. Anglanadiganlar oʻrtasidagi farq quyidagi holatlarda kuzatiladi:

1) Bir til jamoasiga xos realiya boshqasida mavjud boʻlmaydi. Masalan, drug store (AmE.)-dorixona; yellow pages-telefon maʼlumotnomasining sariqrangli qogʻozli tijorat boʻlimi.

2) Realija ikki til jamoasida ham mavjud boʻladi, ammo birida u alohida yoki maxsus holda ifodalanmaydi. Masalan, clover leaf (AmE.) - beda yaprogʻi koʻrinishidagi avtoyoʻl chorrahasi.

Ingliz tilidagi realiyalarga inglizlarga xos boʻlgan milliy kiyim kechaklar, oziq-ovqat va ichimlik turlari, umumiy ovqatlanish shahobchalari nomlari, pul birliklari va hakazolarni kiritish mumkin. Masalan:

- oziq ovqatlar- biscuit, hamburgher, sandwich, toast, hot dog, pudding, omelet, sausage, chips, crisp, jam, mash, celery, berkswell;
- ichimliklar: frizzy drink (soda), yogurt, wine, cola, cocktail.

Turli xil jamiyatlarda bir-biriga oʻxshash vazifalar har xil realiyalar (turli xil realiyalarning funksional oʻxshashligi) vositasida amalga oshiriladi. Masalan, hotdog (Am.E) - issiq sosiskali buterbrod; soda fountain (AmE.)- muzqaymoq kafesi.

Oʻxshash realiyalar funksional jihatdan farqlanadi. Masalan, cuckooʻs call “kakkuning sayrashi” amerikaliklarning ishonchiga koʻra qiz bolaning turmushga chiqishiga necha yil borligiga ishora qiladi, ruslarda esa inson qancha yil umr kechirishini bildiradi. Qiyosiy lingvooʻlkashunoslikda solishtirilayotgan tildagi soʻzlarning leksik maʼnosidan butunlay yoki qisman farq qiluvchi, tili oʻrganilayotgan mamlakatning tarixi, madaniyati, iqtisodi va turmush tarzi bilan bogʻliq predmet yoki hodisani ifodalovchi soʻzlar realiyalar hisoblanadi [12-19].

1960 yillar oxirida AQShning Massachusetts shtatida joylashgan uncha katta bo'lmagan Chappaquiddick (Chappakviddik) oroli nomi mashhur bo'ldi. U yerda 1969 yil 18 iyul kuni yarim tunda bir qarashda oddiy ko'rinadigan avtohalokat yuz berdi. Senator Edvard Kennedi boshqarayotgan mashina ko'prikdan pastga qulagan va u bilan birga bo'lgan kotibasi Me'ri Kopechni mashinadan chiqa olmay cho'kib ketgan. Bu hodisadan E.Kennedining siyosiy raqiblari foydalanishgan va Chappakviddik so'zi AQSh prezidentligi lavozimiga E.Kennedining nomzodi haqida gap borganda matbuot sahifalarida paydo bo'lardi [16-21].

1970 yillar oxirida AQShning ko'pgina yuqori lavozimdagi shaxslari, shu qatorda kongressmenlarning poraxo'rlik bilan shug'ullanganligi fosh bo'ldi. FQB josuslari arab shayxlarining kiyimida ularga yirik miqdorda pul berib qo'lga olishgan. Bu narsa yangi realiya Abscam (jinoyatchilik bilan kurashish bo'yicha maxfiy operatsiyaning qisqartirilgan nomi "Arab scam") ni vujudga keltirdi [12-21]. Mahalliy diqqatga sazovor joylarning nomlari mahalliy realiyaga misol bo'ladi. Bunday joylar hatto o'z hududidan tashqarida mashhur bo'lishiga qaramay (ba'zan milliy madaniyat fondiga kirgan holda), aynan o'sha joy bilan bog'liq holda eslanadi. Masalan: Cabildo - Kabilo (Yangi Orleandagi ispan generalgubernatorining sobiq rezidensiyasi), Alcatraz- Alkatraz (San-Fransisko yaqinidagi shu nomli orolda joylashgan sobiq qamoqxona) yoki Freedom Trail - "ozodlik marshruti" (Shimoliy Amerika mustamlakalarining mustaqillik uchun kurashi bilan bog'liq tarixiy yodgorliklarni ko'rish bilan Boston shahrining markaziy qismi bo'ylab o'tadigan sayyohlik marshruti) [22-27].

Realiya alohida jamoa yoki muassasa doirasida chegaralangan bo'lishi ham mumkin. Asosan talabalar va harbiylar jargoni bunday realiyaga bo'ydir. Ba'zi bir bu jargonizmlar lokalizm va professionalizmlar darajasiga o'tib ketadi. Davriy kolorit ham realiyaga xosdir. Madaniyat bilan chambarchas bog'liq til hodisasi sifatida ushbu leksik birliklar jamiyat taraqqiyotidagi barcha o'zgarishlarga tez ta'sir qiladi. Ular orasidan neologizm, istorizm va arxaizm realiyalarini osongina ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, 50-60 yillarda AQShda yosh avlodning isyoni tilda beatnik, beat generation (charchagan, singan, ko'ngli sovigan avlod) kabi so'zlarning paydo bo'lishi bilan aks etadi [28-33]. 50-yillarda vujudga kelgan bu realiya avvalo neologizm sifatida qabul qilindi, keyin asta-sekin boshqa tushuncha hippie (hippi, zamonaviy burjua jamiyati ahloqi va turmush tarzini rad etuvchi hamda o'z protestini g'ayri odatiy kiyinishi va fe'l-atvori, o'zini tutishi bilan ifoda etuvchi yoshlar) ga almashdi.

Realiyada til va madaniyat o'rtasidagi yaqinlik yaqqol namoyon bo'ladi. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida yangi realiyalarning paydo bo'lishi tilda realiya vujudga kelishiga olib keladi. Leksika ijtimoiy hayotning barcha o'zgarishlariga o'z ta'sirini ko'rsatishi sababli tilda yangi realiyalarning paydo bo'lish paytini aniq aytish mumkin. Biroq bir vaqtning o'zida eng oddiy tushunchalarni ifodalay turib, shu bilan birga mazmuniy va hissiy "fonli" nozik farqlarni ham ifodalovchi ko'pgina so'zlar mavjud. Tilda "konnotativ so'zlar"ni leksik birlikning o'ziga xos tipi sifatida ajratish shak-shubhasiz maqsadga muvofiqdir, chunki konnotatsiyalar, ya'ni so'zlarga hamrohlik qiluvchi stilistik, emotsional va mazmuniy farqlar o'z-o'zidan mavjud bo'lmaydi, ular so'z ma'nolaridan biriga bog'lanadi. Realiyani tilning boshqa so'zlari bilan taqqoslaganda uning farqli tomoni shuki, realiya ifodalaydigan predmet, tushuncha, hodisaning bir tomondan xalq bilan va boshqa tarafdin vaqtning tarixiy bo'lagi bilan yaqin aloqasi hisoblanadi. Bundan milliy, mahalliy yoki tarixiy koloritning realiyaga xosligi ko'rinib turibdi. Xuddi shunday o'zbek tilidagi realiyalar o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy o'ziga xoslikni ifoda etuvchi liboslar, milliy taomlar va ichimliklar, joy nomlari ham realiya sifatida o'ziga xalqlar tilida talqin qilinadi.

O'zbek xalqining milliy o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kiyimlar hozirgi kunda butun dunyoga tanilmoqda. O'zbek milliy liboslariga ayollar uchun zar chopon, do'ppi, kamzul, erkaklar uchun do'ppi, chopon, belbog' va yaktak kabilar kiradi. O'zbek milliy libosi jahonda o'z o'rniga ega. Bular: Do'ppi- O'zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do'ppi asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. O'zbekiston Chust, Toshkent, Samarqand, Buxoro do'ppilari bilan mashhur. Do'ppi tikuvchi chevar "do'ppido'z", do'ppi tikish kasbi esa "do'ppido'zlik" deyiladi. Ro'mol- ayollar milliy bosh kiyimi bo'lib, ayollar yoshiga mavqeyiga qarab turli xildagi ro'mollarni o'rashadi. Paranchi- o'zbek ayollari qadimda yuzlarini begona kishilardan yashirish uchun yopinib yurishgan. Zar chopon- O'zbek ayollarini qishda sovuqdan saqlovchi kiyimdir. Bu chopon asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. Chopon o'zbek xalqining qadimiy kiyimlaridan biridir. Chiroyli atlas, adras kabi ipak matolar qadimdan o'zbek ayollari sevib kiyadigan milliy matolardir. Bu mato ipakdan tayyorlanadi. Qancha-qancha zamonlar o'tib ketsa ham bu matolardan o'z davriga moslab, xoh o'zbekcha, xoh yevropacha uslubda kiyimlar tikib kiyish urfga kirgan. O'zbekistonda eng mashhur atlas Marg'ilon shahrida to'qiladi. Oyoq kiyimlardan uzun qo'njli, poshnasiz, tag charmi yumshoq bo'lgan kovush bilan kiyiladigan mahsi milliy poyabzal hisoblangan.

O‘zbeklarga xos bo‘lgan yana bir milliy buyum bu kashta hisoblanadi. Kashtachilik O‘zbekistonning ko‘pgina hududlarida rivojlangan bo‘lib, ulardan Buxoro viloyatidagi Shofirkon va Nurota kashtachilik maktablari o‘zining naqshlari ranglari, tikilish uslubi bilan farqlanadi. Bundan tashqari o‘zbek milliy taomlari nomlari ham realiyalar safiga kiradi. Shohona taom hisoblanmish osh, ulug‘ ne’matimiz non, patir, bahorning taniq taomi bo‘lmish sumalak, somsa, chuchvara, manti, xonim, mastava, kabob, va ichimliklardan choy shular jumlasidandir. O‘zbek xalqiga mansub umumiy ovqatlanish joylari nomlaridan choyxona, oshxona kabilarni misol keltirish mumkin. Shu kabi bir-birlarini nomlaridan va tayyorlanish usullaridan mutlaqo farq qiladigan ingliz va o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan taomlar, ichimliklar va milliy liboslar nomlari ikki tilga xos maishiy realiyalar sirasiga kiradi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Shunday qilib, ingliz va o‘zbek tillaridagi realiyalarni o‘rganib ularni tarjima qilishni bir necha usullarda amalga oshirilishini ko‘rib o‘tdik. Bunda asosan, qilingan tarjimalar rus tili orqali amalga oshirilganligi sababli, tarjimon o‘zbek tiliga amalga oshirgan tarjimasida aslyat matnini chuqur tushungan holda tarjima qilishi kerakligini kuzatdik. Realialarni tarjima qilish jarayonida tarjimondan nafaqat keng tarjimashunoslik to‘g‘risida nazariya bilimlardan, balki, o‘zga xalqlar turmush sharoiti, madaniyati, urf-odatlarini haqidagi bilimlardan ham boxabar bo‘lishi talab etiladi. Umuman badiiy asarni tarjima qilish, tarjimonning shaxsiga, uning intellektiga, uning qobiliyati va tarjimasiga, tarjimashunoslik sohasidan xabardorligiga, tarjima jarayoniga va matn uslubiga ham bog‘liq.

Shuni aytib o‘tish joizki, realiya atamasining keng qo‘llanilishiga qaramay, tadqiqotchilar na lingvistikada, na metodikada realiyani ta’riflovchi etarlicha aniq kriteriyalarning yo‘qligini hamda ushbu realialarni belgilovchi til birliklarining spesifikasi umuman o‘rganilmaganini ta’kidlashadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tarjimon o‘zi o‘girayotgan kitob matni ichra chegaralangandir. Muallif ilgari surgan g‘oyadan chetga chiqolmaydi, tarjimon shunga qaramay til sohasida ijod qilar ekan, tilning asosiy qurilish materiali so‘z bilan ishlaydi. Badiiy adabiyot uchun g‘oyatda muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlar –badiiylik, obraz va obrazlilik, barchasi so‘z zamirida yashiringan, so‘z orqali reallashadi. Binobarin so‘z tanlash badiiy tarjimada birlamchi ahamiyatga ega.

### **REFERENCES**

1. Ахманова О.С. (1957). Очерки по общей и русской лексикологии. М.: Учпедгиз. 295 с.

2. Бодуен де Куртене И. А. (1963). Избранные труды по общему языкознанию. Е.И. М. С. 324.
3. Даниленко В. П. (1977). Русская терминология. – Опыт лингвистического описания. М. с. 73-75
4. Кунгуров. Р., Тихонов А. (2005). Обратный словарь узбекского языка. Самарканд. 205 с.
5. Лесных Е. В. (2000). О Взаимодействии лингвистических и экстралингвистических факторов архаизации лексики, Русский язык. Лингвистические наблюдения. *Липецк*. 107с.
6. Лесных Е.В. (2001). Отражение истории народа в слове. Материалы по славянской письменности и культуре. Выпуск XIX. Липецк. 273с.
7. Левцкая Т.Р. Фитерман А.М. (1963). Теория и практика перевода с английского языка на русский. М.. с. 123.
8. Mo‘minov O. (2005). A Guide to simultaneous Translation. Toshkent. 134 b.
9. Реформатский А. А. (2000). Что такое термин и терминология. М. с. 109.
10. Salomov G‘. (1983). Tarjima nazariyasi asoslari. *Toshkent. O‘qituvchi*. 235 b.
11. Salomov G‘. (1978). Tarjima nazariyasiga kirish. *O‘qituvchi nashriyoti Toshkent -y*. 286 b.
12. Смирницкий А. И. (1956). Лексикология английского языка. М.,. 204 с. 61.
13. Arnold I. V. (1986). The English Word, *Moscow*, 475 p.
14. Zokirova, S. (2021). Structural analysis of food realias in english and Uzbek languages. *Asian journal of multidimensional research*, 10(4), 482-486.
15. Ахманова О.С. (1969). Словарь лингвистических терминов. М: СЭ, 608 с.
16. Evans B., Evans C. (1997). A Dictionary of Contemporary American Usage. – New York: *Random House*, 840 p.
17. Hotten J. A. (2008). Dictionary of Modern Slang, Cant and Vulgar Words. *New York: Pokent Books*, 784 p.
18. SALIMOVA, S. (2021). General structure of spinal animals features. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 3(3).
19. Farhodovna, S. S. (2021). Formation of professional skills of future biology teachers and development of its criteria. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 769-772.
20. Атаджанова, Б. Т. (2021). Педагогические условия и принципы формирования профессионально-коммуникативной компетентности будущего инженера. *Central asian journal of literature, philosophy and culture*, 2(11), 93-97.



21. Шадиев, Р. Д., & Мухаммадиева, М. М. (2015). Изучение окружающего мира учащимися начальных классов на основе гуманистической концепции развития личности. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (3-2).
22. Мухаммадиева, М. М. (2018). Естественный и эффективный метод образования. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (1), 36-37.
23. Salimova, S. (2020). Method of improving self-study works of students in biology by means of informational resources. *Центр Научных Публикаций (buxdu.uz)*, 2(2).
24. Атаджанова, Б. Т. (2019). Формирование профессионально-коммуникативной компетенции будущего специалиста. *Вестник науки и образования*, (19-2 (73)), 47-49.
25. Tulkinovna, A. B. (2021). The main formation of professional competence of the students of technical universities in the Russian lessons. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(05), 637-648.
26. Gulomjonovna, N. N. Features Of Training Guide-translators. *JournalNX*, 152-155.
27. Атаджанова, Б. Т. (2020). Научный текст как источник обогащения профессиональной речи. *Вестник педагогики: наука и практика*, (51), 70-71.
28. Tursunovna, Z. Z., Nurmatovna, K. S., & Kodirovna, O. S. (2019). Actual problems encountered in teaching foreign languages. *Вестник науки и образования*, (19-3 (73)), 37-39.
29. Гармонников, И. С. (2015). Особенности применения методов мотивации в рамках личной, групповой и корпоративной мотивации. *Новая наука: стратегии и векторы развития*, (6-1), 81-84.
30. Tulkinovna, A. B. (2021). Problems Of The Formation Of Professional Competence Of Students Of A Technical University In The Study Of Foreign Languages And Ways To Solve Them. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 43-50.
31. Nazarova, N. G. (2020). Problems and prospects in the training system of guide translators in uzbekistan. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(11), 253-256.
32. Ergasheva, N. N. (2018). The effectiveness of using realia in teaching vocabulary. *Интернаука*, (24-3), 45-46.

## ДИАЛЕКТОЛОГИЯНИНГ АДАБИЙ ТИЛШУНОСЛИКДАГИ ЎРНИ

**Кулатова Ғазиза Джинисбековна**

Навоий давлат педагогика институти

Қозоқ тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси

### АННОТАЦИЯ

*Ушбу мақолада тилшуносликнинг муҳим соҳаси бўлган диалектологиянинг адабий тилшуносликдаги ўрни ва ўзига хос хусусиятлари ҳақида фикрлар баён этилган.*

**Калит сўз:** диалектология, тил, тилшунослик, шева, фан, адабий тил.

### ABSTRACT

*This article discusses the role and peculiarities of dialectology in literary linguistics, which is an important branch of linguistics.*

**Keywords:** dialectology, language, linguistics, dialect, subject, literary language.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассматриваются роль и особенности диалектологии в литературоведении, которое является важной отраслью языкознания.*

**Ключевые слова:** диалектология, язык, языкознание, диалект, предмет, литературный язык.

### КИРИШ

Диалектология грекча “диалектос” сўздан олинган бўлиб, бирор тилнинг мавжуд шева ва лаҳжаларини ўргатади. Диалект – шева, логос – таълимот, яъни шева ҳақида таълимот демакдир. Дунёда мавжуд тилларнинг деярли барчаси ўзига хос ички шева ёки шевачалардан иборат. Туркий тилларнинг ҳар бири бир неча шева ва диалектлардан иборатлиги фанда маълум. Шевашунослик мутахассисларидан бири профессор Е.Д. Поливанов: «... туркий тилларнинг бирортаси ҳам шевалараро қозоқ тили сингари бу қадар кескин фарқланмайди, демак,... бирорта туркий тил ҳам шу қадар специфик, диалектал хилма – хиллик хусусиятига эга эмасдир. Бу эса, табиий, адабий тил учун бирор диалектни асос қилиб олиш масаласини ниҳоят даражада оғирлаштиради», деган эди. Бунда албатта, фикримизча тилшуносликнинг алоҳида ўрни бор. Катъий айтиш мумкинки, тилшуносликнинг барча соҳалари каби диалектологияни ҳам ўз ичига олган жаҳон тилшунослиги фани ҳам шу кунги таракқиёт босқичига етиб келгунча узок тарихий таракқиёт даврини, «ўсиш» даврини босиб ўтди. У турли мактаблар, окимлар, таълимотлар таъсирида бўлди, олимлар томонидан лисоний ходисалар ҳақида айтилган

фикрлар қарама қаршилигига, тил ходисалари ҳақида яратилган жуда кўплаб манбаларга «гувоҳ бўлди», шаклланди. Аниғи, тилшунослик фани ҳам жаҳон фанлари тизимида ўзига хос ва ўзига мос доимий мустаҳкам ўрин эгаллади<sup>19</sup>. [1.9.]

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Қозоқ лаҳжашунослик фани ер юзидаги қозоқ миллатига мансуб аҳолининг жонли сўзлашув тилини текширади. Маконни ўрганиш нуктаи назардан диалектология икки хил бўлади:

- 1) тасвирий диалектология ёки диалектография;
- 2) тарихий диалектология.

Тасвирий диалектология ёки диалектография маҳаллий шева ва лаҳжаларга хос фонетик ва лексик, морфологик хусусиятларни кайд этади, ёзиб олади ва уларни картага туширади. Тарихий диалектология тилнинг диалектал хусусиятлари билан бирга, шу хусусиятларнинг келиб чиқиши, ривожланиши, турли даврларда ўзгариш, кардош тиллар билан муносабати ва шу шеваларнинг ташкил топишида кардош ва кардош бўлмаган тилларнинг иштироки кабиларни ўрганади. Кейинги йилларда барча қозоқ шеваларини ареал ва лингвогеографик усуллар билан ўрганиш ҳам тарихий мақсадларни кўзда тутди. Диалектологиянинг шеваларни ўрганиши эса тил тарихи учун ҳам, халқ, тарихи учун ҳам бой ва қимматли материаллар беради. Чунки, адабий тилда аллақачонлар йўқ бўлиб кетган ёки ўзгаришга учраган сўзлар, айрим грамматик шакллар маҳаллий шеваларда сақланиб қолганлиги табиий. Уларни топиб адабий тилга олиб кириш ёки уни бойитиш жуда муҳимдир. Тилшуносликда диалектология тиллар тарихидаги айрим ноаниқ масалаларни ойдинлаштириш, ҳал қилиш учун асосий манба беради.

Қадиимги ёзма ёдгорликлар тилнинг биз учун ноаниқ, (гумонли) бўлган айрим хусусиятларини ҳозирги турли шевалар материаллари ёрдамида аниқлашимиз ва тўлдиришимиз мумкин. Шеваларни ўрганиш адабий тилнинг фонетик, лексик – грамматик нормаларини белгилаш, орфография ва орфоэпиясини стабиллаштириш учун катта ёрдам беради. Шеваларни ўрганиш орқали ўтмишдаги уруғ ва қабилаларнинг жойлашиш ҳудудларини аниқлаш, этнонимлар, топонимлар, гидронимлар, умуман онамастика (номлар) воситасида халқ, тарихининг айрим мавҳум томонларини ёритиш мумкин.

<sup>19</sup> Р.Расулов. Умумий тилшунослик. Дарслик. Тошкент. 2010. 9 – бет.

Шу жиҳатдан, диалектларни ўрганиш ҳам илмий, ҳам амалий аҳамиятга эгадир.

Диалектология ( лаҳжашунослик) нинг ўрганиш макони: шева, диалект ва лаҳжа атамалари. Бу атамалар диалектология фанининг ўрганиш макони (объекти) ҳисобланади. Шева – бирор тил доирасидаги халқ, жонли тилининг ўзига хос фонетик, лексик ва грамматик хусусиятларга эга бўлган энг кичик қисми ҳисобланади<sup>20</sup>. [2.5.] Масалан, Тошлок, шеваси, Қарноқ шеваси, Чимкент шеваси, Турк шеваси.

Диалект – тилшуносликка доир адабиётларда кўпинча лаҳжа маъносида, баъзан шева маъносида ҳам қўлланади. Олимлар томонидан яратилган диалектологияга оид илмий ишларда шева, диалект ва лаҳжа атамаларини фарқламаслик, аралаштириб қўллаш ҳоллари ҳам учрайди. Диалект – халқаро атама бўлиб, умумлингвистик «диалект» маъносида ишлатиш лозим. Диалектология фани учун шева ва лаҳжа атамаларини қўллаш етарлидир. Бирок, халқларнинг жонли тилини ўрганган олимлар бир қатор шахар шевалари учун диалект атамасини ишлатганлар: Масалан, қозоқ ва ўзбек халқлари шеваларига хос бўлган Фарғона диалекти, Самарканд – Бухоро диалекти, Андижон диалекти, Қипчоқ диалекти, Чимкент диалекти ва бошқалар. Лаҳжа – арабча сўздан олинган бўлиб, равиш, тарз, йўсин каби маъноларни билдиради. Лингвистикада тилнинг бир неча шева ва диалектларини ўз ичига олган, умумий хусусиятлари жиҳатдан ўхшаш катта бўлаги, яъни шевалар йиғиндисидир. Эски туркий тилларга доир адабиётларда лаҳжа (русча наречие) атамаси ҳозирги мустақил миллий тил маъносида ҳам ишлатилган. Масалан, туркий тилларнинг қозоқ лаҳжаси – бу ибора ҳозирги қозоқ миллий тили маъносида қўлланган<sup>21</sup>.

Диалектологиянинг асосий вазифасига эътибор қаратадиган бўлсак, унинг қўлами жуда кенг. Диалектология фанининг макони (объекти) маҳаллий шева диалекти ва лаҳжаси бўлиб, мақсади ва вазифалари куйидагилардан иборат:

- шева ва диалектларнинг фонетик, морфологик, синтактик ва лексик хусусиятларини ҳар томонлама тавсиф қилиш;

- миллий тилнинг пайдо бўлиши ва тараққиётида шеваларнинг тутган ўрни ва шу миллий тилга асос бўлган шеваларни аниқлаш;

<sup>20</sup> Б.Тўйчибоев, Б.Хасанов. Ўзбек диалектологияси. Тошкент. А.Кодирий номидаги Халқ мероси нашриёти.. 2004. 5 – бет.

<sup>21</sup> .Тўйчибоев, Б.Хасанов. Ўзбек диалектологияси. Тошкент. А.Кодирий номидаги Халқ мероси нашриёти.. 2004. 6 – бет.

- шеваларнинг ўзаро муносабатини, уларнинг адабий тил ва кардош тилларга бўлган муносабатларини белгилаш;
- ўхшаш хусусиятларига кўра шеваларнинг таркалиш чегарасини аниклаш;
- умумий ўхшаш лингвистик хусусиятларини белгилаш асосида шеваларнинг маълум ҳудуддаги таркалиш карталарини тузиш ва шеваларни тасниф қилиш;
- ўрганилган шеваларни карталаштириш асосидаги лингвистик атласини тузиш ва бошқалар.

Тил шеваларининг асосий хусусиятларини яхши билиш ўқитувчилар, айниқса она тили фани ўқитувчилари учун жуда зарур. Ҳозирги кунда шева хусусиятлари адабий тил таъсирида жуда тез бирлашиб, текисланиб бораётганига кдрамай, бу хусусиятлар факат қишлоқларда эмас, балки шаҳарларда ҳам маълум даражада сакланиб турибди. Шу сабабли ўқувчилар нутқида, айниқса, бошланғич синф ўқувчилари ёзувида учрайдиган хатолар шева таъсирида содир бўлмоқда. Шунинг учун ўқитувчилар, айниқса, она тили ўқитувчиси адабий тил меъёрларини яхши билиши, бу меъёрларни ўқувчиларга ўргатиши, уларнинг ёзма ва оғзаки нутқ маданиятини ўстириш устида тинимсиз машғулот олиб бориши зарур ҳамда ўқувчилар нутқида учрайдиган камчиликларни (шева таъсиридаги) тузатмоқ учун барча шеваларга хос хусусиятларни яхши билмоғи керак. Масалан, қозоқ тили шевасида *шылапщын – леген, жам, кірлен, шылаушын, тас; кесе – самал, тиялай, тас аяқ, шыны аяқ, ақпыр, ақпар, кардон, жанан; курке – балағаш, балаған, шайла, шабра, кепе, алтаяк, қопын, лапас, жаппа*<sup>22</sup> [<https://zharar.kz>] каби шева хусусиятлари учраб туради. Ўқувчилар нутқида учрайдиган бундай хатоларни тузатиш учун ўқитувчи шу ҳолатларнинг келиб чиқиш сабабини билмоғи керак.

## **ХУЛОСА**

Шундай қилиб, Республика олий ўқув юртларида филологик ўқитишнинг асосий вазифаси адабий тил нормаларини, шунингдек, адабий тилнинг шеваларга булган муносабатини ҳам ўргатишдир. Бу вазифани ҳал қилиш филологларнинг тилнинг тарихий ривожланиш қонуниятларини яхши билиши билан боғлиқдир. Филологлар бу маълумотлар билан диалектология фанини бойитади.

<sup>22</sup> Диалектология туралы жалпы тусінік. <https://zharar.kz>

---

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Р.Расулов. Умумий тилшунослик. Дарслик. Тошкент. 2010. 9 – бет.
2. Б.Тўйчибоев, Б.Хасанов. Ўзбек диалектологияси. Тошкент. А.Кодирий номидаги Халк мероси нашриёти. 2004. 5 – бет.
3. Тўйчибоев, Б.Хасанов. Ўзбек диалектологияси. Тошкент. А.Кодирий номидаги Халк мероси нашриёти. 2004. 6 – бет.
4. Диалектология туралы жалпы тусиник. <https://zharar.kz>

## LEKSIKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNDA SO‘ZNING MOHIYATI

**Kushkarbekova Marjan Usenovna**

Navoiy davlat pedagogika instituti  
Chet tillar fakulteti katta o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada tilshunoslikning asosiy tarmog‘i xisoblangan leksikologiya tushunchasi, uning fanda tutgan o‘rni, leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya, semantika, etimologiya, stilistika tushunchalari va leksikologiyada so‘zning mohiyati, tuzilishi haqidagi fikrlar tahlil etilgan.*

**Kalit so‘z:** leksikologiya, til, tilshunoslik, fan, leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya, semantika, etimologiya, stilistika.

### ABSTRACT

*This article analyzes the concept of lexicology, which is the main branch of linguistics, its role in science, the concepts of lexicography, phraseology, semantics, etymology, stylistics, and the meaning and structure of the word in lexicology.*

**Keywords:** lexicology, language, linguistics, subject, lexicography, phraseology, semantics, etymology, stylistics.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье анализируются понятие лексикологии, которая является основной отраслью языкознания, ее роль в науке, понятия лексикографии, фразеологии, семантики, этимологии, стилистики, а также значение и структура слова в лексикологии.*

**Ключевые слова:** лексикология, язык, языкознание, предмет, лексикография, фразеология, семантика, этимология, стилистика.

### KIRISH

Ma'lumki, yer yuzida yashovchi dunyo xalqlari xilma – xil tillarda gaplashishadi. Kurrai zaminimizda hammasi bo‘lib taxminan 5621 ta til va sheva mavjud bo‘lib, hozirgacha ulardan 500 tasigina o‘rganilgan xolos<sup>23</sup>. Mana shu o‘rganilgan tillarning barchasi leksikologik jihatdan ham o‘rganiladi. Leksikologiya nima? Leksikologiya (leksika va... logiya) – tilshunoslikning til lug‘at tarkibi, ya’ni muayyan bir tilning leksikasini o‘rganuvchi bo‘lim bo‘lib, uning fandagi vazifasi so‘zni yolg‘iz holda emas, balki boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya, yoki

<sup>23</sup>М. Бобожонов. Жажон тиллари хакида энг, энг, энглар. 27.10.2012.

semantika, etimologiya, stilistika hamda soʻz yasalishi haqidagi taʼlimot kabi sohalari bilan chambarchas bogʻliq. Leksikologiyada soʻzlarning maʼno jihatdan oʻzaro bogʻlangan, yaʼni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, soʻz maʼnolarining erkin yoki bogʻliq holda boʻlishi kabi masalalari ham oʻrganiladi. Leksika muayyan bir tizim sifatida koʻrilganda, soʻz maʼnolari va tushunchalarning oʻzaro bogʻliq holda boʻlishi koʻzda tutiladi.

Leksikologiya lugʻat tarkibining amalda ishlatilishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini, soʻzlarning uslubiy jihatdan tasnifiy tamoyillarini ishlab chiqadi. Shuningdek, “soʻzlashuv va adabiy tillarda foydalanish meʼyorlarini, professionalizm, dialektizm, arxaizm, neologizm, leksikalashgan soʻz birikmalarini meʼyorlashtirish kabi masalalarni tahlil etadi hamda bular haqida muayyan xulosalar chiqaradi”.<sup>24</sup>

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tilning lugʻat tarkibi va uni tashkil etuvchi soʻzlar bir qator umumiy xususiyatlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Leksikologiya leksikani xuddi shu umumiy xususiyatlari nuqtai nazaridan oʻrganadi. Bu xususiyatlar quyidagilar:

1. Avalo, lugʻat tarkibini tashkil etuvchi har qanday soʻz maʼnoga ega boʻladi. Ana shu maʼnosi nuqtai nazaridan soʻzlar oʻziga xosliklarga ega boʻladi. Soʻzning maʼnosi (semantikasi) va u bilan bogʻliq masalalar leksikologiyadagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Leksikaga oid bu masala bilan leksikologiyaning semasiologiya boʻlimi shugʻullanadi.

2. Har handay tilning taraqqiyotida uning eng oʻzgaruvchan, eng tez harakatdagi qismi leksikasidir. Til taraqqiyoti jarayonida lugʻat tarkibi yangi – yangi soʻzlar hisobiga boyib borish bilan birga, undagi ayrim soʻzlar eskiradi, shuningdek, isteʼmoldan chiqib boradi. Demak, lugʻat tarkibi avvaldan oʻzlashtirilib kelingan va hozirda isteʼmoldagi soʻzlar bilan birga nisbatan yangi soʻzlarga va eskirgan soʻzlarga egaligi bilan ham xarakterlanadi. Leksikologiyada leksikaning ana shu tomoni ham oʻrganiladi.

3. Lugʻat tarkibidagi soʻzlar isteʼmoldagi darajasi bu nuqtai nazardan umumiylikka yoki chegaralanganlikka egaligi bilan ham oʻzaro farqlanadi. Maʼlum soʻzlar umumxalq isteʼmolida boʻlsa (masalan, non, suv, katta, yugurmoq va b.), ayrim soʻzlarning isteʼmol doirasi maʼlum jihatdan chegaralangan boʻladi. Masalan, dialektal soʻzlar territorial jihatdan chegaralangan boʻladi (sas – tovush, istamoq – qidirmoq, bolish – yostiq, eshik – hovli, uy va b.); terminlar ijtimoiy nuqtai nazardan chegaralangan, yaʼni maʼlum kasb – hunar sohasidagi kishilar nutqida

<sup>24</sup> Б. Ўринбоев. Лексикология. <https://qomus.info>



qo'llanish bilan chegaralangan bo'ladi. (masalan, urg'u, leksika, affiks – tilshunoslikka oid terminlar; konus, piramida, kvadrat – geometriyaga oid terminlar; kultivatsiya, barona – qishloq xo'jaligiga oid terminlar; basketbol, gol, nokaut – sportga oid terminlar va hokazo). Leksikologiya lug'at tarkibini shu nuqtai nazardan ham o'rganadi.

4. Lug'at tarkibidagi so'zlar nutqqa, uslubga bo'lgan munosabatlariga ko'ra ham o'zaro farqlanadilar. Ma'lum so'zlar nutq turlariga, uslubga (stilga) betaraf (neytral) munosabatda bo'lsa (quchoq, bechora, osmon, ichmoq va b.), ayrim so'zlar nutq uslubining ma'lum turiga xos bo'ladi (og'ush – badiiy uslubga xos, boyaqish – oddiy nutqqa xos, samo – poetik uslubga xos, adib – kitobiy uslubga xos va hokazo). Leksikologiyada so'zlarning ana shu xususiyatlari ham o'rganiladi.

5. Har bir so'z tovush qiyofasi va ma'nosiga ega, ya'ni shakl va mazmunga ega. Lug'at tarkibidagi so'zlar ana shu shakl va mazmuni jihatidan turlicha munosabatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, chaqqon, epchil, chechan, abjir, chapdast so'zlarining shakli har xil, ma'nosi bir xil (sinonim); ko'k (rang), ko'k (osmon), ko'k (maysa, ko'kat) so'zlarining shakli bir xil, ma'nosi har xil (omonim) va hokazo. Leksikologiyada so'zlar o'zaro ana shunday munosabatlari nuqtai nazaridan ham o'rganiladi<sup>25</sup>. [3. 5.]

So'zlar haqida aytib o'tilgan xususiyatlar tildagi barcha so'zlar uchun taalluqli hisoblanadi. Leksikologiyada ham asosan ana shu tipdagi so'zlar o'rganiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Leksikologiya leksikani o'rganadi, leksika esa so'zlardan (so'zlar majmuidan) iborat bo'ladi, shunday ekan birinchi navbatda so'zning o'zi haqida, uning mohiyati haqida to'xtab o'tishga to'g'ri keladi. Ayrim ishlarda «asosiy til birligi», «til va nutqning eng muhim elementlaridan biri», «tilning eng kichik asosiy birligi» deb umumiy tarzda va oddiygina ta'riflanadigan so'z aslida juda murakkab xususiyatga ega. Uch – to'rt og'iz so'z, hatto uch – to'rt jumla bilan ham so'zga to'la ta'rif berib bo'lmaydi. Shu vaqtga qadar lingvistik adabiyotlarda so'zga uning boshqa hodisalardan farqini belgilovchi aniq, mukammal ta'rif yo'qligining boisi ham ana shunda. So'z til birligi sifatida juda murakkab xususiyatga ega ekan, so'zga qandaydir umumiy yoki aniq ta'rif berishdan ko'ra, uning o'ziga xos tomonlarini, boshqa til birliklaridan farqli belgi – xususiyatlarini yoritish muhimdir. Oddiy nazar tashlashdayoq so'zning tovushdan, tovushlar majmuidan tuzilishi aniq seziladi. Barcha tillarda ham so'z asosan birdan ortiq tovushdan tuziladi. Bir tovushdan iborat so'zlar juda kam miqdorni tashkil etadi

<sup>25</sup> Ўзбекистон ССР ФА Гариш, тилшунослик ва адабиётшунослик бўлими томонидан нашрга тайёрланган. Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент. 1981 йил. 5 – бет.

(so‘roq bildiruvchi – «a», achinish, afsuslanish bildiruvchi – «e» so‘zlari). Shuningdek, har qanday so‘zning ma‘lum bir ma‘no ifodalashi ham shu tilda so‘zlashuvchilar uchun sir emas. Ma‘lum bir ma‘noga ega bo‘lmagan har qanday tovush yoki tovushlar majmui hech vaqt so‘z bo‘la olmaydi. Har qanday so‘z paydo bo‘lishidayoq o‘z ma‘nosi va tovush qiyofasiga (tovush qobig‘iga) ega bo‘ladi. Demak, har qanday so‘z, avvalo, tovush va ma‘no birligiga ega bo‘ladi. Bu narsa so‘zning fonetik va semantik tomoni. So‘zning tovush tomoni uning ma‘nosini reallashtiruvchi (yuzaga chiqaruvchi)dir. Xuddi shu tovush tomoni (tovush qiyofasi) bilan so‘zning ma‘nosi tinglovchiga yetadi, tushuniladi. Demak, u so‘zning ma‘nosi uchun, uning reallashuvi uchun xizmat qiladi.

So‘zning ma‘nosi ma‘lum tovushlar majmuida reallashishi sababli bu ma‘noni tovushlar majmui, tovushlarning ma‘lum tartibdagi birligi hosil qiladigandek tuyuladi. Boshqacha aytganda, tovushlar «ma‘nosi»ning birligi so‘zning ma‘nosidan iboratdek bo‘lib ko‘rinadi. Haqiqatda esa bunday emas. Garchi tovushsiz so‘z bo‘lmasa – da, biroq u yoki bu so‘zning mazmuni shu so‘zni tashkil etgan tovushlar «ma‘nosi»ning yig‘indisidan kelib chiqmaydi. Tovushlar (fonemalar) ma‘noga ega emas. Shuning uchun tovushlarning har qanday majmui ma‘no ifodalayvermaydi. Masalan, **“o, d, a, m”** tovushlaridan iborat **“odam”** tovush majmui ma‘lum ma‘no ifodalagani (so‘z bo‘lgani) holda, shu tovushlarning **“adom”, “admo”** yoki **“odma”** majmui hech qanday ma‘noga ega emas va ular so‘z ham emas. Xuddi shu fonemalardan tashkil topgan **“omad”** ham ma‘noga ega va so‘z hisoblanadi. Lekin u **“odam”** so‘zidan tamomila boshqa so‘z<sup>26</sup>. [4.7.] Agar so‘zning ma‘nosi undagi tovushlar ma‘nosiga va bu tovushlarning ma‘lum tartibda joylashuviga (tartibiga) bog‘liq bo‘lganida, har qanday so‘zning ma‘nosini undagi tovushlar va bu tovushlarning tartibi asosida izohlash, shu yo‘l bilan so‘zning ma‘no asosini topish mumkin bo‘lar edi. Haqiqatda esa bunday qilib bo‘lmaydi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, har qanday so‘z (tub so‘z) aniq bir tovush qobig‘iga ega bo‘ladi. Bu qobiqdagi tovushlarni, ularning miqdorini, shuniigdek, tartibini kishilar, ya‘ni shu tilda so‘zlashuvchilar belgilamaydi. Balki ha bir so‘z ma‘lum ma‘noni ifodalovchi sifatida o‘z tovush qiyofasi (qobig‘i) bilan yuzaga keladi va shu tovush qiyofasidagina u ma‘no ifodalanadi, tushuniladi.

Tovush qobig‘idagi tovush yoki tovushlar miqdori o‘zgartirilsa, shuningdek, tovushlar tartibi o‘zgartirilsa, bu qobiqqa xos ma‘no ham va shu qobiqdagi so‘z ham yo‘qoladi yoki o‘zgaradi. (Masalan, osmon so‘zining tovushlarini tovushlar

<sup>26</sup> Ўзбекистон ССР ФА Тарих, тилшунослик ва адабиётшунослик бўлими томонидан нашрга тайёрланган. Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент. 1981 йил. 7 – бет.

miqdorini va tovushlar tartibini o'zgartirib ko'ring). To'g'ri, so'zning tovush qobig'ida o'zgarish bo'lsa-da, ma'no saqlanishi, demak, so'zning o'zi ham saqlanishi mumkin. Leqin bu hodisa (tovush qobig'idagi o'zgarish) "*birdaniga*" (darhol) emas, balki til taraqqiyoti jarayonida yuz bersagina shunday bo'ladi. Bu hodisa tub so'zlardagina emas, balki yasama so'zlarda ham yuz berishi mumkin. Masalan, *evur – o'gir (aylantir), biragu – birov, iroq – yiroq, yog'och – og'och, kiprik – kirpik, qo'imi – qo'nshi, magiz – mayiz* va hokazo. So'zning tovush qobig'ida bo'ladigan bunday o'zgarishlar so'zning o'z ma'nosi bilan yashash jarayonida ma'lum qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Shuning uchun ham bu o'zgarish ma'noning, shu bilan birga so'zning yo'qolishiga olib kelmaydi.

So'z tovush qobig'ining o'zgarishi bilan (tovushning sifat yoki miqdoriy o'zgarishi, tovush tartibining o'zgarishi bilan) ma'noning o'zgarishi, yangi so'z hosil bo'lishi hodisasi ham bor: *ko'r – ko'z, artmoq – arch(i)moq) artmoq – derazani artmoq, stolni artmoq; archi(i)moq: kartoshkani arch (i)moq* va boshqalar<sup>27</sup>. [5.9.] So'zning ikkinchi muhim belgisi ma'lum ma'noga egaligidir. Lekin so'zlar ifodalaydigan ma'nolar bir xil emas. Ular eng umumiy xususiyatlari bilan ham turli tipga bo'linadi. Masalan, ayrim so'zlar ob'ektiv borliqdagi narsa – hodisa, belgi, harakat kabilarni bildiradi (shu narsa – hodisa, belgi, harakatni ataydi): *bog', daryo, ko'k, baland, o'qimoq* va hokazo;

Undovlar faqat his – hayajon, buyruq – xitob bildiradi: *oh, voy, bay-bay, balli* va boshqalar;

Yuklama va modal so'zlar fikrning voqelikka munosabatini bildiradi: *axir, faqat, darvoqe, shubhasiz* va boshqalar;

Ko'makchi va bog'lovchilar (*uchun, tufayli, so'ng, bilan, va...*) faqat grammatik ma'noga ega va hokazo. Lekin, qanday tipdagi ma'no ifodalashlaridan qat'i nazar, ularning hammasi ham so'z hisoblanadi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, so'z nihoyatda murakkab xususiyatlarga ega bo'lgan til birligidir. U o'zining muhim belgi – xususiyatlari bilan tilshunoslikning maxsus bo'limlarining o'rganish ob'ekti bo'ladi.

<sup>27</sup> Ўзбекистон ССР ФА Тарих, тилшунослик ва адабиётшунослик бўлими томонидан нашрга тайёрланган. Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент. 1981 йил. 9 – бет.

---

## REFERENCES

1. Musajon Bobojonov. Jahon tillari haqida eng, eng, englar. 27.10.2012. <https://m.ok.ru>
2. Bozorboy O‘rinboyev. Leksikologiya. <https://qomus.info>
3. O‘zbekiston SSR FA Tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘limi tomonidan nashrga tayyorlangan O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent. 1981 yil.
4. Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 1965 yil.
5. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1 – jild. Toshkent, 1966 yil.

## **GLOBALLASHUV DAVRIDA MA'NAVIY BARKAMOL VA VATANPARVAR SHAXSNI TARBIYALASHNING DOLZARB MASALALARI**

**Shukurov Nusratillo Narzullayevich**

Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada bugungi globallashgan zamonda O'zbekistonda yoshlarni ma'naviy barkamol va vatanparvar etib tarbiyalashdagi asosiy omillar, ushbu masalaning dolzarbligi va shu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy – tadqiqot ishlarining ko'lami, berilayotgan tavsiyalar haqida fikrlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** globallashuv, ma'naviy, ma'rifiy, inson, yoshlar, vatanparvarlik, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, tahdid.

### **ABSTRACT**

*This article describes the main factors in the spiritual and patriotic upbringing of youth in Uzbekistan in today's globalized world, the urgency of this issue and the scope of research in this area, and the recommendations.*

**Keywords:** globalization, spiritual, educational, human, youth, patriotism, political, economic, cultural, threat.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье описаны основные факторы духовно-патриотического воспитания молодежи Узбекистана в условиях современного глобализированного мира, актуальность данного вопроса и объем исследований в этой области, даны рекомендации.*

**Ключевые слова:** глобализация, духовная, образовательная, человеческая, молодежь, патриотизм, политическая, экономическая, культурная, угроза.

### **KIRISH**

Ma'lumki, bugungi kunda insoniyat turli xildagi har qanday olamshumul voqealarni tezda o'zlashtirib, tezda unutadigan, o'tkir geosiyosiy – ommaviy hodisalar jarayoni jadal sur'atlarda rivojlanib, bir davlatni ikkinchisiga hushyor bo'lishga da'vat etadigan davrda yashamoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu davr texnogen va siyosiy globallashuvning eng yuqori darajasi deb izohlanmoqda. Ana shunday globallashuv jarayonida dunyodagi jamiki xalqlar hayotida tushunib bo'lmaydigan, ularning necha asrlar damida o'z tarixida rivojlangan milliy madaniyatning asl ko'rinishlarini, uning jozibasi va go'zalligini o'zgartirib

yuboradigan, xalqqa yot bo‘lgan odat va ko‘nikmalar paydo bo‘lmoqda. Chunki an‘anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi kurash jamiyat a‘zolarini har xil tomonlarga yetaklab ketayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz. O‘z – o‘zidan ko‘rinib turibdiki, mustaqil O‘zbekiston ham dunyoda yuz berayotgan ana shunday an‘anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi ziddiyatlardan chetda tura olmaydi. Chunki hozirgi paytda hammaga ma‘lumki, yer yuzi aholisi siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda bir – birlari bilan aloqadorlikda va o‘zaro manfaatdorlikda rivojlanmoqda. Tabiiyki, bunda qo‘shnichilik munosabatlari asosiy o‘rin tutadi va o‘z o‘rnida buning ijobiy va salbiy jihatlari ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda globallashuv jarayonining dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati, madaniyati va ma‘naviyatiga o‘tkazishi mumkin bo‘lgan ijobiy va salbiy ta‘sirining ko‘rinishlarini mashhur hind davlat arbobi M. Gandining quyidagi so‘zlari orqali ifodalaymiz: “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar–to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman”<sup>28</sup>[<https://bigasia.ru> 2019. 20.06.]. Maxatma Gandining uzoq yillar oldin aytilgan yuqoridagi fikridan hozirgi dunyoda kechayotgan “globallashuv” jarayonning mohiyatini anglab olish mumkin. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, globallashuv jarayoni stixiyali tarzda yuzaga kelgan hodisalar oqibati emas. Bunday murakkab jarayon u yoki bu shaklda deyarli jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo‘lib, faqat bugungi kunga kelib, ijtimoiy – siyosiy va texnologik taraqqiyot ta‘siri natijasida uning mohiyati o‘zgacha ko‘rinishga ega bo‘ldi. Mana shunday tahlikali davrlarda yoshlarning o‘z yo‘lini adashmasdan to‘g‘ri topib olishi uchun ularni yoshligidan ma‘naviy tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratmoq zarur, deb o‘ylaymiz. Hammaga ma‘lumki, ma‘naviy tarbiya deganda, insonning har tomonlama komillikka erishuvi tushuniladi va vatanparvarlik g‘oyasi bu tushunchaning o‘zagini tashkil etadi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirgi paytda yuqorida tilga olinganidek, globallashuv davrida mana shunday jarayonlardan adashmay, og‘ishmasdan to‘g‘ri yo‘lni tanlash o‘ta muhim jarayon hisoblanadi. Milliy madaniyat va ma‘naviy qadriyatlar shaxsning hayot mazmunini, ma‘naviy yaxlitlikni asrab qolishi, o‘z-o‘zini anglay bilishi va turmush tarzini belgilab beruvchi asosiy manba sifatida jamiyat va shaxs uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi zarur. Tadqiqotchilari I.Ponomaryova bu xususda oliy ta‘lim

<sup>28</sup> М. Ганди. <https://bigasia.ru> 2019. 20.06.

muassasalari talabalari o'rtasida olib borgan sotsiologik tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan 87% talabalar OAV va internet orqali kirib kelayotgan g'arbona yurish – turish, an'ana va qadriyatlar tobora o'rnashib qolayotganligini, yoshlarning aksariyati xorijiy kanallarda berilayotgan turli xil kinofilmlarni tomosha qilishga ishqiboz ekanligini, ularda bunday ehtiyojlarning ortib borayotganini shu bilan birga, yoshlarimiz orasida milliy qadriyatlarimiz va an'alarimizga bo'lgan munosabat o'zgarayotganligini ko'rsatganligini ko'rsatib bergan<sup>29</sup>. Shuni aytish joizki, yoshlarimiz orasida yuz berayotgan bunday salbiy holatlar uchun globallashuv jarayoni “aybdor” ham “javobgar” ham emas. Aksincha, bu ko'proq sub'ektiv omillarga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu sababli ham mazkur jarayonning tomoshabinlari sifatida qarsak chalib o'tirmasdan, milliy mentalitetimizga yot bo'lgan madaniyatlarni targ'ib qilishni chegaralash zarur, deb o'ylaymiz.

Jamiyat oldidagi muhim ustuvor vazifalarni ichida albatta, yoshlarda vatanparvarlikni targ'ib qilish, sadoqatli avlodni voyaga yetkazish vazifasi ham alohiyat ahamiyat kasb etadi. Jamiyatimizning rivojlanganlik darajasi, hozirgi globallashuv davrida ushbu yo'nalishdagi turli g'oyaviy tahdidlar va mafkuraviy xurujlarni ilmiy tahlil qilishda O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoevning asarlari, ko'plab ma'ruza va chiqishlaridagi mamlakatimizning yangi qiyofasini yaratish, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda ma'naviy omillarga alohida ahamiyat qaratish, ular asosida tarbiyalangan ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularda xalqimizning ezgu intilishlariga sodiqlikni shakllantirish haqidagi fikr – mulohazalari nazariy – metodologik asos bo'lganini alohida qayd etishimiz lozim.

2022 yil 28 yanvarda Prezidentimizning Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha PF – 60 bilan tasdiqlangan 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi taraqqiyot strategiyasi” to'g'risidagi Farmoni va uning asosida qabul qilinayotgan bir qancha me'yoriy hujjatlar ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risidagi qarori eng muhim va tayanch metodologik hujjatlardir. Ayni paytda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” (T.:O'zbekiston, 2016.), “Tanqidiy tahlil, kat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak” (T.: O'zbekiston, 2017) kabi asarlari, jamiyatimiz taraqqiyotining ma'naviy-ma'rifiy

<sup>29</sup> Ф.Жалилова. “Жамият ва бошқарув” журналі, 2010 йил, 1 сон, 134 – бет.

sohalariga oid boshqa qaror va farmonlari ham ushbu ishimizning metodologik asosi hisoblanadi.

Bugungi kunda vatanparvar ma'naviy barkamol yosh avlodni tarbiyalash, bugungi globallashuv davrining talablariga mos va tahdidlarga bardosh bera oladigan yoshlarni voyaga yetkazish bilan bog'liq masalalar tahliliga bag'ishlangan asar va tadqiqotlar mamlakatimizda ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan olim va mutaxassislar faoliyatining tarkibiy qismiga aylangan deyish uchun barcha asoslar bor. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan yoshlarga doir faoliyat bilan bog'liq masalalar tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida ushbu tadqiqot etayotgan mavzumizga eng yaqinlari sifatida Z. Qodirova, E. Bobomurodov, M. Yuldashev, S. Jo'raev, G. Tulenovalarning izlanishlari va ilmiy ishlarini alohida ta'kidlash lozim, deb o'ylaymiz. Mamlakatimizda asosiy kuch hisoblangan yoshlar qatlami, ularning hayoti va faoliyatiga doir ayrim masalalar N. Temirova, Sh. Ermatov, T. Qurbonov, R. Qurbonov, D. Raximova kabi tadqiqotchilarning nomzodlik dissertatsiyalarida o'z ifodasini topgan<sup>30</sup>. [3, 112.] Xullas, navqiron va har ishga qodir yoshlar va ularning jamiyatdagi o'rni, hayoti hamda faoliyati bilan bog'liq turli masalalar respublikamizning juda qo'plab salohiyatli olim va mutaxassislari tomonidan o'rganilmoqda, ularning xilma – xil jihatlari to'g'risida ilmiy – tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish bilan bog'liq falsafiy – ijtimoiy masalalar maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lmagan. Bu esa, o'z navbatida mazkur yo'nalishda maxsus tadqiqot olib borish hamda tegishli nazariy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar tayyorlash zarurligidan dalolat beradi.

Ushbu yo'nalishda xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi shundan dalolat beradiki, turli mamlakatlarda vatanparvar, barkamol avlodni tarbiyalash, turli tajovuzkor tahdidlarga chidam bilan bardosh beradigan yoshlarga xos xususiyatlarni shakllantirishga doir tadqiqotlar bugungi G'arb dunyosining yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, AQShdagi V. Vilson xalqaro tadqiqot markazi (Woodrow Wilson International center for scholars, Washington), Yel universiteti, Garvard, Kolumbiya universitetlari, Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi (SOAS, Angliya), Gumbold universitetining Yevropa etnologiyasi instituti (Germaniya), Fransiyadagi Sarbonna universiteti, Institute of Central Asia (Fransiya), Parij Ijtimoiy fanlar Oliy maktabi (EHESS, Fransiya), Lomonosov nomidagi Moskva

<sup>30</sup> X.Э.Абдуносирова. Ёшларда таҳдидбардошликни шакллантириш: таҳлил ва талқин диалектикаси. Республика илмий – амалий конференция материаллари. Навоий. 2021 йил. 112 – бет.



davlat universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik, Falsafa hamda Sotsiologiya institutlari (Rossiya) va boshqa shu kabi ilmiy markazlarda olib borilmoqda. Nafaqat Osiyo va Sharq ilm-fani, balki butun jahonning yetakchi ilmiy markazlari va OTMLari qatoriga kiruvchi Institute of Academy for study of the modern international relations Europe and Asia (Xitoy), Tokio universiteti qoshidagi Osiyo va Afrika madaniyati va tilini o'rganish tadqiqot instituti (Research Institute for Languages and Cultures of Asia and Africa at the Tokyo University of Foreign Studies), Asian Strategy and Leadership Institute (Malayziya) bilan birga, Janubiy Koreyadagi Osiyo madaniyatini tadqiq etish instituti (Asia Culture Research Institute, Hindistondagi J.Neru universiteti Markaziy Osiyoni tadqiq etish xalqaro munosabatlar markazi (Central Asian Studies, School of International Studies, Jawaharlal Nehru University) kabilarda olib borilayotgan izlanishlarda ham biz tahlil qilayotgan mavzuga doir qimmatli natijalarga erishilgan<sup>31</sup>. [4. 113]

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlarning vatanparvarlik tuyg'usini oshishiga bugungi kunda ularning ma'naviy immunitetini shakllantirish tadbirlari alohida ahamiyat kasb etib, yuksak axloqiy madaniyatni talab etuvchi ijtimoiy – ma'naviy voqelik hisoblanadi. U yosh insonning shaxsi bilan bevosita bog'liq bo'lib, muayyan g'oyaviy tarbiya va axloqiy madaniyat uyg'unligini taqozo etadi. Tahdidbardoshlik xususiyatiga ega bo'lgan yosh avlod vakili, avvalo, ona yurtining, xalqining tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo'lida fidoiylik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan yoshlardan biridir. Qolaversa, Vatanga, xalqqa bo'lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg'usi asosida shakllanuvchi tahdidlarga bardoshli bo'lish muayyan milliy manfaatlar, umumiy maqsadlar asosida shakllanib, yoshlarning qalbidan chuqur o'rin oladi, faoliyatiga ta'sir qilib, ularni mas'uliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etib turadi. Bundan tashqari, yoshlarning tahdidlarga bardoshliligi ayni paytda ularning o'z ishiga mas'uliyat bilan qarashi, vatanni ko'z qorachig'iday asrashi, ilm – fan cho'qqilari sari intilishi kabilar uchun muayyan tayanch omil bo'lishi ham mumkin, albatta. Bularning barchasi Avesto zamonlaridan boshlab, Sharq va G'arb ijtimoiy – falsafiy tafakkurida aks etgan purma'no fikrlar, mutaffakkirlarning asarlari Suqrot va Platon, Aristotel va Konfusiy, Al – Buxoriy va At – Termiziy, Al – Xorazmiy va Forobiy, Beruniy, Ibn – Sino, Abu Homid G'azzoliy va Aziziddin Nasafiy, Jaloliddin Rumiy va Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband va Nizomulmuluk, Amir Temur va Alisher Navoiy kabi atoqli allomalarning g'oya va ta'limotlarining bugungi yoshlar

<sup>31</sup> Х.Э.Абдуносирова. Ёшларда таҳдидбардошликни шакллантириш: таҳлил ва талқин диалектикаси. Республика илмий – амалий конференция материаллари. Навоий. 2021 йил. 113 – бет.

tarbiyasiga o'ziga xos ta'siri borligidan dalolat beradi, albatta. Bugungi kunda nafaqat zamonaviy qarashlar, balki ana shunday ulug' mutafakkirlarning g'oya va qarashlarini chuqur o'rganish va ularning asarlaridagi fikr va qarashlarini keng targ'ib etish imkonini beruvchi izlanish va tadqiqotlarga ehtiyoj ortib borayotgani ham aslo bejiz emas. Bu esa, o'z navbatida, axborot almashinuvi jadallashgan, globallashuv jarayonlari tinimsiz yangilanib borayotgan bugungi davrda ana shu zamonga mos va tahdidlarga chidamli yoshlarni voyaga yetkazish ehtiyoji ijtimoiy zaruratga aylanib borayotganidan dalolat beradi. Demak, globallashuv jarayonida yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etishga qaratilgan bir necha taklif va xulosalarni ilgari surish mumkin:

- jamiyatning barcha qatlamlari, xususan, yoshlar ongida taraqqiyotga xizmat qiluvchi an'anaviy va zamonaviy ijtimoiy – madaniy qadriyatlarni shakllantirish;
- yosh avlodni milliy o'zlikni anglash, tarixiy tafakkurni shakllantirish va milliy mustaqillik g'oyasi asosida tarbiyalash;
- ta'limda ilg'or texnologiyalarni amalda qo'llagan holda, jamiyatga kirib kelayotgan yangicha madaniyat va qadriyatlarni chuqur anglash, yoshlar ongida ularga qarshi tura oladigan kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- olimlarimiz tomonidan globallashuv jarayonining tendensiyalarini hisobga olgan holda, xalqimizning uzoq ming yillik milliy qadriyatlarni himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish;
- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalarida ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarning sifatini oshirish.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonining vujudga kelish sabablari, mohiyati va xususiyatlarini o'rganish, uning natijalarini tahlil etib, to'g'ri baho bera olish hamda ulardan davlatimiz taraqqiyoti yo'lida foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish zamon bilan hamnafas qadam tashlayotgan har bir olim va fuqaroning asosiy vazifalaridan biriga aylanmog'i zarur.

## **REFERENCES**

1. M. Gandi. <https://bigasia.ru> 2019. 20.06.
2. F.Jalilova. "Jamiyat va boshqaruv" jurnali, 2010 yil, 1 son.
3. X.E.Abdunosirova. Yoshlarda tahdidbardoshlikni shakllantirish: tahlil va talqin dialektikasi. Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Navoiy. 2021 yil.

## **NAVOIY VILOYATIDA OLIY TA'LIMNING RIVOJLANISHIDAGI BA'ZI TAHLILYI JIHATLAR**

**Xamrayeva Saodat Islomovna**

NavDPI Tarix fakulteti katta o'qituvchisi

+998 91 334 13 44

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Navoiy viloyatida oliy ta'limning rivojlanishi, moddiy texnik bazasining mustahkamlanishi, ta'lim sifati va ko'lamining oshirilishi, olib borilayotgan ilmiy – tadqiqot ishlarining salmog'i va uning mamalakat ijtimoiy hayoti va iqtisodiyotida amaliy natijalari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, institut, qonun, farmon, bilim, mutaxassis, kadr, fakultet.

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the development of higher education in Navoi region during the years of independence, strengthening the material and technical base, increasing the quality and scope of education, the weight of research and its practical results in the social life and economy of the country.*

**Keywords:** higher education, institute, law, decree, knowledge, specialist, faculty.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье анализируется развитие высшего образования Навоийской области за годы независимости, укрепление материально-технической базы, повышение качества и масштабов образования, вес научных исследований и их практических результатов в общественной жизни и экономике Навоийской области. страна.*

**Ключевые слова:** высшее образование, институт, закон, указ, знания, специалист, факультет.

### **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasida asrlar davomida orzu qilingan mustaqillik qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardan oq ta'lim sohasini tubdan isloh qilish va rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama ma'naviy va jismoniy yetuk kadrlar etib voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Mustaqillikning ilk yillaridayoq O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1992, 1997, 2020), "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" (1997) da davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ta'limning ustuvor deb e'lon qilinishi ta'lim tizimi zimmasiga juda katta mas'uliyatli,

ulug'vor vazifalarni yukladi, ayniqsa, oliy ta'lim tizimi faoliyatini va ilmiy salohiyatini ko'tarish dolzarb vazifaga aylandi.

Hammamizga ma'lumki, hozirgi zamon fanida, ijtimoiy hayot sohalarida ajoyib kashfiyotlar, murakkab jarayonlar, universal texnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar yuz bermoqda. Bu jarayonlarning amalga oshishida esa ta'lim tizimining, ayniqsa, oliy ta'limning o'rni beqiyos. Ozodlikning qo'lga kiritilishi bilan hukumat oliy ta'lim tizimining faoliyatini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish maqsadida O'zbekistonning imkoniyatlaridan foydalanib, salmoqli vazifalarni amaga oshirdi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki yillarida o'z asarlarida ta'kidlashicha, "O'zbekiston innovasion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy – texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu – mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi"<sup>32</sup>. [1, 67]

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Yuqorida tilga olingan shunday jarayonlarni, yangiliklarni tahlil qilishda, ularni bugungi globallashuv davri bilan bog'lashda ilmiy tadqiqot ishlarining ko'lamini oshirish zarur.

Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilanoq ta'limni isloh qilishda ilk qadamni 1992 yilda birinchi "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" ning qabul qilinishi bilan boshladi va oliy ta'lim sohasida ham yirik vazifalar amalga oshirildi, ko'plab yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etilib, ularning ilmiy faoliyati hukumatimizning diqqat markazida bo'ldi. Keyinchalik 1997 yil 29 avgustda "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" ning yangi tahriri va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinishi ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni yaratdi.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi tub islohotlar o'ziga xos demokratik umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil topgan. Bu xaqda, birinchi Prezidentimiz I.Karimov juda ko'plab nutq va asarlarida ta'lim – tarbiya sohasidagi islohotlarimizning erkin, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilishi lozimligini ta'kidlab o'tib, "bizga bitiruvchilar

<sup>32</sup> И.А.Каримов. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т. "Шарк" нашриёти, 1998.67 – бет.

emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak. ...Ishonchim komil: agar bu islohotni muvaffaqiyatli biz hayotimizdagi ijobiy ma'nodagi "portlash effekti"ga, ya'ni uning samarasiga erishamiz"<sup>33</sup>, [2, 9] deb ta'kidlagan edilar. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston bugun yoshlar ta'limini rivojlantirish sohasida bu yo'ldan dadil bormoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahnamoligida O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni jahon miqyosida targ'ib etish, bu borada jahon amaliyotidan foydalanish va xalqaro hamjamiyat bilan bu borada hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida ta'lim sohasiga oid turli mavzularda xalqaro konferensiyalar, jumladan, 2012 yil 16 – 17 fevral kunlari Toshkentda "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusida xalqaro konferensiya, 2019 yil 25 noyabr kuni Samarqandda "Ipak yo'li" turizm xalqaro universitetida "Turizm va ta'lim: o'zaro hamkorlik va taraqqiyot yo'llari" mavzusida xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya, 2020 yil 3 – 4 dekabr kunlari "Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa davlatlari oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ta'lim" mavzusida xalqaro onlayn konferensiya, 2020 yil 27 – 28 fevral kunlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokroturasi tomonidan Oliy Majlis senati, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi, BMT NJB, shuningdek, YXHTning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori ofisi ko'magida "Oliy ta'lim – korrupsiyasiz soha" kabi mavzularda xalqaro ilmiy – amaliy konferensiyalar tashkil etildi. Ushbu konferensiyalarda e'tirof etilganidek, mamlakatimizda 11 yillik majburiy bepul ta'lim olish hamda O'zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo'naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10 – 12 foizini tashkil etayotgani va bu tizimning Davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ortig'ni tashkil etishi o'z – o'zidan mazkur sohaga qaratilayotgan ulkan e'tiborning yaqqol tasdig'i hisoblanadi.

Shu o'rinda tadqiqot ishimizning asosiy jihatlaridan biri Zarafshon vohasining markaziy qismida joylashgan Navoiy viloyatida oliy ta'limning shakllanishi va rivojlanishi tarixi masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Navoiy viloyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 yanvardagi PF – 356 – sonli farmoniga binoan Navoiy davlat konchilik instituti va Navoiy davlat pedagogika instituti tashkil etildi.

<sup>33</sup> И.А.Каримов. "Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори". Т. "Шарк", 1997. 9 – бет.

Hozirgi kunda ushbu oliy o'quv yurtlari nafaqat viloyat, balki respublika uchun zarur malakali mutaxassislar tayyorlab, O'zbekiston Respublikasi kadrlarining safini kengaytirib jahonga yuz burishida asosiy o'rin tutmoqda. Shuningdek, aytish joizki, viloyatdagi ikkala ushbu oliygohlar xalqaro miqyosda ham aloqlarni kengaytirib bormoqdalar.

Navoiy davlat pedagogika institutida 519 dan ortiq professor – o'qituvchilar, 11 nafar fan doktorlari, professorlar, 150 ga yaqin fan nomzodlari, falsafa doktori (RhD) dotsentlar, ko'plab ilmiy tadqiqotchilar va ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh stajyor – tadqiqotchi izlanuvchilar faoliyat olib bormoqdalar. Institutda ilmiy – tadqiqot ishlarini amalga oshirish borasida so'nggi yillarda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, har yili 100 dan ortiq maqolalar, ko'plab darslik va risolalar, monografiyalar chop etilmoqda, o'quv – uslubiy qo'llanmalar yaratilmoqda. Institutning ilmiy salohiyati 2021 yilning yakunida 27,9 % ni tashkil etdi.

Ilmiy – tadqiqot natijalari ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalarida belgilangan fanlarni o'qitishda, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va kasb – hunar, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatida tadbiiq qilinmoqda. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashda, Navoiy viloyati texnogen jarayonlarini tahlil qilish hamda ekologik muammolarni hal qilishda, viloyat tarixi, adabiy muhitini o'rganish va boshqa sohalarda unumli foydalanilmoqda.

Mamlakatda so'nggi besh yil ichida olib borilayotgan islohotlarning ko'lami va sifati keskin o'sib borayotganini barcha sohalarda, jumladan, oliy ta'lim sohasida ham ko'rishimiz mumkin. Birgina joriy o'quv yilida, ya'ni 2021 – 2022 o'quv yilida institutda kunduzgi ta'lim shaklida 10710 nafar, sirtqi ta'lim shaklida 5722 nafar, kechki ta'lim shaklida 8 ta ta'lim yo'nalishida 608 nafar, magistratura yo'nalishida 633 nafar, ikkinchi mutaxassislik yo'nalishlarida 795 nafar, jami 17973 nafar talaba tahsil olmoqda. Shundan 12 nafari xorijiy davlatlarning fuqarolari hisoblanadi. Oxirgi besh yil davomida talabalar kontingenti 58 % ga oshgan<sup>34</sup>. [<https://nspi.uz>]

Institutning xorijiy davlatlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalari ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda chet eldagi ilmiy markazlar bilan hamkorlik yaxshilandi. Rossiya Federatsiyasi FA Sibir bo'limi (Novosibirsk hisoblash texnologiyalari instituti, Hisoblash markazi, Krasnoyarsk shahridagi Fizika instituti), MDU, MDPU, Novosibirsk DU, Qozog'iston Respublikasining Olma – ota industrial – pedagogika Akademiyasi, Chimkent DU, Bolgariya Respublikasining Varna iqtisodiyot

<sup>34</sup> НавДПИ расмий канали маълумоти. <https://nspi.uz>

universiteti va Koreya Respublikasi Seul Milliy universitetlari bilan o‘zaro manfaatli ilmiy hamkorlik ishlari olib borilgan. Oxirgi uch yilda xalqaro hamkorlik faoliyatini quyidagicha tahlil etishimiz mumkin. 2019 yilda 17 nafar xorijiy OTM bilan hamkorlik olib borilgan, xorijdan jalb etilgan professor o‘qituvchilar 7 nafar, 2020 yilda 21 nafar xorijiy OTM bilan hamkorlik olib borilgan, xorijdan jalb etilgan professor o‘qituvchilar 10 nafar, 2021 yilda 26 nafar xorijiy OTM bilan hamkorlik olib borilgan, xorijdan jalb etilgan professor o‘qituvchilar 3 nafar<sup>35</sup>. [NavDPI rasmiy kanali] Bu raqamlar albatta ta’lim sifatini oshishida alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Institut faoliyati tarixiga nazar tashlar ekanmiz, har yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyishiga asosan ta’lim sifatini oshirishga mo‘ljallangan turli mavzularda bir nechta xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy konferensiyalar o‘tkazilib kelinmoqda va materiallar to‘plami chop etilmoqda. Masalan, 2021 yil davomida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 78 – f – farmoyishiga asosan, institutda 4 ta xalqaro va 6 ta Respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy konferensiyalar o‘tkazildi.

2010 yilda Navoiy davlat pedagogika instituti va Koreya Respublikasi Seul Milliy universiteti o‘rtasida imzolangan hamkorlik Memorandumiga asosan hamda Seul Milliy universitetining taklifiga binoan NavDPIning 10 nafar professor – o‘qituvchilari 2011 yil 21 – 25 fevral kunlari Koreya Respublikasida xizmat safarida bo‘lishdi.

Institutda talabalarning Davlat ta’lim standartlariga munosib tarzda bilim olishlari uchun barcha imkoniyat va shart – sharoitlar yaratilgan. Jumladan, barcha o‘quv xonalari zarur jihozlar, kompyuter texnikasi vositalari, o‘quv laboratoriyalari, zarur adabiyotlar, ilmiy manbalar bilan to‘liq jihozlangan. Institutda ko‘plab adabiyotlar jamlangan axborot-resurs markazi, “ZIYoNET” ta’lim markazi, sport zallari muntazam ravishda professor – o‘qituvchilar va talabalar uchun ishlab turibdi. Bundan tashqari institutda turli fan va sport to‘garaklari, klublar, badiiy havaskorlik jamoalari ham bevosita talabalar ishtirokida faoliyat yuritmoqda. Har yili talabalar turli fan olimpiadalari, turli tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelmoqdalar. Shuningdek, institutda Davlat mukofoti sohiblari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi hamda nomdor Davlat stipendiyalari, xalqaro, respublika grant sovrindorlari faoliyat olib bormoqdalar.

**Navoiy davlat konchilik instituti.** Ma’lumki, Navoiy davlat konchilik instituti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 7 iyuldagi PF – 1203 – sonli

<sup>35</sup> НавДПИ Матбуот маркази маълумоти. Манба НавДПИ расмий канали. <https://miniinnovation.uz>

“Navoiy davlat konchilik institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 1995 yil 26 iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 289 – sonli “Navoiy davlat konchilik instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori asosida tashkil etildi.

Bugungi kunda Navoiy davlat konchilik instituti tarkibida 5 ta fakultet faoliyat ko‘rsatmoqda. Bular:

1. Konchilik fakulteti. Uning tarkibida “Konchilik ishlari”, “Kon elektromexanikasi”, “Mehnatni muhofaza qilish”, “Jismoniy tarbiya” kafedralari;
2. Energo – mexanika fakulteti. Uning tarkibida “Avtomatlashtirilgan boshqaruv va informatika”, “Mashinasozlik texnologiyasi”, “Elektr ta‘minoti”, “Umumiy fizika”, “Pedagogika” kafedralari;
3. Kimyo – metallurgiya fakulteti. Uning tarkibida “Kimyo va kimyoviy texnologiya”, “Metallurgiya”, “Iqtisod (sohalar bo‘yicha)”, “Oliy matematika”, “Ijtimoiy fanlar” kafedralari;
4. Zarafshon umumtexnika fakulteti. Uning tarkibida “Tabiiy va umumtexnika fanlari”, “Gumanitar fanlar” kafedralari;
5. Olmaliq kon – metallurgiya fakulteti. Uning tarkibida “Konchilik ishlari va kon elektromexanikasi”, “Metallurgiya va boyitish”, “Gumanitar fanlar” kafedralari faoliyat yuritadi.

Institutda mamlakatimizning kon metallurgiya sanoatini rivojlantirish maqsadida keng qamrovli ilmiy – tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Olimlar tomonidan yaratilgan yangi texnologiya yordamida metallurgiya kombinatlarida yiliga qo‘shimcha 15,0 million AQSh dollari qiymatidagi qimmatbaho metallar ishlab chiqariladi. Jumladan, geologiya sohasi bo‘yicha, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida jami 8,9 mlrd. so‘mlik 26 ta, shundan 2,8 mlrd. so‘mlik 9 ta fundamental, 6,1 mlrd. so‘mlik 17 ta amaliy loyihalar bajarilmoqda. 2020 yilda geologiya sohasida ilmiy faoliyatga oid davlat dasturi tanlovlarida 6,25 mlrd. so‘mga teng 5 ta loyihaga grant malag‘lar va Navoiy hamda Olmaliq kon – metallurgiya kombinatlarining mablag‘lari hisobidan teng sherikchilikda moliylashtirilmoqda<sup>36</sup>. [ <https://miniinnovation.uz> ]

Bajarilgan ilmiy – tadqiqot loyihalar qatorida Navoiy va Olmaliq kon – metallurgiya kombinatlarida to‘plangan 3 milliard tonna texnogen chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini yaratish bo‘yicha bir guruh olimlar tomonidan amalga

<sup>36</sup> <https://miniinnovation.uz>



oshirilgan fundamental, amaliy va innovasion ilmiy – tadqiqot loyihalarning natijasida erishgan yutuqlari alohida e'tiborga loyiq.

Navoiy davlat konchilik institutida 5039 nafar talaba, 128 nafar magistr, 962 nafar bitiruvchilar bo'lib, ularga 192 nafar professor – o'qituvchilar ta'lim beradi. Bulardan 10 nafari fan doktori, professor, 54 nafari fan nomzodi, dotsentlardir. Ilmiy salohiyat ko'satgichi 33 % ni tashkil etadi.

Shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishlariga ham yetarlicha e'tibor qaratilgan. Institutda 1996 – 2021 yillar davomida 10 ta doktorlik va 60 ga yain nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Shu bilan birgalikda, istiqbolli rejaga ko'ra kelgusida 53 nafar fan doktori va 125 nafar fan nomzodi tayyorlanishi ko'zda tutilgan.

Fikrimizcha, bularning barchasi oliy ta'limning sifati va samaradorligi orqali yuksak bilim salohiyatiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash va mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishi, jahon mamlakatlari orasida obro'sini oshirishga qaratilgan sa'yi harakatlardir. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev O'zbekiston Milliy universitetida oliy ta'lim va ilmiy – tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar va yosh tadqiqotchilar bilan bo'lgan uchrashuvda Prezidentimiz oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm – fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengayirish bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan loyihalar haqida fikr yuritib, “Yangi fikr va yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat har doim yutadi va rivojlanadi”<sup>37</sup>, [<https://uza.uz>] deb ta'kidlab o'tdi. Oliy ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar belgilab berildi.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida Navoiy viloyatida oliy ta'limning rivojlanishi tarixi va bugungi rivojlanish istiqbollari tahlil qilgan holda quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

**birinchidan**, viloyatning iqtisodiy – industrial imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu viloyatda oliy ta'lim tizimini yanada kengaytirish;

**ikkinchidan**, viloyatda kadrlarga bo'lgan talabni qondirish maqsadida yangi ta'lim yo'nalishlarini ochish. Masalan, fransuz tili, koreys tili, turk tili va kasbiy ta'lim v.h.

**uchinchidan**, viloyatdagi ushbu ikki oliy ta'lim muassasalarining fan va texnologiyalar bilan aloqasini kengaytirish maqsadda viloyatdagi korxonalar va tashkilotlar bilan shartnomalar tuzib zarur maqsadli kadrlar tayyorlash;

<sup>37</sup> Ш.Мирзиёев. “Бизга миқдор эмас, сифат керак”. <https://uza.uz>

**to‘rtinchidan**, viloyat oliy ta‘lim muassasalarining xalqaro aloqalarini yanada kengaytirish v.h.

Xalqimiz yangi ming yillikda tub islohotlar orqali o‘ziga xos yangilanishlar va modernistik taraqqiyot bilan dadil qadam tashlamoqda. Bu taraqqiyotning zamirida, ildizida, mafkuraviy – ma‘naviy negizlarida umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish g‘oyasi, maqsadi yotadi. Bunda albatta ta‘lim – tarbiya sohasining ahamiyati katta.

#### **REFERENCES**

1. I.A.Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T. “Sharq” nashriyoti, 1998.67 – bet.
2. I.A.Karimov.“Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T. “Sharq”, 1997. 9 – bet.
3. NavDPI rasmiy kanali ma‘lumoti. <https://nspi.uz>
4. NavDPI Matbuot markazi ma‘lumoti. Manba NavDPI rasmiy kanali.
5. <https://miniinnovation.uz>
6. Sh.Mirziyoyev. “Bizga miqdor emas, sifat kerak”. <https://uza.uz>

## **YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIYAT VA HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT**

**Quramboev Alisher Maxsudovich**

Buxoro Davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi  
kafedrası o'qituvchisi

**E-mail:** quramboevalisher@mail.ru

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda milliy ma’naviyatimizda demokratiyaga munosabat masalasi nihoyatda muhim ekanligini yoritishdan, ushbu tizimni yuksak darajaga olib chiqish masalalari o‘rganilgan. Shuningdek maqolada fuqarolik jamiyati siyosiy ongi va madaniyati yuksak bo‘lgan fuqarolar jamiyatining umumiy salohiyatini o‘stirishdagi ahamiyati haqida alohida to‘xtalib o‘tilgan. Mavzuda ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni boshidan kechirayotgan, fuqarolik jamiyati barpo etayotgan turli mamlakatlarda ma’naviyat va demokratik huquqiy masalalarini o‘rganish ularning yutuq va kamchiliklarini o‘rgangan holda mamlakatimizda faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar va xulosalar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** ma'rifatli jamiyat, demokratiya, ma'naviyat, fuqarolar faolligi, siyosiy madaniyat, fuqarolik jamiyati, faol fuqarolik pozitsiyasi.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются вопросы поднятия этого уровня на более высокий уровень, подчеркивая важность вопроса отношения к демократии в нашей национальной духовности в формировании активной гражданской позиции в Новом Узбекистане. В статье также подчеркивается важность гражданского общества с высоким уровнем политического сознания и культуры в построении общего потенциала общества. В теме представлены рекомендации и выводы по развитию активного гражданского общества в нашей стране, изучение достижений и недостатков изучения духовности и демократических правовых вопросов в разных странах, переживающих общественно-политические изменения и строящих гражданское общество.*

**Ключевые слова:** просвещенное общество, демократия, духовность, гражданская активность, политическая культура, гражданское общество, активная гражданственность.

## ABSTRACT

*This article examines the issues of raising this level to a higher level, highlighting the importance of the issue of attitude to democracy in our national spirituality in the formation of an active civic position in New Uzbekistan. The article also highlights the importance of civil society with a high level of political awareness and culture in building the overall capacity of society. The topic provides recommendations and conclusions on the development of active civil society in our country, studying the achievements and shortcomings of the study of spirituality and democratic legal issues in different countries experiencing socio-political changes and building civil society.*

**Keywords:** *enlightened society, democracy, spirituality, civic activism, political culture, civil society, active citizenship.*

## KIRISH

Aytishimiz mumkinki, bugun axborot oqimi sharofati bilan jamiyatimizning dunyo qarashi, dunyoviy bilimlar haqidagi fikri, bilimi, ancha yuqoriladi, boshqa tomondan olib qaraganda esa axborot texnologiyalarining rivoji, bugungi o'zbek xalqining insoniy fazilatlarni qadrlashi, uning milliy madaniyati allaqachon g'arb madaniyati bilan chatishib ulgurishiga imkon ham ochib berdi. Muammoning dolzarbligi ham shunda, ma'rifatli jamiyatdagi shaxslar nafaqat bilimli ularning o'rtasidagi hurmat, madaniyat, millati, xalqiga, yurtiga bo'lgan muhabbat tufayli o'zaro yakdil bo'lib birgalikdagi totuv hayot tarzini, harakatini ham talab qiladi. Nega muhtaram prezidentimiz "Ma'rifatli jamiyat"ni barpo etish masalasini davlat miqyosidagi strategik harakat darajasiga olib chiqmoqda?

❖ Mening nazarimda "**Ma'rifatli jamiyat**" -ongi, bilimi, madaniyati yuksak darajada bo'lgan, ma'naviyatni qadriyat sifatida qadrlaydigan, keng dunyo qarashga ega bo'lgan insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etuvchi va targ'ib etuvchi kishilik jamiyati deb tarif bersak adashmagan bo'lamiz

**Ma'naviyat** — inson ongiga ta'sir ko'rsatadigan, uning dunyoqarashi, tafakkur tarzini muayyan yo'nalishga soladigan yengilmas kuch. Ma'naviyat asosini jamiyat, millatga xos ma'naviy, madaniy va moddiy asoslar, an'analar, qadriyatlar, turmush tarzi, g'oyalar va qarashlarni umumlashtiruvchi tushunchalar tashkil etadi. Inson ma'naviyatining shakllanishida tarixiy xotira alohida ahamiyatga ega. Ertalab uyqudan uyg'ongan inson tasodifan o'zining kim ekanligini, ismi, sharifini unutib qo'ysa, atrofidagi yaqin insonlarini tanimay qolsa, bu holat o'sha inson, uning oilasi

uchun katta fojia. Agar millat o'zining kim ekanligini unutsa, bu o'sha millat uchun ulkan halokatdir.

Dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyligini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi. O'zligini yo'qotgan millat esa, hamisha qullikka mahkumdur. O'z xalqi va yurti tarixini chuqur bilish, uni tinimsiz o'rganish, ajdodlarining savobli ishlarini munosib davom ettirgan holda boy merosini asrab-avaylash, o'tmishdan saboq chiqarish, tarixda ro'y bergan voqea-hodisalarni xolis baholash, ularning oqibatini to'g'ri tushunish aqli raso inson hayotining mazmunidir. Inson o'zining tarixiy xotirasiga ega bo'lmasdan turib, hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarning mohiyatini tushunib yetolmaydi, kelajagini to'g'ri tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun ham jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlar har xil aqidalar ta'siriga tushib qolmaydi. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Ma'naviyatning negizi va ma'no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar – insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg'ayishidir. Ma'naviyat demokratik huquqiy mamlakatdagina yuksaladi. Inson hayotini ma'naviyatsiz tasavvur qila olmaganimizdek, huquqsiz ham tasavvur qila olmaymiz. Tarixiy taraqqiyot jarayonida «demokratiya» tushunchasi shaklan va mazmunan boyib, takomillashib kelgan. Bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Zero, demokratiya eng rivojlangan davlatlarda ham yuqori takomil nuqtasiga, ideal darajaga yetgani yo'q. Chunki demokratiya bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon bo'lib, har bir millat va jamiyat, har bir davrda uni tushunish, talqin etish va amaliyotda qo'llashda o'ziga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. Bu o'ziga xoslik xalqning bosib o'tgan tarixiy yo'li, milliy mentaliteti, an'analari, amaldagi ijtimoiy munosabatlarning xarakteri kabi omillar bilan belgilanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganidek, «Hammani bir qolipga solib bo'lmaydi. Shuningdek, davlatlarni ham bir qolipga solish va bozor munosabatlariga o'tish, demokratiyani barpo etish nuqtayi nazaridan ularga bir xil yondashuvlarni qo'llash yaramaydi». Demokratiyaning xarakterini belgilovchi umumiy mezonlar-demokratiya tamoyillariga rioya qilinishi, demokratik qonunlarning mavjudligi va ular asosidagi demokratik institutlar faoliyati bilan bog'liqdir. Demokratiya, mohiyatan, insonning har tomonlama kamol topishi uchun berilgan imkoniyat, shaxs bilan jamiyat manfaatlarini o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlovchi omildir. Ayni paytda demokratiya qabul qilingan qonunlar, amaldagi tartib-qoidalar yordamida shaxs hayoti va faoliyatini tartibga soluvchi mexanizm

hamdir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: "...demokratiya o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Demokratiyaga tinimsiz aqliy va jismoniy mehnat qilib, ter to'kib, hayotning achchiq-chuchugini obdan tortib, keyin aytilish mumkinki, hatto fojiali tajribalarni ham boshdan o'tkazib, og'ir sinov va kurashlarga mardona bardosh beribgina erishish mumkin[1]",-degan edi.[1., 10-11 betlar.]

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Huquqiy savodxonlikni oshirish masalasida avvalo: "o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va qudratiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, xalq manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish darkor[2]",-deb ta'kidlaydi. [2.,12 betlar.]

Inson hayotga kelibdiki, o'zini angliq boshlabdiki, faqat bir narsaga intiladi. Bu erkinlik. Erkinlik aslida juda ko'plab bilim sohalari, birinchi navbatda huquqshunoslik va deyarli barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar tomonidan ishlatiladigan falsafiy tushuncha hisoblanadi. Boshqa ma'noda erkinlik tushunchasi insonning o'z xohish-istagi, mayllari, ehtiyoji bo'yicha faoliyat yuritishga undaydigan holatdir. Odatda erkinlik u yoki bu jamiyatning huquqiy hujjatlarida, birinchi navbatda o'sha mamlakatning Konstitutsiyasi qoidalari bilan ta'minlanadi. Shuningdek, shaxs erkinligi va inson huquqlari tushunchalari ham bir-biri bilan juda uyg'un. Inson huquqlari- kishilarning insonlik shon-sharafiga munosib tarzda yashashi va faoliyat olib borishi lozim bo'ladigan haq-huquqlar umumiylikini ifoda etadigan tushuncha. Bu huquqlar tabiiy huquqlar va davlat tomonidan qonuniy asosda kafolatlanadigan huquqlarga bo'linadi. Tabiiy huquqqa yashash huquqini misol qilib keltirish mumkin. Davlat tomonidan kafolatlanadigan huquqlarga saylov huquqi, bilan olish huquqi, nafaqa olish huquqi kabi insoniy huquqlar kiradi. Bu yuqorida ta'kidlagan inson huquqlari va shaxs erkinligini ta'minlaydigan eng oliy hujjat-Konstitutsiya hisoblanadi. 1992- yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tom ma'noda inson huquqlarini, shaxs erkinligini ta'minlaydigan, uni kafolatlaydigan bosh Qonun sifatida qisqa tarixiy davr sinovidan muvaffaqiyatli ravishda o'tdi. Konstitutsiyamizning "Muqaddima" qismida mamlakatimizda barpo etilayotgan jamiyat insonparvar demokratik huquqiy davlat ekanligi alohida ifodalangan. Demak, O'zbekiston Konstitutsiyasining asosiy, bosh maqsadi-mamlakatimizda demokratiya tartibotini o'rnatish, jamiyatda Bosh qomusimiz va qonunning ustuvorligi ta'minlash, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari, burchlarini belgilab berish kabilardan iborat. Shubhasiz, mustaqillik

yillarida O‘zbekistonda qonun ustuvorligini ta’minlashda, fuqarolarda Konstitutsiyaga nisbatan hurmatni shakllantirishda katta yutuqlarga erishildi. Kishilarimiz demokratik o‘zgarishlarni, ularning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini nafaqat anglab yetmoqda. Ayni paytda ushbu jarayonda faol ishtirok etmoqda. Buning natijasi o‘laroq fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshib bormoqda, ular mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, evolyutsion o‘zgarishlarning ham ob‘yektiga ham sub‘yektiga aylanmoqda. Biz bugun mustaqilligimizning qariyb chorak asri davrida demokratiyaning tom ma‘nodagi mazmun-mohiyatini, uning inson huquqlarini kafolatlaydigan muhim omil ekanligini ongli ravishda anglab yetdik. Shu bilan birga inson huquqlarini “himoya qilish” bahonasida O‘zbekistonga “demokratik o‘yinlar”ni tiqishtirishga bo‘lgan harakatlarni, xalq manfaatlarini niqob qilib olib qandaydir soxta siyosiy o‘yinlar tashkil etmoqchi bo‘lganlarni ham ko‘rdik. Ammo demokratiyani, inson huquqlarini milliy-mahalliy sharoitlar, xalq mentaliteti, uning o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olmasdan, uni umumiy qoida sifatida ataylab tiqishtirish mutlaqo noto‘g‘ri ekanligini ham Yurtboshimiz bot-bot takrorlaydi. Demak, muayyan darajada demokratiya boshboshdoqlik, hokimiyatsizlik, insonning ko‘ngliga kelgan narsasini amalga oshirishga turtki beradigan narsa emas. Demokratiya inson va jamiyat hayotini tartibga soluvchi, nazorat qiluvchi, mamlakatdagi barcha sog‘lom kuchlarni birlashtirgan holda fuqarolarning tinch – totuv, farovon yashashiga yordam beruvchi, ularning haq – huquqlarini himoya qiluvchi fenomen hodisadir. Demokratiya xalq hokimiyatidir, chunki Yurtboshimiz bejizga: “Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan - shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak - odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak – avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo‘ladi. Xalq rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi. Xalq bizdan rozi bo‘lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo‘ladi. Demokratiyani rivojlantirishga har bir fuqaromiz, avvalo, yoshlar ma‘lum ma‘noda o‘zining hissasini qo‘shishi lozim. Bu esa, albatta, mamlakatimizni farovon qilishga xizmat qiladi[3]”, -deb aytmadi.[3.,14 bet.] Buning uchun esa bilim asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada yurtboshimiz :“Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib

kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. [4]” –deb ta’kidlashlari e’tiborga molik. [4.,17-18-betlar]. Bugungi kunda O‘zbekiston Prezidenti boshchiligida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda! Bunda biz tanlagan yo‘l – huquqiy demokratik jamiyat tuzish yo‘li. Avvalgisidan farqli o‘laroq yolg‘ondan emas, nomigina emas, sirti demokratik, ichi avtokratik emas, chin va haqiqiy huquqiy demokratik jamiyat tuzish yo‘lini tanladik. Bu haqida Prezident butun dunyoga ma’lum qildi. Nafaqat og‘zaki ma’lum qildi. Tashqi kuchlar va ichki kuchlarga ham o‘z qat’iyatini isbot qiluvchi koordinal islohotlarni boshladi. Avvalgidek, aytdi qo‘ydi, bir yilda unutiladi degan tushunchalar bilan bundan buyon ishlab bo‘lmasligini davlat amaldorlari, mas’ullar his qila boshlashdi. His qilmagani, unga ko‘nmagani lavozimidan olinmoqda. Shu o‘rinda kadrlar siyosatidagi tez-tez o‘zgarishlar va yosh kadrlarning qo‘rqmasdan mas’ul lavozimlarga tayinlanishi bu jarayonning amalga oshishi uchun, ya’ni ko‘zlangan maqsadga erishish uchun voz kechib bo‘lmas bir ehtiyoj ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni, Prezident yangi nasl boshqaruv kadrlarini — yangi tafakkurga sohib, ma’nan yetuk hamda keng mushohadali kadrlarni davlat boshqaruv apparatiga olib kelish zaruriyati shu bilan izohlanadiki, taraqqiyotning yangi bosqichiga mamlakatni faqatgina korrupsiyaga moyil bo‘lmagan, dunyoga keng nazar sola oladigan, demokratik qadriyatlarni his qila olgan nasl olib chiqa oladi. Ma’naviyat bu inson hurriyatini ta’minlashdir. Ma’naviyatga zid degan tamg‘a bilan inson shaxsiga tahqir yog‘dirish, uning huquqlarini poymol etish, haqlarini cheklash, millatning tarixini o‘zgartirishga harakat qilish, siyosatbop bo‘lish uchun maddohlik qilish, demokratik qadriyatlarga zid ish ko‘rish – ma’naviyat emas!

Bugun milliy ma’naviyatimizni qaytadan idrok etib, qaytadan uni chuqurroq tanib, yangi milliy mafkuramizni shakllantirish vaqti keldi. Ma’naviyat targ‘iboti asosi, yadrosi Prezidentimiz ta’kidlayotgan adolatdan va insonparvarlik tamoyilidan iborat bo‘lishi kerak. Milliy mafkura esa ana shunday millatni yashatadigan, bo‘g‘maydigan, gullatadigan, gullarini qirqmaydigan ma’naviyat targ‘iboti orqali amalga oshirilishi zarur. Qachonki millat ziyolilar fikrlar xilma-xilligi va sog‘lom munozaraga o‘rgansalar, mamlakatda chin ma’noda ma’naviy yuksalish bo‘ladi. Shaxs haq-huquqlarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaydigan muhim omil-ma’naviy omildir. O‘zbek uchun o‘zi tomonidan qilingan aybi, gunohi uchun mahalladan, qo‘ni-qo‘shnilardan, quda-andalardan uyalishdan ham kuchliroq jazo yo‘q. Chunki uning uchun eng muhimi-o‘zining qadr-qimmatini, hamiyati. O‘z qadr-qimmatining kamsitilishi, buning uchun birovdan dakki, e’tiroz eshitish uning uchun o‘limdan battar. Ayni paytda bu borada muayyan yo‘qotishlar ham yuz



berayotganligini ham eslash lozim. Umuman, o‘zbek xalqi uchun qonundan ham jamiyat va shaxslar oldidagi ma’naviy mas’uliyat ustuvorroq ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasini qabul qilish chog‘ida aynan o‘sha narsalar-o‘zbek mentaliteti, uning ma’naviyati, tabiati eng muhim omillar sifatida e’tiborga olingan. Konstitutsiyamizning yuqorida ta’kidlaganimiz kabi, boshqa mamlakatlar Konstitutsiyalaridan farq qiladigan jihati ham shunda- u demokratik jamiyatni barpo etishga yordam beradigan huquqiy asoslar bilan inson haq-huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydigan ma’naviy omillar uyg‘unligidir.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda mustaqillik yillarida O‘zbekistonda insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishda muayyan yutuqlarga erishildi. Fuqarolarda siyosiy-huquqiy madaniyat saviyasi muttasil ravishda oshib bormoqda. Eng muhimi-odamlarimizning ijtimoiy faolligi ko‘tarilmoqda. Ular davlat va jamoat ishlarida tobora faolroq ishtirok etmoqda, o‘zlarining shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlari, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini ongli ravishda anglab yetmoqda. O‘z huquqlarini qonun doirasida himoya qilishning kafolati sifatida O‘zbekiston Konstitutsiyasi, mavjud qonunchilik qoidalariga amal qilmoqda. Erishgan yutuqlarimizning markazida esa fuqarolarimizda demokratik jamiyatda yashash ko‘nikmasining shakllanayotganligi turadi. Qolaversa, bu jarayonga, shubhasiz, ma’naviy omillar juda kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Qonunlar saltanati bilan ma’naviyat saltanatining uyg‘unligi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga kuch baxsh etmoqda. Zero, Rahbarimiz ta’biri bilan aytganda: “Ma’naviyatimiz uchun eng katta xavf - bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni haqiqat bo‘ladi.[5]” [5.,11 betlar.]

### **REFERENCES:**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” “O‘zbekiston”-2016-yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir” Toshkent“Tasvir nashriyoti uyi”-2021-yil.
3. Karimov I.A. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: «O‘zbekiston», 1995.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.: O‘zbekiston 2000,

---

**XX ASRNING 80 – YILLARIDA BUXORO VILOYATI  
IQTISODIYOTIDA YUZ BERGAN INQIROZIY HOLATNING IJIMOYI  
HAYOTGA TA’SIRI**

**Shirinova Firuza Inoyatovna**

Nav.DPI. Tarix fakulteti katta o‘qituvchisi  
+ 998 99 330 75 77. firuzashirinova.m@mail.ru

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada 80 – yillar mamlakatimiz iqtisodiyotidagi oqsoqliklar, ularni keltirib chiqargan sabablar, bunday inqiroziy tanglikni xalq ijtimoiy hayotiga ko‘rsatgan salbiy ta’siri masalalari, shuningdek, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, madaniyat, hattoki xalq ta’limi sohasida yuz bergan inqiroziy vaziyatga sabab bo‘lgan ayrim jihatlar Buxoro viloyati misolida, arxiv ma’lumotlari yordamida qisman yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** sanoat, iqtisodiyot, ta’lim, qoramolchilik, reja, elat, inqiroz, ma’muriy buyruqbozlik.

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье на основе архивных данных представлены изъяны экономики нашей страны в 80 – е годы, причины их возникновения, а также негативное влияние экономического кризиса на социальную жизнь. Наряду с этим, на примере Бухарской области освещены причины кризисной ситуации, сложившейся в промышленности, сельском хозяйстве, культурной сфере и народном образовании.*

**Ключевые слова:** промышленность, экономика, образование, скотоводство, план, кризис, административное командование.

**ABSTRACT**

*This article, based on archival data, presents the flaws in the economy of our country in the 80 s, the reasons for their occurrence, as well as the negative impact of the economic crisis on social life. Moreover, the causes of the crisis situation in industry, agriculture, the cultural sphere and public education are highlighted on the example of the Bukhara region.*

**Keywords:** industry, economy, education, cattle breeding, plan, crisis, administrative command.

**KIRISH**

Ma’lumki, 80 – yillarning o‘rtalari Vatanimiz tarixi va iqtisodiyotidagi eng murakkab davr hisoblanadi. Respublika iqtisodiyotini ko‘tarishga mehnatkash xalqning fidokorona mehnatigina sabab bo‘layotgan edi. Vaziyat shunchalik keskinlashdiki, bu ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi muammolar, noxush holatlarning dahshatli

ko‘rinishi bilan namoyon bo‘ldi. Respublika iqtisodiyotidagi tushkunlikni barcha viloyatlarda kuzatish mumkin edi. Ayniqsa, ma‘lum ma‘noda Respublika iqtisodiyotini yengil sanoat ishlab chiqarish hisobidan ko‘tarishga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan Buxoro viloyatida bu salbiy jarayonlar bevosita iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga sezilarli darajada o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

1985 yil yakunida viloyat aholisi 1,017 million kishini tashkil etib, viloyatda 89 xil millat va elat vakillari istiqomat qilardi. Viloyatda 10 ta tuman, 10 ta viloyat tarkibidagi shahar, 3 ta shahar posyolkalar, hamda 84 ta qishloq sovetlari mavjud edi. Buxoro viloyatida 80 ta ishlab chiqarish korxonasi ish olib borardi. Eng qattiq zarbani viloyatning yengil sanoat tarmog‘i – paxta tozalash va oziq – ovqat sohasi boshidan kechirdi. 1985 yilda aholi uchun ishlab chiqarilgan mahsulot 422 million so‘mni tashkil qildi. Ayniqsa yirik ishlab chiqarish korxonasi sanalgan Buxoro tekstil korxonasida ishlab chiqarilgan mahsulot 172 million so‘mdan oshib ketdi. Jami qishloq xo‘jalik maxsulotlari 413 million tonnani tashkil etdi. 1984 yilning noyabr oyi hisobiga ko‘ra viloyatda 384 ming tonna paxta yetishtirildi.”<sup>38</sup> [Ф. № 2084. (48)] Bir so‘z bilan aytganda inqiroziy vaziyat vujudga keldi. Iqtisodiyotdagi siljish ancha pasaydi. Iqtisodiy islohotlar o‘tkazish vaqti kelgandi. Xuddi shunday ko‘rinishni 1920 yil, keyin esa 1960 yillarda xalqimiz boshidan kechirgandi. U vaqtda ham sanoat ishlab chiqarish butunlay markazga bo‘ysundirilgan, nazorat qat‘iy tekshiruv asosida, iqtisodiy reja va shartnomalar faqat bir tomonlama belgilab berilardi. 80 – yillarda yuz bergan iqtisodiy tanglik oldingilaridan tubdan farq qilib, endi ishlab chiqarish rejalari qayta qurish tadbirlariga amal qilardi. Buxoro viloyati ham Respublikaning boshqa viloyatlari kabi o‘z tabiiy boyliklari, o‘rmon va qo‘riqxonalariga ega bo‘lib, o‘zi ularga o‘zi egalik qila olmas edi. Ingichka tolali paxtaga yaxshi haq to‘langanligi va viloyat ko‘proq shu nav bilan xom ashyo yetishtirishga ixtisoslashtirilganligi uchun xo‘jaliklar iqtisodi bir oz mustahkamlandi. Ya‘ni paxtani qayta ishlash, ip yigirish, tola va bo‘z tayyorlash tezlashdi. Afsuski, uning xaridori ham Markaz bilan “gaplashardi”. Faqatgina bitta ijobiy tomoni bor edi, u ham bo‘lsa, paxta maydonlarini kengaytirilishi, qishloq xo‘jalik maxsulotlari turini ko‘payishi natijasida dehqonchilik qiluvchi aholining asosiy qatlami ish bilan ta‘minlandi. Buxoro tumanida uzumchilik, Vobkent va Shofirkon tumanlarida asalarichilik xo‘jaliklarini tashkil etilishi ham aholi turmushini qisman yaxshilanishiga olib keldi. Belgilab berilgan reja bajarilib, ortiqcha mahsulotdan o‘z ulushiga ega bo‘lgan dehqon tirikchiligi o‘zgardi desa bo‘ladi.

<sup>38</sup> Фонд – № 2084. (48) Бухоро вилоят архиви.

Moliya, bank, kredit masalalari ham to'ppadan to'g'ri markazga yo'naltirilgan, yillik qilinayotgan daromad qancha va uning ixtiyori masalasida gap bo'lishi mumkin emas edi. "Sobiq ittifoqdan mo'rt, zaif xom ashyo yetishtirishga yo'naltirilgan, arzon xom ashyo, hamda strategik mineral resurslar tayyorlanadigan iqtisodiyot meros bo'lib qolgan edi."<sup>39</sup> [2. 6.] Katta yer osti zaxirasiga ega bo'lgan viloyatda iqtisodiy tanglik oldindan saqlanib kelayotgani sir emasdi. Masalan, "1953 yilda Stalan – tepa, keyinchalik, 1056 yilda Gazli makonidan topilgan 500 mlrd. m<sup>3</sup> gaz zaxirasi Respublika aholisini gaz bilan ta'minlashga qaratilmasdan, Sobiq Ittifoqning Yevropa qismiga – Ural sanoat ob'ektlariga jo'natilishi natijasida"<sup>40</sup> mahalliy aholining asosiy yoqilg'isi tez va ko'mir bo'lib qolaverdi. Ilgari markazda hal etilgan ayrim mahalliy masalalar – boshqaruvni joylarda yaqinlashtirish, boshqaruv apparatini qisqartirish, korxonalarining xo'jalik mustaqilligini kengaytirish, tomarqalarni boshqarishning hududiy tartibiga o'tish tadbirlari boshlangandi. Eng yomoni bu tadbirlar iqtisodiy aloqalar va munosabatlarning chuqur qatlamlariga borib yetmayotgandi. Yuqoridan belgilangan rejali ko'rsatkichlar qisqarib, ishlab chiqarilgan mahsulotlar emas, realizatsiya qilingan mahsulot bilan ishlab chiqarish ko'rsatgichi belgilandi. Siyosiy vaziyat o'zgarayotgani bois iqtisodiy islohot o'tkazish zarurati ko'zga yaqqol tashlana boshladi. Buxoro aholisining asosiy katta qismi qo'l uchida tirikchilik qilishiga asosiy sabab mavjud tuzumning o'tkir ijtimoiy, ekologik muammolari ediki, yerlarining nihoyat darajada sho'rlanishi, yaqin masofadagi Orol dengizi muammosining kuchayib borayotgani iqtisodiy – ijtimoiy holatlarga sabab bo'layotgandi.

Respublika iqtisodiyotidagi tanglikni boshqa mintaqalar qatori Buxoro viloyati ishlab chiqarishi, sanoati va hattoki madaniy sohalarda ham kuzatish mumkin edi. Boshqaruvdagi ma'muriy buyruqbozlik siyosiy inqiroz ko'rinishlarini ham yuzaga keltira boshladi. "Butun o'sha davr to'g'risidagi haqiqatni xolisona aytadigan, u zamondagi hayotimizni jahon tarixi va amaliyoti bilan taqqoslaydigan bo'lsak, shuni ochiq aytish kerakki, u paytda O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga – Markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan, yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi"<sup>41</sup> [3. 245.]

Belgilangan yillik va besh yillik rejada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy usullarga o'tish vazifalari qo'yilardi. Taraqqiyotdagi depsinishni, iqtisodiy holatdagi inqilobiy vaziyatni oddiygina ko'z bilan ko'rish mumkin edi. Butun respublikada milliy daromadning o'rtacha yillik o'sishi pasayib, aholi jon boiga to'g'ri

<sup>39</sup> Қ. Усмонов, М. Содиқов. Ўзбекистон тарихи. Т. "Шарқ" 2003 й. 245-б.

<sup>40</sup> Аминова. А.М. Зарафшон бўйида саноат шаҳарларининг шаклланиши тарихидан. "Ўтмишга назар". 2021 й. № 4. 7- б.

<sup>41</sup> Каримов И. А. "Ўзбекистон XXI асрга интилоқда". Т.: Ўзбекистон, 1999, 6-бет.

keladigan milliy daromad 1965 yilgidan 1986 yilga kelib 7 barobarga kamaydi. Buxoro viloyatida yuz bergan katta xato shundan iborat ediki, viloyat nafaqat respublika, balki butun SSSR davlati miqyosida qishloq xo‘jalik sifat ko‘rsatkichi bo‘yicha yetakchi viloyat sanalsada, viloyatda faqatgina Markazning buyutmasi hisobiga qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirilardi. “1985 – 1986 yillarda Buxoro, G‘ijduvon, Shofirkon tumanlarida qoramol yetishtirish keskin kamayishini kuzatish mumkin. Qorako‘l, Peshku, Vobkent tumanlarida sog‘in sigirlar hisobidagina qoramolchilik sohasidagi ayrim nuqsonlar keskin ko‘zga tashlanmasdi. 1986 yilning yanvaridan to avgust oyiga qadar viloyatning xo‘jaliklararo tarmoqlarida jami 9275 tonna tirik vazndagi qoramollar yetishtirildi. Bu esa qabul qilingan yillik rejaning 62,2% ini tashkil etardi. Shuningdek sut yetishtirish 36235 tonna, ya‘ni 68, 2 % foizni, 38735 ming dona tuxum, ya‘ni rejaning 75,6% foizini tashkil etdi. Vobkent tumanida go‘sh yetishtirishni 30 % ga, Sverdlov tumanida 20%, Romitan tumanida 17,5%, shuningdek, Buxoro shahrida 24 % ga keskin kamayib ketganini kuzatish mumkin”<sup>42</sup> [Ф.. № 2157.] Mahsulot sifati ham markazda belgilanardi. Ishlab chiqaruvchi asosiy kuch yoshlar edi. Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining xom ashyo sifati va miqdoriga e‘tiborsizlik natijasida minglab yoshlar ishsiz qolishiga sabab bo‘ldi. Boshqa sohalar qatori ishlab chiqarishda ham boshqaruv partiya qo‘lida bo‘lganligi vaziyatni yanada keskinlashtirdi. Shuni e‘tiborga olish muhimki, qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan agrar viloyatda asosiy mahsulot qishloqda yetishtiriladi. Shunday ekan, yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari ish unumdorligi va aholi farovonligiga qaratilishi kerak.

“1984 yil 26 – 27 – mart kunlari Moskvada bo‘lib o‘tgan Butunittifoq iqtisodiy qurultoyida aynan O‘zbekiston Respublikasining Buxoro viloyati iqtisodiyoti masalalari; tajriba va qayta qurish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek Buxoro viloyatida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va xom ashyo bazasini kengaytirish masalasi muhokama etiladi.”<sup>43</sup> Xulosa esa o‘sha aytilayotgan farovon turmush darajasiga borib taqaladi. Bu inqirozli holatni mavjud har bir sohada ko‘p yoki yetarlicha holatda kuzatish mumkin edi.

Iqtisodiyotda yuz bergan inqiroziy holat xalq ta‘limiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Garchi respublika maktablari umumiy o‘rta ta‘limga o‘tishni yakunlagan bo‘lsada, umumta‘lim maktablari soni 20 yil ichida, ya‘ni 1985 yilda 8716 tadan, 9188 taga yetgan bo‘lsada, xalq ta‘limidagi jiddiy muammolar hal etilmadi. Buni Buxoro viloyati misolida sinf xonalarining soni qanchalik oshmasin, bolalar sonining tabiiy o‘shidan

<sup>42</sup> Фонд - № 2157.(248) Бухоро вилоят архиви.

<sup>43</sup> Газиянц, Э. И. Основные направления развития и рационального размещения сельскохозяйственного производства. Автореферат. М. 1986 г. Стр. 11.

orqada qolayotgani misolida ko‘rish mumkin edi. Maktab binolarining yetishmasligi, moddiy texnik jihatdan zaif ekanligi achinarli edi. Maktablarning moddiy ta‘minoti ham orqada bo‘lib, belgilangan rejaga ko‘ra amal qilinardi.

Buxoro viloyati xalq ta‘lim sohasida yetakchi pedagoglar faoliyat ko‘rsatsada, maktablardagi ta‘lim – tarbiya ishlarining mazmuni o‘sha g‘alamis kommunistik mafkuraga bo‘ysundirilgan bo‘lib, ta‘lim – tarbiyada milliy xususiyatlar, tarixiy – madaniy qadriyatlar, an‘analar inobatga olinmasdi. Bu albatta xalq ta‘limi sohasida yuz berayotgan inqiroz edi. Iqtisodiyotdagi keskin inqiroziy vaziyat qanchalar pinhon tutilmasin, moddiy ta‘minotdagi yetar – yetmaslik, sun‘iy qisib qo‘yishlik maktab ta‘limini oqsashiga sabab bo‘layotgandi. Bu paytda mahalliy kadrlarni qo‘llab – quvvatlash, aholi o‘rtasida jipslik va ishchanlik ruhiyatini yaratish, intizomni mustahkamlash muhim masala edi. Bu masalaga yondoshadigan insonlar bor bo‘lsada, ularni rag‘batlantirish deyarli sezilmasdi. Umuminsoniy qadriyatlardan o‘quvchilarni uzoqlashtirish uchun informatika, hisoblash kurslari o‘qitilmadi. Buning asosiy sababi iqtisodiy tanglik, markazga tobelik edi. Bu paytda Yevropaning ilg‘or bo‘lmagan mamlakatlari ta‘lim tizimi, yoki iqtisodiyoti ancha ilgarilab ketgan, ular maxsus kompyuter texnologiyalari asosida ta‘lim va ishlab chiqarishni boshqarayotgan edi. Iqtisodiy inqiroz sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak, maktab islohoti ijtimoiy tangliklar orasida qolib ketdi. Shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, ta‘lim tarbiya jarayonini jahon andozalari darajasiga ko‘tarish orzuligicha qolaverdi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy zahiraga shunchalik boy bo‘lishiga qaramay, olib borilayotgan islohotlar samarasizdek tuyulardi. “Iqtisodiyotni ko‘tarish uchun qabul qilingan yillik rejaning bajarilmagani oqibatida yuz bergan oqibatni viloyatda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan DSK, “Uzradstroy”, SIMK – 21 tresti, Trest № 20 boshqarmasi, “Amubuxorokanalstroy”, “MK-7, “Uzelektrostroy” kabi tashkilotlar faoliyatida ham ko‘rish mumkin edi. Shuningdek, xom ashyoni tejash, mashinasozlik va mexanizmlarning qisqartirilishi oylik maoshni sezilarli darajada pasayishiga sabab bo‘ldi.”<sup>44</sup>[Ф. № 24-CX.]

Ta‘lim sohasida ham islohotlar o‘tkazish vaqti kelib qolgan edi. Birgina 1985 yilda tayyorlangan oliy ma‘lumotli mutaxassislar oliy o‘quv yurtlari moddiy texnika bazasining qoloqligi tufayli o‘shish darajasi past mutaxassis bo‘lib qolaverdi. Kadrlar tayyorlashning sifati o‘smay, soniga e‘tibor qaratildi. Boshqa hududlardagi kabi Buxoro viloyatida ham xalq xo‘jaligining mutaxassislarga bo‘lgan talabi to‘g‘ri o‘rganilmadi. Buning oqibatida bilim saviyasi past bo‘lgan yoshlarni oliy o‘quv yurtlariga kirib qolish holati yuz berdi. Rossiya davlati shaharlariga to‘quvchi, ip yigiruvchi, sotuvchi kabi

<sup>44</sup> Фонд № 24 – CX. Бухоро вилоят архиви.

mutaxassislarni tayyorlash odatga aylandiki, Buxoro viloyati tumanlarida ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar aynan shu joylarda ta'lim olgan kadrlar bilan to'ldirildi. Vaholanki, bunday korxonaga uchun mutaxassisni Buxoroda ham tayyorlash imkoniyati bor edi.

### **XULOSA**

Bir so'z bilan aytganda, 1980 yillar Buxoro viloyati iqtisodiyotida uzoq davom etgan, ammo tan olinmagan inqiroziy vaziyat, ijtimoiy hayotga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymadi. Milliy qadriyatlar, urf – odatlar oyoq osti qilindi, ajdodlarimiz merosi yo'qotilishga urindi, iqtidorlarimiz, ziyoli vatanparvarlarimiz xo'rlandi, tariximiz soxtalashtirildi, masjidlarimiz yopildi, ilm ahli qattiq nazoratga olindi, umumiy haqiqat buzib ko'rsatildi. Bu esa albatta farovon turmush yaratish uchun qabul qilingan sotsialistik rejalarning buzilishi edi. Siyosiy – iqtisodiy tanglik ijtimoiy fojialarga olib keldi.

### **REFERENCES**

1. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi. T. "Sharq" 2003 y. 245 - b.
2. Aminova A.M. Zarafshon bo'yida sanoat shaharlarining shakllanishi tarixidan. "O'tmishga nazar". 2021 y. № 4. 7- b.
3. Karimov I. A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". T.: O'zbekiston, 1999, 6- bet.
4. Газиянц. Э. И. Основные направления развития и рационального размещения сельскохозяйственного производства. Автореферат. М. 1986 г. Стр. 11.
5. Фонд – № 2084. (48) Бухоро вилоят архиви.
6. Фонд - № 2157.(248) Бухоро вилоят архиви.
7. Фонд № 24 – СХ. Бухоро вилоят архиви.

## **TAMOM BO‘LMAGAN VA ISHTIROKCHILIKDA SODIR ETILGAN JINOYATLAR UCHUN JAZO TAYINLASH**

**Tillayev Do‘stmuhammad Ne‘matjon o‘g‘li**

Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi  
va amaliyoti” mutaxassisligi magistranti

e-mail: [dostmuhammadtillayev@gmail.com](mailto:dostmuhammadtillayev@gmail.com)

+998946717799

### **ANNOTATSIYA**

*Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslar faqatgina sud hukmi bilan javobgarlikka tortiladi. Shuningdek, ayrim jinoyatlar subyektiv va obyektiv sabablar natijasida oxiriga yetkazilmasdan qolishi mumkin va ayrim jinoyatlar ishtirokchilikda sodir etiladi. Har kim jinoyat sodir etishda o‘z harakatlari uchun javob beradi. Ushbu maqolada tamom bo‘lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda e‘tiborga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar, ularning ahamiyati bayon etilgan, shuningdek, xorijiy tajribalar o‘rganilgan holda milliy tizimimizdagi holatlar bilan qiyosiy tahlil etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** jinoiy jazo, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, suiqasd, jinoyatda ishtirokchilik, jazo tayinlash.

## **НАЗНАЧЕНИЕ НАКАЗАНИЯ ЗА НЕОКОНЧЕННОЕ ПРЕСТУПЛЕНИЕ И ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ, СОВЕРШЕННОЕ В СОУЧАСТИИ**

**Тиллаев Дўстмухаммад Нёматжон ўғли**

Ташкентский государственный юридический университет,

магистр теории и практики уголовного права

[dostmuhammadtillayev@gmail.com](mailto:dostmuhammadtillayev@gmail.com) +998946717799

### **АННОТАЦИЯ**

*Лица, признанные виновными в совершении преступления, привлекаются к ответственности только по приговору суда. Также некоторые преступления могут быть не доведены до конца по субъективным и объективным причинам, а некоторые преступления совершаются в соучастии. При совершении преступления каждый отвечает за свои действия. В данной статье проводится сравнительный анализ ситуации в нашей отечественной системе с учетом аспектов, которые следует учитывать при назначении наказаний за неполные и соучастные преступления, а также изучение зарубежного опыта.*



*Ключевые слова: уголовное наказание, приготовление к преступлению, покушение, соучастие в преступлении, вынесение приговора.*

## **PUNISHMENT FOR INCOMPLETED AND PARTICIPATED CRIMES**

**Tillaev Dustmukhammad Nematjon ugli**

Tashkent State Law University, Master's degree in Theory and Practice of  
Criminal Law

e-mail: dostmuhammadtillayev@gmail.com

### **ABSTRACT**

*Persons found guilty of committing a crime are brought to justice only by a court verdict. Also, some crimes may not be completed for subjective and objective reasons, and some crimes are committed in complicity. When a crime is committed, everyone is responsible for their own actions. This article provides a comparative analysis of the situation in our domestic system, taking into account aspects that should be taken into account when sentencing for incomplete and complicit crimes, as well as studying foreign experience.*

***Keywords:** criminal punishment, preparation for a crime, attempt, complicity in a crime, sentencing.*

### **KIRISH**

Bugungi kunda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan adolatli hukm chiqarish, odil sudlovni amalga oshirish davlat siyosatining asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Bu o'rinda Jinoyat kodeksi (bundan buyon matnda JK deb yuritiladi)ning odillik va insonparvarlik prinsiplari ro'baro keladi. Chunki jinoyat sodir etgan shaxsga tayinlanadigan jinoiy jazoning miqdori va muddati adolatli va shaxsning ijtimoiy holatlariga mutanosib bo'lishi lozim.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 15-maqсадida "davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish"[1] kerakligi keltirib o'tilgan. Bu esa sudlar faoliyatiga va odil sudlovga qaratilayotgan e'tiborning oshishidan darak beradi.

O'zbekistonda Respublikasida birinchi instansiya sudlarida 2018-yilda 38 183 ta, 2019-yilda 28 846 ta, 2020-yilda 30 282, 2021-yilda esa 47 657 ta jinoyat ishlari ko'rib chiqilgan. Shunigdek, shaxslarni sud zalidan qamoqqa olish ko'rsatkichlari 2018-yilda 1990 ta, 2019-yilda 1542 ta, 2020-yilda 1747 ta, 2021-yilda 2707 tani tashkil etgan bo'lsa, ozod etilgan shaxslar 2018-yilda 3290 ta, 2019-yilda 3080 ta,

2020-yilda 3434 ta, 2021-yilda 5930 tani tashkil qilgan. Sudlar tomonidan oqlangan shaxslar dinamikasi esa 2018-yilda 867 ta, 2019-yilda 859 ta, 2020-yilda 781 ta, 2021-yilda esa 932 tani tashkil qilgan.[2] Ushbu raqamlarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, sudlar tomonidan jnoyat ishlarini ko'rib chiqish ko'rsatkichi 2018-yilga nisbatan, 2021-yillarda oshganini, shuningdek, sudlar tomonidan oqlov hukmi chiqarish ko'rsatkichlari ham nisbatan ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

## **MATERIAL VA METODLAR**

Mazkur maqola tahliliy tadqiqot sifatida ilmiy-nazariy manbaalar tahlilini va qonun hujjatlari asoslarini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid bo'lgan ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, xorijiy mamlakatlarda ushbu sohada amalda bo'lgan holatlar tahlil qilinib, milliy tizimga joriy qilish imkoniytalari va istiqbollari tahlil qilingan.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bilishning umumiy-ilmiy metodlari bo'lgan dialektik metod, tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli tahlil qilish uslublari, shuningdek, umumiy mantiqiy metodlar – induksiya, deduksiya, analiz, sintez va maxsus huquqiy metodlar qo'llanildi. Ilmiy adabiyotlar va huquq normalarini sharhlashda grammatik tahlil metodidan ham foydalanilgan.

## **TADQIQOT NATIJALARI**

Jazo tayinlash – ijtimoiy munsabatlarni jinoyat-huquqiy tarafdin himoya qilishning asosiy bo'g'inlardan biri hisoblanadi. Bunga sabab jazoning o'zi bu jinoyat-huquqiy himoya qilish mexanizmining asosiy elementi bo'lib, davlat jazo choralari tanlash jarayonini qanchalik to'g'ri va sermaxsul tashkil etilganligi va qanchalik darajada natija berishini aniqlab beradi.[3]

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish deb, shaxsning qasddan qilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun sharoitlar yaratuvchi qilmishi o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra sodir etilishi boshlangunga qadar to'xtatilishiga aytiladi (JK 25-moddasi 1-qismi). Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish jinoiy faoliyatning ikkinchi bosqichidir. JK 25-moddasi 2-qismiga muvofiq, qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi.[4]

Ishtirokchilik tushunchasi – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 27-moddasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi. Ishtirokchilikda jinoyat sodir etish jazoni va qilmishni og'irlashtiruvchi holat bo'lganligi sababli qilmishni to'g'ri

kvalifikatsiya qilish hamda adolatli va qonuniy jazo tayinlashda jinoyatda ishtirokchilik tushunchasini va uning belgilarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.[5]

O‘zbekiston Respublikasi JK ning 58-moddasida: Sud tamom bo‘lmagan jinoyat uchun jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qilgan holda jinoyatning og‘ir-yengilligini, jinoiy niyat amalga oshirilishining darajasini va jinoyatni oxiriga yetkaza olmaganlik sabablarini ham hisobga oladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori JK Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning to‘rt dan uch qismidan oshmasligi kerakligi keltirib o‘tilgan. Mazkur kodeksda ushbu tartib tatbiq etilmaydigan holatlar ham keltirib o‘tilgan. Shuningdek, tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi mumkin emas.[6]

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat uchun sud jazo tayinlashda har bitta aybdorning jinoyatda ishtirok etganlik xususiyati va darajasini hisobga oladi. Har qaysi ishtirokchining shaxsiga tegishli bo‘lgan yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar sud tomonidan faqat shu ishtirokchining o‘ziga jazo tayinlashda hisobga olinishi belgilangan. Tamom bo‘lmagan jinoyat sifatida, faqat jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va suiqasd qilish tan olinishi lozim. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy ravishda qaytish, tamom bo‘lmagan noqonuniy tajovuz turi sifatida baholanib jinoiy javobgarlikka tortishni istisno qiladi. Shuningdek, jazoning og‘irligi jinoyatning sodir etilishi bosqichlari bilan mutanosib bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish va tugallangan jinoyatlar uchun bir me‘yorda jazo tayinlash mumkin bo‘lmaydi. Bunda uning ijtimoiy xavflilik darjasini aniqlash muhim hisoblanadi.

Ukraina Jinoyat kodeksining 68-moddasida tamom bo‘lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashning asoslari keltirib o‘tilgan. Unga ko‘ra:

1 Tugallanmagan jinoiy huquqbuzarlik uchun jazo tayinlashda sud Ukraina Jinoyat Kodeksning 65-67 -moddalari qoidalariga amal qilgan holda, shaxs tomonidan sodir etilgan qilmishning og‘irligini, jinoiy g‘ayriqonuniy niyatning amalga oshirilganlik darajasini va jinoyat sodir etilganligini, jinoiy huquqbuzarlik sodir etilmaganligi sabablarini hisobga oladi.

2 Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat kodeks maxsus qism moddasining sanksiyasida (moddaning bir qismining sanksiyasida) nazarda tutilgan eng og‘ir jazo turining eng yuqori muddati yoki miqdorining yarmidan oshmasligi kerak.

3. Jinoiy huquqbuzarlikka suiqasd sodir etganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori eng og'ir turdagi eng ko'p muddat yoki miqdorning uchdan ikki qismidan oshmasligi kerak

4. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va jinoyatga suiqasd qilganlik uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilmaydi, 109-114-1-moddalarida nazarda tutilgan Ukraina milliy xavfsizligi asoslariga, tinchlikka, fuqarolar xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni sodir etish hollari bundan mustasno.

5. Sud jinoyat sodir etishda ishtirokchilarga jazo tayinlashda Jinoyat Kodeksning 65-67 -moddalari qoidalariga amal qilgan holda, ularning har birining jinoiy huquqbuzarlik sodir etishdagi ishtirokining xususiyati va darajasini hisobga oladi.[7]

Ukraina Jinoyat kodeksining ushbu moddasida nazarda tutilgan holatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va suiqasd uchun jazo tayinlash alohida alohida nazarda tutilgan, ya'ni jinoyatga tayyorgarlik uchun Maxsus qism moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazo muddatining yarmidan, suiqasd uchun esa uchdan ikki qismidan oshib ketmasligi belgilangan. O'zbekiston Respublikasining amaldagi JK ga ko'ra jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va suiqasd uchun umumiy eng ko'p jazoning uchdan ikki qismidan ortiq bo'lmasligi belgilangan. Boshqa holatlarda mamlakatlar o'rtasidagi qonunchilik normalarining o'zaro o'xshash ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Belorussiya davlati Jinoyat kodeksining 67-moddasiga asosan:

1 Tugallanmagan jinoyat uchun jazo tayinlashda aybdor tomonidan sodir etilgan xatti-harakatlarning xususiyati va jamoat xavflilik darajasi, jinoiy niyatni amalga oshirish darajasi hamda jinoyat tugallanmagan holatlar hisobga olinadi.

2. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va jinoyatga suiqasd qilganlik uchun o'lim jazosi qo'llanilmaydi.[8]

Ushbu holatlar yuqorida keltirib o'tilgan Ukraina Jinoyat kodeksi O'zbekiston JK moddalarida nazarda tutilgan holatlar o'xshashlikni ko'rsatmoqda.

## **XULOSA**

Tamom bo'lmagan va ishtirokchilida sodir etilgan jinoyatlar uchun jinoiy jazo tayinlash masalalarini tahlil qilish jarayonida amaldagi O'zbekiston Respublikasi JK ning 58-moddasiga asosan "Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rt dan uch qismidan oshmasligi kerak"ligi belgilangan, ammo Ukraina Jinoyat kodeksiga asosan jinoyatga tayyorgarlik ko'rish uchun eng ko'p jazo muddatining yarmidan, suiqasd

uchu esa uchdan ikki qismidan oshmasligi belgilangan. Jinoyatga suiqasd jinoyat sodir qilishga tayyorgarlik ko'rishga nisbatan ijtimoiy xavfli hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda quyidagicha o'zgartirish kiritilishini lozim deb hisoblaymiz:

Birinchidan, JK ning 58-moddasida Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir qilishga suiqasd uchun jazo tayinlashning alohida-alohida tartibini belgilash. (Ukraina davlati tajribasi).

Ikkinchidan, JK ning 30-moddasiga asosan jinoyatda ishtirokchilik turlari hisoblangan Tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham JK Maxsus qismida bajaruvchini javobgarlikka tortish belgilangan moddasi bo'yicha javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan. Ammo jinoyat sodir etilish holatlari bo'yicha vazifalarning og'ir yengilligi har xil hisoblanadi. Ishtirokchilik uchun ham jazo tayinlashda ularning darajalariga qarab, har hil tartib belgilanishi va JK ning moddasida qat'iy qilib kiritilishi lozim. Bu kabi o'zgartirishlar jazo tayinlash uchun, sudlar faoliyatida yengilliklar yaratishi va ko'p jihatlarning sudyaning ichki ishonchiga havola etilishi holatlariga barham berishi mumkin. Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga sud tomonidan yetarli va zarur bo'lgan jazo tayinlanishi lozim, shundagina jazo tayinlashdan ko'zlangan maqsadga erishiladi.

## REFERENCES

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" [Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси.pdf](#)
2. <https://stat.sud.uz/file/2022/17-01/jinoyat-2021-12oy.pdf>
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharx. [Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashr. 2016-yil 1-noyabrgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan] Umumiy qism / M.Rustambayev. – Toshkent: "Adolat" 2016.387-bet.
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. 132 bet.
5. Ochilov X. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Darslik. – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 114-bet
6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-111453>
7. Criminal code of the Republic of Ukraine.05.04.2001. article 68.
8. Criminal code of the Republic of Belarus.09.07.1999. article 67.

## **FUQAROLIK SUDLARIDA BUYRUQ TARTIBIDA ISH YURITISHNING AYRIM JIHATLARI**

**Alimjanov Baxtiyor Muqumjanovich**

Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi

e-mail: [Baxtiyoralimjanov576@gmail.com](mailto:Baxtiyoralimjanov576@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqola orqali fuqarolik protsessida buyruq tartibida ish yuritish tushunchasi, huquqiy asoslari, ahamiyati va protsessual jihatlari ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, buyruq tartibida ish yuritishda yuzaga keladigan amaliyotdagi muammolar va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va mulohazalar ilgari surilgan.*

***Kalit soʻzlar:** sud hokimiyati, odil sudlov, fuqarolik protsessi, taraflar, buyruq tartibida ish yuritish, sugʻurta shartnomasi.*

## **НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ГРАЖДАНСКИХ СУДАХ**

**Алимжанов Бахтиёр Мукумджанович**

Студент Высшей школы судей

e-mail: [Baxtiyoralimjanov576@gmail.com](mailto:Baxtiyoralimjanov576@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проводится научно-практический анализ понятия, правовой основы, значения и процессуальных аспектов процессуального судопроизводства в гражданском судопроизводстве. Были также сделаны предложения и замечания по устранению проблем и недостатков в практике приказа.*

***Ключевые слова:** судебная власть, правосудие, гражданский процесс, стороны, исполнительное производство, договор страхования.*

## **SOME ASPECTS OF WRIT PROCEEDINGS IN CIVIL COURTS**

**Alimjanov Bakhtiyor Mukumjanovich**

Student, Higher School of Judges

### **ABSTRACT**

*This article provides a scientific and practical analysis of the concept, legal basis, its significance and procedural aspects of writ proceedings in civil courts.*

*Suggestions and comments were also made to address the problems and shortcomings in the practice of the judicial order in writ proceedings.*

**Keywords:** *judiciary, justice, civil proceedings, parties, writ proceedings, insurance contract.*

## **KIRISH**

Ta'kidlash lozimki, har bir inson o'z huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni so'rab sudga shikoyat qilishi mumkin. Sud orqali himoyalani huquqi fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash kafolatlaridan biridir. Sud orqali himoya qilish davlat tomonidan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning eng asosiy vositalaridan biri hisoblanib, odil sudlovni ta'minlash orqali amalga oshiriladi [1].

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 8-moddasiga ko'ra, har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega [2].

Shuningdek, Konstitutsiyaning 44-moddasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi [3].

Bundan tashqari, Fuqarolik protsessual kodeksining 3-moddasiga ko'ra, har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda fuqarolik ishlari bo'yicha sudga (sudga) murojaat qilishga haqli [4].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mamlakatimizda oxirgi yillarda keng ko'lamda amalga oshirilayotgan sud-huquq isloxotlari, eng avvalo, sudlarning nufuzini oshirish, fuqarolarga o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qila olishlari uchun keng sharoitlar yaratish xamda shunga mutanosib ravishda sudlarning ish yuritish tartibini imkon darajasida soddalashtirishni nazarda tutadi. Ayniqsa, fuqarolik protsessiga oid ishlarni ko'rishni takomillashtirish, ishlarni sifatli va qonuniy ko'rilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini munosib himoya qilish zaruratini qo'yadi.

Bizga ma'lumki, fuqarolik sud ishlarini yuritishning quyidagi turlari mavjud:

- da'vo tartibdagi ishlar;
- buyruq tartibida ko'riladigan ishlar;

- alohida tartibda yuritiladigan ishlar;  
- hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ishlar;  
- chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi ishlar;  
[5]

- korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma‘muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishlar.

Mazkur sanab o‘tilgan sud ishlarini yuritishning har biri alohida xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi va belgilangan tartibda ko‘riladi. Sud buyrug‘i nizosiz talablar bo‘yicha sud muhokamasi o‘tkazmasdan berilgan sud hujjati [6] hisoblanadi. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning alohida turi hisoblangan buyruq tartibida ish yuritish – fuqarolarning xuquqlari va qonuniy manfaatlarini ximoya qilishning soddalashtirilgan va ixchamlashtirilgan shakli hisoblanadi. Shu o‘rinda fuqarolarning xuquqlari va qonuniy manfaatlarini ximoya qilishning soddalashtirilgan va ixchamlashtirilgan shakli sifatida ayrim toifadagi fuqarolik ishlarini sud buyrug‘i chiqarish yo‘li bilan xal qilish muxim ahamiyatga ega yekanligini alohida etirof etishimiz joiz hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan ushbu huquqiy institutining ahamiyati shundan iboratki, ilgari undiruvchining qarzdordan pul mablag‘larini undirish yoki ko‘char mulkni nizosiz tarzda qarzdordan talab qilib olish to‘g‘risidagi arizalari bo‘yicha ish taraflar sud majlisiga chaqirilgan holda ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, sud buyrug‘i instituti joriy etilgach, mazkur toifadagi arizalar bo‘yicha sudya ishni sud majlisida ko‘rmasdan va taraflarni sud muhokamasiga chaqirmasdan, sud buyrug‘i chiqarish vakolatiga ega bo‘ldi.

2018 yil 1 aprelga qadar amalda bo‘lgan Fuqarolik protsessual kodeksida 5 talab yuzasidan sud buyrug‘i chiqarilgan bo‘lsa, 2018 yil 22 yanvarda yangi tahrirda qabul qilingan Fuqarolik protsessual kodeksida 8 talab yuzasidan, 2019 yil 22 oktyabrda kiritilgan o‘zgartirishlarga asosan jami 9 talab yuzasidan sud buyrug‘i chiqarilishi belgilangan. Yangi tahrirda qabul qilingan FPKda so‘ngi yillarda asosan da‘vo tartibida ko‘rilgan 3 ta nizo turi yuzasidan ishlarni fuqarolarni ortiqcha ovoragarchiligini oldini olgan holda, aslida ushbu ishlar nizosiz bo‘lganligi sababli, sud buyrug‘i chiqarish orqali ya‘ni taraflar ishtirokisiz ko‘rib chiqilib sud xujjati chiqarilishi belgilandi. Bu esa fuqarolarga arizalarini tezkor va sifatli ko‘rib chiqilish imkoniyatini yaratdi.



Fuqarolik ishlar bo'yicha sudlar tomonidan 2018 yilda birinchi instansiyada jami ko'rilgan **453 354 ta** ishlardan **236 030 tasi (52,1%)** sud buyrug'i berish tartibida ko'rilgan bo'lsa, 2020 yilda esa **291 132 ta** ishdan **96 584 (33,2%) tasi buyruq tartibida ko'rilgan** [7]. Bundan ko'rinadiki, sud ishlarini yuritishning buyruq tartibida yuritish to'g'risidagi ishlar ham ko'pchilikni tashkil etib, nizosiz talablar bo'yicha ishlarning tez va soddalashtirilgan tartibda ko'rilishiga olib keladi.

Yangi qo'shilgan talablar yuzasidan so'ngi yillardagi statistik xisobotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ko'p kvartirali uyning joylari mulkdorlaridan majburiy badallar va to'lovlarni undirish to'g'risidagi talablar yuzasidan Respublika bo'yicha 2020 yil 9 oy davomida 122 ta ish, 2021 yil 9 oy davomida 366 ta sud buyrug'i chiqarilgan, xuddi shunday ijara shartnomasida belgilangan ijara to'lovlari muddatida to'lanmaganligi sababli ushbu to'lovlarni undirish to'g'risida talablar yuzasidan 2020 yil 9 oy davomida 11 ta, 2021 yil 9 oy davomida 20 ta sud buyrug'i chiqarilgan. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinadiki, ushbu talablar yuzasidan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar yildan yilga ko'payib borayotganligini ko'rsatadi. Hozirgi kunda fuqarolik sudlarida yildan yilga ish hajmi ko'payib bormoqda. Bu esa nizolarni ko'rishda ish sifatini pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli ishlarni ko'rishda taraflar ishtirokisiz ko'riladigan talablar doirasini kengaytirish zamon talabi bo'lmoqda. Buyruq tartibida ish yuritishdagi talablar yuzasidan xorij tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, xususan Germaniya Federativ Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida avtomobil sug'urtasi yuzasidan kelib chiqadigan nizolar sud buyrug'i tarzida chiqarilishi belgilangan.

Fikrimizcha, mazkur normani O'zbekiston Respublikasini amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksiga ham kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xususan, "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga asosan, sug'urta shartnomasi bo'lib, unga ko'ra sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda jabrlanuvchilarga ularning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga ushbu sug'urta hodisasi oqibatida yetkazilgan zararning o'rnini shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta puli doirasida qoplash majburiyatini oladi [8]. Demak mazkur normaga asosan shartnomada sug'urta puli undirilishi uchun xech qanday nizo mavjud emas va bunday holatda ishlarni buyruq tartibida ko'rilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bundan tashqari, Rossiya Federativ Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida fuqaroni (qarzdorni) majburiy sudga keltirish yoki uning mol-mulkini qidirish bo'yicha xarajatlarning o'rnini qarzdor tomonidan qoplash yuzasidan sud buyrug'i chiqarilishi belgilangan. Shunga mazkur normani ham bizning

qonunchiligimizga kiritilsa bo‘ladi. Buni quyidagicha izohlaymiz: O‘zbekiston Respublikasida 2018 yil 1 aprelga qadar Fuqarolik protsessual kodeksida protsessual majburlor choralaridan majburiy keltirish degan norma yo‘q edi. Agarda taraf sud majlisiga kelmaydigan bo‘lsa, FPKni 144-moddasiga asosan agar FPKning 313-moddasiga muvofiq sud muhokamasida ishtirok etishi shart bo‘lgan yoki sudga kelishi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan shart deb topilgan, tegishli tarzda xabardor qilingan shaxs sudga uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmasa yoxud kelmaganligi sabablarini ma‘lum qilmasa, sud tomonidan unga nisbatan majburiy keltirish to‘g‘risida ajrim chiqarilishi mumkin. Mazkur ajrimning ijrosi hududiy ichki ishlar organining zimmasiga yuklatiladi. Majburiy keltirish bilan bog‘liq xarajatlarni undirish FPKda belgilangan tartibda hududiy ichki ishlar organining tegishli arizasiga asosan amalga oshiriladi. Demak ushbu holatda ish bo‘yicha taraf majburiy keltirilishi uchun xarajatlar amalga oshiriladi. Bundan tashqari ayrim doiradagi ishlar yuzasidan qarzdorni qidirish uchun sud tomonidan ajrim chiqariladi. Buning asosini FPK 165-moddasida ko‘ramiz.

Alimentlar undirish to‘g‘risidagi va mayib bo‘lish yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi, shuningdek boquvchisining o‘limi natijasida ko‘rilgan zararning o‘rnini qoplash haqidagi da‘volar bo‘yicha javobgarning (qarzdorning) amaldagi turish joyi noma‘lum bo‘lgan taqdirda, javobgar (qarzdor) qidirilishi shart. Bunday hollarda sud ichki ishlar organlari tomonidan javobgarni (qarzdorni) qidirish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Albatta mazkur xolat yuzasidan xarajatlar amalga oshiriladi. Ushbu xarajatlarni undirish nizosiz bo‘lganligi uchun, jarajatlarni undirishni sud buyrug‘i chiqarish bilan undirsa bo‘ladi.

## **XULOSA**

Yuqoridagilarga ko‘ra xulosa qiladigan bo‘lsak, hozir fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda sudyalarning ish yuklamalarini kamaytirish, sudlarda ishlarni soddalashgan tartibda hal etish tizimini takomillashtirish maqsadida fuqarolik protsessual qonunchiligida sud buyrug‘i chiqarish asoslari ro‘yxatini kengaytirish lozim deb o‘ylaymiz.

## **REFERENCES**

1. Yodgorov X. [va boshq.] Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga murojaat qilish tartibi [Matn]/–Toshkent: Baktria press, 2016. – 224 b.
2. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyutsiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e‘lon qilingan. <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021 y., 03/21/671/0093-son).
4. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021 y., 03/21/716/0877-son ).
5. Xabibullaev D.Y. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). O‘quv qo‘llanma. To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr. –Toshkent, TDYU nashriyoti, 2018. -300 b.
6. Xabibullaev D.Y. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). O‘quv qo‘llanma. To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr. –Toshkent, TDYU nashriyoti, 2018. -300 b.
7. [https://stat.sud.uz/file/2021/fib/fib\\_2020.pdf](https://stat.sud.uz/file/2021/fib/fib_2020.pdf).
8. O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-155-son 21.04.2008. <https://lex.uz>.

## **SHARQ MA'RIFATIDA HARBIY QO'SHIN VA NAVKARNING IJTIMOIY VA AXLOQIY JIHATLARI**

**Mullajonov Islomjon Yuldashevich**

O'R QK Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada Temuriylar davrida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi faoliyati, harbiy nazariyasi va amaliy harbiy san'ati, taktika va strategiyasi, armiya tarkibining tuzilishi, hamda temuriylar davrida axloqiy-estetik g'oyalarning rivojlanishi haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Etika, estetika, ma'naviyat, vatanparvarlik ruhiyati, komil shaxs, sadoqat, g'urur, ishonch.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается деятельность Тимуриды по воспитанию подрастающего поколения в духе морали и патриотизма, военной теории и прикладных боевых искусств, тактики и стратегии, устройство армии, а также развитие нравственных и эстетических представлений в период правления.*

**Ключевые слова:** *Этика, эстетика, духовность, патриотический дух, совершенная личность, верность, гордость, уверенность.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the activities of Timurids in educating the younger generation in the spirit of morality and patriotism, military theory and applied martial arts, tactics and strategy, the structure of the army, as well as the development of moral and aesthetic ideas.*

**Keywords:** *Ethics, aesthetics, spirituality, patriotic spirit, perfection, loyalty, pride, confidence.*

### **KIRISH**

Bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur va temuriylar davrida yashab ijod etgan mutafakkirlarning faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Ular qoldirgan ma'naviy meros necha-necha avlodlarni ma'naviy-axloqiy kamolotga da'vat etib, yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan

takomillashtirish to'g'risida"[1]gi qaroriga muvofiq bugungi kunda Mudofaa vazirligi tarkibidagi barcha xizmatchilar bir tanu bir jon bo'lgan holda milliy armiyamizda faoliyat yuritayotgan harbiy xizmatchilarning hayotiy va professional ko'nikmalarini ilm-ma'rifat asosida qalbi va ongiga singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondoshish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalarida to'sqinlik qilayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishda hamjihat va hamkor bo'lishimiz lozimligi ta'kidlangan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Inson ruhi, ma'naviyati nimaligi azaldan insonlarni qiziqtirib kelgan. Bu borada minglab ta'riflar mavjud. Ammo aniq javob yo'q. Bu buyuk sir-sinoatdir. Ma'naviyatning mohiyatini aql-zakovat bilishga qodir emas. O'zbek adibi Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "ma'naviyatni bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. U qudratli, boy va biz uchun azizdir", deb yozgan. Yangi O'zbekiston sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarimiz, armiya va xalqning faol hamkorligi natijasida Qurolli Kuchlarimiz tom ma'noda jamiyatning ajralmas qismiga, mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining ishonchli kafolatiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylanib bormoqda.

Biz Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk vatandoshlarimiz bo'lgan jasur, el-yurtga sadoqatli o'g'lonlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Amir Temur harbiy sohada jahonga mashhur sarkarda va o'z zamonasining eng qudratli hukmdori bo'lish bilan birga, uning harbiy nazariyasi va amaliy harbiy san'ati, taktika va strategiyasi, armiya tarkibining tuzilishiga ko'ra o'z davrining nodir mo'jizasi edi. Sohibqiron tomonidan Movarounnahrda markazlashgan va qudratli davlat barpo etilishi hamda bu yerda tinchlik, osoyishtalikning ta'minlanishi bunga asosdir.

Biroq ming taassufki, Amir Temur haqida sovet davrida yaratilgan aksariyat adabiyotlarda, shuningdeq ko'pchilik nashrlarda sohibqironning insoniyat oldidagi buyuk xizmatlari haqida deyarli ma'lumotlar berilmagan. Uning harbiy mahorati turli yo'nalishlarda: qismlarni qayta tashkil etishda, dushmanga hujum qilishda turli-

tuman usullardan foydalanishda, hujumdan oldin dushman joylashgan yerlarni obdon o‘rganib chiqishda hamda qo‘mondonlikda namoyon bo‘ladi.

Amir Temur bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo‘lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldun Jahongir turk, arab, fors xalqlari tarixining, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarigacha yaxshi o‘zlashtirganini ta’kidlaydi.

Amir Temur ilm-fan, ma’naviyat ahliga e’tibor, mehribonlik ko‘rsatib, ulardan jamiyat madaniy hayotida foydalanishga intilar ekan, tarixchi Ibn Arabshoh yozganidek, “Temur olimlarga mehribon, sayidu shariflarni o‘ziga yaqin tutar edi. Ularning har birini o‘z martabasiga qo‘yib, izzat-ikromini unga izhor qilar edi”[2].

Sohibqironning ma’naviy-axloqiy qarashlari uning “Temur tuzuklari”da mujassamlangan. Mazkur asarda Temurning jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, davlatning siyosiy va axloqiy tamoyillari ifodalangan.

Amir Temur davlatni boshqarishda o‘zi uchun asosiy yo‘nalishlar deb, din va shariatni oladi: “yana tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar din (qoida, rasm, tartib, odat, ravish, tarzi) asosida ko‘rilmas ekan, unday saltanatning obro‘si, qudrati va tartibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xshar ekan, uni ko‘rgan har kimsa undan nazarini olib qochadi, yohud kasu-nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi, tuynugi yo‘q uyga o‘xshaydi”.

Buyuk davlatga asos solgan Amir Temurning sarkardalik san’atini, lashkarboshilarni qanday tanlagani va rag‘batlantirganini o‘rganish, bizningcha, muhim masaladir. Chunki, ulug‘ amirning “Davlatu saltanat uch narsa – mulk, xazina va lashkar bilan tikdir”, deb aytgan hikmatli so‘zlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Sohibqiron harbiylikka olinadigan kishidagi sergaklik, xushyorlik va tadbirkorlikni oldingi o‘ringa qo‘ydi. U aytadiki, “ishbilarmon, mard va shijoatli sohib, azmi qat’iy tadbirkor va xushyor bir kishi, ming-ming tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir”. U shunday degan: “Cherik tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan – yigitning kuch-quvvatiga, ikkinchidan – qilichni o‘ynata olishiga, uchinchidan aql-zakovati-yu, kamolotiga e’tibor berdim. Shu uch sifat jamuljam bo‘lgandagina navkarlik xizmatiga oldim. Negaki, kuch-quvvatli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azob-uqubatlarga chidamli bo‘ladi, qilich o‘ynata oladigan kishi raqibini mag‘lub eta oladi, oqil navkar har joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotni bartaraf etmog‘i mumkin”.

U kishilardagi, jumladan, navkarlaridagi vafodorlik va sadoqatni qadrlay bildi. Bevafo va sadoqatsiz sipohiylarni saltanatiga yaqinlashtirmadi.

*“Men bilan ittifoqi buzilgan amirlarni bir-ma-bir holi joyga chaqirtirib, har qaysisi bilan alohida gaplashdim. Mol-dunyoga hirs qo‘ygan ojiz va ta‘magirlarga mol-dunyo va‘da qildik, mansab-martabaga va mamlakatlarni boshqarishga ko‘z tikkan amalparastlarga qo‘lim ostidagi mamlakat va viloyatlardan birining hokimligini berdim. Ularning hammasini umid va qo‘rqinch orasida saqladim. Qolgan sipohiylarni ham yemak-ichmak va kiyim-kechak umidi, shirin so‘z va ochiq chexra bilan o‘zimga rom qildim. Bir xizmatini o‘n barobar qilib taqdirlab, dilini xushnud etdim. Natijada meni qo‘llab-quvvatladilar va atrofimda birlashdilar. Har ishda birlik – ittifoqlikni qo‘ldan bermaslikka, amrimdan chiqmaslikka va‘da berib, men uchun molu jonlarini ayamay, jang maydonida jonbozlik qilishga axd qildilar”.*

*“Yo‘l ustida kuzatuvchilar, zobitlar tayiria-sinlarki, yo‘llarni qo‘riqlab, yo‘lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini biri manzildan ikkinchi manzilga etkazib qo‘ysinlar. Yo‘l ustida birontasining narsasi yo‘qolsa, o‘zi o‘ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javobgarlik ularning zimmasida bo‘lsin.*

Amir Temur (1336—1405 y.y.) millatimiz tarixida munosib o‘rin egallaydi. U yoshligidan xat-savod chiqarib, o‘z davrining tibbiyot, riyoziyot, falaqiyot, me‘morchilik va tarix ilmlarini o‘rgangan.

O‘g‘ri va qaroqchilar qayerda qo‘lga olinmasin, yaso (qonun) asosida jazolansinlar. Agar birontasi birovning mol-mulkini kuch ishlatib tortib olgan bo‘lsa, uni olib o‘z egaloriga topshirsinlar. Kimdir birovning tishini urib sindirgan bo‘lsa yoki ichkilik ichgan bo‘lsa, jazo berish uchun shariat qozisi huzuriga olib borsinlar”.

Amir Temur saroyida ko‘plab ilm-ma‘rifat allomalari sohibqironning marhamatidan bahra olib, uning xizmatida bo‘ldilar. Sohibqironning riyoziyot, xandasa, me‘morchilik falakiyot, adabiyot, tarix, musiqa sohalari ravnaqiga katta e‘tibor berib, sohibi hunarlar bilan qilgan suhbatlari haqida fransuz olimi Lyangle shunday yozadi: *“Temur olimlarga iltifotli edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko‘rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste‘dodli bo‘lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Chunki, Temur bu sohalarga g‘amho‘rlik qilishga asosiy e‘tiborini berardi”.*

Ulug‘ amir har ishda insoniy, axloqiy fazilatlarni, kuchli iymonni birinchi o‘ringa qo‘ygan. Sohibqiron Amir Temur davrida Markaziy Osiyoning mustaqil bir davlat ostiga birlashtirilishi, shubhasiz, mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ulkan ta‘sir ko‘rsatdi, ilm-fan, adabiyot va san‘at, hunarmandchilik va me‘morchilik ravnaq topdi.

Buning uchun Movarounnahrning hamma joylaridan, yaqin va O'rta Sharq o'lkalaridan, tobe mamlakatlardan juda ko'p fan va san'at ahllarini, iste'dodli sohibi hunarlarni, me'mor va musavvirlarni poytaxtga to'pladi. Bu – Sohibqironning estetik didi juda baland bo'lganligidan dalolatdir.

Buyuk Sohibqironning axloqiy-estetik qarashlari, amaliy faoliyati bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, aksincha, vaqt o'tishi bilan yanada mazmunga boyib bormoqda.

O'rta asr Sharqida axloq fanining rivojiga katta hissa qo'shgan mutafakkir Jaloliddin Davoniy (1427—1502 y.y.)dir. U axloq fanining predmeti va vazifalarini belgilashda Arastu ta'sirida bo'ladi. Axloq fani deganda, mutafakkir kishilarning xulq-odobi va fazilatlarini o'rganuvchi fanni tushunadi. Ushbu fan amaliy xarakterga ega bo'lib, u kishilarning kundalik hayotida asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilishi lozim.

*Davoniyning* fikricha, kishilarning xislatlari tabiiy (tug'ma) va yashash davomida shakllanadigan hislatlarga bo'linadi. Ushbu masalada u Forobiy va Tusiyning fikriga qo'shiladi.

*Davoniy* xuddi Forobiy singari, tug'ma xususiyatlarga kishilarning ba'zi bir aqliy va axloqiy malakalari: zehn o'tkirligi, faraz qilish qobiliyati, hamfikrlik va boshqalarni kiritadi. Mutafakkir kishilarning ba'zi tug'ma-xususiyatlari va qobiliyatlarini tan olsa ham, yashash davomida qo'lga kiritiladigan malakalarni inson uchun muhim, deb hisoblaydi. Zero, inson yoshligidan tashqi muhit va boshqalarning ta'sirida barcha xislatlarni egallay boradi.

*Davoniyning* fikricha, bola dunyoqarashining shakllanishida tashqi muhit va uning tevarak-atrofidagi odamlar muhim rol o'ynaydi. Tashqi muhit ta'sirida bola faqatgina atrof-muhitni kuzatibgina qolmasdan, balki yaxshi yoki yomon malakalarni hosil qila boradi.

*Davoniy* kishilarni bola tarbiyasida juda ehtiyot bo'lishga chaqiradi, chunki ular yoshligida o'ta ta'sirchan bo'ladi, yaxshi va yomonning farqiga bormasdan qabul qilaveradi. “*Bola qalbi, deb ta'kidlagan edi u, toza taxtaga o'xshaydi, unga har qanday tasvirni osonlikcha chizish mumkin*”. Uning aytishicha, tug'ilganda bola qalbi toza taxtani eslatadi. Ruhiiy holati (psixikasi) esa yashash jarayonida to'ldirib boriladigan bir varaq oq qog'ozga o'xshaydi.

Bola tarbiyasida maktabning roli muhimdir. O'qituvchi aqlli, bola tarbiyalashda qobiliyatli bo'lishi lozim. *Davoniy* o'qituvchini sevishga, hurmat qilishga chaqiradi va uni ma'naviy ota deb hisoblaydi.



*Davoniy* yosh avlodni kasb-hunarga o'rgatish masalasiga ham o'z e'tiborini qaratadi. Bolalarni o'qitishda, ularning qobiliyatini hisobga olish zarur. Agar bola biror kasb-hunarga qiziqsa, shu ixtisosni egallashi uchun unga sharoit yaratib berish kerak. "Hamma mavjud kasb-hunarlariga kishining qobiliyati bo'lmaydi, aksincha har bir odam muayyan bir hunarga qiziqadi. Buning zaminida bir sir yashirinib yotadi. Bu sirning sababi dunyoning mavjud bo'lishi va kishilar turmushini tartibga solib turishdir", deydi Davoniy. Bitta hunar bilan qiziquvchi odam, o'zining butun qobiliyati va e'tiborini shu kasbni egallashga qaratadi.

Temuriylar davrining ko'zga ko'ringan allomalaridan biri – Xusayn Voiz Koshifiy (1440— 1505 y.y.). Uning dunyoqarashida axloqshunoslik muammolari muhim o'rinni egallaydi. Koshifiy "Axloqi Muxsiniy" asarida axloqshunoslikni maxsus fan tarmog'i sifatida tan olib, uning vazifalarini belgilab beradi. Uningcha, axloqshunoslik ko'proq amaliy fanlar turkumiga kirib, uning asosiy vazifasi yaxshi fazilatlarni kasb qilishdan iborat. Koshifiy axloqni kishilar o'rtasidagi munosabatlar va ularning kundalik turmushidan qidiradi.

*Koshifiy* bolalarni yoshlikdan boshlab ularning qobiliyatiga qarab muayyan kasb-hunarga o'rgatish lozim, deb hisoblaydi. Agar bola biror kasbga qiziqish bildirsa, unga kerakli shart-sharoitlarni yaratib berish kerak. U shaxsning axloqiy kamolotida yaxshi fazilatlarni egallashi lozimligi masalasiga keng to'xtaladi.

Ma'lumki, eng muhim axloqiy tushunchalardan biri adolatdir. Koshifiy adolatni keng ma'noda tushunadi, uni insonning axloqiy malakalarini yuksak shakli sifatida talqin qiladi. Agar adolat mutlaq fazilat bo'lsa, insonning boshqa xususiyatlari uning xizmatkori hisoblanadi. Uningcha "Adolat – eng yaxshi fazilat bo'lsa, adolatsizlik esa eng tuban va yaramas illatdir"[3].

*Koshifiy* yaxshilik va yomonlik haqida ham o'z fikrini bildirgan. Uning tushunchalari juda keng ma'noni anglatadi. Sharq mutafakkirlari ular orqali kishilarning xulq-odobi, yurish turishi va xatti-harakatini baholaganlar.

*Koshifiy* ham Navoiy singari kishilarni yaxshi va yomonga ajratadi va besh guruhga bo'ladi. Birinchi guruh kishilari shunday kishilarki, ular o'z tabiati va kelib chiqishiga ko'ra yaxshi kishilar bo'lib, doimo xayrli ishlar bilan shug'ullanadilar. Shuning uchun ularni qo'llab-quvvatlash zarur. Ikkinchi guruhdagilar o'ziga yaxshilikni ravo ko'rib, boshqalarga nafi tegmaydi. Bunday odamlarni ham qadrlab, ularni hayrli ishlar qilishga undash kerak. Uchinchi guruhga kiruvchi odamlar jamiyatga na foyda, na ziyon keltiradilar, ya'ni ular tabiatiga ko'ra na yaxshi va na yomondirlar. Ularni ham yaxshi ishlar qilishga, yomonlikdan qochishga chorlash lozim. Lekin to'rtinchi guruhga kiruvchilar, garchi ular yomonlik qilmasada, tanbeh

berishga loyiq odamlar hisoblanadi. Ularni yomonlikdan tiyilishiga da'vat qilish zarur. Beshinchi guruhdagilar yomon va axloqsiz odamlar bo'lib, jamiyatga faqat ziyon keltiradilar. Ularga nisbatan jazo choralarini qo'llash va ularning tarbiyasi bilan shug'ullanish lozim.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, o'sha davr allomalarining axloq-odob va estetika borasidagi dono fikrlari madaniyatimizni yanada ravnaq toptirishda, yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitishda, ularni yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Shunday ekan, bugun Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarimiz ajdodlarimizning mana shunday boy ma'naviy merosidan oziqlanishsa, o'zlarining ma'naviy, axloqiy va intellektual sifatlarini shakllantirishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son qarori.
2. Harbiy xizmat axloqi. 2005 y. Toshkent.
3. Pulatova D.A. "Axloqshunoslik" fanidan mustaqil ta'lim uchun uslubiy qullanma, 1995 yil,
4. Vatanparvar gazetasi maqolalari.
5. O'zbekiston Respublikasining "Umumxarbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni. Toshkent 2003 y.
6. O'zbekiston Respublikasi QK «Umumxarbiy nizomlari» Toshkent 1996 yil.
7. Umarov E. Estetika "Nafosatshunoslik" Toshkent 1995 yil,
8. O'G'LI, J. S. S. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 11-14.

## **O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Choriyev Bahrom To‘rayevich**

Surxondaryo viloyati yuridik texnikum  
Jinoiy huquqiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi  
Termiz, Surxondaryo, O‘zbekiston  
E-mail: [b.choriyev@gmail.com](mailto:b.choriyev@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi elektron tijorat munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Bundan tashqari ushbu munosabatlarning Markaziy Osiyo mamalakatları doirasidagi huquqiy holati hamda rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston elektron tijorat munosabatlarini tartibga solishning zarurati, ushbu sohadagi muammo va kamchiliklar tahlil qilingan. Ushbu tahlillar natijasida O‘zbekistonda elektron tijorat huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan bir qancha tajklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** elektron tijorat, e-tijorat, e-pay, O‘zbekiston, smart shartnomalar, blokchein texnologiyalari.*

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВЫХ ОСНОВ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Чориев Бахром Тураевич**

Сурхандарьинский областной юридический техникум  
Преподаватель кафедры уголовно-правовых дисциплин  
Термез, Сурхандарья, Узбекистан  
E-mail: [b.choriyev@gmail.com](mailto:b.choriyev@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проанализированы нормативно-правовые акты, регулирующие отношения электронной коммерции в Республике Узбекистан. Кроме того, рассмотрено правовое положение и перспективы развития этих отношений в рамках государств Центральной Азии. Кроме того, проанализирована необходимость регулирования отношений электронной коммерции в Узбекистане, проблемы и недостатки в этой сфере. В результате этих анализов был разработан ряд рекомендаций и рекомендаций по совершенствованию правовых основ электронной коммерции в Узбекистане.*

*Ключевые слова: электронная коммерция, электронная коммерция, e-pay, Узбекистан, смарт-контракты, блокчейн-технологии.*

## **IMPROVING THE LEGAL FRAMEWORK OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN**

**Choriev Bahrom Turaevich**

Surkhandarya Regional Law College

Lecturer of the Department of Criminal Law Disciplines

Termez, Surkhandarya, Uzbekistan

E-mail: [b.choriyev@gmail.com](mailto:b.choriyev@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the regulatory legal acts regulating e-commerce relations in the Republic of Uzbekistan. In addition, the legal situation and prospects for the development of these relations within the framework of the Central Asian states were considered. In addition, the necessity of regulating e-commerce relations in Uzbekistan, problems and shortcomings in this area are analyzed. As a result of these analyses, a number of recommendations and recommendations were developed to improve the legal framework of e-commerce in Uzbekistan.*

**Keywords:** e-commerce, e-commerce, e-pay, Uzbekistan, smart contracts, block chain technologies.

### **KIRISH**

Jahon hamjamiyatining ko'zlangan rivojlanish va farovonlikka erishish uchun, axborot texnologiyalariga (AT) bo'lgan ehtiyoji katta sur'atlar bilan oshib borayapti. Iqtisodiy o'sishning faollashuvi, dunyo aholisi yashash darajasining yaxshilanishi axborot texnologiyalarining kundalik hayotimizga singib ketgani natijasidir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki erkin axborot oqimining ta'minlanishi bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtiradi va sotsial farovonlikni oshiradi.[1]

O'zbekiston iqtisodiyotining ham bosqichma-bosqich rivojlanishi oqibatida biznes faoliyatini yuritishning yangi prinsiplari, ayniqsa elektron tijoratning ahamiyati juda oshdi. Bugungi kunga kelib, har bir internet foydalanuvchisi elektron tijorat so'zining ma'nosini tushunishga harakat qilib ko'rgan. Hali o'zining uzoq tarixini qurishga ham ulgurmagani bunday faoliyat bilan bog'liq AQSh bozorlarida yiliga o'rtacha 1,5-2 trln. AQSh dollari miqdorida mablag'lar aylanadi. [2]

Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi iqtisodda ham o'z aksini topmasdan qolmaydi. Hozirgi kunda iqtisodda, ayniqsa tadbirkorlik sohasida erishilayotgan

yutuqlar negizida aynan axborot texnologiyalari turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va samarali qo'llanishi yotadi. O'zbekiston iqtisodiyoti ham bundan mustasno emas albatta. Yaqqol misol sifatida axborot texnologiyalarining bir qator segmentlari masalan, ma'lumotlar yetkazish tarmoqlari, axborot internet-resurslari va ular orasidagi elektron hujjat almashuv, biznes va tijoratning barqaror rivojlanayotganini keltirish mumkin. O'zbekiston uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirish yangi iqtisodiy aloqalarni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu jarayon, axborot texnologiyalari sohasida ta'lim standartlarining oshishi, milliy telekommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi, huquqiy bazaning shakllanishi oqibatida vujudga keladigan jamiyatning ma'lum darajadagi informatsion tayorligi mavjud bo'lgan holatdagina sodir bo'ladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Yurtimizda elektron tijorat sohasidagi munosabatlarning normativ-huquqiy asoslari yaratilgan. "Axborotlashtirish to'g'risida", "Elektron to'lovlar to'g'risida", "Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida", "Elektron tijorat to'g'risida"gi va boshqa Qonunlar ana shular jumlasidandir. Ushbu huquqiy hujjatlar asosida elektron bank hujjat aylanishi elektron plastik kartochkalar kabi tizimlar amaliyotga izchil joriy etilayapti. Barchaga ma'lumki, keyingi yillarda, yurtimizda iqtisodiyotning jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Natijada elektron tijoratning ahamiyati tobora oshib, aholining ushbu soha xizmatlariga bo'lgan talab va ehtiyojlari yuksalib borayapti. Shak-shubhasiz, elektron tijorat bozorini taraqqiy toptirish axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanib, tegishli mexanizmlarni kengroq joriy qilish, eng avvalo, elektron tijorat sohasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zaruratini kun tartibiga olib chiqdi. Oliy Majlis Senatining ikkinchi yalpi majlisida ko'rib chiqilishi kutilayotgan yangi tahrirdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun ham ana shu talab va ehtiyojlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgani bilan ahamiyatlidir.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham ushbu soha rivojiga kata hissa qo'shib kelmoqda. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, normative-hujjatlar elektron tijoratni rivojlantirish uchun yangi huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy va texnik sharoitlar yaratadi. U tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish imkonini beradi. Elektron tijoratni yanada rivojlantirishga, elektron savdoda zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarini joriy qilishga, bitimlarni tuzish tartib-taomillarini soddalashtirishga, elektron tijorat ishtirokchilari huquqlarini ro'yobga chiqarishning huquqiy mexanizmlarini o'rnatish va muhofaza etishga xizmat qiladi. Mazkur Qonun respublikada elektron tijoratni yanada keng joriy etishga huquqiy zamin yaratib, savdo operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha xarajatlar (tranzaksiya xarajatlari)ni kamaytiradi. Elektron tijorat subyektlarining biri-biridan geografik uzoqligi bilan bog'liq muammolarni hal qiladi. Sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri tezkor ravishda shartnomaviy munosabatlarni o'rnatish uchun sharoit tug'diradi. Jumladan, bozorda yangi ishtirokchilarning paydo bo'lishida muhim omilga aylanadi. Qolaversa, u tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhiti yanada yaxshilanishi, xalqaro standartlarga javob beradigan texnologik bozor infratuzilmasini yaratishga qo'shimcha imkon beradi.

Ilmiy maqolani tayyorlashda umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik va amaliyot materiallarini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

“Elektron tijorat” termini EDI (Elektronic Data Interchange – ma'lumotlarni elektron almashish), elektron pochta, internet, intranet (kompaniya ichida axborot almashish) va ekstranet (tashqi dunyo bilan axborot almashish) kabi texnologiyalarni o'z ichiga oladi. O'z navbatida Elektron kommertiya tizimi uch sinfga bo'linadi:

- Chakana savdoni tashkil qilish bo'yicha (biznes-iste'molchi, B2C);
- Biznes hamkor bilan aloqlar o'rnatish (biznes-biznes, B2B);
- Iste'molchilar o'rtasidagi savdo (iste'molchi-iste'molchi, C2C);

Elektron tijoratning o'ziga xos qulayliklari va ustunliklari mavjud:

- Xalqaro operatsiyalarda axborot olish tezligi oshadi;
- Ishlab chiqarish va sotish davri qisqaradi;
- Arzon kommunikatsion vositalardan foydalanish evaziga axborot almashish xarajatlari kamayadi.

Kompaniya axborot texnologiyalarini samarali qo'llash orqali iste'molchibilan ochiq munosabat o'rnatish, mahsulot va xizmatlar to'g'risida hamkor va mijozlarni tezkor axborot bilan ta'minlash, sotuvning alternativ yo'llarini, misol uchun tijorat saytlarida elektron do'konlar ochish va yaratish imkoni beradi.[7]

O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish jarayonlari amalda Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda davlat organlari elektron tijoratni

rivojlantirishda, dunyo tajribasida keng qo'llanilgan quyidagi prinsiplarga amal qilishmoqda.

Elektron tijoratni rivojlantirishda korpoorativ sektor faol rol o'ynashi lozim;

- Elektron tijoratga nisbatan, davlat organlari tomonidan asoslanmagan turli cheklovlar qo'yilishiga yo'l qo'yilmaslik lozim;

- Davlat hokimiyati elektron tijorat jarayoniga, ushbu soha subyektlarini qo'llab-quvvatlash va huquq bazasini takomillashtirish maqsadida aralishishi mumkin;

- Elektron tijoratni boshqarish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda davlat hokimiyati Internetning o'ziga xosliklarini inobatga olishi lozim;

- Elektron tijorat jarayoni ma'muriy-hududiy bo'linish va davlat chegaralariga bog'liq bo'lmagan ravishda, global masshtabda sodir bo'lishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, o'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish bilan bir qatorda bu sohaning takomillashishiga to'sqinlik qilayotgan bir qancha muammolar ham mavjud. Bu muammolarning tezkor va aniq yechilishi bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan quyidagi yechimini kutayotgan masalalar jahon tajribasida keng tarqalgan bo'lib, ularning to'g'ri hal qilinmasligi oqibatida bu sohada jiddiy inqirozlar vujudga kelishi mumkin.[6]

Birinchidan, zarur infrastrukturaning hali ham yetarli darajada takomillashmagani. Quyida bir nechta misollar keltiramiz:

- internetning global tarmog'i bilan to'gridan-to'g'ri bog'langan provayderlar soni cheklangan miqdorda va buning natijasida internet mijozlarga provayder o'rtasida biridan ikkinchisiga tashish orqali yetkazilmoqda, ma'lumki bunday holat xizmat ko'rsatishning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- viloyatlarda ko'rsatilayotgan internet xizmatining sifat ko'rsatkichlari poytaxtdagi holat bilan solishtirganda sezilarli darajada yomon. Ajratilgan ulanish (ADCL modem) uchun yetarli shart-sharoitning yaratilmaganligi natijasida mijozlar to'gridan to'g'ri qo'ng'iroq qilish orqali (Dial-up) ulanishdan foydalanishadi. Bu o'z navbatida xizmat sifatining yetarli darajada bo'lmasligiga olib keladi.

Ikkinchidan, internet foydalanuvchilarining miqdori shunday darajadagi, bu holat elektron tijorat bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan yirik bozor yaratish imkonini bermaydi (O'zbekiston bo'yicha internet foydalanuvchilarining soni 2,5 mln. dan ortiq<sup>4</sup>). To'g'ri oxirgi yillarda bu sohada bir qancha ijobiy natijalarga erishilmoqda, lekin bu faqatgina ma'lum bir hududlarda (asosan poytaxt va ba'zi bir viloyat markazlar) o'smoqda. Ko'pchilik viloyatlarda bunday holat haligacha

muammoligicha qolmoqda. Ma'lumki, yetarlicha hajmdagi bozorga ega bo'lmasdan turib elektron tijorat faoliyatini yuritish ixtiyoriy tadbirkor uchun zarardir.

Uchinchidan, jismoniy shaxslarning bank hisob raqamlaridan on-line to'lovni amalga oshirishni ta'minlaydigan ishonchli tizimning rivojlanmaganligi. Banklarimiz tomonidan chiqarilayotgan plastik kartochkalardan faqatgina maxsus terminallardan foydalanib to'lovni amalga oshirishimiz mumkin, xalqaro tajribada esa plastik kartochkalar yordamida, to'lovni qabul qilish uchun o'rnatilgan maxsus modullar orqali, to'g'ridan to'g'ri on-line do'konlarda to'lovni amalga oshirish mumkin.

Asosiy muammo shundaki, O'zbekistonda jismoniy shaxslar uchun on-line banking xizmati keng tarqalmadi. On-line banking bank mijozlari uchun internet tarmog'ida yoki mobil aloqa yordamida o'z hisoblarini boshqarish va to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bir necha banklar tomonidan taklif etilayotgan SMS-banking bir tomonlama bo'lib, faqatgina hisob va operatsiyalar tarixi haqida ma'lumot olish uchun mo'ljallangan. Bu holat elektron tijoratning rivojlanishiga eng katta to'siq bo'layotgan muammolardan biridir.

To'rtinchidan, mavjud internet-do'konlar faoliyatida yetarli professionallik darajasi yetishmaydi. Ushbu o'rinda elektron tijorat jihatidan Markaziy Osiyo davlatlarining tajribasiga to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiq. Markaziy Osiyo ulkan elektron tijorat salohiyatiga ega, chunki mobil qurilmalarga kirish va Internet o'sishda davom yetmoqda, ayniqsa raqamli to'lovlarning ommaviyligi oshishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tashabbuslarining kuchayishi va umuman iqtisodiy tiklanish yuqori. Shu bilan birga, ushbu salohiyatning aksariyati Markaziy Osiyoning moliyaviy innovatsiyalar va elektron tijorat imkoniyatlari kam bo'lgan rivojlanayotgan mintaqada ekanligidan dalolat beradi. O'zimizni to'liq ifoda yetgan holda, moliyaviy inklyuziya va amaliy elektron tijorat yechimlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bilan bog'liq muammolarni hal qiladigan keng qamrovli milliy rivojlanish rejalariga ehtiyoj bor.

**Qirg'iziston.** Mamlakat 2021-2025 yillarda elektron tijoratni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqmoqda va Iqtisodiyot va Moliya vazirligi turli platformalarda o'zi uchun zarur bo'lgan huquqiy bazani va soliqlarni tartibga solishni muhokama qilmoqda. Elektron tijorat sohasi Qirg'iziston iqtisodiyotining salohiyatli yo'nalishlaridan biridir. 2019-yilda iqtisodiyot vazirligi Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati ko'magida Qirg'iziston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni loyihasini va Qirg'iziston Respublikasi hukumatining "Elektron tijorat to'g'risida" gi Qonuni loyihasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasini



taqdim etdi. Qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga taqdim etilib, unda quyidagi masalalar muhokamaga qo'yildi:[3]

1. elektron tijoratning huquqiy shartlari.
2. elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari;
3. elektron hujjatlar yordamida bitimlar tuzish qoidalari;
4. elektron hujjatlarni dalil sifatida tan olish kabi masalalar.

Qonun loyihasi, Iqtisodiyot vazirligida ta'kidlanganidek, elektron tijoratda yuzaga keladigan barcha munosabatlarni tartibga soladi. Qonun loyihasiga ko'ra elektron tijorat sohasidagi huquqiy munosabatlar ishtirokchilari quyidagilar bo'lishi mumkin: auksion, tanlov va tenderlar tashkilotchilari; to'lov tizimi operatorlari; aloqa operatorlari (provayderlari); banklar; davlat va nodavlat tashkilotlari; jismoniy yoki yuridik shaxslar.

**Turkmaniston.** Mazkur tendensiya Turkmaniston respublikasida o'sib borayotgan bo'lsada, ammo ushbu munosabatlarni huququiy jihatdan tartibga soluvchi normative mavjud emas edi. 2020-yil 20-may kuni Osiyo taraqqiyot banki instituti, Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik instituti (CAREC) va Shanxay buxgalteriya hisobi Milliy instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan video-seminar mintaqasida elektron tijoratning me'yoriy-huquqiy bazasini rivojlantirish masalalari kun tartibiga qo'yildi. Turkmanistonda milliy normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish, zamonaviy boshqaruv uslublarini joriy etishga qaratilgan moliyaviy-iqtisodiy sohadagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari taqdim etildi. Shunga so'ng, 2020- yil 13-yanvarda Turkmaniston elektron tijoratni tartibga solish bo'yicha qonun loyihasini tayyorlayotgani e'lon qilindi.[3]

**Qozog'iston.** Qozog'istondagi elektron tijorat bozori hajmi 2019 yilda 1,8 baravar yoki 700 milliard tengedan oshdi. Muhimi, ushbu davlatda ichki bozor yanada jadal rivojlanmoqda: 2019-yilda naqd pulsiz to'lovlar hajmi 2,3 baravar oshdi, bu taxminan 14,4 trillion tengede deganidir. O'sish pos-terminallar infratuzilmasini rivojlantirish, Apple Pay va Samsung payni Qozog'iston bozorlariga kiritish, mijozlarni banklar tomonidan bonuslar va naqd pullar orqali rag'batlantirish, shuningdek barcha turdagi naqd pulsiz to'lovlardan faol foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Bu tez o'sishi qaramay Qozog'iston e-tijorat yoki savdo raqamlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari alohida e'tabor qaratib keladi. Shunday bo'lsa-da, Qozog'iston hukumati electron tijoratni rivojlantirish maqsadida 2019-2025 yillar

uchun yo‘l xaritasini ishlab chiqqan. Ushbu yo‘l xaritasiga ko‘ra quyidagilar belgilab ebrilgan:

1. eksport darajasini oshirish maqsadida xalqaro platformalarda mahalliy kompaniyalar targ‘ib qilishni oshirish;
2. Qozog‘istonda xalqaro platformalarini rag‘batlantirish. 2018 yilda Qozog‘iston Respublikasi savdo va integratsiya vazirligi "Wildberries" xalqaro kompaniyasi bilan investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida Memorandum imzoladi, uning asosiy maqsadi ushbu platforma orqali Qozog‘iston tovarlari eksportini ko‘paytiradigan infratuzilmani yaratish va rivojlantirishdir.
3. elektron tijorat bozori ekotizimining infratuzilmasini rivojlantirish choralari ko‘rib chiqish.
4. agro-logistika va ulgurji tarqatish markazlari tarmog‘ini to‘liq raqamlashtirish rejalashtirilgan. Shunday qilib, ular asosida fermerlar va ulgurji xaridorlar uchun elektron savdo maydonchalari yaratiladi. Axborot tizimi tovarlar oqimini kuzatish va muvozanatli mintaqalararo oqimlarni ta‘minlashga imkon beradi
5. Qozog‘iston raqamli savdo maydonchalarini yaratishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Bugungi kunda Qozog‘iston bozorida 13 ga yaqin online savdo bozorlari mavjud. Masalan Kaspi.kz, flip.kz., chocofamily, mehta.kz kabi bozorlar va 20 turdagi tovarlar va xizmatlar kategoriyalar mavjud.
6. aholining raqamli bozor to‘g‘risida xabardorligini oshirish va ularning elektron tijoratda faol ishtirokini kuchaytirish.
7. Raqamli bozorda iste‘molchilarni himoya qilish va mijozlarni qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini tartibga solish.[3]

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Shuni bemalol ta‘kidlash mumkinki, O‘zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishi O‘zbekiston mehnat bozori strukturasi ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Birinchidan, yuqori axborot texnologiyalarini sanoatlashtirish minglab yangi ish o‘rinlarini yaratadi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston iqtisodiyotining barqarorlashishi, tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligi kuchayishi va elektron tijorat rivojlanishining bir paytda sodir bo‘lishi eksport imkoniyatlarimizning oshishiga olib keladi.

Uchinchidan, elektron tijorat aholi turmush darajasining yaxshilanishini, marketing, menejment kabi sohalarning rivojlanishini ta‘minlaydi.

Mamlakatimizda ushbu natijalarga erishish uchun quyidagi muammolarni bartaraf etishimiz maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, elektron tijorat sohasida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarur. Ilmiy ishlar, maqolalar yozish, maxsuslashtirilgan internet-resurlar yaratish, doimiy forum va konferensiyalar tashkil etish, kadrlar tayorlashda elektron tijoratning nafaqat texnik, balki iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarini ham inobatga olish, eng asosiy muammolardan biri –malakali kadrlar yetishmovchiligini, oldini oladi.

Ikkinchidan, telekommunikatsion xizmatlarni ko‘rsatish sohasida raqobatni rivojlantirish. Bu xizmat sifatining oshishiga, narxlar darajasining tushishiga va elektron tijorat uchun ma’lum internet-auditoriyalarining yaratilishiga olib keladi.

Uchunchidan, AKT sohasiga investitsiyalarni kiritish uchun qulay huquqiy sharoitning ko‘rsatilgan tartibda doimiy mavjud bo‘lishini ta’minlash.

To‘rtinchidan, o‘z-o‘zini boshqarish va tajriba almashish tizimlarini yaratish  
Beshinchidan, elektron tizimi bo‘yicha ta’lim tizimini rivojlantirish.

Oltinchidan, axborot texnologiyalarining butun O‘zbekiston bo‘ylab keng tarqalishini ta’minlash. Nafaqat viloyat markazlarida, balki chekka qishloqlarda ham axborot texnologiyalarining joriy qilinishi elektron tijorat hajmining sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

Yettinchidan, on-line banking tizimini butun respublika bo‘ylab samarali joriy qilish. Bu ulgurji va chakana savdo bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlar uchun o‘z tovar va xizmatlari bilan internet tarmog‘i orqali erkin savdo qilish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga bu bank sohasining boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha ham sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari yildan yilga o‘sib borayotganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Uning rivojlanishi milliy ishlab chiqaruvchilarimizga yangi bozorlar ochish, yangi mijozlar topish imkoniyatlarini yaratadi. Elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha tanlangan va amaldagi yo‘ldan to‘g‘ri borish, kelajakda O‘zbekiston iqtisodiyotini jahon bozorining yetakchi vakillaridan biriga aylantiradi. O‘zbekistonda elektron tijorat bo‘yicha mavjud muammolarni hal qilishning to‘g‘ri yo‘li tanlanganligi xalq farovonligida, jamiyatimizning taraqqiy topishida, iqtisodiy rivojlanishimizda o‘z aksini topadi.

## REFERENCES

1. Nodavlat Tashkilotlari Erkinlik Markazining tahlili erkin ma’lumotlar almashinuvi bo‘lgan davlatlarda iqtisodiy o‘sish nisbatan informatsiya almashinuvi

- chegaralangan davlatlardagiga qaraganda 2.5 barobarga yuqori bo'ladi. <http://www.freedomhouse.org/research/freeworld/2001/growth.htm>
2. The Economist, November 8th-14th 2008, "How to control E-commerce", p. 23-24.
  3. Юнас, А., Каландаров, А., & Турдалиев, М. А. (2021). Legal progress of e-commerce legislation in Central Asia during the COVID-19 period. *Общество и инновации*, 2(6), 170-176.
  4. Turdialiev, M. A. (2021). REGULATION OF MNES BY DOMESTIC AND INTERNATIONAL POLICIES. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.
  5. Kinza Fatima, & Mukhammad Ali Turdaliyev. (2022). UNDERSTANDING THE SOCIAL CHANGE AND DEVELOPMENT IN THE "THIRD WORLD": A BOOK OVERVIEW. *World Bulletin of Management and Law*, 6, 1-2. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/439>
  6. Fatima, K., & Turdaliyev, M. A. (2021). UNDERSTANDING THE SOCIAL CHANGE AND DEVELOPMENT IN THE "THIRD WORLD": A BOOK OVERVIEW. *World Bulletin of Management and Law*, 5, 110-111.
  7. Younas, A., & Ogli, T. M. A. P. (2021). Special Features Of International Financial Centres And Its Establishment In Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(08), 17-21.
  8. «Экономическое обозрение», 14 ноябрь 2009. «Новая вершина узбекского Интернета», 18-Б.
  9. Отчет об анализе выполнения решений всемирной встречи на высшем уровне по вопросам информационного общества, 2008. Подготовлено совместно Узбекским Агентством связи и информатизации (УзАСИ) и Проектом ПРООН «Политика ИКТ» (ICTP), 8-В.
  10. Блокчейн технологиясига асосланган "смарт-шартномалар": ишончлилиги ва амалиётда қўлланилиши А. Ортиқбоев («UNICON.UZ» ДУК).
  11. Akramov, A., Mirzaraimov, B., Akhtamova, Y., & Turdaliyev, M. A. (2020). Prospects For The Development Of Trust Management In Uzbekistan. *Psychology and Education Journal*, 57(8), 530-535.
  12. <https://www.nortonrosefulbright.com/ensg/knowledge/publications/1bcd200/smart-contracts>
  13. <https://101blockchains.com/smart-contracts/>

## MUALLIFLIK HUQUQINING SHAKLLANISHIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNING AHAMIYATI

**Mustafaqulov Bekzod Alimnazar o'g'li**

Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi kafedra mudiri

E-mail: [bekzodmustafaqulov8@gmail.com](mailto:bekzodmustafaqulov8@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Maqola mamlakatda mualliflik huquqlarining shakllanishida huquqiy ong va huquqiy madaniyati ahamiyatini oshirishga bag'ishlangan. Fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirishning ahamiyati, Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni aniqlash bo'yicha milliy qonunchilik – Fuqarolik kodeksi, Mualliflik huquqi va boshqa turdosh huquqlar to'g'risidagi qonun tahlil qilingan. Qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar berildi.*

***Kalit so'zlar.** Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni aniqlash mezonlari, mualliflik va turdosh huquqlar qonunchiligini tahlil qilish.*

## ЗНАЧЕНИЕ ПРАВОВОЙ ОРГАНИЗАЦИИ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В СТАНОВЛЕНИИ АВТОРСКОГО ПРАВА

**Мустафакулов Бегзод Алимназар угли**

Заведующий кафедрой Сурхандарьинского  
областного юридического техникума

E-mail: [bekzodmustafaqulov8@gmail.com](mailto:bekzodmustafaqulov8@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

*Статья посвящена повышению значения правосознания и правовой культуры в формировании авторского права в стране. Анализируется значение повышения правосознания и правовой культуры граждан, национальное законодательство по определению авторского права и смежных прав - Гражданский кодекс, Закон об авторском праве и других смежных правах. Были внесены предложения по совершенствованию законодательства.*

***Ключевые слова.** Анализ правосознания, правовой культуры, авторского права, смежных прав, критериев определения авторского права и смежных прав, законодательства об авторском праве и смежных правах.*

## **THE IMPORTANCE OF LEGAL ORGANIZATION AND LEGAL CULTURE IN THE FORMATION OF COPYRIGHT**

**Mustafakulov Bekzod Alimnazar ugli**

Head of the Department of Surkhandarya

Regional Law College

E-mail: [bekzodmustafaqulov8@gmail.com](mailto:bekzodmustafaqulov8@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*The article is devoted to increasing the importance of legal awareness and legal culture in the formation of copyright in the country. The importance of raising the legal awareness and legal culture of citizens, the national legislation on the definition of copyright and related rights - the Civil Code, the Law on Copyright and other related rights are analyzed. Suggestions were made to improve the legislation.*

**Keywords.** *Analysis of legal consciousness, legal culture, copyright, related rights, criteria for determining copyright and related rights, copyright and related rights legislation.*

### **KIRISH**

Intellektual mulkning huquqiy himoyasiga doir qonunchilikni bugungi kun talablaridan kelib chiqib takomillashtirish milliy iqtisodiyotning innovatsion rivoji hamda mamlakatning intellektual ishlab chiqarishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shuni hisobga olgan holda keyingi paytlarda ijodkorlar, madaniyat, san’at ahli va ijrochilarga davlatimiz rahbari va Hukumatimiz tomonidan katta e’tibor qaratilmoqda. Ijodkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va faolligini oshirish, ularni mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning keng targ‘ibotchilariga aylantirishga harakat qilinayapti. Ayniqsa, ijodkorlarning mualliflik huquqlarini himoya qilish tizimini kuchaytirish, pandemiya sharoitida ijodkorlarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yo‘llari qidirilmoqda. Shu bois ilmiy-ijodiy faoliyatni moddiy ta’minlash, iqtisodiyotni innovatsion bosqichga o‘tkazish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, ayniqsa, sohada huquqni qo‘llash amaliyotini kuchaytirish, huquq egalarining tegishli huquqlariga og‘ishmay rioya etish dolzarb vazifalardan bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatda ochiqlik hukm surayotgan va sohaga oid milliy qonunchilik takomillashtirilayotgan bo‘lsa-da, lekin asarlardan ruxsatsiz va o‘zboshimchalik bilan foydalanish odat tusiga aylangan, mualliflar va boshqa huquq egalarining asarlaridan foydalanganda ularga haq to‘lash tizimi kuchsizligicha qolmoqda. Shunga ko‘ra, mamlakat iqtisodiyotida intellektual mulkning ulushi past, sohani rivojlantirishga

investitsiyalar jalb etilmayati, davlat o'z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini bajarishda ma'lum qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda, huquqni qo'llash amaliyoti yaxshi yo'lga qo'yilmagani mamlakatning xalqaro imidjiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Intellectual faoliyat mahsullari orasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari alohida ajralib turadi. Bu alohidalik ijodkor-muallif huquqiy maqomida ham, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyekti bo'lgan fan, adabiyot, san'at asarlari, ijrochilik faoliyati huquqiy rejimida ham o'z ifodasini topgan. Jahonda turli mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalar o'sib borgan sayin bir mamlakatdagi ijodkorlar asarlaridan boshqa mamlakatlardagi kishilar foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda, bu esa mualliflik va turdosh huquqlar dunyoning ko'p mamlakatlarida bir xilda tartibga solinishiga bo'lgan zaruratni vujudga keltirmoqda. Ushbu zarurat taqozosiga ko'ra mualliflik huquqi bo'yicha Butunjahon konvensiyasida (uni Jeneva konvensiyasi ham deyishadi) hamda "Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi Bern konvensiyasi ishlab chiqilgan va dunyoning ko'pgina mamlakatlari o'z milliy qonunlarini u yoki bu konvensiya asosida shakllantirmoqdalar. Bern konvensiyasi me'yorlari mualliflik huquqlarini huquqiy muhofaza etishda qat'iyroq tusga ega. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun mazmunida Bern konvensiyasining asosiy qoidalari yotadi.

Ilmiy maqolani tayyorlashda umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik va amaliyot materiallarini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mualliflik huquqi fuqarolik huquqining tarkibiy qismi bo'lib, uning eng muhim institutlaridan hisoblanadi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar adabiyot, san'at asarlarini yaratish, ulardan foydalanish va ijro etish bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Mualliflik huquqi tamoyillari deb negizida yotgan asosiy qoidalarga aytiladi. Bu tamoyillar ichida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida mustahkamlab qo'yilgan ijod erkinligi muhim ahamiyatga ega. Uning mohiyati shundan iboratki, ijodkor o'z ijodiy mahsuli mavzusini tanlashda, shaklini belgilashda, yaratish uslublarini tanlashda, undan foydalanishda erkin va mustaqildir. Ayni vaqtda bu erkinlik qonun doirasida amalga oshirilmog'i lozim. Ijodkor o'z asari orqali konstitutsiyaviy tuzumga qarshi, zo'ravonlik yoki behayolikni targ'ib qilish,

boshqalarning huquqlarini poymol qilish maqsadlarini ko'zlamasligi lozim. Muhim konstitutsiyaviy tamoyillardan yana biri ijodiy mahsulotlarga nisbatan senzuraning yo'l qo'yilmasligi haqidagi qoidadir.

Muallif asarni yaratishda yoki e'lon qilishda agarda u davlat sirlari, shaxsiy sirlar yoxud boshqalarning qonuniy manfaatlari bilan bog'liq bo'lmasa, oldindan ruxsat olish, asar mazmunini nazoratdan o'tkazish talab etilmaydi. Mualliflik huquqining yana bir asosiy qoidalaridan biri muallif huquqlarining vujudga kelishi, uni muhofaza etish, asarni yaratish fakti asosida vujudga kelishi, u qandaydir rasmiyatchiliklarga rioya etilishi talab etilmasligidir. Ushbu tamoyil FKning 1041-moddasi va Qonunning 10-moddasida o'z ifodasini topgan.

Mualliflarning asarlarni yaratish va ulardan foydalanishda ma'naviy va moddiy manfaatdorligini har tomonlama muhofaza etish ham qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu tamoyil mualliflik huquqiy munosabatlari qatnashchilarining huquq va burchlarini belgilovchi me'yorlardagina emas, balki subyektiv huquqlarni amalga oshirish kafolatlarida, muallif huquqlarini muhofaza etish bo'yicha davlat organlari zimmasiga yuklangan majburiyatlarda, buzilgan muallif huquqlarining himoya qilinishini ta'minlovchi me'yorlarda ham o'z ifodasini topgan.

Mualliflik huquqining shakllanishida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning ahamiyati haqida gapiradigan bo'lsak, biz birinchi navbatda mualliflik huquqi nimaligini bilib olishimiz kerak.

Mualliflik huquqi - keng ma'noda fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, foydalanish va huquqiy himoya qilishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi, fuqarolik huquqining bir bo'limi. Tor ma'noda esa asar muallifiga tegishli bo'lgan va qonunlarda mustahkamlanib qo'yilgan shaxsiy va mulkiy huquklar tizimini tashkil etadi.

Fuqarolik kodeksining 1043-moddasida hosila asarlarga ya'ni biron asarning yoki kinoning tarjimalariga nisbatan ham ularning yaratilishi uchun asos bo'lgan yoki ularning tarkibiga kirgan asarlar mualliflik huquqi obyektlari bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinadi deyilgan. Aytaylik kimdir biror asarni yoki kinoni tarjima qildi (albatta muallifning roziligi bilan)

Mualliflik huquqi oshkor qilingan asarlarga ham, oshkor qilinmagan asarlarga ham tatbiq etiladi. Asarni oshkor qilish tushunchasi O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyulda qabul qilingan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunida mavjud. Chunonchi, mazkur Qonun 3-moddasining to'rtinchi xatboshisiga muvofiq, asarni oshkor qilish deyilganida: "muallifning roziligi bilan



amalga oshirilgan, asarni chop etish, omma oldida namoyish etish, omma oldida ijro etish, efirga uzatish yoki boshqacha usulda yuborish yo‘li bilan ilk bor asardan barchaning voqif bo‘lishi uchun imkon beradigan harakat” tushuniladi.

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, asarning u yoki bu usulda oshkor qilinganligi fakti ko‘pincha mualliflik huquqini muhofaza qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, asarga bo‘lgan mualliflik to‘g‘risida nizo paydo bo‘lganida, agar muallifning asari nashr qilib bo‘lingan yoki o‘quvchilarning keng doirasiga ma’lum bo‘lsa va boshqa shu kabi hollarda muallif o‘z huquqlarini muhofaza qilishi oson bo‘ladi. Biroq, roman u nashr etib bo‘linganidan keyingina mualliflik huquqi obyektiga aylanadi (ya’ni, huquqiy muhofazaga ega bo‘ladi) deb o‘ylash noto‘g‘ri bo‘ladi.

Ayni bir vaqtda huquqiy muhofaza obyektiga aylanish uchun asar obyektiv ravishda mavjud bo‘lishi kerak. Ushbu qoida umuman huquq obyektlarining barchasiga ham teng ravishda taalluqlidir. Masalan, uy qurish g‘oyasi emas, balki uyning o‘zi mulk huquqi obyektiga bo‘lishi mumkin. Xuddi shuningdek, asarning o‘zi ham obyektiv ravishda mavjud bo‘lishi kerak, zero, kartina yaratish fikrining birgina o‘zi qonun bilan muhofaza qilinmaydi. FKning 1041-moddasida belgilanganiga ko‘ra mualliflik huquqi “biron-bir obyektiv shaklda bo‘lgan” asarga nisbatan tatbiq etiladi. Mazkur modda ana shu shakllarning ro‘yxatini ham o‘z ichiga olgan. Biroq, bu ro‘yxat tugal emas, uni yana davom ettirish mumkin.

Bunda yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, asar mavjud bo‘lishining (ifodalanishining) muayyan shakli uni mualliflik huquqi obyektiga sifatida e’tirof etish uchun ahamiyatga ega emas.

Masalan, asar nomoddiy, his qilib bo‘lmaydigan, ma’naviy predmet sifatida namoyon bo‘ladi. Asarning u yoki bu obyektiv shaklda ifodalanishi, qoida tariqasida, uni u yoki bu moddiy predmet shaklida – kitob, kasseta, haykal va boshqa shu kabilarda aks ettiradi. Bundan faqatgina omma oldida so‘zlash, omma oldida ijro etish va boshqa shu kabi asarni og‘zaki ifodalash shakli mustasno. Bu o‘rinda shuni nazarda tutish kerakki, intellektual ijodiy faoliyat natijasiga yoki individuallashtirish vositasiga bo‘lgan mutlaq huquq bunday natija yoki individuallashtirish vositasi aks ettirilgan moddiy obyektga bo‘lgan mulk huquqidan qat’i nazar mavjud bo‘ladi.[12-16] Xuddi shunga o‘xshash qoida “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunda ham mavjud (38-modda, oltinchi qism): asarga bo‘lgan mualliflik huquqi asar aks ettirilgan moddiy obyektga bo‘lgan mulk huquqi bilan bog‘liq emas. Qandaydir moddiy obyektga bo‘lgan mulk huquqini yoki egalik qilish huquqini boshqa shaxsga berish ushbu obyektga aks ettirilgan asarga bo‘lgan

mualliflik huquqini boshqa shaxsga berishga sabab bo'lmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Mualliflik huquqi obyektlari bo'lgan asarlarda asarning shaklini farqlash qabul qilingan. Bu o'rinda shakl deyilganida asar tilining elementlari tushuniladi. Asarlarning tili ular ijodning qaysi turiga taalluqliligiga qarab farqlanadi. Masalan, musiqa asarlariga – tovushlar (notalar) tili, tasviriy san'at asarlariga – chiziq, ranglar tili xosdir. Ana shuni hisobga olgan holda mualliflik huquqi faqatgina asarning shakl elementlarini yoki shakl va mazmun elementlarini birgalikda muhofaza qiladi. Mazmun elementlarining birgina o'zi qonun bilan muhofaza qilinmaydi. Fuqarolik kodeksi 1041-moddasining uchinchi qismida belgilanganiga muvofiq, mualliflik huquqi g'oyalar, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki konsepsiyalarga tatbiq etilmaydi.

1886-yil 9-sentabrda qabul qilingan "Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi Bern Konvensiyasining 8-moddasida (O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004-yil 27-avgustdagi 681-II-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan. Ushbu Konvensiya O'zbekiston Respublikasi uchun 2005-yil 19-apreldan boshlab kuchga kirgan) ushbu Konvensiyada berilgan muhofaza kun yangiliklari to'g'risidagi xabarlarga yoki oddiy matbuot axboroti tusiga ega bo'lgan turli voqealar to'g'risidagi xabarlarga tatbiq etilmasligi nazarda tutilgan.[1]

Biroq, ushbu normadan juda ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim. Chunki unda qanchalik qisqa va lo'nda bo'lishidan qat'i nazar, bironing xabarini o'zlashtirish mumkinligi emas, balki jurnalistning qandaydir bir voqea yoki fakt to'g'risidagi xabari uni ana shu voqeaning yakkayu-yagona "egasi"ga aylantirmasligi va bu voqea haqida boshqa odamlar ham xabar tarqatishi mumkinligi nazarda tutiladi. Bu masalada amaliyotda uchrab turadigan rasmiy yondashuvga yo'l qo'ymaslik kerak. Masalan, ko'pgina ilmiy, shu jumladan ilmiy-publitsistik ishlar turli "konsepsiyalar", "tizimlar" va boshqa shu kabilar nomi bilan yuritiladi. Biroq, bu hol ular mualliflik huquqi obyektlari hisoblanmaydi, degan ma'noni anglatmaydi. Demak, mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan tatbiq etilishini anglatadi. Endi biz huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalariga to'xtalib o'tamiz.

Huquqiy ong - bu ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo'lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq-tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo'lgan g'oyalar, his tuyg'ular, tasavvurlar yig'indisidir.

Huquqiy madaniyat - bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir.[7-11]

Mualliflik huquqini amalga oshirishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning ahamiyati deganda, huquqiy ong mualliflik huquqini bilishimiz va mualliflik huquqi haqida tasavvurlarimizning yig'indisi bo'lsa, huquqiy madaniyat esa mualliflik huquqiga munosabatimiz, mualliflik huquqini hurmat qilishimiz va unga rioya qilishimizdir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 27-moddasiga asosan: o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati belgilangan bo'lib unga ko'ra:

fan, adabiyot yoki san'at asarining, ixtironing yoxud o'z intellektual faoliyatining qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirishlari mumkin deyilgan. Ushbu normadan ko'rinib turibdiki, mualliflik huquqining vujudga kelishi o'n to'rt yosh hisoblanar ekan.

Lord Atkin aytganidek, "sizning qilgan har bir xatti-harakatingiz boshqalarga ta'sir qilmasligi kerak, ya'ni odamlar bilan munosabatlaringizda ularning huquqlarini e'tiborga olishingiz kerak".[4]

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 27-moddasidagi o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarning fan, adabiyot yoki san'at asarining, ixtironing yoxud o'z intellektual faoliyatining qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqining vudga kelishini 29-moddasiga ko'ra:

Olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar:

- 1) mayda maishiy bitimlar;
- 2) tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;
- 3) qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlar.

Ushbu moddaga to'rtinchi band sifatida fan, adabiyot yoki san'at asarining, ixtironing yoxud o'z intellektual faoliyatining qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish deb o'zgartirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki hozirgi zamonaviy dunyoda axborot almashinuvi jadallik bilan rivojlanyapti va o'n to'rtga yoshga to'lmagan bolalar ham turli xil ixtiro, qo'shiq, musiqa, san'at asarlari yoki boshqa intellektual faoliyat natijasining mualliflari bo'lishyapti, buning natijasida ushbu intellektual faoliyat natijalari himoya qilinishi kerak, aks holda o'zgalardan tomonidan mualliflarning ushbu huquqlari buzib

foydalanishlari mumkin. Biroq mamlakatimizda o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalar intellektual faoliyat natijalarini yaratsa, ularda mualliflik huquqlari vujudga kelmaydi.

Agar bolalarga ular maktabga borganliklaridan mualliflik huquqi nimaligini, u boshqalar mehnati mahsuli ekanligini, uni o‘zboshimchalik bilan o‘zlashtirish mumkin emasligi tushuntirilsa, odamlarning huquqiy madaniyati hozirgidan ko‘ra yaxshiroq bo‘lardi.

Bundan tashqari, mualliflik huquqlari intellektual faoliyat tarkibiga kirganligi uchun hozirgi kunda O‘zbekistonda amaldagi sudlarga qo‘shimcha ravishda yangi, intellectual mulk masalalariga ixtisoslashgan sudlarni institutini shakllantirish kerak.[6] Hozir intellektual mulk obyektlarini samarali himoya qilishga obyektiv ehtiyoj paydo bo‘lgan, O‘zbekistonda esa, bu masalalarni sinchkovlik bilan o‘rganishga qodir sudyalarda juda kam. Shuningdek, Intellektual huquqlar bo‘yicha sudning yaratilishi, birinchidan, intellektual huquqlarni muhofaza qilish tizimini xalqaro huquq normalariga muvofiq holatga keltirish zarurati bilan, ikkinchidan esa, uchinchi Renessans iqtisodiyotining investitsion maftunkorligini oshirishga bo‘lgan ehtiyoj bilan shartlangan. Sudning vazifasi nizolarni himoya qilinishi kerak bo‘lgan u yoki bu intellektual huquq obyektining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, professional tarzda ko‘rib chiqishdan iborat bo‘ladi. Chunki qonunlarni qabul qilib qo‘ygan bilan mualliflik huquqlari himoya qilinib qolmaydi. agar haqiqatdan ham biz mualliflik huquqlarini himoya qilishni xohlasak, uning ta‘sirchan mexanizmini yaratishimiz kerak.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Fuqarolarda mualliflik huquqlarining shakllanishi uchun biz birinchi navbatda, mualliflik huquqining nimaligini bilishimiz kerak. Mualliflik huquqining nimaligini bilishimiz bu - huquqiy ong bo‘lsa, mualliflik huquqiga rioya qilishimiz va uni hurmat qilishimiz bu - huquqiy madaniyatdir.

### **REFERENCES**

1. 1886-yil 9-sentabrda qabul qilingan “Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Bern Konvensiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi: (2021-yil martgacha o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2021-y. – 560 b
3. 2006-yil 20-iyulda qabul qilingan “Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni.

4. Who then – in Law – is my Neighbour? Lord Atkin’s ‘Neighbour Principle’ as an Aid for the Principled Delineation of the Boundaries of Negligent Liability 72 page. Adrian Baihui Chan Submitted for the degree of Master of Laws, Graduate Department of the Faculty of Law, University of Toronto, 2011.
5. Алмосова Шахноза (2020). Защита прав интеллектуальной собственности по Конституции и государственным программам. *Review of law sciences*, 2 (Спецвыпуск), 72-76. doi: 10.24412/2181-919X-2020-72-76
6. АЛМОСОВА, Ш. (2020). ДОМЕН НОМЛАРИ ВА ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИК ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШДА МУАММОЛИ ҲОЛАТЛАР ТАҲЛИЛИ. *ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ*, 1(6), 81-85.
7. Turdialiev, M. A. (2021). REGULATION OF MNES BY DOMESTIC AND INTERNATIONAL POLICIES. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.
8. Турдиалиев, М. А. (2020). Эркин иқтисодий зоналар доирасида инглиз ҳуқуқини жорий этишнинг хориж ва миллий тажрибаси. *Юрист Ахборотномаси*, 1(6), 151-158.
9. Younas, A. (2021). Multinational Enterprises in Global Market Economy. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(7), 137-143.
10. Polatjonogli, T. M. A., & Abdulajonovich, S. M. (2022). HUNTING A SUITABLE TYPE OF LEGAL ENTITY FOR CENTRAL ASIAN BUSINESSMEN IN CHINA. *Ижтимоий Фанларда Инноватсия онлайн илмий журнали*, 2(1), 75-77.
11. Kinza Fatima, & Mukhammad Ali Turdialiyev. (2022). UNDERSTANDING THE SOCIAL CHANGE AND DEVELOPMENT IN THE “THIRD WORLD”: A BOOK OVERVIEW. *World Bulletin of Management and Law*, 6, 1-2. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/439>
12. Turdialiev, M. A. (2021). REGULATION OF MNES BY DOMESTIC AND INTERNATIONAL POLICIES. *Збірник наукових праць SCIENTIA*. вилучено із <https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/scientia/article/view/17095>
13. Юнас, А., Каландаров, А., & Турдиалиев, М. А. (2021). Legal progress of e-commerce legislation in Central Asia during the COVID-19 period. *Общество и инноватсия*, 2(6), 170-176.
14. Ammar Younas, & Turdialiev Mukhammad Ali Polatjon Ogli. (2021). Special Features Of International Financial Centres And Its Establishment In Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(08), 17–21. <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume03Issue08-04>

- 
15. Akramov, A., Mirzaraimov, B., Akhtamova, Y., & Turdaliyev, M. A. (2020). Prospects For The Development Of Trust Management In Uzbekistan. *Psychology and Education Journal*, 57(8), 530-535.
  16. Turdialiev, M. A., & Komilov, B. (2020). The Legal Issues Of International Investment Activity In Uzbekistan: Critical Analysis And Legal Solutions. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2(12), 16-21.
  17. Narziev, O., Turdialiev, M. A., Khodjimurotov, S., & Mamanazarov, S. (2021). The Perspectives of the Establishment of International Financial Centers in Uzbekistan and the Implementation of English Law. *PSYCHOLOGY AND EDUCATION*, 58(1), 113-119.
  18. Садиков М. А. ЗАМОНАВИЙ ЮРИДИК АМАЛИЁТДА “LEGAL TECH” НИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ //ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2020. – Т. 5. – №. 6.

## **MAJBURIYAT HUQUQINI TAMINLASHDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT**

**Panjiyev Ulug‘bek Fayzullo o‘g‘li**

Surxondaryo viloyati yuridik texnikum

Xususi huquqiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Termiz, Surxondaryo, O‘zbekiston

E-mail: [u.panjiyev@gmail.com](mailto:u.panjiyev@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada majburiyat huquqi tushunchasi shuningdek huquqiy ong va huquqiy madaniyatning mohiyati, dolzarbligi va uning jamiyatdagi o‘rni va roli tahlil qilingan. Bundan tashqari ushbu maqolada majburiyat huquqni ta‘minlashda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning qanchalik darajada zarur ekanligini huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu tahlillar natijasida majburiyat huquqni ta‘minlashda huquqiy ong va huquqiy madaniyat ahamiyatini oshiruvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *majburiyat huquqi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, majburiyatlarni ta‘minlash.*

## **ПРАВОСОЗНАНИЕ И ПРАВОВАЯ КУЛЬТУРА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЯЗАТЕЛЬСТВЕННОГО ПРАВА**

**Панжиев Улугбек Файзулло угли**

Сурхандарьинский областной юридический техникум

Преподаватель кафедры частного права

Термез, Сурхандарья, Узбекистан

E-mail: [u.panjiyev@gmail.com](mailto:u.panjiyev@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье анализируется понятие обязательственного права, а также сущность, актуальность правосознания и правовой культуры, ее место и роль в обществе. Кроме того, в данной статье проведен анализ правового аспекта того, в какой степени правосознание и правовая культура необходимы для обеспечения права на обязательство. В результате этих анализов были разработаны предложения и рекомендации, повышающие значение правосознания и правовой культуры в обеспечении обязательственного права.*

**Ключевые слова:** *обязательственное право, правосознание, правовая культура, обеспечение обязательств.*

## **LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE IN ENSURING THE LAW OF OBLIGATIONS**

Panjiev Ulugbek Fayzullo ugli  
Surkhandarya Regional Law College  
Lecturer of the Department of Private Law  
Termez, Surkhandarya, Uzbekistan  
E-mail: [u.panjiyev@gmail.com](mailto:u.panjiyev@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the concept of the law of obligations, as well as the essence, relevance of legal awareness and legal culture, its place and role in society. In addition, this article analyzes the legal aspect of the extent to which legal awareness and legal culture are necessary to ensure the right to an obligation. As a result of these analyses, proposals and recommendations were developed that increase the importance of legal awareness and legal culture in ensuring the law of obligations.*

**Keywords:** law of obligations, legal awareness, legal culture, securing obligations.

### **KIRISH**

Yangi O‘zbekiston siyosiy tizimini modernizatsiya qilish va yangilash sharoitida jamiyatning barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini oshirish muammolari yanada ahamiyatlidir. Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish hamda yuksaltirish bilan bog‘liq islohotlar yangi O‘zbekiston siyosiy-huquqiy tizimini yanada mustahkamlanib borayotganidan, respublikamizda demokratik, huquqiy, dunyoviy davlat qurish jarayoni jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli Farmonining qabul qilinishi O‘zbekistonda bu boradagi muammolarning nechog‘lik dolzarbligini ko‘rsatadi.

Fuqarolik huquqining eng muhim kichik sohalaridan biri majburiyat huquqi hisoblanadi. Majburiyat deb shunday fuqarolik huquqiy munosabatga aytiladiki, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, pul to‘lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o‘zini saqlashga majbur bo‘ladi, kreditor esa – qarzdordan o‘zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.



Majburiyat huquqi – mol-mulkni topshirish, ishlarni bajarish, xizmat ko‘rsatish yoki pul to‘lash yoki muayyan harakatdan o‘zini tiyib turish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik-huquqiy normalar yig‘indisidir.<sup>45</sup>

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Yuridik adabiyotlarda majburiyat atamasi bilan birgalikda burch atamasi borasida ham so‘z yuritiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida huquq va burchlar borasida so‘z boradi. Ushbu atamalar teng ma‘noli bo‘lib, fuqarolik huquqiy munosabatlarda har doim majburiyat atamasi qo‘llaniladi. Majburiyat subyektlari, obyektlari, uning mazmuni majburiyatning eng muhim elementi hisoblanadi. Majburiyat subyektlari bu muayyan huquqlarga ega bo‘lgan va zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklangan shaxslardir. Odatda har bir majburiyatda kamida ikki taraf ishtirok etadi. Muayyan harakat qilinishini va muayyan harakatdan tiyilishni talab qilish ga haqli bo‘lgan taraf – kreditor (haqdor) deb ataladi. Muayyan harakatni qilishga yoki harakat qilishdan saqlanishga majbur bo‘lgan taraf esa – qarzdor (burchdor) shaxs bo‘lib hisoblanadi.

Majburiyatlarni bajarish deb, qarzdor tomonidan kreditor talabiga muvofiq, muayyan bir harakatning qilinishi yoki harakatdan saqlanish tushuniladi. Qarzdorning majburiyatni bajarishi – kreditorga ashyoni topshirish, ma‘lum ishni bajarish, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash, asossiz olingan mulkni qaytarish muayyan harakatdan saqlanganlik kabilardan iborat.

Ilmiy maqolani tayyorlashda umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik va amaliyot materiallarini o‘rganish kabi usullardan foydalanilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Majburiyatlar FKning 236-moddasida aytilganidek, majburiyat shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo‘lmagan taqdirda esa ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak. Bunda taraflarning har biri o‘z majburiyatlarini ancha tejamli bajarishi, ikkinchi tomonga uning o‘z majburiyatlarini bajarishda har tomonlama yordam ko‘rsatishi lozim. Majburiyatlar davlat hujjatlari va shartnomalardan kelib chiqqan bo‘lsa, ularda ko‘rsatilgan talab va shartlarga muvofiq bajarilishi kerak. Agar qonun hujjatlarida majburiyatni bajarish sharti ko‘rsatilmagan bo‘lsa, majburiyatlar o‘zaro kelishib qo‘yiladigan talablarga muvofiq lozim darajada

<sup>45</sup> Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi –T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet.

bajarilishi zarur. Majburiyatni bajarishda har ikki tomon xo'jalik aloqalarining rivojlanishini ko'zlab, tejamlilik bilan va o'zaro hamkorlikda zarur harakatlarni qilishlari talab etiladi.

Majburiyatning bajarilishini ta'minlash qarzdor tomonidan olingan va uning zimmasida bo'lgan vazifani bajarishga majbur qiladigan chora bo'lib hisoblanadi. Majburiyat bajarilishini ta'minlashning tabiati shu bilan izohlanadiki, qarzdor zimmasida bo'lgan majburiyat belgilangan muddatda bajarilmasa yoki boshqacha tarzda buzilsa, kreditorda ziyonlarni undirishga bo'lgan huquqdan tashqari majburiyatning obyektini tashkil etgan harakatni qilishga qarzdorni majbur qiladigan boshqa mulkiy ta'sir choralari qo'shimcha ravishda tatbiq etilishini talab qilish huquqi vujudga keladi.

Qo'shimcha majburiyatlar asosiy majburiyatning bajarilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi usullardan tashkil topadi. Ular qarzdorni asosiy majburiyatni bajarishga majbur qiluvchi va u bajarilmagan taqdirda kreditorning talablarini qanoatlantiruvchi huquqiy vosita (chora)lardan hisoblanadi.<sup>46</sup>

Majburiyatlarning bajarilishi har xil usul bilan ta'minlanadi. Mazkur usullar yo qonun bilan belgilanishi yoki shartnomaga asoslangan bo'lishi mumkin. Fuqarolik qonun hujjatlarida (FK 259-modda) majburiyatning bajarilishini ta'minlash neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonun hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ta'minlanishi mumkin.

Umumiy qilib aytganda fuqarolik qonunchiligiga ko'ra majburiyat huquqini taminlashning bir qancha usullari mavjud bo'lsa, ushbu usullar barchasi qarzdorning o'z majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarmasligi natijasida huquqiy oqibat olib keladi. Qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarini o'z ixtiyori bilan bajarishi uchun esa uning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuqori saviyada bo'lishi talab etiladi. Ushbu o'rinda huquqiy ong va huquqiy madaniyatga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Huquqiy ong, bu avvalo, insonlarning mavjud huquqiy tizim, qonunchilik va boshqa (amaldagi va idealdagi) huquqiy hodisalarga nisbatan munosabatini ifodalovchi tasavvurlar, bilimlar, axborotlar va his-tuyg'ular yig'indisidir.<sup>47</sup> Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, huquqiy ong jamiyat a'zolarining huquq haqidagi, ijtimoiy hayotda real mavjud bo'ladigan huquqiy hodisalar haqidagi qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari, baholashlari, ruhiy munosabatlari majmuidir. Shu nuqtayi nazardan huquqiy ongning tabiati va mohiyatiga yondashiladigan bo'lsa, uning

<sup>46</sup> Раҳмонкулов Х. Мажбурият ҳуқуқи (умумий қоидалар). –Т.: ТДЮИ, 2005 й. -81 б.

<sup>47</sup> Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b

mazmunida mustaqillik yillarida jamiyatda qaror topayotgan demokratik huquqiy qadriyatlar va tamoyillar, huquqiy tizimdagi islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlari xususidagi fuqarolarning qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari, ruhiy kechinmalari majmui aks etadi.

Jamiyatning demokratiya yo‘lidan jadal rivojlanishi ko‘p jihatdan odamlarning huquqiy ongi, madaniyati va huquqiy savodxonligiga bog‘liqligidan kelib chiqib, Harakatlar strategiyasida «aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish» ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.<sup>48</sup>

Huquqiy ong falsafiy nazariyalar, mafkuraviy qarashlar, diniy doktrinalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Abu Nasr Forobiyning fikricha, huquq normalari, ular bajarilishining shartligi va majburiyligi komil insonlar ongining bir qismi bo‘lishi kerak, shuning uchun huquq ma‘naviy hodisa hisoblanadi. I. Kant, G. Gegel esa huquqning majburiylikni inson erkinligini tartibga solishning tashqi vositasi ekanligini ta’kidlaydilar. Ba’zilar esa huquqni ijtimoiy munosabatlarning sinfiy tartibga soluvchi vosita deb tushunganlar. Yana bir toifa mutafakkirlar huquqni inson tabiiy huquqlarining rasmiylashtiruvchi vosita va kafolati, deb e’tirof etganlar (Sh. Monteskye, J.J. Russo).<sup>49</sup>

Huquqiy ong huquqiy madaniyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uni inson, inson ongi va faoliyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Huquqiy ongning jamiyat hayotini tashkil etishga ko‘rsatadigan ta’siri beqiyosdir. Zikr etilgan ta’sirni ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatish vositalaridan biri sifatida huquqiy ongni huquqiy tartibga solish mexanizmiga taalluqliligi bilan izohlash mumkin. Uning huquqiy tartibga solish mexanizmi tarkibiy qismi ekanligining xususiyati shundan iboratki, huquqiy ongning roli huquqiy ta’sir ko‘rsatishning hech bir bosqichi bilan cheklanmaydi. Huquqiy ong huquq ijodkorligi bosqichida ham, huquqni amalga oshirish bosqichida ham amal qiladi. Huquqiy ong huquqiy tartibga solish mexanizmining barcha elementlarida – huquq normalarida, huquqiy munosabatlarda, huquqni ro‘yobga chiqarishga doir hujjatlarda u yoki bu darajada namoyon bo‘ladi.

Huquqiy ong huquqiy madaniyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uni inson, inson ongi va faoliyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Huquqiy ongning jamiyat hayotini tashkil etishga ko‘rsatadigan ta’siri beqiyosdir. Zikr etilgan ta’sirni ijtimoiy

<sup>48</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. / Rasmiy nashr / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2017. – 14-bet.

<sup>49</sup> Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b.

munosabatlarga ta'sir ko'rsatish vositalaridan biri sifatida huquqiy ongni huquqiy tartibga solish mexanizmiga taalluqliligi bilan izohlash mumkin. Uning huquqiy tartibga solish mexanizmi tarkibiy qismi ekanligining xususiyati shundan iboratki, huquqiy ongning roli huquqiy ta'sir ko'rsatishning hech bir bosqichi bilan cheklanmaydi. Huquqiy ong huquq ijodkorligi bosqichida ham, huquqni amalga oshirish bosqichida ham amal qiladi. Huquqiy ong huquqiy tartibga solish mexanizmining barcha elementlarida – huquq normalarida, huquqiy munosabatlarda, huquqni ro'yobga chiqarishga doir hujjatlarda u yoki bu darajada namoyon bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, istiqlol tufayli qaror topgan yangicha huquqiy tafakkur va xalqimizning yuksak ma'naviy salohiyati Konstitutsiyamizning g'oyaviy-ilmiiy hamda mafkuraviy poydevori bo'ldi. Konstitutsiya va yangi qonunlarimiz, bir tomondan, ijtimoiy huquqiy ongning yuksak ifodasi bo'lmish huquqiy tizimning, huquqiy mafkura va madaniyatning bevosita mahsuli sifatida vujudga keldi, ikkinchi tomondan esa, aholining ilg'or huquqiy ongini, yangicha tafakkuri va madaniyatini shakllantirish, ularni ijobiy yo'naltirish hamda yuksaltirishning muhim omili bo'lib xizmat qildi va xizmat qilishda davom etmoqda. Yangicha huquqiy tafakkur zamonaviy demokratik qadriyatlarni davlat-huquqiy hayot sohasiga singdirishga safarbar etiladi, adolatli va insonparvar huquqiy institutlarni hamda ilg'or huquqiy qadriyatlarni qaror toptirishga asoslanadi. Huquqiy faoliyatni qadriyat sifatidagi anglanishi ta'siri natijasida shaxsning muayyan harakat tarziga moyilligi yuzaga keladi. Binobarin, huquqiy ong nafaqat yuridik voqelikni, odamlarning huquq sohasidagi xulq-atvorini ifodalaydi, balki xulq-atvorni tartibga solishda, shuningdek, ijtimoiy hayotning obyektiv jihatdan huquqiy me'yorlashga muhtoj bo'lgan munosabatlarini belgilashda ham ishtirok qiladi.

Shu ma'noda huquqiy ong va huquqiy tafakkur huquqning g'oyaviy-nazariy manbayidir. Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish – huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashning zaruriy talabidir. Huquqiy ong sust rivojlangan, huquqiy tafakkur esa, nomukammal bo'lsa, bu jamiyat va uning institutlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy nigilizm va huquqiy idealizm ana shunday salbiy ko'rinishlarning shakllaridir. Mana shu ikki ko'rinish huquqiy ongni o'rganish uchun nihoyatda muhimdir, zero, bo'lg'usi amaliyotchi-yurist huquqiy normalar va talablarni amalga oshirish jarayoniga jiddiy ta'sir etuvchi mazkur hodisalarga duch kelishi tabiiy.

Huquqiy madaniyat deganda, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdor shaxslarning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishi tushuniladi. Huquqiy madaniyat shartli ravishda jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatiga ajratiladi. Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ongning, qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirish va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turi sifatida ko'riladi. Jamiyatning huquqiy madaniyati shaxs erkinligi va xavfsizligi, inson huquqlarini ta'minlash, uning huquqiy himoya etilishi va ijtimoiy faolligini kafolatlash uchun zamin bo'lib hisoblanadi. Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir. Bu faoliyat huquq sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatiga mos keladi, natijada shaxs va jamiyatning doimiy huquqiy boyishi sodir bo'ladi. Shubhasiz, shaxsning yuksak huquqiy madaniyati jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining deyarli barcha chiqishlarida huquqiy madaniyatning ahamiyatiga, uni yuksaltirish masalalariga e'tibor qaratadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan (2016-yil 7-dekabr) ma'ruzasida shunday dedi: «Qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi»<sup>50</sup>. Sh. Mirziyoev «Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak» nomli ma'ruzasida siyosiy partiyalar, ularning parlamentdagi fraksiyalar va deputatlarning faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bayon etdi: «Deputatlarning ish uslubini takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar orqali «Markaz – viloyat – tuman» tartibida ishlaydigan yangi tizimni joriy etish ayni muddao bo'lar edi»<sup>51</sup>

Boshqacha qilib aytganda, shaxs va jamiyatning huquqiy madaniyati umuminsoniy qadriyatlar tushunchalari va insoniyat umumdemokratik yutuqlarining muhim natijasi hisoblanadi. Huquqiy madaniyat – huquqiy davlatning ajralmas qismidir. Huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlari quyidagi elementlardan tashkil topadi: birinchidan, yuridik normalar tizimi bo'lmish huquq; ikkinchidan, huquqiy munosabatlar, ya'ni qonun bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar tizimi;

<sup>50</sup> Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., 2017. – 10-bet

<sup>51</sup> Xalq so'zi, 2017-yil 13-iyul.

uchinchidan, huquqni muhofaza qilish va ta'minlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi davlat va jamiyat institutlari tizimi bo'lmish yuridik muassasalar; to'rtinchidan, huquqiy ong, ya'ni huquqiy voqelikni ma'naviy jihatdan aks ettiruvchi tizim; beshinchidan, huquqiy xatti-harakat (ham qonuniy, ham qonunga xilof).

Huquqshunos olim X.Mamatov o'z tadqiqotlarida jamiyat hayotida huquqiy madaniyat namoyon bo'lishini o'ziga xos jihatlarini ajratishga uringan. Unga ko'ra, huquqiy madaniyat o'zida: a) huquqiy voqelikni anglash, ya'ni huquqiy ongining holatini; b) jamiyatning huquqiy ma'rifatini; v) aholining huquqni, qonunlarni bilishi va ularga hurmat darajasi; g) huquqni qo'llash darajasining yuqoriligi; d) jamiyatdagi siyosiy-huquqiy faoliyat, munosabatlar tizimi, qonun ijodkorligi, huquqni muhofaza qilish, boshqaruvning legitimligini ta'minlashning samarali usullari; ye) barcha davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatining siyosiy-huquqiy tizimga to'la muvofiqligi, xususan, aholining, ayniqsa, mansabdor shaxslarning qonunlarga so'zsiz itoatkorligini ifoda etadi.<sup>52</sup>

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Majburiyat huquqini ta'minlashda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rniga keladigan bo'lsak, fuqarolar o'zlari o'z hatti-harakatlari natijasida bo'yniga olgan majburiyatlari yuzasidan o'zlari javobgar bo'lishlari, ushbu hatti-harakatining huquqiy oqibatlarini tushunib yetishlari – muhim masaladir. Chunki har bir shaxs shartnomaviy yoki qonuniy majburiyatni bo'yniga oldimi, u o'z majburiyati yuzasidan javobgar bo'lishi kerakligi ongli ravishda his etishi lozim. Shu sababli ham jamiyatda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati qanchalik mukammal bo'lsa, mazkur jamiyatni majburiyatlarni ta'minlash ham qulay bo'ladi.

Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash fuqarolik muomalasida ishtirok etuvchi qarzdorning o'z zimmasiga olgan yoki unga yuklatilgan vazifani bajarishga qaratilgan huquqiy profilaktik choradir. Bunday profilaktik choraning asosiy maqsadi qarzdorni asosiy majburiyat bo'yicha majburiyatini bajarishga qaratilgan. Ya'ni, asosiy majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda kreditorning huquq va manfaatlari qo'shimcha ta'minot usullari asosida ta'minlanadi. Bunday usullar har qanday holda majburiyat huquqiy munosabatlarda kreditorning tavakkalchilik xavfini kamaytirish barobarida uni erkin va faol harakat qilishga undaydi. Qolaversa, bunday usullar asosan kreditor manfaatlarini himoya qilish uchun xizmat qiladi. Ammo majburiyatlarni bajarishda huquqiy ong va

<sup>52</sup> МаматовХ. Ҳуқуқий маданият ва Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантириш муаммолари. Т: “YURIST-MEDIA MARKAZI” нашрияти, 2009, 70-бет.

madaniyatning zararuti shundaki, majburiyatlarni bajarishni ta'minlashda ushbu qonuniy choralarni qo'llashga zarurat qolmaydi. Chunki taraflar o'zlarining majburiyatlarini o'z xoxishiga ko'ra amalga ijrosini ta'minlaydi va buni natijasida majburiyatlarni ta'minlash har tomonlama takomillashadi.

## REFERENCES

1. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi –T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet.
2. Раҳмонқулов Х. Мажбурият ҳуқуқи (умумий қоидалар). –Т.: ТДЮИ, 2005 й. -81 б.
3. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. / Rasmiy nashr / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2017. – 14-bet.
5. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b.
6. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., 2017. – 10-bet
7. Xalq so'zi, 2017-yil 13-iyul.
8. Маматов Х. Ҳуқуқий маданият ва Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантириш муаммолари. Т: “YURIST-MEDIA MARKAZI” нашрияти, 2009, 70-бет.
9. Younas, A. (2021). Multinational Enterprises in Global Market Economy. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(7), 137-143.
10. Юнас, А., Каландаров, А., & Турдалиев, М. А. (2021). Legal progress of e-commerce legislation in Central Asia during the COVID-19 period. *Общество и инновации*, 2(6), 170-176.
11. Turdialiev, M. A. (2021). REGULATION OF MNES BY DOMESTIC AND INTERNATIONAL POLICIES. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.
12. Fatima, K., & Turdialiyev, M. A. (2021). UNDERSTANDING THE SOCIAL CHANGE AND DEVELOPMENT IN THE “THIRD WORLD”: A BOOK OVERVIEW. *World Bulletin of Management and Law*, 5, 110-111.
13. Younas, A., & Ogli, T. M. A. P. (2021). Special Features Of International Financial Centres And Its Establishment In Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(08), 17-21.

14. GAFUROVA, N., & ALMOSOVA, S. (2021). PRACTICAL ASPECTS OF THE CONCEPT OF THE RULE OF LAW. *ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ*, 2(6), 84-91.
15. АЛМОСОВА, Ш. (2020). ТРИПС БИТИМИ НОРМАЛАРИНИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛК ҚОНУНЧИЛИГИГА ИМПЛЕМЕНТАЦИЯ ҚИЛИШ МУАММОЛАРИ. *ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ*, 1(3), 63-71.
16. Алмосова, Ш. (2020). Защита прав интеллектуальной собственности по Конституции и государственным программам. *Review of law sciences*, 2(Спецвыпуск).
17. АЛМОСОВА, Ш. (2020). ДОМЕН НОМЛАРИ ВА ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ЎЗARO БОҒЛИҚЛИК ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШДА МУАММОЛИ ҲОЛАТЛАР ТАҲЛИЛИ. *ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ*, 1(6), 81-85.
18. Садиков, М. А. (2020). ЗАМОНАВИЙ ЮРИДИК АМАЛИЁТДА “LEGAL TESH” НИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ. *ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, 5(6).
19. Садиков, М. А. (2019). Нормативно-правовые аспекты привлечения иностранных инвестиций в Республику Узбекистан. *Молодой ученый*, (23), 539-541.
20. Polatjonogli, T. M. A., & Abdulajonovich, S. M. (2022). HUNTING A SUITABLE TYPE OF LEGAL ENTITY FOR CENTRAL ASIAN BUSINESSMEN IN CHINA. *Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали*, 2(1), 75-77.



## **YURIST FAOLIYATIDA TASHABBUSKORLIK, KREATIVLIK VA MASALAGA IJODIY YONDASHUV**

**Qarajayeva Dilorom Namozovna**

Surxondaryo viloyati yuridik texnikum

Umumta'lim fanlar kafedrası o'qituvchisi

Termiz, Surxondaryo, O'zbekiston

E-mail: [d.qarajayeva@gmail.com](mailto:d.qarajayeva@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada yurist faoliyatida shaxsiy fazilatlari, xususan, tashabbuskorlik, kreativlik va masalaga ijodiy yondashuv kabi fazilarlar tahlil qilingan. Bundan tashqari yuristning qaysi huquq sohasida faoliyat yuritishdan qat'iy nazar kasb etikasiga rioya qilish ham tahlil qilingan. Shuningdek yuristning faoliyatiga oid bir qancha xalqaro normativ-huquqiy xujjatlar ham tahlil qilingan. Ushbu tahlillar natijasi yurist faoliyati e'tibor berishi lozim bo'lgan bir qancha taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** yurist, huquqshunos, kreativlik, tashabbuskorlik, ijodiy yondashuv, kasb etikasi, qoidalar.

## **ИНИЦИАТИВНОСТЬ, КРЕАТИВНОСТЬ И ТВОРЧЕСКИЙ ПОДХОД В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЮРИСТА**

**Каражаева Дилором Намозовна**

Сурхандарьинский областной юридический техникум

Преподаватель кафедры общеобразовательных наук

Термез, Сурхандарья, Узбекистан

E-mail: [d.qarajayeva@gmail.com](mailto:d.qarajayeva@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проанализированы личные качества юриста, в частности, инициативность, креативность и творческий подход. Кроме того, анализируется соблюдение профессиональной этики юриста независимо от того, в какой сфере права он работает. Также были проанализированы несколько международных нормативно-правовых актов, касающихся деятельности юриста. Результатом этих анализов стал ряд предложений и рекомендаций, на которые следует обратить внимание в деятельности юриста.*

*Ключевые слова: юрист, креативность, инициативность, творческий подход, профессиональная этика, правила.*

## **INITIATIVE, CREATIVITY AND CREATIVITY IN THE WORK OF A LAWYER**

**Karajeva Dilorom Namozovna**

Surkhandarya Regional Law College

Lecturer of the Department of General Education Sciences

Termez, Surkhandarya, Uzbekistan

E-mail: [d.qarajayeva@gmail.com](mailto:d.qarajayeva@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the personal qualities of a lawyer, in particular, initiative, creativity and creative approach. In addition, compliance with the professional ethics of a lawyer is analyzed, regardless of what field of law he works in. Several international legal acts concerning the activities of a lawyer were also analyzed. The result of these analyses was a number of suggestions and recommendations that should be paid attention to in the activities of a lawyer.*

***Keywords:** lawyer, Lawyer, creativity, initiative, creative approach, professional ethics, rules.*

### **KIRISH**

Huquqshunoslik, boshqa kasblar singari, turli xil professional talablarga ega. Bu shuni anglatadiki, advokat kerakli fazilatlar to'plamiga, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak. Shaxsiy fazilatlarga quyidagilar kiradi: yuqori fuqarolik, intellektuallik, odo-axloq, rivojlangan burch va o'z vazifalarini bajarishi uchun javobgarlik hissi, o'z ishiga sadoqat, huquqbuzarliklarga murosasizlik hissi, adolat, yuksak gumanistik yo'nalish, kasb axloq me'yorlariga rioya qilish va shaxsiy yaxlitlik.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Maqolani tayyorlashda internet tarmog'idagi xalqaro jurnal manbaalari va ilmiy adabiyotlardan foydlandi. Yurist (lotincha jus - o'ng) (nemis yuristi, ingliz yuristi) - huquqshunoslik, yuridik fanlar bo'yicha mutaxassis; huquq sohasidagi amaliy ishchi. Binobarin, advokatlarga quyidagilar kiradi: yuridik ma'lumot olgan odamlar; huquqshunoslar, huquqshunoslikni o'rganadigan olimlar; huquq sohasidagi amaliyot mutaxassislari. Huquqshunos sohaning qaysi yo'nalishida faoliyat olib bormasin, oxir-pirovardida inson bilan, uning muammolari va murojaatlari bilan ishlashiga,

shularga to‘qnash kelishiga to‘g‘ri keladi. Sudya ham, prokuror va advokat ham, notarial idora yoki fuqarolik holatlari dalolatnomalarini rasmiylashtirish muassasasi xodimi ham, tergovchi yo qamoqxonona nazoratchisi ham – hamma-hammasining mijoz aksariyat jonli odamlar, o‘zi singari insonlar bo‘ladi. Binobarin, fuqarolar huquqshunoslarga murojaat qilishar ekan, birortasining tashvishi, ular tushib qolgan holat boshqalarinikiga aynan o‘xshamaydi.

Boshqa ko‘plab kasb egalarida esa aksincha. Deylik, imorat tiklovchi injener-texniklar, quruvchilar uchun binoning mustahkam, xavfsiz, foydalanishga qulay bo‘lishi uchun muayyan me‘yorlar, aniq normalar mavjud. Masalan, ishonchli beton konstruksiya uchun qancha va qay kattalikdagi shag‘al, tosh, qum, temir (armatura), sement va hatto aralashtiriladigan suvning ham o‘lchami, sinovdan o‘tgan miqdori aniq belgilangan bo‘ladi. Quruvchilarning ayni talablarga og‘ishmay amal qilishlari inshootning o‘z vaqtida va sifatli holatda foydalanishga topshirilishi uchun yetarli asos hisoblanadi. Bu borada o‘zboshimchalik qilish, belgilangan normalarni buzish yoki ularga obdon sinalmagan neder yangilikni kiritish jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi, hatto halokatlarga sabab bo‘lishi ham mumkin. Inson hayoti, bu hayotda u duch keladigan vaziyat va muammolar esa biror bir normaga to‘la mos tushmasligi, bir-biriga aynan o‘xshamasligi, bir so‘z bilan aytganda, yagona me‘yorga ega emasligi bilan murakkab, ziddiyatlidir. Ularning har biriga alohida – individual yondashish, har bir muammoning faqat o‘z yechimini topish talab qilinadi.

Ilmiy maqolani tayyorlashda umumlashirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik va amaliyot materiallarini o‘rganish kabi usullardan foydalanilgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Huquqshunos faoliyatida boshqa xususiyatlar qatori kreativlik muhim o‘ringa ega fazilat hisoblanadi. Chunki huquqshunos bevosita fuqarolar, xususan o‘z huquq va qonuniy manfaatlari buzilgan shaxslar bilan ishlash, ularga huquqiy yordam ko‘rsatishda kreativ g‘oyalardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda kreativlik – shaxsning muhim mezoni, uning yaxlit tarzda rivojlanishining omilidir. Shuning uchun davlat ta‘lim siyosatida kreativlikka – intellektual darajadagi faol ijodga, albatta, bilishga oid asosda, hozirgi davrda alohida e‘tibor berilmoqda. Hozirgi zamon shaxsi kreativining mumamosi yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Rivojlanayotgan jamiyatga ijodiy, eng avvalo, – intellektual-ijodiy, dadil, noan‘anaviy va o‘ziga xos tarzda fikrlashga, muammolarni samarali hal qilishga qodir bo‘lgan shaxslar zarur. Zamonaviy jamiyatga o‘zini faoliyatning har xil

turlarida namoyon etuvchi kreativ shaxslar kerak.

“Kreativlik” tushunchasi o‘z mazmunidan ijtimoiy-statusli hodisa sifatida ifodalanadi. Kreativlik – shaxsning rivojlanishi, uning har tomonlama takomillashishi va mahsuldor-foydali ijtimoiy shakllanishining mustahkam kafolati va ishonchli omilidir. Kreativ, intellektual-ijodiy rivojlangan yoshlar davlat tayanchi, jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi, mamlakatning uning rivojlanishining barcha sohalaridagi muvaffaqiyatlarga erishish poydevori, deb e‘lon qilinadi.

Kreativlik (ijodiylik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, yangicha fikrlash, original g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon.

Tushunchaga berilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, kreativlik ham xuddi tashabbuskorlik, ishga ijodiy yondashuv xislatlari singari albatta tug‘ma, ilohiy tuhfa bo‘lishi aslo shart emas. Modomiki, kreativlik – aqliy jarayon ekan, odam aqlini yuksaltirishning, rivojlantirishning, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishning bitmas-tuganmas yo‘llari va usullari, albatta, topiladi.

Xo‘sh, yuridik sohada – aksariyat vaziyat, holat, hodisaga yondashuv faqat va faqat qonunlar, kodekslar, belgilangan huquqiy me‘yorlar asosida bo‘lishi talab etiladigan tarmoqlarda kreativlikka – “qandaydir yangi, betakror narsa yaratish”ga o‘rin bormi o‘zi, degan savol tug‘ilishi tabiiy, albatta. Qolaversa, har bir huquqshunos – sudya, prokuror, advokat yoki notarius har bir ish (“delo”) ustida yangilik yarataverishi huquqiy boshboshdoqlikka, anarxiyaga olib kelmaydimi?

Hamma gap mana shunda. Biz huquqshunosning kreativligi, tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondashuvi xususida gapirar ekanmiz, bularning barchasi qonunlar doirasida, ularga amal qilgan holda qo‘llanilishini, bir zum bo‘lsin, yoddan chiqarmasligimiz kerak. Kreativlik, tashabbuskorlik va ijodkorlik aslo qonunlarni buzishga, ularni “aylanib o‘tish” yoxud noto‘g‘ri va noo‘rin qo‘llashga olib kelmasligi, aksincha, huquqshunosga berilgan imkoniyatlardan to‘laroq, samaraliroq va to‘g‘riroq foydalanishga xizmat qilmog‘i darkor.

Yuridik sohadagi kreativlik deganda huquqiy xarakterdagi savollar yechimiga ijodiy, iloji boricha yangicha yondashuv tushuniladi. Bu xislat aslida ko‘pchilik yuristlarga xos bo‘lsa-da, uni dalil amalda qo‘llay oladigan, bu borada muvaffaqiyatlarga erishgan mutaxassisgina kasbdoshlari orasida ajralib turadi, uning mijozlari soni ham shunga yarasha ko‘p bo‘ladi.

Huquqshunos faoliyatida kreativlik namoyon qilishning sabablari, joy va usullari istagancha topiladi. Deylik, qator mamlakatlar, ayniqsa, mustaqil huquqiy makon yaratganiga uncha ko‘p bo‘lmagan yurtimiz – O‘zbekiston qonunchiligi, umuman, yuridik sohasida hali ancha-muncha kentiklar, javobini kutib turgan

muammo va savollar talaygina. Mana shu makonda huquqshunosning masalaga kreativ, ijodiy yondashmasligi, muammolar yechimini izlamasligining o'zi mumkin emas. Bunday yondashuv, yuqorida ta'kidlaganimiz – yuzaki jihatdan bir-biriga o'xshashdek tuyulsa-da, aslida nozik tomonlari, detallari, sabab va oqibatlari, ularning ko'lami hamda ahamiyatining rang-barangligi jihatidan bir-birini takrorlamaydigan huquqiy vaziyatlarda, ziddiyatli hollarda eng oqilona yechim topishning birdan-bir kafolatidir. Shunday yechim topa bilgan, demak, vaziyatga kreativ, ijodiy yondashgan yuristdan mijozlar ham, uning rahbarlari ham, albatta, minnatdor bo'ladilar.

Huquqshunosning professional faoliyatida tashabbuskorlik ham muhim ahamiyatga ega shaxsiy fazilat hisoblanadi. Huquqshunos faoliyatida tashabbuskorlik fazilatiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, huquqshunos o'z faoliyati davomida bir necha alohida jabhalarda ham ish olib boradi. Jumladan, norma ijodkorligi, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish, ommaviy axborot vositalariga intervyular berish, huquqiy targ'ibotda qatnashish, qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga munosabat bildirish va h.

Binobarin, huquqshunos muntazam ravishda faqat mavjud huquq normalari bilan shug'ullanishi, shular bilan kifoyalanishi maqsadga muvofiq emas, amalda bu mumkin ham emas. Zero, o'z kasbining fidoyisi sifatida u mudom yangilikka, takomilga intilishi tabiiy. Ana shu ma'noda huquqshunos-mutaxassislardan talab etiladigan eng muhim faoliyat – norma ijodkorligi hisoblanadi. Buning uchun esa u, albatta, Oliy Majlis deputatligiga saylanishi yoxud ayni faoliyatni o'zining kasbi etib belgilashi mutlaqo shart emas.

Sohaning har qanday vakili o'zining tashabbuskorligi, yaratuvchiligini ishga solishi va yangi huquqiy normalar ijodkorligi bilan jamiyat hayotiga o'zining ma'lum ma'nodagi hissasini qo'shishi maqsadga muvofiqdir. Aks holda, huquqshunosning yetuk mutaxassis bo'lishi gumon ostida qoladi. Zero, yetuklikka doimiy izlanish, tirishqoqlik, ijodiy mehnat orqali erishiladi. Shuning uchun ham kishi o'zining bunday xislatlarini rivojlantirishi, ulardan o'rnida va unumli foydalangan holda muvaffaqiyatli karerasini yaratishi lozim. Shuni ham unutmaslik kerakki, har qanday tashabbus o'ziga xos qiyinchilik va mas'uliyatni keltirib chiqaradi, aniqrog'i, o'zi bilan birga yetaklab keladi. Misol uchun, normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish – anchagina mushkul va ko'p aqliy, intellektual quvvat talab etadigan jarayondir. Bu borada tashabbus ko'rsatilgan paytdan toki oldinga qo'yilgan maqsadga erishmaguniga qadar huquqshunos barcha zarur chora-tadbirlarni vaqtida, yetarli darajada amalga oshirishi zarur. Agar u mazkur jarayonni oxiriga qadar

muvaffaqiyatli olib bormasa, ko'rsatgan tashabbusi, hatto, uni jamiyat, hamkasblari oldida beburd qilib qo'yishi ham mumkin.

Ma'lumki, sobiq sho'rolar tuzumi davrida fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini yaxshi bilishi, ularni qonuniy himoya qilish yo'llarini o'rganishi, adolatni talab qilish usullaridan foydalanishi masalalari iloji boricha ko'tarilmas, bu borada "barcha muammolarni davlat biladi va o'zi hal qiladi" degan tushunchani millionlab odamlar ongiga singdirishga harakat qilinardi. Sho'rolar imperiyasi davrida o'tkazilgan qatli omlar, millionlab begunoh odamlarning sudsiz-so'roqsiz og'ir jazolarga, surgunlarga muhtalo etilishi ayni shu siyosatning – fuqarolarning o'z huquq va erkinliklaridan bexabar va bebahra tutilishi, ularni himoya qilish tizimining esa mutlaqo ishlamasligi oqibatidir. Shu tufayli ham odamlar, hech qanday aybi bo'lmasa-da, militsionerni, prokurorni ko'rsa, birdan sergak tortishar, sudga murojaat qilishni esa deyarli hech kim o'ylamasdi.

Afsuski, qariyb yetmish besh yil davomida shakllanib, qotib ulgurman mana shu dunyoqarash, kayfiyat hali hamon bir qism fuqarolarimiz, ayniqsa, katta avlod vakillari ongu shuurini tark etmagan. Boshqacha aytganda, huquqiy bilimsizlik, ba'zan esa ochiqdan-ochiq huquqiy jaholat real hayotda juda ko'p muammolarning kelib chiqishiga, oddiygina kelishmovchiliklarning jiddiy ziddiyat darajasiga o'sib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Natijada, arziyas maishiy konfliktlar ortidan kishilarning og'ir jinoyatlarga qo'l urushi, hatto qotillik sodir etishidek mudhish hodisalar yuzaga kelyapti. Holbuki, huquq borasidagi savodsizlik, bilimsizlik hech bir fuqaroni javobgarlikdan ozod qilmaydi. Demak, bugungi kunda fuqarolarimizning huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish eng muhim masalalardan bo'lib turibdi. Buning eng ishonchli, samarali usullaridan biri – huquqiy targ'ibot va tashviqot hisoblanadi. Ochig'ini aytish kerakki, mana shu iboralar ishlatilganida ko'pchilikning ensasi qotishi, hatto g'ashi kelishi ham bor gap, hayotiy haqiqatdir. Ya'ni aksariyat hollarda "huquqiy targ'ibot va tashviqot" deganda odamlarning tasavvuriga saratonning issig'i yoki qishning chillasida maktab yoxud mahallaning majlislar zaliga o'ttiz-qirqta odamni yig'ib olib, bir kishining qog'ozdan bosh ko'tarmay bir-ikki soatlik zerikarli ma'ruzani o'qishi-yu, uning oxirida yig'ilish raisining "Kimda savol bor, demak, savollar yo'q, ma'ruzachimizga katta rahmat" deya mashvaratni yakunlashidek ko'pdan-ko'p foydasiz tadbirlar keladi. Holbuki, chinakam ijodkor, tashabbuskor huquqshunos ayni vazifani shunday uddalashi mumkinki, uning bu sa'y-harakatidan necha-necha odamlar umrbodlik saboq, hayotiy zarur bilim va ko'nikmaga ega bo'lib qolishlari aniq.

Bugungi texnik-texnologik yangiliklar esa odamlar ongu shuuriga kerakli bilim va ko'nikmalarni, xususan, huquqiy madaniyatni samarali singdirishning ko'plab usul va uslublarni yaratish, amalda qo'llash imkonini beradi. Buning uchun huquqshunos targ'ibotchidan o'z ishiga ijodiy yondashuv, nedir tashabbus ko'rsatish, targ'ibotning yangi, auditoriyaga qiziqarli bo'lgan usullarini o'ylab topish talab qilinadi.

Aslida o'z ishiga, vazifasiga ijodiy yondashuv har bir kasb egasiga xos bo'lishi lozim. Zero, busiz biror sohaning rivoji, takomilini tasavvur etib bo'lmaydi. Masalan, dastlabki mashinalar va aeroplanlar bilan bugungi zamonaviy avtomobillar, ulkan havo laynerlarini bir-biriga bir qiyoslab ko'raylik. Ularning beistisno barcha ichki va tashqi jihatlari – dvigatellarining kuch-quvvati, hajmi, yuk va odam tashish imkoniyatlari, ko'rinishi, qulayligi va yana boshqa yuzlab ko'rsatkich – parametrlarida o'sish-o'zgarish bormi-yo'qmi? Mana shu o'sishning, o'zgarishning, mukammallashuvning zamirida nima turibdi?

Albattaki, injenerlar, konstruktorlar, dizayner va yana boshqa yuzlab kasb egalaridagi tinimsiz izlanuvchanlik, ijodiy fikrlash, yangilik yaratishga bo'lgan so'nmas ishtiyoq! Ayni shu – ishga, vazifaga, masala va muammolar yechimiga ijodiy yondashuv umuminsoniy taraqqiyotning ham beqiyos garovi va kafolati hisoblanadi. Shu singari yaratuvchilikka yo'naltirilgan ijodiylik yurisprudensiya sohasiga ham xos jihat, hatto, talab bo'lmasligi mumkin emas.

Katta miqyoslarda bu – qonun ijodkorligi, mamlakatning huquqiy doktrinasi hamda huquqiy fanlarni rivojlantirish, huquqiy amaliyotni takomillashtirish sohalarni o'z ichiga oladi. Zero, bu sohalardagi ijodkorlik, ilmiy va amaliy izlanishlar o'zining ta'siri va ahamiyati bilan umumiy ma'nodagi huquq tushunchasining yuksak takomiliga olib keladi.

Huquqshunoslar shug'ullanadigan konkret soha va ularda yig'ilib qolgan muammolarga keladigan bo'lsak, masalan, jamiyatimiz rivojiga jiddiy to'g'anoq bo'layotgan korrupsiya, unga qarshi kurash, bu illatni oldini olish masalalarini eslashimiz mumkin.

Ma'lumki, dunyoning ilg'or, rivojlangan davlatlari bo'lmish Finlyandiya, Norvegiya, Germaniya, Yangi Zellandiya, Singapur singari qator mamlakatlarda mazkur muammo o'z dolzarbligini, xavflilik darajasini allaqachon yo'qotgan. Xo'sh, ayni davlatlar bu natijaga qanday erishganlar, nimalar hisobiga bu jamiyatlarda pora, poraxo'rlik, davlat byudjetini talon-taroj qilish, tanish-bilishchilik singari bizni doimiy bezovta qilib keladigan illatlarga keskin barham berilgan?

Bu savollarga javob aniq: korrupsiyadek xavfli kasallikka qarshi, birinchi navbatda, o'sha mamlakatlarning huquqshunoslari astoydil bel bog'lab kurash

boshlaganlari ayni ijobiy natijalarga olib kelgan. Ular, avvalo, o‘z saflarini, keyin esa butun jamiyatni mazkur ijtimoiy illatdan xalos qilishning yangi, kutilmagan, ta’sirchan usul-uslublarini, mexanizmlarini, qonuniy yo‘llarini kashf qilganlar.

Xorijning shu tajribalarini ijodiy o‘rganish va o‘zlashtirish, eng muhimi – bizning real holatimiz, xalqimiz mentaliteti, milliy imkoniyatlarimizdan kelib chiqib yangi tashabbus, kurash usullari, targ‘ibot yo‘llari va samarali harakatlarni amalga oshirish mumkinmi-yo‘qmi? Bizningcha, nafaqat mumkin, balki kerak, zarur ham!

Shuningdek, Yuristning kasb etikasiga ham qisqacha to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, kasb etika talablariga rioya qilishlik ruhiy ta’sir kuchi bilan, jamoat fikri, insonning ichki ishonchi, vijdoni bilan ta’minlanadi. Kasb etikaning o‘ziga xosligi shundan iboratki, u odamlarning yurish-turishini hayotning barcha jabhalarida, ya’ni ish faoliyatidagi, oiladagi, kishilar o‘rtasidagi va boshqa munosabatlarda tartibga solib boradi. Kasb etika guruhlar va davlatlararo munosabatlarga ham joriy etiladi. Kasb etika tamoyillari umumxususiyatga ega bo‘lib, barcha insonlarni qamrab oladi, jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayonida yaratiladigan o‘zaro munosabatlari madaniyatining asosini mustahkamlaydi.

Insonning har qanday harakati, muomalasi turli mazmunda - huquqiy, siyosiy yoki boshqa bo‘lishi mumkin, ammo uning xulqiy tomoni, axloqiy mohiyati bir xil daraja ko‘rsatkichida baholanadi. Kasb etika normalari jamiyatda an’analar kuchi, umumtanolingan va barcha tomonidan qo‘llabquvvatlanadigan tartib-intizom, jamoatchilik fikri bilan qayta ishlanib boraveradi. Kasb etika normalariga rioya qilinishi barcha tomonidan nazorat qilinadi. Kasb etikada javobgarlik ma’naviy va yuksak bo‘ladi, ya’ni xatti- harakatni qoralaydi yoki ma’qullaydi, axloqiy baho berish shaklida bo‘lib odam avvalo anglab olishi, dildan qabul qilishi va bunga mos holda o‘zining xatti-harakatlarini tartibga solishi va yo‘naltirishi lozim bo‘ladi. Bunday baho berish umume’tirof etilgan norma va tamoyillarga, barcha tomonidan qabul qilingan zarur va zarur bo‘lmagan, loyiq va loyiq bo‘lmagan va boshqa tushunchalarga mos bo‘lishi kerak. Ushbu o‘rinda xalqaro doirada davlat xizmatchilari va huquqshunoslarning kasb-etikasi qoidalariga oid normativ-huquqiy xujjatlar tahliliga keladigan bo‘lsak, XX asrning o‘rtalarida davlat mansabdor shaxslari hamda huquqshunoslar odob-axloqiga oid xalqaro xujjatlar qabul qilingan.

**Sud tizimi xodimlari uchun quyidagi odob-axloqiga oid xalqaro hujjatlar qabul qilingan:**

«Sudlov organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari. BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish» bo‘yicha 1985 yildagi 7-Kongressi, BMT Bosh Assambleyasining 40/32 va 40/146-sonli



rezolyusiyalari bilan ma'qullangan. (Oliy Majlisning 1997 yil 30 avgustdagi 507-I sonli qarori bilan ma'qullangan);

«Jinoyat qurbonlari uchun va hokimiyatni suiste'mol qilishga qarshi odil sudlovning asosiy tamoyillari to'g'risida» Deklaratsiya, BMT 40/34 Rezolyusiyasi, 29.11.1985 yil;

«Sudyalar odob-axloqiga oid Bangalor tamoyillari». 26.11. 2002y. «Osiyo mintaqasida sud hokimiyati mustaqilligining tamoyillari», Pekin, 19.08.1995 yil;

«Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi, Sudyalik etikasi to'g'risida»gi Rezolyusiyasi 23.06.2008 yil;

«Sudyalar mustaqilligi, samaradorligi va roli to'g'risida» Yevropa Kengashi vazirliklar qo'mitasining Tavsiyalari. 13.10.1994 y. «Sudyalar mavqei to'g'risida» Yevropa xartiyasi, 10.07.1998 yil;

«Sudyalar Buyuk Xartiyasi (Asosiy tamoillar)» 2010 yil.

**Prokurorlar uchun quyidagi odob-axloqiga oid xalqaro xujjatlar qabul qilingan:**

Prokurorlar Xalqaro assotsiatsiyasining 1999 yil;

«Prokurorlar kasbiy javobgarligi hamda ularning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi Meerlari»;

«Qonun ustuvorligida asoslangan demokratik jamiyatda prokuraturaning ahamiyati to'g'risida»gi Yevropa Ittifoqining Parlament Assambleyasining 1604 (2003)1 2003 yil 27 mayda qabul qilingan Tavsiyalari kabi bir qator xalqaro xujjatlar qabul qilingan.<sup>53</sup>

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqoridagi fiklar va xalqaro normativ-xujjatlar tahlilidan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, yangi g'oyalar yaratadigan va vazifalarga noan'anaviy tarzda yondashuvchi ijodkor kishilar aksariyat ish beruvchilarda doimiy qiziqish uyg'otadi. Ijodkorlik va yaratuvchanlik fazilatlarini mutaxassisdan talab qilinadigan ko'nikma, fazilatlar reytingida yuqori o'rinni band qiladi.

Bugungi kun taraqqiyot shiddati har bir davlat va uning fuqarolaridan muntazam tarzda yangilik sari intilishni, yangi g'oyalar, tashabbuslar, kutilmagan yondashuvlar va yechimlarni talab etadi. Bu jarayondan qisqa muddat uzilib yoxud ortda qolish pirovardida sezilarli qoloqlikni, demakki, hamma sohada ilg'or davlatlarga qaramlikni keltirib chiqarishi tayin.

<sup>53</sup> Исмаилов Б.И. Юристинг касбий этикаси.-Т.: Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратура Академияси. 2019.-188 б.

Boshqa tomondan bugungi yurist shiddat bilan o'zgarayotgan zamon bilan hamnafas, uning to'laqonli ishtirokchisi bo'lishi darkor. Chunki deyarli har kuni birgina respublikamizning o'zida qancha yangidan-yangi qonun hujjatlari, huquqiy normalar tasdiqlanyapti, birining o'rniga boshqasi joriy etilyapti. Bu jarayon ham tep-tekis, kamchiliklardan holi bormayotgani hech kimga sir emas. Yangi qonunlar, kodekslarda bir-birini takror yoxud inkor etuvchi normalar, ziddiyatli ko'rsatmalar istagancha topiladi. Shu va shunga o'xshash masalalarni ko'tarib chiqish, batafsil muhokama qilish va samarali hal etishda, qonunchiligimizni, milliy huquq tizimimizni isloh qilishda bizga yaratuvchanlik, izlanuvchanlik, tashabbuskorlik qobiliyatiga ega yurist kadrlar suv bilan havodek zarur. Aynan shunday – yangi g'oya va tashabbuslarni dadil olg'a sura oladigan kreativ yuristlargina yurtimizning huquq sohasi bo'yicha rivojlangan davlatlar qatoriga kirishida hal qiluvchi rolni bajaradilar.

### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2017 yil 7 fevral, PF-4947- son//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 38-son, 433-modda)
4. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2016 yil 3 yanvar // «Xalq so'zi» gazetasi
5. "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 27.12.1996y. Qonuni //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 2-son, 48-modda
6. "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 25.12.1998y. Qonuni //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 1-son, 12-modda
7. "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 14.12.2000y. Qonuni (yangi tahriri). //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 1-2-son, 10-modda

8. “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi 2017 yil 6 apreldagi Qonuni//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 14-son, 214-modda
9. "Parlament nazorati to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasining 11.04.2016 y. Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016 y. 4-son, 123- modda
10. Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2017 yil 19 yanvar, PQ-2733-son //«Xalq so‘zi» gazetasining 2017 yil 20 yanvardagi 15 (6709)-sonida e‘lon qilingan.
11. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/981/31.08.2017>
12. Ismailov B.I. Yuristning kasbiy etikasi.-T.: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura Akademiyasi. 2019.-188 b.
13. Mualliflar jamoasi. Shaxsiy rivojlanish. Darslik. –T.: TDYuU, 2019. 38-41 b.
14. Melcher M.F. (2007). The Creative Lawyer: A Practical Guide to Authentic Professional Satisfaction. American Bar Association, USA. 148-189 p
15. Randall Kiser. (2017). Soft Skills for the Effective Lawyers. Cambridge. Cambridge University Press.
16. Younas, A. ., & ogli, T. M. A. P. . (2021). Multinational Enterprises in Global Market Economy. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(7), 137–143. Retrieved from <http://openaccessjournals.eu/index.php/ijdpp/article/view/820>
17. Юнас, А., Каландаров, А., & Турдалиев, М. А. (2021). Legal progress of e-commerce legislation in Central Asia during the COVID-19 period. *Общество и инновации*, 2(6), 170-176.
18. Turdialiev , M. A. (2021). REGULATION OF MNES BY DOMESTIC AND INTERNATIONAL POLICIES. *Збірник наукових праць SCIENTIA*. вилучено із <https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/scientia/article/view/17095>
19. Kinza Fatima, & Mukhammad Ali Turdialiyev. (2022). UNDERSTANDING THE SOCIAL CHANGE AND DEVELOPMENT IN THE “THIRD WORLD”: A BOOK OVERVIEW. *World Bulletin of Management and Law*, 6, 1-2. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/439>

- 
20. Fatima, K., & Turdialiyev, M. A. UNDERSTANDING THE SOCIAL CHANGE AND DEVELOPMENT IN THE “THIRD WORLD”: A BOOK OVERVIEW.
21. Ammar Younas, & Turdialiev Mukhammad Ali Polatjon Ogli. (2021). Special Features Of International Financial Centres And Its Establishment In Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(08), 17–21. <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume03Issue08-04>
22. Kovi S.R. Sem навъков високоеффективных lyudey. Vozvrat k etike xaraktera. –M.: «Veche, Persey, Astrel», 1998. 101-166 s.
23. Azizxodjaeva. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003. 64-b.

## UCHBURCHAK YUZINI BALANDLIKLARI ORQALI HISOBLASHNING GERONCHA ISBOTI

**Maxmudov A'zam Qudratovich**

Termiz davlat universiteti akademik litseyi o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va professional ta'lim geometriya kursida uchraydigan uchburchak yuzini uning balandliklari orqali hisoblash formulalari keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Balandlik, Geron formulasi, uchburchak yuzi, gipotenuza.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье приведены формулы вычисления поверхности треугольника по его высоте, распространенные в общеобразовательных школах, академических лицеях и курсах геометрии профессионального образования.*

**Ключевые слова:** *Высота, формула Герона, треугольное лицо, гипотенуза.*

### ABSTRACT

*This article contains formulas for calculating the face of a triangle by its height, which is common in general secondary schools, academic lyceums and vocational education geometry courses.*


**Keywords:** *Height, Geron's formula, triangular face, hypotenuse.*

### KIRISH

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va *professional ta'lim geometriya* kursi uchburchak yuzini hisoblashning tomonlari orqali (Geron formulasi), tomoni va unga tushirilgan balandligi orqali, ikki tomoni va ular orasida burchagi orqali hisoblashlar berilgan, yuqoridagilardan foydalanib uchburchak yuzini balandliklari orqali hisoblash o'quvchiga murakkablik tug'diradi. Biz ushbu maqolada uchburchak yuzini balandliklari orqali hisoblashni ko'rib chiqamiz.

**1-masala.** Berilgan ABC uchburchakning 3 ta balandliklari berilgan holda uning yuzini hisoblang.

*a* tomonga tushirilgan balandlikni  $h_1$ , *b* tomonga tushirilgan balandlikni  $h_2$  va *c* tomonga tushirilgan balandlikni  $h_3$  orqali belgilab olamiz (1-rasm)



1-rasm.

Uchburchak yuzi asosi va balandligi ko'paytmasining yarmiga tengligiga asosan [1].

$$\left\{ \begin{array}{l} S = \frac{1}{2}ah_1 \\ S = \frac{1}{2}bh_2 \\ S = \frac{1}{2}ch_3 \end{array} \right. \text{ ushbu sistemadan } a, b, c \text{ larni aniqlaymiz. } \left. \begin{array}{l} a = \frac{2S}{h_1} \\ b = \frac{2S}{h_2} \\ c = \frac{2S}{h_3} \end{array} \right\} (1)$$

(1) sistemadagi  $a, b, c$  lar orqali uchburchak yuzini Geron formulasi [2] orqali hisoblasak quydagini olamiz;

$$S = \sqrt{\left(\frac{S}{h_1} + \frac{S}{h_2} + \frac{S}{h_3}\right) \cdot \left(-\frac{S}{h_1} + \frac{S}{h_2} + \frac{S}{h_3}\right) \cdot \left(\frac{S}{h_1} - \frac{S}{h_2} + \frac{S}{h_3}\right) \cdot \left(\frac{S}{h_1} + \frac{S}{h_2} - \frac{S}{h_3}\right)}$$

bundan

$$S = S^2 \sqrt{\left(\frac{1}{h_1} + \frac{1}{h_2} + \frac{1}{h_3}\right) \cdot \left(-\frac{1}{h_1} + \frac{1}{h_2} + \frac{1}{h_3}\right) \cdot \left(\frac{1}{h_1} - \frac{1}{h_2} + \frac{1}{h_3}\right) \cdot \left(\frac{1}{h_1} + \frac{1}{h_2} - \frac{1}{h_3}\right)}$$

Ushbu tenglikdan  $S$  ni aniqlasak

$$S = \frac{1}{\sqrt{\left(\frac{1}{h_1} + \frac{1}{h_2} + \frac{1}{h_3}\right) \cdot \left(-\frac{1}{h_1} + \frac{1}{h_2} + \frac{1}{h_3}\right) \cdot \left(\frac{1}{h_1} - \frac{1}{h_2} + \frac{1}{h_3}\right) \cdot \left(\frac{1}{h_1} + \frac{1}{h_2} - \frac{1}{h_3}\right)}}$$


natijani olamiz. Bu formula uchburchakning uchta balandligi orqali uning yuzini topish formulasidir.

Biz  $h_1h_2 = H_1, h_1h_3 = H_2, h_2h_3 = H_3$  belgilashlar kiritsak uchburchak yuzi uchun quyidagiga ega bo'lamiz;

$$S = \frac{H_1H_2H_3}{4\sqrt{H(H-H_1)(H-H_2)(H-H_3)}} \quad (2)$$

bu yerda  $H = \frac{H_1 + H_2 + H_3}{2}$ .

**Xususiy hollar:** Agar balandliklarning qaysidir ikkitasi teng bo'lsa, u holda uchburchak teng yonli bo'ladi[\*]. Endi (2) tenglikni teng yonli uchburchakda uchun tatbiq qilamiz. Bizga ma'lumki teng yonli uchburchakning yon tomonlariga tushirilgan balandliklari teng[3](2-rasm). Yuqoridagi



belgilashlarni kiritamiz.

$$h_1 h_2 = H_1, h_1 h_2 = H_2 = H_1, h_2 h_2 = H_3$$

va  $H = \frac{2H_1 + H_3}{2}$  ekanligini aniqlaymiz. Bajarilgan almashtirishlarni (2) ga qo'yib soddalashtirsak quydagi tenglikka ega bo'lamiz.

$$S = \frac{H_1^2}{\sqrt{4H_1^2 - H_3^2}} \text{ yoki } S = \frac{h_1^2 h_2}{\sqrt{4h_1^2 - h_2^2}} \quad (3)$$

(3) tenglik teng yonli uchburchakning yuzini balandliklari orqali hisoblash formulasidir.

**2-masala.** Uchburchakning balandliklari 6, 6 va 15 ga teng bo'lsa, ushbu uchburchakning yuzini toping.

Berilganlarga asosan  $h_1 = 15, h_2 = h_3 = 6$

(3) formuladan foydalanib hisoblaymiz.

$$S = \frac{h_1^2 h_2}{\sqrt{4h_1^2 - h_2^2}} = \frac{15^2 \cdot 6}{\sqrt{4 \cdot 15^2 - 6^2}} = \frac{225}{2\sqrt{6}}$$

Agar berilgan uchburchakning  $h_1, h_2, h_3$  balandliklari orasida  $h_3 = \frac{h_1 h_2}{\sqrt{h_1^2 + h_2^2}}$  (bu yerda  $h_3$  – eng kichik balandlik) shart bajarilsa, u holda berilgan uchburchak to'g'ri burchakli uchburchak bo'ladi[\*]. Endi to'g'ri burchakli uchburchakda qaraylik. Geometriya kursidan ma'lumki to'g'ri burchakli uchburchakning o'tkir burchaklari uchidan tushirilgan balandliklari katetlari bilan ustma-ust tushadi. Shunga ko'ra uchburchak yuzini quyidagicha aniqlaymiz.

$$S = \frac{1}{2} h_1 h_2 \quad (4)$$

(4) formula to'g'ri burchakli uchburchakning yuzini balandliklari orqali hisoblash formulasidir.

**4-masala.** Balandliklari 9 sm, 12 sm va 7,2 sm bo'lgan uchburchakning yuzini toping.

$$h_1 = 9, h_2 = 12, h_3 = 7,2$$

Uchburchakning balndliklari orasida  $h_3 = \frac{h_1 h_2}{\sqrt{h_1^2 + h_2^2}}$  (bu yerda  $h_3$  – eng kichik balandlik) shart bajarilmoqda.

$$h_3 = \frac{h_1 h_2}{\sqrt{h_1^2 + h_2^2}} = \frac{9 \cdot 12}{\sqrt{9^2 + 12^2}} = \frac{108}{15} = 7,2$$

demak uchburchak to'g'ri burchakli. (4) formulaga asosan uchburchak yuzini hisoblaymiz.

$$S = \frac{1}{2} h_1 h_2 = \frac{1}{2} \cdot 9 \cdot 12 = 54 \text{ sm}^2$$

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Pogorelov A.V. Geometriya. O'rta maktabning 7-11-sinflari uchun darslik. -T.: "O'qituvchi", 1995
2. Isroilov I., Pashayev Z. Geometriya I qism. Akademik litseylar uchun darslik -T.: "O'qituvchi", 2010.
3. G'aybullayev N., Ortiqboyev A. Geometriya. 8-sinf uchun o'quv qo'llanma.



## **ISLOM DININING MALAYZIYA XALQLARI MADANIYATI VA URF- ODATLARIGA TA'SIRINING QIYOSIY TAHLILI**

**Akramova Sarvinoz**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Filologiya va tillarni o'qitish (malay-ingliz) guruhi talabasi

**Ilmiy rahbar f.f.d. Turdiyeva Oydin**

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur tadqiqot jarayonida hozirgi Malayziya hududlariga islom dinining kirib kelish tarixi, islom dinining kirib kelganidan so'ng mamlakat madaniyati, urf-odatlaridagi o'zgarishlar haqida fikr va mulohazalar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Malayziya, islom dini, madaniyat, urf-odatlar, xalq, mamlakat, davlat.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье объясняется история проникновения ислама в государство Малайзия изменения культурных традиций страны после введения ислама.*

***Ключевые слова:** Малайзия, ислам, культура, традиции, государство.*

### **ABSTRACT**

*This article describes the history of the introduction of islam in to the state of Malaysia, the changes in the culture and customs of the country after the introduction of islam*

***Keywords:** Malaysia, islam, culture, traditions, nation, country, government.*

### **KIRISH**

Bugungi kunda diniy ta'limotlarga katta ahamiyat berilmoqda. Diniy ta'limotlarni o'rganish, ularning bugungi kundagi ahamiyati va uning oqimlarini bir-biridan ajrata bilishga, e'tibor qaratilmoqda. Din bu - arabcha so'z bo'lib "e'tiqod qilish, itoat" xudo, g'ayritabiiy kuchlarning mavjudligiga ishonishdir. Islom Allohga qanday ibodat qilishni o'rgatuvchi dinning nomi. Islom dinining ta'limotiga ko'ra Alloh taolo tomonidan o'z payg'ambarlariga yuborgan shariat olamiga joriy etilishi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir.

Islom(arabcha-"bo'ysinmoq" "itoat etmoq" o'zini Allohning irodasiga topshirish degan ma'noni bildiradi. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar arab tilida muslim deb ataladi. Muslim so'zining ma'nosi sadoqatli degan ma'noni bildiradi.Ushbu maqolamizda biz Islom dinining malayziya xalqlarining madaniyatiga, urf-odatlariga bo'lgan ta'siri haqida chuqurroq yoritib berishga harakat qildik.

Malayziya davlatiga islom dinining kirib kelishi 7-10 asrlarga to'g'ri keladi. O'sha davrda Malayziya ko'plab davlatlar bilan savdo aloqalarini o'rnatish bilan bir qatorda Arabiston yarim oroli bilan ham savdo ishlarini yo'lga qo'ygan, ammo boshqa davlatlardan farqli o'laroq Arabiston yarim oroli hamda Malayziya o'rtasidagi savdo aloqalar o'zaro ishonch va hech qanday aldovlarsiz amalga oshirilgan. Buning sababi shundan iboratki: Malay xalqi bilan savdo qilgan Arabiston yarim orolida istiqomat qiluvchi musulmonlarni to'g'ri so'zligi, savdoda yolg'on ishlatmasligi, ozoda yurishi mahalliy aholida chuqur ta'surot qoldirishi sababli islom dini Malayziyaga tinch yo'l bilan kirib kelgan. Shu bois islom dini rasman diniy e'tiqod sifatida 15-asrda qaror topdi. Islom dinining tarqalishining yana bir sababi 15-asrning boshlarida yarim orolda birinchi mustaqil davlat hisoblangan Malakka sultonligi tashkil topadi. Musulmon shahzoda boshchiligidagi islohatlar butun Malakka aholisi o'rtasida islom dinining tarqalishiga olib keladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

15-asrdan boshlab islom diniga e'tiqod qat'iy rioya qilinishi kuchaygan bo'lsada, islom erkin tarzda amal qilingan. Islom dinini mahalliy aholi orasida birinchi bo'lib Malakka yarim orolining sohillari, Yava va Sumatra orolining shimoliy qismida yashovchi xalqlar qabul qilishgan. Hozirgi kunga kelib Malayziya asosan Ahli Sunna val Jamoaning Imom Shofeiy(rahmatullohu alayhi) mazhabiga amal qilishadi.

Islom dini Malayziya xalqining madaniyati, urf-odatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Islom dinining mavqiye sifatida jamiyati insonparvarlik, rahmdil, mehribon va sabrli xalq sifatida shakllangan. Malayziya xalqining og'ir bosiqligi turmush tarzining to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga ham sabab bo'lib kelmoqda. Bunga albatta dinni to'g'ri talqin qilganligidadir. 21-asrga kelib Malayziyada islom diniga e'tiqod qiluvchilar 61,3% , buddizm diniga e'tiqod qiluvchilar 19,8% , xristianlik diniga e'tiqod qiluvchilar 9,2% , hinduizm diniga e'tiqod qiluvchilar 6,3 % tashkil qiladi. Malayziyadagi barcha shaharlarda masjidlar barpo etilgan bo'lib, bosh masjid "Masjid Negara" bo'lib u Malayziyaning poytaxti Kuala Lumpurda joylashgan. Malayziyada masjidlarga katta e'tibor qaratilgan bo'lib oyoq kiyim masjid hovlisiga kirishdayoq yechiladi. Malayziyadagi katta masjidlarda ayollarga orqa qatorda turib namoz o'qishga ruxsat berilgan.

Malayziyaga tashrif buyurgan, musulmon bo'lgan turistlarga ko'pgina shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, hatto savdo markazlarida, ishxona, restoranlarda namoz o'qib olish uchun "Surau" deb ataladigan xonalar mavjud. Ko'pgina masjidlarning oldida malayziya islom madaniyatiga oid muzeylar joylashgan. Malayziya xalqining

urf-odatlarida ikki hayitdan tashqari hijriy yilning birinchi kuni (yangi yil sifatida) va mavlidni ham bayram sifatida keng nishonlanadi. Malayziyada islom diniga oid bir qancha qonunlar kiritilgan bo'lib, jumladan:

-Malay deb hisoblanish uchun musulmon kerak.

-Musulmon bo'lmaganlar musulmon kishiga turmushga chiqsalar, islom dinini qabul qilishlari shart.

-Davlat maktablari islomiy ta'lim berishlari shart ammo, musulmon bo'lmaganlar uchun muqobil axloqiy darslar taqdim etiladi.

-Ko'p ayollar ishda ro'mol o'rashadi, lekin yuzlarini ochiq qoldirishadi chunki buni talab qiladigan hech qanday qonun yo'q. Ular buni islomda buyirilgan amalarga muvofiq bajarishadi.

-Musulmonlar o'z diniga oid masalalarni asosiy mazhabi bo'lgan Shofi'iy huquqiy sudlar qarorlariga amal qilishlari shart. Bu sudlar shariat qonunlarini qo'llaydi.

-Mamlakatning oliy sudlari bo'lishiga qaramay, fuqarolik sudlari (jumladan, Federal sud) islom odatlari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqmaydi.

-Musulmon va musulmon bo'lmagan shaxsga oid ishlar odatda fuqarolik sudlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Bu kabi qonunlar mamlakatni tartibga solib turish uchun xizmat qiladi. Ushbu qonunlarning zamirida biz islom dini Malayziya davlatining nafaqat madaniyatiga, balki uning qonunlarida ham ta'sir ko'rsatganini ko'rishimiz mumkin.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Malayziyaga islom dinining kirib kelishi malayziya xalqining urf-odatlari, an'analariga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lib, shu boisdan hozirgi kunda Malayziyada islom diniga e'tiqod qiluvchilar soni kundan – kunga ortib bormoqda, bu esa mamlakatda tinchlikni saqlash, aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatning halol va pok bo'lishiga xizmat qiladi. Ze'ro Malayziya ko'p millatli davlat bo'lib, unda hind, xitoy, malay xalqlarining madaniyati chambarchas bog'liq bo'lib tursada, asosiy madaniyatlari islomiy hisoblanadi. Islom dini Malayziyaning madaniyati, iqtisodiyoti, ta'lim tizimi, urf-odatlarini keng miqyosda qamrab olgan. Uning ta'siri butun sultonlik bo'ylab tarqalgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Malayziya xalqining tarixiga nazar soladigan bo'lsak islom diniga e'tiqod mamlakatning boshqa davlatlar bilan yo'lga qo'ygan savdo aloqalarida ham asosiy vazifani bajargan. O'zaro musulmonlar orasida bo'lgan savdo aloqalari halol va to'g'ri sherikchilik asosida bo'lgani bunga asosiy dalil bo'la olishi mumkin.

---

## REFERENCES

1. Dinshunoslik asoslari o'quv qo'llanma : O'zbekiston Respublikasi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti islomshunoslik ilmiy –tadqiqot markazi / “Toshkent islom universiteti” nashriyot –matbaa birlashmasi /Toshkent - 2013
2. Rahimjonov D.O., Muhamedov N.A., Najmiddinov J.X., Adhamxo'jayev S.S. Dunyo dinlari tarixi o'quv qo'llanma : O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti / Toshkent -2011
3. Тюрин В.А. История Малайзии краткий очерк / / Главная редакция восточной литературы / Москва 1980
4. A short history of Malaysia linking east and west / Milton Osborne /Virginia Matheson Hooker 2003 Maps by Ian Faulkner
5. Nizomiddinov N.G'. Qadimgi Malayziya tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati / “Toshkent islom universiteti” nashriyoti – matbaa birlashmasi. Toshkent -2016

---

**“ZUBDAT UT-TAVORIX” — SHARQ BADIY-TARIXIY NASRINING  
SARA NAMUNASI**

**Ergasheva Feruza**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va madaniyati ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

**Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi Jasur Sulaymonov**

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqola Ogahiy qalamiga mansub tarixiy asarlar sirasiga kiruvchi Zubdat ut-tavorix haqida bo'lib, asar Xiva xoni Rahimqulixon taklifi bilan yozilganligi uchun undagi voqealar Rahimqulixon tug'ilishidan to vafot etgunga qadr bo'lgan voqea-hodisalarni o'z ichiga oladi. Asardagi voqea hodisalar ham badiiy, ham tarixiy usulda yozilganligi bilan badiiy va tarixiy qimmatini ustundir. Asarning juda qimmatli manba ekanligini bugungi kunda bu asarga bo'lgan qiziqishlar nafaqat o'zbek, balki dunyo olimlarining ham tadqiqot markazida turishi va tadqiq etilishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham asar tarixiy voqealarni to'liq va mufassal ifodalab beruvchi badiiy-tarixiy solnomadir.*

**Kalit so'zlar:** *Ogahiy, Jabborov.N, Bartold.V.V, Karimov.G', Dolimov.S, E.Ollvors, Y.Breygel, “Ogahiyning tarjimonlik mahorati”, “Zubdat ut-tavorix”, “История культурной жизни Туркестана”, “Uzbek literary polities” ( “O'zbek adabiy siyosati” )*

**ABSTRACT**

*This article is about Zubdat ut-tavorix, one of the historical works of Ogahi, and since the work was written at the suggestion of Khiva khan Rahimqulikhan, it includes events from the birth of Rahimqulikhan to his death. The events in the work are of artistic and historical value, as they are written in both artistic and historical ways. The fact that the work is a very valuable source is determined by the fact that today the interest in this work is focused not only on Uzbek, but also on the research of scientists from around the world. That is why the work is an artistic and historical chronicle, which fully and in detail describes the historical events.*

**Keywords:** *Ogahiy, Jabborov N, Bartold V.V, Karimov.G', Dolimov S, E. Ollvors, Y. Breygel, “Ogahiy's translation skills”, “Zubdat ut-tavorix”, “History of cultural life in Turkestan”, “Uzbek literary polities” (“Uzbek literary policy”)*

## АННОТАЦИЯ

*Эта статья посвящена одному из исторических произведений Огахи «Зубдат ут-таворих», и, поскольку произведение было написано с подачи хивинского хана Рахимкулихана, оно включает в себя события от рождения Рахимкулихана до его смерти. События в произведении имеют художественную и историческую ценность, так как написаны как художественным, так и историческим способом. То, что работа является очень ценным источником, определяется тем, что сегодня интерес к этой работе сосредоточен не только на узбекистанах, но и на исследованиях ученых со всего мира. Именно поэтому произведение представляет собой художественно-историческую хронику, в которой полно и подробно описываются исторические события.*

**Ключевые слова:** *Огахий, Джабборов Н., Бартольд В.В., Каримов Г., Долимов С., Э. Олворс, Ю. Брейгель, «Переводческое мастерство Огахия», «Зубдат ут-таворихс», «История культурной жизни Туркестана», «Узбекский литературные политики» («узбекская литературная политика»)*

## KIRISH

O‘zbek matnshunosligida badiiy-tarixiy nasr namunalarining eng saralari shubhasiz Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan yaratildi. Ularning tarixiy ahamiyatidan kam bo‘lmagan badiiy qiymatiga baho berish keyingi yillarda ortib borayapti. Ulardagi badiiy ta‘sirning ta‘sirchanligi ular matniga she‘riy asar yoki parchalarning mahorat va o‘rinli kiritilishi bilan ham belgilanadi. Ularni o‘rganish asar ta‘sirchanligini aniqlash bilan birga kiritilgan she‘riy asarlar matn tarixiga doir muhim ma‘lumotlar berdi. Shuning uchun ham Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” asarini nashrga tayyorlab unga so‘zboshi sifatida kattagina tadqiqot yozgan professor Nurboy Jabborov shunday yozadi “Muhim tarixiy ma‘lumotlar berilgan bo‘lishiga qaramay, uslubi, janr xususiyatlari, ifoda tarzi va boshqa belgilariga ko‘ra “Zubdat ut-tavorix”ni ham Ogahiy badiiy-tarixiy nasrining boshqa namunalarini tarixiy-ilmiy asarlar sifatida baholab bo‘lmaydi. Bu asarlarni adabiy manba sifatida o‘rganish esa adabiyotahunoslik hamda uning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan manbashunoslik va matnshunoslik uchun muhim ilmiy nazariy xulosalar berishi aniq”<sup>1</sup>

Ulug‘ mutafakkirning adabiy tarixiy asarlarini tarixiy manba sifatida tadqiq etgan rus olimi akademik V.V.Bartold bunday yozgan edi “Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy-tarixiy asarlar qanchalik kamchilikga ega bo‘lmasinlar, tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko‘pligi

jihatan bizgacha yetib kelgan Qo‘qon va Buxoro xonliklari tarixi bo‘yicha yozilgan hamma asarlarni o‘zidan ancha orqada qoldiradi<sup>2</sup>”.

Shu paytga qadar asosan tarixiy asarlar sifatida baholanib kelgan Ogahiy badiiy-tarixiy nasrini maxsus o‘rgangan akademik Vohid Abdullayev bu asarlarni “tarixiy badiiy proza”<sup>3</sup> deb atasa, manbashunos olimlarimiz G‘ulom Karimov va Subutoy Dolimov ularning “badiiy-tarixiy asar tarzida qimmatli”<sup>4</sup> ekanligiga urg‘u beradilar. Professor Najmiddin Komilov va Ogahiyning tarjima asarlari tahlili misolida milliy adabiyotimiz tarixida yaratilgan “qissa hikoyalar (povest)”<sup>5</sup>larga e‘tibor qaratadi. Binobarin Ogahiyning tarixiy mavzudagi barcha nasriy asarlari, jumladan “Zubdat ut-tavorix” asari ham birinchi navbatda badiiy, undan keyingina tarixiy asar hisoblanadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

“Zubdat ut-tavorix” — Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning badiiy tarixiy nasrining “Firdavs ul-iqbol” va “Riyoziy ud-davla”dan keyingi uchinchi kitobi hisoblanadi. Asarda Xiva xonlaridan bo‘lgan Rahimqulixon davri (1843-1846) voqealari betakror badiiy shaklda tasvirlangan. Ogahiyning ushbu memuar qissasi asosan sa‘jli nasrda bitilgan bo‘lsa ham unda qasida, masnaviy, g‘azal, ruboiy, qit‘a, ta‘rix va fard singari mumtoz she‘riy janrlar namunalari ham ko‘plab uchraydi. Bu janrlar asar tilining badiiyati va tasvirning jozibadorligini oshirishga xizmat qilgan. Muhim tarixiy ma‘lumotlar berilishiga qaramay uslubi, janr xususiyatlari, ifoda tarzi va boshqa belgilariga ko‘ra “Zubdat ut-tavorix”ni ham Ogahiy badiiy tarixiy nasrining boshqa namunalarini ham tarixiy ilmiy asarlar sifatida baholab bo‘lmaydi. Bu asarlarni adabiy manba sifatida o‘rganish esa adabiyotshunoslik hamda uning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan manbashunoslik va matnshunoslik uchun muhim ilmiy-nazariy xulosalar berishi aniq.

Ogahiy badiiy tarixiy asarlari haqida amerikalik olim E.Ollvorsning “O‘zbek adabiy siyosati” asarida tahliliy fikrlar berilgan bo‘lsa<sup>6</sup>, oradan ko‘p yillar o‘tib yana bir amerikalik olim Yuriy Breygel shoir, tarixchi va tarjimon Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs ul-iqbol” asarining dastlab ilmiy-tanqidiy matnini, keyin esa asarni ingliz tiliga tarjima qilib ikki jild holida nashr ettirdi. Ogahiy badiiy tarixiy nasri yuzasidan rossiyalik mutaxassislar V.V.Bartold, shuningdek o‘zbek olimlarining G‘ulomov.Y, Munirov.Q, Yo‘ldoshev.M kabi olimlarning tadqiqotlari e‘lon qilingan. Shuningdek asr haqidagi turli maqolalar chop qilinib kelinmoqda.

Zubdat ut-tavorix ikki qismdan iborat bo‘lib, asarning birinchi qismida Rahimqulixonning tug‘ilishi, ilm o‘rganish va harbiy mahorat egallash yo‘lidagi sa‘y harakatlari, shuningdek bo‘lg‘usi xonning Hazorasp hokimi sifatida olib borgan

faoliyati sa'jli nasrda (nasri mujassada) go'zal badiiy shaklda mufassal bayon qilinadi. Asarning ikkinchi qismi Rahimqulixonning saltanat taxtiga o'tirgan kundan to vafotiga qadar sodir bo'lgan voqealar tasviriga bag'ishlangan.

Asar ta'kidlanganidek sa'jli nasrda ijod etilgan. Unda Xiva hukmdori Rahimqulixon ezgu fazilatlar sohibi sifatida ulug'lanadi. Uning ko'plab ilmlarni egallagani, fuqaro va raoyaga shavqat va marhamat, karam va sahovat ko'rsatishda tengsiz ekani vasf etiladi. Xiva xonlarining ma'rifatli bo'lganini adabiyot va san'at, ilm-u hunar rivojiga alohida e'tibor berganini e'tirof etgan holda, ta'kidlash kerakki, bu singari tavsiflar tarixiy haqiqatga to'liq mutanosib bo'lmasligi ham mumkin. Biroq shu narsa aniqki, bu tavsiflar zamirida Muhammad Rizo Ogahiyning odil shoh haqidagi orzu ideallari oxorli poetik tashbehlar bilan ifodalangan.

Ogahiy fikriga ko'ra hukmdor uch fazilatli egasi bo'lishi shart: oliy nasab, ilm-u ma'rifat va harbiy mahorat. Ogahiy xonning nasabi haqida bunday yozadi:

Kelib zoti sariroyi ijlol,  
Sharof topib boshidin toji iqbol.  
Musallamdur anga mulki maoniy,  
Bo'lub davlati eshigi posbon...  
Nasabda uyla oliydir unga zot,  
Ki aylab fahr andin oli qo'ngrot  
Anga chun umboy xalqi topdi nisbat,  
Topib anvo'i qo'ngrot ichra rif'at.

Hukmdor uchun ilm-u ma'rifatga ega bo'lish zarur bo'lgan amallardandir. Ogahiyning quyidagi so'zlarida shunga ishora qilingan. "Chun ul hazrat tufuliyat ayyomi shabistonidin xuruj qilib, shabob hangomi gulistoniga uruj etdi, ilm-u kamol iztikobi va fazlu afzol iqtibosig'a sa'yi tamom bilan ishtig'ol ko'rguzub, oz muddatda ulumi shar'iya vaqtida ilayx va masoili diniya muhofazatida ma'tamadun alayx bo'ldi... Xususan, tavorix va qasoid va masnaviyat va g'azaliyot va jame' she'r ulumining qavoidig'a mahorati tamom hosil qilib, daqiqfahmlik va nazokatshunoslig' va latifgo'ylik fununida ul miqdor avji e'tiborg'a chiqtikim, jahonfozillari va zamon komillari o'z ajzigor qoyil bo'lub, ul xazrat suhbatida ho'yolig' tilin xomushlig' tamoqig'a tiqdilar".

Hukmdorning harbiy mahoratni egallashi hayotiy zarurat ekani asarda shoirnaa bayon etiladi. Jumladan shoir bu boradagi orzusini Rustam doston, shoh Bahrom singari adabiy obrazlar vositasida quyidagicha ifodalaydi:

Ko'rguzsa masof aro shijoat,  
Rustamni suv etgusi hijolat.



Gar olsa qilich, bo‘lub g‘azabnok,  
Bahromg‘a zuhra bo‘lg‘usi chok.

Ogahiy Xiva xoni Rahimqulixonni “Shahanshohu forsunda xislat, humoyun e‘tiqod-u pok niyat” hukmdor sifatida madh etadi. Buni “Hamisha komi mulk obod qilmak” – xonning hayotiy amali ekani bilan izohlaydi. Bunda ham Ogahiyning odil hukmdor haqidagi orzu umidlari ifodalangan. Asarda Rahimqulixonning mazlumlarga yordam bergani haqida ham bir qancha fvaktlar keltirilgan.

### **XULOSA**

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash joizki Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” asari birinchidan, Ogahiy ushbu asarni sof tarixiy asar sifatida talqin etishdan saqlangan hamda ularni adabiyotga daxldor ekanligini e‘tirof etganligi ushbu asarning adabiy tarixiy asar sifatida mukammal va g‘azallardagi so‘zlar jozibador qo‘llanilib asarning ham tarixiy, ham badiiy qimmatini oshirib boshqa asarlardan tamomila farq etadi. Ikkinchidan, Ogahiy asarlarida “tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko‘pligi” masalasiga alohida urg‘u berilgan. Shuningdek bu asarlarda tarixiy voqealar tasvirlanganini hamda faktik materiallar ko‘p bo‘lsa ham ularni bayon etish usuli adabiy ekanini alohida ta‘kidlash kerak. Uchinchidan, mazkur asar ya‘ni Ogahiy qalamiga mansub uchinchi tarixiy asari bo‘lmish “Zubdat ut-tavorix” Xiva xonlarining ilm-ma‘rifat ahliga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish yuzasidan ham qimmatli manba hisoblanadi.

### **REFERENCES**

1. Jabbarov.N. O‘zbek badiiy tarixiy nasrining sara namunnasi/Ogahiy Muhammad Rizo, “Zubdat ut-tavorix”. —T.: O‘zbekiston 2013. \_B.4.
2. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана.Л, 1927.стр, 113
3. Abdullayev.V O‘zbek adabiyoti tarixi —T.: O‘qituvchi 1967, 380b
4. Karimov.G‘, Dolimov.S. Ogahiy — tarixchi / Ogahiy. Asarlar, VI jildlik, Vjild. — T.: 1978, 80-bet
5. Komilov.N Ogahiyning mahorati// Atoqli shoir, tarixnavis, tarjimon(Ogahiy haqida maqolalar) —T.: Abdulla Qodiriy nomidagixalq merosi nashriyoti, 1999, 80-bet.
6. Edward Allworth. Uzbek literary polities. London-Paris, 1964.
7. D.Y.Yusupova va R.P.Jalilova tuzgan “Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История” ( Ташкент, Изд-во “ФАН” Акалеми наук Республики Узбекистан, 1998, стр.199) katologida qayd etilganidek “Zubdat ut-tavorix” haqida dastlab Miyon Buzruk Solihovning “O‘zbek tarixiga oid

to‘rt muhim kitob” ( Maorif va o‘qituvchi” jurnali, 1927 yil 9 – 10 sonlar) maqolasida ma‘lumot berilgan. Shuningdek, asar qo‘lyozmasi O‘zR FA ShI tomonidan nashr etilgan “Собрание восточных рукописей” katologida (VII,35. N\_5023) tavsiflangan. Bundan tashqari Z.Akzakovaning “Материалы по истории туркмен и Туркмении” (t. II, с.477-449) tadqiqoti ham asardagi ma‘lumotlardan istifoda etilgan. Biz ham qo‘lyozmalar tavsifida ushbu asar manbalari ustida o‘zimizdan avval tadqiqot olib borgan mutaxassislar ishlaridan foydalanildi.

8. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 732-737.

9. Ergasheva, F., & Sulaymonov, J. (2022). MUHAMMAD RIZO OG’AHY IJODIDA AXLOQIY MASALALAR TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 742-747.

10. Sulaymonov, J. Karimov, N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.

11. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 9-14

12. Quvvatov, J. U. O. G. L., & Sulaymonov, J. B. (2022). YUNUS EMRE IJODIDA VAHDAT UL-VUJUD VA TAVHID MASALASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 964-968.

13. Sulaymonov, J. (2021) ABDURAHMON IBN XALDUNNING TAMADDUN TARAQQIYOTI HAQIDAGI QARASHLARIDA JAMIYAT TAHLILI//*Academic Research in Educational Sciences*, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.

## **ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDAGI AYRIM BIBLIONIMLAR HAQIDA**

**Mirzahmedova Oygul Abdirashidovna,**

Namangan Davlat Universiteti Lingvistika (O‘zbek tili yo‘nalishi) 2-kurs  
magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy asarlarida qo‘llangan ayrim bibliyonimlar haqida va ularlarning izohlari bo‘yicha fikrlar yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Abu Rayhon Beruniy, atoqli otlar, bibliyonim, “Osor ul-boqiya”, Zardusht, “Geografiya”, Batlimus, “Panchatantra”.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses some of the bibliographies used in the works of our great ancestor Abu Rayhan Beruni and their interpretations.*

***Keywords:** Abu Rayhan Beruni, famous horses, my bibliography, "Osar ul-Baqiya", Zoroaster, "Geography", Batlimus, "Panchatantra".*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются некоторые библиографии, использованные в трудах нашего великого предка Абу Райхана Беруни и их интерпретации.*

***Ключевые слова:** Абу Райхан Беруни, знаменитые лошади, моя библиография, «Осар уль-Бакия», Зороастр, «География», Батлимус, «Панчатантра».*

### **KIRISH**

Atoqli otlarning o‘rganilishi masalalarining dunyodagi turli soha olimlari tomonidan ilmiy-nazariy va amaliy asoslarda tadqiq etilishi ancha vaqtdan buyon davom etib kelmoqda. Bu haqida turli tillarda bir qancha ilmiy ishlar e‘lon qilingan. Bunda til va tarixga oid manbalar asosiy tayanch manba hisoblanadi. Shu bilan birga, olimlarimizning tadqiq etish faoliyatlari ham mazkur sohaning rivojlanishiga turtki bo‘lgan.

Bibliyonimlar mavzusiga doir har xil nazariy va amaliy muammolarni atroflicha tadqiq etish va tahlil qilish o‘zbek tilshunosligi va nomshunosligi fanlari oldida turgan muhim va dolzarb vazifalardandir. Zero, bibliyonimlar yozma adabiyotning ijtimoiy-madaniy hayotning barcha jabhalaridagi o‘shish-u o‘zgarishlarga bevosita daxldor bo‘lgan eng faol va ommabop ko‘rinishi hisoblanadi.

Har qanday asar bibliionimdan boshlanadi. Bibliionimning mavjudligi uning mohiyati-yu maqomi matnning mavjudligi bilan bog'lanadi. Yozuvchining o'z o'quvchisiga aytadigan birinchi so'zi bibliionimdir. Bibliionim-har qanday badiiy, ilmiy, diniy, siyosiy asarlarga qo'yilgan atoqli ot<sup>54</sup>. Lekin u matn uchun shunchaki bir shartli ramz-belgi emas, matnning mohiyati, mazmuni, maqsadi va vazifasi bilan uzviy aloqador bo'lgan muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli badiiy asarga aniq va maqsadga muvofiq bibliionim qo'yish talab qilinadi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Beruniy fanning hamma sohalarida samarali ijod qildi. Uning ilmiy me'rosi juda boy. Akademik I.Yu. Krachkovskiy so'zi bilan aytganda, u qiziqqan sohalarni sanab chiqishdan ko'ra, qiziqmagan sohalarni sanab chiqish osonroqdir. Beruniyning 150dan ortiq ilmiy asarlar yozgani ma'lum. Lekin bularning uchdan ikki qismi bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilgan emas. Ko'pchilik asarlarining faqat nomigina ma'lum. Xususan, uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida 213 ta, "Hindiston" asarida 206 ta, "Qonuni Ma'sudi" asaida 28 ta tarixiy asar nomlari keltirib o'tilgan. Buyuk olim bibliionimlarni keltirishda, ularni izohlab ham o'tadi.

"Osor ul-boqiya" –Abu Rayhon Beruniyning birinchi yirik asari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobidir. Asarning arabcha nomi "Al osor al- boqiya an al- qurun al- xoliya" bo'lib, Yevropada "Xronologiya", o'zbek sharqshunosligida "Osor al-boqiya" nomi bilan mashhurdir."Osor ul-boqiya" "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" bibliionimi o'quvchiga asar haqida ma'lumot berib turadi. Beruniyning o'zi ham bu asarni nima sababdan yozgani haqida asarda izoh berib o'tadi.

*Adiblardan biri mendan [turli] xalqlar haqidagi tarixlar, ularning boshlanishlari va shoxobchalari, ya'ni oylar va yillari ustida u tarix egalarining ixtirolari va bu ixtirolar sabablari, mashhur bayramlar, turli vaqtlar va [har xil] yumushlar uchun belgilangan kunlar, millatlarning ba'zisi amal qilib, ba'zisi amal qilmatdigan boshqa [marosimlar] haqida so'radi va meni imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, o'quvchi fahmlaydigan [turli] kitoblarni axratish va u kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qoldirmaydigan [bir asar yozishga] da'vat etdi<sup>55</sup>.*

Beruniy bu kitobini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000 -yili yozib tamomlagan. Bu vaqtda olim endi 27 yoshga kirgan edi. "Osor al-

<sup>54</sup> E.A.Бегматов Узбек тили антропонимикаси Т.: Фан, 2013. –Б.-46

<sup>55</sup> Беруний. Танланган асарлар. I том. –Т.: Фан, 1968. –Б.-40

boqiya” unga juda katta shuhrat keltirdi. Beruniyning hamma fanga qiziquvchi olim ekanligini ko’rsatdi. Akademik I.Yu.Krachovski ham buni qayd etgan edi<sup>56</sup>.

“Kitob al- istilhod bi ixtilof al arsod” (Kuzatishlardagi ixtiloflar haqida dalillar kitobi)-Beruniyning ushbu asari bizgacha yetib kelmagan. Bu asar haqida “Osor al-boqiya” asarida to’xtalib o’tilgan.

*Yilning necha kunligini aniqlashdagi kuzatishlarning xilma xil chiqishi kuzatish va haqiqatni topishni bilmaslikdan emas, balki katta doira bo'laklarini kichik doira bo'laklari orqali zabt etib bo'lmasligi, ya'ni kuzatish qurollari kichik bo'lib, kuzatiladigan jismlarning juda kattaligi sabablidir. Bu masala mening “Kuzatishlardagi ixtiloflar haqida dalillar kitobi” nomli asarimda to'la bayon etilgan<sup>57</sup>.*

“Abisto”-(Avesto) –jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir. Avesto (parfiyoncha: apastak – matn; ko‘pincha "Zend-Avesto", ya'ni "tafsir qilingan matn" deb ataladi) – zardushtiylikning muqaddas kitoblari to‘plami. Avesto so‘zining o‘zagi “sto” bo‘lib, “o‘rnatilgan”, muqarrar qilingan qonun qoidalar” ma’nosini beradi. Olim “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida “Avesto” asarining yuzaga kelish tarixi va uning Iskandar Zulqarnayn davrida yoqib yuborilganligi haqida qimmatli ma’lumotlar berib o’tadi.

*Zardusht majusiylar “Abisto” deb ataydigan kitob bilan yuzaga keldi. Bu kitob barcha boshqa xalqlar tillariga muxolif bir tilda yozilgan va alohida tartibda bo'lib, maxsus bir til egalari bilib, boshqa til egalari bilmay qolmasligi uchun u tildagi harflar soni hamma tillar harflaridan ortiq edi. Zardusht bu kitobni Bishtosfni oldiga qo'ydi. Bishtosf mamlakatining ulug'lari hozir edilar va mamlakat aholisidan ko'p xalq yig'ilgan edi<sup>58</sup>.*

*Podshoh Doro ibn Doro xazinasida Abistonning o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Abistonning beshdan uchi yo'qolib ketdi. Abisto o'ttiz nask edi, majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qolgan edi. Biz Qur'on bo'laklarini xaftiyaklar deganimizdek, nask Abisto bo'laklaridan har bir bo'lakning nomidir<sup>59</sup>.*

Al-Mijastiy(Almagest)-Batlimusning astronomiyaga oid mashhur kitobi bo‘lib, arabiynavis yozuvchilar orqali Yevropaga borgan. Bu asar bir necha asrlar davomida

<sup>56</sup> Беруний. Танланган асарлар. I том. –Т.: Фан, 1968. –Б.-13

<sup>57</sup> Беруний. Танланган асарлар. I том. –Т.: Фан, 1968. –Б.-46

<sup>58</sup> Беруний. Танланган асарлар. I том. –Т.: Фан, 1968. –Б.-237

<sup>59</sup> Беруний. Танланган асарлар. I том. –Т.: Фан, 1968. –Б.-238

islom Sharqi va keyinchalik Yevropa xalqlari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Batlimus o'z kitobini "Megale sintaksis" ("Buyuk tuzilish") deb atagan. Keyinchalik buyuk astronomning homiylari kitob nomini "Sintaksis megeste" ("Eng buyuk tuzilish") deb o'zgartirganlar. Arabiynavis olimlar esa "megeste" so'zini "Al-Mijastiy"ga aylantirganlar, bundan lotincha Almagest kelib chiqqan.

*Batlimus Antonina podshohligining birinchi yilida turg'un yoritqichlar haqidagi xatolarni tuzatib, ularni o'z kitobi "Al-Mijastiy"ga kiritdi va ularni har yili bir daraja yurgizilsin, deb buyurdi*<sup>60</sup>.

"Anvo kitobi"-Ibn Sinoning asari. Beruniyning har xil asrlarda yashagan boshqa olimlar o'rtasidagi ilmiy munozaralarni tadqiq qiladi. Sobit ibn Qurra bilan Jolinus, Ar Roziy bilan Tammor fikrlari orasidagi kelishmovchiliklar shu jumladandir. Sinoning "Anvo kitobi"dagi ba'zi fikrlarga e'tiroz bildiradi.

Anvo-navning ko'pligi; tong yorigandan keyin kun botish tomonda oy manzillaridan bir yulduzning botishi va xuddi o'sha soatda, kun chiqish tomonda uni xuddi poylaganday, ro'para bo'lib, boshqa bir yulduzning chiqishidir.

Anvo haqida kitob deganda, yog'ingarchilik umuman, ob-havo to'g'risidagi bilim ham tushuniladi<sup>61</sup>.

*Sino "Kitob al- Anvo"da bunday degan: "Chorvachilarning tammuz boshidan hisoblanadigan va qish oylaridan har bir oy ahvolini bildirishda "bohur" kunlari yo'lidan yuradigan maxsus yetti kunlari bor. Ular "chorvachilar bohurlari" deb mashhurdir; u kunlarda havo ahvoli, oldingi va keyingi kunlardagidan boshqa bo'lib, hammasi yoki ba'zisi bulutdan xoli bo'lmaydi"*<sup>8</sup>.

"Panchatantra"-bizda u "Kalila va Dimna" nomi bilan mashhur. Beruniy bu kitobni tarjima qilmoqchi bo'lganini yozadi. Lekin Beruniy tarjima qilganmi yo'qmi hozircha noma'lum. Ammo u arabchaga Abdulloh ibn Muqaffa (724-759) tarjimasini bilam mashhur bo'lgan. Bu kitobni Beruniy o'qib, unga qanoatlanolmagan, hatto Muqaffani qattiq tanqid qiladi.

Hindcha "Panchatantra" asarining "Kalila va Dimna"ga aylanib qolishiga asarning bosh qismidagi ikki chiyabo'rining ismi "Karataka va Damanaka" sabab bo'lgan. "Panchatantra" (uning ma'nosi "Besh hikmat" - kitobdir) pahlaviy tiliga tarjima qilinganida bu ismlar buzib olingan, pahlviy tilidan Muqaffa arabchaga tarjima qilib, uning aslini surishtirmagan va shu ko'yi dunyoning boshqa tillariga tarjima qilib ketilgan<sup>62</sup>.

<sup>60</sup> Беруний. Танланган асарлар. I том. –Т.: Фан, 1968. –Б.-65

<sup>61</sup> Беруний. Танланган асарлар. II том. –Т.: Фан, 1965. –Б.-491

<sup>62</sup> Беруний. Танланган асарлар. II том. –Т.: Фан, 1965. –Б.-478

*Bizcha “Kalila va Dimna kitobi” deb mashhur bo’lgan “Panchatantra” degan kitobni imkoniyat topib tarjima qilsam degan orzuyim bor. Chunki u kitob Abdulla ibn al- Muqaffa kabi o’zgartirib yubormasliklariga inonib bo’lmaydigan bir guruh kishilar tili bilan hindchadan forschaga arabchaga tarjima qilinib keldi<sup>63</sup>.*

## **XULOSA**

Beruniy asarlaridagi qo’llangan tarixiy asarlar nomlarini o’rganish orqali o’sha davr ilm-fan madaniyati haqida qimmatli ma’lumotlar olamiz. Zero, tarixiy nomlar tarixni ochib beruvchi ochqich vazifasini o’taydi.

## **REFERENCES**

1. Беруний. Танланган асарлар. I том. –Т.: Фан, 1968;
  2. Беруний. Танланган асарлар. II том. –Т.: Фан, 1965;
  3. А. Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати I том.–Т.:Фан, 1983;
  4. Йўлдошев Б. Ўзбек онамастика масалалари. –Самарқанд, 2012;
- Е.А.Бегматов. Ўзбек тили антропонимикаси Т.: Фан, 2013.

<sup>63</sup> Беруний. Танланган асарлар. II том. –Т.: Фан, 1965. –Б.-129

## **TYPES AND GENRES OF FINE ARTS**

**Badiev Makhmud Marupovich**

Bukhara State University Pedagogical Institute, direction of Fine Arts and applied decorative arts

**Narziyeva Makhfirat Abdullaevna**

Master's degree in Fine Arts and applied decorative arts from the Pedagogical Institute of Bukhara State University.

Teacher of Fine Arts of the 4th Secondary School of Romitan district

### **ABSTRACT**

*This article describes scientific ideas about Fine Arts and its types. In the course of researching this article, the types of art and its features were widely discussed.*

*Keywords-Image, Art, species, color, gamma, tus, music, sound, note, landscape, painter.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье изложены научные представления об изобразительном искусстве и его видах. В ходе исследования данной статьи широко обсуждались виды искусства и его особенности.*

*Ключевые слова-образ, искусство, вид, цвет, гамма, тус, музыка, звук, нота, пейзаж, живописец.*

### **INTRODUCTION**

Fine art appeared in very ancient times, as a result of the development of the labor process. In the process of labor, human thinking has been perfected, the sense of beauty has increased, the concepts of beauty, comfort and usefulness in reality have expanded. Sinfy as soon as the society came into being, great changes took place in social development; mental labor began to be separated from physical labor. And this has become important in the development of Science and art. Professional arts and artists appeared in this period. And the fine art, manifested its distinctive feature, classicism, became a powerful ideological weapon, propagating the ideology of the ruling class. But despite this, talented creative people who grew up among the masses created works that express the dreams of the people's masses of hard-working, their understanding of beauty and selfishness, nobility and humanism. The stagnation, behavior and habits of the people, achievements and defeats found their expression in their works. Such art, which existed in every era, described the beauties of life, perfected high qualities and qualities in people, encouraged them to strive for equality, freedom, unity, a bright future.



There are a lot of types of art. They are music, cinema, theater, choreography, visual arts, etc. Art, which usually reflects existence in figurative images, shapes, spatial latitude or plane (on the surface of paper, on the surface of walls, etc.), is called Fine Art. Since the artist is an image of the real being in his works, he will never move it mechanically. Otherwise, the works of art he created will not be different from the pictures he created by the photographer. The task of the artist is higher. Since it is an image of events and phenomena that exist in life, it promotes any thought that excites itself through the image, seeks to reveal the essence of events and phenomena that occur in social life, expresses its attitude to them, conveys judgment. For example, since the artist works a picture of a person, he will never be limited to trying to make him look just like himself.

## **DISCUSSION AND RESULTS**

Through this image of a worker, the artist first tries to convey his thoughts and feelings to the audience. The viewer is proud to see the noble, courageous man in the picture (because the artist also worked with pride in this picture), imitates and imitates him. If the game depicts a lowly, ugly man, the audience will hate him. The viewer tries to make sure that he does not have such features. It is obvious that the works of fine art actively influence the knowledge, study and discovery of other wonderful forms of art - literature, cinema, theater. its secrets. Fine art is an art designed to be seen. You can enjoy watching it. The beauty of the melody and the song, the artist's work cannot be described in words. Let's look at some examples of how to properly understand works of fine art.

A. The plot of plastov's work called Noon is very simple, even at first glance it seems that there is no subject worthy of art. It is also possible that the person who has heard the same work, if it is described in words, Well, what is happening, can say and neglect it. But the viewer who looks at the work will never say so. This work, which seems to be simple in appearance, forces him to think, encourages him to feel how beautiful the surroundings are, to be excited about this beauty. Indeed, there are many beauties, anecdotes in the gentle light of a quiet nature, zilal Water, The Sun, which gives rest to the soul of a person, full of senseless, power. The artist rejoices with this, seeks to share the same joy with others. To achieve this, the means of expression of Fine Arts use the possibilities of composition, color, light, shadow, line, texture. The artist chose such a composition that it was revealed when and where the event took place, making the picture used surface (Holst) look like a whole. Let's see any details from the composition from the same picture, say, remove the motorcycle or replace one of the imagestirib then the effect power of the image will be lost. The

integrity of the composition is violated. The artist took advantage of the opportunities of light and shadow to show the time when the incident occurred. The shadow falling under the water drinkers testifies to the fact that the event takes place in the afternoon, during which the sun comes to a standstill. The color gamut chosen for the work - Colorite served to feel the warm heat of summer. The yellowish-green greens, saturated with sunlight, as well as the red motorcycle, refined in sunlight, the colors of the brownish people's beak together make up the color gamut of the whole work. That's why on account of this warm color gamma, when we look at the work, we feel the scorching heat of summer. It seems that the cool spring water in the center of the composition breaks through this whirlpool, creating cool air around, and the spectator of the specific struggle of life is looking at it. The artist also uses the emotional capabilities of the lines when creating a work. It is known that a different line makes a different impression on a person. If smooth lines often give peace of mind, calmness, on the contrary, palatability in all directions cause uneasiness, excitement.

When observing works of fine art, it is also important to be able to correctly demonstrate how the psychological sensations of each image in it are solved, their attitude to the environment. Therefore, it is necessary to pay attention to both the color palette used by the artist and the composition of the event that is happening, the skill of the artist's performance, the character of each chosen form, the general color gamut - color, the character of the surface (for example, the smoothness of the surface of the state in which the artist worked, or the It is only then that one can learn to understand the true essence of the works of Fine Arts and correctly analyze them.

It is known that in all types of Fine Arts, color plays an important role. Color gamma refers to the shades and colors used in image processing. Landscape-being in the works of the genre, views in nature reflect reality will run. Not only things and events in the landscape, but also the interior of the painter their senses are also expressed. Some of the mountains-rocks of the valleys if they are in love with the image, others are in the image of the sea landscape they're skillful.

Natymort is a French word, which means "inanimate nature". In this genre, the painter mainly describes the surrounding objects that surround a person, the objects that he uses in life, food products, flowers, fruits, etc. He can also show in his work his characteristic features by describing the surroundings, at what period the event occurred. Through ishlangan suratlar in the historical genre, we get acquainted with the events of the distant past, with historical personalities, with the culture of the people's lives. One of the manifestations of the historical genre is the battle (botal) landscapes. Botal genre-botal is a French word, which means " Battle", " war". Tiradi

he reflected in the battle landscapes. The main place in this genre is the landscape of battles and military marches. In the works of batalists – artists, the image of a warrior, his heroism, courage and boundless love for his native land are expressed. Leonardo da Vinci, M. B. Grekov, G.K. Sevisky, A.A.Deyneka, V.V.Volkov and others are such musicians. Animalist-genre is an unusual kind of Fine Art. He means in Latin "anima", "animal world". The Animalist artist is accompanied by a keen interest in the animal world, love and skill. At that time, they painted pictures of deer, buffalo, mammals on the walls of the caves. In ancient Japan and China, the images of animals were considered basic in drawing decorative patterns and creating monumental compositions, by the XVI century the anatomy of the animal world was studied by the great musicians Leonardoda Vinci and A. The dyurers worked.

Elderly sculptor and graphic painter V.A. In his works, Vatagin describes his four-legged friends truthfully and confidently. It is desirable that the leader of the training, in order to fully reveal the meaning in the process of giving theoretical knowledge to the students, together with his speech through live speech, will make fruitful use of photographs, literature, film and diaphragm and slides from the works of the musicians.

## **CONCLUSION**

Household genre: in fine arts, works of this genre embody the everyday life of people, various events. For the first time in the XVII century, the household genre, which mostly reflects in the painting, is manifested in the works of Dutch artists Peter de Cox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer etc. From realistic artists P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, V.Makovsky, K.Sevisky, I.Repin vs contributed greatly to the development of the household genre. From Uzbek artists R.Ahmedov, M.Saidov Z.Inagomov, R.Report This Website Abdurahmonovs also came up with a blessed creation in this genre.

## **REFERENCES**

1. Boymetov B., Tolipov N. "The end of Fine Arts at school" Tashkent.: Uztsmo 1995 year.
2. Davletshin M.G. "Psychological basis of Education" - Tashkent.: Teacher 1978 year.
3. Yuldoshev J., Osmanov S. "Fundamentals of pedagogical technology" Tashkent.: Teacher 2004 year.
4. Ibroximov X. "Nature:nafosat, the final program of Ecology" people's education 2001 year.

## **МОДЕЛИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ БЕЗОПАСНОСТИ ИНФОРМАЦИИ НА ЗАЩИЩАЕМЫХ ОБЪЕКТАХ**

**М. Турдиматов**

Доцент Фергонского филиала ТАТУ  
**Боратова Гулмира Рахмоналиевна,**  
Мастера Фергонского филиала ТАТУ  
[boratova.gulmira@mail.ru](mailto:boratova.gulmira@mail.ru)

### **АННОТАЦИЯ**

*Проанализированы стандарты в области защиты информации. Схематично представлены структура угроз информационной безопасности и процесс их реализации. Приведен перечень защищаемых объектов и их взаимосвязь с системой защиты.*

**Ключевые слова:** защищаемый объект, угрозы безопасности информации, система защиты информации, объект защиты информации.

### **ABSTRACT**

*The standards in the field of information security are analyzed. The structure of information security threats and the process of their implementation are schematically presented. A list of protected objects and their relationship with the protection system is given.*

**Keywords:** Protected object, information security threats, information protection system, information protection object.

### **ВВЕДЕНИЕ**

Перечень понятий и терминов в области защиты информации достаточно широк и разнообразен. В статье приведен их анализ, на основе которого схематично представлены процессы воздействия угроз на защищаемый объект, структурированы угрозы и уязвимости, объект защиты и защищаемый объект. Источник является непосредственной причиной возникновения угрозы, которая воздействует на защищаемый объект.

Xulosa qilib aytganimizda Oliy-talim talabalarimiz ishlab chiqarish korxonalariga amaliyot o'tash uchun borganlarida, Xorijdan kelgan birlamchi rulon sortament listlarni raqamlar bilan tamg'alanganliklarini ko'radilar. Bu metall listlarni kimyoviy tarkibi va mexanik, fizik, kimyoviy va texnologik xususiyatlari qay darajada ekanliklari haqida ma'lumot topolmaydilar. Mashinasozlik Institutida, ayniqsa mutaxassislik fanlaridan metall va uning qotishmalarini Evropa va Evroosiyoda qanday markalanishi bo'yicha mashinasozlikning barcha yo'nalish talabalariga, ilmiy izlanuvchilariga yuqorida keltirilgan jadval asosidagi ma'lumotlarni bilishi juda ham zarurdir.

### **REFERENCES**

1. Umarov E.O "Materialshunoslik" darslik. Toshkent: 2013
2. Metallshunoslik va termik ishlash. <https://fayllar.org/ligerlangan-polatlar-reja.html>
3. Марочник стали и сплавов. Контактная информации © 2003 - 2022  
Контент сайта защищен Авторским свидетельством № 7533 от 8.05.2003 г.

## **MAMLAKAT AHOLISINI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TAMINLASHDA MEVA VA SABZAVOT TARMOG'INI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI**

**Nazarova Munavvar Soatmurod qizi**

Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va  
tadqiqotlar xalqaro markazi tayanch doktoranti

### **ANNOTATSIYA**

*Maskur maqolada mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda meva va rezavor mahsulotlari hajmini ko'paytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** oziq-ovqat xavfsizli, oziq-ovqat mahsulotlari, barqaror rivojlanish, innovatsion faoliyat, innovatsion yondashuv, import, eksport.*

### **ABSTRACT**

*In the article, it was proposed to increase the cultivation of fruits and berries to meet the country's need for food.*

***Keywords:** food security, sustainable development, innovative activity, innovative approach, import, export.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье было предложено увеличить выращивание фруктов и ягод для удовлетворения потребностей страны в продовольствии.*

***Ключевые слова:** продовольственная безопасность, устойчивое развитие, инновационная деятельность, инновационный подход, импорт, экспорт.*

### **KIRISH**

Mamlakatimizda so'ngi yillarda olib borayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash orqali aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishi, oziq-ovqat havfsizligini rivojlantirish darajasini oshirish, unda aholining farovon hayot kechirishda oziq-ovqat mahsulotlarining tutgan o'rnini yuksaltirish muhim masalalardan biridir.

Ma'lumki, bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi butun jahonni tashvishga solib kelayotgan global muammolardan biri bo'lib qolmoqda. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi vaqtda dunyodagi jami aholining qariyb 30 foizi to'yib ovqat yemaslikdan qiynalmoqda. Bunday shartda respublikamizda aholini sifatli va yetarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash borasida respublikamizda so'ngi yillarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan


2017 yin 7 fevralda tasdiqlangan PF 4947 sonli “O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, ichki bozorda ularga bo‘lgan narxlar keskin oshishining oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Jumladan, agar 1990 yilda barcha turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha aholi jon boshiga hisoblaganda me‘yorga nisbatan oz iste‘mol qilingan bo‘lsa, 2018 yilga kelib me‘yorga nisbatan iste‘mol hajmi go‘shda 105,40, sut mahsulotlarida 194,90, kartoshkada 104,4 foizni, sabzavotda va polizda 221,3 foizni tashkil etdi.

2021 yilda esa xo‘jalik toifalari orasida meva va rezavorlar yetishtirishning eng katta hajmi 1 567,4 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 54,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkich 2020- yilning mos davriga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 5,5 % o‘shish kuzatildi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Respublikamizda qishloq xo‘jaligining barcha sohalarini, shu jumladan meva, uzum va rezavor mahsulotlarini jadal rivojlantirish, tuproq unumdorligini ko‘tarish, ularning hosildorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda mavsumdan tashqari davrda saqlash xalqimizni meva va uzum mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘la qondirishga qaratilishi zarur.



**1-rasm. 2021 yilda hududlar bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish ko‘rsatkichlari<sup>64</sup>**

<sup>64</sup> O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasining ma‘lumotlari.



Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng katta ulush Andijon (23,0 %), Farg'ona (13,0 %), Samarqand (12,6 %), Namangan (10,4 %) va Buxoro (9,2 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, meva va rezavorlar umumiy hajmida eng kam ulush, Sirdaryo viloyati (1,5 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (2,2 %) kuzatildi.

Ko'rsatib o'tilgan davrlarda yuqori o'sish sur'atlari Qoraqalpog'iston Respublikasida (106,9 %), Sirdaryo (105,7 %), Qashqadaryo (105,6 %), Surxondaryo (104,9 %), Namangan (104,8 %) viloyatlarida qayd etildi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, mamlakatimiz qishloq xo'jaligining samaradorligini yanada oshirish va barqarorligini ta'minlash qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori texnologiyalarini o'zlashtirish, zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalanish, qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi, yer va boshqa turdagi resurslardan foydalanishni yaxshilash, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'rtasidagi baho nomutanosibligini tugatish, davlat tomonidan qishloqlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirish, ichki xo'jalik munosabatlarini takomillashtirish, servis xizmati ko'rsatishni yaxshilash, ushbu tarmoqni boshqarishda zamonaviy ilmiy asoslangan uslublardan foydalanish kabilarga bevosita bog'liqdir. Xo'jalik yuritishning bunday istiqbolli tizimi amaldagisi bilan taqqoslanganda uni tashkil etish va faoliyat yuritilishining innovatsion yondashuvga asoslanganligi – o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi.

Boshqacha aytganda, agrar tarmoqning rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishga faqatgina, bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga innovatsiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlash lozimki, mahsulot ishlab chiqaruvchilarning o'z mablag'laridan foydalanilayotgan holatlarda, asosiy turdagi texnologiyalarga ega bo'lgan, lekin investitsion mablag'larga va yalpi ishlab chiqarish tajribalariga ega bo'lmagan boshqa korxonalar bilan hamkorlik qilishlari maqsadga muvofiqdir. Agrar tarmoq doirasida innovatsion faoliyatning ushbu elementi muhim ahamiyat kasb etadi. Hamkorlikning bunday ko'rinishini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish mumkin:

- ilmiy-tadqiqot ishlariga investitsiyalar kiritish;
- boshqaruvchilik yordamini ko'rsatish;
- o'xshash va nomukammal texnologiyalar vujudga kelganda mustaqil korxonalarini aniqlash;
- yirik va kichik korxonalarining ustuvorliklari va imkoniyatlarini birlashtirish;

• istiqbolli va yuqori riskka ega bo'lgan noan'anaviy texnologiyalarni ishlab chiquvchi mustaqil tarkibiy tuzilmani tashkil etish.

Mamlakatimiz Prezidentning «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021 yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5009-son qarorida aynan oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish yo'nalishida qo'yilgan vazifalar mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda muhim hujjat ekanligidan dalolat beradi. Ya'ni bu yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

• shakllangan dehqonchilik ko'nikmalari, tuproq-iqlim sharoiti, suv ta'minotidan kelib chiqib, respublikaning barcha tumanlarining hududlari muayyan turdagi mahsulotlar yetishtirishga bosqichma-bosqich ixtisoslashtirish;

• 2021 yil 1 apreldan boshlab tuman hokimliklari zaxirasidagi yaxlit holda 300 gektargacha yer maydonlarida plantatsiya usulida intensiv bog' va tokzorlar barpo etish va 7 yil muddatda to'lash sharti bilan aholiga sotish tizimi yo'lga qo'yish;

• kooperatsiya shartlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun yoshlarga foydalanishga kiritiladigan yer maydonlari ijaraga beriladi, shuningdek, fermer xo'jaliklari hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining ekin maydonlari ikkilamchi ijaraga berish va boshqalar.

Yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi jarayonida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida 2021- yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni (2020- yilning yanvar-dekabr oylari mos ravishda 2019- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan – 102,9 %), shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 103,9 % (102,9 %)ni, o'rmon xo'jaligi – 101,5 % (101,7 %)ni, baliqchilik xo'jaligi – 121,4 % (117,9 %)ni tashkil qildi.

## **XULOSA**

Olib borilgan izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat mahsulotlarining importi ichki bozorda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, narxlarni pasaytirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat muhitini yaratish imkonini beradi va buning natijasida ularni samaradorlikni oshirishga majbur qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari eksporti mahalliy ishlab chiqaruvchilarga tashqi bozorlarda raqobatlashish imkonini beradi va shu bilan birga sarf-xarajatlarni kamaytirish hamda yanada samarali ishlashga majbur qiladi.

---

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 26.02.2021 yildagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021 yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5009-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasining ma'lumotlari.
3. <https://east-fruit.com/uz/meva-sabzavot-bozori/bozorlar-harhi/ozbekiston-mevasabzavotchilikda-2021-yilgi-top-10-asosiy-voqeliklar-2-qism/>

## **PARRANDACHILIKDA NASLCHILIK ISHLARINI TASHKIL ETISH**

**Ergashev A.A.**

SamVMI Toshkent filiali assistenti

**Xolbo'tayev I.R.**

SamVMI Toshkent filiali magistr

**Ilesova B.P.**

SamVMI Toshkent filiali

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada qishloq xo'jalik parrandalarini urchitish usullari va ularni chatishtirish, parrandalarni nasldorlik, mahsuldorlik sifatlarini takomillashtirish, shuningdek parrandachilikda naslchilik ishlarini to'g'ri tashkil etish xo'jalikning samaradorligini oshirish maqsadida olib borilgan ishlar nazarda tutilgan.*

***Kalit so'zlar:** kurka, bedana, g'oz, o'rdak, tuyaqush, kaklik, zot, liniya, kross, tuxum, parranda go'shti va bonitirovka.*

### **ABSTRACT**

*This article describes the methods of breeding poultry and their crossbreeding, improving the quality of breeding and productivity of poultry, as well as the proper organization of breeding work in poultry to increase the efficiency of the farm.*

***Keywords:** turkey, quail, goose, duck, ostrich, sparrow, pedigree, line, cross, egg, poultry and bonitirovka.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье описаны методы разведения птицы и их скрещивания, повышение качества разведения и продуктивности птицы, а также правильная организация племенной работы в птицеводстве для повышения эффективности хозяйства.*

***Ключевые слова:** индейка, перепел, гусь, утка, страус, воробей, родословная, линия, кросс, яйцо, домашняя птица и бонитировка.*

### **KIRISH**

Mamlakatimizda parrandachilik sohasini rivojlantirish va eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon parrandachilik mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sohani yanada jadal rivojlantirishga, jumladan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya

qilish va tayyor parrandachilik mahsulotlari eksportini kengaytirishga to‘sqinlik qilayotgan qator muammolar mavjud. Xususan:

birinchidan, parrandachilik mahsulotlarini qayta ishlash darajasi past, tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishda yarim tayyor mahsulotlar ulushi yuqoriligicha qolmoqda, shuningdek parranda chiqindilarini chuqur qayta ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilmayapti;

ikkinchidan, parrandachilik sohasida, asosan, tovuq yetishtirish bilan cheklanib qolinmoqda, boshqa parranda turlari (kurka, bedana, g‘oz, o‘rdak, tuyaqush, kaklik va boshqalar) yetishtirishni ommalashtirish choralari ko‘rilmayapti;

uchinchidan, parranda kasalliklarini o‘z vaqtida aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha zamonaviy biolaboratoriyalar tashkil etilmaganligi oqibatida parrandalar orasida yuqumli kasalliklar tarqalib bormoqda;

to‘rtinchidan, sohada malakali kadrlar tayyorlash, ularni ishlab chiqarishning zamonaviy uslublariga o‘qitish, soha mutaxassislarida innovatsion yondashuvlar hamda ko‘nikmalar shakllantirish, ishlab chiqarishda yuqori sifatga erishish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb qilish ishlariga yetarlicha e‘tibor qaratilmayapti;

beshinchidan, parranda ozuqa bazasini yaratish, import o‘rnini bosuvchi ozuqa mahsulotlarini ishlab chiqarish ishlari talab darajasida yo‘lga qo‘yilmagan;

oltinchidan, parranda mahsulotlari eksport qilinayotgan davlatlar geografiyasini kengaytirish, shu orqali eksport hajmini keskin oshirish choralari ko‘rilmagan;

yettinchidan, sohaga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni kiritish bo‘yicha tajriba yetarli emas, bu borada yetakchi xorijiy hamkorlar bilan yaqin aloqalar yo‘lga qo‘yilmayapti.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Parrandalar seleksiya manbai bo‘lib hizmat qiladi. Parrandalarning mahsuldorligini oshirishda naslchilik ishlarini ahamiyati juda katta. Parrandachilik sohasi bo‘yicha O‘zbekiston, MDH va xorijiy mamlakatlarda naslchilik ishlari rivojlanib bormoqda. Naslli parrandalar bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklar naslchilik ishlarini yuritadi. Bunda yuqori darajadagi naslchilik xizmatini tashkil qilish talab qilishadi. Shuning uchun “Naslchilik” haqida qonun qabul qilingan va uning ahamiyati muximdir. Naslchilik va oddiy parrandachilik xo‘jaliklarida naslchilik ishlari turli usul va shakllarda amalga oshiriladi. Naslchilik ishlarining nazariy asoslari (o‘zgaruvchanlik, irsiyatlik, seleksiya belgilari o‘zaro bog‘liqligi va takrorlanishi) hisoblanadi. Parrandachilikda ham tanlashning turlari va shakllari muxim ahamiyatga ega. Tuxum va go‘sht yo‘nalishidagi parrandalarni bonitirovka

qilish, shuningdek nasldor xo‘rozlarni avlodlari sifatiga qarab baholash, maqsadli juftlash juda muxim hisoblanadi. Bunda juftlashning xillari va shakllari, shuningdek inbriding va geterozisdan foydalaniladi. Parrandachilikda naslchilik ishlarini olib borishda katta masshtabli seleksiyani qo‘llash, gala va zot bo‘yicha naslchilik ishlarini rejalashtirish, EHMdan naslchilik ishlarida foydalanish, naslchilik hujjatlarini yuritish, ko‘rgazmalarni tashkil qilish, seleksiya yutuqlari, zotlarni, liniyalarni va krosslarni takomillashtirish, dunyo genofondidan foydalanish parrandachilik seleksiyasida ilmiy-texnika ravnaqining asosiy yo‘nalishlari muxim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo‘jalik parrandalarini urchitish usullari va ularni cha-tishtirish, parrandalarni nasldorlik, mahsuldorlik sifatlarini takomil-lashtirish, shuningdek parrandachilikda naslchilik ishlarini to‘g‘ri tashkil etish xo‘jalikning samaradorligini oshirishda muxim hisoblanadi.

**Parrandalarning pushtdorligi.** Qishloq xo‘jalik hayvonlarining pushtdorligi ko‘pincha ularning mahsuldorligini belgilaydi. Har xil tur va zot hayvonlar pushtdorligi bo‘yicha farqlanadi: qo‘ylardan yilda odatda bir qo‘zi, romanov, shimoliy qisqa dumli qo‘y zotlaridan-ikkitadan, ayrim paytda oltitagacha qo‘zi olinadi.

Qoramollardan yilda bir marta, ba‘zan ikki, ayrim paytlarda sigirlar to‘rttadan ham buzoq tug‘adi.

Cho‘chqalar yuqori pushtdorlikka ega. Bir tuqqanida 20 va undan ham ko‘p bola tuqqan vaziyatlar bo‘lgan.

Ilg‘or xo‘jaliklar 100 bosh sigirdan 100-105 buzoq, 100 ona qo‘ydan 135-150 bosh mayin junli zotdor qo‘zilar olinadi.

Hayvonlar pushtdorligi nafaqat irsiy xususiyatlarga, balki tashkiliy-zootexnikaviy tadbirlarga ham bog‘liq: birinchi marta qochirish yoshi, ona mollarni tuqqanidan so‘ng qochirish vaqti, oziqlantirish darajasi va boshqa omillar.

**Parrandalarni bonitirovka qilish.** Parrandachilikda ham barcha parranda turlarini bonitirovkadan o‘tkazish seleksiya-naslchilik ishining asosi hisoblanadi. Parrandalarni boni-tirovkadan o‘tkazishda fermer xo‘jaligi mutaxassislari, tuman Qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmasining “Chorvachilik” bo‘limi xodimlari tarkibidan maxsus komissiya tuzilib, belgilangan muddat ichida amalga oshiriladi.

Parrandalarni nasldorlik va mahsuldorlik sifatleri bo‘yicha baholash bonitirovka deyiladi. Parrandachilikda bonitirovka ulardan foydalanishga qarab yakka tartibda va guruhli o‘tkazilishi mumkin. Bonitirovkani o‘tkazishdan maqsad parrandalar sinfini aniqlashdan iborat bo‘lib, bu olingan mahsulotning narxi bilan bog‘liqdir. Sinflar

parrandalar naslining sifati va yakka mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha baholash ma'lumotlari asosida o'rnatiladi. Seleksion genetik stansiyalar, daha tajriba stansiyalari, ilmiy-tadqiqot va o'quv muassasalari, naslchilik zavodlari, reproduktor xo'jaliklarning parrandalari bonitirovkadan o'tkaziladi.

**Tovuqlar bonitirovkasi.** Tuxum yo'nalishidagi tovuqlar 40 haftalik yoshigacha ona tovuqlarning ko'rsatkichlari bo'yicha, bu yoshga erishganda esa mahsuldorligi bo'yicha, yoshidan oshgan tovuqlar esa 72 haftalik hayoti davomidagi mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha bonitirovka qilinadi. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarining u yoki bu sinfini belgilash uchun minimal darajada talablar tuzilgan.

Urug' qatorli tovuqlar bonitirovkasini duragay nasllarning xo'jalik foydali sinflari bo'yicha ham bajarish mumkin. Bu xoldagi talablar tovuqlarning tuxum mahsuldorligini 4-5 % ga, tuxumdan jo'ja ochildirishni 1-2% ga, saqlanishini 2-3% ga oshiradi.

Go'sht yo'nalishidagi tovuqlar 34 haftalik yoshigacha ona tovuqlarning ko'rsatkichlari hamda tirik vazni va haftalik yoshigacha saqlanishi bo'yicha bonitirovkadan o'tkaziladi. Ana shu yoshga yetgan go'sht yo'nalishidagi tovuqlar tirik vazni va mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha baholanadi. Tovuqlarni u yoki bu sinfga ajratish uchun maxsus talablar ishlab chiqilgan.

Jo'jalar tirik vazni 7 haftaligida emas, balki 8 haftalik yoshida aniqlangan xollarda bu ko'rsatkich maxsus talablar bo'yicha birlamchi urug' qator xo'rozlari va broyler jo'jalari mahsuldorligini 12% ga, tovuqlar mahsuldorligini esa 10% ga oshiradi. Xo'roz urug' qatorlari va broyler parrandalar go'shtdor tana shakllariga ega bo'lishlari kerak. Podadan chiqarilgan va nobud bo'lgan parrandalarning miqdori sinov davrida (60 haftalik hayotida) 35% dan oshmasligi kerak. Xo'roz va ona tovuq podalaridagi parrandalarni baholashda har bir guruhdagi 10% dan kam bo'lmagan jo'jalarning vazni alohida tortilishi kerak.

**Kurkalarini bonitirovka qilish.** Kurka jo'jalari ona tovuqlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari hamda tirik vazni, go'shtdorlik shakli va saqlanishi bo'yicha bonitirovka qilinadi. 12 haftalik va undan katta yoshdagi kurkalar mahsuldorligi bo'yicha bonitirovkadan o'tkaziladi.

**O'rdaklarni bonitirovka qilish.** O'rdak jo'jalari boshqa parrandalar singari ona o'rdakning tuxumdorligi, tirik vazni va saqlanishi bo'yicha bonitirovkadan o'tkaziladi. 12 oylik va undan katta yoshdagi o'rdaklar mahsuldorligi bo'yicha bonitirovka qilinadi.

**G'ozlarni bonitirovka qilish.** G'oz jo'jalari ona g'ozlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari, haftalik yoshida tirik vazni va saqlanishi bo'yicha bonitirovkadan

o'tkaziladi. Bir yoshdan oshgan va qari g'ozlar tirik vazni va saqlanishi (8 yoki 9 hafta), tuxumdorligi va tuxumdan jo'ja ochib chiqishi bo'yicha bonitirovka qilinadi. Tuxumdorligi va tuxumdan jo'ja ochib chiqish ko'rsatkichlari bonitirovka qilinadigan yil uchun hisobga olinadi. Ayrim sinflarning umumiy sinfi asosiy va qo'shimcha belgilar bo'yicha aniqlanadi. Bu holda dastlab asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha olgan sinfi hisobga olinadi.

## **XULOSA**

Parrandachilik sohasini rivojlantirish bo'yicha quyodagilarni ustuvor vazifalar etib belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

- raqobatbardosh parranda mahsulotlari ishlab chiqarish orqali aholini yetarli miqdorda parranda mahsulotlari bilan barqaror va maqbul narxlarda ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish;

- ilg'or xorijiy davlatlar tajribasidan foydalangan holda parrandachilik klasterlarini tashkil qilish, bunda innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish;

- sohaga faol investitsiya jalb etish orqali parranda mahsulotlarini, shu jumladan parranda chiqindilarini chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymatli parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish;

- ilmiy-dagnostika laboratoriyalar tashkil qilish orqali parrandalar orasida kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish choralarini ko'rish;

- ozuqa bazasini kengaytirish, import o'rnini bosuvchi ozuqa va vitaminlarni ishlab chiqarish;

- parrandachilik sohasida yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlash

## **REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.06.2021 yildagi PQ-5146-son Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlash.
2. Islomxo'jayev S.S., Boboyev K.X., G'ulomov K. Parrandachilikdan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent, 1996 yil.
3. Мажидов М.М., Рустамов Э.Х. (Агалик-Лонманн-Парранда. Открытое Акционерное Общество СП Узбекистан-Германия). Несушки руководство по содержанию. 2011 год
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017 yil.



- 
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston, J NMIU, 2017 yil.
  6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil.
  7. Raxmatillayev P.E., Nurmuxammedov X.N. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarni parvarishlash. Toshkent, 2013 yil.
  8. Raxmatillayev P.E., Nurmuxammedov X.N. Broylar jo'jalarini yetishtirish. Toshkent, 2013 yil.
  9. Raxmatillayev P.E., Nurmuxammedov X.N. Broylar jo'jalarini yetishtirish. Toshkent, 2013 yil.

## **ENDEMIK IKTEROGE MOGLOBINURIYANING BIOKIMYOVIY MEKANIZMLARI**

**Egamberdiyev Kamol Egamberdiyevich**

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti talabasi,  
egamberdiyevkamol1497@gmail.com

**Raxmonov Farxod Xolbaevich**

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti doktoranti,  
farhodrahmonov1981@gmail.com

**Islomov Xurshid Iskandarovich**

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti assistenti,  
xurshidislomov4@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada ilmiy manbalar malumotlari va tadqiqot natijalari asosida Qizil Qum biogeokimyoviy vohasini tabiiy yaylovlarida boqiladagan qorako'l qo'ylarida endemik ikterogemoglobinuriya kasalligini kelib chiqishi va avj olishini biokimyoviy mexanizmlarini muxokamasiga oid ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *endemik ikterogemoglobinuriya, mis almashinuvi, gepatosit, subhujayraviy organellalar, mis tutuvchi fermentlar va oqsillar, misli zaharlanish, pirrolizidinli alkaloidlar, metallotionein.*

### **ABSTRACT**

*The article discusses the origin and development of endemic icterohemoglobinuria in Karakol sheep grazing in the natural pastures of the Red Sand biogeochemical oasis, based on scientific data and research results.*

**Keywords:** *endemik icterohemoglobinuria, copper metabolism, hepatocytes, subcellular organelles, copper-containing enzymes and proteins, copper poisoning, pyrrolysine alkaloids, metallothionein.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье на основе научных данных и результатов исследований рассматриваются вопросы возникновения и развития эндемической иктерогемоглобинурии у каракольских овец, пасущихся на естественных пастбищах биогеохимического оазиса Красные Пески.*

**Ключевые слова:** *эндемическая иктерогемоглобинурия, обмен меди, гепатоциты, субклеточные органеллы, медьсодержащие ферменты и белки, отравление медью, пирролизидиновые алкалоиды, металлотионин.*

## **KIRISH**

Respublikamizning qorako‘l qo‘ylari boqiladigan hududlarida qo‘ylarda mis almashinuvining izdan chiqishi, ya’ni bu elementning tanqisligi va misli zaharlanish bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklari uchraydi. Mis almashinuvini izdan chiqishini bu ikkala xildagi ko‘rinishi qorako‘l qo‘ylarining og‘ir kasalliklariga sababchi bo‘ladi va ko‘p xollarda ularning o‘limiga olib keladi. M.A. Rish rahbarligidagi Samarqand biokimyogvarlari maktabi olimlari Janubiy-G‘arbiy Qizil Qum yaylovlarida boqiladigan qorako‘l qo‘ylarida qonli siydik ajralish tavsifiga ega bo‘lgan sariqlanish kasalligi belgilarini namoyon qiladigan kasallik uchrashi qayd qilinganligi va bu kasallik Avstraliya qo‘ylarida uchraydigan gepatogen surunkali zaharlanishga o‘xshashligi hamda kasallik tufayli o‘lgan qo‘ylarning jigarida misning miqdori keskin oshib ketishini ( $315,9 \pm 5,9$  mg/kg gacha ) ko‘rsatib berdilar. Ushbu ilmiy maqolada muayyan muammoga oid ilmiy ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va ularga jigar hujayrasini subhujayraviy elementlarida misning taqsimlanishiga, qon va jigarning mis tutuvchi fermentlarini faolligiga tegishli bizning xususiy izlanishlarimiz ma’lumotlarini jalb qilish asosida qorako‘l qo‘ylari organizmida misning umumiy gomeostazini boshqariluv mexanizmlarini asoslashga qaratilgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bizning tadqiqotlarimiz natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, endemik ikterogemoglobinuriyada misning jigardagi miqdori 3 va undan ziyod martaga oshib ketadi. Misning jigarda oshiqcha miqdorda yig‘ilishi jarayonida barcha subhujayraviy fraksiyalar ishtirok etadi, bunda: yirik granulalarda misning konsentratsiyasi 2,4 martaga, mikrosoma fraksiyasida 2,9 marta, sitozolda-2,5 martaga, yadro hamda hujayra bo‘lakchalari fraksiyasida 3,4 martaga oshib ketar ekan.

Bizning ma’lumotlarimizni boshqa mualliflar olgan ma’lumotlar bilan qiyoslash endemik ikterogemoglobinuriya qo‘ylar va laboratoriya hayvonlarida eksperimental yo‘l bilan yuzaga keltiriladigan surunkali misli toksikozga ancha o‘xshashligini ko‘rsatadi. Bu ikkala holatda ham misning jigardagi miqdorini oshishi va bunda yadro hamda hujayra bo‘lakchalari fraksiyasidagi elementning ulushi 59,4 % dan 78 % gachani tashkil qilishi, qolgan fraksiyalar (yirik granulalar, mikrosomal va sitozol) birgalikda 22% dan 40,6 % gachani tashkil qilishi kuzatildi [1,6].

Qo‘ylardagi mis metabolizmini o‘ziga xosligini hisobga olgan holda Qizil Qumning tabiiy yaylavlaridv boqiladigan qorako‘l qo‘ylarida uchraydigan endemik

ikterogemoglobinuriyaning kelib chiqishini biokimyoviy mexanizmlari haqida ba'zi mulohazalarni yuritish mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, hayvonot olamida jigarda misning konsentratsiyasini aks ettiradigan mis almashinuvining ikki xil tipi mavjud. Birinchi tip voyaga yetgan holatdagi hayvonlar jigaridagi misning miqdori quruq massa hisobida 100 va undan ziyod mg/kg miqdorda bo'lishi bilan tavsiflansa, ikkinchi tipga kiruvchi hayvon turlarida bu ko'rsatkich 30 mg/kg ni tashkil qiladi. Birinchi tip hayvonlar jumlasiga qo'ylarni kiritish mumkin bo'lsa, ikkinchi tipga kalamushlarni kiritish bo'ladi.

Radioaktiv misni qo'ylar organizmidagi kinetikasini bayon qilinsa, uning almashinuvi modelini tuzish imkoni bo'ladi, unda yuqorida keltirilgan uch komponent bir zanjirning xalqalari deb qarash lozim bo'ladi [9]. Bu modelga muvofiq mis asosan depolanishga va kamroq miqdorda o't hamda seruloplazminning sinteziga yo'naltiriladi. Binobarin, agar kalamushlarda yangidan sintezlangan seruloplazminning qonga sekretsiyasi tufayli yuzaga chiqadigan qon radioaktivligini ikkinchi bor oshishi Cu ni kiritgandan 14 soat o'tgandan keyin yuz bersa [3,4], qo'ylarda bu xil samara in'eksiyadan 70 soat o'tgandan keyin yuz baravar ekan [4]. Yana boshqa farqli jihat qo'ylarda ularning ratsionidagi mis miqdori va uning jigaridagi konsentratsiyasi o'rtasida korrelyasiya mavjud bo'lgani holda, kalamushlarda bu xildagi korrelyasiya yo'q.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib Qizil Qum yaylovlarida boqiladigan qorako'l qo'ylari organizmda uchraydigan ikterogemoglobinuriyaning kelib chiqishi, avj olishi mexanizmlarini oydinlashtirishga harakat qilib ko'ramiz. Ma'lumki, bu biogeokimyoviy vohada yaylov ratsioni mis almashinuvini me'yoriy ko'rsatkichlari darajasida bo'lgani holda misning organizmda yig'ilishi va so'ng uni misli zaharlanish darajasiga etishi kuzatiladi. Kasallikning boshlanishi qo'ylar ratsioniga tarkibida alkaloid tutuvchi o'simlikning bo'lishi, alkaloid esa, misning jigar tomonidan kuchli darajada o'zlashtirilishini ta'minlashi hamda o't orqali chiqarilishini susayishi, shuningdek uning metallotionein bilan mustahkamroq tarzda birikishiga olib kelishi yuz bera boshlaydi. Birinchidan, og'ir metallarning ta'siriga o'xshash tarzda, tegishli genning derepressiyasi tufayli metallotioneinning sintezini kuchaytirishi mumkin. Bu jarayon tegishli repressor oqsillarning alkallanishi tufayli sodir bo'ladi. Metallotionein sintezini kuchayishi toksikoz yuzaga keltiradigan stress natijasida va muayyan oqsilni sintezini kuchaytiruvchi regenerativ jarayonlarning ta'sirida ham amalga oshishi mumkin [9]. Ikkinchidan pirrol metabolitlari plazmatik membranalarni shikastlashi natijasida [2], gepatsitlarda yig'ilgan misni lizosomalardan o't orqali

chiqarilishini izdan chiqarishi mumkin [5,8]. Mis miqdorining ancha oshishini o'zi lizosomalarning ajratish funksiyasiga ta'sir ko'rsatib, tubulin oqsilini sintezini bo'g'ishi orqali organellalarni xarakati uchun zarur bo'lgan mikronaychalarni emirishi mumkin [7]. Bu holatda pirrolizidin alkaloidi ta'sirida gepatotsit miqyosida mis almashinuvi izdan chiqadi, bu narsa o'z navbatida lizosomalarda elementning metallotionein tarkibiga o'tib lizosomalarda yig'ilishini, uni polimerlanib erimaydigan shaklga kirishini ta'minlab nuqsonli yopiq zanjirli tizimga aylanadi. Buning oqibatida jigarning subhujayraviy komponentlari orasidagi mis almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan sintetik, ajratish va depolanish jarayonlari tubdan izdan chiqadi.

### **XULOSA**

Xususan, endemik ikterogemoglobinuriya bo'yicha noqulay xo'jaliklarda qo'ylar ratsioniga oshqozon-ichak traktida misning so'rilishiga susaytiruvchi va sitoplazmatak membranaga stabillovchi ta'sir ko'rsatuvchi ta'sirga ega bo'lgan rux mikroelementini oshirilgan dozada qo'ylar ratsioniga kiritish istiqbolli hisoblanadi. Shunday qilib aytish mumkinki, yaylov oziqasi xilma xil va qo'ylarning kunlik ehtiyojlarini alkaloid tutuvchi o'simliklarsiz yoki ularni kam ist'emol qilish orqali qoplay oladigan paytlarda kasallik paydo bo'lmaydi, yaylov oziqasi kambag'al bo'lganda, oziqa ehtiyoji alkaloid tutuvchi o'simliklar evaziga qoplana boshlaydi va kasallik ham avj oladi.

### **REFERENCES**

1. Сафин М. Г. Медь в гепатоцитах каракульских овец в норме и при нарушениях ее обмена. Автореф. Дисс. канд. биол. наук –Боровск Калужской области. 1985. -18с
2. Johnson W. D. Mechanism of in vitro acute toxicity of degidromonocrotaline, a metabolite of the pyrrolizidine alkaloid monocrotaline. Toxicology, 1981, 1, p. 107-108.
3. Marceau N., Aspin N. The association of the copper derived from ceruloplasmin with cytocuprein. Biochim. Biophys. Acta, 1973, 328, p. 351-358.
4. Marciese N. A., Figuciras H. D., Valsecchi R. M. Nuclear techniques in animal production and health. Proc. Simp. Vienna 76, International atomic energy commission, 1976, 234, p. 117-121.
5. Mehra R. K. and Dremner J. Development of a radioimmunoassay for liver metallothionein-1 and its application to the analysis of rat plasma and kidneys. Biochem. J., 1983, 213, p. 459-465.

- 
6. Saylor W. W., Roland M., Leach J. R. Intracellular distribution of copper and zinc in sheep. Effect of age and dietary levels of the metals. J. Nutr. 1980, 110, №3, p. 448-459.
  7. Sternlieb I. Copper and the liver. Gastroenterology, 1980. 78, p.1615-1628.
  8. Webb M. The metallothioneins. In The chemistry, biochemistry and biology of cadmium. M. Webb ed., Elsevier (North Holland), 1979, p.2198-266.
  9. Webb M., Cain K. Commentary. Functions of metallothionein. Biochem. Pharmacol., 1982, 31, №2, p.132-142.

## **UMURTQA POG‘ONASI TOG‘AYLI DISK DESTRUKTIV KASALLIKLARINING PATOMORFOLOGIK TAHLILINI TASHXISLASH VA DAVOLASHDAGI AHAMIYATI**

**Mahkamov N.J.**

### **ANNOTATSIYA**

*Umurtqalar orasidagi tog‘ayli disk - atrofida fibroz xalqa va dirildoq yadrodan tashkil topgan. Umurtqaning bo‘g‘im yuzasi pastdan va yuqoridan tog‘ayli disk suyaklarga mustaxkam zich tutashgan. Tog‘ayli diskning ichki yuzasi qalin va zich kollagen tolalaridan iborat bo‘lib, fibroz yuzasi nisbatan yupqa, taxminan ikki barobar yupqa fibroz qatlam bilan o‘ralgan. Diskning turli soxalarda tog‘ay to‘qimalarning gistologik ko‘rinishi turlichaligi aniqlandi. Umurtqa pog‘onasi protruziyasi va churrasini davolashda disk strukturasi gistokimyoviy va patomorfologik xulosalariga asoslanib muolajalar olib borilishi yaxshi natijalarga olib keladi. Tog‘ayli diskni mikroskopik tuzilishi hozirgi umurtqa pog‘onasi churrasini degenerativ va distrofik o‘zgarishlari ko‘payib borayotgan bir paytida, diagnostika va davolash samaradorligini oshirishga hissa qo‘shgan bo‘ladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Umurtqa, churra, tog‘ayli disk, simfiz, fibroz xalqa, dirildoq yadro, tog‘ay.*

### **ABSTRACT**

*The intervertebral disc is composed of a fibrous ring and a revolving nucleus. The articular surface of the spine is tightly connected to the disc bones above and below. The inner surface of the spinal disc is composed of thick and dense collagen fibers, and the fibrous surface is surrounded by a relatively thin, approximately twice as thin fibrous layer. The histological appearance of the connective tissue in different areas of the disc was found to be different. In the treatment of protrusion and hernia of the spine, the treatment based on histochemical and pathomorphological findings of the disc structure leads to good results. The microscopic structure of the spinal disc contributes to the increased effectiveness of diagnosis and treatment at a time when degenerative and dystrophic changes in the current spinal hernia are increasing.*

**Keywords:** *spine, hernia, spinal disc, symphysis, fibrous ring, nucleus accumbens.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Межпозвоноковый диск состоит из фиброзного кольца и вращающегося ядра. Суставная поверхность позвоночника плотно соединена с дисковыми*

*костями сверху и снизу. Внутренняя поверхность позвоночного диска состоит из толстых и плотных коллагеновых волокон, а фиброзная поверхность окружена относительно тонким, примерно вдвое более тонким фиброзным слоем. Установлено, что гистологический вид соединительной ткани в разных участках диска различен. При лечении протрузий и грыж позвоночника к хорошим результатам приводит лечение, основанное на гистохимических и патоморфологических данных строения диска. Микроскопическое строение позвоночного диска способствует повышению эффективности диагностики и лечения в период нарастания дегенеративно-дистрофических изменений при текущей спинномозговой грыже.*

**Ключевые слова:** позвоночник, грыжа, позвоночный диск, симфиз, фиброзное кольцо, прилежащее ядро.

## **KIRISH**

Zamonaviy tibbiyotni rivojlanishida avallombor kasalliklarga to'g'ri qo'yilgan tashhis va uni davolash hisoblanadi. Hozirgi kunda tog'ayli disk churrasini davolashda operativ va konservativ yo'lni to'g'ri tanlanishi insonlar sog'ligi uchun muxim samaradir. Buning uchun tog'ayli disk strukturasi va topografik jihatdan gistologik tuzilishi to'g'risida ma'lumotlarni o'rganish zarur. Hozirgi zamonaviy sharoitlarda insonlar hayotida yetarli darajadagi harakatlanish kamayib bormoqda. Bu esa umurtqa pog'onasiga og'irlik tushishi kuchayib uning chidamliligi susaymoqda. Umurtqa pog'onasining bunday zo'riqishlari fibrozli xalqani jaroxatlanishiga va disk elastikligini buzilishiga olib keladi. Bunday zo'riqishlar umurtqa pog'onasi tog'ayli diskini patologiyasi ya'ni churrasini keltirib chiqaradi. Aslida umurtqa pog'onasi tog'ayli diskining chidamlilik darajasi juda yuqori bo'lsada, shunchalik harakatlarga javobiy reaksiyalari ham bor. Bu esa diskni nozik tomoni hisoblanadi.

Diskning faqat ikki yoshgacha qon tomirlarning ishtirokida undan keyin diffuz oziqlanish ya'ni qon aylanish tizimining yo'qligidir. Diskning ajablanarli tomoni faqat diffuz usulida atrof to'qimalardan oziqlanishi va harakatanganda buni kuchayishidir. Disk fibroz xalqasini oziqlanish buzilishlari va turli yuklamalar degenaratsiyaga olib kelishi natijasida cho'ziladi, so'ngra churraga sabab bo'ladi. Umurtqa tog'ayli diski fibroz xalqasi orqa yuzasiga kengayganda esa orqa miya ustunini qisib qo'yishiga sabab bo'ladi. Agar xalqa orqa yonlariga o'ng yoki chap tomonlama cho'zilsa, umurtqalar orasidan chiqayotgan nerv tutamlarini siqib qo'yishiga olib keladi. Bu holatlar tos sohasi va oyoqlarda irradiatsiyalanuvchi og'riqlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar



tahlili shuni ko'rsatdiki, umurtqalararo disk barcha patomorfologik holatlarini hisobga olmasdan bajarilgan tashrix va tashxislar samarasi 40%dan past natija bergan. Umurtqaning patologik o'zgarishlari hajmi va xarakterini baholashda jarrohlik amaliyotlarini optimal uslublarini tanlashda ko'pgina mualliflar fikrlarida qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib qolmoqda, biroq, protruziya va churra morfologik, morfometrik o'zgarishlarini o'rganish ishlari bajarilmagan.

Umurtqalar oralig'i disk degenerativ kasalliklari haqida yuqorida keltirilgan ma'lumotlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, disk tarkibiy qismida rivojlanadigan patomorfologik o'zgarishlarining morfogenezi va bu o'zgarishlarning biri ikkinchisiga qay darajada o'tib borishi, ularning morfologik jihatdan namoyon bo'lishi haqida ma'lumotlar yetarli emas. Jumladan, disk degenerativ kasalliklari boshlanishida, uning fibroz xalqasi nima sababdan suyuqlik va oziq moddalarni diffuziya qilish qobiliyati pasayadi, bu funksional jarayonning asosida qanday morfologik o'zgarishlar yotadi, ularni aniqlash talab qilinadi. Diskning dirildoq yadrosi tarkibi oraliq moddasidagi proteinglikanlarning o'rni yuqori darajadiligiga shubha yo'q. Degenerativ kasalliklar diskning qaysi sohasida ko'proq rivojlanishi, aksariyat hollarda fibroz xalqasining qaysi bir tomoni noziklashib, yoyiladi va churraga sababchi bo'ladi, uning morfologik o'zgarishlarini baholashga qaratilgan ma'lumotlar yo'q. Demak, ushbu ishda yuqorida ko'rsatilgan, hali adabiyotlarda yetishmaydigan muhim ma'lumotlarni takomillashtirishdan iborat vazifalarning yechimini topish, dolzarb hal qilinishi zarur muammolardan biridir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tog'ayli diskni mikroskopik jixatdan o'rganish uchun 30 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan tashrihdan so'nggi umurtqa pog'onasi disk bo'laklar kesmalari va 16 ta turli kasalliklardan vafot etganlar tog'ayli diskini butunligicha olib yorug'lik mikroskopining 10 20 30 obektivida ko'rib o'rganilib natijalar tahlil qilindi. Umurtqa pog'onasi orasidagi simfiz ya'ni tog'ayli disk,atrofidagi fibroz xalqa va dirildoq yadrodan iborat. Yuqori va pastki bo'g'im yuzalarida tog'ayli disk umurtqa suyagi bo'g'im yuzasi bilan zich tutashgan. Tog'ayli diskning oldingi bog'lami tomoni ichki yuzasi ancha qalin orqa yuzasiga nisbatan ikki barobar qalin xisoblanadi. Tog'ayli diskning topografik xar xil soxalarda tog'ay to'qimasini gistologik tuzilishi turlicha ekanligi kuzatildi. Tashqi tog'ay xalqa yuzasi qatlamida tolalar zich aylana bo'ylab joylashgan bo'lsa undan ichki tomonda radial yo'nalishda va dirildoq yadroga yuzlashgan tomoni betartib yo'nalishda joylashgan. Tog'ayli disk tashqi yuzasi ya'ni umurtqa suyagi bilan tutashgan soxalarida o'ziga xos o'zgarishlar

aniqlandi. Bu tutashgan yuzalarning o'ziga xosligi shundan iboratki, suyak ko'migi zich tog'ay to'qimaga botib kirgan orolchalarning borligidadir. Bu orolchalarda monotsitar va gistotsitar xujayralardan iborat infiltrat mavjudligi aniqlandi. Infiltrat tarkibi asosan monotsit, poliblast, xondroblast va osteoblastlardan tashkil topgan. Umurtqaning tog'ayli diskini suyakga botib kirgan qismidagi orolchalarning ayrimlari so'rilib qisqarib kichiklashib kal'sinozlangan modda bilan qoplangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati protruziya va churrasi bilan kasallanishi, shuningdek, qator o'zgarishlar birgalikda qo'shib kelishidan shikastlangan shaxslar umurtqa pog'onasini yallig'lanish infiltrati va fibroz, tog'ayli diskning morfologiyasi, kollagen tolalar tutamlari holati, ular sinxondrozlari simfiz, tog'ayli disk fibroz xalqa va dirildoq yadroning holatini patomorfologik o'zgarishlarini nazariy baholash tartibi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umurtqalar oralig'i disk degenerativ o'zgarishlar bilan birga sodir bo'lgan protruziya va churrasi holatida umurtqa pog'onasidagi umurtqalararo diskning fibroz xalqasining kollegen tolalarining diffuz oziqlanishining buzilishini oldini olishga qaratilgan patomorfologik o'zgarishlarni tashxislash tartibi yaratilganligi bilan izohlanadi.

## **XULOSA**

Umurtqa pog'onasi tog'ayli diski atrofida fibroz xalqa va dirildoq yadro asosiy harakatda kuchlanishlar manbaidir. Shu holatlarni e'tiborga olib tog'ayli diskni gistokimyoviy va morfologik xususiyatlarini o'rganib chiqdik. Bu tekshiruv xulosalariga asoslanib umurtqa pog'onasi protruziyasi va churrasini davolash algoritmini ishlab chiqdik. Tog'ayli diskning ichki yuzasi ancha qalin va zich kollagen tolalardan iboratligi fibroz yuzaga tomon yuqalashib borganligi, tashqi orqa tomonining esa ikki barobar yuqaligi chetki zich tog'ay qatlamida tolali tutamlar aylana bo'ylab joylashganligi xisobga olindi. Bundan tashqari yana fibroz xalqani ichki qatlamida radial yo'nalishda dirildoq yadroga yaqin qatlamida esa betartib joylashishi aniqlanganligi xam davolash taktikasini asoslashga yordam beradi.

O'rganilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki 30 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan insonlarda umurtqa pog'onasi disk churralari yuqoridagi patomorfologik jarayonlarni mikroskopik tekshiruvlarga asoslanib davolash kerakligini ko'rsatdi. Bunda tog'ayli diskning yoshga qarab strukturasi o'zgarib borishi gormonal buzilishi, modda almashinuvi, jismoniy mehnatning nostabilligi va keksalikdagi kam xarakterli harakatlar sabab bo'ladi. Zamonaviy tibbiyotda insonlarning salomatligini muxim omillaridan biri sog'lom turmush tarzi xisoblanadi. Bularning barchasi kasalliklarni to'liq tubigacha o'rganishni talab etadi. Xulosa shuki, bemorlarga qo'yilgan tashhis va davolashda

to'g'ri tanlangan taktika insonlar salomatligi uchun yaratilgan omillarning asosi hisoblanadi. Shuning uchun umurtqa pog'onasi disk churrasini davolashda ham yuqorida aniqlangan ma'lumotlar muhim tavsiyalardan biri bo'la oladi.

### REFERENCES

1. Скоромец АА.Остеохондроз дисков:новые взгляды на патогенез неврологических синдромов./А.А.Скоромец, А.П.Скоромец, А.П.Шумилина// Неврологический журанал.1997.№6\_С.5355
2. Неттер Ф. Атлас анатомии человека,4-е изд / ф.Неттер.М.:ГЭОТАР-Медиа,2007.-624с.
3. Новосельцев С.В.Введение в остеопатию.Мягкотканые и суставные техники(2-е изд.)/С.В.Новосельцев.СПб.: ООО "Издательство Фолиант",2009.320 с.
4. Новосельцев С.В.Крестец.Анатомофункциональныевзаимосвязи и роли в биомеханике тела человека/С.В.Новосельцев,Д.Б.Симкин//Мануальная терапия.2008,№ 3 (31),С.89,99.
5. Шотурсунов Ш.Ш., Кочкартаев С.С. Анализ регресса клинических и компьютерно-томографических проявлений грыж межпозвонковых дисков поясничного отдела позвоночника // Сборник тезисов IX съезда травматологов-ортопедов. Саратов, 2010. с.711-712.
6. Шотурсунов Ш.Ш., Кочкартаев С.С. Морфопатогенез рассасывания грыж межпозвонковых дисков поясничного отдела позвоночника в результате комплексного ортопедического лечения // Центрально-Азиатский медицинский журнал. Иссык-Куль, с. Бает, 11-12 июня 2009, с.72-79.
7. Amelot A, Mazel C. The Intervertebral Disc: Physiology and Pathology of a Brittle Joint. World Neurosurg. 2018 Dec;120:265-273.
8. Peters H., Wilm B., Sakai N., Imai K., Maas R., Balling R. Pax1 and Pax9 synergistically regulate vertebral column development. Development 1999; 126(23): 53995408.
9. Placzek M. The role of the notochord and floor plate in inductive interactions. Curr Opin Genet Dev 1995; 5(4): 499506, [https://doi.org/10.1016/0959-437x\(95\)90055-1](https://doi.org/10.1016/0959-437x(95)90055-1).
10. Sadowska A, Kameda T, Krupkova O, Wuertz-Kozak K. Osmosensing, osmosignalling and inflammation: how intervertebral disc cells respond to altered osmolarity. Eur Cell Mater. 2018 Nov 19;36:231-250

## **ICHKI YONUV DVIKATELLARIDA HAVO TARKIBIDAGI KISLORODNING YOQILG‘I SARFIGA TA’SIRI**

**Raxmatov Utkirjon Farxod o‘g‘li**  
Jizzax Politehnika Instituti assistenti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola ichki yonuv dvigatellarining ta’minlash tizimi haqida bo‘lib unda kislorodning o‘rni haqida so‘z ketadi va bundan tashqari ichki yonuv dvigatellarining yaratilish va rivojlanish tarixini o‘z ichiga oladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Ichki yonuv dvigateli, ta’minlash tizimi, havo, kislorod.*

### **ABSTRACT**

*This article is about fuel supply system of internal combustion engine, and the role of oxygen in it. Furthermore, there is given information about the history and progressing time of internal combustion engine.*

**Keywords:** *Internal combustion engine, fuel supply system, oxygen, air.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Эта статья посвящена системе питания двигателей внутреннего сгорания, роли в ней кислорода, а также истории создания и развития двигателей внутреннего сгорания.*

**Ключевые слова:** *ДВС, система питания двигателя, кислород, воздух.*

### **KIRISH**

Avto-industriya butun jahon bo‘ylab juda ommalashgan va hozirda rivojlanishda davom etmoqda. Bu esa O‘zbekistonda, shu jumladan avto-industriya mustaqillik davrida, o‘tgan 30 yilga qaraydigan bo‘lsak, birinchi dekada va so‘ngi dekadada jaddalik bilan rivojlanib kelmoqda. Zamon zayli avtomobilsozlikda yuksalish to‘xtamasligi va mijozlash xohishini qondirish yo‘lida tinmay harakat qilishni talab etmoqda. Yurtimizda so‘ngi yillardagi islohotlar natijasi o‘laroq yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan raqobat muhitini yaratish maqsadida “Uzavtomotors”ga raqobatbardosh zavodlarni loyihalash va ularni mamlakat hududa tezkorlikda ishga tushirish vazifasini topshirdilar. Buning natijasiga ko‘ra O‘zbekistonda birqancha avto zavodlar ish boshladi, shulardan Jizzax shahrining o‘zida Jizzax avtomobil zavodi va Jizzax ADM zavodlari ishga tushirildi. Bu esa albatta xalqimiz uchun yana bir xushhabar bo‘ldi. Endigi navbat “byudjet” sinfiga hos avtomobillar ishlab chiqarish vazifasidir.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Yengil avtomobillarda yoqilg‘i sarfini kamaytirish usullari tadqiqot obyekti sifatida tahlil etildi. Yengil avtomobillarning tarixi, tuzilish va ichki yonuv dvigatellar ishlash prinsplari va ekologiyadagi kislorodning yonilg‘i sarfiga ta’siri nuqatayi-nazaridan tahlil etildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**


Bilamizki, avtomobil muhim 3 qismdan tarkib topgan bular kuzov, shassi va dvigatellardir. Bularning ichida avtomobil dvigateli eng muhim va murakkab tuzilmasi hisoblanadi va aynan shu qism uchun ekspluatatsiya davrida eng ko‘p mablag‘ sarflanishi hechkimga sir emas. Hozirda avtomobilning dvigatel qismini o‘rganishda 2 ta mexanizm va 4 ta tizimga bo‘lgan holatda tahlil qilamiz. 2 mexanizm bular Gaz taqsimlash mexanizmi (GTM) va Krivoship-Shatun mexanizmlaridir (KShM).

Gaz taqsimlash mexanizmining vazifasi (GTM) — gaz almashinuvi jarayonini boshqarish va silindrlaming imkoni boricha yaxshi to‘lishini ta‘minlash. Zamonaviy to‘rt taktli dvigatellarda asosan konstruksiyasining soddaligini, tayyorlash va ta‘mirlash narxining kamligini, yonish kamerasini yaxshi zichlanishini va ishlashda ishonchliligini o‘ziga xos xususiyatlaydigan klapanli gaz taqsimlash mexanizmlari ishlatiladi. Dvigatelda tizimlar 4ta bo‘lib, bular: O‘t oldirish tizimi, sovutish tizimi, moylash tizimi va ta‘minlash tizimidir. Ta‘minlash tizimi quyidagilardan tarkib topgan: yonilg‘i baki, yonilg‘i trubkalari, yonilg‘i dag‘al tozalash filtri, yonilg‘i mayin tozalash filtri, yonilg‘i nasosi, bosim regulyatori, havo kollektori, havo filtri, drossel zaslonka, umumiy injektor kanali va injektorlar. [1] Avtomobillarda yonilg‘i sarfini kamaytirishi mumkin bo‘lgan omillardan biri shubhasiz, har qanday murakkab mexanizm doimiy e‘tiborni talab qilishi hech kimga sir emas. Avtomobil ham bundan mustasno emas. Ba’zi ekspertlarning fikriga ko‘ra, mashina agregatlari va ehtiyot qismlarining normal ishlashini ta‘minlash yoqilg‘ining 25 foizigacha tejashga imkon beradi. Bunda TXK ni o‘z vaqtida amalga oshirish ko‘zda tutiladi.

*Maqolada Nazariy elektrotexnika fani dars mashg‘ulotlarida talabalarga innovasion tarbiya berishning interfaol metodlardan foydalanish orqali, mavzuga talabalarni ijodiy yondoshishlari, fikrlarni keng ifodalay olishlari va shu bilan birga bir-birlarini nazorat qila olishlari tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** innovasion faoliyat, interfaol usullar, innovasion texnologiyalar, o‘qitish usullari, kasbiy innovasion tayyorgarlik, innovasion tarbiya, kasbiy ko‘nikma, ijodiy yondoshish.*

## **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДИК ИННОВАЦИОННОГО ВОСПИТАНИЯ НА УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЯХ ПО ПРЕДМЕТУ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ЭЛЕКТРОТЕХНИКИ**

**Зокирова Дилноза Неъматиллаевна**

старший преподаватель кафедры Энергетика Наманганского инженерно-  
строительного института

**Қурбонова Фотима Қахрамоновна**

преподаватель кафедры Энергетика Наманганского инженерно-  
строительного института

**Нишонов Муроджон Мухаммаджон угли**

студент факультета Энергетика и охраны труда Наманганского  
инженерно-строительного института

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье проведен анализ творческий под студентов к теме, способность все стронне выразить свои мысли и в места с этим способность контролирования друг-друга через использование интерактивных методов инновационного воспитания студентов на учебных занятиях по предмету теоретическая электротехника.*

*Ключевые слова: инновационная деятельность, интерактивные методы, инновационные технологии, методы обучения, профессиональная инновационная подготовка, инновационная воспитание, профессиональные навыки, творческий подход.*

## **THE USE OF INTERACTIVE METHODS OF IOVATION EDUCATION AT TRAINING CLASSES ON THE SUBJECT OF THEORETICAL ELECTRICAL ENGINEERING**

**Zokirova Dilnoza Nematillaevna**

Senior Lecturer of the Energy Department of the Namangan Engineering  
Construction Institute

**Kurbonova Fotima Kahramonovna**

Lecturer of the Energy Department of the Namangan Engineering Construction  
Institute

**Nishonov Murodjon Muhammadjon ugli**

Student of the Faculty of Energy and Labor Protection of the Namangan  
Engineering Construction Institute

### **ABSTRACT**

*The article analyzes the creative approach of students to the topic, the ability to express their thoughts more strongly and in places with this ability to control each other through the use of interactive methods of innovative education of students in the classroom on the subject of theoretical electrical engineering.*

**Key words:** *innovative activity, interactive methods, innovative technologies, teaching methods, professional innovative training, innovative education, professional skills, creative approach.*

### **KIRISH**

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora - tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai - nazaridan shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz taqozo etiladi. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari-talabalarni bo'lg'usi kasbiy innovatsion faoliyatiga tayyorlashdan iboratdir[1].

Kasbiy innovatsion faoliyatiga tayyorlash o'z ichiga quyidagilarni oladi, ya'ni bir tomondan kasbiy innovatsion faoliyatida zarur bo'ladigan bilimlar asoslari bilan qurollantirish, boshqa tomondan esa, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Umuman, ta'limning yangi maqsadlari ijodkor shaxsni shakllantirish, o'z faoliyatini mustaqil tanlashni shakllantirishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonining sifati aksariyat hollarda, talabning qay darajada bilish sub'ekti bo'lishi, o'qish jarayonida faollik ko'rsatishi va mustaqil bilim olishga intilishi bilan belgilanadi [2].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirgi milliy istiqlol davri mutaxassisi zamonaviy iqtisodiy tafakkurga, rahbarlik, tashkilotchilik va tarbiyachilik malakasiga, o'z mutaxassislik faoliyatida zamonaviy elektron hisoblash texnologiyalaridan foydalanishning ilg'or usullarini qo'llashga, yuksak umuminsoniy madaniyatga, chet tillarni o'rganishga layoqatli bo'lishi lozim. U o'z bilimini doimiy ravishda yangilash va boyitib borish ehtiyojiga nisbatan tashabuskorligi va ma'suliyatligi, zamonaviy bilimlarni o'rganish va ularni hayotga tadbiiq eta olishi, yuksak g'oyaviy-siyosiy, ahloqiy sifatlarini birinchi navbatda milliy istiqlol mafkurasi, xalqimizning boy o'tmish madaniyati va ma'naviy qadriyatlari, ulug'vor an'ana va urf-odatlarini bilish qobiliyati bilan ajralib turishi lozim.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining bosh maqsadi - yuqori malakali kadrlar tayyorlash orqali raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va raqobatbardosh xizmatlar ko'rsatishdir. Bu mamlakatimizning iqtisodiy funksiyasida jamiyat taraqqiyotida borgan sari yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kasbiy ta'lim qancha yuqori bo'lsa, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro harakati yanada kuchli va samarali bo'ladi [3].


Bugungi kunda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirilgan bilimlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida zamonaviy o'qitish usullari - interfaol usullar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Bunday uslublarni o'ziga xosligi shundaki, ular faqat o'qituvchi va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday hamkorlik o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bularga [4]:

- talabalarning o'quv mashg'ulotlari davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur qiladi;
- talabalarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligini ta'minlanishi;
- talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;
- o'qituvchi va talabalarining hamkorligidagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishi.

Ta'lim sohasini taraqqiy ettirish dasturi va bu sohaga kiritilayotgan investitsiyalar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi [5].

Dars mashg'uloti vaqtida talabalarni mavzuga jalb qilish, mavzuni to'laqonli tushunish va mavzu bo'yicha mustaqil fikrlay olish uchun dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi (1-rasm).

**1-rasm. Oliy ta'lim muassasalari talabalarini innovatsion tarbiyalashning maqsad va metodlari**




Elektrotexnika sohasidagi kasbiy innovatsion tayyorgarligini rivojlantirishda ko'proq texnologiyalar va zamonaviy axborot vositalari hamda telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish negizida olib borilmoqda. Elektrotexnika sohasidagi kasbiy innovatsion tayyorgarligini rivojlantirishda o'qitish jarayonida ijobiy samara berayotgan o'qitish turlaridan darsdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazishdir [6], [10].

Hozirgi zamon psixologiyasi va didaktikasi, fikr yuritish jarayonining boshlang'ich davri muammoli vaziyatligiga asoslanadi. Talabada biror narsani tushunishiga talab paydo bo'lgandagina u fikrlay boshlaydi [7], [8], [9].

Elektrotexnika sohasida ta'lim olayotgan talabalar auditoriyasida o'qituvchi avvalo mavzu bo'yicha innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars mashg'ulotini o'tadi, misol uchun muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalalarni eksperimental topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani tashkil qiladi, xulosalarni to'g'riligini tasdiqlash uchun har bir talabadan ijodiy va tanqidiy fikrlarini bildirishlarini so'raydi. Har bir talaba energetika sohasida olgan bilimlarini umumlashtirib hodisalarning sabablarini

aniqlagan holda ularning kelib chiqishini tushuntiradi, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini tanlaydi. Bunga misol qilib quyidagi sxemasini tuzish mumkin (2- rasm).



## 2–rasm Talabaning fanni bilish darajasini aniqlash sxemasi

Bu usulni qo'llash jarayonida talabalarni fanga yoki mavzuga oid bo'lgan ma'lumotlar darajasini va qanchalik talabaning qiziqish me'yorini bilib olish bilan birga bilimni sinovdan o'tkazish mumkin. Yana bir qiziqarli tomoni shundaki, har bir guruh yoki talaba yangi mavzu bo'yicha tushunmagan qismlarini savol sifatida yozib qo'yishi va raqib guruh yoki talabalar o'rtasida almashtirgan holda savollarga javob berishlari mumkin. Dars oxirida mavzuga qo'yilgan talab qay darajada bajarilganligi o'qituvchi va talabalar o'rtasida umulashtirilib baholanadi.

Energetika sohasidagi oliy ta'lim muassasasi talabalaridagi faollikni rivojlantirish, mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish hulosa chiqarish, elektrotexnika tomonlarini taqqoslab, tahlil etib uni jahon standartlari talabiga javob berishi yoki o'zi olib borayotgan ilmiy izlanishlari, ixtirolarini afzal tomonlarini tushuntirib, jahon

bozorida o'z o'rnini topadigan raqobatdardosh mahsulot ishlab chiqqanini e'tirof etish, o'z fikrini tushuntira olish malakasini shakllantirish bugungi kunning talabidir.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, ta'limda talabalarga innovasion tarbiya berish jarayonida pedagog-o'qituvchilarning kasbiy malaka va pedagogik maxoratlari, axborot resurs markazi faoliyati, axborot texnologiyalari, jumladan internet tapmog'idan foydalanish yo'llarini izlaydilar.

Nazariy elektrotexnika fani dars mashg'ulotlarida talabalarga innovasion tarbiya berishning interfaol metodlardan 1-rasm va 2-rasmdagi sxemalar orqali, mavzuga talabalar ijodiy yondoshadilar, fikrlarni keng ifodalay oladilar va shu bilan birga birbirlarini nazorat qila oladilar.

### **REFERENCES**

1. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон.
2. Отамирзаев, О. У., & Зокирова, Д. Н. (2018). Тажриба машфулотларини мустақил ўрганишга ундовчи таълим бериш орқали олиб бориш. *Современное образование (Узбекистан)*, (3).
3. Отамирзаев, О. У., & Шарипов, Ф. Ф. (2017). Методика проведения лабораторных занятий с интерактивными методами. *Science Time*, (2 (38)), 270-273.
4. Зокирова, Д. Н. (2021). INTEGRATION OF PROFESSIONAL AND EDUCATIONAL DISCIPLINES INTO TRAINING OF SELF-LEARNING MOTIVATED STUDENTS. *Современное образование (Узбекистан)*, (6), 24-28.
5. Отамирзаев, О. У., Зокирова, Д. Н., & Вахобова, С. К. (2016). Использование интерактивных методов при преподавании электротехники. *Science Time*, (2 (26)), 445-448.
6. Отамирзаев О. У., Зокирова Д. Н., Вахобова С. К. Методические рекомендации по организации самостоятельной работы студентов //International scientific journal. – 2016. – №. 4 (1). – С. 26-28.
7. Otamirzaev, O. U., & Zokirova, D. N. (2019). PROBLEMS ARISING WHEN APPLYING THE “BOOMERANG” METHOD IN THE COURSE OF TRAINING AND METHODS FOR THEIR ELIMINATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(11), 270-274.
8. Zokirova D. N. Goals And Objectives Of Organizing Independent Work Of Students //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 01. – С. 179-182.



- 
9. Sayfullayeva, D. A., Tosheva, N. M., Nematova, L. H., Zokirova, D. N., & Inoyatov, I. S. (2021). Methodology of using innovative technologies in technical institutions. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 7505-7522.
10. Nematillaevna Z. D. Problems in providing independent learning education and ways to prevent them //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 1. – C. 1431-1436.

## **SVAMI VIVEKANANDA FALSAFIY QARASHLARINING SHAKLLANISHIDA VEDALARNING AHAMIYATI**

**Abdusalimov Abror Vali o'g'li**

TDSHU, "Sharq falsafasi va madaniyati" yo'nalishi 1-kurs magistranti

**Ilmiy rahbar: f.f.d., dots. Izzetova E.M.**

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Svami Vivekanandaning ijtimoiy-axloqiy qarashlariga ta'sir etgan falsafiy ta'limotlar, yunalish va shaxslar haqida qisqacha tanishtirib o'tiladi. Maqolada uning ijtimoiy – axloqiy qarashlari shakllanishida Vedalarning tutgan ahamiyati haqida kengroq ma'lumot berishga harakat qilingan.*

**Kalit so'zlar:** Svami Vivekananda, Falsafiy qarashlar, Ramakrishna, Vedanta, Sankhya falsafasi, G'arb falsafasi, Buddizm, Masihilik ta'limoti, Advaita-vedanta, Brahman, Atman, Vedalar, Upanishadlar, Mutlaq Haqiqat, Muqaddas Bitik, Yoga, Jnana – yoga, Karma – yoga.

### **АННОТАЦИЯ**

*Эта статья представляет собой краткое введение в философские учения, течения и личности, повлиявшие на социально-этические взгляды Свами Вивекананды. В статье ставится задача выяснить роль Вед в формировании его социально-этических взглядов.*

**Ключевые слова:** Свами Вивекананда, Философские мысли, Рамакришна, Веданта, Философия санкхьи, Западная философия, Буддизм, Христианское учение, Адвайта-веданта, Брахман, Атман, Веды, Упанишады, Абсолютная Истина, Священное Писание, Йога, Джняна – йога, Карма - йога.

### **ABSTRACT**

*This article is a brief introduction to the philosophical teachings, currents and personalities that influenced the socio-ethical views of Swami Vivekananda. The article aims to clarify the role of the Vedas in the formation of his social and ethical views.*

**Keywords:** Swami Vivekananda, Philosophical Thoughts, Ramakrishna, Vedanta, Philosophy of Sankhya, Western Philosophy, Buddhism, Christian Teaching, Advaita – Vedanta, Brahman, Atman, Vedas, Upanishads, Absolute truth, Scripture, Yoga, Jnana Yoga, Karma Yoga.

### **KIRISH**

Svami Vivekanandaning ijtimoiy – axloqiy qarashlarini tushunish uchun unga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ta'limotlar, tushunchalar va madaniy xususiyatlarni kuzatish

va tahlil qilish kerak. Uning qarshlarining shakllanishiga ta'sir etgan tashqi ta'sirlardan birinchisi, bu Ramakrishnaning dunyo haqidagi tushunchasining asosini tashkil etuvchi ta'limotidir. Ikkinchi ta'sir, bu Vedanta, xususan, advaita – vedanta. Uchinchi ta'sir, Sankhya falsafasi va yoga amaliyoti. To'rtinchi ta'sir, G'arb falsafasi, fan va madaniyati bilan tanishish, bu Svami Vivekanandaga o'z mamlakati merosini tanqidiy tushunish va islohotlar zarurligini anglash imkonini berdi.

Svami Vivekanandaning ijtimoiy – axloqiy qarashlari shakllanishiga Buddizm kamroq ta'sir ko'rsatadi, u uning qoidalarini qabul qilmagan, ammo u har doim Buddaning ma'naviy kuchiga qoyil qolgan, shuningdek u Masihiylik ta'limotini ham axloqiy ideal hisoblagan. Uning dunyoqarashi va fikrlarini tushunish mutafakkirning tarjimai holiga qisqacha nazar tashlamasdan turib mukammal bo'lmaydi. Keling, uning hayot yo'lining asosiy bosqichlarini ko'rib chiqaylik.

U 1863 yil 12 yanvarda Kalkuttada Vishvanath Dutta va Bhubanesvar Devi oilasida tug'ilgan. Uning bolalikdagi ismi Narendranath Dutta bo'lgan. Narendranathning otasi Vishvanath Dutta Ingliz va Fors tillaridan yaxshi xabardor edi. U shuningdek Injil va qadimgi Sanskrit tilidagi Huinduviylik qo'lyozmalarini ham yaxshi bilgan. Onasi Bhubanesvar Devi dinga qattiq e'tiqod qilgan. U o'g'liga katta qiziqish bilan eshitadigan mifologik hikoyalarni aytib berardi. Svami Vivekananda hayotdagi o'zining doimiy ilhom manbaayi onasi bo'lganligini tez – tez ta'kidlagan. U qadimiy epik dostonlar va Puranalarni onasidan o'rgangan.<sup>65</sup> Svami Vivekananda yoshligidan faol va izlanuvchan bola bo'lgan, yaxshi o'qigan, musiqaga qiziqqan, bolaligidan meditatsiya bilan shug'ullangan va ruhiy masalalarga katta e'tibor qaratgan. U doim haqiqatni gapirgan va unga aytilgan gaplarning haqligini tekshirib ko'rishni xohlagan. U 1879 yildan Prezident, keyin esa Kalkuttadagi Shotlandiya cherkov kollejarida tahsil olgan. U yerda u Yevropa falsafasi va tarixini o'rgangan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'qish paytida Svami Vivekananda bir muncha vaqt hinduizm va ijtimoiy tuzumni isloh qilish tarafdori bo'lgan "Brahmo Samaj" diniy tashkilotida qatnashgan. O'sha paytda u o'zini doimiy ravishda qiynab kelgan diniy savollarga javob izlagan. U diniy idoralardan javob izlagan, o'qigan, fikr yuritgan, meditatsiya qilgan, asketizmga berilib ketgan.

<sup>65</sup> Chattopadhyaya, Rajagopal (1999), Swami Vivekananda in India: A Corrective Biography, Motilal Banarsidass, ISBN 978-81-208-1586-5

Svami Vivekananda Hind ruhiyatini G'arb jamiyatiga ochib berganligi bilan mashhur. U hinduviylik dinining vakili hisoblanadi. U ikki xil shaxsiyatga ega edi – ma'naviy va ijtimoiy islohotlar. Ko'pincha uning ma'naviy "Men"ini ijtimoiy "Men"idan ustun qo'rganligi kuzatilgan.

Svami Vivekanandaning ijtimoiy – axloqiy qarashlariga Vedalar qanday ta'sir ko'rsatganini ko'rib chiqamiz.

Bizga ma'lumki Vedalar qadimgi hind xalqi va qadimgi Hindiston haqida bizda yetarlicha ta'surot uyg'otish uchun asosiy manbaa hisoblanadi. Vedalarda hind xalqi hayotining barcha jabhalari keng yoritilgan. Vedalarni o'rganish asnosida biz qadimgi hind xalqi va zamonaviy hind xalqi turmush tarzi, urf – odat, an'ana va rasm-rusmlarida qanday o'zgarish bo'lganligini yoki haligacha uzgarmasdan kelayotganligini bilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Vedalar adabiyoti bir necha ming yillar davomida shakllanib, qadimgi hindlar tarixidagi turli jamiyatlarning diniy – falsafiy, estetik taraqqiyot darajalarini o'zida ifoda etadi.

Upanishadlar asosan falsafiy – diniy risolalardan iborat ta'limot hisoblanadi. Upanishadlarda falsafiy masalar ancha keng yoritilgan bo'lib, hinduviylik xudosi Brahma borliqning ibtidosi va intihosi, barcha mavjudodlarning asosi, deb ulug'lanadi. Upanishadlarga ko'ra, moddiy olam, shu jumladan, inson ham Atma-Brahmadan paydo bo'lgan va unga qaytadi. Bu fikr islomdagi — sufiylar (Ibn Arabiy, Mansur Halloj va b.)ning butun borliq Allohning tajalliysi, jamoli, yaxshi, pok insonlar haq visoliga yetishib, u bilan qo'shilib ketadi, degan fikrlariga o'xshashdir. Upanishadlarda aytilishicha, inson bunga erishish uchun muayyan axloqiy mezonlarga, karma va dharma ta'limotiga rioya qilishi kerak. Upanishadlarga ko'ra, har bir inson o'zidagi ilohiy dharmalarga muvofiq yashaydi. Agar inson bu dunyodagi hayotida pokiza, ezgu niyatlar bilan yashasa, qaytadan dunyoga kelishda yana inson bo'lib keladi. Aksincha bo'lsa, odam tuban, hayvoniy ishlar qilsa, keyingi kelishida joni hayvonga ko'chadi.

Vedanta – Upanishadlarga asoslangan qadimiy falsafiy an'anadir. Uning asosiy yo'nalishlari: monizm (advaita-vedanta), cheklangan monizm (vishishta-advaita-vedanta) va dualizm (dvaita-vedanta)dir. Svami Vivekananda isloh qilingan tarzda qabul qilgan advaita – vedantaga rioya qiladi. XIX–XX asrlarda rivojlangan bu tendentsiyani tadqiqotchilar neo-vedanta deb atashadi<sup>66</sup>. Bu an'anaviy diniy tuzilmalar va ijtimoiy tabaqalardan voz kechish bilan tavsiflanadi.

<sup>66</sup> См. Костюченко В.С. Классическая веданта и неоведантизм. — М.: Мысль, 1983. С.147.

Advaita – vedanta falsafasining asosiy tamoyili shundan iboratki, mutlaq haqiqat – Brahmandir<sup>67</sup>. Butun dunyo o‘zining xilma-xilligi bilan yagona Brahmandir. Brahmanning ramziy xususiyati – mutlaq borliq, ong, baxtdir, haqiqatda ham u Nirguna Brahman, ya’ni “sifatsiz Brahman”dir. Bu yagona, abadiy va o‘zgarmas Mutlaq Xudodir.

Advaita – vedantada dunyoning yagonaligi ta’kidlanadi. Ammo hamma narsa bitta bo‘lsa, nega biz dunyoning ko‘pligini ko‘ramiz? Qanday qilib o‘zgarmas Brahmandan turli xil narsalar paydo bo‘lishi mumkin? Haqiqatning ikki darajasi mavjud: nisbiy (vyavaharika) va mutlaq (paramarthika). Nisbiy voqelik darajasida subyekt-obyekt munosabatlari mavjud bo‘lib, dunyo ko‘plab obyektlardan iborat deb qabul qilinadi, mutlaq voqelik darajasida esa bunday turdagi hech narsa yo‘q. Odamlar dunyoni nisbiy darajada idrok etadilar, bunda hamma narsa vaqt, makon va sabablarga bog‘liq. Dunyoning xilma-xilligi uning yagona voqelikni turlicha talqin qiladigan tana, his-tuyg‘ular va ong orqali idrok etishi bilan bog‘liq. Nisbiy voqelik darajasi – mayyadir.

Mayya boshlang‘ichsiz, ongsiz, gunalardan iborat. Mayya va Brahman ikkita alohida prinsip hisoblanmaydi, balki Mayya Brahmaniga bog‘liqdir. Mayya nom va shakl sifatida Brahmaniga qo‘shilgan (adhyasa) dunyoning ko‘pligi ko‘rinishini beradi. Advaitada vaqt (kala), fazo (desha) va sabab (nimitta) bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa mayyada ekanligi ta’kidlanadi. Mayya – bu haqiqat ko‘rinadigan pardadir.

Har bir tirik jon (जीवा – jiva) ning maqsadi ozodlik holati (मोक्ष – moksha) ga erishishdir, bu shaxs Brahman (Xudo, mutlaq haqiqat) bilan o‘z Atmanini (oliy O‘zini, ruhini) anglashni nazarda tutadi. Atman insonning eng oliy ruhiy subyektiv mohiyati bo‘lib, u oxir-oqibat mutlaq borliq – Brahman bilan birlashishi kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, Svami Vivekanandaning ozodlik tushunchasi shaxsiy jihatdan jamoaviy tomonga o‘tadi. Har bir inson nafaqat shaxsiy ozodlikka intilishi, balki bunga erishishda boshqalarga ham yordam berishi kerak. Svami Vivekananda buni har bir mavjudot ozodlikka erishmaguncha, Atman va Brahman anglash baxtiga hech kim erisha olmasligi bilan izohlaydi. Agar hamma narsa bitta bo‘lsa, unda sansaradagi barcha mavjudotlar uchun ozodlik universal bo‘lishi kerak<sup>68</sup>.

Agar Atman Brahman bilan bir xil bo‘lsa, bu inson tabiatan pok, ilohiy va ozod ekanligini anglatadi. Bu haqiqatni tushunmaslikning sababi jaholatdir (avidya). Insonda jaholat qanchalik kuchli bo‘lsa, uning ilohiy mohiyatni anglashi shunchalik

<sup>67</sup> О природе Брахмана см. Веданта Сутра / Пер. с санскрита. СПб: ОВК, 1995. С.58.

<sup>68</sup> Buni o‘z vakillari barcha mavjudotlarni ozod qilishga intiladigan Mahayananing ta’siri sifatida ko‘rish mumkin.

qiyin bo'ldi. Jaholat barcha illatlar va jinoiy xatti-harakatlarning sababi bo'lib, u koinotning birligini anglashga imkon bermaydi va azob-uqubatlarga olib keladi.

Advaita Vedantada jaholatdan ozod bo'lish va uni yengishning asosiy usuli bu jnana yoga, ya'ni "bilim yo'li"dir. Birinchi bosqichda Atman va Brahmanning kimligini tushunishga intilayotgan kishi ma'lum fazilatlar va qobiliyatlarga ega bo'lishi kerak: haqiqiy va o'tkinchini ajrata olish, qo'rqmaslik, "olti mukammallik" (ko'ngil xotirjamligi, hissiyotlarni nazorat qilish, voz kechish, sabr-toqat, diqqatni jamlash, ustozga ishonch) va ozodlikka bo'lgan haddan tashqari istak. Ikkinchi bosqichda inson faqat Muqaddas Bitik (श्रुति - shruti) yordamida Atman va Brahmanning o'ziga xosligini, insonning mohiyatini va Mutlaqligini tasdiqlovchi "buyuk so'zlar" (महावाक्य - mahavakya) ning ma'nosini tushunadi<sup>69</sup>.

Svami Vivekananda ozodlikka erishishda jnana yoganing ustuvorligini tan oladi, ammo o'z davrining ijtimoiy ahvoli bilan bog'liq bo'lganligi sababli birinchi o'ringa, karma yogani qo'yadi. Jnana yoga amaliyoti birlik dunyosi uchun ko'p qirrali dunyoni rad etishni va dunyoviy faoliyatdan voz kechishni nazarda tutadi. Karma yoga esa fidokorona xizmat va mehnatdan iborat va dunyodan voz kechishni talab qilmaydi. Inson dunyoda yashaydi, zarur bo'lgan hamma narsani qiladi, lekin o'z mehnatining barcha samarasini Xudoga bag'ishlaydi. Va barcha mavjudotlar yagona va mohiyatan ilohiy bo'lganligi sababli mehnat ham, jamiyatga xizmat qilish ham Xudoga xizmat sifatida qabul qilinadi.

Atman va Brahmanning o'ziga xosligi, har bir shaxs va Xudoning muhim birligi albatta Upanishadlarda ilgari surilgan, ammo ortodoksal pozitsiyasiga ko'ra, Vedalarni o'rganishga faqat uchta yuqori kastaning erkaklariga ruxsat beriladi. Qolganning Vedalarni o'qishlari qat'iy man etiladi. Vedalar xatosiz va abadiy hisoblanadi. Bu masalada Svami Vivekanandaning pozitsiyasi boshqacha. U Vedalarni faqat ulardagi ruhiy haqiqatlarning abadiyligi ma'nosida abadiy deb hisoblaydi va ularni xatosiz ekanini tan olmaydi. Svami Vivekananda muqaddas bilimlarning hamma uchun tengligi va ommaga ochiq bo'lishi kerakligi g'oyasini himoya qiladi. U eskirgan ijtimoiy institutlarga keskin qarshi chiqadi, har bir hindni muqaddas matnlarni o'rganishga va bilishga chaqiradi.

Svami Vivekananda o'simlik, hayvon, inson yoki avliyo o'rtasidagi farq faqat ruhning namoyon bo'lish darajasida ekanligini ta'kidlaydi. Tana qanchalik qo'pol va ong qanchalik past bo'lsa, ruhning namoyon bo'lishi shunchalik kam bo'ldi; tana qanchalik nozik va ong qanchalik yuqori bo'lsa, ruhning namoyon bo'lishi ham

<sup>69</sup> Веданта Сутра / Пер. С санскр. Д. М. Рагоза – СПб: Общество ведической культуры, 1995. С.42.

shunchalik ko‘p bo‘ladi. Inson sifatida biz hayvonlar yoki o‘simliklardan farq qilamiz, lekin tirik mavjudot sifatida hammamiz birmiz. Biz hammamiz Brahmandamiz, unda hammamiz birmiz.

Bu yerda Svami Vivekananda tananing ongdan ustun kelishi bu tanada ruhning namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qilishini va ruhning namoyon bo‘lishi uchun biz tanamizni noziklashtirishimiz va ongimizni rivojlantirishimiz kerakligini ta’kidlaydi. Aynan shu jumladan biz inson dunyo lazatlaridan o‘zini tiyishi kerakligi haqidagi xulosaga ham kelishimiz mumkin. Chunki biz o‘z nafsimizni tiyish va doimiy jismoniy mehnat orqaligina biz o‘z tanamizni nozik bo‘lishiga erishishimiz mumkin. Bu o‘z navbatida ongimizni faol ishlashini ham ta’minlaydi.

Karma va reyinkarnatsiya hinduizmning an’anaviy ta’limotlaridir. Bu erda shuni ta’kidlash kerakki, Svami Vivekananda karmani o‘lim sifatida emas, balki har bir inson uchun o‘z taqdiri va kelajak hayotini qurish imkoniyati sifatida tushunadi. Karma – bu dunyoning uyg‘unligi va muvozanati uchun mas’ul bo‘lgan shaxssiz qonun mavjudligi haqidagi ta’limotdir va har qanday ongli mavjudotni jismoniy, nutqiy yoki aqliy harakatlariga muvofiq mukofotlaydi. Har bir inson o‘z hayoti uchun to‘liq javobgardir va u bilan sodir bo‘lgan vaziyatlarni o‘zi shakllantiradi. Karma bir hayotda emas, balki ko‘plab oldingi hayotlarda shakllanadi. Reyinkarnatsiya ta’limotida son-sanoqsiz hayot davomida tanaga aylanadigan o‘lmas ruh haqida so‘z yuritiladi. Karma va reyinkarnatsiya orqali odamlarning xilma-xilligi va tengsizligi tushuntiriladi. Barcha odamlar avvalgi hayotlarida turlicha tajribalarga ega bo‘lishadi, bu esa insonning hozirgi holatini belgilaydi. Svami Vivekananda irsiyat tananing jismoniy konfiguratsiyasi uchun mas’ul va o‘tmishdagi hayot xarakter va moyilliklarni shakllantiradi deb hisoblaydi. Insonning odatlari shu yoki o‘tgan hayotdagi harakatlarning takrorlanishi bilan izohlanadi.

Svami Vivekanandaning “advaita – vedanta”si amaliy ahamiyatga ega. 1896-yil noyabr oyida Londonda o‘qigan “Amaliy Vedanta” ma’ruzasida u eng amaliy din – bu mohiyati Xudo hisoblangan, butun olamning birligini tan oluvchi din eganligini ko‘rsatadi. Bu tamoyil bilan u insonning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini hamda, barcha mavjudotlarning birodarligini ta’kidlaydi. Svami Vivekananda antropomorfik xudolarni va ulardan qo‘rqishni axloqiy asos sifatida rad etadi. “Amaliy Vedanta” dunyoviy hayotdan tafakkur tomon chekinishni talab qilmaydi, aksincha, uning mohiyati ta’limotlarni har bir insonning kundalik hayotida qo‘llashdadir. “Amaliy Vedanta” tushunchasining shakllanishidagi asosiy ustun “Bhagavad Gita”dir<sup>70</sup>.

<sup>70</sup> Махабхарата. Бхагавагита / Пер. С санскр. Б.Л. Смирнова. – Ашхабат: Издательство АН ТССР, 1960. С.121.

## **XULOSA**

Isloh qilingan Vedantaning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning turli yo‘nalishlarining umumiy asosiga urg‘u berilgan bo‘lib, ular bir maqsad sari yetaklovchi qadamlar deb tushuniladi. Dualizm, cheklangan monizm va monizm ierarxik tartibda joylashgan. Bu yo‘nalishlar bir biriga qarama-qarshi emas, balki biri birini to‘ldiradi. Bunda biz turli diniy oqimlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etishga urinishni ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Svami Vivekanandaning Vedantasi isloh qilingan advaita-vedanta bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari borliqning yagonaligi, barcha odamlarning tengligi va birodarligi haqidagi g‘oyalar, qat’iy ijtimoiy ierarxiyani rad etish va turli xil odamlarni birlashtirish istagidir.

## **REFERENCES**

1. См. Костюченко В.С. Классическая веданта и неоведантизм. — М.: Мысль, 1983;
2. О природе Брахмана см. Веданта Сутра / Пер. с санскрита. СПб: ОВК, 1995;
3. Веданта Сутра / Пер. С санскр. Д. М. Рагоза – СПб: Общество ведической культуры, 1995.
4. Вишну-смитри / Пер. С санскр. Н. А Корнеевой. – М.: Восточная литература, 2007.
5. Махабхарата. Бхагавагита / Пер. С санскр. Б.Л Смирнова. – Ашхабат: Издательство АН ТССР, 1960.
6. Chattopadhyaya, Rajagopal (1999), Swami Vivekananda in India: A Corrective Biography, Motilal Banarsidass, ISBN 978-81-208-1586-5



## **ITALYAN VA NEMIS TILLARIDAGI AYRIM FRAZELOGIZMLARNING QIYOSIY TAHLILI**

**Behzod Xudoyqulov,**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

[bekhzod338@gmail.com](mailto:bekhzod338@gmail.com)

**Sayram Juraeva,**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Har bir tildagi frazeologizmlarni o'rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanadi. Frazeologik birliklar ma'lum bir tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy til boyligini aks yettiradi va ularning dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Boshqa chet tillari kabi italyan va nemis tillari ham iboralarga boy til hisoblanadi. Ushbu maqolada italyan va nemis tillaridagi ayrim iboralarning qiyosiy tahlili va semantik xususiyatlari turli misollar orqali tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Frazeologiya, frazeologizm, ibora, tarjima, ekvivalent.*

## **СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ИТАЛЬЯНСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ**

**Бехзод Худайкулов,**

Денауский институт предпринимательства и педагогики.

[bekhzod338@gmail.com](mailto:bekhzod338@gmail.com)

**Сайрам Жураева,**

Денауский институт предпринимательства и педагогики.

### **АННОТАЦИЯ**

*Фраzeологизмы – это особые выражения, устойчивые сочетания слов. Объясняя их значение, мы имеем в виду смысл всего словосочетания в целом, а не отдельных слов. Фраzeологизмы, являющиеся одними из наиболее важных и выразительных составных частей любого языка. В статье рассматриваются сравнение фраzeологизмов итальянского и немецкого языках. Теоретическая информация об фраzeологизмы основана на примерах*

**Ключевые слова:** *Фраzeология, фраzeологизмы, фразема и фраzeологизм, перевод.*

## COMPARATIVE ANALYSIS OF SOME PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE ITALIAN AND GERMAN LANGUAGES

**Bekhzod Khudaykulov,**

Teacher,

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

[bekhzod338@gmail.com](mailto:bekhzod338@gmail.com)

**Sayram Juraeva,**

Teacher,

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

### ABSTRACT

*Phraseological units are set expressions and their phraseological stability distinguishes them from free phrases and compound words. The article addresses the comparison of the phraseological units of the Italian and German languages. Theoretical data about phraseological units are discussed and analyzed with reasonable examples.*

**Keywords:** *Phraseology, phraseme and phraseologism, phraseological unit, translation.*

### KIRISH

Frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik bo'lib, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmning shakliy tomonini so'z (leksema emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'nodir. Frazeologik ma'no o'ta murakkab tabiatli, leksemada bo'lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatik ma'noga ega, xolos. Masalan, mustaqil so'z turkumiga kiruvchi frazeologizm: (burgaga achchiq qilib, ko'rpaga o't qo'ymoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq; ko'ngli bo'sh; hash-pash deguncha) denotativ ma'noga ega bo'lsa, turgan gap, shunga qaramay kabi nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi<sup>71</sup>. Har bir tilda bo'lgani kabi italyan va nemis tillarida ham frazeologik iboralar muhim tadqiqot mavzusi bo'lib, shu paytgacha ko'plab tilshunoslar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Boshqa chet tillari kabi italyan va nemis tillari ham iboralarga boy til hisoblanadi.

<sup>71</sup> Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Бокиева Г.Х., Курбонова М.М., Юнусова З.К., Абузалова М.К. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2009. – 122 б.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Frazeologizmlar turli jihatlarini bilan jumladan, tuzilishi va ma'nolari bilan farq qiladi. Ayniqsa ikki tildagi frazeologizmlarni qiyoslaganda shu kabi farqlar va o'xshashliklarni uchratishimiz mumkin. Masalan quyidagi misollar orqali nemis va italyan tillaridagi ayrim frazeologizmlarning o'xshash va farqli tomonlarini tahlil qilamiz:

*1. Nemis tilida: Er hat ins Grass gebissen – So'zma-so'z tarjimada: U o'tni tishladi; Iboraning sifatida: Dunyodan ko'z yumdi.*

**Italyanacha ekvivalenti:** (Ha morso l'erba): È morto. Yoki sinonimi: "Mordere la terra"

*2. Nemis tilida: Zuerst kommt das Fressen, dann die Moral- Bu iboraning ma'nosi: To'q qorinda miya yaxshi ishlaydi. Qorin to'q bo'lganda kallani yaxshi ishlatish mumkin.*

**Italyanacha ekvivalenti:** Prima il mangiare, poi la morale.

*3. Nemis tilida: Der Apfel fa'llt nicht weit vom Stamm-Olma daraxtdan uzoqqa tushmaydi. Ya'ni Olmani tagiga olma tushadi ma'nosida. Yoki: Farzand o'z otanasiga o'xshaydi; degan ma'noda.*

**Italyanacha ekvivalenti:** La mela non cade lontana dal tronco

*4. Nemis tilida: Man hat dir einen Ba'ren – So'zma-so'z tarjimada: Sengi ayiq ustiga bog'lagan. Iboraning ma'nosi: Seni aldadi va sen buni sezmay qolding.*

**Italyanacha ekvivalenti:** Ti hanno legato sopra un orso.

*5. Nemis tilida: Ich druckte der die Damen-Iboraning ma'nosi: Omad yor bo'lsin!*

**Italyanacha ekvivalenti:** Buona fortuna! In bocca al lupo!

*6. Nemis tilida: Ohne Fleiss kein Preis-Bu iboraning ma'nosi: Mashaqqatsiz yutuqqa erishib bo'lmaydi.*

**Italyanacha ekvivalenti:** Solo con la fatica si ottiene un risultato! Senza diligenza nessun premio.

*7. Nemis tilida: Er hat Geld wie Heue- So'zma-so'z tarjimada quyidagicha ifodalanadi: Uning pichandek ko'p puli bor. Iboraning sifatida ma'nosi: U juda boy. Pulini qayerga sarflashni bilmaydi.*

**Italyanacha ekvivalenti :** Ha soldi come fieno.

*8. Nemis tilida: Ich fuhle mich wie im siebten Himmel-O'zimni yettinchi osmonda yurgandek his qilaman. Ya'ni 'Juda baxtiyorman' ma'nosida.*

**Italyanacha ekvivalenti:** Mi sento come fossi al settimo cielo.

9. *Nemis tilida: Er ist bekannte wie ein bunter Hund-u – So 'zma-so 'z tarjimada: U itning qashqasidek tanish. Ya 'ni ibora: Uni hamma yaxshi taniydi.*

**Italyancha ekvivalenti:** È conosciuto come un cane colorato.

10. *Nemis tilida: Das passiert alle Jubiljahre einmal – So 'zma-so 'z tarjimada: Tavallud inson hayotida bir marotaba bo 'ladi. Iboraning ma 'nosi: Kamdan kam uchraydigan narsa, hodisa.*

**Italyancha ekvivalenti:** Succede una volta ogni anno giubilare.

Tarjima tilining sofligi, uning yuqori madaniyati uchun kurash adekvat tarjimalar yaratish bobidagi jonbozlik bilan mantiqan bog'lik bo'lib, barcha leksik va frazeologik birliklar xamda uslubiy vositalarning asliyatdagi darajada tabiiy jaranglashi, birinchi navbatda, ularning o'z ma'no va vazifalari xamda o'zlariga xos shakllarida ishlatilishini taqozo etadi. Leksik-frazeologik birliklar badiiy ijod tarkibida asar g'oyasini kommunikativ xamda xissiy-ta'sirchan tarzda ifoda etish uchun xizmat qilar ekan ulardan fikr maksadiga muvofiq urinli va san'atkorona foydalana bilishgina muallif nazarda tutgan ma'no va uslubiy vazifaning nutq madaniyati darajasida talqin etilishini ta'minlaydi. Birliklarning kommunikativ va uslubiy layoqatini xisobga olmasdan, ularni, asliyatdagi birliklar ta'siriga berilib, tarjima tili uchun g'ayritabiiy sharoitlarda qo'llash, aksariyat, tarjima tili madaniyati yo'l qo'ya olmaydigan birikmalarning xosil bo'lib qolishiga, ba'zan esa ma'no va vazifaning mutlaqo o'zgacha talqiniga olib kelishi mumkin<sup>72</sup>.

## XULOSA

Frazeologiyaning lisoniy fan sifatida vazifasiga til frazeologik xazinasining umumiyliigi o'rganilishi misol bo'ladi. Bu fanning asosiy tadqiq qilinadigan sohalari frazeologik birliklarning turg'unligi, kelib chiqishi va asosiy funktsiyalarini talqin qiladi. Frazeologiyaning eng murakkab tomoni bu tadqiq qilinadigan frazeologik birliklarning tarjimasi sanaladi.

## REFERENCES

1. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Х., Курбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент: 2009. – 122 б.
2. Қудрат Мусаев. “Таржима назарияси асослари: Дарслик.Т.: «Фан» нашриёти, 2005.-13 б.
3. Т.Олтiev, В.Худойқulov. “Итальян тилидаги ибораларнинг таржимаси” луг'ати. – SamDCHTI :2021.

<sup>72</sup> Қудрат Мусаев. “Таржима назарияси асослари: Дарслик.Т.: «Фан» нашриёти, 2005.-13 б.

- 
4. Xudoyqulov, B., & Jumayeva, M. (2022). FRAZEOLOGIK IBORALARNING TEMATIK VA SEMANTIK TAHLILI (ITALYAN TILIDAGI IBORALAR MISOLIDA). *Academic research in educational sciences*, 3(2), 698-706.
  5. Khudaykulov, B. (2022). Linguacultural Features of Phraseological Units in Italian Language.
  6. Xudoyqulov B.- Linguacultural Features of Phraseological Units in Italian Language - "Commonwealth Journal of Academic Research (CJAR.EU)" volume 3. Issue 1. 2022. 5 b.
  7. Xudoyqulov, B. (2021). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (italyan tilidagi iboralar misolida). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 945-951.

## ARAB TILIDAGI FORSCHA IQTIBOSLAR

**Alamov Shavkatjon**

Samarqand davlat chet tillar instituti,  
Yaqin sharq tillari kafedrası o'qituvchisi.  
Tel: +998973939944

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada arab tili tarkibiga kirib kelgan forscha so'zlar va iboralar tadqiqi nazarda tutilgan. Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, barcha musulmon xalqlarning tillarida arbcha so'zlar mavjud. Aytish mumkinki, arab tili hisobidan dunyoning ko'plab tillari o'z lug'aviy boyligini oshirgan. Ammo masalaning boshqa tomoni shundan iboratki, arab tilining o'zi ham juda ko'p so'zlarini boshqa tillardan iqtibos qilgan. Arab tilining mukammallashuvi uchun birinchi navbatda fors tilining o'rni katta bo'lgan. Bu masalaga oid bir qancha maqolalar va ilmiy asarlar yaratilgan. Bu maqolada mazkur masalaning tadqiqi va arabiylashgan bir qancha forscha so'zlarning tahlilini o'z oldimizga maqsad qilib oldik.*

**Kalit so'zlar:** Arab, fors, til, lug'at, iqtibos, ma'no, o'zak, leksika.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье речь идет об изучении персидских слов и словосочетаний, ставших частью арабского языка. Из истории языкознания известно, что арабские слова есть в языках всех мусульманских народов. Можно сказать, что многие языки мира увеличили свое лексическое богатство за счет арабского. Но другая сторона вопроса заключается в том, что сам арабский язык цитирует много слов из других языков. Роль персидского языка в развитии арабского языка была велика в первую очередь. На эту тему написано несколько статей и научных работ. В данной статье мы поставили перед собой цель исследовать этот вопрос и проанализировать ряд арабизированных персидских слов.*

**Ключевые слова:** арабский, персидский, язык, словарь, цитата, значение, ядро, лексика.

### ABSTRACT

*This article deals with the study of Persian words and phrases that have become part of the Arabic language. It is known from the history of linguistics that Arabic words are found in the languages of all Muslim peoples. It can be said that many languages of the world have increased their lexical richness at the expense of Arabic. But the other side of the issue is that the Arabic language itself quotes many words*

*from other languages. The role of the Persian language in the development of the Arabic language was great in the first place. Several articles and scientific papers have been written on this topic. In this article, we have set ourselves the goal of exploring this issue and analyzing a number of Arabicized Persian words.*

**Keywords:** Arabic, Persian, language, dictionary, quotation, meaning, core, vocabulary.

## **KIRISH**

Arabcha soʻzlarning butun dunyo boʻylab tarqalganligi va dunyoning deyarli barcha tillarida arabcha soʻzlarning mavjudligi oʻz shubhasizdir. Xususan Islom dinini qabul qilgan xalqlarning tilida sanoqsiz arabcha soʻzlar va iboralarni koʻrishimiz mumkin. Ammo arab tili tarkibida ham juda koʻp iqtibos qilingan begona soʻzlar mavjud. Arab tili juda katta miqdordagi begona soʻzlarning oʻzlashganligi natijasida oʻz lugʻaviy tarkibini boyitgan. Bu albatta turli bahslarga sabab boʻladigan ilmiy masala hisoblanadi. Arablarning uzoq yillar davomida amalga oshirgan harbiy yurishlari natijasida arabcha soʻzlarning tarqalgani bilan birga begona soʻzlar ham arab tili tarkibiga kirib kelishiga sabab boʻlgan. Qadimdan arab xalqi bobulliklar, misrliklar, yunonliklar va forslar bilan yonmayon yashaganlar va doimiy ravishda ular orasida har tomonlama aloqa boʻlib turgan. Arablar turli qabilalardan iborat boʻlgan tarqoq xalq edilar. Bu qabilalar oʻz yashash hududlariga yaqin boʻlgan xalqlar bilan doimiy robitada boʻlib turganlar. Buning natijasida arablar boshqa millatlar tillaridan koʻplab soʻzlarni oʻz tillariga oʻzlashtirdilar. Aytish joizki, arab tiliga iqtibos boʻlgan soʻzlarning asosiy qismi fors tilidan olingan. Faqatgina forslar bilan hamsoyalikda yashaydigan qabilalar emas, balki boshqa qabilalar ham fors tilidan sanoqsiz soʻzlarni oʻzlashtirdilar. “Kitob ul-bayon vat-tabyin” asarida shunday maʼlumot keltirilgan: “Bir guruh eronliklar Madinaga kelib joylashdilar va Madinadagilar ularning tilidagi bir qancha soʻzlarini oʻzlashtirdilar”<sup>73</sup>.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Maqolada iroqlik tilshunos olim Assayid Addisherning “Arabiylashgan forscha soʻzlar” asaridan asosiy manba sifatida foydalanildi. Ushbu asar milodiy 2008 yili eronlik olim Sayid Hamid Tabibiyon tomonidanforschaga tarjima qilingan. Asarning ushbu tarjimasi ham mavzuni tadqiq etish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi. Begona soʻzlarning arab tili tarkibiga kirib kelganligi xususida koʻplab ilmiy ishlar olib borilgan va maʼlum darajada oʻrganilgan. Misrlik tadqiqotchi olim Ahmad Muhammad al-Havfiy 1960 yili arab tilidagi forscha soʻzlar mavzusiga oid ikkita

<sup>73</sup> السيد ادی شیر. واژه های فارسی عربی شده. ص. ۱۰.

kitob yozgan. Bu kitoblarning birinchisi التيارات المذهبية بين العرب و الفرس، الدار القومية (Arablar va eronliklar o'rtasidagi diniy jarayonlar) va ikkinchisi التيارات ثقافية بين العرب و الفرس، دار نهضة مصر، (Arablar va forslar o'zrtasidagi ilmiy jarayonlar)<sup>74</sup>. Havfiy ushbu kitoblarida arablar va eronliklarning johiliyat davri va undan keyingi davrlardagi har tomonlama aloqalarini mufassal yoritib bergan va arab tilidagi insoniyat hayotining turli tamoillariga xos bo'lgan sohalarga oid forscha so'zlarni tadqiq qilgan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Begona so'zlar arab tiliga uning uzoq rivojlanish yo'li davomida kirib kelgan. Efiopiya, ibroniy, o'rta ossuriya, nabatiy, yunon, fors va boshqalar kabi turli tillardan olingan oz miqdordagi qarzlar Qur'onda allaqachon qayd etilgan. Arab tilining o'zi manba til vazifasini bajargan nisbatan uzoq davr (VIII-XIII asrlar) bo'lgan. Bunga arab sivilizatsiyasi tarixi, uning Osiyo, Afrika va Yevropaning ko'plab xalqlari madaniyati bilan chambarchas bog'liqligi sabab bo'lgan. Bu aloqa islom dini qabul qilingandan keyin yanada mustahkamlandi. Arab tilining boyib borishida qadimda fors tilining o'rni katta bo'lgan.

Misrlik tadqiqotchi olim Ahmad Muhammad al-Havfiyning ta'kidlashicha arab tili tarkibida urush, qurol-aslaha, til, adabiyot, xat, doston, turli o'yinlar, bayramlar, ichkilik va yegulik kabi ko'plab sohalarga oid so'zlar va so'z turkumlari mavjud.<sup>75</sup>

Ta'kidlash joizki, arablar begona so'zlarning ma'lum bir qismini shaklini o'zgartirmasdan qabul qilganlar va ba'zilarini esa qisman o'zgatirganlar. Ammo begona tillardan kirgan so'zlarning asosiy qismini shakl jihatidan shu darajada o'zgartirganlarki, ularning asl shaklini topish katta qiyinchilik tug'diradi. Shu boisdan arab tili tarkibidagi begona so'zlarni izlash va tadqiq etish tilshunoslikdagi eng murakkab ishlardan biri hisoblanadi.

Arab tilidagi begona so'zlarning shaklan o'zgarishiga qo'yidagi jihatlar sabab bo'ladi:

1. So'zlarning boshi yo o'rtasidagi va yo oxiridagi ba'zi harflar tushib qoladi;
2. Begona so'zlar tarkibiga so'z va tovushlar qo'shiladi;
3. Begona so'zlardagi ba'zi hprflar o'rniga boshqa harflar ishlatiladi.
4. Begona so'zlarning oxiriga "jim" yo "qof" harflari izofa qilinadi. Bu holatni asosan "hoye havvaz" harfi bilan tugaydigan so'zlarda ko'rishimiz mumkin. Masalan, "gurba" (mushuk) so'zi "qurbaj" yoki "qurbaq" talaffuz qilinadi.

<sup>74</sup> <https://ar.wikipedia.org/wiki/%D9%85%D8%B5%D8%B1>

<sup>75</sup> التيارات ثقافية بين العرب و الفرس، دار نهضة مصر، ١٩٦٨



5. Ba'zan begona so'zlarning shakli unchalik o'zgartirilmagan tarzda muarrab qilinadi. Bu turdagi so'zlar talaffuz jihatidan asl shakliga o'xshash. Masalan, "Gavhar" so'zi "Javhar" talaffuz qilinadi.

6. Begona so'zlar ichida fe'llar ham juda ko'p bo'lib, ular arabcha fe'llarga o'xshash tarzda talaffuz qilinadi. Masalan, forscha "ko'shidan" (harakat qilmoq) fe'li "kosha" va "yakushu" shakllarida ishlatiladi.

Yana bir narsani aytish joizki arab tilida mavjud bo'lmagan to'rtta tovush "p", "ch", "j" (jurnal so'zidagi "j") va "g" bir qator so'zlarning shakl va talaffuz jihatidan o'zgarishiga sabab bo'ladi. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarda bu harflar o'rniga talaffuz jihatidan yaqinroq bo'lgan harflar ishlatiladi.

Arab tili tarkibidagi sanoqsiz forscha so'zlarning bir nechtasini namuna sifatida keltiramiz:

الابريق - Al-ibriq so'zi aslida forscha آبريز - obrez so'zidan olingan. Ibriq deganda aslan ikki dastali ko'za shakliga o'xshash idish tushuniladi va undan suv to'kiladi. Obrez so'zi esa ikkita so'z – ob(suv) va rez(to'kmoq) so'zlaridan tarkib topgan murakkab so'z hisoblanadi.

الابل - Al- obil so'zi forscha ابر -abr so'zidan olingan. Turkiy tillarda bu so'z bulut deb aytiladi. Rus tilidagi "oblako" so'zi ham shaklan o'xshash. Kurd tilida esa "habar" deyiladi. Ko'rinib turganidek hin yevropa tillar oilasiga kiradigan tillardagi shakli bir birlariga o'xshash.

الاستاذ - al-ustaz so'zi forscha استاد -ustod so'zining muarrab bo'lgan shaklidir. O'zbek tilida keng ishlatiladigan "ustoz" so'zi ham forscha "ustod" so'zining o'zgargan shakli bo'lib, ma'no jihatidan o'zgarmagan. O'zbek tilidagi hunarmand ma'nosini aynglatuvchi "usta" so'zi ham mazkur so'zning shaklan o'zgargan variantidir. "Usta" so'zi turk va kurd tillarida ham juda keng ishlatiladi.

الايوان - al-ayvan so'zi ايوان -ayvon so'zidan olingan va bu so'zning o'zi fors tiliga oromiy tildan ko'chib kelgan. Oromiy tildagi shakli "aivana" bo'lib, uning ma'nosi boshpana topish yoki berkinish. O'zbek tilidagi "uy" so'zi va turk tilidagi "ev" so'zi ham shaklan bu so'zga o'xshaydi va ma'nosi jihatidan ham o'xshash. Demak bu so'zlar ham qadimgi oromiy tildagi "aivana" so'zidan kelib chiqqan deb xulosa qilishimiz mumkin.

بدرق و بدرق - badraq va bazraq so'zlari arab tilida korvonlarni xavf xatardan qutqarish, posbonlik qilish, korvon yo'lidagi qaroqchilardan emin saqlash ma'nosini anglatadigan so'zlar hisoblanadi. Bu so'zlarning ikalasi ham forscha بدره -badroh (rohi bad – yomon yo'l) so'zidan olingan.

البَطّ –al-bat so‘zi arab tilidagi forscha بَتّ-bat so‘zining muarrab bo‘lgan shaklidir. بَتّ-bat so‘zining asl ma‘nosi o‘rdak (suvda yashaydigan qush), ammo shishadan yasalgan suv idishi ham “بَتّ bat” deyilgan. Chunki bu idishning shakli o‘rdakning ko‘kragiga o‘xshaydi. Yunon tilidagi “fatta” yo “butis” va rus tilidagi “butilka» so‘zlari ham aynan forscha “بَتّ-bat” so‘zidan olingan.

البلاس-albalas so‘zi forscha پلاس-palos so‘zidan olingan. Bu so‘zdagi “p” harfi arab tilida mavjud emasligi sababli unga tovush jihatidan o‘xshash bo‘lgan “b” harfi almashgan. Palos so‘zi o‘zbektiliga ham fors tilidan iqtibos bo‘lgan.

Arab tilida الخُرُوخ-al-jurux degan so‘z bor va bu so‘z toshni aylantirib otadigan urush quroli ma‘nosini ifoda etadi. الخُرُوخ-al-jurux so‘zi forscha چرخ-charx so‘zidan olingan. Charx so‘zining ma‘nosi aylana yoki aylanishdir. E’tibor bersak ikkala so‘zning ham shakl va ham ma‘no jihatidan bir-biriga o‘xshashligiga guvoh bo‘lamiz. Charxi falak deganda osmon va aylanib turgan yulduz hamda sayyorala tushuniladi. Ushbu so‘z o‘zbek tilida ham ishlatiladi.

الخنّار-Al-junnar so‘zi forscha چنار-chanor so‘zidan olingan. Bu so‘z arab tilida با‘زان-sinar ham deyiladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Fors tilidan olingan iqtiboslar ingliz tiliga ham ko‘p jihatdan kirdi. Fors tilining qadimgi dunyoda keng tarqalishi arab, urdu (yoki hind), turk, yunon kabi tillar tomonidan forscha so‘zlarni o‘zlashtirishga olib keldi. Forslar bilan savdo-sotiq orqali forscha so‘zlar italyan, ispan, portugal va fransuz tillariga o‘tgan. Bu tillarning barchasidan forscha so‘zlar tarixning tegishli davrlarida ingliz tiliga kirib kelgan. Fors tilidan g‘arb tillarigat to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirishlar 15-asr oxiridan boshlangan.

Mazkur masalani mukammal o‘rganish barcha musulmon xalqlar uchun muhim deb bilamiz. Chunki arab va fors tiddaridan o‘zlashgan so‘zlar barcha turkiy xalqlar va boshqa musulmon xalqlar tillarida mavjud. Mazkur mavzuning tahlili eng avvalo ko‘plab so‘zlarning etimologik jihatini o‘rganish uchun muhim vosita bo‘la oladi.

## **REFERENCES**

1. لألفاظ الفارسية المعربة قاهره. ۱۹۸۸
2. السيد ادى شير. واژه های فارسی عربی شده. ص. ۱۰.
3. التّیارات ثقافیه بین العرب و الفرس، دار نهضة مصر، ۱۹۶۸
4. Shavkat Rahmatulloyev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati I jild , 2000, Toshkent, “Universitet”.

- 
5. Shavkat Rahmatulloyev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati II jild, 2003 Toshkent, “Universitet”.
  6. Shavkat Rahmatulloyev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati III jild , 2009 Toshkent, “Universitet”.
  7. <https://ar.wikipedia.org/wiki/%D9%85%D8%B5%D8%B1>

## **FRAZEOLOGIK IBORALARNING O'RGANILISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR**

**Behzod Xudoyqulov**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

[bekhzod338@gmail.com](mailto:bekhzod338@gmail.com)

**Ruziboyeva Dildora**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur tadqiqot ishida ma’lum kamchiliklar ham mavjud. Xususan, kurashchilarning musobaqadan keyingi psixologik holati tadqiqot jarayonida o‘rganilmadi. Shuningdek, kurashchilar musobaqa oldi va musobaqa jarayonidagi psixologik holat va uning gormonal faktorlar bilan aloqadorligi masalasi tadqiq etilmadi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, milliy darajadagi kurashchilarda musobaqa oldi xavotir holati va tashvishlanish xalqaro klassdagi kurashchilarga nisbatan yuqori bo‘lar ekan. Bu o‘z navbatida milliy toifadagi kurashchilarning musobaqa oldi psixologik tayyorgarligini optimallashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Musobaqa oldi xavotirlanish va tashvishlanish milliy toifadagi kurashchilar uchun asosiy to‘siq bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida yana shu narsa aniqlandiki, ayol kurashchilarda ham musobaqa oldi va musobaqa davomidagi havotir holati yuqori ekan. Mazkur natijalar bevosita ayollar bilan alohida yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish, xususan, psixologik tayyorgarlikni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

## **Tadqiqotning kelgusi istiqbollari**

Kurash bo'yicha bugungacha chuqur ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilmagan. Kelgusida kurashchilar psixologik tayyorgarligi va texnik-taktik mahorat darajasining o'zaro aloqadorligini, shuningdek, musobaqa oldi psixologik holatida gormonal o'zgarishlar muammosini o'rganish maqsadga muvofiq.

## **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4881 "Kurash Milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora - tadbirlari to'g'risi" da Qarori. 2020-yil 4-noyabr.
2. Yusupov, K. (2005), International Kurash rules, technique and tactics, Tashkent., "Gafur Gulom", pp. 132. [in Uzbek].
3. Khaitov O., Abdulakhatov A., Norboyev K., Kulbulov F., Azamkhonov O., Ahmedov F. (2020), Kurash: history, theory and methodics, Monograph, Shawnee, USA; pp. 52; DOI.10.37057/M\_9.
4. Ахмедов Ф. (2020). Мусобақа олди тайёргарлигининг дзюдочилар психологик ҳолатига таъсири. фан-спортга, (4), 76-78.
5. Frame, M., & Reichin, S.L. (2019). Emotion and sport performance: Stress, anxiety, arousal, and choking.
6. Ulugbek Zokirov. Individual Features Of Development Of Information And Communicative Competence In Masters Of Higher Pedagogical Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. № 3 (3), 486-491. (2021). <https://usajournalshub.com/index.php/tajssei/article/view/2423/2314>
7. Зокиров У.М. "Эркин курашчиларнинг умумий ва махсус жисмоний тайёргарликларини такомиллаштириш усуллари". The journal of academic research in educational sciences. № 1 (2), 306-314. (2020).
8. Tudor O. Bompa., Boris Blumenstein, Janes Hoffmann, Scott Howell, Iris Orbach. (2019). Integrated Periodization in Sport Training & Athletic Development.
9. Ahmedov, F. (2020). Дзюдода тик туриб ва партерда қўлга киритилган баҳолар ва уларнинг сабаблари. физическое воспитание, спорт и здоровье, (1).
10. Axmedov F.Q, Abdulaxatov A.R. "O'zbek kurash milliy va umuminsoniy qadriyatlar durdonasi". Toshkent. 2017 yil.
11. Abdulaxatov A.R. Oliy ta'lim muassasalari talabalariga kurashning tarbiyaviy ahamiyatini o'rgatish yo'llari. Mug'allim hem uzluksiz bilimlendiri'y. Ilimiy metodikaliq jurnali. 2020 y. 148-151 betlar.

12. Abdulaxatov A.R. Kurashni qadriyat sifatida o'rganish zamon talabi. Pedagogik mahorat jurnali. № 2 (aprel, 2019) Buxoro.
13. Abdulaxatov A.R. Jumadurdiev b.x. jo'raboev m.m. Wrestling is the most effective tool for educating the younger generation to be physically healthy and mentally mature. Journalnx- a multidisciplinary peer reviewed journal. volume 7,1, jan. 2021.
14. Абдулахатов. А.Р., Худойбердиев Ғ.Б. Педагогик таълим инновацион кластерини узликсиз таълим тизимида ташкил қилиш мазмуни. Резервдаги ва захирадаги оғецерларни тайёрлаш тизимини ривожлантиришда инновацион ёндашув. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Фарғона 2021 йил.
15. Абдулахатов. А.Р ва бошқалар. Ёшларни тарбиялашда спорт, маънавият ва кадриятлардан фойдаланишнинг самарадорлиги. Мактаб ва хаёт .№2(158) 2021 йил.
16. Зокиров У.М. “Совершенствование тренировочного процесса студентов факультета физической культуры специализирующихся в спортивной борьбе” маг. Диссертация ФерГУ 2020 г. 25,26,27,28.
17. Зокиров У.М., Каримов Т.Р. “Бошланғич синф ўқувчиларини жисмоний тарбиялашда ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш усуллари”. The Journal Of Academic Research In Educational Sciences. № 2 (2), 583-590. (2021).
18. Зокиров У.М., Каримов Т.Р. “Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларини жисмоний тарбия дарсларида миллий ҳаракатли ўйинларни бажариш орқали жисмоний тайёргарлигини ривожлантириш”. The Journal Of Academic Research In Educational Sciences. № 2 (4), 1166-1171. (2021).
19. Зокиров У.М., Курбанова П.С. “Олий таълим муассасалари талабаларида соғлом турмуш тарзини ривожлантириш”. The journal of academic research in educational sciences. № 2 (5), 150-155. (2021).
20. Абдулахатов. А.Р, Яхшиева М, Кураш как основа духовного воспитания студунческой молодёжи. Молодой учёный научный журнал. Россия. 2015/9
21. Абдулахатов. А.Р, Яхшиева М, Бурибоев Б.А .Образование, развитие и физическое воспитание в дидактических процессах. Образование и воспитание. Международный научный журнал. 1/2016 год
22. Abdulaxatov A.R, Xudoyberganov. J.S Technique of improving the technical and tactical skills of national wrestlers. Asian Journals of Multidimensional Research 44-47 бетлар .Yanvar 2020 йил. INDIA 2020

23. Адизов.Б.Р, Худойберганов, Абдулахатов А.Р, Ж.С,Юсупбаева. А.С.Мирахматов. The Practical State of Teaching Physical Education in Higher Education Institutions. TEST Engineering & Management Америка Колифорния штати. Том. 83: 628-631 бетлар May/June 2020 йил
24. Абдулахатов А.Р Ахмедов.Ф.Қ ,Ахмедов.Ф.Ш. Анализ соревновательной деятельности квалифицированных дзюдоистов по весовым категориям. Ученые записки университета имени 33-37 бетлар.П.Ф. Лесгафта. – 2020 йил
25. Abdulaxatov A.R, Xudoyberganov.J.S Wrestling sports is an invaluable education instrument. Монография журналы.Польша 2020 йил 28-31 бетлар
26. A.R Abdulaxatov, A.I Sultonov .Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy-madaniy munosabatlarni shakllantirish (kurash misolida) - Maktab va hayot, 2020
27. A.R Abdulaxatov, J.S Xudoyberganov Scientific and pedagogical ways to instill in students the national and universal values through “kurash”. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 2020
28. А.Р Абдулахатов Олий таълимида кураш спортини уқитишнинг амалиётдаги ҳолатини ургатиш хусусида. Малака ошириш тизимида спорт буйича, 2020. 195-197
29. А.Р Абдулахатов, Ж.С Худойберганов, М.Э Курбонова Образовательный кластер-как ресурс инновационного развития региона. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў, 2020
30. Хонкелдиев Ш.Х., Закиров У.М., Меликузиев А.А. Эффективность разработанной методики повышения физической подготовленности юных борцов вольного стиля. Наука сегодня вызовы и решения материалы международной научно-практической конференции.№1(1), 164-168. 2020.
31. Зокиров У.М. “Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов курашистов при моделировании соревновательной деятельности”. Мамлакатимиз олий таълим тизимида жисмоний маданият таълимини модернизациялаш стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари 2019. 82-85.

## **DAVLAT BOSHQARUVIDA MA'MURIY ORGAN SIFATIDA MAHALLALARNING O'RNI**

**Erniyazov Djamshid Eshdavlatovich**

Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi

Ommaviy-huquqiy fanlar kafedrası o'qıtuvchisi

Termiz, Surxondaryo, O'zbekiston

E-mail: [d.erniyazov@gmail.com](mailto:d.erniyazov@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada davlat yuboshqaruvida o'z-o'zini boshqarish organlarining ma'muriy organ sifatidagi o'rni, shuningdek ularning tarixiy shakllanish jarayonlari, huquqiy asoslari hamda bugungi kundagi huquqiy statusi tahlil qilingan. Bunlan tashqari xalqaro hamda xorijiy doirada davlat boshqaruv organlari hamda o'z-o'zini boshqaruv organlarining faoliyatiga oid normativ-xujjatlar tahlili bilan birgalikda yetuk tajribaga ega bo'lgan ekspertlarning fikrlari aks ettirilgan.*

**Kalit so'zlar:** davlat boshqaruvi, ommaviy munosabatlar, mahalla, o'z-o'zini boshqaruv organlari, ma'muriy organ

## **РОЛЬ МАХАЛЛИ КАК АДМИНИСТРАТИВНОГО ОРГАНА В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ**

**Эрниязов Джамшид Эшдавлатович**

Сурхандарьинский областной юридический техникум

Преподаватель кафедры публично-правовых наук

Термез, Сурхандарья, Узбекистан

E-mail: [d.erniyazov@gmail.com](mailto:d.erniyazov@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проанализировано место органов местного самоуправления в государственном управлении в качестве административных органов, а также процессы их исторического формирования, правовые основы и правовой статус на сегодняшний день. Кроме того, отражены мнения экспертов, имеющих достаточный опыт работы в международных и зарубежных кругах в сочетании с анализом нормативно-правовых актов, касающихся деятельности органов государственного управления и органов самоуправления.*

**Ключевые слова:** государственное управление, общественные отношения, махалля, органы самоуправления, административный орган

## THE ROLE OF THE MAHALLA AS AN ADMINISTRATIVE BODY IN PUBLIC ADMINISTRATION

**Erniyazov Jamshid Eshdavlatovich**

Surkhandarya Regional Law College

Lecturer of the Department of Public Law Sciences

Termez, Surkhandarya, Uzbekistan

E-mail: [d.erniyazov@gmail.com](mailto:d.erniyazov@gmail.com)

### ABSTRACT

*This article analyzes the place of local self-government bodies in public administration as administrative bodies, as well as the processes of their historical formation, legal foundations and legal status today. In addition, the opinions of experts with sufficient experience in international and foreign circles are reflected in combination with the analysis of normative legal acts concerning the activities of public administration and self-government bodies.*

**Keywords:** *public administration, public relations, mahalla, self-government bodies, administrative body.*

### KIRISH

Yurtimizda azal-azaldan mahalla tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning turmush va tafakkur tarzini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashda uning o'rnini va ahamiyati beqiyos. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatni qurishni o'z oldiga maqsad qilib olgan respublika bu borada ko'plab islohotlarni amalga oshirib keldi. Islohotlarning amalga oshirishda esa davlat hokimiyati organlari faoliyatini markazlashtirishdan, nomarkazlashtirishga o'tkazishga asosiy ahamiyat qaratildi. O'z navbatida, boshqaruvning nomarkazlashuvi mahalliy boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etdi. Boshqaruvning quyibo'g'ini bo'lgan mahalla fuqaroyig'inlari faoliyatini yanada jonlantirishda avvalo fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga keng jalb etish, undagi faol ishtirokini ta'minlash asosiy maqsadga aylandi. Bu esa demokratik institutlarning rivojini xarakterlovchi muhim mezondir.

Jamiyatda aholi huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan bu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, huquqiy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Zotan



mamlakatimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan aholining huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati darajasiga bog'liqdir. Shaxsning siyosiy-huquqiy faolligi, uning chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi davlatimiz o'z oldiga qo'ygan buyuk maqsadlarga erishishining muhim omilidir.

Ta'kidlash joizki, shaxs huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida turli xil sub'ektlar, xususan, oila, maktab, mahalla, jamoatchilik tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlari faol ishtirok etadilar. Shu jihatdan olganda, yuqorida qayd etib o'tilgan sub'ektlar o'rtasidagi bu boradagi hamkorlik masalalarini tahlil etish va bu boradagi mavjud muammolar yuzasidan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kunda oila, jamiyat, huquqiy madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy fanlarning vakillari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda uch asosiy omil: oila–mahalla–ta'lim muassasalari hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadigan insonlar, ya'ni oilada ota-onalar, mahallada qo'ni-qo'shni va keng jamoatchilik, ta'lim muassasasida o'qituvchi va murabbiylar kelgusi avlod barkamolligi yo'lida o'g'ilqizlarimizning ulug' ajdodlarimizga munosib bo'lishlari uchun mas'uldirlar.

Ma'lumki, "mahalla" atamasining kelib chiqishi uzoq tarixga ega bo'lib, u arabcha "mahallun" so'zidan kelib chiqqan, o'zbek tilida "joy" ma'nosini anglatadi. Mahalla nafaqat tarix, balki bugungi va ertangi kunimizni ham tutashtirib turuvchi maskan bo'lib, mahalla milliylikimiz timsoli hamda qadriyatlar va urf-odatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi ijtimoiy makon sifatida, o'zligimizni anglashga, milliy g'urur va vataparvarlikni yuksaltirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda fuqarolar o'zini o'zi boshqarishning noyob usuli–mahalla instituti azaldan chinakam milliy qadriyatlar, ezgu amallar maskani bo'lgan. [1]

Xalqimiz hayotida mahalla azaldan ma'lum bir hudud ahlining ijtimoiy hamkori bo'lib kelgan. Shu ma'noda, o'zini o'zi boshqarish organi bo'lgan mahallaning maqomini ijtimoiy hamkorlik tamoyillari asosida kengaytirish bo'yicha huquqiy me'yorlar ishlab chiqilmoqda. Ijtimoiy hamkorlik mahalla institutiga o'zini o'zi nazorat qilish imkoniyatini beribgina qolmay, balki hudud obodligini yaxshilash uchun shart-sharoit yaratadi.

Birgina so'nggi besh yilda yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi hamda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari,

mahallalar hamda ulardagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga oid 20 ga yaqin nizom qabul qilinib, ijtimoiy hayotga tatbiq etildi.

Shuningdek, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari hamda "Mahalla" ma'rifiy teleradiokanali tashkil etildi.

Hozirgi kunda yurtimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig'inlari tomonidan ilgari mahalliy davlat hokimiyati organlariga taalluqli bo'lgan 30 dan ziyod ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik vazifalar muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida oxirgi besh yil mobaynida fuqarolar yig'inlarining 1600 ga yaqin xizmat binolari joriy, 367 tasi kapital ta'mirlandi va 350 dan ziyodi rekonstruksiya qilindi, namunaviy loyihalar asosida 216 ta bino yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi. [2]

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni fuqarolar 52 o'zini o'zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni samarali hal qilishdagi rolini oshirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqini ro'yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy choratadbirlarni belgilab berdi.

Ilmiy maqolani tayyorlashda umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik va amaliyot materiallarini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

2017-yil 3-fevral kunidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalla institutini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi Farmonida mahalla institutini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig'ini Kengashi tarkibiga fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosarlarini (fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilarini), hududdagi profilaktika inspektorlarini, ta'lim muassasalari va qishloq vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) rahbarlarini kiritish va ularning o'z faoliyati yuzasidan yilning har

choragida fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ga hisobot taqdim qilishlari amaliyotini joriy etish belgilab qo'yildi.

2019-yil 2-aprelda qabul qilingan "Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon esa fuqarolar yig'inlarining uyma-uy yurib aholi muammolarini aniqlab, og'irini yengil qilish borasida davlat idoralari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini va hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan hamkorligini kuchaytirish, moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash hamda soha xodimlari mehnatini munosib baholash yuzasidan aniq chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Mamlakatimizda so'ngi yillar davomida muttasil o'zgarishlar, bunyodkorlik va izlanishlar jarayoni ketmoqda. Yuzdan ortiq millatlar vakillarini o'zida birlashtirgan xalqimiz umumiy g'oya atrofida o'z istiqbolini ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda qo'rmqda. Bu maqsadga erishishda ijtimoiy adolat va demokratiya asosiy yo'nalishni belgilab berib, o'z mohiyatiga ko'ra uzviylik va uyg'unlik kasb etmoqda. Darhaqiqat, demokratiyani jamiyatning barqaror rivojisiz tasavvur etib bo'lmaganday, ijtimoiy adolat qoidalarisiz fuqarolik jamiyatining muttasil rivoji haqida so'z yuritib bo'lmaydi.

Shu ma'noda, ijtimoiy adolat demokratiya uchun zamin yaratadi, ya'ni jamiyatda adolat qancha ko'p bo'lsa, demokratiya ham shuncha ko'p bo'ladi. Hozirda mahallalar zimmasiga ijtimoiy himoya vazifalarining yuklanganligi o'zini oqlamoqda. Ammo, bu sohada muammolar ham yo'q emas. Mahalladagi kishilar turmush tarzi va darajasiga bu muammolarning ta'siri ma'lum, ammo mahallalar ko'proq moddiy jihatdan erdam ko'rsatish bilan cheklanib, ijtimoiy va oilaviy muammolarni hal etishda yetarlicha faollik ko'rsatmayaptilar. Natijada, fuqarolarning mahallaga, uning imkoniyatlariga ishonchi ko'ngildagiday emas. Fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish ijtimoiy hamkorlikni ta'minlashning muhim yo'nalishi ekanligiga guvoh bo'lgach, yana bir muhim muammoni aytib o'tish o'rinlidir. Bu ham bo'lsa, shahar bilan qishloq hayoti o'rtasidagi farq. Gap shundaki, qishloq va shahar aholisining turmush darajasi va hayot sifati haqida so'z yuritganda, ularni bir o'lchovga solish noo'rindir. Qishloq aholisining ijtimoiy harakatchanligi sust bo'lgani holda, qishloqlarda bandlik sig'imi tor va bir xil, ya'ni qishloq infratuzilmasi yetarli darajada shakllanmagan.

Bu muammo, ijtimoiy sohada amalga oshirilaётgan islohotlar sharoitida har tomonlama diqqat markazida bo'lishga molikdir. Bu haqdafikr yuritganda, ayni

paytda jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko‘zlangan maqsad «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun», degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb etishini ta’kidlash lozim. Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilgani va 2017-yildan buyon amalda tatbiq etilayotgani bu borada alohida o‘rin tutadi [4].

Harakatlar strategiyasi negizida yurtimizda davlat va jamiyatning taraqqiyotida strategik rejalashtirish tizimi yaratilib, aholi turmush tarzi sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. E’tiborli tomoni shundaki, jamoatchilik nazorati bir necha yo‘nalishlarda tashkil etilgan. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgari gidek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari –mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o‘rin egallaydi, deb ishonamiz” [3].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat organlari o‘z faoliyatidan jamoatchilikni doimiy ravishda xabardor qilib turishi, fuqarolarning turli so‘rov va murojaatlariga o‘z vaqtida, aniq javob qaytarishi belgilab qo‘yildi. Shu bilan birga, jamoatchilik nazorati yo‘lga qo‘yildi. Hududlarda fuqarolar mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, turli yig‘inlar, uchrashuvlarda, jamoatchilik eshituvlari orqali mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotida daxldorlik tuyg‘usini his etib, o‘z taklifi va tanqidiy fikr-mulohazalarini erkin bayon qilmoqdalar. Natijada, joylarda turli darajadagi muammolar ochiq-oshkora o‘rganilib, aniqlangan kamchilik va nuqsonlar samarali bartaraf etilmoqda.

Muayyan hududni obod va farovon qilish, uni kompleks rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejalarini tasdiqlash, to‘ylar va boshqa marosimlarni o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar berish mahalla oqsoqollari vazifalariga kiradi. Umumiy foydalaniladigan joylarni ta’mirlashdan tortib, ahloqiy tarbiyagacha bo‘lgan muhim ishlarni ham mahalla bajara oladi. Xalqimizning qadimiy demokratik an’analari ham mahallada o‘rin topgan. Binobarin, mahalladagi aksariyat oqsoqollar, ko‘zga ko‘ringan muysafidlar o‘z mahallasining turli muammolarini ijobiy hal qilishda faol ishtirok etadi. Mahallalardagi xotin-qizlar qo‘mtalari faoliyati ham bundan mustasno emas. Aholi ana shu tarzda haqiqiy va ham dunyoviy masalalarni birgalikda hal qilib kelmoqda. Bu jamiyatimizdagi ijobiy hodisa, albatta [5].

Ana shu xususiyatlari bilan mahalla o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmasi sifatida oiladan fuqarolik jamiyatiga o‘tish uchun o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi.

Bunday oraliq bog'lovchi tuzilma, o'z navbatida. fuqarolik jamiyatini barpo etishga ko'maklashadi. Aynan shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasini ishlab chiqishda fuqarolarimiz yuksak faollik, o'z grajdanlik pozitsiyasini namoyish etgani boisi ham aslida shunda.

Binobarin, HarakatlarStrategiyasining1-Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini yanada isloh qilish vazifalarini o'z ichiga olib, uning 3-bandida Mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirish belgilabo'tilgan.Hududlardagijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga ko'maklashish, guzarlar, bolalar maydonchalarini barpo etishga doir masalalar fuqarolar yig'inining asosiy faoliyati hisoblanishi mahallaning mavqeini yanada oshiradi. Albatta, fuqarolik jamiyatini shakllantirish barkamol avlodni tarbiyalash bilan birga qo'shib olib borilishi zarur.Bugungi kunda mahallani aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini kuchaytirish eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Bu – «kuchli davlatdan –kuchli fuqarolik jamiyati sari», degan tamoyilni hayotimizga yanada kengroq joriy etishni anglatadi. Shu bois, «fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» gi Qonunga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilib, 2013-yil 22-aprelda yangi tahriri tasdiqlandi [7].

Bu yerda, asosiy e'tibor, mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlash bilan bir qatorda, ularning jamiyatdagi faolligini oshirish, aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash sohasidagi ishlarining samaradorligiga qaratilmoqda.Yosh avlodni tarbiyalash, asosan, eng avvalo oilada, maktabda va mahallada olib boriladi. Darhaqiqat, mahalla instituti eng katta tarbiya dargohidir.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi asosida ishlab chiqilib, 2015-yil 1-yanvardan kuchga kirgan "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida" gi Qonun [6] alohida ahamiyat kasb etdi. Zero, mazkur qonun, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal qilish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini muhofaza etishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash hamda tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy sheriklik nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarining

barcha jihatlarini o‘zida qamraydi. Buni mazkur qonunning ijtimoiy sheriklik sohalarini belgilab beruvchi 5-moddasi misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Ushbu moddaga ko‘ra, jumladan, ijtimoiy sheriklik millatlararo, madaniyatlararo totuvlik va fuqarolar totuvligi g‘oyalarini mustahkamlash, ko‘p asrlik, an‘anaviy ma‘naviy-ahloqiy hamda tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash sohasida ham amalga oshirilishi mumkin [8].

Ijtimoiy sheriklik munosabatlari, biz uchun, yangilik emas. Negaki, mamlakatimizda davlat hokimiyati organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida muayyan masalalarni hal qilishda o‘zaro hamkorlikning o‘ziga xos tajribasi shakllangan. Bu hamkorlik jahon amaliyotidan qamrovi kengligi, faqatgina mehnat munosabatlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki ijtimoiy hayotning muhim sohalarini o‘z ichiga olishi, muhimi, aholining ko‘plab ijtimoiy guruhlarini jalb etishi bilan yaqqol ajralib turadi.

Hozirgivaqtda “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida” gi qonun hokimiyatning aholi bilan samarali muloqotini yanada mustahkamlamoqda va kengaytirmoqda. Bu esa, fuqarolarning huquqlari, qonuniy manfaatlariga dahldor muhim qarorlarni qabul qilish jarayonida ularning ehtiyojlari, intilish va manfaatlarini yanada to‘liq, xolis ko‘rsatish imkonini bermoqda. Qolaversa, ijtimoiy munosabatlarni uyg‘unlashtirish, fuqarolar o‘rtasida hamjihatlikni mustahkamlashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, mamlakatimizning barqaror va izchil taraqqiyotini kafolatlamoqda. Eng muhimi, ijtimoiy sheriklik jamiyatni ich-ichidan chuqur o‘rganishda, ijtimoiy masalalarni hal qilishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqib, samarali amalga oshirishda, bu borada jamoatchilik nazorati kuchayishida dolzarb ahamiyatga ega.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevralda qabul qilingan “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni fuqarolar yig‘inlariga xos bo‘lmagan funksiyalar yuklatilayotganligi, ularning boshqa quyi idoralar bilan hamkorligi tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi, oila, xotin-qizlar va keksalarga yordam ko‘rsatishning yaxlit tizimi mavjud emasligi, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar samarali natija bermayotganligi jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish va qonun ustuvorligini ta‘minlashga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganligini inobatga olib, mazkur sohada maqsadli hamda manzilli chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Mahalla institutining jamiyat ijtimoiy-ma‘naviy hayotida tutgan o‘rnini hisobga olib, soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi

fuqarolarining o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari kuni” deb e‘lon qilindi. Bu esa 2020-yil 2-martdagi “Mahalla tizimi xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mahalla instituti davlat boshqaruvida boshqa xech qaysidavlatlarda analogiya bo‘lmagan alohida institutdir. Fikrimizning isboti sifatida aytishimiz mumkinki, yurtimizdagi mahalla instituti ko‘plab xorijlik ekspertlar hamda mutaxassislar tomonidan e’tirof etilmoqda. Ushbu institut faoliyatiga yuksak baho berib, uni o‘rganish kerakligini ta’kidlanayotgani bizga cheksiz g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Xususan, germaniyalik Konrad Adenauer fondi eksperti Norbert Zolberg quyidagi fikrlarni bildiradi:

-Yurtingizda azaldan betakror ijtimoiy boshqaruv idorasi bo‘lib kelayotgan mahalla keyingi yillarda tubdan yangilanganiga guvoh bo‘ldim. Buni tizim tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Xususan, mahalla tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, xususiy mulkni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash, iste’mol bozorini to‘ldirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, odamlar moddiy farovonligini oshirish va ularni kuchli ijtimoiy muhofaza qilish kabi yo‘nalishlardagi muhim vazifalarni ado etmoqda.

Shuningdek, Nyu-York davlat universiteti professori Parviz Morvij bu haqda o‘zining quyidagi fikrlarini bildiradi:

“O‘zbekistondagi mahalla tizimi mazmun-mohiyatiga ko‘ra noyobdir. Yurtingiz Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgani uchun bu yerda qadimdan xalq hunarmandchiligi hamda qishloq xo‘jaligi yaxshi rivojlangan. Asrlar davomida bu zaminda attorlar, chilangarlar, zargarlar, baqqollar, kulollar, etikdo‘zlar, savdogarlarmahallalari bo‘lgani haqida o‘qiganman. Istiqlol yillarida ana shu tarixiy ijtimoiy institut va unga xos qadriyatlar qayta ko‘z ochib, taraqqiy etayotgani e’tiborga molik. O‘zbek mahallasini bir necha yillardan buyon qiziqish bilan o‘rganib kelaman. Ana shu tadqiqotlar natijasida bir xulosaga keldim, ya’ni haqiqiy demokratiya an’analari mahalla faoliyatida o‘z ifodasini topgan. Ushbu noyob institut faoliyatini o‘rganish, tajribasini ommalashtirish maqsadga muvofiq.”

Yaponiyaning Vaseda universiteti dotsenti Tomoko AKO:

“O‘zini o‘zi boshqarishning noyob tizimi-mahallaga katta e’tibor berilayotgani menda iliq taassurot qoldirdi. Shu boisdan, siyosiy-ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarning bir bo‘lagi bo‘lgan bu tizimga qiziqishim ortmoqda. Zero, ana shunday e’tibor va g‘amxo‘rlik tufayli mahalla odamlar boshini qovushtirib, ularni yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga ilhomlantiradi. Shu orqali davlat

ravnaq topadi, natijada har bir oila farog‘atda hayot kechiradi. Bunday tajriba Yaponiya uchun ham g‘oyat zarur, deb hisoblayman.”

Yaponiyalik Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlarini o‘rganish instituti ijrochi direktori T.Tanaka: “Mahalla nafaqat fuqarolik jamiyatining asosi, balki demokratiyaning katta maktabidir. U, albatta, xalqning ma’naviy hamda madaniy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish, shuningdek, mamlakatni modernizatsiyalashda poydevor bo‘lib xizmat qiladi” –deya ta’kidlaydi.

Fransiya Milliy assambleyasi deputati, “Fransiya -O‘zbekiston” do‘stlik guruhi rahbari o‘rinbosari T.Mariani:

“Mahallaning borligi —xalqingizning baxti. Biror masala bo‘lsa, shu maskanda sizga yordam berishadi. Buni yoshlar tarbiyasi yo‘nalishidagi ishlar misolida aniq tasavvur qilish mumkin. Bola maktabdan kelgach, hududdagi fan va sport to‘garaklarida vaqtini mazmunli o‘tkazadi. Muhimi, yomon illatlar ta’siriga tushib qolmaydi. Shu bois, mahallani har tomonlama o‘rganish, uning ilg‘or tajribasini dunyoga yoyish zarur, deb o‘ylayman.”

O‘tgan yili Janubiy Koreya, AQSh, Germaniya, Xitoy, Belgiya, Buyuk Britaniya, Fransiya kabi davlatlarda “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” nomli kitob hamda “O‘zbekistonda mahalla instituti: tarixiy tajriba va hozirgi kun” hujjatli filmi taqdimotiga bag‘ishlab o‘tkazilgan davra suhbatlari hamda uchrashuvlarda ham xorijlik ekspertlar tomonidan qimmatli fikr-mulohazalar bildirildi. Bu esa, shubhasiz, o‘zbek mahallasi haqiqiy ma’noda xalqchil demokratiya maktabi sifatida shakllanib borayotganining xalqaro e’tirofidir.

Demokratik institutlar jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi. Tarixiy jihatdan ularni shartli ravishda demokratik mazmunga ega bo‘lgan an’anaviy, ijtimoiy-siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, OAV) hamda faqat demokratik jamiyat sharoitida faoliyat yuritadigan maxsus institutlarga, masalan, inson huquqlariga amal qilinishini ta’minlovchi turli nodavlat tuzilmalarga ajratish mumkin.[3]

Demokratik institutlar mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kuchli fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos jihatlari shundan iboratki, demokratik tamoyillar asosida jamiyatimizni rivojlanishida fuqarolik institutlari faoliyatiga keng o‘rin berilmoqda, fuqarolarda jamiyatni yanada rivojlantirishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mexanizmlari davlatning e’tiboridan chetda qolmaganligi ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda davlat institutlari bilan hamkorlik qilish yanada mustahkamlanmoqda.



Demokratiyaning mezonlari ko'p qirrali bo'lib, unda siyosiy erkinlik, fuqarolik huquqlari, davlat tomonidan va adolatli jamiyat qurilishida, boshqaruv jarayonlarida ishtirok etishga intilgan, ijtimoiy bahslarga qatnashgan, o'z xatti-harakatlari, mas'ullik faoliyati bo'yicha murosa lozimligini tushungan fuqarolar tomonidan qadrlangan taqdirda u doimo rivojlanib keladi.

Bundan tashqari, "demokratiya" qanchalik tarixiy-siyosiy mazmunga ega bo'lmasin, uning o'ziga xos mas'uliyat yuki mavjud. Jamiyatni demokratiyalashtirish har qanday demokratiyaga "yashil yo'l" ochib berishni maqsad qilibqo'ymaydi. Haqiqiy demokratiya inson shaxsiga eng oliy qadriyat sifatida qaraydiva ularni hokimiyatini boshqarish ishlarida faol ishtirok etishlari uchun zarur bo'lgan tizimni yaratadi. Unda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylov tizimi asosiy o'rin tutadi. O'zbekistonda mahalla tizimini isloh etilib, bir tizimga o'tilishi fuqarolarga siyosiy erkinliklarini, huquqlaridan atroflicha foydalanish imkoniyatini berdi. Jamiyat hayotini isloh etishga, shakllangan quyi tizim o'rnida tamomila yangi siyosiy jarayonlar qaror topishga shart-sharoitni vujudga keltirmoqda.

Bu insonlar ongi, tafakkurida jamiyat siyosiy hayotiga qarashda yangicha yondashuvga "totalitar ong va tafakkurni" barham topib borishiga muhim turtki bo'ldi. Fuqarolarning davlat hokimiyatida ishtiroki jarayon sifatida yangicha mazmun bilan boyib bormoqda. Bu jamiyatda vujudga kelgan xilma xil demokratik institutlar bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan yondashganda davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining vazifalari o'zgarayotganligini va isloh etilayotganligini kuzatmoqdamiz. Ayniqsa, eski shakllangan xalq mentaliteti va dunyoqarashida yangi jamiyatga xos o'zgarishlarni amalga oshirish, fuqarolik jamiyatiga xos mezonlar va qadriyatlarni fuqarolar ongiga sngdirish bu sohadagi eng sermehnat va mashaqqatli jarayonlar sirasiga kiradi. O'tish davridagi islohotlarning o'zini o'zi boshqarish organlarini zamonaviylashtirish va erkinlashtirishga qaratilgan jarayonlari ham milliy o'zlikni anglash, ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish, o'ziga xos yo'llarni kashf etish kabi qator izlanishlar samarasi o'laroq tobora kengroq turmush tarzimizga singib bormoqda. Bu sohadagi islohotlarni chuqurlashtirish davlatning bosh islohotchi sifatida amalga oshirgan chora-tadbirlari tufayli o'zini o'zi boshqarish organlari, ya'ni mahalla institutlari fuqarolik jamiyatini shakllantirishning milliy asosi bo'lib qoladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqoridagi aytilgan fikrlardan xulosa qilib qilib aytganda, yurtimizda ijtimoiy barqarorlik, jamoatchilik nazorati, xususan, korrupsiyaga qarshi keskin kurash olib

borish hokimiyat va ochiq fuqarolik jamiyatining barcha bo'g'inlari harakatlarini birlashtirishda namoyon bo'ladi. Shu bois, keyingi yillarda mahalla tizimi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan farmon va qarorlar o'zining ijobiy natijalarini berayotgani fuqarolarda huquqiy madaniyatning oshib borayotganidan dalolat. Zero, bugun barcha xalqimizning, millatimizning baxt-saodatini, mamlakatimizning yorqin kelajagini yaratish, faoliyatimiz, hatto hayotimiz ham ana shumahalla tizimini rivojlantirishgamaqsadli qaratilgan. Xalqning bunyodkorlik qudrati ham ana shundadir.

Shuningdek, mamlakatda demokratik islohotlarni milliy hamda qadriyat, urf-odat va an'analarga asoslangan holda bosqichma –bosqich, rivojlantirib, takomillashtirib, borishda avvalo inson kamolotining beshigi bo'lgan mahalla institutlarini ijtimoiy rolini yanada oshirish darkor. Binobarin, ta'lim va tarbiya maskani sifatida e'tirof etilayotgan mahalla bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarning asosiy bo'g'ini sifatida davlat va jamiyatning asosiy yacheykasi sifatida shakllanib borar ekan, Vatan ichra Vatan deb nomlanayotgan mahallalarni yanada asrab-avaylashda avvalo rivojlantirishda jamoatchilik nazoratini o'rnatish lozim. Zero, Vatanni asrash o'z uyini, ko'chasini, mahallasini asrashdan boshlanadi.

## REFERENCES

1. Qorieva M. Mustaqillik-erkin va farovon hayot. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. –B. 155.
2. Berkinov B.B., Asqarova M.T., Abduraximova S. O'zbekistonni rivojlanish strategiyasi: o'quv qo'llanma. – T.: 2019., 51 bet.
3. Ma'naviyat –asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –Toshkent: G'ofur G'ulom nash, 2010. –B. 19.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni // "O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi" veb-sayti – [www/lex/uz](http://www.lex.uz)
5. Ergashev I., Xudoyberdiev X., Kaxramonov A. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlar. –Toshkent, 2002.
6. Younas, A. ., & ogli, T. M. A. P. . (2021). Multinational Enterprises in Global Market Economy. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(7), 137–143. Retrieved from <http://openaccessjournals.eu/index.php/ijdpp/article/view/820>

7. Юнас, А., Каландаров, А., & Турдалиев, М. А. (2021). Legal progress of e-commerce legislation in Central Asia during the COVID-19 period. *Общество и инновации*, 2(6), 170-176.
8. Turdialiev, M. A. (2021). REGULATION OF MNES BY DOMESTIC AND INTERNATIONAL POLICIES. *Збірник наукових праць SCIENTIA*. вилучено із <https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/scientia/article/view/17095>
9. Kinza Fatima, & Mukhammad Ali Turdialiyev. (2022). UNDERSTANDING THE SOCIAL CHANGE AND DEVELOPMENT IN THE “THIRD WORLD”: A BOOK OVERVIEW. *World Bulletin of Management and Law*, 6, 1-2. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/439>
10. Fatima, K., & Turdialiyev, M. A. UNDERSTANDING THE SOCIAL CHANGE AND DEVELOPMENT IN THE “THIRD WORLD”: A BOOK OVERVIEW.
11. Ammar Younas, & Turdialiev Mukhammad Ali Polatjon Ogli. (2021). Special Features Of International Financial Centres And Its Establishment In Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(08), 17–21. <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume03Issue08-04>
12. Soshov M. Fuqarolikjamiyati sari//Toshkentoqshomi. 2013 –14 may.
13. O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 39-son, 488-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 22.07.2020 y., 03/20/629/1087-son; *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son
14. O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2014. Sh 39. 488-modda.
15. Masharipova B. Mahalla instituti rivoji demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega// <https://parliament.gov.uz/upload/>

---

## **O'SMIRNING PSIXOLOGIK VA FIZIOLOGIK RIVOJLANISHI TO'G'RISIDA MULOHAZALAR**

**Shukurova Hulkar Baxtiyorovna**

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 17-umumiy o'rta maktabi amaliyotchi psixologi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada o'smirlik yoshidagi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish jarayonida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar, bu yoshdagi bolalarning psixologik, fiziologik rivojlanishi va xususiyatlari o'rin olgan. Har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Shu boisdan o'smirlik davrining psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini bilish, o'rganish tarbiyachilar, pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:** Psixologiya, fiziologik o'zgarishlar, motivatsiya, psixofiziologik holat, individuallik.*

## **CONSIDERATIONS ON THE PSYCHOLOGICAL AND PHYSIOLOGICAL DEVELOPMENT OF ADOLESCENTS**

**Shukurova Hulkar Baxtiyorovna**

*Practitioner psychologist of the 17th comprehensive school of Khatirchi district of Navoi region*

### **ABSTRACT**

*This article discusses some of the challenges faced in the process of educating and nurturing adolescent students, as well as the psychological, physiological development, and characteristics of children of this age. Raising a well-rounded, well-rounded person is one of the most pressing issues facing the education system today. Therefore, it is important for educators, educators, psychologists and parents to know and study the psychological and physiological features of adolescence.*

***Keywords:** Psychology, physiological changes, motivation, psychophysiological state, individuality.*

## СООБРАЖЕНИЯ О ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ПОДРОСТКОВ

**Шукурова Хулкар Бахтиёровна**

*Практический психолог 17-й общеобразовательной школы Хатырчинского  
района Навоийской области*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассматриваются некоторые проблемы, возникающие в процессе обучения и воспитания школьников-подростков, а также психологическое, физиологическое развитие и особенности детей этого возраста. Воспитание разностороннего, всесторонне развитого человека – одна из самых актуальных задач, стоящих сегодня перед системой образования. Поэтому педагогам, воспитателям, психологам и родителям важно знать и изучать психологические и физиологические особенности подросткового возраста.*

***Ключевые слова:** Психология, физиологические изменения, мотивация, психофизиологическое состояние, индивидуальность.*

### KIRISH

O`smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham muhimdir. Bu davrni biz yana o`tish davri ham deb ataymiz. O`smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o`z ichiga qamrab oladi, ya`ni 5-8 sinf o`quvchilarini.

O`smir o`quvchilarni ta`lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba`zan etarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi.

Kichik va katta yoshdagi maktab o`quvchilariga qaraganda o`smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko`p qiyinchiliklar bo`ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o`smirlar psixologiyasining shaxslar bilan bo`lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda o`zgarishi, hamda hayot sharoitining o`zgarishi bilan bog`liqdir.

Bu davrda o`smirlarning o`z shaxsiy fikrlari paydo bo`ladi. Ularda o`z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo`yicha o`smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari

bilan tugʻiladigan ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari oʻrtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Taʼlim toʻgʻrisida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qoʻllanildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotni, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik xususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdir. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga oʻtiladi. Ana shu nuqtai nazardan oʻsmirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlangʻich sinfni tugatadi. Bolaning oʻrta maktabda oʻqishga oʻtishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi. Oʻsmirlarning yangi ijtimoiy jihatdan tashkil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyatiga uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos boʻlgan sharoit va vosita taʼsir qiladi.

Shunday qilib, oʻsmirlarga taʼlim-tarbiya berishning yangi toʻgʻri usullari hamda vositalarni topishi uchun oʻsmirlik yoshining oʻziga xos hususiyatlarini jismoniy va psixologik taraqqiyotini yaxshi bilishimiz kerak. Oʻsmirlik yoshining mazmuniy xarakteritsikasi vaqt oʻtishi bilan oʻzgarib boradi, chunki bunda inson hayotining xususan ijtimoiy sharoitlari oʻzgaradi.

Oʻsmirlar psixologik taraqqiyotining biologik omillariga ular ongiga ogʻir, baʼzan kuchi etmaydigan boʻlib koʻringan, ularni jiddiy psixik inqirozga va hayajonga soladigan, masalan: oʻsmirlar uchun xarakterli boʻlgan norozilik, qoʻpollik, qaysarlik, oʻz-oʻzini analiz qilishga moyillik subʼektiv olamga va shunga oʻxshash holatlarni keltirib chiqaradigan vaziyatlar muhim ahamiyatga ega.

Jinsiy yetilish munosabati bilan paydo boʻladigan yangi sezgilar fikrlar, mayliklar, kechinmalar goʻyo oʻsmirlar ongida hukmron boʻladi. Ularning xulq atvorini belgilaydi. Mana shunday holatda oʻsmirlarning psixologik qiyofalari asosan yolgʻiz sof biologik omil deb qaraladi.

Psixologlarning fikricha, yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolgʻiz biologik jihatidan yetilishi va taraqqiyot natijasi boʻlmay balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining oʻzgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo boʻlishi natijasida oʻsmirning taraqqiyotiga va unga beriladigan

maktabdagi ta'lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o'smirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo'lmaydi.

O'smirlik davri organizmning jo'shqin o'sish davridir. Bu davrda tananing intensiv ravishda rivojlanishi yuzaga keladi, muskullari mustahkamlanadi va skeletning o'sish jarayoni davom etadi.

Bu davrda yurak qon tomirlari sistemasining rivojlanishida mos kelmaslik hodisasi kuzatiladi. Bu davrda yurak hajm jihatdan ancha kattalashadi, kuchliroq ishlay boshlaydi. Ko'pincha bu qon aylanishining vaqtincha buzilishiga, qon bosimining yoshga bog'liq bo'lmagan holda ko'tarilishiga, yurak faoliyatining zo'riqishiga olib keladi. Natijada o'smirlarda uchraydigan bosh aylanishi, yurak pulsining tezlashishi, va bosh og'rig'i paydo bo'ladi.

O'smirlarning yoshi ham jismoniy psixik hususiyatga egadir, organizm Pavlov fikriga ko'ra, bir butun sitsemadan iborat bo'lib, bunda barcha to'qimalar va organlarning fiziologik jarayonlari uzviy ravishda bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. I.P.Pavlov so'zi bilan aytganda, bunda nerv sitemasi va organizmda sodir bo'ladigan barcha hodisalarni boshqarib turuvchi bosh miya po'sti asosiy o'rin egallaydi. O'smirlik yoshida nerv sitsemasining yuqori qismi sifat jihatidan o'sa boshlaydi va miya ichki tuzilishining murakkablashishga olib keladi.

Katta yarim sharda nerv hujayralarining yetilishi tugallanadi. O'smir organizmining jismoniy rivojlanishi uning organlari va to'qimalarining rivojlanishi bosh miya po'stining boshqaruvchanlik roli ostida amalga oshadi, ammo o'sib borayotgan to'qimalar va organlar o'z navbatida nerv sistemasining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. O'smirlik yoshida o'pkaning hajmi kattalashadi, nafas olish ancha tezlashgan bo'ladi. O'smirlik yoshida bola qancha toza havoda yursa shuncha foydalidir.

Bu davrda ichki sekretiya bezlarining qayta qurishiga bog'liq bo'lgan jinsiy yetilish davridir. Bu bezlarning yetilishi inson organizmi uchun juda muhimdir. O'smirlik yoshining xarakterli xususiyatlaridan yana biri aynan jinsiy yetilish jarayonidir.

Jinsiy yetilishning boshlanishi ko'p jihatdan iqlimga va milliy epiografik omillarga va shuningdek, individual xususiyatlarga ham bog'liqdir.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, jinsiy yetilishning boshlanish davri o'g'il bolalarda 12-13 yoshda, qiz bolalarda 11-12 yoshda boshlanadi.

O'qituvchilar, sinf rahbarlari datsavval shuni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy yetilish organizmning jismoniy rivojlanishiga ta'sir qilishdan tashqari ularning psixik rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. O'smirlarda jinsiy yetilish bilan birga shu

paytgacha ularga noma'lum bo'lgan qandaydir hislar, kechinmalar, qarama-qarshi jinsga spetsifik qiziqish, noma'lum mazmundagi kitoblarga qiziqishlarning paydo bo'lishi tabiiydir.

O'smirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so'z boyligini oshishi hisobiga bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa voqea va hodisalarning mazmun mohiyatini anglashlari hisobiga bo'ladi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, inson aynan nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi, o'smirni ko'pincha muomalada so'zlarni ishlatish qoidalari - "qanday qilib to'g'ri yozish kerak?", "qanday qilib yaxshiroq aytish mumkinmi?" kabi savollar juda qiziqtiradi. O'smirlar maktabdagi o'qituvchilar, kattalar ota-onalar nutqidagi kamchiliklarga kitob, gazeta, radio va televideniye diktoralari xatolariga tez e'tibor beradilar.

Ushbu metod 6 bosqichda olib boriladi. Eng avvalo berilgan o'quv materialini ya'ni matn ko'zdan kechiriladi. Mundarija bilan tanishib chiqiladi. Matnning bo'limlari ko'zdan kechiriladi. Keyingi bosqichda savollar shakllantiriladi, masalan, *Men matndan nimani o'rganishim lozim?* yoki *Matndagi qaysi ma'lumotlar men uchun muhim?* Uchinchi bosqichda talaba matn yoki o'quv qo'llanmasining qaysi bo'limi yoki qismida tuzilgan savollarga javob topish mumkinligini aniqlaydi. Ba'zida savolga javob butun bir o'quv materialida emas, balki uning ma'lum bir qismida berilgan bo'ladi. Matn bilan ishlashning keyingi bosqichida matnni o'qish, shu bilan birga berilgan savollarga javoblar topish va ularni belgilab borish kerak bo'ladi. Buni turli chizmalar yoki sxemalar yordamida amalga oshirish ham mumkin. Metodning beshinchi bosqichi tuzilgan savollarga javoblarni aniqlash yoki ularni yozishni qamrab oladi. Va nihoyat o'quv materialini asosida egallangan bilimlar umumlashtiriladi.

Bu metod mustaqil o'rganishni tizimli va puxta tashkil qilinishini ta'minlaydi. Uning yordamida talabalar matnni mustaqil o'rganish, tahlil qilish va ma'lumotlarni saralashni o'rganadilar. Bundan tashqari yana bir qancha metodlar ham borki, ular

individual tarzda o'rganishdan tashqari o'rgatishni ham ko'zda tutadi. *Zig-zag* va *HAITI* metodlari shular jumlasidandir.

*Zig-zag texnikasi* katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida o'zlashtirish zarur bo'lganda qo'llaniladi. Ushbu metod mustaqil ta'limni tashkil qilishning bir qancha afzalliklari mavjud. Mazkur metod yordamida juda katta hajmdagi o'quv materialini batafsil va qisqa vaqt ichida tanishib chiqish va o'zlashtirish mumkin bo'ladi. Ikkinchidan talabalarda matndan asosiy ma'lumotlarni ajrata olish, ma'lumotlarni tizimlashtirish qobiliyati rivojlanadi. Uchinchi afzalligi shundan iboratki, unda talaba guruhda ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. *Zig-zag texnikasi* mustaqil ta'lim olishni tashkillashtirishning samarali metodlaridan biri bo'lib, u *o'rgan va o'rgat* tamoyiliga asoslanadi. Bu metodni nafaqat auditoriyada balki auditoriyadan tashqari qo'llasa ham bo'ladi. *Zig-zag* metodiga ko'ra guruh teng miqdordagi ishtirokchilar bo'lgan kichik guruhlariga bo'linadi. Masalan, har bir guruhda 4 ta talabadan 3 ta guruh. So'ngra har bir guruh ishtirokchisi 1,2,3 raqamlari yozilgan qog'ozlar (topshiriqlar soniga qarab) tarqatiladi. Keyingi bosqichda har bir guruhdagi ishtirokchilar alohida guruhga birlashadilar. Buni shartli ravishda (1,1,1,1), (2,2,2,2), (3,3,3,3) ko'rinishida ifodalash mumkin [4, 100-bet]. Shu guruhlarda ular o'qituvchi tomonidan berilgan o'quv materialini puxta o'rganishlari kerak bo'ladi. Har bir guruhga berilgan vazifa mazmun jihatidan farq qiladi. O'quv materialini o'rganib bo'lishgach avval boshida tuzilgan guruhlariga qaytishadi va har bir talaba o'zi o'rgangan o'quv materiallarini galma-galdan guruhning qolgan ishtirokchilariga tushuntirib berishadi, ya'ni "o'qituvchi" darajasiga ko'tarilishadi. Bu metod o'zining samarali va mavzuni o'zlashtirish uchun vaqtni tejash mumkinligi bilan ajralib turadi.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishning yana bir shunday samarali metodlaridan biri bu *HAITI* metodidir. Ushbu metodning nomi ish jarayonida amalga oshiriladigan ish bosqichlarining bosh harflari kombinatsiyasini aks ettiradi. Auditoriyada (Im H $\ddot{u}$ rsaal) vazifalar tarqatiladi, har bir talaba yakka tartibda (Alleine) o'rganadi, keyin esa o'rganilgan material yoki yechimi topilishi lozim bo'lgan masala guruh (Im Team) a'zolari bilan muhokama qilinadi va muammolar o'rganiladi. Va nihoyat keying darsda (In der n $\ddot{a}$ chsten  $\ddot{U}$ bung) yechimi topilmagan muammolar va tushunmovchiliklar o'qituvchi tomonidan bartaraf etiladi [3, 36-bet]. Ushbu metodni qo'llash uchun guruhdagi talabalar 3-6 tadan guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruh o'z "axborotchi"sini saylaydi. U o'qituvchi bilan guruh a'zolari o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi. Guruhlarga vazifalar berilgandan so'ng guruh a'zolari yakka tartibda o'quv materialini o'rganib chiqishadi yoki berilgan vazifalarni yakka tartibda bajarishga urinib ko'radi. Keyingi bosqichda guruh a'zolari uchrashib, berilgan vazifa

va erishilgan natijalar guruhda muhokama qilinadi, xatolar va kamchiliklar aniqlanadi va tahlil qilinadi. Axborotchi esa yechimi topilmay qolgan vazifalar hamda qiyinlik qilgan vazifalarni yozib boradi va o'qituvchiga xabar beradi. Bu o'qituvchiga keyingi vazifalar to'plamini shakllantirishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Axborotchi bergan xulosalaridan kelib chiqib, talabalarga qiyinlik qilgan vazifalar ustida yana ishlash uchun vazifalar tuzadi. Talabalar uchun oson bo'lgan vazifalar keyingi topshiriqlar majmuasiga kiritilmaydi.

Ko'rib chiqilgan metodlar mustaqil ta'limni tashkil qilishda samarali hisoblanadi. Bu metodlar talaba va o'quvchilarni nafaqat mustaqil ishlash, mustaqil o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi, balki ularda guruhda ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga ham yordam beradi.

An'anaviy darslardan farqli o'laroq o'qituvchi va talabaning roli o'zgaradi. U talabalarga mustaqil bilim olishlari uchun sharoit yaratish va o'qib-o'rganish jarayoniga arashlashmagan holda, uni tashkil qilish uchun mas'ul bo'ladi. O'qituvchi darsini shunday tashkil qilishi keraki, talabalar bajaradigan hatti-harakati uchun mas'uliyatni o'z bo'yniga olishi lozim. Bu o'qituvchi talabalarga o'z maqsadlarini aniqlab olish va mustaqil ishlash imkoniyatini beradi degani. Ushbu metodlarda o'qituvchining maqsadi talabaga har qadamda bilim berish bilan cheklanib qolmay uning mustaqil ta'lim olishini chetdan nazorat qilishini ham anglatadi.

Turli qobiliyatlar va layoqatlarga ega bo'lish, mustaqil fikrlash mustaqil ta'lim olishning muhim belgilaridan hisoblanadi. Bunga eng avvalo turli xil metodlardan tegishli va samaralisini tanlash va qo'llay olish kiradi. Bundan keyingi muhim qadam mustaqil o'rganishning ijtimoiy shaklini aniqlash hisoblanadi. Ta'limning bu turi uchun o'qib-o'rganish vaqti (muddatini hisobga olgan holda) va maqsadlari, kerakli asbob-uskuna, qurilmalar va o'quv qurollarini tayyorlab olish va nihoyat ta'lim olish joyini aniqlab olishni talab qiladi.

Navbatdagi yana bir samarali metod *Think-Pair-Share* metodidir. [5; 80] *Think-Pair-Share* metodi hamkorlikda o'qib-o'rganish metodlaridan biri bo'lib, tuzilish jihatidan uch bosqichni qamrab oladi. Ushbu metod asosida o'qishni tashkil qilish davomida talabalar mustaqil o'qib o'rganishdan boshlaydilar va bu bosqichda ular berilgan mavzu va topshiriqlarni mustaqil, yakka tartibda o'rganib chiqishlari lozim bo'ladi. O'rganilgan mavzu va topshiriqlar keyingi bosqichlarda boshqa talabalar va guruh a'zolariga tushuntiriladi. Muhimi talabalar alohida bosqichlarda mavzular va topshiriqlar ustida mustaqil ishlay olishlari kerak, shunda ular hamkorlikda o'rganish bosqichida bu mavzularni boshqa talabalarga tushuntirishlari yoki kursdoshlari bilan

berilgan mavzular bo'yicha fikr almashishlarining imkoni bo'ladi. Think-Pair-Share ingliz tilidan tarjima qilinganda *think* ya'ni o'ylash, fikr yuritish, *pair* esa juft, ya'ni talabani u bilan birga muhokama qiladigan sherigi va *share* bo'lishmoq so'zlaridan tashkil topgan. Ushbu metod yordamida unchalik keng qamrovli bo'lmagan va hatto murakkab mavzularni ishlab chiqish mumkin. Ushbu metod yordamida o'qib o'rganish ayniqsa, guruhda ishlash qobiliyatini rivojlantirishga va bilimlarni yaxshiroq egallashga ko'mak beradi. Think-Pair-Share metodining birinchi bosqichida har bir talaba berilgan vazifani o'zi alohida o'rganib chiqadi (Think). Ikkinchi bosqichda u o'rgangan bilimlarini boshqa bir talaba bilan o'rtoqlashadi (Pair). Va nihoyat uchinchi bosqichda barcha olingan bilimlar va g'oyalar guruhning barcha a'zolari bilan muhokama qilinadi (Share). Ushbu uch bosqich quyidagicha tashkil qilinadi: Fikr yuritish ya'ni *think* bosqichida talabalarga vazifa beriladi. Bu matn, diagramma, grafikni tasvirlash yoki kerakli xulosalarni yozishga asoslangan vazifalar bo'lishi mumkin. Navbatdagi bosqichda ular qilgan ishlarini va xulosa va natijalarini biror kursdoshiga tushuntirib, uni 5-10 minut davomida muhokama qilishlari kerak bo'ladi. *Pair* bosqichida talabalar ikki kishidan iborat guruhlarda ishlaydilar va natijalarni muhokama qiladilar: Bunda birinchi talaba ikkinchi talabaga tushuntiradi va ikkinchi talaba aytilgan fikrlarni qayd etib boradi. Keyin xuddi shu tarzda takrorlanadi: ikkinchi talaba fikrlarini bayon qiladi, birinchi talaba esa yozib oladi. 5-10 minut davomida talabalar nafaqat o'zlarining fikr va mulohazalari balki sherigining ham xulosalari bilan yaxshi tanishib chiqqan bo'lishlari, hatto uni taqdim qila olishlari lozim bo'ladi. *Share* bosqichida barcha xulosa va natijalar butun guruhga taqdim qilinadi. Olingan natijalar asosida guruhlarda plakat, taqdimot yoki ma'ruzalar tayyorlanadi. Ushbu metod kichik guruhlarda tayyorlangan taqdimot va ma'ruzalarni auditoriyada muhokama qilish bilan yakunlanadi.

## **XULOSA**

Ushbu metodlar talabani faqatgina individual ishlashi bilan cheklanib qolmasligi, guruhda ishlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Yuqorida qayd etilgan metodlarning yana bir afzalliklaridan biri unda o'qituvchi faqatgina bilim berish bilan chegaralanib qolmay, talabani ham mustaqil o'qib o'rganishga undaydi, mustaqil ta'limni tashkil qiladi va o'zi kuzatuvchi vazifasini bajaradi. Bu esa talabada erkin fikrlash, o'zini yanada rivojlantirish, qobiliyatlarini namoyon qilish, kreativ bo'lish va o'zi o'rgangan bilimlarni o'rgatish qobiliyatlarini rivojlantiradi.



---

## REFERENCES

1. Duden Das große Wörterbuch der deutschen Sprache. Mannheim, Bibliographisches Institut AG. 1980.
2. Langenscheidt. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. München, Langenscheidt 2010.
3. Hoffman S. G. Kiehne B. Ideen für die Hochschullehre. Ein Methodenreader. Berlin, Universitätsverlag der TU Berlin, 2016. - 98 S.
4. Авлаев О. У. Жўраева С.Н. Таълим методлари. Ўқув-услубий қўлланма. Toshkent, Наврўз, 2017. - 208бет.
5. Manfred Bönsch: Unterrichtsmethoden - kreativ und vielfältig. Basiswissen Pädagogik. Unterrichtskonzepte und -techniken. Baltmannsweiler: Schneider-Verlag Hohengehren 2002. -180 S.

---

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA YUQORI SINF  
O'QUVCHILARINING AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDAGI  
MUAMMO VA ULARNING YECHIMI**

**Yaqubova Dinora Bahodirovna**

Urganch davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti

o'qituvchi

[xayotim1720@mail.ru](mailto:xayotim1720@mail.ru)

**ANNOTATSIYA**

*Axloqiy tarbiya insoniyat taraqqiyotining butun yo'li davomida qo'yilgan muammolardan biridir. Har qanday davr ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishning o'ziga xos vazifalariga muvofiq, axloqiy tarbiya va xulq-atvor madaniyatini shakllantirish zarurligini taqozo etadi. Farzandlar ota-onalarining faxri. Ular haqida hamma narsa yoqimli va qimmatlidir. Ammo ular har doim ham bolaning jozibadorligi nafaqat tashqi ko'rinishida, asosiysi o'sib borayotgan bolaning o'zini oilada va jamoat joylarida o'zini qanday tutishi, uning xulq-atvori - yuz ifodalari, imo-ishoralari haqida har doim ham o'ylamagan.*

**Kalit so'zlar:** axloqiy tarbiya, shaxs, xulq-atvor, ong, axloq, munosabat.

**ABSTRACT**

*Moral education is one of the challenges of human development. Each period requires the formation of a culture of moral education and behavior in accordance with the specific tasks of socio-economic and cultural development. Children are the pride of their parents. Everything about them is lovely and precious. But they did not always think about the attractiveness of the child only in appearance, and most importantly, how the growing child behaves in the family and in public places, his behavior - facial expressions, gestures .*

**Keywords:** moral education, personality, behavior, consciousness, ethics, attitude.

**АННОТАЦИЯ**

*Нравственное воспитание является одной из задач, возникающих на протяжении всего развития человека. Каждый период требует формирования культуры нравственного воспитания и поведения в соответствии с конкретными задачами социально-экономического и культурного развития. Дети – гордость родителей. Все в них прекрасно и ценно. Но не всегда думали о привлекательности ребенка только во внешности, а главное, в том, как*

*ведет себя растущий ребенок в семье и в общественных местах, его поведение – мимика, жесты.*

***Ключевые слова:** нравственное воспитание, личность, поведение, сознание, этика, отношение.*

## **KIRISH**

Axloqiy tarbiya jarayoni - bu pedagogik faoliyatning samaradorligi va sifatiga, bola shaxsini axloqiy tarbiyalashning to'g'ri darajasiga erishishga qaratilgan tarbiyachi va jamoa o'rtasidagi izchil o'zaro munosabatlar majmuidir.

Axloq - shaxs tarbiyasiga kompleks yondashuvning ajralmas qismidir. Rus pedagogi I.F.Xarlamovning fikricha, "axloqni shakllantirish axloqiy me'yorlar, qoidalar va talablarni insonning xulq-atvori haqidagi bilim, ko'nikma va odatlarga aylantirish va ularga qat'iy rioya qilishdan boshqa narsa emas". Axloqiy tarbiya - bu maktab yoshidagi bolalarda odob-axloq g'oyalari va tamoyillariga muvofiq yuksak ong, axloqiy tuyg'ular va xulq-atvorni shakllantirishning maqsadli jarayonidir.

Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi maktab yoshidagi o'quvchilarini zamonaviy turmush tarziga mos keladigan axloqiy ongni, barqaror axloqiy xulq-atvor va axloqiy tuyg'ularni shakllantirish, har bir shaxsning faol hayotiy pozitsiyasini, o'z xatti-harakatlarida rahbarlik qilish odatini shakllantirishdan iborat.

Pedagogika axloqiy tarbiya sohasida axloqiy ong va axloqiy xulq kabi pedagogik tushunchalarni ajratadi. Insonning shaxsiy tajribasi orqali singan, tarixan shakllangan va doimiy yangilanib turadigan bilimlar tizimi inson ongining mazmunini tashkil etadi. Ongning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning o'z nomi bilan atrofdagi olam (ong) haqidagi bilimlar majmuasi sifatida berilgan. Bilimsiz ong bo'lmaydi. "Ongning mavjudligi va u uchun biror narsaning mavjudligi bilimdir" [1].

Ijtimoiy tajriba jamoat axloqiy ongida o'z aksini topadi: axloqiy g'oyalar, nazariyalar, tushunchalar kishilarning faoliyat va muloqot jarayonida rivojlanadigan real munosabatlarini aks ettiradi. E'tiqod - axloqiy ong shakllanishining eng yuqori darajasi. Ular shaxsning harakatlari, harakatlarining tartibga soluvchisiga aylanadi. Shaxsning axloqiy barqarorligi ularga boo'liq. Ishontirish axloqiy tushunchalar tizimini kuchli o'zlashtirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish, xatti-harakatlar va munosabatlar tajribasini umumlashtirish bilan tavsiflanadi. Axloqiy g'oyalar va tushunchalarni o'zlashtirish uzoq va murakkab jarayondir. O'quvchilar axloqiy tushunchalarni o'zlashtirishdan, birinchi navbatda, taqdimot darajasida uning mazmunini to'liq o'zlashtirishgacha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tadilar.

Tajribaning kengayishi, bir tomondan ijtimoiy ko'nikmalar, bir tomondan bilimlarning to'planishi, katta maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy pozitsion rolining kengayishi axloqiy g'oyalarini yanada chuqurlashtirish va farqlashga olib keladi, boshqa tomondan, ularni umumiy axloqiy tushunchalarga (do'stlik, do'stlik haqida) yaqinlashtirishga olib keladi. kattalarni hurmat qilish, muloqot jarayonlarida va hokazo). Rivojlanayotgan axloqiy g'oyalar bolalarning xulq-atvorida, ularning boshqalarga munosabatini tartibga soluvchi rol o'ynay boshlaydi[2].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'quvchi ongida axloqiy hayotning ba'zi bir hodisasining tasviri nafaqat ushbu voqea sodir bo'lgan davrda paydo bo'lishi mumkin. Bola o'z do'stining bir paytlar kuzatgan u yoki bu harakatini qayta yaratishi, yana "ko'rishi" mumkin. Bundan tashqari, u muayyan vaziyatlarda o'z harakatini tasavvur qila oladi. Bunday holda, vakolatlar qo'llaniladi. Spirkinning fikriga ko'ra, tasavvurlarda "ong birinchi marta o'zining bevosita manbasidan ajralib chiqadi va nisbatan mustaqil sub'ektiv hodisa sifatida mavjud bo'la boshlaydi"[3].

O'quvchilarning axloqiy ongi va xulq-atvori birlikda shakllanadi - bu pedagogikaning asosiy ajralmas tamoyilidir. Maktab yoshidagi o'quvchilarda kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarda yangi xususiyatlar paydo bo'ladi. Maktab yoshidagi o'quvchilar kattalar bilan mazmunli muloqotga faol qiziqish bildiradilar. Voyaga yetgan bolaning obro'si, uning qadr-qimmatini xulq-atvorda jiddiy rol o'ynashda davom etmoqda. Mustaqillik va xulq-atvorni anglashning o'sishi o'rganilgan axloqiy me'yorlar bo'yicha harakatlarda rahbarlik qilish qobiliyatini rivojlantirishga olib keladi va o'quvchida o'z o'rnini topishga intilish ya'ni o'z "Men"ini shakllanishiga olib keladi. U shu ijtimoiylik bilan uzviy bog'liq jarayonda axloqan hamda ma'nan shakllanishida davom etadi.

Katta maktabgacha yoshdagi o'quvchining harakatlarini belgilay boshlaydigan ichki "axloqiy hokimiyatlar" paydo bo'ladi. Bunda o'quvchilar o'z tengdoshlari bilan turli xil faoliyatda faol muloqot qilish istagini namoyon etadilar, buning natijasida "o'quvchilar jamiyati" shakllanadi. Bu jamoaviy munosabatlarni rivojlantirish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratadi. Tengdoshlar bilan mazmunli muloqot katta yoshdagi maktab o'quvchisining shaxsini to'laqonli shakllantirishda muhim omil bo'ladi.

Jamoa faoliyatda (o'yin, vaziyat, muloqot) katta yoshli o'quvchilar jamoaviy rejalashtirish ko'nikmalarini egallaydilar, o'z harakatlarini muvofiqlashtirishni, nizolarni adolatli hal qilishni va umumiy natijalarga erishishni o'rganadilar.

Bularning barchasi axloqiy tajribani to'plashga yordam beradi. Katta yoshdagi maktab o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda ta'lim faoliyati muhim rol o'ynaydi. Dars jarayonida ular tarbiyaviy xulq-atvor qoidalarini o'zlashtiradilar, ularda maqsadlilik, mas'uliyat, irodalilik fazilatlarini shakllanadi.

Makarenko o'quvchilarni axloq nazariyasi bilan qurollantirish kerak, deb hisoblab, katta ahamiyat berdi. Shu bilan birga, u to'g'ri xulq-atvor odatini tarbiyalash ongni tarbiyalashdan ko'ra ancha qiyin ekanligini ta'kidladi [4].

Axloqiy xulq-atvorni tarbiyalash - axloqiy xatti-harakatlar va axloqiy odatlarni shakllantirishdan boshlanadi. Harakat insonning atrofdagi voqelikka munosabatini tavsiflaydi.

Axloqiy xatti-harakatlarni uyg'otish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish, o'quvchilar hayotini ma'lum bir tarzda tashkil etish kerak. Axloqiy odat - axloqiy ishlarni bajarishga bo'lgan ehtiyojni talab qiladigan huquqiy va umuminsoniy normalarga asoslanadi. Odatlar yotoqxon qoidalariga, xulq-atvor madaniyatiga, tartib-intizomga asoslangan bo'lsa, oddiy bo'lishi mumkin va o'quvchida muayyan ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatni amalga oshirishga ehtiyoj va tayyorlikni yuzaga keltirganda murakkab bo'lishi mumkin.

Odatning muvaffaqiyatli shakllanishi uchun o'quvchilar harakatga undaydigan motivlar ularning ko'z o'ngida muhim bo'lishi, o'quvchilar o'rtasida harakatlarni bajarishga munosabat hissiy jihatdan ijobiy bo'lishi va agar kerak bo'lsa, o'quvchilar natijalarga erishish uchun ma'lum iroda harakatlarini ko'rsatishga qodir.

Axloqiy tarbiya faqat umuminsoniy axloq me'yorlariga mos keladigan, bolaning butun hayotini ularning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etuvchi pedagogik jarayon sifatida samarali amalga oshiriladi. Yaxlit jarayonning natijasi bu uning ongi, axloqiy tuyg'ulari, vijdoni, irodaviy xususiyatlari, ko'nikmalari, odatlari, ijtimoiy qimmatli xulq-atvorining birligida axloqiy jihatdan yaxlit shaxsni shakllantirishiga asos bo'la oladi. Axloqiy tarbiyaning asosiy kategoriyasi, B.T.Lixachevning fikricha, axloqiy tuyg'u tushunchasi - doimiy hissiy emotsiyasi, tajriba, haqiqiy axloqiy munosabatlar va o'zaro ta'siridir. Axloqiy me'yorlar faqat o'quvchilar hissiy o'zlashtirilishi tufayli sub'ektiv axloqqa aylanadi.

Axloqiy tuyg'uni asosiy tamoyil sifatida baholash axloqiy ongni e'tiborsiz qoldirishni anglatmaydi. Axloqiy ongni rivojlantirish axloqiy tamoyillarni, me'yorlarni bilishni va shu bilan birga jamiyatdagi axloqiy mavqeni, axloqiy holatini, his-tuyg'ularini, axloqiy ongning his-tuyg'ularini doimiy ravishda anglash va tushunishni o'z ichiga oladi - o'quvchining axloqiy ongini aks ettirishning faol jarayon hisoblanadi. Axloqiy ongni rivojlantirishning sub'ektiv harakatlantiruvchi

kuchi axloqiy tafakkur - axloqiy faktlarni, munosabatlarni, vaziyatlarni doimiy ravishda to'plash va tushunish jarayoni, ularni tahlil qilish, baholash, axloqiy qarorlar qabul qilish, mas'uliyatli tanlovdur. Axloqiy tuyg'ular, ong va tafakkur, irodaviy xislatlarni namoyon bo'lishining asosi rag'batidir. Axloqiy iroda va ijtimoiylikka ijobiy munosabatdan tashqarida o'quvchining haqiqiy axloqi namoyon bo'lmaydi. Shaxsning axloqiy xulq-atvori quyidagi ketma-ketlikka ega: hayotiy vaziyat - tajriba - vaziyat va motivlarni tushunish - tanlov va qaror - rag'batlantirish - jarayon.

Bolalar ko'pincha vaziyatni chuqur tushunishga moyil emaslar, bu ularni tasodifiy qarorlar qabul qilishga olib keladi. Xulq-atvorni tanlash ularni o'rab olgan ijtimoiy psixologik muhit, tasodifiy tashqi ta'sirlar, ommaviy sevimli mashg'ulotlar, impulsiv rag'batlantirishlar ta'siri ostida amalga oshiriladi. Motivlarning beqarorligi vaziyatga hamroh bo'lgan his-tuyg'ular harakatining kuchli yoki kuchsizligi bilan belgilanadi, masalan, qo'rquv, bu bolani ongli ravishda tanlash va ixtiyoriy harakatni amalga oshirish imkoniyatidan mahrum qiladi. O'quvchilarda erkin axloqiy irodaviy xususiyatlarini tarbiyalashning ma'nosi - ularni o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatish, ichki erkinlikka erishishga, mustaqil fikrga ega bo'lishda yordam berish, axloqiy tuyg'u va e'tiqodga mos ravishda bukilmadan harakat qilish qat'iyati, jamiyatda kundalik munosabatlarda axloqiy me'yorlarni o'rnatishdir.

Shaxsning axloqi axloqiy tamoyillarga ongli ravishda amal qilishda va axloqiy xulq-atvorning odatiy shakllarida namoyon bo'ladi. Axloqiy tarbiyaning boshlang'ich darajasi, deyarli ichki nazoratsiz, xatti-harakatlarning ongsiz impulslar va tashqi ta'sirlarga bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Asta-sekin psixikaning hissiy ongsiz sohasi orqali odatlar va xatti-harakatlarning odatiy shakllari shakllanadi. Rivojlanishning ushbu darajasida odatlar, odatiy harakatlarni kuchaytirish tufayli xatti-harakatlar ustidan qandaydir o'zini o'zi nazorat qilish imkoniyati mavjud. Odatiy xulq-atvor asosida, maqsadli pedagogik ta'sir natijasida bolada axloqiy tafakkur rivojlanadi.

U bilan birgalikda va uning yordami bilan axloqiy tuyg'ular asosida ong va iroda, axloq, halollik, rostgo'ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, intizom, kollektivizm shakllanadi. Shaxsning bu xossalari va fazilatleri ijtimoiy munosabatlar tizimida o'quvchining dunyo bilan faol o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan psixologik o'zgarishlarni ifodalaydi. Ular o'quvchi tomonidan ushbu munosabatlarda doimiy ravishda namoyon bo'ladi, o'quvchining xarakter xususiyatlari, shaxsiy ijtimoiy hayotida, odatlar va odatiy xatti-harakatlar shakllarida tan olinadi, mustahkamlanadi.

Axloqiy xulq-atvorning eng yuqori darajasi - bu inqiroz va ekstremal vaziyatlarda ongli ravishda o'zini tuta bilish, qat'iylikni saqlash, axloqiy e'tiqodlarga,

me'yorlarda sodiqlikda namoyon bo'ladi. O'quvchilar uchun bunday holatlar axloqiy rivojlanishida doimo paydo bo'ladi va takomillashib, yuksalib boradi. Shaxsning axloqiy shakllanishining mohiyati bolaning tashqi va ichki qarama-qarshiliklarni yengib o'tishidadir. Nafs va burch, ezgulik va yovuzlik, mehr va shafqatsizlik, muhabbat va nafrat, haqiqat va yolg'on, xudbinlik va jamoaviylik o'rtasidagi axloqiy tanlovlarning cheksiz oqimida xarakter xususiyatlari va axloqiy fazilatlar shakllanadi.

Axloqiy tarbiya axloqiy me'yorlarga moslashish va xulq-atvor odatlarini o'ylamasdan rivojlantirish emas. Bu munosabatlar, o'zaro ta'sirlar, faoliyat, muloqot va qarama-qarshiliklarni bartaraf etishning faol hayotiy jarayoni.

Bu doimiy va tizimli qarorlar, axloqiy me'yorlar foydasiga ixtiyoriy harakatlarni tanlash, o'zini o'zi baholash va ularga muvofiq o'zini o'zi boshqarish jarayonidir. Shunday qilib, axloqiy tarbiyaning pedagogik jarayoni - bu o'quvchilarning hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishi, qarama-qarshiliklari, muammolari, tanlovlari, ziddiyatlari va to'qnashuvlarini bartaraf etish va ma'lum bir huquqiy va ijtimoiylik darajasida hal qilish uchun tashkil etishdir.

Pedagogning say-harakatlari qarama-qarshiliklarni o'quvchilar bilan birgalikda mohirona hal qilishga va bu jarayonda ularni psixologik jihatdan va individual axloqiy tuyg'ularini, ongi, odatlari, axloqiy xulq-atvorini rivojlantirishga qaratilishi kerak. Axloqiy tarbiya jarayonining o'ziga xosligi uning mazmuni - jamiyat axloqi, har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlari, ongi va xulq-atvoriga ijtimoiy axloqiy normalarini joriy etish zarurati bilan ham bog'liq.

Axloqiy tarbiya jarayonining murakkabligi shundaki, uni tashkil qilish bir vaqtning o'zida o'quvchilarning butun hayotini, ularning barcha faoliyati va munosabatlarini tashkil qiladi, ularni ongli ravishda amalga oshirish jarayonida amalga oshiriladi va axloqiy tarbiya taraqqiy etishda davom etadi.

Axloqiy tarbiya jarayoni o'qituvchining tarbiyaviy ta'sirlarning samaradorligi haqida fikr-mulohazalariga ega bo'lganda va bu ma'lumotlarni pedagogik faoliyatning har bir yangi bosqichida hisobga olgan holda samarali bo'ladi.

Pedagog bunday ma'lumotlarni faqat hayotdan, ta'lim jarayondagi munosabatlardan va faoliyat amaliyotida kundalik o'rganishdan oladi. Axloqiy tarbiya jarayoniga ilmiy asoslangan munosabat o'quvchilar faoliyatining, har qanday hayotiy munosabatlarning axloqiy tomonini ko'rish, ta'kidlash va undan samarali foydalanish qobiliyatidan iborat. Bunday holda, o'qituvchi axloqiy tarbiyani samarali boshqarish uchun haqiqiy imkoniyatga ega bo'lib, uni bolalarni tarbiyalashning yaxlit jarayonining ajralmas qismiga aylantiradi [4].

Shunday qilib, axloqiy tarbiya va xulq-atvor madaniyatini shakllantirishning nazariy jihatlarini ko‘rib chiqib, biz shunday xulosaga keldikki, shaxsning axloqiy shakllanishi muammosi juda uzoq davrlar davomida mavjud bo‘lib, bu sohada ko‘plab kashfiyotlar qilingan. Axloqiy tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va tashkil etishdagi qiyinchiliklari bor, ammo zarur psixologik va pedagogik bilimlarni o‘zlashtirgan holda, kattalar o‘quvchiga ta’sir o‘tkazishga va axloqiy g‘oyalar va xulq-atvor madaniyatini maqsadli ravishda shakllantirishga qodir.

Zamonaviy ta’lim amaliyoti tomonidan qabul qilingan kompleks rivojlanish dasturlarini tahlil qilib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, “Axloqiy tarbiya” bo‘limi faqat an’anaviy prognoz qilingan. Boshqa murakkab dasturlarda axloqiy tarbiya yo‘nalishining mazmuni ba’zi bo‘limlarda parcha kiritilgan. Shunday qilib, axloqiy madaniyatni shakllantirish vazifalari “Jamoaviy rivojlanish” va “Ijtimoiy rivojlanish” bo‘limlarida hal qilingan. Katta maktab yoshdagi o‘quvchining shaxsiy madaniyati asoslarini shakllantirishning maqsad va vazifalariga yo‘naltirilgan normativ hujjatlar mazmunini tahlil qilish asosida va maqsadlarni, birinchidan, zamonaviy ta’lim dasturlarida taqdim etilgan.

Shunday qilib, o‘quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish bo‘yicha muayyan ish tizimining dasturlari mazmunida yo‘qligi bolalarning xatti-harakatlarini ongli ravishda nazorat qila olishi bilan tavsiflangan sezgir davrga olib kelishi mumkin va ularning axloqiy tuyg‘ulari boshqa motivlarga qaraganda ko‘proq harakatlantiruvchi kuchga ega bo‘lib, o‘qituvchilar e’tiboridan chetda qolishi mumkin.

## **XULOSA**

O‘quvchilarda axloqiy tarbiyani shakllantirish ob’ektiv hayot sharoitlari, ta’lim va tarbiya ta’siri ostida, turli xil faoliyat jarayonida, umuminsoniy madaniyatni o‘zlashtirishda sodir bo‘ladi va pedagogikaning yaxlit jarayoni sifatida samarali amalga oshiriladi. Umuminsoniy axloq normalari, o‘quvchining butun hayotini ularning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish. Demak, tarbiyaviy ishlar axloqiy g‘oyalarni o‘z ichiga olishi va turli va samarali shakllarda, mazmunli va kerakli hissiy boylik bilan olib borilishi kerak.

O‘quv va ijtimoiy faoliyatining g‘oyaviy-axloqiy mazmunining boyligi, darsdan tashqari mashg‘ulotlarning rang-barangligi, oiladagi turmush tarzi bolalar axloqini shakllantirishning eng muhim manbalari hisoblanadi.

Ta’lim oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal qilish jarayonida katta maktab yoshidagi o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalash shakllari, mazmuni va imkoniyatlari o‘rganildi.



Biz axloqiy g'oyalar va xatti-harakatlarning muvaffaqiyatli shakllanishi uchun quyidagilar zarur degan xulosaga keldik:

axloqiy tarbiyaning psixologik-pedagogik jarayon sifatidagi mohiyatini to'liq anglash;

axloqni shakllantirish "mexanizmlari"ni bilish;

xulq-atvor madaniyatini shakllantirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish, axloqiy tarbiyaning yo'l va vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq eta olish;

Axloqiy tarbiyada ijobiy axloqiy tajriba hal qiluvchi ro'l o'ynaydi, bu o'quvchilarning muloqoti va birgalikdagi faoliyati to'planishi uchun alohida ahamiyatga ega. Ammo tajriba faqat xatti-harakat yuqori maqsadlar uchun amalga oshirilganda maqsadga olib keladi.

### **REFERENCCEES**

1. Bure R.S., Ostrovskaya L.F. O'qituvchi va bolalar / R.S. Bure. - M., 1997.- 143 b.
2. R.Mavlanova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova Pedagogika nazariyasi va tarixi Toshkent-2010. 318 b.
3. X,Ibragimov, Sh.Abdullayeva Pedagogika nazariyasi Toshkent-2008.
4. Ivanova Nutq madaniyatini tarbiyalash. // Maktabgacha ta'lim. - 1988 yil - 12-son. - B. 6-12.

**TALABALARGA XITOIY TILINI O'QITISHDA HSK 5 (C1) DARAJADA  
QO'LLANILADIGAN SINONIMLARNI O'QITISH METODIKASI**  
(如何/怎么; 耐心/耐烦)

**Dilshoda Mamatova**

Samarqand davlat chet tillari instituti, Yaqin sharq tillari kafedrası o'qituvchisi  
Tel: +998972885603

**ANNOTATSIYA**

*Maqolada hozirgi kunda xitoy tili o'rganuvchilar soni yildan-yilga o'sib borayotganini hisobga olgan holda, og'zaki va yozma nutqda sinonimlarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolar kuzatilayotganligi sababli bu mavzuga atroflicha to'xtalib o'tilmoqda. Mazkur maqolada talabalar til bilish darajasi imtihonlari va ularga tayyorlanish jarayonlarida HSK 5 darajasidagi o'qish ko'nikmasining birinchi bo'limidagi (46-60 savollar) sinonimlar hamda milliy chet til bilish darajasini aniqlovchi imtihonning uchinchi bo'limi leksik va grammatik kompetensiyalar bo'limida uchraydigan qiyinchiliklarini qanday qilib o'qitish metodikasi hamda sinonimlarni to'g'ri qo'llay olish bo'yicha qisqacha mulohaza yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** 如何, 怎么, 耐心, 耐烦, sinonimik qator, xitoy tili

**АННОТАЦИЯ**

*В статье подробно рассматривается данная тема, так как существует множество проблем, связанных с употреблением синонимов в устной и письменной речи, учитывая, что количество изучающих китайский язык в настоящее время увеличивается с каждым годом». В этой статье учащиеся узнают о синонимах в первой части HSK 5 уровня навыков чтения (вопросы 46-60) и третьей части национального теста на знание иностранного языка в разделе лексико-грамматических компетенций. учить возникающим трудностям и правильному употреблению синонимов.*

**Ключевые слова:** 如何, 怎么, 耐心, 耐烦, синонимический ряд, китайский язык

**ABSTRACT**

*The article focuses on this topic in detail, as there are many problems associated with the use of synonyms in oral and written speech, given that the number of Chinese language learners is currently increasing year by year. ' In this article, students will learn about synonyms in the first part of HSK 5 level reading skills*

(questions 46-60) and the third part of the national foreign language proficiency test in the section of lexical and grammatical competencies, a brief review of how to teach the difficulties encountered and the correct use of synonyms.

**Keywords:** 如何, 怎么, 耐心, 耐烦 synonymous series, Chinese

## **KIRISH**

Sinonim soʻzlar (同义词 tóngyící) yoki maʼnodosh soʻzlar bir xil yoki bir-biriga yaqin maʼnolarini anglatuvchi, lekin shaklan har xil boʻlgan soʻzlardir. Sinonimlar semantik jihatdan yaqin, oʻxshash, parallel hosil boʻldigan soʻzlardir. Maʼnoviy yaqinligiga ega boʻlishiga qaramay ular nozik semantik jihatlar orqali ham bir-biridan farqlanadi. Sinonimlar tilning boyligini koʻrsatadi. Tilda sinonimlarning koʻligi fikrni, tuygʻularni ifoda etishda keng imkoniyat tugʻdiradi. Nutqni esa egiluvchan va ifodali qiladi. [6,122]

Sinonimlarning kelib chiqishiga har xil sabablar mavjud. Xitoy tilida sinonimlarning bir nechta kelib chiqish sabablarini koʻrish mumkin. Koʻpgina leksik sinonimlar tilde nozik maʼnoviy farqlarni yetkazib berish uchun ham kerakdir, shu tariqa ular hayotga tatbiq qilingan. Qadimiy venyan va yangi bayxua tillari ham sinonimlarning paydo boʻlishining asosiy sabablaridan biridir. Yakka sinonimlarning maʼlum miqdorda koʻpayishiga umumxalq putunxua tilida shevaga oid soʻzlarning vujudga kelganligidir. Shu bilan birga boshqa tillarda oʻzlashgan soʻzlarning kirib kelishi ham sinonimlarning paydo boʻlishiga katta rol oʻynaydi. [5,170]

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ishda 刘畅, 鲁江 mualliflarining “标准教程 HSK 5” darsligidagi koʻpgina sinonimlardan, 李禄兴 ning “新 HSK 5000 词分级词典 (四 - 五级)” qoʻllanmasidan, “汉语近义词辨析” oʻquv qoʻllanmasidagi HSK 5 darajasiga oid sinonimlar taʼriflaridan, “1700 对近义词语用法对比” lugʻatlari hamda bir nechta mavzuga oid ilmiy maqolalardan foydalindi.

“1700 对近义词语用法对比” yaʼni “1700 sinonimlar taqqoslab qoʻllash” nomli lugʻatda har bir soʻzga alohida taʼrif berilgan, sinonim soʻzlar oʻrtasidagi farqlar, oʻxshashliklar, qaysi soʻz va birikmalar bilan qoʻllanila olishiga oid maʼlumotlar aks etgan. “汉语近义词辨析” oʻquv qoʻllanmasidagi sinonimik qator kengroq boʻlib, misollar bilan yoritib berish talabalarni oʻqitishda qulayliklarga egadir.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xitoy tilida HSK 5 darajasida sinonimlar juda ko'p miqdorni tashkil qiladi. Biz quyida bir nechtasini ko'rib o'tamiz:

### 如何-怎么 sinonimik qatori

“如何”- olmosh so'z turkumiga oid so'z bo'lib, o'zbek tilida “qanday, qanday qilib” deb tarjima qilinadi. Mazkur so'z xitoy tilida HSK 5 darajasida 怎么, 怎么样 so'zlari bilan sinonim bo'la oladi.

“如何”- ish-harakatning qay yo'sinda amalga oshishini so'rashda hamda gap oxirida kelib, voqea-hodisa haqida fikr so'ralganda yoki holat haqida so'z ketganida qo'llaniladi:

1. 你最近身体情况如何?
2. 我们希望由你来负责解决这个问题, 如何?
3. “80后”们月收入情况如何?
4. 如何才能快速提高汉语水平?
5. 你来负责这个晚会, 如何?
6. 我们如何才能让他满意?
7. 你要想好如何安排今后的生活。[2, 486]
8. 我们明天举行会议, 讨论这个问题该如何解决。
9. 评委们叫第一对夫妻说说他俩是如何恩爱的。
10. 我不清楚他是如何解决这个问题的。

“如何” va “怎么” olmoshlarining har ikkalasi ham usulni so'rashda qo'llaniladi:

只有知道如何/怎么停止的人, 才知道如何/怎么高速前进。[1, 6] Ushbu misolda “如何” va “怎么” olmoshlarining har ikkalasini qo'llash mumkin, bu ularning umumiy xususiyati, o'xshash tomonidir. Quyida “如何” va “怎么” olmoshlarining farqlarini ko'rib chiqamiz:

1. “如何” ko'proq kitobiy, “怎么” so'zlashuv uslubda qo'llaniladi.  
该如何爱护我们的地球? (kitobiy uslub)  
你今天是怎么来的? (so'zlashuv uslub)
2. “如何” voqea-hodisalarning sababini so'rash uchun qo'llanilmaydi.  
“怎么” sababni so'rash uchun qo'llaniladi:

今天怎么这么冷？(sabab so'rolmoqda, ushbu gapda “怎么”ning o'rniga “如何”ni qo'llana olmaydi)

3. “如何” gap oxirida kelib, vaziyatni haqida so'rash yoki fikrni umumlashtirish ma'nosini ifodalaydi:

最近身体如何？

“怎么” gap boshida kelib, hayratlanish ma'nosini beradi:

怎么，你不认识我了？！

Quyida “怎么” va “如何” sinonimik birliklarni qaysi o'rinda qo'llash bo'yicha misollar keltirilgan:

1. 他向经理叙述了自己是**如何/怎么**解决这问题的。
2. 你**怎么**这么不耐烦？
3. 谁知道他们是**怎么**吵起来的？
4. 听说你去电台工作了？情况**如何**？[1,6]

Shuningdek, “如何” olmoshi “怎样” olmoshi bilan, “怎么” so'roq olmoshi “怎么样” hamda “为什么” kabi so'roq olmoshlari bilan ham sinonim bo'la oladi, mavzu doirasidan chiqib ketmaslik uchun bu sinonimlarga atroflicha to'xtalib o'tmadik.

Yuqoridagi sinonimlarni talabalarga o'rgatish jarayonida har bir farqlariga alohida urg'u berib, misollar va testlar orqali tushuntirish samarali natija beradi.

### **耐心-耐烦 sinonimik qatori**

耐烦 - chidamli - sifat so'z turkumiga oid bo'lib, ko'proq inkor shakldagi gaplarda qo'llaniladi, qiyinchilikdan qo'rqqmaslik, shoshmaslik ma'nolarini anglatadi, “不” inkor shakli bilan qo'llaniladi, “没（有）” bilan qo'llanila olmaydi.

耐心 – chidam, chidamli ham ot, ham sifat so'z turkumiga tegishli, tasdiq shaklda ham, inkor shaklda ham qo'llaniladi, “不” hamda “没（有）” inkor shakllarining har ikkisi bilan ham qo'llanila oladi. “耐心” gapda to'ldiruvchi vazifasida qo'llaniadi, “耐烦” da bunday qo'llanilish yo'q.

“耐心” quyidagi gaplarda sifat so'z turkumida qo'llanilgan:

1. 我们学得很慢，但老师对我们很耐心。

2. 服务员耐心的服务态度让顾客很满意。
3. 他给我们耐心地解释了这一切。
4. 在他耐心的教育下，他改正了错误。
5. 老师一遍一遍教得很耐心。

“耐心” quyidagi gaplarda ot so'z turkumida qo'llanilgan:

1. 他缺乏耐心，爱着急。
2. 耐心不够是他最大的缺点。
3. 对孩子，他很耐心。
4. 你怎么一点儿耐心也没有？

Quyidagi jadvalda 耐心-耐烦 sinonimlarining qaysi so'zlar bilan birikma hosil qila olishi yoki birga qo'llanilmasligi haqida ma'lumot berilgan:

	有~	没有~	不~	很~	~地听	~帮助别 人	~地学
耐烦	×	×	√	×	×	×	×
耐心	√	√	√	√	√	√	√

耐心 va 耐烦 so'zlarining gaplarda qo'llanilishiga e'tibor qarating:

1. 他还没有说完呢，你就不耐烦听了。(他还没有说完呢，你就不耐心听了 - mazkur gapda har ikkala so'z ham almashilinib qo'llanila oladi)
2. 你怎么那么不耐烦呢? (你怎么那么不耐心呢? - bu o'rinda ham ikkala gap ma'nodosh hisoblanadi)
3. 我已经等得不耐烦了。(我已经等得不耐心了 gapi grammatik qoidalarga to'g'ri kelsa-da, gap mazmun jihatidan xato bo'ladi, bu gap ma'nosini 我已经等得没耐心了 bera oladi)
4. 他很耐心地听着大家的发言。(bu gapda ham 耐心 o'rniga 耐烦 ni qo'llab bo'lmaydi)
5. 有不懂的问题问王老师时，他总是耐心地给我们讲。(bu gapda sinonimlar o'zaro almashilinib qo'llanila olmaydi)
6. 他没有耐心无论学习什么，都是三天打鱼，两天晒网。[4,875]

Talabalarga 耐心 va 耐烦 sinonimlarini o'zaro almashinilib qo'llay olish holatlari va grammatik jihatdan farqli tomonlarini to'g'ri, aniq asoslar bilan tushuntirib o'tilishi lozim.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Chet tillarini o'qitish metodikasida talabalarga sinonimlarni o'qitish jarayonida yetarlicha muammolar kelib chiqadi. Natijada so'z qo'llash bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilganda, o'qish ko'nikmasidagi mashq va testlarda ham, yozish ko'nikmasi qismidagi insho yozish va so'zlarni gap shaklida to'g'ri tartiblash mashqlarida ham so'z qo'llash bilan bogliq bo'lgan nutqiy g'alizlikni keltirib chiqaradi. Gaplar leksik-grammatik jihatdan xato bo'ladi. Shuning uchun, talabalarga sinonimlarni o'qitish jarayonida har bir so'zga hamda ularning sinonimlariga batafsil to'xtalib o'tish lozim. Har bir sinonim so'z qaysi holatlar qo'llanishi, qaysi so'zlar bilan turg'un birikma hosil qilishini dars berish jarayonida ta'kidlab o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fikr isboti sifatida har bir grammatik qoidalar ko'plab misollar bilan isbotlanishi, sinonim so'zlarning turli uslubdagi matnlarda qo'llanishi bilan bog'liq gaplar keltirilishi kerak, shundagina talabalarda sinonim so'zlar orasidagi farqni eslab qolish imkoniyati kengroq bo'ladi. Xitoy tilida o'qish ko'nikmasidagi testlar hamda mavzuga oid mashqlar bajarish, yangi o'rganilgan sinonimlar ishtirokida gaplar tuzish, matnlar yozish talabalarining eslab qolish ko'nikmasini rivojlantirishga sababchi bo'ladi. Xitoy tilini o'qitish metodikasida muntazam ravishda ushbu usullardan foydalanish o'z samarasini beradi.

### **REFERENCES**

1. 刘畅, 鲁江 标准教程 HSK 5, 北京语言大学出版社, 183 页。
2. 李禄兴 新 HSK 5000 词分级词典 (四-五级), 北京语言大学出版社, 2014. 662 页。
3. 汉语近义词辨析, 北京语言大学出版社, 2011. 291 页。
4. 1700 对近义词语用法对比, 北京语言大学出版社, 2009. 1641 页。
5. Sultonova L.A. "Xitoy tili leksikologiyasi", T-2015., 170 b.
6. Gorelov V.I. Leksikologiya sovremennogo kitayskogo yazika- M.,1984.- C.122
7. <https://jinyifanyi.bmcx.com/>
8. [https://jinyifanyi.bmcx.com/%E5%A6%82%E4%BD%95\\_jinyifanyi/](https://jinyifanyi.bmcx.com/%E5%A6%82%E4%BD%95_jinyifanyi/)

## **INCREASING EDUCATIONAL EFFICIENCY IN FOREIGN LANGUAGE (RUSSIAN) LESSONS**

**Abdualimova Dilfuza Hikmatovna**

Teacher of the Department of Russian language  
Academic Liceyum at the National University of Uzbekistan

**Kalandarova Mukhabbat Iskandarovna**

Senior teacher of the Department of Russian language  
Academic Liceyum at the National University of Uzbekistan

### **ABSTRACT**

*The article discusses the general innovation of the general pedagogical system - the process of coordinating its educational process and gathering the most convenient of the many opportunities. It is possible to work in such a complex, dynamic, multifaceted, close pedagogical system. There are alternatives, as well as targeted ways to organize flow and learning activities. But only one of them can fit a particular situation. Finding it is the main task of coordination. This task is solved by comparing possible alternatives and evaluating other available options.*

**Keywords:** *pedagogical system, theoretical and practical training, coordination, classification, innovation, process, type of education.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается общее нововведение общей педагогической системы - процесс координации ее образовательного процесса и собирания наиболее удобных из множества возможностей. В такой сложной, динамичной, многогранной, тесной педагогической системе можно работать. Существуют альтернативы, а также целевые способы организации потока и учебной деятельности. Но только один из них может подойти к конкретной ситуации. Нахождение его и есть основная задача согласования. Эта задача решается путем сравнения возможных альтернатив и оценки других доступных вариантов.*

**Ключевые слова:** *педагогическая система, теоретическая и практическая подготовка, координация, классификация, инновация, процесс, вид обучения.*

### **INTRODUCTION**

First, it is necessary to determine which lessons are suitable for integration. The basis of such lessons is related to the closeness of the content and logical connections of the main topics of different disciplines.

Literacy classes (teaching reading and writing).



Integrated lessons An integrated course from the beginning is reading outside the classroom. Here is the whole process:

- A) improve the skills acquired in reading lessons as a book reader;
- B) work on the text;
- C) choosing a circle of interlocutors, like choosing books.

English is also an integrated course that allows students to master the material of reading, writing, speaking, as well as the basics of algebra and geometry, labor education. Integration in interdisciplinary justification in the didactic system implies the compatibility of teacher (teaching) and student (learning) actions. Both activities have a common structure: goals, causes, content, tools, results, control. However, there is a difference in the content of teacher and student activities.

1. At the target stage, the teacher sets a common goal. Students, under the guidance of a teacher, need to understand the interdisciplinary relationships, select the necessary knowledge from different subjects, so that their attention is focused not only on the acquisition of general knowledge, but also on the transfer, analysis, should focus on the development of symptoms, abilities and interests.

2. At the proof stage, the teacher encourages students to generalize the concepts of different subjects to the knowledge that develops their worldview. Students will be interested in knowledge that expands their will, their worldview.

3. In the content phase of the activity, the teacher introduces new learning material, while integrating basic knowledge from other subjects at the level of integration evidence, concepts, problem sets. Students acquire a general understanding, problems at the level of general knowledge.

4. Textbooks, spreadsheets, new words, questionnaires, practical tasks. Students perform transfer, generalize, and attach characters using visual aids in solving integration problems.

5. The next step is the result. The teacher uses pedagogical knowledge to implement integration in order to teach, develop, nurture. The student generalizes in the knowledge system and applies them in practice.

6. At the control stage, the teacher assesses, monitors and evaluates the readiness of students for interrelated subjects. Students monitor their knowledge assessment, as well as their ability to combine them in different subjects.

## **MATERIAL AND METHODS**

The introduction of an integrated system that does not negate the stratification of education and complements it is a traditional way of educating educated young

people with a holistic outlook, the ability to independently organize their existing knowledge and a non-traditional approach to solving various problems. 'helps more than the unit.

What is the essence of integrating education? The concept of "integration" in relation to education has two meanings:

1. To give the student a good idea of the environment (where integration is seen as an educational goal).
2. Find a common platform for converging subject knowledge (where integration is a learning tool).

The goal of integrated education is not to impart knowledge that shows that the individual parts of the universe are interconnected, but to teach the child in the first steps to imagine a holistic universe in which all the elements are interconnected. This goal should be achieved by the primary school.

Integration is a means of accepting new ideas within the boundaries of subject knowledge. First of all, it is necessary to fill in the gaps between the knowledge of stratification, to study the connections between them.

It is aimed at increasing the knowledge of the learner, renewing the narrow specialization in education. At the same time, integration should not replace the classical subjects of education, it should only integrate the acquired knowledge into a single system, the difficult side of the problem is the dynamic development of integration from the beginning to the end of education. If in the beginning it was necessary to know a little about everything, then it is necessary to combine scattered knowledge or skills, and in the end it is necessary to "know all about a little"; that is, it is a new level of integration specialization.

## **RESULTS AND DISCUSSION**

Coordination means the level of conformity of the pedagogical system to the goals for which it was established. The conformity achieved for one condition is never consistent with other conditions. Therefore, the concept of coordination requires precision. Coordination cannot be general, it can only occur with respect to a specified distance. It can only occur with respect to a specified distance. At the same time, it is necessary to have a clear idea of the purpose for which the pedagogical system should be coordinated, and which guidelines should be consistent with the set goal.

It is necessary to distinguish between the theoretical and practical directions of coordination. A synonym for the concept of coordination is to theoretically calculate,

estimate, compare, and contrast alternatives. Coordination is the most convenient way to innovate, reorganize, restructure, solve problems in the practical direction.

The solution of coordination issues begins with the selection of the main criterion. Coordinating criteria are the appropriate criteria for evaluating possible development alternatives and selecting the best one.

Criterion - despite the fact that measurement requires the logic of a single indicator, pedagogy it always turns out to be complex, because the processes that take place in the pedagogical system can not be separated into causal streams. As mentioned earlier, the desired results can be achieved through over-employment of teachers and students. The additional load leads to a decrease in working capacity, deterioration. Measurement criteria for coordination are needed. Only then can the teacher and the students, working to the best of their ability, consider the learning process to be optimal.

It should be noted that according to the previous rules, no one has canceled them yet, 1 hour for the child to perform tasks in the first grade, 1.5 hours in the second grade, 2 hours in the third - fourth grade, fifth - sixth should spend 2.5 hours in grades, 3 hours in seventh grade, and 4 hours in eighth to ninth grade. Thus, the main criterion for the coordination of the educational process - as a measure, the two indicators are applied in relation to each other.

1. Education - to achieve the highest possible results in the upbringing and development of students in those conditions.

2. Students and teachers of all ages should follow the established norms of time spent on homework. The methodological basis of coordination is a systematic approach that requires the study of all components of the pedagogical process, the management of complex dynamic systems of mutual legal relations, based on a common theory. Coherence by philosophical categories is based on "boundaries". The pedagogical system opposes the hyperbolization of one or another organizer in increasing or decreasing the pace of activity, the complexity of teaching, requiring the selection of boundaries according to their vision.

The main methodological requirements for the coordination of the pedagogical system are: Coordination management procedures should cover the entire system.

## **CONCLUSION**

Relying on the whole system of laws of the educational process in choosing the optimal alternative. Regularly record the ability of all system components to

coordinate. Coordination is seen as a constantly evolving innovative process that supports higher issues and more advanced technology in solving them.

It should be noted that, on the one hand, coordination implies the adaptation of the pedagogical process to the existing conditions, on the other hand, it creates new conditions and requires the adaptation of the pedagogical process to it. There is no contradiction here, because these two processes are interconnected. If you adapt to the situation today, it has to do with a situation that is not up to us.

But the educator always strives to coordinate them so that they can succeed. In practice, coordination begins with linking the knowledge acquired by students in the classroom and school in general, as well as the level of development of their upbringing, with established indicators. It is usually lower than the level of evaluation with a clearly defined indicator. After a while, the results are projected to the level of possibility of growth. Then a system of educational measures aimed at “ensuring the intended change is applied. The results obtained at the end of this work are compared with those that are optimal for hunting processes, student and teacher homework and the forces expended on extracurricular activities are compared with those in the norm and a conclusion is drawn about the degree of coordination.

## REFERENCES

1. Qizi, A. K. H. (2021). IMPROVING LITERACY SKILLS THROUGH LEARNING READING. *Наука и образование сегодня*, (4 (63)), 85-86.
2. Ibragimova, S. (2020). Study of phrasal verbs in innovative activity of English teachers. *Архив научных исследований*, (18).
3. Akramxodjaeva, D., Nasretdinova, M., & Abdullayeva, M. (2020). Translation of national events and concepts in fiction. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(2), 2984-2986.
4. Абдуллаева Мархабо Рахмонкуловна, (2020). ‘ИНСОНИЯТНИНГ ЎЗАРО МУНОСАБАТИДАГИ МИЛЛИЙ КОЛОРITНИ ИФОДАЛОВЧИ ФЕЪЛЛИ ФРАЗЕМАЛАР (Агата кристи асарлари талқинида)’ ‘МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЛЕКСИКОЛОГИЯ ВА ЛЕКСИКОГРАФИЯ: АНЪАНАЛАР ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН ИЛМИЙ МАКТАБЛАРИ’ республика илмий-амалий конференцияси илмий тўплами, 153-158.
5. Marhabo Rahmonkulovna Abdullayeva, (2020). ‘Insoning tabiatga munosabatidagi milliy koloritni ifodalovchi felli frazemalar ( Agata Kristi asarlari tarjimalari talqinida)’ ISSN 2181-0842, 509-513.

- 
6. Ibragimova, S. (2020). Study of phrasal verbs in innovative activity of English teachers. *Архив научных исследований*, (18).
  7. Абдуллаева, М. Р. (2021). Инглиз тилидан ўзбек тилига таржима жараёни ва унинг мохияти хусусида. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, 2(2), 297-306.
  8. Abdullayeva, M. R. (2022). GROUPING OF OPPOSITE OPTIONS OF VERBAL PHRASEMAS IN UZBEK LANGUAGE (EXAMPLE OF TRANSLATIONS OF AGATHA CHRISTIE'S WORKS). *Scientific progress*, 3(2), 190-193.
  9. SevaraBaxodirovna, I., Sharipjanovna, R., BarnoAliyevna, T. (2021). Development Of Lexical Competence In Students Of Higher Educational Institutions. *Int. J. of Aquatic Science*, 12(3), 2938-2943.
  10. Ibragimova Sevara Bakhodirovna (2020). 'Use of New Pedagogical Technologies in Foreign Language Lessons', *IJAPR*, ISSN: 2643-9123 Vol. 4 Issue 12, December - 2020, Pages: 38-39.

## TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN INCLUSIVE EDUCATION

**Bekmuratova Shohsanam Mukhtorbek kizi**

Lecturer at Tashkent State University of Economics.

### ABSTRACT

*The issue of teaching foreign languages in higher education is today is becoming one of the most pressing issues of the day. At present, the level of development of students' knowledge in the Republic, opportunities, features and special or general education. In order to implement education in the system, an inclusive education system is being implemented.*

**Keywords:** special education, inclusive education, social segregation,

### АННОТАЦИЯ

*Вопрос преподавания иностранных языков в высшей школе на сегодняшний день становится одним из самых актуальных вопросов современности. В настоящее время уровень развития знаний учащихся в республике, возможности, особенности специального или общего образования. В целях внедрения образования в систему внедряется система инклюзивного образования.*

**Ключевые слова:** специальное образование, инклюзивное образование, социальная сегрегация,

### INTRODUCTION

The culture of inclusive education is in line with the Salamanca Declaration is seen as evidence that supports and endorses the reform of a student's character. Its goals are not to prevent social segregation caused by differences in gender, race, culture, social nationality, religion, individual opportunity and ability. However, the concept turned out to be unsuitable for universal use.

According to world experience, enrollment in schools is often seen as a disability education in secondary schools along with their peers (Judy Kugel'mas) but the essence of inclusive education is that knowledge and knowledge are still insufficient in society. The terms "inclusive" and "integrated" are often used interchangeably.

The views of the famous Eastern scholars Ibn Sina, Imam Bukhari, Abu Nasr Farobi, Alisher Navoi, Abdullah Avloni on the impact of education on the development of each child's personality are the methodological basis for the development of inclusive education.

For a very long time, the education of children with special needs in special segregation educational institutions was considered more effective than in general education institutions. Worldwide from 1970-1980 the promotion of the idea of humanity and non-discrimination has led to a greater focus on children with special needs.

### **LITERATURE ANALYSIS AND METHODS**

In the process of analyzing this article, the logic of scientific knowledge, methods of historicity, consistency, and objectivity have been widely used. In inclusive education

with a brief analysis of the problems of teaching and educating children with disabilities. Kryjanovskaya L.M. "Psychological correction in conditions of inclusive education. Handbook for psychologists and educators" was taken as a logical analysis.

### **DISCUSSION AND RESULTS**

In an inclusive education system, the following goals and objectives need to be addressed are:

- Education of children and adolescents with disabilities in the educational institution creation of necessary psychological-pedagogical, correctional conditions for them, general education programs and correctional work aimed at their ability mental development through implementation, implementation of social adaptation;
- guaranteeing the equal rights of students in education;
- disabled and healthy children with the active participation of society and the family satisfaction of needs, early adaptation to social life;
- Children and adolescents with disabilities without separation from families exercise of the right of residence;
- Friendly to children and adolescents with disabilities in society and the formation of a loving relationship.

Problems of inclusive education. In many countries, the introduction of inclusive education is not specified in government regulations;

Negative treatment of children with disabilities;

The problem of invisibility of children with disabilities in the community;

Children with disabilities should not be seen in school the problem;

Financial problems;

Adaptation of educational institutions;

Large number of students in the class;

Poverty;

Discrimination based on gender differences;

Addiction of children with disabilities;

Emergencies, conflicts, refugees;

Personnel issues. The right question is why involve children with disabilities in an inclusive education system to do? What is the need to move to an inclusive education system by addressing the above issues?

Indeed, solving the problems facing this education system will not be easy. But there are many benefits to this education system, including:

- Inclusive education allows to get rid of the burden of poverty;
- Inclusive education improves the quality of education for all;
- Prevents discrimination;
- Inclusive education leads to more inclusiveness.

Principles of inclusive education:

1. Human dignity does not depend on one's abilities and achievements.
2. Everyone has the ability to think and feel.
3. Everyone has the ability to hear and communicate.
4. Everyone needs each other.
5. Complete and genuine education of a person is possible only through real cooperation.
6. Everyone needs the support of their peers.
7. The success of all learners is not that they cannot do something, but that they can do something.

8. Collaboration enhances a person's life in every way. The inclusive education system includes the following educational institutions;

pre-school education, general secondary education, secondary special vocational education and higher education. The purpose of these educational institutions is to educate children and prepare them for the profession creating an open learning environment by removing the barrier between them.

Secondary schools do not have access to separate programs and textbooks. An inclusive education system differs from an integrated education system in its content, goals, objectives, and program of action.

There are still many challenges and barriers to the implementation of inclusive education in the world. These include: Negative attitude; Not to be seen in the community; Financial problems; Physical adaptation; Number of students in the class; Addiction; Discrimination based on gender; Emergencies, conflicts and refugees.



Negative attitudes are probably the biggest obstacle for children with special needs to be educated in the general education system. The essence of the problem of negative attitudes is that parents, community members, teachers, general education staff, even children with special needs in government are reluctant and unwilling to be educated in their own general education institutions. This is due to misconceptions about people with disabilities, lack of information about them, growing in a confined space, and so on.

The problem with invisibility in the community is that many children with special needs are often locked up by their parents. They will not be shown to anyone under house arrest, and no information about the disabled child will be provided during the registration process.

As a result, many children with disabilities are deprived of participation in the community. Lack of information about them means that they do not attend educational institutions.

## CONCLUSIONS

Experience in the implementation of inclusive education has shown that the goal can be achieved if any shortcomings of STUDENTS with disabilities are identified in a timely manner and referred to professionals. That is, inclusive education is more effective.

## REFERENCES

1. Akramkhodjaeva, D. A. (2021, November). Achieving High Quality Through the Use of Pedagogical Methods in the Educational Process. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 2, pp. 126-129).
2. Zoxiriy, P. H. Z. Q. (2021). INKLYUZIV TA'LIMDA NOGIRON BOLLALARNI O'QITISH VA TARBIYALASH MUAMMOLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1).
3. АБДУЛЛАЕВА, М. Р. (2018). НАЦИОНАЛЬНЫЙ КОЛОРИТ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ (УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ). In *Проблемы и перспективы развития России: Молодежный взгляд в будущее* (pp. 19-23).
4. Akramkhodjaeva, D., Nasretdinova, M., & Abdullayeva, M. (2020). Translation of national events and concepts in fiction. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(2), 2984-2986.
5. ABDUGANIYEVNA, A. D. Effective Teaching of a Foreign Language Through a Contextual Approach. *JournalNX*, 6(10), 180-181.

6. Raxmonkulovna, A. M. (2021). Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima yaraishi va o'ziga xos xususiyatda. *Innovation, integration va ta'lim bo'yicha xalqaro ma'lumot jurnali*, 2(2), 297-306.
7. Marhabo Raxmonkulovna Abdullayeva, (2020). 'Insonning tabiatga munosabatidagi milliy koloritni ifodalovchi felli frazemalar ( Agata Kristi asarlari tarjimalari talqinida)' ISSN 2181-0842, 509-513.
8. Raxmonkulovna, A. M. (2021). English-uzbek translation process and their analysis. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(05), 583-601.
9. Abdujabborova Kamola Husniddin Qizi IMPROVING LITERACY SKILLS THROUGH LEARNING READING // Наука и образование сегодня. 2021. №4 (63). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/improving-literacy-skills-through-learning-reading>
10. SevaraBaxodirovna, I., Sharipjanovna, R., BarnoAliyevna, T. (2021). Development Of Lexical Competence In Students Of Higher Educational Institutions. *Int. J. of Aquatic Science*, 12(3), 2938-2943.
11. Rakhmanberdiyeva, K. S. (2022). ANALYSIS OF INDEPENDENT LEARNING TECHNOLOGY IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING TO STUDENTS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 35-39.
12. SevaraBaxodirovna, I., Sharipjanovna, R., BarnoAliyevna, T. (2021). Development Of Lexical Competence In Students Of Higher Educational Institutions. *Int. J. of Aquatic Science*, 12(3), 2938-2943.
13. Ibragimova Sevara Bakhodirovna (2020). 'Use of New Pedagogical Technologies in Foreign Language Lessons', *IJAPR*, ISSN: 2643-9123 Vol. 4 Issue 12, December - 2020, Pages: 38-39.

## **O'ZBEK TILIDA MAKON DEYKSISINING IFODALANISHI**

**Yoqubjonova Mexrinoz Yaxyojon qizi**

Andijon davlat universtiteti Filologiya fakulteti

III-bosqich 303-guruh talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada makon deyksisining o'ziga xos xususiyatlari va uning o'zbek tilida ifodalanishi pragmatik aspektida o'rganilgan. Makon deyksisini ifodalovchi faol birliklardan biri olmoshlar hisoblanadi va olmoshlardan namunalar berilib, ma'noviy turlariga ham to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** makon deyksisi, birlamchi va ikkilamchi deyksis, olmosh va uning ma'noviy guruhlari.*

### **ABSTRACT**

*This article explores the features of spatial dexterity and its pragmatic expression in the Uzbek language. One of the active units representing spatial dexterity is rhyme, while examples of rhyme are given, and spiritual types are also mentioned.*

***Keywords:** spatial dexterity, primary and secondary dexterity, diamond and its spiritual groups.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье исследуются особенности пространственной ловкости и ее прагматичное выражение на узбекском языке. Одной из активных единиц, репрезентирующих пространственную ловкость, является рифма, при этом приводятся примеры рифмовки, а также упоминаются духовные типы.*

***Ключевые слова:** пространственная ловкость, первичная и вторичная ловкость, алмаз и его духовные группы.*

### **KIRISH**

Muloqot jarayonida uning ishtirokchilari egallagan o'ringa ishora makon deyksisi mazmunini tashkil qiladi. Voqelikning idrok qilinishi va bu idrokning lisoniy ifoda topishi ikki asosiy lisoniy – tafakkur harakatini talab qiladi : birinchidan, voqelik parchasini tavsiflash lozim bo'lsa, ikkinchidan, uni ma'lum makonda joylashtirish talab qilinadi. Ammo makonda joy olishning o'zi ham ikki ko'rinishda bo'ladi. Obyektlar bir-biriga nisbatan joylashadilar:

- a)Registon Samarqandning markazida joylashgan;
- b)Rasadxona janubiy kenglikning 50 gradusida joylashgan.

Bu misollarda makon deytik mazmunga ega emasdek tuyuladi, chunki bunday makon tasavvuri va ifodasida muloqot ishtirokchilarining o'zni yo'q. Makon muloqot ishtirokchilarining muloqot kechayotgan paytdagi o'ziga nisbatan belgilanishi deytik xarakterga ega.<sup>106</sup>

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Makon deyxisini hosil qiluvchi birliklar makon semantik maydonga birlashuvchi birliklardan makonni qay tarzda aks ettirishiga ko'ra farqlanadi. Makon deyxisini hosil qiluvchi birliklar bevosita makonni ifodalamaydi, balki obyekt yoki subyektning borliqda egallagan o'ziga ishora qiladi yoki ko'rsatadi. Makon deyxisining ifodalanishi nutqiy vaziyatga bog'liq bo'ladi. Muayyan obyekt yoki subyektning joylashish o'ziga ishora nutq ishtirokchilariga, ya'ni so'zlovchi va tinglovchiga nisbatan belgilanadi. Deyxisning semantik asosida "men", "so'zlovchi" tushunchalari yotadi. Bunda so'zlovchi nutqiy muloqot aktining yuz berayotgan vaqti va o'zini belgilovchi markaz, mo'ljal sanaladi. Biroq bu o'rinda tinglovchining o'zini ham inobatga olinishi maqsadga muvofiq. Negaki, nutqiy muloqotda so'zlovchi va tinglovchi bir-birini ko'radi, atrofdagi vaziyat, borliqni idrok etish har biri uchun ochiq. Rus olimi Yu. Apresyan mazkur holatdagi deyxisini (dialog, jonli muloqot vaziyatidagi) birlamchi deyxis sifatida, nutqiy muloqotda yuzma-yuz turmagan so'zlovchi va tinglovchining muayyan o'rin-joyga ishorasi hamda nutqiy akt jarayonini bayon, hikoya qilib berishda yuzaga chiqqan deyxisini ikkilamchi deyxis sifatida tasniflaydi.<sup>107</sup>

Makon deyxisida so'zlovchi bilan bir qatorda kuzatuvchining, ya'ni nutqiy muloqotda ishtirok etmayotgan, biroq vaziyatni kuzatayotgan va uni bayon etayotgan shaxsning ham muhim o'zini bor. Bu o'rinda, albatta, matn nazarda tutiladi. S.Boymirzayeva ham "Matnning makon maydoni tizimiy xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum turdagi nutqiy faoliyatda voqelik hodisalarining muallif kuzatuv natijasida voqealanadigan tizimdir" deb baholaydi.<sup>108</sup>

O'zbek tilida makonga ishora qiluvchi deytik birliklar ham o'zaro farqlanadi. Ularni mohiyatan o'ziga ishora belgisiga ega bo'lgan birliklar hamda muayyan nutqiy vaziyatda deytik xususiyat kasb etuvchi birliklarga ajratish mumkin. Birinchi turga bevosita o'ziga ishora qiluvchi ayrim ko'rsatish (u, bu, shu, o'sha, ana, mana, ana u, mana bu kabilar), so'roq olmoshlari (qayer,

<sup>106</sup> Sh.Safarov. Pragmalingvistika. – Toshkent. 2008.

<sup>107</sup> Ю.Д.Апресян. Дейксис в лексике и грамматике и наивная модель мира. [Электрон ресурс].

<sup>108</sup> S.Boymirzayeva. O'zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar. – Toshkent. 2010. 21-bet.

qayerga, qayerda, qani kabilar), belgilash olmoshlari (har qayer kabilar), o'rin ravishlari (unda-bunda, oldinda, uzoqda, orqada kabilar), o'rin ifodalovchi atoqli otlar, o'rin kelishliklari (chiqish, o'rin-payt), chegara shakli (-gacha) qo'shimchalari, u yer, bu yer, o'sha joy kabi so'z birikmalari kiradi. Ikkinchi turga ayrim otlashgan kishilik va o'zlik olmoshlari, o'rin valentligiga ega fe'llar (bormoq, kelmoq, ketmoq, chaqirmoq kabilar), o'rin-joyga munosabat bildiruvchi sifatlar (quyidagi, yuqoridagi) va boshqalarni kiritish mumkin.

O'zbek tilidagi olmoshlar faol deytik birliklar hisoblanadi. Olmoshlarining makonga ishora qilish xususiyati nutqiy muloqotda matn qurshovi orqali yuzaga chiqadi. Bunda olmosh ishora qilayotgan obyektning tinglovchi tomonidan to'g'ri qabul qilinishida nutq vaziyati, matn va til egalarining umumiy bilish fondi muhim ahamiyatga ega. Matndan yoki nutqiy vaziyatdan tashqarida olmoshlar so'zlovchi maqsadini to'liq yetkazib bera olmasligi mumkin. Masalan:

Tinchlik deya yurak bag'ri kuyuk eldir bu,  
Yaratganning qoshida eng suyak eldir bu,  
O'tmishi ham, ertasi ham buyuk eldir bu,  
Menga qanday yashamoqni o'rgatmagin sen! (Iqbol Mirzo)

Ushbu parchada 1-2-3-misralar oxirida takrorlanib kelayotgan bu olmoshida ishora obyektini ma'nosi mavjud. Olmoshning ishora obyektini aniqlashtirish uchun nutq vaziyati yoki kontekstga ehtiyoj tug'iladi. "Umar uyni ko'rib chiqishgach, dallolga yuzlandi. Bu menga yoqmadi, boshqasini ko'raylik". Ushbu nutqiy vaziyatda, bu olmoshi matnning oldingi qismidagi uyga ishora qilib, makon deyxsisini shakllantirishga xizmat qilgan.

Nutqda makonga ishora qiluvchi deytik birliklar muayyan makonga ishora qilish bilan birga makonning so'zlovchiga nisbatan joylashgan masofasi (uzoq-yaqin)ga ham ishora qiladi. Masalan, Yusupov oblast ijroiya komiteti binosi oldida mashinadan tushdi. Kanal shtabi shu binoga o'rnatilgan (Said Ahmad) gapida shu olmoshi ijroiya komitet binosiga ishora qilish bilan birga binoning matn subyektini (Yusupovga) yaqin masofadiligini ham ko'rsatadi.

Ana, ana u olmoshlari esa makonga ishora qilish bilan birga makonning so'zlovchidan ma'lum bir uzoqlikda joylashganligiga ishora qiladi. Masalan: Kelgan yo'lingni ham bilmaysan-a. Manavi Kuyganyorga, anavi qirg'oqdan ketgan yo'l qamish oralab Oltinko'lga, Chinobodga olib boradi (Said Ahmad) gapida qo'llangan manavi olmoshi so'zlovchiga yaqin masofadagi, anavi olmoshi nisbatan uzoqdagi makonga ishora qiladi. Mazkur holatda olmoshlar

makon deyxisi sifatida uzoq-yaqinlik belgisi ostida zidlanadi: mana – so’zlovchiga yaqin masofadagi makon, ana – so’zlovchidan uzoqdagi makon.

O’sha olmoshi nutqda so’zlovchi va tinglovchilarning umumiy bilimlari va ular uchun oldindan ma’lum bo’lgan makonga ishorani shakllantiradi. Masalan: O’shamikin? Adashmadikmi? – binoning ahvolini ko’rib do’stining “saroyga o’xshaydi” degan gapi yodiga tushib miyig’ida kulib qo’ydi. Ushbu nutqiy parchada o’sha olmoshi binoga ishora qilish bilan birga nutq ishtirokchilarining bu o’rin-joy to’g’risida oldindan ma’lumotga ega ekanliklarini anglatadi.

Nutqda ko’rsatish olmoshlaridan tashqari qani, qayerga // -da, -dan so’roq olmoshlari va qayer so’roq olmoshi bilan hosil qilingan bo’lishsizlik hech qayerga// -da, -dan, gumon allaqayerga// -da, -dan, -qayergadir, belgilash har qayerga// -da, -dan olmoshlari ham o’rin-joyga ishora qilib, makon deyxisini shakllantiradi. Quyidagi misollarga e’tibor beraylik:

1. So’roq olmoshlari orqali: Qayerdانسiz? -deb so’radim undan (Said Ahmad).

2. Bo’lishsizlik olmoshlari orqali: Sizlarga uy topib bersam, qiroatxona ochmaysizlarmi? – Ochamiz. Lekin kitoblarni qayerdan olamiz. Hozirgacha hech qayerdan kitob to’plaganimiz yo’q (H. Qodiriy).

3. Gumon olmoshlari orqali: Dadam bosmaxonadanmi, magazindanmi, juda ko’p har xil afishalar, “Mushtum” keltirib berdilar... So’ng dadam o’z kutubxonalaridan va yana allaqayerlardan ancha kitob keltirib berdilar (H. Qodiriy).

4. Belgilash olmoshlari orqali: Butun xalq yopirilib, kattakon Farg’ona kanalini qazdik. Har qayerdan odamlar kela boshladi (H. Olimjon).

Charlz Fillmor Indiana universiteti lingvistik klubida 1971-yilda o’qigan deyxis haqidagi ma’ruzasida deyxitik iboralar nutqda qo’llanishini uch turga bo’lishni taklif qilgan:

1) “uzoqdagi” va “yaqindagi” obyektни bevosita ko’rsatish vazifasini bajaruvchi lisoniy belgi – jestlar (general use);

2) ma’lum axborot, bilim tashuvchisi (bu bilim ushbu muloqot vaziyatidan yoki mustaqil ravishda egallangan bo’lishi mumkin) bo’lgan ramziy belgi (symbolic use);

3) anaforik bog’lovchi sifatida.<sup>109</sup>

Deyxtik birlikning birinchi turda qo’llanishini “Ushbu kitobni o’sha yerga (ya’ni olgan joyingizga qo’yishingizni) istayman” misolida ko’rib chiqamiz. Bu

<sup>109</sup>Sh. Safarov. Pragmalingvistika. – Toshkent. 2008.

gap mazmunidan so'zlovchi bevosita makonga ishora etayotganligi anglashiladi. O'sha yer ko'rsatish olmoshi orqali makonga ishora qilingan.

### **XULOSA**

Shuni ta'kidlash joizki, makon deyxsisini keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Nutqda makonga ishora qiluvchi deyxitik birliklar muayyan makonga ishora qilish bilan birga makonning so'zlovchiga nisbatan joylashgan masofasi (uzoq-yaqin)ga ham ishora qiladi. Olmoshlar makon deyxsisini hosil qiluvchi faol birliklar bo'lib, olmoshning qanday ma'noda qo'llanishi va nutqiy vaziyatda ifodalayotgan ma'nosi kontekstda aniqroq namoyon bo'ladi.

### **REFERENCES**

1. Sh.Safarov. Pragmalingvistika. – Toshkent. 2008.
2. Ю.Д.Апресян. Дейксис в лексике и грамматике и наивная модель мира. [Электрон ресурс].
3. S.Boymirzayeva. O'zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar. – Toshkent. 2010. 21-bet.

**“ОНА” ЛЕКСЕМАСИНИНГ “ФАРЗАНДЛАРНИ ДУНЁГА  
КЕЛТИРУВЧИ АЁЛ” МАЪНОСИНИ ИФОДАЛОВЧИ АТАМАЛАР  
ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ ҲАҚИДА**

**Бурхонова Д.И.**

Муқимий номидаги Қўқон давлат педагогика институти мустақил  
тадқиқотчиси.

**АННОТАЦИЯ**

*Мақолада вертикаль чизиқ қариндошликка қарашли “фарзандларни дунёга келтирувчи аёл” маъноси ва унинг ифода воситалари тизимида инвариант лугавий бирлик саналувчи “она” сўзининг қариндошлик атамалари тизимида мансуб бошқа лугавий бирликлар билан супплетив муносабати ва унинг этимологияси ҳақида маълумот берилади.*

***Таянч сўз ва иборалар:** Лугавий бирлик, фарзандларни дунёга келтирувчи аёл, лугат состави, инвариант лугавий бирлик, муқобил лугавий бирлик, супплетивлик, супплетив муносабат, гипоним(ик), этимология ва б.*

**АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается план выразительных средств значения родитель женского пола “она” (“мать”) в узбекском языке, которое относится к плану содержания вертикальной линии родства; определяется его место в отношении других функционально-семантических эквивалентов в парадигме выразительных средств “родителя женского пола”, а также и этимология слова “она”*

***Ключевые слова и выражения:** Лексическая единица, “женщина, которая является одним из родителей детей”, словарный состав, инвариантная лексическая единица, функционально-семантический эквивалент, супплетивность, супплетивное отношение, гипонимический, этимология и др.*

**ABSTRACT**

*The article considers the plan of expressive means of the meaning of the female parent “she” (“mother”) in the Uzbek language, which refers to the plan of the content of the vertical line of kinship; its place is determined in relation to other functional-semantic equivalents in the paradigm of expressive means of “female parent”, as well as the etymology of the word “she”*

***Key words and expressions:** Lexical unit, “a woman who is one of the parents of children”, vocabulary, invariant lexical unit, functional-semantic equivalent, suppletiveness, suppletive relation, hyponymic, etymology, etc.*



## КИРИШ

Жаҳоннинг барча халқлари тилларида “фарзандни дунёга келтирувчи аёл” маъносини билдирувчи луғавий бирлик “фарзандни дунёга келтирувчи эркак” маъносининг зид муқобили бўлиб, тил луғат составининг фаол қатламига тегишли бўлади. М., *Қиз эрталаб туриб, дарров онасига разм солди.* (Ойбек, *Танланган асарлар*).

Лисоний жиҳатдан муҳим томони шундаки, деярли барча тилларда ҳам “она” тушунчасининг ифода плани мураккаб бўлиб, унинг парадигмаси бир неча луғавий бирликларни ўз ичига олади. “Фарзандни дунёга келтирувчи аёл” маъноси инвариант семантик бирлик сифатида туркий тилларда ҳам бир неча муқобил луғавий вариантлар воситасида ифодаланган. Чунончи, туркий ёзма манбаларда, жумладан, М.Қошғарийнинг машҳур “Девон-ул луғатит турк” асарида “*фарандни дунёга келтирувчи аёл*” маъносида *ana* (опа) сўзи ва унга “ла” кўшимчасини кўшиш билан ясалган *аналади* сўзи ҳақида маълумот учрайди [1, 19].

Шунингдек, мазкур қомусий манбада “фарзандни дунёга келтирувчи аёл” маъносида араб тилидан ўзлашган *ума* сўзининг ишлатилганлиги ҳам айтилади [2, 303]. Бу сўзнинг бирлик шаклидаги *ум*, кўплик шаклидаги *уммахот* муқобиллари Алишер Навоий асарлари тилида ҳам учрайди [3, 624].

В.В. Радлов луғатида “фарзандни дунёга келтирувчи аёл” маъносини ифодаловчи сўзлар сифатида *модар*, *мама*, *wawa* кабилар ҳам келтирилиб, улардан “мама” муқобилининг “она кўкраги, яъни эмчак” маъносида ҳам ишлатилиши алоҳида қайд этилади [4, 1975, 1911, 2048].

## МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ўзбек тили ва унинг шеваларида “фарзандни дунёга келтирувчи аёл” маъноси *она*, *эна*, *ойи*, *ая* // *оя*, *бува*, *диал. она* // *ана*, *оча* сингари бир қатор сўзлар ёрдамида ифодаланадики, уларнинг *она* муқобили адабий тил учун меърлашган инвариант, яъни доминант луғавий бирлик мақомида лисоний расмийлашган. Шунингдек, ушбу маънонинг ифода планига хос юқоридаги парадигма араб тилидан ўзлашган *волида*, форс -тожик тилидан ўзлашган *модар* сўзлари ҳисобига яна кенгаяди [5].

Ўзбек тилида *она* лексемаси кўп маъноли луғавий бирликдир. Бу лексема “*фарзандни дунёга келтирувчи аёл*” инвариант маъносидан ташқари, қуйидаги маъноларда ҳам қўлланади:

- а) “умуман фарзандли аёл”;

- б) “оила бошлиғи”, “тарбияловчи”;
- в) “аёллар исмига ҳурмат маъноси билан кўшилувчи аффиксоид”;
- г) “бола тукқан ҳайвон” ва б.

Ўзбек адабий тилида, юқорида ҳам айтилганидек, “она” лексемаси “фарзандни дунёга келтирувчи аёл” маъносида расмийлашган бўлса-да, фарзандлар томонидан айни шу маънодаги шахсга нисбатан **ойи** лексемаси ишлатилади; бадий нутқда эса, бу маънода араб тилидан ўзлашган *волида* сўзи меъёрий луғавий бирлик ҳисобланади [6, 180].

Ўзбек тилининг кўпгина шеваларида “фарзандни дунёга келтирувчи аёл” маъносида **ая** лексемаси ҳам ишлатиладики, у **она**, **эна** сўзлари билан бир маънодош парадигмани ҳосил қилади. Бу парадигма ўзбек тилининг кўпгина шеваларида ишлатилувчи **бува**, **ая**, **оя**, **оча** сингари лексемалар ҳисобига яна кенгайди: **она-эна-ая-оя-оча-бува**.

“Фарзандни дунёга келтирувчи аёл” маъносининг ифода планини ташкил этувчи парадигматик қаторнинг доминант луғавий бирлиги мақомидаги **она** лексемаси семантик қурилишида “жинсга хос фарқ” семаси нейтраллашган **бола** сўзи билан барқарор супплетив алоқада мазкур сўз билан гипонимлик (вертикаль чизиқ қариндошлик маъносига кўра) ва гетеронимик муносабатларга киришади: гетеронимик муносабат таъсирида “**она-бола**” жуфт сўзи ҳосил бўлади. Шунингдек, **она** лексемаси кучли ассоциация таъсирида **ота** сўзининг барқарор супплетив муқобили характерида мазкур сўз билан гетеронимик муносабатда биб, “**ота-она**” жуфт сўзининг постпозитив корреляти характерини касб этади.

“Она” лексемаси кучсиз ассоциация таъсирида **хола** (**она**, **хола**), **тоға** (**она**, **тоға**) сўзлари билан ҳам гипонимик характердаги супплетив муносабатда бўлади. Чунки **хола**, **тоға** сўзлари гипонимик муносабатга кўра **она** сўзи билан бир функционал-семантик микросистема дирасида бўлади.

**Она** сўзининг **ота** сўзи билан гетеронимик муносабатидан ташкил толувчи “**ота-она**” жуфт сўзи “фарзандларни дунёга келтирувчи шахслар” маъносидан ташқари, “оилани бошқарувчи икки жинсга хос шахслар”, яъни “**эр-хотин**” жуфт сўзи англатган маънони ҳам билдирадики, бу маъно билан мазкур луғавий бирликлар (**она**, **ота**) қариндошликни билдирувчи луғавий-маъновий майдон доирасидан четга чиқади, никоҳ билан боғлиқ шахслароаро ижтимоий яқинликни билдирувчи луғавий-мазмуний майдон ихтиёрига ўтади.

Энди бир неча сўз “фарзандни дунёга келтирувчи аёл” инвариант маъносидаги “**она**” лексемасининг этимологияси ҳақида. Мазкур сўз

умумтуркий эмас, у қадимги лотин тилида “аёл”, яъни “хотин” маъносидаги *geny* сўзи билан этимологик боғлиликка эга. “Аёл”(“хотин”) маъноси гот тилида *gino, gens* сўзлари билан ифодаланадик, бу сўзлар санскрит (қадимги ҳинд) тилидаги айни ана шу маъноларда ишлатилувчи *jani, gna* сўзларининг фонетик вариантларидир. Бу сўзлар “она” маъносида қадимги рус тилида *genna*, эски славян тилида *žena* (жена) сўзлари билан ҳам этимологик умумийликка эгадир. Ана шу далиллар асосида айтиш жоизки, ўзбек тилидаги “она” сўзининг фонетик муқобили бўлган “эна” умумбашарий луғавий бирлик сифатида юқорида айтилган санскрит, лотин, гот, эски славян, қадимги рус тилларида “она” маъносида ишлатилган юқоридаги сўзлар билан генетик умумийликка эга

Ўзбек тилидаги “фарзандни дунёга келтирувчи аёл” маъносининг ифода планида инвариант саналувчи “она” лексемасининг фонетик муқобили бўлган “эна” сўзининг юқоридаги тиллардаги шу маънони ифодаловчи луғавий бирликлар билан бир этимологик асосга эга эканлигини далилловчи лисоний шарт-шароитлар ҳам йўқ эмас, албатта.

“Эна” рус тилида “фарзандни дунёга келтиришда эркак кишига биологик жиҳатдан ҳамроҳлик қилувчи аёл” маъносидаги “жена” (бу сўз “гена” сўзи билан ўзакдош) сўзига фонетик жиҳатдан жуда яқин луғавий бирликдир. Чунки туркий тилларда *ж --- й* товуш алмашуви қонуний фонетик жараён ҳисобланади: *жена --- йэна*. Негаки ўзбек тилининг айрим шеваларида (масалан, Тожикистоннинг лақай ўзбеклари шеvasида, шунингдек, Конибодом туманининг Кўчкак қишлоқ шеvasида “эна” “йэна” шаклида талаффуз қилинади) “й” товушли сўзлар “ж” товушли сўзлар билан талаффуз қилинади: *йўқ - жўқ, юр - жур* каби.

Ўзбек тилида “фарзандларни дунёга келтирувчи аёл” маъносида расмийлашган “она” сўзининг “эна” муқобили гот, санскрит, эски славян, қадимги ва ҳозирги рус тилларидаги айни шу маънодаги юқорида келтирилган сўзлар билан муштарак этимологик манбага эга бўлгани учун, умумбашарий, яъни байналмилал характердаги луғавий бирлик ҳисобланади.

“Фарзандни дунёга келтирувчи аёл” маъноси форс-тожик тилига мансуб “*модар*” сўзи билан ҳам ифодаланадик, бу сўз этимологик жиҳатдан қадимги ҳинд-оврупо тилида “эмизувчи” маъносида пайдо бўлган “*ma*” ўзагидан тарқалган *matur* (тожик тилида: *модар*) сўзи билан боғланади [7].

Айни ана шу фикрларга асосланган ҳолда, проф. А.Бердиалиев ҳам “она” (“эна”) сўзининг этимологияси ҳақида “Подшо”ликка чек қўйган “поччалар” (Хужанд: “Меърож”, 2017) илмий-оммабоп рисоласида қуйидагиларни ёзади:

“Эна (она) сўзининг маъноси шу сўз англатган тушунча (шахс, ҳайвон ва бошқалар)нинг вазифаси асосида вужудга келган. Бу вазифа туғиш ва тарбиялашдир. *Она сизир, она йилқи, она мушук* ибораларининг маъносига эътибор беринг-а”.

## ХУЛОСА

Мазкур сўзнинг рус тилидаги *жена* сўзи билан этимологик муштараклиги ҳақида олим яна шуларни ёзади: “...*эна* ва *жена* сўзларининг..ҳар иккиси ...грекча «*гена*»дан тарқалган. Унинг *эна* (айрим шеваларда *йена* дейилади) шакли туркий тиллар учун, *жена* шакли эса, славян тиллари учун хосланган”. А.Бердиалиев “*гена*” унсури билан боғлиқ яна қуйидагиларни қайд этади:

“*Эна (гена)* сўзи семантик таркибида «бошлиқ» маъноси ҳам мавжуд. Бу маъно *генерал* сўзида анчайин тиниқ ва кучли. Ҳарбий унвонни билдирувчи бу калима оддий аскардан полковниккача белган ҳарбий шахслар устидан бошчилик қилиш маъносини англатади.

*Эна* сўзида эса, фарзандларга нисбатан «ҳоким»лик маъноси мавжуд. Тарихдан маълумки, кишилиқ жамияти шаклланган илк даврда оилани, жамоани бошқариш аёллар-оналар зиммасида бўлган, у матриархал давр деб аталган. Эрларнинг яқка ҳукмронлиги (патриархал давр) кейин пайдо бўлган” [8].

## REFERENCES

1. Девону луғотит турк. Индекс. Тошкент, 1970.
2. Девону луғотит турк. Индекс. Тошкент, 1970.
3. Навоий асарлари луғати. Тошкент, 1972.
4. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Т.IV. Ч.I. –С.-Пт., 1911.
5. Маҳмуд Қошғарий луғатида “фарзандни дунёга келтириб, вояга етказувчи аёл” маъносида “ака”, “аба” сўзлари ҳам ишлатилган . “Тунгус- манчжур тиллари қиёсий луғати”да (“Словарь тунгусо-манчжурских языков”) мазкур маънода “мэмэ”, “мамэнэ мэмэ > энэ” сўзларининг ишлатилганлиги қайд этилади.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. Ж.11. Москва, 1981.
7. Гухман М.М. Доиндоевропейские термины родства в германских языках // Памяти академика Н.Я. Марра. – М. – Л., 1978. –с.99.
8. Бердиалиев А. «Подшо”ликка чек қўйган “почча”лар. Сўзлар ҳаётидан лавҳалар. Хужанд: “Меърож”, 2017, 58-60 - б.

## **JAMOLIDDIN AL-AFG‘ONIYNING SHARQ MAMLAKATLARINI BIRLASHTIRISH YO‘LIDAGI HATTI-HARAKATLARI**

**Sherxanov Sultonmurod Davronboy o‘g‘li**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

sultonmurodsherxanov@gmail.com

**Ilmiy rahbar – G.M. Ruzmatova**

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada Sharq dunyosining yirik mutafakkiri Jamoliddin al-Afg‘oniyning Sharq mamlakatlarini birlashtirish yo‘lidagi hatti-harakatlariga bag‘ishlangan falsafiy g‘oyalari haqida fikrlar bayon etilgan. Maqolada Afg‘oniyning siyosiy va diniy qarashlari tahlil qilinadi. Al-Afg‘oniy falsafasida mexanistik, intuitivistik va pozitivistik elementlar uchraydi. Al-Afg‘oniy hayotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni chuqur anglagan holda dolzarb muammolarni o‘rtaga qo‘ydi.*

***Kalit so‘zlar.** Sharq faylasufi; Panislomizim; Siyosiy panislomizm; “Sirati Mustakim”; Islom ittifoqi; Ortodoksal tushunchalar; Ichki sezgi; Intuitiv idrok.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the philosophical views of the great thinker of the Eastern world Jamoliddin al-Afghani on his actions to unite the countries of the East. The article analyzes the political and religious views of the Afghans. Al-Afghani's philosophy contains elements of mechanics, intuitionism and positivism. Al-Afghani deeply understands the changes taking place in life and raises pressing issues.*

***Keywords:** oriental philosopher; pan-Islamism; political pan-Islamism; "Sirati Mustakim"; Islamic Union; Orthodox concepts; Intuition Intuitive perception.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются философские взгляды великого мыслителя восточного мира Джамолиддина ал-Афгани на его действия по объединению стран Востока. В статье анализируются политические и религиозные взгляды афганцев. В философии Аль-Афгани есть элементы механики, интуитивизма и позитивизма. Аль-Афгани глубоко понимает происходящие в жизни перемены и поднимает насущные вопросы.*

***Ключевые слова.** восточный философ; панисламизм; политический панисламизм; «Сирати Мустахим»; Исламский союз; православные концепции; Интуиция Интуитивное восприятие.*

## **KIRISH**

Sharq mutafakkiri, jamoat arbobi va Sharq faylasufi nomi bilan tanilgan Jamoliddin al-Afgʻoniy islom islohcilik harakatiga asos soldi. Al-Afgʻoniy dunyoqarashi shakllanishida gʻarb Yevropa olimlari I.Kant, G.Spenser, N.Bergson va boshqalar, yunon va Oʻrta Sharq faylasuflarining barakali taʼsiri boʻlgan. Al-Afgʻoniy davr talabidan kelib chiqqan holda, diniy qarashlarni baʼzi bir sxolastik tushunchalardan, bidʼatlardan tozalash doirasidan cheklanmagan, aksincha, barcha muammolarni din talablari asosida hal etishga uringan. Dunyoviy fanlar, ayniqsa, tabiat fanlari yutuqlari, hususan, Charlz Darvin kashfiyoti, uning tadrijiy rivojlanish nazariyasi oqibatida Yevropa falsafasida paydo boʻlgan qarashlar XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Sharq tafakkuriga taʼsir koʻrsatdi.

Jamoliddin Afgʻoniy islomchilikning siyosiy mafkura sifatida rivojlanishida yetakchi rol oʻynadi. Sayyid Jamoliddin Afgʻoniyning murakkab va ziddiyatli hayotiy hikoyasi va shaxsiyati uning fikrlarini turlicha talqin qilishda ham samarali boʻlgan. Uning murakkab shaxsiyati va fikrlari qolaversa, uning tarjimai holidagi nomuvofiqliklar va qarama-qarshiliklar uning keyingi islomchi ekanligini ochib beradi. Bu uning fikrlashdagi rolining noaniqligiga olib keldi.

U koʻplab islom davlatlarida boʻlgan va yashagan, u yerda hukmdorlar bilan uchrashgan, aloqalar oʻrnatgan. Afgʻoniy islom olamida ham islomiy fikrlarni, ham islom olamini jonlantirish orqali musulmonlarning rivojlanishini taʼminlash, islom olamining siyosiy qarshilik salohiyatini faollashtirishni xohlagan. Kamol Karpat Afgʻoniyning islom tafakkuridagi oʻrnini quyidagicha taʼriflaydi: “Afgʻoniy musulmonlar bir-birini birinchi marta tanigan va nafaqat musulmonlarning birlashishi haqida, balki musulmonlarning ommaviy harakatlarini ham, ishtirokini ham oldindan koʻra oldi. Bundan tashqari, islomni siyosiy mafkuraga aylantirib, uni ommaviy safarbarlik quroliga aylantirmoqchi edi.”<sup>110</sup>

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Panislomiy va yevropaga qarshi siyosat, Usmonli Sulton Abdulaziz 1871-1876 yillar hukmronligida paydo boʻla boshladi. Sulton Abdulhamid tomonidan 1876 yilda tugatilgan. Faqat shu fikrlar Shuning uchun Afgʻoniy Istanbulga keldi va shu yerda bir muddat qolib ketdi. Bu fikrlarning birinchi marta Afgʻoniy tomonidan aytilganligiga ishonchni mustahkamladi. 1869-1871 yillarda Jamoliddin Afgʻoniy Istanbulda qolib ketdi. Ularning barchasi gʻarbliliklar va islomiy boʻlmaganlar bilan

<sup>110</sup> Kemal Karpat, “Türköne’nin C. Afgani Değerlendirmesi” Bilgi ve Hikmet Üç Aylık Kültür ve Araştırma Dergisi, 1993/3, 174.

bog'liqligi ma'lum bo'ldi. Afg'oniyning Istanbuldagi Doru'fun ochilishida qilgan ishlari Shayxul-islom Fehmiy o'z nutqida san'at sifatida baholagan<sup>111</sup>. Afandining munosabati va unga nisbatan salbiy jamoatchilik fikri sabab Istanbulni tark etishga majbur bo'ldi.

Afg'oniyning Istanbulni tark etgandan keyingi hayoti harakatlarga to'la o'tadi. Misrdan, keyin Hindistondan haydalgandan keyin Yevropaga boradi. U Yevropadan Eronga qaytadi. U Eron shohining iltimosiga ko'ra Eronni tark etishga majbur bo'ldi va Rossiyaga ketadi. Keyin Myunxenga, keyin Rossiya orqali Eronga yo'l oladi. Forsdan haydalgach, u Londonga borib, ikki yil qoldi. Mart oyida Istanbulga qaytadi. Istanbulga qaytgach, Abdulhamid II ning talabi samarali talablar edi. Afg'oniylar islom olami xalifasiga yaqin bo'lib, panislomistik siyosatga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi va bu lavozimga tayinlanish umidida xalifaning Istanbulga kelish taklifini qabul qildi. U Eronning afg'on shohi Nosiriddinshohga qarshi kurashda xalifaning yordamini olishga umid qilgan. Boshqa tomondan, Abdulhamid II ham Afg'oniylardan turli yo'llar bilan foyda olishni xohlardi. Bulardan birinchisi Afg'oniylar islom olamida yaratmoqchi bo'lgan panislomistik mafkuradir. Bu siyosat Sultonning bu masaladagi siyosiy qarashlari bilan o'xshash edi. Ikkinchi sabab, Afg'oniylar 1891-yilda Iroqda bo'lganida, u mintaqadagi arab xalifaligi uchun ishlagan. Uning ingliz Vilfrid Blant bilan munosabati sultonni shubha ostiga qo'ydi.<sup>112</sup> Uchinchi sabab, Abdulhamid II ning panislomizm siyosatining maqsadlaridan biri islom olamining shia-sunniy yaqinlashuvi imkoniyatlarini tadqiq qilish edi.<sup>113</sup> Sultonning Afg'oniylardan foyda olish fikri, shialarni islom birligi modellariga jalb qilish niyati bilan bog'liq.<sup>114</sup> Ko'rinib turibdiki, Afg'oniyning Istanbulga kelishi munosabati bilan Abdulhamidning uni chaqirish sababi ko'p jihatdan bir-biriga mos tushdi. Afg'oniylar va Abdulhamidning ingliz imperializmiga qarshi turishi ham bu yaqinlashishga yordam berdi.

Afg'oniyning islomiylik tafakkuridagi o'rnini aniqlash va tafakkuriga hissa qo'shgan yo'llarini ochib berish, II Konstitutsiyaviylikda o'sha davr islomchilarning intellektual resurslarini ko'rish muhim. Afg'oniylar harakati va g'oyalari bilan keng geografiyada o'z ta'sirini o'tkazgan. Shubhasiz, uning islomchilik va panislamizm tafakkurining tiklanishiga juda muhim hissasi bor. Afg'oniylar Islom ittifoqi g'oyasini

<sup>111</sup> Ik Istanbul ziyaretinde Darü'l-fünun açılışında yaptığı ve Şeyhülislam'ın tekfirine sebep olan konuşmanın kısa bir özeti: "En yüksek sanat erbabı peygamber, filozof, halife ve hukuk bilginleridir. Her asrın peygambere ihtiyacı olmamıştır, çünkü bir tek din ve nizam birçok asırları ve halkları besleyebilmektedir. Fakat her asrın bilhassa tecrübeli ve bilgili insana ihtiyacı olmuştur, toplum düzenini ve bekasını ifsad edecek olana değil. Bu bilgili insan kendi devrine hükmedebilir." bkz.: Keddie, a.g.e., 87.

<sup>112</sup> Keddie, a.g.e., 381.

<sup>113</sup> Karpat, a.g.m., 174.

<sup>114</sup> Mardin, Bediüzzaman...222.

ilgari surgan birinchi shaxs bo‘lmasa ham, bu yangi g‘oya edi. Uning eng ko‘zga ko‘ringan tomoni shundaki, u formulani taqdim etish orqali uni keng tarqatdi. Uning anti-imperializmga qarshi Islom ittifoqi g‘oyasi, islom dunyosi va musulmonlarni xalifa atrofida birlashtirishga ustuvor ahamiyat beradi. G‘arb yozuvchilari tomonidan “Siyosiy panislomizm”ning asoschisi hisoblangan Afg‘oniy ular bir-biridan mustaqil ravishda yagona idealda birlashishini xohlardi. Turkiya, Eron, Hindiston va Misrni yangilash maqsadida uni asrab olganlar ularning ijtimoiy hayotiga chuqur kirib borgan islom dinini qayta tiklash uchun ishlagan.<sup>115</sup>

Afg‘oniyning fikriga ko‘ra, Islom Ittifoqi g‘oyasi milliy uyg‘onish va tuyg‘uni rag‘batlantiradigan, lekin irqiy bo‘linishga olib kelishiga yo‘l qo‘ymaydigan uyg‘onish g‘oyasiga asoslanadi. Lekin musulmonlar dinlar orasidagi birodarlik rishtalarini saqlab qolish tarafdori edi.<sup>116</sup>

Mehmet Akif Ersoy, Jamoliddin Afg‘oniyga qarshi tanqidlarni himoya qilish uchun “Jamoliddin Afg‘oniy”<sup>117</sup> sarlavhali maqolasining boshida “Sirati Mustakim”da yozgan. Uni o‘quvchiga taqdim etar ekan, “Sharq tabiatining eng yaxshisi, eng oliysi. Jamoliddin Afg‘oniy, shubhasiz, oliy. Afg‘oniyning ikkinchi konstitutsiyaviy monarxiya islomchiligiga qanchalik ahamiyat berishini ifodalash e‘tiborga sazovor. Ushbu maqolada Akif, Afg‘oniyga qarshi Afg‘oniy “diniy” va “vahobiy” degan ayblovlar naqadar asossiz ekanligini ko‘rsatadi. U o‘z nutqining ayrim qismlarini keltirish orqali buni isbotlashga urindi. Bu asossiz, Afg‘oniyning Istanbulda obro‘sigacha hasad qilib, Afg‘oniyga qarshi, uni konstitutsiyaga zid deb topgan shayhulislomning ifodasini aytib o‘tadi. U jamoatchilik bosimi ostida Istanbulni tark etishga majbur bo‘ladi.

“Sirati Mustakim”ning navbatdagi sonida Akif Afg‘oniyning shogirdi Muhammad Abduhni vahhobiylikda ayblayotganlarga qarshi so‘nggi ikki yil davomida “Sirati Mustakim”da chop etilgan maqolalarda vahhobiylik haqida bir jumla bor. Italiyalik sharqshunos janob Xanoto Mag‘ribdagi millionlab musulmonlar o‘z huquqlarini himoya qilishlari asrlar davomida befoyda. U ibodatdan ko‘ra ko‘proq Islomga xizmat qilishini aytadi. Islom olamida islom va umrini musulmonlarni himoya qilishga bag‘ishlaganlar, Arabistondagi vahhobiylar, Turkistonda Farmason, Armanistonda dinsiz yoki Babi deb etiketlanganlar nima deyishidan qat‘iy nazar johil diniy tushunchalar qurboni bo‘lishlarini aytadi.<sup>118</sup>

<sup>115</sup> Osman Emin, “Cemaleddin Afgani”, (Çev.: Kerim Urtekin), İslam Düşüncesi Tarihi (Ed.:M. Muhammed Şerif), İstanbul 1991, IV, 284.

<sup>116</sup> Hayreddin Karaman, “Cemaleddin Efgani”, DİA, Ankara 1993, VII, 462.

<sup>117</sup> Mehmet Akif, “Cemaleddin Efgani”, Sirat-ı Müstakim, IV, 90, 26 Mayıs 1910/17 Cemaziyelevvel 1328, 210.

<sup>118</sup> Mehmet Akif, “Hasbihal”, Sirat-ı Müstakim, IV, 91, 2 Haziran 1910 /24 Cemaziyelevvel 1328, 224.



Said Nursiy "Ikki Mekteb-i Musibetin" shehadatnomasida Islom ittifoqi g'oyasini kiritdi. Jamoliddin uni asrab olgan va bu borada unga ta'sir ko'rsatgan kishilardandir. U birinchi navbatda Afg'oniyni tilga oladi. Keyin Muhammad Abduh, Ali Suavi, Xoja Tahsin, Namiq Kamol va Yavuz Sulton Salim ismlarini sanab o'tadi.<sup>119</sup>

Keyinchalik turkiylikka yuz tutgan II. Konstitutsiyaviy davr Islomchilardan biri Shamsiddin Gunaltayga ko'ra, islom davlatlari ichida Afg'oniyni vaziyatni to'g'ri tahlil qilib, to'g'ri yechim topuvchi shaxsdir. Afg'oniyni, bu Vaziyatning sabablarini izladi va topdi. Shunga ko'ra, musulmonlar jonlarini yo'qotib, din nomidan xurofotlarning quliga aylanishdi. Unga ko'ra, Afg'oniyni Turk dahosi Ibn Sino islom falsafasining asoslarini o'rnatar ekan, o'z irqidan bo'lgan Jamoliddin, shuningdek, saodat asrida Islomni qayta tiklashga harakat qildi. Buyuk daho, islom olamiga tarqoq bo'ladigan nur xalifalik markazidan boshqa joydan tushmasligiga ishongan edi. Shu e'tiqod bilan xalifalik eshigi tomon yugurdi.<sup>120</sup>

Afg'oniyni shogirdi II Konstitutsiyaviy davrning islomchilarga ta'siri Muhammad Abduh orqali ham ko'rish mumkin. Mo'tadil islohot va modernizatsiyani taklif qilgan Abduhning fikrlari Mehmet Akif tomonidan tarjima qilingan va nashr etilgan. Ko'pgina islohotchi ulamolar uchun Muhammad Abduhning konservativ va an'anaviy ulamolarga nisbatan tanqidlari ko'plab islomchilar tomonidan qabul qilingan. Abduhning "din posbonlari qiyofasida yopilgan, johil mutaassiblik to'siqlari va ahmoqlik qo'riqchilari kabi tanqidlarni tez-tez "Sıratı mustakim" sahifalarida topishingiz mumkin.<sup>121</sup> Abduh Xalifalik diniy hokimiyat emasligini da'vo qilgan<sup>122</sup>, uning fikrlariga Elmalılı Hamdiyning xalifalik haqidagi qarashlari ta'sir qilgan.

## **XULOSA**

Jamoliddin Afg'oniyni ham harakat, ham fikr odami bo'lgan. Islom olamini g'arbning imperialistik bo'yinturug'idan ozod qilish, saqlash uchun u ilgari surgan g'oyalar G'arb manfaatlariga rioya qilmagani uchun ko'p marta deportatsiya qilingan, ta'qib qilingan va hibsga olingan. Afg'oniyni nafaqat g'oyalarni ilgari suruvchi ziyoli, balki shu bilan birga, u o'z g'oyalarni hayotga tatbiq etish uchun asoslar qidirdi, bu yo'nalishda ham tashabbuslar izladi. Uning faol shaxsi davlat arboblari va hukmdorlar tomonidan unga shubha bilan qarashga sabab bo'lgan. Hayreddin

<sup>119</sup> Bediüzzaman Said Nursi, İçtimai Dersler, İstanbul 2012, 163.

<sup>120</sup> Hülya Küçük Sevil, İttihat Terakki Döneminde İslamcılık Hareketi 1908-1914 (Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Basılmamış Doktora Tezi), Ankara 2005, 59.

<sup>121</sup> Amit Bein, Osmanlı Uleması ve Türkiye Cumhuriyeti: Değişimin Faileri ve Geleneğin Muhafızları (Çev.:Bülent Üçpınar), İstanbul 2013, 49.

<sup>122</sup> Aziz Al-Azmeh, İslamlar ve Moderniteler (Çev.:Elçin Gen), İstanbul 2014, 162.

Karaman Afgʻoniyning islom olamidagi taʼsirini quyidagicha ifodalagan: “Afgʻoniy hayotligidayoq koʻplab gʻoyalari siyosiy tizmlarga taʼsir koʻrsatdi, Boshqaruvlarning oʻzgarishida taʼsir koʻrsatdi. Unga yopishib qolgan koʻplab tor doiradagi anʼanaviy olimlar oʻzlarini kengroq tafakkur olamiga qaratadilar.”<sup>123</sup>

## REFERENCES

1. Аҳмедова М. таҳрири остида Фалсафа . – Тошкент: Шарқ, 2006
2. Хорижий Шарқ халқларининг илғор ижтимоий фалсафий фикрлари тарихи очерки. – Тошкент: Фан ,1971.
3. Наджип Э. Международные мусульманские организации. – М., 1968.
4. Ислам и современность. – Тошкент, 2010.
5. Философия и религия на Зарубежном Востоке. XX век. – М.,1985.
6. Ислам в истории народов Востока. – М., 1978.
7. Sayyid Jamal ad-Din "al-Afghani" A Political Biography by NIKKI R. KEDDIE.
8. Hayreddin Karaman, “Cemaleddin Efgani”, DİA, Ankara 1993, VII, 462.
9. Aziz Al-Azmeh, İslamlar ve Moderniteler (Çev.:Elçin Gen), İstanbul 2014, 162.
10. Hülya Küçük Sevil, İttihat Terakki Döneminde İslamcılık Hareketi 1908-1914 (Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Basılmamış Doktora Tezi ), Ankara 2005, 59.

<sup>123</sup> Karaman, a.g.m., 463.

## **KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Aripov Alisher Sayfiddinovich**

O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi “Tashkiliy-taktik boshqaruv” mutaxassisligi magistratura tinglovchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada korrupsiya, shu jumladan poraxo‘rlik jinoyatlarining oqibatlari va zarari, bunday jinoyatlarga qarshi kurashishning o‘ziga xos ahamiyati hamda yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, bu borada qonunchiligimizga kiritilayotgan yangiliklar va ularni yanada mustahkamlash uchun qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan takliflar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** korrupsiya, poraxo‘rlik, korrupsiyaga qarshi islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish.*

### **ABSTRACT**

*The article discusses the consequences and harm of corruption, including bribery, the importance of combating such crimes and the work carried out in the field of combating corruption in our country, innovations in our legislation in this regard and the implementation of additional measures to further strengthen. Proposals are made.*

***Keywords:** corruption, bribery, anti-corruption reforms, improvement of the anti-corruption system.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматриваются последствия и вред коррупции, в том числе взяточничества, важность борьбы с такими преступлениями и работа, проводимая в сфере борьбы с коррупцией в нашей стране, нововведения в нашем законодательстве в связи с этим и реализация дополнительных мер по дальнейшему укреплению. Вносятся предложения.*

***Ключевые слова:** коррупция, взяточничество, антикоррупционные реформы, совершенствование системы противодействия коррупции.*

### **KIRISH**

Mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish borasida tizimli choralar ko‘rilmog‘da. Xususan, bir qator vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi

hokimiyat organlarida ISO 37001:2016 xalqaro standartiga asosan korrupsiyaga qarshi menejment tizimi joriy etilib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga, "korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash mexanizmlari mavjud emasligi sohada amalga oshirilayotgan tadbirlarga yagona mezon asosida xolisona baho berish va ularning natijadorligini yanada oshirishga to'sqinlik qilmoqda".<sup>124</sup>

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murossasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rildi.

Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlari himoya qilinishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligi, jamoat va parlament nazoratini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni yanada o'stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investisiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiya ko'rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha yangi tizimli choralar ko'rilishini taqozo qilmoqda.<sup>125</sup> Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasining omil va vositalarini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida xalq bilan ochiq muloqotning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish asosiy maqsadlardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Bunda davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatiga oid samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash va ularni ilg'or xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish har bir jabhani oqilona va adolatli boshqaruvini tashkil

<sup>124</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 12 январьдаги "Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-81-сон Қарори.

<sup>125</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 майдаги "Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги ПФ-5729-сон Фармони.

etishga asos bo'radi, aholi orasida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi murosasiz "immun tizimi"ni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash quyidagi beshta yo'nalish bo'yicha belgilangan indikatorlar<sup>126</sup> asosida amalga oshiriladi:

birinchidan, davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amaliyotga tadbiiq etilganligi;

ikkinchidan, korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi;

uchinchidan, davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi;

to'rtinchidan, xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi;

beshinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligi.

Fikrimizcha, har bir rahbar o'zi liderlik qilayotgan jamoada namuna bo'lishi, bunda xalqimizda "baliq boshidan..." degan iboraga amal qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan bir qancha islohotlarga qaramasdan, ushbu o'zgarishlarni barcha birdek to'g'ri qabul qilib, amalda unumli foydalanib, ishini samarali tashkil qilayotgani yo'q. Shu jumladan, ba'zi bir rahbarlar tomonidan ham xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilib kelinmoqda. Yetarli tajriba va bilimga ega bo'lmaganligi, o'z ustida doimiy ishlamasligi, saviyasining pastligi kabi sabablarga ko'ra o'zi rahbarlik qilayotgan jamoani boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Shuningdek, rahbarlar tomonidan qabul qilinayotgan yoki ijrosi ta'minlanayotgan qonunchilik xujjatlarini amalda qo'llashda korrupsion holatlar uchrab turibdi. Qonunchilik xujjatlaridagi korrupsion holatlarga yo'l qo'yilishi natijasida aholi orasida hukumatga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg'onishiga sabab bo'lmoqda.

---

<sup>126</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 12 январьдаги "Коррупцияга карши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида" ги ПҚ-81-сон Қарори.

Shu o'rinda aytish joizki, birgina noto'g'ri qabul qilingan qaror ko'pgina insonlarning hayot yo'lini umuman boshqa tomonga burib yuborishi mumkin. Bunday sabablar shaxsning davlatga va o'z kelajagiga nisbatan ishonchisizligini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham, turli sohalarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adliya vazirligi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda qurilish, sog'liqni saqlash, oliy ta'lim va davlat xaridlari sohalarini tartibga soluvchi 226 ta qonunchilik hujjatlari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilganligi va natijasiga ko'ra ushbu hujjatlarning 75 tasida 302 ta korrupsiyaviy omillar aniqlanganligi yuqoridagi fikrimizning yaqqol isboti hisoblanadi.<sup>127</sup>

Bugungi kunga qadar qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni yoki kelgusida amalda tatbiq etilishi mumkin bo'lgan xujjatlarning loyihalarini to'liq korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish, korrupsiyaviy omillar aniqlangan xujjatlardan voz kechish, bir-birini takrorlovchi xujjatlarni birlashtirish, byurokratik funksiyalarni umuman yo'q qilish, mamlakatda barcha xujjatlar aylanmasi tizimini qog'ozbozlikdan voz kechib, to'laqonli elektron tartibga o'tish zarurati tug'ilmoqda.

Fikrimizcha, elektron xujjatlar aylanmasi xavfsiligini ta'minlovchi va tartibga soluvchi kiberxavfsiz dasturni yo'lga qo'yish zarur. Xujjatlarni imzolashda, tasdiqlashdagi inson omilidan xoli tizimni yo'lga qo'ya olsak, korrupsion holatlarni oldini olishga qaratilgan yana bir qadam bo'ladi. Afzallik tomonlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qog'oz uchun milliardlab sarflanadigan xarajatlar qisqaradi, navbat kutishlar yo'qoladi, poraxo'rlikka moyil bo'lgan shaxslarga turli ko'rinishdagi iltimoslar qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, elektron tartibdagi xujjatlarni tahlil qilish, ulardagi korrupsiyaviy omillarni aniqlash va o'z vaqtida bartaraf qilish oson bo'ladi hamda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflik yanada kuchliroq ta'minlanadi.

Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilganligini alohida e'tirof etish lozim.

<sup>127</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 октябрьдаги “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва уларнинг лойиҳаларини коррупцияга қарши экспертизадан ўтказишни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-5263-сон Қарори.

Ushbu qonun loyihalarini tayyorlashdan asosiy maqsad noqonuniy daromad yoki pora olish natijasida orttirilgan mol-mulkni aniqlash hisoblanadi. Lekin shuni inobatga olish joizki, har qanday noqonuniy ish qilayotgan shaxs o'zining kirdikorlarini yuqori darajada yashirishga, javobgarlikdan qochishga harakat qiladi, oshkor bo'lib qolishdan qo'rqib, barcha choralarni ko'radi va buning uchun qattiq harakat qiladi. Shunday ekan, bu kabi qonun xujjatlarini hayotga tatbiq qilish katta mas'uliyat va kuch talab qiladi. Bunda turli o'tib bo'lmas to'siqlar yuzaga kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6065-son Farmoniga asosan hozirda joriy etilgan ID-karta chipida ID-karta egasining biografik ma'lumotlari, millati, raqamli surati, qo'l barmoqlarining izlari va elektron raqamli imzo kalitining sertifikati ma'lumotlari joylashtirilmogda.

Agarda aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilib, turli axborot tizimlarida va masofaviy xizmat ko'rsatishda ushbu ID-kartalar chipiga karta egasining daromadlari, mol-mulki, soliq yoki kredit qarzdorliklari va boshqa qarzdorliklari, kasbi yoki ma'lumoti, o'qish yoki ish joyi, nikohi, yaqin qarindoshlari, tadbirkorlik faoliyati, sudlanganligi, ma'muriy javobgarlikka tortilganligi, chet el fuqaroligiga ega ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlari qo'shib, shaxsni identifikatsiyalashning yagona mexanizmi to'liq joriy etilsa, noqonuniy yo'llar orqali daromad qilish, shu jumladan poraxo'rlik jinoyatlarini sodir etilishi anchagina kamaygan bo'lar edi. Chunki, davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulki to'g'risida ma'lumotni yashirishni imkoni bo'lmasa, noqonuniy daromad qilmaslikka harakat qiladi. Nafaqat davlat xizmatchilari, har bir fuqaroga nisbatan ushbu ma'lumotlarni ID-kartalar chipiga joylashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki davlat xizmatchisi, noqonuniy daromadini davlat xizmatchisi bo'lmagan tanishi yoki qarindoshini nomiga rasmiylashtirib yashirishi mumkin.

Bundan tashqari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarda ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini "Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib"<sup>128</sup> joriy etilayotganligi bir qancha korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

<sup>128</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 июльдаги "Коррупцияга қарши курашиш фаолиятини самарали ташкил этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги ПҚ-5177-сон Қарори.

Yuqorida keltirilganidek, shaxs to'g'risidagi barcha ma'lumotlari yagona tizimda jamlanadigan bo'lsa, mavjud bo'sh ish o'rinlari haqida shaxsning kasbi yoki ma'lumotiga qarab ajratgan holda Internet tarmog'i orqali bir yo'la barcha nomzodlar aniqlanib, nomzodlarga xabar yuborilishi, tanlov o'tkazilib, inson omili aralashmagan holda ishga qabul qilinishi mumkin. Bu esa ishga kirish jarayonidagi poraxo'rlik va ta'magirlik holatlariga chek qo'yilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Demak, bu borada umumiy qilib aytganda, davlat xizmatida korrupsiya omillarini bartaraf etish, kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish va ular faoliyati samaradorligini baholashning huquqiy asoslarini takomillashtirish<sup>129</sup> lozim.

Albatta, korrupsiyani oldini olishda jamiyatda adolatni ro'yobga chiqarish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir inson hayotidagi manfaatlarga ziyon yetgan muammoli holatlarda muhim qarorlarni chiqarishi mumkin bo'lgan sud tizimini malakali va halol-pok kadrlar bilan to'ldirish, sud organlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, sud hokimiyati tizimida korrupsiya holatlarini keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish, korrupsiyaga qarshi kurashishi va uning oldini olish tizimini samarali yo'lga qo'yish talab etilmoqda.<sup>130</sup>

Quyidagi taklif va tavsiyalarni amalda qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- har bir rahbari yoki rahbarlik lavozimiga tayinlanayotgan shaxslarni maxsus psixologik testdan o'tkazish. Ushbu test orqali nomzodning poraxo'rlikka moyillik darajasi tahlil qilinib, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mutaxassislari tomonidan tegishli tavsiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan xulosa ola bilgan nomzodgina, rahbarlik lavozimlarini egallashi mumkin bo'lgan tizimni joriy etish;

- korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinmasligi shart. Bundan tashqari, davlat fuqaroligi xizmatiga aynan qaysi lavozimlar kirishi to'g'risidagi ro'yxatni o'zida mujassamlashtirgan davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlab, yurtimizda joriy qilish;

<sup>129</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январьдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.

<sup>130</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 декабрьдаги “Судьяларнинг чинакам мустақиллигини таъминлаш ҳамда суд тизимида коррупциянинг олдини олиш самарadorлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6127-сон Фармони.



- qonun bilan davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi, huquq, majburiyatlari, ularni ishga olishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rilganligi hamda lavozimga tayinlash tartibi, lavozimlarga tayinlashda shaffoflikka amal qilish kabilar mustahkamlanishi joiz;

- Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonunini qabul qilish bilan birga, unda davlat xizmatchisini rag'batlantirish tartibini aniq ko'rsatish, davlat xizmatchisiga o'zining daromadi va mol-mulki to'g'risida deklaratsiya to'ldirish majburiyatini yuklash, o'zaro yaqin qarindoshlik yoki qudachilikda bo'lgan shaxslar bevosita bo'ysunuv va nazorati ostidagi davlat fuqarolik xizmatini egallashini, pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyatdan tashqari foyda oladigan, tadbirkorlik faoliyati bilan yoxud boshqa manfaatli faoliyat bilan shug'ullanishni, o'z mavqeidan foydalanib yoki o'z xizmat vazifasini bajarish evaziga har qanday turdagi mukofot yoki sovg'a olishni, chet el fuqaroligiga ega bo'lishni va respublika hududidan tashqarida bank hisob-varaqlari ochish va boshqa mol-mulkka egalik qilishni qat'iy taqiqlash zarur;

- mulkiy huquqlarni ishonchli daxlsizligini yanada mustahkamlash va xususiy mulkka egalik qilishda davlat organlari aralashuviga umuman yo'l qo'ymaslikni kafolatlashni kuchaytirish shart;

- shuningdek, shaxsiy ID-kartalar chipiga karta egasining daromadlari, faoliyat bilan shug'ullangan davri, mehnatda rag'batlantirilganligi yoki salbiy harakatlari uchun jazolanganligi, nomida bo'lgan barcha mol-mulki, soliq yoki kredit qarzdorliklari va boshqa qarzdorliklari, unga nisbatan sudlarda ko'rilgan ishlar natijalari, kasbi yoki ma'lumoti, o'qish yoki ish joyi, nikohi, yaqin qarindoshlari, tadbirkorlik ishlari, sudlanganligi, ma'muriy javobgarlikka tortilganligi, intizomiy chora ko'rilganligi, chet el fuqaroligiga ega ekanligi, tarjimai holi va shaxs to'g'risidagi boshqa malumotlar qo'shib, shaxsni identifikatsiyalashning yagona mexanizmini to'liq joriy etish va ID-karta xotirasida shaxsni tug'ilganidan boshlab amalga oshirilgan jarayonlar jamlangan "Shaxs tarixi" yoki "Fuqaro tarixi" dasturini amalda tatbiq etish zarur va davlat xizmatlari sohasida fuqaro haqida to'liq ma'lumotlarni jamlab, ortiqcha sarsongarchiliklarsiz fuqaro to'g'risida yagona ma'lumotnoma taqdim qila oladigan "Fuqaro tarixi" xizmatini joriy etgan holda amalga oshirish lozim. Shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni integratsiya qilib, hisobga olish tizimini yanada qulay qilish kerak;

- sud organlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash va aholining korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida barcha sud jarayonlarini jonli ravishda doimiy efirga uzatuvchi yangi televizion kanal tashkil qilib, barcha ochiq sud jarayonlarini uzluksiz namoyish qilib borish lozim.

- jamiyatda umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzularni yanada kuchaytirilishi, imkoni bo'lsa, fan sifatida o'tilishi, bu orqali yoshlar ongida korrupsiyaga nisbatan murosasizlik tuyg'usini shakllantirilishi, mamlakatimizning kelajakdagi taraqqiyotiga keskin ijobiy burilish yasash zarur.

## **XULOSA**

Zero, korrupsiyaning nafaqat oqibatlarini, balki sabablarini oldindan bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan amaliy choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish<sup>131</sup> kelajakda o'z samarasini bermay qo'ymaydi, bizdan keyingi avlodga halollik va adolatga asoslangan sog'lom turmush-tarzni qoldirishimizga, yoshlar ongida yaxshi bilan yomonni, oq bilan qorani farqlay biladigan irodaviy kuchni hosil bo'lishiga sabab bo'ladi, sinov sifatida berilgan omonat umrni to'g'ri yashashlariga va natijada yaxshi kunlarni ko'rishlariga muhim omil bo'ladi. Har bir inson o'zidan iz qoldirishni xoxlaydi, bizdan kelajak avlodga qoladigan yagona esdalik bu halollikka asoslangan yaxshiliklar bo'lishi mumkin...

Xalqimiz qanchalar ko'p "halollik vaksinasi bilan emlansa", o'zini yomon illatlardan tozalab, yaxshi amallar bilan isloh qilsa, jamiyatimiz hayoti shunchalar tez taraqqiyotga erishadi, insonlar o'zligini anglash sari odimlab boraveradi.

## **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-81-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 oktabrdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5263-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-son Farmoni.

<sup>131</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январьдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Фармони.

- 
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-5177-son Qarori.
  5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
  6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 dekabrdaagi “Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta‘minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6127-son Farmoni.
  7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5729-son Farmoni.

## **EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASH – DOLZARB VAZIFA**

**Akbarov Furkat Fazilovich**  
O‘zbekiston Respublikasi IIV  
Akademiyasi Magistratura tinglovchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada bugungi globallashuv sharoitida hamda xalqaro va mintaqaviy mojarolar transformatsiyasi davom etayotgan bir paytda, terrorizm va ekstremizmga qarshi samarali kurashish masalalari keng ilmiy yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ekstremizm, terrorizm, globallashuv, diniy qarashlar, vijdon erkinligi.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses a wide range of issues related to the effective fight against terrorism and extremism in the context of modern globalization and the ongoing transformation of international and regional conflicts.*

***Keywords:** extremism, terrorism, globalization, religious views, freedom of conscience.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается широкий круг вопросов, связанных с эффективной борьбой с терроризмом и экстремизмом в условиях современной глобализации и происходящей трансформации международных и региональных конфликтов.*

***Ключевые слова:** экстремизм, терроризм, глобализация, религиозные взгляды, свобода совести.*

### **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT bosh ansambleyasining 72 sessiyasidagi nutqida “Biz butun jahon hamjamiyatiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamligining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz” deb ta’kidlagan.

Vatanimiz uzoq tarixiga nazar tashlasak, zaminimizda madaniyat rivojining uch ming yildan ortiq buyuk tarixni ko‘ramiz. Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonning hozirgi hududida qadim davrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo‘lgan, xilma-xil dinlarga e’tiqod qilgan xalqlar hamjihatlikda,

hamdo'stlikda yashaganlar. Bu esa xalqimizga xos bo'lgan diniy bag'rikenglikning ma'naviy asosini tashkil etadi.

Bugun ham yurtimizda diniy bag'rikenglik va osoyishtalikni ta'minlash Konstitutsiyamizda qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lib, olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida diniy e'tiqod erkinligi sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining diniy sohada davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari fuqarolarning vijdon va diniy e'tiqod erkinligi kafolatlash, konfessiyalararo va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

“Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi”, – degan qoida diniy bag'rikenglik uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Ularni anglash uchun avvalo, “ektremizm”, “terrorizm” qanday yuzaga kelgan degan savollarga javob topa bilishimiz kerak.

“Ekstremizm” so'zi lotincha *extremis* - ashaddiy, atamasidan olingan bo'lib, “*keskin fikr va choralarni yoqlash, keskin choralarga tarafdorlik*” ma'nosini anglatadi<sup>132</sup>. Olimlar “ektremizm” iborasini siyosiy atama deb qaraydilar. Bu atamaning siyosat bilan bog'liq jihatlari shundaki, norasmiy ekstremistik tashkilot rahbarlari siyosiy masalalar yuzasidan “keskin, qat'iy choralar ko'rish yo'li bilan”, ya'ni kuch ishlatish, zo'rlik bilan davlatning rasmiy hokimiyatni konstitutsiyaga xilovf ravishda o'zgartirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligidadir. Ularning norasmiy deyilishiga sabab, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Siyosiy partiyalar”, “Nodavlat notijorat tashkilotlar” hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi amaldagi qonun talablariga ko'ra rasman faoliyat yuritish uchun Adliya Vazirligidan ro'yxatdan o'tmaganligidadir<sup>133</sup>.

Terrorizm – siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo'qotish yoki qo'rqitish, aholi o'rtasida vahima va tartibsizliklarni keltirib chiqarish maqsadidagi zo'ravonlik harakatlari (ta'qib qilish, buzish, garovga olish, qotillik, portlatish va boshqa<sup>134</sup>).

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda “Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida”gi qonuni<sup>135</sup>da terrorizmga quyidagicha ta'rif berilgan.

«Terrorizm» – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy

<sup>132</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –М.: Рус тили, 1981. –Т.2. –Б. 442.

<sup>133</sup> Ражабова М. Диний экстремизм ва террорчилик. –Т.: Янги аср авлоди, 2000. –Б. 38.

<sup>134</sup> Қаранг: Ўзбек миллий энциклопедияси. Т.8. – Т., 2004. – 404-б.

ob'ektlarning yo'q qilinishi (shikastlan-tirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoy qilmishlar.<sup>136</sup>

Hozirgi zamonaviy hayotda qurolli tahdidlardan ko'ra ma'naviy tahdid eng nozik masalalardan biriga aylanib qolmoqda. Yoshlarning hali hech qanday iflosliklar bilan kirlanishga ulgurmagan, o'z ma'naviy olamlarini himoyalay olmaydigan sof qalblari, onglariga salbiy ta'sir o'tkazish orqali minglab insonlarni to'g'ri yo'ldan og'dirib, minglab odamlarning umrga zomin bo'lmoqdalar<sup>137</sup>. Bu tug'rida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqida BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish va Bosh Assambleyaning "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish bo'yicha tashabbuslarida terrorizm muammosiga katta e'tibor qaratib, uning tub sabablariga barham berishga chaqirdi. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligini alohida ta'kidlab o'tdilar Respublikamiz Prezidenti.

Bu masalaning kishining doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin. Bugungi kunda ma'naviy tahdidlarning eng ko'p qamrovga ega bo'lgani ommaviy axborot vositalari tizimidir. Davlatlar, mamlakatlar boshqa hududlardan o'z chegaralari bilan ajratilgan va mustahkamlangan, lekin axborot ko'lami shunchalik kengki, u hech qanday chegara bilmaydi.

Bugungi kunda diniy omillarning siyosatlashuvi qator norasmiy oqim va yo'nalishlarining faoliyatlarida yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu esa fuqarolarning diniy oqimlar ta'siriga tushishlariga sabab bo'lmoqda<sup>138</sup>.

<sup>136</sup> Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, –Т., 2001. № 1-2. – 15-м.

<sup>137</sup> Захарцев С. И. Оперативно-розыскная деятельность в XXI веке / С.И. Захарцев, Ю.Ю. Игнащенко, В.П. Сальников. - М.: Норма, 2015. – 400 с.

<sup>138</sup> Қаранг: Матчанов и др. Деятельность ОВД по предупреждению и расследованию терроризма. Учебно-практическое пособие. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2013. – 72 с.

Buning oldini olish uchun mamlakatimizda turli huquqiy va ma'naviy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa fuqarolarning norasmiy diniy oqimlarga tushib qolishidan qisman himoya qilmoqda. Ammo fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi turli oqimlar faoliyati takomillashuviga ham olib kelmoqda. Ular nafaqat turli g'oyaviy targ'itbotlar bilan cheklanib qolmasdan, balki inson ruhiyatiga turli usul va vositalar yordamida ta'sir etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu xavflarning ta'sirini kamaytirish uchun fuqarolar, ayniqsa, yoshlar psixologik yordam asoslarini bilishlari, fuqarolarning psixologik qiyofasini yarata olish, fuqarolar bilan muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'zlashtirish kabi mas'uliyatli vazifalar oldimizda turibdi.

Hozirgi globallashuv zamonda ekstremizm va terrorizm butunjahon miqyosida xavfli kuchga aylanmoqda. Afsuslar bo'lsinki, hatto o'z ichimizdan bu yo'lga kirib, vataniga, oilasiga xiyonat qilgan minglab yoshlar soni ortib bormoqda. Mafkuraviy bo'shliq va eng zararli bo'lgan loqaydlik va beparvolik. Bepervo odam dushmandanda xavfliroq ekanligini donolarimiz azal-azaldan kelajak avlodlarga o'qitirib kelmoqdalar.

Ekstremistik va terroristik tashkilotlar o'zlarining g'arazli maqsadlaridan kelib chiqib, islom ta'limotining ayrim g'oya va tamoyillarini mazmun-mohiyatan tamomila yoki bir yoqlama o'zgartirib, o'zlaricha talqin qilib odamlarni to'g'ri yo'ldan – hidoyat yo'lidan adashtirishga urinmoqda. Markaziy Osiyo hududida yashovchi aholining aksari, shu jumladan, yurtimiz musulmonlari ham necha asrlarki mintaqa xalqlari uchun an'anaviy bo'lgan xanafiy va motrudiya aqidalariga rioya etishadi. diniy ekstremistlar esa ana shu mazhab va aqidalarni rad etgan holda aholi ongiga siyosiyashtirilgan islom g'oyalarini singdirishga urinmoqdalar. Bu urinishlardan ko'zlangan yagona maqsadlari "xalifalik" yoki "islom amirligi" davlati tuzish shiori ostida siyosiy hokimiyatni egallashdir. Kishilarning osoyishtaligi va xavfsizligiga taxdid soladigan terrorning barcha kurinishlari buzg'unchilik, fasod ishlardan sanaladi.

Qur'onda («Bakara» surasi 205-oyatidagi) «Allox esa buzg'unchilik- fasodni sevmaydi» degan oyat tushunchasi islomning terrorga bo'lgan o'ta salbiy munosabatini belgilaydi. Mutaassiblik, ekstremizm va terrorchilik odatda begunox odamlarning qoni to'kilishiga olib keladi. Qur'oni Karim oyatlarida bunday xolatlar «Biror jonni o'ldirmagan yoki yerda (buzg'unchilik va qaroqchilik kabi) fasod ishlarni qilmagan insonni o'ldirgan odam xuddi xamma odamlarni o'ldirgan kabidir» deya qat'iy qoralangan. Ming –minglab begunoh musulmonlarning qonini to'kib, go'yoki bu bilan o'zlariga jannatni naqd qilib qo'ymoqdamiz, deb xom xayolga

berilayotganlar, aslida Allohning la'nati va g'azabini yuklab olmoqdalar. Dunyo shiddat bilan o'zgartirib barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir.

Bugun terrorizm umumbashariy darajada jamiyat xavfsizligiga tahdid soladigan va o'zaro hamkorlik aloqalariga ega bo'lgan yirik terrorchilik guruhlaridan iborat tizim sifatida shakllanganini, sodda qilib aytganda, xalqaro terrorizmga aylanganini ta'kidlash zarur. Hozirgi kunda ayrim arab mamlakatlarida diniy harakatlar niqobida insoniylikka zid qabihliklar etilayotganidan habarimiz bor, albatta. Birgina misol, necha yilki Iroq va Suriyada davom etayotgan o'zaro nizo, fuqorolik urushi ayrim diniy ekstramistik guruxlar uchun ayni muddao, ya'ni o'ziga xos "palegon" vazifasini bajarayotgani xech kimga sir emas. Ayni shu ziddiyatlar va to'qnashuvlar natijasida hozirgi butun dunyoga xaf solib turgan yovuz tashkilot-ISHID dunyoga keldi. "Iroq va Shom islom davlati" atamasining qisqartmasidan olingan bu atama ortida jihodiy yo'nalishidagi terrorchi guruxlar turibdi. Yaqin Shardqagi bir qancha guruhlarni birlashtirgan bu tashkilot 2006-yilda Iroqda tuzilgan. Suriyada kechayotgan ichki nizolarga bevosita qurolli ko'shin bilan aralashgan mazkur tashkilot, o'z siyosiy manfaatlarini doirasidagi Suriyani ham qo'shib oldi va bosh maksadi – xalifalik tuzish yo'lida qonli, buzg'unchilik harakatini boshladi. Uch yil davomida Suriyada 200 ming nafarga yaqin tinch aholi qurolli to'qnashuvlar qurboni bo'ldi. U yerlarda kechayotgan urush manzaralari, kishilarning ojiz holatlarini ko'rib qaysi odam zotining qalbi o'rtanmaydi? Ular qanday musulmon bo'lishdiki, hatto yosh go'daklarning chirqirashlari, begunoh ayollarning dardli nidolarini eshitishmasa? Insof qani, qani adolat? "Qur'on" oyatlari, muborak hadislar va alloma ajdodlarimiz asarlarida ekstremizm va terrorchilikka qanday munosabat bildirganidan xabardormi ular? Islom bayrog'i ostida buzg'unchilik qilayotgan bu guruhlarni tinchliksevar bashariyat la'natlamoqda. Ming afsuslar bo'lsinkim, bu tashkilotlar orasida o'zbek" degan nomga dog' tushirib, yurtiga, xalqiga, o'z oilasiga xiyonat qilayotgan "iblis"larning nag'malariga uchib, dahshatli jinoyatlarga qo'l urayotgan yurtdoshlarimiz ham borligi achinarlidir. Ularni "yurtdosh" degani uyaladi kishi.

Bu xavfli illatlardan soqit bo'lish uchun biz qanday yo'lni tanlamog'imiz kerak. Qanday chora-tadbirlar bilan bu xatarli botqoqdan zararsiz o'tib olish mumkin? Buning uchun biz, avvalo, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ko'rsatgan yo'l biz uchun katta namunadir. Ularning BMT ning 72 sessiyasida ilgari surilgan g'oyalari «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» rezolyusiyasini ahamiyati beqiyosdir. Ma'rifat



orqali inson ilmga va tafakkuri rivojlanadi, ilm va tafakkurli inson albatta diniy ekstrimizm va terrorizmning maqsadini va oldiga qo‘ygan manfaatlarini yaxshi tushunadi va unga qarshi ilm tafakkur orqali kurashadi. Xalqimizda ma‘naviy xayotida bo‘shliq, boshqalar salbiy chirkin g‘oyalarini singdira olishlari mumkin bo‘lgan hollardan o‘zimizni saqlashimiz kerak.

## **XULOSA**

Hozirgi ochiq axborot tizimi davrida, avvalo, yoshlarda har qanday axborotga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilish, chetdan kelayotgan turli xil axborotlarni qabul qilishda analiz-sintez qila olish qobiliyatini shakllantirish lozim. Chunki hozirda qurolli hujumlardan ko‘ra ma‘naviy hujumlar havfli tus olib bormoqda, bunda esa axborot ularga juda qo‘l keluvchi vositaga aylandi. Eng axborot tez o‘z ta‘sirini o‘tkazuvchi qatlam yoshlar, yoshlar esa yurtimiz kelajagi. Ularda bunday illatlarni oldini olish uchun yurtimizda juda ko‘plab ijobiy targ‘ibotlar amalga oshirilmoqda. Joylarda, ilm dargohlarida din bilimdonlari tomonidan diniy terrorizm va ekstremizm balosi nima ekani va u qanday ta‘sir kuchiga ega ekani haqida ma‘ruzalar, tadbirlar uyushtirildi. Dindan niqob sifatida foydalana olmasliklari uchun, birinchi o‘rinda, xalqning diniy savodxonligini oshirish, din nimaligi, uning mazmun mohiyatini yaxshi anglab yetish kerak. Har birimiz atrofimizda sodir bo‘layotgan voqealardan xabardor bo‘lishimiz, beparvolik, bepisandlik bilan o‘zimizni chohga itarishdan saqlanish, insonlarni ogohlikka da‘vat qilib yashashimiz kerak.

## **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent “O‘zbekiston”.-2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi <https://www.lex.uz/acts/111453>
3. A.U.Anorboyev. Kiberjinoyatchilik, unga qarshi qarshi kurashish muammolari va kiberxavfsizlikni ta‘minlash istiqbollari; monografiya, toshkent 2020 y
4. Extiyot bo‘ling, ijtimoiy tarmoqlarda firibgarlik\  
<http://www.qoshrobot.uz/oz/node/661>
5. Sh.M.Mirziyoyevni O‘zLDPning X qurultoyida so‘zlagan nutqi.  
<https://uznews.uz/posts/2030-iilgaca-savkat-mirziyoev>
6. Sh.M.Mirziyoyevni Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz>, 30.12.2020

## **ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM JIHATLARI**

**Ibragimov Sherzod Shokirovich,**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Akademiyasi Magistratura tinglovchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari hamda bu boradagi istiqbollari. "Jamoat tartibi", "Jamoat xavfsizligi" tushunchalariga berilgan ta'riflarning ilmiy tahlili, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda fuqarolar ishtirokining huquqiy asoslarini takomillashtirish, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish. Maqolada jamoat tartibini saqlashda fuqarolar ishtirokining xorij tajribasi, bu boradagi zamonaviy ish usullari bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ichki ishlar organlari, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligini, fuqarolar ishtiroki, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Обеспечение общественного порядка и безопасности правоохранительных органов, проводимые реформы в сфере борьбы с преступностью и их результаты, а также перспективы в этой сфере. Научный анализ дефиниций «общественный порядок», «общественная безопасность», совершенствование правовых основ участия граждан в обеспечении общественного порядка и безопасности, формирование активной гражданской позиции. В статье представлен зарубежный опыт участия граждан в охране общественного порядка, предложения и рекомендации по современным методам работы в этой сфере.*

**Ключевые слова:** *правоохранительная деятельность, общественный порядок, общественная безопасность, участие граждан, поддержание общественного порядка, обеспечение общественной безопасности.*

### **ABSTRACT**

*Ensuring public order and security of law enforcement agencies, ongoing reforms in the field of combating crime and their results, as well as prospects in this area. Scientific analysis of the definitions of "public order", "public security", improvement of the legal framework for the participation of citizens in ensuring*

*public order and security, the formation of an active citizenship. The article presents the foreign experience of citizens' participation in the protection of public order, proposals and recommendations on modern methods of work in this area.*

**Keywords:** *law enforcement, public order, public safety, citizen participation, maintenance of public order, ensuring public safety.*

## **KIRISH**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda [2].

Ma'lumki, so'nggi yillarda ichki ishlar organlarining faoliyatini kompleks takomillashtirishga qaratilgan bir qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatining tashkiliy asoslarini takomillashtirish bu boradagi tizimli ishlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Xususan, jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasining yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son (2021 yil 26 mart) farmoni qabul qilindi.

Farmonga binoan ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari sifatida quyidagilar belgilandi:

*birinchidan*, ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi belgilandi. Unga muvofiq, mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanib, uning negizida ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari, Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyatini hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklatildi;

*ikkinchidan*, Ichki ishlar vazirligi tuzilmasini takomillashtirish orqali ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash sohaviy xizmatlari faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning yagona tizimini joriy etish maqsadida, Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o'z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi;

*uchinchidan*, hududiy ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyati tuzilmalari va rahbar lavozimlarini maqbullashtirish orqali mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida, ayrim rahbarlik lavozimlarining tugatilishi hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirining, viloyatlar, tuman va shaharlar ichki ishlar organlari boshliqlarining o'rinbosari – Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i lavozimi joriy etildi va patrul-post hamda yo'l-patrul xizmati bo'linmalari faoliyatini, shuningdek, mahallalar va jamoat joylarida manzilli profilaktik tadbirlar o'tkazilishini muvofiqlashtirish, muqaddam sudlangan va probatsiya hisobiga olingan shaxslar bilan ishlash hamda ichki ishlar organlarining tungi xizmatini tashkil etish uning asosiy vazifalari etib belgilandi.

Shuningdek, ushbu Farmon bilan ichki ishlar organlari tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Unga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi jamoat xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish belgilandi: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash; patrul-post va yo'l-patrul xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi va probatsiya xizmatlari bo'linmalarining o'zaro hamkorlikda ishlashi bo'yicha yangi mexanizmlarni belgilash; Milliy gvardiya bo'linmalarining jamoat tartibini saqlash tizimidagi vakolatlari va shaxsiy javobgarligini belgilash; probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini kunlik nazorat qilishda profilaktika inspektorlari bilan hamkorlik mexanizmlarini joriy etgan holda probatsiya bo'linmalarining faoliyati samaradorligini oshirish.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son (2021 yil 2 aprel) qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, Toshkent shahri va Toshkent viloyati ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi boshqaruv tizimi joriy etildi: *birinchidan*, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligini ta'minlash ushbu hududlardagi ichki ishlar va boshqa vakolatli organlarning mavjud kuch va vositalarini yagona "poytaxt mintaqasi" tamoyili asosida safarbar qilgan holda hamkorlikda amalga oshirilishi belgilandi; *ikkinchidan*, Toshkent shahridagi patrul-post xizmati batalonlari Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasining bevosita bo'ysunuvidan chiqarilib, to'g'ridan-to'g'ri tuman ichki ishlar organlari tarkibiga o'tkaziladi va ularning kunlik xizmati mahallalar kesimida yo'lga qo'yildi; *uchinchidan*, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog'liq holatlar yuzaga kelganda poytaxtdagi barcha ichki ishlar organlari faoliyatini, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalari kuch va vositalarining yagona tezkor boshqaruvi Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi zimmasiga, umumiy boshqaruvi ichki ishlar vaziri zimmasiga yuklatildi.

Yagona "poytaxt mintaqasi" tamoyili asosida ishlarni samarali tashkil etish maqsadida Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari boshliqlarining hamraisligida Jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Toshkent shahar va Toshkent viloyati Milliy gvardiya boshqarmalarining boshliqlari mazkur Kengash raisining o'rinbosarlari hisoblandi. Kengash yig'ilishlari har oyda kamida bir marotaba o'tkazilishi hamda unda poytaxt mintaqasida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish natijasida aniqlangan muammolarni o'zaro hamkorlikda hal etish bo'yicha manzilli choralar aniqlanishi belgilandi.

Shu bilan birga, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzurida Yagona tezkor boshqaruv markazi tashkil etilib, unga quyidagilar asosiy vazifalari etib belgilandi: *birinchidan*, poytaxt hududida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni uzluksiz monitoring qilish, jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb etilgan ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Toshkent shahar hokimligining tegishli kuch va vositalarini boshqarish; *ikkinchidan*, jinoyatlar,

hodisalar va favqulodda holatlar haqidagi xabarlariga tezkorlik bilan munosabat bildirish, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bogʻliq holatlar yuzaga kelganda vakolatli idoralarning harakatlarini markazlashgan holda muvofiqlashtirish.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-27-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2022 – 2025 yillarda Oʻzbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini taʼminlash tizimini rivojlantirish strategiyasi”da: jamoat xavfsizligini taʼminlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimlashtirish hamda mavjud huquqiy boʻshliq va ziddiyatlarni bartaraf etish; jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash va probatsiya faoliyatini uygʻunlashtirish; jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlarni oʻtkazishga jalb qilinadigan vazirlik va idoralar kuch va vositalarining birgalikdagi harakatlanish algoritmini ishlab chiqish va uni doimiy takomillashtirib borish; jamoat xavfsizligini taʼminlash faoliyatiga zamonaviy shakl va ish usullarini hamda ilgʻor axborot texnologiyalarini keng joriy etish; jamoat xavfsizligi tizimini raqamlashtirishni 90 foizga yetkazish orqali xizmat faoliyatida inson omilini minimallashtirish; profilaktik hisob, maʼmuriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishini keskin kamaytirish kabilar muhim vazifalar sifatida keltirilda [3].

Ushbu yoʻnalishda tadqiqot olib borgan olimlarning fikricha, “jamoat xavfsizligining mohiyati va mazmunini ilmiy tahlil qilish, jamoat xavfsizligini taʼminlash sohasidagi munosabatlar yigʻindisining huquqiy tartibga solinishini tavsiflash va bu pozitsiyalardan kelib chiqib, uning maqsadini obʻektiv baholash juda muhimdir, chunki ular pirovard natijada jamoat xavfsizligini taʼminlash subʻektlari faoliyatini takomillashtirishga qaratiladi” [4, S.29] deb keltirilgan fikrga qoʻshilgan holda aytish mumkinki, quyida tahlil qilinadigan masala – ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini taʼminlash sohasini takomillashtirish ham bevosita mazkur sohadagi subʻektlari faoliyatini takomillashtirishga qaratiladi.

Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini taʼminlash faoliyatini oʻrganar ekanmiz avvalo, “Jamoat tartibi” va “Jamoat xavfsizligi” tushunchalarning mazmun-mohiyatini tushunishni talab qiladi.

Tadqiqotlardan koʻrish mumkinki “Jamoat tartibi” tushunchasiga biron bir normativ-huquqiy hujjatlarda taʼrif keltirilmagan, bu esa oʻz-oʻzidan ushbu tushunchani turlicha talqin qilish va yondashishlarga olib keladi. Bu borada olib borilgan tadqiqot ishlarini tahlil qiladigan boʻlsak, mazkur tushunchani taʼriflash turlicha koʻrinishda boʻlsada, biroq koʻpchilik olimlar “jamoat tartibi – jamiyatda

huquq-normalari va axloq qoidalari asosida o'rnatilgan tartib bo'lib, asosan jamoat joylarida yuzaga keladi va rivojlanib boradigan ijtimoiy munosabatlar" degan ta'rifga qo'shiladigan [5, B.83].

Jamoat xavfsizligi jamoat tartibidan farqli ravishda amaldagi qonunchilikda ta'rif keltirilgan ya'ni, jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi [2].

Yuqoridagi ta'rifga muvofiq, jamoat xavfsizligiga bo'ladigan tahdidlarga har tomonlama va o'z vaqtida javob berishda jamoat xavfsizligini ta'minlash organlari tomonidan jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazarimizda fuqarolarning jamoat tartibini saqlashda ishtirok etishi davlat boshqaruvida ishtirok etishni amalga oshirish usullaridan biridir. Tadqiqotlardan ko'rish mumkinki, davlat boshqaruvining bu xususiyati tadqiqotchilarni qiziqtirib kelmoqda. Shunday qilib, Ya.Ya. Kayl va S.V. Yepininalar jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtiroki mexanizmini Buyuk Britaniya, AQSh, Ispaniya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarda qo'llanilishini tahlil qiladilar.

Ularning fikricha, davlat boshqaruvi tizimi faoliyatida fuqarolarning ishtiroki qanchalik faol amalga oshirilsa, ya'ni fuqarolarning davlat ishlariga qanchalik keng jalb etilsa, siyosiy va iqtisodiy sohalar shunchalik muvaffaqiyatli rivojlanadi [6, C.33].

Aytish joizki, fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroki avvalom bor ushbu ishtirokning chora-tadbirlarini belgilash, ishtirok etish usullari va hokimiyat hamda aholi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik shakllarini belgilash muhim hisoblanadi [7]. Jamoat tartibini saqlashda fuqarolar ishtirokining amaldagi qonunchilik doirasida huquqiy tartibga solinganligini tahlil qiladigan bo'lsak, bu borada ko'rish mumkinki, mazkur faoliyat turi qonun darajasida tartibga solinmagan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" nomli ma'ruzasida ta'kidlanganidek, "Ayni vaqtda qonunlarning to'liqligi, hayotiyliigi va to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish mexanizmlariga ega ekani haqida so'z yuritganda, bu borada hali ko'p ish qilishimiz kerakligini ta'kidlash zarur" [1]. Davlat rahbarining ushbu keltirilgan fikrlari tahlil qilinayotgan masalaga ham bevosita ta'lluqli hisoblanadi.

Darhaqiqat, ushbu sohada erishilgan yutuqlar bilan birga hali o‘z yechimini kutayotgan muhim masalalar ham mavjud.

Bundan tashqari Respublikada sodir etilgan jinoyatchilik darajasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, so‘ngi (2021) yilda jamoat joylari va ko‘chalarda sodir etilgan jinoyatlar o‘tgan yilga nisbatan sezilarli darajada oshganligi [9], mazkur masalaga jiddiy e‘tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar hamda tahlillardan kelib chiqib, aytish mumkinki, fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi ishtirokini yanada takomillashtirish uchun quyidagilarni taklif va tavsiya sifatida keltirish mumkin.

*Birinchidan*, ushbu o‘ta mas‘uliyatli va serqirra faoliyatni tartibga solish, faoliyatga oid huquqiy maydondagi bo‘shliq, noaniqlik va ziddiyatlarni bartaraf etish, shuningdek alohida qonun doirasidagi asosiy qoidalarni yagona tizimga solishni ta‘minlash maqsadida “Jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtiroki to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu qonun loyihasida quyidagi munosabatlarni tartibga solish taklif etiladi. Xususan, – qonunda “jamoat tartibi”, “jamoat xavfsizligi”, “fuqarolar shaxsiy xavfsizligi”, “jamoat tartibini saqlash”, “fuqarolar ishtiroki”, “kundalik sharoitlarda, ommaviy tadbirlar sharoitida, favqulodda vaziyatlar sharoitida jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash” kabi asosiy tushunchalariga ta‘rif berish; – jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash; – jamoat tartibini saqlashda ishtirok etuvchi fuqarolarni, shuningdek ularning oila a‘zolarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoya qilish tizimini belgilash.

Shuningdek, jamoat tartibini saqlash va unda fuqarolarning ishtiroki to‘g‘risidagi munosabatlarni qonun doirasida tartibga solinishi yuzasidan Belarus, Ukraina, Rossiya va Isroil davlatlari qonunchiligi o‘rganilganda, ushbu davlatlarning qonunchilik tizimida mazkur munosabatlar qonun doirasida tartibga solinganligini ko‘rish mumkin[8, B.40].

*Ikkinchidan*, tahlil va hisobotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda ko‘cha va jamoat joyida sodir etilayotgan jinoyatlarning aksariyat qismi kafe-bar, tungi klublar va restoranlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, “Faol fuqaro” deb nomlangan mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Xususan unga ko‘ra, hududdagi har bir ko‘ngilochar ob‘ekt (kafe,bar...) rahbari, yuridik shaxs maqomidan foydalanib, o‘z buyrug‘iga asosan ishchi xodimlari orasidan bir nafarini ob‘ekt hududida jamoat tartibini saqlashga mas‘ul sifatida biriktiradi. Ushbu mas‘ul shaxs – “Faol fuqaro”ning asosiy vazifasi hududda biriktirilgan jamoat xavfsizligini ta‘minlashga javobgar organlar bilan doimiy aloqada bo‘lib, ob‘ekt hududida sodir



etilgan har qanday noqonuniy harakatlar hamda uni sodir etish sabab va sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha murojaat qilish hisoblanadi.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirish doirasida jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtiroki mexanizmini joriy etilishi, ko'ngilochar ob'ektlarda sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni barvaqt oldini olish, jabrlanganlarga tezda yordam ko'rsatish, fuqarolarning qonuni huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini beradi.

## **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi (Speech by President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the Solemn Ceremony Dedicated to the 24th Anniversary of the Adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan) // Xalq so'zi.– 2016. – 8 dek.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021 yil 29 noyabr) farmoni (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the Concept of Public Security of the Republic of Uzbekistan and measures for its implementation" (November 29, 2021)) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "2022 – 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi" (Approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated November 29, 2021 "Strategy for the development of public safety in the Republic of Uzbekistan in 2022-2025") // <https://www.lex.uz/docs/5749291>.
4. Степанов А.В. Общественная безопасность: теоретико-правовой анализ // Вестник АНО ВПО «Прикамский социальный 30 институт» – №1(69) – 2015. С. (29-37) (Stepanov A.V. Public safety: theoretical and legal analysis // Bulletin of the ANO VPO "Prikamsk Social Institute" - No. 1 (69) - 2015. P. (29-37).).
5. Sharipov Sanjar Sobirovich. SCIENTIFIC ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCE IN THE MANAGEMENT OF PATROL-POST SERVICES IN

PUBLIC ORDER AND SECURITY SYSTEMS. Journal of Law Research. 2021, 6 vol., issue 5, pp. 81-88.

6. Кайль Я.Я. Партиципация как важный фактор повышения эффективности и результативности публичного управления субъектом Российской Федерации / Я.Я. Кайль, В.С. Епина // Региональная экономика: теория и практика. 2013. № 16. С. 30-38 (Kyle Y.Y. Participation as an important factor in improving the efficiency and effectiveness of public administration in a constituent entity of the Russian Federation / Y.Y. Keil, V.S. Yepinina // Regional Economics: Theory and Practice. 2013. No. 16. S. 30-38.).

7. Воронина Л.И., Патюков А.В. Участие граждан в охране общественного порядка: сравнительный анализ российского и зарубежного опыта (Voronina L.I., Patyukov A.V. Participation of citizens in the protection of public order: a comparative analysis of Russian and foreign experience) // [https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/77051/1/978-5-7996-2729-4\\_1\\_14.pdf](https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/77051/1/978-5-7996-2729-4_1_14.pdf).

8. Шарипов С.С. Ички ишлар органлари патруль-пост хизмати фаолиятини такомиллаштириш // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. – 2017. – № 3. – Б. 37-40 (Sharipov S.S. Improving the activities of the patrol and post service of law enforcement agencies // Bulletin of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. - 2017. - № 3. - P. 37-40).

9. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг маълумотномаси (Reference of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan).

## **JINOYAT ISHINI TUGATISHDA TERGOV BO‘LINMALARINING IDORAVIY NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Nurmatov Aziz Raxmatovich**

O‘zbekiston Respublikasi IIV  
Akademiyasi Magistraturasi tinglovchisi.

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada jinoyat ishini tugatish instituti qo‘llash davomida shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash hamda tergov bo‘linmalari rahbarlarining idoraviy nazoratini amalga oshirish faoliyati xorijiy davlatlar huquq normalari va ularni qo‘llash amaliyoti qiyosiy tahlil etilgan. Mazkur jarayonda yuzaga kelayotgan mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** aybsizlik prezumpsiyasi, jinoyat ishini tugatish, rehabilitatsiya, rehabilitatsiya asoslari, yarashuv, oqlov, ayblilik, javobgarlikka tortish muddati.

### **ABSTRACT**

*The article provides a comparative analysis of the legal norms and practices of foreign countries in the field of application of the institution of criminal justice to ensure the rights and legitimate interests of citizens and the implementation of departmental control over the heads of investigative units. Existing problems in this process are identified and suggestions and recommendations for their elimination are given.*

**Keywords:** presumption of innocence, termination of a criminal case, rehabilitation, basics of rehabilitation, reconciliation, acquittal, guilt, term of prosecution.

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье проводится сравнительный анализ правовых норм и практики зарубежных стран в области применения института уголовного судопроизводства для обеспечения прав и законных интересов граждан и осуществления ведомственного контроля за руководителями следственных подразделений. Выявлены существующие проблемы в этом процессе и даны предложения и рекомендации по их устранению.*

**Ключевые слова:** презумпция невиновности, прекращение уголовного дела, реабилитация, основы реабилитации, примирение, оправдательный приговор, вина, срок привлечения к ответственности.

## **KIRISH**

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida inson huquqlarini himoyasini ta‘minlash masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa bu oxirgi o‘n yillikda sud-huquq tizimida amalga oshirilgan islohotlarda nomoyon bo‘lmoqda. Bu borada mamlakat Prezidenti “Jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyilini qaror toptirish borasidagi asosiy vazifamiz – bu adolatli qonunlar qabul qilishdan iborat. Qisqacha aytganda, qonun adolatli bo‘lsa, u inson huquqlarini amalda himoya qilsa, shundagina odamlar qonunni hurmat qiladi va unga itoat etadi” [1] degan fikrni ilgari surdi.

Aybsiz shaxsni javobgarlikka tortmaslik, qonunga xilof ravishda javobgarlikka tortilgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish, ishni sudga qadar yuritishda taraflarning tengligini ta‘minlash, jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash, jinoyat sodir etgan shaxsning aybiga iqror bo‘lib tergov organlari bilan hamkorlik qilganligi uchun jazodan to‘liq yoki qisman ozod qilish, protsess ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini ta‘minlash masalasiga e‘tibor kuchaymoqda.

Buni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4850-son, 2017 yil 30 noyabrdagi «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5268-son, 2020 yil 10 avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6041-son, 2022 yil 28 yanvar kunidagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-son Farmonlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar, chora-tadbirlarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida “Endi sud orqali insonlarning huquqi tiklanganini e‘tirof etish bilan chegaralanib qolmasdan, nima sababdan sudgacha bo‘lgan tergov jarayonida inson huquq va erkinliklari buzilgan degan savolni ham ko‘ndalang qo‘yadigan, tazyiqlar uchun javob beradigan vaqt keldi”, deb ta‘kidladi[3]. Haqiqatdan ham, Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan tergov idoralari tomonidan ayblov xulosasi bilan yuborilgan jinoyat ishlari bo‘yicha oqlov hukmi chiqarilayotganligi ham dastlabki tergov ustidan nazoratni kuchaytirish kerakligini, tergovda xolislik, adolat tamoyillariga tayangan holda ish yuritishda xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganligini ko‘rsatmoqda.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida sudga qadar ish yuritishda jinoyat ishlarini tugatish institutini tadqiq qilishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Chunki mazkur institutni to'g'ri qo'llash orqali aybsizlik prezumpsiyasi ta'minlanadi, shuningdek qonun hujjatlaridagi talablarni to'g'ri qo'llash bilan bir qatorda aybsiz shaxslarning javobgarlikka tortilishining oldi olinadi.

Shu o'rinda, sudga qadar ish yuritish davomida jinoyat ishlarini tugatish institutini qo'llashdagi mavjud muammolar, yo'l qo'yilayotgan xato-kamchiliklar, ularni bartaraf etish usullari, normalarning to'g'ri qo'llanilishi hamda mazkur institutni qo'llashda tergov bo'linmalari rahbarlarining idoraviy nazoratiga va mazkur yo'nalishni takomillashtirish masalalariga to'xtalib o'tsak.

Sudlar tomonidan 2017 yil-2021 yillar davomida jami 3702 nafar shaxslarga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan. Jumladan, 2017 yilda 263 nafar, 2018 yilda 867 nafar, 2019 yilda 859 nafar, 2020 yilda 781 nafar, 2021 yilda 932 nafar shaxslarga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan [11].

Shuningdek, 2018 yilda 3290 nafar, 2019 yilda 3080 nafar, 2020 yilda 3434 nafar, 2021 yilda 5930 nafar shaxslar sud zalidan ozod qilingan[12]. Bu esa tergov idoralari tomonidan jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida huquqni qo'llash hamda ishni sudga qadar yuritishda shaxsning konstitusion huquq va erkinliklarini ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi omillar, bo'shliqlar mavjudligidan dalolat beradi.

Natijada, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, oqibatda esa aholining asosli e'tiroziga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga va sudning beg'arazligiga bo'lgan ishonchining pasayishiga olib kelmoqda. [13].

Bundan ko'rinadiki, sudga qadar ish yuritishda tergov idoralari tomonidan shaxslarga nisbatan ayblov e'lon qilishda jinoyat protsessining qonuniylik, jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarligi, odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, haqiqatni aniqlash, aybsizlik prezumpsiyasi kabi prinsiplariga tayangan holda amalga oshirishlari lozim. Shuningdek, sudga qadar ish yuritishda qaror qabul qilishda tergov idoralari rahbarlarining mas'uliyatini kuchaytirish orqali tergovning xolisligini va to'liqligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishni lozim deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligida "tergov bo'linmalari rahbarlarining vakolatlari sifatida o'z vakolatlari doirasida jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish yuzasidan tergovchilarning o'z vaqtida harakat

qilishini nazorat etishi, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergovni to'la, har tomonlama va xolisona olib borish choralari ko'rishi lozimligi va shu kabi boshqa vazifalar belgilab berilgan bo'lsada, tergov bo'linmalari rahbarlarining vakolatlari aniq mezonlar bilan belgilanmagan, jinoyat ishlari surishtiruv va tergovda ularning mas'uliyati va javobgarligi haqidagi normalar mavjud emas. Vazifa, vakolat va majburiyatlarning aniq belgilab berilmaganligi esa qanday soha bo'lmasin, xato-kamchiliklar sodir etilishiga sabab bo'ladi. Buni, tergov bo'linmalarining jinoyat ishini tugatish institutini qo'llashlari davomida ham uchratishimiz mumkin.

Xususan, ayblov xulosasi bilan sudlarga yuborilgan jinoyat ishlari bo'yicha 2021 yilda 932 nafar shaxslarga nisbatan oqlov hukmi chiqarilganligi, 5930 nafar shaxslar sud zalidan ozod qilinganligi, [14] yoki, Toshkent shahar IIBB Tergov bo'linmalari tomonidan 2021 yilda tergov qilinib amaldagi JPKning 83-84 moddalari bilan tugatilgan 3728 ta jinoyat ishlaridan, 394 tasi prokuratura organlari tomonidan tergov harakatlari to'liq o'tkazilmaganligi sababli bekor qilinganligi [15], yoxud, Toshkent viloyati IIBB Tergov bo'linmalari tomonidan 2021 yilda tergov qilinib amaldagi JPKning 83-84 moddalari bilan tugatilgan 386 ta jinoyat ishlaridan, 41 tasi prokuratura organlari tomonidan tergov harakatlari to'liq o'tkazilmaganligi sababli bekor qilinganligi [16] ham mazkur yo'nalishdagi ishlar yetarli emasligidan, idoraviy nazorat to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligini ko'rsatmoqda.

Xorijiy davlatlardan Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Belarus, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Estoniya, Moldaviya, Gruziya, Armaniston, Azarbayjon, Polsha kabi davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligi o'rganilganda Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikalarining Jinoyat-protsessual qonunchiligini o'rganimizda jinoyat ishlarini tergov qilish amaliyoti ustidan Tergov bo'linmalari rahbarlariga sudga qadar ish yuritishda tergovchilarning qarorlarini bekor qilish vakolati berilganligi, shuningdek aksariyat davlatlarning jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida tergov bo'linmalarining vakolatlari, huquqlari va majburiyatlari aniq belgilanmaganligi ko'zga tashlandi [17].

RF Jinoyat-protsessual qonunchiligida (*JPK 39-modda*) tergov bo'linmalari rahbarlarining vakolatlari sirasiga jinoyat ishini tergov qilish amaliyoti ustidan tergovchining protsessual faoliyati ustidan idoraviy protsessual nazoratni amalga oshirish bilan bog'liqligi aniq belgilangan, shuningdek tergov organi rahbariga "tergovchining noqonuniy yoki asossiz qarorini bekor qilish", "bo'ysunuvchi tergov organi tomonidan ko'rib chiqilayotgan jinoyat ishlari bo'yicha boshqa dastlabki tergov organi rahbarining, tergovchisining (surishtiruvchisining) noqonuniy yoki

asossiz qarorlarini bekor qilish”, “dastlabki tergov muddatini uzaytirish”, “tergovchining jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlash” [18] kabi keltirib o‘tilgan. Shuningdek, Belarus Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksining 35-moddasiga asosan tergov bo‘linmalari rahbarlariga tergovchilarning asossiz, qonunga xilof qabul qilingan qarorlarini bekor qilish, shuningdek, yuqori turuvchi prokurorga quyi turuvchi prokurning noqonuniy va asossiz qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida asoslantirilgan taqdimnoma kiritish vakolati berilgan [19]. Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 59-moddasida tergov bo‘linmalari boshliqlarining vakolatlari sirasiga tergovchining noqonuniy yoki asossiz qabul qilingan qarorlarini bekor qilish bo‘yicha prokurorga taqdimnoma kiritish huquqi berilgan [20].

Fikrimizcha, Rossiya, Belaruss va Qozog‘istonda jinoyat protsessual qonunchiligini amalga oshirishda tergov organlari rahbarlarining vakolatlarini kengaytirish, mas‘uliyatini va javobgarligini belgilash orqali, tergovchining protsessual faoliyati ustidan idoraviy protsessual nazoratni kuchaytirish va bu orqali shaxsning huquq va erkinliklarini ta‘minlash hamda jinoyat-protsessual normalarni to‘g‘ri qo‘llashni ta‘minlashga e‘tibor qaratilgan.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida tergov bo‘linmalari rahbarlarining vakolatlarini kengaytirish, sudga qadar ish yuritish bosqichida tergovchi va surishtiruvchilarning asossiz va noqonuniy qabul qilingan qarorlarini bekor qilish vakolatini berish, hamda huquqiy normalarni to‘g‘ri qo‘llanilishini ta‘minlash bo‘yicha ularning mas‘uliyatini va javobgarligini aniq belgilash orqali ijobiy natijaga erishish mumkin.

## **XULOSA**

Yuqoridagilardan kelib chiqib sudga qadar ish yuritishda jinoyat ishini tugatishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash hamda tergov bo‘linmalari rahbarlarining idoraviy nazoratini amalga oshirish bo‘yicha quyidagilar taklif etiladi:

Sudga qadar ish yuritish vakolati berilgan mansabdor shaxslarning jinoyat ishini tugatish institutini qo‘llash bo‘yicha malakasini oshirib borish hamda shakllantirish maqsadida doimiy ravishda o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etib borish;

Jinoyat protsessual kodeksda jinoyat ishini tugatish institutini qo‘llashda, umuman sudga qadar ish yuritishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, huquqlari va erkinligi buzilishining oldini olish maqsadida Tergov organi rahbarining mas‘uliyati va javobgarligini belgilovchi huquqiy norma kiritish;

Xususan, JPK ning 37-moddasi ya'ni tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhi boshlig'ining va uning o'rinbosarining vakolatlari sirasiga quyidagi vakolatlarni kiritish mumkin:

“surishtiruvchining, tergovchining noqonuniy yoki asossiz qarorini bekor qilish; bo'ysunuvchi tergov organi tomonidan ko'rib chiqilayotgan jinoyat ishlari bo'yicha boshqa dastlabki tergov organi rahbarining, tergovchisining (surishtiruvchisining) noqonuniy yoki asossiz qarorlarini bekor qilish; jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni tugatish to'g'risidagi qarorni tasdiqlash;”

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan bayram tadbirida so'zlagan nutqidan. Manba: [http://el.tfi.uz/images/Mirziyoyev\\_Sh\\_7c930.pdf](http://el.tfi.uz/images/Mirziyoyev_Sh_7c930.pdf).
2. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasi. Manba: <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
4. Б.Б.Муродов. Жиноят ишини тугатишни такомиллаштириш: Дис...юрид.фан.док. (DSc). Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018.
5. disserCat - электронная библиотека диссертаций, Manba: <https://www.dissercat.com>.
6. Б.Б.Муродов. Жиноят ишини тугатишни такомиллаштириш: Дис...юрид.фан.док. (DSc). Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018.
7. Строгович М.С. Избранные труды в 3 томах. Т. 2: Гарантии прав личности в уголовном судопроизводстве. Manba: <https://studmed.ru>.
8. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. 83,301-моддалар. <https://lex.uz>.
9. Б.Б.Муродов. Жиноят ишини тугатишни такомиллаштириш: Дис...юрид.фан.док. (DSc). Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018.
10. Б.Б.Муродов. Жиноят ишини тугатишни такомиллаштириш: Дис...юрид.фан.док. (DSc). Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018.
11. Ўзбекистон Республикаси Олий Суди расмий сайти маълумотлари. Manba: <https://stat.sud.uz>.
12. Ўзбекистон Республикаси Олий Суди расмий сайти маълумотлари. Manba: <https://stat.sud.uz>.



13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 ноябрь кундаги “Суд тергов фаолиятида фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатларини кучайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5268-сон Фармони. <https://lex.uz>.
14. Ўзбекистон Республикаси Олий Суди расмий сайти маълумотлари. Манба: <https://stat.sud.uz>.
15. Тошкент шаҳар ИИББ Тергов ҳисоботлари.
16. Тошкент вилояти ИИББ Тергов ҳисоботлари.
17. Хорижий мамлакатлар жиноят-процессуал кодекслари. Манба: <https://www.legislationline.org>.
18. Уголовно-Процессуальный Кодекс Российской Федерации, статья-39, Манба: <https://www.legislationline.org>.
19. Уголовно-Процессуальный Кодекс Республика Беларусь, статья-35, Манба: <https://www.legislationline.org>.
20. Уголовно-Процессуальный Кодекс Республика Казахстан, статья-59, Манба: <https://www.legislationline.org>

## **FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABAB-SHAROITLARINING QIYOSIY-HUQUQIY VA ILMIIY TAHLILI**

**Xakimov Dilshod Abdushukurovich**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Magistratura Tashkiliy-taktik boshqaruv 2-guruh tinglovchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada firibgarlik jinoyatlarining sabab-sharoitlarining qiyosiy-huquqiy va ilmiy tahlili bayon etilgan. Bunda xorij tajribasi ham o'rganilgan bo'lib, milliy muhitdagi firibgarlik jinoyatlarini turi kelib chiqish sabablari va sharoitlari ilmiy tahlil etilib, xulosa va takliflar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *firibgarlik, jinoyat, profilaktika, penitensiar, xulq-atvor.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проводится сравнительно-правовой и научный анализ причин мошенничества. Также изучается зарубежный опыт, научно анализируются причины и условия возникновения вида мошенничества в отечественной среде, делаются выводы и рекомендации.*

**Ключевые слова:** *мошенничество, преступление, профилактика, пенитенциарное учреждение, поведение.*

### **ABSTRACT**

*This article provides a comparative legal and scientific analysis of the causes of fraud. It also studies foreign experience, scientifically analyzes the causes and conditions for the occurrence of a type of fraud in the domestic environment, draws conclusions and recommendations.*

**Keywords:** *fraud, crime, prevention, penitentiary, behavior.*

### **KIRISH**

Ijtimoiy turmushda insonlar o'zaro bir-birlari bilan muomala qilar ekan, ular orasida turli xil munosabatlar o'rnatiladi. Ayrimlar sof, halol yo'l bilan, o'zgalar haqidan qo'rqqan holda bu munosabatni o'rnatasa, ayrimlar insonlarning soddaligi, ishonuvchanligini suiiste'mol qiladi. Bunday toifa shaxslarni o'z nomi bilan firibgar va tovlamachi deb aytishlari ham bejizga emas. Ta'kidlash joizki, respublikamizda sodir etilayotgan jami jinoyatlar orasida firibgarlik jinoyatlarining salmog'i yildan-yilga o'sib borishi kuzatilmoqda. Tahlillarga ko'ra, 2016 yilda firibgarlik jinoyati jami sodir etilgan jinoyatlarning 11,7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2017 yilda bu

ko'rsatkich 13,1 foizni tashkil qilgan<sup>139</sup>. 2018 yilning 12 oyi davomida respublika bo'yicha sodir etilgan firibgarlik jinoyati(6483) 2017 yilning shu davriga nisbatan 32,78 foizga kamaygan bo'lsada, umumiy jinoyatlarda xissasi 15,1 foizni tashkil etmoqda. Firibgarlik jinoyatining salmoqli qismi Toshkent shahri (1296 ta yoki 20%) Farg'ona viloyati (840ta yoki 13%), Samarqand (632 ta yoki 9,7) va Toshkent (557 ta yoki 8,6) viloyatlari hisobiga to'g'ri kelgan. Eng achirnarlisi, 2018 yilda sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarining 7,4% (478ta) fosh etilmasdan qolgan.<sup>140</sup>

Firibgarlik jinoyatlarining kamaytirish masalasi HMQOlar oldida turgan eng muhim va ustuvor vazifalaridan bo'lib, mazkur vazifalarni amalga oshirish samaradorligini ta'minlash ko'proq ogoh etuvchi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishni hamda ularni amalga oshirishda qo'llanilayotgan firibgarlik jinoyatining barvaqt profilaktikasi mexanizmini muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqazo etadi. Firibgarlik jinoyatining barvaqt profilaktikasi samaradorligini ta'minlash uchun eng avvalo mazkur turdagi jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, har qanday voqea, hodisa, jarayon yoki mavjudlikning mohiyatini o'rganish uning kelib chiqishi yoki sodir bo'lishiga turtki bergan sabablar, imkoniyat yaratgan shart-sharoitlar haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishni talab etadi. Aksariyat huquqshunos olimlar huquqbuzarlikni kasallikka, huquqbuzar shaxsni bemorga qiyoslashadi va mazmunan ularni bir-biriga yaqin tushunchalar deb bilishadi. Darhaqiqat, tizimda jazo huquqbuzar shaxsni jazolashga emas, balki axloqan tuzatishga xizmat qilishi lozim degan qarash mavjud. Tibbiyot sohasida esa bemorni ham jisman, ham ruhan sog'lomlashtirishga e'tibor qaratiladi<sup>141</sup>.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, huquqbuzarliklarning barcha sabab va sharoitlari kishilar psixologiyasi va ongiga ta'sir ko'rsatib, ularda g'ayriijtimoiy qarashlarni, xulq-atvorni shakllantiradi yoki ularni oziqlantiradi, kuchaytiradi. Shuning uchun ham huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlari hamma vaqt ijtimoiy psixologik xususiyatga ega. Ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlar ijtimoiy sharoitlardan kelib chiqqan bo'lib, ma'lum darajada mustaqildir.

Firibgarlik jinoyatini sodir etish sababini o'rganish maqsadida shu turdagi jinoyatni sodir etib jazoni ijro etish muassasalarida jazo o'tayotgan mahkumlar

<sup>139</sup>Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Илмий-амалий тадқиқотлар маркази маълумоти

<sup>140</sup>Ўзбекистон Республикаси ИИВ Тергов департаменти маълумоти

<sup>141</sup> И. Исмаилов, Д. М. Миразов, Ж. С. Мухторов ва бошқ. Ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шароитларини аниқлаш, таҳлил қилиш ва бартараф этиш: Ўқув қўлланма. –□ Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017 Б–5.

orasida o'tkazilgan anketa so'rovlari natijalari shuni ko'rsaktmoqdaki, so'rovda ishtirok etgan 1395 nafar mahkumlarning 30,5 foizi moddiy yetishmovchilik, 28,8 % ta'lim-tarbiyadagi kamchilik, 17% ishsizlik, 13,5 % huquqiy madaniyatning pastligi, 5,3 foizi profilaktik ishlari yetarli emasligi, 2,2 foizi huquqni muxofaza qiluvchi organlarning faoliyatidagi kamchiliklarni sabab sifatida e'tirof etishgan.

Yoshlar tomonidan firibgarlik jinoyatining sodir etilishi sababini o'rganish yuzasidan o'tkazilgan so'rovda ishtirok etgan mahkumlarning 38,1% ta'lim va tarbiyadagi sustkashlik, 32% ishsizlik, 14,9 % huquqiy madaniyatning pastligi, 5,4 % moddiy yetishmovchilik, 4,1 % oson yo'l bilan pul topish, 1,6 %ni ichkilik, 0,6 % internetning salbiy ta'siri deb belgilashgan.

Tahlillardan kuzatish mumkinki, firibgarlik jinoyatining sodir etilishining asosiy sabablardan biri shaxslardagi pulga bo'lgan extiyojning mavjudligidadir. Shuni unutmaslik lozimki, shaxslarda firibgarlik jinoyatini sodir etishga undovchi boshqa turdagi extiyojlar ham mavjud. Har qanday insonda jismoniy ehtiyoj qondirishga bo'lgan xoxish kuchliroq bo'ladi. Huquqshunos olimlarning fikriga ko'ra, ayrim toifadagi firibgarlar xayotda zaruriy ehtiyojni qondirish estagida firibgarlikka qo'l urishadi. Firibgarlar orasida spirtli ichimlikka ruju qo'ygan va giyohvandlikka chalinganlarda asosan bunday xolat kuzatiladi. Chunki, ularda hayotga, yaxshi yashashga bo'lgan qiziqish so'ngan bo'ladi. Ular faqatgina kundalik jismoniy ehtiyojini qondirish maqsadida bo'lishadi.

Umuman olganda, jinoyatni sodir etishi mumkin bo'lgan shaxslardagi extiyojlarni quyidagi toifalarga ajratib o'rganish mumkin:

- jismoniy ehtiyoj: *ochlik, chanqoq, jinsiy xayrixoxlik;*
- ijtimoiy ehtiyoj: *ijtimoiy aloqalar, muloqot, bog'langanlik, boshqalar haqida qayg'urish va o'ziga nisbatan g'amxurlik, hamkorlikdagi faoliyat;*
- ruxiy ehtiyoj: *iqrorlik, xoxish-istiak;*
- ma'naviy ehtiyoj: *o'zini o'zi hurmat qilish, boshqalar tomonidan xurmat qilinishi, natijadorlik va yuqori baxoga erishish, tan olinish;*
- moddiy ehtiyoj: *doimiy yashash sharoitini yaxshilashga intilish.*

Yengil pul topish, xayotda qiyinchilik ko'rmasdan kun kechirish, kiyinchiliklarni osonlik bilan yengib o'tishga o'rinish har qanday shaxsni o'ziga jalb etish ehtimoli yuqori. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, shaxslardagi g'urur, insof, diyonat, vijdon kabi xususiyatlar hamda axloqiy tarbiya tamoyillari ko'pchilikni jinoyat sodir etishiga yo'l qo'ymaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi to'rt xolatda shaxs firibgarlikka qo'l uradi degan fikrdamiz:

- axloqiy tarbiyadagi kamchiliklar;

- pulga bo‘lgan extiyoj qondirish zaruriyati;
- jismoniy ehtiyoj qondirish zaruriyati;
- boyib ketishga bo‘lgan kuchli xoxish.

Firibgarlikka oid jinoyat ishi materiallari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki aksariyat hollarda jabrlanuvchilarning individual xususiyatlari (o‘ta ishonuvchanligi) mazkur jinoyatning sodir etilishiga imkon yaratgan. Firibgarlik jinoyatlarini sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar tahlil qilinganida, 71,4 foiz holatda jabrlanuvchilarning o‘ta shonuvchanligi, 16,3 foiz holatda jabrlanuvchilarning o‘z maqsadlariga noqonuniy yo‘llar bilan erishishga urinishlari, 6,9 foiz holatda jabrlanuvchilarning huquqiy bilimlari yetishmasligi mazkur jinoyatlarningsodir etilishiga sharoit yaratgan<sup>142</sup>.

Haqiqatdan ham yuqorida ta’kidlanganidek, firibgarlik jinoyatining sodir etilishida jabrlanuvchilarning muayyan darajada o‘ziga xos xissasi mavjud. Chunki ular firibgarlarning aldovlariga ishonib, chuv tushib qolishmoqda.

Nazariyada firibgarlik jinoyatining sabab va sharoitlari kelib chiqishi bo‘yicha asosiy va asosiy bo‘lmagan sabab va sharoitlarga bo‘lib o‘rganiladi. Asosiy sabab va sharoitlar deb jamiyat rivojlanishining har qan-day bosqichi-da ham firibgarlikning ob’ektiv qonuniy hodisa sifatida mavjud bo‘lishini taqozo qiluvchi, belgilab beruvchi hodisa, voqea va jarayonlar yig‘indisiga aytamiz. Bunday sabablarga misol qilib ishlab chiqarish bilan iste’mol o‘rtasidagi, jamoat manfaati bilan shaxsiy manfaat o‘rtasidagi, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o‘rtasidagi va shunga o‘xshash jamiyat rivojlanishining ob’ektiv qonunlariga asosan har qanday jamiyatda, uning barcha bosqichlarida mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklarni salbiy tomonlarini keltirishimiz mumkin. Asosiy bo‘lmagan sabab va sharoitlar deb, jamiyat rivojlanishining ma’lum bir bosqichida paydo bo‘lgan, vaqtinchalik va o‘tkinchi xususiyatiga ega bo‘lishini taqozo qiluvchi, belgilab beruvchi voqea, hodisa va jarayonlar yig‘indisiga aytamiz. Asosiy bo‘lmagan sabablarga misol qilib hozirgi vaqtda ishsizlik, yetishmovchilik, huquqiy madaniyatning pastligi, milliy valyutaning qadsizlanishini, tashkiliy-boshqaruv sohasidagi yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarni keltirishimiz mumkin. Xorijiy mamlakatlarda sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatining sabablar o‘rganilganda bir qator uxshash holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, AQShda faoliyat olib borayotgan hind call-markazlari ishtirokida keng qamrovli firibgarlik jinoyati sodir etilgan bo‘lib, jinoyatchilar o‘z faoliyatini telefon va internet imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshirishgan. Mazkur

<sup>142</sup>Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Илмий-амалий тадқиқотлар маркази маълумоти

jinoyatning qurbonlari asosan keksa yoshdagilar va muxojirlar bo'lishgan. Mazkur jinoyatdan jabrlanganlar soni 15 mingdan oshgan va ular jabrlanuvchilardan 250 ming AQSh dolloridan ortiq miqdorida pul undirishgan. Deyarli 4 yil davomida bu jinoiy guruh telefonda odamlarni aldash va tahdid qilish uchun turli usullardan foydalangan, asosiy tahdid – qamoq jazosi, deportatsiya va AQSh hukumati bilan bog'liq boshqa muammolar bo'lgan. Yuqoridagi misolda quyidagi sabab va sharoitlar firibgarlikning sodir etilishiga olib kelgan deb xulosa qilish mumkin:

– AQShda yashayotgan va mazkur jinoyatning qurboniga aylangan 15 mingdan ortiq fuqarolarning xulq-atvorida ishonuvchanlikning yuqoriligi;

– AQSh HMQOlar faoliyatida tashkiliy-boshqaruv soxasidagi yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar;

– fuqarolarda huquqiy madaniyatning yetarli emasligi;

– internet va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash imkoniyatining kengligi;

– AQSh moliya tizimida moliyaviy monitoringning bo'shliqning mavjudligi;

– HMQOlar tomonidan amalga oshirilayotgan nazoratning sustligi tufayli firibgar erkin harakat qilish imkoniyatining mavjudligi.

Xayotda uchrayotgan bir qator omillar borki ularning mavjudligi firibgarlik kabi jinoyatlarning sodir etilishiga sharoit yaratadi. Tahlillarga asoslanib ularni quyidagi toifalarga ajratgan holda o'rganish asoslantirildi:

– shaxs yashayotgan va uni o'rab turgan ijtimoiy muhit bilan bog'liq omillar (*katta yoki kichkina muhitdagi salbiy holatlar*);

– tabiiy omillar (*tabiiy iqlim sharoiti, radiatsiya, tabiiy va texnogen vaziyatlar, suv toshqini, zilzilalar, ko'chkilar, jamiyat va davlat rivojlanishidagi beqarorliklar*);

ijtimoiy-demografik omillar (*ishsizlik, turar joyga ega bo'lmaslik, aholi sonini o'sishi, davlatning ijtimoiy siyosati (sog'liqni saqlash, sport, ta'lim, madaniyat, oillarni qullab quvvatlash va b)ning samarasizligi*);

iqtisodiy omillar (*ishlab chiqarishda raqobatbardoshlik, ishlab chiqarish imkoyatlarining eskirishi va mahsulot tan narxining oshishi, monopoliyaning mavjudligi, ish haqining pastligi, yuqori darajadagi pulning qadrsizlanishi, oziq-ovqat yetishmasligi va boshqa iqtisodiy muammolar, aholining qashshoqlik darajasi, ularni mahsulot bilan ta'minlash muammolari, xufiyona iqtisodiyotning mavjudligi*)

siyosiy omillar (*korrupsiyaning avj olishi, ijtimoiy guruhlarning keskinlashuvi, hokimiyat tomonidan fuqarolarning xohishlari rad etilishi, hokimiyat uchun kurash*)

huquqiy omillar: (*qonun normalaridagi bo'shliqlar yoki huquqiy ziddiyatlar, qonun normalari hamda qonunosti huquqiy hujjatlarning talablari ijrosini*)

*ta'minlashga qaratilgan mexanizmning ishlamasligi, sodir etilgan g'ayrihuquqiy qilmishlarga nisbatan jazo muqarrarligining to'liq ta'minlanmasligi);*

*tashkiliy boshqaruv:(ijroiya hokimiyat organlari faoliyati ustidan nazoratning yo'qligi, moddiy oqimning mavjudligi, ijroiya hokimiyat organlarining HMQOlar bilan hamkorligining yo'qligi, davlatning kadrlar masalasidagi siyosatining samarasizligi, davlat va mahalliy organlar faoliyati ma'muriy buyruqbozlikka asoslanganligi, ijro intizomining pastligi, jinoyatlarning fosh etish darajasining pastligi, jinoyat sodir etgan shaxslarda jazoning muqarrarligini ta'minlanmaganligi)*

*psixologik va ma'naviy-ruhiy xarakterdagi omillar(jamiyat a'zolari o'rtasida vahimaga va jazavaga tushish holatining kuchayishi, odamlar orasida ertangi kunga ishonchsizlikning rivojlanishi, kelajagidan xavotirlanishi va qo'rqish holatining mavjudligi, siyosiy, diniy va boshqa motivlardan qo'rqishi).*

Firibgarlik bilan bog'liq jinoyatchilikka qarshi kurashning eng muhim va asosiy yo'nalishlaridan biri mazkur turdagi jinoyatlarning barvaqt profilaktikasidir. Ushbu profilaktikaning o'ziga xos jixatlaridan biri sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatlarining sabab va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rishdir. Shuningdek, profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash samaradorligi huquqni muxofaza qiluvchi organlarning keng jamoatchilik bilan hamkorligining to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liqdir.

## **XULOSA**

Yuqoridagi omillarni bartaraf etmay turib biz jamiyatda uchraydigan salbiy holatlar, shu jumladan firibgarlik jinoyatlarini oldini olishda natijalarga erishib bo'lmamasligini anglashimiz lozim. Shu boisdan, bugungi kunda mamalakatimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarda aholining kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy qo'llab quvvatlash, yangi ishchi o'rinlarini yaratish, "uyushmagan yoshlar"ning mavjud muammolarini aniqlash va bartaraf etish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish borasida ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi va ular davom ettrilmoqda.

## **REFERENCES**

1. I. Ismailov, D. M. Mirazov, J. S. Muxtorov va boshq. Huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish: O'quv qo'llanma .– T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017 B–5.
2. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi ma'lumoti
3. O'zbekiston Respublikasi IIV Tergov departamenti ma'lumoti

## **ROBOT TEXNIKASINI TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI: HUQUQIY VA AXLOQIY MUAMMOLARNI HAL QILISH BO‘YICHA BA’ZI KO‘RSATMALAR**

**Yusupov Sardor**

TDYU mustaqil izlanuvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Robotlar asta-sekin odamlarning professional va shaxsiy hayotiga kirib bormoqda. Mavjud qonunchilik asoslariga duch keladigan muammolar va yangi huquqiy va axloqiy savollar tufayli ular tartibga soluvchi organlarning e'tiborini talab qiladi. Ushbu maqolada robot texnika sohasidagi to'rtta asosiy tartibga solish dilemmasi ko'rib chiqiladi: texnologik taraqqiyotdan qanday qilib qolish kerak; innovatsiyalarni rag'batlantirish va asosiy huquq va qadriyatlarni himoya qilish o'rtasidagi muvozanatni qanday saqlash kerak; keng tarqalgan ijtimoiy me'yorlarni tasdiqlash yoki ijtimoiy normalarni boshqa yo'nalishga siljitish; va texno-tartibga solishda samaradorlik va qonuniylikni qanday muvozanatlash mumkin. To'rt dilemmaning har biri muayyan tartibga solish uslubi kontekstida ko'rib chiqiladi: qonun, bozor, ijtimoiy normalar va texnologiya tartibga solish vositasi sifatida; va har biri uchun biz alohida mavzularga e'tibor qaratamiz - masalan, javobgarlik, maxfiylik va avtonomiya - bu ko'pincha tartibga solish e'tiborini talab qiladigan asosiy muammolar sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada huquq va qadriyatlarining Yevropa doirasining roli va salohiyati, mas'uliyatli tadqiqot va innovatsiyalar, aqlli tartibga solish va yumshoq qonun dilemmalarni hal qilish vositasi sifatida ta'kidlanadi.*

**Kalit so'zlar:** Robototexnika, Nizom, tartibga soluvchi dilemmalar, texnologiyani tartibga solish, aqlli tartibga solish, mas'uliyatli innovatsiyalar, yumshoq qonun .

### **АННОТАЦИЯ**

*Роботы постепенно входят в профессиональную и личную жизнь людей. Из-за проблем, с которыми сталкиваются существующие правовые рамки, и новых правовых и этических проблем, они требуют внимания регулирующих органов. В этой статье обсуждаются четыре основные регуляторные дилеммы в области робототехники: как оставаться в курсе технологических достижений; как найти баланс между поощрением инноваций и защитой основных прав и ценностей; утверждение общих социальных норм или смещение социальных норм в другом направлении; и как сбалансировать эффективность и законность в техническом регулировании. Каждая из четырех дилемм рассматривается в контексте определенного стиля*



регулирования: право, рынок, социальные нормы и технология как средство регулирования; и для каждого из них мы фокусируемся на конкретных темах, таких как подотчетность, конфиденциальность и автономия, которые часто проявляются как серьезные проблемы, требующие внимания регулирующих органов. В статье подчеркивается роль и потенциал европейской системы прав и ценностей, ответственных исследований и инноваций, умного регулирования и мягкого права как средства решения дилемм.

**Ключевые слова:** робототехника, регулирование, регулятивные дилеммы, технологическое регулирование, интеллектуальное регулирование, ответственные инновации, мягкое право.

### **ABSTRACT**

*Robots are gradually entering the professional and personal lives of people. Because of the challenges faced by existing legal frameworks and emerging legal and ethical issues, they require the attention of regulators. This article discusses four major regulatory dilemmas in the field of robotics: how to stay on top of technological advances; how to strike a balance between encouraging innovation and protecting fundamental rights and values; the assertion of general social norms or the shift of social norms in another direction; and how to balance efficiency and legality in technical regulation. Each of the four dilemmas is considered in the context of a particular style of regulation: law, market, social norms and technology as a means of regulation; and for each of these, we focus on specific topics such as accountability, confidentiality and autonomy, which often show up as serious issues requiring the attention of regulators. The article highlights the role and potential of the European system of rights and values, responsible research and innovation, smart regulation and soft law as a means of solving dilemmas.*

**Keywords:** robotics, regulation, regulatory dilemmas, technological regulation, intelligent regulation, responsible innovation, soft law.

### **KIRISH**

Robotlar endi Mars yuzasini tadqiq qilish, okean tubidagi neft quvurlarini ta'mirlash, shifoxonalarda jarrohlik muolajalarini bajarish, jang maydonlarida bombalarni zararsizlantirish yoki tashlash, fabrikalarda ishlab chiqarish vazifalarini bajarish kabi professionallar uchun odatiy holdir. Biroq, robotlar odamlarning kundalik hayotida professional bo'lmagan foydalanuvchilar uchun ham tobora ommalashib bormoqda. Biz uy xo'jaliklarida yashash xonalarini tozalash, ovqat tayyorlash va pishirish, maysa o'rish yoki talabalar va bolalar bilan o'yin o'ynash kabi uy yumushlarini bajarayotgan robotlarni tomosha qilishimiz mumkin. Bundan tashqari, ko'plab shaharlarda jamoat transporti tobora robotlashtirilmoqda, masalan. haydovchisiz metro va metro tizimlari bilan. Avtomobillar, shuningdek, B. adaptiv

kruiz nazorati, qatorni tark etish haqida ogohlantirish tizimlari, favqulodda tormoz tizimlari, barqarorlikni elektron nazorat qilish, aqlli to‘xtashga yordam berish tizimlari kabi yangi qobiliyatlar bilan jihozlanadi; va Google avtomobili kabi to‘liq avtonom avtomobillardagi ishlanmalar tezlashmoqda. Shunday qilib, robotlar kundalik, ijtimoiy va professional hayotda tobora ommalashib bormoqda.

ICT, biotexnologiya, nanotexnologiya va nevrologiya texnologiyalaridan so‘ng robototexnika tartibga soluvchi organlarning e‘tiborini talab qiladigan texnologik rivojlanishning navbatdagi katta keng yo‘nalishi sifatida tobora kun tartibiga qo‘yilmoqda. Ilgari bu keng texnologik sohalarning barchasi robototexnikaga turli yo‘llar bilan kashshof bo‘lgan, buni robotga yoki uning dizaynining ba‘zi jihatlariga nisbatan qo‘llaniladigan atamalar tasdiqlaydi, masalan: B. softbots, biorobotics, nanobots va neyrobotics; Uzoq vaqtdan beri ishlab chiqilgan mexatronik sanoat robotlari, shuningdek, futuristik gumanoidlar, androidlar va kiborglar bilan birlashganda, robototexnika haqiqatan ham keng soha bo‘lib ko‘rinadi. Bu barcha shakllarni birlashtiradigan narsa texnologik mahsulotlarning o‘z faoliyatida ma‘lum darajada avtonomiyaga ega ekanligi hissi, bu odamlar va texnologiya o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirning yangi qirralarini keltiradi; va aynan shu xususiyat robototexnikani tartibga soluvchilar va tartibga soluvchi olimlar uchun tegishli sohaga aylantiradi. Bizning mavjud me‘yoriy bazalarimiz robototexnika sohasidagi o‘zgarishlarga mos keladimi? Yangi robot texnologiyalari, ayniqsa, avtonom xatti-harakatlarning ortib borayotgan darajasini ko‘rsatsa, mavjud huquqiy va axloqiy asoslar doirasida tartibga solinishi mumkinmi, agar yo‘q bo‘lsa, amaldagi qonunlar robot texnologiyalarini ham o‘z ichiga olishi uchun amaldagi qonunlarni umumiyroq qilish kerakmi yoki aksincha, biz o‘zimizni maqsad qilib qo‘yishimiz kerakmi –degan savollar yuzaga keladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Robot texnikasining asosiy tartibga soluvchi muammolarini xaritalash uchun mualliflar RoboLaw loyihasida hamkorlik qildilar, bu Yevropa Komissiyasining Tadqiqot asos dasturlari tomonidan moliyalashtirilgan qonun va robot texnologiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan birinchi tadqiqot loyihasi edi. U Scuola Superiore Sant’Anna (Italiya), Tilburg universiteti (Niderlandiya), Reading universiteti (Buyuk Britaniya) va Ludwig-Maximilians-Universität (Germaniya) huquq, falsafa, etika va robototexnika bo‘yicha mutaxassislardan iborat fanlararo guruh tomonidan ishlab chiqilgan. Loyihaning asosiy maqsadi rivojlanayotgan robot texnologiyalarining huquqiy va axloqiy oqibatlarini tushunish va (1) robototexnika

texnologiyalarining paydo bo'lishi va tez tarqalishini hisobga olgan holda mavjud huquqiy bazalar mos va samarali ekanligini va (2) qanday qilib sodir bo'layotgan o'zgarishlar robototexnika sohasidagi qalbimizga yaqin bo'lgan me'yorlar, qadriyatlar va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qiladi. Ushbu maqolada biz Evropa robot qonunini ishlab chiqish uchun mustahkam asos yaratish maqsadida Evropa Komissiyasi uchun tartibga solish takliflari bilan ishlab chiqilgan robototexnikani tartibga solish bo'yicha ko'rsatmalarga asoslanib loyihaning asosiy xulosalarini taqdim etamiz.

Существует четыре основных типа МНК: неорганические ядро-оболочка нанокompозиты, самособирающиеся нанокompозиты, МНК на основе диоксида кремния и органические неорганические нанокompозиты. Особое внимание уделяется органо-неорганическим ТНК. Благодаря сочетанию свойств как


органических, так и неорганических в одном нанокompозит. Этот тип МНЧ включает в себя яркое и широкое разнообразие материалов и комбинации, приготовленные разными методами и технологиями.

### *Синтез магнитных наночастиц*

Синтез МНЧ различного состава и фазового состава привлек внимание исследователей. Приковывает к себе внимание благодаря полученным великолепным физическим и химическим свойствам. А сообщалось о большом количестве работ по наноразмерным оксидам железа  $Fe_3O_4$  и  $\alpha-Fe_2O_3$ , которые обладают потенциалом суперпарамагнитных свойств.

Более того, из-за большого отношения поверхности к объему существует большой интерес к чистым металлы, такие как Fe и Co; ферриты-шпинели, такие как  $MgFe_2O_4$ ,  $MnFe_2O_4$ ,  $CoFe_2O_4$  и  $NiFe_2O_4$ ; сплавы  $ZnFe_2O_4$ , то есть  $CoPt_3$  и  $FePt$ ; ДМС; а также полимерные магниты. Особое положение МНП обусловлено принципиально от их великолепных свойств, включая химический состав, тип и степень дефектность кристаллической решетки, размер и форма частиц, морфология, взаимосвязь взаимодействие частицы с окружающей матрицей и близость частиц.

По этим причинам важно разработать методы и пути, с помощью которых можно контролировать размер, форму и химическую однородность магнитных частиц. Совсем недавно, 143 Гибридные материалы на основе магнитных наночастиц и полимеров.



**Рисунок 1.1** Управление профилем направленного затопления предназначено для определения иммиграционной способности магнитных полимерных нано сфер в высокотемпературном резервуаре  $K_1$  представляет

*средняя проницаемость, K2 — трубка с самой высокой проницаемостью, а K3 — низкая проницаемость. Три заполненные песком трубки стоят параллельно (длиной 30 см) с одним входом (A) и выходом (B). Магнитные полимерные наносферы вводили на входе (A) и протекал по трем параллельным заполненным песком трубкам.*

Золь-гель обработка была очень важной разработкой, обеспечивающей новый подход в химии, чтобы адаптировать новые материалы. Это эффективная технология, которая принесла новый восприятия в области стекла и керамики. Это сложная технология, которая может изменить поверхность подложки и воспользоваться преимуществами получения самой высокой поверхности площади и устойчивости. Эта обработка, основанная на мокрой химии, очень эффективна при синтезе. Определение размера очищенных, стехиометрических и монодисперсных оксидных наночастиц, содержащих металл оксид, особенно наночастицы оксида железа. С точки зрения контроля хим реакции, гомогенные нанокомпозиции, которые производятся, в частности, образуют смешанные оксиды. Реакция начинается с растворов молекулярных предшественников, из металла или металлоид, окруженный различными реакционноспособными лигандами, которые подвергаются медленному гидролизу или реакцией поликонденсации и получают коллоидные золи [63]. Золь медленно развивается грибы, и образует паутину, содержащую жидкую фазу, так называемый гель. Золь-гель метод широко применялся для синтеза МНЧ и было опубликовано бесчисленное множество исследований. Разработали новый золь-гель для изготовления пригодных для повторного использования одномерных волокон  $Fe_3O_4$  с достаточным намагниченность насыщения, однородно распределенные МНЧ в волокнах и великолепная гибкость. Эти волокна обладают теми же преимуществами, что и частицы, в том числе высокой площадь поверхности к объему. Кроме того, они легко перерабатываются и используются повторно, обеспечивают самообеспечение, и не имеют склонности к агломерации в воде.

## **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Суть синтеза заключалась в выращивании  $Fe_3O_4$  в волокна-предшественники путем спонтанного зародышеобразования в процессе термообработки. Ранее МНЧ были встроены намагниченность насыщения волокон была низкой, а распределение МНЧ было неравномерным.

Нановолокна Fe<sub>3</sub>O<sub>4</sub>, изготовленные этим методом, имели превосходную кристалличность, равномерно размер кристаллических зерен, однородная морфология волокон, высокая намагниченность насыщения и гибкость. Кроме того, характеристики адсорбции и регенерации токсичных тяжелых металлический Pb, и эффективность разделения волокон Fe<sub>3</sub>O<sub>4</sub> была лучше, чем у аналогично изготовленный порошок Fe<sub>3</sub>O<sub>4</sub>.

## REFERENCES

1. Khakimovich R. A., Dismuratovich N. S., Ravshanbek o'gli J. R. DEVELOPMENT OF THERMAL TREATMENT WITH DOUBLE-PHASE RECRYSTALLIZATION OF THE COMPOSITE OF HIGH-CUTTING STEEL P6M5 WITH CONSTRUCTION STEEL 35ГЛ //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 101-107.
2. Жалилов Р. Р. Ў., Абдуғаниева Х. Р. Қ. ИССЛЕДОВАНИЕ МОРФОЛОГИИ И РАЗМЕРОВ УЛЬТРАДИСПЕРСНЫХ ПОРОШКОВ ВОЛЬФРАМА КРИСТАЛЛООПТИЧЕСКИМИ МЕТОДАМИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 633-640.
3. Tojiboyev, B. M., Muhiddinov, N. Z., Karimov, R. I., & Jalilov, R. R. O. G. L. (2021). IKKILAMCHI TERMOPLAST POLIMERLAR ASOSIDA QURILISH SANOATI UCHUN POLIMERKERAMIK KOMPOZITSION MATERIALLARNI OLISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 386-392.
4. Muxammadamin o'g'li M. A., Anvar o'g'li K. S. THERMOELECTRIC, RESISTANCE, PHOTO ELECTRIC DETECTORS AND ANALYSIS OF SPECTRAL CHARACTERISTICS OF MATERIALS IN THEM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 172-180.
5. Muxammadamin o'g'li M. A., Anvar o'g'li K. S. Production of micro-and nanoscale silicon granules using powder technology //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 5. – С. 175-179.
6. Muxammadamin o'g'li M. A., Umidjon Turg'unboy o'gli X. Determine the amount of heat accumulated at the focal point of the solar oven //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 5. – С. 161-164.
7. Umarova M. N., To'ychiev A. T. STRUCTURAL CLASSIFICATION AND ANALYSIS OF CORROSION OF METALS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 12. – С. 330-334.

- 
8. Atakhanova S. K. et al. IMPROVING THE WEAR RESISTANCE OF MINING EXCAVATOR //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 417-421.
  9. Тожибоев Б. М. ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ ПРОЧНОСТНЫХ СВОЙСТВ ПОЛИМЕРНЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ //Universum: технические науки. – 2021. – №. 12-2 (93). – С. 22-23.
  10. Дадаханов Н. К., Каримов Р. И. МЕТОДЫ ВОССТАНОВЛЕНИЯ ШЕЙКИ ВАЛОВ С ПОМОЩЬЮ СВАРКИ //Universum: технические науки. – 2022. – №. 1-1 (94). – С. 29-33.
  11. Дадаханов Н. К., Каримов Р. И. УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНСТРУКЦИИ РИФЛЕННОЙ ЦИЛИНДРА //Universum: технические науки. – 2021. – №. 2-2 (83).

## **MIKRO-GES VA FOTOELEKTRIK QUYOSH ELEKTR STANSIYASIGA ASOSLANGAN KOMBINIRLASHGAN (ARALASH) AVTONOM ENERGIYA MANBALARINING KOMPYUTER MODELI**

**U.S. Rustamov, S.X. Isroilova, Z.I. Abdumalikova**

Fargʻona politexnika instituti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan xorijiy mamlakatlarda foydalanilayotgan turlari, afzalliklari va kamchiliklari haqida tahliliy maʼlumotlar berilgan. Qoʻllanilish samaradorligi yuqori boʻlgan Mikro-GES va fotoelektrik quyosh elektr stansiyasiga asoslangan kombinirlashgan (aralash) avtonom energiya manbalarining kompyuter modeli taklif etilgan.*

***Kalit soʻzlar:** qayta tiklanadigan energiya manbalari, monokompleks, gidroelektrostansiya, Mikro-GES, kompyuter modeli, kombinirlashgan.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье представлена аналитическая информация о видах, преимуществах и недостатках использования возобновляемых источников энергии в зарубежных странах. Предложена компьютерная модель комбинированных (смешанных) автономных источников энергии на базе Микро-ГЭС и фотоэлектрической солнечной электростанции с высоким КПД.*

***Ключевые слова:** возобновляемые источники энергии, монокомплекс, гидроэнергетика, микро-ГЭС, компьютерная модель, комбинированный.*

### **ANNOTATION**

*This article provides analytical information on the types, advantages and disadvantages of using renewable energy sources in foreign countries. A computer model of combined (mixed) autonomous energy sources based on Micro-HPP and photovoltaic solar power plant with high efficiency is proposed.*

***Keywords:** renewable energy sources, monocomplex, hydropower, micro-hydro, computer model, combined.*

### **KIRISH**

Dunyoning koʻplab mamlakatlarida qayta tiklanadigan energiya manbalarining (QTEM) kuchli tizimlari, maʼlumki, mono - shamol, monoquyosh fotoelektrik yoki mono – quyosh issiqlik hosil qiluvchi komplekslardan foydalanishga asoslangan [1-4].

Hozirgi vaqtda qayta tiklanadigan energiya tizimlari dunyosining aksariyat qismini monokomplekslar tashkil etad. Bularga shamol energetikasi fermer xo'jaliklari, quyosh elektr stansiyalari, kichik gidroelektrostansiya va ES va boshqalar kiradi. Eng yirik monokomplekslarda qayta tiklanadigan energiya quyidagi mamlakatlarda qo'llaniladi: AQSH, Xitoy, Germaniya (shamol elektr stansiyalari, quyosh fotoelektr stansiyalari); Fransiya ("Ranc" to'liqinli elektr stansiyasi), Yaponiya, Janubiy Koreya (quyosh elektr stansiyalari); AQSH, Italiya, Islandiya (geotermik). Ularning xususiyatlari adabiyotlarda, o'quv materiallarida va elektron ommaviy axborot vositalarida keng namoyish etilgan. O'rnatilgan quvvat jihatidan eng yirik bitta stansiya elektr stansiyalari orasida Kaliforniya shtatidagi (AQSH) AESlar mavjud - o'rnatilgan quvvati 1550 MVt; shamol-dengiz shamol fermasi **Horns Rev 2**, Shimoliy dengizda, Yutlandaning (Daniya) g'arbiy qirg'og'idan 30 km uzoqlikda joylashgan, quvvati 210 MVt; fotoelektr uchun - XXR, 2010 yil oxirida o'rnatilgan quvvati - 900 MVt, 2012 yilga kelib - allaqachon 2 GVt, va 2015 yilga qadar XXRning maqsadli ko'rsatkichi - 15 GVt quvvatga ega; qurilayotgan SHEMLardan - AQSHda (Kaliforniya, San-Luis-Obispo okrugi), quvvati -550 MVt. Shu bilan birga, QTEMning ikki yoki undan ortiq turlaridan bir vaqtning o'zida foydalanishning ko'plab misollari mavjud [5-7]. Kanada, chekka qishloqlarini energiya bilan ta'minlash uchun shamol-dizel va shamolvodorod gibril sxemalar ishlatiladi. Vodorod ichki yonish dvigatellarida elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Shamolvodorod sxemasi Ramea shahridagi Prince Edward Island Wind-Hydrogen Village loyihasida xam ishlatiladi. Vodorod generatorining quvvati 250 kVt. U har yili 120 ming litr yoqilg'ini tejaydi va shu bilan atmosferaga chiqadigan chiqindilarning oldini oladi: CO<sub>2</sub> - 320 tonna, NO<sub>x</sub> - 6,8 tonna, SO<sub>2</sub> - 0,6 tonna.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**


Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, avtonom iste'molchilarning elektr ta'minoti tizimlarida faqat bitta QTEM turidan foydalanish QTEMning o'ziga xos jismoniy xususiyatlari tufayli har doim ham ishonchli va uzluksiz energiya ta'minotini ta'minlay olmaydi. Odatda, ular qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadigan avtonom iste'molchilarni energiya ta'minotini turli xil qayta tiklanadigan energiya manbalarini energiya komplekslari deb ataladigan birlashtirib ta'minlashga harakat qilishadi. Ular odatda qayta tiklanadigan energiya manbalariga asoslangan dizel (benzinli) elektr stansiyalari (DES), shuningdek, har xil turdagi energiya saqlash tizimlarini o'z ichiga

oladi [8-9]. Sanoat va qishloq xo'jaligi iste'molchilarini elektr energiyasi bilan ta'minlashning yagona energiya tizimiga ulanishi iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasining chekka hududlari uchun, masalan, quyosh va suv potensialidan foydalangan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish dolzarbdir [10-15].


Ushbu ishdagi asosiy maqsad va vazifalar:

- Mikro-GESning kompyuter modelini ishlab chiqish;
- Mikro-gidroelektr stansiyalarining xususiyatlarini o'rganish,
- Mikro-gidroelektr stansiyalari va fotoelektrik quyosh elektr stansiyalari asosida kombinirlashgan (aralash) avtonom quvvat manbai kompyuter modelini yaratish.


Mikro-GESning kompyuter modeli 1-rasmda keltirilgan. Ishlab chiqilgan model quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: sinxron generator, uch fazali transformator, chiqish va kirish filtrlari.



1-rasm. Mikro-GESning kompyuter modeli.



2-rasm. Stator oqimining osillogrammalari.




3-rasm Generatorning qo'zg'alish kuchlanishining nisbiy birliklarda o'zgarishi osillogrammalari.




Ushbu raqamlardagi xususiyatlarni o‘rganish natijalari Mikro-GESning kompyuter modeli har xil kattalikdagi va tabiatdagi yuklarning chiqish kuchlanishiga ta’sirini ishonchli tarzda aks ettiradi va kelajakda Mikro-GES va fotoelektr quyosh elektr stansiyasi asosida kombinirlashgan (aralash) avtonom energiya manbasini kompyuter modelini yaratish uchun foydalanish mumkin degan xulosani tasdiqlaydi.

Uzoq masofali iste’molchilarni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash uchun, bizning holatlarimizda, Mikro-GES va fotoelektr quyosh elektr stansiyasiga asoslangan kombinirlashgan (aralash) avtonom energiya manbalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Quyida Mikro-GES va fotoelektr quyosh elektr stansiyasiga asoslangan aralash avtonom energiya manbai kompyuter modelining ishlab chiqilgan kompyuter modeli keltirilgan (4-rasm). Ushbu kompanovka iste’molchilarni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlashga imkon beradi, shuningdek uning narxini sezilarli darajada pasaytiradi. Mikro-GES va fotoelektr quyosh elektr stansiyasi asosida kombinirlashgan (aralash) avtonom energiya manbasini yaratish uchun fotoelektr quyosh elektr stansiyasining kompyuter modelini ishlab chiqish zarur.




4-rasm. Mikro-GES va fotoelektr quyosh elektr stansiyasiga asoslangan kombinirlashgan (aralash) avtonom energiya manbalarining kompyuter modeli.

Yuqori samaradorlikka erishish uchun DC-DC o'zgartirgichini ko'rib chiqamiz, 5-rasmda Matlab/Simulink yordamida kuchaytiruvchi o'zgartirgichning modellashtirish sxemasi ko'rsatilgan. DC-DC o'zgartirgichining kirish va chiqish kuchlanishlari 6-rasmda keltirilgan.




5-rasm. DC-DC o'zgartirgichining kompyuter modeli.




6-rasm. DC-DC o'zgartirgichining kirish va chiqish kuchlanishi.

Mikro-GES va fotoelektrik quyosh elektr stansiyasiga asoslangan avtonom energiya manbai uchun o'zgartirgich modeli 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. O'zgartirgich modeli.



8-rasm. O'zgartirgich ossilogrammalari.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, axolni elektr energiyasi bilan ta'minlashda hozirgi kundagi muammolarni xal qilishda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda, biz taklif qilayotgan kombinatsiyalashgan usul maqbul usuldir. Chunki, quyosh kunduzi bo'ladigan bo'lsa suvdan yoki suv bo'lmaganda quyoshdan energiya olish mumkun.

## **REFERENCES**

1. Эргашев, С. Ф., Рустамов, У. С., & Кулдашев, А. Х. (2020). Разработка низконапорных Микро-ГЭС для автономных сельскохозяйственных потребителей. Известия Ошского технологического университета, (1), 6-12.
2. Masharipov, S. H., Mamatkulov, M. N., & Erkaboyev, A. X. (2020). Metrological Accuracy and Estimation of Extended Uncertainty of Pressure Gauge in Real Conditions of Explation International journal of advanced research in science. Engineering and technology (IJARSET), 7(5), 13801-5.
3. Rustamov, U. S., Alixonov, E. J., Erkaboyev, A. X., Isroilova, S. X., & Boymirzayev, A. R. (2021). Farg'ona viloyati aholisini elektr energiyasi tanqisligini bartaraf etishda Mikro-GESlardan foydalanish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 603-610.
4. Yuldashev, X. T. (2019). Analysis of electrical parameters of the ionization system at high frequency currents. Scientific-technical journal, 23(4), 172-176.
5. Mihoilovich, E. K., & Xabibulloqli, E. A. (2021). Selection of methods of acceptance inspection in production. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1350-1355.
6. Otakulov, O. X., Ergashev, S. F., Kuldashov, O. X., & Rustamov, U. (2020). Modeling of geothermal Micro-GES. Scientific-technical journal, 24(2), 89-93.
7. Abdumalikova, Z. I. (2021). Manifestation of Sources of Uncertainty in Measurements. *Central asian journal of theoretical & Applied sciences*, 2(12), 301-305.
8. Yusupjon, M., & Jamoldinovich, A. E. Photoelectric methods for automatic linear density control cotton tapes. // International Journal For Innovative Engineering and Management Research. Vol. 09, Issue 12, Pages: 82-87 DOI: 10.48047/IJEMR/V09/I12/15
9. Йулдашев, Х. Т., Эргашев, К. М., Алихонов, Э. Ж., Иброхимов, Ж. М., & Рустамов, У. С. (2021). Исследование процессов токового усиления в системе

- полупроводник-газоразрядный промежуток. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 114-123.
10. Рустамов, У. С. (2020). Математическое и компьютерное моделирование Микро-ГЭС башенного типа. *Экономика и социум*, (12), 58-62.
  11. Рустамов, У. С. (2021). Определение мощности Микро-ГЭС в электроснабжении населения с помощью микропроцессорного устройства для определения энергозатрат воды и расхода воды. *Universum: технические науки*, (12-6 (93)), 32-36.
  12. Yuldashev, K. T., Ergashev, Q. M., Ibrokhimov, J. M., Madmarova, U. A., & E.J. Alikhanov. (2019). The study of Stability Combustion of the Gas Discharge in Sub-micron Gas-filled Cell with Semiconductor Electrode. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, 6(11), 11907-11911.
  13. Мамасадииков, Ю., & Алихонов, Э. Ж. (2020). Фотоэлектрические методы для автоматического контроля линейной плотности хлопковые ленты. *НТЖ ФерПИ*, 80-85.
  14. Nurmatamat, U., & Kaxramon, E. (2021). Influence of the probabilistic nature of the change in the measured quantity on the measurement error. *Universum: технические науки*, (12-7 (93)), 20-23.
  15. Эргашов, К. М. (2021). Улучшение измерительных параметров двухволнового оптоэлектронного устройства. *Universum: технические науки*, (11-2 (92)), 49-52.
  16. Хосилов, Д. Д., Мадаминов, М. Р., & Йулдашев, Х. Т. (2021). Исследование вольт-амперная характеристика в системе полупроводник-газоразрядный промежуток. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 625-634.
  17. Isroilova, S. X. (2021). Proper organization of the quality management system is the basis of competitiveness. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(12), 89-99.
  18. Boymirzaev, A. R. (2021). Optoelectronic two-wave gas analyzer. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(12), 127-132.
  19. Тожибоев, А. К., & Боймирзаев, А. Р. (2020). Исследование использования энергосберегающих инверторов в комбинированных источниках энергии. *Экономика и социум*, (12), 230-235.
  20. Мамасадииков, Ю., & Алихонов, Э.Ж. (2021). Оптоэлектронное устройство для контроля линейной плотности хлопковых лент с функциональной разветкой. *Universum: технические науки: электрон. научн. журн*, 10, 91.

21. Ibrokhimov, J. M. (2020). Application of the solar combined systems consisting of the field of flat and parabolocylindrical collecting channels for hot water supply of the industrial factories. *Academicia: An international multidisciplinary research journal*, 10(12), 1293-1296.
22. Obidov, J. G., & Alixonov, E. J. (2021). Organization of the education process based on a credit system, advantages and prospects. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1149-1155.
23. Ergashev, S. F., Rustamov, U. S., Abdurakhmonov, S. M., & Kuldashov, O. K. (2020). Automated Water Management System Based on Computer Automation Elements. *Automatics & Software Enginery*. 2020. N3 (33), 7.
24. Obidov, J. G. O. (2020). About safety technique and issues of supplying electricity of the textile industry. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(9), 123-127.
25. Алихонов, Э. Ж. (2021). Определение линейной плотности хлопковые ленты фотоэлектрическим методом. *Universum: технические науки*, (11-2 (92)), 35-38.
26. Эргашев, К. М., & Мадмарова, У. (2018). Компьютерная модель микро-ГЭС с использованием потенциальной энергии геотермальных вод. In *Современные технологии в нефтегазовом деле-2018* (pp. 376-379).
27. Ergashov, K. M., & Madmarova, U. A. (2020). Technics of the infra-red drying of farm products. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1351-1355.
28. Khurshidjon, Y., Abdumalikovna, A. Z., Muminovna, U. G., & Mirzasharifovna, Q. G. (2020). The study of photoelectric and photographic characteristics of semiconductor photographic system ionisation type. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 72-82.
29. Alikhonov, E. J. (2021). Determination of linear density of cotton ribbons by photoelectric method. *Science and Education*, 2(11), 461-467.
30. Ibrokhimov, J. M. (2021). Features of methods of optimising calculation of parameters the combined solar power installations. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 1043-1047.
31. Obidov, J. G., & Ibrohimov, J. M. (2021). Application and research of energy-saving lighting devices in engineering networks. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1370-1375.
32. Xakimov, D.V., Isroilova, S. X., Alikhanov, E.J., Zayliddinov, T.A., & Ergasheva, G.E. (2020). Product Quality Control at Engineering Enterprises.

---

International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology,  
Vol. 7, Issue 2, February 2020, 12843-12848.

33. Эргашев, С. Ф., Рустамов, У. С., Абдурахмонов, С. М., & Кулдашов, О. Х. (2020). Автоматизированная система управления водными ресурсами на основе элементов компьютерной автоматики.

34. Рустамов, У. С. (2019). Микро-ГЭС для индивидуальных потребителей. Евразийский Союз Ученых, (11-4 (68)).

35. Jamoldinovich, A. E. (2020). The importance of metrology and standardization today Alikhonov Elmurod. International scientific and technical journal “Innovation technical and technology”, 1(4), 1-3.

## **TABIIY GAZNI DASTLABKI TAYYORLASHDA JIHOZLARNING ISHONCHLILIGIGA ERISHISH**

**Rabbimov Jahongir Shodmonkulovich**

QarMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi”  
kafedrasida stajyor-o’qituvchisi

**Dononov Jasur Ural o’g’li**

QarMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi”  
kafedrasida assistenti

[jasurdononov@mail.ru](mailto:jasurdononov@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Gaz tayyorlash tizimida ma’lum bir texnologik jarayonni amalga oshirayotgan jihozning uzoq muddat davomida kon xom-ashyo mahsulotlarining bosimi, harorati tarkibi kabi o’zgarishlariga bog’liq ravishda ularning ishonchli ishlashini ta’minlab berish ishning asosiy maqsadi qilib belgilab olindi.*

***Kalit so’zlar.** Gazni kompleks tayyorlash qurilmasi, gazni dastlabki tayyorlash qurilmasi, yig’ish punktlari, filtrlash, cho’ktirish.*

## **ОБОРУДОВАНИЕ ДЛЯ ПЕРВИЧНОЙ ПОДГОТОВКИ ПРИРОДНОГО ГАЗА ДОСТИЖЕНИЕ НАДЕЖНОСТИ**

### **АННОТАЦИЯ**

*Основной целью работы было обеспечение надежной работы оборудования, осуществляющего определенный технологический процесс в системе подготовки газа в зависимости от длительных изменений давления, температуры и состава сырья.*

***Ключевые слова.** Установка комплексной подготовки газа, установка первичной подготовки газа, приемные пункты, фильтрация, отстаивание.*

## **EQUIPMENT FOR PRIMARY PREPARATION OF NATURAL GAS ACHIEVING RELIABILITY**

### **ABSTRACT**

*The main goal of the work is to ensure the reliable operation of the equipment, which carries out a certain technological process in the gas preparation system, depending on long-term changes in the pressure, temperature and composition of raw materials.*



**Keywords.** *Complex gas treatment plant, primary gas treatment plant, collection points, filtration, sedimentation.*

## **KIRISH**

Gaz va gazkondensatli konlardan qazib olinayotgan tabiiy gazlar quduqlar ustki qismidan to iste'molchiga jo'natish uchun magistral quvurlarigacha murakkab yig'ish va ishlov berish jarayonini o'tadi. Quduqlarning mahsulotlarini yig'ish tizimi gani quduq ustidan gazni kompleks tayyorlash qurilmalariga, asosiy binoga yoki gazni qayta ishlash zavodlariga yuborilganga qadar uzatish uchun mo'ljallangan jihozlar komplekti, armaturalar va kommunikatsiyalardan iborat.

Gazni yig'ish tizimi maydon va konning konfiguratsiyalari, quduq usti parametrlari va debiti, kon zahiralari, hajmi va tarkibi, mahsuldor qatlam tavsifnomalari va soni, gazni tashish uchun tayyorlash usuli, tovar gaz sifatiga bo'lgan talablar, texnologik jihozlar quvvati va boshqa shu kabi omillarga bog'liq.

Hozirgi paytda gaz qazib olish hajmining ko'payishi guruxiy gaz yig'ish tizimlariga o'tishni taqazo qilmoqda va bu tizim respublikamiz gaz konlarida keng qo'llanilmoqda. Bu tizimda bir gurux quduqlar markazida gaz yig'ish punktlari joylashtiriladi va ulardan umumiy kon kollektorlaridan GKTQ lariga yuboriladi. Gaz mahsulotlarini yig'ish tizimining asosiy elementi alohida quvurlar va kollektorlar hisoblanadi. Ular orqali tabiiy gaz gazni kompleks tayyorlash qurilmalari, gaz yig'ish punktlari yoki gazni qayta ishlash zavodlariga yuboriladi. Yig'ish tizimini loyihalash birinchi navbatda gaz quvurlari ish unumdorligi va ularning diametrlarini aniqlash, gidratlar hosil bo'lishi oldi olinishi va korroziya jarayonlari sodir bo'lmasliklari kabilar asosida olib boriladi.

Gaz va gazkondensat konlaridan qazib olinayotgan tabiiy uglevodorod gazi asosan metan va unchalik ko'p miqdorda bo'lmagan og'ir uglevodorodlardan iborat. Bundan tashqari har qanday tabiiy gaz tarkibida suv bug'lari, vodorod sulfid, uglerod oksidi kabi qo'shimchalar mavjud. Keltirilgan qo'shimchalardan gazni tayyorlashni taqazo qiladigan eng muhimlavri vodorod sulfid va suv bug'lari hisoblanadi. Tabiiy gazni magistral quvurlarga yuborilganga qadar ulardan har xil usullar, texnologik va kimyoviy texnologik jarayonlar qo'llanilgan holda tozalanadi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Gazni tashish tizimida tarkibiy va fazaviy o'zgarishlar natijasida quvurlar pastki joylashgan qismlarida suv va kondensatlar hamda kristalgidratlar hosil bo'lishi quvurlar orqali gaz tashish samaradorligiga ta'sir qiladi. Uglevodorod gazlarining harakati davomida gidratlar hosil bo'lishiga qarshi ularning oldini olish va hosil

boʻlgan gidratlarni yuqotish yoʻnalishlarida kimyoviy texnologik usullarda qarshi kurashiladi. Gidratlarning hosil boʻlishi gazlarning termodinamik sharoitlari oʻzgarishlari bilan uzviy bogʻliq. Shuning uchun gaz gidratlari hosil qilmaslik uchun texnologik tizimlarning har bir bosqichida zaruriy chora va tadbirlar – kimyoviy reagentlar kiritiladi. Kristalgidratlarga qarshi kurashishning asosiy usuli gidratlar hosil boʻlishi oldini olishdir. Hosil boʻlgan gidratlarni yuqotish esa mushkulotlar sifatida qaraladi. Chunki gidratlarni quvurlar ichidan olish uchun albatta quvur ishlash jarayonida toʻxtalishlar sodir boʻladi.

Oxirgi yillarda foydalanilayotgan gaz va gazkondensatli konlar quduqlarining suvlanganlik darajasining oshishi va qatlam bosimlarining pasayishi kabi omillar tabiiy gaz tayyorlash sifatiga taʼsir qilmoqda. Sifatli tabiiy gaz tayyorlash, tashilayotgan gaz tarkibiy jihatdan texnik talablarini taʼminlab berish kon sharoitida gazni dastlabki tayyorlash, past haroratli ajratish orqali quritishni sifatli olib borishni talab qiladi.

Quyida tabiiy gazni kon sharoitida tayyorlash jarayonini magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot obʼekti sifatida belgilab olingan “Shurtan neft va gaz qazib chiqarish” boshqarmasiga tegishli gaz kondensatli konlar misolida yoritamiz.

Quduqlardan qazib olinayotgan xom-ashyo gazi dastlab gazni dastlabki tayyorlash qurilmasi (GDTQ) dan oʻtadi. Qurilma, yigʻish punktlaridan tabiiy gazni yigʻish, mexanik aralashmalardan qisman tozalash, separatsiyalash yoʻli bilan qatlam suvlari va gazli kondensatni ajratish, shuningdek gazni kompleks tayyorlash qurilmasi (GKTQ) ga gazni tashilishi uchun moʻljallangan.

Gaz va gaz kondensatli konlardan qazib olinayotgan mahsulot tarkibi uglevodorodlardan tashqari togʻ jinslari mexanik zarrachalari, qatlam suvlari va mexanik gazlardan iborat boʻlganligi uchun gazni isteʼmolchiga yuborilganga qadar tozalanadi. Tabiiy gaz aralashmalar tarkibidagi qattiq yoki suyuq zarrachalarni ajratishdan maqsad uning sifat koʻrsatkichlari talablariga mosligini taʼminlash, qimmatbaho mahsulotlarni ajratib olish yoki texnologik jarayonlar va tizimda qoʻllaniladigan jihozlar ish qobiliyatiga salbiy taʼsir etuvchi zararli qoʻshimchalarni chiqarib tashlashdir.

Gazlarning tarkibidagi zararli qoʻshimchalardan tozalashning quyidagi usullari mavjud: ogʻirlik kuchi taʼsirida choʻktirish (gravitatsion tozalash); inersiya (markazdan qochma) kuchlari tasirida choʻktirish; filtrlash; suyuqliklar yordamida tozalash va elektrostatik kuchlar taʼsirida choʻktirish.

Gazni dastlabki tozalash qurilmasida ogʻirlik kuchi taʼsirida choʻktirish (gravitatsion tozalash) va inersiya kuchlari tasirida choʻktirish, yaʼni markazdan

qochma kuchlar ta'sirida metall devor sirtidan suyuq fazaning oqib tushishi natijasida idish tubiga cho'ktirish usullari parallel ravishda amalga oshiriladi.

Gaz va gaz kondensatli konlardan qazib olinayotgan tabiiy gaz xom-ashyosi tarkibida qatlam suvlari, mexanik zarrachalar va suyuq uglevodorodli fazalarning bo'lishi ularni alohida fazalarga ajratib olish zaruratini to'g'diradi. Shuning uchun kon sharoitida alohida quduqlarda yoki bir nechta quduqlarning yig'uv punktlarida yig'ilgan tabiiy gaz dastlabki tayyorlash qurilmalarida tayyordanadi. Tabiiy gaz tarkibidagi kondensat miqdori  $10 \text{ g/m}^3$  bo'lganda uni alohida ajratib olish va sanoat miqyosida barqarorlashtirish qurilmalarida barqaror holga keltirilib foydalanish iqtisodiy jihatdan yaxshi samara beradi.

Gazni dastlabki tayyorlash qurilmasi (GDTQ) yig'ish punktlari (YP) dan tabiiy gazni yig'ish, mexanik aralashmalardan qisman tozalash, separatorlarda separatsiyalash yo'li bilan qatlam suvlari va gazli kondensatni ajratish, shuningdek gazni kompleks tayyorlash qurilmasi (GKTQ) ga gazni uzatish uchun xizmat qiladi.

“Shurtan neft va gaz qazib chiqarish” boshqarmasi gaz kondensatli konlaridan 9 ta yig'uv punktlaridan kelayotgan tabiiy gaz 2 ta GDTQ-1 va GDTQ-2 larda dastlabki tayyorlashdan o'tadi.

Umumiy holda GDTQ mahsulotlari quyidagilar hisoblanadi:

- qisman benzin fraksiyalaridan ajratilgan, mexanik aralashmalardan tozalangan va namlikdan quritilgan gaz;

- separatsiyalash birinchi bosqichida ajratilgan beqaror kondensat.

GDTQ uchun xom-ashyo bo'lib, gazli fazalardan tashqari, qatlam suvlari va uglevodorodli kondensatning og'ir qismlari ko'rinishidagi suyuq fazalarni o'zida saqlovchi «Sho'rtan» koni, «Janubiy Tandircha» koni, «Bo'zaxur» konining gaz quduqlaridan qazib olinayotgan gaz GDTQ kirish quvuriga uzatiladi. Kirish quvuri orqali gaz maxsus idish – separatorlarga kirib boradi (1-rasm).

Ko'rinishidan GDTQ ning texnologik qatorlari bir-biriga o'xshash bo'lib ular bir nechta qatordan iborat bo'lishi mumkin. Gaz ma'lum bosim va haroratlarda elektruzatmali zavixritel orqali gaz oqimi yuqori qismidagi gorizontil silindrik apparat - S-1 gaz separatoriga kelib tushadi. Zavixritelda gaz oqimi, ko'chma silindrning yo'naltiruvchi parraklari hisobidan aylanma harakat qiladi.

Suyuqlik tomchilari va mexanik aralashmalar markazdan qochma kuchlar hisobiga naychanning devoriga urilib, apparatning gorizontil qismiga oqib keladi. Gaz esa oqimning markazida joylashgan shtutser orqali, ma'lum bosimda separatoridan chiqadi. Uning tarkibidagi qatlam suvlari va suyuq fazalar ajralishi sodir bo'lib S-1

apparating gorizontal qismidagi qatlam suvining solishtirma og'irliklari har-xilligi uchun gravitatsion og'irlik hisobiga uglevodorodlar va qatlam suvlari o'zaro ajratiladi.

Berkituvchi klapani orqali qatlam suvlari degazatorga chiqariladi. Uglevodorodli kondensat koritasimon vannachada yig'iladi va sathi bo'yicha klapani orqali umumiy kollektorga chiqariladi. Shundan keyin zadvijka orqali, elektruzatmali kran orqali va uzib qo'yuvchi (chiqish) armaturalar maydonchasida aylanma klapani orqali kondensat o'tkazgich bilan keyingi past haroratli ajratish qurilmasiga uzatiladi.

Quvurlar va o'lchov separatorini ortiqcha bosimdan himoya qilish uchun o'lchov kollektorida,  $121 \text{ kgk/sm}^2$  bosimli ikkitadan Du-50/80 Ru-160/40 ehtiyot saqlovchi klapani ko'zda tutilgan. Separatorlarda kondensat va suv sathi, ishchi separatorlarda sath o'lchagich va tartiblashtirgich klapanlar bilan, o'lchov separatorida sath o'lchagichlar va klapanlar bilan avtomatik tartiblashtiriladi. Suv separatorlardan E-1/2 degazatoriga tashlanadi. Ishchi va o'lchov separatorlaridan gazli kondensat elektro pnevmouzatmali kranlar orqali kondensato'tkazgichga va shundan keyin bosh inshootga uzatiladi. Gazni dastlabki tayyorlash jarayonida separatoridan chiqayotgan mahsulotlar uch xil yo'nalishda harakatlanadi:


- qisman namliklardan, suyuq uglevodorodli fazalardan va mexanik qo'shimchalardan tozalangan gaz keyingi bosqichda gazni kompleks tayyorlash qurilmalariga uzatiladi;

- qatlam suvi zichligidan zichligi kichik bo'lgan suyuq uglevodorodli faza shamollatish qurilmasi orqali o'tib kondensatni barqarorlashtirish qurilmasiga quvurlar orqali uzatiladi;

- tarkibida mineral tuzlar bo'lgan qatlam suvlari maxsus idishlarda gabsizlantirilib qatlamga qaytadan haydash yoki tozalanib maydonlarni sug'orish uchun foydalaniladi.

Gaz separatorlari gaz-suyuqlik oqimida gazli fraksiya miqdori yuqori bo'lgan hollarda tabiiy gaz tarkibidan suyuq fazalarni va mexanik qo'shimchalarni ajratib olish uchun mo'ljallangan. Gazli muhitning asosiy fraksiyasi tabiiy yoki yo'ldosh gazlar, turli xildagi texnologik gazlar bo'lishi mumkin. Odatda ajratish jarayoni oddiy bosimlarda yoki bosim ostida amalga oshirilishi mumkin.

Standart bajarilishlarga ko'ra separatorlar saqlash klapanlari zaruriy flanetslar bilan jihozlangan bo'ladi. Separatorning qo'shimcha jihozlariga ajratilgan suyuqlik fazalari chegaralariga o'rnatilgan avtomatik qo'yib olish qurilmalari, yuqori va pastki satx ko'rsatuvchi datchiklar, elektromagnit qo'yib olish jumrakalri, monometrlar, harorat o'lchash uchun datchiklar va boshqa qo'shimcha jihozlar o'rnatilishi mumkin.



**1-rasm. Tabiiy gazni dastlabki tayyorlash qurilmasining texnologik sxemasi.**

Kon sharoitida tabiiy gazni qazib olish va tayyorlash uchun quyidagi turdagi separatorlar qo'llaniladi:

- gaz tayyorlash qurilmalarida qo'llaniladigan mash'ala separatorlari;
- quduqlardan chiqayotgan gazzuyuqlik aralashmasini dastlabki ajratib olish yoki gaz va suyuqliklarni alohida ajratib olib keyingi bosqich qayta ishlash tizimlariga yuborish uchun separatorlar;
- tabiiy gazni past haroratli tayyorlashda birinchi bosqich ajratib olish uchun separatorlar;
- kon siquv kompressor stansiyalarida kompressor stansiyalarni suyuq tomchilar va mexanik qo'shimchalardan ximoya qilish uchun qo'llaniladigan separatorlar va boshqa shu kabilar.

## **XULOSA**

Tarkibida kondensat omili bo‘lgan gaz kondensatli aralashmalar gravitatsion separatorga kirish quvuri orqali kiradi va aralashmaning keskin hajmiy kengayishi va tezlikning kamayishi natijasida aralashma tarkibidagi suyuqlik tomchilari yiriklashuvi sodir bo‘ladi va tabiiy gaz tarkibidan gravitatsiya kuchlari natijasida idish tubiga cho‘ka boshlaydi.

## **REFERENCES**

1. Молчанов Г.В., Молчанов А.Г. Машины и оборудование для добычи нефти и газа. –М.: Недр – 1984. – 464 с.
2. Yuldoshev T.R., Eshkabilov X.Q. Neft va gaz konlari mashina va mexanizmlari. -Qarshi, “Qashqadaryo ko‘zgusi OAV nashriyoti” -2015. -328 b.
3. Nurmuhamedov H.S., Nig‘madjonov S.K., Abdullayev A.SH. va boshqalar. Neft va kimyo sanoatlari mashina va qurilmalarini hisoblash va loyihalash. –Т.: Fan va texnologiya, 2008. -356 b.
4. Химия нефти и газа / Под ред. В.А. Проскрякова, А.Э. Драбкина. -Л.: Химия, 1995.
5. Ахметов С.А. Технология глубокой переработки нефти и газа: -Уфа: Гилем, 2002. -672 с.

## **VOYAGA YETMAGANLARNI HUQUQBUZARLIKDAN JABRLANISHI OMILLARINING ILMIY TAHLILI**

**Shodmonov Ubaydulloxon To‘raxo‘jayevich,**  
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Akademiyasi huquqbuzarliklar profilaktikasi  
va kriminologiya kafedrasida o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Muallif tomonidan maqolada voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini samarali ta‘minlash, eng avvalo, jinoyat sodir etilish sabab va sharoitlar zanjirida jabrlanishni keltirib chiqaruvchi omillarni tadqiq qilishni taqozo etishi ilmiy asoslantirilgan. Ayrim toifadagi voyaga yetmagan shaxslarning g‘ayri ijtimoiy xulq-atvori, hayot tarzi, atrofdagilarga bo‘lgan salbiy munosabatlari muayyan bir vaziyatda huquqbuzarlik sodir etilishini taqozo etuvchi kriminogen omil sifatida, boshqa bir holatda esa huquqbuzarlikdan jabrlanishini taqozo etuvchi viktimogen omillar bo‘lib har qanday joydagi kriminogen vaziyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir etishi asoslantirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** voyaga yetmagan, huquqbuzarlik, profilaktika, jinoyat, jabrlanuvchi, ob‘ekt, sub‘ekt, kriminogen omil, viktimogen omil.

### **АННОТАЦИЯ**

*Автором статьи научно обосновано, что эффективное обеспечение виктимологической профилактики правонарушений несовершеннолетних требует, прежде всего, изучения факторов, причиняющих вред, в цепи причин и условий совершения преступления. Антиобщественное поведение, образ жизни, негативное отношение одних категорий несовершеннолетних к окружающим являются криминогенными факторами, обуславливающими совершение правонарушителем преступления в одной ситуации, и криминогенными факторами, требующими от потерпевшего стать потерпевшим от правонарушения, - в другой. его прямое влияние на ситуацию.*

**Ключевые слова:** несовершеннолетний, правонарушение, профилактика, преступление, потерпевший, объект, субъект, криминогенный фактор, виктимогенный фактор.

### **ABSTRACT**

*The author of the article is scientifically substantiated that the effective provision of victimological prevention of juvenile delinquency requires, first of all, the study of the factors that cause harm in the chain of causes and conditions of crime. The*

*antisocial behavior, lifestyle, and negative attitudes of certain categories of minors toward others are criminogenic factors that require the offender to commit a crime in one situation, and criminogenic factors that require the victim to be a victim of the offense in another. based on its direct impact on the situation.*

**Keywords:** *juvenile, delinquency, prevention, crime, victim, object, subject, criminogenic factor, victimogenic factor.*

## **KIRISH**

Voyaga yetmaganlar o'rtasida amalga oshiriladigan huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini nazariy ta'minlash, eng avvalo, jinoyat sodir etilish sabab va sharoitlar zanjirida jabrlanuvchining tutgan o'rini ilmiy jihatdan tadqiq etish orqali amalga oshiriladi. Kriminologiya va viktimologiyaga oid adabiyotlarda voyaga yetmagan shaxslarning g'ayriijtimoiy xulq-atvori, hayot tarzi, atrofdagilarga bo'lgan salbiy munosabatlari muayyan bir vaziyatda huquqbuzarlik sodir etilishini taqozo etuvchi kriminogen omil[1] sifatida, boshqa bir holatda esa huquqbuzarlikdan jabrlanishini taqozo etuvchi viktimogen omillar[2] bo'lib har qanday joydagi kriminogen vaziyatga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi.

Shu bois, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini nazariy ta'minlash, birinchi navbatda, jamiyat ijtimoiy hayotining turli sohalarida mavjud bo'lgan kriminogen omillar qatori viktimogen omillarni o'rganishni taqozo etadi.

Jamiyatda har qanday shaxsning, shu jumladan voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar sodir etilishini taqozo etuvchi kriminogen xususiyatlarga ega bo'lgan voqea, hodisa va jarayonlar[3] mavjudligi kabi huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimolini vujudga keltiruvchi va jabrlanishini taqozo etuvchi viktimogen xususiyatli sub'ektiv (inson xulq-atvorida namoyon bo'ladigan) va ob'ektiv (viktimlikni shakllantiruvchi muhit bilan bog'liq) omillar ham borligi tadqiqotlarda ilmiy taxlil qilingan[4].

Huquqshunos Q.A. Saitqulovning tadqiqotlarida, shaxsda huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolining mavjudligini ko'rsatuvchi va jabrlanishini taqozo etuvchi omillarga: a) axloqsizlik (15 foiz); b) ishonuvchanlik (13 foiz); v) huquqiy savodsiz (12 foiz); g) soddalik (5 foiz); d) beparvolik va loqaydlik (10 foiz); ye) qo'rqqoqlik (1 foiz); yo) bilimsizlik (5 foiz); j) ochko'zlik (7 foiz); z) qiziqqonlik (14 foiz); i) yolg'onchilik (8 foiz); k) insonlarni mensimaslik (4 foiz); l) himoyalaniшни bilmaslik (12 foiz) kabi individual viktim xususiyatlarni kiritish mumkin[7].

Shuni alohida qayd etish joizki, tadqiqotlarda huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari zanjirida jabrlanuvchi shaxsiga va hayot tarziga xos individual viktim (yoshga



doir) xususiyatlar oʻrni yuqoriligini inobatga olgan holda mazkur xislatlarga xos boʻlgan toifadagi shaxslar bilan viktimologik profilaktik ishlarni muntazam amalga oshirib borish zarurligini kuzatish mumkin[5].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Jamiyat rivojlanishining bugungi bosqichida shaxsda huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolini vujudga keltiruvchi va jabrlanishini taqozo etuvchi xususiyatlarni shakllantiruvchi obʻektiv omillarga: a) nosogʻlom muhit (14 foiz); b) ishsizlik (13 foiz); v) adolatsizlik (5 foiz); g) aholining tabaqalashuvi (2 foiz); d) korrupsiya va huquqiy nigilizm (16 foiz); ye) «ommaviy madaniyat» (8 foiz); j) milliy qadriyatlar zaiflashuvi (4 foiz); z) migrasion jarayonning jadallashuvi (3 foiz); i) davlat organlariga ishonchsizlik (5 foiz); k) jabrlanishdan himoyalash va rehabilitatsiya tizimi yetarli emasligi (8 foiz); l) jamoatchilik taʼsiri sustligi (12 foiz) kabilarni kiritish mumkin[7].

Shuni alohida qayd etish joizki, subʻektiv va obʻektiv omillar bir-birini taqozo etuvchi, kuchaytiruvchi xususiyatga ega boʻlishi bilan bir qatorda, ular jamiyatdagi barcha, ayniqsa kriminogen xususiyatga ega boʻlgan voqea, hodisa va jarayonlar bilan sababiy va korrelyatsion bogʻliqlikda ekanligini hech qachon unutmash kerak.

Yuqoridagilarga asoslanib, sodir etilgan jinoyatlarning kriminologik va kriminalistik jihatlarni oʻrganish, bizga voyaga yetmagan jabrlanuvchilardagi jinoyat sodir etilishiga turtki beruvchi omillarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida oʻtkazilgan anketa soʻrovi natijalariga koʻra jinoyatlarning sodir etilishida voyaga yetmagan jabrlanuvchilarga turtki beruvchi xulq-atvori oʻrganilganda jabrlanishni yuzaga keltiruvchi omil sifatida: a) *qasddan odam oʻldirishda* jismoniy oʻz-uziga zararli (12 foiz), qoʻrqqoqli (1 foiz), axloqsizligi (23 foiz), huquqbuzar bilan oʻzaro salbiy munosabatlarning mavjudligi (10 foiz), davomiy zoʻravonligi (11 foiz); *oʻgʻrilikda* jabrlanuvchilarning mulkni ochiq qoldirishga odatlanganligi (22 foiz), xonadonlarning qoʻriqlash pultiga ulash boʻyicha tavsiyalarga amal qilmasligi (27 foiz), transport vositasini qarovsiz qoldirishga odatlanganligi (29 foiz), mol-mulkini va boyliklarini koʻz-koʻz qilishni yoqtirishi (16 foiz), beparvoligi (5 foiz); d) *nomusga tegishda* jabrlanuvchilarning oʻz-uziga zararli (42 foiz), axloqsizligi

(30 foiz), ishonuvchanligi (13 foiz), soddaligi (15 foiz); ye) *qasddan tan jarohati yetkazishda* jabrlanuvchilar xulq-atvoridagi turmushidan nolishi (15 foiz), tarbiyadagi kamchiliklar (40 foiz), huquqbuzar bilan oʻzaro munosabatlarning nosamimiyligi (19 foiz), shaʼni va qadr-qimmatining kamsitilishi (10 foiz), oilaviy maishiy nizolarga sababchi boʻlganligi (45 foiz) qayd etilgan.

O'g'irliklar sodir etilishi sabab va sharoitlari zanjirida ham viktin omillarning yuqori ekanligini sudlar tomonidan ko'rilgan jinoyat ishlari bo'yicha materiallar tahlillarida ham ko'rishimiz mumkin. 2021 yil davomida Qashqadaryo viloyatida o'g'irlik jinoyatlarining sodir etilishiga turki bergan omillar o'rganilganda jabrlanuvchilarning 70,5 foizi beparvolik, 10,8 foizi qo'riqlash tovush chiqaruvchi vositalari imkoniyatlaridan foydalanmaslik, 9,9 foizi uzoq muddat xonadonini nazoratsiz qoldirganligi, 8,8 foizi kalitlar hisobini yuritmaslik yoki uni boshqa shaxslarga ishonib topshirganligi aniqlangan.

Bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri shaxsga nisbatan sodir etilgan jinoiy tajovuzlar o'rganilganida faqatgina 12 foiz jabrlanuvchilar o'zlarini himoya qilishga qat'iy turgan bo'lsa, qolgan 88 foizi esa passiv harakat qilganligi kuzatilgan. Bunday holatlarda jinoyat sodir etgan shaxslar jabrlanuvchilarning keyingi xatti-harakatlariga ham alohida e'tibor qaratib kelishgan.

O'tkazilgan anketa so'rovida ishtirok etganlarning o'ziga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganligi haqida zudlik bilan tegishli organga xabar bermaganligining sababi so'ralganda respondentlarning 11,9 foizi har doim jinoyatchi tomonidan tazyiq o'tkazilib kelinganligi, 4,6 foizi ko'proq o'zi qo'rqanligi, 13 foizi biron joyga murojaat qilgan taqdirda uldirish bilan po'pisa qilinganligi keltirilgan.

Tadqiqotlarda maishiy-turmush sohasida, ayniqsa, oilada voyaga yetmaganing hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyatlar sodir etilishida viktin omillarning ta'siri yuqori ekanligi qayd etilgan[6].

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, jamiyatda voyaga yetmaganlarning viktimlashuvini shakllantiruvchi va uni yanada jonlantiruvchi turli xil muammolarni chuqurroq o'rganish va tahlil qilgan holda bu kabi shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanishni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi faoliyati oldida turgan asosiy vazifalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ularni o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish bilan bog'liq masalalarni ijobiy hal etish ichki ishlar organlari tomonidan aynan voyaga yetmaganlar o'rtasida amalga oshiriladigan huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi samaradorligiga bog'liq.

## **REFERENCES**

1. Musaev M.A. Hayotga qarshi jinoyatlar: nazariya va amaliy muammolari: Monografiya. – T.: «Sharq», 2011. – B.228.; Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliy-huquqiy ta'minlash: yurid. fan. d-ri. ... dis. –T., 2006. – B.38.;

2. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolari: yurid. fan. d-ri ... dis. avtoref. – T., 2006. – B.27-28.;
3. Zakirova O.G. Rashk tufayli sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash muammolari (jinoiy-huquqiy, kriminologik va viktimologik jihatlar): yurid. fan. d-ri ... dis. avtoref. – T., 2004. – B.23-24.
4. Musaev M.A. Hayotga qarshi jinoyatlar: nazariya va amaliy muammolari: Monografiya. – T.: «Sharq», 2011. – B.228.; 217.
5. Murodov A.Sh. Ichki ishlar organlarining oiladagi zoʻravonlik bilan bogʻliq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: yurid. fan. boʻyicha fal. d-ri (PhD) ... dis. – T., 2019. – B.28,110.; 220.; Fazilov I.Yu. Odam savdosiga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar: yurid. fan. d-ri. ... dis. – T., 2016. – B.30.
6. Ismailov I. Kelajak avlod huquqiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish muammolari // Bola va zamon. – 2008. – 2-son.; Ismailov I., Ziyodullaev M.Z. Talqin, taklif va tavsiyalar. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ijtimoiy xatar guruhiga kiruvchi bolalarni ijtimoiy-huquqiy himoyalash faoliyatini takomillashtirish yoʻnalishlari // Bola va zamon. – 2010. – 2-son. – B.14-16.; Ismailov I. Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish – barkamol avlod tarbiyasining kafolati // Sogʻlom turmush tarzi – barkamol avlod tarbiyasining asosi: Xalqaro forum materiallari (29-30 noyabr). – T., 2010. – B.264-268.; Ismailov I. Barkamol avlod huquqiy tarbiyasini takomillashtirish muammolari // Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi axborotnomasi. – 2010. – № 2. – B.12-18.
7. Ismailov I. Huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy himoyalashni taʼminlash muammolari // Yoshlar huquqlarini taʼminlash huquqbuzarliklarning oldini olish garovi: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – B.44-54.
8. Развин Я.М. Виктимология коррупции // Виктимология. – 2016. – № 1/7. – С.53-54.; 254. Вишневецкий К.В. Криминогенная виктимизация социальных групп в современном обществе: Автореф. дис. ... д-ра. юрид. наук. – М., 2007. – С. 3; Википедия // [Электронный ресурс]. Режим доступа: – URL: <https://ru.wikipedia.org/wiki/>(дата обращения: 20.05.2020).; Развин Я.М. Виктимология коррупции // Виктимология. – 2016. – №1/7. – С.53.; 260. Кучина М.С. Значимость виктимологической профилактики в системе мер предупреждения преступлений // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://ceberlelininka.ru/article/n/znachimost-viktimologicheskoy-profilaktiki-v-sisteme-mer-preduprezhdeniya-prestupleniy>.(дата обращения: 20.05.2020).

- 
9. Муродов А.Ш. Ички ишлар органларининг оиладаги зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасини такомиллаштириш: юрид. фан. б-ча фалсафа д-ри (PhD) дис.... автореф. – Т., 2019. – Б.19.
10. Саитқулов Қ.А.. Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар виқтимологик профилактикаси бўйича фаолиятини такомиллаштириш: юрид. фан. б-ча фалсафа д-ри (PhD) дис.... автореф. – Т., 2020. – Б.17.

## **OLIV TA'LIM SOHASIDA KORRUPSIYA TUSHUNCHASI**

**Sattorov Oybek Farxod o'g'li**

Uchtepa tuman Yuridik markaz Bosh yuriskonsulti va  
TDYU Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati fakulteti  
magistranti

[sattorovoybek79@gmail.com](mailto:sattorovoybek79@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada "oliy ta'lim sohasidagi korruptsiya" tushunchasi ilmiy jixatdan tahlil qilingan bo'lib, ushbu tushunchaga ta'riflar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** "korruptsiya", "oliy ta'lim sohasidagi korruptsiya"

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье даются научный анализ понятий "коррупция", "коррупция в высшем образовании" а также определения этих понятий.*

**Ключевые слова:** "коррупция", "коррупция в высшем образовании"

### **ANNOTATION**

*The article provides a scientific analysis of the concepts of "corruption", "corruption in higher education", and gives definitions of these concepts.*

**Key words:** "corruption", "corruption in higher education"

### **KIRISH**

Mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, uning sifati hamda samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, oliy o'quv yurtlariga qabul jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, ta'limdagi korruptsiya va poraxo'rlikning oldini olishga ham astoydil kirishilgan. Ushbu muxim omilni xisobga olgan holda oliy ta'lim sohasida korruptsiyaga oid nazariy jixatdan tahlil qilish alohida e'tibor qaratdik. Oliy ta'lim sohasida korruptsiya tushunchasini yoritishdan avval "korruptsiya" tushunchasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Korruptsiya atamasi lotincha "corruption" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadi. Keyingi qarashlarga ko'ra, korruptsiya atamasi lotincha "corrumpere" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "buzilish, aynish, tanazzul" degan ma'nolarni anglatadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Korruptsiya tushunchasiga dastlabki ilmiy tarif 1970-yilda Graham Brooks tomonidan berilgan bo'lib, uning fikriga asosan korruptsiya – oz yoki ko'p

miqdordagi shaxsiy manfaat ko‘rish motivi bilan belgilangan majburiyatlarni qasddan noto‘g‘ri bajarish yoki bajarmaslik yoxud mansab vakolatidan asossiz foydalanish hisoblanadi.

Korrupsiya tushunchasiga bir qator xalqaro hujjatlarda turlicha tarif berilgan bo‘lib, har bir tarif korrupsiya tushunchasi bilan bog‘liq alohida xususiyatlarni ochib bergan.

Jumladan, Korrupsiya muammolari bo‘yicha Yevropa Kengashi Guruhlarining 1995-yil 22–24-fevralda Strasburg shahrida o‘tkazilgan 1-sessiyasida korrupsiya tushunchasiga – pora olish (o‘ziga og‘dirish), davlat yoki xususiy sohada muayyan vakolatga ega bo‘lgan shaxs, mansabdor shaxsning yoki xususiy sohada faoliyat yuritadigan shaxs yoki mustaqil agentning o‘z mansab vazifasidan yoki shunga o‘xshash munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarini buzadigan, shuningdek, o‘zi yoxud o‘zga shaxslar manfaati uchun har qanday shakldagi afzalliklarga ega bo‘lish maqsadida ifodalangan xatti-harakat sifatida tarif berilgan.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1979-yil 17-dekabrdagi mansabdor shaxslarining obod-axloq Kodeksida, korrupsiya – mansabdor shaxs tomonidan muayyan harakat yoki harakatsizlik sodir etish (etmaslik) evaziga moddiy manfaatdor qilayotgan shaxsning manfaatini ko‘zlab mansab vazifasini buzgan yozi buzmaganda holda, turli shaklda moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy naf ko‘rishi deb belgilangan.

Korrupsiya tushunchasiga keltirilgan barcha tariflarda korrupsiya va mansabdor shaxs vakolatlari o‘rtasida bog‘liqlikka alohida e‘tibor qaratilgan, chunki korrupsiya va mansab vakolati bir-birini taqozo etuvchi omillar hisoblanadi.

Milliy qonunchilikda korrupsiya tushunchasiga dastlabki tarif O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida berilgan bo‘lib, unga asosan korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish hisoblanadi.

Qonunda berilgan tarifda mansab vakolatini suiste‘mol qilish holati ko‘rsatilmagan, chunki amaldagi Jinoyat Kodeksida mansab vakolatini suistemol qilish korrupsiyaviy jinoyat sifatida baholanmagan. Biroq, BMTning 2003-yil 31-oktyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiya”ning 19-moddasida, mansab vakolatini suiste‘mol qilish korrupsiyaviy jinoyat sifatida keltirilgan.

Ilmiy doira vakillari orasida korrupsiya tushunchasiga tarif berishda nazariy jihatdan ikki hil yondashuv mavjud, ya'ni keng va tor ma'nolardagi yondashuvlar.

Tor talqin tarafdorlari korrupsiyani xukumat vakillarining poraxo'rliigi deb atashadi. Masalan, N.F. Kuznetsova "korrupsiya salbiy ijtimoiy hodisa, bir shaxsni boshqasi tomonidan pora evaziga sotib olinishi", deb hisoblaydi.

Keng talqin tarafdorlari korrupsiyani faqatgina mansabdor va shaxs o'rtasidagi jinoiy bitimgina emas, balki mansabdor shaxs manfaatiga xizmat qiladigan har qanday harakati sifatida baxolaydi. Misol uchun, V.S.Komissarov-ning tarificha, korrupsiya – boshqaruv subyektlarini hokimiyat vakolatlaridan foydalanishda shaxsiy manfaatlarni xizmat manfaatlaridan ustun qo'yishi tushuniladi.

Ko'pchilik tashkilotlar quyidagi qisqa tarifidan foydalanadilar "korrupsiya – shaxsiy daromad olish uchun davlat va xususiy sektordagi vakolatni suiiste'mol qilish tushuniladi".

"Korrupsiya" juda keng tushuncha bo'lib, u o'zida bir qancha hatti-harakatlarni qamrab oladi va ularning ayrimlari qonuniy, ayrimlari noqonuniy hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasi "korrupsiya" tushunchasining 50 dan ortiq tarif-lari mavjudligini ko'rsatdi. Korrupsiya tushunchasi keng va turli ko'rinishdagi harakatlarni qamrab olgani sababli mazkur tushunchaga tarif berishda turlicha yondashuv va tortishuvlar mavjud. Oliy ta'lim sohasida "korrupsiya" tushunchasi umumiy xususiyatlarni o'z ichiga olish bilan birga maxsus sohaga oid xususiyatlarini ham qamrab oladi.

Oliy ta'lim sohasida "korrupsiya" tushunchasiga dastlabki ilmiy yo'nalishdagi tarifni tadqiqotchi olim Stephen Heyneman bergan bo'lib, uning fikriga ko'ra, oliy ta'limda korrupsiya shaxsiy va moddiy manfaat uchun vakolatni suiste'mol qilish hisoblanadi. U ta'limni eng muxim davlat bo'yliklaridan biri sifatida baholab, ushbu sohadagi korrupsiya moddiy manfaatdorlik bilan birga shaxsiy manfaatni (nomoddiy) ham qamrab olishiga alohida urg'u bergan.

Frank Anechiarico and James B. Jacobs ta'lim sohasidagi korrupsiyaga moddiy manfaat uchun vakolatni suiste'mol qilish sifatida tarif bergan.

Ukrainaning Ta'limni rejalashtirish xalqaro instituti ilmiy xodimlari A. Bazxal, T. Galkovskaya, O. Skripkin "oliy ta'limdagi korrupsiyani davlat xizmatchisi tomonidan mansab vakolatini susistemol qilishi natijasida ta'lim olish huquqiga, sifatiga, tengligiga salbiy ta'sir qiluvchi harakatlar", deb baholaydi. Mazkur tarifda oliy ta'lim sohasidagi "korrupsiya" tushunchasining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan bo'lsada, tarifda faqatgina sohadagi korrupsiya-ning salbiy oqibatlarini yoritish bilan cheklanilgan.

Xalqaro oliy ta'lim markazi tadqiqotchisi E. Denisova oliy ta'lim sohasidagi "korrupsiya" tushunchasiga "akademik halollikni mavjud emasligini" deb tarif bergan. Uning fikricha korrupsiya tushunchasi zamon bilan bir meyorda o'zgarib boradi. Misol uchun, o'rta asrlarda Yevropa universitetlarida talabalarni o'qituvchilar va universitet mansabdorlariga odatiy to'lovlar berishgan bo'lsa, o'tgan asrning boshlarida Germaniyada plagiat tushunchasiga "faqat ilmiy muammo" sifatida qaralgan. Oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar boshqa sohadagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklardan ijtimoiy munosabatlar obyekti, munosabat subyektlari, huquqbuzarlik motivi va maqsadi qarab farq qiladi. Biroq, ushbu farqlovchi omillarning barchasi bir vaqtda namoyon bo'lgan ijtimoiy munosabatlar bo'lishi lozim.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oliy ta'lim sohasidagi "korrupsiya" umumiy "korrupsiya" tarkibiga kiruvchi korrupsiyaviy huquqbuzarlik turlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot olib borish jarayonlarida "korrupsiya", "oliy ta'lim sohasida korrupsiya" tushunchalariga oid zarur tushunchalarni aniqlashtirib olish ilmiy jarayonda nazariy jihatlariga nisbatan to'g'ri yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu tushunchalar o'rganilayotgan mavzuning fundamental nazariy asoslari bo'lib, oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni boshqa sohalar-dagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklardan faqlash imkoniyatini beradi.

### **REFERENCES**

1. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар маълумотлари миллий базаси, 2019 й., 3/19/542/3177-сон. URL: <https://lex.uz/docs/3088008>.
2. БМТнинг 2003 йил 31 октябрдаги "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги конвенция", Нью-Йорк, 2004 йил. URL: <https://lex.uz/docs/1461327>.
3. Кузнецова Н.Ф. Коррупция в системе уголовных преступлений – Вестник МГУ. – Сер. 11. -1993. № 1. С.21.4. Комиссаров В.С. "Уголовно-правовые аспекты борьбы с коррупцией", Вестник МГУ. Сер. 11. - 1993. - № 1. С. 26. URL: <http://cj.bgu.ru/reader/article.aspx?id= 21340>.
4. Власенко Н.А, Цирин А.М, Спектор Е.И. Словарь-справочник. – М, 2016. – С. 82. // URL: <https://www.twirpx.com/file/2947687/>.
5. Denisova E. Corruption in Higher education: Global Challenges and Responses, 2020.P2.URL:[https://books.google.co.uz/books?id=hFTqDwAAQBAJ&pg=PP5&hl=ru&source=gbs\\_selected\\_pages&cad= 2#v=onepage&q&f=false](https://books.google.co.uz/books?id=hFTqDwAAQBAJ&pg=PP5&hl=ru&source=gbs_selected_pages&cad= 2#v=onepage&q&f=false)



- 
6. Балыков П.Н и другие. Организация психологической работы антикоррупционной направленности в таможенных органах Российской Федерации. Методические рекомендации. – СПб, 2010. – Б. 20. // URL: <https://books.ifmo.ru/file/pdf/739.pdf>
  7. URL: [https://www.academia.edu/21691591/corruption\\_in\\_higher\\_education\\_fiction\\_or\\_reality\\_corruption\\_in\\_higher\\_education\\_fiction\\_or\\_reality](https://www.academia.edu/21691591/corruption_in_higher_education_fiction_or_reality_corruption_in_higher_education_fiction_or_reality).
  8. URL: <https://www.etymonline.com/word/corruption>
  9. URL: <https://www.transparency.org/en/what-is-corruption>.
  10. URL: <https://m.minjust.uz/uz/press-center/news/101954/>.

## ЛОМБАРДЛАР ФАОЛИЯТИНИ ФУҚАРОВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

**Санжарбек Сафаров Абдуллаевич**

“Navoiy lombard” МСНҲ раҳбари, ҳуқуқшунос

### АННОТАЦИЯ

*Мақолада мамлакатимизда ломбардлар соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлар ёритилган. Шунингдек Ломбардлар фаолиятини фуқаровий-ҳуқуқий тартибга солиш асосларини такомиллаштириш масалалари очиқ берилган.*

*Калит сўзлар:* ломбард, ашёлар, мол-мулк, гаров, ломбардда, омонат сақлаш.

### АННОТАЦИЯ

*В статье освещаются проводимые реформы в сфере ломбардов в нашей стране. Также раскрываются вопросы совершенствования основ гражданско-правового регулирования деятельности ломбардов.*

*Ключевые слова:* ломбард, имущество, имущество, залог, ломбард, залог.

### ABSTRACT

*The article covers the ongoing reforms in the field of pawnshops in our country. The issues of improving the framework of civil law regulation of pawnshops are also revealed.*

*Keywords:* pawnshop, property, property, pledge, pawnshop, deposit.

### КИРИШ

Маълумки, Давлатимиз Раҳбари Шавкат Мирзиёв 2021 йил 6 ноябрь куни Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқида “мамлакатимиз банк тизими ва бозор инфратузилмасининг бошқа органлари фаолияти самарадорлигини ошириш ҳам долзарб масала бўлиб қолаётганлиги”ни<sup>175</sup> таъкидлаб ўтди.

Бинобарин, ушбу устувор вазифа замонавий бозор иқтисодиётини, унинг асосий унсурларидан бири бўлган хизматлар кўрсатиш соҳасини жадал

<sup>175</sup> Шавкат Мирзиёв. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислоҳотлар йўлини қатъий давом эттирамиз / янги сайланган Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвнинг лавозимга киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутқи // [president.uz/uz/lists/view/4743](http://president.uz/uz/lists/view/4743).

ривожлантиришни, уларнинг қонунчилик асосларини такомиллаштиришни тақозо этади.

Бундай хизматлардан бири – фуқаролардан шахсий истеъмолга мўлжалланган кўчар мол-мулкни қисқа муддатли кредитларни таъминлаш учун гаровга қабул қилиш билан шуғулланувчи тадбиркорлик фаолиятининг субъекти бўлган ломбардлар томонидан кўрсатиладиган хизматлар кўрсатиш соҳаси ҳисобланади.

Бунинг учун эса омонат сақлашнинг алоҳида тури сифатида ломбардлар фаолияти ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматлар фуқаролик ҳуқуқида ўрганиш ва илмий таҳлил этиш зарур.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Ломбардлар фаолиятининг тарихига назар солсак, XI асрга келиб Венеция, Буюк Британия ва Нидерландияда дастлабки ломбард идоралари очила бошлаган бўлса, ломбардлар XV асрларда Франциянинг Ломбард шаҳрида савдогарлар томонидан ташкил этилган<sup>176</sup> ва ҳозирги кунда амалиётда қўлланилиб келинаётган “ломбард” термини шу тариқа пайдо бўлганлигини кузатиш мумкин<sup>177</sup>.

Ломбардлар тушунчасига тўхталадиган бўлсак, шахсий истеъмолга мўлжалланган кўчар мол-мулкни закат шаклида гаровга қабул қилиб, фуқароларга қисқа муддатли (уч ойдан ошмаган муддатга) кредитлар бериш ҳамда фуқаролардан шахсий истеъмолга мўлжалланган кўчар ашёларни сақлашга қаратилган хизматларни кўрсатадиган ихтисослашган ташкилотлар тушуниш зарур<sup>178</sup>.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексида ломбардлар фаолиятининг барча масалаларига оид ҳуқуқий қоидалар ўз аксини топмаган, бундай фаолият асосан Марказий банкнинг буйруқлари ҳамда қарорлари билан тартибга солиниб келинмоқда.

<sup>176</sup> С.Норқобилов, Ҳ.Дадабоева, Ў.Жўраев. Халқаро амалиётда банк назорати. Магистрлар учун дарслик / Тошкент Молия институти. – Т.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2007. – Б.7.

<sup>177</sup> В.Топилдиев “ломбард” атамаси Италиядаги вилоят номидан олинган бўлиб, дастлаб фуқаролардан шахсий истеъмолга мўлжалланган ашёлар эвазига қарз бериш фаолияти айнан шу жойда вужудга келганлиги адабиётларда таъкидланганлиги эътироф этади. Қаранг: Топилдиев В. “Фуқаролик ҳуқуқи”. I қисм. “Университет”. - Т.: 2014. - Б.143.

<sup>178</sup> *Изоҳ:* Ўзбекистон Республикаси Марказий банки бошқарувининг 2021 йил 2 апрелдаги 5/10-сон қарори билан тасдиқланган “Микрокредит ташкилотлари ва ломбардлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва тартибга солиш тўғрисида”ги Низомнинг 21-бандига асосан, ломбардлар шахсий истеъмолга мўлжалланган кўчар мол-мулкни закат шаклида гаровга қабул қилиб, фуқароларга қисқа муддатли (уч ойдан ошмаган муддатга) кредитлар беради ҳамда фуқаролардан шахсий истеъмолга мўлжалланган кўчар ашёларни сақлашга қабул қилади.

Жумладан, Фуқаролик кодексининг 3 та моддаси – 289-моддаси (“Ашёларнинг ломбардда гаровга қўйилиши”), 894-моддаси (“Ломбардда омонат сақлаш”) ва 895-моддаси (“Ломбарддан талаб қилиб олинмаган ашёлар”) бевосита ломбардлар фаолиятига оид айрим масалаларни тартибга солади, холос.

Хусусан, Фуқаролик кодексининг ушбу моддаларида **ломбардлар фаолиятига оид қуйидаги талаблар белгиланган:**

*биринчидан*, фуқаролардан шахсий истеъмолга мўлжалланган кўчар мол-мулкни қисқа муддатли кредитларни таъминлаш учун гаровга қабул қилиш ихтисослашган ташкилотлар — фаолиятини хабардор қилиш тартибида амалга оширадиган ломбардлар томонидан тадбиркорлик фаолияти сифатида амалга оширилади;

*иккинчидан*, ломбардларда ашёларни гаровга қўйиш ҳақидаги шартномалар улар томонидан гаров паттаси бериш йўли билан расмийлаштирилади ҳамда гаровга қўйилаётган ашёлар ломбардга топширилади.

Ашёни ломбардда омонат сақлаш шартномаси эса ломбардлар томонидан юк топширувчига (мижозга) унинг номи ёзилган сақлов паттаси бериш йўли билан расмийлаштирилади;

*учинчидан*, ломбардларга сақлаш учун топшириладиган ашё тарафларнинг келишуви билан сақлаш учун қабул қилиш пайтида ва жойида одатда савдода шу турдаги ва сифатдаги ашёга белгиланадиган нархларга мувофиқ баҳоланиши лозим;

*тўртинчидан*, ломбардлар гаровга қабул қилинган ашёларни гаровга қабул қилиш пайтида шунга ўхшаш ва шундай сифатли ашёларнинг нархларига мос баҳодаги тўлиқ суммасида ўз ҳисобидан гаровга қўювчи, омонат сақлаш учун қабул қилинган ашёларни эса юк топширувчи фойдасига суғурталаш шарт;

*бешинчидан*, ломбардлар гаровга қўйилган ашёлардан фойдаланишга ва уларни тасарруф этишга ҳақли эмас, шунингдек ашёларнинг йўқолиши ёки шикастланиши енгиб бўлмас куч оқибатида юз берганлигини исботлай олмаса, гаровга қўйилган ашёларнинг йўқолганлиги ёки шикастланганлиги учун жавобгар бўлади;

*олтинчидан*, ломбардларда ашёлар гарови билан таъминланган кредит суммаси белгиланган муддатда қайтариб берилмаган тақдирда, ломбард нотариуснинг ижро ёзуви асосида имтиёзли бир ойлик муддат ўтганидан кейин гаровга қўйилган мол-мулкни сотиш учун Фуқаролик кодексининг 281-моддасида белгилаб қўйилган тартибда ушбу мол-мулкни сотишга ҳақли.

Шундан кейингина ҳатто гаровга қўйилган мол-мулкни сотишдан тушган сумма талабларни тўлиқ қаноатлантириш учун етарли бўлмаса ҳам, ломбардларнинг гаровга қўювчига (қарздорга) талаблари бекор бўлади;

*еттинчидан*, юк топширувчи ашёларни қайтариб олишдан бош тортган тақдирда, ломбард уларни уч ой мобайнида сақлаб туриши шарт.

Бу муддат ўтганидан кейин талаб қилиб олинмаган ашёлар ломбард томонидан Фуқаролик кодексининг 289-моддасининг еттинчи қисмида белгилаб қўйилган тартибда сотилиши мумкин.

Ашёларни сотишдан тушган пулдан сақлаш ҳақи ва ломбардга тегишли бошқа тўловлар қопланиши, пулнинг қолган қисми эса ломбард томонидан сақлов паттасининг эгасига у тақдим этилганида қайтариб берилиши лозим;

*саккизинчидан*, ломбардларда ашёларни гаровга қўйиш тўғрисидаги шартномаларнинг гаровга қўювчининг ҳуқуқларини қонунчилик асосида унга бериладиган ҳуқуқларга қараганда чеклаб қўядиган шартлари ўз-ўзидан ҳақиқий эмас.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, республикамизда ломбардлар фаолиятини лицензияловчи, тартибга солувчи ва назорат қилувчи асосий орган Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасида ломбардлар фаолиятини тартибга солувчи ягона қонун мавжуд эмас, мазкур фаолият “Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида”ги қонун<sup>179</sup>, “Гаров тўғрисида”<sup>180</sup> ги қонун, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг 2021 йил 2 апрелдаги “Микрокредит ташкилотлари ва ломбардлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва тартибга солиш тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори каби норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида тартибга солинади.

Айни пайтда, “Микрокредит ташкилотлари ва ломбардлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва тартибга солиш тўғрисида”ги Низом Марказий банк томонидан 3 та норматив-ҳуқуқий ҳужжат, шу жумладан “Ломбардлар томонидан фаолият ва операцияларни амалга ошириш қоидалари”, “Микрокредит ташкилотлари томонидан молиявий операцияларни амалга ошириш қоидалари”, “Микрокредит ташкилотлари томонидан активлар

<sup>179</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 11 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида”ги қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон.

<sup>180</sup> Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 1 майдаги “Гаров тўғрисида”ги қонуни (янги тахрирда) // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

сифатини таснифлаш, активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш захираларини яратиш ва улардан фойдаланиш тартиби тўғрисида”ги Низомни унификация қилиш орқали қабул қилинганлигини эътироф этиш жоиз.

Хусусан, қабул қилинган Низомда ломбардлар томонидан фаолият ва операцияларни амалга ошириш, гаров асосида кредитни расмийлаштириш ва бериш, ломбардда мол-мулкларни сақлаш тартиб-таомилларига оид 20 дан зиёд муҳим қоидалар ўз аксини топган.

Шу билан бирга, назаримизда тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланувчи 2 та алоҳида ихтисослашган ташкилотларнинг фаолиятига оид қоидаларнинг битта норматив-ҳуқуқий ҳужжатда белгилаб берилиши мантиқан нотўғри ҳисобланади.

Ҳолбуки, микрокредит ташкилотлари микрокредит, микроқарз, микролизинг бериш соҳасида микромолиявий хизматлар кўрсатувчи юридик шахс бўлса, ломбардлар эса шахсий истеъмолга мўлжалланган кўчар мол-мулкни закат шаклида гаровга қабул қилиб, фуқароларга қисқа муддатли (уч ойдан ошмаган муддатга) кредитлар бериш ҳамда улардан шахсий истеъмолга мўлжалланган кўчар ашёларни сақлашга қаратилган хизматларни кўрсатадиган ихтисослашган ташкилотдир.

Қолаверса, мамлакатимизда “Микрокредит ташкилотлари тўғрисида”ги қонун қарийб 16 йил олдин (2006 йил 20 сентябрда) қабул қилинган бўлса, “Ломбардлар тўғрисида”ги қонун эса ҳанузгача қабул қилинмаган.

“Ломбардлар тўғрисида”ги махсус қонунларни эса Арманистонда 2003 йилда, Россияда 2007 йилда, Тожикистонда 2013 йилда, Қирғистонда 2016 йилда қабул қилинганлигини кузатиш мумкин.

Айни пайтда, АҚШ, Япония, Жанубий Корея ва Европа мамлакатларида ҳам ломбардлар фаолияти тараққий этиб бормоқда.

Фикримизча, шиддат билан ривожланаётган бозор муносабатлари шароитида ломбардлар фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш асосларини такомиллаштириш лозим.

Бунинг учун, Фуқаролик кодексида ломбардлар фаолиятига оид махсус қоидаларни такомиллаштириш ҳамда ломбардлар фаолиятига оид махсус қонун – Ўзбекистон Республикасининг “Ломбардлар тўғрисида”ги қонунини қабул қилиш ҳамда ушбу қонунда ломбардлар тушунчаси, уларга қўйиладиган талаблар, ломбардларнинг ҳисобдорлиги, улар фаолиятининг асосий йўналишлари, ломбард томонидан кредитлаш қоидалари каби асосий масалалар белгилашни мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

## ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, ломбардлар фаолиятига оид норматив-ҳуқуқий базанинг такомиллашуви улар томонидан кўрсатиладиган хизматлар қамровининг оширишга, аҳолининг банк тизими қамраб олмаган қисмига чуқур кириб боришига имкон беради.

## REFERENCES

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини қатъий давом эттирамиз / янги сайланган Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг лавозимга киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутқи // [president.uz/uz/lists/view/4743](http://president.uz/uz/lists/view/4743).
2. С.Норқобилов, Ҳ.Дадабоева, Ў.Жўраев. Халқаро амалиётда банк назорати. Магистрлар учун дарслик / Тошкент Молия институти. – Т.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2007. – Б.7.
3. В.Топилдиев “ломбард” атамаси Италиядаги вилоят номидан олинган бўлиб, дастлаб фуқаролардан шахсий истеъмолга мўлжалланган ашёлар эвазига қарз бериш фаолияти айнан шу жойда вужудга келганлиги адабиётларда таъкидланганлиги эътироф этади. Қаранг: Топилдиев В. “Фуқаролик ҳуқуқи”. I қисм. “Университет”. - Т.: 2014. - Б.143.
4. Изоҳ: Ўзбекистон Республикаси Марказий банки бошқарувининг 2021 йил 2 апрелдаги 5/10-сон қарори билан тасдиқланган “Микрокредит ташкилотлари ва ломбардлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва тартибга солиш тўғрисида”ги Низомнинг 21-бандига асосан, ломбардлар шахсий истеъмолга мўлжалланган кўчар мол-мулкни зақалат шаклида гаровга қабул қилиб, фуқароларга қисқа муддатли (уч ойдан ошмаган муддатга) кредитлар беради ҳамда фуқаролардан шахсий истеъмолга мўлжалланган кўчар ашёларни сақлашга қабул қилади.
5. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 11 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида”ги қонуни // *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон.*
6. Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 1 майдаги “Гаров тўғрисида”ги қонуни (янги таҳрирда) // *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.*

## **TALIM XIZMATLARIDA MARKETING BOSHQARUVI**

**Avliyoqulov Ashurali Avazovich**

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

**Ermatova Maftuna Arslonbek qizi**

Termiz davlat universiteti magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat va no davlat ta'lim xizmatlari rivojlanishida yuzaga kelayotgan kamchiliklar va muammolar, ularni bartaraf etishga qaratilgan izlanishlar yoritilgan. Mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan davlat va nodavlat ta'lim markazlarining aholiga xizmati darajasini takomillashtirishda ya'ni jahon standartlariga moslashtirishda butun jahonda ayniqsa rivojlangan mamlakatlarning ta'lim sohasidagi marketing faoliyatini o'rganish natijasiga tayanib yechimlar va xulosalar bayon etildi. Ushbu yo'nalishga oid izlanishlar, ilmiy ishlar muhokama qilingan. Ta'lim sohasiga oid qarorlar va ularni amaldagi natijalari, shu o'rindi so'ngi yillarda oliy ta'lim tizimini har tomonlama to'liq boshqarish va qulaylashtirish maqsadida yangi tizimning tashkil etishilishi ko'rib chiqiladi. Agar O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalarida jahon tan olgan ta'lim obyektlarining bir nechta strategiyalarini qo'llasak, viloyatdagi ta'lim muassasalari o'z reytingini ancha yaxshilab olishini kutishimiz mumkin, shu o'rinda, aytib o'tish joizki, so'ngi yillarda oliy ta'lim obyektlari bosqichma- bosqich jahon standartiga mos ravishda kredit modul tiziga o'ta boshlashdi, va shu kabi o'zgarishlar haqida maqolada qisqacha to'xtalib o'tilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *marketing, marketing strategiyasi, raqobatbardoshlik, ta'lim tizimi, ta'lim sifati, ta'lim xizmatlari bozori, xizmatlar sohasini rivojlantirish, xalqaro a'loqalar.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье описаны недостатки и проблемы в развитии государственных и негосударственных образовательных услуг в Республики Узбекистане на сегодняшний день, а также исследования по их устранению. Решения и выводы по результатам исследования маркетинговой деятельности в сфере образования в мире, особенно в развитых странах, были представлены в повышении уровня обслуживания государственных и негосударственных образовательных центров в стране, т.е. их адаптации мировым стандартам. Обсуждаются исследования в этой области. Решения в области образования и*



*их текущие результаты, в том числе создание в последние годы новой системы полного управления и содействия системе высшего образования.*

***Ключевые слова** : Маркетинг, маркетинговая стратегия, конкурентноспособность, образовательная служба, качество образования, рынок образовательных услуг, развитие услуг, международные связи*

### **ABSTRACT**

*In this article current shortcomings and problems in the development of state and non-state educational services in the Surkhandarya region is described, as well as research to eliminate them. Decisions and conclusions based on the results of studying marketing activities in the field of education in the developed countries of the world, especially in the field of improving the level of service for the population of state and non-state educational centers in the region, i.e. adaptation to world standards. Researchs in this area are discussed. Decisions in the field of education and their current results, including the creation in recent years of a new system of total management and promotion of the higher education system. If several strategies of internationally recognized institutions are applied to educational institutions operating in the region, the region's institutions can be expected to improve their ranking significantly. In this regard, it should be noted that in recent years, higher education institutions have gradually begun to switch to a credit module in accordance with international standards, and the article briefly discusses such changes.*

***Keywords:** marketing , marketing strategy , competitiveness, educational service ,quality of education, education services market , development of services, international relations*

### **KIRISH**

Ta'lim muassalarida, o'z xizmatlari darajasini yaxshilash uni jahon standartlariga moslashtirish asosiy maqsad va vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunga Surxondaryo viloyatida 6 ta oliy ta'lim muassassasi , 20 ta o'rta maxsus , kasb – hunar ta'lim muassassalari , 300 dan ortiq davlat va nodavlat o'rta ta'lim maktablari (sport va ixtisoslashgan maktablar shular jumlasidan) , 1000 ga yaqin o'quv markazlari faoliyat yuritmoqda. Eslatib o'tish joizki , 2017-2021 yillarda O'zbekiston prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan , O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishiga asoslangan harakatlar startegiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning

xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifatini hamda samaradorligini oshirish"[1] ka'bi yoshlar va ayniqsa talabalar uchun ustuvor vazifalar belgilab o'tilgan. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosati darajasida qaraladi. Bunga misol tariqasida ta'lim to'g'risidagi qonun va bir nechta ta'limga aloqador qarorlarning qabul qilinishini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Ushbu qarorlar va qonunlar nafaqat ta'lim sifatini va uning xizmatini oshirish va yaxshilash, balki O'zbekistonda ta'lim oluvchilarning huquqini yanada kengaytirish maqsad qilingan. Eslatib o'tamiz, O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 23.09.2020 yildagi O'RQ- 637 sonli, Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan, ta'lim to'g'risidagi qonunda quyidagilar keltirib o'tilgan.

“Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish;

oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.”[2]

Ta'lim olishga bo'lgan huquqlarning kengayishi bu albatta yaxshi natijalarga olib keladi, shu bilan bir qatorda ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga ham turtki bo'ladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ta'lim tizimi sifati va xizmatlarini takomillashtirish uning marketing strategiyasini yaxshilanishiga turtki bo'ladi. Marketing – bu bozor ya'ni ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi va iste'molchi ya'ni xaridor o'rtasida Tovar va xizmatlarni ayirboshlash, sotish kabi jarayonlarning o'z ichiga oluvchi faoliyatdir. Shuni eslatib o'tish joizki, marketinga aloqador kitoblar va maqolalarda, marketingga ikki

mingdan ortiq ta'rif keltirib o'tilgan. Shu o'rinda eslatib o'tish joizki K. M. Almakuchukov , G. Axunova , N. Aliyev, D.Nazarova kabi olimlar va mustaqil izlanuvchilar marketing boshqaruvi va uni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan va qoniqarli natijalarga erishishgan. Shu o'rinda G. Sa'dullayeva o'z ilmiy izlanishlarida ta'lim xizmatlarida marketing strategiyasini o'rni va bu strategiyada raqbat muhitining o'rni haqida chuqur ma'lumotlar keltirib o'tgan. Ta'lim xizmatlarida marketing o'rniga asoslangan ilmiy ishlarida marketingni rivojlantirishda marketing mixni takomillashtirish, shu o'rinda o'zbekiston respublikasida ta'lim xizmatlari marketingining kechasi va buguniga ta'rif berib o'tganlar. Va kelajagi uchun izlanilgan xulosa va takliflar keltirganlar .

Dunyo miqyosida ta'lim xizmatlariga nisbatan o'ziga hos qarashlar va ta'riflar mavjud. Misol ta'riqasida YUNESKO tashkil etilganining 75 yilligiga bagishlangan ko'rgazmada aynan ta'lim sohasiga alohida to'xtalgan, ta'limga oid quyidagi ta'riflar keltirib o'tilgan. Ta'lim olish bu shaxsning qobiliyati xulq-atvorining takomillashishi jarayoni va natijasidir, ta'lim olish orqali u individual o'sadi va ijtimoiy yetuklikka erishadi [3]. Eslatib o'tishimiz joizki YUNESKO har bitta konferensiyalarida ta'limga ayniqsa rivojlanish darasi ancha orqada bo'lgan mamlakatlar aholisi ta'limiga va ayniqsa ayollar ta'limiga alohida to'xtalib o'tadi.

Bundan tashqari T.I.Avdeeva , A.D.Kuliklar Zamonaviy jamiyatda oliy ta'lim o'rniga o'ziga hos qarashni keltirib o'tgan unga ko'ra ta'lim xizmati davlatning ajralmas iqtisoiy bo'lagidir, shu sababli davlat har bir yoshda yoki ish jarayonida shaxslardan ma'lum bir ilmiy darajani talab qiladi [4]. Bu ham iqtisodchilar qarashlaridan bir lavha, bu o'z navbatida shuni anglatadiki, aholi bolaligidan jamiyatda o'z o'rnini topish uchun ham ta'limga muhtojdir. O'zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra ta'lim davlat tovari bo'lib, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash bilan bir qatorda xalq xo'jaligining aralash sektoriga kiradi.

Bundan tashqari ta'lim va ta'lim zimatlari va ta'lim xizmatlarini takomillashtirishda marketingni o'rniga asoslangan ilmiy izlanishlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin, Natalya Kallenskaya , Ilshad Gafurov va Aida Novenkovalar birgalikda "Marketing of Educational Services: Research on Service Providers Satisfaction" nomli ilmiy ish qilishgan. Magdalena Platis va Eleonora Gabriella Baban . Steven P.Schnaars . Ken Franzen 2018 yilda "Ta'lim sektorlari uchun muvaffaqiyatli marketingning beshta kaliti " nomli maqola nashr etgan. Pankruxin. A.P "Маркетинг образовательных услуг в высшем и дополнительном образовании". Porter M.E "Competitive strategy" nomli kitobi orqali raqobat muhiti, raqobatchilar va raqobatlashish haqida chuqur va sinalgan

ma'lumotlar olish mumkin. Ta'lim xizmati jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: mamlakat mehnat resurslaridan foydalanishning umumiy samaradorligini oshirishga, ularning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi vaqtda ta'lim xizmatlarining mohiyatini muhokama qilish to'xtamaydi. Ammo umumiy fikr hali ham ta'lim xizmati boshqa barcha turdagi xizmatlardan farq qiladigan o'ziga xos mahsulot ekanligiga asoslanadi. Olib borilgan tadqiqotlarning barchasi Surxondaryo viloyatida maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'lim va nodavlat ta'lim tashkilotlari ta'lim xizmatlarining faoliyatini yaxshilashga qaratilgan.

O'z navbatida so'ngi yillarda barcha oliy ta'lim muassasalari bosqichma bosqich jahon standartlariga mos kredit modul tizmiga va raqamli universitet loyihasi asosida o'qituvchilar va talabalar uchun qulay bo'lgan HEMIS (Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot ) dasturiga ulana boshlashdi. Eslatib o'tamiz, Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 8-oktyabr kuni imzolangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonda [5] respublika kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma – bosqich kredit modul tizmiga o'tkazish" belgilab berilgan edi. Shu bilan bir qatorda mamlaktimizdagi barcha universitetlar raqamli universitet loyihasi asosida universitetlarning barcha a'zolari o'qituvchilar, talabalar va boshqa xodimlari ham HEMIS dasturiga ulana boshlashdi. Ushbu axborot tizimi "Ma'muriy boshqaruv", "O'quv jarayoni", "Ilmiy faoliyati" va "Moliyaviy boshqaruv" axborot tizimlarini o' ichiga oladi. HEMIS axborot tizmi oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etadi. Dunyo tan olgan barcha oliy ta'lim muassasalari va hattoki o'rta maxsus ta'lim maskanlari ham shu kabi maxsus boshqaruv tizmiga ega. Bu kabi boshqaruv tizimi ta'lim muassasasi strukturasi, fakultetlar, kafedralar, xodimlar va talabalarni, ular haqidagi ma'lumotlar, talabalarning o'zlashtirish jarayonlari va natijalarini boshqarishga yordam beradi. Shu o'rinda bu kabi yaqona boshqaruv tizmi talabalar uchun qulaydir, har bitta talaba o'z moliyaviy holati, o'zlashtirish darajasini, dars jadvalini va boshqa shu kabi ma'lumotlarini bitta ilova orqali bilishi mumkin. Bu kabi qisqa yillardagi keskin o'zgarishlarning barchasi mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining reytingini ko'tarishga qaratilgan chora tadbirlardir.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O‘zbektonda faoliyat yuritayotgan barcha ta’lim muassassalarida o‘z faoliyatlari jarayonlarida albatta marketing faoliyatini va o‘zlari taklif etayotgan ta’lim xizmati sifatini jahon darajasida standartlatish ustida ishlar olib borilmoqda.

Surxondaryo viloyatida ta’lim muassasalari faoliyati xizmatlarini takomillashtirish va jahonga standartlariga moslashtirishga qaratilgan chora tadvirlarga bir nechta qo‘shimcha takliflar kiritishimiz mumkin.

- Aholi o‘rtasida ta’lim sifatiga nisbatan fikrlarini va takliflarini bilish maqsadida kuzatishlar va so‘rovnomalar olib borish, ko‘rsatilgan muammolarga yechim topish ;

- Viloyatda tashkil etilgan ta’lim muassasalari faoliyatida bir nechta yangi yo‘nalishlarni tashkillashtirish, masalan IT ga ixtisoslashgan y‘onalishlarni ochish, mavjudlarini esa takomillashtirish;

- Masofadan turib ta’lim berish va ta’lim olishning sifatini yaxshilash ya’ni jahon standartlariga moslashtirish;

- O‘rta ta’lim muassassalarida bitiruv va chorak imtihonlarini takomillashtirish , yevropa o‘rta ta’lim imtihonlari olinish usullarini sinab ko‘rish;

- Oliy ta’lim muassassalarida imtihon olinish jarayonlarida shaxs ishtiroklarini qisqartirish, bu bilan o‘z navbatida imtihonlarni shaffoflashtirish;

## **REFERENCES**

1. ПФ-4947-сон 07.02.2017. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (2022). Retrieved 24 March 2022, from <https://lex.uz/docs/3107036>
2. О‘RQ-637-сон 23.09.2020. Та’лим то‘g‘risida. (2022). Retrieved 24 March 2022, from <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. Выставка «ЮНЕСКО: образование для всех». (2022). Retrieved 24 March 2022, from <https://www.rsl.ru/ru/events/afisha/vistavki/yunesko-obrazovanie-dlya-vsex>
4. Викторова, Ш., & Мурадович, А. (2022). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: МИРОВОЙ АСПЕКТ. Retrieved 24 March 2022, from <https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-razvitiya-vysshego-obrazovaniya-mirovoy-aspekt>

---

## **LANGUAGE GAME IN ARTISTIC TEXT: PROBLEMS OF INTERPRETATION AND TRANSLATION**

**Sagatova Shakhnoza Bakhtiyorovna**

Lecturer at the Department of Latin and Foreign Languages,  
Tashkent State Dental Institute

### **ANNOTATION**

*Whole nation in the world, every single nation, other nations, unique masterpieces that enrich the spirituality created by nations, have not only benefited from the discoveries, but also contributed to the treasury of world culture. There are no languages, nations, countries that have developed in their shell without the influence of languages, nations, countries. The history of translation is as ancient as the history of language, the history of the nation, the history of the country.*

**Keywords:** translation, literature, art, culture, science of different peoples, foreign language, speech activities, important skills .

### **АННОТАЦИЯ**

*Целый народ мира, каждый отдельный народ, другие народы, уникальные шедевры, обогащающие духовность, созданные народами, не только принесли пользу открытиям, но и внесли свой вклад в сокровищницу мировой культуры. Нет языков, наций, стран, которые сложились в своей оболочке без влияния языков, наций, стран. История перевода столь же древняя, как история языка, история нации, история страны.*

**Ключевые слова:** перевод, литература, искусство, культура, науки разных народов, иностранный язык, речевая деятельность, важные навыки.

### **INTRODUCTION**

Linguists and translators are well aware that behind any term there is a life after life. Their entry into the national language field, and the extent to which the range of fields they represent are mastered within the language, are the focus of attention of translators and semiotics. It is clear from these documents that today's Uzbek language is enriched with colorful terms.

Translation is a very big and important role in human development, in its cultural life. Translation introduces people from one country or continent to the life, culture, customs, history, literature and science of people from another country. Through translation, we learn other cultures, and others learn the great Uzbek culture. If we want to understand each other's national and cultural features faster and better, we will have to translate the works of other nations.

## **DISCUSSION AND RESULTS**

The meaning of the word translation is very wide. Poems, works of art, scientific and popular science books in various fields of science, diplomatic documents, working papers, people's conversations, etc. are translated from one language to another. Of course, translation is the key to all of this.

Its scientific significance in both translation theory and the history of translation is of great interest in translation, which is its object. Translation is a creative activity related to language and literature, and the two languages are intertwined, in which the original the text is represented by other language tools. A number of questions arise with the process of comparing and translating languages. These questions, in turn, encourage them to analyze them, to study the specifics of each.

The study of the history of translation in close connection with the history of society, culture, history of literature is also a requirement of the time. However, it would be wrong to study them separately. how many scientists have worked. The main goal, as noted above, is to use past experiences to more accurately define our present and future lifestyles and not to repeat the mistakes made along the way.

As mentioned above, translation is an activity that serves to bring together the literature, art, culture, science of different peoples. For a student learning a foreign language, translation is all kinds of speech activities - listening, speaking, reading and writing. skills are equally important. The study of the history of translation opens the way to a deeper understanding of this field, to the development of the science of translation and translation studies today, because it is impossible to create the future without knowing the history. It is time to seriously study these rare manuscripts, which embody the centuries-old life experiences, religious, moral and scientific views of our ancestors.

So what is the purpose of studying the history of translation? Along with the study of the history of translation, firstly, to show the contribution of Uzbek literature, scholars to the treasury of world literature, secondly, to show the role of Uzbek literature in world literature, thirdly, the role of translation in the development of world science and culture clearly visible. These works explore the various schools of translation history from antiquity to the present day, their activities, prominent figures, and the role of translation history in the development of modern translation trends. "Nevertheless, many major monuments in the history of translation, the work of talented translators have not been studied," said G. Ostonova.

Translation occupies a worthy place in all national literatures with a centuries-old literary tradition. Therefore, it is safe to say that without creating a history of

translation, the laws of translation have developed in each period, the same national. it is impossible to give a full, complete account of the history of that national literature without defining what schools of translation were formed in the development of literature and what role these translations played in the development of world culture. In the second half of the XX century, there was a slow process of translation from Germany into France. Even English realism could not influence him, and the focus on translation was still not growing.

In the twentieth century, much attention was paid to translation. This century was a century of translation. By the end of this century, British scholars A. Duff, A. Malle, L. Newmark, Naido and others studied the history of translation. Of course, they could not pass without looking at the past. In their book, Approaches to Translation, P. Newmar writes about translation, noting that the translation of the past has shifted its influence to the translation of the present.

The word "translation" has long been used in the Eastern sense of description, narration and explanation. Literary translation means not just translating a text from one language to another, but "recreating" it. Therefore, translation is a creation, a translator. it is no exaggeration to say that he is creative.

G. Salomov, one of the prominent scholars of Uzbek translation, gives such evidence in his works (Gaybullah Assalom, p. 10).

During one of his trips to India, the scientist was asked in which language he would write. When he was told that he would write in Uzbek, he was told that only his compatriots could read. The scholar said that his work had been translated into Russian and other languages, and that the translation and translation work was very well organized. After that, the Uzbek writer Hamid Olimjon, Samad Qurgun, Gafur Gulam, Berdi Kerboboyev, Oybek will explain how and in what languages the works of famous writers and poets have been translated.

The problem of making unique cultural, literary, and scientific monuments, which have been created for thousands of years, the property of the people, has always been a dream of creativity in all times, and it needs translation.

There are two goals. One is the interest in learning books written in the languages of other nations around the world; the second is to distribute books written in their own language among the peoples of the world. (G. Salomov). As human beings speak different languages, translation has always been and will always be important. That is why the history of translation has been of interest to scholars for many years, but a number of problems in the history of translation have not been solved.



The history of translation in the United Kingdom can be divided into 4 stages:

1. The period from ancient times to the XII century.
2. Covers the XIII-XVII centuries.
3. XVIII- XIX centuries.
4. XX-early XXI centuries.

The main feature of the 1st stage is related to the spread of Christianity, and during this period Latin became the main international language in the West.

When talking about the development of the history of translation in the West, the English expert is, of course, primarily interested in the history of British translation.

Speaking about this, O. Muminov divides the history of translation of the United Kingdom into 4 periods:

1. The period from antiquity to the XII century.
2. XIII-XVIII centuries.
3. XVIII- XIX centuries.
4. XX century.

In addition to this, we think that the history of translation in the new XXI century has entered a new fifth period, and its specific features should be studied. First of all, given that today the development of science and technology, new information technologies are entering various spheres of life, including foreign language education, especially translation, this period also has its own characteristics. As in various western countries, the first stage of the history of translation in the United Kingdom is associated with the spread of Christianity and the translation of the Bible into different languages. This is the period when Latin gained the status of an international language.

From the II century onwards, the Bible was translated into various Western languages, including English. The translation of the Bible into the languages of the peoples of Europe played an important role in the development of these languages. One of the features of the translation of that period was the translation of Latin mantas under each word. Such a word translation method, of course, had flaws, lexical, syntactic errors and misunderstandings. As a result, free translation was used.

The Bible, which has been translated into various Western languages, has been translated in different ways by different translators. Western translators have placed great emphasis on the study and translation of inscriptions, mainly in Greek and Latin.

Renaissance In Britain, Alfred, the king of West Saxony, translated rare Renaissance works from Latin into the English Wessex dialect. His translation career dates back to 886-893.

The translation of the artistic property of the great works of the East into European languages has a long history. Interest in Eastern culture in the West dates back to the beginning of the ninth century. The southern regions of Spain, which belonged to the Arab Caliphate, had favorable conditions for the introduction of Eastern culture to the West, because at that time Europe lagged behind the East in all areas of human development. During this period, many powerful translators were able to benefit Europeans with the culture, science, art, and customs of the East by translating universal studies into Arabic into Latin.

As a result of this influence of the East on the West, new philosophical currents and freedom of speech emerged.

There were two major styles of Renaissance translation: literal translation and free translation, and there was a constant struggle between them.

At that time, Britain was also interested in oriental culture and art, and for several centuries Central Asia attracted the attention of the British. Samarkand, located on the Great Silk Road, was one of the favorite topics of English writers and poets. Famous Central Asian scholars Al-Farabi, Ibn Sina, Ahmad-Al-Farghani translated great figures from Arabic into English at the time.

Bahs – munozaraning falsafadagi yana bir turlaridan biri bu polemikadir. **Polemika** – ham diskussiya kabi o‘rtada paydo bo‘lgan tortishuv, nizoning to‘g‘ri hal qilinishining shakllaridan biridir, ammo polemika olib borishda o‘z qarashlarida mahkam turib olib, raqibning fikrlarini qat‘iyan rad etiladi. Ikki tomonning qarashlarini jamlab bir xulosaga kelish diskussiya uchun omadli, polemika uchun esa noodatiy yakundir.[6] Bu yo‘nalish disput va diskussiyadan o‘z maqsadini yo‘naltirilganiga ko‘ra farq qiladi. Diskussiya ishtirokchilari qarshi tomon bilan haqiqatga yetishish uchun umumiy xulosaga kelish yo‘llarini qidirsalar, polemikadan ko‘zlangan asosiy maqsad esa, raqibining ustidan g‘alaba qozonib, o‘z pozitsiyasida qat‘iy turib olish bo‘ladi.[7] Ko‘rib turibmizki, diskussiyada tomonlar kelishib, bir xulosaga kelinsa, polemikada esa aynan bir tomonning g‘olibligi tan olinishi kerak. Biz yuqorida bahs munozaralarning izohli lug‘atlarda sinonim sifatida berilganligining guvohi bo‘lgan edi, lekin e‘tiborimizni G‘azzoliyning “Ihyou Ulumiddin” asaridagi aynan mana shu diskussiya va polemika o‘rtasidagi farqni o‘z tilida tushuntirganiga qaratamiz: “Suhbatdoshini gapirtirmaslik, kamsitish, nodonlikda ayblash maqsadida qilinadigan *bahs*, shubhasiz *mujodala* – *tortishuvga* aylanadi”[5.34].

Ko‘rib turibmizki, G‘azzoliyning qarashlari bo‘yicha, *diskussiya* – *bu bahs*, *polemika* esa *mujodala* - *tortishuvdir*.

Bilamizki, hozirda, nafaqat ilm sohasida, balki xalqaro siyosiy maydonlarda biror bir siyosiy, ijtimoiy va boshqa muammolarni hal qilish uchun omma oldida munozara qilish demokratiyaning bir ko‘rinishi deb hisoblanadi. Bu esa bahs qilish, munozaraning boshqa bir turini keltirib chiqaradi. Bulardan biri “debat”dir.

“**Debat** – bu konkret argument – dalillar keltirgan holda jamoatchilikning ko‘z oldida tortishishdir.” [4.15] Debatda tortishayotgan ikki tomonning ham o‘rni muhim ahamiyatga ega. Chunki raqiblarning har ikkisi ham “zal”(omma)ga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Va asosiysi opponentlar o‘rtasida aynan mana shu “ta‘sir” uchun kurash bo‘ladi. Munozaraning bu shakli mazmunan polemikaga o‘xshab ketadi.

Yana bir munozaraning shakllaridan biri bu – disputdir.

“**Disput** – ilm ahli atrofida akademik tarzda qilinadigan debatdir.”[4.16] Bahs - munozaraning aynan mana shu shaklidan O‘rta asr universitetlari unumli foydalanganlar. Disputni ilmiy munozara deb atasak ham bo‘ladi.

“Disput – (lat. disputatio. disputare - tortishish). Biror ilmiy predmet bo‘yicha tortishish. Dissertatsiyani ommaviy himoya qilish. 1) ilmiy munozara 2)

Dissertatsiyani ommaviy himoya qilish, ilmiy daraja olish uchun biror bir predmetdan yozilgan risola, asar.”[8]

Disputning debatdan farqi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) Arbitr (omma) – Omma disputantlarning qay biri g'olib bo'lganligini belgilaydi. Debatdagi ommadan farqli o'laroq, disputda omma bir kishidan iborat bo'lishi ham mumkin.

2) Disputant omma oldida nufuzini oshirish uchun o'z nutqida ko'proq hikmatli so'zlar, asarlardan sitatalar (matndan parchalar) va havolalarni dalil qilib keltirishlari zarur.

3) Ma'lum bir shaxs yoki guruh biror bir mavzu bo'yicha o'z qarashlarini ilgari suradi, opponent esa uning fikrlarini inkor etishi zarur. O'z g'oya yoki qarashlarini ilgari surgan tomonga dalillar va isbotlar keltirib o'zini oqlash yuki tushadi.

4) Disputda ko'pincha ilgari surilgan qarash yoki tezis bitta bo'ladi, unga bildirilgan opponent fikrlar esa bir nechta bo'lishi mumkin. [9.48]

Bahs –munozaradan HAQIQAT dunyoga keladi. Aynan mana shu hikmatli so'z bahs – munozaraning hayotda, ilm – fanda, siyosiy va ijtimoiy faoliyatda katta ahamiyat kasb etishiga urg'u beradi.

Polemika va debatlarda bahslashayotgan tomonlar o'zlarining haq ekanliklarini va muqobil tomonning fikrlarini yolg'onligini isbotlashga harakat qiladilar, shu bilan birga o'z fikrlarining to'g'riligini isbotlash jarayonida turli xil hiylalar ishlatadilar. Shamsiddin Samarqandiy, G'azzoliy va Abdurahmon Samarqandiylarning asarlarida bahs – munozara faqat haqiqatga erishish uchun qilinishi kerak degan g'oya ilgari surilgan. Lekin hozirda, asosan bahs – munozaralarimizda raqibini ustidan g'alaba qozonish eng muhim o'ringa chiqqan. Zero, Suqrot, Aflotundan bahs munozaralarda nutq orqali kishilarni ishontirish nimalardan iborat ekanligi haqida so'raydi: “Suqrot. Sen ko'rkam nutq orqali kishilarni ishontirish haqida gapiryapsan, lekin bu qanday ishonch va u nimalarga tegishli?”.[10.484] Kurib turibmizki, Suqrot ham bahs – munozaralarda faqatgina ta'sirchan nutq emas, balki dalillarga boy, va hech qanday axloqsizliklar bo'lmagan bahs munozaralarni nazarda tutib savol berayapti

Yuqorida keltirilgan dalillardan ma'lum bo'ladiki, Imom G'azzoliyning Ihyou Ulumiddin va Abdurrahmon Samarqandiylarning “Abu Lays hikmatlari”, Shamsiddin Samarqandiyning “Bahs-munozara odobi” asarlarini o'rganish hozirgi kunda juda ham dolzarb va ahamiyatga egadir. Chunki jamiyatimizning siyosiy, ijtimoiy va ilmiy jabhalarini rivojlantirish aynan ilm ahlining, jamoat arboblarning bahsi, ilm bilim va

tajriba almashinishga bog'liq ekan, aynan mana shu asarlari bizga eng katta ko'makchi bo'ladi degan fikrdamiz.

## **XULOSA**

Shamsiddin Samrqandiy, Abu Homid G'azzoliy va Abdurrahmon Samarqandiylarning asarlarining tahlilidan shuni bilib olishimiz mumkinki, bahs – munozara va uning olib borilishining o'z qoidalari va me'yorlari bor. Olimlarimiz tomonidan agar bu me'yorlarga amal qilinmasa nima hodisalarga olib kelinishi ham bayon etilgan. Imom G'azzoliyning "Ihyou Ulumiddin" kitobida salbiy munozaralarni keltirib chiqaruvchi yomon xulqlar sanab o'tilgan. Axloq normalari deb amallarga joriy qiladigan umumiy buyruqlar va taqiqlar orqali kishilar hatti harakatini tartibga soluvchi axloq – odob talablarining shakliga aytiladi. G'azzoliy sanab o'tgan o'nta ofat axloq normalariga mutlaqo zid bo'lib, ular quyidagilardir:

Hasad, takabburlik, hiqd(gina-qudrat), g'iybat, josuslik, odamlarning nochorligidan sevinish, nifoq (ikkiyuzlamachilik), haqdan yuz o'girish, riyo kabilardir.[11.106]

Aynan mana shu asarlarni o'rganish orqali biz kelajakda o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarimiz - farovon jamiyat qurish, demokratik islohotlar qilish orqali jamiyatning yashash turmush tarzini yaxshilash, qonunlarimizni bahs – munozara qilish orqali mukammallashtirish kabilarga erishamiz.

## **REFERENCES**

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. Е – М. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 856 б.
2. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6. М – П. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. 690 б.
3. Хачатурова Татьяна Владимировна. Дискуссия и правила ее проведения. УДК 654.19,ББК 76. 32. 2018.
4. Поварин С. Искусство спора: О теории и практике спора. – М.: ТЕРРА – Книжный клуб, СПб.: Северо – Запад. 2009. 192 б.
5. Ғаззолий, Абу Ҳомид. Тил офатлари китоби. – Т.: “Sharq”, 2018. 264 б.
6. [https://thequestion.ru/questions/62347/v\\_chem\\_razlichie\\_mezhdu\\_debatami\\_sporom\\_i\\_a0a4ab3a](https://thequestion.ru/questions/62347/v_chem_razlichie_mezhdu_debatami_sporom_i_a0a4ab3a)
7. Искусство спора. В.Д. Неклюдов. УДК 811.03. Вестник Брянского государственного университета №2 , 2013. 14 б.
8. [https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic\\_fwords/10398/ДИСПУТ](https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_fwords/10398/ДИСПУТ)
9. Поварин С.И. Спор: О теории и практике спора. М., 2002. 265 б.

- 
10. Платон. Собрание сочинений: В 4 т. М.: Мысль, 1990. Т. I. 650 б.
  11. G'azzoliy, Abu Homid Muhammad ibn Muhammad "Ihyo Ulum ad-din"/ Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur: tarjimon Mubasshir Ahmad. –Toshkent: Islom universiteti, 2014. 512 b.

## **QARAMA-QARSHI TA'LIMOTLAR: JAYNIZM VA BUDDIZMNING FALSAFIY TAHLILI**

**Shoimov Abdulla Sayfullayevich**

TDSHU, "Sharq falsafasi va madaniyati" mutaxassisligi magistranti

Tel: +998990888865

**Ilmiy rahbar: f.f.d. Karimov R.R.**

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur tadqiqot jarayonida Hindiston dinlari Jayinizm va Buddizmning chuqur tahlili va qarama qarshi tomonlari yoritilgan. Maqolada Jayinizm va Buddizmni ilmiy va diniy dalillar asosida izohlashga harakat qilingan.*

***Kalit so'zlar:** Mahavira Jina, vedalar, kasta, moksha, astsetik, tapas, fanat ascetics-shve-tambars, shvetambarlar, degambarlar.*

### **ABSTRACT**

*This study provides an in-depth analysis of the religions of India, Jainism and Buddhism, and their opposites. The article seeks to interpret Jainism and Buddhism on the basis of scientific and religious evidence.*

***Keywords:** Mahavira Gina, Vedas, caste, moksha, ascetic, tapas, fan ascetics-shve-tambars, shvetambar, degambar.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данном исследовании проводится углубленный анализ религий Индии, джайнизма и буддизма, а также их противоположностей. В статье делается попытка интерпретировать джайнизм и буддизм на основе научных и религиозных данных.*

***Ключевые слова:** Махавира Гина, Веды, каста, мокша, аскеты, тапасы, верные аскеты-шве-тамбары, шветамбары, дегамбары.*

### **KIRISH**

Qadimgi Hindistonning pravoslav diniy ta'limotlari genetik jihatdan oriy vedalari dini va mifologiyasiga ko'tarilib, varnalar shaklida o'z ifodasini topgan sinfiy tengsizlik tizimi bilan chambarchas bog'liq edi. Varnalarga dastlabki bo'linish asosida qadimgi hind jamiyati oriy substratini aborigen qabilalar bilan qorishtirish jarayonida tabaqalarga nisbatan yanada kasrli va hatto teng bo'lmagan tabaqalarga bo'linishni rivojlantirdi. Kastalar murakkab ijtimoiy-strukturaviy hodisadir. Professional asosida shakllangan qabila va boshqa omillar tufayli hind kastalari odamlarning boshqa sivilizatsiyalarda misli ko'rilmagan, yuzlab va hatto minglab izolyatsiya qilingan va yopiq endogamik korporatsiyalarga bo'linishiga olib keldi,

ularning har biri kasta tengsizligining ulkan ierarxik tizimida qat'iy belgilangan o'rinni egalladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'rnatilgan tizimdagi eng yuqori va eng hurmatli o'rinni brahman kastalari egallagan. Brahminizm o'zining barcha tuzumlari-maktablari oldida aynan shu kastalarning ta'limoti edi. Najot izlash bilan bog'liq bo'lgan barcha diniy va falsafiy inshootlar Brahman bilan qo'shib, braxmanlarning ko'p asrlik sa'y-harakatlari natijasi bo'lib, faqat ular uchun mo'ljallangan edi. Qolganlariga nima bo'ldi? Ularni dindan tashqarida qoldi, deyish mumkin emas. Aksincha, ular Brahman ruhoniylarining g'amxo'rlikiga duchor bo'ldilar, ular o'z nomidan va ularning iltimosiga binoan marosimlarni o'tkazdilar, xudolar va ruhlarni bilan muloqot qilishda yordam berishdi. Ammo ilohiy haqiqatlarni yuqori izlash va ular bilan bog'liq mavhum konstruktsiyalar tizimi va falsafiy va diniy aks ettirish braxman bo'lmagan kastalar uchun imkonsiz bo'lib qoldi. Brahmanlar braxman bo'lmaganlarni diniy va falsafiy mavhumlik va izlanishlarning chuqur sirlariga kirishni zarur deb bilishmagan. Hozircha bu tabiiy hol sifatida qabul qilindi. albatta: bu hayotiy masala bo'lgan brahman ruhoniylari bo'lmasa, ulug' haqiqatni idrok etish uchun chuqur diniy tafakkur va doimiy o'z-o'zini takomillashtirish bilan shug'ullanishi kerak emasmi?! Biroq, vaqt o'tishi bilan, ayniqsa qadimgi hind proto-davlatlarining ijtimoiy-siyosiy rivojlanish sur'atlarining tezlashishi bilan bog'liq holda, siyosiy nufuzli va mulkiy jihatdan badavlat davlatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq holda, bu davrda sezilarli darajada ajralib turdi. Hokimiyatga jalb qilingan boshqa barcha qatlamlar (asosan Varna va Kshatriya kastalari odamlari), vaziyat o'zgara boshladi. knyazlar, hukmdorlar, qo'llarida kuch va haqiqiy kuch bo'lgan harbiy rahbarlar, ma'muriy amaldorlar va ularga yaqin ijtimoiy qatlamlar o'zlarini borgan sari brahman ruhoniylari tomonidan chetlab o'tib, haqiqatni izlashdan chetda qolib ketishdi, an'anaga ko'ra, qadimgi <sup>224</sup> Hindistonda tanishish. ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar tizimining eng yuqori cho'qqisiga yetdi.<sup>225</sup>

Bu braxman bo'lmagan kastalar vakillarining borliq, koinot, hayot va o'limni falsafiy tushunish muammolariga tobora ko'proq qiziq boshlaganiga olib keldi, ayniqsa bu muammolar qayta tug'ilish, karma ta'limoti shaklida, va hokazo. Hindistonda juda mashhurdan kelganlar orasida braxmin bo'lmagan kastalar oriylarning avlodlari bilan bir qatorda Hindiston aholisining ko'p qismini irqiy va

<sup>224</sup> I.C.Гаттердже и Д.Дата "В.Ведение в и индийскую философию" 75-76



etnik-madaniy jihatdan mahalliy aholining avlodlariga yoki bunday mahaliy aholiga mansub bo'lganlar edi. Brahmanlar tomonidan ishlab chiqilgan asosiy tushunchalarni o'zlashtirib, braxman bo'lmagan kastalar vakillari ularga eng qadimgi oriy bo'lmagan diniy e'tiqod va g'oyalarga borib taqaladigan ko'plab narsalarni qo'shdilar. Shu bilan birga, yangi diniy tuzumlarining demokratik ruhi ochiq kastaga, aristokratik tarzda yopiq braxmanizmga qarshi edi.

Bu tizimlarning eng qadimgisi jayнизм edi. Ushbu ta'limotning shakllanishi milloddan avvalgi VI asrga to'g'ri keladi. Asoschisi Mahavira Jina nomi bilan bog'liq. Mahavira o'ttiz yoshida uyini tark etib, zohidlik yo'liga tushdi va bir necha yillardan so'ng haqiqatni bilib, "nurni ko'rdi", shundan so'ng o'z ta'limotini targ'ib qila boshladi.

Dastlab, Mahavira Jina izdoshlari buyuk maqsad - najot va ozodlik, moksha holatiga erishish uchun kiyimgacha bo'lgan hamma narsadan voz kechgan zohidlar edi. Keyinchalik Jayn jamoasining tarkibi asketlarga hamdard bo'lgan va ularni boqadigan oddiy odamlar, shuningdek, Mahavira Jina ta'limotining asoslarini saqlab qolgan va rivojlantirgan oddiy odamlarga rahbarlik qilgan ruhoniylar hisobiga ko'paygan. Jayn jamoasining barcha a'zolari - oddiy odamlar, ruhoniylar va zohidlar, erkaklar va ayollar - ta'limotning asosiy mohiyatini tashkil etuvchi ma'lum umumiy qonunlar va taqiqlar, xulq-atvor me'yorlariga teng ravishda bo'ysungan. Boshqa barcha qadimgi hind ta'limotlari singari, Jaynlar ta'limoti ham insonning ruhi, ruhi, albatta, uning moddiy qobig'idan yuqori ekanligidan kelib chiqqan. Mokshaga erishish - Jainlarning maqsadi - ruhni onalardan ozod qilishni anglatadi. Shu bilan birga, jaynlar ham karmani moddiy deb bilishadi va uni qolgan barcha qo'pol moddalar yopishtiruvchi asos sifatida qabul qilishadi. Ruhlarining karma bilan aloqalari murakkab, ammo har qanday holatda ham ular ruhlar uchun halokatli. Karmadan qutulish oson emas. U doimo odamni chalg'itadi, doimo unga qayta-qayta oqadi. Jainning birinchi vazifasi buni anglash va bu oqimni to'xtatish uchun qo'lidan kelganini qilishdir. Bunga erishish uchun sizga ustoz maslahatiga amal qilish kerak, zarur bilimlarni egallash va muayyan xatti-harakatlar normalarini ishlab chiqish. Karma oqimining to'xtatilishiga erishgandan so'ng, maqsadni amalga oshirishga boradigan Jainning ruhi asta-sekin charchoqni, keyin esa qolgan barcha karmalarning tushishini ta'minlaydi. Va faqat asrlar davomida bu to'plangan karma olib tashlanganidan so'ng, Jain mokshaga erishishga ishonishi mumkin.

Shunday qilib, ozodlikka intilayotgan har bir Jainning vazifasi (moksha) yopishqoq asos sifatida karmadan xalos bo'lishdan iborat bo'lib, u bilan birga unga yopishgan barcha qo'pol moddalar yo'q qilinadi, hayotning o'zgarishi bilan doimiy

mavjudlik aylanishiga moyil bo'ladi. o'lim, qayta tug'ilish, va hokazo lekin bu natijaga qanday erishish mumkin?<sup>226</sup>

Birinchidan, jaynizm odamga e'tiqod, e'tirof etilgan ta'limotning haqiqatiga ishonish kerak ekanligini o'rgatadi. Boshqa diniy tizimlar uchun bu umumiy talabdir. Jaynizmi shu ma'noda tolerant hind dinlariga xos bo'lmagan fanatik-sektaviy ta'limot turi deb atash mumkin.

Ikkinchidan, mukammal bilim zarur, unga ruh, karma, "ozod qilingan" tirtankarlar, o'tmish davrlari haqidagi ta'limotlari bilan ta'limotning mohiyatiga kirish orqali erishiladi.

Uchinchidan, solih hayot zarur. Jainlarning surati, hayoti. Jain triratnasining bu uchinchi va oxirgi qismi eng murakkab va qiyin. Darhaqiqat, ta'limotning har bir so'ziga aqidaparastlik bilan ishonish va hatto uni o'rganish ancha oson, umuman olganda, unchalik boy nazariya emas - va faqat va'da-cheklovlarga rioya qilgan holda, olingan bilimlarni amalda qo'llash ancha qiyinroq. (bu o'z-o'zidan Jainlar uchun oson emas), balki tanani jismoniy o'ldirish usullariga, ko'p jihatdan yogis usullari bilan umumiydir. Shunday qilib, triratnaning dastlabki ikki nuqtasiga - haqiqiy e'tiqod va haqiqiy bilimga tayangan holda, Jain jamoasi a'zolari, oddiy odamlar beshta asosiy qasamni oldilar: tiriklarga zarar bermang (ahimsa), o'g'irlik qilmang (astya), qiling. zino qilmaslik (brahmacharya), qo'lga kiritma (aparigrakha), nutqda samimiy va taqvodor bo'l (satya). Ushbu beshta asosiy qasamga qo'shimcha qasam va cheklovlar qo'shildi, bu esa hayotdan zavq va zavqlanishning qisqarishiga, hayot jadvalining og'irligiga olib keldi (laitlar har oyda bir kun astsetik rohiblar sifatida o'tkazishlari kerak edi) va hokazo. Bugungi kungacha, Jaynlar (hozirda ularning soni 2-3 millionni tashkil etadi, bu Hindiston aholisining yarmini tashkil etadi) qat'iy puritan hayot tarzi, o'z-o'zini tarbiyalash kabi doimiy mashqlar, davriy tafakkur mashg'ulotlari, o'zini o'zi nazorat qilish, qat'iy monogamiya bilan ajralib turadi. va ahimsa tamoyilini yanada qat'iy amalga oshirish: Jainlar jarohatlangan hayvonlarga g'amxo'rlik qiladi, o'simliklarga zarar bermaslikka harakat qiladi, qaynatilmagan suv, sharob ichmaydi, qattiq vegetarianlardir. Jayn jamiyati doirasida ichki endogamiya ustunlik qiladi va qizlar juda erta, balog'atga etganidan so'ng darhol turmushga chiqariladi, chunki urug'lantirmaslik ahimsa printsiptini buzish bilan tenglashtiriladi.

Jaynlar orasida dehqonlar deyarli yo'q va bu tabiiydir: qadim zamonlardan beri dehqon mehnati ahimsa tamoyiliga qat'iy rioya qilish bilan mos kelmaydi, deb

<sup>2</sup> 1.С.Гаттердже и Д.Дата "В.Ведение в и индийскую философию" 85-86

hisoblangan (hatto shudgor yoki tirma bilan yomg'ir qurtiga zarar etkazish gunohdir). Shuning uchun qadim zamonlardan beri jaynlar shaharlarga joylashib, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Zamonaviy Hindistonda kichik Jain jamoasi katta kapitalga ega bo'lgan va mamlakat hayotida muhim siyosiy rol o'ynagan nomutanosib ravishda ta'sirchan mavqega ega bo'lishi ajablanarli emas. Jayn jamiyati doirasida har doim aniq ichki bo'linish mavjud edi. Jaynlar orasida kastalar mavjud bo'lishda davom etdi, ammo hindular tizimidagi kabi ahamiyatga ega emas edi. Xususan, tabaqalararo nikohlar taqiqlanmagan, oziq-ovqat taqiqlari, aloqalarni cheklash va hokazolar mavjud emas edi. Hozirgi vaqtda jaynlar kichik guruhlarda yashaydilar, ularga odatda ta'limot bo'yicha eng obro'li mutaxassislar, ochariya ruhoniylari boshchilik qiladilar. Ruhoniy urug'lar vakillari oddiy oddiy jaynlar orasida nafaqat hokimiyat, hokimiyat, bilim, matnlarga aloqadorligi bilan,<sup>227</sup> balki marosimlar va taqiqlarni yanada qat'iyroq bajarish, idealga, maqsadga, ya'ni mokshaga ko'proq yaqinlashishi bilan ajralib turadi.

Jaynlar orasida alohida qatlam oddiy hayotni butunlay buzadigan va shu tariqa, jaynlarning qolgan qismidan ustun bo'lib, ularning barchasi uchun standart va yo'l boshchi bo'lgan astsetik rohiblardir. Har qanday Jain zohid rohiblarga borishi mumkin, lekin har doim ham qiyin bo'lgan bu yo'lga hamma ham dosh berolmaydi, ayniqsa ayollar uchun (ularning soni doimo ahamiyatsiz bo'lgan, lekin ayol rohibalar ham bo'lgan). Dastlab, astsetik rohiblar nomzodi uch yil davomida yangi boshlovchi bo'lib qolishi, o'z zimmasiga olgan turli va'dalarini bajarishi va hamma narsada guru ustozini tinglashi kerak. Ushbu bosqichda astsetik rohiblar uchun nomzod o'z niyatidan voz kechish va dunyoviy hayotga qaytish huquqiga ega. Keyin keyingi bosqich keladi - ta'limotni, Jain matnlarini, birinchi navbatda, Kalpasutrani chuqur o'rganish, u 24 tirtankaraning solih hayotini tasvirlaydi va astsetik xatti-harakatlarning asoslarini belgilaydi. Ushbu bosqichni tugatgandan va maxsus marosimdan o'tib, yangi va juda qattiq va'dalarni qabul qilgandan so'ng, yangi boshlovchi nihoyat Jain rohiblari safiga qabul qilingan deb hisoblanadi. Orqaga yo'l yo'q. Jain zohidlari har doim sarson-sargardonlar hayotini boshqargan - uysiz, mulksiz, yomg'irli mavsumdan tashqari, 3-4 haftadan ko'proq vaqt davomida bir joyda qolish huquqisiz. Astsetik kam uxlaydi, u soat to'rt dan beri oyoqqa turdi. U har qanday kichik hayvonni tasodifan ezib tashlamaslik uchun doimo ehtiyot bo'ladi. Astsetik oziq-ovqat bilan cheklangan - u kuniga ikki martadan ko'p bo'lmagan holda asta-sekin ovqatlanadi. Astsetik uzoq soatlar va kunlarni taqvodor tafakkur, diqqatni jamlash va tafakkur bilan o'tkazadi, shu bilan haqiqatni bilishga yaqinroq bo'lishga

<sup>3</sup>.Канаева Н.А. Индийская философия древности и сред-невековья

intiladi va buning uchun mukofot sifatida karmadan xalos bo'lishni boshlaydi. Turli mazhablarning astsetik rohiblari 16 dan 53 gacha bilim va najot, moksha, shu jumladan o'limga bo'lgan yondashuvga ega. Zohid sadaqa bilan yashaydi - va u har kuni uni yig'ishi kerak, ertaga ovqat qoldirish taqiqlanadi. Rag'batlantiriladi, vaqti-vaqti bilan xabarlar, ba'zan etarlicha uzoq. Jain rohiblari orasida asketizmning ekstremal shakllaridan biri, tapas - bu ovqatdan bosh tortish, ochlik. Tapasning Jain shakllari eng murakkab hisoblanadi. Bularga uzoq yillar davomida mutlaq sukunat, sovuqda yoki quyoshda bo'lish, ko'p yillar davomida oyoqqa turish (tapasya o'zini daraxt shoxlariga bog'laydi va o'tirmasdan yoki yotmay, deyarli yillar davomida turadi). Ammo murakkab tapasning bu juda ta'sirli umumiy fonida ham, Jain rohiblari orasida Digambara astsetlarining maxsus guruhi ajralib turadi. Jayn jamoasining Shvetambarlar va Digambarlarga bo'linishi Pataliputradagi IV yoki III asrlarda bo'lib o'tgan Butun jayn kengashida sodir bo'lgan. Miloddan avvalgi 2 asrda. Ushbu kengashda Mahavira Jinaning shu paytgacha faqat og'zaki ravishda tarqalgan ta'limoti yozma ravishda kanonizatsiya qilindi. Biroq, jaynlarning hammasi ham bu kanonik matni qabul qilmagan. Uni taniganlar Shvetambaras deb atala boshlandi, tan olishdan bosh tortgan va Jina davridagi astsetlarning xatti-harakatlarining asl qat'iyligiga sodiq qolganlar Digambaras ("havo bilan kiyingan", ya'ni yalang'och) nomini oldilar. Bu barcha Digambaralar (asketlar va ularni qo'llab-quvvatlagan oddiy odamlar) kiyim kiyishdan bosh tortgan degani emas. Bu boshqa narsani anglatadi: asketlar-Digambaralar muhitida g'ayrat va tejamkorlik haddan tashqari chegaraga olib kelingan va Jinaning amrlariga amal qilish, agar iloji bo'lsa, mutlaqlashtirildi.

Shvetambaralardan farqli o'laroq, Digambaralar ayol rohibalarni tanimasdi - va buning sababi bor edi, chunki Digambaralar qo'llagan tejamkorlik darajasi ayollarning kuchidan tashqarida edi. Bunday yuqori tabaqadagi zohidlar sadaqa so'ramaydilar - ular la'natlarning o'zlari qo'rquv bilan berishlarini kutishadi. Digambara astsetiklari hamma narsani qat'iyan rad etadilar (shuning uchun ular yalang'och yurishadi) - hech narsa ularni moddiy dunyo bilan bog'lamasligi kerak, ehtimol minimal oziq-ovqat va ichimlik miqdoridan tashqari. Aynan Digambaralar ahimsa tamoyiliga qat'iy rioya qiladilar: hatto harakatlanayotganda ham, mayda hasharotlarni tasodifan ezib tashlamaslik uchun ular oldlarida erni fanat bilan supuradilar.

Jaynlarning diniy ta'limoti, asosan, hamma uchun ochiq edi, bu esa uni ezoterik braxmanizmdan (faqat elita uchun, birinchi navbatda tug'ilish bo'yicha braxmanlar uchun) yaxshi ajratib turdi. Biroq, u hech qachon keng mashhurlikka erisha olmadi - o'zining namoyon bo'lishida bunday ekstremal, puritan jihatdan qat'iy, o'z

tamoyillariga sodiqlik bilan fanatik, ta'limot shunchaki bunga ishonolmaydi. Ammo, oz sonli bo'lishiga qaramay, jaynizm izdoshlari Hindiston tarixi va madaniyatida muhim rol o'ynagan. Go'shtini charchagan yoki mutlaqo yalang'och ko'rinadigan astset-tapasya qiyofasi ajralmas va hatto ma'lum darajada. mamlakat diniy hayotining tipik qismi. Ammo nafaqat rohiblarning asketizmi va oddiy jaynlarning puritanik hayot sharoitlari hindlarning qolgan qismiga ta'sir qildi. Jaynlar shahri har doim mamlakat madaniy elitasining taniqli qismi bo'lib kelgan. Jain ibodatxonalari hashamatli bezaklari va ta'sirchan arxitekturasi bilan o'ziga jalb qiladi. Jaynlarning sa'y-harakatlari bilan o'rta asrlarda Hindistonda turli fan va san'at, jumladan, rasm va adabiyot katta darajada rivojlandi. Ulug' maqsad yo'lida barcha moddiy narsalardan voz kechish zarurligiga o'rganib qolgan ko'plab jaynlar, jumladan, boylar ham xayr-ehson qilishni o'zlarining diniy burchi deb bilishgan.

Jaynizm din sifatida o'zining ko'p jihatlari bilan asrlar davomida hindlarning asosiy dini bo'lgan hinduizmga qarshi bo'lib kelgan. Biroq, shunga qaramay, Hindistonda ko'plab kastalardan biri sifatida qabul qilingan qat'iy uyushgan, ichki tartib-intizomli Jain jamoasi bugungi kungacha saqlanib qolgan. Brahmanizmga mafkuraviy qarama-qarshilik sifatida Jaynizm bilan bir vaqtda paydo bo'lgan boshqa muxolif dinning taqdiri bu ma'noda biroz boshqacha taqdirga to'g'ri keldi. Gap buddizm – jahon diniga aylangan, biroq o'z vatani Hindistonda taxminan ming yil avval o'z mavqeini deyarli butunlay yo'qotgan din haqida bormoqda. Buddizm Sharqning buyuk dini hisoblanadi. Uni jaynizm bilan tenglashtirish ham qonuniy emas, lekin taqdimot mantig'i buni rag'batlantiradi, ayniqsa buddizm faqat Hindiston tarixidagi ushbu dinning rolini baholash nuqtai nazaridan muhokama qilinayotganligi sababli. Buddizm diniy ta'limot sifatida dastlab jaynizmga yaqin edi. Ikkala ta'limotning paydo bo'lishining sabablari va shartlari, shuningdek, Hindistonning shimoli-sharqida bir vaqtning o'zida yashagan va Kshatriya varnasiga mansub bo'lgan asoschilarining tarjimai hollari o'xshashdir. Dinlarning umumiy yo'nalishida sezilarli o'xshashlik mavjud, ular Vedalar va dinlarning hokimiyatini namoyishkorona rad etishda. brahminlar, Vedik xudolaridan, ahimsa tamoyiliga urg'u berib, monastir turmush tarziga sig'inishga urg'u berib, ixtiyoriy ravishda qasamyod qilganlar.<sup>228</sup>

## **XULOSA**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ikkala tizim o'rtasida ham juda ko'p farqlar mavjud. Ulardan eng muhimi, odatda, ma'lum bir dinga xos va xos bo'lgan,

<sup>5</sup> 4. В. И. Рудой "Философско-этические концепции востока"

ya'ni uni boshqa barcha dinlardan ajratib turadigan ta'limot va marosimlar sohasidadir. Buddizm har doim astsetik tapasga sig'inishdan uzoq bo'lgan. Buddizmning eng muhim xususiyati uning aniq tarkibiy bo'shligi bo'lib, uni jaynlarning kichik jamoasining qattiq ichki tashkilotidan ajratib turadi. Agar jaynizm dastlab hamma uchun ochiq bo'lgan, tashkil topganidan so'ng ko'p o'tmay bu g'oyaga aqidaparastlik bilan sodiq mazhabchilarning deyarli yopiq korporatsiyasiga aylandi, keyin esa buddizm o'z muxlislari doirasini cheklamaydigan mutlaqo bag'rikeng dinning noyob namunalaridan biri bo'lib qoladi. deyarli chegaralar yo'q. Ko'rinishidan, bu farq Hindistondagi ikkala ta'limotning taqdirini ma'lum darajada oldindan belgilab qo'ygan: qat'iy tashkil etilgan yopiq Jain jamoasi o'z tamoyillari va tuzilishini saqlab qolgan, ammor buddizm esa hinduizm tomonidan siqib chiqarilgan holda, bir qator mamlakatlarda osongina yangi vatan topdi. Janubi-Sharqiy va Markaziy Osiyo, Uzoq Sharq bunga misol bo'la oladi.

#### REFERENCES

1. С.Гаттердже и Д.Дата "В.Ведение в и индийскую философию"
2. D. Po'latova, M.Qodirov, M. Ahmedova "Falsafa tarixi (Sharq falsafasi)" o'quv qo'llanma – T.: TDSHI 2013;
3. Канаева Н.А. Индийская философия древности и сред-невековья
4. В. И. Рудой "Философско-этические концепции востока"
5. Bharati, P., & Story, O. S. Sherdor Pulatov Nemat j onovich.
6. Po'Latov, S. N. M. (2020). Hindistonda pedagogik ta'limining rivojlanish bosqichlari. *Science and Education*, 1(Special Issue 1), 21-26.
7. Po'Latov, S. N. M. (2020). Rabindranat tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan hissasi. *Science and Education*, 1(Special Issue 1), 136-143.
8. Polatov, S. N. (2020). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA HINDISTONDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIY VAZIYAT. *Academic research in educational sciences*, (4), 468-474.
9. Po'Latov, S. N. M. (2021). MAHATMA GANDI FALSAFIY QARASHLARIDA "MUTLOQ G 'OYA" TUSHUNCHASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 1134-1143.
10. Akhmedov, B. A. (2020). KARAKUL BREEDING DURING THE BUKHARA EMIRATES. In *НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ* (pp. 160-162).
11. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) internet sayti.

## **KOMPYUTER DASTURLARI VA MA'LUMOTLAR BAZASIGA NISBATAN MUTLAQ HUQUQLARNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK**

**Abduvoxidov Akmaljon Axadjon o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

e-mail: [akmaliddinrishton@gmail.com](mailto:akmaliddinrishton@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazasiga nisbatan mutlaq huquqlarni buzganlik uchun javobgarlik masalalari o'rganilgan. Unda kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazasiga nisbatan mutlaq huquqlar, ularni himoya qilish, xorijiy mamlakatlar tajribasi masalalari tahlil qilingan. Xulosada qonunchilikka o'zgartish kiritishni taklif qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *kompyuter dasturi, ma'lumotlar bazasi, mutlaq huquqlar, kontrafakt, huquqni himoya qilish, intellektual mulk huquqini buzganlik uchun javobgarlik.*

## **ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА НАРУШЕНИЕ ИСКЛЮЧИТЕЛЬНЫХ ПРАВ В ОТНОШЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫХ ПРОГРАММ И БАЗЫ ДАНЫХ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается ответственность за нарушение исключительных прав в отношении компьютерных программ и базы данных. Анализируются исключительные права в отношении компьютерных программ и базы данных, защита исключительных прав, опыт зарубежных стран. В заключении предлагается внести изменение в законодательство.*

**Ключевые слова:** *компьютерная программа, базы данных, исключительное право, контрафакт, защита прав, ответственность за нарушение права интеллектуальной собственности.*

## **RESPONSIBILITY FOR INFRINGEMENT OF EXCLUSIVE RIGHTS IN RELATION TO COMPUTER PROGRAMS AND DATABASES**

### **ABSTRACT**

*The article deals with liability for violation of exclusive rights in relation to computer programs and databases. Exclusive rights in relation to computer*

*programs and databases, protection of exclusive rights, experience of foreign countries are analyzed. In conclusion, it is proposed to amend the legislation.*

**Keywords:** *computer software, databases, counterfeit, the exclusive right, protection of rights, the responsibility for violation of intellectual property rights.*

## **KIRISH**

XXI asr kompyuter texnologiyalarini ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida keng qo'llanilishi taqazo etdi. Bunda kompyuter texnologiyalari insonlar oldida turgan ko'plab muammolarni tez va samarali hal qilishga, inson mehnati unumdorligini oshirishga, asosiysi inson huquq va manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga xizmat qilmog'i zarur.

Biroq, bu borada hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolar tobora ko'payib bormoqda. Ayniqsa, turli davlat idoralariga murojaat qilish va ulardan turli maqsadlarda ma'lumotlar olish jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Ana shunday, bir qarashda arzimasi bo'lib tuyuladigan ishlar uchun odamlarning qancha vaqti, asabi ketadi. Shularning hammasini bir joyda, markazlashtirgan holda, tezlik bilan hal qilsa bo'ladi-ku! Aslida XXI asrda – Internet va axborot kommunikatsiyalari davrida bu ishlarning barchasini uydan chiqmasdan turib, kompyuter yoki uyali telefon orqali bajarish imkoni bor-ku![1]– deb ta'kidlaydi.

Haqiqatan ham bir qarashda arzimasi tuyulgan masala muayyan vaqt va mablag'ni talab qiladi. Kompyuter texnologiyalaridan unumli va samarali foydalanish muayyan kompyuter dasturlari (dasturiy mahsulotlar) vositasida amalga oshiriladi. Bu o'rinda avvalo, kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalarini yaratish, ularni fuqarolik muomalasiga kiritish, huquq egalarining huquqlarining vujudga kelishi, uni amalga oshirish, tasarruf etish shu jumladan himoya qilish va fuqarolik-huquqiy javobgarlik bilan bog'liq masalalar alohida o'rin egallaydi.

Mavjud holat shuni ko'rsatadiki, kontrafakt mahsulot aylanmasiga qarshi kurash bo'yicha intellektual mulk ob'ektlaridan noqonuniy foydalanishning oldini olishda vakolatli davlat organlari alohida o'rin egallaydi. Bu o'rinda Intellektual mulk agentligi 2017 yilda joylarda intellektual mulk sohasidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishi bo'yicha 39ta monitoring o'tkazgan. Monitoring jarayonida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bilan bog'liq 654 ta qonunbuzilish holatlari aniqlandi. Aniqlangan qonunbuzilish holatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar qonuniy choralar ko'rilishi uchun tegishli davlat organlariga yuborilgan. Bunda 20919 (shundan 19127



kontrafakt)ta audiovizual mahsulotlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlar bo'yicha 68 ta mualliflik-huquqiy xulosalari berilgan.

Yuqoridagi holat kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazasiga nisbatan mutlaq huquqlarni buzish bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur huquqbuzarlik asosan mualliflik huquqini buzilishi, kontrafakt nusxalarni noqonuniy ravishda fuqarolik muomalasiga kiritish bilan bog'liq. Mazkur ko'rsatkich huquqbuzarlikning bir muncha kamligini ko'rsatadi. Biroq, bunday huquqbuzarlik ayrim hollarda latent holda qolib ketadi. Ayniqsa, dasturiy mahsulotlardan noqonuniy ravishda foydalanish faktini aniqlash birmuncha murakkab kechadi. Bunda avvalo huquq egasining faolligi, huquqbuzarliklarga qarshi kurashuvchi organlar, nodavlat notijorat tashkilotlarining harakatlari uyg'unlashuvini taqazo qiladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Yuridik adabiyotlarda ko'rsatilishcha, mutlaq huquqlar deyilganda, bunday huquqlar sohiblari (egalari)ni turli harakatlar sodir etish (ijodiy faoliyat mahsulidan foydalanish, uni tasarruf etish va sh.k.) bo'yicha haqdorligi, vakolatligini va ayni vaqtning o'zida boshqa har qanday shaxslarga bunday yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni sodir etishning ta'qiqlanishini ta'minlovchi sub'ektiv mutlaq huquq tushuniladi[2, B.314]. Ta'kidlash lozimki, Fuqarolik kodeksida intellektual mulk ob'ektlariga nisbatan qo'llanilgan "mutlaq huquq" iborasini "*exclusive right*" (isklyuchitelnoe pravo) bilan ayniy va bir xil ma'noda tushunish lozim. Mulk huquqi bilan bog'liq qoidalarda esa «absolyut» huquq haqida so'z boradi.

Mutlaq huquqlar huquqiy mexanizmi odatdagidek egallab turishi mumkin bo'lmagan, bir vaqtning o'zida nomuayyan doiradagi shaxslar foydalana olishi mumkin bo'lgan ob'ektlarga nisbatan huquq sohibi mulkiy huquqlarining amalga oshirilishini ta'minlovchi muhim vositadir, biroq mulk huquqi va mutlaq huquqlar aslo ayniy tushunchalar emas[3,B.18].

K.I.Ryabovning fikricha, kompyuter dasturidan uning vazifasiga muvofiq foydalanishga doir harakatlarni amalga oshirish vakolati, ya'ni uni muayyan vazifani bajarish uchun ishga tushirish, dasturning foydali xususiyatini olish, funksional vazifasiga muvofiq foydalanish kompyuter dasturidan foydalanish bo'yicha mutlaq huquqlar mazmuniga kiradi va ushbu vakolatni asardan foydalanish usullari sifatida ko'rsatish lozim deb hisoblaydi[4, B.8]. Bu o'rinda shunga e'tibor qaratish lozimki, kompyuter dasturidan boshqa shaxslarning foydalanishiga ruxsat berish unga nisbatan mutlaq huquq sohibining vakolatiga kiradi. Ob'ektdan foydalanishga ruxsat berishda mutlaq huquq shu huquq sohibining o'zida qoladi, undan

begonalashtirilmaydi, bunda uchinchi shaxslarda ob'ektdan foydalanish huquqigina vujudga keladi. Foydalanish shartlari va tartibi taraflar o'rtasidagi kompyuter dasturidan foydalanish bo'yicha litsenziya shartnomasi asosida belgilanadi.

V.Azizyan va N.Juravlenkolarning fikricha, dasturiy ta'minotdan noqonuniy foydalanish orqali mualliflik huquqini buzilishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- kompyuter texnikasiga noqonuniy ravishda o'rnatilgan dasturiy ta'minot bilan birga sotish;

- mualliflik huquqi egasining roziligisiz dasturiy ta'minotni axborot eltuvchisida ishlab chiqarish va tarqatish;

- telekommunikatsiya tarmoqlari orqali (Internet, elektron pochta va h.k.) dasturiy ta'minotni noqonuniy ravishda tarqatish;

- foydalanuvchining dasturiy ta'minotdan noqonuniy foydalanishi [5, B.48].

Bu o'rinda mualliflar faqatgina dasturiy ta'minot buzilishi mumkin bo'lgan holatlargagina e'tibor qaratishgan. Vaholanki, dasturiy ta'minotga nisbatan sodir etiladigan huquqbuzarlik holatlari turlicha va keng doirada mavjud bo'lishi mumkin. Shu boisdan huquqbuzarlikni sodir etilish yo'llari emas, balki uning sabablari, qaysi huquqlarga dahl qilinishi, huquqbuzarliklar profilaktikasi va uni oldini olish, u yuzasidan fuqarolik-huquqiy javobgarlik asoslarini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

B.Axmadjonovning fikricha, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquq va turdosh huquqlar to'g'risida" gi Qonunining 63-moddasiga huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish, kontrakt nusxalarni musodara qilish, huquq egasining haqiqiy egasi haqida ma'lumotlarni e'lon qilish haqidagi talablarni kiritish lozim[6, B.20].

Biroq, taklif qilinayotgan normalar ushbu qonunlarda mavjud. Masalan, ushbu qonunning 66-moddasida asarlarning va turdosh huquqlar ob'ektlarining kontrafakt nusxalari, shuningdek ularni tayyorlash va takrorlashda foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalar hamda sodir etilgan huquqbuzarlikning boshqa vositalari qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida musodara qilinadi deb belgilangan. Haqiqiy huquq egasi haqidagi ma'lumotlar esa mualliflik huquqini tan olish va fuqarolik shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilish bilan bir xildir. Bu o'rinda intellektual mulk ob'ektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilishda "Anton Piller ordeni", "Marevaning sud ta'qiqi", "Norvich Farmakl vositasi" kabi usullarni implementatsiya qilishga doir g'oyalarni qo'llashni nazarda tutish mumkin.

Bu o'rinda huquqiy tizimlar o'rtasidagi o'ziga xoslik hamda intellektual mulk ob'ektlarining xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim. Intellektual mulkni himoya qilish mexanizmi, ularni tijorat muomalasiga kiritish u yoki bu huquqiy himoya choralarini implementatsiya qilishga doir qoidalarga nisbatan alohida e'tiborni, zehni talab qiladi. Agar buzilgan huquqlarni himoya qilishda Anton Piller Orderi qo'llanishi mumkin bo'lsa, huquqlarni buzilish holatini isbotlash imkoniyati mavjud bo'ladi va huquqbuzar ishni hamda nizoni hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan dalillarni yo'q qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida yozma dalillarga doir qoidani belgilab qo'yish maqsadga muvofiq.

Masalan, Angliya huquq tizimida Anton Piller Ordeni (*Anton Piller order*) mavjud bo'lib, oldindan ogohlantirmagan holda dalillarni olib qo'yishga huquq beradi va kompyuter dasturi egalari huquqlari buzilganda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu holat shu jumladan mualliflik yoki patent huquqlari buzilgan hollarda tegishli dalillarni yo'q bo'lib ketishini oldini olishga xizmat qiladi. Ushbu tartib 1975 yilda *Anton Piller KG v Manufacturing Processes Limited* o'rtasidagi nizo yuzasidan nomlangan bo'lib, unda tijorat sirlari o'g'irlanganligi yuzasidan sud jarayoni bo'lib o'tgan. Ushbu usulni umumiy ravishda qo'llash 1997 yilda umumiy fuqarolik sudlari to'g'risidagi qonunni qabul qilinishi munosabati bilan ma'lum darajada siqib chiqarilgan.

Anton Piller Orderining asosiy ustunligi shundaki, ushbu sud buyrug'i javobgarga murojaat qilmagan holda sud tomonidan berilishi mumkin. Umumiy qoidaga ko'ra sud buyrug'i taraflar tomonidan boshlangan sud jarayoni davomida beriladi. Bu holat ikkinchi tarafga oldindan da'vogar tomonidan sud orqali sud buyrug'ini olish istagi borligini ma'lum qilib qo'yadi. Bu holat da'vogarning zarur dalillarni topishga doir barcha hatti-harakatlarini, urinishlarini yo'qqa chiqaradi. Chunki javobgarda dalillarni yo'q qilish uchun vaqt bema'lol yetarli bo'ladi [7, B.126].

Rossiya Federatsiyasining Grajdanklik kodeksiga 2013 yil 5 iyulda o'zgartirish kiritildi. Ushbu o'zgartirishlar fuqarolik huquqi ob'ektlari, nomoddiy ne'matlar, sha'n, qadr-qimmat va ishlanchalik obro'sini (RF GK 152-moddasi)ga doir bo'ldi [8]. Mazkur normalar bevosita fuqarolarning shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilishni nisbatan to'laqonli va samarali bo'lishiga imkon beradi. Zero, bugungi kunda shaxsiy nomulkiy huquqlarni, shaxsiy mahfiy ma'lumotlarni huquqiy himoya qilish juda dolzarb muammolardan hisoblanadi [9, B.43-46].

Kompyuter dasturiga nisbatan mualliflik huquqi, mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar buzilishi haqida foydalanuvchilar yoki raqobatchilar bevosita Internet

tarmog'i (masalan, Internet hamjamiyati ishtirokchilari, klublari) orqali ma'lumotga ega bo'lishadi. Bu o'rinda mavjud noto'g'ri, noqonuniy ma'lumotlar tarqatilganligi borasida raddiya berish ham xuddi shunday shaklda amalga oshirilishi lozim. Garchi qonun hujjatlariga ko'ra elektron ommaviy axborot vositalari ham mavjud bo'lsada, Internet tarmog'idagi resurslar, foydalanuvchilar va boshqa shaxslar har doim ham ushbu maqomga ega bo'lavermaydi.

### **XULOSA**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasiga oltinchi xatboshi sifatida quyidagi normani kiritish maqsadga muvofiq:

"Agar kompyuter dasturiga nisbatan mualliflik huquqini buzuvchi ma'lumotlar u tarqatilgandan so'ng Internet tarmog'ida mavjud bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs tegishli ma'lumotlarni Internet tarmog'idan yo'q qilishni, shuningdek Internet foydalanuvchilar e'tiboriga yetishini ta'minlaydigan darajada ma'lumotlarning noto'g'riligi haqida raddiya berishni talab qilishga haqli".

### **REFERENCES**

1. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. //Халқ сўзи. 2017 йил 8 декабрь.
2. Гражданское право. Учебник. –М.: БЕК, 1994, Т.1, 314-бет.
3. Окюлов О. Интеллектуал мулк ҳуқуқи: умумий қоидалар ва алоҳида объектлар. –Т.: 2003 й. 18-бет.
4. Рябов К.И. Исключительное право на программу для ЭВМ и распоряжение им. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. –Санкт Петербург: 2011. -21с.
5. Азизян В.Г., Журавленко Н.И. Защита прав авторов компьютерных программ и изготовителей баз данных в судебном порядке. // Евразийская адвокатура. 2014, Выпуск№ 1 (8). -48 б.
6. Ахмаджонов Б.У. Фуқаролик ҳуқуқида мутлақ ҳуқуқлар мазмуни ва уларни амалга ошириш муаммолари. Юридик фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т.: ТДЮИ, 2011. 20-бет.

- 
7. Романов А.К. Правовая система Англии. –Москва: Дело, 2000. -126 б.
  8. Федеральный закон от 2 июля 2013 г. N 142-ФЗ “О внесении изменений в подраздел 3 раздела I части первой Гражданского кодекса Российской Федерации”. //Российская газета - Федеральный выпуск №6121 (145). 5 июля 2013 г.
  9. Палуаниязов Х. Некоторые виды договоров регулирующих использования личной конфиденциальной информации. –Т.: Обзор законодательства Узбекистана. 2016. №3, -43-46 с.

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALQ TA’LIMI: MUAMMO VA YECHIMLAR**

**Erbo‘tayeva O‘g‘iloy Suyunovna**

Guliston davlat universiteti tarix kafedrasida dotsenti

**Norbo‘tayev Navruz Erkin o‘g‘li**

Guliston davlat universiteti 2-bosqich magistranti

norbutayevnavruz12345@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada muallif zamonaviy maktab ta’limi muammolarini eslatib o‘tadi va ularni hal qilish yo‘llarini ko‘rsatadi, yoshlarni o‘quv jarayoniga jalb qilishda innovatsion yondashuvni ko‘rsatib o‘tadi, shuningdek chet elda ta’lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalarni o‘rnatishni taklif qiladi, yoshlarni uchinchi uyg‘onish davriga olib boruvchi yo‘l ta’lim-tarbiya ekanligini yoritadi.*

**Kalit so‘zlar:** talim, tadqiqot, renesans, bosqich, jurnal, muammo, zamonaviy, poydevor, matbuot, xalqaro, amaliyot, tahlil.

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье автор упоминает проблемы современного школьного образования и показывает пути их решения, предлагает инновационный подход к вовлечению молодежи в образовательный процесс, а также предлагает наладить контакты с развитыми странами в области образования за рубежом. путь, ведущий молодых людей к третьему периоду пробуждения, показывает, что образование есть образование.*

**Ключевые слова:** наука, исследование, Ренессанс, этап, журнал, проблема, современности, фундамент, пресса, международная, практика, анализ.

### **ABSTRACT**

*In the article, the author mentions the problems of Modern School Education and shows the ways to solve them, proposes an innovative approach to the involvement of young people in the educational process, and also offers to establish contacts with developed countries in the field of education abroad. the path leading young people to the third period of awakening illuminates that education is education.*

**Keywords:** training, research, renaissance, stage, magazine, problem, modern, foundation, Press, International, practice, analysis.

*Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot,  
yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir.*

**Abdulla Avloniy**

## **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalarni rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilab olindi. Madaniy-ma‘rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ta‘lim sohaslarini zamon talablariga mos darajaga ko‘tarish hayotiy zaruratga aylandi. Bu esa zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlash va o‘quv dargohlarini davr talabiga mos ravishda jihozlashni birinchi darajali vazifalardan biriga aylantirdi.

Ammo globallashuv davrida jahonda ilm-fan, texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotganini aslo ko‘zdan qochirib bo‘lmaydi. Bu esa o‘z navbatida ta‘lim, ilm-fan oldiga yangi talablarni ko‘ndalang qo‘ymoqda. Ta‘lim tizimini muntazam isloh etish, o‘qitishning zamonaviy usul va vositalarini takomillashtirish, ta‘lim mazmunini boyitib borish, demak, bugungi kunning ham dolzarb talabi bo‘lib qolaveradi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.01.2021 yildagi PQ-4963-sonli qarorida, xalq ta‘limi xodimlarining malakasini oshirish, har bir xalq ta‘limi xodimining elektron portfoliosini shakllantirish, xalq ta‘limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo‘yicha o‘qitish amaliyotini yo‘lga qo‘yish tizimlari to‘g‘risida aniq ko‘rsatmalar mavjud.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali xisoblangan “Xalq ta‘limi” jurnalining har bir sonida talim muassasalaridagi islohotlar, yutuq va kamchiliklar, bosqichma-bosqich rivojlantirib borish omillari to‘g‘risida ma‘lumotlar berib boriladi. 2020-yil 28-29-aprelda “ta‘lim sifati samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, vaqtli matbuot materiallari mavzuni o‘rganishda manba xisoblanadi.

Mavzuni tadqiq etish jarayonida qiyoslash, tizimli tahlil, tavsifiylik, tarixiylik, tarixiy-qiyosiy tahlil usullari qo‘llanilgan. Izlanish muammolarini hal qilish jarayonida tarixiy adabiyaotlar va maqolalarda yoritilgan ma‘lumotlarning natijalari, mutaxasislarning chet el davlatlaridan almashinilgan bilimlari, olimlar tomonidan chop etilgan materiallar asos bo‘lib xizmat qiladi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

1997-yil 27-avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida “Ta’lim to’g’risida” qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilindi[1:402]. Milliy dasturning maqsadi ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni sovet davridan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to’la xoli qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdan iborat bo’lgan. Milliy dasturda ta’lim islohotlarini uch bosqichda amalga oshirish nazarda tutilgan.

Birinchi bosqich (1997-2001-yillar)da mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish vazifalari ro’yobga chiqarildi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005-yillar)da milliy dastur to’liq ro’yobga chiqarildi, mehnat bozorining rivojlanishi va mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda dasturga aniqliklar kiritildi.

Uchinchi bosqinch (2005 va undan keying yillar)da to’plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirib borilmoqda.

Mehnat bozorini shakllantirish bosqichida mutaxassislarning yetuklik ahamiyati ortib boradi. Bunda mutaxassislar faoliyatining yo’nalishini kengaytirish zarurati yuzaga keladi. Axborot integratsiyalashgan bilimlar hajmidan eng ahamiyatlisini tanlash muhim bo’lib, bitiruvchilar undan turli kasbiy vaziyatlarda samarali foydalana olishlari uchun ularning faoliyatlariga oid bilimlar va usullar tizimi, shaxsni har tomonlama shakllantirish akmeologik yondashuv orqali amalga oshirilishi mumkin[2:55].

Hujjatlarda qayd etilishicha, xalq ta’limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o’sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko’tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, bugungi kunda o’sib kelayotgan yosh avlod Yangi O’zbekistonning kelajagi poydevori ekanligini yaxshi anglagan xolda ta’limni aynan xalq ta’limini tubdan islox qilish asosiy vazifa bo’lib qoladi. shuningdek, o’quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakllari va usullarini qo’llashga ko’maklashadi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish xalq ta’limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, davlat umumiy o’rta ta’lim muassasalarining faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini



yaxshilash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjudligi aniq xaqiqatdir[3:451].

Ma'lumki bu borada amalga oshirilayotgan isloxlarga qaramay yurtimizda ta'limni ortga tortayotgan masalalar ham mavjud. Bunda ta'lim muassasalari rahbarlarini tanlash va ularni o'z vazifalariga qo'yish, maktablarda faoliyat yuritayotgan rahbarlarning vazifalarini taqsimlanishi, xalq ta'limi bo'limlari va maktablarda hamkorlikning susayishi, maktablarni tekshirish orqali o'qituvchi va boshqa xodimlarning ish vazifalariga asosiz aralashuvlarning ko'pligi, o'qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirish masalalarida umumta'lim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasining yetarli darajada emasligi, xalq ta'limi tizimi muassasalarini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash mexanizmining mukammal emasligi<sup>229</sup>, soxaning rivojlanish yo'lini to'sayotgan asosiy to'siqlar xisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi ushbu dolzarb muammoni yechimini esa nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimni va saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek: "Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir!

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak, deb mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojotnomasida bayon qilingan va aniq belgilangan. Ushbu dolzarb vazifalarni O'zbekiston ta'lim tizimi sifati samaradorligini oshirishda o'zimizning ta'lim tizimidagi ilg'or milliy ta'lim-tarbiya berishda qo'llaniladigan o'qitish texnologiyalardan o'qitishdagi ilg'or usul va uslublaridan va xorijiy mamlakatlardagi zamonaviy ta'lim berish tajribalaridan unumli foydalangan holda amalga oshirish lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 30-oktabr kuni mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tgan edi. Mazkur yig'ilishda yurtboshimiz bugungi kunda O'zbekistonning yangi

<sup>229</sup> Prezident xalq ta'limi tizimidagi muammolar va kamchiliklarni ma'lum qildi - abt.uz.03.26.2022

taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz, bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir”<sup>230</sup> deb bejiz aytmaganlar.

Dunyodagi zamonaviy o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikalarini o‘rganib, yurtimiz umumta‘lim maktablarida joriy qilish, Xalq ta‘limi vazirligiga ushbu tajriba asosida Milliy o‘quv dasturini ishlab chiqish, keying o‘quv yillaridan boshlab ta‘lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasi yuklatilgan. Bu borada yurtimizda bugungi kungacha bosqichma-bosqich izchil ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan yangi metodikani samarali yo‘lga qo‘yish uchun barcha maktab o‘qituvchilari videoaloqa orqali xorijiy mutaxassislar ishtirokida o‘qitila boshlangani, bu jarayonlarga pedagogika yo‘nalishidagi universitet va institutlar ham jalb qilinib, pedagog kadrlar tayyorlash metodikasi ham yangilana boshlagani, Shuningdek, matematika, fizika, kimyo, biologiya va informatika fanlari bo‘yicha chet ellardagi ilg‘or darsliklar chuqur o‘rganib chiqilayotgani ayni muddao bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi kunda biz o‘z ta‘lim tizimimizni hamda xorijiy davlatlar ta‘limini taxlil qilish asosida ularni samara beradiganni tanlay bilish qo‘llash natijasida, darsda qarorlangan natijaga erishish yo‘llarini uni o‘z o‘rnida amaliyotda foydalanish o‘quvchilarga o‘rgatish ta‘limda sifat samaradorligini oshishiga olib keladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda buyuk Sharq allomalarining ilmiy merosidagi yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga g‘oyalardan, ta‘lim-tarbiya tizimi rivojlangan xalqaro mamlakatlar tajribasidan va O‘zbekistonning ta‘lim tizimidagi barcha o‘quv fanlaridan olib borilayotgan o‘quv mashg‘ulotlarida o‘qitishning yangi texnologiyalaridan interfaol metodlardan AKT va multimedia vositalaridan unumli o‘z o‘rnida o‘quvchi yoshlarga bilim berish, ta‘lim-tarbiyani amalga oshirishda undan foydalanish uzluksiz ta‘lim tizimi bosqichlaridagi o‘quv jarayonning sifat va samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi, va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojatnomasida ta‘lim-tizimini oldiga qo‘ygan dolzarb muammolarning yechimini topishga xizmat qiladi deb fikr yuritimiz.

## **REFERENCES**

1. Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojotnomasi. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Toshkent 25-yanvar 2020-yil.

<sup>230</sup> Shavkat Mirziyoyev raisligida ta‘lim sohasidagi muammolar, ularni hal etish va ta‘lim sifatini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor o‘tkazildi - Daryo26.03.2022

- 
2. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova. O‘zbekiston tarixi. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2016.-B. 402.
  3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining Ilmiy-metodik jurnali. – Toshkent., 2016-yil, 6-son.
  4. Ta’lim sifati samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2020-yil 28-29-aprel.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING SIFAT JIHATDAN YUQORI POG'ONAGA KO'TARILISHI**

**Norbo'tayeva Guzal**

Qamashi tuman 61-maktab o'qituvchisi,  
QarMII mustaqil izlanuvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, sohaga oid qabul qilingan qaror va farmonlar, uning mazmun-mohiyati kabi ma'lumotlar umumlashtirilgan. Shuningdek, keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tizimining sifat bosqichga ko'tarilganligi tahlil qilingan.*

**Kalitli so'zlar:** ta'lim, uzluksiz ta'lim, maktabgacha ta'lim muassasasi, innovatsiya, qaror, farmon, ma'naviyat, qadriyat, odob-axloq, shaxs.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье обобщена информация об изменениях в системе дошкольного образования, решениях и указах в сфере, ее содержании. Также анализируется, как за последние годы улучшилось качество системы дошкольного образования.*

**Ключевые слова:** образование, дополнительное образование, дошкольное учреждение, инновация, решение, декрет, духовность, ценность, нравственность, личность.

### **ABSTRACT**

*This article summarizes information on changes in the system of preschool education, decisions and decrees in the field, its content. It also analyzes how the quality of the pre-school education system has improved in recent years.*

**Keywords:** education, continuing education, preschool, innovation, decision, decree, spirituality, value, morality, personality.

### **KIRISH**

O'zbekistonda mustaqillik sharofati bilan ta'lim tizimining barcha bosqichlarida keng ko'lamli o'zgarishlar, yangilanishlar jarayoni boshlandi. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirildi. Shu jumladan ta'lim tizimining eng quyi bo'g'ini maktabgacha ta'lim tizimida ham qator o'zgarishlar yuz berdi. Avvalo maktabgacha ta'lim tizimi uning mazmun-mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi.

6-7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha ta‘lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta‘lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta‘limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o‘qishga tayyorlash, bolani sog‘lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo‘lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o‘qishga, tizimli ta‘limga bo‘lgan ishtiyoqini tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabgacha ta‘limning maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy va xayriya tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar. O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim davlat tilida hamda qoraqalpoq, rus, tojik, qirg‘iz, qozoq va turkman tillarida olib boriladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarni maktabda o‘qishga maqsadli va tizimli tayyorlash, bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va iste‘dodlarini rivojlantirish, bolalarni milliy, umuminsoniy va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolani intellektual rivojlantirish, bolalarda yuqori ma‘naviy va odob axloq asoslarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘ligini mustahkamlash kabi maqsadlar ko‘zga tutiladi. Keyingi yillarda ta‘lim tizimining boshqa bo‘g‘inlari qatorida maktabgacha ta‘lim tizimiga ham alohida e‘tibor va ahamiyat berila boshlandi.

2017 yil 30 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoniga binoan, maktabgacha ta‘lim sohasi uzluksiz ta‘lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini sifatida, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etishi ta‘kidlangan.

Mustaqillik yillarida respublikada ta‘lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarilib, o‘tkazilgan tahlillar maktabgacha ta‘lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligi ko‘rsatilgan va so‘nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta‘lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodrog‘i kamaygan bo‘lib, bugungi kunda respublika bo‘yicha bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etishi, shuningdek, maktabgacha ta‘lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talabga javob bermasligi qayd etilgan.

Maktabgacha ta‘lim tizimida variativ dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan hamda taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy,

nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tatbiq qilinmaganligi tanqidiy tahlil etilgan.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bu esa bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermasligi, maktabgacha ta'lim sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini baholash zamon talablariga javob bermasligi, xorijiy davlatlar ilg'or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma'naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari hamda ularning tuman (shahar) lardagi bo'limlarini tashkil etilishi sohada amalga oshirilgan ulkan o'zgarishlardan hisoblanadi.

Sohada yangiliklarni joriy etish, innovatsion yondashuvni ta'minlash maqsadida 2017 yil 21 noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomni hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida" gi Qaroriga asosan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi ham tubdan takomillashtirildi.

Shuningdek, 2018 yil 30 sentyabrda “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3955-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida esa maktabgacha ta’lim tizimini yaxlit uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida Ixtisoslashtirilgan loyiha-izlanish institutini davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etish hamda Institutni maktabgacha ta’lim tizimi buyurtmachilari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq investisiya loyihalari bo‘yicha, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo‘yicha loyiha oldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda bosh loyiha tashkiloti sifatida belgilanishi ta’kidlangan.

Bu o‘zgarishlar qabul qilingan qaror, farmonlar va ularning ijrosi natijasida sohada ta’lim-tarbiya sifatining mazmuni ham, maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni qamrab olinishi ham, moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishi jihatidan ham sifat darajasi oshdi. Masalan, yuqorida ta’kidlangan 30 foizdan qisqa vaqt ichida bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish ko‘rsatkichi 60 foizdan oshdi.

Masalan, 2020 yilda bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi 60,9 foizga yetkazilganligi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

2018 yilda bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi 38 foiz, 2019 yilda 52 foizni tashkil etgan bo‘lsa, maktabgacha ta’limni rivojlantirish borasida boshlagan islohotlarimiz natijasida 2020 yili ushbu ko‘rsatkich 60,9 foizga yetkazilganligi qayd etilgan.

Bugungi kunda respublikada 18 254 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularda 1 699 566 nafar bola qamrab olingan. Mavjud bog‘chalarning 6 197 tasi davlat tasarrufidagi maktabgacha ta’lim muassasasidir. Nodavlat sektordagi 12 057 ta bog‘chaning 788 tasi davlat-xususiy sherikchilik asosidagi, 10 244 tasi oilaviy, 1 025 tasi xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlari hisoblanadi.

Soha vazirligining ma’lum qilishicha, 2020 yilda investisiya dasturi hamda Inqirozga qarshi kurashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan respublika bo‘yicha jami 32 218 ta o‘rin (quvvat), shundan 2 580 ta o‘rin 18 ta yangi qurilish hisobiga, 17 790 o‘rin bo‘sh turgan binolarni rekonstruksiya qilish hisobiga hamda 12 448 ta o‘rin

faoliyat ko'rsatayotgan MTTlar quvvatlarini kengaytirish hisobiga yaratilishi belgilangan.

2020 yilda davlat-xususiy sheriklik asosida quvvati 46 mingdan ortiq bo'lgan 420 ta nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini hamda quvvati 50 ming o'rin bo'lgan 2000 ta oilaviy shakldagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunda Davlat xususiy-sheriklik asosida quvvati 42 mingdan ortiq 333 ta nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini boshlagan, hozirgi kunda 115 ta Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qurilish ishlari davom etmoqda. Shu bilan birga, jami 96 342 o'ringa mo'ljallangan oilaviy bog'chalarni tashkil etish bo'yicha 3 854 ta bitim imzolangan bo'lib, shulardan 83,7 ming quvvatga ega 3 529 tasi o'z faoliyatini boshlagan.

Davlatimiz rahbari 2020 yil yanvarda parlamentga yo'llagan murojaatnomasida 2020 yildan boshlab tarixda ilk bora 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi joriy qilinishi ma'lum qilingan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari Qahramon Olimov 2021 yil oxirigacha maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi 65 foizga, jumladan, 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashning bepul tizimi bilan qamrab olish 82 foizga yetkazish rejalashtirilganligini ma'lum qilgan.

## **XULOSA**

Xullas, tizimda yuz berayotgan bu kabi o'zgarishlar avvalo kelajagimiz tayanchi bo'lgan, unib-o'sib kelayotgan bolalarimizni barkamol, yetuk, milliy an'ana va qadriyatlarimizdan boxabar, sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda ta'lim va tarbiya berish dolzarb vazifalardan hisoblanadi va bu kabi xayrli ishlar albatta bardavom bo'lib, soha rivojini yanada yuqori pog'onaga ko'tarish ko'zda tutilgan.

## **REFERENCES**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.T., 2017 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni., 2017 yil 30 sentabr.
3. <https://kun.uz/news/2021/01/12>
4. <http://info.ziyonet.uz/uzc/post/view/education/preschool>
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).



## **МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В НЕЯЗЫКОВЫХ ВУЗАХ**

**проф. Ниязова Минара Бахрамовна**

Ташкентский архитектурно-строительный институт

### **АННОТАЦИЯ**

*Стремительное вхождение в мировое сообщество, интеграционные процессы в политике, экономике, архитектуре, культуре вызывают повышенные требования к знаниям иностранных языков.*

*Интернет, сотовая связь, интенсивное развитие информационно-коммуникационных технологий невозможны без знания иностранного языка. Для решения проблемы обучения языку необходимо использовать новые инновационные методы обучения, направленные на формирование лингвистической, социолингвистической и прагматической компетенции.*

**Ключевые слова:** *адаптации в иноязычной сфере, критическое мышление, творческие умения, мотивация, трудности перевода.*

### **ABSTRACT**

*The rapid entry into the world community, integration processes in politics, economics, architecture, culture cause increased requirements for knowledge of foreign languages.*

*The Internet, cellular communication, intensive development of information and communication technologies are impossible without knowledge of a foreign language. To solve the problem of language teaching, it is necessary to use new innovative teaching methods aimed at the formation of linguistic, sociolinguistic and pragmatic competence.*

**Keywords:** *adaptation in a foreign language sphere, critical thinking, creative skills, motivation, translation difficulties.*

### **ВВЕДЕНИЕ**

Межнациональное общение возможно при обязательном знании иностранного языка. Иностранный язык в неязыковом вузе выступает как объект изучения с целью общения специалистов в своей профессиональной сфере, как средство получения, обработки новой информации. Выработка у студентов умения читать и понимать оригинальную литературу по специальности должна сочетаться с умением селективно подходить содержанию прочитанного, ведению ускоренного поиска информации,

использованию таких форм обработки информации, как аннотирование и реферирование.

Язык – это посредник, с помощью и посредством которого создаются общественные понятия, и то, что составляет культуру народа и его социальные, политические, экономические представления.

Использование новейших достижений методической науки, а именно интерактивного и коммуникативного методов, критического мышления, ролевых игр и всего комплекса методических приемов способствуют более глубокому овладению иностранным языком.

Обучение иностранному языку дает широкое поле деятельности для приобщения обучаемого к лучшим образцам мировой культуры, для выработки у него принципиального эмоционально-положительного отношения к стране и народу изучаемого языка, прежде всего в духе интернационализма, гуманизма и патриотизма, в духе борьбы с проявлениями национализма и шовинизма. Язык воздействует на национально-культурные особенности народа. Именно преподаватель иностранного языка располагает наибольшей возможностью познакомить обучаемого с историей и культурой страны изучаемого языка.

## **МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**

Знать культуру народа, его традиции и национальные особенности, успевать за научно-техническим прогрессом и достижениями в разных областях, лучше выполнять свою миссию – все это требует знания языков. Практика показывает, что использование знания родного языка полезно на всех этапах обучения иностранному языку.

Знание другого языка – это не только проявление уважения к народу, но и один из путей к межличностному сближению, адаптации в иноязычной сфере.

Практика преподавания и многочисленные исследования показывают, что для плодотворного проведения занятий по иностранному языку, необходимо опираться на родной язык. Чтобы каждый урок сделать максимально обучающим и эффективным, преподаватель должен владеть языком обучающегося.

Изучая фонетику иностранного языка, выявляют случаи совпадения или различия звуков. При изучении грамматических явлений следует обратить внимание на случаи расхождения и схождения в обоих языках, проводить сопоставительный анализ.

Такие сопоставления, выявляя сходные и несходные факты, дают возможность лучше усвоить тот материал, который не свойственен родному языку. Занятие, построенное на основе метода сопоставления грамматических структур иностранного и родного языков, систематического анализа их схождений и расхождений, дает положительные результаты.

Прогресс и потенциальные изменения методов обучения иностранному языку совершенствуются также внедрением новых инновационных технологий: критического мышления и интерактивных методов обучения.

Функции педагога значительно изменились. На смену учителю – ментору пришел учитель – наблюдатель, посредник. Хотя личность преподавателя как бы отходит на второй план, влияние его на аудиторию возрастает. В рамках критического мышления между преподавателем и студентом развиваются отношения партнерства на основе толерантности, взаимного уважения, хотя и должна соблюдаться определенная дистанция. Роль преподавателя – оказать помощь студенту в приобретении знания, что предполагает использование интерактивных методов обучения. Критическое мышление включает в себя комплекс мыслительных процессов, который начинается с получения информации и заканчивается принятием решения.

Критическое мышление состоит из трех фаз.

Первая фаза – «вызов» предполагает актуализацию опорных знаний, активизацию полученных прежде знаний студентами, чтобы цель занятия явилась целью и стимулом для студента. В этой фазе предполагается вызвать интерес к материалу, теме занятия, активизируя мотивацию обучающегося.

Вторая фаза – происходит осмысление содержания, усвоение новой информации, отслеживание собственного понимания. Преподаватель передает идею, но нужны собственные усилия обучающегося для приобретения знания. С помощью мышления создается новая модель, оценка того нового, что узнали, его значимость.

Заключительная фаза – размышление, сопоставление, творческая переработка, создание новой модели своего познания информации.

Таким образом, студент должен самостоятельно выбрать ход решения ситуации изучаемого текста.

В психологии и педагогике показано, что усиление активности обучающегося происходит, прежде всего, при разрешении им проблемных заданий и ситуаций.

Использование деловых игр в обучении иностранным языкам является одним из методов активного обучения.

В деловые игры желательно включать учебный материал средней трудности, поскольку он обеспечивает оптимальные условия для использования проблемных, поисковых, исследовательских методов, развивающих у обучающихся критическое мышление, самостоятельность, творческие умения. Деловые игры не должны вестись самотеком. Преподаватель должен придавать им определенные организационные формы и осуществлять контроль над их проведением. В каждой деловой игре все обучающиеся поставлены в такие условия, когда необходимо и неизбежно их активное общение друг с другом, что соответственно побуждает их творчески осваивать изучаемый материал. В процессе преодоления трудностей, с которыми сталкиваются обучающиеся в деловых играх, происходит развитие личности, формируется умение самоорганизации и профессионального общения. Проблемные задания, предлагаемые обучающимся в деловых играх, должны быть упрощенными для того, чтобы решение задания было им доступно. Если задание будет слишком трудным для большинства, то игра просто не пойдет. Игра также не должна быть продолжительной, не вызывать у обучающихся признаков усталости, не притуплять их интерес к игре. Деловые игры должны быть доступными для всех участников игры, создавая условия для работы каждого участника с максимальной отдачей. Эффективность обучающих, развивающих и воспитательных возможностей деловых игр бесспорна.

## **РЕЗУЛЬТАТЫ**

Значительное внимание, уделяемое изучению иностранных языков в вузах, определяется расширением сотрудничества во всех областях науки и техники. Студенты старших курсов технических вузов, получив определенный объем знаний о грамматической структуре иностранного языка, некоторые навыки перевода, должны уметь получать информацию о последних достижениях науки и техники из оригинальных отраслевых зарубежных журналов.

Перевод научной и технической литературы имеет ряд особенностей по сравнению с переводом художественной литературы. Основным требованием, предъявляемым к языку научной и технической литературы, является краткость изложения и точность формулировок. В связи с этим для языка научной и технической литературы характерны насыщенность специальными терминами и сокращениями, традиционность в употреблении лексики и т.д. Большое

количество в тексте специальных терминов, особенно вновь появившихся в связи с быстрым развитием техники, которые могут быть и не занесены в словари, создает в практике перевода определенные трудности.

Термины - это слова и словосочетания, которые имеют специальное, строго определенное значение в той или иной области науки и техники. Они точно выражают понятия, процессы и названия вещей, присущие какой-либо отрасли производства. Для того, чтобы правильно определить выражаемые термином понятия, нужно разбираться в той области науки и техники, к которой данная терминология относится. Выпускник должен знать свой предмет настолько полно, чтобы при любой форме изложения в оригинале быть в состоянии правильно передать содержание без потери информации. При этом в переводе имеют место лексические, грамматические информации.

### **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

В научно-технической литературе большой процент лексики составляют неологизмы и поэтому порой выпускнику нередко приходится самому создавать эквивалентные термины для выражения новых понятий. Для точности термина большое значение имеет его однозначность. В принципе контекст не должен влиять на значение термина. На практике же в любой системе терминологии имеется немало многозначных терминов и только по контексту можно определить значение того или иного термина. В этом заключается основная трудность при переводе технических текстов.

### **СПИСОК ИСПОЛЬЗУЕМОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**

1. Аксёнов А.Т. К вопросу о взаимодействии между английской военной терминологией и общенородной лексикой. Автореф. дисс канд.филол. наук – М.: 1954. – 23 с.
2. Аксютенкова Л.Г. Деривация как фактор эволюции терминосистемы: на материале терминологии «Рыночная экономика». Автореф. дисс канд. филол. наук. – Краснодар: 2002. – 20 с.
3. Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. – М.: Учпедгиз. 1957. – 140 с.
4. Kronasser H. Handbuch der Semasiologie. – Heidelberg. 1952.
5. Ullmann St. Precis du semantique francaise. - Beme.1952
6. Condamines A., Rebeyrolle J., Soubeille A. Variation de la terminologie dans le temps: une méthode linguistique pour mesurer l'évolution de la connaissance en corpus. – Lyon, 2004. – 287p.

## **FANLAR TASNIFIDA DINIY VA DUNYOVIY ILMLARNING O‘ZARO NISBATI**

**Isroilov Asilbek Fozilovich**

Toshkent shahar yuridik texnikumi o‘quv-metodik bo‘lim boshlig‘i

E-mail: [asl\\_bek90@mail.ru](mailto:asl_bek90@mail.ru) telefon:+99890-029-00-88,

**ORCID ID 0000-0002-5332-790X**

**Ilmiy rahbar: Qodirov Muhammadjon**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Sharq falsafasi va madaniyati” kafedrasida dotsenti

### **ANNOTATSIYA**

*Diniylik va dunyoviylik masalasi azal-azaldan bashariyat oldidagi muammolardan sanalgan. Ularning yechimi borasidagi fikrlar turli allomalarning asarlarida berilgan. Jumladan, yurtboshimiz asarlarida ham ushbu mavzu bo‘yicha qator tavsiya va ko‘rsatmalar o‘zining ifodasini topgan. Xususan, davlat va din munosabatlari, dinning jamiyatni boshqarish jarayonida tutgan o‘rni va roli masalalari yuzasidan chuqur ilmiy-amaliy xulosalar berilgan. Mustaqillikkacha bo‘lgan davrdagi mazkur sohaga oid tadqiqotlarda jamiyatdagi hukmron mafkuraning har qanday sohada u, yo bu darajada aks ettirish nuqtai nazari mavjud bo‘lgani hech kimga sir emas. Chunki, o‘sha davrda olib borilgan aksar tadqiqotlar biryoqlama, dahriylik xususiyatiga ega edi. Shuning uchun tadqiqotda mazkur manbalarga ilmiy, tanqidiy nuqtai nazardan murojaat qilindi.*

*Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, islom falsafasining diniy va dunyoviy jihatlari o‘zining boy, sermazzmun g‘oyalari bilan nafaqat mamlakatimiz ilm-fan taraqqiyoti, balki jahon faniga ko‘rsatgan ta’siri, Sharq G‘arb olimlarida ko‘p asrdan buyon katta qiziqish uyg‘otib kelmoqda.*

**Kalit so‘zlar:** *dialektika, sivilizatsiya, etika, mantiq, naturfilosofiya, fizika, dinshunoslik, optika, zoologiya, metafizika, kosmologiya, ritorika, poetika.*

### **ABSTRACT**

*The issue of religiosity and secularism has long been one of the problems facing humanity. Thoughts on their solution are given in the works of various scholars. In particular, a number of recommendations and instructions on this topic are reflected in the works of the head of state. In particular, in-depth scientific and practical conclusions are given on the relationship between the state and religion, the role and place of religion in the management of society. It is no secret that in pre-independence research in this area, there is a view that the dominant ideology in*

society is reflected in any field to one degree or another. Because most of the research done at that time was one-sided, atheistic. Therefore, the study referred to these sources from a scientific, critical point of view.

The results of the analysis show that the religious and secular aspects of Islamic philosophy, with its rich, meaningful ideas, not only the development of science in our country, but also its impact on world science, has been of great interest to Eastern and Western scholars for centuries.

**Keywords:** dialectics, civilization, ethics, logic, natural philosophy, physics, religion, optics, zoology, metaphysics, cosmology, rhetoric, poetics.

### **АННОТАЦИЯ**

Вопрос религиозности и секуляризма уже давно является одной из проблем, стоящих перед человечеством. Мысли об их решении приведены в работах различных ученых. В частности, ряд рекомендаций и поручений на эту тему нашли отражение в трудах Президента. В частности, сделаны глубокие научно-практические выводы о взаимоотношениях государства и религии, роли и месте религии в управлении обществом. Не секрет, что в исследованиях в этой области до обретения независимости существовало мнение, что господствующая в обществе идеология находит отражение в той или иной сфере. Потому что большинство исследований, проводившихся в то время, были односторонними и атеистическими. Поэтому исследование обращалось к этим источникам с научной, критической точки зрения.

Результаты анализа показывают, что религиозный и светский аспекты исламской философии с их богатыми содержательными идеями на протяжении многих столетий оказывали влияние не только на развитие науки в нашей стране, но и на мировую науку, на восточных и западных ученых. большой интерес.

**Ключевые слова:** диалектика, цивилизация, этика, логика, натурфилософия, физика, религия, оптика, зоология, метафизика, космология, риторика, поэтика.

### **KIRISH**

Sharq falsafasidagi fanlar tasnifi muammosini qadimgi davr yunon olimlari Demokrit, Aflotun, Arastu, Epikur, Arximed kabi faylasuflarning mazkur sohadagi qarashlari bilan qiyosiy tahlil qilish va ilmiylik asosida ko‘rib chiqish bu borada amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarni yetarli anglab olishga yordam beradi. Shu o‘rinda islom olimlari o‘z qarashlarini shakllantirishda yangicha tafakkur

mezonlariga tayanganlar. Shu sababli ularning ko‘pchiligi shaxsiy fanlar tasnifining mualliflari hisoblanadi. Sharqshunos olim R. Kamayeva bunday olimlar sirasiga Yaqub ibn Isoq Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy, Jamoliddin as-Suyutiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Ibn an-Najmiy, Faxriddin ar-Roziy, Abu Homid G‘azzoliy, al-Hujvari, Ibn Xaldun va boshqalarni kiritish mumkin<sup>231</sup> deb hisoblaydi.

Qadimgi davr yunon falsafasida fanlarning differentsatsiyasi sodir bo‘lmagan edi. Shuning uchun ham yunon olimlari oldida ilmning turli yo‘nalishlari orasida o‘zaro munosabat muammosini tahlil qilish ko‘ndalang bo‘lib turar edi. Mavzuning aniq xususiyatini chuqur tushunishimiz uchun qadimgi davr fanlar tasnifiga murojaat qilishimiz kerak bo‘ladi. Masalan, Aflotun qarashlarida birinchi o‘rinda aqlni taqdim etuvchi **dialektika** (mulohaza san’ati ma’nosida) turgan bo‘lsa, unda dialektika bir tomondan **fizikani**(sezgi, idrok ma’nosida), boshqa tomondan – erkinlik va istakni tanishtirgan **etikani**<sup>232</sup> o‘z ichiga qamrab olgan tasnif mavjud.

Yana bir yunon faylasufi Demokritning falsafiy asarlarida esa bilish nazariyasi va mantiq, matematika va texnika, fizika va kosmologiya, biologiya va ijtimoiy hayot masalalari maxsus yoritilgan.

Arastu taklif qilgan tasnif o‘ziga xos mazmunga ega. Chunki, unda bilim sohalarining birlashishi, Arastuning shaxsiy falsafiy tizimidek aks ettirilgan edi. Arastu o‘z davrida birinchi bo‘lib, bilimlarning barcha tizimini, falsafiy ilmlarning muayyan bo‘limini ko‘rib, ularni uch qismga bo‘ladi. Shu ma’noda, Arastuni ta’lim tizimiga predmetli bilimlarni (Yan Amos Komenskiydan ancha avval)olib kirgan birinchi shaxs deyish mumkin. Arastu fanlarning birinchi qismiga-nazariy falsafa abstraktlashtirishni ya’ni analitika(tahliliy mantiq), mantiq, fizika, matematika, metafizikani kiritadi. Ikkinchi qism-amaliy falsafa ya’ni optika, ekonomika va siyosatni qamrab oladi. Uchinchi qism-tasviriy yoki ijodiy falsafa, ya’ni poetika, ritorika va san’atni o‘z ichiga olgan edi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Arastu fanlar tasnifining uch qismga bo‘linishi asosida biz ilmning umumiy asosini nimalar tashkil etishini anglab olishimiz mumkin. Bu ma’noda Arastuning o‘zi ham ularni “Boshlang‘ich falsafa”deb nomlagan edi. Arastu nazariy bilimlar deganda tabiiy-ilmiy va falsafiy bilimlarni, amaliy bilimlar deganda esa ijtimoiy hodisalarga oid bilimlarni tushungan. Bunday bilimlar fizikadan keyin kelgan.

<sup>231</sup> Қаранг: Камаева Р. Развитие школ и педагогической мысли в Иране IX-XI вв. Дисс. канд. пед наук. – М.: 1986. -169с.

<sup>232</sup> Кедров Б.М. Классификация наук. В 3-т. – М.: Мысль,1961-1965. -543.С.45.



Shuning uchun ham Arastu masalaning mohiyatiga ko'ra, metafizika tushunchasi zamirida barcha falsafiy ilmlarni, fizika deganda esa tabiiy-ilmiy bilimlarni tushungan. Bir-muncha muddat o'tib, falsafa tarixidan bizga yaxshi ma'lum bo'lgan ravoqiylar (mil av.IV-III a.) ham qadimgi davr umumiy ilmlarini uch qismga bo'lganlar: fizika(olam haqidagi ilm), mantiq(fikrlash haqidagi ilm) va Etika(ahloq haqidagi ilm).

Epikur (mil.av. IV-III a.) naturfilosofiyani (tabiat haqidagi ta'limot), mantiq (mantiqni u kanonika deb nomlagan – olamni bilish yo'nalishlari haqidagi ta'limot) va etika (insonning baxtga erishish yo'llari haqidagi ta'limot)ni ajratgan edi.

Avgustin (milodning IV-V a.) o'zining "Xristian ta'limoti" asarida bunday an'anaviy bo'linishni ilohiyot nuqtai-nazaridan sharhlashga xarakat qilgan.

Agar shaklan o'xshash ilmlar tasnifini taqqoslasak, ularning turlicha, tashkiliy-tuzulmaviy va funksional asosiga ko'ra qarama-qarshi ekanini ko'ramiz. Avgustin ishlab chiqqan fanlar tasnifi o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, Epikurnikiga nafaqat teskari, balki Aflotunning ob'ektiv idealistik tasnifi bilan qiyoslanilganda ham ochiq-oydin ilohiyot tomonga o'zgartirilganini ko'rishimiz mumkin.<sup>233</sup>

Tabiatshunos olim sifatida mashhur bo'lgan Katta Pliniyning<sup>234</sup> tajribaviy xususiyatga ega tasnifidan "Tabiiy tarix"dagi ilmlar guruhini yuqoridagi tasniflardan farqlanishini qiyosiy o'rganamiz. Chunki, uning bilimlari va bilim ob'ektlari tasnifi zamonaviy talqinda quyidagicha ko'rinishga ega:

1. Astronomiya, geografiya, fizika, va ximiya.
2. Geografiya, mamlakatshunoslik va xalqshunoslik.
3. Antropologiya, anatomiya va inson fiziologiyasi, madaniyat tarixi, etnografiya, ekonomika.
4. Zoologiya, chorvachilik ilmi va uning mahsulotlaridan foydalanish.
5. Dorishunoslik, tibbiyot bo'yicha ma'lumotlar.
6. Metalshunoslik, metallurgiya, metalni qayta ishlash.
7. Tog' ishi.
8. Tasviriy san'at.
9. Ma'danshunoslik, silikat ishlab chiqarish, tosh va ma'danlar texnologiyasi.
10. Qorishma moddalar (qimmatbaho toshlar, oyna uchun bo'yoq va h.k.)

<sup>233</sup> Кедров Б.М. Классификация наук. В 3-т. – М.: Мысль,1961-1965. -543. С.49.

<sup>234</sup> Борисенков В.П. Истоки педагогической мысли в странах средней Азии и Ближнего Востока.// Советская педагогика. 1986. №3. С.120-126.

Fanlar tasnifidagi bunday xilma-xillik islom ilmi doirasidagi konseptual yondashuvlarda ham aks etgan. Ma'lumki, IX-X asrlarda arab tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda Arastuning fanlar tasnifini o'rganish keng tarqalgan. Chunki Arastu asarlarining arab tiliga tarjimasi o'rta asrlar Yaqin va O'rta Sharq musulmonlari olamida batafsil tadqiq qilingan. Ilmiy-amaliy faoliyat yo'lga qo'yilib, fanlar tasnifining alohida ko'rinishlari ishlab chiqildi. Masalan, dastlabki fanlar tasnifini birinchilardan bo'lib, Kindiy ishlab chiqqan. U ilmiy bilishning uch bosqichi haqidagi ta'limotni shakllantirdi. U 1-bosqichni, mantiq va matematika; 2-bosqichni, fizika (aniq fanlar); 3-bosqichni esa metafizika bilan bog'liq bilim, deb hisobladi.<sup>235</sup>

R. Kamayevaning ta'kidlashicha, yuqorida sanab o'tilgan qadimgi davr olimlarining qarashlari asosida bunday fan sohalariga mualliflar tomonidan alohida ahamiyat berilgan diniy va sof falsafiy sohalar ham qo'shilgan edi<sup>236</sup>.

Tadqiqotimizda ma'lum bo'lishicha, fizikani Kindiy bilishning quyi bosqichiga kiritadi. Chunki, uning fikricha, bu fanning materiya bilan bevosita aloqasi bor, ya'ni u hissiy bilishga asoslanadi. Shuningdek, sezgi va hissiyot bu ilmning tabiiy yo'li hisoblanadi. Tajribasiz hech narsa yo'q. Bilishning oraliq bosqichi materiyaga aloqador emas. U tajriba chegarasidan tashqariga chiqadi. Matematika rasional materiyadan ajratib qo'yilgan. Shuning uchun bilishning oliy darajasi materiya bilan aloqada bo'lmaydi. Mutlaqo nazariya. Unda aqldan o'zga narsa yo'q.<sup>237</sup>

Musulmon mamlakatlaridagi olimlar avlodiga ta'sir ko'rsatgan fanlar tasniflaridan biri Abu Nasr Forobiyning "Ihso al-ulum" ("Ilmlarni tasniflash")<sup>238</sup> asarida bayon qilingan, keyinchalik Yevropa va lotin tiliga o'girilgan fanlar tasnifi edi. Forobiy tasnifiga muvofiq, barcha fanlar besh sinfga taqsimlangan: "til haqidagi ilm", mantiq, matematika, fizika(naturfilosofiya), ijtimoiy fanlar (yurisprudensiya, ritorika).

Abu Nasr Forobiy matematikaga: arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqani olib kiritgan. Xuddi shu sinfga mexanika ham kiritilib, u ham o'z navbatida ikkiga bo'lingan: og'irlik haqidagi ilm ya'ni nazariy muvozanat, murakkab qurilmalar haqidagi ilm ya'ni amaliy muvozanat. Forobiyning fanlar tasnifidagi o'ziga xos jihatiga e'tibor beradigan bo'lsak, birinchi bo'lib, "Murakkab usullar haqidagi ilm"ga musulmon mamlakatlari matematikasida rivojlangan bir necha sof matematik sohalar: "sonlarning mohir usullari", "geometrik mohir usullar" va

<sup>235</sup> Кедров Б.М. Классификация наук. В 3-т. – М.: Мысль, 1961-1965. -543.С.52.

<sup>236</sup> Камаева Р. Развитие школ и педагогической мысли в Иране IX-XI вв. Дисс. канд. пед наук. – М.: 1986.

<sup>237</sup> Lamal Maouhassel. Essai sur la classification des sciences. Damasc, 1953. С.20.

<sup>238</sup> Фараби Абу Наср Мухаммед. Математические трактаты. – Алма-Ата, 1972. -324 с. С.27.

hakoazolarni qo‘shadi. Musiqa asboblarining qurilishi, ko‘zgu haqidagi ilm, “tarozining tuzilish usullari”, me‘morchilik va hatto duradgorlik ishi ham shu yerga kiritganligini ko‘rishimiz mumkin.

Keyinchalik esa Abu Nasr Forobiyning tasnifi uncha katta bo‘lmagan o‘zgarish, qo‘shimchalar bilan Ibn Sino, Ibn Rushd, Abu Homid G‘azzoliy kabi yirik olimlar tomonidan qabul qilingan va rivojlantirilgan edi. “Ihso al-ulum”ning arab tili mualliflar asarlarining mashhur tarjimoni Gerardo Kremenskiy tomonidan lotinchaga qilingan tarjimasi O‘rta asr Yevropasida keng tarqalgan. Yana bir musulmon faylasuf olimi Ibn Sino tibbiyot bilan birgalikda fanlar tasnifi muammolarini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shgan edi. Uning fanlar tasnifi muammolarini ishlab chiqishga qaratilgan asari “Risala fi aqşam al-ulum” (“Ilmlarning bo‘linishi haqida risola”) deb nomlanadi. Bu faylasuf ham Forobiyga ergashib, o‘zining tasnifida, o‘z davrining barcha asosiy ilmlarining kelib chiqish sabablarini tushuntirishga uringan. Jumladan, u har bir ilmning “shahobchalar”i ostida unga tegishli amaliy usullar majmuini tushunib, “mohir usullar haqidagi ilm” ya’ni o‘z davridagi amaliy mexanika ilmi sohasiga olib borib taqaydi. Geometriya shahobchasiga u masalan, odatda “ilm al-xiyal” (muvozanat) tarkibiga kirganlarning asosiy qismni kiritadi.

O‘rta asrlar davridagi fizika bilimlarining falsafiy jihatlari ellin davri falsafasining davomi bo‘lib, materiya, makon, zamon va harakat kabi tushunchalarni tashkil etadi. Bular “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Donishnoma”, “Isharot va tanbehot” hamda “Beruniyning Ibn Sino bilan yozishmalari” da o‘z aksini topgan edi.

Masalan, Ibn Sinoning zamon haqidagi ta’limoti zamonaviy fizika tasavvurlari bilan mos keladi. Ibn Sino fikricha, zamon – azaliy va abadiy kategoriya. Asosiy xususiyati – zamonning ob’ektiv-moddiy xususiyati va uning modda bilan, materiyaning harakati bilan aloqasini e’tirof etishidir.<sup>239</sup> Bu “zamon – ob’ektiv kategoriya” ekani haqidagi fikr asosida isbotlanadi. Harakati bir vaqtda boshlanib, tugallovchi harakatdagi ikki jism, ulardan biri bir yo‘la o‘sha vaqtning o‘zida katta masofani, boshqasi esa kamroq masofani bosib o‘tishi uchun ya’ni biri tez, ikkinchisi sekin harakatlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Biroq bu masofaning yarmini olsak, u o‘sha tezlikda boshqa imkoniyatdagisi bilan qoplanadi. Bu imkoniyat – harakatlar soni, harakatlar soni esa zamon deyiladi.

Harakat o‘zining qismlari: ilgari kelgan va keyin kelgan onlarga ega. Zamon harakatning ilgari va keyin kelgan onlarining o‘lchovidir.

Agar jismlar o‘zgaruvchan bo‘lsa, demak ular vaqt bilan aniqlanadigan ilgari va keyin keladigan holatlariga ega bo‘lishlari kerak. Ibn Sino o‘zining zamon

<sup>239</sup> Натурфилософия Ибн Сины. Душанбе, 1982.

muammolari tahlilida “dahr” (abadiyat), va “sarmad” (mutlaq abadiylik) kabi tushunchalarga asoslanadi. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, “dahr” termini ar-Roziyning fizik ta‘limotida cheklangan vaqt (Arastucha ma‘nodagi) “goh” (fursat) bilan bir qatorda mutlaq vaqt ma‘nosida ham ishlatiladi.

“Dahr” dahriylar (mutlaq vaqt tarafdorlari)ning falsafiy ta‘limotida – mutlaq vaqt, boshi ham oxiri ham yo‘q, ya‘ni cheksiz va abadiy, biroq materiyadan, uning harakati va o‘zgarishidan mustaqil mavjud zamon. Ibn Sinoda esa “dahr” materiyaga, uning o‘zgarishiga bog‘liq abadiy va mutlaq vaqt bo‘lib, qanday bo‘lmasin, makon va harakat bilan tor aloqada mavjud.<sup>240</sup>

Makon – Ibn Sino nuqtai nazaridan jism ham, shakl ham emas. Bu unda jism o‘rin oladigan “hech nima”. U har qanday jismni qurshab oladi. “bo‘shliq”ning borligi “to‘ldirilgan” makonning mavjudligini asoslaydi.

Ibn Sino “Donishnoma”da tasdiqlashicha: harakat deb, odatda makonda sodir bo‘ladigan narsaga aytiladi; ammo bu tushunchaning ma‘nosi hozir boshqacha, makon harakatidan ko‘ra umumiyroq ma‘noni anglatadi; imkoniyatdagi narsa bo‘lgan biror bir narsaning istalgan holati va harakati shu imkoniyat sababidan harakat deyiladi<sup>241</sup> Arastuga ergashib, Ibn Sino quyidagilarni tasdiqlaydi: jismlar harakati “to‘g‘ri”, ya‘ni tabiiy harakat, majburiy va oraz(ko‘rinish)ga ko‘ra harakat bo‘ladi. Qachonki jism o‘zining egallagan joyidan boshqa joyga harakatlansa, biroq bu harakat o‘z-o‘zidan yuz bermay, balki uning sababi jismning mohiyatidan tashqari bo‘lsa, u orazga ko‘ra harakat deyiladi. Orazga ko‘ra harakat shundan iboratki, jism harakatlanayotgan boshqa jismda mavjud bo‘ladi. Ayon bo‘ladiki, ularning harakati ular turgan jismning harakati oqibatida sodir bo‘ladi.<sup>242</sup>

Ibn Sino “og‘irlik haqida ilm”, ya‘ni muvozanatni va “asboblar haqidagi ilm” – sodda mashinalar haqidagi ta‘limot – deyarli muvozanat bo‘limini, ikki holatda ham “ilm al-xiyal”ni e‘tiborda tutib ajratadi. Uning yondashuvidagi xarakterli jihat, ikki yo‘nalishni ham matematikaga kiritganligi bilan belgilanadi.

Ibn Sino fikriga ko‘ra, barcha falsafiy ilmlar ikki qismga bo‘linadi: nazariy va amaliy. Bunda nazariy qismning maqsadi – haqiqatni bilish; amaliy qismning maqsadi – saodatga erishishdir. Falsafiy fanlar – Ibn Sino tasdiqlashicha, ikki turga bo‘linadi: birinchisi bizning shaxsiy hatti harakatlarimiz bilan tanishtiradi va u “amaliy ilmlar” deb nomlanadi. Chunki bu ilmlarning foydasi, biz bu dunyoda najot topishga umid qilishimiz uchun, undagi ishlarimiz tartibli bo‘lishi uchun kerak

<sup>240</sup> Рожанская М.М. Механика в Хорасане и Моверенахре в средние века (вв.) Дисс. док. ист. наук. – М.: 1986.

<sup>241</sup> Ибн Сина. Книга знания «Дониш наме». Сталинабад, 1957. 286 с. С. 168.

<sup>242</sup> Там же. С.170.

bo'lad. Ikkinchisi esa bizni ruhiyatimiz shakllanishi va bu dunyoda baxtli bo'lishimiz uchun narsalar olamining holatini bizga anglatadi. O'z o'rnida tushuntiriladigan bu ilm nazariy deb nomlanadi.<sup>243</sup>

Bu qismlar o'z navbatida har biri yana uch turga bo'linadi. Amaliy qism:- o'z ichiga "xalqni boshqarish haqidagi ilm" ya'ni siyosat, "uyni boshqarish haqidagi ilm" – xo'jalik yuritish, "o'z-o'zini boshqarish haqidagi ilm" – etikani o'z ichiga oladi. Nazariy qism ham uchga bo'linadi: metafizika, matematika, fizika. Fizikani "tabiat haqidagi ilm" yoki quyi ilm deb nomlab, uchinchi o'ringa qo'yadi. Birinchi o'rinda metafizika "oliy ilm", ikkinchi o'rinda matematika "o'rta ilm" hisoblanadi.

O'zining "Donishnoma" asarining "Fizika"<sup>244</sup> bo'limida Ibn Sino fizikaning gnoseologik xususiyatini quyidagicha aniqlaydi: Fizika materiyadan ajralmas holat va tasavvurni o'rganadi. Matematika esa ularning holatlari haqidagi ilm bo'lib, borliqda materiyadan ajralmasdir. Ba'zilarini hayolan geometriya (yuza sathini o'lchash), mexanika (yuklar og'irligini o'lchash, tarozi va tarozi toshining qurilishi), optik asbob va ko'zgularning tuzilishi; arifmetika – hind raqami haqida ilm (oltmish karrali hisob va algebra), astronomiya (astronomik va geografik jadvallar tuzish san'ati) va musiqa, "ajablanarli tuzilma" tuzilishi ya'ni qaysidir darajada "ilm al-xiyal"ning "shahobcha"sig'a ajratish mumkin. Mantiq esa nazariy qismga ham, amaliy qismga ham kirmaydi. Balki ular mustaqil uch qismni tashkil qiladi.<sup>245</sup> Fanlar tasnifi ko'pincha ensiklopedik risolalarda keltiriladi. Qoidaga binoan ikki qismga bo'linadi: nazariy va amaliy ilmlar.

Sharq falsafasida fanlar tasnifi ishlab chiqilishining metodologik va ijtimoiy asoslari dastlab quyidagicha mazmun-mohiyatga ega bo'lgan: Nazariy ilmlar mantiq, fizika(naturfilosofiya), matematik fanlar va metafizika(falsafa va ilohiyot)ga bo'lingan. Amaliy ilmlarga etika, iqtisod va siyosat kirgan. Xususan, fizika, ximiya, geografiya, minerologiya, botanika, zoologiya, medisina, va psixologiyani o'z ichiga oladi. Matematik fanlarning asosiy qismini kvadrium – arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa nazariyasi tashkil etadi. Unga algebra, etika, "og'irlik haqidagi ilm" va ilm al-xiyal ham kiritilgan. Masalan, geometriya bo'limi ko'proq arifmetikaga oid Yevklid "Ibtido"sining qisqacha bayonini, Nikomaxning "Arifmetikaga kirish"i, astronomiyaga oid Ptolemeyning "Almagest"i va "ilm al-xiyal"ga taalluqli Geronning "Mexanika" sini o'zida aks ettirgan.

<sup>243</sup> Комилов А.Ш. Физические труды Ар-Рази и Ибн Сины. Дисс. канд. физ.-мат. наук. Душанбе, 1991. -133 с. С.104.

<sup>244</sup> Ибн Сина. Книга знания «Даниш намэ». Сталинабад, 1957. -286 с. С.168.

<sup>245</sup> Комилов А.Ш. Физические труды Ар-Рази и Ибн Сины. Дисс. канд. физ.-мат. наук. Душанбе, 1991.- 133с. С.168.

Yana bir islom qomusiy olimlaridan biri Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum”(“Ilmlar kaliti”) asarida “ilm al-xiyal” sakkiz fundamental sohalarning tarkibida, falsafa, mantiq, medisina, arifmetika, astronomiya, musiqa qatorida ko‘rib chiqilgan.

Biz ba’zi tasniflarda “ilm al-xiyal” geometriya “shahobcha”si sifatida ko‘rib chiqilishini yuqorida qayd etib o‘tdik. Bizning fikrimizcha, uning geometriyaga ya’ni sof matematikaga bunday bog‘laniishi juda “toraytirilgan”. Gap geometriya ilmi haqida emas, balki uning o‘sha davr muhandislik muammolariga qo‘shilishi bilan belgilanishini bu o‘rinda yaxshi tushunib olishimiz kerak bo‘ladi. Shuning uchun ham biz bu tasnifning xarakterli jihatini, uni uzoq vaqt amal qilinganligi bilan ham belgilashimiz mumkin. Al-Xaziniy fanlar tasnifi asosida ilmlarning ikki qatorini ya’ni nazariy va amaliy jihatlarini birlashtiradi. Tor ma’nodagi nazariy va amaliy tomonlari tarozi va tortib o‘lchash haqidagi ta’limotning birlashtirilishidan iborat bo‘lgan deyishimiz mumkin.

Bunda, solishtirma og‘irlikning sof mexanik muammolaridan uni ximiyaviy, biologik doirasi tomon yo‘l oladi. Nihoyat, shuni nazarda tutish kerakki, islom ilmlaridagi tasniflarga o‘xshab, keyinchalik O‘rta asr Yevropasida ham, mexanika boshqa ilmlardan uzil-kesil ajratilmagan edi. Shu davr olimlari orasida tom ma’nodagi fizik mutaxassislar yo‘q edi. Shuning uchun bu davrdagi mexanika va fizikaga oid asosiy yutuqlar nomlari bilan bog‘liq olimlar qoidaga binoan qomusiy ya’ni bir vaqtning o‘zida mexanik, matematik, astronom, geograf, faylasuf, tarixchi va filolog edilar. Shu ma’nodagi fanlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa nafaqat har bir olim ijodida o‘z-o‘zidan ro‘yobga chiqadi, balki keng ma’nodagi turlicha ma’no va mazmun kasb etadi.

Biz o‘rta asr fizika bilimlari haqida gapirsak, ko‘pincha olimlarning G‘arbda Piriney yarim orolidan, sharqda Shimoliy Hindistongacha cho‘zilgan ulkan ma’daniy mintaqaning ilmiy tilida – arab tilida yozilgan asarlarini nazarda tutamiz. G. Zuter<sup>246</sup> tomonidan tuzilgan va G. P. Matveyevskaya<sup>247</sup> tomonidan to‘ldirilgan ro‘yxatga kirgan ko‘pchilik olimlarni asosan o‘z vatanlari hududida ijod qilgan (Ibn Sino, Beruniy, Umar Hayyom, al-Xaziniy, at-Tusiy, al-Koshiy, Ulug‘bek va boshqalar) xurosonlik va movarounnahrliklar tashkil qilgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ayni xurosonliklar va movarounnahrliklarning qarashlari hamda erishgan yutuqlari (al- Xorazmiy, Forobiy, Yaxyo ibn Mansur, Said

<sup>246</sup> Suter N. Diomatematik und astronomer, der Araber und inre wark, Fbhediurgen dir gehichte der Mathem, issensehatten. Mol. 45.hebt. Leipzig, 1890.

<sup>247</sup> Матвиевская Г.П., Розенфелд Б.А. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (XIII-XVIIвв.) В 3 т. – М.: 1983. 479с.

ibn Ali, Yuhanna ibn Yusuf va b.) Bag‘dod maktabining (IX-X asr) ilmiy o‘zagini tashkil qilgan. Bu maktab faoliyati bir necha asrlarga o‘rta asrlar Yaqin va O‘rta Sharqdagi fizika-matematika ilmlari majmui taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini belgilagan edi.

VIII-IX asrlarda Bag‘dod va xalifalik hududidagi boshqa ilmiy markazlarda matematikaga oid asarlar bilan bir qatorda Arastu, Arximed, Geron asarlari, Ptolemeyning “Almagest”i tarjima qilinib, ularga sharhlar yozildi. Masalan, Arximedning tarjimoni IX asr yirik matematik va astronomi Sobit ibn Qurra edi. Uning tarjimalarida Arximedning ba‘zi asarlari bizgacha yetib kelgan. Tadqiqotimizda ma‘lum bo‘lishicha, Kusta ibn Lukaning arabcha tarjimasida Geronning “Mexanika”si saqlanib qolgan, Filonning faqatgina arabcha tarjimadagi “Pnevmatika”si mashhur bo‘lgan. O‘rta asrlar Sharqining fizika-matematika bilimlari taraqqiyoti, ayniqsa uning dastlabki bosqichida, qadimgi davr ilmlari rivojining asosiy yo‘nalishlari mohiyatida edi. Islom falsafasida fanlar tasnifining metodologik va ijtimoiy asoslariga doir yangicha yondashuvlarni islomning ba‘zi madaniy hududlarida muntazam, texnika taraqqiyoti darajasining taxminan bir xil xarakteri bilan belgilashimiz to‘g‘ri bo‘ladi. Fizikaning umumfalsafiy masalalariga (birinchi galda harakatning mohiyati muammosiga) bag‘ishlangan ishlarning butun boshli majmuasini Arastu asarlarini tarjima qilinishi va sharhlanishi bilan ham izohlasak bo‘ladi.

Ko‘p sharqshunos olimlarning ta‘kidlashicha, islomning ilm olamidagi bunday yondashuvi va sharhlashi keyinchalik o‘rta asr Yevropasidagi impetus nazariyasiga asos bo‘lgan. Bu nazariyaning ibtidosi (jismga ma‘lum, harakatning manbaiga dahlsiz “harakatdagi kuch” haqidagi tasavvur ko‘rinishida) VI asrda aleksandriyalik olim Ioann Filiponda ham bor edi. “Harakatdagi kuch” nazariyasining ta‘siri o‘rta asr islom olimlari (Ibn Sino, al-Bag‘dodiy, al-Bitruji va boshqalar)ning fizikaning turli bo‘limlariga, jumladan, mexanikaga bag‘ishlangan ko‘psonli asarlarida ham qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin. Xorijlik sharqshunos olimlar Arastuni sharhlovchilari jumlasiga Beruniy va Ibn Sino kabi yirik olimlarni, eng so‘nggi sharhlovchilardan ispan-arab olimi Ibn Rushdni o‘z asarlarida tilga oladilar.

## **XULOSA**

IX asrdagi tarjimalar va sharhlar yozish faoliyati natijasida nazariy va amaliy muammolarni keng doirada hal qilishga talabchan metodlar qo‘llanilgan o‘ziga xos ilmiy an‘ana vujudga keldi. Arastu, Arximed, Ptolemeyni o‘rganish musulmon mamlakatlarida o‘rta asrlar Sharqining boshqa mamlakatlaridagi shunga o‘xshash

tadqiqotlar fizika ilmlarining o'ziga xos farqini asosladi. Hind va xitoy olimlari alohida ajratilgan hisob qoidalarini yaratish bilan cheklangan mintaqada olimlar butun boshli nazariyalarni ishlab chiqdilar. Yunon ilmlarining, ayniqsa, matematikaning ta'siri fizikaga oid asarlar uslubida ham aks etdi. Bu asarlarda materialning tizimli bayoniga, to'liqligiga, formula hamda dalillarning asosiligi va aniqligiga jiddiy ahamiyat berilgan. Bu tamoyil X- XI asrlar davomida kuchaydi. XII asrni – mazkur mintaqadagi fizika-matematika bilimlari taraqqiyotining ikkinchi bosqichiga olib kirish mumkin. Bu davrning tabiiy-ilmiy risolalarida, tabiatshunos olimlar yunon an'analaridan tashqari, ular qo'lga kiritgan matematikaning zamonaviy yutuqlari: hisoblash, algoritmik, arifmetik, algebraik metodlar; yassi va sferik trigonometriyadan ham keng foydalandilar. Sharqona islomiy uslubga xos sof amaliy mazmundagi masalalar o'ta aniq hisoblash qoidalari bilan ajralib turadi. Aka-uka Banu Musa (IX ), Sobit ibn Qurra (IX), Forobiy (IX-X), al-Farg'oniy (IX- X), Beruniy (X-XI), Ibn Sino (X- XI), Umar Xayyom (XIV-XV), al-Haziniy kabi buyuk olimlar xuddi mana shu davrda faollik ko'rsatganlar.

Bu an'ana XIII-XV asrlarga kelib, matematika nazariy muammolarining taraqqiyoti darajasida, davrning talablari bilan ham bog'liq ravishda: osmon jismlari harakatining kinematik-geometrik modellashtirilishiga asoslangan astronomik hisoblashning nisbatan aniq va yangi metodlariga bo'lgan zaruriyat tufayli yanada kuchaytirilgan.

Bu yassi va sferik trigonometriyaning algebra bilan yaqinlashtirilgan metodlarining keyingi taraqqiyotini talab qildi. Mavjud parametrlarni aniqlashtirishdan tashqari, o'sha modellarning o'zi qayta ko'rib chiqildi.

Ikki yirik maktab: Nasir ad-Din at-Tusiy (1201-1274) boshchilik qilgan Marog'a va Ulug'bek (1364-1447)ning Samarqand maktablari olimlari faoliyati shunga tegishli. Samarqand maktabi o'z observatoriyasida o'sha davrning Qozizoda Rumiy, al-Koshiy, Ali Qushchi va boshqa katta olimlarini to'plagan edi.

Mazkur olimlarning ilmiy merosi bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan. Ularning fanlar tasniflari dolzarb tadqiqot mavzusi sifatida alohida chuqur tahlilga muhtoj.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 maydagi "Abu Ali Ibn Sino merosi majmuasini barpo etish to'g'risida"gi №1681-sonli Farmoyishi.



3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. —Toshkent, O‘zbekiston, 2017
4. Abduhalimov B. A. “Bayt al-hikma” va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati: (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). -T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004. – 236 b.
5. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri. T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010
6. Бертельс Д. Предисловие // Мец Адам. Мусульманский Ренессанс. - Москва: Наука, 1973.
7. Кедров Б.М. Классификация наук. В 3-т. – М.: Мысль,1961-1965
8. Jurayev, S. S. O. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 395-401.
9. Jurayev, S. S. O. G. L. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA BORLIQ MASALASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 12-14.
10. Akhmedov, B. A. (2019). THE ROLE OF UZBEKISTAN ON ESTABLISHING KARAKUL (ASTRAKHAN) SHEEP BREEDING IN FOREIGN COUNTRIES. *Theoretical & Applied Science*, (3), 72-75.

#### **Internet saytlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy.../https://daryo.uz.2017/01/31/shavkat-mirziyoyevning-tanqidiy-tahlil/
2. Karimov I.A. “O‘rta asrlar Sharq allomalari.../uz.fundamental-economic.uz/president-islom-karimovning-o‘rta-asrlar/
3. Lex.uz: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami./www.lex.uz/O‘zbekiston-respublikasi-qonun-hujjatlari-milliy-bazasi
4. [www.wikipedia.org/wiki/Donishnoma\(O‘zbek-axborot-sayti\)](http://www.wikipedia.org/wiki/Donishnoma(O'zbek-axborot-sayti))
5. <https://www.urgfiltma.uz/uz/manaviy/milliygoya>.

## **YANGI OCHILGAN HOLATLAR XORIY TAJRIBASIDA**

**Mardanova Iroda Husniddin qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat qonunchiligini

qo‘llash nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi magistranti

E-mail: [irodamardanova1808@gmail.com](mailto:irodamardanova1808@gmail.com),

+998901163777

### **ANNOTATSIYA**

*Ma'lumki, amaldagi qonunlarimizda sudning hal qiluv qarori yoki ajrimi ustidan qonunda belgilangan tartibda va muddatda yuqori instantsiyalarga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan. Bu fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qilmoqda. Sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi va ajrimi yangi ochilgan holatlar tufayli bekor qilinishi hamda ish yuritish qaytadan boshlanishi mumkin. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev takidlagandek "Yangi O'zbekistonning poydevorini yaratishda, eng avvalo, inson huquqi va erkinliklarini ta'minlash, uni oliy qadriyat darajasiga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etadi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son Qarori bilan tasdiqlangan "Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi takomillashtirish Konsepsiyasi"ning I bob 1-bandida "Jinoyat qonunchiligini xalqaro standartlarga unifikatsiya qilinganligi va muvofiqlashtirilganligi nuqtayi nazaridan inventarizatsiya qilish" muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu maqolada rivojlangan davlatlarning jinoyat qonunchiligi, sud qarorlari ustidan shikoyat qilish tartibi o'rganilgan va takliflar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** apellyatsiya, kassatsiya, yangi ochilgan holatlar, printsip, protsess, jinoiy javobgarlik, hukm, sud qarorlarini qayta ko'rish,*

## **ВНОВЬ ОБНАРУЖЕННЫЕ СЛУЧАИ В ЗАРУБЕЖНОЙ ПРАКТИКЕ**

**Марданова Ирода Хусниддин кизи**

Магистрант кафедры теории и практики применения

уголовного законодательства Ташкентского

юридического университета

E-маил [irodamardanova1808@gmail.com](mailto:irodamardanova1808@gmail.com),

+998901163777

### **АННОТАЦИЯ**

*Как известно, наше действующее законодательство гарантирует право на обжалование судебного решения или постановления в вышестоящий суд в*

порядке и сроки, установленные законом. Он служит для надежной защиты прав и законных интересов граждан. Вступившие в законную силу приговоры и определения суда могут быть отменены по вновь открывшимся обстоятельствам и производство по делу может быть возобновлено. Президент Ш. Как подчеркнул Мирзиёев, «при закладывании основ нового Узбекистана, прежде всего, важно обеспечить права и свободы человека, поднять их на высший ценностный уровень». Глава I, глава 1 «Концепции совершенствования уголовного и уголовно-процессуального законодательства», утвержденной Президентом Республики Узбекистан 14 мая 2018 года № ПП-3723, отмечена как единое целое. В данной статье исследуется уголовное право развитых стран, порядок обжалования судебных решений, даются рекомендации.

**Ключевые слова:** апелляционная жалоба, кассация, вновь открывшиеся дела, принципы, порядок, уголовная ответственность, приговор, пересмотр судебных решений,

## **NEW DISCOVERIES IN FOREIGN EXPERIENCE**

**Mardanova Iroda Husniddin kizi**

Master student of department of Theory and practice  
of the application of Criminal law at Tashkent state university of law

E-mail: [irodamardanova1808@gmail.com](mailto:irodamardanova1808@gmail.com),

+998901163777

### **ABSTRACT**

*It is known that our current legislation guarantees the right to appeal against a court decision or ruling to a higher court in the manner and within the period prescribed by law. It serves to reliably protect the rights and legitimate interests of citizens. Judgments and rulings of the court that have entered into force may be revoked due to newly discovered circumstances and the proceedings may be resumed. President Sh. As Mirziyoyev stressed, "in laying the foundations of a new Uzbekistan, first of all, it is important to ensure human rights and freedoms, to raise them to the highest level of values." Chapter I, Chapter 1 of the "Concept for Improving Criminal and Criminal Procedural Legislation" approved by the President of the Republic of Uzbekistan on May 14, 2018 No. PP-3723 marked as one. This article examines the criminal law of developed countries, the procedure for appealing against court decisions, and makes recommendations.*

**Keywords:** *appeal, cassation, newly discovered cases, principles, procedure, criminal liability, verdict, reconsideration of court decisions.*

## **KIRISH**

Yangi ochilgan holatlar sudning hukmi yoki ajrimi qonuniy kuchga kirgan paytda mavjud bo'lgan, biroq sudga ma'lum bo'lmagan holatlardir. Yangi ochilgan holatlar quyidagilardan iborat:

1) jabrlanuvchining yoki guvohning bila turib yolg'on ko'rsatuv yoxud ekspertning bila turib yolg'on xulosa berganligi, xuddi shuningdek ashyoviy dalillar, tergov va sud harakatlari bayonnomalarining hamda boshqa hujjatlarning soxta ekanligi yoki bila turib noto'g'ri tarjima qilinganligi qonunga xilof, asossiz yoki adolatsiz hukm, qonunga xilof yoki asossiz ajrim chiqarilishiga sabab bo'lganligi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanganligi;

2) surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning qonunga xilof, asossiz yoki adolatsiz hukm, qonunga xilof yoki asossiz ajrim chiqarilishiga olib kelgan jinoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'yganligi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanganligi;

3) muayyan jinoyat ishini ko'rish chog'ida sudya tomonidan sodir etilgan jinoiy xatti-harakatlar sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanganligi;

4) o'z holicha yoki ilgari aniqlangan holatlar bilan birgalikda mahkumning aybsizligidan yoxud u hukm etilganiga nisbatan og'irligi darajasi bo'yicha boshqa jinoyat sodir etganligidan yoxud oqlangan shaxsning yoki o'ziga nisbatan ish tugatilgan shaxsning aybdorligidan dalolat beradigan boshqa holatlardir.[1]

Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish to'g'risida sudga protest kiritish uchun quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

1) fuqarolarning, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari mansabdor shaxslarining xabarlari;

2) ommaviy axborot vositalarining xabarlari;

3) surishtiruv, dastlabki tergov jarayonida va sudda boshqa jinoyat ishini ko'rish jarayonida olingan ma'lumotlar.

Agar sudga kelib tushgan iltimosnomada, protestda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksi 522-moddasi uchinchi qismining 1- 3-bandlarida nazarda tutilgan holatlarni ko'rsatuvchi ma'lumotlarga havola mavjud bo'lsa, sudya surishtiruv, tergov organlaridan va suddan tegishli protsessual hujjatlarni talab qilib oladi hamda asoslar mavjud bo'lgan taqdirda yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash to'g'risidagi yoki bunday asoslar mavjud emasligi

haqidagi masalani o‘z ajrimi bilan kassatsiya instansiyasi sudida ko‘rib chiqish uchun kiritadi.

Agar sudga kelib tushgan iltimosnomada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksi 522-moddasi uchinchi qismining 4-bandida ko‘rsatilgan holatlar ko‘rsatilgan bo‘lsa, sud materiallarni tergov o‘tkazish uchun prokurorga yuborish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Yangi ochilgan holatlar tergov qilinayotganda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan qoidalarga rioya etilgan holda so‘roq, ko‘zdan kechirish, ekspertiza, olib qo‘yish va boshqa tergov harakatlari o‘tkazilishi mumkin. Tergov natijalari bo‘yicha prokuror uch oylik muddatda sudga yangi ochilgan holatlar tufayli sud hukmi, ajrimini qayta ko‘rish uchun asoslar mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risida tegishli materiallarni ilova qilgan holda xulosa yuboradi.

Prokurorning xulosasini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sudya o‘z ajrimi bilan yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash to‘g‘risidagi yoki bunday asoslar mavjud emasligi haqidagi masalani kassatsiya instansiyasi sudida ko‘rib chiqish uchun kiritadi.

## **MATERIAL VA METODLAR**

Mazkur maqolada huquqiy tadqiqotning mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, analiz, sintez va ma‘lumotlar tahlili kabi metodlaridan foydalanilgan. Sudlar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari asosida hamda sohaga oid bo‘lgan ilmiy tushunchalar tahlil qilingan. Odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida, sud qarorlarining qonuniyligini, asosliligi va adolatliligini qayta ko‘rib chiqish tartibini ilg‘or xorijiy tajribaning o‘xshash hamda farqli jihatlari ochib berilgan.

## **MUHOKAMA**

Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qayta ko‘rib chiqish rivojlangan davlatlarda qanday degan savol bo‘lishi tabiiy. Shuning uchun Germaniya, Frantsiya, Angliya va AQSh singari davlatlarda yangi ochilgan holatlar sababli sudga murojaat qilish va ishni qaytadan boshlash masalasini ko‘rib chiqamiz. Angliya-Sakson huquq tizimining eng yorqin vakillari Angliya va AQShdir. **Angliya** jinoyat protsessida jinoyat ishlari bo‘yicha turli sudlarning qarorlariga shikoyat qilish va ko‘rib chiqishning barcha usullari odatda apellyatsiya deb ataladi. Hukmlarga shikoyat qilish erkinligi cheklangan. Apellyatsiya berish imkoniyati, bu sudning apellyatsiya faktini asosli deb topish to‘g‘risidagi qaroriga bog‘liq. Sud bu talabni qondirishi yoki rad etishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, apellyatsiya sudida yangi dalillar faqat hukmni bekor qilish uchun zarur bo'lgan hollarda ko'rib chiqilishi mumkin. Bunday holda, ishni birinchi instantsiya sudida yangidan ko'rib chiqish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Apellyatsiya sudi apellyatsiyani ko'rib chiqish natijasida ham hukmni bekor qilishga, ham ishni birinchi instantsiya sudining yangi instansiyasiga yuborishga haqli. Bunday qaror yangi dalillar paydo bo'lgan taqdirda qabul qilinadi; ishni dastlabki ko'rib chiqish paytida yo'l qo'yilgan jiddiy xatolarni aniqlagandan so'ng. Yomon tomonga burilishni taqiqlash tamoyili tufayli, yangi tayinlangan jazo, avvalgi jazodan og'irroq bo'lmasligi kerak.

Apellyatsiya sudi, shuningdek, venire de novo buyrug'ini chiqarish huquqiga ega (lotincha – "yana qaytish").[2] Bu buyruqning chiqarilishi natijasida o'tkazilgan sud jarayoni va uning jarayonida qabul qilingan qarorlar bekor qilinadi. Ammo ayblov tarafi ishni birinchi instansiyada ko'rib chiqish uchun ishni sudga qayta yuborishga haqli. 1988 yilda Jinoiy adliya to'g'risidagi qonun Bosh prokurorga toj sudining hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish huquqini berdi. Prokuratura 1996 yilgi "Jinoyat -protsessual va tergov to'g'risida"gi qonunni qabul qilib, oqlov hukmi ustidan shikoyat qilish huquqini oldi. Ammo faqat oqlov hakamlar hay'ati yoki guvohlarga ortiqcha bosim natijasida qilingan deb taxmin qilish uchun asos bo'lsa. Agar shikoyat qanoatlantirilsa, prokuror umumiy qoidalarga muvofiq jinoyat ishini qayta ochishga haqli. Bunday apellyatsiyaning o'ziga xosligi prokuror shikoyati Oliy sudga yuborilganligi bilan ta'kidlanadi.

Angliyada apellyatsiya berish muddati ham boshqacha 21 kun. Shuni ta'kidlash kerakki, bu muddat uzaytirilishi mumkin. Yangi sud jarayoni natijasida sud qarorini o'zgartirish yoki bekor qilish huquqiga ega. Himoyachilar ham, ayblovchilar ham shikoyat qilish huquqiga ega.[3]

**Amerika Qo'shma Shtatlari** ko'p jihatdan Angliya huquq tizimiga o'xshash. Shikoyat - ishini qayta ko'rib chiqish xarakterga ega. Sud amaliyoti hukmning haqiqatda to'plangan dalillar bilan ziddiyatini huquqning buzilishiga tenglashtiradi.

Umumiy qoida sifatida, faqat birinchi instantsiya sudida o'z aybini tan olmagan mahkum hukm ustidan shikoyat qilishi mumkin.[4]

Apellyatsiya instantsiyasi birinchi instantsiya sudi tomonidan tayinlangan jazoni qonun bilan belgilangan va Federal jazoni ijro etish yo'riqnomasi tomonidan tavsiya etilgan sanksiyalar chegaralari bajarilmagan taqdirdagina tuzatishi mumkin. Shu bilan birga, "yomonni taqiqlash" tamoyili bu erda ham amal qiladi.

Prokuror, agar uning fikricha, qonunbuzarlikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, hukm ustidan shikoyat qilish huquqiga ega. Prokurorning shikoyat qilishiga ruxsat berilgan aniq qonunbuzarliklar ro‘yxati mavjud.

Shu o‘rinda Romano-german huquq tizimi mamlakatlarida sud qarorlarini qayta ko‘rib chiqish institutining yangi ochilgan holatlarning xususiyatlarini ko‘rib o‘tamiz. Bu tizimning eng ko‘zga ko‘ringan vakillari - Frantsiya va Germaniya. O‘zbekiston Respublikasi kontinental huquq tizimiga kiradi, shu munosabat bilan bu mamlakatlar tajribasi bizni alohida qiziqtiradi.

**Fransiya** qonunchiligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, jinoyat protsessida sud qarorlari ustidan shikoyat qilishning ikki turi mavjud: oddiy va favqulodda. Oddiy turi apellyatsiya tarzida ko‘riladigan:

1) ishni sirtidan ko‘rib chiqish paytida chiqarilgan qarorlar ustidan shikoyat qilish;[5]

2) apellyatsiya tartibida ko‘rib chiqish.

Sud qarorlarini qayta ko‘rib chiqishning favqulodda shakllari sifatida quyidagilar ma‘lum:

1) kassatsiya;

2) qayta ko‘rib chiqish.[6]

Favqulodda shikoyat berishning navbatdagi shakli - bu hukmdagi faktik xatolarni tuzatishga qaratilgan qayta ko‘rib chiqish. Bu shaklni yangi ochilgan holatlar tufayli ishni qayta tiklash deyish mumkin. Frantsiya Jinoyat-protsessual kodeksiga ko‘ra, qayta ko‘rib chiqishni boshlash uchun asos hukmning aniq noto‘g‘ri ekanligidir. Tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi iltimosnoma mahkum yoki uning oila a‘zolari tomonidan kassatsiya sudiga yuboriladi va Adliya vazirining iltimosiga binoan qo‘llab-quvvatlanadi. Tekshirish jarayoni Konstitutsiyaviy sudning jinoyat ishlari bo‘yicha palatasi tomonidan amalga oshiriladi. Qoida tariqasida, agar shikoyat asoslansa, jinoyat palatasi hukmni bekor qilishi mumkin. Agar yangi ko‘rib chiqish zarurati tug‘ilsa, ish avval ko‘rib chiqilgan sudga emas, balki mohiyatini hisobga olgan holda sudlarga yuboriladi. Xususiyat shundaki, sud har qanday qaror qabul qilishga haqli, lekin shu bilan birga mahkumning ahvolini yomonlashtira olmaydi.

**Germaniya** Federativ Respublikasi Oliy sudi va Oliy yer sudlari tekshiruvchi instansiya vazifasini bajaradi. Apellyatsiya sudi qarorlari va Yer sudi (jinoyat ishlari bo‘yicha katta palata) va Oliy yer sudi (jinoyat ishlari bo‘yicha Senat) birinchi instantsiyasida chiqarilgan hukmlar Germaniya Federal Respublikasi Jinoyat - protsessual kodeksining 333 – moddasiga ko‘ra qayta ko‘rib chiqish tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Germaniyada sud qarorlarini qayta ko'rib chiqishning oxirgi turi - qonuniy kuchga kirgan hukm bilan yakunlangan ishni qayta boshlash. Yakuniy sud hukmi bilan yakunlangan ishni qayta ochish, Germaniya jinoyat ishining apellyatsiya va kassatsiya tartibida aniqlanmagan sud xatolarini bartaraf etishga qaratilgan favqulodda bosqichidir.

Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksi sudlangan shaxs manfaatlariga zid bo'lmagan ishni qayta boshlash uchun quyidagi asoslarni ko'rsatadi:

agar hujjat haqiqiy deb topilsa va ayblanuvchining aybsizligiga dalil sifatida ishlatilsa;

agar ayblanuvchining aybsizligiga dalil sifatida ishlatilgan guvohning ko'rsatmalari yoki ekspert xulosasi bila turib yolg'on bo'lsa;

agar sudlanuvchining ishi bo'yicha o'z xizmat vazifalarini jinoiy javobgarlikka tortganlikda aybdor deb topilgan sudya hukm chiqarishda ishtirok etgan bo'lsa;

agar oqlangan sudlanuvchi sudgacha yoki undan tashqarida jinoyat sodir etganlikda aybdorligini ishonchli tan olgan bo'lsa.

Sudlanuvchi, himoyachi va prokuror kabi protsess ishtirokchilari iltimosnoma berish huquqiga ega. Sudlangan shaxs vafot etgan taqdirda, bu huquqdan uning yaqin qarindoshlari foydalanishi mumkin.

Shu bilan birga, sudda ilgari bu asoslar haqida bilgan yoki bilmaganligini aniqlashga e'tibor qaratiladi. Dalillarni moddiy asoslilikini tekshirish. Bu erda dalillarning etariligi tekshiriladi. Sud ma'lum bir sudyaga (dastlab jinoyat ishini ko'rib chiqmagan) unda ko'rsatilgan dalillar va dalillarni o'rganishni topshiradi, bu ekspertlarni so'roq qilish, ashyoviy dalillarni o'rganish orqali amalga oshirilishi mumkin. Faqat moddiy asoslash uchun dalillarni o'rganib chiqqandan so'ng, sud iltimosnomani rad etish yoki ishni qayta boshlash va yangi sud tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Agar ish qayta tiklansa, yangi sud tayinlanadi. E'tibor bering, protsess qayta tiklanishi bilan ko'plab huquqlar yangilanadi: aybsizlik prezumptsiyasi o'z ishini davom ettiradi. Hukm bilan belgilangan cheklash olib tashlanadi.

Ishni qayta boshlash doirasidagi yangi sud jarayoni natijalariga ko'ra, sud quyidagi qarorlarni qabul qilishi mumkin:

- 1) ilgari chiqarilgan hukmni o'z kuchida qoldirish;
- 2) oldingi hukmni bekor qilish va yangi hukm qabul qilishi.

Agar ish yuritishni qayta boshlash to'g'risidagi iltimosnoma mahkumning foydasiga e'lon qilingan bo'lsa, yangi hukm chiqarilganda, yomon tomonga burilishga yo'l qo'yilmaydi.



## **TADQIQOT NATIJALARI**

Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash to'g'risidagi iltimosni yoki xabarni ko'rib chiqish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga beriladi. Jinoyat protsessida yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash nazorat tartibida ish yuritishga o'xshash mustaqil, bir vaqtning o'zida qo'shimcha bosqich hisoblanadi. Bu bosqichning yordamida birinchi va yuqori instansiya (apellyatsiya, kassatsiya) sudlarining xatolari, jinoiy suiistemolliklar aniqlanadi va bartaraf etiladi. Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asoslantirilganligi va adolatligini tekshirish bilan hukmlarni bekor qilish yoki o'zgartirish mahkumning ahvolini yengillashtirsa, yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishga hech qanday muddat belgilanmaydi;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rish institutini yanada takomillashtirish, taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi printsipiga rioya etilishini ta'minlash maqsadida 2021 -yil 12 – yanvarda kiritilgan qator yangiliklarni ko'rib o'tamiz.

– JPKning 57-bobiga yangi ochilgan holatlar tufayli jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni qaytadan boshlashning aniq qoidalari belgilovchi qo'shimchalar kiritildi. Sud qarorlarini qayta ko'rish tartibi bilan bevosita bog'liq bo'lgan mazkur institutni takomillashtirish maqsadida JPKning 522–527<sup>1</sup>-moddalariga qator yangiliklar kiritilgan, ularga ko'ra: ushbu huquqni ilgari nazarda tutilganidek nafaqat prokuror, balki jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari ham amalga oshirishi mumkin;

## **XULOSA**

Shunday qilib, Angliya va AQShda amalda bo'lgan sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish usullari tizimini tahlil qilish quyidagi xulosalar chiqarishimizga imkon beradi: ishni yuqori sudlarda ko'rib chiqish sharti - shikoyat, keyinchalik protestdir; apellyatsiya berish huquqi va imkoniyati ziddiyatli hisoblanadi (masalan, Angliyada, apellyatsiya berish, shuningdek, sud uni ko'rib chiqishni boshlashdan oldin apellyatsiya faktini asosli deb tan olishiga bog'liq); ayblov va himoyachiga sud qarorlari ustidan shikoyat qilishning turli huquqlari berilgan; aybiga iqror bo'lgan taqdirda, mahkum o'zini ishning haqiqiy holatlariga shikoyat qilish huquqidan mahrum qiladi, u faqat jinoiy yoki protsessual qonunning noto'g'ri qo'llanilishiga shikoyat qilish huquqiga ega; apellyatsiya sudining qarori qat'iy va shikoyat qilinmaydi; ishni apellyatsiya tartibida yoki boshqa shaklda ko'rib chiqishda, yomon tomonga burilishni taqiqlash printsipi qo'llaniladi.

Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksiga ko‘ra, qayta ko‘rib chiqishni boshlash uchun asos hukmning aniq noto‘g‘ri ekanligidir. Shikoyat mahkum yoki uning oila a‘zolari tomonidan kassatsiya sudiga yuboriladi. E‘tiborli jihati shundaki frantsiyada adliya vaziri sudga iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin. Agar ishni yangi ko‘rib chiqish zarurati tug‘ilsa, ish avval ko‘rib chiqilgan sudga emas, balki boshqa sudlarga yuboriladi. Bu tartib O‘zbekistonda ham amalda. Yuqorida ko‘rib chiqilgan davlatlarning o‘xshashlik darajasi yuqori. Masalan sud ishni qayta ko‘rib ilgari chiqarilgan hukmni o‘z kuchida qoldirish yoki oldingi hukmni bekor qilish va yangi hukm qabul qilishi mumkin. Yana bir xususiyat shundaki, sud har qanday qaror qabul qilishga haqli, lekin shu bilan birga mahkumning ahvolini yomonlashtira olmaydi. Ko‘rinib turibdiki O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. “Jinoyat qonunchiligini xalqaro standartlarga unifikatsiya qilinganligi va muvofiqlashtirilganligi nuqtayi nazaridan inventarizatsiya qilish” vazifasi yuqori darajada ekanligi va bunga zamin yaratgan Sud-huquq tizimini isloh etish yo‘nalishidagi huquqiy yechimini topishi zarur bo‘lgan qator muhim va dolzarb masalalar bo‘yicha qonunlarning qabul qilinishi aholining davlatimizda amalga oshirilayotgan oqilona siyosatga ishonchini yanada oshirmoqda. Shuning barobarida, bu dadil qadam hokimiyat tizimida sudlar mustaqilligini yanada mustahkamlaydi va odil sudlov darajasini xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirib, demokratik huquqiy davlat qurish hamda adolatli fuqarolik jamiyatini barpo yetishimizga benazir xizmat qiladi. Fikrimiz dalili sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 – yil 28 – yanvardagi PF 60 – son farmonida 2022 – 2026 – yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasida jinoyat qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish 14- maqsad qilib belgilanganligini ko‘rishimiz mumkin.

#### **IQTIBOSLAR/CHOCKII/REFERENCES:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat – protsessual kodeksi 522 – modda
2. Buyruq faqat protsessual buzilish aniqlangan taqdirda berilishi mumkin, bu esa butun sud muhokamasining haqiqiy emasligiga olib keladi.
3. Gutsenko K.F., Golovko L.V., Filimonov B.A. G‘arb davlatlarining jinoyat jarayoni. Qo‘llanma. Ed. 2 -chi, qo‘shing. va rev. - M.: Zertsalo, 2002.- 528 b.
4. Jinoyat -protsessual huquqi: darslik // P.A.ning umumiy tahriri ostida. Lupinskaya. -M.: Huquqshunos, 1997.- 591 p.

5. Bu tur prokuror tomonidan ish ko'rib chiqilganda sirdan qabul qilingan qarorga nisbatan qo'llaniladi, agar shaxs ish joyi va vaqti to'g'risida noto'g'ri xabardor qilinganligi sababli militsiya sudiga kelmagan bo'lsa.
6. To'xtasheva U.A. Jinoyat -protsessual sud xatolarini bartaraf etish yo'llari: Monografiya. - T.: TSUU nashriyot uyi, 2020.- S. 103.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi (Resolution of the President of the Republic of O'zbekistan "On improving the system of criminal and criminal legislation" National Database of Legislation, May 14, 2018, No. 3723). <https://lex.uz/docs/55471975//>;
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 1994-yil 22-sentabr, // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi (Criminal code of the Republic of Uzbekistan, National Database of Legislation, September 22, 1994.). <https://lex.uz/docs/6750126//>;
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat – protsessual kodeksi 1994-yil 22-sentabr
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2019.-- 80 b.
5. «O'zbekiston Respublikasi Jinoyat – protsessual, Iqtisodiy va Fuqarolik protsessual kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni. // Axboratnomasi Oliy Majlis, 2001yil, № 1-2; Qonun hujjatlari milliy ma'lumotlar bazasi, 30.01.2018, No 03/18/463/0634
6. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axboratnomasi, 1993, No 10, Art. 367 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axboratnomasi, 1995, 9 -son. 193; 1997 yil, 2 -modda. 56; 2001, № 1-2
7. Jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rish institutini takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat – protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi Qonuni 664 – son 2021 – yil 12 – yanvar.
8. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish konventsiyasi ETS No 117 (Strasburg, 22 noyabr 1984 yil) (o'zgartirilgan va to'ldirilgan) // <https://base.garant.ru>.
9. Frantsiya Jinoyat-protsessual kodeksi, 1958. // <https://www.legifrance.gouv.fr>.

- 
10. Germaniya Jinoyat qonuni // <https://ec.europa.eu> = st4258791 (1998-yil 13-noyabr). (German criminal code // <https://ec.europa.eu> = st4258791 (November 13, 1998));
11. To‘xtasheva U.A. Jinoyat -protsessual sud xatolarini bartaraf etish yo‘llari: Monografiya. - T.: TSUU nashriyot uyi, 2020.- S. 45-65.

## **SUDLOVGA TEGISHLILIK TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY MOHIYATI**

**Maxmadiyarova Xumora O'ktamovna**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi  
va amaliyoti" mutaxassisligi magistranti

e-mail: [xumoramaxmadiyarova@gmail.com](mailto:xumoramaxmadiyarova@gmail.com)

+998903740170

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada muallif tomonidan jinoyat ishlarining sudlovga tegishliligi, xususan sudlovga tegishlilik tushunchasi va uning ahamiyati ochib berishga harakat qilingan. Shuningdek, muallif jinoyat ishlarining sudlovga tegishliligi deganda jinoyat protsessual qonuni bilan jinoyat ishini u yoki bu sudda mazmunan ko'rilishini belgilovchi yuridik xususiyat tushunilishini, bu xususiyatga ko'ra jinoyat ishini qaysi sudga tegishli ekanligi va yagona sud tizimi ichida sudlar o'rtasidagi vakolatlar belgilanishini qayd etgan. Uning ta'kidlashicha sudlovga tegishlilik ikki xil ma'noda tushuniladi. sudlovga tegishlilik, birinchidan, ayrim jinoyat ishlarining ko'rilishi va hal qilinishi sud organlariga taalluqli (tegishli) bo'lishligini anglatadi; ikkinchidan, sudlovga tegishlilik yagona sud tizimiga kiradigan umumiy yurisdiksiya sudlarining qaysi biri muayyan jinoyat ishini ko'rish va hal qilishga huquqli bo'lishini bildiradi. Binobarin, sud organlarining vakolatiga kiradigan jinoyat ishlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari maqolada jinoiy odil sudlovga tegishlilik qoidalariga rioya qilmaslikning huquqiy oqibatlari qonunchilikda belgilanmaganligini qayd etadi.*

***Kalit so'zlar:** jinoiy odil sudlov, sudlovga tegishlilik, turdosh yoki predmetli tegishlilik, jinoyatchi shaxsiga ko'ra tegishlilik, hududiylikka ko'ra tegishlilik, mustasno tegishlilik, davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyat.*

### **ПОНЯТИЕ ПОДСУДНОСТИ И ЕЕ ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ**

**Махмадиярова Хумора Ўктамовна**

Ташкентский государственный юридический университет, магистр теории  
и практики уголовного права

[xumoramaxmadiyarova@gmail.com](mailto:xumoramaxmadiyarova@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*В этой статье автор пытается объяснить понятие подсудности уголовных дел для правосудия, в частности, концепцию подсудности и ее важность.*

*Также, когда автор говорит, что уголовное дело относится к той или иной суда, он отметил, что уголовно-процессуальный закон предусматривает понимание правовой природы преступления, которая определяет, рассматривается ли уголовное дело им или по содержанию в том или ином суде, согласно этой особенности, уголовное дело относится к в каком суде и в рамках единой судебной системы. Он отметил, что подсудность понимается двояко. Подсудность означает, во-первых, рассмотрение и разрешение определенных уголовных дел подчинено (соответствует) судебным органам; и, во-вторых, подсудность к судебной власти означает, что суды общей юрисдикции, которые входят в единую судебную систему, имеют право рассматривать и разрешать конкретное уголовное дело. Следовательно, она включает уголовные дела, которые относятся к компетенции судебных органов. Кроме того, в статье отмечается, что правовые последствия несоблюдения правил подсудности к уголовной юстиции законом не установлены.*

**Ключевые слова:** уголовное правосудие, подсудность, подсудность по типу или по субъекту, подсудность по лицу преступника, подсудность по территории, подсудность по исключению, преступление, длящееся и продолжаемое.

## **THE CONCEPT OF JURISDICTION AND ITS LEGAL ESSENCE**

**Makhmadiyarova Khumora Uktamovna**

Tashkent State Law University, Master's degree in Theory and Practice of  
Criminal Law

e-mail: [xumoramaxmadiyarova@gmail.com](mailto:xumoramaxmadiyarova@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*In this article, the author tries to explain the concept of jurisdiction of criminal cases for justice, in particular, the concept of jurisdiction and its importance. Also, when the author says that the criminal case belongs to a particular court, he noted that the criminal procedure law provides for an understanding of the legal nature of the crime, which determines whether a criminal case is considered by him or by the content in a particular court, according to this feature, the criminal case belongs to which court and in which within the framework of the unified judicial system. He noted that jurisdiction is understood in two ways. Jurisdiction means, firstly, the consideration and resolution of certain criminal cases is subordinated to*

(corresponds to) and, secondly, the jurisdiction of the judiciary means that the courts of general jurisdiction, which are part of a single judicial system, have the right to consider and resolve a specific criminal case. Consequently, it includes criminal cases that fall within the competence of judicial authorities. In addition, the article notes that the legal consequences of non-compliance with the rules of jurisdiction for criminal justice are not established by law.

**Keywords:** criminal justice, jurisdiction, jurisdiction by type or by subject, jurisdiction by person of the criminal, jurisdiction by territory, jurisdiction by exclusion, crime lasting and continuing.

### KIRISH

Mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmuni sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sudlar faoliyati samaradorligini oshirish, aholining odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan ham sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta‘minlash, shuningdek odil sudlovga erishish darajasini oshirish sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga muvofiq jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta‘minlab beriladi<sup>248</sup>.

Shuningdek, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Konvensiyaning 6-moddasi<sup>249</sup> hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktning 14-moddasiga<sup>250</sup> muvofiq, har kim qonun va sud oldida tengdir; har kim o‘zining fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilashda yoki unga qo‘yilgan har qanday jinoiy ayblovni qonunda belgilangan vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan oqilona vaqt ichida adolatli ko‘rib chiqilishi huquqiga ega. Jinoyat ishlarining sudga tegishliligi jinoiy odil sudlovni amalga oshiruvchi organlar tomonidan ularni ko‘rib chiqilishining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlovga tegishlilik jinoyat-protsessual qonuni asosida muayyan jinoyat ishini u yoki bu sudda mazmunan ko‘rilishini nazarda tutuvchi

<sup>248</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. <https://lex.uz/docs/20596>

<sup>249</sup> <https://treaties.un.org/pages/showDetails.aspx?objid=080000028014a40b>

<sup>250</sup> <https://treaties.un.org/doc/publication/unts/volume%20999/volume-999-i-14668-english.pdf>

huquqiy mezon hisoblanadi. Unga ko'ra jinoyat ishining qaysi sudga taalluqli ekanligi belgilanadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Shu o'rinda sudlovga taalluqlilikni ikki xil ma'noda tushunish mumkin:

– ayrim jinoyat ishlarining ko'rilishi va hal qilinishi sud organlariga taalluqli (tegishli) bo'lishi;

– sudlovga tegishlilik yagona sud tizimiga kiradigan umumiy yurisdiksiya sudlarining qaysi biri jinoyat ishini ko'rish va hal qilish vakolatiga egaligini bildiradi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq Jinoyat kodeksi 97-moddasining ikkinchi qismida, 118-moddasining to'rtinchi qismida, 150, 153, 155, 157, 158-moddalarida, 159-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlarida, 160, 161-moddalarida, 210-moddasining uchinchi qismida, 230, 231, 242, 244-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyatlar, Toshkent shahar sudining sudloviga tegishlidir.

Mazkur masalada qonun chiqaruvchining irodasi agar bir sudda ko'rib chiqilayotgan jinoyat ishi bo'yicha sud muhokamasi paytida sudlanuvchi tomonidan boshqa sud sudloviga tegishli jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa, ishni ko'rib chiqish sud muhokamasini boshlagan sud tomonidan davom ettirilishini ifoda etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, sudlovga tegishlilik sud organlariga tegishli bo'lgan jinoyat ishlarining mazmuniga ko'ra sud instansiyalari o'rtasida taqsimlanishi, shuningdek hududiy yoki shaxsga ko'ra mazkur jinoyat ishining aynan qaysi sudga taalluqli bo'lishini bildiradi.

Qayd etilganidek, jinoyat ishining qaysi sudga taalluqliligini belgilash mazmunan ko'rib hal qilinishi lozim bo'lgan jinoyat ishining turiga bog'liq. Mutaxassislar bu borada sudlovga tegishlilikning quyidagi bir nechta turlarini farqlashadi:

- *turdosh yoki predmetli*;
- *jinoyatchi shaxsiga ko'ra*;
- *hududiylikka ko'ra tegishlilik*;
- *mustasno tegishlilik*<sup>251</sup>.

Buning mazmuni shuni anglatadiki, *turdosh yoki predmetli* sudlovga tegishlilik jinoyat ishining turi yoki xarakteriga qarab jinoyat ishlarning turli sudlarga tegishliliigi tushuniladi. Bu sudlovga tegishlilikni belgilashda jinoiy ish turi,

<sup>251</sup> О.Б.Порцева. Подсудность уголовных дел. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Ижевск. 2004. – С.14.



jinoyatning predmeti nimadan iborat bo'lishi va jinoyat sub'ektlari kimlar bo'lishini ham e'tiborga oladi. Turdosh sudlovga tegishlilik bo'yicha yagona sud tizimidagi turli sudlar o'rtasidagi vakolat ajratiladi.

*Jinoyatchi shaxsiga ko'ra* sudlovga tegishlilik tasnifi xususida so'z yuritganda harbiylarga nisbatan shaxsiga ko'ra sudlovga tegishlilik qo'llanilishini misol qilish mumkin. Shu sababdan ham harbiylarning jinoyat ishlari maxsus harbiy sudlar sudlovida ko'rib chiqiladi.

Jinoyat ishining *hududiy jihatdan sudlovga tegishlili*gi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 391-moddasida mustahkamlangan. Unga ko'ra, jinoyat ishi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan joydagi sudda ko'riladi. Agar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan joyni aniqlash imkoni bo'lmasa, jinoyat ishi dastlabki tergov yoki surishtiruv tamomlangan hududdagi sud tomonidan ko'riladi.

Jinoyat ishining jinoyat sodir bo'lgan joyda ko'rilishi ko'pchilik guvohlar va jabrlanganlarni chaqirishni osonlashtiradi. Bu esa ularning ishtirok etishiga va tegishli dalillarni ta'minlaydi. Sudyalarning tayinlab qo'yilgan joyda ishni ko'rib hal qilishlari odil sudlov faoliyatida ham muhim o'rin tutadi va sudlovning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytiradi<sup>252</sup>.

Bir qancha jinoyat sodir etish o'z xususiyati va ahamiyatiga ko'ra, alohida sodir qilinadigan – davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlardan farqlanadi. Ma'lumki, davomli jinoyat deb yagona qasd bilan qamrab olingan bitta jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi jinoyat ob'ektiv tomon harakatlarni bo'lib-bo'lib bajarishda ifodalanadigan jinoyat turiga aytiladi. Odatda, ushbu jinoyat turida shaxs sodir etishni istagan yagona jinoyatini tashqi tomonini ifodalovchi harakatlarni turli vaqtlarda bo'lib-bo'lib bajarishi tushuniladi.

Qilmish turli vaqtlarda bajarilsada, tajovuz qilinayotgan ob'ekt, sodir qilish usuli va oqibat bir xil bo'ladi. Davomli jinoyat bir necha hatti-harakatlardan oxirgisi sodir etilgan vaqtdan boshlab tugallangan hisoblanadi. Ushbu holatda jinoiy harakat shaxsning o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra to'xtatilgan bo'lsa, qilmish shaxsning sodir etishni istagan jinoyatiga nisbatan suiqasd qilish deb kvalifikatsiya qilinadi. Davomli jinoyat sodir etilishi davrida shaxs tomonidan boshqa jinoyat sodir etilgan bo'lib, uning belgilari JKning davomli jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan qamrab olinmasa, uning harkatlari JKning davomli jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi hamda boshqa jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari bilan jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

<sup>252</sup> Jinoyat-protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti. – B.163.

Qonunga o'zgartirish kiritilishi tufayli sodir etilgan qilmish uchun jazoni og'irlashtiradigan yoki shaxsning (aybdorning) ahvolini boshqacha tarzda yomonlashtiradigan holatlar nazarda tutilgan bo'lsa va davomli jinoyat epizodlaridan hech bo'lmaganda bittasi ushbu qonun kuchga kirgandan keyin sodir etilganda, davomli jinoyatning barcha epizodlari yangi qonun bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim bo'ladi. Uzoqqa cho'zilgan jinoyat deb esa jinoyat qonuni orqali jinoiy jazo qo'llash tahdidi bilan aybdorga yuklatilgan vazifalarning uzoq vaqt mobaynida bajarilmasligidan iborat bo'lgan qilmishi tushuniladi<sup>253</sup>.

Ko'pincha uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar harakatsizlik orqali sodir etiladigan qilmish bo'lib, shaxs o'ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni uzoq vaqt mobaynida bajarmasligida ifodalanadigan passiv xulq-atvorida ifodalanadi. Uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarda ham shaxsning harakatlari bitta ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholanib, JK Maxsus qismning bitta moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bu turdagi jinoyatlarda ham jinoiy harakat yoki harakatsizlik to'xtatilgan paytdan boshlab, qilmish tugallangan jinoyat deb topiladi.

Xuddi shunday uzoqqa cho'zilgan yoki davomli jinoyatlarga doir ishlar jinoyat qaysi hududda tamomlangan yoki to'xtatilgan bo'lsa, shu *hududdagi sudning sudloviga tegishli* bo'ladi.

Jinoyat ishining *mustasno tegishliligi* shuni anglatadiki, ayrim jinoyat ishlari ularning xususiyatlarini inobatga olib, faqat muayyan sudga tegishli bo'lishi belgilanadi<sup>254</sup>.

Mustasno sudlovga tegishlilik haqida so'z yuritganda jinoyat-protsessual qonunda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga qanday jinoyat ishlari tegishli bo'lishi ko'rsatilmagan, faqat O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan jinoyat ishlarining jamoat uchun ahamiyatli bo'lishi va o'ta murakkab ishlarni malakali tekshirish talab qilish lozimligi ko'rsatilgan. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi o'ta murakkab yoki muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni (turdosh yoki predmetli, shaxsiy, hududiy) tegishliligiga qaramasdan o'zi ko'rish uchun chaqirtirib olishi mumkin. Bu turdagi sudlovga tegishli ishlar ikki manbadan olinadi.

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan yuborilganishlar;
- quyidagilardan chaqirtirib olingan ishlar.

<sup>253</sup> Очилов Х.Р., Хайдаров Ш.Д., Шамсидинов З.З. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2021. – Б.73.

<sup>254</sup> С.Н.Семенов. Уголовно-процессуальная подсудность. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва. 2007. – С.18.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan yuborilgan jinoyat ishini o‘zi ko‘rib hal qilishi majburiy emas. Bunday ishlarni lozim topganda o‘zi ko‘rmasdan tegishli bo‘lishiga qarab boshqa o‘zidan quyi sudlarga yuborishi mumkin. X.Xudayberdievning ta’kidlashicha, jinoyat-protsessual qonunida ko‘rsatilgan jinoyat ishining sudlovga tegishliligiga amal qilingan taqdirda quyidagilarga ya’ni, jinoyatlarning barcha holatlarini har tomonlama, chuqur ko‘rib chiqishga, hukmning qonuniy, asosli, adolatli bo‘lishiga, sudning esa ahamiyatini oshirishga erishiladi. Jinoyat ishlarining sudlovga tegishliligining belgilanishi sudlar tomonidan qonuniy asosli adolatli hukm chiqarilishini ta’minlaydi<sup>255</sup>.

Bugungi kunda fan va texnika rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimida ham bir qator o'zgarishlar bo'lib kelmoqda. Aynan kimyo fani boshqa fanlardan farqli ravishda biroz murakkab hisoblanadi [1-16], chunki bu fanni chuqur o'rganish uchun ham nazariy, ham mental tasavvur bo'lishi zarur. Kimyo darsida nazariy materiallarni o'rganish bilan birga doimo parallel ravishda turli xil usulda hisoblanadigan masalalar yechib boriladi [1-12]. Kimyo kursi faqatgina nazariy emas balki amaliy ko'nikma hamda masalalar yechishni o'rganishni talab qiladi. Kimyo kursida eng muhim bo'limlardan sanalgan eritmalar mavzusini o'rganish jarayonida olingan bilimlarni masalalar yechish yordamida ham mustahkamlash maqsadga muvofiq, bunda “oddiydan murakkabga” tamoyili qo'llaniladi. Odatda kimyoga doir masalalarni to'g'ri bajara olish uchun birinchi navbatda nazariy bilim: kimyoning

asosiy tushuncha va qonunlari, kimyoviy jarayon, moddalarning xossalari hamda kimyoviy tenglama va formulalar haqida bilimga ega bo'lish talab etiladi [1-2].

Kimyoga doir masalalarni muntazam ravishda yechib borish olingan nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Kimyoning hisoblanadigan masalalarini shartli ravishda 2 ta asosiy guruhga bo'lish mumkin. Kimyoviy formulalar asosida yechish va reaksiya tenglamalari bo'yicha yechish. Lekin masalalarning shart va mazmunlari turlicha bo'lishi mumkin[2]. Tajriba shuni ko'rsatadiki, kimyodan mustahkam bilimga ega, matematikadan yaxshi tayyorgarligi bor ko'pchilik o'quvchilar uchun hisoblanadigan masalalarni yechish uncha qiyinchilik tug'dirmaydi. Shunday bo'lsa ham barcha o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradigan va ularni yechish usullarini o'zlashtirish uchun uzoq mashq talab qilinadigan ayrim masalalar ham bor. Ularga eritmalar nazariyasi va mahsulot chiqimidagi % ni aniqlash bilan bo'g'liq masalalar shular jumlasidandir. O'quvchilar bilan bu kabi kimyodan masala va mashqlarni muntazam ishlab borish ularni to'g'ri tashkil qilish, o'quvchilarning kimyoga qiziqishini oshirib, mustaqil bilim olish malakalarini shakllantiradi. Kasb tanlashga bo'lgan qiziqish va malakalarini oshirib boradi [4-6].

Eritmalar mavzusiga oid masalalar yechishga kirishishdan oldin kimyoviy ushbu mavzuning nazariy qismini yaxshi o'qib o'rganish va formulalarini yodlab olish lozim. Eritmalar bu juda katta mavzu bo'lib, ularda foiz konsentratsiya, molyar konsentratsiya, molyal konsentratsiya, normal konsentratsiya va titr konsentratsiyani ifodalash mumkin. Keling biz eritmalarining foiz konsentratsiyasini ifodalashga oid masalarni olib ko'raylik.

### **MUHOKAMA**

Erigan moddaning massa ulishi. (Protsent yoki foiz konsentratsiya).

$W(\omega)$  yoki  $C\%$  bilan belgilanadi. *Massa ulush – eritmaning har 100g da necha g erigan modda borligini ko'rsatadi yoki erigan modda massasining eritmaga nisbatidir.*

$$\omega = \frac{m_{eriganmod}}{m_{eritma}} = \frac{m_{tuz}}{m_{tuz} + m_{suv}} = \frac{m_{eriganmod}}{\rho \cdot V_{eritma}}$$
 formula orqali ifodalash mumkin.

Masala yechish:

1. 400ml  $\rho=1.24\text{g/ml}$  bo'lgan natriy ishqori eritmasida 100g NaOH bo'lsa, eritmaning massa ulishini aniqlang?

Berilgan:

$$V=400\text{ml}=0.4\text{ l}$$

$$\rho=1.24\text{g/ml}$$


$$m_{\text{NaOH}}=100\text{g}$$

---

$$W=?$$

Yechish:

Eritmani quyidagicha tasavur qilsak bo'ladi.



Quyidagicha yechamiz.

$$a. V = \frac{m_{\text{eritma}}}{\rho_{\text{eritma}}} \quad \text{dan } m_{\text{eritmani}} \text{ topamiz. } m_{\text{eritma}} = \rho \cdot V_{\text{eritma}} = 1.24\text{g/ml} \cdot 400\text{ml} = 496\text{g}$$

$$b. W = \frac{m_{\text{NaOH}}}{m_{\text{eritma}}} = \frac{100\text{g}}{496\text{g}} = 0.2015 \cdot 100\% = 20.16\% \quad \text{NaOH bor ekan.}$$

Eruvchanlik va foiz konsentratsiya o'rtasida quyidagicha bog'lanish mavjud:

$$\omega = \frac{S}{100 + S}$$

$\omega$ - massa ulish (%) )

$m_{\text{erigan modd}}$ - erigan moddanning massasi. (g)

$m_{\text{eritma}}$ - eritmaning massasi.(g)

$\rho$ - zichlik (g/ml)

$v$ - hajm (ml)

$S$ - eruvchanlik kofitsenti.

2. Moddaning  $S=40$  ga teng. Eritmaning massa ulishini aniqlang?

Berilgan:

$$S=40$$

---

$$W=?$$

Yechish: Demak modda ma'lum temperaturada 100 g suvda 40 g

erishi ko'rinib turibdi. Massa ulush bilan eruvchanlik o'rtasidagi bog'langan formulaga qo'yamiz.

$$W = \frac{S}{100 + S} = \frac{40g}{100g + 40g} = \frac{40g}{140g} = 0.286 \cdot 100\% = 28.6\% \text{ ga teng.}$$

3. 4 mol suvda 20 l HCl erishidan hosil bolgan eritmaning massa ulishini aniqlang?

Berilgan:


$$n_{\text{suv}} = 4 \text{ mol}$$

$$V_{\text{HCl}} = 20 \text{ l}$$

$$W = ?$$

Yechish:

Buning o'quvchiga tushinarli bo'lishi uchun eng avvalo eritmaning hosil bo'lishini tasavur qilgan holda eritmaning oddiy rasmini chizib olamiz.



Ko'rinib turibdiki, qo'shilayotgan suv va HCl massalarini topib olishimiz kerak.

$m$  ni topish uchun eng avvalo suvning nisbiy molyar massasini topishimiz kerak.

a.  $M_{r(\text{suv})} = 2A_{r(\text{H})} + A_{r(\text{O})} = 2 \cdot 1 + 16 = 18 \text{ g/mol}$

b. Undan so'ng  $m$  ni topamiz.  $n = \frac{m}{M}$  bo'lsa,  $m$  ni topsak  $m = n \cdot M$  bo'ladi.

$$m = n \cdot M = 4 \text{ mol} \cdot 18 \text{ g/mol} = 72 \text{ g} \text{ suv qo'shilgan bo'ladi.}$$

c. HCl ning massasini topishda hajmidan foydalanib miqdorini, miqdoridan esa massasini topamiz.

$$n = \frac{v}{v_m} = \frac{20 \text{ l}}{22.4 \text{ l}} = 0.893 \text{ mol HCl bor. Uning massasini topish uchun HCl ning}$$

nisbiy malyar massasini topamiz.  $M_{(\text{HCl})} = A_{r(\text{H})} + A_{r(\text{Cl})} = 1 + 35.5 = 36.5 \text{ g/mol}$  gat



eng.Keyin  $n = \frac{m}{M}$  bu formuladan dan topamiz.

$$m = n \cdot M = 0.893 \text{ mol} \cdot 36.5 \text{ g/mol} = 32.6 \text{ g HCl}$$

d. Eritmaning massasi qo'shilgan suv va HCl massalarini yig'indisiga teng.

$$m_{\text{eritm}} = m_{\text{HCl}} + m_{\text{suv}} = 72 \text{ g} + 32.6 \text{ g} = 104.6 \text{ g ga teng.}$$

e. Mssa ulishni topish uchun erigan HCl massasini eritma massasiga nisbati bilan topiladi.

$$W = \frac{m_{\text{erigan modd}}}{m_{\text{eritma}}} = \frac{32.6 \text{ g}}{104.6 \text{ g}} = 0.3117 \cdot 100\% = 31.17\% \text{ li eritma hosil bo'lgan.}$$

## XULOSA

Har xil ko'rinishdagi masalalar o'quvchini mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, ayniqsa ularni bir-biri bilan taqqoslash zarur. Masalalar o'quvchilarga kimyoviy tushunchani shakllantirishga, hayotni kimyo bilan bog'lashga kimyoning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va uni amalda qo'llashni o'rgatadi. Masalalar darsni turli xil qiziqarli va mazmunli qiladi. Bundan tashqari masalalar o'quvchilar uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki ular o'quvchida ijobiy o'zgarishlarni ya'ni qat'iylikni, jiddiylikni, erkinlikni, o'z ishida javobgarlikni, tarbiyaviylikni, ozodalikni va har qanday qiyinchiliklarga tayyorligini ta'minlaydi.

## REFERENCES

1. Чернобельская Г. М. Методика обучения химии в средней школе: Учеб. для студ. высш.учеб.зав. М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. —336 с.
2. Қодирова, З. К. (2021). ИБН СИНОНИНГ КИМЁ ВА ТОКСИКОЛОГИК КИМЁ ФАНЛАРИ РИВОЖИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ. *Science and Education*, 2(2).
3. Садуллаева, Г. Г. К., & Джумаева, М. К. (2021). СИНТЕЗ, СТРУКТУРА И СВОЙСТВА NI (II) И ZN (II) КОМПЛЕКСНЫХ СОЕДИНЕНИЙ НА ОСНОВЕ АЛЬДЕГИДА БЕНЗОИЛУКСУСА. *Universum: химия и биология*, (12-2 (90)), 14-17.
4. Safarova, N. S. (2020). Some ways to increase the educational and conscious activity of students of medical institutes in chemistry classes. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(1).
5. Гуламова, М. Т., & Джумаева, М. К. (2021). О ТРУДЕ «РОМУЗУЛ АХАДИС» АХМАДА ЗИЯВУДДИНА АЛЬ-КУМУШХАНАВИ. *Universum: общественные науки*, (11-12 (79)), 41-43.

6. Каримов, Ж. С., & Ниязов, Л. Н. (2021). ПРОИЗВОДНЫЕ ТИОМОЧЕВИНЫ С ГИДРОКСИБЕНЗОЙНЫМИ КИСЛОТАМИ. *Universum: химия и биология*, (8 (86)), 61-63.
7. Ниязов Л.Н., Бахромов Х.К., Гапуров У.У.4-Гидроксibenзой кислотанинг баъзи аминокислоталар билан ҳосилалари квант-кимёвий хоссалари.// Бухоро мухандислик технология институти: Фан ва технологиялар тараққиёти илмий-техникавий журн.–2020.– №4. –74-78 б.
8. Ниязов Л.Н., Брель А.К.,Бахромов Х.К., Салитцил кислота амиди тузининг аминобутан кислота билан синтези.//Бухарский технологический институт:Развитие науки и технологий научно-технический журнал. –2020. – №5. – С. –44-46 б.
9. Гапуров У. У., Ниязов Л. Н. АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПОЛУЧЕНИЯ ПРОИЗВОДНЫХСАЛИЦИЛОВОЙ КИСЛОТЫ С П-АМИНОБЕНЗОЙНОЙ КИСЛОТОЙ ДЛЯ ФАРМАЦЕВТИКИ //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 8 (86). – С. 64-66.
10. Sadullayeva G. G., Rakhmatov S. B. AMPEROMETRIC METHOD OF ANALYSIS AND ITS ADVANTAGES OVER OTHER METHODS //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 4-8.
11. Савинчова Д. Н.и др. СИНТЕЗ И СТРОЕНИЕ ПАРАЗАМЕЩЕННЫХ АРОИЛГИДРАЗОНОВ ЭТИЛОВОГО ЭФИРА 2,4 - ДИОКСОПЕНТАНОВОЙ КИСЛОТЫ // Научный вестник Наманганского государственного университета. – 2020. – Т. 2. – №. 10. – С. 106-113.
12. Амонович Т. М. и др. Синтез и ЭПР-спектроскопия комплексов меди (II) с ацил - и ароилгидразонами метилового эфира 5,5 - диметил-2,4-диоксогексановой кислоты // American Journal of Heterocyclic Chemistry. – 2020. – Т. 6. – №. 2. – С. 24-29.
13. Niyazov L., Brel A., G'apurov U. Xorijiy talalabalarga tibbiy kimyo fanidan dars berishning o'ziga xosliklari //Pedagogik Mahorat. – 2021. – №. 3. – С. 224-226.
14. САФАРОВА Н.и др. Применение интерактивных методов в медицинском образовании: Метод кластеризации в обучении гетероциклическим соединениям / / Труды 37-й Международной ассоциации управления деловой информацией (ИВИМА). – 2021. – С. 30-31.
15. Ганиев Б. Ш. и др. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММЫ CHEMSKETCH В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ

---

УСПЕВАЕМОСТИ УЧАЩИХСЯ //Universum: психология и образование. – 2021. – №. 12 (90). – С. 14-17.

16. Safarova D. E., Gaybullayeva G. M. O'zbekistonda to'qimachilik korxonalarini rivojlantirishda davlat dasturlaridan foydalanish yo'nalishlari //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 676-682.

17. Safarova, N. S., G'afurov, U. U., & Omonov, X. T. (2022). VENN GRAFIK USLUBIDAN KIMYO DARSLARIDA FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 134-138.

## **QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA KLASTER TIZIMINI JORIY QILISH MEXANIZMLARI**

**Eshev Alibek Sabirovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Biznes va innovatsion menejment"  
kafedrası katta o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu takliflar qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan maqsulotlarni raqobatbardoshligini ta'minlashda albatta klaster tizimini joriy qilish bugungi kunning dolzarb masalasi hisblanadi. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini raqobatbardoshligini ta'minlashda klaster tizimini joriy qilish mexanizmlari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** raqobat, klaster siyosati, davlat-xususiy sheriklik, intervension klaster siyosati, shartnoma munosabatlari, kooperatsiya, ixtisoslashuv, kontsentratsiya, ishlab chiqarish klasteri, innovatsion klaster, aktsionizatsiya, kooperatsiya yoki klasterlash mexanizmlari

### **АННОТАЦИЯ**

*Эти предложения безусловно являются актуальным вопросом внедрения кластерной системы в обеспечение конкурентоспособности сельскохозяйственной продукции. В связи с этим в данной статье разработаны рекомендации по механизмам реализации кластерной системы обеспечения конкурентоспособности сельскохозяйственной продукции.*

**Ключевые слова:** конкуренция, кластерная политика, государственно-частное партнерство, интервенционная кластерная политика, договорные отношения, кооперация, специализация, концентрация, производственный кластер, инновационный кластер, приватизация, механизмы кооперации или кластеризации.

### **ABSTRACT**

*These proposals are of course the current issue of the introduction of a cluster system in ensuring the competitiveness of agricultural products. In this regard, this article develops recommendations on the mechanisms for implementing a cluster system to ensure the competitiveness of agricultural products.*

**Keywords:** competition, cluster policy, public-private partnership, intervention cluster policy, contractual relations, cooperation, specialization, concentration,

*production cluster, innovation cluster, privatization, cooperation or clustering mechanisms.*

## **KIRISH**

Ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rinni egallagan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqobatbardoshlikni ta'minlash va dunyo bozorlarida o'rnini topish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik-texnologik yangilash jarayonlarini tezlashtirish orqali sifatli va raqobatbardosh mahsulot tayyorlashni ta'minlash hisobidan amalga oshirilishi o'z isbotini topmoqda.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatdiki, iqtisodiyotni klasterlashtirish oldindan belgilab beriladi va u raqobatbardoshlikni oshirishga hamda korxonalarining innovatsion faoliyatini jadallashtirish jarayonlariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son farmonida quyidagi choral-talablarni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan, ya'ni "...kooperatsiya va klaster tizimi asosida mahsulot yetishtirish, uni qayta ishlash, saqlash va ichki hamda tashqi bozorlarga sotish tizimi yo'lga qo'yiladi".<sup>259</sup>

## **METODLAR**

Tadqiqot jarayonida qiyosiy, mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan foydalanildi.

## **NATIJALAR**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligi mikroiqtisodiy kategoriya hisoblanadi, shuning uchun ham uning darajasini ko'tarish iqtisodiyotning agrar soha sub'ektlarining manfaatlari in'ikosi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berishda raqobatbardoshligining dialektikligi shundan iboratki, aynan unda qishloq xo'jaligi sohasi va davlatning iqtisodiy manfaatlarning birligi, shu bilan birgalikda qarama-qarshiligi ham namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi nuqtai nazaridan qaraladi, ya'ni bir tomondan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligining darajasi ma'lum bir darajada makroiqtisodiyot omillar bilan aniqlansa, ularni tartibga solib

<sup>259</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni. 23.10.2019 y.

turilishi esa davlatning vakolatida bo'ladi. Boshqa bir tarafdin esa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshlik o'rnini mustahkamlash umumdavlat iqtisodiy manfaatlar sohasiga qarashli bo'lgan, xususan iqtisodiy va oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash kabi makroiqtisodiy xarakterdagi butun bir qator muammolarni hal qilinishiga imkon yaratadi.

Mamlakat hududlarining raqobatbardosh salohiyatini ro'yobga chiqarish maqsadida hududiy-ishlab chiqarish klasterlari tarmog'ini yaratishni, shuningdek mamlakatning hududlarida bir qator yuqori texnologik klasterlarni shakllantirishni nazarda tutadigan uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasi ishlab chiqilishini taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligining tarmoqlararo integratsiyasi bu aksionizatsiya, kooperatsiya yoki klasterlash mexanizmlaridan foydalangan holda birgalikdagi faoliyatni tashkil etishdir. Bugungi kunda yirik xo'jaliklar o'zlarining rivojlanishini aksionizatsiya mexanizmlaridan, o'rta va kichik xo'jaliklar - kooperatsiya va klasterlash mexanizmlaridan foydalangan holda ta'minlamoqda. Klaster sub'ektlari qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Klasterlash mexanizmidan foydalanish ma'lum bir hududda joylashgan texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan barcha xo'jaliklarning huquqiy mustaqilligini yo'qotmasdan, ularning chuqur ishlab chiqarish ixtisoslashuvi tufayli birgalikdagi faoliyatini tashkil etishga imkon beradi. Klaster doirasidagi qishloq xo'jaligining qo'shma faoliyatini boshqa integratsion shakllari bilan taqqoslash quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- ❖ hududiy lokalizatsiya, klasterda qatnashadigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy qismining geografik yaqinligi;

- ❖ kooperatsiya, ixtisoslashuv va konsentratsiyani rivojlantirishning yuqori darajasi;

- ❖ klaster tizimi ishtirokchilarining iqtisodiy aloqalarining barqarorligi, uning ko'pchilik ishtirokchilari uchun ushbu aloqalarning ustunligi;

- ❖ barcha klaster a'zolarining uzoq muddatli iqtisodiy, sarmoyaviy, innovatsion va boshqa strategiyasini belgilaydigan yirik yetakchi tashkilotning mavjudligi;

- ❖ innovatsion jarayonlarning ishlab chiqarish dasturlari, asosiy boshqaruv tizimlari, sifat nazorati doirasida klaster a'zolari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni uzoq muddatli muvofiqlashtirish;

- ❖ barcha ishtirokchilar uchun umumiy mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar, tovar, brend), masalan, don, sabzavot, sut, go'sht, parranda tuxumlari va h.o.lar.

❖ mahsulot zanjiri ishtirokchilari o'rtasida tenglik almashinuvi asosida mustaqil korxonalar, kooperatsiya va ishonch klasteriga a'zolikning ixtiyoriyligi va ochiqdigi;  
❖ klaster birlashmasining hokimiyat bilan yaqin o'zaro aloqasi;  
❖ hakamlik sudining mavjudligi;  
❖ klasterlarni shakllantirish va ishlash mexanizmi mintaqaviy sinergetik ta'sirga ega bo'lib, u resurslarni (moddiy, mehnat, moliyaviy, axborot, innovatsion) birlashtirish yoki birgalikda foydalanish, transaktsiya xarajatlarini kamaytirish, bozorga kirish, ishtirokchilar manfaatlarini hal qilish va muvozanatlash, o'z-o'zini tashkil etishning samarali tizimini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

M. Porter<sup>260</sup> klasterlarni keng o'rganishni boshlagan birinchi olim hisoblanadi. U globallashtirish sharoitida ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishni tarmoq (tarmoqlar) yondashuvi o'z pozitsiyalarini yo'qotmoqda va firmalar va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni klasterli tashkil etish tizimlari birinchi o'rinda turadi degan xulosaga keladi.

M.A. Xvesik va A.S.Lesitskiy<sup>261</sup> ning fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligi sohasida ikki xil klaster - innovatsiya va ishlab chiqarishni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

1. Innovatsion klaster - bu ilmiy, tadqiqot va tajriba-konstruktorlik institutlari, ta'lim muassasalari, konsalting kompaniyalari, muhandislik firmalari, biznes tuzilmalarini innovatsion provayderlarni, boshqa tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash uchun korporativ ierarxiya va bozor mexanizmidan foydalangan holda ularning harakatlarini birgalikda markazlashtirilgan muvofiqlashtirish orqali birlashtirib, raqobatbardosh ustunliklarga erishishning eng ilg'or shaklidir.

2. Ishlab chiqarish klasteri - qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini, mahsulotlarni qayta ishlash va saqlashni, logistika va marketing kompaniyalari tarmog'ini, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini birlashtiradi. Uning asosiy afzalliklari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning tarmoq tizimi bilan taqqoslaganda, yaqinroq va "arzon" xo'jaliklararo aloqalar, ishlab chiqarish kuchlaridan birgalikda foydalanish orqali ishlab chiqarish miqyosining tejamkorligini qo'llash uchun mavjud sharoitlar, shuningdek yopiq ishlab chiqarish tsiklini yaratish orqali sezilarli raqobatbardosh ustunliklarga erishish, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlashdan iboratdir.

<sup>260</sup> Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов / М. Портер; пер. с англ. И. Минервин. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2005. – 454 с.

<sup>261</sup> Сельскохозяйственный комплекс Украины: социально-экономические приоритеты развития: монография / под ред. М.А. Хвесик, А.С. Лисецкий. - М.: СОПС Украины НАН Украины, 2009. - 216 с.

Jahon amaliyoti ko'rsatib turibdiki, klasterlar qishloq xo'jaligi korxonalarining raqobat muhitida ishlashining iqtisodiy mexanizmini moslashtirish shakllaridan biri bo'lib, agrosanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishni jadallashtirish, ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etilishini ta'minlash, savdo hajmini kengaytirish maqsadida o'ziga xos iqtisodiy makonni shakllantirish, kapital va resurslardan samarali foydalanish kabilardir.

Klasterning innovatsion tuzilishi ishlab chiqarish tuzilmasi samarasini oshirish orqali innovatsiyalarni tadqiq etish va rivojlantirishning umumiy xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi, klaster a'zolariga uzoq vaqt davomida doimiy ravishda innovatsion faoliyatni amalga oshirishga imkon beradi. Shunday qilib, klaster bir vaqtning o'zida bir nechta asosiy funktsiyalarni bajaradi:

- ilmiy, texnikaviy, tashkiliy va iqtisodiy yangiliklar bir korxonadan ikkinchisiga tarqalib, umuman klasterda hosildorlikning doimiy o'sishi ta'minlanadi;

- xarajatlar kamayadi, shu bilan bog'liq bo'lgan korxonalar yaqinligi sababli innovatsiyalarni tadqiq etish va rivojlantirish uchun imkoniyatlari kengayadi;

- barcha klaster a'zolari o'zaro aloqalarning barqarorligi, xarajatlarni kamaytirish va moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishi tufayli sinergetik ta'sirga ega bo'ladilar;

- barcha klaster a'zolari miqyosli effektlar va sinergiyalarning kumulyativ ta'siri ostida qo'shimcha raqobatdosh ustunliklarga ega bo'ladilar.

Klaster hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda "o'sish nuqtasi" bo'lganligi sababli, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini klasterlash agrar sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlash va qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha agrosanoat klasteri bir qator xususiyatlarga ega:

1. Agrosanoat hududiy klasteri - bu agrosanoat ishlab chiqarish masalalari bilan shug'ullanadigan, geografik jihatdan yetarlicha yaqin bo'lgan bir yoki bir nechta (qishloq xo'jaligiga qo'shni) tarmoqlar (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini geografik lokalizatsiya qilish) bilan shug'ullanadigan korxonalar, muassasalar yoki boshqa tashkilotlarning ixtiyoriy birlashmasi.

2. Raqobat ustunligi nafaqat tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan, balki ularning hududiy ko'p bosqichli va ko'p tarmoqli birlashmalari tomonidan yaratiladi.

3. Iste'molchilarni zabt etishni alohida qishloq xo'jaligi emas, balki hududiy korxonalar kompleksi - klaster amalga oshiradi.



4. Klaster doirasida resurslarning konsentratsiyasi amalga oshiriladi, ulardan foydalanish barcha ishtirokchilar uchun belgilangan va ular tomonidan qabul qilingan umumiy maqsadga erishishga qaratilgan bo'lib, yagona iqtisodiy va axborot makoni yaratiladi, ishchi kuchini boshqarish, intellektual kapitalni birlashtirish va moliyaviy resurslar bilan o'zaro qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari paydo bo'ladi.

5. Klaster sub'ektlari birgalikda davlat organlarida klaster a'zolari manfaatlarini himoya qilishi mumkin.

6. Klaster shakllanishi yangi ish o'rinlarini yaratishi va shu bilan islohotlar va makrotuzilmaviy beqarorlashtirish jarayonlari oldida doimiy ish bilan ta'minlanishi mumkin.

7. Klaster shakllanishlari yuqori darajadagi raqobatbardoshlikka ega, chunki ular quyidagilarga imkon beradi:

- ❖ katta hajmdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- ❖ mustaqil korxonalariga nisbatan barqaror raqobatbardosh ustunliklarni yaratish;
- ❖ samarali marketing siyosatini olib borish;
- ❖ yuqori malakali kadrlarni tayorlash;
- ❖ innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- ❖ ekologik toza va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun progressiv sifat standartlaridan foydalanish;
- ❖ sinergiya ta'sirida ishlab chiqarish xarajatlari darajasini pasaytirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash, shu jumladan sifat menejmenti, logistika, muhandislik, axborot texnologiyalari yondashuvlarini birlashtirish;
- ❖ -qishloq xo'jaligi mahsulotlarining jahon bozorlariga chiqish imkoniyati tufayli mahsulotlarni sotish bozorlarini kengaytirish;
- ❖ bozorda talab va taklif, shuningdek raqobatchilarning yutuqlari to'g'risida ma'lumot olish va almashish uchun samarali tizim yaratish.

Klaster rivojlanishi qishloq xo'jaligi va umuman agrosanoat majmuasining raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida zamonaviy innovatsion iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatiga aylanishi mumkin.

Klasterlar ishlashinida to'plangan tajriba hisobiga biz tadqiqotlarimiz davomida klasterlashtirish kontseptsiyani ishlab chiqdik. Ushbu kontseptsiyaning asosiy mohiyati beshta zarur shart - "5I" mavjud bo'lib, klaster hayotga layoqatli, o'zini o'zi ta'minlaydigan, muvaffaqiyatli va samarali ta'lim berishi mumkin (1-jadval).

**1-jadval**

**Qashqadaryo viloyatida agrosanoat klasterini rivojlantirish uchun "5I"  
kontsepsiyasi paradigmasi<sup>262</sup>**

<b>"5I" kontsepsiyasi elementi</b>	<b>Mohiyati</b>
Tashabbus	faqat o'zlarining vakolatlari, aqlari, tashkilotchilik qobiliyatlari va bilimlari bilan klasterlarning birlashishi, rag'batlantirishi va foydaliligini isbotlashga qodir bo'lgan tadbirkorlar, qishloq xo'jaligi, davlat xizmatchilari, jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari ichidan tashabbuskor insonlar.
Ma'lumot	mavjudlik, ochiqlik, ma'lumotlar almashinuvi, ma'lumotlar bazalari va veb-sahifalarni yaratishni ta'minlaydi, bozorlarga kirishda afzalliklarga ega bo'lishga imkon beradi
Integratsiya	ilm-fan va davlat hokimiyati organlari ko'magida tarmoq va hududiy darajadagi xo'jaliklar o'rtasida hamkorlikning yangi texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi
Qiziqish	u holda tadbirkor yoki ijtimoiy tuzilmaning hayoti uchun shart ta'minlanmagan va amalga oshirilmagan. Ushbu shart klaster assotsiatsiyalari ishtirokchilarining iqtisodiy foyda olishga bo'lgan qiziqishini taxmin qiladi.
Innovatsiya	<i>raqobatda yangi imkoniyatlar ochishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish, sotish, boshqarish, moliyalashtirishni tashkil qilishda faqat yangi texnologiyalar</i>

Bundan tashqari, klasterlarni yaratish va ishlashi uchun shartlar bir vaqtning o'zida istiqbolli yangi texnologik loyihalarga sarmoya kiritish shartlari bo'lishi mumkin.

### **XULOSA**

Xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi uchun klasterlashtirishning afzalliklari quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

- ❖ birlashtirilgan kapitalarni bo'lishish va yangiliklarni tezlashtirish qobiliyati;
- ❖ resurslardan birgalikda foydalanish, moddiy-texnik ta'minotni sotib olish va saqlashda tejash;

<sup>262</sup> Manba: Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

❖ agrosanoat majmuasining har bir alohida korxonasi hududiga, faoliyat ko'lamiga va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq xo'jalikarning samarali ixtisoslashuvini aniqlash;

❖ bozorlarni ixtisoslashuvi va faoliyatining imkoniyatlariga muvofiq taqsimlash, samarasiz raqobatni oldini olish;

❖ kooperatsiyadan ko'lamlarni tejash va kichik korxonalar deb nomlangan kamchiliklarni bartaraf etish, ba'zi xarajatlarni kamaytirish;

❖ hamkorlik va sinergiya natijasida erishilgan xatarlarni kamaytirish va taqsimlash;

❖ qishloq xo'jaligi tarmoqlarining raqobatbardoshlik darajasini oshirish;

❖ yakka tartibdagi korxonalar va tarmoq barqarorligini oshirish;

❖ uzoq muddatli, shu jumladan ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni. 23.10.2019 y.
2. Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов / М. Портер; пер. с англ. И.Минервин. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2005. – 454 с.
3. Сельскохозяйственный комплекс Украины: социально-экономические приоритеты развития: монография / под ред. М.А. Хвесик, А.С. Лисецкий. - М.: СОПС Украины НАН Украины, 2009. - 216 с.
4. SZ Safoevna, MN Juraevna. Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. 2021. Том 27, Номер 2, Страницы 4055-4061.
5. Shoxo'jayeva, Z. S. (2020). Problems and solutions in the water sector of the region. In *НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 21-24).
6. Шохўжаева, З. С., & Маманазарова, Н. Ж. (2020). Эффективность инновационных процессов в сельскохозяйственном развитии. In *Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари* (pp. 329-333).
7. ZS Shoxo'jayeva. Efficient use of water resources in the agricultural sector. Monograph. T.: - 2012
8. Z.S.Shoxujaeva, A.B.Kurbonov. Sustainable Development Of The Agrarian

---

Sector Depends On The Efficient Use Of Water Resources. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) ISSN: 2249 – 8958, Volume-8 Issue-6, August 2019.

9. ZS Shoxo'jayeva, M Norqobilov Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan. - НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 2020.

10. Шохужаева, З. С. (2020). Зарубежный опыт в сельском хозяйстве по использованию водных ресурсов. *Economics*, (1 (44)).

11. Safoevna, S. Z., & Sagdullaevna, T. F. (2021). Food provision of the population of the republic of uzbekistan in pandemy conditions: problems and solutions. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 1320-1325.

12. Safoevna, S. Z., & Utkirovna, M. N. (2021). Organizational and economic basis for the development of cotton and textile clusters. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 1289-1296.

## **INFOGRAFIKA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI OAV SAHIFALARIDAGI O'RNI**

**Zilola Usmonova**

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiya Universiteti Internet  
jurnalistika yo'nalishi magistranti

### **ANNATATSIYA**

*Ushbu maqolada infografika tushunchasi, uning turlari va ijtimoiy tarmoqlardagi OAV sahifalaridagi o'rni haqida yoritilib, misollar orqali qisqacha tahlil qilib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** infografika, vizual, vizuallashtirish, axborot dizayni, grafika, illyustratsiya, media, kommunikatsiya, multimediyaviy usullar.*

### **ABSTRACT**

*This article explains the concept of infographics, its types and place in social media pages, and provides a brief analysis with examples.*

***Keywords:** infographics, visuals, visualization, information design, graphics, illustration, media, communication, multimedia methods.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В этой статье объясняется понятие инфографики, ее виды и место на страницах социальных сетей, дается краткий анализ с примерами.*

***Ключевые слова:** инфографика, визуал, визуализация, информационный дизайн, графика, иллюстрация, медиа, коммуникация, мультимедийные методы.*

### **KIRISH**

Bugungi kunda Infografika zamonaviy media olamida yangi faoliyat sohasi bo'lishiga qaramasdan o'zining muhim jihatlari ko'rsatdi. Axborotni vizualizatsiya qilishning eng samarali usullaridan biri bo'lgan infografika endi axborot uzatish oqimiga faol qo'shildi. Infografika orqali uzatilayotgan axborotning qabul qilinish ehtimoli oddiy matnga qaraganda 30 baravar yuqori. Ushbu format ko'pincha matn va unga qo'shilgan grafikalar yordamida an'anaviy taqdimotdan ko'ra afzalroqdir. Infografikaga aloqa amaliyotchilari tomonidan berilgan ko'plab ta'riflar mavjud. Masalan, "Infografika - bu murakkab ma'lumotlarni aks ettirish uchun matn, rasm va dizaynni birlashtirishning samarali usuli yoki "infografika - bu vizual hajmi kichik, ammo mazmunli va to'g'ri loyihalashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni ko'rsatishdir".

Infografika – bu ma'lumotni taqdim etishning vizual vositasi bo'lib, murakkab mavzuni o'quvchiga qiziqarli va sodda tarzda tushuntirishga, ma'nolarni tasvirlashga va ularni yengil qabul qilinishiga yordam beradi. Muhim ma'lumotlar soddalashtirilgan grafik qobiqqa qadoqlangan bo'lib, uni ko'rib chiqish qiziqarli va eslab qolish oson.

B. Miller i B. Barnett tomonidan o'tkazilgan tadqiqot infografika tasvirlar va matnlarning kombinatsiyasi bo'lib, samarali aloqa vositasi ekanligini tasdiqladi: "ma'lumotlarning matnli yoki grafik tasviri yaxshi, ammo bu mukammal aloqa usullari emas. Yozish tili sizga chuqur tahlil qilishingiz mumkin bo'lgan cheksiz ko'p so'z birikmalarini yaratishga imkon beradi, ammo bu usulning muvaffaqiyati o'quvchining ushbu ma'lumotni qayta ishlash qobiliyatiga bog'liq. Ma'lumotlarning grafik ko'rinishini idrok etish osonroq, ammo mavhum va murakkab g'oyalarni tavsiflash zarur bo'lganda samarasizdir. Matn va grafikani birlashtirish axborot uzatishda, ikkalasining ham kamchiliklarini sezdirgan holda afzalliklaridan foydalanishga imkon beradi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

A. Koblin esa infografika deyarli har qanday xabarda mos keladi, raqamlar va foizlarni iloji boricha samarali ravishda yetkazadi, infografik rasm katta hajmdagi matnni o'rnini almashtirishi mumkin deb ta'kidlaydi, masalan:

- marketing tadqiqotlari natijalarining tavsifi,
- statistik ma'lumotlar,
- qiyosiy tadqiqotlar,
- ko'p tilli auditoriyaga qaratilgan xabarlar va boshqalar va b.q.

Infografikaning muvaffaqiyati uning sifat xususiyatlariga bog'liq. Biz A. Skvorsovning fikricha - ma'lumot qabul qiluvchi tomonidan qabul qilinishi va to'g'ri talqin qilinishi uchun infografika quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:


- 1) tarkibi - rasmda dekorativ emas, balki qimmatli ma'lumotlar bo'lishi kerak;
- 2) ma'nosi - illyustratsiya xabarning kontekstiga tegishli va mos bo'lishi kerak;
- 3) oson idrok qilish - illyustratsiyani o'qish oson bo'lishi kerak, xabarni idrok etishni murakkablashtirmasligi kerak;
- 4) allegorik - illyustratsiya qabul qiluvchiga tanish bo'lgan, o'ziga xos va kutilmagan tarzda tasavvur qilingan tasvirlarga asoslangan bo'lishi kerak deb ta'kidlaydi.

Bugungi kunda media kommunikatsiyaning bir qismi sifatida infografika fanlararo xarakterga ham ega. Matematiklar va sotsiologlar, iqtisodchilar va fiziklar,

dasturchilar va statistiklar ham infografika muxim axamiyatga ega ekanligini tasdiqlashmoqda. U ommaviy axborot vositalari bilan bevosita bog‘liq va shu sababli mavjud jurnalistik janrlarning eng yoshi hisoblanadi. Ispaniya gazeta dizayni jamiyatining prezidenti X. Errea (Javier Errea) “infograflar faqatgina dizaynerlar emas, maqsadi chiroyli nashrlargina bo‘lmagan, balki faktlarning aniq va mazmunli taqdimoti ham bo‘lgan jurnalistlardir” deya bejizga ta’kidlamagan. Bugungi kunda o‘quvchilarni jalb qilishning yangi yo‘nalishi sifatida axborotlarni diqqatni tortuvchi usullaridan keng foydalanish barcha ommaviy axborot vositalari uchun muhim masala hisoblanmoqda. Shu sababli veb-sahifa dizaynida infografikadan foydalanish masalasi ham muhimdir. Chunki Infografika: jadvallar, diagramma, piktogramma, infokart, TimeLine axborot uzatishning eng samarali multimediyaviy usullaridan biridir. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlardagi OAV sahifalari axborot uzatish jarayonida auditoriyani diqqatini tortuvchi, ular uchun yengil hazm bo‘luvchi usullardan keng foydalanishga ko‘proq urg‘u bermoqdalar.

Hozirda mamlakatimizdagi eng faol onlayn nashrlardan biri hisoblangan [www.kun.uz](http://www.kun.uz) sahifasi o‘zining faoliyati bilan xorijiy manbalardan qolishmayotgani ma’lum. U axborot manbasi texnik sozlanishi, ma’lumotlarning tezkorlik, aniqlik va asosli dalillar bilan boyligi hamda mediaviy unsurlarning barchasidan unumli va o‘rinli foydalangan holda ma’lumotlar taqdim etilishi bilan aholi e’tiboridagi muhim yangiliklar bazasiga aylangan. Shuningdek, sayt axborot uzatishda multimediyaviy usullardan foydalanishga ham alohida ahamiyat beradi. Sayt xabarlar auditoriya uchun tushunarli va qiziqarli bo‘lishi uchun infografikaning turli ko‘rinishlaridan foydalangan holda taqdim etadi.

• Infografika. Iqtisodiyotning turli sohalari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash tartibi;



• Infografika: O‘zbekiston va jahonda elektr energiyasi sarfi;

19:18 / 11.10.2021 5152 Улашинг

**Инфографика: Ўзбекистон ва жаҳонда электр энергияси сарфи**

Ўзбекистонда бир йилда 1 квадрат метр майдон учун энергия сарфи салкам 400 кВт/соатни ташкил этмоқда. Бу рақам дунё миқёсида 120-150 кВт/соатга тенг.



Инфографика: Энергетика вазирлиги

- Infografika: O'tgan yili Rossiyadan kim qancha pul jo'natgan;

Инфографика: Утган йили Россиядан ким қанча пул жўнатган?




Пул жўнатмалари АҚШ доллариде кўрсатилган  
Foto: Kun.uz

- Infografika: Koronavirusga qarshi emlash, bu bo'yicha kim peshqadam?;

Коронавирусга қарши эмлаш: бу бўйича ким пешқадам (инфографика)

Амириклар турибди – 4,5 миллион доза. Амириклар ҳукумати ҳар 100 кишининг 50 нафарини эмлаб бўлган.



- Infografika: O'zbekistonda yil boshidan beri velosipedlar ishtirokidagi YTHlarda 143 kishi halok bo'ldi va shu kabi boshqa bir qancha xabarlar bunga misol bo'la oladi.







ko‘rgazmali axborot berish mumkin. Kun.uz saytida ma‘lumotlarni bu kabi usulda uzatish ham juda kam uchraydi.



Dolzarb mavzularni o‘quvchiga yetkazishning yana bir qulay usuli Simile TimeLine texnologiyasidan foydalangan holda material tayyorlashdir. U ingliz tilidan tarjimada vaqt chizig‘ida solishtirish ma‘nosini berib, JavaScript dasturida ma‘lum vaqt birligida voqea-hodisalarni aks ettirish uchun qo‘llaniladi. Aksariyat holatlarda infografikaning ushbu turi iqlim o‘zgarishi oqibatlarini kuzatayotgan muassasalar faoliyatini yoritishda ishlatiladi. Bundan tashqari bu mavzu bo‘yicha yoritilgan

materiallingizni bir dasturda xronologik tarzda saqlanishi hamdir. Kuzatishlar davomida saytda Bu uslubda berilgan birorta ham material uchramadi.

## XULOSA

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki so‘nggi 2-3 yil ichida sayt o‘z axborot uzatish formatida infografikadan keng foydalanmoqda. Maqolalar orasida infografikadan foydalanilganlari soni kundan kunga oshib bormoqda. Bu esa yanada o‘quvchini diqqatini o‘ziga tortadi. Bugungi kunda Infografikadan to‘g‘ri foydalanish, katta hajmdagi ma‘lumotlarni yetkazib berishda yordamchiga aylanadi. Uning yordami bilan siz statistika va murakkab jarayonlar haqida gaplashishingiz, kompaniyaning rivojlanish yo‘lini ko‘rsatishingiz va tovar xabardorligini oshirishingiz mumkin.

## REFERENCES

1. Rasulov, A. N., & Vafoeva, G. B. Q. (2021). O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyati, o'zgarish va muammolar. *Academic research in educational sciences*, 2(2).

**BIR YILLIK MASHG‘ULOT JARAYONIDA QO‘L TO‘PI  
O‘YINCHILARINING UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY  
TAYYORGARLIGINI TASHKIL ETISH**

**Zokirov Ulug‘bek Murodjon o‘g‘li**

Chirchiq davlat pedagogika instituti

“Jismoniy madaniyat” kafedrasida o‘qituvchisi

[goldman.ulugbek@gmail.com](mailto:goldman.ulugbek@gmail.com)

**Berdibayev Humoyun Abduvali o‘g‘li**

Chirchiq davlat pedagogika instituti

“Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi  
va metodikasi” mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

**ANNOTATSIYA**

*Maqolada qo‘l to‘pi o‘yinchilaridan olingan ilmiy tadqiqotlarning natijalari (Styudent t-kriteriyasi bo‘yicha), umumiy va jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda mashqlarni to‘g‘ri tanlash yo‘llari hamda anaerob va aerob yuklamalarni berish tartibi ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:** qo‘l to‘pi, tajriba, jismoniy sifat, rivojlantirish, mashg‘ulot jarayoni, to‘pni otish.*

**АННОТАЦИЯ**

*В статье будут рассмотрены результаты научных исследований игроков в гандбол (по t-критерию Стюдента), способы правильного подбора упражнений для развития общей и физической подготовки, а также порядок выполнения анаэробных и аэробных нагрузок.*

***Ключевые слова:** ручной мяч, опыт, физическое качество, развитие, тренировочный процесс, метание мяча.*

**ABSTRACT**

*In the article, the results of scientific research from the players of the handball (on the criteria t-student), ways of correct selection of exercises in the development of general and physical training, as well as the procedure for the issuance of anaerobic and aerobic loads will be considered.*

***Keywords:** hand ball, experience, physical quality, development, training process, throw the ball.*

**KIRISH**

Hozirgi vaqtda bolalar va o‘smirlar sport maktablarida, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida, akademik litsey va oliy ta‘lim muassasalarida qo‘l to‘pi sport o‘yinini

mashg'ulot jarayonini tizimli tashkil etish dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Ya'ni mashg'ulotning davri, sikli, bosqichini tuzishda dasturiy manbalarga asoslanish talab qilinib kelmoqda.

Qo'l to'pi o'yinchilarining bir yillik mashg'ulot jarayonida ularning jismoniy (umumiy va maxsus), nazariy, psixologik, texnik, taktik hamda organizmining funksional tayyorgarligi bo'yicha amaliy hamda nazariy tayyorgarliklar olib borilib kelinmoqda.

Qo'l to'pi sport o'yini juda faol, emotsional, tezkor va juda mashhur o'yin hisoblanadi. Qo'l to'pida bir nechta sport turlarining elementlari birlashtirilgandir. Misol uchun basketbol, yengil atletika, regbi kabi sport turlari. Qo'l to'pi sport o'yini orqali jismoniy (harakat) sifatlar rivojlanadi. Qo'l to'pi muhim ahamiyatga ega kommunikativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. O'yin davomida barcha o'yinchilar bir-biriga yordam berishlari kerak bo'ladi. Ushbu sport o'yinida har bir o'yinchi hujumda va himoyada ham ishtirok etishi mumkin bo'ladi. Qo'l to'pi o'yinida ko'plab turdagi to'pni otish, uloqtirish, oshirib berish usullari mavjud. Har bir o'yinchi o'yin davomida bu usullardan foydalanib o'yinni tashkil etadi. Texnik jihatdan to'g'ri bajarilgan otishni o'rganish kutilgan natijaga olib kelishi mumkin. Buning uchun har bir otishni o'rganish uchun sport mashg'ulotining butun davrida mashq qilish kerakdir.

Har bir o'yinchi o'yin davomida otishning barcha usullarini mukammal egallashi va ularni to'g'ri va kuchli, ham o'ng, ham chap qo'l bilan bajarishi kerak bo'ladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Qo'l to'pi o'yini musobaqasida yuqori natijalarga erishish uchun qo'l to'pi o'yinchilarning texnik va taktik tayyorgarliklari asosiy o'rinlarni egalaydi. Qo'l to'pi o'yinida to'pni darbozaga otishni rivojlantirishda juda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va hozirgi vaqtda ham bitiruv malakaviy ishlarda, dissertatsiyalarda, monografiyalarda berib borilmoqda.

Maqolada qo'l to'pi o'yinchilarining to'pni otish va qabul qilish malakalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlili, pedagogik nazorat, nazorat teslari, pedagogik eksperiment (modulli, tabiiy, laboratoriya), matematik-statistik va so'rovnomadan foydalanish kabi jismoniy madaniyatning ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Nazorat testlaridan 30 metrga yugurish, Moksimon yugurish 10x10 m soniyaga, 1 kg to'pni uloqtirish (belgilangan masofaga), Uzoqqa gandbol to'pini uloqtirish

(masofaga), gandbol to'pini uzoqlikka va aniqlikka uloqtirish (marta, metr), Gandbol to'pini nishonga uloqtirish (marta, metr) foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida matematik-statistik metodidan "Styudent t-kriteriyasi" formulasi yordamida foydalanildi.

$$[S_{x-y} = \sqrt{\frac{S_x^2 + S_y^2}{n}}] \text{ va } [t = \frac{\bar{x} - \bar{y}}{S_{x-y}}]$$

"Styudent t-kriteriyasi" orqali aniqlik darajasi (P) ham belgilanadi.

-agar  $P < 0,05, P < 0.01$ , o'tkazilgan tadqiqotdagi xato 5% -1% kichik bo'lsa natija ishonchli bo'ladi.

-agar  $P > 0,05$ , xatolik 5% dan yuqori bo'lsa natija ishonchsiz etib belgilanadi.

### NATIJALAR

Qo'l to'pida to'pni darbozaga otish usuli otishning umumiy uslublariga asoslanadi (A.N. Evtushenko). To'pni otishning aniqligi vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyatiga, shuningdek, dastlabki holatning to'g'riligiga va to'p chiqarilgan vaqtga bog'liq bo'ladi. Otishni o'rganish kuch hamda tezlik kuchini mustahkamlash va harakat amplitudasi (og'ish)ga bog'liq.

Pedagogik tajriba bolalar va o'smirlar sport maktablarida olib borildi. Pedagogik tajribada umumiy hisobda 20 ta qo'l to'pi o'yinchilari ishtirok etishdi. Tajriba va nazorat guruhlariga bo'linib har bir guruhda 10 ta gandbolchi ishtirok etdi. Pedagogik eksperimentning boshlang'ich etapida nazorat testlari o'tkazildi. 1-jadvalda nazorat testlarining natijalari berilgan.

#### 1-jadval Dastlabki va oraliq test natijalari bo'yicha yosh gandbolchilarning tayyorgarlik ko'rsatkichlari

Sinov turi	Guruh	Dastlabki	P*	Oraliq q	P**
30 metrga yugurish	Tajriba	6,1±	>0,05	5,8±	<0,05
	Nazorat	6,1±		5,9±	<0,05
Moksimon yugurish 10x10 m soniyaga	Tajriba	32±	>0,05	29±	<0,05
	Nazorat	31±		29±	<0,05
1 kg to'pni uloqtirish (belgilangan masofaga)	Tajriba	12,81±	>0,05	13,03±	<0,05
	Nazorat	12,89±		12,97±	<0,05


Uzoqqa gandbol to'pini uloqtirish (masofaga)	<i>Tajriba</i>	30,7±	>0,05	32,3±	<0,05
	<i>Nazorat</i>	30,5±		31,4±	
Gandbol to'pini uzoqlikka va aniqlikka uloqtirish (marta, metr)	<i>Tajriba</i>	6,6±	>0,05	8,1±	<0,05
	<i>Nazorat</i>	6,8±		7,4±	
Gandbol to'pini nishonga uloqtirish (marta, metr)	<i>Tajriba</i>	5,7±	>0,05	6,8±	<0,05
	<i>Nazorat</i>	5,7±		6,0±	

### MUHOKAMA

Jadvalda dastlabki va oraliq test natijalari taqqoslanadi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, eksperimentning birinchi yilida har ikki guruhda ham barcha test ko'rsatkichlari bo'yicha o'zgarishlarning ishonchliligi kuzatiladi. Shunday qilib, nazorat guruhida o'sish 0,2 eksperiment guruhida 0,3 (P <0,05) belgilandi.

Quyidagi 1-rasmda boshlang'ich va yakuniy tayyorgarlik natijalari bo'yicha umumiy jismoniy tayyorgarlikning o'zgarish dinamikasini ko'rishingiz mumkin.

**1-rasm**



Gandbolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda aerob va anaerob muhitdagi mashg'ulotlar ham muhim ahamiyatga egadir. Misol uchun aerob mashg'ulotlarda yurish, yugurish (uzoq masofalarga), suzish kabi mashg'ulotlarni kiritishimiz mumkin bo'ladi. Anaerob mashg'ulotlarda asosan kuch va chidamlilik jismoniy sifatlarini rivojlantirish e'tiborga olinadi. Bu mashg'ulotlarga

qisqa masofaga yugurish, og'ir yukni ko'tarish, tashqi qarshiliklarni yengish mashqlarini kiritishimiz mumkin.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida gandbolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda jismoniy texnik va taktik mashqlarni ham optimal ravishda tashkil etish kerakdir. Umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda 5 ta jismoniy sifat (kuch, tezlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik)ni rivojlantirish talab qilinadi. 1:30 2:15 minutli mashg'ulotlarda kamida 80-90 ta jismoniy mashqni sportchining organizmiga berilishi, uning jismoniy imkoniyatlarini ham o'sishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

### **REFERENCES**

1. Зокиров У.М. “Эркин курашчиларнинг умумий ва махсус жисмоний тайёргарликларини такомиллаштириш усуллари”. The journal of academic research in educational sciences. № 1 (2), 306-314. (2020).
2. Ulugbek Zokirov. Individual Features Of Development Of Information And Communicative Competence In Masters Of Higher Pedagogical Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. № 3 (3), 486-491.(2021). <https://usajournalshub.com/index.php/tajssei/article/view/2423/2314>
3. Зокиров У.М., Каримов Т.Р. “Бошланғич синф ўқувчиларини жисмоний тарбиялашда ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш усуллари”. The Journal Of Academic Research In Educational Sciences. № 2 (2), 583-590. (2021).
4. Зокиров У.М. “Совершенствование тренировочного процесса студентов факультета физической культуры специализирующихся в спортивной борьбе” маг. Диссертация ФерГУ 2020 г. 25,26,27,28.
5. Зокиров У.М., Каримов Т.Р. “Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларини жисмоний тарбия дарсларида миллий ҳаракатли ўйинларни бажариш орқали жисмоний тайёргарлигини ривожлантириш”. The Journal Of Academic Research In Educational Sciences. № 2 (4), 1166-1171. (2021).
6. Зокиров У.М., Курбанова П.С. “Олий таълим муассасалари талабаларида соғлом турмуш тарзини ривожлантириш”. The journal of academic research in educational sciences. № 2 (5), 150-155. (2021).
7. Зокиров У.М., Патидинов К.Д. “Умумий ўрта таълим мактаби 7 – 8 синф ўқувчиларининг жисмоний тайёргарлигини жисмоний ривожланишига боғлиқлиги”. The journal of academic research in educational sciences. № 1 (4), 693-697. (2020).

8. Хонкелдиев Ш.Х., Закиров У.М., Меликузиев А.А. Эффективность разработанной методики повышения физической подготовленности юных борцов вольного стиля. Наука сегодня вызовы и решения материалы международной научно-практической конференции. №1(1), 164-168. 2020.
9. Зокиров У.М. “Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов курашистов при моделировании соревновательной деятельности”. Мамлакатимиз олий таълим тизимида жисмоний маданият таълимини модернизациялаш стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари 2019. 82-85.
10. Зокиров У., Жўраев Ш. Умумий ўрта таълим мактабларида жисмоний маданият бўйича синфдан ташқари ишларни мониторингини ташкил этиш. The Journal Of Academic Research In Educational Sciences. №1 (3), 1115-1121 (2020).
11. Ханкелдиев Ш., Зокиров У. Оздоровительная направленность занятий физической культурой в сельских общеобразовательных школах в республике узбекистан. Наука сегодня реальность и перспективы. №1 (1), 113-114. 2019.
12. U.M.Zokirov. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiyada sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning shakllari. “Xalq ta’limi” O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. № 5, 38-41. (2021).
13. Зокиров У.М. Умумий ўрта таълим мактабининг 5-6 синф ўқувчиларини баскетбол спорт ўйини орқали жисмоний тайёргарликларини ривожлантириш. Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. № 6, 544-549. (2021).
14. U.M.Zokirov. Oliy pedagogik ta’lim magistrilarida axborot – kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish usullari. “Xalq ta’limi” O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. № 5, 97-100. (2021).



## **QORA QORAQAT BARGLARINING ELEMENTAR TARKIBI (RIBES NIGRUM L.)**

**Xabibullayeva SH.M., Abdullayeva U.A., Ulasheva F.N.**

Toshkent farmatsevtika instituti

khabibullayeva93@inbox.ru

### **ANNOTATSIYA**

*Xozirgi vaqtda shamollash va koviddan keyin insonlarda vitamin yetishmovchiligi ko'p uchraganligi sababli tabiiy sharoitda o'sgan va o'stirilgan dorivor o'simliklardan dori vositalarini tayyorlashga talab kuchaygan. Shu maqsadda biz qora qoraqat o'simligini tarkibini o'rganishga kirishdik. O'zbekiston Respublikasida o'stiriladigan qora qoraqat o'simligi bargi tarkibidagi elementar tarkibini aniqlash. Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent viloyatida o'stiriladigan qora qoraqat (*Ribes nigrum L.*) o'simligi barglari. Adabiyotlarda va me'yoriy hujjatlarda keltirilgan usul yordamida tahlil amalga oshirildi. Tadqiqotda fizik-kimyoviy usul (DF XI,1 qism) dan foydalanildi. O'zbekiston hududida o'stiriladigan qora qoraqat o'simligi tarkibidagi makro va mikroelementlarini aniqlash va u asosda kelajakda yallig'kanish va shamollashga qarshi dori vositasini yaratish.*

**Kalit So'zlar:** *Davlat farmakopeyasi, elementar tarkib, dori vositasi, fizik-kimyoviy, me'yoriy hujjat, terapevtik ta'sir, fermentlar, gormonlar, makroelement, mikroelement, qora qoraqat, mass-spektrometriya, yallig'lanish, shamollash, vitamin, dorivor o'simlik.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В настоящее время, в связи с высокой частотой развития авитаминоза у человека после простудных заболеваний и диареи, возрастает потребность в приготовлении лекарственных средств из естественно выращенных и культивируемых лекарственных растений, с этой целью нами было начато изучение состава черной смородины. Определение элементного состава листьев смородины черной, произрастающей в Республике Узбекистан. Объектом исследования являются листья смородины черной (*Ribes nigrum L.*), выращенной в Ташкентской области. Анализ проведен по методике, приведенной в литературе и нормативных документах. Исследование проведено физико-химическим методом (ДФ XI, часть 1). Выявление макро- и микроэлементов в черной смородине, выращенной в Узбекистане, и разработка противовоспалительных и противовоспалительных препаратов в будущем.*

**Ключевые слова:** Государственная фармакопея, элементный состав, лекарственное средство, физико-химический, нормативный документ, лечебное действие, ферменты, гормоны, макроэлемент, микроэлемент, черная смородина, масс-спектрометрия, воспаление, воспаление, витамин, лекарственное растение.

### ANNOTATION

*Nowadays, due to the high incidence of vitamin deficiency in humans after colds and diarrhea, there is a growing demand for the preparation of medicines from naturally grown and cultivated medicinal plants. To this end, we began to study the composition of black currant. Determination of the elemental content of black currant leaves grown in the Republic of Uzbekistan. The analysis was carried out using the method given in the literature and normative documents. The study used the physicochemical method (DF XI, Part 1). Identification of macro-and microelements in black currant grown in Uzbekistan and the development of anti-inflammatory and anti-inflammatory drugs in the future.*

**Key words:** State Pharmacopoeia, elemental composition, drug, physicochemical, normative document, therapeutic effect, enzymes, hormones, macroelement, microelement, black currant, mass spectrometry, inflammation, inflammation, vitamin, medicinal plant.

### KIRISH

Mineral elementlar butun organizmning normal faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Ular vitaminlar, fermentlar, gormonlar va boshqa faol birikmalarning bir qismidir, ular barcha to'qimalarning hujayralarida va qon plazmasida ham mavjud. Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim kasalliklarning etiologiyasi organizmda u yoki bu makro va mikroelementlarning yetishmasligi bilan bog'liq.[4,5]

Bundan tashqari, dorivor o'simlik materiallari tarkibidagi ushbu elementlarning kompleksi yaxshilangan terapevtik ta'sirga ega dori-darmonlarni olish imkonini beradi. Dorivor o'simlik materiallaridagi makro va mikroelementlarning tarkibi to'g'risida ma'lumotlarning yo'qligi uni to'g'ri ishlatishga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin [2]. O'zbekiston Respublikasining iqlim sharoitida yig'ib olingan qora qoraqat barglarining (*Ribes nigrum* L.) elementar tarkibini o'rganish.

### MATERIALLAR VA USULLAR

Elementar tarkibni aniqlash juda sezgir ko'p elementli induktiv bog'langan plazma massa spektral usuli (ICP-MS) yordamida amalga oshirildi [1]. Usul ion manbai sifatida induktiv bog'langan argon plazmasidan foydalanishga asoslangan.

O'rganish ob'ekti Toshkent viloyatida (2021-yil) gullashdan keyin va meva berish fazasi boshida yig'ib olingan qora qoraqat (*Ribes nigrum* L.) barglari bo'ldi. Yig'ilgan xom ashyo havo-soyada quritilgan.




Tahlil qilingan namuna plazmaga eritma shaklida kirganligi sababli, tahlil qilingan namuna o'lchovlardan oldin eritmaga o'tkazildi.

Buning uchun biz tahlil qilingan namunani ochiq tizimda 250-500 Vt quvvatga va 180 dan

haroratda dasturlashtirilgan Milestone mikroto'lqinli pechida nitrat va perklorik kislotalar aralashmasida (8: 2) to'liq eritish protsedurasidan foydalandik. –2200 S. Olingan eritma miqdoriy jihatdan 100 ml hajmli o'lchov kolbasiga o'tkazildi va keyinchalik induktiv bog'langan plazma massa spektrometrining (Agilent-7500 CX, Agilent Technologies) purkash kamerasiga to'g'ridan-to'g'ri yuborish uchun ishlatilgan. Qurilma parametrlari: plazma quvvati - 1200 Vt, integratsiya vaqti - 0,1 sek, peristaltik nasosning aylanish tezligi - 0,1 rpm. Qurilmaning qolgan parametrlari sozlash jarayonida o'rnatiladi va texnik xizmat ko'rsatish davrlari orasida o'zgarishsiz qoladi. Standart sifatida 1,0 mg/l maqsadli komponentlarni o'z ichiga olgan multielementli standart eritma ishlatilgan.[6,7]

### **NATIJARLAR**

Tadqiqot jarayonida dorivor o'simlik materiallarida 30 ta makro- va mikroelementlar topildi (1-jadval va 1-rasm). Ulardan asosiy komponentlarga Mg (3651,59 mg/l), Ca (3411,46 mg/l), P (730,209 mg/l), Si (382,366 mg/l), Na (274,543 mg/l), Al (219,253) kiradi. mg/l va Fe (155,733 mg/l).



**1-rasm.**

**Qora qoraqat barglari tarkibidagi elementlarning nisbati**

**MUHOKAMA**

Qora qoraqat o'simligi bargi tarkibidagi elementar tarkibni aniqlash juda sezgir ko'p elementli induktiv bog'langan plazma massa spektral usuli (ICP-MS) yordamida amalga oshirildi. Bu tadqiqot natijasiga ko'ra 15 ta makroelement va 15 ta mikroelement borligi aniqlandi.

**1-jadval.**

**Qora qoraqat barglarining makroelement tarkibi**

№	Element	Miqdor, мг/л
1.	Litiy	0,300
2.	Berilliy	0,059
3.	Bor	16,386
4.	Natriy	274,543
5.	Magniy	3651,590
6.	Aluminiy	219,253
7.	Kremniy	382,366
8.	Fosfor	730,209
9.	Kalsiy	3411,460
10.	Bariy	2,477
11.	Rubidiy	0,459
12.	Xrom	0,679

13.	Marganes	2,237
14.	Temir	155,733
15.	Kobalt	0,055

2-jadval.

### Qora qoraqat barglarining mikroelement tarkibi

№	Element	Miqdor, мг/л
16.	Nikel	0,468
17.	Galliy	0,297
18.	Mishyak	0,148
19.	Selen	0,015
20.	Vanadiy	0,083
21.	Stronsiy	14,604
22.	Sirkoniy	0,114
23.	Qalay	0,379
24.	Titan	2,033
25.	Qo'rg'oshin	0,199
26.	Niobiy	0.002
27.	Kadmiy	0,004
28.	Surma	0,009
29.	Seziy	0,002
30.	Volfram	0,004

### XULOSA

Toshkent viloyatida yig'ib olingan qoraqat barglarining (*Rubus nigrum* L.) elementar tarkibi o'rganildi. IPS-MS usulidan foydalangan holda, o'rganilayotgan ob'ektda 30 ta element mavjudligi aniqlandi, ular orasida magniy, natriy, kremniy, fosfor, kaltsiy, temir va alyuminiy ustunlik qiladi. Tahlil davomida olingan ma'lumotlar mahalliy dorivor o'simlik materiallarini hayotiy elementlarning manbai sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

### REFERENCES

1. МУК 4.1.1483-03. Определение содержания химических элементов в диагностируемых биосубстратах, препаратах и биологически активных добавках методом масс-спектрометрии с индуктивно связанной аргоновой плазмой: методические указания.

2. Нуруллаева Д.Х., Фарманова Н.Т. Изучение элементного состава плодов овса посевного (*Avena sativa* L.) //Аспирантский вестник Поволжья. – 2020. – № 1–2. – С. 142–145. <https://doi.org/10.17816/2072-2354.2020.20.1.142-145>.
3. Петрова С.Н., Кузнецова А.А. Состав плодов и листьев смородины черной *Ribes Nigrum* (обзор) / С.Н. Петрова, А.А. Кузнецова //Химия растительного сырья. – 2014. – №4. – С.43-50.
4. Чиков П.С. Атлас лекарственных растений.- М.: АйФ Принт, 2005.-С.264.
5. Чиков П.С. Лекарственные растения.- М.: Медицина, 2006.-С.59.
6. Олимов Н.Қ.,Сидаметова З.Э.,Хабибуллаева Ш.М.,Рахимова Д.О. Определение содержания минеральных элементов седативного сиропа» ФЛЕГМЕН»//Инфекция,иммунитет и фармакология-2021.-№ 2.-с.206-213.
7. 7.Государственная фармакопея XI.I-том// 1990-с-50-55.
8. Ziyonet.uz
9. <http://www.pharmateca.ru/ru/archpive/article/7041>
10. <http://pharmic.ru/>

## **XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ АҲВОЛИ**

**Рўзибоев Дилшод Аъзам ўғли**

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти

“Ижтимоий фанлар” кафедраси мустақил тадқиқотчиси

### **АННОТАЦИЯ**

*Мазкур мақолада Ўзбекистонда мустамлака ҳукуматининг чорвачилик соҳасидаги сиёсий қараишлари ҳақида сўз боради. Бундан ташқари, Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг дастлабки йилларида чорвачиликнинг умумий аҳволи, биринчи жаҳон уруши ва минтақадаги ҳарбий ҳаракатлар натижасида чорвачиликнинг таназзулга учраши ва чорва моллари сонининг кескин қисқариши, ташқи кўриниши, чорвачиликни ривожлантиришга қаратилган илк уринишлар, совхоз ва фермер хўжалиklarининг пайдо бўлиши, амалдаги озуқа сиёсатининг шаклланиши билан боғлиқ омиллар ёритилган.*

***Калим сўзлар:** Госплан, Азодеда трести, Охунбобоев, Будёний, Янги Чорва, Қизил Чорва, Фрунзе, Ўзбекқоракўл трести, ишлаб чиқариш кооперативи.*

### **ABSTRACT**

*This article focuses on the political views of the colonial government of Uzbekistan in the field of animal husbandry in the period between the two world wars. In addition, the general state of animal husbandry in Uzbekistan in the early years of Soviet power, the collapse of the livestock industry as a result of the First World War and hostilities in the region and a sharp reduction in the number of livestock, the appearance of the first attempts to develop animal husbandry, the emergence of state farms and farms, factors associated with the formation feed policy in action.*

***Keywords:** Gosplan, Azodeda trust, Akhunboboev, Budyoniy, Yangi Chorva, Qizil Chorva, Frunze, Uzbekkorakol trust, production cooperative.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье основное внимание уделяется политическим взглядам колониального правительства Узбекистана в области животноводства в период между двумя мировыми войнами. Кроме того, общее состояние животноводства Узбекистана в первые годы советской власти, развал животноводческой отрасли в результате Первой мировой войны и военных действий в регионе и резкое сокращение поголовья скота, появление первые*

попытки развития животноводства, появление совхозов и фермерских хозяйств, выделяются факторы, связанные с формированием кормовой политики в деле.

**Ключевые слова:** Госплан, трест «Азодеда», Ахунбобоев, Будёний, Янги Чорва, «Қизил чорва», Фрунзе, трест «Узбеккораколь», производственный кооператив.

## **КИРИШ**

Чорвачилик маҳсулотлари иқтисодиётда муҳим ўрин тутди. Саноат ва аҳоли турмуш тарзида муҳим о‘рин тутган чорвачиликдан бир қанча маҳсулотлар олинди. 1920 йил охиридан бошлаб чорвачилик маҳсулотлари нафақат аҳоли эҳтиёжлари учун, балки Совет ҳукуматининг талабига биноан ҳам етказиб берилди. Натижада чорвачилик маҳсулотлари қайта ишланиб, далаларга тайёр маҳсулот етказиб берилди. Бироқ, бу жараёнда бир қатор тўсиқлар мавжуд эди. Хусусан, чорвачилик маҳсулотларини қайта ишлаш учун машина ва ускуналар етишмайди, бундан ташқари, марказдан олиб келиниши шарт бўлган техниканинг кичик қисми республикага етиб келган. Ушбу техникалардан фойдалана оладиган мутахассислар сони ҳам чекланган, бу эса ишлаб чиқаришга салбий таъсир кўрсатмоқда. Натижада чорвачилик маҳсулотларини етиштириш ва қайта ишлаш режалари кўп ҳолларда бажарилмай қолди.

## **АДАБИЁТЛАР ВА МЕТОДОЛОГИЯ**

Мазкур мақолани таҳлил қилар эканмиз, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 2-сентябрдаги «Ўзбекистон Республикасида пиллачилик ва қоракўлчиликни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6059-сонли қарори, 2019-йил 28-мартдаги «Ўзбекистон Республикасида пиллачилик тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ветеринария ва чорвачиликда давлат бошқаруви» 2017-йил 7-февралдаги ПФ-5696-сон, «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон, 2017-йил 4-августдаги ПФ-5134-сон «Тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги фаолиятини тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги ва 2019-йил 28-мартдаги ПҚ-4254-сонли «Ўзбекистон Республикаси Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги қарорлар услубий манба сифатида белгиланди.



## МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Бугунги кунда чорвачилик соҳасига эътиборнинг кучайиши аҳолини озиқ-овқат билан таъминлашга ҳамда мамлакат иқтисодиётининг ривожланишига ижобий шароит яратмоқда. Иқтисодиётда аграр соҳанинг аҳамияти ошиб бораётган бугунги кунда чорвачилик истиқболлари билан бир қаторда, унинг тарихий хусусиятларини тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этади. Жумладан, чорвачиликнинг иқтисодий жиҳатларини ҳамда уларнинг тарихий ривожланиш хусусиятларини аниқлашга алоҳида урғу берилмоқда. Дунёнинг турли олий ўқув юртлари ва илмий тадқиқот марказларида ушбу масалалар тадқиқи муҳим аҳамият касб этиб, ўрганилиши лозим бўлган муҳим вазифалардан бири бўлиб қолмоқда.

Сўнги ўн йилликда Ўзбекистонда иқтисодиётнинг асосий тармоғи саналган чорвачилик соҳасини ривожлантиришга катта эътибор қаратила бошланди. Ушбу тармоқни ривожлантириш мақсадида ўтган йиллар давомида чорва миқдорини кўпайтириш ҳамда чорвани озуқа билан таъминлаш масалаларига алоҳида аҳамият берилмоқда. Шунингдек, мазкур соҳанинг моддий-техник базаси шаклланди ва чорвачилик маҳсулотларининг савдоси ривожланди. Жумладан, чорвачилик маҳсулотларини қайта ишлаш, жаҳон бозорида рақобатбардош тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва уни экспорт қилишни кўпайтириш бўйича муҳим ишлар амалга оширилмоқда. «Ҳаракатлар стратегияси»да иқтисодиётни ривожлантиришнинг устувор йўналишлари сифатида аграр маҳсулотларни қайта ишлаш ҳамда озиқ-овқат хавфсизлигини янада мустаҳкамлаш каби вазифалар кўрсатиб ўтилган<sup>263</sup>. Мазкур масалаларни амалга ошириш учун чорвачилик соҳасидаги анъаналарни ўрганиш ҳамда улардан унумли фойдаланиш муҳим амалий аҳамият касб этади. Чорвачиликни ривожлантириш ишлари биринчи навбатда чорва молларини озуқа билан таъминлаш, ҳайвонларга турар-жойлар қуриш ва соҳада ишчи кучини таъминлаш ҳисобланган<sup>264</sup>. Буларнинг барчаси эса молиявий ҳолатнинг барқарор ва давомий бўлишини талаб қилган. ЎзССР Давлат режа бюроси маълумотларига кўра, 1926 йилда чорвачиликка жами 66 564,7 минг рубль, деҳқончиликка 364 936,5 минг рубль, боғдорчиликка 9 424,7 минг рубль ҳамда узумчиликка 10351,4 минг рубль миқдорда пул ажратилган. Мазкур

<sup>263</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.

<sup>264</sup> Хамдамов А. Себестоимость продукции скотоводства и пути ее снижения (На примере колхозов Самаркандской области Узбекской ССР). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 1971. – С. 16.

маълумотдан кўриниб турибдики, энг кўп маблағ деҳқончиликни ривожлантириш учун ажратилган. Чорвачиликка боғдорчилик ва узумчиликка қараганда кўпроқ маблағ ажратилган. Бироқ буни деҳқончиликка ажратилган маблағ билан солиштирсак чорвачиликка ажратилган маблағ бир неча баробарга камлигини кўришимиз мумкин. Чорвачиликка ажратилган маблағларни ҳудудлар кесимида таҳлил қилсак энг кўп маблағлар Зарафшон, Қашқадарё ва Фарғона вилоятларига ажратилган. Қашқадарё ва Зарафшон ҳудудларига бошқа вилоятларга қараганда кўпроқ пул ажратилишига сабаб мазкур минтақалар Ўзбекистонда асосий қоракўл чорваларини етиштириб берувчи ҳудудлар ҳисобланган ҳамда совет ҳокимияти чорвачиликнинг бу соҳасидан манфаатдор бўлган. Мазкур даврда Фарғона вилояти аҳоли сони жиҳатидан бошқа минтақаларга қараганда катта вилоят бўлганлиги ҳисобга олинса ажратилган маблағ чорвачиликни ривожлантиришга етарли бўлмаганлиги кўзга ташланади. Хусусан, Фарғона вилоятида аграр соҳага ажратилган умумий маблағнинг 83 фоизи деҳқончилик учун сарфланган бўлса, фақатгина 8 фоиз маблағ чорвачилик учун сарфланган. Мазкур ҳолат Тошкент вилоятида 82 фоиз ажратилган маблағ деҳқончилик учун ва 14 фоизи чорвачилик учун сарфланган. Самарқанд вилоятида эса 70 фоиз маблағ деҳқончилик учун ва 17 фоизи чорвачилик учун ажратилган. Қашқадарё вилоятида эса жами ажратилган маблағнинг деярли 39 фоизи чорвачилик учун сарфланган. Хоразм, Тошкент ва Самарқанд вилоятларида чорвачиликни ривожлантириш ажратилган маблағлар анча кам бўлган<sup>265</sup>.

Ўзбекистон ССР 1925 йил февралда ташкил топгач, иктисодий соҳада Марказнинг манфаатлари янада кучлироқ устунлик кила бошлади. Республика асосан кишлок хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришга ихтисослашганлиги туфайли мураккаб ижтимоий-сиёсий жараёнлар гирдобидида қолди. 1925 йили Ўзбекистонда қоракўл кўйларининг сони 600000 атрофида бўлган<sup>266</sup>. Қоракўл тери ишлаб чиқариш ва маҳсулот экспорти кескин камайди. 1925-1930 йилларда совет ҳокимияти томонидан Ўзбекистонда чорвачиликнинг ривожлантиришнинг икки йўли муҳокама қилинди. Буларнинг биринчиси чорвачилик соҳасидаги илмий тадқиқотлар ҳамда зотли молларни кўпайтириш масаласига қаратилган эди<sup>267</sup>. Бунда албатта чорвачилик хўжалиқларининг

<sup>265</sup>ЎзМА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2483-иш, 12-13-варак.

<sup>266</sup> Всесоюзный научно-исследовательский институт каракулеводства. - М., 1975. - С. 8-10.

<sup>267</sup> ЎзМА. 10-фонд. 1-рўйхат. 789- иш. 1-варак.

техник ривожланиши ҳам инобатга олиниши лозим бўлган<sup>268</sup>. Чорвачиликни ривожлантиришнинг иккинчи йўли сифатида чорваларни боқишда гўшт ва сут маҳсулотларини оширишга ёрдам берадиган янги усуллардан фойдаланиш масаласи муҳокама қилинган. Бундан ташқари, чорвачилик соҳасидаги экспорт масаласига алоҳида аҳамият берилган. Бунда совет ҳокимияти чорвага алоҳида товар сифатида қарашни бошлаган ҳамда бу йўналишни иқтисодиёт ва саноатдаги ўринларини оширишга ҳаракат қилган<sup>269</sup>. 1927 йили давлат қабул пунктида кора коракўл терилари 14 рубль 50 тийиндан, 1928 йили 16 рублдан нархланган<sup>270</sup>. Етиштирилган коракўл териларини асосан Боку майда ҳунарманчилик кооперацияси, Грузиянинг Кутаиси бош кийим ҳунармандлари артели, Боку шаҳрида “Азодеда” трести, Ленинград ишлаб чиқариш артели сотиб оларди<sup>271</sup>. Демак, Ўзбекистан коракўлининг асосий харидорлари Кавказ ва Россиянинг турли минтакаларидаги кооперациялар бўлган. 1930 йилларда совхозлар ва якка тартибдаги хўжаликларга давлат томонидан чорвалар ажратилган. 1938 йилда йирик шохли чорва ва йилқичиликка эътибор кучайганлиги сабабли 1937 йилга нисбатан колхозлар ва якка тартибдаги хўжаликларга қўй ажратиш қисқарган. Бошқа томондан, коракўл қўйларини етиштирувчи фермалар фаолияти ривожланган бўлиб, улар Ўзбекистоннинг маълум ҳудудларида мавжуд бўлган. Шу сабаб коракўл қўйларини етиштирувчи районларни қўшимча қўллаб-қувватлаш ишлари олиб борилади. Совет ҳокимияти 1939 йил 1 январгача барча колхозларни чорва билан таъминлаш орқали чорвасиз колхозлар сонини камайтирмоқчи бўлган<sup>272</sup>.

1930-1940 йилларда давлат кооператив хўжаликлари, колхозлар, колхозчилар, якка тартибдаги хўжаликлар ҳамда ишчи ва хизматчилар чорва молларини боқиш билан шуғулланган. Чорва билан шуғулланадиган асосий гуруҳ чорвадорлар бўлган бўлиб, йирик шохли чорвалар, қўй ҳамда эчкиларни етиштиришда асосий ўрин тутган. Бошқа томондан эса отнинг асосий қисми колхозларда боқилган бўлиб, якка тартибдаги колхозчи ёки ишчиларнинг улуши бу соҳада анча кам бўлган. Шунингдек, колхозлар йирик шохли чорва, қўй ва эчкиларни етиштиришда ҳам етакчи ўринлардан бирида турган. Давлат кооператив хўжаликлари чорва етиштириш бўйича бошқа гуруҳларга қараганда

<sup>268</sup> Хамдамов А. Себестоимость продукции скотоводства и пути ее снижения (На примере колхозов Самаркандской области Узбекской ССР). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 1971. - С. 12-13.

<sup>269</sup> ЎзМА. 10-фонд. 1-руйхат. 789- иш. 1-2-варақ.

<sup>270</sup> Ўз МА, Р-91-фонд, 2-руйхат, 160- иш, 346-350-варақлар.

<sup>271</sup> Ўз МА, Р-91-фонд, 2-руйхат, 160-иш, 26-29-варақлар.

<sup>272</sup> ЎзМА, Ф-90-фонд, 8-руйхат, 1717-иш, 3-варақ.

орқада бўлган <sup>273</sup>. 1935-1940 йилларда Ўзбекистонда чорвачиликка ихтисослаштирилган бир қанча совхозлар ташкил топган. Хусусан, Бухоро вилояти Бешкент туманидаги “Охунбобоев”, Косон туманидаги “Будёний”, Наманган вилояти Поп туманидаги “Янги чорва”, Самарқанд вилояти Пахтакор туманидаги “Қизил чорва” ҳамда Тошкент вилоятидаги “Фрунзе” каби совхозлар шулар жумласидан ҳисобланади <sup>274</sup>. 1930 йиллар бошига келиб Ўзбекистонда чорва миқдорида ўсиш кузатила бошланди. Хусусан, йирик шохли чорвалар сони фақатгина 1934 йилга келиб 1917 йилдаги миқдорга етган. Йирик шохли чорвалар сони йилига ўртача 5,9 фоизга ошиб борган. Отлар сони эса 1934 йилда 1917 йилдаги от миқдорининг 70 фоизига етган эди <sup>275</sup>. 1938-1939 йилларда чорва молларининг колхозлар ва якка тартибдаги хўжаликларда ўсиши турлича кечди. Жумладан, колхозлардаги чорва моллари миқдорининг ошиб бориши кузатилган бўлса, якка хўжаликларда аксинча камайиб борди. Хусусан, якка хўжаликларда йирик шохли чорваларнинг улуши кескин тушиб кетган. Масалан, якка тартибдаги хўжаликлардан колхозларга чорваларнинг сотиб олиниши ёки мусодара қилиниши натижасида 1939 йилда якка хўжаликларда 21,7 минг йирик шохли чорвалар мавжуд бўлган бўлса, 1940 йилда уларнинг сони 5,9 минггага камайган. Бу рақамларни агар фоиз ҳисобида оладиган бўлсак, якка хўжаликларда мазкур чорва турлари сони 73 фоизга тушиб кетган <sup>276</sup>. Колхозларда аксинча вазият кузатилиб, ҳар бир чорва турлари миқдори ошиб борган. Жумладан, 1938 йилда йирик шохли чорвалар сони 3,8 мингга бўлган бўлса, 1939 йилда уларнинг сони 19,9 минггага етди. Мазкур ҳолат қорақўл ва жайдари қўйлар сонидан ҳам яққол кўзга ташланади. Эчкилар сони ҳам якка хўжаликларга қараганда колхозларда кўпроқни ташкил этган.

Колхоз ва совхозларда чорва миқдорининг ўсиши чорва молларининг сотиб олиш ҳисобига юз бераётган эди. Хусусан, 1939 йил учун чорва моллари сонини кўпайтириш ва чорвачиликни ривожлантириш бўйича давлат дастури доирасида чорвачилик фермалари, совхозлар ва колхозлар учун 12,8 минг бош чорва моллари сотиб олинган эди <sup>277</sup>. Чорва молларини колхоз ва совхозлар учун сотиб олиш жараёнлари совет ҳокимиятининг кейинги йилларида ҳам

<sup>273</sup> ЎзМА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 3066-иш, 13-варақ.

<sup>274</sup> ЎзМА, Р.Р.837-фонд, 32-рўйхат, 2331-иш, 3-варақ.

<sup>275</sup> ЎзМА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2483-иш, 29-30 варақлар.

<sup>276</sup> ЎзМА, Р-837, 32-рўйхат, 2331-иш, 15-варақ.

<sup>277</sup> ЎзМА. Р-837, 32-рўйхат, 2331-иш, 16-варақ.

сақланиб қолинган <sup>278</sup>. Ўзбекистонда коракулчилик хужаликлари сони кўпайтирилиб, 1936 йили “Ўзбеккоракул” трестига карашли 20 та совхоз фаолият олиб борди<sup>279</sup>. Кейинги йилларда Ўзбекистонда коракул етиштириш кўпайтириб борилди. 1940 йили 971 000 коракул тери тайёрланган бўлса, 1962 йили 1 871 000 дона тери тайёрланди<sup>280</sup>. Ўзбекистон тоза сифатли коракул тери етиштириш буйича иттифокда юкори ўринда турди. Таҳлилларга кўра, 1954 йили мамлакатдаги бу турдаги коракул терининг 48 фоизи Ўзбекистонда етиштирилган <sup>281</sup>. 1926-1927 йилларда Ўзбекистоннинг иккита районида йилқичилик артеллари ташкил этилган. Улардан бири Самарқанд округининг Пастдарғом районида ташкил топган бўлса, иккинчи отхона Зарафшон округининг Хатирчи районида очилган эди. Мазкур янги ташкил топган иккита йилқичилик артеллари 22 бош айғир отлари билан таъминланган эди. 1928-1929 йиллардан бошлаб от етиштиришга мўлжалланган мазкур ташкилотлар ўз отларини қишлоқ хўжалик кооперацияларига беришни бошлаган. Мазкур даврида Ўзбекистонда чорванинг бир қанча турлари мавжуд бўлган бўлиб, улардан энг кўп тарқалганлари кўй, эчки, от, сигир ва туя бўлган. Мазкур чорваларнинг миқдори маълум даврларда ўзгариб турган ҳамда бунга бир қанча омиллар таъсир ўтказган. Статистик маълумотлар таҳлили шуни кўрсатадики, совет ҳокимиятининг дастлабки даврларида барча чорва турлари сони камайиб кетган. 1920 йиллар ўрталарида чорва турлари сони ҳудудлар кесимида ҳам фарқ қилган. Масалан, отлар миқдори Фарғона ва Самарқанд вилоятларида бошқа ҳудудларга караганда кўпроқни ташкил этган. Кўйлар сони эса Сурхондарё, Қашқадарё ва Зарафшон вилоятларида бошқа вилоятларга караганда кўпроқни ташкил этган бўлиб, Хоразм ва Фарғона вилоятларида мазкур чорва турлари камроқ бўлган. 1930 йилларнинг ўрталарига келибгина Ўзбекистонда 1917 йилдаги чорва сонига қисман яқинлашган. 1930 йилларнинг охирида колхоз ва совхозлардаги чорва сонлари ошиб бориб, яқка тартибдаги чорвадорларнинг чорвалари миқдори камайиб кетган. Мазкур жараёнларда колхоз ва совхозларнинг чорва молларини сотиб олиш омиллари муҳим ўрин тутган. Хусусан, совет ҳокимиятининг дастлабки даврлари ҳисобланган 1917-

<sup>278</sup> Ахмедов Н. Коммунистическая партия Узбекистана в борьбе за развитие общественного животноводства (1966-1970 гг.) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1973. - С. 9.

<sup>279</sup> Ўз МА, Р-93-фонд, 11-руйхат, 460-иш, 29-варак.

<sup>280</sup> Насиров Б. Опыт развития каракулеводства совхозов Узбекистана. Дисс.канд. сельскохозяйственных наук: Самарканд, 1963 - С. 8.

<sup>281</sup> Канцеляльский А.С. Качество каракуля совхозов и колхозов за 1954-1955 гг. // Каракулеводство и звероводство. - Москва, 1956. - №1. - С. 24-27.

1920 йилларда ўлкада чорвачилик инқирозга учраган эди. Бу биринчи навбатда Биринчи жаҳон уруши муносабати билан кўпгина чорваларни турли мақсадларда олиб чиқиб кетилиши ҳамда истиқлолчилик ҳаракатларидаги қуролли жараёнларга боғлиқ эди. Мазкур жараёнлар натижасида чорвачиликка эътибор сусайиб кетди. Бундан ташқари, маҳаллий чорвадорлар ўз чорваларини боқиш имкониятига эга бўлолмади. 1924-1925 йилларда минтақада миллий-худудий чегарланиш ишлари натижасида бошқа моддий бойликларни тақсимлаган бўлгани каби чорваларни бўлишиш ишлари олиб борилди. Мазкур жараёнда яқка тартибдаги чорвадорлар кўлида бўлган чорвалар давлат тасарруфига ўта бошлади. Кейинчалик колхоз ва совхозлар ташкил этилиши натижасида хусусий чорваларни мазкур колхоз ва совхозларга ўтказиш жараёни тезлашиб кетди. Жумладан, чорвачиликнинг маълум бир турини боқишга мўлжалланган совхозлар ташкил этилди ва улар ўз атрофидаги деярли барча чорваларни ўз тасарруфига олди. Бундан ташқари, колхозларда чорвачилик фермалари ташкил этилди. Мазкур жараёнлар айниқса 1930-1940 йилларда жадаллик билан олиб борилди. Чорваларнинг аксарият қисми давлат тасарруфига ўтказилиши натижасида чорвачиликни ривожлантириш совет маъмуриятининг соҳада олиб борган сиёсатига боғлиқ бўлиб қолди. Энг биринчи навбатда чорвалар сонини ошириш ҳамда зотдор чорва турларини сақлаб қолиш ва кўпайтириш мақсадида урчитилиш ишларига эътибор берилди. 1920-1940 йилларда Ўзбекистонда чорвачиликни ривожлантириш учун яйлов ерлар ва чорва озуқалари муҳим аҳамият касб этган. Буннинг сабабларидан бири мазкур даврда аксарият яйлов ва пичан етиштириладиган ерлар деҳқончилик ерларига айлантирилган. Натижада чорваларни ем-хашак билан таъминлашда бир қанча муаммолар юзага кела бошлади. Бундан ташқари, чорва озуқаси сиёсати маълум ташкилотлар томонидан олиб борилган бўлиб, бу ҳолат чорваларни озуқа билан узлуксиз таъминлаш даражаси ушбу муассасалар фаолиятига боғлиқ бўлиб қолди.

## **ХУЛОСА**

Собиқ Иттифоқ йилларида чорвачиликнинг давлат мулкига о'тиши, чорвачиликдаги о'згаришлар ва уларнинг тарихий динамикаси, чорвачиликнинг ташқи савдодаги о'рни, чорвачиликда олиб борилган ислохотлар ва ўтган асрнинг биринчи ярмидаги ривожланиш бу соҳанинг ривожига ижобий таъсир кўрсатади.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.
2. Хамдамов А. Себестоимость продукции скотоводства и пути ее снижения (На примере колхозов Самаркандской области Узбекской ССР). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 1971. – С. 16. ЎзМА, Р-86-фонд, 1-руйхат, 2483-иш, 12-13-варақ.
3. Всесоюзный научно-исследовательский институт каракулеводства. - М., 1975. - С. 8-10. ЎзМА. Р-837,32-руйхат,2331-иш, 16-варақ.
4. Ахмедов Н. Коммунистическая партия Узбекистана в борьбе за развитие общественного животноводства (1966-1970 гг.)Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент,1973. - С. Ўз МА, Р-93-фонд, 11-руйхат, 460-иш, 29-варақ.
5. Насиров Б. Опыт развития каракулеводства совхозов Узбекистана. Дисс.канд. сельскохозяйственных наук: Самарканд, 1963 - С. 8.
6. Канцеляльский А.С. Качество каракуля совхозов и колхозов за 1954-1955 гг. // Каракулеводство и звероводство. - Москва, 1956. - №1. - С. 24-27. ЎзМА, Р-10-фонд, 1-руйхат, 789-иш, 3-варақ.
7. Мамасалиев, М. М. (2022). Эпоха государственного управления амира темура: философские и теоретические основы. in развитие современной науки и образования: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 161-165).
8. Mamasaliyev, Mirzoulug' Mirsaidovich (2021). The state of sahibqiran amir temur philosophical and ethical issues in management. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (8), 456-462.
9. Mamasaliyev, M. M., & Elboeva, S. B. (2019). Religious-philosophical doctrines of Sarvepalli Radhakrishnan. Theoretical & Applied Science, (11), 339-342.
10. Ахмедов Бекзод Абдирахмонович (2018). Ўзбекистонда қоракўлчилик соҳасидаги илмий-тадқиқот ишлари ва унинг натижалари. Ўзбекистоннинг маънавий, ижтимоий-иқтисодий тараққиёти ва замонавий тарих фани: Республика илмий-амалий конференция материаллари. Қарши, 2018. Б. 211-213.
11. Ахмедов Бекзод Абдирахмонович (2021). The study of karakul breeding in uzbekistan during the soviet era. Middle European Scientific Bulletin (MESB) ISSN: 2694-9970 Table of Content - Volume 18 (Nov 2021) –Б.526-533.

- 
12. Рўзибоев Дилшод Аъзам ўғли (2021). 1946-1953 йилларда Ўзбекистонда чорвачилик хўжалигида ўзгаришлар ва уланринг ўзига хос хусусиятлари. IJORCES International journal of conference series on education and social sciences. Copyright © 2021, ISSN 2717-7076 Bursa, Turkey, 41-45-бетлар.
13. Рўзибоев Дилшод Аъзам ўғли (2022). Положение животноводства в Узбекистане в 1920-1940 гг. Развитие современной науки и образования: актуальные вопросы, достижения и инновации сборник статей Международной научно-практической конференции, Состоявшейся 20 января 2022 г. в г. Пенза, 154-159- бетлар.
14. Akhmedov, B. A. (2021). HISTORY OF KARAKUL INDUSTRY IN UZBEKISTAN. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 1159-1163.
15. Akhmedov, B. A. (2020). KARAKUL BREEDING DURING THE BUKHARA EMIRATES. In НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ (pp. 160-162).



## LOKOMOTIV TORTUV ELEKTR MASHINALARINING O'TKAZGICHLARI IZOLYATSIYASIGA NAMLIKNING TA'SIRI

**Ahad Turdibekovich Djanikulov**

Toshkent davlat transport universiteti  
djanikulov@mail.ru

**Shuxrat Farmon o'g'li Jamilov**

Toshkent davlat transport universiteti  
shuhratjamilov@mail.ru

**Azizbek Rustambek o'g'li Miravazov**

Toshkent davlat transport universiteti  
azizbekmiravazov@mail.ru

### ANNOTATSIYA

*Bu maqolada lokomotivning elektr mashinalarining izolyatsiya qismiga namlik ta'siri ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** namlik, mustahkamlik, qarshilik, ifloslanish, izolyatsiya.

### EFFECT OF MOISTURE ON THE INSULATION OF CONDUCTORS OF MACHINES OF LOCOMOTIVES

#### ANNOTATION

*This article examines the effect of moisture on the insulation of the electric machines of the locomotive.*

**Keywords:** moisture, durability, resistance, contamination, insulation.

#### KIRISH

Namlikning elektr izolyatsion elementlarning qismlariga ta'siri yuza tekisligidagi nisbiy qarshiligini  $\rho_s$ , nisbiy hajmiy qarshiligini  $\rho_v$  va izolyatsiyaning elektr mustahkamligini va chulg'am elektr mustahkamligi kamaytirish shishishi va geometrik o'lchamlarning o'zgarishi natijasida ichki sig'imini oshishi, ularning samarali dielektrik o'tkazuvchanligi  $\epsilon$ , dielektrik yo'qotish burchagi  $tg\delta$  tangensini oshirishiga sabab bo'ladi. Elementlarning elektr izolyatsion xususiyatlarining bunday buzilishlari elementlarda namlik mavjud bo'lganda,  $\rho_s$ ,  $\rho_v$ , va  $\epsilon$  qiymatlari "quruq" izolyatorlar qiymatlaridan sezilarli darajada farq qilishi bilan bog'liq.

Toza kondensatsiyalangan suvning o'zi nisbatan yaxshi izolyator bo'lsada ( $\rho_v \approx 2 \cdot 10^7 \text{ Om} \cdot \text{sm}$ ), ammo izolyatsion materialning yuzasida va hajmida uning elektr o'tkazuvchanligi keskin oshadi va ma'lum bir darajada o'tkazgichga aylanadi,

chunki har doim izolyatorlar yuzasida ham, ichida ham mavjud bo'lgan kislotali va ishqoriy qoldiqlar va havodan material yuzasi tomonidan ifloslantiruvchi moddalar ( $\text{SO}_2$ ,  $\text{CO}_2$  zarralari va boshqalar) bilan birga har doim past konsentratsiyali elektrolitga aylanadi, u tokni o'tkazadi. Ba'zi izolyatsion materiallarda suvda eruvchan birikmalar mavjud; suv ularning ustiga tushganda, bu birikmalar qisman suvga o'tib, o'tkazuvchan ionlarni hosil qiladi (masalan, gidroksidli shisha suvda eriydigan NaO, CaO, MgO o'z ichiga oladi), bu ham izolyatsiya qarshiligini sezilarli darajada kamaytiradi.

### **MUHOKAMA**


Namlikka ta'sir qilganda izolyatsiya qarshiligining pasayish darajasi ( $\rho_s$  va  $\rho_v$ ) hosil bo'lgan namlik plyonkasi qalinligiga, bu plyonkaning o'tkazuvchan qo'shimchalar bilan ifloslanish darajasiga va izolyatorning butun hajmiga namlikning kirib borish darajasiga bog'liq. Shuning uchun izolyatsiya qarshiligining pasayishi asosan material yuzasining xususiyatlari (g'adur-budirlik, ifloslanish darajasi), bu sirtning tortishish sohasidagi holati (vertikal joylashgan sirtlarda namlik plyonkasi gorizontallarga qaraganda nozikroq) va nam havoda ta'sir qilish vaqti bilan belgilanadi [3]. Shuning uchun adabiyotlarda namlik ta'sirida bo'lgan materiallarning  $\rho_s$ , va  $\rho_v$ , ning o'ziga xos miqdoriy xarakteristikalari kamdan-kam uchraydi, chunki bunday xususiyatlar materialning o'ziga xos xususiyatlaridan ko'ra ko'proq sirt xususiyatlari va uni namlash shartlari; bu shuningdek, turli adabiy manbalarda berilgan  $\rho_s$ , va  $\rho_v$ , ayniqsa  $\rho_s$ , raqamli qiymatlarining sezilarli darajada tarqalishini tushuntiradi.

### **NATIJA**

Ma'lumki, izolyatorda tokning oqishi sirt bo'ylab (chunki  $\rho_s < \infty$ ) va hajm (chunki  $\rho_v < \infty$ ) bo'ylab sodir bo'ladi, sirt tokni o'tishi asosiy rol o'ynaydi.

Namlikka ta'sir qilganda izolyatsion materiallarning  $\rho_s$  kamayishining miqdoriy ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan.

1-rasm. Bu garfikda  $t = 20\text{ }^{\circ}\text{C}$  bo'lganda  $\rho_s = f(\varphi)$



- parafin uchun;
- toza kvarts uchun;
- shisha uchun;
- ifloslangan kvarts uchun

1-rasmda ko'rsatilganidek, namlik ta'sirida, o'ziga xos qarshilik  $\rho_v$  10-10 000 marta kamayadi, bu izolyatoridagi  $I_{iz}$  tokning sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

Shu sababli, elektr mashina elementlarining elektr izolyatsion xususiyatlari ma'lum darajada ularning haqiqiy namligi, ya'ni elementning yuzasida va hajmida namlik mavjudligi bilan belgilanadi degan xulosaga keldik. Ishlash sharoitida elementlarning namlik miqdori bevosita o'lchanmaydi; elementlar va atrof-muhit havosi o'rtasida dinamik namlik muvozanati o'rnatilgan deb hisoblab, odatda atrof-muhit havosining nisbiy namligi bilan taxmin qilinadi.

Elementlarning namligi ma'lum darajada o'lchanadigan va tartibga solinadigan atrofdagi havoning nisbiy namligi bilan aniqlanganligi sababli, biz ishonchlik nuqtai nazaridan optimal nisbiy namlik tushunchasini kiritamiz. Bu havoning shunday nisbiy namligi bo'lib, unda elementlarning eng katta ishonchliligi ularning ishlash va saqlash rejimida ta'minlanadi.

## **XULOSA**

Elementlarning elektr izolyatsion qismlari uchun havoning nisbiy namligining qiymatlari ishonchlik nuqtai nazaridan 30 ... 60% optimal deb hisoblanishi mumkin; Buni bir qator nazariy tadqiqotlar natijalari va ko'plab tuzilmalarni ishlatish amaliyoti tasdiqlaydi [4]. Optimal nisbiy namlik oralig'ining chegaralari quyidagi sabablarga ko'ra tanlanadi:

$\varphi > 60\%$  da, elementlarning sirtlarida namlik plyonkasi hosil bo'ladi, bu  $\rho_s$  ni qanchalik ko'p pasaytiradi,  $\varphi$  shunchalik yuqori bo'ladi;

$\varphi < 30\%$  da organik izolyatsion materiallar hajmi bo'yicha intensiv quritish sodir bo'ladi; ulardan nafaqat kapillyarlardagi namlik, balki strukturaviy bog'liq namlik ham chiqariladi, bu esa elastiklikning yo'qolishiga, bu materiallarning mexanik kuchining pasayishiga olib keladi; bunday muhitda uzoq vaqt (3 oydan ortiq) qolish bilan organik izolyatsion materiallar mo'rt bo'lib, elastikligini yo'qotadi va ularda sirt yoriqlari paydo bo'ladi.

## **REFERENCES**

1. Геккель Е. Я. Электрические машины и электрооборудование тепловозов.-М: Транспорт, 1988.
2. Марченко В. С. Электрооборудование тепловозов.-М: Транспорт, 1986.
3. Shuhrat Jamilov, Asror Shoimqulov. Elektr mashinalarning izolyatsiyasini harorat ta'sirida o'zgarishini tahlil qilish. Scientific progress scientific Journal 2021 yil. may, 673-676 betlar.
4. Ahat Turdibekovich Djanikulov, Shuhrat Jamilov, Azizbek Rustambek o'g'li Miravazov. Elektr mashinalarning izolyatsiya parametrlarini almashtirish sxemasi bilan tekshirish. Ares academic research in enducational sciences 2021 yil. noyabr, 877-882 betlar.

## ЎЗБЕК ТИЛИДА ЁШГА ДОИР ЭВФЕМИЗМЛАРНИНГ СОЦИАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ

**Ҳасанова Дилфуза Одилевна**

Қўқон давлат педагогика институти доценти

### АННОТАЦИЯ

*Мулоқот системаси учун аҳамиятли ва зарур бўлган системани ташиқил этувчи белгилар ҳар қандай мулоқотнинг зарур шартидир. Улар шахс унсурунинг ички элементлари бўлиб, ўзаро зич боғлиқликка эга. Бу белгилардан бирортаси бўлмаса, улар ўзаро тенг нисбатда ҳаракат қилмаса, мулоқот системасида шахс унсурунинг роли пасаяди ва коммуникатив интенциянинг реаллашувига жиддий нутур етади.*

**Калим сўзлар:** *шахс, мулоқот, гендер, когнитив, коммуникатив, эвфемизмлар, лисоний, прагматик омиллар, эвфемизация, доминант.*

### ABSTRACT

*The characters that make up a system that are important and necessary for a communication system are necessary condition for any communication. They are the internal elements of the element of personality and are closely interrelated. In the absence of any of these sings, if they do not act in equal proportions, the role of the personality element in the communication system decreases and seriously impairs the realization of communicative intention.*

**Keywords:** *personality, communication, gender, cognitive, communicative, euphemisms, linguistic, pragmatic factors, dominant.*

### КИРИШ

Ўзбек тилшунослиги замонавий фан сифатида ўзининг формал ва субстанциал ўрганиш босқичларини босиб ўтиб, янги – антропоцентризм босқичига ўтди. Шунинг учун эвфемизмларни ҳам янги босқич асосида таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ. Тилшунослиқда тил ва нутқнинг фарқланиши стилистиканинг мустақил фан сифатида шаклланишига олиб келди. Стилистика соф амалий аҳамиятга эга: стилистикани ўрганиш, унинг тамойил ва қонун-қоидаларини билиш нутқ маданиятини оширишда муҳим омилдир. Шунга кўра, услубшунослик жамиятнинг лингвостилистика маданиятини оширишга хизмат қилади, тил фактларига баҳо беришга ўргатади, мазмун ва алоқа жараёнига мос тил воситаларини танлаш кўникмаларини яратишга кўмаклашади. Мана шу жиҳатлари билан ҳам у прагмалингвистика билан ўзаро боғлиқлик касб этади. Демак, нутқ услублари ҳам прагмалингвистиканинг бир қирраси саналади.

## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Шахс унсури мулоқот системасида вазият унсури билан бирга асосий ўринни эгаллайди. Зеро, бу икки унсур ушбу тизимда доминантлик қилади. Аммо шахс вазиятдан фойдаланади, лекин вазият шахснинг мулоқот интенцияси (мақсади)га таъсир қилмаса-да, интенцияга эришиш усулини ўзига мослаштиришни талаб қилади. Акс ҳолда, у мулоқот сифати ва натижасига, демак, адресантнинг коммуникатив интенцияси тўлақонлилигига путур етказди.

Шахс мулоқотнинг боғловчи воситаси, унсури бўлган лисоний воситаларни танлаш ва ўринли ишлата билиш учун қуйидагиларга эга бўлиши зарур:

- а) лисоний қобилият;
- б) когнитив қобилият;
- в) мулоқот қобилияти.

Бу белгилар шахс унсурининг мулоқот системасида ўрин эгаллаши учун жуда зарур бўлиб, системалогия нуқтаи назаридан система ташкил этувчи белги ҳисобланади.

Мулоқот системаси таркибида шахс унсури ё адресат, ёки адресант сифатида қатнашади. Унинг адресант ёки адресат эканлиги субстанциал табиатга эга эмас, балки мулоқот тизимида вужудга келади. Шу боисдан шахс унсурининг адресат/адресантлиги белгисини системада ҳосил бўлувчи белги сифатида баҳолаш мумкин.

Шахс унсури гендер, характер-хусусият, ахлоқий, эътиқодий, эстетик, жисмоний, профессионал, ёш, савия каби қатор белгиларга ҳам эгаки, бу белгилар системанинг айримлари учун муҳим аҳамиятга эга бўлса, бошқаларида аҳамиятсиз саналади. Шунинг учун бу шахсий сифатларни мулоқот системаси учун бетараф, иррелевант белгилар сифатида баҳолаш мумкин бўлади.

Мулоқот системаси учун аҳамиятли ва зарур бўлган системани ташкил этувчи белгилар ҳар қандай мулоқотнинг зарур шартидир. Улар шахс унсурининг ички элементлари бўлиб, ўзаро зич боғлиқликка эга. Бу белгилардан бирортаси бўлмаса, улар ўзаро тенг нисбатда ҳаракат қилмаса, мулоқот системасида шахс унсурининг роли пасаяди ва коммуникатив интенциянинг реаллашувига жиддий путур етади. Масалан, лисоний қобилият, яъни муайян тилда сўзлаша олиш қобилиятига эга бўлмаслик шахснинг мулоқотга киришувига монелик қилади. Ёхуд когнитив компетенция дея

аталувчи билимлар захирасига эга бўлмаслик ҳам зарур мақсадга эришиш йўлидаги тўсиққа айланади. Дейлик, бирор мавзудаги суҳбатнинг натижаси ҳар икки томоннинг шу мавзуси бўйича зарур билимларнинг қай даража эканлиги билан белгиланади.

Коммуникатив компетенция (мулоқот қобилияти) кенг қамровли белги бўлиб, у мулоқот бирликларини қўллаш тактикасини ҳам, мулоқот вазиятидан фойдаланиш маҳоратини ҳам, шу билан биргаликда, мулоқот унсурларини коммуникатив интенция йўлида уюштириш малакасини ҳам ўз ичига олади. Бу ички унсурларнинг ҳар бири мулоқот самараси учун улкан аҳамиятга эга бўлиб, унинг ҳар бирини алоҳида-алоҳида тадқиқ қилиш лозим.

Шахснинг дискурсив ёки мулоқот фаолиятини мулоқот интенцияси бошқаради. Шу боисдан, коммуникатив интенцияни дискурсив “ғоя”, мулоқотнинг ҳаракатлантирувчи кучи сифатида баҳолаш мақсадга мувофиқдир. Зеро, мулоқот интенцияси шахс нутқий ҳаракатининг кўлами ва кучини белгилайди. Шунинг учун шахснинг дискурсив фаолияти прагматингвистик таҳлилларнинг марказида туради. Шу маънода Ш.Сафаров айрим тилшуносларнинг бу борадаги фикрларига ўз эътирозини билдиради: “ нутқий ҳаракат таъсирини прагматингвистик таҳлил доирасидан четга суриб қўйсак, унда мулоқот тизимини тўмтоқ қилиб қўймаймизми?! Мулоқот сўзловчига таъсир ўтказиш, уни бирор жавоб ҳаракатига ундаш учун бажарилади-ку! Нутқий мулоқот мақсади икки сатҳлидир, яъни нутқий ҳаракатда ахборот алмашиш ва коммуникатив прагматик мақсад воқеланади. Биринчисида сўзловчининг мақсади ахборот етказиш ёки олишдир”.

Демак, муайян мулоқот системаларида шахснинг коммуникатив ҳаракати, дискурсив фаолияти:

- а) лисоний қобилият;
- б) когнитив қобилият;

в) мулоқот қобилияти яхлитлигида юзага чиқиб, бу унсурларни яхлит ўрганиш билангина шахс унсури ва унинг дискурсив фаолиятига ҳаққоний ва тўлақонли баҳо бериш мумкин.

Эвфемизмлар ижтимоий ҳаётнинг муайян ҳодисалари, инсоний муносабатлар маданияти ва ахлоқий баҳолардаги ўзгаришларга нисбатан моҳирона ишлатиладиган воситадир. Жамият ривожланишининг бир босқичида ишлатиладиган эвфемизмлар кейинги босқичида ўз моҳиятини йўқотиб, нарсаларни бевосита тўғридан тўғри атайди. Эвфемизация жараёнида вақт омили муҳим роль ўйнайди. Бундан ташқари, ижтимоий омил ҳам муҳим

аҳамиятга эга, чунки турли ижтимоий муҳитда эвфемизацияга учраган нутқ ҳодисалари ҳақидаги ғоялар турлича бўлади. Ҳозирги кунда эвфемизм замонавий тилшунослар асарларида прагматик ёндашув нуқтаи назаридан фаол ўрганилиб, унда эвфемизмлар коммуникатив қулайликни таъминлаш воситаси бўлиб хизмат қилади ва адресат билан кооператив ҳамкорликка эришишга ёрдам беради. Эвфемия нутқ талабларини бажариш ёки онгли равишда бузиш усулларидан бири сифатида қадимда шаклланган. Мантикийлик, тўғрилик, аниқлик, хилма-хиллик, манманлик, нотинчлик, қисқалик ва аниқлик, пала-партишлик ва долзарблик нутқнинг асосий ижобий сифатлари ҳисобланган (Москвин, 2001). Нутқ мулоқотининг тамойиллари ва постулатларини шакллантирган П.Грайс ва Дж.Лич коммуникация (алоқа) қоидаларини тизимлаштиришга катта ҳисса қўшдилар. Ҳамкорлик тамойили (Грайс, 1985) асосий тамойил бўлиб, у нутқий хабарга қўшилган ҳисса мулоқотнинг қабул қилинган мақсади ва йўналишига мос келишини талаб қилишдан иборат. Постулатларнинг қуйидаги тўрт тоифаси ушбу тамойилга бўйсунди: 1) миқдор категорияси: баён тўлиқ маълумотни етказиши керак; 2) сифат категорияси: узатилган маълумот адолатли бўлиши керак; 3) муносабатлар категорияси (у билан боғлиқ бўлган ягона постулатнинг долзарблиги: баёнот масаланинг моҳиятига тегишли бўлиши керак); 4) усул категорияси: баёнот аниқ ва қисқа бўлиши керак.

Дж.Лич олти постулатлар кўрсатилган тамойилга конкретлашадиган (Арутюновага кўра, 1985) коммуникантлар муносабатларини тартибга солувчи муҳим хушмуомалалик тамойилини шакллантирди: 1) такт постулати (ноқулайликларни бошқа максимал қулайликлар билан таъминлаш); 2) олийжаноблик постулати (ўзингиз учун минимал қулайликлар ва бошқаларни максимал қулайликлар билан таъминлаш); 3) ижобий баҳо бериш постулати (бошқаларни салбий баҳолашни камайтириш, ижобий баҳолашга ҳаракат қилиш); 4) камтарлик постулати (ўзингизни минимал мақташ, иложи борича ўзингизга танбеҳ бериш); 5) розилик постулати (ўзингиз ва бошқалар ўртасида келишмовчиликни камайтириш); 6) ёқтириш (симпатия) постулати ўзингиз ва бошқалар ўртасидаги антипатияни камайтириш, сиз ва бошқалар ўртасидаги максимал симпатияга интилиш).

Агар коммуникантлар юқоридаги талабларни бажармасалар, мулоқот қоидаларини бузадилар, бу эса мантиқсизлик, мужмаллик каби нутқий камчиликларга олиб келиши мумкин (масалан, ҳақорат, тухмат, алдов ва ҳоказо) ва ҳаддан ташқари хушмуомалалик муносабати ҳам салбий натижаларга олиб



келиши мумкин. Бироқ нутқ талабларини бузиш коммуникатив нуқтаи назардан ҳам оқланиши мумкин, масалан, агар мулоқот мақсадига эришиш фақат шу йўл билан амалга оширилиши мумкин бўлса. Прагматика нуқтаи назаридан эвфемизмлардан фойдаланиш хушмуомалалик, камтарлик, нозиклик, яхши дид қоидалари ҳамда объект ёки ҳодисанинг салбий моҳиятини юмшатишга интилиш тамойилларини тақозо этади. Эвфемизмлар нутқ талабларининг коммуникатив-асосли бузилишлари натижасидир. Шундай бўлса-да, сифат туркумидаги постулатлар (“нотўғри деб ўйлайдиган нарсангни айтма”), усул туркумидаги постулатлар (“тушунарсиз ифодалардан воз кеч”, “ноаниқликнинг олдини ол”) (Грайс, 1985) кузатилади, бунда ҳамкорлик глобал тамойили олиб борилади ва нутқий мулоқот ўз мақсадига эришади.

Шундай қилиб, эвфемизация давомига пайдо бўлган ноаниқлик якуний коммуникатив мақсадга хизмат қилади – суҳбатдош учун ёқимсиз бўлган ўтқир ёки қўпол баёнотнинг бевосита маъносини юмшатишга хизмат қилади. – Ўл бўлди! Дард бўлди! – Комиссар алам устида хотинига тарсаки солди. – Комиссар квартирага ўрнатилиши эҳтимол бўлган “қулоқлар” ёки пастда, йўл четида пойлаб турган машинадаги “локатор” эшитиши учун овози борича ҳайқирди: – Итдан бўлган қурбонликқа ярамайди! Эринг Англия разведкасига сотилганини нега яширдинг? (Ўтқир Ҳошимов. “Тушда кечган умрлар”. 82-б. Комиссар Ғаниев, 75 ёш) Шу билан бирга, эвфемия ҳодисаси лингвистик универсалларни англатади, коммуникация (алоқа) жараёнининг ажралмас таркибий қисми бўлиб, зиддиятсиз ва муваффақиятли мулоқотнинг асосий воситаларидан бири бўлиб хизмат қилади.

Кўринадики, эвфемизмларнинг нутқий воқеланишида бевосита прагматик омилларнинг таъсири катта. Зеро, прагматик омилларнинг эвфемизмларга таъсири, албатта, ўзбек мулоқот маданияти, мулоқот хулқи, мулоқот одоби, миллий менталитети билан боғлиқдир. Дарҳақиқат, чиройли ҳамда айтилиши ноқулай бўлган фикрни “қоғозга ўраб” суҳбатдошга етказиб бериш ўзбекона мулоқот маданияти саналади. — Битта-ю битта қизимни жўжаларим билан кўчага ҳайдаб қўяйми? Тор қорнимга сиғган кенг уйимга сиғмийдими? – Умида, жон қизим, эсингни йиғ, бўладиган савдо эмас, бу боланинг кўзи бежо, дегандим. – Қўй, болам, шайтонга ҳайф бер, пешонангдагини кўриб кетарсан, дидим. (Ўтқир Ҳошимов. “Тушда кечган умрлар”. 63-б. Қурбоной, 55 ёшда) Эрим бўлмагани билан бошим очиқ эмас, – деди пичирлаб, Асқарали тоғанинг ўғилларига кўнглим бор эди. Пешонам шўр экан, бошқа кишини эр қилдим. Мен уни азалдан ёмон кўрардим. Йўқ, ўзи ёмон одам эмасди, фақат сал тўпори,

кўриниши совуқроқ эди. Тегишга тегдиму, у билан яшаб кетишга кўнглим чопмади. Ёстиғимиз бошқа-бошқа эди... (Тоҳир Малик. “Девона” қиссаси.103-б. Сабохон 30 ёшларда) Кампир, – деди, – буёғи шартимиз кетиб, партимиз қолди. Бир-биримиздан яширадиган сир ҳам қолмади ўзи. Тўғриси айт: бирон марта чакки қадам босганмисан? (Ўткир Ҳошимов. ”Дафтар хошиясидаги битиклар”. 184-б. Қари чол) – Тўғри, – деди кампир ҳеч балони эшитмай. – Норқулингизди келини кўзилабди. Қиз – Ана! – деди чол. – Мен буни желкасини қашлайман, буни чевара келини қиз тувари. Яхши қашламаган чиқарман-ов...(Ўткир Ҳошимов. “Дафтар хошиясидаги битиклар”. 187-б. Қашқадарёлик 100 ёшлардаги чол ва кампир)

Демак, нутқда эвфемизмлардан фойдаланиш сўзловчининг маълум мақсадни ифода этишга хизмат қилади. Нутқ вазияти, ўрни ва бошқа бир қатор омиллар эвфемизмлардан фойдаланишга эҳтиёж туғдиради. Публицистик эвфемизмларнинг нутқий воқеланишида прагматик омиллар бир бутун ҳолда таъсир кўрсатади. Масалан, Отаси урушдан яримжон бўлиб қайтган, тўкилиб кетай деб турган кулбада туришарди. Тўнғич неварамнинг бўйи чўзилиб қолди...(Ўткир Ҳошимов. “Дафтар хошиясидаги битиклар”. 83-б. 60 ёшлардаги эркак) – Эсинг жойидами, земляк! – деди танкчи овозини пасайтириб. – Олиша кўрма бу хотинлар билан. Эрига бир оғиз, “ҳақорат қилди”, деб шипшиб қўйса, нақ трибуналга тушасан, тентак! Биронта каттароқ офицернинг “прокат”га олган хотини-да! Бу ерда ҳамма катталарнинг “вақтинча” хотини бор: сотувчи, кир ювувчи, санитарка...Сен жангга кириб, ўлмай чиқсанг, Ватан номидан раҳмат эшитасан, катта офицернинг «прокат»га олган хотини бўлса, Ватан олдидаги “хизматлари” учун орден олади! (Ўткир Ҳошимов. “Тушда кечган умрлар”. 48-б. Рустам, 25 ёшларда) Ман юрак олдириб қўйганман, холанг қоқиндиқ. Совуқ тушганидан бери касалим ўлгур кўзиб қолди. (Ўткир Ҳошимов. “Тушда кечган умрлар”. 62-63 б. Қурбоной, 55 ёшда)

Таъкидлаш керакки, эвфемизмларнинг воқеланишида прагматик ва лисоний омиллар ҳамкорлиги муҳим ўрин тутари. Ўзбек тили ходисаларини “нутқ-лисон” тамойили асосида ўрганиш натижасида қўлга киритилган лисоний умумийликларнинг нутқий воқеланишини нолисоний омиллар билан биргаликда тадқиқ қилиш, улардан шахснинг оқилона ва самарали фойдаланиш механизмларини ишлаб чиқиш прагматик лингвистиканинг асосий вазибаларидан биридир.

Ўзи-ўзини ташкил этувчи системаларнинг инсоний омиллар билан қоришган ўзига хос кўриниши бўлган нутқий тизимда лисоний ва прагматик

омиллар ҳамкорликнинг юксак даражасида амал қиладики, бир қарашда улар орасига чегара қўйиш, идрокий асосда уларнинг ҳиссаларини аниқлаш имкони маълум даражада чекланган бўлади.

Лисоний ва нолисоний омилларнинг ҳамкорлиги мувофиқлик кўринишида намоён бўлиб, нутқий система таҳлилида уларнинг бирортасининг ҳам мавқеига паст назар билан қараб бўлмайди, бунда комплекс таҳлил тамойили устуворлик қилади.

Коммуникатив интенция фаоллик қилиб, сўзловчи ўз мақсадига эришиш учун бир вақтнинг ўзида прагматик омилларга бўйсунтириш билан бирга уларни усталик билан ўзига мослашга ҳаракат қиладиган ўринларда лисоний воситаларга ҳам устуворлик берилади.

### **ХУЛОСА**

Нутқда лисоний омиллар сўзловчи томонидан “мажбурий-ихтиёрийлик” тамойили асосида бошқарилади. Масалан, сўзловчи мулоқот интенцияси ва унинг намоёндаси бўлган нутқий интенция асосида тил воситаларидан бирини танлайди ва унга мустаҳкамловчи воситаларни тиркайди – сўз ва грамматик шаклларнинг валентлик имкониятларидан келиб чиққан ҳолда фикрини муайянлаштириш ҳамда ўз мақсадига осонроқ ва қулайроқ эришиш учун фикрий танловни амалга оширади. Албатта, бир вақтнинг ўзида, онг остида ўтиб кетган прагматик омилларни инобатга олиш ва уларни ҳам ўз ўрнида “ишлатиш” компетенциясига таянади. Натижада лисоний ва прагматик омилларнинг уйғунлигига эришилади.

### **REFERENCES**

1. Эрназарова М. Прагмалингвистиками ёки лингвопрагматика? // Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар, 2011. № 1. 121-бет.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Самарқанд, 2008. – 318 б. – Б. 52.
3. Эрназарова М. Луғавий шакл ҳосил қилувчилар грамматик маънонинг воқеланишидаги ўзига хосликлар // Ўзбек тили ва адабиёти – 2013, № 1. 8-бет.
4. Эрназарова М. Луғавий шакл ҳосил қилувчилар грамматик маънонинг воқеланишидаги ўзига хосликлар // Ўзбек тили ва адабиёти – 2013, №1. – Б. 8.
5. Эрназарова М. Луғавий шакл ҳосил қилувчилар грамматик маънонинг воқеланишидаги ўзига хосликлар// Ўзбек тили ва адабиёти. - 2014, №2. 110-бет.

## **ХИВА ХОНЛИГИДА БОЖХОНА ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ**

**Абдухалилова Азиза Эркиновна**

ТДШУ таянч докторанти

baxtiyorovich91@bk.ru

+998911987868

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада XIX-XX асрларда Хива хонлиги молия тизимида божхона тўловларнинг аҳамияти, карвон йўлларида закот олиш тартиби, божмонлар фаолияти сайёҳлар эсдаликлари, архив хужжатлари, даврий матбуот материаллари асосида қиёсий тадқиқ этилган.*

**Калит сўзлар.** Солиқлар, девонбеги, божмонлар, божгир, закот, закотсарой, карвонсарой.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье было сравнительно изучено значение таможенных пошлин в финансовой системе Хивинского ханства в XIX-XX веках, порядок получения закота на караванных дорогах, таможенная деятельность на основе архивных документов, материалов периодической печати.*

**Ключевые слова.** Налоги, девонбеги, таможня, налоговый сбор, закят, закятсарай, каравансарай.

### **ABSTRACT**

*This article has comparatively studied the importance of customs duties in the financial system of the Khiva Khanate in the XIX-XX centuries, the procedure for obtaining zakat on caravan roads, customs activities based on archival documents, press materials.*

**Keywords.** Taxes, devonbegi, customs, tax collection, zakat, zakotsarai, carvansarai.

### **КИРИШ**

Бугунги глобаллашув даврида интеграция жараёнларини ва чегарадош давлатлар билан яқин қўшничилик ҳамда ўзаро манфаатли ҳамкорликни жадал ривожлантиришни талаб этмоқда. Бу боради божхона фаолиятининг ўрни беқиёс. Миллий божхона тизимини миллат тақдирига дахлдор, ягона хизматга айлантириш юзасидан қатор амалий ишлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона хизмати органларининг фаолиятини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги фармони ва “Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати

органларининг фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори<sup>282</sup>, Божхона институтининг қайта ташкил этилиши ва 26-январь божхона хизмати ходимлари куни этиб белгиланиши бу соҳада амалга оширилган ишларнинг нақадар аҳамиятли эканлигидан дарак беради. Соҳада эришилган ютуқ ва учраётган камчиликларни таҳлил этиш учун албатта миллий божхонамиз ривожланиш тарихини чуқур ўрганишни талаб этади. Бу ўринда мамлакат худудидан ўтувчи карвон йўллари ва божхона тизимининг ўрни бекиёсдир.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Хива хонлиги Осиёнинг савдо йўллари кесишган жойда жойлашганлиги ундан Хиндистон, Хитой, Эрон, умуман Шарқий ва Жанубий Осиё мамлакатларига олиб борадиган йўлларнинг бошланиши ўлкада халқаро савдо ва божхона фаолиятининг ривожланишига олиб келган. Хива Россияга борадиган ҳамма қисқа савдо йўллари кесишган нуқтада жойлашгани учун Осиё товарлари учун омбор вазифасини ўтаган жой бўлиб қолган<sup>283</sup>.

Шунга ўхшаш маълумот рус шарқшунос олими А.Кун томонидан ҳам келтирилади: “Урганч шаҳри-нафақат хонликнинг, балки унга кўшни давлатларнинг улгуржи савдо омбори, бўлиб, махсулотлар хонлик ва ундан кейин Россияга юборилган.”<sup>284</sup>

Хонлик иқтисодий ҳаётида хон ғазнасига келиб тушадиган даромад катта миқдорини божхона солиғи ташкил этган. Божхона фаолиятининг давлат сиёсати даражасига кўтарилганлигини ушбу амалдорнинг шахсан хон Мухаммад Раҳимхон I ҳукмронлиги давридага тегишли ҳукмдорнинг Хўжа Маҳрам (Оллоқулихон вазири) исмли сарой мулозимларидан бири хонлик божхона бошлиғи лавозимига тайинланганлиги тўғрисидаги ёрлиғида ўз аксини топади<sup>285</sup>.

1839 йилга келиб, Ичан Қалъа марказида қурилган махсус Хўжа Маҳрам мадрасасида божхона фаолияти учун 30 дан зиёд толиби илмлар тайёрланганлиги божхона тизимининг яхши ташкил этилганлигидан гувоҳ беради<sup>286</sup>.

<sup>282</sup> <https://lex.uz/docs/3680568>

<sup>283</sup> Алимова Р.Р. Ўрта Осиё хонликларининг кўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари. Т.2017 Б.90-91

<sup>284</sup> А.Кун. Культурный оазис Хивинского ханства // Туркестанские ведомости. 1874. №6. С.54

<sup>285</sup> Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. –Тошкент «Янги аср авлоди», 2010. Б. 289.

<sup>286</sup> Қодиров Ж., Гаипназаров Р. Ўзбекистон республикасида божхона иши тарихи// Ўзбекистон божхона ахборотномаси. 2019 №1 Б.14

Хонликда божхоналар карвон йўлларида, карвонсаройларда ёки асосий чорва хайдаб ўтиладиган йўлларда жойлашган. Масалан, Хива шаҳрида Ичан-Қалъага киришдаги Ота дарвозаси ёнида божхона ташкил этилган бўлиб, у ер икки хонадан иборат бўлган. Бири божхона, иккинчиси саррофхона вазифасини бажарган<sup>287</sup>. Божхоналарда закот йиғиш билан махсус божмон деб аталувчи амалдор шуғулланган.

Хива хонлигига Россия империяси томонидан турли мақсадларда юборилган элчилар, сайёҳлар эсдаликларида ҳам хонлик божхона тизими ҳақида маълумотлар учрайди. 1819-1820 йилларда хонлик ҳудудига келган Подшо гвардияси бош штаб капитани Н.Муравьев хонликда яшовчи туркманлар, ўзбеклар, қорақалпоқлар ҳақида, хонлик шаҳарлари, аҳолиси, иқтисодий ҳаёти, жумладан, савдо-сотик ва солиқ тизими тўғрисида алоҳида тўхталиб, Хива хонлигида пул муомаласи, мавжуд солиқ турлари, божхона фаолияти ҳақида шундай ёзади: “Муҳаммад Раҳимхон I ўзбошимчаликни, талончиликни йуқотди, солиқ ундириш ишида доимий тартиб ўрнатиб, даромадни кўпайтирди, божхоналарва бошқа муассасалар ташкил этди. Бож солиғи хонлик иқтисоди учун аҳамиятли тармоқлардан биридир. Хонлик ҳудудига кўплаб божхоналар мавжуд. У ерда бож тўлови ҳар бир олиб кириладиган маҳсулот учун 3 /10 ни ташкил қилади”<sup>288</sup>. Муаллифнинг хонликда божхона тўловлари, савдо карвонларидан олинладиган закот солиғи, амалда бўлган тангалар тўғрисидаги маълумотлари аҳамиятлидир.

Хива хонлигида шариат асосида нисобга тўлган чорвадан олинладиган закотнинг 3 тури, хонликда муқим яшовчи ўтроқ аҳоли чорвасидан; хонлик чегараларида истиқомат қилган кўчманчи аҳоли чорвасидан; хонлик бозорларига сотув учун олиб келинадиган чорвадан олинладиган закот каби мавжуд бўлган. Улардан Хива хонлик бозорларига олиб чиқилган чорвадан тўланадиган закот *суландли* деб номланиб, улардан олинладиган закот божмонлар назорат қилиб борган. Суландли солиғи махсус божхоналарда ҳар туядан 2 танга, ҳар қўйдан ½ танга миқдорда солиқ олинган<sup>289</sup>.

Яна бир рус сайёҳи А.Вамбери маълумотларига кўра, божхона солиғи закот 1883 йилда ҳар бир хонликка кирган маҳсулотдан 2.5 фоиз миқдорда, чорва маҳсулотлари қорамол, туя, отлардан ҳар бир бошига бир тангадан, қўйдан ярим тангадан олинган.

<sup>287</sup> Қурбонов Ч Туркистонда божхона фаолияти// Мозийдан садо// Т.2010 №2.Б.85

<sup>288</sup> Луин Б.В. История Узбекистана в источниках.-Т.1988 С.174-180

<sup>289</sup> ЎзР МДА, И.125-фонд ,2-рўйхат, 418-ийғма жилд, 1-варақ

Ушбу масала юзасидан Данилевский, бож тўлови осиеликлардан 2%, рус савдогарларидан эса 5% миқдорда олинган. Бунинг далили сифатида 1842 йилда хонлик ҳудудига кирган маҳсулотлар қиймати 700 минг тиллони ташкил этган бўлса, ундан 35 минг тилло бож тўлови олинган.

Шарқшунос олим А.Кун юқорида келтирилган муаллифлар фикрларини тасдиқлаб, “божхоналарда тижорат даромадларидан закот солиғи олинар, бу солиқ маҳсулот турига қараб турлича номланар ва унинг миқдори ўзгариб борарди. Хивага қўшни давлатлардан келтириладиган маҳсулот учун закот ҳар 40 тиллодан 1 тиллони ташкил этади”, деб ёзади<sup>290</sup>.

Закот ундиришдаги яна бир ҳолат хорижлик савдогарларнинг хонлик ҳудудига товар олиб кириши ва олиб чиқиши масалалари бўлган. Хонликка олиб кирилган рус товарлари *калачи* деб аталган ҳамда ундан олинадиган солиқ ҳам шу ном билан юритилган<sup>291</sup>. Биз томонимиздан ўрганилган архив ҳужжатларида унинг миқдори маҳсулот таннархининг 5% игача миқдорини ташкил этган.

Бухоро амирлиги ва Қўқон хонлиги, Афғонистондан келтириладиган маҳсулотлар *бухарчи* деб аталиб, ундан тўланадиган закот миқдори маҳсулотнинг 2.5% идан иборат бўлган.

Савдо-тижорат ишларида хонликдан олиб чиқиладиган ҳар бир *оқ юк*<sup>292</sup> учун 1 ½ тилло, савдо карвони қайтгач, яна 3 тилло тўлаши шарт бўлган. Ҳар бир *матта*<sup>293</sup> маҳсулот учун дастлаб 3 тилло, қайтиб келганда яна 6 тилло қўшимча маблағ тўланган<sup>294</sup>.

Гиршфелд ва Галкин XIX аср II ярмида Хива хонлигида бож тўловлари хусусида “божхонада чойнинг ҳар бир пудидан 20 хива кичик тангаси ёки 4 рубл, бир туяга юк бўлган бухоро тамакиси 45 танга миқдорда, Хивага хайдаб келинадиган чорвадан унинг 1/40 миқдорида солиқ олинар эди”.

1873 йилда Хива хонлиги Россия империя томонидан эгалланиши хонлик иқтисодий ҳаётига ҳам ўз таъсирини ўтказди. Хонлик божхона иши Туркистон генерал губернаторлиги таркибидаги Закот бошқармаси томонидан назорат

<sup>290</sup> Кун А. Порядок взимания податей в Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости – 1873. – №33 С.131

<sup>291</sup> Кун А. Заметки о подьятах в Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости – 1873. – №32 С.126

<sup>292</sup> Бир туяга юкланган қиймати паст маҳсулот

<sup>293</sup> Бир туяга юкланган қиймати баланд маҳсулот

<sup>294</sup> Кун А. Порядок взимания податей в Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости – 1873. – №33 С.132

қилинадиган бўлди. Аммо ушбу ташкилот кутилган натижа бермади, узок фаолият юритмасдан 1875 йилда тугатилди ва эски тартиб қайта тикланди<sup>295</sup>.

XIX аср Хива хонлари иқтисодий-ижтимоий ҳаёти тўғрисида маълумот берувчи “Хива хонлиги девонхона ҳужжатларида”дан ўрин олган ҳужжатлардан бирида хонлик божхона фаолияти тўғрисида батафсил маълумотларга эга бўлиш мумкин. Биз томонимиздан ўрганилган 1875 йилга оид солиқ ҳужжати матнида, божмон Саид Муродаминнинг Хивадан чиқиб кетаётган ва хивага кириб келган карвонлар рўйхати келтирилган. Хивалик Уста Битқулнинг Бухорога юборилаётган ½ туядаги 5 ботмон келувчи, тан нархи 98 тилло ёки 350 рубллик маҳсулоти учун 31.5 рубл миқдорда бож тўлови тўланган ва 251 рақамли квитанция берилган. Ушбу ҳужжат мисолида божхона тизимида иш юритишда савдогарларнинг рўйхати, нечта туяга ортилгани, жами неча пуд ва маҳсулот тан нархи баҳоланиб, сўнгра ундан олинадиган солиқ миқдори белгиланиб, бож олинган ва унга патта (квитанция берилган). Бундан мақсад кейинги закотсаройда савдогарни безовта қилмаслик ва қайта бож олмаслигини назорат қилишдан иборат бўлаган<sup>296</sup>.

1890 йил 12 июнда Туркистон божхона округи ташкил этилиб, бундан кўзланган мақсад ўлкага Ғарбий Европа ва Осиё маҳсулотларининг кириб келишига чек қўйиш бўлган. 1894 йилда Хива хонлигининг Россия империяси божхона тизимида киритилиши унинг хорижий давлатлар билан ташқи савдо алоқаларининг чек қўйилишига олиб келди<sup>297</sup>. Ўз навбатида, Хива хонлиги ташқи савдо алоқаларининг империя манфаатларига бўйсундирилиши хонлик ғазнасига тушадиган солиқнинг кескин камайишига олиб келди.

## **ХУЛОСА**

Юқоридаги маълумотлар қиёсий таҳлил қилиш асосида хулоса қилиб, Хива хонлигида божхона фаолияти давлат аҳамиятига молик масала бўлганлиги, хонлик божхона тизимини бошқарувчи амалдорлар шахсан хон томонидан тайинланганлиги аниқланди. Божмонлар томонидан юритилган ҳужжатлар тартибли равишда йўлга қўйилган бўлиб, Бунинг яна бир ёрқин мисоли сифатида Хивада божмонлар тайёрловчи мадраса фаолияти юритилганлиги ҳам келтиришимиз мумкин. Хива ва Урганч сингари йирик

<sup>295</sup> Жумаев У.Х. Россия империясининг Туркистондаги солиқ сиёсатининг шаклланиши: асосий босқичлари ватараққети. Тарих фанлари номзодлик илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2012.Б.88

<sup>296</sup> ЎзР МА И-907 фонд, 1-рўйхат, 38- йиғма жилд

<sup>297</sup> Почекаев Р. Включение Бухарского эмирата и Хивинского ханства в таможенную черту Российской империи. Право.Журнал высшей школы экономики. 2016. №3 С. 172-184



шаҳарлари божхона пунклари ўрнатилиб, нафақат мамлакат ичкарасида, балки чет давлатларга олиб кетилаётган маҳсулотлар ҳам ушбу маскандан ўтган.

### **REFERENCES**

1. ЎзР МА И-907 фонд, 1-рўйхат, 38- йиғма жилд
2. ЎзР МА И-125-фонд, 2-рўйхат, 418-йиғма жилд
3. Кун А.Заметки о подятях в Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости– 1873. – №32 С.126
4. Кун А.Порядок взимания податей в Хивинском ханстве// Туркестанские ведомости– 1873. – №33. С.131
5. Кун А. Культурный оазис Хивинского ханства. Город Ургенч // Туркестанские ведомости – 1874. – №6 С.54
6. Алимова Р.Р. Ўрта Осиё хонликларининг кўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари.Т.2017 Б. 90-91
7. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках.-Т.1988 С.174-180
8. Жумаев У.Х. Россия империясининг Туркистондаги солиқ сиёсатининг шаклланиши: асосий босқичлари ватаракқиёти. Тарих фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. – Т., 2012.Б.88
9. Қодиров Ж., Гаипназаров Р. Ўзбекистон республикасида божхона иши тарихи// Ўзбекистон божхона ахборотномаси. 2019 №1 Б.14
10. Қурбонов Ч. Туркистонда божхона фаолияти// Мозийдан садо// Т.2010 №2.Б.85
11. Почекаев Р. Включение Бухарского эмирата и Хивинского ханства в таможенную черту Российской империи. Право.Журнал высшей школы экономики. 2016. №3 С. 172-184
12. <https://lex.uz/docs/3680568>
13. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. –Тошкент «Янги аср авлоди», 2010. Б. 289.

## **KUYLAKBOP TO‘QIMALAR TUZILISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI**

**Abdurahmonov Olim Shoyqulovich**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti katta o‘qituvchisi  
olimabdurah@gmail.com

**Safarov Nurali Qudratovich**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti dotsenti  
safarovnurali227@gmail.com,

**Yarashov Sanjar Norqul o‘g‘li**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti  
sanjaryarashov2@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Assortimentni yaratishda to‘qima tuzilishi ko‘rsatkichlarini tanlash katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular to‘qima xossalarini belgilaydi. To‘qimani xususiyatlari quyidagi omillarga bog‘liq - xom-ashyo tarkibiga va iplarning turiga, ipning chiziqli zichligiga, tanda va arqoq iplarining chiziqli zichligini nisbat koeffitsentiga, ipning ko‘ndalang kesimining o‘lchamlariga to‘qima xosil bo‘lgunga qadar, xamda to‘qimada, to‘qimadagi tanda va arqoq iplarining o‘rilishiga (rapport), iplarning kesishish soniga, siljishga, to‘qimadagi qatlamlar soniga, tanda va arqoq bo‘yicha to‘qima zichligiga, to‘qimadagi tanda va arqoq zichliklarini nisbat koeffitsentiga, to‘qimadagi tanda va arqoq iplarining qisqarishiga, to‘qimani ishlab chiqarishda texnologik omillarga (tanda va arqoq iplarning tarangligi) va to‘qimani pardoqlashda texnologik omillarga va xakozo.*

*Kalit so‘zlar: to‘qima, omillar, xom-ashyo, tanda va arqoq, pardoqlash jarayoni.*

### **ABSTRACT**

*The choice of fabric structure parameters is very important when creating an assortment that determines the properties of the fabric. The properties of the fabric depend on the following factors - the composition of the raw material and the type of yarn, the linear density of the yarn, the ratio of the linear density of the main and purl threads, the size of the cross section of the thread. yarn before the formation of the canvas, In the section, the ratio of the density of the warp and purl fabric, the density of the warp and purl fabric, the shortening of the warp and purl threads in the fabric,*

*the technological factors of fabric production (the tension of the warp and purl threads) and the technological factors of finishing the fabric, etc.*

**Key words:** fabric, factors, raw materials, body and back, make-up process.

## KIRISH

Ilmiy ishda erkaklar uchun kuylakbop to‘qimani tuzilishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida, to‘qima o‘rilishi, xom ashyoning chiziqli zichligi va tolaviy tarkibi omillari belgilab olindi. Xom ashyoning tolaviy tarkibining to‘qima tuzilishiga ta’siri o‘rganish uchun to‘qimaning yuqorida qayd etilgan barcha taxtlash omillari o‘zgarimas bo‘lib, turlicha tolaviy tarkibli xom ashyo tanlandi.

I variant erkaklar kuylakbop to‘qimasi tanda va arqoq uchun paxta tolali iplari; II variant to‘qima tanda paxta tolali va arqoq ipak ipi; III variant to‘qima tanda paxta tolali, arqoq uchun poliefir tolali iplardan foydalanildi. Erkaklar kuylakbop to‘qimalarning taxtlash omillari xisobi bajarilib, olingan natijalar 1.1-jadvalga kiritildi.

1.1-jadval

### TEXNIK HISOBINING YAKUNIY JADVALI


Taxtlash omillari	O‘lchov birligi	I variant	II variant	III variant
Xom ashyo tolaviy tarkibi Tanda bo‘yicha Arqoq bo‘yicha		Paxta paxta	Paxta ipak	Paxta poliefir
Iplarning chiziqli zichligi Tanda bo‘yicha Arqoq bo‘yicha	teks	10 gr 8,5 gr	10 gr 8,5	10 gr 8,5
To‘qimada iplarning zichligi Tanda bo‘yicha Arqoq bo‘yicha	Ip/dm	366 346	366 346	366 346
Bog‘lanish koeffitienti		5,8	5,8	5,8
To‘qimani to‘ldirish koeffitienti		0,8	0,8	0,8
Tayyor to‘qima eni	Sm	160	160	160
Xom to‘qima eni	Sm	169.3	169.3	169.3
Umumiy iplar soni	Ip	6123	6123	6123
Ohor qoldig‘i bilan birga tanda iplari og‘irligi	Kg	6	6	6
100m to‘qimadagi tanda iplar	Kg	7.08	7.08	7.08

	og'irligi				
1	100m to'qimadagi arqoq iplar og'irligi	Kg	5.5	5.5	5.5
2	1m xom to'qimaning chiziqli zichligi	kg/m	0,126	0.126	0.126
3	1 m <sup>2</sup> xom to'qimaning yuza zichligi	kg/m <sup>2</sup>	0,073	0.073	0.073
4	Tanda bo'yicha to'ldirish foizi	%	44	44	44
4	Arqoq byicha to'ldirish foizi	%	39.84	38.06	41.86
6	To'qimani umumiy to'ldirish foizi	%	66,32	65,3	67,46


### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tajriba sinovlari natijalari taxlili bo'yicha kuylakbop to'qimalarning tuzilishiga xomashyoning tolaviy tarkibi ma'lum darajada to'qimaning fizik-mexanik xususiyatiga va tashqi ko'rinishiga ta'sir qiladi. To'quv o'rilishining to'qima tuzilishiga ta'sirini aniqlash maqsadida erkaklar uchun kuylakbop matoning taxtlash omillari o'zgarmas bo'lib, I variant to'qima polotno o'rilishida; II variant to'qima noto'g'ri satin va III variant to'qima siniq sarja naqshli mayda naqshli o'rilishlarda ishlab chiqarildi. To'qima o'rilishlarining to'liq taxtlash dasturlari shakllantirilib, - keltirilgan.

### To'rt shodali satin o'rilishining to'liq taxtlash dasturi




1.1.–rasm. Noto'g'ri satin o'rilishining to'liq taxtlash dasturi



1.2.–rasm. 4 shodali polotno o'rilishining to'liq taxtlash dasturi

Polotno o'rilishining to'liq taxtlash dasturi

### Mayda naqshli o‘rilish to‘liq taxlash dasturi



### 1.3.–rasm. Tanda siniq sarja o‘rilishining to‘liq taxtlash dasturi

1.2-jadval

Tajribaviy to‘qimalarning taxtlash omillari xisobi bajarildi va olingan natijalar 1.2 -jadvalga kiritildi.

	<b>Taxtlash omillari</b>	<b>O‘lcho v birligi</b>	<b>I variant</b>	<b>II variant</b>	<b>III Variant</b>
	Xom ashyo tolaviy tarkibi Tanda bo‘yicha Arqoq bo‘yicha		Paxta paxta	Paxta ipak	Paxta Poliefir
	O‘rilish rapporti  Tanda Arqoq		Polot- noli 2 2	Noto‘g‘ri satin 4 4	Tanda siniq sarja 4 20
	Iplarning chiziqli zichligi Tanda bo‘yicha Arqoq bo‘yicha	teks	10 gr 8,5 gr	10 gr 8,5	10 gr 8,5
	To‘qimada iplarning zichligi Tanda bo‘yicha Arqoq bo‘yicha	Ip/dm	366 346	366 346	366 346
	To‘qimani to‘ldirish koeffitienti		0,8	0,8	
	Tanda qoplanishlar Arqoqqopalanishlar		2 2	4 4	22 24
3	1 m <sup>2</sup> xom to‘qimaning yuza zichligi	kg/m <sup>2</sup>	0,073	0.073	0.073
4	Tanda bo‘yicha to‘ldirish foizi	%	44	44	44
4	Arqoq byicha to‘ldirish foizi	%	39.84	38.06	41.86
6	To‘qimani umumiy to‘ldirish foizi	%	66,32	65,3	67,46

#### **MUHOKAMA**

To‘qima tuzilishini to‘qimaning absolyut zichligi to‘liq baholay olmaydi, chunki ipning chiziqli zichligi hisobga olinmaydi. Shu sababli nisbiy zichlik kattaligi (daraja, to‘qima to‘ldirish koeffitsienti) qo‘llaniladi.

To'qima yuzasini tanda yoki arqoq ipi bilan to'ldirish darajasi; to'qima yuzasini tanda yoki arqoq ipi bilan qoplangan yuza nisbati yoki to'qimaning amaliy zichligini to'qimaning maksimal zichligi nisbatini ifodalaydi.

Tanda bo'yicha

$$z_T = \frac{\text{ю3a.AGID}}{\text{ю3a.ABCD}} = \frac{AG}{AB} = \frac{d_T}{1} = d_T P_T \quad (1.1)$$

Arqoq bo'yicha

$$z_a = \frac{\text{ю3a.DCHE}}{\text{ю3a.ABCD}} = \frac{HC}{BC} = \frac{d_a}{1} = d_a P_a \quad (1.2)$$

To'qima yuzasini to'ldirish darajasi, tanda va arqoq bilan to'ldirilgan yuzani to'qima yuzasi nisbatiga aytiladi

$$Z_{To'q} = Z_T + Z_a - Z_T \cdot Z_a \quad (1.3)$$

Turli o'rilishli to'qimalarda, iplarning ma'lum chiziqli zichligi hamda to'qimaning tanda va arqoq bo'yicha zichliklari teng to'qima yuzasini to'ldirish ham bir xil bo'ladi. Masalan, polotno va satin o'rilishli to'qimalar ipning chiziqli zichligini ( $T_T$ ,  $T_a$ ), to'qimaning tanda va arqoq bo'yicha zichliklarini ( $R_T$ ,  $R_a$ ), tanda va arqoq bo'yicha o'rilish rapportini va ipning rapport oraliq'ida kesishish sonini hisobga oluvchi umumiy ko'rsatkich-bu to'qima yuzasini tolali materiallar bilan qoplanish ko'effitsienti. To'qimaning haqiqiy zichligi va maksimal zichligi nisbati to'qimaning tolali material bilan qoplanish ko'effitsientini ifodalaydi.

To'qima tuzilish fazasi I-IV tartibli to'qimalar uchun, arqoq bo'yicha zichliklari maksimal, tanda bo'yicha esa maksimal ko'rsatkichdan kichik bo'lishi kerak, chunki to'qimani qoplanish ko'effitsienti ko'rsatkichi:

- arqoq bo'yicha ( $K_{Na} > 1$ ) birdan yuqori bo'lishi kerak.

- tanda bo'yicha ( $K_{NT} < 1$ ) birdan kichik bo'lishi kerak.

Tuzilish fazasi VI-IX tartibli to'qimalar uchun, tanda bo'yicha zichliklari maksimal, arqoq bo'yicha esa maksimal ko'rsatkichidan kichik bo'lishi kerak, chunki to'qimani qoplanish ko'effitsienti ko'rsatkichi:

- tanda bo'yicha ( $K_{NT} > 1$ ) birdan yuqori bo'lishi kerak.

- arqoq bo'yicha ( $K_{Na} < 1$ ) birdan kichik bo'lishi kerak.

Tuzilish fazasi V tartibli to'qimalar uchun, to'qimani qoplanish ko'effitsienti ko'rsatkichi tanda va arqoq bo'yicha ( $K_{NT} < 1$ ,  $K_{Na} > 1$ ) birdan kichik bo'lishi kerak,

chunki to‘qimaning tanda va arqoq bo‘yicha haqiqiy zichliklari maksimal zichligiga nisbatan kichik bo‘lishi kerak.

## NATIJALAR

Tajriba natijalariga ko‘ra to‘qima o‘rilishi to‘qimaning tuzilish fazasi V tartibli to‘qimalarni ishlab chiqarilishi murakkablashadi, chunki tanda va arqoq bo‘yicha qoplanish koeffitsientlari  $K_{NT}$  va  $K_{Na}$  ko‘rsatkichlari birga yaqinligi va to‘qimaning qoplanish koeffitsienti  $K_{NT\text{to}‘q}$  ko‘rsatkichi ham birga yaqindir.

Keyingi ilmiy izlanishlar kuylakbop matoning xomashyo tolaviy tarkibi va uning chiziqli zichligi ta‘sirini o‘rganish maqsadida Tanda ipi bo‘yicha  $T_T = 15 \times 2$  teks chiziqli zichlikni qabul qilamiz, u holda tanda ipining diametri  $d_T = 0,22$  mm dan iborat bo‘ladi. Qabul qilingan qiymatlarni (2) formulaga qo‘yamiz va tanda ipi bo‘yicha  $R_T = 200$  ip / dm,  $R_A = 250, 300, 350$  ip / dm zichlikka ega bo‘lamiz. Arqoq bo‘yicha kalava ipining chiziqi zichligi  $T_A = 25$  teks, u holda arqoq ipining  $d_a = 0,19$  mm dan iborat bo‘ladi.

## XULOSA

Maqolada yangi to‘qima assortimentlarini yaratish va ularni ishlab chiqarish uchun to‘qimani to‘quv dastgoxida ishlab chiqarish omillari tanlandi va yangi to‘qima loyixalash texnik vazifalari bajarildi.

Loyixaning birinchi bosqichida loyixalanayotgan to‘qima erkaklar ko‘ylakbop to‘qima bo‘lib, tanda iplari paxta tolali 10 gr teks, arqoq iplari esa 8 poliefir iplaridan shodali to‘quv dastgoxida tajribaviy to‘qima namunalari olindi. To‘qima o‘rilishlari shodali to‘quv dastgoxlarida ishlab chiqarilib, o‘rilishi polotnoda olingan bo‘lib erkaklar uchun mo‘ljallangan kuzgi va baxorgi ko‘ylakbop to‘qimalar uchun mo‘ljallangan to‘qimalar ishlab chiqirildi.

Maqolada ko‘ylakbop to‘qimalarni ishlab chiqarish omillari asosida to‘qima to‘qildi, ikkinchi bosqichida yangi to‘qimaning “texnologik xisobi bajarildi” ishlab chiqildi. Texnologik xisobi chiqqan natijalar asosida Toshkent to‘qimachilik va texnologiya institutining “To‘qimachilik matolari texnologiyasi” kafedrasidagi TAYOTA Jat-810 to‘quv dastgoxida namunalari olindi hamda istemol xossalari o‘rganildi.

## REFERENCES

1. Рахимходжаев С.С. Совершенствование регулирования натяжения нитей основы на бесчелночных ткацких станках при выработке шелковых тканей. Дисс. Канд.техн.наук. Ташкент, 1984г



2. Баймуратов Б.Х. Совершенствование процесса отпуска и натяжения нитей основы на ткацком станке. Дисс. Канд.техн.наук.,Ташкент. ТИТЛП, 1998 й
3. Кадирова Д.Н. Исследование и стабилизация натяжения нитей основы на бесчелночных ткацких станках. Дисс. Канд.техн.наук., Ташкент, ТИТЛП., 2002 й
4. Букаев П. В. Разработка параметров оптимального процесса бесчелночного ткачества и критериев его оценки: Автореф. дис. докт. техн. наук.– Ленинград: ЛИТЛП, 1984 й.–36 с.
5. Могильный А.Н. Разработка технологии, методов проектирования и исследование структуры и свойств текстильных материалов технического назначения: Автореф. дис. докт. техн. наук. – Санкт – Петербург: СпГУТиД, 2000 й. – 36 с.
6. O.Sh.Abdurahmonov, D.N.Qodirova. Ko‘ylakbop to‘qimaning taxtlash omillari va fizik va mexanik xususiyati tadqiqi. Magistrlar to‘plami Toshkent-2016
7. O.Sh.Abdurahmonov, D.N.Qodirova. Kiyimbop to‘qima tuzilishiga ta’sir etuvchi taxtlash omillarini tadqiq qilish. “XXI asr –yosh intellektual avlod asri” institut ilmiy-amaliy anjumani. T-2016.29-mart.
8. O.Sh.Abdurahmonov, D.N.Qodirova. Erkaklar kuylakbop to‘qimasiniing iste’mol xususiyatlari tadqiqi. Magistrlar to‘plami Toshkent-2017.
9. O.Sh.Abdurahmonov, D.N.Qodirova. To‘qimaning yangi assortimentini yaratish. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi sharoitida innovatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari. To‘qimachi-2017. Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to‘plami.

## **ZAMONAVIY O'ZBEK OILALARIDA TARBIYANING TIZIMLI HOLDA TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI**

**M.Mirsaidova**

SamDU Fakultetlararo Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Bugungi yoshlarini oilada va hayotda kelajagini bunyod qilish va uning yashab, rivojlanib borishidek masuliyatni jamlaydi. Innovatsiyaga asoslangan ta'lim jarayonining uzviy ajralmas bo'lagi, bu-bugungi yoshlarni oilaga moslab tayyorlab borishdir.*

**Kalit so'zlar:** O'zbek, oila, tarbiya, farzand.

### **АННОТАЦИЯ**

*Он концентрируется на построении будущего сегодняшних молодых людей в семье и в жизни, а также по мере того, как они живут и развиваются. Неотъемлемой частью инновационного учебного процесса является подготовка молодежи сегодня в соответствии с семьей.*

**Ключевые слова:** узбек, семья, воспитание, ребенок.

### **ABSTRACT**

*It concentrates on building the future of today's young people in the family and in life and as it lives and develops. An integral part of the innovation-based teaching process is the preparation of young people today in accordance with the family.*

**Keywords:** Uzbek, family, upbringing, child.

### **KIRISH**

Bugungi kunda sog'lom axloqli, ruhiy yetuk, ma'naviyatli yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish dolzarb muammolardan biridir. Oila -istedodli yoshlarhi voyaga etkazish va tarbiyalashning muhim o'chog'i hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Biz ta'lim va tarbiya tizimini va tarbiya tizimining barcha bog'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimzning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz lozim", diydi. Yosh avlod kamolotida oilaning o'rni va ta'siri beqiyosligini Birinchi Prezidentimiz Islom Kakimov ham bunday baholagan edi; "Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakillanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar -yaxshilik va ezgulikka, oliyjanoblik va mehriyat, or nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tarbiya jarayonini tashkil qilishda avvalo shaxs o`sb ulg`ayayotgan atrof-muhitga bog`liq. Shundan kelib komil insonni tarbiyalash oiladagi o`zaro munosabatlarning to`g`ri shakllantirish bilan erishish mumkindir. Darhaqiqat, oila - har bir shaxsga ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istaklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan o`zbek xalqining qadriyatlari va ma`naviy merosi ravnaqini ta`minlovchi tarbiya maskanidir. "Halollik, rostgo`ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo, oilada shakllangan". Bola shakllanishining ilk maktabi esa ota-onaning o`zaro munosabatlari majmuyi bo`lib hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Biz ta`lim va tarbiya tizimining barcha bo`g`inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomikkashtirishni o`zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilishimiz lozim" degan so`zlari bugun hayotda o`z aksini topibgina qolmay, o`zining natijalarini harakatlar samarasi sifatida namoyon qilmoqda. Tarbiya masalasiga o`tgan XX asr boshlarida hayot-mamot masalasi deb qaralgan bo`lsa, bugungi kunda ta`lim va tarbiya o`zaro bogliq holda davlat siyosatining eng muhim va ustivor yo`nalishiga aylangan. Bunga bugungi kunning isboti sifatida yoshlarimiz uchun yaratilgan imkoniyatlarni, balki ularning natijalarini ko`rish mumkin. Sharq xalqlarigina emas, balki dunyodagi mavjud xalqlar, millat va elatlar borki, o`z ertasini farzandining yorug` kelajagi va taqdiri misolida ko`radi hamda buning uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etadi. Oila jamiyatning asosiy bo`gini sifatida davlatning ham tayanch nuqtasidir. Shu ma`noda bugungi yoshlarini oilada va hayotda kelajagini bunyod qilish va uning yashab, rivojlanib borishidek masuliyatni jamlaydi. Innovatsiyaga asoslangan ta`lim jarayonining uzviy ajralmas bo`lagi ,bu-bugungi yoshlarni oilaga moslab tayyorlab borishdir. Bu borada o`ta ehtiyotkor bo`lishning yagona sababi-ushbu jarayonni qayta o`tkazib bo`lmaydi, ya`ni oilaviy hayotni qaytadan boshlashni biror inson imkoniyat sifatida qabul qilmaydi. Chunki inson oilada baxtli bo`lmay turib, jamiyat rivojiga hissa qo`shishga qodir emasligi ayon ko`rinib turgan haqiqat. Shu ma`noda yoshlarni oilaaviy hayotga tayyorlab boorish va o`zida kelajakni bunyod qilish va uning yashab rivojlanib borishidek masuliyatni his qiladiradi. "Oilal kichik vatan, oila tinch bo`lsa, baxtli bo`lsa, Vatan ham tinch bo`ladi, yuksaladi". Prezidentimiz SH.M.Mirziyoevning ushbu so`zlari isbot talab qilmas haqiqat ekani barchamizga ayon. Oila-jamiyatning asosiy bo`g`ini sifatida azaldan jamiyatning duru gavhariga qiyoslangan. Bugungi kunda Prezidentimiz yo`lboshchiligida davlat va hukumat tomonidan olib borilayotgan puxta o`ylangan va

uzoqni ko'zlagan insonparvar siyosat, yangilanish jarayonini o'zida aks ettiradigan islohotlarning barchasi zamirida insonlarning bugunidan rozi bo'lib, ertangi hayot uchun mustahkam poydevor yaratishlarini ta'minlaydi. Shu o'rinda mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasillari qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor "degan so'zlari bugun yurtimizdagi ozgarishlar hamda yuksalishlarning milliy qadriyatlar va zamonaviy ehtiyojlar bilan hamnafas ekanligini namoyon etadi. Zamon bilan hamohang bilim va intellektual tafakkur asri hisoblangan XXI asr har bir oilasi va oiladagi har bir shaxs oldiga o'z shart va majburiyatlarini qo'ymoqda. Ushbu yo'lda yoshlarimizning ta'lim olayotgan dars soatlarida ularning nafaqat fan yuzasidan bilimli, malakali bo'lishlari, ushbu bilim malakalarini amalda, kundalik hayotda qo'llay oladigan, oila degan muqaddas maskanni gullab yashnatish uchun xizmat qila oladigan shaxslar etib tarbiyalash bilan birga oila va uning qadriyatlari, hayotda inson va oilaning o'rni, oilani asrash orqali vatanni sevish kabi tushunchalarni singdirib borish bilan birga ularga amaliy o'rnak ko'rsatishga ham erishmog'imiz zarur. Bularning barchasida innovatsion ta'limning o'rni beqiyos. Ta'lim samaradorligi yuksak bilimlar poydevoridir. Yuksak malakali mutahassislar-taraqqiyot omili bo'lib, yuksak bilimli va intellectual rivojlangan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sgartidir. Bu borada ta'lim va oila hamkorligi natijalar kafolatidir. Chunki ta'lim va tarbiya oila timsolida. Vatanning taqdiri, kelajagidir.

## **XULOSA**

Yoshlarni oilaga tayyorlash ta'lim-tarbiya bilan birgalikda yanada samarali, uning hamkorlikdagi mevalari barcha zamonlar uchun totli bo'ladi. Oila-muqaddas qo'rg'on. Bu muqaddas qo'rg'onni asrash, kelajakka etkazmoq uchun, otalar, onalar, ustozlar birgalikda hamfikir bo'lib, yakdil qadam tashlaylik. Prezidentimiz Islom Kakimov bunday baholagan edi; Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakillanadi".

## **REFERENCES**

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", -T"Manaviyat", 2008, 176 b.
2. I.Shmuhamidov R. Inovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.- T.TDPU. 2004.
3. Mavlyanova R.A. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya.-T.2007.
4. Ishmuhammedov.R va boshqalar.Tarbiyada innovatsion texnologiyalar-T.2010.

## **CHIZMA DARSLARIDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH**

**Shafokatov Zokir Javliyevich**

Qarshi Davlat universiteti o'qituvchisi

**Sharipova Sharofat Nurqobilovna**

Qarshi Davlat universiteti magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Chizmachilik fani boshqa fanlar qatoridagi fan bo'lishi bilan birga nazariy egallangan bilimni amaliyotda chizib, tasvirlab berishi bilan farqlanadi. Buni amalga oshirish uchun esa mavzuni anglashi, tushuna bilishi, tasavvur qila olishi bilan birga chizmada aniqlik bilan chiza olish ko'nikmasini shakllantirishi lozim. Maqolada maktab ta'limida chizmachilik fanini o'qitishida o'quvchilarning fanga qiziqishlarini uyg'otish, ularning iste'dod va qobiliyatlarini erta aniqlash maqsadida dars davomida o'qituvchi e'tiborga olishi kerak bo'lgan jihatlar va tavsiyalar nazarda tutilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ijod, ijodiy qobiliyat, qiziqish, fazoviy tasavvur, tafakkur, iste'dod, dizayn, grafik tasvir, loyiha, aqliy mexanizm, kognitiv vazifa, chizma.*

### **ABSTRACT**

*Drawing is one of the most important disciplines, but it differs in that it draws and describes theoretical knowledge in practice. To do this, he must be able to understand, comprehend, and imagine the subject, as well as develop the ability to draw accurately in a drawing. The article outlines the aspects and recommendations that a teacher should consider during a lesson in order to stimulate students' interest in science and early identify their talents and abilities in the teaching of drawing in school education.*

**Keywords:** *creativity, creative ability, interest, spatial imagination, thinking, talent, design, graphic image, project, mental mechanism, cognitive task, drawing.*

### **KIRISH**

Ta'limning maqsadlaridan biri har kimga istisnosiz o'z iste'dodi va ijodini namoyish etish imkoniyatini berishdir, bu har bir kishi uchun shaxsiy rejalarini amalga oshirish imkoniyatini anglatadi. Har bir bolada qobiliyat va iste'dod bor. Psixologlar qobiliyatlarning tabiati to'g'risida ham, o'quvchining intellektual rivojlanishi bilan bog'liq "IJOD" tushunchasi haqida ham turli nuqtai nazarga ega.

Ma'lumki, qobiliyatlarning ikki darajasini ajratish mumkin: reproduktiv va ijodiy. Birinchi bosqichda bo'lgan shaxs bilimlarni tez egallash va muayyan faoliyatni o'zlashtirish, uni namuna bo'yicha amalga oshirish qobiliyatini namoyon qiladi. Ikkinchi darajada, shaxs mustaqil faoliyat yordamida yangi va o'ziga xos narsalarni yaratishga qodir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning quyidagi asosiy ko'rsatkichlarini aniqlashga imkon berdi:

1) Bilim va malakalarning ma'lum fondi, ularning sifati va umumlashtirish darajasi.

2) O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosidagi aqliy mexanizmlarning rivojlanish darajasi: diqqat, xotira, tasavvur.

Bu fazilatlar samarali fikrlashning asosidir.

3) O'quvchi tafakkurining rivojlanish darajasi, bu asosan u o'quv va kognitiv faoliyat jarayonida amalga oshirishga qodir bo'lgan aqliy harakatlar va operatsiyalarning murakkablik darajasi bilan belgilanadi.

4) Izlanish va ijodiy faoliyat texnikasiga ega bo'lish.

O'quv jarayonini takomillashtirish manbalaridan biri rivojlantiruvchi ta'lim nuqtai nazaridan ma'lum bir tuzatish va takomillashtirishni talab qiladigan mavjud usul va vositalardan foydalanishga yangicha yondashishdir. Shu nuqtai nazardan, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning eng samarali vositasi sifatida kognitiv vazifalardan foydalanishning yangi yondashuvlari katta qiziqish uyg'otadi.

Vazifa kognitiv, izlanish va ijodiy jarayonning boshlanishi, boshlang'ich bo'g'inidir. Tafakkurning ilk uyg'onishi aynan unda ifodalanadi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, an'anaviy maktabda o'qituvchining monologi 90% ga ustunlik qiladi. Maktab o'quvchilari yangi material bilan tanishishning yangi shakllarini kutmoqdalar, unda ularning faolligi, fikrlashning faol tabiati va mustaqillikka intilishlari mujassamlanishi mumkin. Va bu muammoni hal qilishning ajoyib usuli - bu bolalarning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi kognitiv vazifalar, qiziqish va ularni hal qilish istagini oshiradigan vazifalar.

Fazoviy fikrlashning mazmuni fazoviy tasvirlarning vizual qo'llab-quvvatlash (ob'ektiv yoki grafik, turli darajadagi umumiylik va odatiylik) yordamida ularni yaratish asosida ishlashidir. Fazoviy tasvirlarning ishlashi ularning asl mazmuni bilan belgilanadi (geometrik shakl, o'lcham, ob'ektlarning fazoviy joylashuvi tasvirida aks

etish); operatsiya turi (ob'ektning holatini, uning tuzilishini ishlash jarayonida o'zgartirish); tasvirning to'liqligi, dinamizmi (undagi turli xususiyatlarning mavjudligi, ularning izchilligi, harakatchanligi va boshqalar). Fazoviy fikrlashning barcha bu xususiyatlari tasvir bilan ishlash jarayonini aks ettiradi, uning sifat jihatidan o'ziga xosligini aniqlashga, diagnostika maqsadlari uchun juda muhim bo'lgan ushbu jarayonning namoyon bo'lishining yosh va individual xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Maktabda ko'plab fanlarni o'rganar ekan, o'quvchilar asosan tekis figuralar tasviri bilan shug'ullanadilar. 7-9-sinflarning ko'p o'quvchilari tekis va fazoviy figuralarni aniqlashda yomon yo'naltirilgan, chunki o'quv jarayonida ular tekislikda ishlashlari, geometriya yoki texnologiya darslarida oddiy figuralar, diagrammalar, jadvallar qurishlari kerak. Ko'pincha, savollarga javob berishda, o'rta maktab o'quvchilari uchburchak va konus, aylana va silindr kabi tushunchalarni ajrata olmaydi.

Yosh o'qituvchi malakali mutaxassis bo'lishi uchun o'z fikrini chizma yordamida to'g'ri va aniq ifodalay olishi, fazoviy ob'ektni uning tekis figuralari, belgilari va raqamlari yordamida tasvirlay olishi kerak. O'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda rasm chizish katta ahamiyatga ega. Chizmachilik 12-14 yoshgacha bo'lgan davrda insonning atrofdagi dunyoni fazoviy idrok etishini rivojlantiradigan yagona maktab fanidir, shundagina o'zida muhandislik iste'dodini ochish mumkin.

Uch o'lchovli bo'shliqda ishlagan chizmada, o'quvchilar boshqacha fikrlashni boshlaydilar, hajmi jihatidan ularning dunyo haqidagi g'oyalari o'zgaradi, bu ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni to'rt bosqichni o'z ichiga oladi: tushunish, yodlash, bilimlarni qoida bo'yicha qo'llash va ijodiy muammolarni hal qilish. Bosqichlar bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llashni talab qiladigan tipik va nostandart vazifalarni tan olish, takrorlash, hal qilish faoliyati bilan bog'liq. Oxirgi bosqichsiz o'quv jarayoni tugallanmagan bo'lib qoladi.

Shuning uchun har bir bo'limning o'quv materialini o'zlashtirish jarayoni tegishli bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan mahalliy propedevtik ijodiy vazifalarni hal qilishni o'z ichiga olishi kerak. Chizish jarayonida talabalar uch o'lchamli ob'ektlarning shaklini o'zgartirish uchun muammolarni hal qiladilar, bu ularga fazoviy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi. Bunga, ayniqsa, quyidagi mavzularni o'rganish yordam beradi:

1. Ob'ektning geometrik shaklini tahlil qilish.
2. Geometrik jismlar sirtlarini ishlab chiqish.

3. Detal chizmalarini o'qish.
4. Kesimlar va kesmalar.
5. Aksonometrik proyeksiyalar bo'yicha qirqimlar.
6. Yig'ish chizmalarini o'qish.

Ijodiy muammolarni hal qilish, masalan, ob'ektning shaklini o'zgartirish, uning fazodagi holatini o'zgartirish katta ahamiyatga ega. Dizayn elementlari bo'lgan topshiriqlar olingan ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash, ijodiy fikrlashni o'rganish imkonini beradi. Shaxsning ijodiy salohiyati maktab o'quvchilarini ijodiy faoliyatning turli turlariga jalb qilish orqali rivojlanadi. Aynan shunday faoliyatni tashkil etish zamonaviy o'qituvchining vazifasi, ta'limda faollik yondashuvini hal qilishdir.

Atrofdagi dunyoda, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, axborot hajmining tez o'sib borishi, unga kirishning turli vositalari zamonaviy maktabdan o'quvchining barkamol shaxsini shakllantirishni taqozo etadi. Bitiruvchilarning zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli moslashishi uchun nafaqat bilimlarning hajmi va izchilligi, balki ularni amalda qo'llash qobiliyati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu fikrlashning ma'lum bir turini shakllantirishni, kundalik narsalar, hodisalar o'rtasidagi yangi aloqalarni ko'rish va yangi narsalarni yaratish qobiliyatini talab qiladi.

Biz ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida yashayapmiz va hayot o'zining barcha ko'rinishlarida rang-barang va murakkablashib bormoqda; u kishidan fikrlashning harakatchanligini, tezkor orientatsiyani, katta va kichik muammolarni hal etishga ijodiy yondashishni talab qiladi. Ijodiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayoni jarayonida o'quvchi ta'lim ob'ektidan teng huquqli sub'ektga aylanishi, ya'ni u nafaqat o'zlashtiribgina qolmay, balki o'rganishi ham, jonli muloqotga kirishishi muhim. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun e'tibor va qiziqishni faollashtiradigan, o'quvchilarni faol bilish faoliyatiga jalb qiladigan texnologiyalar, o'qitish usullari va usullaridan foydalanish kerak.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etishning eng samarali usullari quyidagilardir: dizayn, loyiha, izlanish, tadqiqot, o'quv dialogi, materialni muammoli taqdim etish. Nostandart chizmachilik vazifalarini hal qilishning eng muhim usullaridan biri - bu kubda uch o'lchamli qismlarni (harflarni) qurishda ayniqsa qiziqarli bo'lgan chizilgan gologramma. Chizilgan gologramma mantiqiy, majoziy, fazoviy, ijodiy fikrlashni shakllantirishga hissa qo'shadi, fikrlashning analitik va kombinatorial tarkibiy qismlarini rivojlantiradi.

Ijodiy faoliyat ijodiy fikrlashni, o'quvchilar shaxsining ijodiy fazilatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi (uzoq kuch va intellektual stress, mustaqillik va



sabr-toqat, ishlarni oxirigacha yetkazish qobiliyati, to'liq kuch bilan ishlash zarurati, o'z nuqtai nazarini himoya qilish qobiliyati va boshqalar). Maktab o'quvchilarining ijodiy mehnatining natijasi ularning intellektual faolligining o'sishi, ijobiy hissiy va hissiy tajribani o'zlashtirishi, natijada shaxsning ijodiy salohiyatining rivojlanishini ta'minlaydi.

O'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish va rasm chizishga qiziqishini oshirish uchun ko'ngilochar vazifalardan foydalanish keng samara beradi.

Dizayn faoliyatining elementlari bilan rasm chizish vazifalarini ko'rib chiqsak, biz asosan grafik elementlar haqida gapirayotganimizni ta'kidlash kerak, shuning uchun o'z navbatida chizmani dizayn bilan almashtirish noto'g'ri bo'ladi.

Chizmachilikka eng yaqin ijod turlari sifatida qurilish, arxitektura dizayni va dizayn bilan bog'liq bo'lgan grafik faoliyatni tahlil qilish ijodiy vazifalarni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Ular orasida asosiy o'rinni texnik loyihalash bilan bog'liq vazifalar egallaydi, chunki unga murojaat qilish ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning ko'plab ustuvor yo'nalishlaridan misollar keltirish imkonini beradi. Dizaynni o'rgatishda tavsiya etilgan ma'lum ish turlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, chizish mantig'iga eng yaqin va maktab o'quvchilari uchun mumkin bo'lganlar:

- strukturaning yetishmayotgan bo'g'inini to'ldirish (qo'shimcha dizayn);
- spetsifikatsiyalarga muvofiq loyihalash (mavzu - grafik qo'llab-quvvatlashlar bilan).

O'quv ishlarining sanab o'tilgan turlari chizmachilikni o'qitishni faollashtiradi, chunki ular grafik tasvirlardan foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari, ular sxema bo'yicha yoki o'z dizayni bo'yicha loyihalash bilan solishtirganda nisbatan sodda. Yuqorida tavsiya etilgan o'quv faoliyati mazmunini hisobga olgan holda, arxitektura va dizayn sohasida nafaqat dizayn, balki dizayn elementlari bilan vazifalarni ishlab chiqish mumkin. Ta'lim olayotgan har bir o'quvchining iste'dodi va qobiliyatini o'z vaqtida aniqlash, uni rivojlantirish va ma'lum bir natijaga erishishida maktab o'qituvchisining roli juda katta. Bunda o'qituvchi nafaqat o'z fanining ustasi, balki mohir pedagog, yetakchi, yaqin maslahatchi va psixolog bo'lishi zamon talabidir.

## **XULOSA**

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni ta'kidlashimiz mumkimki, o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimli, jur'atli, ma'naviy va jismonan soglom, izlanuvchan va ijodkor

---

bo'lib voyaga yetishida nafaqat ota-ona va o'qituvchi, balki har bir yetuk shaxsning mas'uliyati, ijobiy hissasi bo'lishi zarur.

### **REFERENCES**

1. Камолов, И. Б. (2019). ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ ТВОРЧЕСТВА У СТУДЕНТОВ. *Наука и мир*, 3(3), 27-28.
2. Kamolov, I. B. (2017). Some Stages Associated with Artistic and Creative Activity of Future Jeweler. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
3. Камолов, И. Б. (2015). К вопросу о психолого-педагогических условиях профессиональной подготовки мастера-ювелира при изучении основ композиции. *Молодой ученый*, (3), 780-783.
4. ИБ Камолов. Особенности развития творческих способностей студентов в протессе профессионального образования - Молодой учений, 2020

---

## МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ ТЕМ “КОРПУСКУЛЯРНО-ВОЛНОВОЙ ДУАЛИЗМ”, “СООТНОШЕНИЯ НЕОПРЕДЕЛЕННОСТЕЙ ГЕЙЗЕНБЕРГА” В ГРУППАХ УГЛУБЛЕННОГО ПРЕПОДАВАНИЯ “ФИЗИКИ” В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ

**Саматов Г.Б**

доцент кафедры “Физики”, к.ф.-м.н.,  
gsamatov1950@gmail.com

**Саттаркулов К.Р**

преподаватель кафедры “Физики”,  
sattarkulovkomil99@gmail.com

**Абдуллаева О. Ф**

магистрант 2- курса кафедры  
“Физики” Гулистанского государственного Университета  
abdullayeva 402@gmail.com

### АННОТАЦИЯ

*В статье приведены методические рекомендации по преподаванию раздела квантовой физики, по современным требованиям, в группах с углубленным изучением физики в академических лицеях. В России и в других развитых странах в системах общего и средне- специального образования курс физики и в том числе квантовая физика изучается согласно современным требованиям. В учебниках и учебных пособиях по физике, а также, в программах раздела квантовой физики, введены темы по элементарной квантовой теории света (фотоэффект и эффект Комптона), корпускулярно-волновой дуализм, волны Де –Бройля, а также соотношения неопределенности Гейзенберга. У нас в Узбекистане, в новых учебниках и в учебных пособиях, рекомендованных группам с углубленным изучением физики, в академических лицеях в выше указанные темы освещены очень коротко и неудовлетворяющим уровне современных требований. В статье также указано методические рекомендации по освещению содержания вновь вводимых тем, т.е. “Корпускулярно – волновой дуализм” и “Соотношения неопределенности Гейзенберга.*

**Ключевые слова:** Микрочастица, идеи Де-Бройля, волна Де-Бройля, корпускулярный – волновой дуализм, соотношения неопределенности, частота, длина волны, волновое число, волновая функция, фотоэффект, эффект Комптона, микромир.

**АКАДЕМИК ЛИЦЕЙЛАРНИНГ “ ФИЗИКА ” ЧУҚУРЛАШТИРИБ  
ЎРГАНИЛАДИГАН ГУРУҲЛАРИДА “ КОРПУСКУЛЯР – ТЎЛҚИН  
ДУАЛИЗМИ”, “ГЕЙЗЕНБЕРГНИНГ НОАНИҚЛИК МУНОСАБАТЛАРИ”  
МАВЗУЛАРИНИ ЎРГАНИШ МЕТОДИКАСИ**

**Саматов Ғ.Б.**

физика кафедраси доценти, ф.м.ф.н.,  
gsamatov1950@gmail.com

**Саттаркулов К.Р.**

Физика кафедраси ўқитувчиси,  
sattarkulovkomil99@gmail.com

**Абдуллаева О. Ф.**

Гулистон давлат университети “Физик” кафедраси 2-курс магистранти  
abdullayeva 402@gmail.com

**АННОТАЦИЯ**

*Мақолада академик лицейларда физикани чуқур ўрганадиган гуруҳларда квант физикаси бўлимини замонавий талаблар асосида ўқитиш бўйича услубий кўрсатмалар берилган. Россияда ва бошқа ривожланган мамлакатларда умумий ва о'рта махсус та'лим тизимларида физика курси, жумладан, квант физикаси ҳам замон талаблари асосида о'рганилмоқда. Физика дарслари ва дарсликлари, шунингдек, квант физикаси дастурлари ёруғликнинг элементар квант назарияси (фотоелектр эффекти ва Комптон эффекти), тўлқин-заррача иккиликлиги, Де-Бройл тўлқинлари ва Гейзенбергнинг ноаниқлик муносабатларига оид мавзулар билан таништиради. Ўзбекистонда физика фанини чуқур ўрганувчи гуруҳлар, академик лицейлар учун тавсия етилган янги дарслик ва ўқув-услубий қўлланмаларда юқоридаги мавзулар жуда қисқа ва ҳозирги замон талаблари асосида ёритилмаган. Мақолада янги киритилган мавзуларнинг мазмунини ёритиш бўйича, “Корпускуляр-тўлқинли дуализм” ва “Гейзенбергнинг ноаниқлик муносабатлари каби услубий тавсиялар келтирилган.*

***Калит сўзлар:** Микрозаррача, Де Бройл зоялари, Де Бройл тўлқини, корпускуляр - тўлқин дуализми, ноаниқлик муносабатлари, частота, тўлқин узунлиги, тўлқин сони, тўлқин функцияси, фотоелектр эффекти, Комптон эффекти, микродунё.*

---

**METHODOLOGY FOR STUDYING THE TOPICS "CORPUSCULAR-  
WAVE DUALISM", "HEISENBERG UNCERTAINTY RELATIONS" IN  
THE GROUPS OF IN-DEPTH TEACHING "PHYSICS" IN ACADEMIC  
LICEUMS**

**Samatov G.B.**

Associate Professor of the  
Department of Physics, Ph.D.,  
gsamatov1950@gmail.com

**Sattarkulov K.R.**

Lecturer of the Department of Physics,  
sattarkulovkomil99@gmail.com

**Abdullaeva O. F**

graduate student of the 2nd course  
of the department "Physicists" of the Gulistan State university  
abdullayeva 402@gmail.com

**ANNOTATION**

*The article provides guidelines for teaching the section of quantum physics, according to modern requirements, in groups with in-depth study of physics in academic lyceums. In Russia and in other developed countries, in the systems of general and secondary specialized education, the course of physics, including quantum physics, is studied in accordance with modern requirements. Physics textbooks and teaching aids, as well as quantum physics programs, introduce topics on elementary quantum theory of light (photoelectric effect and Compton effect), wave-particle duality, De Broglie waves, and Heisenberg uncertainty relations. In Uzbekistan, in new textbooks and teaching aids recommended for groups with in-depth study of physics, in academic lyceums, the above topics are covered very briefly and at an unsatisfactory level of modern requirements. The article also indicates methodological recommendations for covering the content of newly introduced topics, i.e. "Corpuscular-wave dualism" and "Heisenberg uncertainty relations."*

**Keywords:** *microparticle, De Broglie ideas, De Broglie wave, corpuscular – wave dualism, uncertainty relations, frequency, wavelength, wave number, wave function, photoelectric effect, Compton effect, microworld.*

## **ВВЕДЕНИЕ**

Современный технический прогресс в основном базируется на текущих достижениях современной физики. Современная физика стремительно развивается на основе результатов исследований, изучаемых в физике высоких энергий, квантовой физики и физики элементарных частиц. В учебных программах изучаемых в общеобразовательных средних школах и академических лицеев еще не введены все достижения современной физики.[1]

## **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

Одним из широко развиваемых разделов теоретических и экспериментальных направлений современной физики является квантовая физика. При изучении в курсе физики академических лицеев физических явлений, которые экспериментально и теоретически исследованных в квантовой физике 1920-26 гг., где ограничивается предоставлением кратких сведений о фотоэффекте, волновых свойствах вещества, гипотезе Де-Бройля и соотношении неопределенностей Гейзенберга.[2]

В странах СНГ - например, в школах и академических лицеев России и Белоруссии – эти темы квантовой физики уже давно изучаются более углубленных вариантах.[3,4,14]

Мы считаем, в учебных группах академических лицеев, где физика изучается по углубленным программам, в раздел квантовой физики следуют ввести следующие темы:- взаимодействия электромагнитных волн с веществом, фотоэффект, эффект Комптона, волновые свойства материи, волны Луи-Де Бройля, соотношение неопределенности Гейзенберга, волновая функция и далее разработать методики преподавания этих тем. Коротко остановимся о том, каких материалов будем изучать в разделе квантовой физики в углубленного курса физики в академических лицеев.[5,6,12.13]

Первым физическим понятием, которое изучается в квантовой физике, является понятие “микрочастица” или “микрообъект”. Учащимся необходимо всестороннее подробное объяснение того, как можно описать и представить себе микрочастицу или микрообъект. Естественно, такие характеристики микрочастицы или микрообъекта, ее электрический заряд, масса в состоянии покоя, позволяют предположить, что ее следует считать “корпускулой”. Тот факт, что движение квантовой микрочастицы или микрообъекта не представляется траекторией, как движение классической корпускулы.

Самопроизвольный распад микрочастицы или микрообъекта, показывают, что понятие микрочастицы” резко отличается от классических “корпускул”. [5,]

Классическая частица или “корпускула”, нами представляется, как физический объект, имеющий массу и объем, а также подчиняющиеся законам динамики и движущиеся по определенным траекториям движения.

Волна же есть распространение колебаний в упругой среде, т. е. где есть среда, там и волна. Короче говоря, в классической физике распространение волн и корпускулярное движение — явления, радикально отличающиеся друг от друга. Следовательно, в классической физике волновое и корпускулярное движение существуют как, два типа независимого движения.

Однако в микроскопических частицах эти два свойства диалектически проявляются в одном объекте.

Согласно статистическому толкованию, интенсивность волн Де-Бройля в каком-либо месте пространства пропорционально вероятности обнаружить частицу в этом месте.

В классических волнах абсолютное значение амплитуды волны определяет только физическое состояние. Интенсивность волн Де-Бройля определяют вероятности местонахождения частицы, поэтому важно лишь отношение интенсивностей в различных точках пространства, а не сама их абсолютная величина. Вероятность найти микрочастицы в момент времени  $t$  в элементе объема  $dV$  вокруг точки с координатами

$$x, y, z \cdot dW = |\psi(x, y, z, t)|^2 dV (1)$$

Из этого выражения запишем выражение для плотности вероятности

$$\omega(x, y, z, t) = \frac{dW}{dV} |\psi(x, y, z, t)|^2 (2)$$

Видно, что эти понятия квантовой физики являются сложными понятиями, для учеников, но правильное формирование этих понятий в сознании учащихся углубляет их физическое мировоззрение.

М. Борн объясняя физическую природу волновой функции, связывает квадрат модуля волновой функции с плотностью вероятности нахождения частицы в элементе объема вокруг некоторой точки с координатами  $x, y, z, t$ . Согласно, М. Борну интенсивность волн Де-Бройля в точке с координатами  $x, y, z$  пропорционально вероятности обнаружить частицу в этом месте.

Таким образом, состояние микрочастицы полностью определяется на основе вероятностных законов. Соотношения неопределенностей Гейзенберга особенно важно, при изучении квантовой физики в академических лицах, так

как с этими соотношениями неопределенностей ученики получают важных информации о квантовой природы микромира. Математический вид соотношения неопределенностей Гейзенберга выражается в следующем виде:

$$\overline{(\Delta P_x)^2} \cdot \overline{(\Delta x)^2} \geq \frac{\hbar^2}{4} \quad (3)$$

Здесь -  $\overline{(\Delta P_x)^2}$  - среднее квадратичное отклонение импульса,  $\overline{(\Delta x)^2}$  - среднее квадратичное отклонение координат.

Статистическая интерпретация волн Де-Бройля позволяет связать теоретические результаты с экспериментальными данными, но изучение вопроса о природе микрообъектов на основе этой интерпретации затруднительно. Одни и те же микрообъекты, например электроны, в одних экспериментах рассматриваются как частицы, движущиеся по определенным траекториям, а в других как волны, подчиняющиеся принципу суперпозиции.[5-10,17]

Для описания одних и тех же микрообъектов приходится использовать как волновую, так и корпускулярную интерпретации, трудно сказать, что эти микрообъекты в одном и том же месте будут обладать корпускулярными свойствами и волновыми свойствами.

В классической механике рассматриваются траектории частиц и их движение по траекториям. Движение частицы по траектории тесно связано с тем, что в каждый момент времени она имеет точную координату и точное значение соответствующей проекции импульса (скорости). Движения частиц по траекториям определяет ее положение, а ее координата и наличие соответствующей проекции импульса представляют собой изменение этой величины за бесконечно малый интервал времени. Координата и импульс, описывающие состояние микрочастицы, не могут быть определены одновременно. В этом отношении квантовая механика принципиально отличается от классической механики, в основе которой лежит представление о том, что “частица в любой момент времени имеет точную координату и определенный импульс”. Следовательно, квантовая теория основана на соотношении неопределенностей Гейзенберга, которое в принципе отрицает существование такой возможности. Следует подчеркнуть студентам, что в основе соотношения неопределенностей Гейзенберга лежит корпускулярно-волновой дуализм микрочастиц. Соотношение неопределенностей Гейзенберга ограничивает применение аппарата классической физики к объектам микромира. Из-за соотношения неопределенностей представления о траектории



движения частиц в микромире не имеет смысла. Поэтому речь идет только о вероятности того, что частица находится в какой-то точке пространства.

Следует отметить, что невозможность одновременного точного определения координаты и проекции импульса микрочастицы не связана с техническими трудностями, а связывается с законами природы, Справа от соотношения неопределенностей Гейзенберга стоит постоянная Планка- (постоянная величина с размерностью момента импульса), поэтому это соотношение также имеет граничный характер.[7-9,16]

Стоит отметить что, изучения основных положений квантовой физики, отражающей физическую природу микроскопических явлений, к которым классические представления могут быть применены лишь в ограниченной степени. Используя соотношение неопределенностей Гейзенберга, можно определить наименьший элемент объема в фазовом пространстве.

Поэтому усвоение сущности природы неопределенностей Гейзенберга трудно не только для учащихся академических лицеев, но и для студентов высших учебных заведений. При изучении квантовой физики преподаватели и студенты должны переходит от динамического стиля мышления к статистическому мышлению, а этот переход тоже является очень сложной задачей.[5.7,15]

Поэтому при изучении квантовой физики в академических лицеях, первую очередь от преподавателей требуется, разработку методики формирования у учащихся квантово - механического стиля мышления в центре, которого должно лежать соотношение неопределенности Гейзенберга, который тоже связан корпускулярно - волновым дуализмом микрочастиц, и со своеобразной спецификой явлений микромира.[8-10]

## **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Мы предлагаем, в курсах физики академических лицеев нужна начинать более подробного изучения физических основ квантовой физики начиная с темы “Законов излучения абсолютно черных тел” (т.е. законы Кирхгофа, Вина, формулы Вина, Релея–Джинса, Планка), темы фотоэффекта, эффекта Комптона, идеи и волны Де-Бройля, соотношения неопределенностей Гейзенберга. Таким образом мы можем ознакомить учеников школ и академических лицеев начальным этапом развития квантовой физики. На основе квантовой физики лежит новые идеи, т.е. вероятностно – статистические представления. Каждый учитель физики должен убедиться в том, что в выше указанных темах

начинается изучение новой физики, которая основывается на вероятностно-статистических представлениях. Для перехода новому этапу преподавания курса физики в академических лицеях нам необходимо подготовить учебных литератур по соответствующим разделам курса физики на основе вероятностно-статистических представлений.

## REFERENCES

1. Учебный план по физике в академических лицеях .-Т.: 2021.
2. 2.Ўлмасова М.И. ФИЗИКА (Оптика, атом и ядерная физика) (на узбекском языке), Т.Чўлпон, 2010.384 б.
3. 3.Пурыщева Н.С. Физика . Базовый уровень. 11 класс, М.,Дрофа,2016, 139 с.
4. Жилко Л.В. , Маркова Л.П. Физика. (11- класс) Минск, 2014. 262 с.
5. Джораев М. Статистические идеи в обучении физике. Методическое пособие. Т. «Учитель», 1996, 104 с.
6. Джораев М. Вероятностно-статистические идеи в преподавании физики. монография. - Т.: Фан, 1992, 124 с.
7. Де - Бройл. Соотношения неопределенности Гейзенберга и вероятностная интерпретация волновой механики. - М.: Мир, 1986.40-76 с.
8. Мякишев Г.Я. Динамические и статистические законы в физике. - М.: «Наука», 1973, 5-205 с.
9. Тарасов Л.В., Современная физика в средней школе,- М.: Просвещение,1990,288с.
10. Тарасов Л.В., Мир, построенный на вероятности,- М.: Просвещение,1984, 24-136 с.
11. М. Джораев, Г.Б. Саматов, Э. Хўжанов. Совершенствование преподавание физики в системе непрерывного образования на основе статистического метода, учебно- методическое пособие (на узбекском языке), Т.2017,268 б.
12. Джораев М., Саматов Ғ.Б., Хўжанов Э.Б. Вероятностно- статистические основы молекулярной физики в академических лицеях и в профессиональных колледжах, учебно- методическое пособие (на узбекском языке) - Гулистон. “Университет”, 2016, 60 б.
13. Джораев М.,Саматов Ғ.Б., Хўжанов Э.Б., Вероятностно- статистическое основы разделов квантовой и атомной физики в курсе физики академических лицеях,- Гулистон. “Университет”, 2016, 100 б.

- 
14. Boymirov Sh.T. Principles of Material Selection in Problem Teaching of Electrodynamics. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2020. 362-368. – p.
  15. Boymirov Sh, Ashirov Sh, Urozbokov A. The effect of using interactive methods in teaching physics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 2021. 962-971. – p.
  16. Boymirov Sh, Ashirov Sh. Increase the creativity of students by creating problem situations when teaching the physics mechanics section. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 2021. 247-253 – p.
  17. Mahmudov Yusup G'anievich. History of Great Discoveries in Physics. The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. 2021. 64-69 – p.

## **QILMISHNI KVALIFIKATSIYA QILISHDA JINOYAT TARKIBINING JINOYAT-HUQUQIY AHAMIYATI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA**

**Abdisattorov Husniddin Bahodir o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat qonunchiligini  
qo'llash nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi magistranti

E-mail: habdisattorov@gmail.com,

habdisattorov148@gmail.com

Telefon: 99 670-61-24; 33 998-01-30

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada huquqiy tadqiqotning mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, analiz, sintez va ma'lumotlar tahlili kabi metodlaridan foydalanilgan bo'lib, jinoyat tarkibi va qilmishni kvalifikatsiya qilish tushunchalari hamda mohiyati, jinoiy javobgarlikning asosi sifatida jinoyat tarkibining qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati, bu sohada milliy va xorijiy tajribaning o'xshash hamda farqli jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish tizimini takomillashtirish yuzasidan tegishli takliflar ilgari surilgan.*

***Kalit so'zlar:** jinoyat tarkibi, kvalifikatsiya, jinoyat tarkibi elementlari, jinoyat obyekti, jinoyat subyekti, jinoyat obyektiv tomoni, jinoyat subyektiv tomoni, zaruriy belgilar, fakultativ belgilar.*

## **УГОЛОВНО-ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОСТАВА ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ ДЕЯНИЯ: НАЦИОНАЛЬНЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ**

**Абдисатторов Хусниддин Баходир угли**

Магистрант кафедры теории и практики применения

уголовного законодательства Ташкентского

юридического университета

E-mail: habdisattorov@gmail.com,

### **АННОТАЦИЯ**

*В настоящей статье раскрыты понятия и сущность состава преступления и квалификации деяния, особенности квалификации деяния как состава преступления, являющегося основанием уголовной ответственности, идентичность и разница между национальным и международным опытом в*

этой области путем использования логических методов, а также методов сравнительно-правового анализа, анализе, синтеза и разбора сведений. Также, исходя из международного опыта, разработаны соответствующие предложения по совершенствованию системы квалификации преступления.

**Ключевые слова:** состав преступления, квалификация, элементы состава преступления, объект преступления, субъект преступления, объективная сторона преступления, субъективная сторона преступления, основные признаки, факультативные признаки.

## **THE CRIME-LEGAL SIGNIFICANCE OF THE CORPUS DELICTI IN THE QUALIFICATION OF CRIMINAL ACT: NATIONAL AND FOREIGN EXPERIENCE**

**Abdisattorov Khusniddin Bahodir ogli**

Master student of department of Theory and practice  
of the application of Criminal law at Tashkent state  
university of law

E-mail: habdisattorov@gmail.com,

### **ABSTRACT**

*In this article, using methods of legal research such as logical, comparative-legal analysis, analysis, synthesis and data analysis, it gives information about the concepts and essence of corpus delicti and crime qualification, the importance of corpus delicti which is the basis of criminal liability in the process of qualification, the similarities and differences of national and international experience in the qualification of crimes. Furthermore, considering foreign experience, certain proposals were given to criminal legislation in order to develop system of crime qualification.*

**Keywords:** *corpus delicti, qualification, elements of corpus delicti, object of crime, subject of crime, objective side of the crime, subjectiva side of crime, necessary signs, facultative signs.*

### **KIRISH**

Ma'lumki, shaxs tomonidan jinoyat sodir etish holatlari insoniyat tarixining har qanday davrida mavjud bo'lgan va o'zining ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turgan. Shu tufayli, bugungi kunda dunyo mamlakatlarining barchasida jinoyatchilikka qarshi kurashish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Har qanday davlatda jinoyiy-huquqiy siyosatni amalga oshirishning dastlabki va muhim

bosqichi – bu qonun hujjatlarida jinoyat uchun javobgarlikni belgilashdir. Bundan ko‘zlangan maqsad ijtimoiy hayotda sodir etilgan real qilmishning belgilarini jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilariga solishtirish orqali uning qanday jinoyat ekanligini va unga nisbatan qay turdagi jazo tayinlash kerakligini aniqlash hisoblanadi. Aynan mazkur jarayon “qilmishni kvalifikatsiya qilish” deb nomlanadi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilishning asosini jinoyat qonunida belgilangan aniq jinoyat tarkibi tashkil etadi. Ya’ni, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ijtimoiy hayotda sodir etilgan real qilmishni kvalifikatsiya qilishda Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibiga tayanadi. Sodir etilgan qilmishni kvalifikatsiya qilish amaliyoti barcha davlatlar jinoyat huquqi uchun xosdir. Mazkur maqolada bir nechta xorijiy davlatlarning qilmishni kvalifikatsiya qilish bo‘yicha tajribasini o‘rganib, ularning milliy qonunchiligimizdagi kvalifikatsiya qilish amaliyoti bilan o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi”ning I bob 1-bandida “Jinoyat qonunchiligini xalqaro standartlarga unifikatsiya qilinganligi va muvofiqlashtirilganligi nuqtayi nazaridan inventarizatsiya qilish” muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan.[1] Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, Rossiya, Moldova, Germaniya, Janubiy Koreya va Avstraliya singari davlatlarda jinoyat tarkibining qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati masalasini ko‘rib chiqamiz va milliy qonunchiligimiz bilan taqqoslashni amalga oshiramiz.

Rossiya jinoyat qonunchiligi va milliy qonunchiligimiz ko‘p jihatdan bir-biriga o‘xshash sanaladi. Shu bilan birga, ular o‘rtasida qilmishni kvalifikatsiya qilish amaliyoti bilan bog‘liq farqlar ham mavjud. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 16-moddasining 2-qismida jinoiy javobgarlikning asosi jinoyat tarkibi ekanligi belgilangan. Unga ko‘ra, “Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi” [2]. Mazkur norma mazmunidan kelib chiqqan holda, sud-tergov organlari muayyan qilmishni jinoyat deb topish va uni JK Maxsus qismining biror moddasi bilan kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibini aniqlashga e’tibor qaratadilar. Rossiya Federatsiyasining Jinoyat kodeksida esa, jinoyat tarkibining ahamiyati to‘g‘risidagi modda mavjud emas, ammo mazkur davlat jinoyat huquqi nazariyasida xuddi milliy huquq tizimimizda bo‘lgani kabi jinoyat obyektiv

tomoni, subyekt va subyektiv tomonidan kelib chiqib, qilmishga huquqiy baho berilishi to'g'risida qarashlar mavjud.

Xususan, V.N.Kudryavsev "Qilmishda jinoyat tarkibi belgilari yig'indisining mavjudligi bu jinoiy javobgarlikka tortish uchun eng kam va yetarli asoslar borligini anglatadi. Eng kam degani shu ma'nodaki, agar qilmishda jinoyat tarkibining zaruriy belgilaridan kamida bittasining yo'qligi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emasligini anglatadi. Yetarli deganda, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni (obyektiv va subyektiv belgilardan tashqari) yig'ishning zarurati yo'qligidir" degan fikrni ilgari suradi [3].

Shunga o'xshash fikrlarni milliy huquqshunos olimlarimiz ham bildirishgan. Jumladan, M.Usmonaliyev va P.Bakunov jinoyat tarkibi deganda, jinoyat qonunida ko'zda tutilgan muayyan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikning jinoiyligini ifodalovchi tomonlar (elementlar) yig'indisini nazarda tutadi [4].

A.S.Yoqubov va R.Kabulovning fikricha, "Jinoyat tarkibi jinoyat qonunchiligida aniq bir ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb ta'riflovchi eng kam va yetarli obyektiv hamda subyektiv belgilar yig'indisidir" [5].

F.Xudoyqulov esa "Jinoyat tarkibi – bu har qanday jinoyatning tashqi va ichki tuzilishini o'zida namoyon etadigan subyektiv va obyektiv belgilarining minimal va yetarli yig'indisidir" deb yozadi [6].

Yuqorida keltirilgan barcha fikrlar mohiyatan bir xil hisoblanadi. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, jinoyat tarkibi – bu sodir etilgan qilmishni jinoyat deb topish uchun asos bo'ladigan eng kam va yetarli belgilar yig'indisidir. Har bir jinoyat uchun qonunda belgilangan zaruriy belgilardan bittasining yo'qligi qilmishning jinoiyligini istisno qiladi. Jinoyat tarkibi nafaqat qilmishni jinoyat deb topishda, balki uni jinoyat qonunidagi muayyan modda bilan kvalifikatsiya qilishda ham birlamchi ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 17-moddasining 1-qismi hamda Rossiya Jinoyat kodeksining 19-moddasi talabiga ko'ra, qilmishni kvalifikatsiya qilishda jinoyat subyektining quyidagi belgilari zaruriy belgi hisoblanadi: 1) jismoniy shaxs bo'lishlik; 2) jinoiy javobgarlik yoshiga yetganlik; 3) aqli rasolik. Demak, ikki davlat qonunchiligida ham kvalifikatsiya uchun ahamiyatli bo'lgan jinoyat subyektining asosiy belgilari bir xil ko'rinishga ega. Ammo, RF Jinoyat kodeksining 20-moddasida jinoiy javobgarlikka tortishning ikki xil yoshi nazarda tutilgan. Umumiy javobgarlikka tortish yoshi 16 yosh bo'lsa, RF JK Maxsus qismidagi bir qator jinoyatlar uchun 14 yosh etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi JK ning 17-moddasiga ko'ra esa, qilmishning xususiyatiga qarab, shaxs 16, 13, 14 va 18 yoshdan

jinoyat subyekti bo'lishi mumkin. Ushbu farq qilmishni jinoyat subyekti belgilaridan kelib chiqib kvalifikatsiya qilishda ikki davlat alohida-alohida tajribaga ega ekanligini ko'rsatadi. Masalan, Rossiya Jinoyat kodeksining 105-moddasi qasddan odam o'ldirish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Ushbu modda ikki qismdan iborat bo'lib, og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish jinoyati ikkinchi qism bilan kvalifikatsiya qilinadi. E'tiborli jihati shundaki, har ikkala qism uchun jinoiy javobgarlikka tortish yoshi 14 yoshni tashkil etadi. Bundan farqli ravishda, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 97-moddasining 1-qismi (qasddan odam o'ldirish) uchun subyekt yoshi 14 yosh, 2-qismi (og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish) uchun esa 13 yosh hisoblanadi. Jinoyat kodeksimizda 13 yoshdan jinoiy javobgarlikka tortish faqatgina 97-moddaning 2-qismi uchun belgilangan. Buni shu bilan izohlashimiz mumkinki, boshqa jinoyatlar bilan solishtirganda, og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirishning ijtimoiy xavfliligi yuqori. Ammo, nafaqat Rossiyada, balki MDH ning boshqa davlatlarida, shuningdek Germaniya va Fransiya kabi rivojlangan huquq tizimiga ega davlatlarda ham qasddan odam o'ldirish uchun jinoiy javobgarlikka tortish yoshi 14 yosh sanaladi. Ma'lumki, fuqarolik huquqida 14 yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar kichik yoshdagi bolalar sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yoshdagi voyaga yetmaganlar ba'zi holatlarda o'z xatti-harakatlarining xususiyatini va undan kelib chiqadigan oqibatlarni to'la tushunmasliklari mumkin. Shu sababli, Jinoyat kodeksining 97-moddasi har ikkala qismi uchun jinoyat subyekti yoshini 14 yosh deb belgilashni taklif qilamiz. Zero, bu o'zgarish jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jarayonida voyaga yetmaganlar huquq va qonuniy manfaatlarining ishonchli himoyasini ta'minlashga, Jinoyat kodeksida belgilangan insonparvarlik va odillik prinsiplarining yaqqol namoyon bo'lishiga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Shu bilan birga, Rossiya jinoyat qonunchiligida bir qator jinoyatlar nazarda tutilgan bo'lib, ular bizning Jinoyat kodeksimizda alohida jinoyat deb baholanmaydi. Masalan, RF JK ning 164-moddasida "Talon-toroj qilish usulidan qat'iy nazar, tarixiy, ilmiy, badiiy va madaniy jihatdan alohida qimmatga ega bo'lgan hujjatlarni yoki obyektlarni g'ayriqonuniy ravishda egallash" jinoyati belgilangan [7]. Bunda talon-toroj qilish usuli deganda, talonchilik, o'g'irlik, firibgarlik, tovlamachilik va boshqa g'ayriqonuniy usullar tushunilishi kerak. Bundan farqli ravishda, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida bu turdagi qilmish alohida modda bilan kvalifikatsiya qilinmaydi. Ya'ni, agar shaxs tarixiy, ilmiy, badiiy va madaniy jihatdan alohida qimmatga ega bo'lgan hujjatlarni yoki obyektlarni g'ayriqonuniy ravishda egallaydigan bo'lsa, talon-toroj usulidan kelib chiqib, JK 164 – 169-moddalaridan



biri bilan kvalifikatsiya qilinadi. Demak, Rossiya jinoyat kodeksida alohida qimmatga ega bo'lgan hujjatlar va obyektlar jinoyatning maxsus obyekt sifatida mustaqil modda bilan qo'riqlanadi va bu o'z navbatida qilmishni o'g'rilik, talonchilik, firibgarlik kabi jinoyatlarni nazarda tutuvchi moddalar bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni taqozo etmaydi.

Moldova davlatining jinoyat qonunchiligini o'rganganimizda, milliy qonunchiligimizga o'xshash jihatlar bilan bir qatorda, muayyan farqlarga ham duch keldik. Jumladan, Moldova Jinoyat kodeksida jinoyat tarkibining ahamiyati alohida modda bilan mustahkamlangan. Kodeksning 15-moddasiga ko'ra, "Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi jinoyat tarkibining elementlari: obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomonni tavsiflovchi dalillarni tahlil qilish orqali aniqlanadi" [8]. Bundan shuni tushunish mumkinki, qilmishni nafaqat jinoyat deb topish, balki uning ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib, muayyan modda bilan kvalifikatsiya qilish jarayonida ham jinoyat tarkibi elementlari markaziy o'rin tutadi. Moldova Jinoyat kodeksining 17- va 18-moddalarida subyektiv tomonning zaruriy belgisi sifatida ayb shakllari, ya'ni qasd va ehtiyotsizlik tushunchalarining mazmuni ochib berilgan. Bundan tashqari, xuddi O'zbekistonda bo'lgani kabi Moldova Jinoyat kodeksida ham murakkab aybli jinoyatlar mavjud bo'lib, ular "Aybning ikki xil shakli orqali jinoyat sodir etish" termini bilan yuritiladi va kvalifikatsiyada bitta jinoyat sifatida baholanadi. Moldova Jinoyat kodeksining 19-moddasiga ko'ra, "Agar qasddan sodir etilgan jinoyat mazkur qonunda og'irroq jazo nazarda tutilgan og'ir oqibatlariga olib kelsa va bu og'ir oqibatlar jinoyatchining qasdi bilan qamrab olinmagan bo'lsa, bu oqibatlar uchun jinoiy javobgarlik faqat shaxs ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan ko'rgan, ammo uning yuz bermasligiga asossiz ravishda ishonganda yoki ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan ko'rmagan bo'lsa-da, vaziyatga ko'ra ko'rishi mumkin va lozim bo'lgandagina kelib chiqadi. Natijada, bu jinoyat qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi". Ushbu normaning mazmuni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 23-moddasining mazmuni bilan bir xildir. Demak, murakkab aybli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish amaliyoti O'zbekiston va Moldovada o'xshash, deyishimiz mumkin. Jinoyatning umumiy subyekt yoshi 16 yosh, ayrim jinoyatlar (ularning ro'yxati Moldova JK 21-moddasining 2-qismida keltirilgan) uchun esa 14 yoshdan ham javobgarlikka tortish mumkin. Eng diqqatga sazovor jihati shuki, Moldova Jinoyat qonunchiligi yuridik shaxs uchun ham jinoiy javobgarlikni belgilagan. Kodeks 21-moddasining 3-qismiga ko'ra, "Jamoaboshqaruviga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxs quyidagi holatlardan birontasi mavjud bo'lganda, jinoiy javobgarlikka tortiladi:

- a) yuridik shaxs muayyan harakatni qilmaslikni yoki ma'lum majburiyatni bajarishni nazarda tutuvchi qonun talablariga rioya etmaydigan bo'lsa;
- b) yuridik shaxs o'z belgilangan maqsadiga va moliyaviy hisob-kitob hujjatlariga amal qilmagan holda, faoliyat olib borayotgan bo'lsa;
- c) yuridik shaxsning yoki uning nomidan ish ko'rishga vakolatli bo'lgan mansabdor shaxsning foydasi uchun qilingan harakatlar shaxsga, jamiyatga va davlatga katta zarar keltirgan bo'lsa. Yuridik shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishi jinoyat sodir etilishida aybdor bo'lgan jismoniy shaxsni javobgarlikdan ozod etmaydi". Modda mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, yuridik shaxsning faoliyatida jinoyat belgilari aniqlanadigan bo'lsa, ham yuridik shaxsning o'zi, ham jinoyatda aybdor bo'lgan jismoniy shaxs (masalan, yuridik shaxs rahbari yoki xodimi) ham javobgarlikka tortilishi lozim. Fikrimizcha, yuridik shaxs tomonidan sodir etilgan qilmish bo'yicha jinoyatni kvalifikatsiya qilishda, milliy qonunchiligimizda bo'lgani kabi, faqat aybdor jismoniy shaxsni jinoyat subyekti sifatida ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Chunki, shaxs tomonidan yo'l qo'yilgan qonun buzilishi uchun yuridik shaxsning javobgarlikka tortilishi adolat me'zonlariga unchalik ham to'g'ri kelmaydi.

Germaniya Jinoyat kodeksida "jinoyat tarkibi" tushunchasi aniq modda tarkibida belgilanmagan. Ammo, Umumiy qismning 13 - 15-moddalari doirasida jinoyatning harakat yoki harakatsizlik ko'rinishida hamda qasd yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Misol uchun, Germaniya Jinoyat kodeksining 13-moddasiga ko'ra, "Mazkur qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishining oldini olish majburiyatiga ega shaxs tomonidan o'sha harakatlarning qilinmasligi jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi". 15-moddada esa, "Agar qonun ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan harakat uchun jazoni ko'rsatmasa, faqat qasddan sodir etilgan harakatlar jazolanadi", - deyilgan [9]. Bundan ko'rinadiki, Germaniya jinoyat huquqida ham obyektiv va subyektiv tomon qilmishni jinoyat deb topish va uni muayyan modda bilan kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, qilmishning qasd yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilganligi obyektiv tomondan o'xshash bo'lgan jinoyatlarni farqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, Kodeksda jinoyat subyektiga xos bo'lgan belgilar ham o'z aksini topgan. Jumladan, 19-moddaga binoan, "Jinoyat sodir etish vaqtida 14 yoshga to'lmagan shaxs aybsiz holda harakat qilgan deb topiladi". Mazkur norma kvalifikatsiya uchun nihoyatda muhim bo'lib, jinoyat subyekti yoshini belgilab beradi. Demak, Germaniyada har qanday jinoyat uchun shaxs 14 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Jinoyat subyekti bo'yicha qilmishni kvalifikatsiya qilish jarayonida

shaxsning aqli rasoligi, albatta, tekshirilishi lozim. Chunki, mazkur belgi Germaniya Jinoyat kodeksida jinoyat subyektning zaruriy belgilari qatoriga kiritilgan. Germaniya jinoyat qonunchiligining milliy qonunchiligimizga o'xshash jihatlaridan yana biri – bu jinoyatga suiqasd qilish uchun ham jazoning mavjudligidir (GFR JK 23-moddasi). Ya'ni, jinoyatning tugallanganligi yoki suiqasd ekanligi qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi, bu holat faqatgina sud tomonidan jazo tayinlashda inobatga olinadi. Respublikamiz va Germaniya jinoyat qonunchiligi o'rtasida umumiy jihatlarining borligini har ikki davlat qonunchiligi romano-german huquq tizimiga taalluqli ekanligi bilan izohlashimiz mumkin. Shunga qaramasdan, mazkur davlatning jinoyat huquqi sohasidagi, xususan qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi ba'zi tajribalarini milliy qonunchiligimizga joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan, yuqorida aytib o'tganimizdek, JK 97-moddasining 2-qismi uchun ham jinoyat subyekti yoshini 14 yosh etib belgilash lozim.

Sharqiy Osiyo mamlakatlari orasida Janubiy Koreya o'zining rivojlangan huquq tizimi bilan ajralib turadi. Boshqa huquq sohalari bilan bir qatorda, jinoyat huquqi va qonunchiligi ham ancha takomillashgan. Mazkur davlat Jinoyat kodeksi Umumiy qismining bir qator moddalarida jinoiy javobgarlik yoshi, aqli noraso shaxs tomonidan jinoyat sodir qilish, jinoiy qasd, ehtiyotsizlik, harakat yoki harakatsizlik bilan jinoyat sodir qilish kabi jinoyat tarkibi zaruriy belgilarining mazmuni ochib berilgan. Mazkur belgilar jinoyat kodeksidagi har bir jinoyat uchun xos bo'lib, ularsiz qilmish jinoyat hisoblanmaydi. Shu sababli, Koreya jinoyat qonunchiligi har bir holatda ushbu belgilarning aniqlanishi shartligini belgilaydi. Jinoyat kodeksi moddalarining ba'zilarida zaruriy belgilar dispozitsiyada bevosita ko'rsatilsa, boshqalarida jinoyatning xususiyatidan kelib chiqib aniqlanishi lozim bo'ladi. Masalan, ushbu davlat Jinoyat kodeksining XIII bobida nazarda tutilgan yashash joyiga o't qo'yish (164-modda), jamoat binolariga yoki obyektlariga o't qo'yish (165-modda), boshqa obyektlarga o't qo'yish (166-modda) kabi jinoyatlar qasddan sodir etiladi. Agar ushbu obyektlarga ehtiyotsizlik orqasida o't ketsa, qilmish yuqoridagi moddalar bilan emas, balki 170-modda bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Ko'rib turganimizdek, Janubiy Koreya jinoyat huquqida ham aybning ikki xil shakli mavjud bo'lib, ular obyektiv tomondan o'xshash jinoyatlarni o'zaro farqlashga va bu orqali qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xuddi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida bo'lgani singari ayrim moddalarda jinoyat tarkibining u yoki bu fakultativ belgisi asosiy belgi sifatida o'rnatilgan. Bunday holatlarda mazkur fakultativ belgilar ham kvalifikatsiya uchun ahamiyatga ega bo'ladi. Jumladan, Janubiy Koreya Jinoyat kodeksining 122-moddasida

“Mansabdor shaxsning arzirli sababsiz o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishni rad etishi yoki mazkur majburiyatlarni tashlab ketishi” uchun, 129-moddada esa “Mansabdor shaxsning pora olishi” uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, qilmishni aynan ushbu moddalar bilan kvalifikatsiya qilish uchun jinoyat subyekt *mansabdor shaxs* (*public official*) bo‘lishi shart. Bundan tashqari, Kodeksning 152-moddasiga ko‘ra, “Guvohlik qasamyodini qabul qilgan guvohning bila turib, yolg‘on ko‘rsatuv berishi besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki o‘n million vongacha jarima jazosi tayinlashga asos bo‘ladi” [10]. Bunda jinoyat subyekt har qanday shaxs emas, balki ishga *guvoh* (*witness*) sifatida jalb qilingan shaxs bo‘lishi lozim. Jinoyat kodeksida nafaqat subyekt va subyektiv tomonning fakultativ belgilari, balki jinoyat predmeti va obyektiv tomonning jinoyat sodir etish usuli, vaqti, joyi, sharoiti, quroli kabi fakultativ belgilari ham dispozitsiyada keltirilishi orqali kvalifikatsiyaga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, Kodeks 180-moddasida (Suv toshqini paytida toshqindan himoyalovchi qurilma va mexanizmlarga zarar yetkazish yoki ularni ishdan chiqarish) jinoyat sodir etish sharoiti, ya’ni suv toshqini payti obyektiv tomonning zaruriy belgisi bo‘lib, ushbu belgisiz qilmishni mazkur modda bilan kvalifikatsiya qilish mumkin emas.

Xorijiy davlatlarning jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bo‘yicha tajribasi o‘rganilganda, ular orasida Avstraliya jinoyat qonunchiligi o‘ziga xosligi bilan ajralib turishiga guvoh bo‘ldik. Boshqa davlatlardan farqli ravishda, mazkur davlat Jinoyat kodeksining Umumiy qismida **“jinoyat elementlari”** (*elements of offence*) tushunchasi, tasnifi va ahamiyati xususida to‘liq ma’lumot berilgan. Jumladan, Kodeks 3.1-moddasiga ko‘ra, jinoyat o‘z ichiga moddiy va ayb elementlarini (*physical and fault elements*) qamrab oladi. O‘z navbatida, 4.1-moddada keltirilishicha, jinoyatning moddiy elementlari quyidagilardan iborat:

- a) xulq-atvor (*conduct*);
- b) xulq-atvor natijasi (*a result of conduct*);
- c) xulq-atvor va uning natijasi o‘rtasidagi holat (*circumstance*) [11].

Ushbu elementlar orasida xulq-atvor ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: harakat (*act*) va harakatsizlik (*omission*). Bevosita milliy qonunchiligimizga solishtiradigan bo‘lsak, harakat va harakatsizlikni o‘z ichiga olgan xulq-atvor *ijtimoiy xavfli qilmishga*; xulq-atvor natijasi *ijtimoiy xavfli oqibatga*; xulq-atvor va uning natijasi o‘rtasidagi holat esa *ijtimoiy xavfli qilmish va oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishga* to‘g‘ri keladi. Demak, Avstraliya Jinoyat kodeksida belgilangan moddiy elementni jinoyatning obyektiv tomoni deb, atashimiz mumkin. Avstraliya Jinoyat kodeksining 5.1-moddasiga ko‘ra, jinoyatning ayb elementlari quyidagilar

bo'lishi mumkin: a) qasd (*intention*); b) xabardorlik (*knowledge*); c) beparvolik (*recklessness*); d) ehtiyotsizlik (*negligence*).

Ma'lumki, Jinoyat kodeksimizda aybning qasd va ehtiyotsizlik shakllari nazarda tutilgan. Avstraliya jinoyat qonuni esa, xabardorlik va beparvolik shakllarini ham ajratib ko'rsatgan. Aslida, bu tushunchalar ham begona emas. Negaki, xabardorlik deganda, shaxsning o'zi sodir etgan qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglashi va undan kelib chiqadigan oqibatlariga ko'zi yetishi tushunilsa, beparvolik o'z-o'zidan ehtiyotsizlikning turi hisoblanadi. Shunday qilib, Avstraliya Jinoyat kodeksida belgilangan aybning 4 ta elementi jinoyatning subyektiv tomonini tashkil qiladi. Garchi Kodeksda jinoyat obyekti to'g'risida so'z yuritilmagan bo'lsa-da, jinoyat qonunidagi har bir norma alohida ijtimoiy munosabatni qo'riqlaydi va ular jinoyat obyekti sanaladi. Jinoyat subyekti uchun Kodeksda yosh va aqliy sog'lomlik belgilari o'z aksini topgan. Yuqorida Rossiya, Moldova, Germaniya va Janubiy Koreya jinoyat qonunchiligini tahlil qilganimizda, subyekt yoshining minimal chegarasi 14 yosh ekanligini ko'rgan edik. Ammo, Avstraliya jinoyat qonunida bu chegara 10 yosh hisoblanadi. Avstraliya JK 7.1-moddasiga muvofiq, 10 yoshdan kichik bo'lgan bolalar jinoyat uchun javobgarlikka tortilmaydi. 7.2-moddada ta'kidlanishicha, 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar o'z xulq-atvorining huquqqa xilofligini anglay olgan taqdirdagina, jinoyat uchun javobgarlikka tortiladi. Demak, qilmishni Avstraliya Jinoyat kodeksidan kelib chiqib, kvalifikatsiya qilishda yuqoridagi jinoyat elementlarining barchasi aniqlanishi lozim.

## **XULOSA**

Xulosa qiladigan bo'lsak, garchi yuqoridagi davlatlar qilmish uchun turli xil jinoiy javobgarlikni belgilasa-da, ularning barchasida qilmishni kvalifikatsiya qilish jinoyat tarkibi belgilaridan kelib chiqib, amalga oshiriladi. Ya'ni, real hayotda sodir etilgan bitta qilmishni boshqasidan farqlash uchun unga xos bo'lgan belgilar jinoyat qonunida javobgarlik belgilangan jinoyatning obyektiv va subyektiv belgilari bilan taqqoslab ko'riladi. Sodir etilgan qilmishning belgilari jinoyat qonunidagi qaysi modda belgilari bilan mos tushsa, qilmish aynan o'sha modda bilan kvalifikatsiya qilinib, jazo ham mazkur modda sanksiyasi doirasida tayinlanadi.

Shu bilan birga, amaliyotda ba'zan sud-tergov organlari tomonidan jinoyat tarkibi barcha elementlarining aniqlanmasligi sababli jinoyat hisoblanmagan qilmishlarni jinoyat deb topish yoki qilmishni boshqa jinoyat sifatida noto'g'ri kvalifikatsiya qilish holatlarning oldini olish maqsadida faqat jinoyat huquqi nazariyasida emas, balki Moldova va Avstraliya tajribasida bo'lgani kabi O'zbekiston

Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida ham jinoyat tarkibi elementlarini aniq ko'rsatish va JK 16-moddasini quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz: "Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari: obyekt, subyekt, obyektiv tomon va subyektiv tomon belgilari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi".

Fikrimizcha, modda dispozitsiyasini bu tarzda ifodalash qilmishni kvalifikatsiya qilishga vakolatli bo'lgan shaxslarning jinoyat tarkibi barcha elementlarini aniqlashiga va unga to'g'ri baho berishiga sabab bo'ladi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi (Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan "On improving the system of criminal and criminal legislation" National Database of Legislation, May 14, 2018, No. 3723). <https://lex.uz/docs/55471975//>;
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 1994-yil 22-sentabr, // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi (Criminal code of the Republic of Uzbekistan, National Database of Legislation, September 22, 1994.). <https://lex.uz/docs/6750126//>;
3. Кудрявцев В.Н. Общая теория квалификация преступлений. М., 2007. – С. 313 (Kudryavsev V.N. General theory of qualification of crime. M., 2007. – P.313);
4. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.—T.: «Nasaf», nashriyoti, 2010. – B. 553. (Usmonaliev M., Bakunov P. Criminal Law.General section: Textbook for Universities. —Tashkent: Nasaf Publishing House, 2010. - P. 553);
5. Yakubov A., Kabulov R. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009. – B. 374. (Yakubov A., Kabulov R. Criminal Law. General section: Textbook – T.: Academy of the Ministry of internal affairs, 2009. - P. 374);
6. Xudayqulov F.X. Jinoyat va jinoyat tarkibi tushunchalari hamda ular (subyektiv va obyektiv) belgilarining o'zaro munosabati: instrumental tahlil va taklif // Huquqiy tadqiqotlar jurnali // – 2021. – T. 6. – №. 11. (Xudaykulov F.X. Relationship of the concepts of crime and the corpus delicti and their signs (objective and subjective): instrumental analysis and proposals // Journal of Law Research. - 2021. - T. 6. - №. 11);

- 
7. Уголовный кодекс Российской Федерации // <https://www.consultant.ru> = ht814952 (июня 13, 1996 года). (Criminal code of Russian Federation // <https://www.consultant.ru> = ht814952 (June 13, 1996));
  8. Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksi // <https://www.legislationline.org> = hp1345668 (2003). (The Criminal code of the Republic of Moldova // <https://www.legislationline.org> = hp1345668 (2003);
  9. Germaniya Jinoyat qonuni // <https://ec.europa.eu> = st4258791 (1998-yil 13-noyabr). (German criminal code // <https://ec.europa.eu> = st4258791 (November 13, 1998);
  10. Janubiy Koreya Respubikasi Jinoyat kodeksi // <https://www.refworld.org/docid/3f49ed4.html> (Oktober 3, 1953). (The criminal code of the South Korea // <https://www.refworld.org/docid/3f49ed4.html> (Oktober 3, 1953);
  11. Avstraliya jinoyat kodeksi // <https://www.refworld.org> = hh5687312 (1995). (The criminal code of the South Korea // <https://www.refworld.org> = hh5687312 (1995).

## МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОЙ ТОЧНОСТИ РЕЧИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

**Алиева Хосият Хуснидиновна**

Студентка факультета дошкольного образования  
Кокандский Государственный Педагогический институт

### АННОТАЦИЯ

*Ребенок самопроизвольно, проявляя творчество, начинает обыгрывать понравившееся слово или форму, активно, многократно использовать их в инициативной речи, отыскивая для них новый контекст, фонетический облик.*

**Ключевые понятия:** *игровая и речевая активность, языковые игры, фольклор, инстинировки, кукольный театр, драматизация, пластические упражнения.*

### ANNOTATION

*The child spontaneously, showing creativity, begins to play around with the word or form he likes, actively, repeatedly use them in initiative speech, looking for a new context, phonetic appearance for them.*

**Keywords:** *game and speech activity, language games, folklore, instincts, puppet theater, dramatization, plastic exercises.*

### ВВЕДЕНИЕ

На начальных этапах (младший дошкольный возраст) ведущее значение имеют совместные с взрослым сюжетно-отобразительные игры детей, подвижные, музыкальные игры и пластические упражнения, игры-драматизации (импровизации), инсценировки, кукольный театр, элементы игры и драматизации при рассматривании картин, при рисовании, лепке, аппликации — такие виды игровой активности, которые имеют широкий общеразвивающий эффект, возбуждают в детях положительные эмоции, стимулируют игровую и речевую активность и тем самым создают естественные условия для спонтанного возникновения языковых игр, заимствования из произведений фольклора и художественной литературы, из речи педагога форм и структур языка. Эти формы работы не теряют своего значения и в дальнейшем.

### ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Уже на четвертом году жизни важнейшим условием (средством) полноценного формирования грамматического строя языка дошкольника становится обучение связной речи и рассказыванию, которое опирается на



игровой опыт детей и разворачивается в форме сотворчества педагога и ребенка. Стремление к творчеству изначально присуще дошкольнику. Самостоятельное сочинение коротких историй-фантазий встречается уже у трехлетних детей.

Спонтанное усвоение языка и форм речи у них носит творческий характер, проявляется в речевом и словесном творчестве. Подражание, повтор, несомненно, играют определенную роль в овладении языком, но эти процессы не имеют формы слепого повторения, специального зазубривания образцов. Ребенок самопроизвольно, проявляя творчество, начинает обыгрывать понравившееся слово или форму, активно, многократно использовать их в инициативной речи, отыскивая для них новый контекст, «нащупывая» фонетический облик. Заимствование готовых образцов речи (репродукция) у младших дошкольников носит отсроченный характер, проходя через ум и эмоции ребенка. То есть имеются латентные, скрытые периоды развития. Заимствования, репродукция, подражание осуществляются на основе языковых обобщений и речетворчества. Коммуникативно не мотивированные задания педагога повторить ту или иную форму, конструкцию, текст (насаждение репродуктивной речи) активно отвергаются младшими дошкольниками; старшие дети скучают на таких занятиях, выполняют задания из послушания. Этим, на наш взгляд, объясняются выявляемые в процессе аттестации довольно низкие результаты речевой работы в отдельных детских садах и наблюдаемый в них поздний тип формирования связной речи.

Речь должна идти о создании условий для полноценного освоения грамматического строя языка, прежде всего его системы, богатства синтаксических, морфологических и словообразовательных средств на основе развития и поощрения самопроизвольной поисковой активности ребенка в сфере грамматики, спонтанных языковых игр, экспериментирования со словом и его формами, на основе речевого (словесного) творчества, использования языковых средств в разных формах общения со взрослыми и детьми. Задача формирования грамматически правильной речи актуальна для старшего дошкольного возраста и успешно решается при опоре на развитие лингвистического отношения к слову, возникающего в результате работы на предыдущих этапах речевого развития. Типичные трудности освоения детьми грамматической стороны речи.

Развитие морфологической стороны речи детей сопряжено с рядом трудностей, связанных с особенностями русского языка. Прежде всего в

русском языке очень сложная система окончаний существительных, не фиксировано место ударения в словах, чрезвычайно большое многообразие чередований гласных и согласных звуков в основах глаголов. Кроме того, дошкольники затрудняются с усвоением родовой принадлежности существительных, пониманием и использованием пространственных предлогов и наречий. Речь способствует развитию личности ребенка целом, расширяет его знания, его кругозор, помогает общаться окружающими, осознать правила поведения.

Но дети двух—четырёх лет испытывают трудности в овладении грамматическими формами речи. Назовем основные из них: 1) искажение родовых окончаний в начальной форме («красная пальто», «дядя ушла», «машина поехал») и при склонении («съел яблоку», «гладил утюгой», «красный карандашом», «в новой доме»); 2) неверное использование форм числа («красивый шары», красными ягоды», «машины едет»); 3) ошибки в употреблении падежных форм: а) сведение падежной формы к начальной форме слова («слепили баба», «много девочки», «качались качели»); б) ошибки в употреблении падежей и предлогов («книга столе», «листки на дерево», «шли с товарищ»). Остальные ошибки связаны с искажением словесной структуры слова («капу» вместо капуста, «балкаса» вместо колбаса), с употреблением части основы вместо целого слова («красн шар», «стеклянн банка»), с употреблением неопределенной формы глагола вместо спрягаемой формы («мама читать», «Вова спать»), со смешиванием предлогов и приставок.

Естественно, что содержание и методика работы с детьми третьего года жизни по обогащению их речи грамматическими формами определяется требованиями к речи ребенка этого возраста, а также знанием характерных для них затруднений.

Прежде чем описывать методику развития грамматического строя речи детей от двух до трех лет, еще раз напоминаем, что развитие грамматического строя осуществляется одновременно с развитием активного и пассивного словарного запаса ребенка и формированием правильного звукопроизношения. Вот почему основная задача воспитателя состоит в том, чтобы научить детей практически пользоваться фразовой речью, т. е. правильно употреблять в речи основные грамматические категории, сформировать навык практического словоизменения по числам, падежам, временам, лицам, родам. Для осуществления этой цели воспитатель проводит специальные грамматические упражнения на предметных занятиях.

Задачи и содержание работы по формированию грамматически правильной речи детей в возрастных группах. Разные стороны грамматического строя языка — синтаксис, морфологию, словообразование — ребенок усваивает по-разному, и на каждой возрастной ступени на передний план выступает что-то одно. Так, системой словоизменения — правилами склонения и спряжения, многообразием грамматических форм слов дети овладевают главным образом в младшем и среднем дошкольном возрасте. В старших группах на передний план выдвигается задача усвоения традиционных, «нерегулярных» форм изменения всех слов, входящих в активный словарь ребенка. Способы словообразования осваиваются детьми позже, чем способы словоизменения.

Наиболее интенсивное формирование словообразовательных умений и навыков происходит в средней и старшей группах, а вот критическое отношение к своим действиям, точное знание норм словообразования у детей только начинает складываться в подготовительной к школе группе. Последовательность становления грамматической стороны языка обусловлена его строением, а также традиционными способами организации детской игровой, практической и познавательной деятельности; формами сотрудничества, общения ребенка с окружающими. Однако личный опыт у детей очень неодинаков, и это приводит к широкому многообразию индивидуальных особенностей речевого развития. В каждой возрастной группе есть дети, имеющие очень высокий уровень владения родным языком, и рядом же находятся их сверстники, отстающие от товарищей в речевом развитии. Поэтому работа по грамматике в детском саду должна строиться так, чтобы предоставлять каждому ребенку возможность решать посильные речевые задачи.

На первых этапах речевого развития перед ребенком прежде всего ставят задачу понимать смысл сказанного (например, ориентируясь на окончание существительного, различать, где один предмет, а где много). Следующая задача — использовать то или иное грамматическое средство в собственной речи, говорить так, как говорят другие. Более сложно — самостоятельно образовывать форму нового слова по аналогии со знакомыми, например, форму фишками (играю фишками), хотя взрослый впервые употребил это слово в именительном падеже единственного числа — фишка. И совсем иная, еще более трудная задача — оценить грамматическую правильность речи, определить, можно или нельзя так сказать. В работе с младшими дошкольниками большой удельный вес занимают речевые задачи первого типа

(на понимание и использование в речи грамматических средств). Задачи оценочного характера, как правило, по силам старшим дошкольникам. Но в силу того, что в каждой возрастной группе уровень речевого развития детей неодинаков и различается в очень широких пределах, во всех возрастных группах и почти на каждом занятии следует предусматривать решение детьми и тех и других задач. Само собой разумеется, что удельный вес этих типов задач в группах будет все же неодинаков.

### **REFERENCES**

1. Бабаева Д.Р «Нутқ ўстириш методикаси» Тошкент “Фан ва технология” 2009й
2. ”Теория и методика Стародубова М.:Академия2012г
3. Тихеева Е.И.”Развитие речи детей” Москва. Изд.Юрайт 2019г.-161стр.

## ETYMOLOGY OF UZBEK AND ENGLISH ARCHITECTURE- CONSTRUCTION TERMINOLOGY

**Saloydinova Nargiza Shuhratovna**

Tashkent institute of architecture and civil engineering.

### ABSTRACT

*This article describes Uzbek and English architecture and construction terminology. Also in this article we analyze the etymology of some old terms of Uzbek and English languages with their translation in Russian, which were created by grammatically and syntactically meaning of two or more words with independent meanings.*

**Key words:** *construction and architecture, building terms, systematization, specialization, the formation of terms, generalization, architectural meaning*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье описывается узбекская и английская архитектурно-строительная терминология. Также в этой статье мы анализируем этимологию некоторых старинных терминов узбекского и английского языков, которые были созданы грамматически и синтаксически значением двух или более слов с самостоятельными значениями.*

**Ключевые слова:** *строительство и архитектура, строительные термины, систематизация, специализация, терминообразование, обобщение, архитектурное значение.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o'zbek va ingliz arxitektura va qurilish terminologiyasi yoritilgan. Shuningdek, ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'noli so'zlarning grammatik va sintaktik yo'l bilan yaratilgan ayrim qadimiy atamalarining etimologiyasini tahlil qilamiz.*

**Kalit so'zlar:** *qurilish va arxitektura, qurilish atamalari, tizimlashtirish, ixtisoslashtirish, atama hosil qilish, umumlashtirish, me'moriy ma'no.*

### INTRODUCTION

Formation of a real scientific terminology in Uzbekistan has began since the 1930s. In this case, great benefit was provided by the "Central Committee for the New Alphabet and terminology". Under this direct supervision and with the participation of this committee, the first Russian-Uzbek terminological dictionaries, teaching aids was created. Business was settled on translation and publication of a

number of literatures on agriculture, mechanization, industries. By this time there was interest to the study of theoretical issues of terminology. In this respect of particular interest are the works of U.L. Ursunov, S. Ibragimova and a number of other researchers.

### **LITERATURE ANALYSIS**

Later, S. Ibragimov created a monograph of 3 parts under the general title "Professional vocabulary of Fergana dialects" plastering / knife making, lock making, tin work, etc.

From a scientific point of view, particularly, the research of I. Ibragimov, which is devoted to the study of the vocabulary of plasterers, has a great importance for Uzbek terminology. The work contains a number of statements regarding the emergence and further functioning of hundred building terms. In general, the specific fundamental work of S. Ibragimov "To illuminate the material and cultural history of our people, to develop the history of the Uzbek language and dialectology" is great contribution to the vocabulary of professionals.

In recent years, a lot has been done in "solution of theoretical questions terminology of the Uzbek language: scientific papers have been written, monographies, a large number of articles, a number of dissertations were defended. For example, articles, brochures and monographs such as S. Usmanov, R. Daniyarov, H. B. Bazarova, T. Tursunova and others, disertificates of R.Daniyarov /doctoral/, H.Jamalkhanova, A.Kurbanov,L. Reshetova, M. Asamutdinova, L. Danilova, A. Ramazanova, S. Azizov, H. Bakaeva, A. Khusanov, A. Kasymov.

### **DISCUSSION AND RESULTS**

The listed monographs, brochures, articles and dissertations, published dictionaries, undoubtedly, will assist in solving issues of terminology by theoretical and practical point of view with deeply scientific thoughts.

But so far, a separate monographic study has not been devoted to the study of the construction terminology of the Uzbek language. Meanwhile, the rapid development of construction, its transformation into one of the branches of industry, the widespread use of mechanization and automation are primarily reflected in terms. It goes without saying that these changes taking place in this branch of terminology / the formation of terms, their systematization and a number of others / require the development of scientific and theoretical issues and practical solutions - the compilation of a terminological dictionary of construction terms.

The construction theme is also reflected to some extent in individual works devoted to construction and architecture, i.e. in special scientific works, in historical and ethnographic studies. In these works, of course, building terms are not subjected to linguistic analysis. But they contain sufficient data on tools, building materials, buildings and their parts, as well as processes related directly to construction, about their names'. In this regard, we can highlight the monographs of A.K. Pisarchik "Building materials and constructive techniques of folk craftsmen of the Fergana Valley in the XIX - early XX centuries". So, in the work of A.K. Pisarchik, although the goal was to analyze the achievements of the Uzbek people in the field of national architecture in ethnographic terms, using the example of the construction of the Ferghana Valley, it contains sufficient information about the etymology of the building terms he himself collected. In his opinion, in the lexicon of builders and residents of the Fergana Valley and in a number of other regions of Uzbekistan, along with Uzbek / general Turkish terms, Persian-Tajik / *devol, loy, ayvon, peshayvon*, etc. / are used, and mixed Tajik-Uzbek and Uzbek- Tajik terms: *kush sinch, du sinch* also were used. From the research work of A.K. It becomes clear that Samarkand architects used the following terms to build the foundation, wall, ceiling: *sandhari* - a foundation made of large bricks, *khishtfarch* - a floor lined with bricks, *devol* - an adobe wall, *bolodori* - the upper beam of the door frame, *zaborrav // zavarrav* - upper strapping from beams, *chorchub* - a square or rectangle of four beams, *vassa* - slabs - halves or thirds of hacked perches, *buyra* - reed braid, etc.

The merit of the author's is that it describes parts of the construction art of Samarkand, from ancient times to the present in detail. The most important thing is that the research work of A.K. Pisarchik reflected a large number of construction terms that were in the everyday life of the population. From his work it becomes clear that to design a city dwelling in the dialects of the builders, such terms were used as: *peshayvon* - передний отвал, *berun* - внешний городской дом, *dorun*-внутренний городской дом, *mehmonhona* - гостинная для мужчин, *zinai minori*- минаретная лестница, *tula // tagtula* - полуподвальное помещение, *darvozahona* - сооружение над входной калиткой and etc.

The research work of A.K. Pisarchik is interesting because it reflects a large number of terms denoting architectural details and artistic and decorative techniques. Such terms include, in particular: *болари вассажут* - открытый балочный потолок, *болори лула* - балки круглого сечения, *мадохил* - плоскость среза, образующая трехполостную фигуру, *пилтавасса* - ваза в виде фитилей, *тахмон* - ниша для хранения постели, *токча/уреза* -глубокая узкая ниша, *гурех*

- арабски, геометрический орнамент, *багдоду* - род двери, *дарвоза* - ворота и мн.др.

The foregoing give us the following conclusion: the issues of terminology are constantly in the field of view as an object of linguistic research not only in Russian, but also in other linguistics of peoples, they are also intensively studied in Uzbek linguistics. Despite this, construction terminology, whose origins go back to the distant past, has not yet become the object of a special linguistic study.

If we look through the terms of the English language, you can find out that usually the specialization of the meanings of words is associated with the awareness of a certain area of activity as a special one. In the studied array of terms, there were 10 lexical units formed in this way. All of them are quite old, the last of them appeared in 1835. The first of them *-pendant* - an architectural detail, designed in the form of a pendant, was formed from the commonly used "*pendant*" in 1322. Слово *volume* со значением «объем» в 1621 г. приобрело специальное значение «внутренний объем здания». В 1626 г. слово *fret* (прямоугольный орнамент) образованное от значения «дамская сетка для волос из драгоценных камней» приобрело специальное значение «архитектурный орнамент из пересекающихся прямоугольных линий, лепнина на потолке. Термин *lucarne* со значением «отверстие на чердаке или в крыше для пропуска света» в 1631 г. приобрел значение «круглое небольшое окно в классическом фронтоне». The word *volume* with the meaning "volume" in 1621 acquired the special meaning "*internal volume of the building*". -rectangular lines, stucco on the ceiling. The term *lucarne* with the meaning "a hole in the attic or in the roof to let in light" in 1631 acquired the meaning of "a small round window in a classical pediment."

The term *design - architectural design* - appeared in 1644 from a word with the general meaning "plan, design." In the middle of the 17th century, from the long-existing English word with the meaning "*color*" (now replaced in this sense by the word color) a term was formed with the meaning "architectural coloring".

## CONCLUSION

The word *knop*, with the general meaning of "growth, bump" in 1730 acquired the specialized meaning of "a round protrusion at the end of the profile or intersection of the ribs." in 1760. The word *label*, which had the general meaning of "label, brand", in 1823 received the architectural meaning of "a teardrop over a door, window or other opening in the form of molding." The word *transition*, meaning



"transition, transition", in 1835 acquired a specialized meaning of an intermediate architectural style between earlier and later styles.

Along with the specialization of the meaning, two cases of generalization of the meaning were noted: The word *pier*, which had the meaning "bridge support", in 1666 received a wider meaning "a massive stone vertical supporting structure"; The word fanlight, which meant "a window above a door in the form of a semicircular fan", in 1886 expanded its meaning and was also used in the meaning of "a window above a door of any shape." All these terms were borrowed from Latin, Greek and French.

### **REFERENCES**

1. Nishonov P. French and uzbek terminology : Philol. Can.diss.abstract - Tashkent, 2009. - 26 p.
2. Polivanov E.D. Russian grammar in comparison with the Uzbek language. – Tashkent, 1934.–182s.
3. Paluanova H.D. Ecological terminology derivational-semantic features (Uzbek, Karakalpak, English and Russian): DSc diss. abstract - T., 2016. - 88 b.
4. Proshina A.A. Modeling a bilingual dictionary-thesaurus in economics: Abstract of the thesis. diss. philol. Sciences. - Ekaterinburg, 2008. -23 p.
5. Pisarchuk K.. Some system discrepancies between Russian and English terms and their reflection in translation. Abstract cand. of Philol. Sciences. - M., 1974. - 30 p.

## ХУДУД МАКРОИҚТИСОДИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ ПРОГНОЗ ҚИЛИШДА ARIMA МОДЕЛИ ВА СУНЪИЙ НЕЙРОН ТЎР (ANN) ВОСИТАЛАРИНИ ТАҚҚОСЛАШ

**Намазов Гафур Шокулович,**  
Термиз давлат университети,  
таянч докторант

### АННОТАЦИЯ

*Ушбу мақолада Сурхондарё вилояти ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажмини моделлаштириши ва прогнозлаш жараёни амалга оширилган. Шунингдек, ARIMA ҳамда ANN моделларини прогнозлаш самарадорлиги таққосланган. Натижада прогнозлаштиришида ARIMA бўйича энг яхши модель ARIMA (1, 0, 1)(0, 1, 0)<sup>4</sup>, ANN бўйича эса чиқши нейрони модели MLP (4-7-1) эканлиги аниқланган. Бундан ташқари, 2025 йилгача ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажми прогноз қилинган.*

**Калит сўзлар:** ЯҲМ ҳажми, ARIMA модели, ANN модели, Бокс-Женкинс усули, Акаике ахборот мезони, Шварц ахборот мезони, прогнозлаштириши.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье был проведен процесс моделирования и прогнозирования объема валового регионального продукта Сурхандарьинской области. Также сравнена эффективность прогнозирования моделей ARIMA и ANN. В результате лучшей моделью по ARIMA в прогнозировании является ARIMA (1, 0, 1)(0, 1, 0)<sup>4</sup>, а по ANN оказалось модель выходного нейрона MLP (4-7-1). Кроме того, прогнозирован объем валового регионального продукта до 2025 года.*

**Ключевые слова:** объем ВРП, модель ARIMA, модель ANN, метод Бокса-Дженкинса, информационный критерий Акаике, информационный критерий Шварца, прогнозирование.

### ABSTRACT

*In this article, the process of modeling and forecasting the volume of the gross regional product of the Surkhandarya region was carried out. The forecasting efficiency of the ARIMA and ANN models is also compared. As a result, the best ARIMA model in forecasting is ARIMA (1, 0, 1)(0, 1, 0)<sup>4</sup>, and according to ANN, the model of the output neuron MLP (4-7-1) turned out to be the best. In addition, the volume of the gross regional product is predicted until 2025.*

**Keywords:** GRP volume, ARIMA model, ANN model, Box-Jenkins method, Akaike information criterion, Schwartz information criterion, forecasting.

## **КИРИШ**

Сўнги йилларда прогнозлаш давлатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши ва келгусидаги стратегик мақсадларини режалаштириш ҳамда аҳоли фаровонлигини таъминлашга қаратилган йўлларида бирига айланди. Шунинг учун жаҳон бозори ҳолатини прогноз қилишда вақтли қаторлардан фойдаланиш прогнозлашнинг асосларидан биридир. Бироқ, вақтли қаторлар орқасида ётган қонуниятларнинг юқори ўзгарувчанлиги туфайли бундай прогнозлаш моделини ишлаб чиқиш осон иш эмас. Сўнги бир неча ўн йилликларда кўплаб тадқиқотчилар иқтисодий-ижтимоий барқарор ривожланиш фаолиятини таҳлил қилиш ва прогноз қилишнинг турли усуллари таклиф қилишди ва ишлаб чиқишди. Шулардан бири ARIMA модели кўплаб янги моделлаштириш ёндашувларини баҳолаш учун асосий восита сифатида ишлатилган (Gosasang V., Chan., W. and Kiattisin, S. 2011.)[2]. Бироқ, ARIMA умумий бир ўзгарувчи модель бўлиб, у прогноз қилинаётган вақтли қаторлар чизиқли ва стационар бўлиши тахминига асосланган ҳолда ишлаб чиқилган ҳамда Сунъий нейрон тўрлари, прогноз қилиш ва тизимни моделлаштиришда яхши маълум бўлган функция, яқин йилларда вақтли қаторини таҳлил қилиш ва прогнозлашда ўзининг катта ролини кўрсатди (J. Yao and C.L. Tan, S. Yaser and A. Atiya)[3-4], 1996. Нейрон тўрни қўллаш орқали прогноз қилишда, иқтисодий-ижтимоий ривожланиш жараёнларини прогнозини ўрганиш учун кўплаб тадқиқотлар олиб борилган бўлса-да, аммо Ўзбекистонда ҳозиргача олиб борилган жуда кўплаб тадқиқотларнинг ҳеч бирида ҳудуд ЯҲМ ҳажмини прогноз қилиш учун ANN ва ARIMA моделини қўлламаган. Хусусан, биз учта тадқиқот саволини кўтарамиз. Дастлаб, ушбу тадқиқот ARIMA ва ANN кўрсаткичлардан фойдаланган ҳолда ЯҲМ ҳажмининг кейинги йиллардаги яқин қийматини прогноз қилиш учун моделларни ишлаб чиқдик. Иккинчидан, биз ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажмининг прогноз қилинган қийматлари натижалари ва тенденцияларини кўриб чиқдик ва таққосладик. Учинчидан, биз ўртача мутлоқ фоизли хатолик (MAPE) моделларнинг аҳамиятлигини баҳолаш ва янги хулосаларни олиш учун ҳудуд ЯҲМ ҳажмини прогноз қилишда ANN ва ARIMA ёндашуви натижа ва тенденцияларини солиштириш учун фойдаландик.

## **АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ**

Бизга илгаридан маълумки, миқдорий прогнозлаш моделларини аслида икки тоифага бўлиш мумкин: вақтли қаторларга асосланган моделлар ва

сабабларга қурилган усуллар. Вақтли қаторни таҳлил қилиш олдинги маълумотларини талаб қилиб модель кўринишини аниқлашга ҳаракат қилинади ва келажакка экстраполяция қилиш, бошқача қилиб айтганда талаб қилинган олдинги маълумотлар вақт ўтиши билан такрорланадиган тажрибани намойиш этадиган прогнозни таъминлашга имкон беради[8].

Ушбу тоифаларга содда усуллар, сирғалувчи ўртача, тенденциянинг эгри чизисли таҳлили, экспоненциал текислаш ва авторегрессияга интеграцияланган сирғалувчи ўртача (ARIMA) моделлари киради.

Mitrea, C.A., Lee, C. K. M., WuZ. сирғалувчи ўртача (MA) ва авторегрессияга интеграциялашган сирғалувчи ўртача (ARIMA) модели каби турли хил прогнозлаш усулларини Нейрон тўрлари (NN) моделлари билан олдинга ўтадиган (NN) ва чизикли бўлмаган авторегрессив тармоқ сифатида солиштирди. Киришлар а nonlinear autoregressive exogenous model (NARX) экзоген киришларга эга бўлган чизикли бўлмаган авторегрессив моделдир. (NARX), натижалар шуни кўрсатдики, (NN) ёрдамида прогнозлаш яхшироқ прогнозли кўрсаткичларни тақлиф қилади [5].

Nowrouz Kohzadi, and Iebeling Kaastra(1996), 1950-1990 йиллардаги жонли қорамол ва буғдой нархлари бўйича ойлик маълумотлардан фойдаланган ҳолда нейрон тўрларни ARIMA билан таққосладилар. Нейрон тўр моделларида ARIMA моделига қараганда анча паст ўртача квадрат хатоликка эришдилар[6]. Бошқа томондан, Натижалар шуни кўрсатадики, бу кўрсаткичларни олдинги маълумотлар чиқишига асосланган анъанавий усулларга нисбатан қўллаш бир нечта афзалликларга эга. Ушбу тадқиқотда ҳудуд ЯХМ ҳажмини прогнозлашда ARIMA ва ANN моделларини қўллаб ва натижаларни таққослаб энг яхши моделни танлашга ҳаракат қилинган.

## **ТАДҚИКОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ**

**(ARIMA)-Авторегрессив интеграциялашган ўртача сирғалувчи модели:** Кузатувлар ёрдамида олинган иқтисодий вақтли қаторлар камдан-кам ҳолатларни ҳисобга олмаганда одатда стационар бўлмайди. Бундай вақтли қаторларда вақтга боғлиқ бўлган тасодифий бўлмаган таркибий қисмлар мавжуд бўлади. Агар вақтли қаторнинг тасодифий қолдиқлари стационар қаторни ташкил этса, у ҳолда вақтли қатор стационар бўлмаган қаторни ташкил этади. Бундай қаторларни тавсифлашда интеграциялашган авторегрессия ва сирғалувчи ўртача (Autoregressive Integrated Moving Average - ARIMA) модели қўлланилади[10].

ARIMA моделлари интеграциялашган вақтли қаторларни моделлаштиришга имкон беради. Агар вақтли қатор стационар бўлмаса ва унинг  $d$ -тартибли фарқлари стационар қаторни ташкил этса, у ҳолда ушбу вақтли қатор  $d$ -тартибли интеграциялашган ҳисобланади [11]. Бошқача қилиб айтганда, агар вақтли қатор стационар бўлмаса, ARIMA модел тузиш учун унинг  $d$ -тартибли (стационар бўлгунга қадар) фарқларига ўтилади.

ARIMA модели одатда  $ARIMA(p,d,q)$  каби ифодаланиб,  $p$  – авторегрессия тартибини,  $d$  – сирғалувчи ўртача тартибини ва  $d$  - фарқлар тартибини билдиради. Модел куйидаги умумий кўринишга эга:


$$\Delta^d Y_t = c + \sum_{i=1}^p \alpha_i \Delta^d Y_{t-1} + \sum_{j=1}^q \beta_j \varepsilon_{t-j} + \varepsilon_t$$

бу ерда  $c, \alpha_i, \beta_j$  – модел параметрлари,  $\Delta^d$  –  $d$  тартибли фарқлар оператори (масалан,  $\Delta^1 Y_t = Y_t - Y_{t-1}$  – биринчи тартибли фарқлар)[16].

**ANN (сунъий нейрон тўрлари) модели:** Сунъий нейрон тўрлар - бу математик моделлар, шунингдек уларнинг биологик нейрон тўрлари - тирик организмнинг асаб хўжайралари тўрлари ташкил этиш ва ишлаш тамойилига асосланган дастурий ёки аппарат таъминоти. Ҳар бир биологик нейрон махсус нерв толалари орқали қўшни нейронлардан сигнал олади. Алоҳида сунъий нейронлар ҳам бир -бирига турли йўллар билан боғланади. Бу бизга ҳар хил архитектурага, ўрганиш қоидалари ва имкониятларига эга бўлган турли хил нейрон тўрларни яратишга имкон беради [7].

ANN ёндашувининг фалсафаси биологик асаб тизимидан илҳомланган архитектурани ривожлантиришдир. Нейрон тўрларнинг асосий афзаллиги уларнинг чизиқли бўлмаган моделлаштиришнинг мослашувчан қобилиятидир[14].

Биз олдинга йўналтирилган орқага тарқаладиган нейрон тўридан фойдаландик (бошқача қилиб айтганда, (MLP)-*Multilayer perceptron*- *Кўп қатламли перцептрон* тўри сифатида ҳам танилган) нейрон тўр модели. Нейрон тўр модели уч қисмдан иборат кириш қатлам, яширин қатлам, чиқиш қатлами 1-расмда келтирилган ҳамда ҳар бир кириш тегишли  $w$ -вазн билан ўлчанади. Кириш билан вазн йиғиндиси ва биас  $f(x)$  фаоллаштириш функциясига киришни ташкил қилади(1-расм).



**1-расм. Одатдаги орқага тарқаладиган нейрон тўри**

MLP тармоғида икки босқич кўриб чиқилади: ишга тушириш босқичи, бунда кириш намунаси ўқитилган тўрга тақдим этилади ва натижага эришилгунга қадар нейронларнинг кетма-кет қатламлари орқали ўқитилади. Тўр вазнлари ёки параметрлари ўқитиш деб номланувчи ва хатоликни минималлаштириш учун керак. Шунинг учун MLP тармоғини ўрганиш назорат қилинади. Ушбу тадқиқотда биз қуйидаги уч қатламли қайта алоқа тўрларидан фойдаланамиз:

$$F = F\{\beta_0 + \sum_{j=1}^j \beta_j G[\sum_{k=1}^k \gamma k_t X_j]\} \quad (2)$$

Бу эрда  $F$  - чиқиш қатлами бирлигининг чиқиш функцияси,  $\beta_0$  - биас бирлиги (1 га тенг),  $G$  - яширин қатлам бирликларининг чиқиш функцияси  $j$ ,  $\gamma k_t$  -  $k$  киришни яширин  $j$  билан боғлайдиган уланиш учун вазни билдиради,  $\beta_j$  - чиқиш қатлами бирлигидаги яширин қатламлардан чиқишлар вазни,  $X$  - кириш вектори. MLP тўрлари одатда статик орқага ўқитиш билан ўқитилган ва олдинга йўналтирилган қатламли тўрлардир.

**Масаланинг қўйилиши:** Маълумотларни қайта ишлаш “Statistica 10” статистик таҳлил дастурий воситаси ёрдамида амалга оширилди. Одатда, ARIMA ва ANN моделлари ишлашини баҳолаш учун статистик тест ўтказилади. Бу тест ўртача мутлоқ фоизли хатолик (MAPE). Ушбу мезон Қуйидаги ифода MAPEни ҳисоблаш жараёнини кўрсатади.

$$MAPE = \frac{1}{n} \sum_{t=1}^n \left| \frac{Y_t - \hat{Y}_t}{Y_t} \right| \cdot 100\% \quad (3)$$

Бу ерда:

$n$  – кузатувлар сони, кузатилган  $Y_t$  - ҳақиқий кўрсаткичлар,  $\hat{Y}_t$  - прогноз кўрсаткичлар

## ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Бугунги кунда ЯХМ Сурхондарё вилояти иқтисодиётининг энг муҳим кўрсаткичларидан бири ҳисобланади. Статистик маълумотларга кўра, 2021 йилда Сурхондарё вилояти бўйича ЯХМ ҳажми жорий нархларда 30090,5 млрд. сўмни ташкил этди ва 2020 йил билан таққослаганда 7,8 % га ўсди. ЯХМ дефлятор индекси 2020 йилдаги нархларга нисбатан 112,7 % ни ташкил қилди.


1-жадвалда Сурхондарё вилояти бўйича 2012 йил 3-чоракдан 2021 йил 4-чораккача оралиғидаги ЯХМ ҳажми ( $Y_t$ ) (млрд. сўм) берилган.

1-жадвал

### Сурхондарё вилояти бўйича 2012 йил 3-чоракдан 2021 йил 4-чораккача оралиғидаги ЯХМ ҳажми (млрд. сўм)

	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
1-chorak	-	649,3 3	832,2 1	1013, 91	1407, 35	1746, 2	2245, 1	3092, 1	4078	4390, 9
2-chorak	-	1130, 37	1414, 82	1673, 36	2214, 73	2954, 9	3971, 8	7009, 2	7303, 3	9139, 6
3-chorak	944, 5	1561, 17	1894, 64	2237, 47	2743, 34	2784, 3	3426, 7	5940, 6	5741, 3	7904, 3
4-chorak	1316 ,68	1534, 49	1935, 3	2238, 71	2807, 12	6216, 8	7418, 3	6307, 4	6881, 0	8655, 7


1-жадвалдаги маълумотлар Сурхондарё вилояти Статистика бошқармасининг расмий сайтидан олинди [17]. Сайтдаги ўсиб борувчи якун билан эълон қилинган қийматлардан ҳар бир чорак қийматлари ҳисоблаб олинди. Унинг динамикаси 2-расмда берилган.



## 2-расм. Сурхондарё вилояти ЯХМ ҳажми 2012-2021 йилларда ўсиш динамикаси

### ARIMA модели

ARIMAда моделни идентификациялаш ACF ва PACF чизмалари ёрдамида моделни баҳолашдан олдин қатор учун  $p$ ,  $d$  ва  $q$  қийматларини аниқлаш амалга оширилади.



## 3-расм. Вақтли қаторнинг биринчи фарқлари бўйича автокорреляция ва хусусий автокорреляция функциялари коррелограммаси

Юқоридаги расм (3-расм) да устунлар билан автокорреляция ва хусусий автокорреляция коэффицентлари ва горизонтал чизиклар билан 95% ишонч интервали чегаралари кўрсатилган. Ундан кўриниб турибдики, автокорреляция функциясининг коэффицентлари синусоида кўринишида аста-секин нолга яқинлашмоқда ва хусусий автокорреляция функцияси чизмасида биринчи аҳамиятли коэффицентдан сўнг бирдан аҳамиятсиз лаг келган, яъни узилиш мавжуд. Бу ARIMA моделда  $p=1$  ва  $q=1$  тартибга далолат қилади. Бундан ташқари вақтли қатор чизмаси(1-расм)дан кўриниб турибдики, унда 4 чораклик мавсумийлик мавжуд. Демак, коррелограмма авторегрессия жараёни учун хос бўлиб, вақтли қаторда мавсумийлик мавжудлигини ҳисобга олиш зарур. Бундан ташқари вақтли қаторнинг биринчи тартибли фарқлари стационар эканлиги унинг биринчи тартибли интеграциялашганлигини, яъни  $d=1$  эканлигини билдиради.

Юқоридагиларни келиб чиқиб қуйидаги моделларни синовдан ўтказиш мақсадга мувофиқ:

ARIMA (1,0,1); ARIMA (1,0,1)(1,0,0)4; ARIMA (1,0,1)(0,1,0)4;

ARIMA (1,0,1)(2,0,0)4; ARIMA (1,0,1)(2,1,0)4; ARIMA (1,0,1)(3,0,0)4



**Модель параметрларини баҳолаш ва унинг адекватлигини текшириш.**

Одатда бир неча моделларни бир-бирига таққослашда куйидаги ахборот мезонларидан фойдаланилади.

1. Акаик мезони (Akaike information criterion, AIC):

$$AIC = \frac{k + m}{n} + \ln \left( \frac{\sum_{t=1}^n e_t^2}{n} \right) \quad (4)$$

2. Шварц мезони (Swarz information criterion, SIC):

$$SIC = \frac{(p + q) \ln n}{n} + \ln \left( \frac{\sum_{t=1}^n e_t^2}{n} \right) \quad (5)$$

бу ерда  $k$  – баҳоланадиган параметрлар сони.

AIC ва SIC ахборот мезонлари Boks ва Jenkins моделининг мослиги сифатини аниқлашда фойдаланилади. AIC ва SIC қиймати энг кичик бўлган модель танлаб олинади.

ARIMA(1,0,1)(3,0,0)<sub>4</sub> моделининг AIC ва SIC мезонлари (AIC=644,95 SIC=654,77) ҳамда детерминация коэффиценти  $R^2=0.88$  параметрлари аҳамиятлидир. Шу ҳисобдан энг мақбул модель шакли деб танланса бўларди. Бирок, ARIMA(1,0,1)(0,1,0)<sub>4</sub> моделининг детерминация коэффиценти  $R^2=0.86$ , бўлсада AIC ва SIC мезонлари энг кичик (AIC=568,11 SIC=572,69) ни ташкил этмоқда. ҳақиқий қийматлардан четланишини тавсифловчи кўрсаткичлардан бири ўртача мутлоқ фоизли хатолик (аппроксимация хатолиги коэффиценти) бўлиб, юқоридаги (3) формула орқали ҳисобланади.

Ўртача мутлоқ фоизли хатолик 10% гача бўлса, модель юқори аниқликка 10% дан 20% гача ўртача 20% дан 100% гача ёмон ҳисобланади.

Баҳолаш натижалари шуни кўрсатмоқдаки, ARIMA(1,0,1)(3,0,0)<sub>4</sub> модели бўйича MAPE=14,22%, ARIMA(1,0,1)(0,1,0)<sub>4</sub> модели бўйича MAPE= 11,42%, Демак, энг кичик кўрсаткич ARIMA(1,0,1)(0,1,0)<sub>4</sub> моделга тегишли (MAPE=11,42%) бўлиб, вақтли қатор учун энг мақбул модель шаклидан далолат бермоқда. Таҳлил натижалари шуни кўрсатмоқдаки, вақтли қатор учун ARIMA(1,0,1)(0,1,0)<sub>4</sub> модель шакли адекват ҳисобланиб, прогнозлашда ушбу модель шаклидан фойдаланиш мумкинлигини билдиради.

$$\Delta Y_{aIM} = -0.33 * Y_{aIM}_{t-1} - 0.84 * \varepsilon_{t-1}$$

Бу ерда: ЯХМ – Сурхондарё вилояти ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажми. ЯХМ ҳажмининг ўзгармас нархлардаги қиймати(2012 йил нархларида) прогнозлаш. Прогноз натижалари 4-расмда келтирилган.

Прогнозы: Модель:(1,0,1)(0,1,0) Сезонный лаг: 4 (Таблица данных1)				
Исход.:YAIM				
Начало исходных: 1 Конец исходн.: 38				
Набл. N	Прогноз	Нижний 95,00000%	Верхний 95,00000%	Ст.ошиб.
39	5888,57	3884,826	7892,32	983,707
40	10637,27	8513,590	12760,95	1042,587
41	9401,97	7164,775	11639,17	1098,315
42	10153,37	7808,148	12498,59	1151,349
43	7386,24	3804,389	10968,09	1758,453
44	12134,94	8286,596	15983,28	1889,283
45	10899,64	6802,098	14997,18	2011,622
46	11651,04	7318,611	15983,46	2126,936
47	8883,91	3369,911	14397,90	2707,009
48	13632,61	7728,425	19536,79	2898,564
49	12397,31	6127,174	18667,44	3078,221
50	13148,70	6532,834	19764,57	3247,956

**4-расм. прогноз жадвали ва графиги**

**ANN модели**

Таҳлил учун дастлабки маълумотлардан фойдаланиб модель ишлаб чиқишда нейрон тўрнинг вақтли қатор учун авторегрессия қисмидан фойдаланилди. Ўқитишни 80%, текширишни 20% воизда созлаганимизда MLP тўрининг яширин нейронлари минимал қиймати 2 та деб, максимал қиймати эса 8 та ва итерациялар сони 100 та деб олинган.

3-жадвал


**Энг яхши 5та модель архитектураси жадвали**

Архит ектура	Прои зводи тельн ость обуч.	Конт р. произ водит ельно сть.	Оши бка обуч ения	Кон трол ьная оши бка	Алго ритм обуч ения	Функц ия ошибк и	Ф-я актив. скрытых нейр.	Ф-я актив. выходн ых нейр.
MLP 4-6-1	0,977 392	0,996 533	5248 5,71	3669 0,08	BFG S 98	Сум. квадр.	Логистич еская	Тождес твенная
MLP 4-6-1	0,972 248	0,996 910	7868 8,65	4352 1,87	BFG S 79	Сум. квадр.	Логистич еская	Тождес твенная
MLP 4-7-1	0,970 641	0,998 841	8566 7,30	6629 ,36	BFG S 63	Сум. квадр.	Логистич еская	Тождес твенная
MLP 4-8-1	0,977 224	0,997 976	5356 1,15	1195 3,09	BFG S 96	Сум. квадр.	Логистич еская	Тождес твенная
MLP 4-2-1	0,969 353	0,996 621	9198 6,82	2828 8,50	BFG S 54	Сум. квадр.	Гипербо лическая	Тождес твенная

Яширин нейронлар учун фаоллаштириш функцияларини: айнан бир хил(тождественная), сигмоид(сигмоид) ва гиперболик (гиперболическая), чиқиш нейронлари учун ҳам айнан бир хил(тождественная) вариант танланган.

Дастур мазкур моделдан ўқув жараёнида 50 та тармоқ натижасидан 5 та энг яхшисини танлаб беради (3 –жадвал).

Энг яхши моделни танлаш учун олинган маълумотларни таҳлил қилинганда, ҳар бир модель: ишлаш ва хато, тармоқ проэкцияси графиги, қолдиқ тақсимлаш гистограммаси, қолдиқ тарқалиш каби параметрлар бўйича таққосланади [13].



**5-расм. ANN(4-7-1) модели архитектураси нейрон тугунларининг бўғланган вазн ва биас қийматлари**

Масалан, 3-моделда ўқитиш унумдорлиги 0,970 ни, назорат хатолиги 6629,36 ни, яширин қатлам фаоллаштириш функцияси сигмоид(сигмоид), чиқиш қатлам фаоллаштириш функцияси бир хил(тождественная), MLP архитектураси 4 та кириш, 7 та яширин нейрон ва 1 та чиқиш қатлами мавжуд[13]. ANN(4-7-1) модели архитектураси бўйича ҳар бир кириш қатламдан яширин қатлам нейрон тугунига ва яширин қатлам тугунидан чиқиш қатламга бўғланган вазн ва биас қийматлари куйидаги расмда келтирилган(5-расм).

Яна шуни қўшимча қилиш мумкинки. MLP(4-7-1) модель математик кўриниши, яширин қатламдаги фаоллаштириш функцияси сигмоид (сигмасимон)

$$\delta(z) = \frac{1}{1+e^{-z}} \quad (6)$$

$$z_1 = \delta(2.63281 \cdot x_1 + 4.72806 \cdot x_2 + 2.33572 \cdot x_3 - 2.79531 \cdot x_4 + 0.51788)$$

$$z_2 = \delta(0.59095 \cdot x_1 + 0.27349 \cdot x_2 - 3.69938 \cdot x_3 + 4.70886 \cdot x_4 + 1.04368)$$

$$z_3 = \delta(-1.60202 \cdot x_1 - 0.86283 \cdot x_2 + 0.27044 \cdot x_3 - 4.87033 \cdot x_4 - 0.07444)$$

$$z_4 = \delta(4.38949 \cdot x_1 + 1.15442 \cdot x_2 + 1.09637 \cdot x_3 + 0.40123 \cdot x_4 - 1.96831)$$

$$z_5 = \delta(3.54983 \cdot x_1 - 0.96992 \cdot x_2 + 2.20695 \cdot x_3 - 1.8161 \cdot x_4 - 0.19944)$$

$$z_6 = \delta(0.45864 \cdot x_1 + 0.18114 \cdot x_2 - 2.55381 \cdot x_3 - 2.05976 \cdot x_4 - 0.46684)$$

$$z_7 = \delta(-3.24651 \cdot x_1 + 1.81954 \cdot x_2 + 3.79066 \cdot x_3 + 5.23246 \cdot x_4 - 2.8971)$$

Чиқиш қатламдаги фаоллаштириш функцияси Тождественная (bir xil)


$$\vartheta(x) = x \quad (7)$$

$$\hat{y} = (-0.02633 \cdot z_1 + 1.36195 \cdot z_2 - 0.08795 \cdot z_3 + 1.49269 \cdot z_4 + 0.15402 \cdot z_5 + 0.49152 \cdot z_6 + 1.57267 \cdot z_7 - 1.48948)$$

прогнозлашда ушбу модель шаклидан фойдаланиш мумкинлигини билдиради.

Кейинчалик эса, ҳар бир модель қолдиқларининг тақсимланиш гистограммасини солиштирилади. 6-расмда 1 та тўр қолдиқларининг тақсимланиш графиги кўрсатилган.

Моделнинг яхши тақсимланиш кўрсаткичи - бу қолдиқларнинг нормал тақсимланишининг тахминий кўриниши. 6-расмдан кўриниб турибдики, бу модель нормал тақсимотга эга. Барча бешта тўрни солиштирганда, учинчи тармоқ юқори сифатга эга.



**6-Расм. MLP 4-7-1 тўри қолдиқларининг тақсимланиш гистограммасива диаграммаси**

6-расмда MLP 4-7-1 тўрининг қолдиқлари бир тўғри чизик атропоида тарқоқ ҳолда тарқалиши кўрсатилган. Ҳамма нуқталар тўғри чизикқа тушганда, улар яхши модель сифати ҳақида маълумот беради.

Барча параметрлар бойича MLP 4-7-1 модели кейинги прогноз қилиш учун энг яхшиси дейиш мумкин. Мазкур модель учун детерминация коэффициенти  $R^2=0,97$ га, MAPE- 7,93% хатолик жуда мақбул натижадир.

**ARIMA ва ANN прогнозлаш кўрсаткичларини таққослаш:**

ARIMA va ANN modellарини таққослаш ҳақиқий кўрсаткич ва ушбу моделлар ёрдамида олинган прогнозлар ўртасидаги хатоликларни ҳисоблаш орқали баҳоланди. Кўпгина тадқиқотларда ANN моделлари ARIMA моделларига қараганда прогнозлашда яхшироқ натижа беришлиги ҳақида маълумотлар берилган ва ушбу мақолада юқоридаги фикр ўз тасдиғини топди(4-жадвал).

4-жадвал:

**Энг яхши ARIMA ва ANN модели ўртасидаги таққослаш жадвали**

№	Model turi	MAPE
1	Arima (1, 0, 1)(0, 1, 0) <sub>4</sub>	11,42
2	ANN (4-7-1)	7,93

Шу билан бир қаторда ARIMA ва ANN моделлари натижаларига назар соладиган бўлсак қуйидагича кўринишни кўришимиз мумкин(5-жадвал).

5-жадвал

**Arima ва ANN моделларининг жадвали**

давр	Факт	ANN	ARIMA	давр	Факт	ANN	ARIMA
2019 1-чорак	3092,10 0	3084,9 7	3005,71	2022 1-чорак	-	5126,51	5888,57
2019 2-чорак	7009,20 0	5407,9 2	4734,77	2022 2-чорак	-	10628,5 4	10637,2 7
2019 3-чорак	5940,60 0	5875,3 4	4464,74	2022 3-чорак	-	9544,70	9401,97
2019 4-чорак	6307,40 0	6421,6 3	8628,38	2022 4-чорак	-	10247,1 1	10153,3 7
2020 1-чорак	4078,00 0	4002,5 3	3999,06	2023 1-чорак	-	6096,69	7386,24
2020 2-чорак	7303,30 0	8308,3 7	7915,64	2023 2-чорак	-	12196,3 5	12134,9 4
2020 3-чорак	5741,30 0	5795,1 0	6760,37	2023 3-чорак	-	10650,7 1	10899,6 4
2020 4-чорак	6881,00 0	7246,6 2	6990,82	2023 4-чорак	-	11434,7 6	11651,0 4
2021 1-	4390,90	4379,0	4739,94	2024 1-	-	6890,53	8883,91

<b>чорак</b>	0	5		<b>чорак</b>			
<b>2021 2-чорак</b>	9139,60	8499,0	7914,21	<b>2024 2-чорак</b>	-	13080,8	13632,6
	0	8				0	1
<b>2021 3-чорак</b>	7904,30	8006,7	6497,97	<b>2024 3-чорак</b>	-	11087,5	12397,3
	0	8				6	1
<b>2021 4-чорак</b>	8655,70	8475,7	7804,31	<b>2024 4-чорак</b>	-	11832,2	13148,7
	0	9				1	0

Юқоридаги жадвалдан кўришиб турибдики, 2022-2024 йиллар давомида ЯХМ ҳажмида ўсиш тенденциясини кўриш мумкин. Умуман, прогнозлаш натижаларига кўра ANN(4-7-1) моделига кўра прогноз натижаси 2024 йилга келиб ЯХМ ҳажми 42891,09 млрд. сўмни, ARIMA(1, 0, 1)(0, 1, 0)<sup>4</sup> моделига кўра эса 48062,52 млрд. сўмни ташкил этиши кутилмоқда. Бу эса 2021 йилга нисбатан 2024 йил ANN моделда 1,43 фоизга, ARIMA модель 1,60 фоизга ошишини кўриш мумкин.

#### **ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР**

Ушбу тадқиқот ARIMA ва ANN моделларининг прогнозлаш самарадорлигини таққосланган. ANN бўйича прогноз қилиш учун энг мос модель MLP (4-7-1) чиқиш нейрони, ARIMA бўйича эса энг яхши модель ARIMA (1, 0, 1)(0, 1, 0)<sup>4</sup> эканлиги аниқланди. MLP(4-7-1) моделига кўра, 2024 йилга келиб ЯХМ ҳажми 42891,09 млрд. сўмни, ARIMA(1, 0, 1)(0, 1, 0)<sup>4</sup> модели бўйича эса 48062,52 млрд. сўмни ташкил этиши кутилмоқда. Яни вилоят ЯХМ ҳажми 2024 йил 2021 йилга нисбатан ANN моделда 1,43 фоизга, ARIMA моделда эса 1,60 га ошишини кўриш мумкин. Бу ўз навбатида 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг 33-мақсадида белгиланган ҳудудларни мутаносиб ривожлантириш орқали ҳудудий иқтисодиётни 1,4-1,6 бараварга ошириш вазифасига мос келади[15].

Шундай қилиб, тадқиқот ANN модели ЯХМ ҳажмини прогноз қилиш учун кўпроқ мос келади деган хулосага келди.

#### **REFERENCES**

1. Балдин К.В. Эконометрика: Учебное пособие / Балдин К.В., Быстров
2. Gosasang, V., Chan., W. and KIATTISIN, S. 2011. A Comparison of Traditional and Neural Networks Forecasting Techniques for Container Throughput at Bangkok Port. The Asian Journal of Shipping and Logistics, Vol. 27, N° 3, pp. 463-482.

3. J. Yao and C.L. Tan, (2000) “A case study on using neural networks to perform technical forecasting of forex,” *Neurocomputing*, vol.34, pp. 79-98,
4. S. Yaser and A. Atiya, (1996) “Introduction to Financial Forecasting”, *Applied Intelligence*, vol. 6, pp 205-213.
5. Mitrea, C.A., Lee, C. K. M., WuZ. 2009. A Comparison between Neural Networks and Traditional Forecasting Methods: A Case Study”. *International Journal of Engineering Business Management*, Vol. 1, No. 2, p 1924.
6. NowrouzKohzadi, Milton S. Boyd, BahmanKermanshahi, and IeblingKaastra(1996), “A comparison of Artificial neural network and time series models for forecasting commodity prices”, *Neurocomputing*,pp. 10(2):169 181.
7. Боровиков В.П. Нейронные сети Statistica Neural Networks Методология и технологии современного анализа данных: “горячая линия –Телеком”, 2008 г. С. 392.
8. Елисеева И.И. Эконометрика: учебник / Под ред. Елисеевой И.И. - М. : Проспект, 2010. - 345с.
9. Григорьева Д.Р., Файзуллина А.Г. Анализ и прогнозирование экономического показателя объем продаж предприятия в системе Statistica (англ.яз) / Международный научный конгресс “Фундаментальные и прикладные научные исследования в странах Тихоокеанского и Атлантического бассейнов”.- Токио: Tokyo University Press, 2014.- №2 - С.284287.
10. Е.И.Кулинич. Эконометрия / Е. И. Кулинич. — М.: Финансы и статистика, 2010. — 304 с
11. О.А.Заяц (2009). Прогнозирование объемов производства молока на основе сезонной ARIMA-модели. – М.: Фундаментальные исследования, №6 - 61-66 с.
12. Namazov G.Sh. “Analysis of approaches for modeling and forecasting the socio-economic development of the region”. *Journal of innovations in economy*. 2021. Vol. 4, Issue 6. pp. 12-17 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9491-2021-6-2>
13. Хотамов О.К., Намазов Г.Ш. “Прогноз муаммоларини ҳал қилишда нейрон тўр моделларини қўллаш” Иқтисодиёт ва таълим журнали №5. 2020. – 4-12.
14. Отажанов У.А. Замонавий иқтисодий масалаларни ҳал қилишда сунъий интеллектни қўллаш//“Ўзбекистонда инновацион менежмент стратегияларини амалга ошириш тажрибаси” мавзусидаги республика илмий-амалий

---

конференцияси илмий мақола ва тезислар тўплами (2018 йил 9 октябрь). – Т.: ТДИУ, 2018.– 275-277 бб

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”

16. [ru.wikipedia.org](https://ru.wikipedia.org) (2021) - свободная энциклопедия. - <https://u.to/JkNiGw>

17. [www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz) (2021) - Surxondaryo viloyati Statistika boshqatmasi sayti ma’lumotlari.



## FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

**Kudratova A.I.**

Samarqand VXTXQTMOHM

katta o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Maqolada "ta'lim sifati" tushunchasi tahlil etilib, unga berilgan ta'riflar keltirilgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o'tkazib kelinayotgan, 15 yoshli o'quvchilarning funksional savodxonligini baholashga qaratilgan PISA xalqaro dasturining ta'lim sifatiga ta'siri qaralgan.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim, sifat, ta'lim sifati, funksional savodxonlik, PISA xalqaro baholash tadqiqoti.

### АННОТАЦИЯ

*В статье анализируется понятие «качество образования» и даются его определения. Также рассматривается влияние на качество образования Исследований международной программы PISA которая оценивает функциональную грамотность школьников в разных странах мира и умение применять знания на практике.*

**Ключевые слова:** образование, качество, качество образования, функциональная грамотность, международная программа по оценке образовательных достижений учащихся PISA.

### ABSTRACT

*The article analyzes the concept of "quality of education" and gives its definitions. It also examines the impact on the quality of education of the Research of the international PISA program, which assesses the functional literacy of schoolchildren in different countries of the world and the ability to apply knowledge in practice.*

**Keywords:** education, quality, quality of education, functional literacy, international program for assessing the educational achievements of students PISA.

### KIRISH

Bugun funksional savodxonlik, kasbiy kompetentlik tushunchasi ta'lim sifati tushunchasi bilan birgalikda qaraladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun dunyo bo'ylab «Sifat inqilobi» yuzaga keldi. Dunyoning yetakchi ishlab chiqarish korxonalarini asosiy e'tiborni son va miqdorga emas, balki mahsulot sifatiga qarata boshlashdi. Sifat raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'la boshladi.

Sifatga e'tibor va uning rivojlanish bosqichlarini mantiqan quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

1. XX asrning 60-yillari - bozor raqobatbardoshligi sharoitida asosiy omil - mahsulot sifati.
2. XX asrning 70-yillari – mahsulot sifatidan shlab chiqarish texnologiyasi sifatiga o'tish bosqichi.
3. XX asrning 80-yillari- sifatni boshqarish tizimi bosqichiga o'tish davri.
4. XX asrning 90-yillaridan boshlab ta'lim sifati, intellektual resurslar sifati, inson hayoti sifati - asosiy omil sifatida namoyon bo'la boshladi.

### **ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR**

Sifat - umumiy tushuncha sifatida insonlarning ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan asoslanuvchi mahsulot, material, ish turi, mehnat, xizmatlar va shu kabilarning xususiyatlari hamda xususiy belgilarining majmui bo'lib, ularni qo'yilgan talablar va o'z vazifalariga to'liq mos kelishi bilan baholanadi. Bunday moslik asosan standartlar, shartnomalar, kelishuvlar, iste'molchilarning talablari bilan aniqlanadi.

O.D.Raximov "Ta'lim sifati – hayot sifati" nomli monografiyasida ta'lim sifati va uni baholash mezonlari, ta'lim standartlari, chet el va O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati va uni baholash tizimi, oliy ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalash tizimlari, ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya hamda innovasion pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish usullarini keltirgan. Olim sifat tushunchasini a) eng yuqori ko'rsatkich sifatida; b) maqsadga to'liq erishilgan faoliyat shaklida; s) yaxshilangan va takomillashtirilgan faoliyat shaklida qaragan hamda ta'lim sifatini aniqlashda sifat ko'rsatkichlarini quyidagi guruhlariga ajratgan;

- professor-o'qituvchilar tarkibi sifati;
- o'quv yurtining material-texnik bazasi;
- o'qituvchilar tarkibining asoslanganligi;
- o'quv dasturlarining sifati;
- talabalar sifati;
- infratuzilma sifati;
- bilim sifati;
- rahbariyatning innovatsiya faolligi;
- innovasion jarayonlarni tadbiq etilishi;
- bitiruvchilarga talab;
- bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi;

- bitiruvchilarning yutuqlari.

## **MUXOKAMA VA NATIJALAR**

Ta'lim sifati – bu butun ta'lim tizimiga nisbatan o'rnatilgan talablarning bajarilishini ta'minlash orqali samarali natijalarga erishishdir. Ta'lim sohasida sifatni nisbiy tushuncha tarzida uning ta'lim standartlariga yoki tasniflarga hamda iste'molchi talablariga moslik darajasi deb qarashimiz mumkin va yuqoridagi ikki jihatning uyg'unlashuvi samarali hisoblanadi.

Sh.E.Qurbonov, E.A.Seytxalilov "Ta'lim sifatini boshqarish" kitobida ta'lim sifatini boshqarishning kompleks tizimini ishlab chiqqanlar:

- uzluksiz ta'lim tizimini boshqarishning har bir darajasida va ta'limning har bir bosqichida hayotga tadbiq etilsa;

- ta'lim jarayoni va boshqaruv jarayonining barcha sub'ektlari zarur malakaga ega bo'lib, o'z faoliyatining va ta'lim sifatining samaradorligini oshirishdan manfaatdor bo'lsa;

- o'quvchi shaxsini rivojlantirish darajasini baholashga qaratilgan bo'lsa;

- o'quv-tarbiya jarayoni DTS talablari asosida tashkil qilingan, reja va topshiriqlar ushbu talablarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lsa;

- ta'lim sifatini monitoring qilish va baholashning turli usul va vositalaridan foydalanilsa;

- o'qituvchilar jamoasining pedagogik mohorati va malakasi, ayniqsa, ta'lim sifatini turli metodlar bilan, shu jumladan o'quvchilarning rivojlanish darajasini, ularning bilim, malaka va ko'nikmalarini reyting tizimi asosida baholashni nazorat qilish bilan bog'liq holatda muntazam oshirib borilsa;

- ta'lim sifatini baholashning darajasini tavsiflab beruvchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan o'lchovlar majmui amal qilsa ta'lim sifatini boshqarish tizimi majmui samarali bo'lishi nazarda tutiladi.

Ta'lim jarayoni sifatini uch asosiy jihatlarini alohida qayd etadi. Birinchidan, bilimlar va ko'nikmalar sifatidagi asosiy xususiyatlar; ikkinchidan, o'quv yurtlari tomonidan taqdim etilayotgan kafolatlar; uchinchidan, OTMning obro'si, nufuzi, o'qituvchilar va ta'lim olayotganlarning kommunikativ layoqati va boshqa xususiyatlar tegishlidir.

V.A.Novikov, D.N.Maslov ishlarida ta'lim sifatini jamiyat iqtisodiy barqarorligi bilan bog'laydilar va bir-birini to'ldiruvchisi sifatida qaraydilar.

Ta'lim sifati – ijtimoiy kategoriya hisoblanib, jamiyatda ta'lim jarayonining holati va natijasini hamda shaxsning kasbiy, maishiy va fuqarolik kompetentligini

shakllanishi va rivojlanishini jamiyat talabi va ehtiyojiga mos kelishini aniqlaydi. Ta'lim sifati ta'lim muassasasining o'quv-tarbiyaviy faoliyatini turli qirralarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar majmui orqali baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlarga ta'lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim mazmuni, o'qitish shakli va uslublari, material-texnik baza, xodimlar tarkibi kabilar kiradi.

Ta'lim sifati - inson hayot faoliyati sifatini oshirish va aniq maqsadga erishishda foydalanish uchun zarur bo'ladigan, aniq sharoitlarda talab etilib olingan bilimlar majmuidir.

Shuni aytishimiz mumkinki, ta'lim sifati ta'limning barcha komponentlariga bog'liq bo'lgan, doimiy rivojlanishni talab etadigan, milliy qadriyatlarimiz bilan uyg'unlashgan, bitiruvchilarida shaklangan hayotiy ko'nikmalar va ularning erishgan yutuqlari asosida belgilanadigan ko'rsatkich desak bo'ladi.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatish bo'yicha ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi. Bundan ta'lim bo'yicha qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari natijalari ham dalolat bermoqda. Shu o'rinda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ning 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA - o'quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi tadqiqotlarini qarashimiz mumkin.

PISA dasturida «baholash» o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini, ya'ni maktab dasturi doirasida olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish darajasini aniqlashga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida o'quvchidan funksional savodxonlikni talab etadi.




**1.3.1-rasm. PISA dasturida baholash mezoni**

Baholash - bu nimanidir sifati yoki darajasini aniqlashtirish. Baholash deb, haqiqiy natijalarning rejalashtirilgan natijalar bilan o‘zaro bog‘liqlik jarayonni sifatida ham tahlil qilishimiz mumkin. Ushbu jarayon ma’lum bir maqsadni ko‘zlab o‘tkaziladi.

K.Jalilov o‘zining “Baholash nazariyasi asoslari” monografiyasida baholash jarayonning maqsadidan kelib chiqqan holda xulosalovchi baholash va shakllantiruvchi baholash turlariga ajratgan va quyidagi jadvalda ifodalagan:

### **Baholash jarayoni maqsadlari**



Ta’limda baho ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talaba), ta’lim beruvchi (pedagog xodim, ta’lim mussasasi), ta’lim tizimiga beriladi va ta’lim mussasasi yoki ta’lim sifatini nazorat qiluvchi davlat yoki nodavlat tashkilotlari tomonidan o‘tkaziladi.

Baholash – bu baholanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, kompetensiyalar majmuyi va o‘lchanishi lozim bo‘lgan xususiyat haqida xulosa chiqarish bo‘lib, bu xulosa bilvosita, cheklangan sondagi maxsus yaratilgan topshiriqlar yordamida chiqariladi. Baholash jarayonida qo‘llaniladigan topshiriqlar yig‘indisi test deyiladi. Test bir yoki bir nechta test topshiriqlaridan iborat bo‘lishi mumkin.


Testologiya XIX asrning ikkinchi yarmida odamlarni jismoniy, fiziologik va psixologik rivojlanishi va farqlanishini o‘rganish jarayonida shakllangan bo‘lib, ilmiy eksperiment xarakteriga ega bo‘lsa, XX asrning 10-20 yillar oralig‘ida ommaviy amaliyot jarayoniga aylangan.

AQSh da 1926 yilda Kollejlar kengashi pedagoglar faoliyatini baholash uchun SAT testlarini qabul qildi, 1947 yilda Ta’limda test xizmati (Educational Testing Service) ilmiy-tadqiqot markazi ochildi va 1961 yilga kelib faqat AQShning o‘zida 2126 ta standartlashtirilgan testlar ishlab chiqildi.

Tarqqiyotning jadallashuvi hamda yangi sohalarining kashf etilishi natijasida 90-yillarga kelib, jamiyatda “funktional savodxonlik” tushunchasi shakllandi va uni baholash markazlari tashkil etildi.

Xalqaro miqyosda o'quvchilar funksional savodxonlikni baholashga qaratilgan PISA tadqiqot dasturida asosiy yo'nalishlar sifatida o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tibiiy fanlar savodxonligi kiritilgan.

Shuni ayta olamiz-ki, PISA tadqiqotlaridagi matematik savodxonlik topshiriqlari darajalariga qo'yilgan talablar Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan (savol va topshiriqlar tizimi - bilish faoliyati darajalariga asoslangan) o'quv maqsadlari taksonomiyasiga mos kelishini kuzatish mumkin.



**1.3.2-rasm. B.Blumning o'quv maqsadlari taksonomiyasi.**

Blum taksonomiyasiga ko'ra, tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Bu yerda, bilish, tushunish, qo'llash tafakkurning quyi darajasi bo'lib, fundamental bilimlarni tashkil etadi, tahlil, umumlashtirish, baholash tafakkurning yuqori darajasi bo'lib, funksional savodxonlikni tashkil etadi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Funksional savodxonlik fanlar integratsiyasini talab etadi va o'quvchilarga maktab dasturini ongli tarzda o'zlashtirish, hodisa va jarayonlar o'rtasida qo'llash, munosabatlarni anglash imkonini beradi. Bunda matematika, fizika, kimyo, biologiya, ekologiya fanlaridan faktlarni, nazariyalarni, qonuniyatlarni mazmunli anglash, aniqlashtirish va chuqurlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Bu esa bevosita ta'lim sifatiga ta'sir etadi.

---

## REFERENCES

1. Рахимов О.Д. Та'лим сифати ва ҳаёт сифати. //О'қув услубий қо'лланма, 2015у.
2. Қурбонов Ш.Э., Сейтхалилов Э.А. Таълим сифатини бошқариш. Тошкент, 2006. 14-15б.
3. Маслова Ю.А. // От качества образования к качеству жизни. Высшее образование в России № 10, 2006.
4. Жалилов К. / Баҳолаш назарияси асослари. Тошкент: Академнашр, 2020.
5. Джураев А.С. Малака ошириш жараёнида тингловчиларнинг касбий малакасини ривожлантиришнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси. 2019.
6. Новиков В.А., Маслов Д.Н. Роль образования в повышении качества жизни. Текст научной статьи по специальности «Науки об образовании». 2012.

## **AXBOROTNING SHAXS, DAVLAT VA UMUMAN JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI**

**Jurakulov Jamol Komilovich**

Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

+998935916392

[jurakulovjamol904@gmail.com](mailto:jurakulovjamol904@gmail.com)

**Xidirova Shahlo Shavkatovna**

Toshkent pediatriya tibbiyot institutining tyutori

+998937477677

[shaxlo878787@mail.ru](mailto:shaxlo878787@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada axborotning davlat va jamiyat hayotida muximligi, shaxs va jamiyat hayotida axborot takomillashuvi, jamiyatda kompyuter texnologiyalari, axborotni qayta ishlash, axborot jamiyatining asosiy xususiyatlari, axborot almashinuvi haqida fikir muloxaza yuritamiz.*

**Kalit so‘zlar:** axborot, shaxs, davlat, jamiyat, axborotlashtirish, axborotlashtirish xususiyatlari, qiymat.

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье мы подробно рассмотрим важность информации в жизни государства и общества, информационное совершенствование в жизни личности и общества, компьютерные технологии в обществе, обработку информации, основные особенности информационного общества, обмен информацией.*

**Ключевые слова:** информация, личность, государство, общество, информатизация, свойства информатизации, ценность.

### **ABSTRACT**

*In the article we will discuss the autonomy of information in the life of the state and society, the improvement of information in the life of the individual and society, Computer Technology in society, information processing, the main features of Information Society, information exchange.*

**Keywords:** information, personality, State, Society, informatization, features of informatization, value.

### **KIRISH**

Hozirgi zamonda xizmatlarning katta qismi axborot texnologiyalari orqali ko‘rsatilayapti. Boshqa sohalarning ham samaradorligi shunga bog‘liq. [1. Rasmiy



veb-sayt: [www.president.uz](http://www.president.uz) Davlatimiz rahbari Mirzo-Ulug‘bek tumanida IT-park qurilishi bilan tanishdagi nutqidan 11.12.2021].

Axborot texnologiyalari sohasidagi sezilarli yutuqlar ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda “axborot jamiyati” nomining paydo bo‘lishiga olib keldi. Axborotlashtirish hayot va madaniyat sharoitlarini, madaniyatni, xulq-atvor stereotiplarini, fikrlash tizimlarini tubdan o‘zgartirib, jamiyat hayotining barcha sohalariga inqilobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Aksariyat olimlar axborot jamiyatini asosiy mahsuloti axborot bo‘lgan jamiyat deb tushunadilar. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, bizning eramizning boshidan beri insoniyat tomonidan to‘plangan ma’lumotlar ikki baravar ko‘paygan, birinchi marta 1750 yilda, ikkinchi marta XX asr boshlarida, uchinchi marta 1950 yilda. 1950 yildan boshlab dunyoda ta’limning umumiy miqdori har 10 yilda ikki barobar, 1970 yildan boshlab har 5 yilda va 1991 yildan boshlab ikki baravar ko‘paydi. Demak, bugungi kunda dunyoda ta’lim hajmi 250 ming barobardan ortiq oshgan. Amerikalik sotsiolog D.Bellning ta’kidlashicha, “Axborotlashgan jamiyat, avvalo, ma’lumotlilik darajasi va malakasiga ko‘ra, millat elitesini shakllantiradigan jamiyat. Tadqiqotchi axborotni jismonan iste’mol qilinmaydigan va eskirmaydigan “jamoaviy mahsulot” sifatida talqin qilib, industrial jamiyatda inson hayotiy faoliyatidagi mutlaqo yangi mahsulot bo‘lgani uchun unga nisbatan o‘sha davrda muomalada bo‘lganidan o‘zgacha me’yor va mezonlarni qo‘llash kerakligiga e’tibor qaratadi” [2.Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. Пер.с англ. В. Л. Иноземцева. -М.: Academia, 1999. 956-с].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

So‘nggi yillarda jamiyatda kompyuter texnologiyalari va axborotni qayta ishlash bo‘yicha konsalting, ilmiy axborot va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchi professional guruhlar vujudga keldi. Yangi ilmiy va kasbiy yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi kadrlar tayyorlashning alohida tizimini talab qiladi. Bu tizim nafaqat jamoatchilikni xabardor qilish davrining voqeligi va o‘qitish mazmuniga, balki usul va vositalarga ham mos kelishi kerak. Davlatimiz tomonidan ta’limni axborotlashtirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish jarayoniga tizimli yondashish zarurati XX asrning 90-yillari boshlarida namoyon bo‘la boshladi. Tarixiy jihatdan bilimlarni axborotlashtirish ikkita asosiy yo‘nalishda boshqariladigan va boshqarilmaydigan tarzda amalga oshiriladi. Boshqariladigan bilimlarni axborotlashtirish uyushgan jarayon bo‘lib, moddiy resurslar bilan birga kechadi. U ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan va asosli xulosalar va dasturlarga

asoslanadi. Ta'limni axborotlashtirish ta'lim tizimi xodimlari tashabbusi bilan pastdan yuqoriga qarab amalga oshiriladi va ta'lim faoliyatining eng dolzarb yo'nalishlari va fan sohalarini qamrab oladi.

Hozirgacha biz yashab turgan dunyomizda 6 ta axborot inqilobi sodir bo'ldi. Birinchi bosqichda - til va insonning aniq nutqi, ikkinchi bosqichda - yozish, uchinchi bosqichda - kitoblar nashr yetish, to'rtinchi bosqichda - axborotni uzatish va tarqatish. Bu to'rtinchi davrda telegraf, telefon, radio, televizor kabi asboblari ixtiro qilindi. Va beshinchi bosqichni insoniyat kompyuter texnologiyalaridan faol foydalana boshlagan vaqtga to'g'ri kelishi mumkin. Bugun biz kompyuter tarmoqlarining paydo bo'lishi va ularning multimedia texnologiyalari va virtual reallik bilan integratsiyalashuvi tufayli oltinchi axborot inqilobining guvohi bo'lmoqdamiz.

“Axborotning shaxs, davlat va umuman jamiyat hayotidagi o'rni juda muhim. Axborot insonni atrof-muhitga moslashtirishga qaratilgan aloqa jarayonining natijasidir” [3. Уэбстер Ф. Теории информационного общества. – М.: Аспект-пресс, 2004. – 400 с]. Endilikda ijtimoiy muhitda yangi axborot jamiyatini yaratish maqsadi muloqot jarayoniga o'ziga xos xususiyatlar va o'zgarishlarni olib keldi. Axborotning qimmatliligi shaxsning sub'ektiv xulq-atvoriga ega ekanligi bilan izohlanadi. Agar inson maqsadiga yerisha, u holda foydalanilgan axborot e'tiborga olinmaydi va o'z qiymatini yo'qotadi. Shuni ham yodda tutish kerakki, qadriyatlar turlicha. Qiymat - bu ma'lumotning shaxsga maqsadga erishish yo'lini tanlash jarayonida foydalanishga imkon beradigan xususiyatidir. Bu fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, jamiyatda qadriyatga ega bo'lgan ma'lumotlardan tashqari, umuman qadrsiz yoki salbiy qiymatga ega bo'lgan ma'lumotlar ham mavjud. “Axborotlashgan jamiyat rivojlanishining muhim qismi sifatida quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: maqsadga erishish uchun axborotni tanlash imkonini beruvchi axborotning qiymati; ma'lum bir vaziyatga bo'lgan ehtiyojni belgilaydigan ma'lumotlarning foydaliligi; ma'lum vaqt davomida ma'lumotlarning buzilishi” [4. Климова Л.В. Роль информационных технологий в саморазвитии личности: научное издание. - Курск, 63-с].

Axborot insoniyatning asosiy resursi, asosiy qadriyatiga aylandi. Axborotning ijtimoiy sohadagi rolining ortib borishi va axborot munosabatlarining paydo bo'lishi axborot jamiyati davriga qadam qo'yganlik ko'rsatkichidir. Axborotga bo'lgan ehtiyojning mohiyati barcha ehtiyojlarni qondirish va ularning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun har qanday harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan maqsadlar va ularga erishish yo'llarini tanlashda axborotni ishlab chiqarish, qabul qilish va undan foydalanishda namoyon bo'ladi. Ma'naviy rivojlanish uchun ijobiy

hissiy ma'lumotlar kerak. Axborotga bo'lgan ehtiyoj insonni o'z-o'zini rivojlantirishga, to'plangan bilimlar orqali boshqa ehtiyojlarni qondirishga yo'naltiradi.

Shu boisdan ham yapon olimi Y. Ma'suda "Axborotlashgan jamiyat insoniyatning eng ulkan yutuqlaridan biri, – deb yozadi. – Yangi texnologiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hayotning o'ziga xos ijobiy o'zgarishiga olib keladi. Axborotlashgan jamiyatda insoniy qadriyatlar o'zgaradi. Bu jamiyat sinfsiz va ziddiyatsiz bo'lib, uni kichikroq davlat apparati boshqaradi" [5. Masuda Y. Managing in the information Society: Releasing synergy Japanese style. Oxford, 1990. P.44]. "Hozir va kelajakda yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish jamiyat oldida turgan eng muhim vazifadir. Axborot madaniyatiga ega bo'lgan bilimli shaxs zarur axborotni topa olishi, baholay olishi va undan unumli foydalana olishi, axborotni saqlashning an'anaviy va avtomatlashtirilgan texnik vositalaridan foydalana olishi kerak" [6. Masuda Y. Managing in the information Society: Releasing synergy Japanese style. Oxford, 1990. P. 44.].

Axborotlashtirish quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: axborotni to'plash, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va ishlab chiqarish qobiliyatini oshirish; har kimning insoniy axborot resurslaridan erkin foydalanishini ta'minlash; inson hayotining istalgan sohasiga axborot texnologiyalaridan kompleks foydalanish va joriy etish; axborot resurslarining ustuvorligi va yo'nalishi. Axborot oqimida axborot muhitining qonuniyatlari haqidagi bilim, qobiliyat, qadriyatlarni shakllantirish insonga hayotda to'g'ri yo'ldan borishga, muhim qarorlar qabul qilishga imkon beradi. Axborotlashtirish jarayoni Axborot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan jamiyat va inson hayoti taraqqiyotining resursi sifatida to'liq foydalanish insonning axborot madaniyatini rivojlantirish va shakllantirishning ahamiyatini oshiradi.

Yigirmanchi asrda jamiyatda axborotlashtirish jarayonining asosiy yo'nalishlari: jamoat hayotida keng foydalanish ayniqsa mikroprotssessorlar va elektron hisoblash mashinalari sanoat, transport, maishiy va hokazo;

intellektual ish sifatini oshirish va bajarish vaqtini qisqartirish maqsadida avtomatlashtirish (avtomatik qidirish, tarjima qilish va axborotni texnik vositalar yordamida avtomatik boshqarish, loyihalash, tadqiqot va boshqalar);

Bu tendentsiya 20-asrning 70-80-yillarida jadal rivojlanib, sivilizatsiya rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Axborot jarayonining jadal rivojlanishining asosiy ko'rsatkichi sifatida axborotni olish, tarqatish, tashish, almashish va kerakli axborotni topish va axborotni qayta ishlash, ularni amalga oshirish, boshqaruvni texnik vositalar bilan ta'minlash imkoniyatlari ortib bormoqda. Olimlar axborot jamiyatida

axborot va axborot resurslarining roli keskin o'zgarib borayotganini tan oldilar. Axborot insoniyat uchun muhim manbaga aylanadi. Xom ashyo va yenergiyadan kam foydalanilgan holda, tabiiy resurslari cheklangan kichik davlatlar ishlab chiqarishdagi ilmiy yutuqlari sezilarli iqtisodiy muvaffaqiyatlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi. (Gollandiya, Daniya, Tayvan, Yaponiya, Singapur). Matbuot erkinligi, oshkoralik, axborot qudratidagi ommaviy axborotning ko'pligi iqtisodiyotni rivojlantirish, bozor mexanizmlarini yo'lga qo'yish imkonini beradi. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilishni moliyalashtirish yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi. Fuqarolarning davlat organlari bilan aloqasini elektron platforma orqali aloqaga o'tkazish, ya'ni davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi – bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi.

Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bizdagi eng asosiy og'riqli muammolardan biri-korruptsiya illatiga barham beradi. [7.<https://strategy.uz/index.php?news=787>] Jamiyat taraqqiyotining turli sohalaridagi tub o'zgarishlar axborot va axborot xizmatlari bilan chambarchas bog'liq. Axborotlashtirish jarayoni iqtisodiy, texnologik, siyosiy va madaniy rivojlanish imkoniyatlarini ochib beradi.

Axborotlashtirish - bu ta'lim, madaniyat va ijtimoiy sohaga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-madaniy jarayon. Axborotlashtirish jarayoni inson muhitini sezilarli darajada o'zgartirdi. Bugungi kunda ijtimoiy hayotda axborotning ahamiyati tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda: ko'p kanalli televideniye, Internet, radiostantsiyalar, filmlar, reklama va plakatlar atrof-muhitning muhim elementiga aylandi. Biz axborot muhiti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan o'zimiz va boshqalar haqida xabarlarini qabul qilish va almashish jarayoni, axborotga to'la axborot makonida yashayapmiz. Axborot insonning ma'naviy va moddiy hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, axborot insonning ijtimoiy-madaniy hayoti va moddiy farovonligini belgilaydi.

Jamiyatning axborot tuzilishi inson ijodini rivojlantirish uchun ko'plab bilim va qadriyatlarni shakllantirishga yo'l ochdi. Biroq, bu imkoniyatlardan faqat axborot qobiliyati va malakasiga yega bo'lgan odamlar foydalanishi mumkin. Shunday qilib, inson muhitidagi o'zgarishlar axborot madaniyatini rivojlantirish jarayonining bir qismi bo'lgan axborot savodxonligini talab qiladi. Insoniyat ikki tomonlama vaziyatda qolib ketdi, bu esa axborot jarayonlarining tez sur'atlar bilan o'sib borishi sharoitida ijtimoiy hayot normasi sifatida qaraladi.

Axborotlashtirish jarayonida madaniyatga ta'sir ko'rsatadigan texnika va texnologiyalar keng joriy etilmoqda, bu madaniyat va axborot o'rtasidagi

munosabatlarni belgilaydigan axborot madaniyatidir. Shaxsning axborot madaniyati madaniy muhitni o'rganish va tan olish jarayonida namoyon bo'ladi. Natijada shaxs harakat sub'ekti sifatida, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan jarayon va hodisalar esa harakat ob'ektiga bo'linadi. Ayni shu ma'noda, "O'zbekistonda aholining ijtimoiy himoyasi, ma'rifatchilik darajasini oshirishda axborot tizimi islohotlarining hozirgi davrdagi ahamiyati, innovatsion texnologiyalarni joriy qilishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi iqtisodiy-ma'naviy vaziyatda har bir mamlakat o'z milliy madaniyatiga tayanib jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilamoqda. O'zbekistonda qator Sharq mamlakatlari kabi qaror topadigan jamiyatning modeli jamoaviylik va undan kelib chiqadigan milliy axloqqa asoslanadi. Shu sababli axborotlashgan jamiyat rivojida milliy-axloqiy masalalarni tadqiq qilish dolzarb vazifa sifatida e'tirof etilmoqda". [8. Каримова Г.А. Ўзбекистонда ахборотлашган жамият шаклланишининг миллий-ахлоқий жиҳатлари Фан доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2020. –Б.5.]

Axborot jamiyatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

iqtisodiyotning tovar ishlab chiqarishdan xizmatlar ko'rsatishga qayta moslashishi;

intellektual texnologiyaning sanoat va texnologik sohalarga tengligi;

qiymat tizimida moddiy mulk ahamiyatining pasayishi;

moddiy ishlab chiqarishda axborot va ilmiy faoliyatning raqobatdosh ustunligini oshirish;

jamiyatning texnologik va siyosiy-ijtimoiy tuzilishiga asoslangan ta'lim va fanning ahamiyatini oshirish;

har qanday sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatga alohida e'tibor qaratiladi;

ijtimoiy tashkilotlar tuzilmasidagi o'zaro ta'sir, ya'ni madaniy sohadagi o'zgarishlar.

Axborot jamiyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutadi. Binobarin, axborot makonida mahalliy, mintaqaviy, milliy ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda global axborot manbalari ham keng tarqalib, ommaviy axborot vositalarining globallasuv jarayoni bizga tanlovning yangi formulalarini taklif qilmoqda.

Yangi axborot jamiyati vujudga kela boshladi va bugungi kunda jamiyatdagi eng muhim qadriyat axborot va bilimdir. Axborot jarayonlari jamiyat uchun siyosiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va keng qo'llanilishi jamiyat hayotining iqtisodiyot,

siyosat, madaniyat va fan kabi barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Umumiy ma'lumot insonning atrof-muhitdagi yo'nalishlarni tushunishi, keyingi harakat yo'nalishini tanlashi uchun zarurdir. Asosan, axborot, tashviqot daraxt sifatida umumiy ildiz orqali tarqaladi va rivojlanadi. Uning asosiy manbalari ommaviy aloqa va telekommunikatsiya hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari eng muhim ma'lumotlarning axborot funksiyasini bajaradigan, odamlarni demokratiya va sivilizatsiya qadriyatlarini, ularning huquq va majburiyatlarini bilish va hurmat qilishga tarbiyalovchi demokratik institutdir. Bugungi demokratik dunyoda ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, so'z, matbuot erkinligi, radio va televideniya foydalanish imkoniyati kafolatlangan mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari fuqarolarning o'z-o'zini anglashi, jamiyat hayotidagi faolligi, yetakchilik va mas'uliyatini oshirishda beqiyos imkoniyatga ega.

J.Yaxshilikov fikricha esa, "Hamma narsaning yaxshi va yomoni bo'lganidek, bu qulayliklar bilan birga internetdan samarali va maqsadli foydalanuvchilardan tashqari undan vaqtni bekorga o'tkazish, turli ko'ngilochar hamda behayo saytlardan foydalanuvchilar ham ko'payib bormoqda".[9.Yaxshilikov J.Ya, Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. B 503-504.].

Zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekiston xalqining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotida demokratik islohotlar chuqurlashib, jamiyatni umumiy o'zgartirish jarayoni uchun zarur shart-sharoitlar barqarorlashtirilmoqda. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida yosh davlatimiz oldida sivilizatsiya yutuqlarini moddiy va ma'naviy ne'mat sifatida asrab-avaylash vazifasi turibdi. Davlat mustaqilligining yangi iqtisodiy siyosati bilan huquqiy, ijtimoiy, demokratik davlat barpo etish vazifasi respublika axborot makonida katta o'zgarishlarni amalga oshirdi. Bu vazifalarni amalga oshirish jamiyat hayotini to'g'ri tushunish, qabul qilish va to'g'ri tasvirlash imkoniyati yaratilgandan keyingina amalga oshadi.

Axborot almashinuvi yangi demokratik imkoniyatlarga, barqaror siyosiy, ijtimoiy va demokratik jarayonlarni qaror toptirishga yo'l ochadi. So'z erkinligi, matbuot erkinligi, fikr plyuralizmi va mustaqil xususiy ommaviy axborot vositalarining paydo bo'lishi O'zbekiston axborot makonidagi demokratik jarayonlarning natijasidir.

O'zbekiston uchun barqaror demokratik taraqqiyot modelini tanlashda jamiyatni erkin va huquqiy, demokratik modelga aylantirish yo'llari va vositalarini izlash hamda xolis va haqqoniy axborot muhim ahamiyatga ega.

Axborotlashgan jamiyat turli g'oyalari va ta'limotlarni, bilimlarni, turli sivilizatsiya va qadriyatlarni tahlil qiladi, odamlarning tafakkurini kengaytiradi, muayyan g'oyalarga e'tiborni qaratadi, ularni chuqurroq anglashga yordam beradi. Iqtisodiyot davlatning tayanchi bo'lsa, uning milliy ruhi, ongi qalbidir. Jamiyatdagi ijtimoiy institutning o'ziga xos turi bo'lgan ommaviy axborot vositalari davlat qalbi orqali butun organizm uchun zarur bo'lgan oziq moddalarni, fuqarolarning birligi hamda umumiy maqsad va manfaatlarini targ'ib qiladi. Busiz mustaqil davlatning kelajagini bashorat qilish qiyin. Ayni paytda O'zbekiston nafaqat iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan, balki strategik, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham jahon hamjamiyatining e'tiborini tortmoqda.

Jamiyatning sivilizatsiyasi va dunyoviyligi davlatning madaniyatga munosabati bilan o'lchanadi. Hozirgi sivilizatsiyalashgan jamiyatda bilim va axborot kuchi mablag'lar va davlat hokimiyatini boshqarishda asosiy rol o'ynay oladigan siyosiy kuchga aylandi. O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shadigan turli muhim masalalar axborot makonida keng yoritilmoqda va oshkoralik tamoyillari nuqtai nazaridan keng o'z ifodasini topmoqda. Bugun jamiyatimiz murakkab bozor, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, yangi sharoitga ma'naviy-psixologik moslashish davrini boshdan kechirmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek, "Bir narsani bilishimiz kerak: ilmsiz, innovatsiyasiz oldimizga qo'ygan maqsadlarga hech qachon erisha olmaymiz. Hisobot uchun emas, natija uchun ishlash kerak" [10. Rasmiy veb-sayt: [www.president.uz](http://www.president.uz) Shavkat Mirziyoyev: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 3 dekabr kuni ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish borasida oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, tarmoq va hududlar oldidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan. 03.12.2020].

## **XULOSA**

Ommaviy axborot vositalari orqali odamlar ijtimoiy normalarni, axloqiy va axloqiy qadriyatlarni idrok etadilar, hayotiy tamoyillarni shakllantiradilar. Ommaviy axborot vositalari jamiyatda kechayotgan jarayonlarni yoritish orqali jamoatchilik fikrini shakllantiradi. U jamoatchilik fikrini shakllantiradi va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy rivojlanish va jamiyat talablariga muvofiq qadriyatlarni shakllantiradi, axborot sohasidagi axborot ehtiyojlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ommaviy

axborot vositalari faoliyati va axborotni ishlab chiqarish, iste'mol qilish va tarqatishdagi axborot munosabatlariga ijtimoiy mas'uliyat yuklanadi. Axborot jamiyatida shaxsning axborot madaniyatining shakllanishi uning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Shu o'rinda davlatimiz rahbarining quydagi so'zlarini orqali fikrlarimizga yakuni sifatida keltrishini lozim deb bildik: "Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz. Hammamiz bir kuch, bir qudrat bo'lib xalqimizga xizmat qilishimiz kerak"[11. Rasmiy veb-sayt:[www.president.uz](http://www.president.uz) Shavkat Mirziyoyev: Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz. 26.01.2022].


Axborot oqimining tarqalish tezligi ortgan va avj olgan bugungi zamonda ommaviy axborot vositalari davlat hayotida asosiy o'rin egallamoqda. Ijtimoiy tuzilmada axborot jamiyatning muhim ijtimoiy quroli hisoblanadi. Ular fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini bilish, o'z g'oyalari va manfaatlarini himoya qilish, kundalik voqealar haqida o'z fikrini shakllantirish imkonini beruvchi muhim institutlardan biridir.

## REFERENCES

1. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. Пер.с англ. В. Л. Иноземцева. – М.:Academia,1999. – 956с.
2. Уэбстер Ф. Теории информационного общества. – М.: Аспект-пресс, 2004. – 400 с.
3. Килимова Л.В. Роль информационных технологий в саморазвитии личности: научное издание. – Курск, – 63 с.
4. Masuda Y. Managing in the information Society: Releasing synergy Japanese style. Oxford, 1990. P. 44.
5. Зиновьева Н.Б. Информационная культура личности: Введение в курс / под ред. И.И. Горловой. – Краснодар, – 135 с.
6. Каримова Г.А. Ўзбекистонда ахборотлашган жамият шаклланишининг миллий-ахлоқий жиҳатлари Фан доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2020. –Б.5.
7. Яхшиликков Ж.Я, Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. Тошкент. Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2018. Б 503-504.
8. Veb-sayt:[www.president.uz](http://www.president.uz) Shavkat Mirziyoyev: Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz. 26.01.2022



## KO'CHMAS MULKNI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON BOZORIDA SERVEYING XIZMATLARINI QO'LLASH

 <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-3-1049-1058>

**Asadova Maftuna Sa'dullayevna**

Toshkent arxitektura-qurilish instituti

Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish kafedrasida assistenti

**Umidova Fotima Iskandarbekovna**

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

### ANNOTATSIYA

*Ko'chmas mulk bozorining shakllanishi va rivojlanishi turli xil boshqaruv tizimlarini izlash va o'rganishni talab qiladi. Jahon amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, ko'chmas mulk portfelini boshqarishning professional usullaridan foydalanish undan foydalanish samaradorligini oshirish zarur. Maqolada zamonaviy sharoitlarda ko'chmas mulkni boshqarishning samarali vositasi sifatida xizmat ko'rsatishning rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, surveying kontseptsiyasining xususiyatlari berilgan. "Surveying" tushunchasining yer ishlaridan ko'chmas mulkni boshqarishgacha bo'lgan evolyutsiyasini ko'rsatadi. Komponentlar funktsiyalari, asosiy tamoyillari, maqsad va vazifalari, shuningdek, xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari. Xizmat ko'rsatish faoliyatining funktsional modellari ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** ko'chmas mulk, ko'chmas mulkni boshqarish, xizmat ko'rsatish, surveying, konsepsiya, samaradorlik.

### АННОТАЦИЯ

*Становление и развитие рынка недвижимости требует поиска и изучения различных систем управления. Опыт мировой практики показывает, что применение профессиональных методов управления портфелем недвижимости необходимо для повышения эффективности его использования. В статье рассматривается развитие сервиса как эффективного инструмента управления недвижимостью в современных условиях. Также приводятся особенности понятия сервейнг. Показывает эволюцию понятия «сервейер» от земельных дел к управлению недвижимостью. Функции компонентов, основные принципы, цели и задачи, а также специфика обслуживания. Рассмотрены функциональные модели сервисной деятельности.*

**Ключевые слова:** *недвижимость, управление недвижимостью, сервис, обследование, концепция, эффективность.*

### **ABSTRACT**

*The formation and development of the real estate market requires the search and study of various management systems. The experience of world practice shows that the use of professional methods of real estate portfolio management is necessary to increase the efficiency of its use. The article discusses the development of the service as an effective tool for real estate management in modern conditions. The features of the concept of maintenance are also given. Shows the evolution of the concept of "surveyor" from land affairs to real estate management. The functions of the components, the basic principles, goals and objectives, as well as the specifics of the service. Functional models of service activity are considered.*


**Keywords:** *real estate, real estate management, service, survey, concept, efficiency.*

### **KIRISH**

Ko'chmas mulkni boshqarish - bu o'z tavakkalchiligi ostida amalga oshiriladigan, foyda olishga qaratilgan (o'z nomidan) faoliyat, yoki (egasi nomidan) sotish undan foydalanish va uni tasarruf etish vakolatidir. Ko'chmas mulk ob'ektlari shaxsiy va jamoat (ijtimoiy) ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra, ko'chmas mulkni boshqarish vazifalari ham, ularni hal qilish usullari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi zarur [1]. Ko'chmas mulkni boshqarish tizimi zamonaviy sharoitlarga mos kelishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'chmas mulk ob'ektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Mamlakatimizda investitsion qurilish majmuasi - iqtisodiyotning eng samarali va jadal rivojlanayotgan tarmog'i bo'lib, unga sifatli xizmat ko'rsatishni talab qiladi. Shuningdek, qurilishni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar mavjudligi, hayot tsiklining barcha bosqichlarida investitsiya va qurilish loyihalarini professional boshqarish, shuningdek, ko'chmas mulk ob'ektlarini kompleks muhandislik-texnik va iqtisodiy baholash alohida ehtiyojlarni vujudga keltiradi [2].

Xalqaro qurilish, konsalting, boshqaruv kompaniyalarining jalb qilinishi munosabati bilan ko'chmas mulk sohasidagi professional faoliyat sohalarini tavsiflovchi turli xil tushunchalar paydo bo'la boshladi. bunga yaqqol misol tariqasida Serveying boshqaruv tizimini keltirishimiz mumkin. (1-rasm)



### **1-rasm. Ko'chmas mulk bozorida professional faoliyat sifatida xizmat ko'rsatishning zamonaviy tizimi**

Serveying ilk marotaba 15-16-asrlarda Angliyada vujudga kelgan. Serveying dastlabki bosqichi yerni tuzish, yerga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish bilan boshlangan, chunki o'sha davrlarda yer qimmatbaho bo'ylab hisoblangan [3]. Ammo bozor iqtisodiy tizimining rivojlanishi bilan ko'chmas mulk bilan bog'liq muammolarni hal qilishdagi dolzarb muammolarni bartaraf etish uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qildi [4].

Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida 1868 yilda Londonda geodeziyachilarni tayyorlash instituti tashkil etiladi. 1881 yilda u qirollik unvoniga sazovor bo'ldi va shundan beri u Chartered Surveyors Qirollik Instituti - Chartered Surveyors Qirollik Instituti deb nomlanadi [5]. Surveyors ko'chmas mulk ob'ektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, taqdim etish va qayta ishlash, shaharsozlik, rivojlanish loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish, ko'chmas mulkni baholash va boshqarish, binolarni ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilish, qurilishni tekshirish funksiyalarini bajaradi, sotish va sotishda ishtirok etadi. tijorat ko'chmas mulkni ijaraga berish. Shu tariqa serveyn faoliyati vujudga keldi [6].

#### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bugungi kunda serveyn faoliyati ko'chmas mulk hayotiy davrining barcha bosqichlarni va shakllarini qamrab oladi, shuningdek barcha amaliy masalalarni o'zaro bog'liq holda hal qilishni ta'minlaydi [7].

Serveying xizmatlari turli funksional vazifadagi ko'chmas mulkni boshqarishda qo'llaniladi. Boshqaruv kompaniyalar amaliyotiga serveying xizmatlarini jalb qilish

ularning maqsadga muvofiqligini va tuzilishini batafsil aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi [8].

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasida serveying faoliyatining o‘ziga bag‘ishlangan maxsus qonunlar qabul qilinmagan. Natijada, serveying faoliyati tuzilishini aniq tushunmaslik, amaliyotda bu nom ostida turli hil xizmatlar o‘rin egallashiga olib kelmoqda. Serveying xizmatlarning asoslangan xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun serveying faoliyati tuzilishinini aniqlashtirish zarur [9].

Serveyin tashkilotlarining asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:



O‘zbekiston Respublikasi ko‘chmas mulk bozorida amalga oshiriladigan, tadbirkorlik faoliyati turlarining o‘ziga xos jihatlarni 1 – jadval ko‘rinishida taqdim etish mumkin.

1 – jadval

*Ko'chmas mulk obyektlari harakati va ko'chmas mulkni boshqarish sohasidagi xizmatlar bozorida taqdim etiladigan, tadbirkorlik faoliyati turlarining o'ziga xos xususiyatlari*

Taqqoslash omillari	Serveying faoliyati	Developerlik faoliyati	Rieltorlik faoliyat
<b>Faoliyat sohasi</b>	<b>Xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati</b>		
<b>Xizmatlar tuzilishi</b>	Ko'chmas mulkni, uning yashash davrining barcha bosqichlarida kompleks, tizimli boshqarish bo'yicha xizmatlar	Ko'chmas mulk sohasidagi investision loyihalarni tayarlash va realizasiya qilish va ko'chmas mulk obyektlarining qurilishini nazorat qilish bo'yicha xizmatlar	Ko'chmas mulk obyektlari bilan operatsiyalarni amalga oshirishdagi vositachilik va axborot xizmatlari
<b>Ushbu turdagi xizmatlarni ko'rsatadigan kompaniyalarning asosiy funksiyalari</b>	- ko'chmas mulk obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish; - ko'chmas mulkni baholash, ekspertizadan o'tkazish va boshqarish; - binolarni qurish va modernizasiya qilish bo'yicha loyihalarni	- ko'chmas mulk obyektini yaratish; - biznes konsepsiyani ishlab chiqish; - tayer obyektini topshiri	- ko'chmas mulk obyektlarini tanlab olish; - obyektlarni ko'rsatishni tashkil etish; - ijaraga beruvchining huquqlarini tasdiqlovchi xujjatlarni tekshirish; - ijara shartnomasini tuzishga ko'maklashish

	tayyorlash va tadbiq etish; - tijorat ko'chmas mulkini sotish va ijaraga berish		
--	------------------------------------------------------------------------------------------------	--	--

Ushbu jadvaldan xulosa qilish mumkinki, serveying faoliyati ko'chmas mulkni boshqarish bo'yicha tartibli rivojlantirish natijasida ajralib chiqqan, tadbirkorlik faoliyatining maxsus, mustaqil ko'inishi hisoblanadi [10].

1 – jadvaldan kelib chiqib, aynan serveying faoliyatiga xos alohida xususiyatlarning mavjudligini ham ta'kidlash mumkinki, ularning yig'indisi olib borilayotgan tadqiqotning “serveying xizmatlari” tushunchasini aniqlashtirishga imkon berdi.

Ko'chmas mulkni boshqarish bilan shug'ullanadigan kompaniyalarni, serveying kompaniyalari deb nomlagan taqdirda, ular aynan qanday xizmatlarni taklif qilishini aniqlashtirish maqsadida tizimli yondashuv, statistik va iqtisodiy tahlil, ekspert baholash va usullardan foydalangan holda aniqlashtirish lozim [11].

Serveying faoliyati O'zbekiston ko'chmas mulk bozori uchun yangilik bo'lishiga qaramay, uning rivojlanishi shubhasiz. Hozirgi paytda serveying xizmatlari nafaqat shahar markazlarida, balki qurilish ishlari jadal sur'atlarda olib boriladigan barcha hududlarda keng tarqalishi mumkin. Ko'chmas mulk obyektlarini boshqarishda yuqori natijaviylikka erishishni faqat serveying kabi innovasion yondashuvni qo'llash bilan izohlash mumkin [12].

Serveying, ko'chmas mulk obyektining tizimli boshqaruvini optimal tashkil etish imkonini beradigan, samarali vosita hisoblanadi. Serveying konsepsiyasini tadbiq etishda markaziy o'rin serveying kompaniyasiga tegishli. Serveying kompaniyasi — bu shunday tashkilotki, uning asosiy faoliyat turi bo'lib, ko'chmas mulkni professional boshqarish hisoblanadi [13]. Qoida bo'yicha, serveying kompaniyasi boshqarilayotgan ko'chmas mulk obyektlariga egalik qilmaydi. U mulk egasi bilan boshqaruv shartnomasini tuzadi va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun o'zining barcha imkoniyatlarini ishga soladi [14].

O'zbekistonda ko'chmas mulkni professional boshqarish endilikda tadbirkorlik faoliyatining alohida sohasiga ajralishni boshladi. Biroq, milliy tajribamizga asoslanib, bu biznesni rivojlantirishda aniq tendensiyalar mavjudligi to'g'risida hozir


ham aytish mushkul. Hozirgi paytda boshqaruv kompaniyalari paydo bo'lishining uch asosiy yo'nalishi mavjud [15].

**Birinchi yo'nalish shundan iboratki**, o'z faoliyatini katta bino va inshootlar egalari mulkni ijaraga topshirish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatishdan boshlagan rieltorlik tashkilotlari, asta-sekin ko'chmas mulk obyektlarini boshqarish bo'yicha alohida funksiyalarni bajara boshladilar.

**Ikkinchi yo'nalish** quyidagilarni nazarda tutadi: quruvchi kompaniyalar qurilishni tugatgandan so'ng, o'z bo'yniga ekspluatatsiya qiladigan kompaniya funksiyalarini oladi va o'z funksiyalarning kengayib borishi bilan boshqaruv kompaniyasiga aylanib boradi.

**Uchinchi yo'nalish** yirik mulk egalari ularga tegishli ko'chmas mulk obyektlarini boshqarish bo'yicha tuzilmaviy bo'linmalarni tashkil etishi, so'ng esa mustaqil boshqaruv kompaniyalariga aylanib borishi bilan bog'liq.

Ko'chmas mulk obyektlarini boshqarish bo'yicha aniq bir biriga bog'liq xizmatlarning yetishmasligi mulk egalarning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan xizmatlar soni va turlari, jarayonlarini aniqlovchi yagona tizimni yaratishni taqozo qiladi [16]. Shuningdek, ushbu serveying xizmatlarini ko'chmas mulk bozorida ahamiyatini o'rganish maqsadida ekspert usulidan foydalanilgan holda ularning nisbiy ahamiyatlilik darajasi aniqlab olindi.



**2 -rasm. Serveying xizmatlarining nisbiy ahamiyatlilik darajasi**

Ushbu tadqiqot natijasiga ko'ra serveyin xizmatlari ko'chmas mulk bozorining turar-joy va tijorat obyektlarida qo'llanilishi o'ta ahamiyatli jarayon deb olindi.

## **XULOSA**

Zamonaviy sharoitda boshqaruv kompaniyalari faoliyatining rivojlanishiga quyidagi omillar to'sqinlik qilmoqda:

1. Ko'chmas mulkni professional boshqarishning sinalgan va ochiq standart hamda uslublarining mavjud emasligi;
2. Ko'chmas mulkni boshqarish sohasida malakali mutaxassislarning yetishmasligi;
3. Ko'chmas mulkni boshqarish infratuzilmasining sust rivojlanganligi; ko'chmas mulkni boshqarish bo'yicha professional mustaqil maslahatchilarning mavjud emasligi.

Buning natijasi bo'lib, ko'chmas mulkni boshqarish darajasining pastligi va mulk egalarida professional boshqaruv kompaniyalari bilan hamkorlik qilishga qiziqish mavjud emasligi hisoblanadi. Ushbu ko'chmas mulkni boshqarish jarayonini tizimlashtirish bugungi kunda ular faoliyatida amalga oshiriladigan ijtimoi-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda o'z xissasini qo'sha oladi. Shuningdek, faoliyatdagi sarflanadigan xarajatlarni ma'lum bir qismini qisqartirishga xam erishishimiz mumkin.

## **REFERENCES**

1. Mirdzhalilova D. S. Current trends and the development of the real estate management services market." Economics of the construction complex and urban economy" materials of the international scientific-practical conference. Minsk: BNTU. – 2019.
2. Mirdzhalilova, D. (2019). Trends and Current State of the Services Market on the Property Management in Uzbekistan. *Bulletin of Science and Practice*, 5(6), 312-317. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/43/41>
3. Mirdjalilova, D. Sh., Yusupdjanova, N. U., & Asadova, M. S. (2021). Digitalization of the republic of Uzbekistan: current state and development trends. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10 (102), 819-824. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-102-91> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.10.102.91>
4. Asadova, M. S., & Kakhramonov, K. S. (2020). Blockchain technologies in the digital economy of Uzbekistan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 03 (83), 155-159. Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.03.83.33>



5. Turdiev, A. S., Kakhramonov, K. S., & Yusupdjanova, N. U. (2020). Digital economy: experience of foreign countries and features of development in Uzbekistan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (84), 660-664. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-04-84-112> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.04.84.112>
6. Artikov, N. Y., & Kakhramonov, K. S. (2020). Methods for calculating the discount rate for the evaluation of the cost of objects making income on the example of the republic of Uzbekistan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 610-614. Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.05.85.111>
7. Kakhramonov, K. S. (2021). Comprehensive assessment and methods of increasing the efficiency of housing and communal services management in the Republic of Uzbekistan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 03 (95), 173-176. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-03-95-31> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.03.95.31>
8. Nurimbetov, R. I., & Kakhramonov, K. S. (2021). Introduction of digital technologies in the sphere of housing stock management in the Republic of Uzbekistan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (97), 386-390. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-05-97-63> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.05.97.63>
9. Kakhramonov, K. S. (2021). The main directions of improving the housing stock management system in the Republic of Uzbekistan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 09 (101), 421-425. Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.09.101.44>
10. Nurimbetov R. I., Metyakubov A. D. ADVANCED HOUSING FUND MANAGEMENT SYSTEM AS A TOOL FOR IMPROVING DELIVERY OF MUNICIPAL SERVICES ON CLIENT SATISFACTION //PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 2020. – Т. 17. – №. 6. – С. 3177-3188.
11. Нури́мбетов, Р. И. Основные направления совершенствования системы управления жилищным фондом / Р. И. Нури́мбетов, Х. Ш. у. Кахрамонов // Инвестиции, градостроительство, недвижимость как драйверы социально-экономического развития территории и повышения качества жизни населения : Материалы XI Международной научно-практической конференции. В 2-х частях, Томск, 02–04 марта 2021 года / Под редакцией Т.Ю. Овсянниковой, И.Р. Салагор. – Томск: Томский государственный архитектурно-строительный университет, 2021. – С. 175-180.
12. Matrizayeva, D. (2020). Role of Innovative Management in Providing Economic Growth in Industrial Enterprises. *Bulletin of Science and Practice*, 6(4), 303-308. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/53/35>

- 
13. Mirisaev, A. A. Investments in human capital as basis for development modern economy / A. A. Mirisaev, Kh. Sh. Kakhramonov // Инженерный бизнес : Сборник материалов I международной научно-практической конференции в рамках 18-й Международной научно-технической конференции, Минск, 01–02 декабря 2020 года. – Минск: Белорусский национальный технический университет, 2021. – Р. 152-155.
14. Мэтякубов А. Д., Матризаева Д. Ю. Экономический анализ эффективности управления инвестициями в промышленности //Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – №. 7. – С. 251-256.
15. Мэтякубов А. Д., Болтаев У. Т. Тенденция экономического развития производства строительных материалов в Республике Узбекистан //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 3. – С. 243-249.
16. Мэтякубов А. Д. Управление ресурсной базой и инвестициями в производстве строительных материалов //Социально-экономическое развитие городов и регионов: градостроительство, развитие бизнеса, жизнеобеспечение города. – 2018. – С. 214-220.

## **JINOYAT ISHINI KO'RIB CHIQISHDA KASSATSIYA INSTANSIYASI SUDINING VAKOLATLARI**

**Bermaxanova Aykerim Koldasbaevna**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi  
va amaliyoti" yo'nalishi magistranti,  
+998(90)-825-96-86

**Ilmiy rahbar: D.J.Suyunova**

"Jinoyat- protsessual huquqi" kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada jinoyat protsessida kassatsiya sudlarining vakolatlari va qayta kassatsiya instituti masalalari shuningdek, kassatsiya sudlov faoliyatining xorijiy davlatlar tajribasi, huquqiy asoslari, tartibi, kamchiliklari, uning jinoyat-protsessual qonunchilik rivojida tutgan o'rni va dunyo mamlakatlarida uning rivojlanish darajasi to'g'risida hamda ushbu institutni mamlakatimiz qonunchiligiga tadbiiq etishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari haqida so'z yuritiladi.*

*Tayanch so'z va iboralar: jinoyat, jinoyat-protsessi, kassatsiya, kassatsiya instansiya sudi, qayta kassatsiya instansiya instituti, kassatsiya instansiya sudining vakolatlari.*

## **ПОЛНОМОЧИЯ СУДА КАССАЦИОННОЙ ИНСТАНЦИИ В УГОЛОВНОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается опыт зарубежных стран, касающийся института кассационного производства в уголовном процессе, его правовая база, процедуры, недостатки, роль кассационной инстанции в развитии уголовно-процессуального законодательства и уровень его развития в мире, а также применение этого института в законодательстве нашей страны.*

*Ключевые слова и фразы: преступление, уголовный процесс, кассация, суд кассационной инстанции, институт повторной кассационной инстанции, полномочия суда кассационной инстанции.*

## **POWERS OF THE COURT OF CASSATION IN CRIMINAL PROCEEDINGS**

### **ABSTRACT**

*The article discusses the experience of foreign countries regarding the cassation instance in criminal proceedings, the legal framework, procedures, shortcomings, its*

*role in the development of criminal procedure legislation and the level of its development in the world, as well as the application of this institution in the legislation of our country, socio-economic aspects.*

**Key words and phrases:** *crime, criminal procedure, cassation, court of cassation instance, institute of re-cassation instance, powers of the court of cassation.*

## **KIRISH**

Har bir huquqiy davlatning asosiy hal qiluvchi poydevorlaridan biri mustaqil, shaffof va samarali odil sudlov bo‘ladi. U fuqarolar va yuridik shaxslarga o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari uchun imkoniyat yaratadi hamda mamlakatda hukukiy barqarorlikni ta‘minlaydi.

Davlat rivojining istiqboli amalga oshirilayotgan tadrijiy rivojlanib boradigan va chuqur o‘ylangan islohotlarga bog‘liqdir. Amalga oshirilayotgan islohotlar eng avvalo fuqarolarning huquq va erkinliklarini qo‘zlab amalga oshirilishi lozim. Bu – demokratik huquqiy davlatning asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadlarda keyingi yillarda aynan sud sohasida ko‘pgina islohotlar amalga oshirilmoqda.

Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi<sup>298</sup> tasdiqlanishi mamlakatimiz taraqqiyotining sifat jihatidan yangi davrini boshlab berdi. Mazkur tarixiy hujjat mohiyatan jaxonda turli o‘zgarishlar va voqea-hodisalar sodir bo‘layotgan bir pallada davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq, iqtisodiy, ijtimoiy sohalar va xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha beshta ustuvor yo‘nalishda amalga oshirish mexanizmi aniq belgilangan davlatimizning haqiqiy strategiyasiga aylandi. Mazkur farmonda sud ishlarini yuritishda odil sudlovni amalga oshirish sifatini yanada yaxshilash, sudlarning chinakam mustaqilligini ta‘minlash hamda qonuniy, asosli va adolatli qarorlar chiqarish bo‘yicha mas‘uliyatini yanada oshirish kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning tarraqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan yangi strategiyada ham aynan huquq sohasi, ushbu sohaning asosiy tarmog‘i hisoblanuvchi sud sohasiga alohida to‘htalib o‘tilgan.

<sup>298</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Shu boisdan jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan chiqariladigan hukm, qaror, ajrimlarini to'g'ri rasmiylashtirish, hukmda ish holatlarini to'liq ifoda etish, dalillarga to'g'ri huquqiy baho berish va aniqlangan holatlarni huquqiy mushohada qilish, nizo bo'yicha sudning xulosalari ishning haqiqiy holatlariga mos bo'lishi, moddiy va protsessual huquq normalari to'g'ri bayon etilishi eng asosiy vazifalardan biridir. Biroq, kassatsiya instansiyasi sudlari tomonidan ajrimlar chiqarishda moddiy huquq normalarini noto'g'ri tatbiq qilish bilan bog'liq holatlar sud amaliyotida haligacha davom etib kelmoqda. Buning yaqqol ko'rinish sifatida hozirgi kunda apellyatsiya va kassatsiya sudlarida ish hajmining qo'pligidan va birinchi instansiyada ko'rilgan ko'pchilik ishlar albatta apellyatsiya va kassatsiyada ko'rishligini misol qilishimiz mumkin.

Shuningdek, kassatsiya instansiyasi sudlari ajrimlarining asoslantiruvchi qismida kassatsiya shikoyati o'zgarishsiz, ayniqsa, shikoyat qisman qanoatlantirilganlik asoslari har doim ham keltirilmaydi.

Shu sababli, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumida jinoyat ishlari bo'yicha kassatsiya instansiyasi sudlari tomonidan chiqarilgan ajrimlar muhokama qilinib, yangitdan ko'rishlik uchun qo'yi turuvchi sudlarga yuborilmoqda. Ushbu jarayonlarda qilinayotgan shunga o'qshash xatolar tufayli ishlar xuddi aylana shaklga o'xshab, qonuniy o'z yechimini topishda bir qancha qiyinchilikka uchramoqda.

Shuningdek keyingi masalaga to'xtalib utadigan bo'lsak, qayta kassatsiya instituti haqida so'z yuritamiz. Xo'sh adolatni qaror toptirishda qayta kassatsiya yoki takroriy kassatsiya qanchalik foyda beryapti? ushbu savolga javob berishda quyidagi ma'lumotlarga yuzlanamiz.

Kassatsiya tartibida (Oliy sud) birinchi instansiya sudining apellyatsiya tartibida ko'rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari, shuningdek apellyatsiya instansiyasi sudining hukmlari, ajrimlari kassatsiya tartibida qayta ko'rilishi, kassatsiya instansiyasi sudining qarorlari sud tergovining to'liq emasligi yoki bir yoqlama olib borilganligi, sudning hukmda bayon qilingan sud xulosalari ishning haqiqiy holatlariga muvofiq kelmasligi, JPK normalarining jiddiy ravishda buzilganligi, Jinoyat kodeksi normalarining noto'g'ri qo'llanilganligi, **jazoning adolatsizligi to'g'risdagi asoslar mavjud bo'lganda** O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori va ularning o'rinbosarlari protestiga ko'ra takroran kassatsiya tartibida qayta ko'rilishi belgilandi.

Lekin hozirgi kunda takroriy kassatsiya avvalgi kassatsiyada ko‘rilgan ishlarning o‘zini ko‘rib chikayapti (dublikat ishlar), avvalgisi bilan bir-xil ishni kurishyapti. Ushbu masala ham o‘z qonuniy yechimiga muhtoj bizningcha.

Yana bir o‘z yechimini kutayotgan masala zararni qoplash bilan bog‘liq masaladir. Sababi, Apellyatsiya instansiya sudida jinoyat ishi ko‘rilmagan taqdirda hamda qonuniy kuchga kirgan sud hukmidan so‘ng zarar to‘lik qoplangan bo‘lsa, shaxs avvalgi ozoldikdan mahrum qilish jazosi bilan qolib ketishi mumkin, chunki ishni kassatsiya instansiyasi sudida ko‘rish mumkin emas. Ushbu muammo qonuniy yechimini topishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Sudlarning asosiy vazifasi adolatni qaror toptirishdan iborat. Buning uchun sud har bir ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli qaror chiqarishi lozim. Keyingi yillarda mamlakatimizda sud sohasida islohotlarning mazmuni quyidagilar bilan izohlanadi: sudning mustaqilligi va beg‘arazligi, sud protsessida tomonlarning tortishuvi va teng huquqlilik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish, odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Lekin ushbu joyda savol tug‘iladi ushbu amalga oshirilayotgan islohotlar qanchalik samarali bulyapti yoki qabul qilinayotgan qarorlar qanchaliq amaliyotga tadbiiq qilinayapti. Barchamizga ma‘lumki hozirgi kunda ko‘pgina islohotlar sud sohasida amalga oshirilyapti va masalar qisman yoki to‘liq o‘z yechimini topmoqda. Lekin muxtaram Prezidentimiz ta‘kidlab o‘tganidek “Sud idoralari hali-hamon har qanday holatda adolat qaror topadigan maskanga aylangani yo‘q”.

O‘z navbatida jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda ishlarni kassatsiya tartibida ko‘rishni yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, kassatsiya instansiyasi sudlari tomonidan odil sudlovni sifatli amalga oshirilishini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilinishini ta‘minlash maqsadida xorijiy davlatlarning qonunchilik tajribasini chuqur tahlil qilgan holda asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu esa o‘z navbatida jinoyat hamda jinoyat-protsessual qonunchiligini isloh qilish yuzasidan asosli takliflarni ishlab chiqish va uni amaliyotga keng joriy etish zaruratini taqozo etadi.

Jinoyat-protsessual faoliyatning bir turi o‘laroq, kassatsiya tartibida ish yuritish tegishli vazifalarni bajarish va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlarga

erishishga da'vat etilgan<sup>299</sup>. Hozirgi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarda (Belgiya, Fransiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Gresiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Ispaniya, Portugaliya)da jinoyat ishlarini kassatsiya tartibida ko'rishning turi mavjuddir. Lekin ushbu davlatlarda kassatsiya instansiyasi turli qo'rinishda ifodalanadi.

Ammo, ba'zi bir davlatlar (Daniya, Finlyandiya, Shvesiya, Avstriya) jinoyat ishlarini kassatsiya tartibida ko'rishni istisno qilishadi. Misol uchun, Yeprova mamlakatlaridan Fransiya davlatini oladigan bo'lsak, ushbu davlatda jinoiy ishlar kassatsiya tartibida ko'rib chiqiladi, ammo faqatgina yuqori turuvchi sud organi, ya'ni Oliy sud tomonidan amalga oshiriladi. E'tiborli jihati shundaki, Fransiya davlatida sud qarorlari ustidan shikoyat qilishning eng so'nggi bosqichi bu kassatsiya tartibida berilgan shikoyat hisoblandi. Shuningdek, ushbu instansiya sudi qo'yi turuvchi sudlar tomonidan chiqarilgan qarorni Fransiya davlatining qonunchiligiga zid yoki zid emasligi to'g'rsidagi masalani ko'rib chiqib, sud qaroriga baho berish bilan cheklanadi, ya'ni, jinoyat ishi materiallaridagi holatlarni to'lik tekshirib chiqmaydi. Misol uchun, shaxsning jinoyat sodir etishda aybli yoki aybsiz ekanligini hamda jinoyat ishi bo'yicha taqdim qilingan dalilarni qaytadan tekshirib ko'rmaydi. Qolaversa, kassatsiya sudi qo'yi turuvchi sudlar tomonidan chiqarilgan qarorni o'zgartirish vakolatiga ega emas. Qabul qilingan qarorlarni bekor qilish yoki kassatsiya shikoyatini rad qilish bilan cheklanadi. Birinchi instansiya tomonidan chiqarilgan hukm bekor qilingan taqdirda yangitdan ko'rish uchun qo'yi turuvchi sudlarga yuboriladi. Umuman olganda, ushbu davlatda jinoyat ishlarini kassatsiya tartibida ko'rib chiqishning ikki xil turi mavjuddir. Birinchisi, tomonlarning shikoyati asosida, ikkinchisi, qonunchilikka zid ravishda chiqargan sud qarorlari asosida ko'rib chiqadi. Bundan ko'zlangan yagona vazifa, tomonlar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va sud amaliyotidagi kamchiliklarni bartaraf qilish hisoblanadi.

Fransiya davlatida jinoyat ishlarini kassatsiya tartibida ko'rish Rossiya davlatidan farqli o'laroq, ushbu davlatda kassatsiya shikoyatini faqatgina jinoyat ishining ishtirokchilari hisoblanuvchi tomonlargina berishi mumkin. Rossiya Federatsiyasining jinoyat-protsessual kodeksi 4012-moddasiga ko'ra, nafaqat ishda ishtirok etuvchi shaxslar balki huquq va qonuniy manfaatlariga ta'sir ko'rsatuvchi shaxs ham shikoyat berishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Fransiya davlatining jinoyat-protsessual kodeksi 567-moddasiga ko'ra, kassatsiya tartibida shikoyat qilish uchun shikoyat beruvchi shaxsga zarar yetkazilgan bo'lishi talab etiladi. Bunda, kelib

<sup>299</sup> Мартынич Е.Г. Кассационное производство в российском уголовном процессе некоторые особенности и черты.//Российский судья, № 12, 2002. – С. 11.

chiqgan zarar haqiqatdan ham katta miqdorda bo'lishi kerak. Jinoyat ishlarini kassatsiya tartibida ko'rishni Fransiya va Rossiya davlatlari o'rtasidagi farqlarni qiyosiy tahlil qilsak, Fransiya davlatida kassatsiya shikoyatini bergan shaxs shikoyat bergan kundan boshlab uch kun muddat ichida yozma shaklda prokuratura organlariga xabardor qilish kerak. Navbatdagi farqi shundaki, Fransiya davlatida kassatsiya shikoyatinig ikki xil turi mavjud. Rossiya davlatida esa xar qanday berilgan kassatsiya shikoyati umumiy ko'rinishda qabul qilinib ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksiga ko'ra, amalda sud qarorlarining ustidan shikoyat qilishning apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibidagi turlari mavjud edi, lekin keyingi yillarda qonunchilikka kiritilgan o'zgarishlarga qo'ra, nazorat intituti tugatildi, hozirda faqatgina apellyatsiya va kassatsiya tartibi va shuningdek qayta kassatsiya mavjud. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasida sudlov ishlarini yuritish Rossiya davlatining amaldagi qonunchiligi bilan deyarli o'xshash xarakterga egadir. Birgina, Qozog'iston Respublikasining qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, har qanday jinoyat ishi kassatsiya tartibida ko'rib chiqilmaydi. Ya'ni, Qozog'iston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksi 484-moddasida, kassatsiya tartibida ko'rilishi mumkin bo'lmagan holatlar ko'rsatib o'tilgan. Mazkur tajriba, nafaqat O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida, shuningdek Rossiya davlatining qonunchiligida ham mavjud emas. Qozog'iston Respublikasida kassatsiya tartibidagi jinoyat ishlar faqatgina Oliy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda kassatsiya instansiya sudlari ko'pgina davlatlarning sud sistemasida mavjud, lekin ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularning xar-biri bir-birini takrorlamaydi. Ulardan eng optimal variantlarini qonunchiligimizga tadbiq qilsak maqsadga muvofiq buladi deb hisoblaymiz.

Shuningdek, yuqoridagi masalalar yuzasidan quyidagi takliflarni berib o'tmoqchiman:

Birinchidan, avvalgi ishni takrorlovchi qayta kassatsiya instituti bekor qilinishi kerak deb hisoblaymiz yoki ish buyicha yangi ochilgan holatlar yuzasidangina ushbu kassatsiya faoliyatiga yo'l qo'yilishi lozim;

Ikkinchidan zararni qoplash bilan bog'liq muammo buyicha esa ish buyicha apellyatsiyada zarar qoplanmagan bo'lsa lekin kassatsiya kelib zarar qoplangan



hozirda kassatsiya apellyatsiyaga ishni qaytarashini hisobga olib ushbu ishni qaytarmasdan kassatsiya o‘zi qo‘rib chiqishi lozim deb hisoblaymiz;

Uchunchidan esa, davlatimizning jahon hamjamiyatiga chuqur integratsiyalashuvini inobatga olib, ilg‘or mamlakatlar yuridik tajribasidan foydalanib, o‘z milliy qadriyatlarimizga mos ravishda qonunchilikni rivojlantirib, huquq tartibotni mustahkamlanib borishi ilmiy metodologik asoslarini jinoyat protsessida kassatsiya institutiga nisbatan qo‘llash va o‘rganishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

### **REFERENCES**

1. 2021 yil 12 yanvardagi “Jinoyat ishlari bo‘yicha sud qarorlarini qayta ko‘rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 664-son O‘zbekiston Respublikasi qonuni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni;
3. 2021 yil 27-noyabrdagi “Jinoyat ishlarini kassatsiya tartibida kurish buyicha sud amaliyoti tugrisida” 37-son Oliy sud plenum qarori;
4. Ilyutchenko N. V. The impact of judicial reform on the accessibility of justice //Materials of the International Scientific and Practical Conference dedicated to the 100th anniversary of the Kuban State University. Judicial reform in Modern Russia: results, problems and prospects. Krasnodar, 2020.
5. The Law of the Russian Federation on the amendment to the Constitution of the Russian Federation of 14.03.2020 No. 1-FKZ "On improving the regulation of certain issues of the organization and functioning of public power". 2020. No. St. 1416.

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA ISTE'MOLCHILAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

**Erkaboyev Abrorjon Xabibullo o'g'li,**

Farg'ona Politexnika instituti, assistent

E-mail: [abrormsm@gmail.com](mailto:abrormsm@gmail.com)

**Isroilova Nilufar Farhodjon qizi**

Toshkent kimyo texnologiyalari instituti magistranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda ISO 22000 standartlarining vazifalari, HACCP tizimi orqali xavfsiz bo'lgan mahsulotlarni aniqlash yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** oziq-ovqat mahsulotlari, mahsulotlar xavfsizligi, HACCP tizimi, ISO 22000 standarti.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье освещены обеспечение безопасности пищевых продуктов на основе стандарта ISO 22000, определение безопасности продуктов в системе на HACCP.*

***Ключевые слова:** пищевые продукты, безопасность продуктов, система HACCP, стандарт ISO 22000.*

### ABSTRACT

*This article highlights food safety assurance based on the ISO 22000 standard, the definition of food safety in the HACCP system.*

***Keywords:** food, food safety, HACCP system, ISO 22000 standard.*

### KIRISH

HACCP tizimi - bu mumkin bo'lgan xatarlarning oldini olishga asoslangan oziq-ovqat xavfsizligiga tizimli yondashuv. HACCP qisqartmasi inglizcha so'zlarning qisqartmasi – Hazard Analysis and critical control point (xatarlarni tahlil qilish va muhim nazorat nuqtalarini aniqlash). Rus tilidagi versiyada HACCP belgilanadigan belgisi ishlab chiqilgan.

HACCP - bu oziq-ovqat mahsulotlari zanjirining mutlaqo barcha bosqichlarida, ishlab chiqarish jarayonining istalgan nuqtasida, shuningdek, xavfli vaziyat yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mahsulotni saqlash va sotishda nazoratni ta'minlaydigan oziqovqat xavfsizligini boshqarish tizimi.

HACCP tizimi asosan oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi kompaniyalar tomonidan qo'llaniladi. Rivojlangan mamlakatlarda har bir ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotlarini ishlab chiqarishning barcha texnologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z

HACCP tizimini ishlab chiqadi. Rivojlangan tizim ishlab chiqarish texnologiyalari jarayonlari o'zgarishlariga rioya qilish uchun qayta ishlanishi mumkin.

2005 yil sentabr oyida HACCP uchun birinchi xalqaro standart ISO 22000: 2005 «Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimlari. Oziq-ovqat zanjiridagi har qanday tashkilotga qo'yiladigan talablar". ISO 22000 oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish standarti sifatida maxsus ishlab chiqilgan va quyidagi talablar bloklarini o'z ichiga oladi:

Menejment tizimiga: bu oziq-ovqat zanjiri ishtirokchilari uchun tegishli bo'lgan ISO 9001 standartining "qisqartirilgan" talablari;

Xatarlarni tahlil qilish uchun: HACCP usulini to'liq bajarish; Ishlab chiqarishning asosiy dasturlari (sanitariya-gigiena vositalari, jihozlarni ta'mirlash va yuvish, zararkunandalarga qarshi kurash va boshqalar) dasturiga.

Xuddi shu tarzda, hayvonlarni ishlab chiqarish jarayonida faqat hayvonlarning sog'lig'i uchun tasdiqlangan dori vositalaridan foydalanish kerak va ular etarli dozada bo'lishi kerak. Dori-darmonlarni veterinariya retseptisiz ishlatish mumkin emas. Bundan tashqari, hayvonlar muntazam va o'z vaqtida emlanishi kerak. Hayvonlarning boshpanalari toza bo'lishi kerak va transport vositalari ularni tashish paytida mos sharoitlarda bo'lishi kerak. Hayvonlarni ishlab chiqarishda kuzatuvchanlikni ta'minlash uchun ishlatiladigan dorilar, vaksinalar va ozuqalarni ro'yxatdan o'tkazish kerak.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'simliklar yoki hayvonlarni ishlab chiqaradigan barcha korxonalar ishlab chiqarilgan, qayta ishlangan, import qilingan yoki tarqatilgan oziq-ovqat mahsulotlarining oziq-ovqat xavfsizligi talablariga muvofiqligi uchun javobgardir. Belgilangan shartlarga mos kelmaydigan mahsulotlarni bozordan olib chiqib ketishi va ushbu masala bo'yicha rasmiy hokimiyatni xabardor qilishi kerak. Barcha oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan korxonalar ishlashga ruxsat olishlari, shuningdek, ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun Oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi va chorvachilik vazirligidan ishlab chiqarishga ruxsat olishlari shart. Ishlab chiqarilgan har qanday oziq-ovqat mahsulotlari oziq-ovqat xavfsizligi talablariga javob berishi kerak. Bundan tashqari, korxonalar izlanishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan yozuvlarni yuritishi, HACCP Xavfni tahlil qilish va muhim nazorat punktlari tizimining asosiy talablarini amalga oshirishi, xodimlarni gigiena bo'yicha o'qitishi, mahsulotlarning oziq-ovqat xavfsizligi va sifatiga muvofiq ishlab chiqarilishini ta'minlashi kerak, qisqasi iste'molchiga xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini taklif qilishi kerak.

Oziq-ovqat korxonalarida mahsulot xavfsizligi va sifatini boshqarish tizimiga yagona xalqaro talablarning mavjud emasligi ISO 22000 seriyali "Oziq-ovqat

mahsulotlarining xavfsizlik menejmenti tizimi. Yetkazib berish zanjirining barchasiga talablar”ni ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi va u 2005-yilning sentabridan amalga kiritilgan. ISO 22000 HACCP va ISO 9001:2015 standartini birlashtiruvchi oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini boshqarish tizimini bayon etib, bir vaqtning o‘zida GMP (yaxshi ishlab chiqarish tajribasi) dastlabi shartlar dasturini birlashtiradi va tushunchalariga izoh beradi. Ushbu standartda asosiy e’tibor oziq-ovqat mahsulotlari xavf-xatar chiqaruvchi, xavf-xatarlarni samarali boshqarish va tizim jarayonlari modernizatsiyalash yo‘li bilan xaridorlarni qanoatlantirishga qaratilgan. Ayni paytda hujjatlarning tuzilmasi bu tizimni sifat menejmenti va atrof muhitni himoyalash tizimlarga qulay birlashtirish imkonini beradi. Oxirgi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ISO 22000 seriyali standart juda ommabop bo‘lib, oxirgi 2 yilda bu standart bo‘yicha sertifikatlashtirilgan korxonalar 3 martaga ko‘paygan. Sifat menejment tizimini joriy qilgan korxonaning ko‘rsatkichlari o‘shisi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Komplekslar nomi	Ishlab chiqiladigan standartlar soni				
	Jam i	2016- y	2017- y	2018- y	2019- y
Jami	174	76	42	21	35
Qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash	71	63	19	2	9
Mashinasozlik	43	13	13	7	8
Ijtimoiy soha	10	2	3	3	2
Kommunal soha va transport	7	2	2	2	1
YEK (TEK)	28	14	7	5	2
Ta’lim, madaniyat va sport	9	4	1	2	2
AKT	6	2	2	1	1

Hozirgi kunda O‘zbekistonda sifat menejmenti tizimiga talablarni o‘rnatuvchi O‘z DSt ISO 22000:2010 “Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejmenti tizimi. Oziq-ovqat mahsulotlarini yaratish zanjirida qatnashuvchi tashkilotlarga talablar”

standarti qabul qiligan va amalga joriy etilgan. Standarning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi fermalaridan boshlanib to do‘kon savdosigacha tugagan oziq-ovqat zanjiri doirasida oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini boshqarish global uyg‘unlashtirish bo‘lib hisoblanadi.

ISO 22000:2005 – bu standartlar oilasining birinchi standarti bo‘lib u o‘z ichiga quyidagi hujjatlarni qamrab oladi: ISO/TS 22004:2005 «Oziq-ovqat xavfsizligi tizimi - ISO 22000:2005 ni qo‘llash bo‘yicha qo‘llanma» bo‘lib, u 2005 yil noyabrda nashr etilgan.

ISO/TS 22003:2007 «Oziq-ovqat xavfsizligi tizimi - Oziq-ovqat xavfsizligi tizimi sertifikatlashtiruvchi va audit o‘tkazuvchi idoralar uchun talablar». U sertifikatlashtirish idorasini akkreditlashtirish bo‘yicha uyg‘unlashtirilgan qo‘llanma bo‘lib, Standartga muvofiq Oziq-ovqat xavfsizligi tizimi auditi bo‘yicha qoidalarni aniqlaydi. 2006 yilning birinchi kvartalida nashr etilgan. ISO 22005 «Oziq-ovqat mahsulotlari va omuxta-yem zanjirida kuzatuvchanlik – Umumiy tamoyillar va loyihalashtirish va ishlab chiqish bo‘yicha qo‘llanma». ISO 9001:2015 Sifat menejment tizimini joriy qilgan korxonaga qanaqa mahsulot yoki xizmat ko‘rsatishning qaysi turi bilan shug‘ullanishidan qat’iy nazar sifat jihatdan eng yuqori natijalarga erishadi va bozorda mustahkam o‘z o‘rniga ega bo‘ladi va vaqt o‘tish davomida sifatni boshqarish sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashga olib keladi.

## **XULOSA**

Mutaxassislarning fikricha, bugun ISO 22000 oziq-ovqat korxonalarini uchun boshqaruv tizimining eng muvaffaqiyatli va samarali modelini taqdim etadi. ISO 22000 Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimi standarti Xalqaro Standartlar Tashkiloti (ISO) tomonidan 2005 yilda nashr etilgan va butun dunyoda xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish zanjirini yaratish uchun mo‘ljallangan xalqaro standartdir. Oziq-ovqat xavfsizligi nuqtai nazaridan o‘simliklarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan o‘g‘itlar va kimyoviy moddalar mahsulot uchun tavsiya etilgan litsenziyalangan dori-darmonlarga ega bo‘lishi kerak va ular etarli dozalarda va kerakli vaqtda ishlatilishi kerak. Bundan tashqari, purkash va hosilni yig‘ish o‘rtasidagi vaqt juda muhimdir. Kuzatib borilishini ta‘minlash uchun ishlatiladigan preparatlar va mahsulotni yig‘ish chastotasi o‘simliklarni ishlab chiqarish bosqichlarida qayd etilishi kerak.

## **REFERENCES**

1. Xabibulloqli, E. A., & Abdulkarimovna, M. U. (2021). Assessment of metrological reliability of measurements using the method of producing functions. *Academia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 520-528.

2. Masharipov, S. H., Mamatkulov, M. N., & Erkaboyev, A. X. (2020). Metrological Accuracy and Estimation of Extended Uncertainty of Pressure Gauge in Real Conditions of Explation International journal of advanced research in science. Engineering and technology (IJARSET), 7(5), 13801-5.
3. Rustamov, U. S., Alixonov, E. J., Erkaboyev, A. X., Isroilova, S. X., & Boymirzayev, A. R. (2021). Farg'ona viloyati aholisini elektr energiyasi tanqisligini bartaraf etishda Mikro-GESlardan foydalanish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 603-610.
4. Шаймардонович, Ж. Х. (2020). Сиғим электродли дон ва дон маҳсулотларини намлигини ўлчаш ўзгарткичининг умумий ўлчаш хатолигини ҳисоблаш усули. Science and Education, 1(6), 74-79.
5. Mihoilovich, E. K., & Xabibulloogli, E. A. (2021). Selection of methods of acceptance inspection in production. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1350-1355.
6. Эргашов Қ, М., & Эркабоев, А., Х. (2021). Ўлчаш воситаларининг қиёслаш нуқталари жойлашуви ва сони. НТЖ ФерПИ, 25(5), 182-184.
7. Abdumalikova, Z. I. (2021). Manifestation of Sources of Uncertainty in Measurements. *Central asian journal of theoretical & Applied sciences*, 2(12), 301-305.
8. Yusupjon, M., & Jamoldinovich, A. E. Photoelectric methods for automatic linear density control cotton tapes. // International Journal For Innovative Engineering and Management Research. Vol. 09, Issue 12, Pages: 82-87 DOI: 10.48047/IJEMR/V09/I12/15
9. Йулдашев, Х. Т., Эргашев, К. М., Алихонов, Э. Ж., Иброхимов, Ж. М., & Рустамов, У. С. (2021). Исследование процессов токового усиления в системе полупроводник-газоразрядный промежуток. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 114-123.
10. Рустамов, У. С. (2020). Математическое и компьютерное моделирование Микро-ГЭС башенного типа. Экономика и социум, (12), 58-62.
11. Рустамов, У. С. (2021). Определение мощности Микро-ГЭС в электроснабжении населения с помощью микропроцессорного устройства для определения энергозатрат воды и расхода воды. Universum: технические науки, (12-6 (93)), 32-36.
12. Yuldashev, K. T., Ergashev, Q. M., Ibrokhimov, J. M., Madmarova, U. A., & E.J. Alikhanov. (2019). The study of Stability Combustion of the Gas Discharge in Sub-micron Gas-filled Cell with Semiconductor Electrode. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 6(11), 11907-11911.

13. Мамасадиқов, Ю., & Алихонов, Э. Ж. (2020). Фотоэлектрические методы для автоматического контроля линейной плотности хлопковые ленты. НТЖ ФерПИ, 80-85.
14. Nurmatamat, U., & Kaxramon, E. (2021). Influence of the probabilistic nature of the change in the measured quantity on the measurement error. *Universum: технические науки*, (12-7 (93)), 20-23.
15. Эргашов, К. М. (2021). Улучшение измерительных параметров двухволнового оптоэлектронного устройства. *Universum: технические науки*, (11-2 (92)), 49-52.
16. Хосилов, Д. Д., Мадаминов, М. Р., & Йулдашев, Х. Т. (2021). Исследование вольт-амперная характеристика в системе полупроводник- газоразрядный промежуток. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 625-634.
17. Isroilova, S. X. (2021). Proper organization of the quality management system is the basis of competitiveness. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(12), 89-99.
18. Boymirzaev, A. R. (2021). Optoelectronic two-wave gas analyzer. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(12), 127-132.
19. Тожибоев, А. К., & Боймирзаев, А. Р. (2020). Исследование использования энергосберегающих инверторов в комбинированных источниках энергии. *Экономика и социум*, (12), 230-235.
20. Мамасадиқов, Ю., & Алихонов, Э.Ж. (2021). Оптоэлектронное устройство для контроля линейной плотности хлопковых лент с функциональной разветкой. *Universum: технические науки: электрон. научн. журн*, 10, 91.
21. Ibrokhimov, J. M. (2020). Application of the solar combined systems consisting of the field of flat and parabolocylindrical collecting channels for hot water supply of the industrial factories. *Academia: An international multidisciplinary research journal*, 10(12), 1293-1296.
22. Obidov, J. G., & Alixonov, E. J. (2021). Organization of the education process based on a credit system, advantages and prospects. *Academia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1149-1155.
23. Jamoldinovich, A. E. (2020). The importance of metrology and standardization today Alikhonov Elmurod. *International scientific and technical journal "Innovation technical and technology"*, 1(4), 1-3.
24. Obidov, J. G. O. (2020). About safety technique and issues of supplying electricity of the textile industry. *Academia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(9), 123-127.

25. Алихонов, Э. Ж. (2021). Определение линейной плотности хлопковые ленты фотоэлектрическим методом. *Universum: технические науки*, (11-2 (92)), 35-38.
26. Эргашев, К. М., & Мадмарова, У. (2018). Компьютерная модель микро-ГЭС с использованием потенциальной энергии геотермальных вод. In *Современные технологии в нефтегазовом деле-2018* (pp. 376-379).
27. Ergashov, K. M., & Madmarova, U. A. (2020). Technics of the infra-red drying of farm products. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1351-1355.
28. Khurshidjon, Y., Abdumalikovna, A. Z., Muminovna, U. G., & Mirzasharifovna, Q. G. (2020). The study of photoelectric and photographic characteristics of semiconductor photographic system ionisation type. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 72-82.
29. Alikhonov, E. J. (2021). Determination of linear density of cotton ribbons by photoelectric method. *Science and Education*, 2(11), 461-467.
30. Ibrokhimov, J. M. (2021). Features of methods of optimising calculation of parameters the combined solar power installations. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 1043-1047.
31. Obidov, J. G., & Ibrohimov, J. M. (2021). Application and research of energy-saving lighting devices in engineering networks. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1370-1375.
32. Xakimov, D.V., Isroilova, S. X., Alikhanov, E.J., Zayliddinov, T.A., & Ergasheva, G.E. (2020). Product Quality Control at Engineering Enterprises. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, Vol. 7, Issue 2, February 2020, 12843-12848.



## **ERKIN IKTISODIY ZONALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**Primov Sirojiddin Furqat o'g'li**

Toshkent moliya instituti

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy yuksalish uchun asosiy omil hisoblangan erkin iqtisodiy zonalar, ularning jozibadorligi va uni baholash mezonlari zarurligini nazariy asoslari yoritilgan. Bu o'z navbatida xar bir viloyatni o'zining mineral va resurs boyliklaridan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishni talab qilinadi. Ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, eksport salohiyatini oshirish diversifikatsion siyosatni kuchaytirish mintaqalar iqtisodiyotini barqarorligini va mamlakatimizdagi hozirgi holati yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** investitsiya, investitsion jozibadorlik, harakatlar strategiyasi, salohiyat, bozor konyukturasi, strategik dastur, iqtisodiy zona, sanoat zona.

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье описаны теоретические основы свободных экономических зон, которые являются ключевым фактором социально-экономического роста страны, их привлекательность и необходимость критериев ее оценки. Это, в свою очередь, требует от каждого региона размещения и развития своих производительных сил на основе своих минерально-сырьевых ресурсов. В частности, выделены малый бизнес и частное предпринимательство, усиление экспортной политики, усиление политики диверсификации, устойчивость региональных экономик и текущая ситуация в стране.*

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционная привлекательность, стратегия действий, потенциал, конъюнктура рынка, стратегическая программа, экономическая зона, промышленная зона.

### **ABSTRACT**

*The article describes the theoretical foundations of free economic zones, which are a key factor in the socio-economic growth of the country, their attractiveness and the need for criteria for its evaluation. This, in turn, requires each region to locate and develop its productive forces based on its mineral and resource resources. In particular, small business and private entrepreneurship, strengthening export policy, strengthening diversification policies, the stability of regional economies and the current situation in the country are highlighted.*

**Keywords:** *investment, investment attractiveness, action strategy, potential, market conditions, strategic program, economic zone, industrial zone.*

## **KIRISH**

Erkin iqtisodiy zonalar jahon iqtisodiyotining noyob rivojlanish shakliga aylandi va ko‘plab mamlakatlarda keng tarqalgan. So‘ngi 5 yil mobaynida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda EIZlar tashkil etilishining faol o‘shish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bugungi kunda mavjud 5400 ta EIZlarning qariyb 1000 ga yaqin turli xil turdagi zonalar qayd etilgan muddatda tashkil etilgan bo‘lib, yana 500 tasi 2021 va undan keyingi yillarda tashkil etish bosqichidir[1]. Butun jahon eksport ishlab chiqarish zonalar assotsiatsiyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, jahon savdosining 30% dan ortig‘i erkin iqtisodiy zonalar orqali amalga oshiriladi[2]. Erkin iqtisodiy zonalar eksport komponentini oshirish, xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etmoqda.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Erkin iqtisodiy hududlar to‘g‘risidagi tushunchalar va ularning mazmun-mohiyati borasida tadqiqotlar olib borgan xorijiy va mahalliy olimlarning ayrim fikrlari turlicha ekanligining guvohi bo‘lamiz.

Bu borada iqtisodchi olim, Muminov N.G. EIZ deganda mamlakat (davlatlar) xo‘jalik kompleksining ajralmas qismi bo‘lgan davlatning (davlatlarning) suveren hududi tushunilib, unda ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish va taqsimlash ta‘minlanib, ishlab chiqarish va taqsimotning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishning maxsus mexanizmlaridan foydalangan holda, uning chegaralarini diffuzion kengayishi va tarqalishiga qodir bo‘lgan malum bir butun mamlakat bo‘ylab yaxlit, korporativ maqsadga erishish taminlanadi [3].

Shuningdek, P.V. Pavlov Maxsus hududiy subektlarni tashkil etishi, faoliyat ko‘rsatishi va faoliyatini tugatish sohasidagi jamoat munosabatlarini tartibga soluvchi xuquqiy normalarni birlashtiradigan mustaqil muassasadir [4].

A.V. Vaxabov fikricha, Erkin iqtisodiy zona - bu davlatda qabul qilingan xo‘jalik faoliyatining tartibiga nisbatan imtiyozli soliq rejimi qo‘llaniladigan geografik hudud. Boshqacha qilib aytganda, bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo‘lib, u yerda uning boshqa qismlarida ishlamaydigan malum imtiyozlar tizimi qo‘llaniladi va bu hududda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamayadi [5].

J.I.Karimqulov fikricha, Erkin iqtisodiy hududlar deganda, muayyan iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda kengaytirilgan mustaqillikka, boshqaruvning maxsus


rejimi va investorlar iqtisodiy faoliyati uchun qulay sharoitlarga ega bo'lgan hududni tushunish mumkin. Fikrimizcha ushbu umumiy ta'rif, jahon amaliyotida uchraydigan turli xil va shakllardagi erkin iqtisodiy hududlar va ularga berilgan ta'riflarni bitta umumiy qatorda joylashtirish imkonini beradi [6].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maqolada tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tahlil qilish, sintez qilish va prognozlashtirish usullari qo'llanilgan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI.**

Mamlakatimiz hududlarining ishlab chiqarish, resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash, transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarining alohida o'rni bor. Angren erkin iqtisodiy zonasini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, Angren EIZ tashkil etilganidan buyon umumiy qiymati 285 mln. AQSH dollariga teng 15 ta loyiha amalga oshirildi va qariyb 840 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.



**1-rasm. Angren EIZ mahsulotlar eksport hajmi (mln. AQSH dollari) [7]**


1-rasm ma'lumotlari tahlil natijalaridan ko'rinadiki, Angren erkin iqtisodiy zonasida mahsulotlar eksport hajmi yillar sayin ko'payish tendensiyasiga ega bo'lib, 2013 yilda 0,17 mln. AQSH doll.ni, 2014 yilda 0,98 mln. AQSH doll.ni, 2015 yilda 6,9 mln. AQSH doll.ni, 2016 yilda 13,0 mln. AQSH doll.ni, 2017 yilda 16,2 mln. AQSH doll.ni, 2018 yilda 17,9 mln. AQSH doll.ni, 2019 yilda 23,1 mln. AQSH

doll.ni tashkil qilgan bo'lsa, 2020 yilga kelib, bu ko'rsatkich 2013 yilga nisbatan 24,53 mln. AQSH doll.ga ko'paygan va 24,7 mln. AQSH doll.ni tashkil qilgan.

2010-2019 yillarda umumiy qiymati 1141,1 million dollarlik jami 241 ta investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi doirasida 19672 ming ish o'rni yaratildi. Eng ko'p loyihalar 2018 yilda amalga oshirildi, ya'ni 392,3 mln. AQSH dollariga teng 83 loyiha va 2019 yilda 491,8 mln. AQSH dollariga teng 99 loyiha, 2011 yilda eng kichik loyiha, ya'ni 17,8 mln. AQSH dollariga teng 2 loyiha (2-rasm).

Bunday holatning asosiy sababi iqtisodiyotdagi og'ir vaziyat, O'zbekistonning asosiy savdo sheriklari mamlakatlaridagi inqirozdan keyingi davr, jahon va mintaqaviy investitsiya kapitali bozoridagi raqobatning keskin kuchayishi, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining 2017 yilgacha tizimli muammolari, kapital egalarining investitsiya faolligi sezilarli darajada pasayishiga olib keldi.


Biroq, 2017 yildan boshlab valyuta kursini unifikatsiyalash, ishlab chiqarish tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyani amalga oshirish, investitsiya resurslari bazasini kengaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash va chet el investitsiyalarini, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish bo'yicha ko'rilgan choralar o'sish va investitsiya faoliyatining rivojlanishiga turtki bo'ldi.



## **2-rasm. 2010-2019 yillarda EIZ hududida investitsiya loyihalarini amalga oshirish dinamikasi [8]**

Mamlakatimizda EIZ rivojlantirish so'nggi yillarda misli ko'rilmagan darajada tus olmoqda. Birgina 2017- 2019 yillarda 15 ta EIZ tashkil etildi. So'nggi ikki yil

ichida sanoat ko'rsatkichlarida ham sezilarli darajada o'sish kuzatildi. EIZ hududida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va uning eksporti o'sishi ta'minlandi (3-rasm).



**3-rasm. EIZ ishtirokchilari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish ko'rsatkichlari dinamikasi [9]**

Shuningdek, mamlakatimizda EIZlar quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: tashqi iqtisodiy aylanmasining salbiy saldosini, ishlab chiqarish va eksport diversifikatsiyasining pastligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligining pastligi va boshqalar. Eksport salohiyati baland bo'lgan, yuqori samarali innovatsion sanoat zonalarini shakllantirishga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR.**

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-2023 yillarga mo'ljallangan erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash.

2. O'zbekiston Respublikasining yangi qabul qilingan "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonun me'yorlari asosida amaldagi qonunchilikni bixillashtirish.

3. EIHlar mazmunini ochib berishga bo'lgan katta qiziqish bugungi kunga qadar davom etmoqda. Shu sababdan turli iqtisodchi-olimlar va mutaxassislar tomonidan uning mazmunini yoritib berishga bo'lgan urinish va tadqiqotlar hamda ta'rifini keltirishga oid amaliy harakatlar davom etib kelayotganligini ko'rish mumkin.

4. EИHлар - shunday geografik hududki, unda mamlakatda qabul qilingan xo'jalik faoliyati tartibiga qaraganda imtiyozli soliq to'lash va bojxona tartibi joriy etiladi. Boshqacha ifodalaganda, ushbu hududda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib, mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan ma'lum imtiyozlar tizimi joriy etiladi. Shunga ko'ra, EИH mamlakat hududining imtiyozli bojxona, valyuta, soliq, viza va mehnat rejimlari joriy etilgan maxsus ajratilgan qismidir.

## REFERENCES

1. [https://unctad.org/en/Publication\\_Chapters/WIR2019\\_CH4.pdf](https://unctad.org/en/Publication_Chapters/WIR2019_CH4.pdf) 2019y.
2. О.Н. Артемьева “Совершенствование экономического механизма функционирования свободных экономических зон” автореферат диссертации. г.Москва, Российская Федерации.
3. Муминов Н.Г. Свободные экономические зоны. Учебное пособие, Национальный Университет Узбекистана. Ташкент-2005,- 8 с.
4. Павлов П.В. Институт особых экономических зон в РФ финансово - правовые и организационно -экономические аспекты функционирования./- М.: ИНФРА-М, 2010.-256 с.
5. Вахабов А.В. Хожибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Иностранные инвестиции. Учебное пособие. – Т.:Молия, 2010. -С.180
6. Karimqulov J.I. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – Т.: ВМА, 2019. – 13 б.
7. [www.invest.gov.uz](http://www.invest.gov.uz)
8. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va EIZ direksiyalari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
9. [www.mift.uz](http://www.mift.uz). Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va EIZ direksiyalari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

## **ROSSIYANING MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDAGI “HARD POWER” SIYOSATI**

**Ma’ripjonova Mahbuba**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti

Sharq mamlakatlari siyosati iqtisodiyoti va turizm fakulteti

Siyosatshunoslik yo’nalishi Pushtu Ingliz guruh 2 bosqich talabasi

e-mail: @makhmaripjonova

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada katta kuch markazlaridan biri hisoblangan Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasida olib borayotgan “hard power” siyosati uning natija va istiqbollari haqida batafsil o’rganilgan va tahliliy yechimlar keltirilgan. Rossiyaning Markaziy Osiyoga bo’lgan qiziqishi, uning manfaatlaridan kelib chiqqan holda mintaqada olib siyosati ushbu maqolada o’z tasdig’ini topgan*

**Kalit so’zlar:** *Globallashuv, siyosiy jarayonlar, “hard power”, Rossiya ,oqilona tashqi siyosat, , Rossiya armiyasi, Rossiya iqtisodiyoti, Markaziy Osiyo davlatlari Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston.*

### **ABSTRACT**

*This article examines in detail the results and prospects of Russia's "hard power" policy in the Central Asian region, which is one of the major power centers, and provides analytical solutions. Russia's interest in Central Asia and its policy in the region based on its interests are confirmed in this article.*

**Keywords:** *Globalization, political processes, "hard power", Russia, rational foreign policy,, Russian army, Russian economy, Central Asian countries Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье подробно рассматриваются результаты и перспективы российской политики «жесткой силы» в центральноазиатском регионе, являющемся одним из крупных центров силы, и приводятся аналитические решения. В статье подтверждается заинтересованность России в Центральной Азии и ее политика в регионе, основанная на этих интересах.*

**Ключевые слова:** *Глобализация, политические процессы, «жесткая сила», Россия, рациональная внешняя политика, российская армия, российская экономика, страны Центральной Азии Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан.*

## **KIRISH**

XXI asrda dunyo juda keskin o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, milliy davlatlar nafaqat jiddiy siyosiy balki kuchli ijtimoiy iqtisodiy muammolarga ham duch kelmoqda. Qiyinchiliklar o'ta global bo'lib ko'plab mamlakatlar siyosatiga ta'sir qiladi. Bugungi global kontekstda keng tarqalgan tendensiya milliy-davlatlarning o'z kuchi va ta'siri haqida qayg'urishidir. Hozirgi kunda ortib borayotgan geosiyosiy keskinliklar va muommolar global harakterga ega, ko'plab mamlakatlar siyosatiga ta'sir qiladi. Ayni paytda, akademiklar va amalyotchilar dunyo "qattiq" va "yumshoq" kuchga oid eski taxminlar va qat'iy tafovutlardan uzoqlashishi kerak ekanligini tan olishni boshladilar, chunki iqtisodiy siyosiy muommolarni endi harbiy kuch yoki siyosat innovatsiyasi bilan hal qilib bo'lmaydi

"Hard power" – inglizcha so'z bo'lib "qattiq kuch" degan manoni anglatadi. Siyosatda qattiq kuch – bu boshqa siyosiy organlarning xatti-harakatlari yoki manfaatlariga ta'sir qilish uchun harbiy va iqtisodiy vositalardan foydalanish. Siyosiy hokimiyatning ushbu shakli ko'pincha tajovuzkor ( majburlash ) bo'lib, u bir siyosiy organ tomonidan kamroq harbiy yoki iqtisodiy kuchga ega bo'lgan boshqasiga yuklanganda eng samarali hisoblanadi . Qattiq kuch diplomatiyasi madaniyat va tarixdan kelib chiqib yumshoq kuchdan farq qiladi. Jozef Nayning so'zlariga ko'ra, qattiq kuch "boshqalarni sizning xoxishingizga ergashish uchun iqtisodiy va harbiy kuchning sabzi va tayoqlaridan foydalanish qoniliyatini" o'z ichiga oladi. Bu yerda "sabzi" savdo to'siqlarini qisqartirish, ittifoq tuzish taklifi yoki harbiy himoya va'dasi kabi induksiyalarni anglatadi, jumladan, majburlash diplomatiyasidan foydalanish, harbiy aralashuv tahdidi yoki iqtisodiy sanksiyalarni amalga oshirish.

Ernest Uilson qattiq kuchni " boshqa bir shaxs boshqacha harakat qilmagan tarzda harakat qiliashga majburlash qobiliyati " deb ta'riflaydi. Rossiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosat yumshoq va qattiq kuch tushunchalari nuqtai nazaridan ko'rib chiqilganida, tashqi siyosat davlat apparatning muhim elementi hisoblanib, globallashib borayotgan dunyoda tobora muhim ahamiyatini kasb etmoqda. Turli darajadagi integratsiya tashqi siyosatdagi o'zaro hamkorlikning tobora yangi va samarali usularini izlab topishni talab etadi Yumshoq va qattiq kuch strategiyalari misolida Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi tashqi siyosati usullari taxlil qilinganida ,bu hudud Sovet Ittifoqi davridagi munosabatlarning tarixiy xususiyatlaridan kelib chiqqan va tanlangan. Bundan tashqari mintaqa davlatlari siyosiy, iqtisodiy, energetika, ijtimoiy va boshqa sohalarda faol hamkorlik qilishmoqda. Rossiyada mintaqada sodir bo'layotgan jarayonlarda ishtirok etishdan eng manfaatdor tomonlaridan biri sifatida yumshoq, qattiq kuch mexanizmlarining



mavjudligi uchun asos mavjudligini belgilaydi. Shunday qilib, Rossiya yumshoq kuchning asosiy vositalaridan biri sifatida rus tilining tarqalishi imkoniyatlari tilning afzalliklaridan foydalanmoqda. O'zaro hamkorlik aloqalari doirasida mintaqada harbiy-siyosiy ishtirokham mavjuddir. Bularning barchasi tashqi siyosatimizni ilgari surish ,bu yo'nalishdagi say-harakatlarimizni boshqa davlatlar bilan muvofiqlashtirish imkonini yaratadi. Ko'plab tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki Rossiya o'zining tashqi siyosatini qurish bilan bir qatorda madaniy va tarixiy aloqalardan ham oqilona foydalana oldi Bundan tashqari Markaziy Osiyo Rossiyaning tashqi siyosatdagi yagona muhim yo'nalishi emas, Markaziy Osiyoda yumshoq kuchni tasir doirasi hali o'z chegarasiga yetmagan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Rossiyaning keng geografiyasi uning iqtisodiy faolligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, dunyo tabiiy resurslarining 30% dan ortig'i mamlakatda to'plangan. 2016 yilda neft va gaz sektori federal byudjet daromadlarining 36% ni tashkil etdi . Rossiya dunyodagi eng katta tabiiy gaz , ikkinchi yirik ko'mir zaxiralari , neft zaxiralari bo'yicha sakkizinchi va eng katta neft zahiralari ega bo'lgani uchun keng tarqalgan bo'lib energetik super davlat deb ataladi. Yevropadagi slanets zaxiralari. Bu tabiiy gaz bo'yicha dunyoda yetakchi, ikkinchi yirik tabiiy gaz ishlab chiqaruvchi va ikkinchi yirik eksportchi va neft . Rossiyaning valyuta zaxiralari dunyoda beshinchi o'rinda turadi . Unda 70 millionga yaqin odam ishlaydi, bu dunyodagi oltinchi o'rinda turadi. Rossiyaning yirik avtomobilsozlik sanoati ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda o'ninchi o'rinda turadi. U yuqori texnologiyali harbiy texnikani ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qodir yirik va zamonaviy harbiy sanoatga ega va dunyodagi ikkinchi yirik qurol eksportchisi . Rossiya milliarderlar soni bo'yicha ham dunyoda beshinchi o'rinda turadi .

Rossiya dunyodagi o'n to'rtinchi yirik eksportchi hisoblanadi. 2019 yilda Tabiiy resurslar va atrof-muhit vazirligi tabiiy resurslar qiymatini mamlakat yalpi ichki mahsulotining 60% ga teng deb baholadi . Rossiya eng yirik iqtisodiyotlar orasida tashqi qarz koeffitsientlari bo'yicha eng past ko'rsatkichlardan biriga ega va biznes yuritishning qulayligi indeksida "juda yengil" mamlakatlar orasida yuqori o'rinni egallaydi . Mamlakatda qat'iy belgilangan soliq stavkasi 13% ni tashkil qiladi va yagona menejerlar uchun shaxsiy soliqqa tortish tizimi Birlashgan Arab Amirliklaridan keyin dunyoda ikkinchi o'rinda turadi . Biroq, butun mamlakat bo'ylab uy xo'jaliklarining daromadlari va boyliklarida o'ta tengsizlik ham mavjud edi.

Rossiya 2020-yilda yalpi ichki mahsuloti 1,46 trillion AQSH dollari bilan o'Ichangan holda dunyodagi o'n birinchi yirik iqtisodiyot bo'ldi. Nominal YaIM bo'yicha jahon reytingida Rossiya Koreya Respublikasi va Braziliya o'rtasida joylashgan. Taxminan 27,4 ming AQSH dollarini tashkil etib, Rossiyada aholi jon boshiga o'rtacha bo'yluk 2019-yilda AQSh va Yevropaning aksariyat davlatlaridan ancha orqada, dunyo bo'yicha 92-o'rinni egalladi. Bundan tashqari, jamiyatda tengsizlik kuzatildi, chunki jami daromadning 46 foizini eng boy 20 foiz, eng kambag'al beshdan bir qismi esa olti foizdan kamrog'iga to'plagan.

Rossiyaning harbiy qudratiga nazar solsak : Rossiya Federatsiyasining qurolli kuchlari. Ular quruqlikdagi kuchlar, dengiz floti va aerokosmik kuchlarga bo'lingan. Qurolli kuchlarning ikkita mustaqil bo'linmasi ham mavjud: strategik raketa kuchlari va havo-desant kuchlari. Rossiya Federatsiyasining federal qonuniga ko'ra, Rossiya Qurolli Kuchlari, shuningdek Federal xavfsizlik xizmati (FSB), Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi (MVD), Federal xavfsizlik xizmati (FSO) chegara qo'shinlari, tashqi razvedka xizmati. Rossiya qurolli kuchlaridan fuqarolik mudofaasi xizmati (SVR), Bosh shtab (GRU) Bosh boshqarmasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV); va Rossiya Xavfsizlik Kengashining bevosita nazorati ostida.

Rossiya Qurolli Kuchlari dunyodagi eng yirik harbiy kuchlardan biri bo'lib, bir millionga yaqin faol xizmatchilar, dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi va 2 millionga yaqin zaxirada. 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan barcha erkak fuqarolar qurolli kuchlardagi xizmatga chaqirilishi kerak .

Dunyodagi ikkinchi yirik harbiy kuch sifatida Rossiya armiyasi dunyodagi eng katta yadroviy qurol zaxirasini saqlaydi; ikkinchisi dunyodagi yadro qurollarining yarmidan ko'piga egalik qiladi . U ballistik raketa suv osti kemalarining ikkinchi yirik flotiga ega va uch milliondan iborat kam sonli strategik bombardimonchilardan biridir. Rossiya Qurolli Kuchlari dunyodagi eng kuchli quruqlikdagi kuchlarga ega va havo kuchlari va dengiz floti bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi . Rossiya harbiy xarajatlar bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinni egallab, 2020 yilda 61,7 milliard dollar sarflagan .

2018 yilda Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlari 35 turdagi qurol va harbiy texnikani qabul qildi, yana 21 tasi davlat sinovlarini o'tkazdi . Xuddi shu yili Rossiya Mudofaa vazirligi YSU TZ jangovar boshqaruv tizimini sotib oldi. YeSU TZ jangovar maydonlarni boshqarish tizimi 11 ta quyi tizimni o'z ichiga oladi, ular qatorida artilleriya, elektron urush tizimlari, yer usti uskunalari, havo mudofaa tizimlari, muhandislik uskunalari va logistikani boshqaradi . Rossiya armiyasi katta ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish texnologiyasini qo'llaydi .

O'n ikkita raketa polki "Yars" qit'alararo ballistik raketalari bilan, 10 ta raketa brigadasi "Iskandar" taktik ballistik raketa tizimlari bilan, 13 ta aviatsiya polki - MiG-31BM, Su-35S, Su-30SM, Su-34 jangovar samolyotlari, uchta armiya aviatsiya brigadasi bilan qurollangan. oltita vertolyot. Mi-28N va Ka-52 jangovar vertolyotlari, 20 ta S-400 Triumf zenit-raketa komplekslari, Pantsir-S o'ziyurar zenit-raketa tizimlariga ega 23 batareya va 17 zenit-raketa tizimiga ega polklar. 2012 yildan 2019 yil martigacha "Ball" va "Bastion" qirg'oq mudofaasi mobil raketa tizimlariga ega batareyalar

Rossiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatining qattiq kuchi haqida shuni takidlab o'tish kerakki, Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari hududida qattiq kuch belgilari bor, bular harbiy bazalar, texnika, askarlar, yordamchi harbiy strategik tuzilmalar. Lekin bu qattiq kuchning ananaviy ta'rifga to'liq mos kelmaydi. Rossiyaning Markaziy Osiyoda harbiy qudratning mavjudligiga qaramay, qattiq kuch strategiyasi geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlar shuningdek bir qator muammolar bilan bog'liq bo'lgan tashqi siyosat uchun o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Rossiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatini tahlil qilib shuni ta'kidlash mumkin Rossiyaning Markaziy Osiyoga qiziqishi avvalambor o'zining istaklaridan va mintaqadagi iqtisodiy tasridan kelib chiqadi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarning zaiflashishi Rossiya tasrning boshqasi bilan almashishiga olib kelishi mumkin, bu esa Rossiya federatsiyasi va butun mintaqaning ichki barqarorligiga tahdid soladi Bundan tashqari bu barlqaror mintaqa davlatlari bilan strategic aloqalar bozorlariga chiqish va Xitoy, Hindiston, Eron va boshqalar bilan hamkorlikning yangi sohalarini ochilishida yordam beradi. Markaziy Osiyo bilan munosabatlar Rossiya ichki manfaatlari bilan bog'liq holda muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo Rossiya bozorlari uchun oziq-ovqat mahsulotlar mashinasozlik yengil sanoat eksportning muhim qismini yetkazib beradi va Rossiyaga mehnat qilish uchun keladigan eng katta muhojirlar oqimi ham Markaziy Osiyo mintaqasiga to'g'ri keladi jumladan O'zbekiston hissasiga to'ri keladi va bu ham mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli tasir qiladi. Rossiya o'zining harbiy-siyosiy salohiyati tufayli mintaqadagi havfsizlikning kafolatidir. Rossiyaning KXShT doirasidagi harbiy bazalari jangovor harakatlar asosining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularning muvoffaqiyatni sezilarli darajada oshiradi. Shunday qilib Rossiyaning eng yirik harbiy bazasi Markaziy Osiyo hududida yani Tojikistonda joylashgan. Tojikiston hududida 201 ta harbiy baza, 5,9 ming harbiy xizmatchi, 2020 yilda esa ularning soni qariyb 9 mingga yetgan, harbiy obyektlarning Afg'onistongga yaqinligi, shuningdek,

mamlakat ichki barqarorligiga tahdid bilan bog'liqligi sababli Rossiya uchun ham Tojikistonning o'zi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

KXShT , harbiy-siyosiy tashkilot orqali Markaziy Osiyoga jiddiy ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Rossiyadan tashqari Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi Markaziy Osiyo davlatlari kiradi. O'zbekiston ikki marta KXShTga a'zo bo'lgan va keyin a'zolikdan chiqqan ( hozirda uning ushbu tashkilotdagi ishtiroki to'xtatilgan ) Turkmaniston rasman neytral maqomga ega

KXShT tashkilot doirasida Rossiya harbiy bazalarini Markaziy Osiyoga joylashtirgan. 201- ta diviziya 1940- yildan buyon Tojikistonda joylashgan. 2012- yilda imzolangan bitimga binoan, rus harbiylari kamida 2042 - yilgacha Tojikistonda qoladi. Rossiya AQSh kuchlari Qirg'izistonda joylashtirilganligidan keyin, 2003 – yilda Qand shaxrida harbiy baza ochidi. 2012- yilda imzolangan bitimga binoan, Rossiya kuchlari u yerda kamida 2027-yilgacha qoladi. Texnik jihatdan, Qanddagi bazani KXShT doirasida Rossiya boshchiligida boshqariladi.

Ukraina tufayli Rossiyaning G'arb bilan munosabatlari buzilganidan so'ng Xitoy-Rossiya strategic hamkorligi haqiqatga aylandi. Rossiya va Xitoyning G'arb hukumronlik qilayotgan xalqaro tizm tamoyillariga qarshi chiqish istagi mushtarak. Ammo ularning munosabatlari murakkab , har ikki tomondan ham ishonchsizlik saqlanib qolmoqda. Raqobat va hamkorlik mutanosibligi Markaziy Osiyo, Rossiyaning Uzoq Sharqi va Arktikada yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu “teatrlarda” ishtirok etish Rossiya va Xitoyning o'zaro kelishmovchiliklarini bartaraf etish va sheriklik ritorikasini aniq foydaga aylantirish qobiliyatini sinab ko'rdi. Xitoyning “ Bir kamar, bir yo'l “ tashabbusi fondida Rossiyaning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi istiqbollari xira ko'rinadi. Ayni damda kelishuv nisbatan barqaror, biroq Janubiy va Markaziy Osiyodagi beqarorlikdan qo'rqish Pekinni bu davlatda o'z xavfsizligini bosqichma-bosqich oshirishga majbur qildi.

Ushbu ittifoqqa Rossiya, Belorusiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Armaniston davlatlari kiradi. Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi a'zo davlatlarning bir biri bilan xalqaro va o'zaro birlikni kuchaytirishni o'z ichiga oladi. Unda davlatlararo integratsiyaning eng yuqori darajasini ta'minlagan holda o'zaro savdo-sotiqda bosqichma-bosqich tariff va notarif to'siqlarni bekor qilish yo'li bilan erkin savdo zonalarini: transport xizmatlari umumiy bozorini va yagona transport sistemasini: umumiy energetika bozorini: yagona bojxona ittifoqini: ishlab chiqarish omillarining erkin harakati ta'minlanadigan erkin bozoridir. Iqtisodiy nuqtai nazardan, 1990-yillarda Xitoy va uning sobiq sovet qo'shnilari o'rtasidagi transchegaraviy savdo va mehnat migratsiyasi odatiy bojxona nazoratini chetlab o'tish uchun texnik jihatdan

noqonuniy bo'lsa-da, Markaziy Osiyo va Rossiyaning Uzoq Sharqidagi jamoalar uchun muhim yo'l bo'ldi. 1990-yillarda G'arbdan harbiy texnologiya sotib olinmagan Xitoy ham Rossiyaga harbiy-sanoat texnologiyalari yetkazib beruvchi sifatida qaradi. 2000-yillarning o'rtalarida Xitoyning rus uskunalari teskari muhandisligi bilan bog'liq xavotirlar tufayli Moskva eksporti sekinlashdi, garchi yaqinda yuqori texnologiyali tovarlar almashinuvi qayta tiklangan va Xitoy yana Rossiya qurollarining asosiy xaridori hisoblanadi. Texnologik transfer Xitoyni jiddiy qurol raqobatchisiga aylantirishga yordam berishi mumkin bo'lsa-da, Rossiya hozirda Xitoyning zamonaviy rus qurollariga bo'lgan ishtahasidan foydalanishga intilmoqda, Moskva esa bu sohada hamon ustunlikka ega.

Ko'p tomonlama asosda Xitoy va Rossiya 1990-yillarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va boshqa xalqaro tuzilmalarda o'z pozitsiyalarini muvofiqlashtira boshladilar. Masalan, 1997 yilda ular Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasiga Ko'p qutbli dunyo va yangi dunyo tartibini o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani taqdim etdilar, bu ularning xalqaro tizimdagi G'arb hukmronligidan umumiy noroziligi va qayta qurish istagining dastlabki belgisi edi. bu o'z manfaatlari uchun. Ularning ikkalasi ham Birlashgan Millatlar Tashkilotini xalqaro tizimning asosiy ustuni sifatida targ'ib qiladi, chunki ularning Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari maqomidan kelib chiqadigan vakolat va ta'sir kuchi. Ular, shuningdek, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (APEC) forumida, Sharqiy Osiyo sammitida, G20 yetakchi iqtisodiyot guruhida va BRICS guruhida (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika) o'z manfaatlari muvofiqlashtirish uchun birga ishladilar. 2003 yilda ikkalasi ham BMTda Iroqdagi urushga qarshi chiqishdi va G'arbning Liviyaga harbiy aralashuvini tanqid qilishdi (garchi ikkalasi ham veto qo'ymadi). Bugungi kunda ikkalasi ham Muammar Qaddafiyning chiqarib yuborilishi mintaqaga olib kelgan beqarorlikni tez-tez ta'kidlaydi. Biroq, ularning hech biri butun Yaqin Sharqdagi barqarorlikni ta'minlash bo'yicha aniq qarorlar qabul qilmagan. Rossiya o'zining sharqiy hududlarini iqtisodiy rivojlantirishni Xitoy sarmoyasini talab qiladigan strategic imperative deb biladi. Ammo Xitoy sarmoyasi Rossiyaga biznes manfaatlari xoxlagan darajada amalga oshmayapti, Pekin ko'pincha qulay tijorat shartlarini ta'minlash uchun o'zining iqtisodiy vositalaridan foydalanadi. Arktikada Rossiya infratuzulmani rivojlantirish va resurslarni qazib olish bo'yicha ko'plab maqsadlarni amalga oshirish uchun Xitoyga muhtoj. Xitoy muhim loyihalar bo'yicha Rossiya bilan hamkorlik qilish orqali Arktikaning iqtisodiy salohiyatiga kirishga va uning texnologik salohiyatini oshirishga intilmoqda. Biroq, bu mintaqadagi suverenitetni qat'iy himoya qiladigan

Moskva uchun yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Xitoy-Rossiya hamkorligi ikkala tomonning ham amalga oshmagan umidlari tufayli cheklanishi mumkin. Xitoy mintaqaviy va global ishlarda faolroq rol o'ynashni nazarda tutar ekan, unung Rossiyaga nisbatan uzoq muddatli ambitsiyalari noaniq. Xitoyning qarorlari Xitoy-Rossiya munosabatlarining yo'nalishini belgilaydi, Rossiya esa faqat munosabat bildira oladi. Xitoyning Markaziy Osiyo, Rossiyaning uzoq Sharqi va Arktikadagi tijorat manfaatlarini kengaytirishi Xitoy kompaniyalarining global miqyosda raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Ammo Xitoy Rossiya hamkorligining G'arb uchun eng katta taxdidi ularning xalqaro tizimini o'z manfaatlariga moslashtirish harakatlaridan ke;lib chiqadi. Rossiya ham, Xitoy ham tobora faol tashqi siyosat olib borayotgan bir paytda G'arb siyosati ularning hamkorligi haqida kelishib olishi kerak.

### **XULOSA**

Hozirgacha Rossiya va Xitoy Markaziy Osiyo, Rossiyaning Uzoq Sharqi va Arktikadagi tafovutlarini muvofaqiyatli yengib o'tishdi, biroq uzoq muddatda potensial ziddiyatli manfaatlar saqlanib qolmoqda. Rossiyaning Uzoq Sharqida Xitoy mintaqasining iqtisodiy rivojlanishini kuchaytirish uchun sarmoya vada qilib Rossiyaning noaniqligini yumshatishga hakakat qildi. Xuddi shunday, Xitoyning xalqaro miqyosda Antarktidagi roli ortib borayotganini Rossiyaning uzoq shimolida energetika, transport va telekommunikatsiya infratuzulmasini rivojlantirishga yordam berishga olib keldi. Biroq, ushbu bitmlarning aksariyatni amalga oshishi noaniqligicha qolmoqda. Hozirgacha Markaziy Osiyo, Rossiyaning Uzoq Sharqi va Arktikadagi tafovutlarni muvofaqiyatli yengib o'tishdi, biroq uzoq muddatda potensial ziddiyatli manfaatlar saqlanib qolmoqda. Ayrim rossiyaliklar hozir Pekinning Osiyo-Tinch okeani mintaqasida o'sib borayotgan geo-iqtisodiy va geosiyosiy ambitsiyalari haqida jimgina havotir bildirishmoqda.

### **REFERENCES**

1. Economy of Russia - statistics & facts | Statista  
<https://www.heritage.org/military-strength/assessing-threats-us-vital-interests/russia#:~:text=Military%20Capabilities.&text=The%20air%20force%20has%201%2C160,1>
2. Russia in Central Asia: The Dynamics of Great-Power Politics in a Volatile Region on JSTOR <https://www.jstor.org/stable/43738108>
3. Russian Hard Power Projection: A Brief Synopsis | Center for Strategic and International Studies

## **O‘ZBEKISTONDA PREZIDENTLIK INSTITUTINING RIVOLANISH BOSQICHLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Sultonova Rushana Husnidin qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Davlat boshqaruvi huquqi yo‘nalishi magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola davlat boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida prezidentlik institutini takomillashtirishni o‘rganish mavzusiga bag‘ishlangan.*

**Kalit so‘zlar:** *Prezidentlik instituti, demokratlashtirish, rivojlanish bosqichlari, Vazirlar Mahkamasi, Prezident vakolatlari.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья посвящена теме изучения совершенствования института президентства в процессе демократизации государственного управления.*

**Ключевые слова:** *Институт президентства, демократизация, этапы формирования, Кабинет Министров, полномчия Президента.*

### **ABSTRACT**

*This article is devoted to the topic of studying the improvement of the institution of presidency in the process of democratization of public administration.*

**Keywords:** *Institution of the presidency, process of democratization, stages of the formation, Cabinet of Ministers, Presidential powers.*

### **KIRISH**

Ma'lumki, Sobiq Sovet Ittifoqi davlatlari orasida O'zbekistonda birinchi bo'lib prezidentlik lavozimi joriy etilgan. Bunga o'z navbatida, Ittifoq hududida o'sha davrlarda hukm surgan murakkab vaziyat hamda ittifoqdosh respublikalarda mustaqillik uchun kurashlarning yanada kuchayib ketishi zamin yaratgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda prezidentlik institutining shakllanishiga birinchidan, O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq, davlat hokimiyatining oliy organi hisoblangan Oliy Sovet Ittifoq hududida vujudga kelgan vaziyatlarga nisbatan ta'sir ko'rsata oladigan tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega emasligi, ikkinchidan, Ministrlar Soveti faoliyatida yuzaga kelgan kamchiliklar sababli, mamlakatda qonunlarning ijrosini samarali tarzda tashkil etilishi uchun yakka shaxs javobgarligiga ehtiyoj paydo bo'lganligi, uchinchidan, tarqalib ketayotgan Ittifoq markazi o'rniga hammani birlashtirib, o'zaro uyushtirib turadigan yangi hokimiyat uchun zarurat paydo bo'lganligi sabab bo'lgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shu tariqa, 1990-yil 24-mart kuni 12-chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasida demokratik jarayonlarini yanada rivojlantirish, siyosiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitutsion tuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining o‘zaro aloqasini takomillashtirish maqsadida «O‘zbekiston Prezidenti lavozimini ta‘sis etish hamda O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasiga(Asosiy Qonun)ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimi ta‘sis etildi. Shu kuni Oliy Sovet deputatlari Respublika KP MKning 1-kotibi I.A.Karimovni O‘zbekiston SSRning Prezidenti etib sayladi va bu bilan o‘z navbatida milliy davlatchiligimizni barpo etishga tomon tarixiy qadam qo‘yildi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston tarixida ilk daf‘a joriy etilgan Respublika Prezidenti lavozimi yangi O‘zbekiston davlat hokimiyati organlari tizimida markaziy o‘rinni egalladi. U siyosiy tizimning o‘zagi bo‘lib qoldi.

M.M.Mirakulovning fikriga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining shakllanishi va rivojlanishi uch bosqichga bo‘linadi. **Birinchi bosqich** 1990-yil 24-martdan 1990-yilning 1-noyabriga qadar bo‘lgan vaqt oralig‘ini qamrab oladi. Ushbu bosqichda prezidentlik institutining huquqiy tabiati parlamentar-prezidentlik respublikalariga o‘xshash bo‘lgan.

Prezidentning xalq tomonidan emas, balki Parlament tomonidan saylanishi uning vakolatlari shakllanishi jarayoniga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Prezident o‘sha vaqtda ijro etuvchi hokimiyat rahbari hisoblanmagan. Ijro etuvchi hokimiyat vazifasini Ministrlar Soveti bajargan. Mazkur davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari an‘anaviy parlamentar respublikalarga xos bo‘lgan: ichki va tashqi siyosatda respublika nomidan ish yuritish; davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta‘minlash; respublika ordenlari, medallari va yorlig‘i bilan mukofotlash, malakaviy va faxriy unvonlar berish; fuqarolikka oid hamda siyosiy boshpana berishg oid masalalarni hal etish; amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish va O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni avf etish kabilardan iborat bo‘lgan.

Mazkur davrdagi prezidentlik institutiga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri Prezidentning konstitutsiya va qonunlarning samaralishi ijro etilishini



ta`minlashga xizmat qiladigan, hamma uchun bajarilishi majburiy bo`lgan qarorlarni chiqarish vakolatining shakllanganligi hisoblanadi.

M.M.Mirakulovning ta`kidlashicha, birinchi bosqich prezidentlikning institutlashuvi hamda kechiktirib bo`lmaydigan masalalar yuzasidan Prezidentning qarorlar qabul qilish vakolatining yetarli emasligi prezidentlik Respublikasiga o`tish va buning oqibatida Prezidentning davlat rahbari bo`lishi zaruratini yuzaga keltirganligi bilan belgilanadi.

1990-yil 1 noyabrda «O`zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O`zbekiston SSR Konsitutsiyasi(Asosiy Qonun)ga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi Qonun qabul qilinishi bilan prezidentlik instituti rivojlanishidagi **ikkinchi bosqich** boshlangan va bu bosqich 2008 – yilning 1-yanvariga qadar davom etgan. Mazkur qonun o`z mazmunga ko`ra davlat boshqaruvining prezidentlik respublikasi shaklini o`rnatdi. Ushbu qonunga ko`ra, O`zbekiston SSR Konstitutsiyasida yangi bob hukumat faoliyatiga bag`ishlangan 13-bob bilan birlashib, unga «O`zbekiston SSR Prezidenti va Hukumati» deb nom berildi. O`z navbatida ushbu qonun bilan O`zbekiston SSR Ministrlar Soveti O`zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga o`zgartirilgan va Prezident Vazirlar Mahkamasiga rais etib belgilangan. Mazkur qonun O`zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy vakolatlari shakllanishi hamda prezidentlik instituti takomillashishiga asos bo`lib xizmat qildi.

O`zbekiston o`z mustaqilligini e`lon qilganidan so`ng, oradan qisqa vaqt o`tmay, 1991-yil 18-noyabrda ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo`lib «O`zbekiston Respublikasi Przidenti saylovi to`g`risida»gi Qonun qabul qilindi. 1991-yil 29-dekabr kuni esa xalqimiz uzoq yillik mustamlakachilikdan so`ng haqiqiy mustaqillik ramzi sifatida o`z tarixida birinchi bor umumxalq xohish irodasi bilan mustaqil O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylandi.

1992-yil 8-dekabr O`zbekiston hayotida unitilmas va eng muhim kun bo`ldi. Shu kuni Oliy Kengashning XI sessiyasida mustaqil O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Konstitutsiyaning qabul qilinishi bilan Prezidentning huquqiy maqomida ham o`zgarishlar ro`y berdi. Konstitutsiyaning 89-moddasida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig`i va ayni vaqtda Vazirlar Mahkamsining Raisi hisoblanishi mustahkamlab qo`yildi. Bu qoida shundan dalolat beradiki, Prezident davlat hokimiyat organlari faoliyatining samaradorligini ta`minlab tursa, ijro etuvchi hokimiyat rahbari sifatida qabul qilinayotgan qonunlar ijrosining uzluksizligini hamda operativ tarzda qarorlar qabul qilinishini ta`minlaydi.

Yangi Konstitutsiya bilan prezidentlikka nomzodlarning yosh chegarasi (65 yoshgacha)ga qo'yilgan talablar bekor qilindi. Shu bilan birga, nomzodlarga o'zbek tilini yaxshi bilish, saylovga qadar O'zbekiston hududida 10 yildan kam bo'lmagan muddatda muqim yashaganlik, prezidentlikka saylanganidan so'ng deputatlik faoliyatini, shuningdek, tadbirkorlik va haq to'lanadigan boshqa ish bilan shug'ullanmaslik kabi bir qator yangi talablar o'rnatildi.

Mamlakatimiz o'z istiqlolini qo'lga kiritganida davlat boshqaruvining kuchli prezidentlik hokimiyatiga asoslangan shakli tanlandi. Bu davrda Prezident katta vakolatlarga ega bo'lib, buni huquqiy demokratik davlat poydevorini barpo etish va mustahkamlashda davlatning bosh islohotchilik rolini o'tashi zarurati bilan izohlash mumkin. Yangi mingyillikning kirib kelishi, demokratik-huquqiy davlat qurish jarayonida orttirilgan tajriba, vakillik organlari va ko'ppartiyaviylikning rivojlanishi, jamiyat hayotida fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining roli kuchayishi bilan davlat boshqaruvini demokratlashtirish, Prezident maqomini demokratik huquqiy davlatlarda umume'tirof etilgan andozalarga mos ravishda takomillashtirish zarurati yuzaga keldi.

Bu yo'nalishda mamlakatimizda 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan Referendum va uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun muhim ahamiyat kasb etdi.

Islohotlarga ko'ra, ikki palatali Oliy Majlis tashkil etilib, Konstitutsiyaning 89-moddasidan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining raisi hisoblanadi» degan qoidadan iborat bo'lgan ikkinchi xatboshi olib tashlandi. Demak, Vazirlar Mahkamasi raisi tugatildi, Vazirlar Mahkamasi faoliyatiga rahbarlik qilish, u tomonidan qabul qilanayotgan qarorlar va ularning ijrosini ta'minlash ma'suliyati to'laligicha Bosh Vazir zimmasiga yuklatildi. Amalga oshirilgan bu o'zgarishlar davlat boshqaruvini demokratlashtirish yo'lida yangi yutuqlarni qo'lga kiritish imkoniyatini yaratdi.

2007-yil 11-aprelda «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi bilan prezidentlik instituti rivojlanishidagi ikkinchi bosqich tugab, **uchinchi bosqich** boshlandi. Ushbu qonunga homahang tarzda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida»gi qonun qabul qilinib Konstitutsiyaga bir qator o'zgartirishlar kiritildi.

Xususan, Konstitutsiyaning 89-moddasidan «ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir» deyilgan norma chiqarilib, Prezidentning davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlashi belgilab qo'yildi. Vazirlar Mahkamasining shakllantirilishi va iste'fosining yangicha tartibi, siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish masalalari huquqiy tartibga solindi.

2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»ni taqdim etdi. Mazkur konsepsiya mamlakatimiz kelgusi taraqqiyotining asosiy strategik yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjat bo'lib, mamlakat Prezidentining davlat rahbari sifatida maqomini yanada mustahkamlash, davlat va jamiyat hayotida Vazirlar Mahkamasining roli, uning davlat hokimiyati tizimida mavqei va ma'suliyatini oshirish hamda vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlarning muhim asosi sifatida e'tirof etildi.

Davlat boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida 2011-yil 18-aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78, 80, 93, 96, va 98 moddalariga)»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni keyingi qadam bo'ldi.

Qonun Oliy Majlis Bosh vazir hisobotlarini eshitishi va mukoma qilishi tartibini belgiladi. Bosh prokuror o'rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi prezident farmonlarini tasdiqlash Senatning mutlaq vakolatlaridan chiqarildi. Qolaversa, Prezident ijro etuvchi hokimiyatga rahbarlik qilishi haqidagi norma chiqarildi.

Qonun bilan Prezident viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlashi hamda lavozimidan ozod etishi Bosh vazir taqdimiga binoan amalga oshirilish tartibi o'rnatildi. Bundan tashqari, Bosh vazir nomzodi Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etilishi belgilandi. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi norma mustahkamlandi.

2011-yil 12-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritish to'g'risida»gi qonun bilan Prezidentning vakolat muddati 7 yildan 5 yilga qisqartirildi.

Shundan so'ng, 2014-yil 16-aprel «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

to'g'risida(32,78,93,98 103 va 117 moddalariga)» gi qonun qabul qilinib, Konstitutsiyaning 93-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, Prezidentning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega ekanligi, vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan tuzishi va tugatishi, Bosh vazir iste'foga chiqqanda, Bosh vazirga nisbatan bildirilgan ishonchsizlik votumi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan qabul qilinganda yohud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda lavozimidan ozod qilishi tartibi belgilandi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda prezidentlik instituti O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishishining asosiy omili bo'ldi, respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikka prinsip jihatdan yangi bosqichga o'tilishini bildirdi hamda prezidentlik instituti qaysidir ma'noda davlat mustaqilligi kafili hamda davlat ramziga aylandi.

### **REFERENCES**

1. Mirakulov.M.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi (qiyosiy-huquqiy tahlil): diss. ...y.f.d . –Toshkent, 2016- 258 b
2. Abbosxodjayev Sh.A. Demokratik davlat qurilish sharoitida prezidentlik institutining huquqiy asoslari : diss. ... y.f.n. –Toshkent, -163.b

## **ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО ДЛЯ ИНЖЕНЕРНО- ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ**

**Цуканова Е.Н.**

Базовый докторант Бухарского инженерно-технологического института

### **АННОТАЦИЯ**

В статье рассматривается актуальность внедрения инновационных методов в преподавание русского языка. Учитывая, что главным в обучении иностранному языку становится функциональный принцип обучения, в центре внимания обучающихся оказывается коммуникативная компетентность. Ускоряется поиск инноваций в современной методике обучения иностранным языкам подходы, формы и методы обучения. Инновационные методы обучения предполагают взаимодействие. Субъекты учебного процесса, другими словами, интерактивная модель сделала обучение более эффективным.

**Ключевые слова:** инновационные методы, коммуникативная компетентность, методы обучения, функциональный принцип обучения.

## **INNOVATIVE METHODS OF TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE FOR ENGINEERING AND TECHNOLOGY DIRECTIONS**

**Tsukanova E.N.**

Basic doctoral student Bukhara Engineering Technological Institute

### **ANNOTATION**

*The article discusses the relevance of the introduction of innovative methods in the teaching of the Russian language. Given that the functional principle of learning becomes the main thing in teaching a foreign language, the focus of students is communicative competence. The search for innovations in modern methods of teaching foreign languages is accelerating - approaches, forms and methods of teaching. Innovative teaching methods involve interaction. The subjects of the learning process, in other words, the interactive model made learning more efficient.*

**Keywords:** *innovative methods, communicative competence, teaching methods, functional principle of teaching.*

### **ВВЕДЕНИЕ**

Мечта каждого узбекского студента изучающего иностранный язык также состоит, в том, чтобы развить способность говорить на интересующем его

языке и правильно выражать свои мысли. Преподавание любого предмета требует ряда обязанностей и усилий, как со стороны преподавателя, так и со стороны студента. Преподаватель, отвечающий за науку, предполагает выбор конкретного метода и соответствующего метода обучения, подбор заданий для каждого вида учебной деятельности, методических пособий с учетом уровня знаний учащихся и др. Это требует усилий, серьезности и ответственности непосредственно от преподавателя. Преподавание русского языка инновационными методами дает инженерам прекрасную возможность прочитать и понять инновационные технологии в своей области и высказать свое мнение. Наши знания о наших мыслях не ограничиваются нашими эмоциями, они служат нам основой для изучения и освоения инновационных лабораторий и новых методов проведения исследований в них. Чтобы правильно выучить иностранный язык, первым шагом в изучении русского языка является правильное самовыражение на родном языке. Можно представить «Зону общения»: она расширяется тогда, когда человек больше общается на интересующем его иностранном языке. В этом случае его речь становится богатым источником межъязыкового общения, обнаруживается акцент, характер которого определяется, прежде всего, различием в строении и деятельности механизмов, присущих речевой деятельности [1].

Процесс обучения русскому языку как иностранному – это процесс взаимодействия преподавателя со студентами. Это приобретение знаний, навыков, умений в области языка, изучаемого учителем. Разговорный опыт студентов и умение говорить по-русски позволит им достичь высокой эффективности и в инженерной сфере. Обучение иностранному языку, особенно русскому языку как иностранному, является очень сложным и многогранным процессом. В процессе обучения преподаватель и студенты имеют дело с тремя группами явлений: собственно язык общения, как средство хранения и передачи информации, речь (способы общения как форма текстов и результат общения) и речевая деятельность (форма процесса общения). представляет собой систему словесных действий) [2].

## **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

Программа изучения русского языка в Бухарском инженерно-технологическом институте включает в себя углубленное изучение грамматики, фонетики и лексического строя языка, а также других иностранных языков, ведь сегодняшнее развитие требует этому большого внимания. При

образовании сохраняются некоторые трудности в обучении языковой системе, в основном грамматике, в том числе отсутствие активной устной практики, то, что у каждого студента в группе обучение иностранному языку строится на развитии у студентов навыков говорения в результате устной языковой деятельности. Потребность в программе обмена информацией для имитации учений сегодня очевидна с их собственными потребностями.

Как указывает А. Н. Щукин, умения и навыки устного общения являются основной целью изучения языка. Участие в устном общении предполагает овладение средствами общения (фонетическими, лексическими, грамматическими, переводческими и др.) и предметами коммуникативной деятельности (аудирование, говорение, чтение, письмо), которые считаются компонентами общения. Студентов следует обучать не только основам иностранного языка, но и учить их интересно и корректно общаться на другом языке как в рамках профессиональных, так и в повседневной жизни. Преподавание русского языка как иностранного в настоящее время происходит в условиях глобальных изменений всей системы образования - цели изучения языка, потребности учащихся, условия требуют этого. Основной целью обучения иностранному языку (языковым компетенциям) является степень, в которой человек овладел коммуникативной компетенцией, т.е. изучаемый язык имеет большое значение в некоторых сферах деятельности для того, чтобы сделать человека способным к общению посредством средств. В основе коммуникативной компетенции лежит комплекс лингвистики. Это знания и навыки разговорной речи, которые формируются в ходе курса [3]. Параллельное развитие всех вышеперечисленных умений у учащихся является основной задачей каждого преподавателя. Обучение должно быть направлено на одновременное формирование нескольких видов речевой деятельности в определенной последовательности. Ведь развитие одного вида способствует развитию другого вида. Презентации языковых упражнений, направленных на развитие навыков русского языка и овладение способами формирования мысли и в речевых упражнениях, в которых изучаемый материал включается в ситуации общения и обеспечивает формирование речевых навыков [4].

Несмотря на сложность процесса изучения иностранного языка, опытный преподаватель может изучить специфику овладения языком, применить новые методы обучения на занятиях, исходя из индивидуально-психологических особенностей учащихся. Студенты должны искать и применять на практике такие пути и средства, чтобы быть эффективными и полезными преподавателю

при изучении русского языка. Многое зависит от преподавателя в этой области, помимо традиционных методов обучения, он должен использовать и инновационные методы. По его словам, обучение русскому языку должно строиться на развитии речевой деятельности. Это включает в себя инновационные методы обучения. Взаимодействие субъектов образовательного процесса происходит на паритетных началах, где преподаватель и студент являются частью команды, стремящейся к достижению цели. Способствование комфортной организации. Возможность создать активную учебную среду, в которой взаимодействуют все учащиеся, взаимодействуя друг с другом, позволяет добиться высокой эффективности. К таким методам относится моделирование. Очень важно, чтобы проблемные ситуации, ролевые игры организовывались на основе ситуационного анализа [5].

В таком обучении учитываются потребности учащегося, задействуется его личный опыт, осуществляется целенаправленная речь через его знания. Оптимальный результат достигается за счет сотрудничества, сотворчества, самостоятельности и свободы выбора студента. Это позволяет каждому учащемуся анализировать свою работу. Кардинально меняется схема отношений между участниками образовательного процесса, то есть равноправное общение преподавателя и студента на занятии позволяет студенту чувствовать себя комфортно.

На занятиях делим группу на 2 или 3 подгруппы и распределяем проблемные случаи, интерес к предмету возрастает.



Фото 1. Распределение по группам



### **1. Метод «Subject protection» («Защита объекта»).**

Этот метод использовался на занятии грамматики. Студенты делятся на три команды. С помощью преподавателя каждая команда заранее подготовила по два проблемных вопроса по изучаемой теме. (средства выражения вежливости, роль глагола в выражении семантики вежливости). Каждый член команды задает вопросы противоположным командам. При выражении различных форм вежливости особое внимание уделялось тонкостям глагольной формы, таким как выделение значений глагола спрашивать: Пожалуйста, покажите ваши документы (повышенная категоричность и формальность). Слова пожалуйста (вежливое выражение просьбы говорить официальную речь) Садитесь: Врач и пациент: Садитесь, пожалуйста, на что вы жалуетесь? (вежливо) и от отца к сыну: Пожалуйста, садитесь и молчите! (резкий, категоричный порыв). В реагировании участвовали все члены команды. Каждый участник зарабатывал баллы для своей команды. Свободный обмен мнениями позволил глубже и шире осветить все вопросы.

### **2. Метод «Now let's make noise!”!» («Сейчас пошумим!»)**

Каждый студент в группе может выступать как в роли студента, так и в роли преподавателя либо два игрока выступали в роли учителя, смотрящего на публику.

По команде преподавателя «А теперь пошумим!» группа начала говорить громко в пределах допустимого. Задача игроков, выступающих в роли преподавателей, состояла в том, чтобы применить разное смысловое наполнение вежливости (поощрение, пожалуйста, совет), успокоить, заставить замолчать аудиторию. Учащийся, выполнивший задание лучше остальных, получал три балла.

### **3. Принять увеличение числа актеров.**

Помимо основных выступлений, в игру были включены группы, эксперты и переводчики. Эксперты отвечали за составление выводов и выводов о действиях каждой команды. Включение позиций во весь процесс занятия-игры, побуждающих учащихся брать на себя ответственность за ситуацию. Помимо основных представителей, важная роль отводится переводчикам каждой команды, которым предстоит переводить на узбекский язык, найти аналоги языка узбекского этикета и коммуникаторов, выявить компоненты смыслового наполнения вежливости.

### **4. Принять увеличение количества ограничений**

Условием этого стиля будут включены краткосрочные импровизации на тему смыслового содержания вежливости. Неподготовленные учащиеся описывают заданные поведенческие стратегии: мотивация, конкретное приглашение из популярного узбекского рассказа или пословицы, приветствие, соболезнование, знакомство и т.д. Студенты должны выразить свое мнение соответствующим образом. Это было на русском языке. Каждый студент должен был закончить за три минуты. Приемы «увеличение количества ограничительных условий» и «увеличение количества действующих лиц» фиксировались на видеокамеру, учащиеся имели возможность проанализировать себя, вспомнив ошибки и хорошие впечатления об уроке.

### Полученный результат

Результаты, полученные от методов «Subject protection» и «Now let's make noise!» Иными словами, 21 из 23 учащихся группы согласились освоить тему по методу «Предметная защита», а второй метод использовался для изучения «Now let's make noise!» Восемнадцать из 23 студентов вспомнили 60 процентов пройденных тем, а это значит, что наиболее эффективным методом является упомянутый выше 1-й метод.




Фото 2. Индикатор эффективности

## **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Студенты Бухарского инженерно-технологического института смогут повысить коммуникативную компетентность, а также свободно общаться на русском языке, легко понимать и повторять речь носителей языка и, наконец, эмоционально участвовать в занятиях, чтобы быть хорошим коммуникатором. Это достигается за счет инновационного образования и богатого искусства. Целью методических приемов, включенных в данное обучение, является обучение инженеров русскому языку как иностранному.

## **ЛИТЕРАТУРА**

1. Дьюи Дж. Демократия и образование/Пер. с англ. - М.: Педагогика Пресс, 2000.
2. Зиёмахаммадов Б. Книга, ведущая к совершенству. Т. Издательство "ТУРОН-ИКБОЛ", 2006.
3. Ишмухамедов Р., Абдуколиров А., Пардаев А. Инновационные технологии в образовании. Ташкент, 2008.
4. Международный справочник по преподаванию и изучению экономики. Под редакцией Гейл М. Хойт, профессора экономики Университета Кентукки, США, и КимМари МакГолдрик, кафедры бизнеса Джозефа А. Дженнингса и профессора экономики Ричмондского университета, США, 2012 г.
5. Ларнер И.Я. Внимание к технологии обучения. - М.: «Педагогика», 1990.

**JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI  
LEGALLASHTIRISH: AYRIM XORIJIY MAMLAKATLAR  
QONUNCHILIGINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI**

**Nasrulloev Mehmon Nurali o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

**Ilmiy rahbar: y.f.n., DSc R.Altiyev**

Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası  
o'qituvchisi

Mexmonnasrullayev98@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

*Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga jinoiy-huquqiy baho berish masalalari ochib berilgan, ushbu jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etuvchi harakatlar mazmuni tahlil qilingan hamda bir qancha davlatlarda jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, legallashtirish predmeti, jinoiy javobgarlik, jinoyatning obyektiv tomoni, xorijiy tajriba.*

**ЛЕГАЛИЗАЦИЯ ДОХОДОВ, ПОЛУЧЕННЫХ ПРЕСТУПНЫМ  
ПУТЕМ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ  
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН**

**АННОТАЦИЯ**

*Раскрываются вопросы уголовно-правовой оцен-ки легализации (отмывания) доходов, полученных преступным путем, анализируется содержание действий, составляющих объективную сторону этого состава преступления и зарубежный опыт.*

**Ключевые слово:** *легализация преступных доходов, предмет легализация, противодействие, уголовная ответственность, объективную сторону преступления, зарубежный опыт.*

**MONEY LAUNDERING: A COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS OF  
THE LEGISLATION OF SOME FOREIGN COUNTRIES**

**ABSTRACT**

*The issues of criminal legal assessment of money laundering are presented. The content of the actions constituting the objective part of this corpus delicti and foreign experience is analyzed.*

**Keywords:** *money laundering, combating, crime, legalization of criminal proceeds, subject of legalization, criminal liability, the objective side of the crime, foreign experience.*

## **KIRISH**

Avvalambor, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish deganda - pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan boʻlsa, ularni oʻtkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yoʻli bilan ularning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, xuddi shuningdek bunday pul mablagʻlarining yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, koʻchirish usulini, pul mablagʻlariga yoki boshqa mol-mulkka boʻlgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashlilikini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat boʻlgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi[1].

Jinoyatning obyekti respublika iqtisodiy faoliyatining manfaatlari, jamoat xavfsizligi hisoblanadi. Obyektiv tomondan esa jinoyat yuqorida koʻrsatilganidek, noqonuniy topilgan daromadlar oʻtkazish, aylantirish, almashtirish va boshqa usullar orqali amalga oshiriladi[2]. Shunday ekan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish iqtisodiyotning turli tarmoqlariga taʼsir koʻrsatadigan murakkab jarayon boʻlib, unga qarshi kurash choralariga, jumladan, ushbu salbiy hodisaning oldini olishga qoʻyiladigan talablarni sezilarli darajada oshiradi.

Oʻz navbatida, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishni huquqiy taʼminlash moliyaviy, bank, bojxona munosabatlarini tartibga soluvchi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish maqsadida kompaniyalarni litsenziyalash va roʻyxatdan oʻtkazish tartibini belgilovchi qonunlar va qonunosti hujjatlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Koʻpgina mamlakatlarda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish boʻyicha huquqiy chora-tadbirlar uchun oʻziga xos asos boʻlib xizmat qiluvchi “namunali” qonunlar mavjud.

Jumladan, yurtimizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish sohasi hozirgi paytda 2004-yil 26-avgustdagi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish toʻgʻrisida” qonun, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-sentabrdagi Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash boʻyicha idoralararo komissiyani tashkil etish toʻgʻrisida” gi PQ-3947-sonli qarori hamda boshqa ushbu sohada normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinib kelinmoqda.

Zero, ushbu masalada Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruh (Financial Action Task Force on Money Laundering — **FATF**) 2020-yilda O'zbekistonga tashrif buyurishi va baholashi ham muhim kasb etdi.

Ushbu o'zgarishlardan so'ng Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 28-iyunda qabul qilingan **PF-6252-son farmoniga** ko'ra, yurtimizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi.

Unga muvofiq, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasida ishtirok etuvchi vazirlik va idoralar ro'yxati belgilandi, har uch yilda bir marta milliy darajada jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni baholash tartibi joriy qilindi hamda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining axborotni to'plash va unga ishlov berish bo'limi negizida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Xavflarni baholash markazi tashkil qilinib, uning asosiy vazifalari belgilab qo'yildi[3].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Shunday bo'lishiga qaramasdan, ushbu sohada ko'plab kamchiliklar va muammoli holatlar o'z yechimi topmasdan kelmoqda. Jumladan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish uchun ushbu daromadlar jinoiy yo'l bilan topilgani isbotlash hamda so'ng ushbu mol-mulklarni legallashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ammo ba'zi hollarda shaxsning daromadlari jinoiy yo'l bilan topilganligi sud tartibida tasdiqlanmasdan, ba'zi shaxslarning mulklari konfiskatsiya qilinish holatlari uchrab turmoqda.

Ikkinchidan, yurtimizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish sohasini tartibga soluvchi yakdil qonun hujjarlarining mavjud emasligidir. Shu sababli, ushbu sohada ishlarni amalga oshirishda turli xil qarashlar, kelishmovchiliklar kelib chiqmoqda.

Xorij tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, **Amerika Qo'shma shtatlarida** ushbu sohani tartibga soluvchi bir qancha yakdil qonun hujjatlari mavjud. Jumladan, "Bank siri to'g'risida"gi qonun (Bank Secrecy Act-BSA), Korrupsiyalashgan va reketchilik tashkilotlari to'g'risida"gi qonun (RICO 1978 yil), Pul yuvishga qarshi

kurash to'g'risidagi qonun (1986-yilgi qonun), Giyohvand moddalarni iste'mol qilishni nazorat qilish to'g'risidagi qonun

(1988-yil), "Federal depozitlarni sug'urtalash to'g'risida"gi qonun, "Jamiyatni rivojlantirish qonuni" (Annunzio-Wiley qonuni, 1992) va boshqa tartibga soluvchi hujjatlar mavjuddir[4].

E'tiborli jihati, barcha banklar va moliya tashkilotlari istalgan valyutadagi **o'n ming AQSH dollari** miqdoridagi barcha bank operatsiyalari, sayyohlik cheklari, pul o'tkazmalari haqidagi ma'lumotlarni doimiy ravishta saqlashlari va yangi mijozlar haqida barcha ma'lumotlarni o'rganib chiqishlari lozim.

O'z navbatida ushbu tartib aviakompaniyalar, moliyaviy kompaniyalar, mehmonxonalar, lombardlar, restoranlar va ulgurji sotuvchilarning operatsiyalariga ham taalluqlidir[5].

Shubhasiz, mansabdor shaxslar va butun jamiyat tomonidan bu kabi munosabatlarga faol munosabatda bo'lishi jinoiy faoliyatdan olinadigan daromadlarni legallashtirish jinoyatini oldini olishga xizmat qiladi. Ushbu masalada bir qancha xorijiy davlatlarda ham o'ziga xos tartiblar o'rnatilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Xususan, **Shveysariya** jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi qonunning 9-moddasida keltirilishicha, Jinoyat kodeksida keltirilmagan bo'lgan taqdirda ham moliyaviy vositachilik bilan shug'ullanuvchilar jinoiy daromadlarni legallashtirish deb shubha ostida bo'lgan har qanday moliyaviy operatsiyalar haqida xabar berishlari lozim.

Hatto, bunday ma'lumotni taqdim etish majburiyatini buzish beparvolik natijasida sodir qilingan bo'lsa ham ushbu qilmish **200 000 Shveysariya frankigacha jarima** bilan jazolanadi[6]. Bu kabi tartiblar va jazo tiziming o'rnatilishi va amaliyotda mustahkam qo'llash mexanizmi ishlab chiqish jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar legallashtirish jarayonini kamaytirish xizmat qilishi, shubhasiz.

## **XULOSA**

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ushbu jinoyatga qarshi faoliyatni yanada takomillashtirish uchun quyidagi xulosa va takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

**Birinchidan**, qonunchilikda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish tushunchasi aniqlashtirish va ushbu daromadlarni konfiskatsiya qilishning huquqiy mexanizmini yaratish.

**Ikkinchidan**, shubha ostidagi moliyaviy operatsiyalarni aniqlash, ularni ro'yxatga olish va ularni sodir etgan shaxslarni aniqlashga qo'yiladigan talablarni, shuningdek, tegishli materiallarni saqlashga qo'yiladigan talablarni belgilash.

**Uchinchidan**, shubhali operatsiyalar to'g'risida davlat organlariga xabar berishga majbur bo'lgan moliyaviy institutlar doirasini aniq ravishta belgilab qo'yish.

**To'rtinchidan**, shubhali moliyaviy operatsiyalar to'g'risida vakolatli organni xabardor qilish tartibini ishlab chiqish.

**Beshinchidan**, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarga hamda shubhali moliyaviy operatsiyalarga aloqador bo'lgan hujjatlarini taqdim qilmagan yoki hujjatlarni yo'q qilgan mansabdor shaxslariga nisbatan javobgarlikni belgilash.

## REFERENCES

1. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. 5-jild: Jinoyat to'g'risida ta'limot. OTM uchun darslik. – T.: “TDYU” nashriyoti, 2010. – 438 bet.
2. 2004-yil 26-avgustdagi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida” qonun
3. [https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/jinoiy\\_daromadlarni\\_legallash\\_tirishga\\_qarshi\\_kurashish\\_-\\_milliy\\_darajada](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/jinoiy_daromadlarni_legallash_tirishga_qarshi_kurashish_-_milliy_darajada)
4. Законодательство США: нормативно-правовые акты США [Электронный ресурс]. URL: <http://www4.law.cornell.edu/uscode/18.html>
5. Лилли, П. Грязные сделки. Тайная правда о мировой практике отмывания денег, международной пре-ступности и терроризме. М. : Феникс, 2015. 400 с.
6. Закон об отмывании денежных средств Швейцарии (Geldwdschereigesetz) [Электронный ресурс]. URL: <http://www.worldbiz.ru/jurisdiction/switzerland/>



## **QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUG‘URTA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI**

**Soliyeva Navruza Axmadillo qizi**

Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro  
markazi, tayanch doktoranti

*В статье освещаются обязанности родителей по защите несовершеннолетних от вредоносной информационной среды. Также были проанализированы научно-теоретические выводы ученых-правоведов и разработаны предложения и рекомендации.*

***Ключевые слова:** ребенок, родитель, свобода информации, личные и немущественные права, обязанность, вредоносная информация.*

### **ABSTRACT**

*The article highlights the responsibilities of parents in protecting minors from harmful information environments. Also, the scientific and theoretical conclusions of legal scholars were analyzed and proposals and recommendations were developed.*

***Keywords:** child, parent, freedom of information, personal and non-property rights, obligation, harmful information.*

### **KIRISH**

Yuqori texnologiyalarning rivojlanishi va buning natijasida “axborot erkinligi” tushunchasi o‘rnini “axborotning erkin oqimi” tushunchasi egallab borayotganligi, bu esa insoniyat hayotida, ayniqsa voyaga yetmagan bolalarning axborot xavfsizligini ta’minlash masalasi dolzarb muammoga aylanib ulgurdi. Shu bilan birga voyaga yetmagan bolalarning axborot-telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanishi, ularning o‘z fikrini bildirish erkinligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Mazkur ijobiy jihatlar bilan birga salbiy holatlar, xususan bolalar savdosi, bolalar pornografiyasi, fohishalik, turli noqonuniy oqimlarga a’zo bo‘lish, o‘z joniga

qasd qilish bilan bogʻliq muammolarni keskinlashuviga sabab boʻlmoqda. Maʼlumotlarga koʻra, internet tarmoqlarida oʻz oʻzini oʻldirishga targʻib etuvchi 10 mingta (oʻzini oʻzi oʻldirish boʻyicha hozir gʻarb birinchi oʻrinni egallagan), shahvoniy hirsni qoʻzgʻatuvchi 5 mingga yaqin saydlar mavjud. Mavjud saydlarning 12 foizida pornografik xususiyatdagi gʻoyalar targʻib qilinmoqda, oddiy bolalarbop oʻyinlarning qarib 50 foizida zoʻrovonlik, 40 foizidan koʻprogʻida jangarilik namoish etiladi. Undan tashqari, 10 foiz bolalar - kompyuterbozlik (geymbllik)<sup>315</sup> dardiga muhtal boʻlishgan.

Soʻnggi paytlarda bolalar va oʻsmirlarda oʻz joniga qasd qilish tendentsiyalarining shakllanishiga Internetning taʼsiri muammosi ayniqsa keskinlashdi. Bugungi kunda oʻz joniga qasd qilishlarning umumiy soni boʻyicha Rossiya Federassiyasi dunyoda oltinchi oʻrinda (Litva, Koreya, Qozogʻiston, Belarus va Yaponiyadan keyin). Biroq, Rossiya 15-19 yoshli oʻsmirlar oʻz joniga qasd qilishlari soni boʻyicha Yevropada birinchi va dunyoda birinchi oʻrinlarda turadi. Mamlakatda har yili oʻrtacha 200 dan ortiq bola va 1500 nafar oʻsmir oʻz xohishi bilan vafot yetadi. Misol uchun, 2013 yil iyun oyida Perm oʻlkasida voyaga yetmagan qiz abadiy saodatga qoʻngʻiroqlar bilan toʻla sayt sahifalarida koʻp vaqt oʻtkazib, oʻz joniga qasd qildi<sup>316</sup>. Shu boisdan har bir bolaning faravon va xavfsiz hayotini taʼminlash ustuvor vazifalardan biri ekanligini taʼkidlash joiz.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Axborot texnologiyalari rivojlangan mamlakatlar (Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Polsha, Braziliya, AQSh, Xitoy, Rossiya, Xindiston) da “Oʻlim guruhlarini”. “Koʻk kit” kabi ijtimoiy tarmoqdagi oʻyinlar sabab bolalarning oʻz joniga qasd qilish<sup>317</sup> holatlari ortib ketganligini tahlil etadigan boʻlsak, bolalarning ommaviy avxborot vositalaridan himoya qilish boʻyicha ota-onalarning shaxsiy-nomulkiy huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda muammolar mavjudligi koʻzga tashlanadi.

Maʼlumki 1959 yilda qabul qilingan “Bola huquqlari deklaratsiyasi”<sup>318</sup> “Insoniyat oʻzida mavjud boʻlgan eng yaxshi narsalarning hammasini bolalarga berishga majbur” deb elon qilgan. Mazkur halqaro normativ xujjat har bir bolaning

<sup>315</sup> <http://www.jeevajyothi.org>.

<sup>316</sup> Е.А Брылева. О реализации права на информационную безопасность несовершеннолетних (на примере Пермского края) // Информационное право. 2015. N 1. С. 31–34.

<sup>317</sup> А.П. Суходолов, А.М. Бычкова. К вопросу о роли средств массовой информации в противодействии пропаганде суицида в социальных сетях. [Электрон ресурс]: [www/http/cyberleninka.ru](http://www/http/cyberleninka.ru)

<sup>318</sup> Декларация прав ребенка. Принята резолюцией 1386 (XIV) Генеральной Ассамблеи ООН от 20 ноября 1959 года. [https://www.un.org/decl\\_conv/declarations/childdec](https://www.un.org/decl_conv/declarations/childdec)

ma'naviy, jismoniy, ma'rifiy rivojlantirish qadr-qimmat va imkoniyat huquqiga egaligini e'tirof etadi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yil 20 noyabrda qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya esa "Bola huquqlari deklaratsiyasi" qoidalarini rivojlantirdi. Konvensiya bolalarning barcha mulkiy va shaxsiy-nomulkiy huquqlari bilan birga turli xil milliy va xalqaro manbalarning axborotlari hamda materiallari ayniqsa ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy faravonlikka, shuningdek bolaning sog'lom, jismoni va ruhiy rivojlanishiga ko'maklashishga qaratilgan axborotdan foydalanishini kafolatlab beradi. Shu bilan birga, bolaning ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlardan foydalanishi, uning ruhiy, jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishi bo'yicha asosiy majburiyatni ota-onalar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar) zimmasiga yuklaydi. «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining «Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida»gi Konvensiyasining 17-moddasiga binoan har bir voyaga yetmagan shaxs oilasi, jamiyat va davlat tomonidan o'z holatidan kelib chiqqan holda talab qilinadigan alohida himoya choralari ko'rilishi huquqiga ega<sup>319</sup> ligi belgilab qo'yilgan.

Mazkur qoida milliy qonunchiligimiz normalarida xususan O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'RBQ-139-son qonunida ham o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra Har bir bola o'zining sog'lig'i, axloqiy va ma'naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan axborotni olish huquqiga ega. Har bir bola har qanday axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega, qonunda nazarda tutilgan cheklashlar bundan mustasno. Pornografiya, shafqatsizlik va zo'rvonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanadi<sup>320</sup> deb kafolatlab qo'yilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 8 sentyabrdagi "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"<sup>321</sup> gi O'RBQ-444-son qonuni bilan bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi munosabatlar tartibga solindi hamda bolalarni

<sup>319</sup> Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигининг инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликлари тўғрисидаги конвенцияси Минск, 1995 йил 26 май 1998 йил 11 августда кучга кирган. [Электрон ресурс]:

<sup>320</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 7 январдаги Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисидаги ўрқ-139-сон қонуни *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси*, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон)

<sup>321</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 8 сентябрдаги "Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисида"ГИ ЎРҚ-444-сон қонуни *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси*, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 26.01.2022 й., 03/22/747/0064-сон

ularning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari ishlab chiqildi. Qonuga muvofiq bolalarning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborot mahsulotlari jumlasiga quyidagilar kirtildi:

bolalarni ularning hayotiga va (yoki) sogʻligʻiga xavf soladigan xatti-harakatlarni sodir etishga, shu jumladan oʻz sogʻligʻiga zarar yetkazishga, oʻz joniga qasd qilishga va shunday harakatlarni targʻib qilishga undaydigan;

bolalarda alkogolli va tamaki mahsulotlarini, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni yoki aql-iroda faoliyatiga taʼsir etuvchi boshqa moddalarni isteʼmol qilish, qimor oʻyinlarida, ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etish, fohishalik, darbadarlik, tilanchilik yoki gʻayriijtimoiy xatti-harakatning boshqa shakllari bilan shugʻullanish istagini paydo qiladigan;

odamlarga yoki hayvonlarga nisbatan zoʻravonlik va shafqatsizlik qilish mumkinligini asoslaydigan yoki oqlaydigan yoxud zoʻravonlik xatti-harakatlarini amalga oshirishga undaydigan;

oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan, axloqsizlikni targʻib qiladigan, shuningdek ota-onasiga va oilaning boshqa aʼzolariga nisbatan hurmatsiz munosabatni shakllantiradigan;

gʻayriqonuniy xulq-atvorni oqlaydigan va huquqbuzarlik sodir etishga olib keladigan;

jamiyatda buzgʻunchilik gʻoyalarini targʻib etishga chaqiradigan;

uyatli soʻzlarni oʻz ichiga olgan;

pornografiya xususiyatiga ega boʻlgan axborotni oʻz ichiga olgan;

shafqatsizlik, jismoniy va (yoki) ruhiy zoʻravonlik, jinoyat yoki jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlar tasviri yoki bayoni tarzida taqdim etiladigan;

bolalarda qoʻrquv, vahima yoki sarosima uygʻotadigan, shu jumladan kuch ishlatilmagan oʻlimni, kasallikni, oʻz joniga qasd qilishni, baxtsiz hodisani, avariyan yoki falokatni va (yoki) ularning oqibatlarini inson qadr-qimmatini kamsitadigan shaklda tasvirlash yoki bayon etish tarzida taqdim etiladigan;

erkak va ayol oʻrtasidagi jinsiy munosabatlarni tasvirlash yoki bayon etish tarzida taqdim etiladigan;

uyatli soʻzlar jumlasiga kirmaydigan haqoratli soʻzlarni oʻz ichiga olgan axborot mahsuloti.

Xususan Bolalarning sogʻligʻi yoki rivojlanishiga zarar yetkazuvchi axborot turlari Rossiya Federatsiyasining 2010 yil 29 dekabrda "Bolalarni ularning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi maʼlumotlardan himoya qilish toʻgʻrisida" Federal qonuni, Qozoqiston Respublikasining 2018 yil 2 iyuldagi "Bolalarni ularning



salomatligi va rivojlanishiga zararli axborotlardan himoya qilish haqida”gi, Donesk xalq Respublikasining 2015 yil 20 oktyabrdagi "Bolalarni ularning salomatligi va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi axborotlardan himoya qilish haqida”gi Qonunlarini tahlil etadigan bo‘lsak, MDHga a’zo davlatlar Parlamentlararo assambleyasining o‘ttiz uchinchi yalpi majlisida 2009-yil 3-dekabrdagi 33-15-son qarori bilan “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”<sup>322</sup>gi namunaviy qabul qilingan qonundan kelib chiqqan holda belgilab qo‘yilganini ko‘rishimiz mumkin.

Milliy qonunchiligimizga ko‘ra bolalarning zararli axborotlardan himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi va voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) idoralararo komissiyalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari, davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshirish mehanizmi ishlab chiqildi. Biroq bolaning zararli axborot oqimidan himoya qilishda avvalo jamiyat emas balki uning ota-onasining ma’sulligini oshirish, bolaning aqliy, ruhiy, jismoniy kamol topishida dastlabki qadam oiladan boshlanishi zarurligini e’tirof etish joiz. Zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra bolaning uch yoshgacha bo‘lgan davrida bosh miyadagi xujayralarning 70-80 foizini shakllanib ulguradi<sup>323</sup>. Bu yoshda bolaga bir paytning o‘zida to‘rt va besh tilni o‘rgatish mumkinligi o‘z isbotini topgan bo‘lsa, 6 oylik chaqoloqni 8 minutgacha suvda suza olish imkoniyati o‘z tasdig‘ini topdi<sup>324</sup>. Mazkur vaqt oralig‘ida esa bola faqatgina oilasi aniqroq aytganda ota-onasi bilan muloqatga va munosabatga kirishadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 73 moddasiga muvofiq ota-ona o‘z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shuningdek ota-ona o‘z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgarligi, ular o‘z bolalarining sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilishlari shart ekanligi belgilab qo‘yilgan. Ayni patyda shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot oqimining bola tarbiyasidagi ta’siri murakkab muhitni vujudga keltirmoqda. Shu boisdan bolani noqulay axborot muhitining ta’siridan himoya qilish masalasida ota-onalarning huquq va majburiyatlarini hal etish markaziy o‘ringa ega bo‘lmoqda.

<sup>322</sup> “О защите детей от информации, причиняющей вред их здоровью и развитию: модельный закон” от 03.12.2009 № 33- 15// Информационный бюллетень. –2010.– № 46. –С. 190 - 228.

<sup>323</sup> Масару Ибука. После трех уже поздно. Тошкент.: 2021.й. 22 с

<sup>324</sup> Масару Ибука. После трех уже поздно. Тошкент.: 2021.й. 38 с

Bolaning axborot maydonidan foydalanishini fuqarolik huquqiy va oilaviy huquq sohasida tahlil etish globalashuv jarayonidagi masala hisoblanadi. Chunki birinchidan, bolaning axborotga bo'lgan huquqning mazmunini tahlil qilish va uning sub'ektining ruxsat etilgan xatti-harakati turini qonun chiqaruvchi nuqtai nazardan tavsiflash ayni paytda fuqarolik huquqining alohida vazifasi bo'lib turibdi. Chunki bolaning axborotga qiziqishi faqat oilaviy huquqiy munosabatlar bilan cheklanmaydi. Shuningdek, u korporativ huquqiy munosabatlarda (bola ulush yegasi sifatida korporativ axborot huquqining sub'ektiga aylanadi), shuningdek, chakana savdoda tovarlarning xususiyatlari bilan tanishish yoki bilishda ifodalanishi mumkin. Bu yehtiyojni qondirish bolaning iste'molchi sifatida to'g'ri tanlashi uchun juda muhimdir<sup>325</sup>. Ikkinchidan esa, bolaning zararli axborot oqimidan himoya qilishda oilaning asosiy huquq va majburiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa ota-ona zimmasiga bolalar oldidagi shaxsiy-nomulkiy huquq va majburiyatlarini amalga oshirishdagi yangicha yondashuvlar paydo bo'layotganligini ko'rsatadi.

N.F.Imomov shaxsiy nomulkiy munosabatlarga nisbatan huquqiy ta'sir mexanizmi masalasi bo'yicha doktrinal masala qayta ko'rib chiqilishi lozimligini ta'kidlaydi<sup>326</sup>. X.B.Abduraxmonova esa, globalashuv jarayonida vujudga kelayotgan yangi shaxsiy nomulkiy huquqlar tizimi konsepsiyasi va ularni himoyalash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqligini aytib, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat huquqiy, balki diniy axloqiy me'yorlar bilan ham tartibga solinadi<sup>327</sup> degan fikrni ilgari suradi. N.A.Ashurova, Sh.R.Yuldasheva, F.M.Otaxo'jaev, X.B.Abduraxmonovalarning ta'kidlashicha, shaxsiy nomulkiy huquqlariga ota-ona huquq va majburiyatlarining tengligi, bolalarning huquq va manfaatlarini himoyalash, ota-onalik huquqini amalga oshirish, ota-onaning bolalariga ta'lim-tarbiya berishdagi huquq va majburiyatlari kabi huquqlar kiradi. Fikrimizcha, N.F.Imomovning fikriga qo'shilgan holda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanib borayotganligini inobatga olgan holda ota-onaning o'z bolalariga ta'lim-tarbiya berish bilan bog'liq shaxsiy-nomulkiy huquqlarini amalga oshirishda, bolalarning zararli axborot muhitidan himoya qilishning yangicha usul va mehanizmlarini ishlab chiqish zaruriyat hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga

<sup>325</sup> Н.Ш.Курбоналиев. Проблемы защиты гражданских информационных прав ребенка в Республике Таджикистан. дисс ... кандидата юридических наук : Тадж. нац. ун-т.- Душанбе, 2014.- 195 с.

<sup>326</sup> О.Оқюлов, Ш.Н.Рўзиназаров. Н.Ф.Имамов, Ж.И.Бабаев. Фуқаролик қонунчилигининг ривожланиши ва такомиллаштириш истикболлари (ахборот-таҳлилий материал). – Т.: ТДЮУ, 2016 й, 66-бет.

<sup>327</sup> Х.Б.Абдурахмонова Халқаро хусусий ҳуқуқда ота-она ва фарзандлар ўртасидаги муносабатларнинг тартибга солиниши. Дисс...юридик фанлар доктори. ТДЮУ, 2016 й, 29-бет.

maxsus norma, bolaning yoshiga to'g'ri kelmaydigan, ularning sog'ligi va rivojlanishi uchun zararli bo'lgan ma'lumotlarga kirishini cheklash ota-onalar, farzandlikka oluvchilar vasiylar yoki homiylarning majburiyati sifatida belgilash, internetdagi axborot tahdidlarining oldini olish va bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq xavflarni kamaytiradi. Chunki, bolaning manfaatlarini uning farovonligi uchun shartlar sifatida tushunish kerak. Ushbu kontseptsiyani qonuniylashtirish taklif yetiladi, Chunki u voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini ustuvor himoya qilish tamoyiliga mos keladi.<sup>328</sup>

Bolani tarbiyalash va rivojlantirish bo'yicha majburiyatlarni to'g'ri bajarish deganda: voyaga yetmagan bolaning xatti-harakatlarini nazorat qilish tushunilishi kerak. zararli ma'lumotlarni iste'mol qilishni cheklash, ota-onalarning bolaning faoliyatidan xabardorligi; uning aloqalari, Internet va boshqa axborot manbalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish.<sup>329</sup>

Xorijiy davlatlarda ota-ona va bolar o'rtasidagi shaxsiy-nomulkiy munosabatlarda bolaning axloq-odob, milliy qadriyat va urf odatlar, diniy me'yorlar huquqqa aylantirilishini istisno etmaydi. Shu bilan birga bolaning zararli axborot oqimidan himoya qilishda ota-onalar asosiy o'rin tutishini ham e'tirof etish lozim. Zararli ma'lumotlarning tarqalishini bostirishning kompleks yondashuvi ota-onalarning bolani tarbiyalash bo'yicha majburiyatlarini tartibga solishda huquqiy va diniy me'yorlarning o'zaro ta'sirida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi<sup>330</sup>. Gruziya davlatining 2021 yil 16 martda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi kodeksi"ning

25-moddasi 2 qismiga ko'ra ota-ona, bolani tarbiyalash uchun ma'sul bo'lgan boshqa shaxs bolaning tarbiyasiga ma'sul, shu jumladan bolaga nisbatan tarbiyaviy ta'sir choralarini qo'llash, bundan tashqari bola uchun xavfli bo'lgan ma'lumotlardan himoya qilish choralarini qo'llaydi<sup>331</sup> deb belgilab qo'yilgan bo'lsa, Finlandiyaning "Bolalarning himoya qilish to'g'risida"gi qonuning 2 moddasiga muvofiq ota-onalar va bola nisbatan vasiylik huquqiga ega bo'gan boshqa shaxslar bolaning farovonligi uchun javobgardirlar. Ota-ona va bolaga nisbatan vasiylik huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxs bolaga muvozanatli rivojlanish imkoniyatini ta'minlashi, uning

<sup>328</sup> Н.М.Савельева. Правовое положение ребенка в Российской Федерации: гражданско-правовой и семейно-правовой аспекты.

<sup>329</sup> С. Л. Банщикова, И.Ю. Гольяпина Обязанности родителей по обеспечению информационной безопасности несовершеннолетних детей и административная ответственность за неисполнение обязанности. Вестник Сибирского института бизнеса и информационных технологий № 1 (25) 2018 Б.96

<sup>330</sup> Курбоналиев, нурулло шамсуллоевич Проблемы защиты гражданских информационных прав ребенка в республике таджикистан. дисс ... кандидата юридических наук : тадж. нац. ун-т.- душанбе, 2014.- 195 с.

<sup>331</sup> Контрольный текст по состоянию на 16.03. 2021 N346 Кодекс о правах ребенка.

faravonligini kafolatlashi shart. Xususan, Xitoyda davlat oilalar bilan hamkorlikda bolalarni internet orqali tarqaladigan zararli ma'lumotlardan himoya qiladi. Bolalarning internetga qaramligining oldini olish uchun bolaning qarindoshlari mas'ul bo'lib, davlat o'smirlarni salbiy ma'lumotlar ta'siridan texnologik himoya qilishni o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun 1992 yilda qabul qilingan voyaga yetmaganlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunda "Buyuk Xitoy xavfsizlik devori" bundan tashqari, 2003 yilda Xitoyda "Oltin qalqon" server tizimi ishga tushirildi, bu xalqaro axborot tarmoqlaridan kelayotgan ma'lumotlarni filtrlash uchun javobgardir. 2004 yilda esa Xitoyda Shikoyat markazi ochildi, u yoshidan qat'iy nazar barcha fuqarolarni salbiy ma'lumotlar ta'siridan himoya qilish uchun mo'ljallangan. Bu pornografiya, zo'rovonlikka chaqiriqlarni o'z ichiga olgan materiallar, etnik adovat targ'iboti va boshqalarga tegishli<sup>332</sup>. AQShda esa ota-onalarga bolaning yoshiga mos keladigan dasturlarni qabul qilish uchun qurilmalarni sozlash imkonini beruvchi maxsus kodlash tizimi bilan jihozlanmagan televizorlarni sotishga ruxsat berilmaydi. Eshittirish kanallariga, shuningdek, agar ijrochi nomaqbul xatti-harakatlarda gumon qilinsa, ehtiyot choralarini ko'rishga buyuriladi. Fikrimizcha ota-onalar zimmasiga bolani u tomonidan zararli ma'lumotlar qabul qilishdan cheklangan bo'lib, uning xulq-atvorini nazorat qilish, bolaning faoliyati va uning aloqalari xaqida hamda Internet tarmogi va boshqa ma'lumotlar manbalaridan foydalanish madaniyatini xosil qilish borasida majburiyat yuklash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## **XULOSA**

Xulosa sifatida aytganda, Axborot jamiyati rivojlanishining hozirgi sharoitida yosh avlod ota-onalar tomonidan alohida himoyaga muhtoj va voyaga yetmaganlarning axborot xavfsizligini ta'minlash muammolari alohida e'tiborga loyiqdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy-nomulkiy huquqlari sifatida axborot xavfsizligini ota-onalar tomonidan ximoya qilish quyidagilar bilan izohlanadi.

Birinchi, bolalarni zararli axborot ta'siridan himoya qilishda ota-onalarning bolani tarbiyalash va nazorat qilish bo'yicha majburiyatlarini tartibga solish talab etiladi.

Ikkinchi, ota-onalarning bolani ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlash uchun uning jismoniy va intellektual rivojlanishiga barqaror ma'naviy ta'sir o'tkazish

---

<sup>332</sup> Н.Н.Телешина. *Novations in the legal environment of the children's information security in the Russian Federation. Protection of the rights of the child* N 2 (7) Июнь 2017 й 199 p

chorasi sifatida huquqiy va diniy normalarning uyg'unligini ta'minlagan holda o'ziga hos ahloq normalarini amalga o'rinish zarur hisoblandi.

Uchinchidan, bolani zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha ota-onalar uchun milliy dastur ishlab chiqish ya'ni bolaning internet tarmog'idan foydalanishda ota-onalar nazoratini o'rnatuvchi dasturlar ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bolaning zararli axborot muhitidan himoya qilish bo'yicha ota-ona zimmasiga kompleks majburiyat yuklovchi normalarni ishlab chiqish va joriy etish oldimizdagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 74<sup>1</sup> moddasi bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq hisoblanai "Ota-ona bolaning zararli axborotlardan himoya qilish majburiyati. Ota-onalar bolani axborot muhitining xavf-xatari bilan tanishtirishga majburdirlar Ota onalar o'z bolalarini zararli axborot vositalaridan himoya qilish huquqiga ega va himoya qilishi shart.", xususan , Oila kodeksining 74<sup>2</sup> moddasi bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi."Bolaning yoshiga to'g'ri kelmaydigan, ularning sog'ligi va rivojlanishi uchun zararli bo'lgan ma'lumotlarga kirishini cheklashga ota-onalar, farzandlikka oluvchilar vasiylar yoki homiylar majburdirlar" degan normalarni qonunchilikka kiritish va amliyotga joriy etish lozim.

## REFERENCES

1. Курбоналиев, нурулло шамсуллоевич Проблемы защиты гражданских информационных прав ребенка в республике таджикистан. дисс ... кандидата юридических наук : тадж. нац. ун-т.- душанбе, 2014.- 195 с.
2. Контрольный текст по состоянию на 16.03. 2021 N346 Кодекс о правах ребенка.
3. Н.Н.Телешина. *Novations in the legal environment of the children's information security in the Russian Federation. Protection of the rights of the child N 2 (7) Июнь 2017 й 199 p*
4. О.Окюлов, Ш.Н.Рўзиназаров. Н.Ф.Имамов, Ж.И.Бабаев. Фуқаролик қонунчилигининг ривожланиши ва такомиллаштириш истикболлари (ахборот-таҳлилий материал). – Т.: ТДЮУ, 2016 й, 66-бет.
5. Х.Б.Абдурахмонова Халқаро хусусий ҳуқуқда ота-она ва фарзандлар ўртасидаги муносабатларнинг тартибга солиниши. Дисс...юридик фанлар доктори. ТДЮУ, 2016 й, 29-бет.

- 
6. Н.М.Савельева. Правовое положение ребенка в Российской Федерации: гражданско-правовой и семейно-правовой аспекты.
7. С. Л. Банщикова, И.Ю. Гольяпина Обязанности родителей по обеспечению информационной безопасности несовершеннолетних детей и административная ответственность за неисполнение обязанности. Вестник Сибирского института бизнеса и информационных технологий № 1 (25) 2018 Б.96

**QIYNOQQA SOLISH VA BOSHQA SHAFQATSIZ, G'AYRIINSONIY  
YOKI QADR-QIMMATNI KAMSITUVCHI MUOAMALA HAMDA JAZO  
TURLARINI QO'LLASH JINOYATINI KRIMINALIZATSIYA QILISH  
ASOSLARI**

**Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li,**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi  
va amaliyoti" fakulteti magistranti

E-mail: [haydarovjaloliddin99@gmail.com](mailto:haydarovjaloliddin99@gmail.com)

Tel: +998908659070

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada qiynoqqa solish hamda boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash harakatini ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholab, Jinoyat kodeksida kriminalizatsiya qilish asoslari yotitib berilgan. Qiynoqqa solish bilan bog'liq jinoyatlar jinoyat huquqiga kirib kelishi, shuningdek jinoyat qonunchiligiga kiritish orqali jinoyat huquqi qo'riqlashi lozim bo'lgan obyektlarni ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar sodir etilishidan saqlash maqsadi ochib berilgan. Maqolada qiynoqqa solish hamda boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash uchun javobgarlik mavzusining hali mamlakatimiz huquq tizimi tomonidan kam ahamiyat berilgan mavzulardan biri ekanligi va hozirga kunga kelib jinoyat qonunchiligidagi mavjud norma ishlay boshlaganligini ushbu mavzudagi ilmiy bazaning kamligi yaqqol isbotlab beradi. Maqolada qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz muomala turlarini qo'llashining nazariy asoslari tahlil qilingan hamda ushbu sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Qiynoq, kriminalizatsiya, ijtimoiy xavfli xatti-harakat, jinoyat obyekti, qiynoqqa solish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar.*

**ANNOTATION**

*This article lays down the grounds for criminalization in the Criminal Code, which considers torture and other cruel, inhuman or degrading treatment or punishment to be a socially dangerous act. The purpose of preventing the commission of crimes related to torture, as well as the protection of objects that should be protected by criminal law from the commission of socially dangerous acts by including them in criminal law. The article clearly shows that the issue of responsibility for torture and other cruel, inhuman or degrading treatment or*

*punishment is one of the topics that is still neglected by the legal system of our country, and the existing norm in criminal law is still in force. The article analyzes the theoretical basis for the use of torture and other cruel treatment, as well as offers and practical recommendations for improving the legislation governing this area.*

**Keywords.** *Torture, criminalization, socially dangerous behavior, object of crime, social relations related to torture.*

## **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2020-yil 22-iyundagi PF-6012 son farmoni bilan Milliy strategiyada O‘zbekistonning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reyting va indekslarda TOP-50 qatoriga kirishini ta‘minlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi. BMT Yangiliklar markazi ma‘lumotiga ko‘ra, 15 davlat 2021 yil 1 yanvardan boshlab uch yillik muddatga BMT Inson huquqlari bo‘yicha Kengashi a‘ziligiga saylangan bo‘lib, ushbu davlatlar qatorida O‘zbekiston ham ko‘rsatilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son farmoniga muvofiq, 13-maqсад sifatida qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta‘minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash maqsadi inson huquqlarini ta‘minlash darajasiga berilayotgan e‘tiborni ko‘rsatadi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODIAR**

Qiynoq holatlari dastlabki bosqichda normal holat deb qaralgan bo‘lsa, hozirgi kunda davlatlar tomonidan ushbu harakat jinoyat sifatida etirof etilmoqda. Chunki qiynoqqa solish insonning bazaviy huquqlaridan mahrum qilib, huquq va majburiyatlariga amal qilinmasligiga olib keladi. Ikkinchi jahon urushi insoniyat rivojida tub burilishlar yasaganligi bilan bir qatorda, inson huquqlarining taminlanishi uchun ustuvor ahamiyat kasb etgan qiynoqlarga qarshi Konvensiyaning ishlab chiqilishiga ham sabab bo‘ldi. Ushbu xalqaro hujjatning talablaridan biri a‘zo davlatlar o‘z jinoyat qonunchiligiga qiynoq holatini kriminalizatsiya qilishi va jinoiy javobgarlikka tortishi, jinoiy taqib etishi lozim edi. Ma‘lumki, jinoyat-huquqiy siyosatni amalga oshirilishi usullaridan biri ijtimoiy xavfli qilmishni kriminalizatsiya qilish hisoblanadi. Kriminalizatsiya deganda, qilmishni ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholab, jinoyat deb hisoblab, Jinoyat kodeksida ushbu qilmish uchun jinoiy javobgarlikning belgilanishi tushuniladi [1]. Kriminalizatsiya orqali jinoyat qonunchiligi ko‘zlagan maqsad, yani shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat



va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoyiy tajovuzlardan qo‘riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalash maqsadida mamum bir qilmishni ijtimoiy xavfli qilmish sifatida e‘tirof etadi va jinoyat qonunchiligiga kiritadi [2]. Ma’lum bir qilmishni ijtimoiy xavfli deb topish va uni kriminalizatsiya qilish ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va o‘zgarishi bilan bog‘liq. Jumladan, qiynoq va qiynoqa solish bilan bog‘liq harakatlarni antik davlatlar jinoyat protsessining bir qismi sifatida ko‘rgan bo‘lsa, ijtimoiy munosabatlar rivoji bilan inson huquqlari tarafdorlarining fikrlari ostida qonun chiqaruvchi hokimiyat qiynoq bilan bog‘liq holatlarni jinoyat qonunchiligiga kiritdi va jinoyiy jazoga sazovor ijtimoiy xavfli qilmish sifatida kiritdi. Xuddi shuningdek, qiynoq va qiynoqa solishni qonun chiqaruvchi jinoyat qonunchilishisha kiritishdan maqsadi odil sudlovga erishish, qonunlarga hurmat munosabatini shakllantirish hisoblanadi. Qilmishni kriminalizatsiya qilish uchun quyidagi shartlardan biri namayon bo‘lishi lozim:

- a. qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi;
- b. boshqa vositalar orqali ijtimoiy xavfli qilmishga qarshi kurash choralarning mavjud emasligi;
- c. qilmish konstitutsiya va qonun hujjatlariga, milliy qonunchilikda amalda bo‘lgan xalqaro huquqiy hujjatlarga va axloq-odob qoidalariga zidligi.

Qilmishni ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholanishining asosiy belgisi ijtimoiy munosabatlarga zarar yetqazishida namayon bo‘lishi to‘g‘risidagi fikr M.Usmonaliyev tomonidan bildirilgan[3]. A.P. Kuznetsov kriminalizatsiyani qonun chiqaruvchi tomonidan muayyan xatti-harakatni jazolash xavfi ostida jinoyat qonunchiligida sodir etishni taqiqlash bilan jinoyatlar soniga kiritish sifida baholasa, N.A.Lopashenkoning fikricha, ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarning yangi turlari paydo bo‘lishi, ma’muriy qonunchilikda tartibga solingan yoki umuman huquqbuzarlik deb hisoblanmaydigan jamiyat uchun xavfli bo‘lgan xatti-harakatlarning noqulay dinamikasi, shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni kuchaytirish zaruriyati, jinoyiy harakatlarning ilgari dekriminallashtirilishiga oid xatolar muayyan qilmishni kriminalizatsiya qilish uchun asos bo‘ladi [4]. Qiynoqa solish jinoyat huquqi qo‘riqlashi lozim bo‘lgan obektlar: shaxs, uning huquq va erkinliklariga ko‘pol ravishda tajovuz qiladi, uning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadi. Bunday qilmish natijasida jabrlanuvchilar nafaqat jismoniy azoblanadilar, balki ruhiy tomondan shikastlanadilar.

Qilmishni kriminalizatsiya qilishning yuqorida keltirilgan shartlaridan kelib chiqsak, qiynoqqa solish bilan bog‘liq jinoyatlarni kriminalizatsiya qilish asoslari quyidagilar:

- 1) Qiynoqqa solishning yuqori darajadagi ijtimoiy xavfliligi;
- 2) Qiynoqqa solish faktlarining ijtimoiy munosabatlar rivoji bilan ko‘payib borishi;
- 3) Qiynoqqa solish bilan bog‘liq harakatlarni boshqa choralar bilan oldini olish imkoniyatining mavjud emasligi;
- 4) Qiynoqqa solishning Konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlari hamda xalqaro hujjatlarga zid ekanligi;
- 5) Jinoyat qonunchiligida ko‘zlangan maqsadga erishish.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Yuqoridagilardan umumiy xulosa qilsak, qiynoq holatlari insoniyat rivojining barcha bosqichlarida mavjud va keng jamoatchilik bu kabi salbiy holatlarni kamaytirish, inson huquqlarining buzilishini oldini olish maqsadida kurashadi. Qiynoqqa solish ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanib, uning kriminalizatsiya qilinishi bu sohadagi xalqaro miyorlar va umum qabul qilingan miyorlar bilan bog‘liq. Yani insoniyat keng qatlami bu kabi harakatlarni qoralaydi va inson huquqlari uchun kurashishni talab qiladi.

04.04.2018 yilda qabul qilingan «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirdar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan JK 235-moddasi subektlar doirsiga huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimining roziligi bilan yoki uning dalolatchiligida boshqa shaxslar tushunchasi kiritildi. Ushbu o‘zgarishdan so‘ng ham JK 17-moddasida JK 235-moddasi uchun subekt yoshi sifatida 18 yosh sifatida qolmoqda. JK 235-moddasiga ko‘ra, jinoyat subekti - huquqni muhofaza qiluvchi organing yoki boshqa davlat organining xodimi tomonidan yoxud uning dalolatchiligida yoki xabardorligida yoxud indamay bergan roziligi bilan boshqa shaxslar. Bu normada boshqa davlat organi tushunchasini huquqiy bo‘shliqqa olib kelgan. Normani sharhlasak, huquqni muhofaza qiluvchi organdan boshqa jinoyat ishini yuritishga masul organlar anglashiladi. Chunki JK 235-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortish uchun aybdor jinoyat ishini yuritishga masul huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari bo‘lishi lozim. Masalan, boshqa organ deganda mahalliy ijro hokimiyati tushunilishi mumkin. Ijro hokimiyati esa jinoyat ishini yuritishga masul organ sifatida keltirilmagan. JK 235-moddasi bilan

jinoiy javobgarlikka tortish uchun jabrlanuvchilar qatori keltirilgan bo'lib, bu o'zgarmas hamda qatidir. Ijtimoiy munosabatlarning rivoji shuni ko'rsatmoqdaki, huquqni muhofa qiluvchi organ xodimi jinoyat ishi qo'zg'atmasdan va jabrlanuvchi ishda gumonlanuvchi sifatida etirof etilmasdan qiynoqqa solmoqda, g'ayriinsoniy muoamala hamda jazo turlarini qo'llamoqda. Masalan, 2020 yil may oyida Andijon shahar Ichki ishlar organlari Faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi 4-sonli ichki ishlar bo'limi xodimlari fuqaro Alijon Abdukarimovni ushlab turgan holda iqrorlik ko'rsatuvini berishga majburlash maqsadida zo'rlik ishlatib bosim o'tkazishgan. Oqibatda Alijon Abdukarimov vafot etgan.

### **XULOSA**

Ushbu jinoyatni davlat organi xodimining roziligi bilan 18 yoshdan kichik bo'lgan umumiy subekt tomonidan sodir qilinishi mumkin. Shu sababli ham JK 17-moddasida JK 235-moddasi uchun subekt yoshini 16 yosh etib belgilash lozim. JK 235-moddasi uchun jabrlanuvchilar qatorini yanada kengaytirish lozim. Jabrlanuvchilar qatoriga ushlab turilgan shaxs tushunchasini kiritish lozim. Norma quyidagicha to'ldirilishi lozim: mamuriy qamoqq olingan shaxs tushunchasidan oldin ushlab turilgan shaxs tushunchasi bilan to'ldirilishi lozim.

### **REFERENCES**

1. Абдурасулова Қ.Р. Давлатнинг жиноятчиликка қарши кураш сиёсати ҳақида айрим мулоҳазалар. // Жиноят қонунчилигини такомиллаштириш муаммолари мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: ТДЮИ, 2010. – Б. 45.
2. Лопашено Н.А. Уголовная политика: понятие, содержание, методы и формы реализации, уголовное право в XXI веке. – М.: ЛексЭст, 2002. – С. 179.
3. Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм: Дарслик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 170.
4. Российское уголовное право. Общая и Особенная части: учеб: в 3 т. / под ред. Н.А. Лопашенко. 2-е изд., испр. и доп. Т. 1: Общая часть. М., 2014. -82 с.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/111460>.
7. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/111189>.
8. «Jinoyat hamda jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3723 son qarori.

## **FIRIBGARLIK JINOYATI TUSHUNCHASI VA JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI**

**Turgunboyev Eldorbek Odiljonovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti  
E-mail:eldorbekturgunboev9898@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada muallif tomonidan firibgarlik jinoyati tushunchasi, uning ayrim o'ziga xos jihatlari xususida umumiy tavsif berilgan. Bundan tashqari, firibgarlik jinoyati tarkibi elementlari tahlili amalga oshirilgan. Muallif mazkur jinoyatni sodir etish usullari uning kvalifikatsiyasiga ta'sir etishi haqida ham to'xtalgan. Jumladan, hujjatlarni qalbakilashtirish orqali sodir etilgan firibgarlik jinoyatini kvalifikatsiya qilish masalalarini yoritgan. Shuningdek, mazkur mavzuda tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlarini o'rganib, firibgarlikning jinoyat-huquqiy tavsifini bayon qilgan.*

**Kalit so'zlar:** *firibgarlik, o'zganing mulki, talon-toroj qilish, aldash, ishonchni suiiste'mol qilish, faol aldash, nofaol aldash.*

## **ПОНЯТИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ МОШЕННИЧЕСТВА И УГОЛОВНО- ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА**

**Тургунбоев Элдорбек Одилжонович,**  
Магистрант Ташкентского  
государственного юридического университета  
E-mail:eldorbekturgunboev9898@gmail.com

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье автор дает общее описание понятия преступления, связанного с мошенничеством, некоторых его особенностей. Кроме того, был проведен анализ элементов состава преступления, связанного с мошенничеством. Автор также коснулся того факта, что способы совершения этого преступления влияют на его квалификацию. В частности, в нем рассматривались вопросы количественной оценки преступления мошенничества, совершенного путем подделки документов. Он также изучил мнения ученых, которые проводили исследования на эту тему, и описал уголовно-правовую характеристику мошенничества.*

**Ключевые слова:** *мошенничество, чужое имущество, хищение, обман, злоупотребление доверием, активный обман, пассивный обман.*

## **THE CONCEPT OF FRAUD AND CRIMINAL LEGAL CHARACTERISTICS**

**Turgunboyev Eldorbek Odiljonovich,**

Master student of

Tashkent State University of Law

E-mail: eldorbekturgunboev9898@gmail.com

### **ABSTRACT**

*In this article, the author gives a general description of the concept of a crime related to fraud, some of its features. In addition, an analysis of the elements of the crime related to fraud was carried out. The author also touched upon the fact that the methods of committing this crime affect his qualifications. In particular, it addressed the issues of quantification of the crime of fraud committed by forgery of documents. He also studied the opinions of scientists who conducted research on this topic, and described the criminal and legal characteristics of fraud.*

***Key words:** fraud, other people's property, robbery, deception, abuse of trust, active deception, passive deception.*

### **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi eng muhim ijtimoiy munosabatlarni himoya qilish ekan, shaxs, uning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Ayniqsa, hozirgi kunga kelib, Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida bu yanada o'z dolzarbligini namoyon etmoqda. O'zbekiston Respublikasida mulk daxlsizdir, har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Mulchilikni barcha shakllarini daxlsizligi va rivojlanishiga teng sharoit yaratishga kafolat beradi. Ushbu mulchilik shaklining torligi jinoyat qonunida "o'zgalar mulki" tushunchasini beradi.

O'zgalar mulkini talon-toraj qilish deganda, huquqqa xilof ravishda o'rnini qoplamasdan, g'arazgo'ylik niyatida mulkdorga zarar yetkazib, o'zganing mulkini aybdorning o'zi yoki boshqa shaxslar foydasiga egallab olish yoki o'tkazish tushuniladi. O'zgalar mulkini talon-toraj qilish jinoyatlarining bevosita ob'ekti mulkini o'zgaga tegishlilik huquqini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan ham mazkur turdagi jinoyatlarning predmetini o'zganing mulki tashkil qiladi.

O'zganing mulki deganda – boshqaga tegishli bo'lgan ashyolar, pullar, mulkka egalik huquqini beruvchi – qo'lga kiritilishi, mulkni qo'lga kiritish bilan teng bo'lgan hujjatlar tushuniladi. O'zgalar mulkini talon-toraj qilish jinoyatlarida mulk davlat,

xususiy, aralash, ommaviy va boshqa mulk bo‘lishidan qat’i nazar u o‘zganing mulki deb baholanadi [1].

Quyidagilar esa o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarining predmeti bo‘la olmaydi:

- yovvoyi holda o‘sadigan o‘simliklar, ularning mevalari, yovvoyi qushlar va hayvonlar, yer ostidan kovlab olinmaydigan foydali qazilmalar;
- mulkdor uchun o‘z qiymatini yo‘qotgan narsalar;
- muayyan qiymatga ega bo‘lmagan mulklar;
- o‘zgalar ixtiyoridan tasodifiy holda chiqib qolgan mulklar;
- shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar (masalan, pasport, shaxsni tasdiqlovchi guvohnoma va boshq.) talon-toroj predmeti bo‘la olmaydi [1].

Ob’ektiv tomondan o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish o‘zganing mulkini qonunga xilof ravishda, tekinga o‘zi yoki boshqa shaxs foydasi uchun olishda ifodalanadi.

Firibgarlik jinoyati iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar jumlasiga kirib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi dispozitsiyasida quyidagicha aks ettirilgan: “Firibgarlik, ya’ni aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiy huquqini qo‘lga kiritish”.

Ilmiy adabiyotlarda firibgarlik tushunchalariga turlicha ta’riflar berilgan. Firibgarlik tushunchasiga ilk doktrinal ta’rifni N.S.Tagansev tomonidan berilgan bo‘lib, u “firibgarlik – shaxs tomonidan o‘zganing mulkini aldov yo‘li bilan o‘zlashtirish bo‘lib, firibgarlik maqsadi shunda ifodalanadiki, jabrlanuvchida firibgar mulkni egallashga, o‘ziga foydali shartlarda bitim tuzishga huquqiy asosga ega degan fikrda bo‘ladi” [2] degan.

Yuridik fanlar doktori, professor Q.Abdurasulova “...firibgarlik boshqa o‘xshash jinoyatlardan farqlari, bu jinoyat tarkibining to‘la yoritilmaganidadir” deb fikr bildirib, “firibgarlik-bu birovning mulkini yoki mulkka bo‘lgan huquqini aldash yo‘li bilan egallashdir” deb ta’rif berganlar [3].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish talon-toroj uchun zarur bo‘lgan bir qator belgilarni aniqlash lozim. Ushbu belgilarning birortasining aniqlanmasligi qilmishni talon-toroj sifatida kvalifikatsiya qilishni istisno etadi. O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarining quyidagi belgilari mavjud:

1. Mulkini egallashda g'arazli niyatning (g'arazgo'ylik) mavjudligi. G'araz niyat foyda olish, naf, manfaat ko'rishni nazarda tutadi. Qonunga ko'ra, g'arazgo'ylik deganda, sodir qilingan jinoyatdan moddiy yoki boshqacha mulkiy yo'sindagi foyda olish yoxud moddiy xarajatlardan qutilishga intilishda ifodalangan niyat tushuniladi.

2. O'zganing mulkini huquqqa xilof ravishda egallash. Huquqqa xiloflik – aybdorning mulk egasi emasligi, qilmishni sodir etishga huquqiy asos va huquqi yo'qligi, bunday mulkni o'z foydasiga yoki boshqa shaxslar foydasiga aylantirishiga huquqi yo'qligini anglatadi.

3. O'zgar mulkini talon-toroj qilishning navbatdagi belgisi bu o'rnini qoplamaslikdir. O'rnini qoplamaslik deganda, aybdorning talon-toroj qilingan mulk uchun ijtimoiy foydali mehnat yoki uning o'rnini bosuvchi qiymatga ega harakatni amalga oshirmaslik, mulk qiymatidan kam haq to'lash tushuniladi.

4. Qilmishni o'zgar mulkini talon-toroj qilish deb baholash uchun mulk o'zganing tasarrufida bo'lishi va mulk o'zganing tasarrufidan olinganligini baholash kerak. Chunki o'zgar mulkini talon-toroj qilish jinoyatida aybdor tajovuz qilgan mulk, mulkdorning bevosita egaligida bo'lishi lozim.

O'zgar mulkini talon-toroj qilish jinoyatining yana bir muhim belgisi bu mulkdorga moddiy zarar yetkazishdir. O'zgar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarining barcha shakllari sodir etilishida mulkdorga moddiy zarar yetkaziladi.

Moddiy zarar deganda, to'g'ridan-to'g'ri zarar yetkazishni (ijobiy) va boy berilgan zararlar (egri zarar) tushuniladi.

Ijobiy zarar (to'g'ridan-to'g'ri yetkazilgan zarar) talon-toroj qilingan mulkning bahosi bilan aniqlanadi.

Talon-toroj qilingan mulkning miqdorini belgilashda mulkning qiymatidan kelib chiqib, jinoyatni sodir etish vaqtida bazaviy hisoblash miqdori bilan taqqoslash asosida aniqlanadi. Jinoyat predmeti bo'lgan mulkning qiymatini aniqlashda, uning mulkdor tomonidan qay yo'sinda sotib olinganligiga qarab, jinoyat sodir etilgan vaqtda amalda bo'lgan va tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan chakana, bozor yoki komission narxlardan kelib chiqish lozim. Narx mavjud bo'lmaganda va talon-toroj miqdori to'g'risida nizo kelib chiqqan hollarda, mulk qiymati ekspert xulosasiga asosan aniqlanadi [4].

O'zgar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarining sub'ektiv tomoni faqat to'g'ri qasdda ifodalanadi. G'arazgo'ylik motivi barcha talon-toroj jinoyatlarining zaruriy belgisi hisoblanadi. O'zgar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarining sub'ekti har qanday 16 yoshga to'lgan shaxs bo'lishi mumkin.

Firibgarlikda yolgʻon maʼlumotlarga jabrlanuvchini yanglishtirishga olib kelishi mumkin boʻlgan har qanday holatlar, jumladan, yuridik fakt va voqealar, mulkning sifati, narxi, aybdorning shaxsi, uning vakolati, niyati (masalan, aybdor shaxs oʻzini mansabdor shaxs yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi sifatida koʻrsatishi) taalluqli boʻlishi mumkin.

Firibgarlikda jabrlanuvchini yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan harakatlar jumlasiga, masalan, bitim yoki toʻlov predmetini soxtalashtirish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa oʻyinlarni oʻynash chogʻida aldov usullarini qoʻllash va hokazo kiradi.

Aldashni, firibgarlikning usuli sifatida quyidagi ikki turga ajratish mumkin:

- 1) faol aldash;
- 2) faol boʻlmagan aldash (passiv).

Faol aldash, yolgʻon boʻlgan maʼlumotlarni yetkazish vositasi yordamida mulkdorni chalgʻitishida tashkil topadi. Masalan: qalbaki hujjatlarni namoyish qilish yoki boshqa harakatlar bilan mulkdorning mulkini aybdor egaligiga oʻtkazishda jabrlanuvchida xato tasavvurga ega boʻlishi.

Faol boʻlmagan aldash (passiv), jabrlanuvchiga yuridik ahamiyatga ega faktik holatlar haqida aybdor xabar berishi shart boʻlgan, maʼlumotlarni gapirmaslik va bu kabi xabarlarini yetkazmasligida tashkil topadi [5]. Bu kabi holatlar natijasida aybdorga mulkni berayotgan shaxsda, mulkni berish uchun qonuniy asoslar borligiga chalgʻishi mumkin boʻlgan holatlarni tushunish kerak. Masalan: mulkdor hayotidan mahrum etishidan avval advokatga oʻziga tegishli boʻlgan mulklarni yaqin qarindoshlariga oʻtkazib berish toʻgʻrisidagi maʼlumotlarning uning yaqin qarindoshlariga aytmasdan oʻz foydasiga oʻtkazish bilan bogʻliq harakatlarni sodir etishi. Aldash jabrlanuvchida mulkni aybdor egaligiga oʻtkazishida, tashqi tomondan qonuniy asoslar mavjud boʻlgani holda kelishuvga olib kelishi mumkin. Masalan: aybdorlar ichki ishlar idoralari kiyimini kiyib qalbaki hujjatlarni namoyish qilgan holda jabrlanuvchining xonadonida tintuv oʻtkazadi va muayyan qimmatliklarga ega boʻlgan mulklarni olib, mulkni olib qoʻyish toʻgʻrisida bayonnoma tuzadi hamda voqea joyidan yashirinadi.

Oʻzganing mulkiga boʻlgan huquqni egallashga qaratilgan firibgarlik aybdorda oʻzganing mulkiga egalik qilish yoki tasarruf etish uchun yuridik jihatdan tasdiqlangan imkoniyat paydo boʻlgan paytdan (masalan, koʻchmas mulkka nisbatan mulk huquqi yoki qonunga muvofiq roʻyxatga olinishi shart boʻlgan boshqa mulkka nisbatan huquq roʻyxatga olingan paytdan; shartnoma tuzilgan vaqtdan; mulkka nisbatan shaxsning huquqi tan olingan sud qarori kuchga kirgan kundan; vakolatli



davlat organi aybdorda yoki boshqa shaxslarda mulkka nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish uchun asoslar mavjudligi to'g'risida qaror qabul qilgan kundan) tugallangan hisoblanadi.

Agar shaxs o'zganing mulkini yoki unga bo'lgan huquqni mazkur mulk yoki huquq unga berilishi sharti bilan bog'liq majburiyatlarni bajarmaslik niyatida olgan yoki egallagan bo'lsa, qilmish aybdorda o'zganing mulkini yoki unga bo'lgan huquqni qo'lga kiritishga nisbatan qasd faqat o'zganing mulki yoki unga bo'lgan huquq qo'lga kiritilgunga qadar paydo bo'lgan holdagina firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Q.Abdurasulova "jinoyat sodir etish vaqtida g'araz ham ta'magirlik niyati kabi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish asosida, moddiy foyda olish istagida yotadi. Ta'magirlik maqsadi firibgarlikning zaruriy belgisi hisoblanadi, [6] deb ta'kidlaydi.

M.X.Rustambaev firibgarlik sub'ektiv tomondan to'g'ri qasddan g'araz maqsadda sodir etiladi, g'araz maqsadning mavjudligi firibgarlikning zaruriy belgisi hisoblanadi, deb yozadi [7].

Aldov shaxs tomonidan o'zganing mulkini qo'lga kiritishni yengillatish maqsadida ishlatilgan bo'lib, mulkni olib qo'yish jarayonida mulk egasi yoki boshqa shaxs uning asl niyatini sezib qolgan, aybdor buni anglasada, biroq mulk egasining erkiga zid ravishda mulkni olishni yoki ushlab turishni davom ettirgan hollarda, qilmish talonchilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim (masalan, shaxs mobil telefonni uning egasidan vaqtincha foydalanish uchun so'rab olib, so'ngra talon-toroj qilingan telefon bilan yashiringan holda). Aybdor tomonidan talon-torojni yashirish maqsadida talon-toroj qilingan mulk o'rniga boshqa, qiymati kamroq mulk almashtirib qo'yilgan hollarda ham qilmish talon-toroj qilingan mulk qiymatidan kelib chiqqan holda kvalifikatsiya qilinadi. Bunda talon-toroj qilingan mulk o'rniga taqdim etilgan mulk qiymati aybdordan moddiy zararni undirish, shuningdek jazo turi va miqdorini belgilash chog'ida hisobga olinadi [8].

## **XULOSA**

Amaliyotda qalbaki hujjatdan foydalangan holda firibgarlik jinoyati sodir etilishi ko'p uchraydi. Bunda hujjat kim tomonidan tayyorlangan yoki soxtalashtirilganligidan kelib chiqib, jinoyatlar majmui tarzida Jinoyat kodeksining 168-moddasi va 228-moddasi tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Firibgarlikni iqtisodiyot sohasidagi qator jinoyatlardan, shu jumladan, o'zganing mulkini talon-toroj qilishning boshqa shakllaridan farqlash lozim. Firibgarlikning o'g'irlikdan (JK 169-m.) farqi shundaki, firibgarlikda aybdor mulkni o'zganing egaligidan olib qo'ymaydi, balki u tomonidan yanglishtirilgan jabrlanuvchining o'zi

mulkni yoki mulkka bo'lgan huquqni berishiga erishadi. Tovlamachilikdan (JK 165-m.) firibgarlik shu bilan farqlanadiki, tovlamachilikda jabrlanuvchining erki sindirilgan bo'ladi va u qo'rquv ta'siri ostida harakat qiladi, firibgarlikda esa aldov natijasida jabrlanuvchining erki yanglishadi. Firibgarlik jinoyatidan o'tkazish maqsadida qalbaki bank biletlari (banknotlar), metall tangalar, aksiz markalari, shuningdek qimmatli qog'ozlar yoki chet el valyutasi yoxud chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish (JK 176-m.) qasd yo'nalishi va soxtalashtirish xususiyati bilan farqlanadi. Bunda pul belgisi yoki chet el valyutasi pul aylanmasiga kiritish uchun soxtalashtiriladi.

### REFERENCES

1. Муаллифлар жамоаси. Жиноят ҳуқуқи(Махсус қисм) ИИВ Академияси. Т.:2016.
2. Таганцев Н.С. Уложение о наказаниях уголовных и исполнительных 1885 г. СПб, 1906. С.867.
3. Абдурасулова Қ.П. Фирибгарликнинг жиноят ҳуқуқий муаммолари. Юрид.фа.номзоди...дисс. –Тошкент: 1996. -14б.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Фирибгарликка оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 2009 йил 24 июль 8-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами (2006–2014 йиллар). – Т., 2014. – Б. 183.
5. Уголовное право. Особенная часть : учебник для вузов / под общ. ред. Л.М. Прокументова. – Томск : Издательский Дом Томского государственного университета, 2019. – 159 (844) с.
6. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 66 bet (529 bet).
7. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Жиноий ҳаракатлар оқибатида етказилган моддий зарарни қоплаш масаласига доир суд амалиёти тўғрисида»ги 1998 йил 11 сентябрь 21-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. Биринчи жилд. – Т., 2007. – Б. 172.

## **QUDRAT VA FAROVONLIK OMILI**

**Bekdavlat Aliyev**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Ijtimoiy-gumanitar kafedrası” professori, falsafa fanlari doktori

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada farovonlik xalqimizning azaliy maqsadi, mamlakat taraqqiyotining mezoni ekani o‘z ifodasini topgan. Aholi farovonligini oshirish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonlari sifatida yoritib berilgan. Aholi farovonligi va taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadi ekani haqida fikr yuritilgan.*

*Shu jumladan, aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun uning “turmush darajasi”, “xalq farovonligi” va boshqa shu kabi turli tushunchalar qo‘llanilgan. O‘zbekistonda aholini moddiy, ma‘naviy, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirilish darajasi institusional taqqoslangan, istiqbolli fikrlar, mulohazalar, hamda takliflar berilgan*

***Kalit so‘zlar:** farovonlik, kambag‘al, xalq, turmush tarzi, Xitoy metodi, aholi jon boshi, yalpi ichki mahsulot, ijtimoiy ehtiyoj, ilmiy-texnik taraqqiyot.*

## **ФАКТОР СИЛЫ И ПРОЦВЕТАНИЯ**

**Бекдавлат Алиев**

Ташкентский государственный экономический университет, профессор кафедры социально-гуманитарных наук, доктор философских наук

### **АННОТАЦИЯ**

*Для описания уровня благосостояния населения используются различные понятия, такие как «уровень жизни», «благосостояние народа» и другие. В Узбекистане термин «уровень жизни» более широко используется для описания уровня удовлетворения материальных, духовных и социальных потребностей населения.*

***Ключевые понятие:** благополучие, бедность, народ, образ жизни, китайский метод, на душу населения, валовой внутренний продукт, общественная потребность, научно-технический прогресс.*

## **THE FACTOR OF POWER AND PROSPERITY**

**Bekdavlat Aliev**

Tashkent State University of Economics, Professor of the Department of Social Sciences and Humanities, Doctor of Philosophy

### **ABSTRACT**

*The article expresses that prosperity is the eternal goal of our people, the criterion of the country's development. Improving the well-being of the population is highlighted as the most important criterion for assessing the effectiveness of public socio-economic policy. It is believed that raising the welfare and development of the population to a new level is the main goal of social development.*

*In particular, various terms were used to describe the level of well-being of the population, such as "living standards", "welfare of the people" and others. The level of satisfaction of material, spiritual and social needs of the population in Uzbekistan is institutionally compared, knows promising ideas, comments and suggestions.*

**Keywords:** prosperity, poverty, people, lifestyle, Chinese method, per capita, gross domestic product, social need, scientific and technological progress.

### **KIRISH**

O'zbek xalqi qadim-qadimdan yaxshi niyat, halol mehnat bilan farovon hayot kechirishga odatlangan. Hech qachon hayotdan nolimgan, chunki xalqimizni yer boqqan. Yer bilan tillasha olgan va qo'shimcha chorvachilik, parrandachilik, hunarmandchilik qilishi evaziga o'z mehnati bilan to'q, farovon yashab kelgan.

Lekin bugun zamon zayli bilan, ayniqsa, shahar tipidagi maskanlarda hayot tarzimiz bir qadar o'zgargan, bu hodisa bevosita integratsiya va global olam jarayonlari bilan ijobiy boqliq bo'lib, demografiya hisobiga yoshlarni doimiy ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish, intellektual salohiyatini oshirish, intensiv sharoitda xo'jalik yuritishni taqozo etmoqda.

Xo'sh moddiy farovonlik nima? Bunga qanday erishish mumkin?

Moddiy farovonlik – bu, jamiyat, ayrim kishilar va ijtimoiy guruhlarning moddiy ne'matlar bilan ta'minlanganligi, kishilar moddiy ehtiyojlarining kondirilish darajasi hisoblanadi.

Aholi farovonligi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Aholi farovonligini oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. "Aholi farovonligi" tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo'lgan keng qamrovli tushunchadir [1].

Aholi farovonligi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi.

Farovonlik darajasini ifodalash uchun "turmush darajasi", "halq farovonligi" va boshqa shu kabi turli xil tushunchalar qo'llaniladi. Aholi farovonligi yoki uning turmush darajasi aholi ehtiyojlariga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga, ilmiy-texnik taraqqiyotga, aholining ma'naviy ma'rifiy saviyasiga va boshqa shu kabi omillarga bog'liqdir.

Aholining farovonligi bir tomondan, muntazam o'zgarib turadigan turli ijtimoiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarining tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi. Biroq ish haqi miqdori ham, farovonlik darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi, milliy xususiyatlari siyosiy hokimiyatga bog'liq.

Xususan, G'arb mamlakatlari amaliyotida moddiy farovonlik aholi daromaddari darajasi bilan bog'lanib, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko'rsatkichi asosida izohlanadi. Moddiy farovonlikni xalqaro taqqoslashlar uchun ham YaIM ko'rsatkichi qabul qilingan. Jumladan, YaIM mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichi bo'lsa-da, moddiy farovonlikni, uning moddiy asosini aniq va to'la ifodalamaydi [2].

Har qanday jamiyatda kishilar moddiy farovonlikning moddiy asosi shu mamlakatning milliy moddiy boyligidir. Jamiyatning, kishilarning moddiy farovonlik ularga tegishli bo'lgan, ular ixtiyoridagi moddiy ne'matlar yig'indisiga hamda joriy moddiy ishlab chiqarish darajasiga, olinayotgan daromadlarga, iste'mol qilinayotgan moddiy ne'matlar miqdori va sifatiga bog'liq.

G'arb olimlari Torsteyn Bunde Veblen (1857 – 1929), Djon Rodjers Kommons (1862-1945), Uesli Kler Mitchell (1874-1948), Gobson Djon Atkinson (1858–1940), Uilyam Donald Gamilton (1936 –2000) lar ta'kidlashicha, har bir muayyan davrda butun jamiyat va uning barcha a'zolarining eng muhim moddiy ehtiyojlari, ya'ni hayotiy makonga va tabiiy resurslarga, ishlab chiqarish vositalariga, iste'molbop ne'matlarga bo'lgan moddiy ehtiyojlari shu jamiyatda mavjud bo'lgan jami moddiy-ashyoviy boyluk bilan qondiriladi. Kishilarning tabiiy va ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlar bilan umuman hamda aholi jon boshiga ta'minlanganligi, aholi moddiy farovonligining asosidir [3]. Shuning uchun hozirgi paytda dunyoda har bir mamlakat milliy boyligini, shu jumladan, milliy tabiiy va ishlab chiqarilgan boyligini hisoblashga alohida ahamiyat berilmoqda. Moddiy

ashyoviy boylik tarkibidagi tabiiy boylikning va ishlab chiqarilgan (jamg'arilgan) boylikning alohida-alohida hisobga olinishi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylab, undan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish, jamg'arilgan boylikning uzluksiz kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishi, ko'paytirilishi moddiy farovonlikni saqlash va oshirishning eng muhim shartidir.

Moddiy-ashyoviy boylikning hajmi va sifati, uning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda moddiy farovonlik ham, moddiy ishlab chiqarish samaradorligi ham, aholi daromadlari ham, iste'mol darajalari ham yuqoridir. Biroq, G'arb mamlakatlari statistikasi va iqtisodchilarining e'tirof etishlaricha, rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida boylik va daromadlarning aholi o'rtasida taqsimlanishi favqulodda yoki juda notekisdir. Kam rivojlangan va possotsialistik mamlakatlarning ko'pchiligida milliy moddy ashyoviy boylik aholi jon boshiga juda past darajada. Shuning uchun ham dunyoda 1,2 mlrd. dan ortiqroq kishi juda ham kambag'allikda, qashshokdikda yashamoqda [2].

Milliy boylikni saqlash va ko'paytirishda, shu yo'l bilan moddiy farovonlikni ta'minlashda, oshirishda davlat va uning milliy ijtimoiy-iqtisodiy siyosati muhim o'rin tutadi. Davlat buyurtmalari va investisiyalari ish joylarini ko'paytirishga, aholi daromadlarining o'sishiga ijobiy ta'sir etadi. Soliqlarning va davlat harajatlarining optimallashtirilishi esa soliq yukini kamaytiradi, kishilar ixtiyoridagi daromadlarni ko'paytiradi. Moddiy farovonlikga ijobiy ta'sir etadi. Shu bilan birga, moddiy farovonlik, iste'mol bo'yicha optimal normativ va normalari, aholini ijtimoiy himoyalash mexanizmi hamda dasturlarining takomillashtirilishi katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda barqaror o'sib borishi, byudjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorining muntazam qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchi-larining mehnatini rag'batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda halqimizning hayot sifati izchil yuksalib borishini ta'minladi.

Masalalan, Xitoyni olaylik. Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi birinchi yuz yillik maqsadni qanday qo'ydi?

Miqdoriy ko'rsatkichlar qanday?

Moddiy miqdoriy ko'rsatkich qanday baholandi?

Xitoy Fanlar akademiyasi xitoyshunoslik markazi direktori Xu Angang barcha jabhalarda, jumladan, to'rtta asosiy maqsad va ko'rsatkichlar – iqtisodiy rivojlanish,

innovasion rivojlanish, xalq farovonligi, tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha o'rtacha farovon jamiyat qurish maqsadlarini umumlashtiradi.

2000-yildan beri Xitoy bir milliarddan ortiq odamga foyda keltiradigan mo'tadil farovon jamiyatni har tomonlama qurish bosqichiga kirdi. Har tomonlama o'rtacha farovon jamiyat qurish maqsadi uchta asosiy elementni o'z ichiga oladi:

birinchidan, modernizatsiya elementlarini doimiy ravishda mustahkamlash;

ikkinchidan, boshqaruvning sotsialistik elementlarining doimiy tarqalishi;

uchinchidan, Xitoy madaniyati elementlarini hisobga olgan holda. Bu Xitoyning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan sotsialistik modernizatsiyaning birinchi yuz yillik uchta tarkibiy qismidir.

Xitoyning iqtisodiy qudrati sezilarli darajada oshdi. 2020 yilda YaIM 2000 yilga nisbatan 5,28 baravar ko'p bo'lib, "to'rt baravar" ko'rsatkichdan oshadi va uning CAGR 8,7 foizni tashkil etadi, bu AQSh (1,3 foiz), Yaponiya (0,6 foiz) va Yevropa Ittifoqi (0,9 foiz) dan tezroq. Xitoyning jahon iqtisodiy o'sishiga qo'shgan hissasi qariyb 30 foizga yetdi va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotga eng katta hissa qo'shuvchi davlatga aylandi. Xitoy, shuningdek, jahon miqyosidagi zamonaviy shaharlarning o'ta miqyosli klasterini qurdi va bu Xitoyning iqtisodiy rivojlanishining eng katta harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylandi [7].

Xitoyning ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati sezilarli darajada oshdi va 2020 yilga kelib 2,4 foizni tashkil etdi. Ammo mamlakat ilmiy-tadqiqot ishlari intensivligi bo'yicha 2,5 foizlik maqsadni bajara olmadi. Patent talabnomalari soni sezilarli darajada oshdi, Xitoy dunyoda birinchi o'ringa chiqdi. Xitoyda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning ulushi keskin o'sdi va innovasion rivojlanish samara berdi. Ruxsat etilgan keng polosali ulanish abonentlari soni rivojlangan mamlakatlarning o'rtacha darajasiga yaqin. Xitoy dunyodagi eng yirik axborot, tarmoq va raqamli jamiyatga aylandi. Umuman olganda, Xitoyning 2020 yilga mo'ljallangan fan va texnologiyani rivojlantirish bo'yicha umumiy maqsadi muvaffaqiyatli amalga oshirildi [4].

Xitoyning aholi jon boshiga daromadi sezilarli darajada yuqorilab va xususiy iste'molning xarid qobiliyati paritetidan kelib chiqqan holda, Xitoyning aholi jon boshiga kunlik daromadi 2,75 xalqaro dollardan 20,9 xalqaro dollargacha ko'tarildi. Bu dunyodagi eng past qashshoqlik darajasidan xalqaro o'rta darajagacha, daromad darajasi sanaladi. Mehnatga layoqatli aholining o'rtacha ta'lim muddati yuksaldi. Shaharlarda yangi ish o'rinlari soni ortib, to'rtta "besh yillik" rejada belgilangan ko'rsatkichlardan ancha oshib ketdi va Xitoyning butun dunyo bo'ylab yangi ish o'rinlarini yaratishga qo'shgan hissasi qariyb 30 foizga yetdi.

2020 yilga kelib qishloq joylarda qashshoqlik darajasi nolga tushiriladi. Demak, Xitoy ekologik qashshoqlik muammosini hal qildi, ming yillar davom etgan mutlaq qashshoqlikka chek qo'ydi va qashshoqlikni bartaraf etish tarixida mo'jiza yaratdi. Qarilikning asosiy sug'urtasida ishtirok etish darajasi sezilarli darajada oshdi va 1 mlrd. aholi o'rtacha umr ko'rish 2000 yildagi 71,4 yoshdan 2020 yilda 77,5 yoshga ko'tarildi. Xitoy asosiy sog'liqni saqlash va sog'liqni saqlash xizmatlaridan universal foydalanishga erishdi va shu bilan birga, butun aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish qamrovni egalladi.

### **TADQIQOT VA USULLAR**

Aholi farovonligi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Aholi farovonligini oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. "Aholi farovonligi" tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo'lgan keng qamrovli tushunchadir. Aholi farovonligi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi. Aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun "turmush darajasi", "halq farovonligi" va boshqa shu kabi turli xil tushunchalar qo'llaniladi. O'zbekistonda aholini moddiy, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Aholi farovonligi yoki uning turmush darajasi aholi ehtiyojlariga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga, ilmiy-texnik taraqqiyotga, aholining ma'naviy ma'rifiy saviyasiga va boshqa shu kabi omillarga bog'liqdir. Aholining farovonligi bir tomondan, aholining muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarining tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi. Biroq ish haqi miqdori ham, farovonlik darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot 7 darajasi, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi, milliy xususiyatlari va siyosiy hokimiyatga bog'liq. Sobiq ittifoq davrida "aholi farovonligi" tushunchasi keng qo'llanilgan va bunda hayot faoliyatining sifat ko'rsatkichlari "aholining turmush tarzi", miqdor ko'rsatkichlari esa "aholining turmush darajasi" bilan ifodalangan. Shuningdek, aholining farovonlik darajasini tavsiflovchi boshqa atamalar va tushunchalar mavjud. Aholi farovonligi darajasining eng mufassal talqini quyidagicha: aholi farovonligi – bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qoniqtirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi umumiy



ijtimoiy – iqtisodiy kategoriyadir. Bunday talqin aholi farovonligi darajasining sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini yanada to‘liqroq ifodalashga imkon yaratadi. Aholi farovonligi konsepsiyasi tamoyillar va ko‘rsatkichlar tizimiga asoslanuvchi, aholining farovonlik darajasini oshirishga qaratilgan g‘oyani ifodalaydi. Aholi farovonligi darajasining konsepsiyasi ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirish strategiyasi va yo‘nalishlari, bosqichlarini belgilab beradi. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida O‘zbekistonda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga javob beradigan aholi farovonligi darajasi konsepsiyasini yaratishga zarurat tug‘ildi. Mazkur konsepsiyani shakllantirishda so‘nggi yillarda jahon amaliyotida keng qo‘llanilayotgan “turmush sifati” konsepsiyasining ayrim qoidalaridan foydalanish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka yerishganidan keyingi mamlakatdagi barcha tabiiy ne‘matlar (yerlar, yer osti va yer usti boyliklari va boshqalar) umumilliy mulkka, boylikka aylandi, jamiyat a‘zolari yesa uning ham mulkchilari hisoblanadi. Shu bilan birga, ular xususiylashtirilgan mulkchilariga aylandilar; yerga va boshqa mulklarga ijara asosida egalik joriy etildi; urlar yakka, GRUH, shirkat, jamoa, korporativ xo‘jalik yuritish uchun, fermerlik va dehqon xo‘jaliklari tashkil etish uchun jismoniy va yuridik shaxslarga taqsimlab beriladi. Mamlakatning ishlab chiqarish va jamg‘arilgan moddiy boyliklari ko‘paydi va takomillashdi; aholining nominal va real daromadlari o‘sdi, kundalik iste‘molbop mollar va uzok, muddatga chiqarilgan mahsulotlar bilan ta‘minlanganligi oshdi. Shu bilan birga, aholining keskin va katta darajada tabaqalanishining olish hamda milliy moddiy boylik farovonlikni yuksaltirish bo‘yicha ijtimoiy ijtimoiy siyosat amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston olib boradigan tashqi siyosat, qo‘shni mamlakatlar bilan munosabatlar qariyb 70 millionlik aholisi bo‘lgan butun mintaqa taqdiriga daxldorligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida kichik biznes, ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doimiy ye‘tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida kichik biznes, ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doimiy e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu tarmoq yangi ish o‘rinlari yaratish, oilalarning barqaror daromad manbasini shakllantirish va farovonligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida” gi Qonuni bu borada muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlik qilish istagi bo‘lgan shaxs ishni avvalo nimalardan boshlash kerakligini bilishi, sohadagi maxsus bilimlar, tadbirkorlik ko‘nikmalaridan tashqari

bank sohasidagi moliyaviy bilimlarning yetarliligiga e'tibor qaratishi muhim. Zero, tijorat banklari hisobidan ajratilgan kreditning to'g'ri ishlatilishi tadbirkorga daromad olib kelishdan tashqari biznesini kengaytirishga yo'l ochadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabr kuni "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Unda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratish mexanizmini soddalashtirish, aholining bandligini oshirish, daromad manbaini kengaytirish va mehnat faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadi etib belgilangan.

Xususan, unda 2022 yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining resurslari banklarga yillik 10 foizda joylashtiriladi. Bu haqda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid Prezident qarorida keltirilgan.

Qarorga muvofiq, 2022 yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida:

a) maqsadli jamg'armalar hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining resurslari banklarga yillik 10 foizda joylashtiriladi;

b) imtiyozli kreditlar yillik 14 foiz stavkada:

- oilaviy tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlariga – 3 oydan 6 oygacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga;

- chorvachilik (qoramol, qo'y, echki), baliqchilik va parrandachilik (tuxum yo'nalishi) uchun – 1 yilgacha imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga;

- bog'dorchilik, uzumchilik va limonchilikni tashkil etish, issiqxona, qishloq xo'jaligi texnikasi va asbob-uskunalarini xarid qilish uchun – 3 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga;

- "Hunarmand" uyushmasi a'zolariga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asbob-uskuna, ehtiyot qismlar va xomashyo materiallarini xarid qilish, hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari, "usta-shogird" maktablarini tashkil etish, uy-muzeylar va ustaxonalar qurish yoki shu maqsadlarda bino va inshootlar sotib olish uchun – 3 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 18 oygacha muddatga ajratiladi;

v) kreditlar mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchisining (keyingi o'rinlarda – hokim yordamchisi) o'ziga birlashtirilgan

mahallada istiqomat qilayotgan (joylashgan) qarz oluvchiga beradigan tavsiyasi asosida ajratiladi;

g) chorvachilikni rivojlantirish yoʻnalishida kreditlar ustuvor ravishda kamida 10 dan 50 boshgacha chetdan keltirilgan naslli chorva mollarini (qoramol, qoʻy, echki) boqish uchun kichik fermalarni tashkil etishga beriladi;

d) “etakchi” tadbirkorlik sub’ektlariga dehqon xoʻjaliklari yer maydonlari va aholi tomorqalarida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini kooperatsiya asosida yetishtirish va yetishtirilgan mahsulotlarni xarid qilish uchun aylanma mablagʻlarni toʻldirishga kreditlar ajratiladi.

Tiklanish va taraqqiyot jangʻarmasi dasturlar doirasida “Agrobank” ATBga ajratilgan 2,9 trillion soʻm va “Mikrokreditbank” ATBga ajratilgan 1,3 trillion soʻm miqdoridagi resurslarni mazkur banklarning ustav kapitalini oshirishga yoʻnaltiradi hamda vakolatli banklarga dastur koordinatorlarining taqsimotiga muvofiq 3,65 trillion soʻm miqdordagi kredit resurslarini 3 yillik imtiyozli davr bilan 7 yil muddatga ajratadi.

## **TAHLILLAR**

Sobiq ittifoq davrida “aholi farovonligi” tushunchasi keng qoʻllanilgan va bunda hayot faoliyatining sifat koʻrsatkichlari “aholining turmush tarzi”, miqdor koʻrsatkichlari esa “aholining turmush darajasi” bilan ifodalangan.

Shuningdek, aholining farovonlik darajasini tavsiflovchi boshqa atamalar va tushunchalar mavjud. Aholi farovonligi darajasining eng mufassal talqini quyidagicha: aholi farovonligi – bu jismoniy, maʼnaviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qoniqtirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi umumiy ijtimoiy – iqtisodiy kategoriyadir.

Bunday talqin aholi farovonligi darajasining sifat va miqdor koʻrsatkichlarini yanada toʻliqroq ifodalashga imkon yaratadi. Aholi farovonligi konsepsiyasi tamoyillar va koʻrsatkichlar tizimiga asoslanuvchi, aholining farovonlik darajasini oshirishga qaratilgan gʻoyani ifodalaydi. Aholi farovonligi darajasining konsepsiyasi koʻzda tutilgan maqsadlarni amalga oshirish strategiyasi va yoʻnalishlari, bosqichlarini belgilab beradi. Bozor munosabatlariga oʻtish davrida Oʻzbekistonda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga javob beradigan aholi farovonligi darajasi konsepsiyasini yaratishga zarurat tugʻildi.

Mazkur konsepsiyani shakllantirishda soʻnggi yillarda jahon amaliyotida keng qoʻllanilayotgan “turmush sifati” konsepsiyasining ayrim qoidalaridan foydalanish mumkin. Tarixan ushbu konsepsiya aholi hayot faoliyatining iqtisodiy parametrlarini

aks ettiruvchi “global ish bilan bandlik”, “turmush darajasi” kabi konsesiyalarning rivojlanishi asosida yuzaga kelgan. Bu konsepsiya inson jamoalarining jismoniy, aqliy va ijtimoiy barkamolligini belgilovchi shartlarni shakllantiradi. Bu yerda gap faqat 8 turmush sifatini baholovchi ob’ektiv omillar, ya’ni ovqatlanish, uy-joy, ish bilan bandlik, ta’lim darajasi haqida emas, balki aholi tomonidan o’zining farovonligi, baxt, qoniqish, rohat kabi tushunchalarni sub’ektiv his etish to’g’risida ham boradi. Masalan, salomatligi va sog’lig’i darajasi, oilaviy munosabatlari, ishi, moddiy ahvoli, yaratuvchanlik qobiliyati va boshqa shu kabilardan qoniqish hosil qilishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shunday qilib, turmush sifati konsepsiyasi insonning atrof-muhit bilan o’zaro munosabatlarini ham o’z ichiga oladi. Bu munosabatlar ehtiyojlarning qondirilganligi va mavjud imkoniyatlarni kutilgan imkoniyatlarga mosligi darajasini xarakterlaydi. Farovonlik darajasi aholi hayot faoliyatining ma’lum bir qirrasini to’g’risida tasavvur beradigan ko’rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Aholining farovonlik darajasi to’g’risida batafsil ma’lumotga ega bo’lish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste’mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta’minlanganlik darajasini chuqur o’rganish lozim.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2020 yil 27 fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag’allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo’yicha videoselektor yig’ilishida kambag’allik darajasi chuqurlashib ketganligini aytib, “...biz shu paytgacha aksariyat fuqarolarimiz haqiqatan ham kambag’al ekanini ko’rib-ko’rmaslikka, eshitib-eshitmaganlikka oldik. Bu noto’g’ri. Afsuski, dastlabki hisob-kitoblarga ko’ra, xalqimizning 4-5 foizi kambag’al ekani aniqlandi. Endi yashirish kerak emas, og’ir sharoitlarda yashayotgan odamlarimizning asl muammosi, vaziyatini tushunishimiz, barcha toifadagi rahbarlar dunyoqarashimizni o’zgartirishimiz lozim bo’ladi. Bizdagi ma’lumotlarga ko’ra, Qashqadaryo viloyati kambag’allik muammosi bo’yicha eng og’ir hudud hisoblanadi. 700 ming aholi kambag’al. Bu jami aholining qariyb 21 foizini tashkil etmoqda. Bu vaziyatda Qashqadaryoda rahbarlar bir joyda o’tirishi mumkin emas. Odamlarimizni bunday og’ir sharoitdan qanday chiqarib olamiz, degan savolni o’ziga berishi lozim. Shuningdek, Qoraqalpog’iston Respublikasida 500 ming, Surxondaryo viloyatida 500 ming, Namangan viloyatida 400 ming, Jizzax viloyatida 210 ming va Sirdaryo viloyatida 130 ming aholi kambag’al. Bu raqamlarni mahallalar kesimida olsak, yanada og’ir raqamlarga guvoh bo’lamiz. Masalan, Parkent tumanining «Yangiobod» mahallasida 1039 nafar kam ta’minlangan va kambag’allar bor. Oltinsoy tumani «Mirshodi» mahallasida 906 nafar, Boysun tumani «To’da» mahallasida 504

nafar fuqarolarimiz og‘ir ahvolda” yashayotganini ochiq oydin ta’kidladi. Bu ko‘rsatmalar farovonlikni oshirishda muhim statistik real ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

## **XULOSA**

Albatta, farovonlikni oshirishda davlatimiz tomonidjan qishloq xo‘jaligida olib boriladigan o‘zgarishlarning barchasi fermer xo‘jaliklari faoliyati bilan bog‘liqdir. Shu jihatdan, fermer xo‘jaliklarini qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish sohasining yetakchi bo‘g‘iniga aylantirib borish maqsad qilingan va buning uchun sohada olib boriladigan ishlar strategiyada aniq belgilab berilgan:

aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash;

qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;

soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investisiyaviy jozibadorlikni oshirish;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash; davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;

tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish;

qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta‘lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;

qishloq hududlarini rivojlantirish;

tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish.

Chunonchi, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali:

– o‘rta mulkdorlar sinfi shakllanadi; – makroiqtisodiy beqarorlik, ishsizlik va taqchilik kabi iqtisodiy muammolar barham topadi; – sog‘loq raqobatchilik muhitining yaratilishi orqali YaIMning miqdor va sifat jihatidan o‘sishi kuzatiladi;

– ichki bozor zarur tovar (xizmat)lar bilan to‘yinadi va ularning sifati oshadi;

– va pirovardida aholi turmush darajasining o‘shiga erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrda PQ-31-sonli “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qarorga binoan respublikadan hududlarga biriktirilgan vakillar eng avvalo hokimning birinchi o‘ribosari va hokim yordamchilariga ko‘maklashish bilan birga, har kuni bitta mahallaga chiqqan holda kamida o‘nta xonadonga shaxsan

tashrif buyurib, mavjud holatni hokim yordamchilari bilan birga o'rganadi. Aholining quyu tizimlariga tushib, joylarda amalga oshirilayotgan davlat siyosati va islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntiradi, aniqlangan muammolarni joyida hal qilish choralari ko'radi.

Hokim yordamchilari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo'yicha sektor rahbarlari bilan birgalikda har bir mahallani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlarini belgilaydi, xonadonbay ro'yxat asosida har bir mahalla kesimida haqiqiy ijtimoiy vaziyatni aniqlaydi hamda oyma-oy amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.

Natijada har bir mahallaning «o'sish nuqtasi» dan kelib chiqib, yetakchi tadbirkorlar va hokim yordamchilari taklif etayotgan yangi loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashadi, mahallalarda aholining kundalik ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan xizmatlar turlarini rivojlantiradi.

Aholini, birinchi navbatda ishsiz yoshlar va ayollarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda ularning bandligini ta'minlash ishlarini tashkil qiladi.

Tuman (shahar) hokimlari hamda tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bilan hamkorlikda aholi tomorqalaridan samarali foydalanib, uy sharoitida dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyunchilik, asalarichilik, urug'chilik, ko'chatchilik, gulchilik kabi faoliyat turlarini yo'lga qo'yishga ko'maklashadi.

Bir so'z bilan aytganda olib borilayotgan samrali ishchan islohotlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat davlat va jamoat taraqqiyotida, balki xar bir insonning yuksalib borayotgan xayotiy ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega, ya'ni xizmat ko'rsatish, chakana savdo, oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish kabi soxalarda ushbu faoliyat yaqqol namoyon bo'ladi.

Ayni paytda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal o'sishini ta'minlash, xususiy mulkni ximoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ba'zi ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, respublikamizda investisiya va ishbilarmonlik muhitini sifat jixatidan yangi bosqichga ko'tarish orqali xalqaro me'yorlarga to'liq javob berishini ta'minlashda o'z aksini topadi.

2021 yil yakuniga iqtisodiy faollikning bosqichma-bosqich tiklanishi sharoitida, YaIM o'sishi 7 foiz (2020 yilda 1,7%) miqdorida prognoz qilinmoqda. 2022 yilda iqtisodiy o'sish prognozi 6,0 foizni tashkil etadi va iqtisodiyotning o'sish sur'atlari 2024 yilga kelib, 6,6%gacha o'sishi kutilmoqda.

2022 yilda YaIM o'sishining asosiy omillari bo'lib, iqtisodiyot tarmoqlari o'sish sur'atlarining inqirozgacha bo'lgan davr qiymatlariga qadar bosqichma-bosqich

tiklanishi, uy xo'jaliklari yakuniy iste'molining o'sishi, asosiy kapitalga investisiyalar, shuningdek, tashqi savdo faoliyatini tiklanishi asnosida eksport-import operatsiyalari hajmining o'sishi hisoblanadi.

## REFERENCES

1. Economic Impact [Электронный ресурс] / World Travel and Tourism Council. –Режим доступа: <https://www.wttc.org/economic-impact/>. – Дата доступа: 02.09.2019.
2. Country Data [Электронный ресурс] / World Travel and Tourism Council. –
3. Режим доступа: <https://www.wttc.org/economic-impact/country-analysis/country-data/>. –Дата доступа: 02.09.2019.
4. Малое предпринимательство: организация, экономика, управление: Учебное пособие. / Под ред. А. Д. Шереметова. - М.: ИНФРА-М, 2009. - 480 с.
5. Рақамли иқтисодиёт: Ўзбекистонда ривожлантириш истиқболлари ва жаҳон амалиёти. Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари – Тошкент: Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби 2020. – 979 б.
6. Ходжаев Р., А.Эгамбердиев, Ф.Қ. Шоюсупова. Кичик бизнесни бошқариш. ТМИ Ўқув кўланма. Т.: “IQTISOD - MOLIYA”, 2008
7. Umarjonov, S.S. (2021). Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o'qitishda Fahriddin Roziyning ontologik qarashlarining o'rni va ahamiyat. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 1029-1038.
8. [el.tfi.uz/images/2019\\_Инновацион\\_иқтисодиёт...](#)
9. Umarjonov, S. (2021) Ijtimoiy fanlarni o'qitishda Fahriddin Roziy asarlarining o'rni va ahamiyati. Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy-innovatsion yo'nalishlari Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 116-123.
10. Umarjonov, S.S., Safarov, M.K. (2021). Fahriddin Roziyning “Latoif ul-g'iyosiyot” qo'lyozma asarida aql va e'tiqod masalasining qo'yilishi va uning diniy-falsafiy germeneytik tahlili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 1058-1068.

## **OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALAR INNOVATSION SALOHIYATINI BOSHQARISH**

**Xamrokulov Ulug‘bek Abudraxmatovich**  
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

### **ANNOTATSIYA**

*Oziq-ovqat sanoati har doim ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan. Oziq-ovqat sanoati korxonalari samaradorligini oshirishda korxonalar innovatsion salohiyatini boshqarishni yaxshilash bugungi kunda korxonalar boshqaruvchilari oldida turgan asosiy maqsadlardan xisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:** oziq-ovqat sanoati, kuchli raqobat, samaradorlik, boshqaruv, innovatsion salohiyat, innovatsion salohiyatni boshqarish.*

## **УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ МОЩНОСТЬЮ ПРЕДПРИЯТИЙ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**Хамрокулов Улугбек Абдурахматович**  
Докторант Андижанского государственного университета

### **АННОТАЦИЯ**

*Пищевая промышленность не всегда теряет свою актуальность. Совершенствование управления инновационным потенциалом предприятий при повышении эффективности предприятий пищевой промышленности является одной из основных задач, стоящих сегодня перед руководителями.*

*Ключевые слова: пищевая промышленность, сильная конкуренция, эффективность, управление, инновационный потенциал, управление инновационным потенциалом.*

## **MANAGEMENT OF INNOVATIVE POWER OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES**

**Hamrokulov Ulugbek Abdurahmatovich**  
Phd Researcher of Andijan State University

### **ABSTRACT**

*The food industry has not always lost its relevance. Improving the management of innovative capacity of enterprises in improving the efficiency of enterprises in the food industry is one of the main goals facing managers today.*



*Key words: food industry, strong competition, efficiency, management, innovative potential, innovative capacity management.*

## **KIRISH**

Globalashuv jarayonlari kuchaygan davrda turli hudud va mintaqalar o'rtasida barcha sohalar kabi ijtimoiy-iqtisodiy va savdo yo'nalishlarida xam hamkorlik aloqalarining rivojlanishi kuzatilmoqda. Buning natijasida mintaqalarda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar o'zlarining haridorlari auditoriyasini kengaytirish maqsadida boshqa mintaqalarda xam o'z faoliyatlarini olib borish xoxish va rejalari paydo bo'ladi. Bunda birinchidan, ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar soni ko'paysa, ikkinchidan ularning xaridorlari auditoriyasi kengayib, mijozlarning boshqa mintaqalardan farq qiladigan mahsulot va hizmat qo'rsatilishiga talab paydo bo'ladi. Yuqorida keltirilgan masalalarni yechilishida korxonalar innovatsion salohiyatini boshqarishning samarali tashkil qilinishi zamon talabiga aylanib qoldi.

Xozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 9 sentyabrdagi "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4281-son Qarori yuqorida keltirilgan fikrimizni tasdiqlaydi [1].

Erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan sharoitda korxonalar raqobatbardoshlilik darajasini ta'minlashda korxonalar boshqaruvini zamon talablari asosida tashkil qilish, xususan korxonaning innovatsion faoliyatini boshqarish masalasiga a'loxida e'tibor qaratish kerak.

## **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Innovatsion menejment bugungi kunda kompaniyalarni zamon talablari darajasida boshqarishning nazariy asosi hisoblanadi. Innovatsion menejment, innovatsion salohiyat, innovatsion salohiyatni boshqarish va unga ta'sir qiluvchi omillar yuzasidan jaxonda ko'plab tadqiqotchi va olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan korxonaning innovatsion salohiyati yuzasidan B.Lavson, D.Samson [2], F.Damanpour [3], D.Tviis, G.Pisano va A.Shuen [4], M.Terziovski [5], P.Sakari [6], R.Fatxutdinov [7], P.Zavlin [8], A.Nikolaev [9], Chjan Sya [10] ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan. Mahalliy tadqiqotchi olimlardan sanoat korxonalarida innovatsion salohiyat va uni boshqarish yuzasidan N.Yo'ldoshev, Sh.Mirsaidova. Y.Goldman [11], Sh.Zaynutdinov [12], G.Shanazarova [13], D.Mamadjanov [14], N.Xidirovlarning [15,16] ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan. Lekin shuni alohida ta'kidlash zarurki, yuqorida nomlari zikr etilgan olimlar

tomonidan aynan oziq-ovqat sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarish yuzasidan yetarlicha izlanishlar olib borilmagan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot jarayonida tadqiqotchi va olimlarning mavzuga oid nazariy qarashlarini o'rganish davomida mantiqiy fikralsh, tizimli yondashuv, qiyosiy taxlil usullaridan foydalanilgan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Innovatsion menejment boshqaruvda yangi yo'nalish xisoblanganligi sababli unda qo'llaniladigan tushunchalar xam zamonaviy va keng qamrovli. Innovatsion salohiyat xam shunday iqtisodiy atamalardan biridir.

B.Lavson xamda D.Samsonlarning qarashlarig ko'ra innovatsion salohiyat bilim va g'oyalarni doimiy ravishda korxonada va uning manfaatdor tomonlarining manfaati uchun ishlab chiqarish jarayonlariga, yangi maxsulotlar ishlab chiqarilishiga xamda tizimlarga transformatsiya bo'lish jarayonlarida shakllanadi [2]. F.Damanpourning fikriga ko'ra korxonaning innovatsion salohiyati korxonaning ichki va tashqi muxit omillari asosida shakllanib, uning umumiy kompleks innovatsion xolatini ko'rsatadi [3].


Korxonaning innovatsion salohiyati korxonaning barcha jixatlari, yangilikni yaratish va undan amaliyotda foydalanish qobiliyatini ifodalab quyidagi: moddiy-texnik resurslari, moddiy va nomoddiy aktivlari, moliyaviy resurslari, tashkiliy resurlar, kadr resurslari, ijtimoiy-ruxiy omil resurslaridan tashkil topadi [12]. Korxonaning innovatsion salohiyati korxonada innovatsiyalarni realizatsiya qilish imkoniyati bo'lib, elektron savdo, barqaror rivojlanish va yangilangan maxsulotlar ishlab chiqarilishida namoyon bo'ladi [5].


Canoat korxonalarining innovatsion salohiyatini shakllanishi ko'p jixatdan korxonaning moliyaviy xamda inson kapitali elementlarining imkoniyatlari asosida rivojlanadi [17]. Tadqiqotchilarning diqqat markazida korxonaning innovatsion salohiyati birinchi navbatda korxonaning moliyaviy xolati xamda korxonaning inson kapitali xolatiga bog'liqligi turadi. Shu sababdan korxonalarining innovatsion salohiyatiga eng katta ta'sir kiluvchi yagona almashtirib bo'lmaydigan omil bu inson omilidir. Xar qanday yangilik (innovatsiya) qilish va uni faoliyatga realizatsiya qilish uchun albatta moliyaviy resurslar talab etiladi xamda uni realizatsiya qilish jarayonini samarali bo'lishi qo'p jixatdan korxonaning raxbar xamda ishchi xodimlarining salohiyatiga bevosita bog'liq.

Korxonaning innovatsion salohiyati - korxonaning innovatsion salohiyatni shakllantirish, amaliyotga realizatsiya qilish xamda rivojlantirish jarayonlarini o'z ichiga oluvchi munosabatlar majmuasi bo'lib, korxonaning innovatsion faoliyatni olib borishga imkoniyat, qobiliyat xamda tayyorgarlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich xisoblanadi.

Innovatsion salohiyat boshqarish korxonaning umumiy boshqaruvining ajralmas va doimiy tarkibiy qismi xisoblanadi. Menejmentning zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llab, korxonani resurslar bilan ta'minlash, uni rejalashtirish, shakllantirish, amalga oshirish xamda nazorat qilish jarayonlari innovatsion salohiyatni boshqarishning samaradorligini ta'minlaydi.

Oziq-ovqat sanoati korxonlarida innovatsion salohiyatni boshqarishda korxonaning inson resurslari to'g'ri boshqarilishi eng muxim masalalardan biri hisoblanadi. Buning sababi korxonalarda innovatsion yangiliklarni realizatsiya qiluvchi aksariyat xollarda ularni amalga oshiruvchi shaxslar aynan korxonaning salohiyatli xodimlari xisoblanadi. Shu sababdan inson omili innovatsion salohiyat darajasini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, ularning bilim va malakalarini oshirishga yo'naltirilayotgan xarajatlar uzoq muddatli investitsiyalar sifatida qaraladi. Xodimlar orasida korporativ xamda innovatsion muhitni shakllantirish ularning innovatorlik darajasini oshiradi. Oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish va maxsulotlarni saqlab savdo rastalariga yetkazib berish ma'lum bir majburiy shartlariga ega. Shu jihatidan oziq-ovqat sanoati korxonalari boshqa sanoat korxonalari boshqaruvida farq qiladi. Oziq-ovqat sanoati korxonlari innovatsion salohiyatni boshqarish jarayonida ishlab chiqariladigan oziq-ovqat maxsulotlari ularni qadoqlash, omborlarda saqlash, bozor rastalariga yetkazib berishda maxsulotning yaroqsiz bo'lib qolishini oldini olishda inson omili boshqaruvning eng muhim ob'ekti hisoblanadi (1-rasm).





1-rasm. Korxonalarning innovatsion salohiyatini boshqarish mehanizmi<sup>333</sup>

Innovatsion salohiyatni boshqarish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida yuqoridagi chizma shakllantirildi.

Korxonaning innovatsion salohiyati xodimlar salohiyati, moliyaviy-iqtisodiy resurslar salohiyati, ilmiy va texnik salohiyat, ishlab chiqarish texnologiyasi slohiyati, boshqaruv-tashkiliy salohiyati, marekting xizmati va axborot bilan ta'minlanganlik salohiyatlari jamlanmasidan tashkil topadi [18].

Sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarishning birinchi bosqichida innovatsion salohiyatni shakllantirish maqsadi belgilanadi. Bunda korxonaning strategik rejalariga mos innovatsion maqsad va vazifalar tuziladi. Keyingi bosqichda innovatsion salohiyatning tarkibiy qismlari shakllantiriladi xamda innovatsion faoliyatni yurtishida o'z vazifalarini bajarishga kirishiladi. Bu bosqichda korxonaning innovatsion salohiyatining tarkibiy qismlari to'liq shakllanganligi innovatsion salohiyatning samarali natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Uchinchi bosqichda korxonaning innovatsion faoliyati amalga oshiriladi. Innovatsion faoliyat natijasida innovatsion maxsulot yoki hizmat, boshqaruv usuli, ishlab chiqarish jarayonlari yoki ishlab chiqarish bosqilaridagi yangilik, o'zgarishlar yakuniy natija sifatida namoyon bo'ladi.

## XULOSA

Tadqiqotchi va olimlarning korxonalar innovatsion salohiyati va uni boshqarish bo'yicha ilmiy ishlarini o'rganish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

<sup>333</sup> Ilmiy tadqiqotlar tomonidan shakllantirilgan

korxonalarining innovatsion salohiyati – korxonada innovatsion faoliyatni tashkil etuvchi mexnat resurslari, moddiy-texnik resurslar, moliyaviy resurslar, marketing va axborot resurslari xamda tashkiliy-boshqaruv mexanizmlar yig‘indisi hisoblanadi;

innovatsion salohiyat – korxonada innovatsion faoliyatni olib borish va uning natijalarini tahlil qilinishida korxonada innovatsion faoliyati holati darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkich sifatida ko‘rish mumkin.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarishda maqsad qo‘yish, uni shakllantirish xamda amalga oshirish bosqichlarida oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarishning vaqt omilini, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlashga alohiyada ahamiyat berish korxonaning strategik va innovatsion maqsadlarni samarali bajarilishiga olib keladi.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 9 sentyabrdagi “Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta‘minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4281 son Qarori. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021 y., 06/21/6218/0398-son.
2. Lawson, B. and Samson, D. (2001). Developing innovation capability in organizations: A dynamic capabilities approach. *International Journal of Innovation Management*, 5 (3), 377–400.
3. Damanpour, F. (1991). Organizational innovation: A meta-analysis of effects of determinants and moderators. *Academy of Management Journal*, 34, 555–590.
4. Teece, D.J., Pisano, G. and Shuen, A. (1997). Dynamic capabilities and strategic management. *Strategic Management Journal*, 18, 509–533.
5. Terziovski, M. Building Innovation Capability in Organizations An International Cross-Case Perspective. University of Melbourne, Australia P.Imperial College Press 2007. 19 p.
6. Sakari, P. Enhancing Innovation Capability and Business Opportunities: Cases of SME-Oriented Applied Research. *JYVÄSKYLÄ* 2012. 32 p.
7. Фатхутдинов, Р.А. Инновационный менеджмент. СПб.: Питер, 2008. 448 с.
8. Завлина, П.Н., Казанцева, А.К., Миндели, Л.Э.. Основы инновационного менеджмента: Теория и практика / Под ред. М.: Экономика, 2000. 475 с.
9. Николаев, А. Инновационное развитие и инновационная культура // Проблемы теории и практики управления. 2001. № 5. 75–79 с..
10. Чжан, С. Оценка и управление инновационным потенциалом предприятия угольной промышленности. Диссертация. Санкт-Петербург – 2017. 35 с.

11. Yo‘ldoshev, N.Q., Mirsaidova, Sh.A., Goldman, Y.D. Innovatsion menejment – T.: TDIU. Darslik 2011. 286 b.
12. Zaynutdinov, Sh.N. Innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, sentyabr 2011.
13. Shanazarova, G. Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. Dissertatsiya, Toshkent-2018.
14. Mamadjanov, D.. Avtomobil sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini oshirish va uni boshqarish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2018 yil. 3-5 b.
15. Khidirov, N. (2020). “Specific features of financing investment activity of industrial enterprises”. *International Finance and Accounting*: Vol. 2020: Iss. 1, Article 31. <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss1/31>
16. Khidirov, N.G. Methods and mechanisms of financing investment activities in industrial enterprises // *International Journal of Economics, Commerce and Management*. – United Kingdom, 2020. Volume 8, Issue 7, 310-325 p.
17. Danilina, H., Mingaleva, Z. Improving of Innovation Potential Efficiency of Industrial Enterprises. Article in *Middle East Journal of Scientific Research*. January 2013. 191-193 p.
18. Hamrokulov, U.A. Innovation Capability is the Source of Developing of Enterprise. *Journal of Marketing and Emerging Economics*. Volume: 2 Issue: 3 in March 2022. 31 p.

## **MAMLAKATIMIZDA AGRAR SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI**

**J.Z.Farmanov**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti  
“Moliya” kafedrasida katta o'qituvchisi

**N.Rimboyeva**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi

**F.Qaxramonov**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada mamlakatimiz agrar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida davlatimizning olib borayotgan agrar siyosati va uning asosiy yo'nalishlariga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** agrar siyosat, agrar bozor, investitsiya, kredit, moliya, ilmiy texnikaviy va texnologik faoliyat, soliqlar va soliqqa tortish, ijtimoiy muhit, agrar tarkib, agrar iqtisodiyot, oziq – ovqat xavfsizligi, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash.*

### **ABSTRACT**

*This article develops proposals for ongoing reforms in the country's agrarian sector, as well as the agrarian policy of the state and its main directions in the development of agriculture.*

***Keywords:** agricultural policy, agricultural market, investment, credit, finance, scientific, technical and technological activities, taxes and taxation, social environment, agricultural structure, agricultural economy, food security, modernization and diversification.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье развиваются предложения по проводимым реформам в аграрной сфере страны, а также аграрной политике государства и ее основным направлениям в развитии сельского хозяйства.*

***Ключевые слова:** аграрная политика, аграрный рынок, инвестиции, кредит, финансы, научно-техническая и технологическая деятельность, налоги и налогообложение, социальная среда, аграрная структура, аграрная экономика, продовольственная безопасность, модернизация и диверсификация.*

## **KIRISH**

Jahon yer fondi bugungi kunda 13,4 mlrd.gektarni tashkil qiladi, uning atigi 1,5 mlrd.gektari, ya'ni 11 % qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi<sup>334</sup>. Lekin shunga qaramay, ushbu yerlar meliorativ holatining buzilishi, eroziya, qurg'oqchilik, sho'rlanishning kuchayishi va yer osti suvlarining ta'siri, sanoat va transport qurilishlari, foydali qazilmalarning ochiq tarzda o'zlashtirilishi natijasida sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining kamayishi keskinlashib bormoqda. Shuning uchun dunyo yer fondining asosiy muammosi – sug'oriladigan yerlarni saqlab qolish va ularning unumdorligini oshirib borish bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan jahonda sug'oriladigan yerlar unumdorligini oshirish va undan foydalanish samaradorligini oshirishning amaliy natijalariga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda,

Ma'lumki, O'zbekiston respublikasi aholisi soni yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi, qishloq xo'jaligi yerlarining boshqa toifaga o'tkazilishi va global iqlim o'zgarishi ta'sirining keskinlashuvi oqibatida "oxirgi 15 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydonlari o'lchami 24 %ga (0,23 gektardan 0,16 gektargacha), qisqardi"<sup>335</sup>, bonitet bali 60 dan yuqori yerlarning maydoni 10,4 %ga qisqarib ketgan bo'lsa, yer sifati bo'yicha o'rtacha va o'rtachadan past maydonlar 14,0 %ga ko'paydi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi PF-3226-sonli va 2007 yil 29 oktyabrdagi "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari va "2013-2017 yillar davomida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va 2019 yil 17 iyun PF-5742-son "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 23 oktyabr PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari va 2020 yil 1-maydagi PQ-4700-son "Koronavirus pandemiyasi davrida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari aynan agrar sohani, xususan, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda muhim hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy asoslari yaratildi.

<sup>334</sup>Центр экономических исследований Узбекистана. [www.cer.uz](http://www.cer.uz)

<sup>335</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-sonli farmoniga ilova. "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish kontseptsiyasi".



## **METODLAR**

Tadqiqot jarayonida qiyosiy mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan foydalanildi.

## **NATIJALAR**

Agrar siyosat- umumiy iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lib, qishloq xo'jaligi tarmog'i oldiga qo'yilgan vazifalarga erishishni ta'minlashga qaratilgan yer bilan bog'liq munosabatlarni isloh qilish asosida agrar munosabatlarni shakllantirish hamda shu munosabatlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan agrotexnologik, tashkiliy va iqtisodiy tamoyil hamda vositalar majmui hisoblanadi.

Agrar siyosat - iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u qishloq xo'jaligi va unga bog'liq xo'jalik sohalarini qamraboladi. Agrar siyosatni davlatning agrar iqtisodiyot doirasida harakatga keltiriladigan jarayonlar shakli va metodlari ko'rinishidagi faoliyati deb ham tushunish mumkin. Agrar siyosat o'zida qishloq aholisini moddiy, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini shakllantiradigan davlat faoliyatini qamrab oladi. Agrar siyosatning asosiy sohalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: agrar bozor; investitsiya; kredit; moliya; ilmiy texnikaviy va texnologik faoliyat; soliqlar va soliqqa tortish; ijtimoiy muhit; maqsadli va tarkibiy qayta shakllanish.

Agrar siyosatning asosiy vazifalaridan biri sifatida agrar qonunchilikka ta'sir o'tkazish, u orqali yer va yer bilan ishlovchilarning manfaatini ko'zlab ish olib borish hisoblanadi.

Agrar tarkib - mamlakat rivojlanishi bilan bog'liq holda qishloq xo'jaligini tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining natijasidir. Agrar tarkib - agrar qonunchilikka asoslangan, qishloq xo'jaligi rivojlanishi, aholining yashash va ishlash sharoiti xususiyatlari hisobga olingan, ishlab chiqarish omillariga bog'liq yig'indisidir. U mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi.

Agrar siyosatning asosida agrar bozor yotadi. Agrar bozor agrar siyosatni ham ishlab chiqaruvchi, ham iste'molchi manfaatlariga mos amalga oshirilishiga yordam qiladi.

Qishloq xo'jalik bozorlari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun zarur bo'ladigan omillar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini birlashtiradigan iqtisodiy vositadir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyingi dastlabki masala iqtisodiyotni tezroq barqarorlashtirish hisoblanadi. Shu jihatdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish va samaradorligini oshirish eng muhim masalalardan hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida bozorlarni to'g'ri tashkil

qilish va agrar siyosatni to'g'ri olib bormasdan iqtisodiy samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

Samarali agrar siyosat yuritishdan maqsad mamlakat aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirish, mamlakatni oziq-ovqat bilan to'la ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat korxonalarini yetarli xomashyoga bo'lgan ehtiyojini to'laqonli qondirish, agrar resurslar salohiyatidan maqsadli foydalanishga erishish orqali davlatimizning iqtisodiy qudratini yanada o'stirish, mamlakat aholisini yashash farovonligini yaxshilash hisoblanadi.

Agrar siyosat ma'lum bir mustaqilliklarga ega va u faol tarzda agrar iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatib boradi. Agrar siyosatning agrar iqtisodiyotga ta'siri odatda ikki xil bo'ladi: u rivojlanishni yoki tezlashtiradi, yoki sekinlashtiradi. Agrar siyosatning agrar iqtisodiyotga ijobiy ta'siri ilmiy asoslangan siyosat bo'lgandagina bilinadi. Agrar iqtisodiyot va agrar siyosatning o'zaro aloqadorligini yoki birining ikkinchisidan ayni holatda ustunligini siyosiy yoki xo'jalik yo'nalishidagi masala birinchi qo'yilayotganligi bilan ajratib olish mumkin. Bunda quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

- ❖ birinchidan, bir butunlik, ya'ni agrar iqtisodiyot va agrar siyosatning o'zaro mustahkam aloqada va munosabatda ekanligi;
- ❖ ikkinchidan, agrar iqtisodiyotning birlamchi, agrar siyosatning ikkilamchi ekanligi;
- ❖ uchinchidan, agrar siyosatning agrar iqtisodiyotga faol ta'sir ko'rsatishini.

Agrar siyosatning agrar iqtisodiyotga faol ta'siri agrar siyosatning faoliyat doirasini belgilab olishga yordam beradi. Agrar siyosatning mohiyatini ko'rib chiqishda, quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- ❖ agrar siyosat siyosiy munosabatlar doirasiga kiradi, chunki u o'zida davlat, davlatlararo va shu kabi doiradagi munosabatlarni mujassamlashtiradi;
- ❖ agrar siyosatning xususiyatlari agrar iqtisodiyotning maxsus xususiyatlaridan kelib chiqadi. Agrar iqtisodiyotning asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, taqsimoti, ayirboshlashi va iste'molini boshqarish bilan bog'liq iqtisodiy qonunlar yotadi. Shuning uchun ham agrar siyosat ham shu qonunlar hukmronligi ostida olib boradi;
- ❖ agrar siyosat umumjamiyat munosabatlari tizimida muhim o'ringa ega.

Boshqacha aytganda, u agrar iqtisodiyotga yaqin joylashgan, uning ifodasi va yakuni sifatida namoyon bo'ladi.

Agrar siyosatning asosiy vazifasi – agrar sohadagi jarayon va qarashlarni aks ettiribgina qolmasdan, balki kishilarning shu sohadagi qarashlari, jarayonlari va qonunlari tizimidagi faoliyatini ochib berishdir. Agrar siyosatning boshqa bir muhim vazifalaridan biri agrar qonunchilikka ta’sir ko’rsatish hisoblanadi. Agrar sohada bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida davlat, birinchi navbatda, agrar bozordagi ishlab chiqaruvchilar va ist’emolchilar huquqlarini himoya qilish vazifasini qo’yadi. Iqtisodiy faoliyat bir me’yorda ketishi uchun faoliyat ko’rsatuvchi sub’ektlar qonuniy himoya qilingan bo’lishi kerak. Avvalo, xo’jalik yurituvchilarning yerga nisbatan va mulkka nisbatan faoliyatlarini erkin bo’lishiga erishish lozim. Shuning uchun ham qishloq xo’jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga mulk huquqini kafolatlaydigan agrar qonunchilik zarur.

Agrar siyosatning aniq vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ❖ mamlakat aholisini iqtisodiy asoslangan baholardagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash;
- ❖ qishloq xo’jaligining umumiy daromad yaratish sohasidagi ishtirokini ta’minlash;
- ❖ atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini hal qilish.

Umuman olganda, O’zbekiston qishloq xo’jaligini rivojlantirish quyidagi muhim strategik maqsadlarni amalga oshirishni ko’zda tutadi:

- Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda qishloq xo’jaligida “dekapling” samarasiga erishish va organik qishloq xo’jaligini rivojlantirish;
- Paxta va g’alla maydonlarini maqbul bo’lgan nisbatlargacha qisqartirish va ulardan bo’shagan yer maydonlariga aholi iste’moli uchun zarur bo’lgan qishloq xo’jaligi ekinlari ekish va shu orqali oziq –ovqat xavfsizligini ta’minlash;
- Qishloq xo’jaligi mahsulotlari eksportini ko’paytirish orqali mamlakatimizga valyuta tushumini oshirish;
- Ko’p tarmoqli fermer xo’jaliklarini tashkil etish orqali qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda shu asosda aholi bandligi va turmush darajasini oshirish.

## **XULOSA**

Xulosa qiladigan bo’lsak, agrar siyosatni amalga oshirishning strategik vazifalari bo’lib iqtisodiyot bo’yicha samarali raqobatbardosh agrosanoat ishlab chiqarishini shakllantirish, ijtimoiy soha bo’yicha qishloq aholisi turmush darajasini oshirish va qishloq joylarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, ekologiya borasida esa ekologik toza iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish va agrosanoatning

texnologik darajasini oshirish hamda resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali tabiiy resurslarni saqlab qolish hisoblanadi. Agrar siyosatning ob'ekti milliy agrosanoat majmuasi doirasida shakllanadigan va o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'mol munosabatlari yig'inididir. Zamonaviy agrar siyosat uni amalga oshirish bilan bog'liq aniq mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga oluvchi yondashuvlar o'z ichiga oladi. Agrar siyosat qishloq hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, yer resurslaridan samarali foydalanish, qishloqlar aholisi bandligi va turmush darajasini o'sishini ta'minlashga qaratilgan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatlaridan biridir. Agrar siyosatni amalga oshirishning eng muhim yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- ❖ qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga byudjet mablag'larini ajratish;
- ❖ qishloq xo'jadigi korxonalarini uchun alohida imtiyozli soliq rejimini qo'llash;
- ❖ davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligining oziq-ovqat va xom-ashyo mahsulotlarini sotib olish, saqlash, qayta ishlash va yetkazib berishni amalga oshirish;
- ❖ qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini bojxona-tarif va turli notarif yo'llar bilan tartibga solish;
- ❖ qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini antimonopol siyosat bilan tartibga solish.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-son Farmoni. 2020 yil 10 iyul.
2. SZ Safoevna, MN Juraevna. Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. 2021. Том 27, Номер 2, Страницы 4055-4061.
3. ZS Shoxo'jayeva. Problems and solutions in the water sector of the region. - НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 2020. Стр.21-24.
4. ЗС Шохўжаева, НЖ Мамазарова. Эффективность инновационных процессов в сельскохозяйственном развитии. "Минтақа иқтисодиётини

инвестициялашнинг молиявий-хукукий ва инновацион жиҳатлари.” Халқаро конференция.2020 й.

5. ZS Shoxo'jayeva. Efficient use of water resources in the agricultural sector. Monograph. T.: - 2012

6. Z.S.Shoxujaeva, A.B.Kurbonov. Sustainable Development Of The Agrarian Sector Depends On The Efficient Use Of Water Resources. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) ISSN: 2249 – 8958, Volume-8 Issue-6, August 2019.

7. ZS Shoxo'jayeva, M Norqobilov Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan. - НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 2020.

8. ЗС Шохужаева Зарубежный опыт в сельском хозяйстве по использованию водных ресурсов. - Economics, 2020.

9. Sagdullaevna TF, Shoxo'jaeva Zebo Safoevna. Food provision of the population of the Republic of Uzbekistan in pandemy conditions: problems and solutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021/2.

10. Utkirovna MN, Shoxo'jaeva Zebo Safoevna Organizational and economic basis for the development of cotton and textile clusters. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021/2.

## **MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODINING O'ZBEK MILLIY ADABIYOTIDAGI TUTGAN O'RNI**

**Abdujalilova Mohinur Valijonovna**

Toshkent davlat transport universiteti Ekologiya atrof muhit muhofazasi 1kurs talabasi

**Axmatjanov Ravshanjon Nematjonovich**

Ilmiy rahbar: Transport energetik qurilmalar kafedrası mudiri PhD

### **ANNOTATSIYA**

*Maqsud Shayxzoda san`at, adabiyot tarix va falsafaga qiziqgan ko`p qirrali istedod soxibi bo`lgan. Bundan tashqari u mohir tarjimon ham bo`lgan. Uning yaratgan asarlari manaviy merosimiz va boyligimiz hisoblanadi. Hozirgi kunda juda ko`p joylarga Maqsud Shayxzoda nomiga berilgan. Bundan tashqari uning nomiga medal , stipendiyalar ham ta`sis etilgan..*

***Kalit so`zlar:** hayoti , asarlari , she`riy to`plamlar , ocherklar, tarjima kitoblar , falsafa , adiblarning fikri , ijodiy do`stlari.*

### **ABSTRACT**

*Maksud Shaykhzoda was a multi-talented man interested in art, literature, history and philosophy. He was also a skilled translator. His works are our spiritual heritage and wealth. Today, many places are named after Maqsud Shaykhzoda. In addition, medals and scholarships were established in his name.*

***Keywords:** life, works, poetry collections, essays, translated books, philosophy, writers' opinions, creative friends.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Максуд Шайхзода был разносторонне одаренным человеком, интересовавшимся искусством, литературой, историей и философией. Он также был искусным переводчиком. Его произведения – наше духовное наследие и богатство. Сегодня многие места названы в честь Максуда Шайхзода. Кроме того, были учреждены медали и стипендии его имени.*

***Ключевые слова:** жизнь, произведения, поэтические сборники, очерки, переводные книги, философия, мнения писателей, творческие друзья.*

### **KIRISH**

Ozarbayjon naslidan bo`lib, keyinchalik o`zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908 yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug`ilgan. Otasi Ma`sumbek elu-yurtda katta obro`ga ega shifokor edi.

Dastlabki she'riy to'plami — „Loyiq soqchi“ (1932). Shundan keyin shahrining „O'n she'r“ (1932), „Undoshlarim“ (1933), „Uchinchi kitob“ (1934), „Jumhuriyat“ (1935), „O'n ikki“, „Yangi devon“ (1937), „Saylov qo'shiqlari“ (1938), „Kurash nechun?“ (1942), „Jang va qo'shiq“, „Ko'ngil deydiki“ (1943), „O'n besh yilning daftari“ (1947), „Yurt she'rlari“ (1948), „Zamon torlari“, „Olqishlarim“ (1949), „Yillar va yo'llar“ (1961), „She'rlar“ (1964) va boshqa she'riy to'plamlari nashr etilgan. Shoirning dastlabki ijodida va qisman 50 yillardagi ayrim she'rlarida ozarbayjon she'riyatiga xos ohanglar, minbar she'riyat belgilari ustuvorlik qilgan. Ammo Shayxzoda o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatining tili va uslubini egallagan sayin uning she'rlarida o'zbekona musiqiy ravonlik kuchaya bordi. Shayxzoda voqelikka faol munosabatda bo'lishga intilib, xalq va mamlakat hayotida ro'y bergan muhim voqealarni tasvirlashga, mehnat va kurash qahramonlari obrazini yaratishga alohida e'tibor berdi. U shu maqsadda doston janriga qo'l urib, „O'rtoq mulk“ (1933), „Chirog“, „O'rtoq“, „Meros“, „Tuproq va haq“ (1936), „Ovchi qissasi“, „Iskandar Zulqarnayn“ (1940), „O'n birlar“, „Jenya“, „Oqsoqol“ (1943), „Axmadjonning hikmatlari“, „Uchinchi o'g'il“ (1944), „Nurmat otaning tushi“ (1947) singari liroepik asarlar yozdi. Shoirning 30-40 yillardagi she'riyatiga ham, keyingi ijodiga ham xos muhim fazilatlardan biri syujetlilikdir. Shayxzoda lirik syujet yaratishga moyil shoir sifatida xalq afsonalari va tarixiy o'tmish sahifalariga, shuningdek, zamondoshlari hayotiga murojaat etib, o'z she'rlariga balladaga xos poetik belgilar va turli poetik tafsillarni olib kirgan, so'zning she'riy qurilmadagi mavqeini oshirish choralarini ko'rgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Maqsud Shayxzoda san'at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqgan. Maqsud Shayxzoda Oqtoshdagi ibtidoiy maktabni bitirgach, 1921 yili Boku dorilmuallikka o'qishga kiradi va uni tugatgach Dog'istonning Darband, Bo'ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U 1926 yili Adhem Fayziy tashkilotiga a'zo etilgan «Milliy firqa» tashkilotiga a'zo bo'lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928 yili hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho'ro hukumati Shayxzodani O'zbekistonda ham ta'qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo'q.

Shayxzoda Toshkentga kelgach, avval Narimonov nomidagi texnikumda dars beradi, keyin „Sharq haqiqati“, „Qizil O'zbekiston“, „Yosh leninchi“ gazetalarida ishlaydi.

1929 yili yosh shoirning o‘zbek tilidagi dastlabki she’ri “Sharq haqiqati” gazetasi sahifalarida bosilib chiqadi. Oradan ko‘p o‘tmay, Shayxzodaning birinchi to‘plami “O‘n she’r”, keyinroq “Undoshlarim” (1933), “Uchinchi kitob” (1934), “Jumhuriyat” (1935) kabi to‘plamlari nashr etiladi.

“Qo‘llar” she’rida qo‘llarda insonning borlig‘ini, uning ichki olamining muhrini ko‘radi. Uningcha, “g‘oyat shafqatli, hayotbaxsh qo‘llar” ham “ayovsiz, yovuz, go‘r kabi sovuq, tanbal” qo‘llar ham bor, qisqasi, har bir qo‘l “yurakning navkarlaridir”, yurak neni buyursa, qo‘l shuni ijro etadi deb ta’riflaydi.

Maqsud Shayxzoda ijodiy balog‘atidan dalolat beruvchi asarlaridan biri “Toshkentnoma” dostonidir. Adabiy jamoatchilik o‘z vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, “Toshkentnoma” Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli bo‘lib, unda shoir shaxsiyatining o‘ziga xos qirralari ancha yorqin namoyon bo‘lgan. Dostondagi o‘ziga xoslik shundaki, asar yaxlit voqea asosiga qurilgan emas.

Shayxzoda ko‘p qirrali iste’dod sohibi bo‘lgan. U she’rlar va dostonlar bilan birga, juda yuksak badiiy quvvatga ega bo‘lgan dramalar ham yaratadi. Shayxzoda umrining so‘ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan “Beruniy” dramasi hisobga olmaganda ham, uning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qoldi.

Shayxzoda ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan “Jaloliddin Manguberdi” (1944) tragediyasida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. Oybek bilan G‘afur G‘ulom o‘sha vaqtda asarga yuqori baho berishib: “Tarixiy jarayonning haqiqiy mazmunini, uning ichki ma’nosini” ochib bergan deyishgan edi.

1946 yilgacha “Jaloliddin Manguberdi” dramasi ayrim parchalar “Armug‘on” to‘plamida bosilgan edi. Shundan keyin 43 yil davomida asar tilga olinmadi va dunyo yuzini ko‘rmadi. Asar sahnadan olingandan keyin ko‘p o‘tmay Shayxzoda qamaladi. Bu asarga o‘tmish ideallashtirilgan degan siyosiy ayb qo‘yiladi.

Musodara etilgan buyumlar ichida dramaning qo‘lyozmasi ham bor edi. Muallif oqlanib, qaytib kelganidan keyin muayyan tashkilotlar “yo‘qoldi” degan bahonalar bilan qo‘lyozmani qaytarib bermadilar. Shayxzoda uni bir necha yil qidirishga majbur bo‘ldi va nihoyat, teatrning sobiq suflyorlaridan uning bir nusxasini topishga muvaffaq bo‘ladi. Lekin shunda ham asarning matni e’lon qilinmay qolaveradi.

Taqdirning o‘yinini qarangi, muallif bu asarining chop etilganini ko‘rmay olamdan ko‘z yumdi. “Jaloliddin Manguberdi”ning to‘la matni birinchi marta Bokuda



ozarbayjon tilida Shayxzodaning ikki jildlik saylanmasida bosilib chiqarildi. Faqatgina 1988 yildagina Jaloliddin Manguberdi” birinchi marta o‘zbek tilida yozuvchining “Boqiy dunyo” degan kitobida to‘la bosilib chiqarildi.

Shayxzodaning yozuvchilik va ijodkorlik zehning o‘tkirligi yana bir bor isbotlanadi. Maqsud Shayxzodaning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan yana bir ulkan hissasi “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasidir. Tragediya 1964 yili yoziladi, o‘sha yili bu asar Hamza teatri sahnasida qo‘yiladi, keyinchalik uning asosida kinofilm yaratiladi.

Shayxzoda adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali qalam tebratib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining Fozil shoir singari namoyandalari, „Alpomish“, „Shirin bilan Shakar“ kabi asarlari, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Sh.Rustaveli, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, A.N.Ostrovskiy, T.G.Shevchenko, A.P.Chexov singari namoyandalariga bag‘ishlangan asarlar yezadi. Pedagog olim va shoir sifatida esa talaygina shoir, adabiyotshunos va tanqidchilar avlodining yetishib chiqishiga munosib hissa qo‘shadi.

Maqsud Shayxzoda yuksak ilm egasi edi. Ayniqsa, u o‘zbek mumtoz adabiyotini chuqur bilar edi. 1941 yilda Toshkentda nashr etilgan “Genial shoir” to‘plami adabiyotshunos olim Shayxzodaning Navoiy ijodiga oid ilmiy maqolalaridan tashkil topgandir. Navoiy she‘riyatining bu chuqur ilmiy tadqiqi navoiyshunoslikda hamisha alohida o‘rin egallab qoladi.

Maqsud Shayxzodaning butun ijodi chuqur siyosiy publitsistik ruh bilan to‘la. Uning she‘riy, dramatik asarlari qaysi mavzuga bag‘ishlangan bo‘lmasin, zamona bilan hamohangdir. Shuning uchun ham ijodkorning shu tipdagi bevosita publitsistika janrida xizmat qilishi tasodifiy hol emas. Uning zo‘r badiiy janrga ega bo‘lgan publitsistik maqolalari va nutqlari ushbu iste‘dodli adib ijodining mazmundorligi va rang-barangligidan yorqin nishonadir.

Iste‘dodli shoir mohir tarjimon ham edi. U jahon adabiyoti mumtoz shoirlarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda katta xizmat qiladi. Jumladan, Shekspirning “Hamlet” hamda “Romeo va Juletta” asarlari o‘zbek drama teatrlari sahnasida Shayxzoda tarjimasida sahnalashtiriladi.

Shoir mahoratining o‘shishiga, uning jahon adabiyotining klassik asarlarini g‘oyat sevib o‘rgangani, ularning boy badiiy tajribasini ustalik bilan o‘zlashtirgani ham sabab bo‘ldi. U G‘arbiy Yevropa va rus adabiyotini mukammal bilgani holda o‘zining Vatan adabiyotini - Sharq she‘riyati merosini ham to‘la o‘rgangan edi.

Maqsud Shayxzodani 50-yillar boshida mutlaqo asossiz ravishda qamoqqa oladilar va 25 yilga surgun qiladilar. Stalin vafot etgach, tuhmat bilan nohaq

qamalganlarning ishi qayta ko‘rildi. Shu tariqa 1955 yili ko‘pgina fidoyi ziyolilarimiz qatori Shayxzoda ham oqlanib chiqdi. Lekin 5 yillik qamoqxonada azoblari natijasida shoirning sog‘ligi juda yomonlashib qolgan edi. Shunga qaramay, umrining oxirigacha 10 yil davomida baland uyning eng yuqori qavatida yashashga majbur bo‘ldi. Ana shunday og‘ir sharoit va xastalikda ham hayotidan sira nolimay umrining oxirigacha ijod qilishdan to‘xtamadi.

Boshidan qanchadan-qancha musibatli kunlar o‘tgan bo‘lmasin, u hech zorlanmagan. Uning iymon-e‘tiqodi, dunyoqarashi, yuqoridagi misralarda teran bayon qilingan. U hech qachon alamzadalik bilan yashamadi. Aksincha, unga xiyonat qilgan, uni azob uqubatlarga, jiddiy xastaliklarga duchor qilganlar haqida hech qayerda, hech narsa demagan. Shayxzoda o‘zining insoniy fazilatlariga sodiq qolib, doimo xayrixohlik va balandlik xislatlari bilan yuksalib yashadi. Chunki uning chinakam, sodiq do‘stlari ham oz emas edi. Bular Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Komil Yashin, Mirtemir, Shukur Burxon kabilar edi.

Shayxzoda adabiy bilim doirasining kengayishi, ijodining mumtoz jahon yozuvchilari badiiy tajribasi bilan boyishida tarjima muxim rol o‘ynadi. U Sh.Rustavelining „Yo‘lbars terisini yopingan paxlavon“ (hamkorlikda) eposi, U.Shekspirning sonetlari, A.S.Pushkinning she‘rlari, „Mis chavandoz“ dostoni, „Motsart va Salyeri“ tragediyasi, M.Yu.Lermontovning she‘rlari va „Kavkaz asiri“ dostonini, shuningdek, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va boshqa yozuvchilarning ayrim asarlarini o‘zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qildi.

Maqsud Shayxzoda Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)da, Toshkent Davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent Davlat pedagogika universiteti)da uzoq yillar davomida o‘zbek adabiyoti tarixidan o‘qigan ma‘ruzalari, maxsus kurslari o‘zbek adabiyoti tarixi bo‘yicha eng qimmatli darslar edi. Yozuvchi, adabiy dramaturg, tarjima ustasi, buyuk pedagog, tilshunos va adabiyotshunos Maqsud Shayxzoda nomidagi o‘quv zali va ekspozitsiya g‘oyat nozik did va mohiyatan uyg‘unlikda tashkil etilganini Shukur Burxonovdek ulkan san‘at darg‘asiyu, Jaloliddin Manguberdek buyuk tarixiy shaxslar siymolari ham aytib turibdi.

Maqsud Shayxzodaning xalqimiz tarixiga, jumladan, Jaloliddin Manguberdi taqdiri va kurashiga odilona yondoshganligi, haqiqatni himoya qilganligi Prezidentimiz Islom Karimov imzosi bilan e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 sentyabrdagi „Jaloliddin Manguberdi

tavalludining 800 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori ham yana bir bor tasdiqlaydi.

Shoir 1967-yilning 19-fevralida xastalikdan vafot etadi. Uning vafotidan so'ng olti jildlik «Asarlar»i nashr etiladi. Mustaqillik yillarida marhum Maqsud Shayxzoda ijodi va qilgan xizmatlari haqiqiy qadr topdi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Maqsud Shayxzoda Ozbarbayjon va O'zbek xalq adabiyotining eng zabardast shoir va adiblaridan hisoblanadi. Mana necha yildirki ijodiy asarlari so'ngan emas va qalbimizning tub tubidan joy olgan. 1-prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan Maqsud Shayxzoda nomiga medal, order, va stipendiyalar joriy etilgan . Uning asarlari va hayotiga qiziquvchi yoshlarimiz juda ko'p va bundan keyin ham kamaymaydi . Maqsud Shayxzodaning ijodi shu qadar qiziqki u faqat bir yo'nalishda emas balki turli xil yo'nalishlarda juda qiziq faoliyat ko'rsatgan

### **REFERENCES**

1. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
2. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972 y. - 179 b.
3. G'afurov I., O'rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. - 215 b.
4. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
5. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, T., 1999 y. – 25 b.
6. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. - 28 b.

---

## МАКС ШЕЛЕР ВА ЖАЛОЛИДДИН РУМИ ИЖОДИДАГИ РУХИЙ МУҲАББАТ ҒОЯСИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

**Кабулниязова Гулчехра Ташпулатовна**

Ўзбекистон Миллий Университети

«Фалсафа ва мантиқ» кафедраси

Доценти, ф.ф.н.

**Бахрамова Нафиса Шакирджановна**

Ўзбекистон Миллий Университети

2-босқич магистранти

Тел.90.9974282

### АННОТАЦИЯ

*Мақолада фалсафий антропологиянинг йирик вакилларида бири бўлган Макс Шеллер ва экзистенциал психологиянинг асосчиларида бири Эрих Фроммларнинг рухий муҳаббат ҳақидаги тасаввурлари таҳлил қилиниб машҳур шоир ва суфий мутафаккир Жалолиддин Румийнинг қарашлари билан қиёсий солиштирилган. Улардаги ўхшашликлар аниқланган ва ёритиб берилган. Мақолада руҳ тушунчасига алоҳида эътибор берилган. Инсон онгининг маркази бўлган руҳ муҳаббат рухий кучи орқали инсон фаолиятини бошқариши ва ижодкорлик манбасининг асоси эканлиги очиқ берилган.*

**Таянч иборалар:** рухий муҳаббат, меҳрибонлик, ҳамдардлик, руҳ, ижодкорлик, фаолият, ҳаракат, пантеизм, аналхак, хулул ва иттиҳод гоёси.

### АННОТАЦИЯ

*В статье исследуются представления Макса Шеллера и Эриха Фромма о духовной любви и проводится их сравнительный анализ со взглядами суфийского поэта и мыслителя Джелалетдина Руми. В статье особое значение придаётся представлениям о духе как высшей божественной силе, выясняется, что в центре человеческого сознания находится эта божественная сила – дух, который с помощью духовной любви направляет активную деятельность человека, именно он является источником вдохновения и творческого начала в человеке.*

**Ключевые слова:** духовная любовь, доброта, сострадание, дух, творчество, деятельность, движение, пантеизм, аналхак, хулул и идея единения.

## ABSTRACT

*The article examines the ideas of Max Scheller and Erich Fromm about spiritual love and compares them with the views of the Sufi poet and thinker Jalaletdin Rumi. In the article, particular importance is attached to the idea of the spirit as the highest divine power, it turns out that in the center of human consciousness is this divine power - the spirit, which, with the help of spiritual love, directs the active activity of a person, it is he who is the source of inspiration and creativity in a person.*

**Keywords:** *spiritual love, kindness, compassion, spirit, creativity, activity, movement, pantheism, analhak, hulul and the idea of unity.*

## КИРИШ

Фалсафий антропология фанида борлиқнинг ҳиссий-эмоционал мезонлари масаласи доим долзарб бўлиб келган. Бу мавзуда немис фалсафий антропологиясининг асосчиси бўлган Макс Шелер, неофрейдизм вакиллари Эрих Фромм, экзистенциал антропологиянинг йирик вакиллари, Сёрен Кьеркегор, Альбер Камюларнинг фикрлари қизиқарлидир.

Шелернинг бу мавзуга бағишланган асари «Меҳрибонликнинг шакли ва моҳияти» деб аталади<sup>336</sup>. У муҳаббат ва нафрат тушунчаларини таҳлил қилишдан олдин барча одамларга хос бўлганлиги учун тушуниш осон бўлган шодонлик ва меҳрибонлик туйғуларини таҳлил қилади. Меҳрибонлик ва унинг шакллари эскидан фалсафий таълимотларда ўрганиб келинган. Масалан, Артур Шопенгауэр ва Фридрих Ницше ўзига хос шаклда бу тушунчаларни таҳлил қилишган.

## МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Макс Шелер «Меҳрибонликнинг моҳияти ва шакллари» деб номланган асарида Макс Шелер меҳрибонлик ва ҳамдардлик туйғусининг таҳлиliga алоҳида эътибор қаратади.

Унинг фикрича меҳрибонлик ахлоқи борлиқдаги ҳолатлардан ёки инсонларнинг ҳаракатидан келиб чиқмайди, у четдан туриб кузатаётган шахснинг одамларнинг ҳиссиётларига, хатти-ҳаракатларига жавобан пайдо бўлган туйғудир<sup>337</sup>. Шелернинг таъкидлашича бу жавобан пайдо бўладиган туйғу фақат ижобий тусга эга бўлади, бирон бир кимса одамларнинг ҳамдардлик билан меҳрибонлик ўртасида ҳам катта фарқ бор. Ҳамдардлик

<sup>336</sup> Шелер М. Сущность и формы симпатии. // Horizon. Феноменологические исследования. 2017г. №2 (12). – 303-319 б.

<sup>337</sup> Шелер М. Сущность и формы симпатии. // Horizon. Феноменологические исследования. 2017г. №2 (12). – 304-305 б.

туйғуси бошқа одамнинг ҳиссиётларининг туб моҳиятига эътиборсиз бўлади, масалан, бирон бир кимса бошқа одамнинг азоб-укубатларидан роҳатланса, хурсанд бўлса, уни кузатаётган шахс бундай ахлоқсиз ҳиссиётларга бефарқ бўлади ва золимликка, золим одамга ҳамдард бўлади. Лекин меҳрибонлик туйғуси бўлган инсон ҳеч қачон бошқаларнинг азобларидан хурсанд бўлмайди. Ғам ғуссасига хурсанд бўлиши, бошқаларнинг азобларидан роҳатланиши мумкин эмас. Шундай қилиб, меҳрибонлик туйғуси бор шахс бошқа одамларнинг азоб-укубатларидан, ғамларидан хурсанд бўлмайди, шу билан бир қаторда у севган одамнинг золим, жоҳил ҳаракатларидан ҳам хурсанд бўлмайди, аксинча меҳрибонлик туйғуси бор бўлган шахс золимликдан, жоҳилликдан хафа бўлади, у севган одамнинг золимлигидан азоб чекади. Золимлик меҳрибонлик асосида қурилган ахлоққа тўғри келмайди, чунки бундай туйғулар умуман ахлоқсиздир.

Ҳамдардлик туйғусига эса бошқаларнинг жоҳил ҳаракатлари, уларнинг золимликлари бефарқдир. Ҳамдардлик туйғуси бўлиши учун одамда бошқа одамларни ҳис қилиш, улар чекаётган азобларни сеза олиш қобилияти инсонда бўлиши зарурдир.

Инсон ўз ҳиссиётлари туйғули атрофидаги одамларнинг хурсандчиликларини ҳам, уларнинг азобларини ҳам ҳис қилиши мумкин, лекин уларга ҳамдард бўлмаслиги мумкин. Ҳамдардлик туйғуси бўлган тақдирда инсон бошқаларнинг ҳиссиётларига бефарқ бўлмайди, у бошқаларнинг азобларига шерик бўлади, лекин у бу азобларга ахлоқий баҳо бермайди. Шундай қилиб ҳамдардлик туйғуси инсон ҳиссиётларига асосланади, ақлий мушоҳада орқали ҳамдардлик туйғуси пайдо бўлмайди. Тушуниш, ақлий мушоҳада қилиш бошқа одамларнинг ҳиссиётларини сезишга ёрдам бермайди, бошқа одамларни ҳис қилишга ақл қодир эмас.

Шелер ҳамдардликнинг уч турини ажратади. Биринчиси – бевосита ҳамдардлик. Бу ҳамдардлик туйғусида бир одам бошқа бирининг ҳиссиётларини, азобларини ўзиникидай ҳис қилади. Иккинчи тури бу бошқа одамнинг хурсандчилигига, ёки унинг азобига ҳамдард бўлиш туйғусидир. Учинчи тури – бу бошқа одамларнинг ҳиссиётларини кузатаётган шахсга ушбу ҳиссиётларни юқиши. Масалан, бир одам қаҳвахонага ёмон кайфиятда борсаю, у ердаги қувноқ муҳит унинг кайфиятини ҳеч қандай сабабсиз кўтаради. Яхши кайфият ҳам, ёмон кайфият ҳам юқимли бўлади, одамлар кайфиятни қандай қилиб ўзгарганини ўзлари ҳам, онгли равишда билмай қоладилар, шунинг учун

бўлса керак бирон бир кимсанинг кайфияти ёмон бўлса, у кайфиятни кўтарадиган жойларга, ёки хушманзара жойларга бормоқчи бўлади.

Лекин айрим олимлар, масалан, Герберт Спенсер ва Чарлз Дарвинлар ҳиссиётларни юқиши жараёнини ҳамдардлик ҳолати билан айнанлаштиришган<sup>338</sup>. Масалан, улар ҳамдардликни ҳайвонлар тўдасидаги ҳиссиётнинг юқиши ва тарқалиши билан айнанлаштиришган. Немис файласуфи Ф.Ницше эса бу хатонинг тескарисини қилган. Ницше ҳамдардлик туйғусини азобланиш ҳиссиёти билан айнанлаштириб қўяди. Унинг фикрича бошқалар дардига ҳамдардлик билдириш уларни ҳам дард чекишига олиб келади, лекин Шелер фикрича аслида бошқаларнинг дардига ҳамдардлик билдириш бошқа одамнинг азоб чекишини англамайди, аксинча, ҳамдардлик билдириш руҳий жараён бўлиб жисмоний дардларни бартараф этади.

Кўпчиликнинг ҳамдардлиги, масалан, ота ва она ўз фарзандини йўқотганида, уларнинг дардлари бир бирига ўхшаш бўлади, уларга таъзия билдиргани келган одамнинг ҳиссиётлари бошқача бўлса-да, у ҳам бу дардни сезади ва унга ҳамдардлик билдиради. Бундай ҳамдардлик заминида руҳий туйғу ётади, бу туйғу жисмоний ҳиссиётлардан катта фарқ қилади. Жисмоний дардни фақат одамнинг ўзи сезади, умумий жисмоний оғриқ бўлмайди, лекин ҳамдардлик туйғусини бир неча одам сезиши мумкин.

Ўзининг «Меҳрибонликнинг моҳияти ва шакллари» деб номланган асарида Макс Шелер муҳаббат тушунчасига янгича маъно беради. Фрейдизм таълимотида ва айрим биологик қарашларда муҳаббат фақат жинсий алоқа сифатида ёритилса, Шелер унинг руҳий жиҳатини очишга ҳаракат қилади. Шелер христианликда шаклланган муҳаббат тассавурини биологик ва ижтимоий эволюция қарашлари билан бирлаштиришга уринади. Унинг фикрича инсон биринчи навбатда руҳий оламнинг маҳсулидир, шунинг учун у ўзининг руҳияти ёрдамида ижтимоий ва табиий жараёнларни руҳлантиришга ҳаракат қилади. Шелер фикрича инсон табиат устидан ҳукмронлик қилиши эмас, балки уни ўз онги орқали англаб етиши керак. Фақат инсонга ўзлигини англаш хусусияти берилган. Шелер фикрича фалсафа бу табиатга, моддий оламдаги нарсаларга ва худога хизмат қилишдир. Шелер антропологик концепциясига биноан инсон табиатининг марказида ўз жисмоний ва ҳиссий хоҳишлари олдида ожиз, лекин инсон руҳий иродасини фаол ҳаракатларга йўналтира оладиган руҳ жойлашган. Айнан руҳ туфайли инсон илоҳий

<sup>338</sup> Шелер М. Сущность и формы симпатии. // Horizon. Феноменологические исследования. 2017г. №2 (12). – 318 б.

қадриятлар даражасига кўтарилади ва ўзини инсон сифатида англайди. Шу билан бир қаторда инсон руҳи паст даражадаги ҳиссиётларни сақлаб қолади, уларни ижобий тарафга ўзгартиради, ўз атрофидаги борлиқни, ўзининг жисмоний танасини гўзал бўлишига ҳаракат қилади, у ҳам гўзалликка, ҳам қалбдаги эзгуликка, яхшиликка интилади. Мана шу руҳнинг интилишлари натижасида техник ва илмий тараққиёт туфайли табиатга, ҳайвонларга, ўз танасига ва жинсига бўлган салбий муносабат енгиледи. Худодан оқиб келаётган доимий муҳаббат қуввати ва нури, ҳамда унга жавобан инсондан ҳам таралаётган муҳаббат нурлари инсон ҳаётининг руҳий ривожланиш жараёнини белгилайди. Муҳаббат туфайли инсон худога, бошқа одамларга, оламдаги барча мавжудотларга ва қадриятларга қўшилади, улар билан бирликда бўлади. Юнон файласуфи Афлотундан фарқли равишда Шелер муҳаббатни ички хотиржамлик, оламдаги мавжудотларни ички ҳиссиёт орқали ҳис қилиш, хирс ва нафсдан воз кечиб моҳият ва эзгу қадриятларга интилиш, шунинг оқибатида эса ўзида ижодий қобилиятларни кашф этиш деб таърифлайди. И.Кант ва бошқа немис файласуфларидан фарқли равишда Шелер муҳаббатни барча нарсадан устун қўяди. Ўзининг «Меҳрибонликнинг моҳияти ва шакллари» деб номланган асарининг иккинчи нашрида Шелер муҳаббатнинг ҳиссий, тана билан боғлиқ бўлган шакллари унинг руҳий шакллари билан бир қаторга қўяди. Бу ерда заминий, жинсий муҳаббат оламий муҳаббатнинг кўриниши, унинг бир шакли сифатида таърифланади, унга икки севишганларнинг, икки қалбнинг ердаги учрашуви хос бўлиб, бу муҳаббат турига ҳам руҳий табиат хос. Шелер муҳаббатни таърифлар экан уни христианликдаги руҳий ҳиссиётлар билан тўлдирди ва шу сабабли инсонни ҳайвонлардан ажратади ва улардан устун қўяди. Одамлар ҳайвоний оламдан ажралиб чиқар экан кишилик жамияти янги тартибга асосланганлигини, бу тартибнинг заминиди худога бўлган муҳаббат ётишини вужуди билан ҳис қилишади ва англаб етишади. Макс Шелернинг антропологик қарашларига теоморфизм хос, бу унинг «Инсонни коинотда эгаллаган ўрни» деб номланган асарининг якуний қисмида яққол кўзга ташланади<sup>339</sup>. Инсон ҳақидаги таълимотида Шелер шахс тушунчаси ўзининг келиб чиқишига биноан диний табиатга эга деб ҳисоблайди. Бу тушунча христиан динида тринитарлик, инкарнация ва евхаристия бўйича олиб борилган баҳсларда юзага келади ва биринчи бўлиб «шахс» тушунчаси худога нисбатан қўлланилади, айнан худо христианлик динида биринчи «шахс» деб аталади.

<sup>339</sup> Шелер М. Положение человека в космосе. // Шелер М. Избранные произведения. – М.: Гнозис, 1994г. – 129-195 б.



Худони биринчи шахс деб тан олар экан, Шелер инсон табиатига иккилик хос эканлигини таъкидлайди, шахс сифатида инсон ҳам худо томонидан яратилган, ҳам моддий танага эга. Шелер ижодининг охириги даврида инсон орқали худо ўз-ўзини ривожлантиради деган фикрга келади. Инсонни руҳий муҳаббат ва комилликка интилиши, ўз нафси ва хирсини назорат қилиши бунга замин яратади. Руҳият фақат ўзини англаш, фикр юритиш эмас, балки Шелер талқинида бу муҳаббатга, умид, ишонч, эзгуликка интилиш каби илоҳий туйғулардир. Худо фақат ақл томонидан англаб етиладиган ғоя эмас у билан инсон ўртасида меҳрибонлик ва ҳамдардлик туйғуларига асосланган шахсий, тирик мулоқат мавжуд. Шахс тушунчаси, Шелер таъкидича, инсоннинг фикр юритиш қобилиятига эмас, балки унинг қалбидаги муҳаббат, кечиримлилик, эзгуликка интилиш туйғуларига асосланади. Шахсдаги барча эзгу, руҳий интилишларни бирлаштирувчи куч бу шахсий қиёфага эга бўлмаган руҳ бўлса-да, шахснинг яхлитлиги унинг индивидуал, фақат уни ўзига хос бўлган интилишларига асосланади, шахс қанчалар жисмоний ва ижтимоий табиат талабларидан эркин бўлса, у шунчалар бетакрор ва индивидуал характерга эга. Эзгу, олий қадриятларга интилиш ва уларни рўёбга оширишни шахс ўзининг индивидуал қобилиятлари орқали амалга оширади. Шахснинг табиати сирли табиатга эга, лекин инсондаги барча интилишларни айнан шахс ўз фаолияти доирасида амалга оширади. Ўз асарларида Шелер психик, жисмоний ва индивидуал «мен» тушунчасини киритади. Шелер ташқи ва ички умумий, индивидуал тана тушунчасини киритади, шу билан бир қаторда тана бу руҳнинг буйруқларини бажарадиган машина эмас, унинг ўзи руҳий хиссиётлар ва интилишларни пайдо қилади. «Билим социологияси муаммолари» асарида Шелер оламни эмоционал ҳис қилишни рационал тушунишдан устун қўяди, табиатни билишдан олдин уни яхши кўриш керак, маданиятнинг ривожланишида жисмоний ва руҳий фаолиятни ақлий тушунишдан устунлигини таъкидлайди<sup>340</sup>. Ҳаётнинг мақсади фақат моддий бойликларга эга бўлиш ёки ўзи учун қулай шароитлар, яратиш, эркинлик ва мустақилликга эга бўлиш билан чегараланмайди, ҳаёт йўли олий қадрият бўлган покликка қаратилган. Покликни эса Шелер меҳнат ва билим эгалаш деб тушунади. Меҳнат инсонни тарбиялайди, маданиятли қилади, таълим олиш эса уни эзгулик, гўзалик, поклик каби юксак ахлоқий қадриятларга интилиш ва эришишга ёрдам беради. Билим олиш жараёнида инсон олам, худо ва бошқа одамларнинг ҳаётига ҳамнафас, ҳамдард бўлган ички олам, микрокосмосни

<sup>340</sup> Қаранг: Шелер М. Проблемы социологии знания. – М.: Институт общегуманитарных исследований, 2016г.

шакллантиради. Урушлар бизларга барча одамлар ягона бирликни ташкил этишини кўрсатди, бу бирликда ҳар биримиз алоҳида маънавий оламни ташкил этамиз. Инсоннинг ижтимоий табиатини таҳлил қилар экан, Шелер инсон табиатини на биологик, на ижтимоий омиллар билан тушунтириб бўлмади деб ҳисоблайди. Умуминсонийлик руҳий бирлик сифатида муҳаббатга асосланади, ижтимоий тизим эса мажбурлашга, шунинг учун умумий шахс, Шелер таъкидича, индивидуал шахсларнинг йиғиндиси эмас, балки у ахлоқий бирликка, кечиримлиликка, ўз гуноҳларини тан олишга асосланган руҳий кечинмалар ва ҳиссиётлар марказидир.

Муҳаббатнинг метафизик маъноси ва мақсади шундаки, унинг кучи ёрдамида руҳ тана ва ташқи муҳит устидан назорат қилади. Моддий табиатга эга бўлмаган ғоялар руҳий ҳиссиётлар (улар ичида эса муҳаббат энг кучлисидир) билан бирлашади ва инсон фаолиятини ҳаракатга келтиради ва шу фаолият натижасида ҳаётнинг ҳар хил соҳаларида амалга ошади. Муҳаббат ҳам индивидуал, ҳамда индивидуализм ва эгоизм чегараларидан чиқиб кетадиган туйғудир.

Фалсафий антропологиянинг муҳаббат ҳақидаги қарашларининг ривожига психоанализ таълимотининг йирик вакили Эрих Фромнинг муҳаббат таълимоти алоҳида ўрин эгаллайди.

Фрейднинг шогирди Эрих Фромм психоанализ таълимотини ривожлантиришда устозининг фақат биологик ва хирсий услубини олмай, балки ижтимоий далилларга асосланишга ҳам ҳаракат қилди. Фромм таълимотида диннинг келиб чиқиши сабаблари Фрейд фикридан ўзгача, кўпроқ инсон онгида ётган табиий офатлар олдидаги кўрқув ва Худога нисбатан бўлган муҳаббат ва хайқиш туйғуларига асосланди. Бу ғоялар Фроммнинг «Исо ақидаси» номли асарида акс этган. Бу асарда, жумладан Фромм христиан дини келиб чиқишининг ижтимоий сабабларини очишга ҳаракат қилган Шунингдек Фромм «Инсон жони» деган асарида инсон руҳиятидаги меҳр-муҳаббат туйғусига катта эътибор берди. У муҳаббатни бир неча турга ажратади<sup>341</sup>:

1. Ота-онанинг фарзандига бўлган меҳри. Бу ҳис-туйғу манфаатдорликдан холис бўлиб, беғараздир.

2. Эрак ва аёлнинг бир-бирига бўлган меҳри. Фромм бу меҳрни ўткинчи деб ҳисоблайди. Бунда хирсий интилишлар катта аҳамиятга эга.

3. Худога бўлган муҳаббат. Бу муҳаббатни диндорларга хос деб ҳисоблайди. Уни оналик меҳрига ўхшатади.

<sup>341</sup> Фромм Э. Душа человека. – М.: Республика, 1992г. – 134-152 б.

Фромм ота меҳридан она меҳрини ажратади. Ота ўз фарзандларига бир хилда муносабатда бўлмайди. У кўпинча ўзига ўхшашроқ, итоаткор фарзандига муҳаббатини беради. Фромм она меҳрини эса қуёш нурига ўхшатади. У барча фарзандларига баробардир. Қуёш Еру кўкни қандай иситса, ҳаёт ато этса, она ҳам барча болаларидан бир хилда илиқ оналик меҳрини аямайди. Ота меҳри ойдек равшан, лекин совуқ бўлса, она меҳри қуёшдек иссиқ ва ҳаётбахшдир. “Оналик меҳрига яна беғаразлик хосдир”, - дейди Фромм. У она фарзандларини қайси бири кўпроқ моддий фойда келтиргани учун эмас, балки ҳар бир боласини барча камчиликлари билан яхши кўради.

Фроммнинг фикри бўйича XX аср жамиятида инсоннинг бегоналашиш масаласи асосий масалага айланиб қолди. Бунинг асосий сабабларидан бири, олимнинг фикрича, инсонлар ўртасидаги меҳрнинг йўқилиши ва унинг ўрнини моддий манфаат эгаллашидир. Бундай жамиятда инсон ўз қадр-қимматини йўқотиб, қандайдир нарсага, мулкка айланиб қолади. Масалан, оилада мулк муносабатлари яққол кўринади. Фроммнинг фикрича, ибтидоий даврдан бошлаб эркаклар аёлларга нисбатан мулкчилик муносабатида бўлишган. Натижада аёлнинг ҳис-туйғулари, эркинлиги поймон бўлган. Ҳозирги жамиятга келиб, бундай муносабат фақат аёлларга эмас, балки барча одамларга ҳам мулк сифатида қараш, уларнинг қадр-қийматини фақат оилада ёки хизматда келтирадиган фойдаси орқали белгилаш одат тусига кириб қолган. Натижада, дейди Фромм, инсоннинг ички оламидаги ҳис-туйғулари умуман эътиборга олинмай кўйилди. Альтруистик муносабат ўрнини эгоизм эгалламоқда<sup>342</sup>. Лекин эгоизм, дейди Фромм, инсон табиатидаги тубан хирсий ҳис-туйғуларни қаноатлантиради. Натижада эгоизм пессимистик ҳолатга ва ҳаётга бўлган қизиқишнинг йўқилишига олиб келади. Ҳаётга қизиқиш, ундан хайратланиш ҳисси йўқолар экан, инсоннинг онги остида ўлимга интилиш (танатос кучи) зўраяди. Натижада ҳозирги ривожланган жамиятимизда ўзини ўлдириш холлари кўпаймоқда. Бундай салбий руҳий кучларни Фромм «некрофилия» деб атади<sup>343</sup>. Ўлимга, ўлик шаклларга қизиққан шахсларни эса «некрофил» деб атади. Бундай ҳолатдан чиқиш йўли, Фроммнинг фикрича, жамиятдаги инсонларнинг бир-бирига бўлган меҳр-оқибатининг юксалиши альтруизм ҳиссиётининг кучайиб боришидир.

Альтруист одам доим оптимист бўлади. У ҳаётга қизиқувчан, хушфезъл, хайратланиш қобилятини йўқотмаган шахсдир. Бундай одамларнинг ички

<sup>342</sup> Фромм Э. Душа человека. – М.: Республика, 1992г. – 140 б.

<sup>343</sup> Фромм Э. Душа человека. – М.: Республика, 1992г. – 25 б.

руҳий ҳолати фақат ижобий бўлиб, ҳар қандай қийинчиликларга дош беришга қодирдир. Жамиятнинг инқироз ҳолатларида бундай шахслар одамларга далда бериб, жамиятда руҳий кўтаринкилик ҳолатини таъминлайдилар. Бундай шахсларни Фромм жамият тараққиётини ҳаракатлантирувчи куч, дейди.

Руҳий муҳаббат тушунчаси ғарб ва шарқ иррационал фалсафаси вакиллари қарашларида ҳам ривожланиши ва ўзига хос образларда таҳлил қилинди. Уларнинг қарашларига бир қатор ўхшаш жиҳатлар хос.

Инсоннинг руҳий ривожланиши жараёни мураккаб ҳамда кўп қиррали бўлиб, асрлар давомида кўплаб буюк мутафаккирлар эътиборини ўзига тортиб келган. Улар бу жараёнда учрайдиган қийинчиликлар ва қонуниятларни ўрганишга ҳаракат қилишган. Айнан шу мутафаккирлар қаторига буюк шоир ва файласуф Жалолоддин Румий қирадилар.

Ислонда инсон Аллоҳ бандаси деб тушунилган, тасаввуф таълимотида эса, инсон комилликнинг энг юқори даражасида фано бўлади, яъни ўзлигидан воз кечиб Аллоҳ билан қўшилиб кетади. Шунда унинг борлиги Аллоҳнинг борлиги билан ягона бир борлиқни ташкил этади. «Анал ҳақ!» тасаввуфда айнан шу жараённи англатади. Бу жараённинг моҳиятини Ж.Румий ўзининг «Ичингдаги ичнингда» асарида очиб беради.

«Анал ҳақ!» тушунчаси тасаввуфда комил инсоннинг Аллоҳ тимсолига айланишини англатади. Аллоҳнинг яқкалиги инсоннинг борлиги билан Аллоҳнинг борлиги ўртасида ўтиб бўлмас фарқ йўқлигини англатади. Аллоҳнинг борлиги уни ҳамма ерда, жумладан, инсон табиатида ҳам мавжудлигидир. Агар инсон Аллоҳнинг бандаси деб ҳисобланса, унинг борлиги худонинг борлигидан ажратилади ва инсон Аллоҳнинг хизматкори, қулига айланади. Румийнинг фикрича, Аллоҳнинг қули тушунчаси тасаввуфдаги маҳбуб тушунчасидан анча паст туради, чунки у инсоннинг ички ботиний оламида Аллоҳнинг тимсолини кўришга тўсқинлик қилади.

Kreativlik- shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma‘naviyatining ajralmas qismidir, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirishda, shaxsiy jonbozlikning asosi bo‘lib, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Kreativlik innovatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq jabxadir. O‘qituvchining kreativlik faoliyatda, o‘zining sohasidagi eng so‘nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo‘lishi, innovatsion yangiliklarni o‘z faoliyatida o‘rinli foydalana olishi lozim. Bola shaxsi shakllanishida boshlang‘ich sinf davri eng muhim davr hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishonuvchan, tashqi ta‘sirga beriluvchan bo‘ladilar. Ularda ijobiy hissiyotlar, fazilatlarni tarkib toptirish, yuksak axloqiy me‘yorlarni shakll antirishda asosiy mas‘uliyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining zimmasiga tushadi.<sup>349</sup> Demak, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo‘lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko‘rinishi deyish mumkin. O‘qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir.

<sup>348</sup> Mavlyanova R.A Paxmankulova N.X Boshlang‘ich ta‘limda innovatsiya (metodik qo‘llanma)- Toshkent, 2007. 195

S.

<sup>349</sup> Akramov F.A. Bola shaxsi shakllanishiga boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisining psixologik ta‘siri. Zamonaviy t‘lim/ СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2015.3. -5 s.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida tasavvur etib bo'lmaydi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchining egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganishga va fikrlashga, tahlil qilishga, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda bolani rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Har bir darsda o'qitishning shakl va usullarini darsning maqsadi, mazmuni va o'quvchilarning yosh va individuall xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash, dars davomida o'quvchilar faoliyatining faol holatda bo'lishiga e'tibor berish ta'lim-tarbiya jarayonini yanada yuqori pog'onalariga ko'tarishga zamin bo'ladi.<sup>350</sup>

Dars jarayonida bu metodlardan foydalanish, topshiriqlarni takrorlash, mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. Bu metodlardan foydalanish, qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining bu metodlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

## **XULOSA**

O'qituvchi zamonaviy texnologiyalar bilan darsni bayon qilar ekan, albatta bolani bilimini ham baholab bordi. Shunday ekan bu jarayonda o'qituvchi zamonaviy ta'lim bilan bir qatorda o'quvchini baholaganda albatta kreativ baholash kerak, bahlosh tizmiga ayangicha yondoshishi va shu bilan bolaga motivatsiya jarayonini berish kerak. Bu esa bolada unga berilgan ishoncha va taqdirlanishidan, o'zining o'qishi jarayonida qiziqishini ortishiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishi kreativ yondashishi va bilan birgalikda ta'limni tashxislashda ham kreativlik bilan yondashishi zarur.

<sup>350</sup> Mustafaqulova D.I. Tangirova D.E. Integrativ yondashuv asosida tabiatshunoslik fanlarining uzviyligini ta'minlash strategiyasi. . Zamonaviy ta'lim / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2017. 3. -7 s.

---

## REFERENCES

1. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2013. – B.15.
2. Mavlyanova R.A Paxmankulova N.X Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya (metodik qo‘llanma)- Toshkent, 2007. 195 s.
3. Akramov F.A. Bola shaxsi shakllanishiga boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining psixologik ta’siri. Zamonaviy t’lim/ СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2015.3. -5 s.
4. Mustafaqulova D.I. Tangirova D.E. Integrativ yondashuv asosida tabiatshunoslik fanlarining uzviyligini ta’minlash strategiyasi. . Zamonaviy ta’lim / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2017. 3. -7 s.

## **KREATIVLIK NIMA? U PEDAGOGGA NIMA UCHUN KERAK?**

**Xudayqulova Madinabonu Nazarqul qizi**

JDPI “Pedagogika Psixologiya” fakulteti III bosqich talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Kreativlikning psixologik tasnifi. Kreativlik ustida qator olimlarning olib borgan ishlari. Kreativlikning pedagogika sohalari bilan aloqasi, pedagogikada tutgan o'рни.*

***Kalit so'zlari:** kreativlik, signifikatsion ko'nikmalar, psixologiya, pedagogika, Tematik appertseptiv matn» metodi, verballi belgilar sistemasi, semiotic tizm, intellekt, leksik boylik, ijodkorlik va hk.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Психологическая классификация творчества. Работы ряда ученых о творчестве. Взаимосвязь творчества со сферой педагогики, его роль в педагогике.*

***Ключевые слова:** креативность, сигнифицирующие способности, психология, педагогика, метод тематического апперцептивного текста, система словесных знаков, семиотическая система, интеллект, лексическое богатство, креативность и др.*

### **ABSTRACT**

*Psychological classification of creativity. The work of a number of scientists on creativity. The relationship of creativity with the field of pedagogy, its role in pedagogy.*

***Keywords:** creativity, signification skills, psychology, pedagogy, thematic apperceptive text »method, system of verbal signs, semiotic system, intellect, lexical richness, creativity, etc.*

### **KIRISH**

XXI asr axborotlar oqimi davrida ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalariga, shu jumladan ta'lim-tarbiya sohasiga ham ko'plab yangiliklar kirib kelmoqda. Ushbu yangiliklar bilan bir qatorda ularni yorituvchi yangi tushunchalar ham bizning ilmiy tilimizda qo'llanilishi kuzatilmoqda. Jumladan pedagogika, ya'ni ta'lim-tarbiya sohasida keyingi 20-yil ichida qo'yidagi tushunchalar keng qo'llanilmoqda va bizning ilmiy tilimiz iste'molida keng ishlatilmoqda: pedagogik texnologiya, ilg'or texnologiya, ilg'or tajribalar, innovatsiya va innovatika, pedagogik neologiya, praktsiologiya, aksiologiya, innovatsiya va innovator, interaktivlik, strategiyalar,

gumanistik pedagogika, liberalizatsiya, ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalar, tarbiya jarayonida texnologiyalar,.

Biz shular orasida «kreativlik» tushunchasiga alohida to'xtab o'tmoqchimiz. Bu tushuncha so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonlarida ma'lum darajada qo'llanilmoqda. Lekin bu tushunchaning mazmun va ma'nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning hakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tatqiqotlar olib borilgan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD**

Ayniqsa bunday izlanishlar psixologiya sohasida keng rivojlangan. A.Y. Agafonov, Y. Lotman, V. Rudnev, G.S. Batishev, M.M. Baxtin, D.B. Bogoyavlenskaya, V.M. Vil'chek, V. Dil'tey, V.N. Drujinin, D.A. Leont'ev, A.Maslou, A.A. Melik-Pashaev, I. Meyerson, A.Y. Ponomarev, M. Rorbax, S.L. Rubinshteyn, V. Frankl, R. Yakobson singari olimlar shular jumlasidandir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Yuqorida tilga olingan psixolog olimlarning ilmiy tatqiqot ishlarini va boshqada adabiyotlarni analitik tahlil qilar ekanmiz, psixologik nuqtai nazardan kreativlikning mazmun va ma'nosi jihatdan psixolog olimlar quyidagi xulosalarga kelishganligining guvohi bo'lamiz va bevosita Kreativlik nima? degan savolga yuzlanamiz.

- Kreativlik – bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo'ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir.

- Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq.

- Psixolog olimlar tomonidan kreativlikning qo'yidagi ikkita komponenti aniqlangan. Bular:

- ✓ Shaxsiy mazmun. Ya'ni har bir insonning shaxsiy hayotining umum mazmuni. Bu mazmun madaniyatshunoslik bilan bog'liq. Har bir inson biron bir soha yoki faoliyat bilan shug'ullanar ekan, u kreativlik, ya'ni yaratuvchanlik munosabatda bo'ladi va uni iloji boricha chiroyli, insonlarni o'ziga tortishga yo'naltiriladi. Bu esa o'z navbatida insoniyatning madaniyatga yo'naltirilganligidir.

- ✓ Signifikatsion ko'nikmalar.

- ✓ Kreativlikni tashxis qilish psixosemiotik tahlil bilan bog'liq

Kreativlikning darajasini aniqlash qo'yidagilar bilan belgilanadi:

- ✓ shaxsiy ma'noning rivojlanish darajasi;

- ✓ verballi belgilar sistemasini yaratish ;

✓ Ta'lim olish kengligi ikkinchi semiotik tizimni tashkil etadi. Uning kreativlikni rivojlantirishga ta'siri gomomorfizik madaniyat bilan bog'liq.

✓ Psixologiya fanida kreativlik bilan bog'liq bo'lgan qo'yidagi jihatlarni aniqlashga doir qator metodlar tavsiya etilgan. Lekin bu metodlar bevosita kreativlikni emas, balki kreativlikni belgilab beruvchi muayyan jihatlarni aniqlashga qaratilgandir. Bular:

✓ Psixosemiotik analiz metodlar: mualliflik matnlarni analiz qilishning psixosemiotik tashxislash metodi, E.Torrens metodi, D.A.Leont'ev metodi, G.Myurreyning «Tematik appertseptiv matn» metodi, ekspertlarning baholari metodi.

✓ Ijtimoiy intellektni (aqlni) aniqlashga doir metodlar: Dj. Gilford va M. Salliven metodi, T.Lirining insonlararo muloqotlarni aniqlash metodikasi, xarakterning aktsentuatsiyaini aniqlash metodlari.

✓ Matnlarni psixosemiotik tahlil qilish metodlari; «ko'lam» va «leksik boylik», komp'yuter dasturlari: Microsoft Access ma'lumotlar bazasi vah.k.

•Kreativlik shaxsiy mazmun va unga doir belgilarning ob'ektivligi bilan belgilanadi.

•Kreativlikning rivojlanishi uning komponentlerining rivojlanishiga bog'liq. Bular: shaxsiy mazmun va signifikatsion ko'nikmalar.

•Kreativlikni tashxis qilish - ijodiy faoliyatning maxsulotining ko'satkichlari bilan bog'liq.

Shu bilan bir qatorda psixolog olimlar tomonidan o'quvchilarning insho yozishdagi kreativligi psixosemiotik jihatdan tahlil etilgan. Buni biz psixolog olim I.M.Kishtomova tomonidan olib borilgan ilmiy-tatqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Uning « Проблема творчества школьников: психосемиотический подход» nomli 19.00.07 – pedagogik psixologiya ixtisosligidagi psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajini olish uchun tayyorlagan disseratitsiyasining mazmunidan ko'rishimiz mumkin. Ilmiy izlanishardagi tajriba-sinov ishlarining taxlili shuni ko'rsatganki, insho bolalarning kreativ faoliyatining mahsuli sifatida tashxis qilish belgilangan. Bunda:

✓ O'quvchining shaxsiy ma'nolarining ko'satkichlari sifatida: ma'no va mazmun, vaqt, leksik boylik, javobgarlik, ob'ektotsentrizm, sub'ektotsentrizm, tema.

✓ O'quvchining signifikatsion ko'nikmalarining ko'satkichlari sifatida: inshoning ko'lami, obrazlilik, kompozitsiya, bir butunlilik,



Ta'lim olish kengligi. Ta'lim olish kengligining bazasi sifatida madaniyat hisoblanadi. Uni esa shaxs modellashtiradi. Bazali madaniyatni ta'lim olish kengligining kreativlikning rivojlanish samaradorligi belgilaydi.

Ta'lim olish kengligida kreativlikni rivojlantirishning asosiy pragmatik tavsifi sifatida dialog xizmat qiladi.

Kreativlikning shaxs ma'naviy-axloqiy sifatleri bilan bog'liq jixatlari tahlil etilgan. Kreativlik mazmunining muammolarini yechib berishga qaratilgan kontseptual' psixosemiotik yo'nalish ochib berilgan. Shaxsning kreativligini psixolog olimlar o'quvchilarning insho yozishlari jarayonida tahlil etishga harakat qilishgan. Bunday qo'yidagi ishlar amalga oshirilgan.

Psixologiya fanida kreativlik aktning tuzilishi ishlab chiqilgan va bunda kreativlikni tashkil etuvchi elementlar: transtsendentsiya va signifikatsiya sifatida tahlil etilgan.

Trans tushunchasi ikkita ma'noda qo'llaniladi:

1). Tibbiy tushuncha yo'li, ongning mavxumlanishi, ongsizlik, o'zini yo'qotish.

2). Oraliq. Biron bir predmet yoki hodisalarning oralig'idagi bog'lanish.

Shunday ekan, kreativlik akt qo'yidagilar bilan tavsiflanishi belgilangan:

- erkinlik va cheklanganlikning protsessual' ambivalentlilik;
- madaniy jihatdan cheksizlik va cheklanganlikning transtsendental'ligi;
- real' ob'ektlilik;
- belgilar sistemasining kontinual'li ma'nosi va diskretivligi.

#### KREATIVLIK

1. Nutq ob'ektivligi jarayonida sub'ektiv sistematsiyalanadi

2. Kreativlik badiiy va oddiy nutq bilan tavsiflanadi.

3. Monologik va yozma nutq muallifning sub'ektivligini bildiradi, maktab inshosi – psixodiagnostik tahlilning ob'ekti hisoblanadi. Uning yordamida shaxsning shaxsiy sifatlarini aniqlash mumkin.

4. Nutqdagi kreativlik erkinlik asosida amalga oshirilib, uning erkinligi til va nutq qonuniyatlariga amal qilgan bo'lsa da cheksizdir

5. Matnni tuzishda ongli va ongsiz jarayonlar amalga oshiriladi; Ongli – ya'ni bunda matnning semantik o'ziga xosligi, ikkinchi holatda esa – sintaksislik (shaklni).

6. Matnda shaxs bir butun holatda namoyon bo'ladi; matnning barcha elementlari va uning arxitektonikasi muallifning shaxsiy o'ziga xosligida reprezentatsiyalanadi .

7. Sistemani tashil etuvchi shaxsning sifatleri shaxsiy ma'noga ega bo'ladi.

8. Kreativlik til vositasida shaxsiy ma'no va mazmuni amalga oshirishni ifoda etish jarayonida ko'rinadi

Yuqoridagi ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik tushunasiga nisbatan bir-biriga zid bo'lgan quyidagi turli xil qarashlar majud. Bular:

1.Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatleri majmuidir.

2.Kreativlik – bu insonning o'ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.

3.Kreativlik – bu intellekt (aql) ning mahsulidir.

4.Kreativlik – bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfyotlardir.

5.Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.

6.Kreativlik – bu ijodkor insonlarning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.

7.Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan kategoriyadir.

Shu bilan bir qatorda psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o'rganuvchi alohida yo'nalish – ijodkorlik psixologiyasi yo'nalishi vujudga kelgan.

Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ (creativity – inglizcha ijodiy)likni o'rganishdan iborat.

Bugungi kunga kelib kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e'tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanilmayotgan bo'lsa ham bu tushunchani ma'lum darajada pedagogik iste'molga kiritishga doir harakatlar ko'zga tashlanmoqda. Pedagogika oid manbalarda kreativlik ijod bilan bog'liq holda o'rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog'liq holda tahlil etiladi. Pedagogika fanida kreativlik masalasiga bevosita murojaat etgan pedagog olim pedagogika fanlari doktori, professor R.A.Mavlonova o'zining ilmiy ishlarida kreativlik haqida baholi qudrat fikrlar bildirgan. Uning «Boshlang'ich ta'limda innovatsiya», «Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, integratsiyasi, innovatsiyasi» nomli o'quv qo'llanma va darsliklarida kreativlikka alohida to'xtab o'tgan.

## **XULOSA**

Shaxsning ijodiy motivatsiyani qo'llaganligi - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o'z kamolotiga intilishdir. Kreativlik bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyatidir. Demak bu tushunchani biz bemalol pedagogning individual qobiliyatiga kiritishimiz kerak.

## **REFERENCES**

1. Sh.A. Sodiqova “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur chashmalari” T.: 2013 y.
2. N. M. Kayumova “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T.: 2013 y.

### **Axborot manbaalari:**

3. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
6. [www.edu.Uz](http://www.edu.Uz)
7. [tdpu-intranet.ped](http://tdpu-intranet.ped)

## **XALQ MUSIQA MEROSINI O'RGANISH VA TARG'IB QILISHDA MUSIQIY FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLARINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI**

**Masharipova Gulbahor Tairjanovna**

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

“Musiqqa ta’limi va san’at” yo’nalishi magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada O'zbek xalq musiqqa madaniyati merosini o'rganish va targ'ib qilishda musiqiy folklor-etnografik ansambllarning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, yurimizda faoliyat ko'rsatayotgan folklore ansambllar haqida ham ma'lumotlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xalq musiqasi, folklore-etnografik musiqqa, ansambl, musiqqa madaniyati, ta'lim tizimi.*

## **THE ROLE AND IMPORTANCE OF MUSICAL FOLKLORE AND ETHNOGRAPHIC ENSEMBLES IN THE STUDY AND PROMOTION OF FOLK MUSIC HERITAGE**

### **ABSTRACT**

*This article discusses the role of musical folklore and ethnographic ensembles in the study and promotion of the heritage of Uzbek folk music culture. There is also information about folklore ensembles operating in our country.*

**Keywords:** *folk music, folklore-ethnographic music, ensemble, music culture, education system.*

## **РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ФОЛЬКЛОРА И ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ АНСАМБЛЕЙ В ИЗУЧЕНИИ И ПРОДВИЖЕНИИ НАРОДНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается роль музыкальных фольклорно-этнографических ансамблей в изучении и популяризации наследия узбекской народной музыкальной культуры. Имеются также сведения о действующих в нашей стране фольклорных ансамблях.*

**Ключевые слова:** *народная музыка, фольклорно-этнографическая музыка, ансамбль, музыкальная культура, система образования.*

*“Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. SHuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”. Sh.Mirziyoyev*

## **KIRISH**

So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san‘atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash, madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, mamlakatimizda muntazam ravishda o‘tkaziladigan “Xalqaro maqom san‘ati anjumani”, Xalqaro baxshichilik san‘ati festivali, “Sharq taronalari” xalqro musiqa festivali hamda “Raqs sehri” xalqaro festivali tashkil etilib, o‘zbek mumtoz va folklor san‘atining noyob namunalari va ananalarini hamda madaniy muloqotni yanada rivojlantirish bo‘yicha samarali tizim yo‘lga qo‘yildi. Folklor san‘atini saqlash va rivojlantirish hozirgi davrda yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Milliy qo‘shiqchilik san‘atining durdonasi bo‘lgan folklor san‘atini keng targ‘ib etish, turli xalqlarning qo‘shiq, raqs, musiqa va sahna ko‘rinishlari kabi janrlarini o‘zida mujassam etgan, ularning turmush tarzi, urf-odatlarini va qadriyatlarini hamda maonaviy dunyosini boyitib kelayotgan folklor san‘ati ijodkorlari o‘rtasida ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘zbek folklor san‘atini yanada taraqqiy ettirish, xalq ijodiyoti ananalarini jahonga tarannum qilish maqsadida vazirlar mahkamasi xalqaro folklor festivallarini tashkil etish bo‘yicha qarorlar qabul qildi.

Madaniyat va san‘at jamiyatning, inson taraqqiyotining muayyan bir darajasi, insonlar xayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida ular yaratadigan asarlarning yaxlit bir timsolini ifodalovchi tushunchadir. Madaniyat va san‘atning paydo bo‘lishi va rivojlanishi kishilik jamiyatining eng qadimiy bosqichlariga borib taqaladi, u insonning kelib chiqishi bilan uzviy bog‘liqdir. Ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan, bebaho, ma‘naviy va madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklash mustaqillikni dastlabki kunlaridanoq davlat siyosatining muhim masalasiga aylandi. Natijada xalqimiz o‘z taqdirining chinakkam egasi, o‘z tarixining ijodkori, o‘ziga xos milliy qadriyatlarining, madaniyatning, sohibi sifatida tan olindi.

Xalqimizning eng qadimiy hayotbaxsh milliy qadriyatlaridan biri folklor san'atidir. Bu san'at badiiy an'analari tizimi sifatida xalqimizning ilg'or umuminsoniy g'oyalarini takomillashtirib, kelajakka umid, ezgulik, mehr-sahovat, insoniylik, vatanparvarlik bilan bogiliq milliy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Inson dunyoga kelgan kundan boshlab, to hayotining eng so'nggi lahzasigacha o'zi mansub xalqning qadriyatlari, an'analari ichida ulg'ayadi, kamol topadi. Hatto o'zini folklorga begona deb bilgan, bu atama ta'rifidan mutlaqo yiroq bolgan kishi shu an'alar ichida ulg'aygan, uning ongi, shuuri shu qadim an'analari ta'sirida shakllangan boladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Har bir xalq yoki elat avvalo tarixi, madaniy birligi bilan ajralib turadi. O'zbek xalqi ham uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib, juda ko'p ilmiy-madaniy xususiyatlarga ega bo'ldi. O'tmish ajdodlarimiz an'analari qadriyatlari asrdan-asrga, avlodan-avlodga saqlanib, taraqqiy topib keldi. Asrlar mobaynida xalqimizga juda katta ruhiy va ma'naviy quvvat berib kelayotgan milliy qadriyatlarimizni, folklor an'alarimizni yoshlar ongiga chuqur singdirish har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimiz mustaqillikka erishgach bunga keng imkoniyatlar yaratildi. Chunki mamlakatimizda kechayotgan milliy o'zlikni anglash va ma'naviy hurlikni his etish ehtiyoji ajdodlarimiz qalb qo'ri, aql zakovati, turmush tajribasi asosida yaratilgan madaniy merosimizni bilishni va shu asosda turli bunyodkorlik va yaratuvchilik ishlarini amalga oshirishni taqazo etmoqda. Ijodkor xalqimiz tomonidan yaratilgan nodir ma'naviy boylik hisoblangan folklore asarlari asrlar oshaturli axloqiy tushunchalarnibetakror badiiy shaklda kishilar qalbiga singdirishda bebaho sarchashma sifatida xizmat qilib kelmoqda. O'zbek xalqi etnografiyasi va folklori o'rganish orqali ajdodlarimizning boy madaniy va marifiy o'tmishini yanada teran anglash mumkin.

Milliy-madaniy xususiyatlarimizni saqlab qolishda xalq og'zaki badiiy ijodining roli beqiyos bo'ldi. Jumladan, xalqimizni o'ziga xos urf-odat va marosimlari bola tarbiyasi, mehmonnavozlik tabiati, axloq-odob qoidalari, pazandachilik malakasi, mehnat va turmush tarzi tartiblari folklore asarlari orqali bizgacha yetib keldi. Ana shu folklore asarlarini toplash, o'rganish va ularni xalqqa yetqazishda folklor-etnografik ansambllarining o'rni muhimdir. Folklor-etnografik ansambli — havaskor ijodiy jamoa. Xalq ijodining qo'shiq, raqs, o'yin, og'zaki drama kabi shakllarini mahalliy milliy urf-odat va marosimlarga bog'lab sahnaviy talqinini namoyish qiladi.

Uzoq o'tmishda guruh-guruh bo'lib xalq sayillarida, ommaviy bayramlarida turli-tuman tomoshalar ko'rsatgan xalq qiziqchilari, qo'g'irchoqbozlar, dorbozlar, raqqos va xonandalarni ijodiy uyushmalarini folklor ansamblini o'ziga xos namunalari deyish mumkin. Chunki folklore asarlarini ommaviy ravishda ijro etuvchilarning aksariyati professional bo'lmay, balki havaskor ijrochilar bo'lib, ularni repertuari ham sof xalq ijodidandir.

O'zbekistonda 1970-yillarda madaniyat uylari qoshida Ayollar (ananaviy) ansambli, masxarabozlik, baxshishoprlar, xalq sozandalari va boshqalar ijodi negizida tashkil topgan. Qo'qon shahrida tashkil etilgan "Yor-yor", Bbo'stonliqda tashkil etilgan "Gulyor" ayollar ansambllari ilk tashkil etilgan folklor ansambllardir. Mustaqillik yillarida folklore-etnografik ansambllarning ijodiy faoliyati yangi bosqichga ko'tarildi. Mustaqillik va Navro'z bayramlarida folklor-etnografik ansambllarning katta sahnalarga chiqishi an'ana tusini oldi. Jumladan bugunga kelib folklor-etnografik ansambllarning umumiy soni 300dan ortib ketganligi qayd qilinmoqda. "Boysun", "Shalola", "Besh qarsak", "Gulyor", "Omonyor", "Gulchehralar", "Doston", "Besperde", "Orzu", "Yor-yor", "Chavgi", "Mohi sitora" va boshqa ko'plab ansambllar milliy-badiiy merosni, an'analarni o'rganib, yangidan xalqimizga yetkazmoqdalar.

1980-yillardan boshlab Folklor-etnografik ansambllarining tuman, viloyat va respublika ko'rik-tanlovlari o'tkazila boshlandi, xususan, 1987, 1991, 1994-yillarda Toshkent shahrida, 1989-yilda Namangan viloyatida va boshqa viloyat va shaharlarda o'tkazildi. 2002-yildan Boysunda YUNESKO dasturi asosida "Boysun bahori" ochiq folklor festivali o'tkaziladi. "Chodir jamol" ("Marg'ilon"), "Beshqarsak" (Ur-gut), "Chiroqchi chiroqlari" (Chiroqchi), "Momogul" (Qarshi), "Gavhar" (Bek-temir), "Gap-gashtak" (Forish tuma-ni), "Boysun", "Shalola" (Boysun), "Orazibon" (Xiva), "Anor" (Sariosiyo), "Jildi xalak" (Kegeyli), "Dil-kushod navolari" (Xo'jaobod), "Chavqi" (Bulungur), "Mardona" (Vobkent) va boshqa Folklor-etnografik ansambllari mashhur. Ular xalq sayillari, milliy bayram va boshqa tadbirlarda faol qatnashadi. Ko'plari Amerika, Yevropa, Osiyo mamlakatlarida o'tkazilgan tanlov va festivallarda laureat unvoniga sazovor bo'lgan. 1980—90 yillardan boshlab bolalar folklore-etnografik ansambllari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Surxondaryo viloyatida "Quralay", "Gul-guncha" folklore-etnografik ansambllari, Sirdaryo viloyatida "Dilrabo" folklore-etnografik ansambllari va boshqalar shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan eng ilg'or folklore-etnografik ansambllarining tashkil etilishi, ularning shakllanishi, rivojlanishi hamda

ravnaqi bilan bog'liq jarayonlarni bilish, ushbu ma'lumotlarga ega bo'lish soha mutaxassisini yetuk kadr bo'lib yetishishida alohida ahamiyatga egadir. XX asrning 20-yillarida Muhiddin Qoriyoqubov hamda Tamaraxonimlarning tashabbusi va boshchiligida ilk etnografik ansambl yani "Ko'k ko'ylak" ansambli tuziladi. Bu esa folklore-etnografik ansamblning ilk ko'rinishi edi. Ansamblning "Ko'k ko'ylak" deb nomlanishi esa jamoa a'zolari liboslari ko'k rangda bo'lganligi sabab etib ko'rsatilgan edi. 50-yillarga kelib esa Urgut shahrida erkaklardan tashkil topgan "Beshqarsak" folklore jamoasi o'zining ishtirokchilari hamda repertuarida jamlangan qo'shiqlariga ko'ra rosmana hozirgi folklore-etnografik ansambllar ko'rinishini olgandi. Turg'unlik davri deya e'tirof etiladigan 60-70-yillarda esa folklore-etnografik ansambllarining rivojlanishi sust bo'ldi. 80- yillaridan boshlab respublikamizning barcha viloyatlarida folklore-etnografik ansambllar gurkirab o'sa boshladi. Joylardagi faoliyat yuritayotgan ilg'or madaniyat xodimlari bo'lgan xonandalar, sozandalar, raqqosalarga uslubiy va amaliyyordam berish uchun poytaxtdan malakali mutaxassislar, bastakorlar, baletmeysterlar taklif qilindi. Ular yangi jamoalarni tashkil etishda va repertuarlarini boyitishda o'z xissalarini qo'shdilar. Ular orasida Tamara Toshboyeva, Saodat Yo'ldoshevalarni alohida takidlash lozim. Ushbu fidoyi insonlar say-harakati bilan joylarda bir nechta folklore-etnografik ansambllar tashkil etildi. Bu o'rinda folklore san'atining eng yaxshi an'alarini ko'z qorachig'iday asrashdek sharafli, ezguva o'ta ma'suliyatli sohada uzoq yillar mehnat qilgan iqtidorli olimalarimizda biri Saodat Nazirovna Yo'ldoshevaning xizmatlarini alohida takidlash lozim bo'ladi. Olima har bir jamoa o'zi tashkil topgan hudud aholisining maishiy va folklore hayoti, estetik didi, urf-odatlar bilan mahkam bog'liqligini, ularning repertuari anashu hayot tarzini ifodasi yanglig' shakllanganligini tahlillar asosida isbotladi. Olimaning folklore-etnografik jamoalarni tashkil etish, boshqirish va shakllantirish bo'yicha bir qator o'quv qo'llanma, uslubit tavsiyanomalari, maolalari chop etildi.

So'ngi yillarda Toshkent shahri folklor-etnografik ansambllari faoliyati sezilarli o'zgardi. Bir qator folklore-etnografik ansambllari tashkil etildi, ular orasida faol ijodiy faoliyat olib borayotgan oflklor-etnografik ansambllari esa O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan "Xalq havaskorlik jamoasi" unvoniga sazovor bo'lishdi. "Gavhar", "Nodirabegim", "O'zbekoyim", "Hilola", "Buvijonlar", "Durдона" kabi folklore-etnografik ansambllai shular jumlasidandir. Saodat Yo'ldosheva san'atda katta mahorat va tajriba orttirgan sana'tkor, folklore xalq qo'shiqlarining faol targ'ibotchisi, "shuhrat" medali sovrindori Oyxon Yoqubova bilan birgalikda 1988-yil Toshkent shahrida "Gavhar" nomli folklore-etnografik



jamoalar tashkil etadi. Bu esa Toshkent shahridagi ilk folklor-etnografik jamoalar edi. Badiiy jamoalar 8 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar jalb etiladi. Jamoalar katta izlanishlar, tinimsiz mehnat evaziga 100dan ortiq xalq termalari, yallalari, marosim va urf-odatlarini sahnalashtirib tomoshabinlar hukmiga havola etadi. Respublika miqyosida tashkil etilgan bayram sayllarida, ko'rik-tanlov va festivallarda ishtirok etib sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritadi. O'z yurtida shuxrat topgan "Gavhar" folklor-etnografik jamoasi qiziqarli, xalqchil ijodi chet ellarda ham o'z san'atsevarlariga ega bo'lgan. Badiiy jamoalar Amerika, Italiya, Turkiya, Hindiston kabi xorijiy davlatlarda bo'lib qaytgan. Erishilgan muvaffaqiyatlar, ko'rsatilgan xizmatlari evaziga jamoalar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan 2000-yilda "Xalq havaskorlik jamoasi" unvoni berilgan. "Gavhar" folklor-etnografik xalq havaskorlik ansambli repertuarida "Kelin salom", "Beshik to'yi", "Nikoh to'yi", "Navro'z sayli" kabi marosim qo'shiqlari, "Aka chekmang", "Sochpopuk", "Abdullajon" kabi lapar va aytishuvlar keng o'rin olgan. Xalq og'zaki ijodining chinakam jonkuyari Oyxon Yoqubova boshqalarning hayoliga kelmaydigan ajoyib mavzularni topgan. Ammo achinarli tomoni jamoalar muntazam faoliyat olib bormaganligi uchun 2017-yilda ijodiy sinovdan o'ta olmagan va jamoalar unvoni va shartlari bekor etilgan.

Toshkent shahridagi yana bir fidoiy insonlar tashabbusi va boshchiligida tashkil etilgan ansambllardan biri "Nodirabegim" folklor-etnografik ansambli edi. Ansamblni tashkil etib, shakllantirishda jonbozlik ko'rsatgan fidoiy san'atkorlardan biri O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Rayxon To'rayeva hisoblanadi. 1995-yil Toshkent shahar Tolibjon Sodiqov nomidagi markaziy madaniyat markazi (Hozirgi Toshkent markaziy madaniyat markazi) qoshida "Nodirabegim" folklor-etnografik ansamblini tashkil etadi va jamoalar rahbarlik qiladi. "Nodirabegim" folklor-etnografik ansambli zamon ruhiga mos udum, marosimlarida Navro'zni, ona yurtni madh etuvchi qo'shiqlar bamisoli daryoday jo'shib kuylanadi. Bu esa chechan ijrochilarning ona yurtga uning qadriyatlariga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtiromning namunasi. Jamoaning fidoiy xizmatlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan munosib baholanib, "Nodirabegim" folklor-etnografik ansambliga "Xalq havaskorlik jamoasi" unvoni berilgan. Bugungi kunda "Nodirabegim" folklor-etnografik ansambli Toshkent shahridagi eng yetakchi jamoalardan biri hisoblanadi. Hozirda ansambлга ustoz san'atkor Rayxon To'rayevaning sevimli shogirtlaridan biri Ma'mura Avazova rahbarlik qilib kelmoqda.

## **XULOSA**

Xulosa sifatida shuni bayon etishimiz mumkin bo'ladiki, o'zbek folklorshunosligi o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga qadam tashlab, odimlab bormoqda. Dastlabki qadamlarini xalq ijodini aniqlash va ularning repertuarini yozib olish, turli janrlarni tadqiq etishdan boshlagan folklorshunosligimiz filologik yo'nalishdagi mustaqil fan tarmog'i sifatida shakllanish barobarida xalqimizning betakror ijodini dunyo miqyosida tanitishga ham erishdi. Mana shu davrda xalq dostonlari, ertak va maqollari, topishmoq va latifalari, afsona va naqlari, qo'shiq va og'zaki drama janrlari, marosim folkloriga aloqador ko'plab janrlar tadqiq etildi. An'analar xalqimizning o'zi kabi umrboqiy, qalbi misol mehrdaryo va jonbaxshdir. Yurtimizning har bir go'shasidagi o'ziga xos marosimlar, oilaviymaishiy va mehnat bilan bog'liq an'analari, momolarning mehr bulog'idan qaynab chiqqan orombaxsh alla-yu, olqishlar mavjud.

O'zbekiston xalqlarining tarix sinovidan o'tgan bayram marosimlari kishilarning o'zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarni, chinakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarni aks yettiradi. Bugungi kunda folklor san'atining serjilo chamanlari gurkirab rivojlanib, xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, ma'naviy dunyosi kundan-kunga boyib bormoqda. Milliy ruh, milliy g'urning tiklanishi bu rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan tabiiy jarayondir. Milliy folklor san'ati an'alarini rivojlantirib, ularni yosh avlod turmush tarziga singdirib borish shu jarayonning muhim qirrasidir. Hozirda mavjud folklor-etnografik ansambllari xalq qalbining oynasi sanalmish xalq ijodiyoti namunalari, turfa xil marosim, an'analari orqali milliy qadriyatimiz, qadimiy an'ana va marosimlarimizni tiklab, rasm-rusm va udumlarimizni o'z dasturlarida namoyish yetish, kelajak avlodga qoldirish uchun harakat qilmoqdalar.

## **REFERENCES**

1. Masharipova Gulbahor Tairjanovna and Panjiyev Qurbonniyoz Berdiyevich. Methodology Of Using The Activities Of Folklore-Ethnographic Ensembles. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR);
2. T.Ismailov; "CHARACTERISTICS OF KHOREZM DOSTON ART" "Экономика и социум" №3(82) 2021;
3. Tohir Xushnodbek o'g'li Ismailov "USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS" Science and Education ISSUE 3, March 2022;

- 
4. T.Kh.Ismailov; “Musical currents and the formation of Russian classical music” “Вестник магистратуры” 2021. №5 (116);
  5. Masharipova, G. T. (2021). THE IMPORTANCE OF FOLKLORE MUSIC IN MUSIC CULTURE LESSONS. *Экономика и социум*, (2-1), 214-216.
  6. Ibragimov, B. M. (2022). MUSIQA MADANIYATI FANINI O‘QITISHDA KOMPYUTER DASTURLARINI QO‘LLASH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 151-157.
  7. Panjiyev Qurbonniyoz Berdiyevich. Uzbek Family Ceremony Music and Its Description of Genre. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)*

## **O‘QUVCHILARDAGI KITOBXONLIK MADANIYATI ORQALI ALTRUISTIK MOTIVLARNI RIVOJLANTIRISH**

**Muxammadeva Xadicha Karomatovna**

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti  
Boshlang‘ich ta‘lim pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

**Nurmuratova Iroda**

**Tulaganova Sevara**

**Jumaniyazova Maxsuda**

Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 207-gurux  
talabalari  
(tel.90176-04-14)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada “kitobning – beminnat ustoz” ekanligini hisobga olib o‘quvchilarda altruistik xulq motivlarini shakllantirishda kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatining o‘rnidan foydalanishning samaradorlik jihatlari tahlil qilib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** kitob, kitobxonlik, altruizm, axloqiy dunyoqarash, o‘quvchi yoshlar.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье анализируется эффективность использования места чтения книг и культуры чтения при формировании альтруистических мотивов у студентов, учитывая, что «книга является бескорыстным учителем».*

***Ключевые слова:** книги, чтение, альтруизм, нравственное мировоззрение, студенческая молодежь.*

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the effectiveness of the use of book reading and reading culture in the formation of altruistic behavioral motives in students, given that "the book is a grateful teacher."*

***Key words:** book, reading, altruism, moral worldview, student youth.*

### **KIRISH**

Yoshlarning axloqiy rivojlanishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga O‘zbekistonda katta e‘tibor qaratilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan mamlakatimizni rivojlantirish va uning mustaqilligini mustahkamlashning strategik vazifalarida ma‘nan yetuk, barkamol avlodni va

raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko'rsata oladigan ko'ngilli, milliy g'urur xissi ustun bo'lgan yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan.

Bu vazifalarni amalga oshirishda "biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz" va o'sib kelayotgan yosh avlodni Sharqona tarbiya asosiga qurilgan umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat oldiga ulkan mas'uliyat yuklamoqda. Mazkur belgilangan vazifalarni hal etishda esa albatta, maktab ta'limining o'rni beqiyosdir.

Dalbatimiz rahbari bu borada maktab o'qituvchilarining oldiga o'quvchilarda milliy xususiyatlardan bo'lmish kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasiga urg'u bermoqdalar. Ma'naviy jasorat sohibi deb ardoqlangan atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov dunyodagi yetti mo''jizaga ta'rif berib "...yetti mo''jiza inson aqlining, tafakkurining, qalbining otashin madhiyasi, inson dahosining ulug'ligiga qo'yilgan mangu obida bo'lib kelmoqda. Biroq, shunday bo'lsa-da, olamda yana bir mo''jiza borki, uning buyukligi, muqaddasligi yetti mo''jizaning jamiki ulug'vorligi, go'zalligidan kamlik qilmaydi. Bu mo''jiza – kitob. Kitobning mo''jiza, mo''jiza bo'lganda ham birinchi mo''jiza ekanligini ko'pgina buyuk odamlar qayd qilgan", – deb yozadi. Jumladan, yozuvchi va dramaturg C.Sveyg "Qaerdaki kitob bor ekan, u yerda odam o'zi bilan o'zi uzlatda, o'z ko'lami doirasida qolib ketmaydi, u o'tmish va bugungi kunning barcha olamshumul yutuqlariga, butun insoniyatning fikr va tuyg'ulariga oshno bo'ladi", – deb yozadi. Yozuvchi va faylasuf J.Svift "Kitoblar aql farzandlaridir" desa, pedagog va yozuvchi Y.Komenskiy "Kitoblar donishmandlikni yoyish qurolidir", – deydi, faylasuf va tarixchi F.Bekon esa "Kitoblar zamon to'lqinlarida suzuvchi va o'zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalaridir", – deb yozadi. Ana shu tariqa buyuk allomalar, donishmandlar va yozuvchiyu olimlar kitobning mo''jizaga, nurga, tafakkur quvvati va ustuniga, mangulik va ma'naviyat timsoliga, bilim manbaiga, sodiq do'stga, davr ko'zgisiga o'xshatganlar. Eng muhimi, kitob jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashda yengilmas kuchdir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, "Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Bilim – aql chirog'i", "Go'zallik – ilmu ma'rifatda". Bunday hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli

va albatta baxtli bo‘lishining muhim omili – bu kitobga do‘st bo‘lish va kitob o‘qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o‘rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Kitoblarda yashirin ezgulik motivlaridan biri altruizmdir.

Altruizm tushunchasi lotincha “alter” – “boshqalar” so‘zidan olingan bo‘lib, fransuz faylasufi O.Kont tomonidan egoizmga qarama-qarshi atama sifatida fanga kiritgan. Altruizm – bu o‘zga insonlar manfaati yo‘lida ularga beg‘araz g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga qaratilgan faollikdir.

Altruizm motivlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar barcha fan sohalari doirasida uch yo‘nalishda olib borilgan. Bular: a) Dj.Rayt qarashlariga asoslangan axloqiy xulq mezoni sifatida o‘rganuvchi yo‘nalish; b) L.Kolberg va T.Laykon tadqiqotlariga asoslangan shaxs taraqqiyotining eng oliy namunasi sifatida tadqiq etuvchi yo‘nalish; v) Sharq allomalari, faylasuflarning g‘oyalariga asoslangan komil inson xususiyatlari yo‘nalishidagi tadqiqotlar. Zero, mazkur yo‘nalishlarning barchasida altruizm shaxs akmeologik rivojlanishining yuqori cho‘qqisi sifatida ko‘rib chiqilgan.

Mazkur akmeologik rivojlanishning yuqori cho‘qqisiga kitobxonlik madaniyati orqali ham erishish mumkin. Masalan, xalqimizning milliyligi ufurib turgan J.Rumiyning “Oqibat tuproq bo‘lurmiz: “Masnaviyi ma’naviy” hikmatlaridan”, A.Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Xamsa”, A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, T.Malikning “Odamiylik mulki”, Oybekning “Navoiy” asarlarini, “To‘maris”, “Shiroq” afsonalini oladigan bo‘lsak, ularning barchasida altruizm g‘oyalarini targ‘ib qilingan obrazlarni uchratishimiz mumkin.

Sharq allomalari o‘zlarining nodir asarlari ila dunyo taraqqiyotiga ulkan xissa qo‘shishgan. Shu boisdan, ularning asarlarini mutoala qilsak, barcha sohaga oid pedagogik-psixologik qarashlarga to‘qnash kelamiz. Shu jumladan, altruizm motivlarini futuvvat ilmi negizida tizimli yoritilganligini guvohi bo‘lshimiz mumkin. Sharqning buyuk allomalaridan biri Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini mutoala qilsangiz altristik xulqning sharqona tavsifini ko‘ramiz: “Saxiylik kishilik bog‘ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir; odamgarchilik o‘lkasining to‘lqini, daryosi, balki u to‘lqin daryosining asl gavharidir.

Yaxshilik, karam – bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko‘tarmoq va o‘sha qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Karam birovning mashaqqat tikani og‘irligini ko‘tarmoq va tikan uchidan guldek ochilmoq va o‘sha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, og‘ziga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslik.

Muruvvat karamning urug‘-avlodi, egizak qarindoshi, kimki bu hislatlarga ega bo‘lsa, izzat va hurmatga sazovor bo‘ladi”.

Bunday tavsiflar Forobiy, Beruniy, Rumi, Koshifiy, A.Avloniy asarlarida ham keng uchraydi. Mazkur manbalarni o‘qish, o‘rganish orqali o‘quvchilarda nafaqat altruistik motivlarni, balki milliy g‘urur, iftixor, vatanparvarlik tuyg‘ularini ham shakllantirish mumkin.

Altruizm motivlariga asoslangan xulq g‘oyalari jadid adabiyoti qarashlarida ham aks etgan. Jumladan, A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi Yusufbek xoji obrazini olsak. Asar muallifining o‘zi Yusufbek xojiga “... xalq, el-yurt manfaatini o‘ylaydigan fidoyi shaxs”, deb ta’rif beradi.

Mazkur obraz orqali A.Qodiriy millatning birdamligi, Vatanning yaxlitligi uchun kurashishni hayotining ma’nosi deb bilgan; qarindosh-urug‘chilik, tanish-bilishchilik, mahalliychilik qilib o‘zaro nizolashib yurgan maydakashlarni katta ishlarga undab, agar vaziyat shu holda davom etsa; millatning xarob bo‘lishini, yurt tuprog‘ining bosqinchilar oyog‘i ostida xor bo‘lishini bashorat qilgan buyuk siymoni tasvirlab beradi. Bu “millat fidoyisining” xulq-atvori negizida altruistik motivlar yashiringanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Chunki, mazkur obrazning axloqiy dunyoqarashida shaxsiy manfaatlardanda yuqoriroq qadriyatlar ustun ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Yana bir semivli yozuvchimiz O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasini olsak. Hikoya o‘quvchilarda urushning nafaqat front maydonlarida, balki har bir qishloqda, har bir xonadonda kechgani, urush qurbonlari esa har bir oilada topilgani haqida tasavvurlarni shakllantiradi.

Shu bilan bir qatorda asar qahramoni Shoikrom urushga bormagan bo‘lsa-da, uning dahshatini, achchig‘ini o‘z uyida turib totishiga to‘g‘ri kelganligi bayon qilingan.

Oilasi koriga yarab turgan birgina sigiri o‘g‘irlab ketilgan, ukasi og‘ir betob bo‘lib to‘shakka mixlanib yotibdi, bu ham yetmagandek, bolalarining so‘nggi rizqi – hovli chetidagi bir hovuch qulupnayga ham o‘g‘ri oralagan. Yetishmovchilik va xudbinona harakteri Shoikromni qaltis qaror qabul qilishga majbur qiladi. Shoikromning xudbinligi ayanchli holatni keltirib chiqaradi.

Asar qaxramoning ayanchli taqdiri orqali o‘quvchilarda o‘z muammolariga o‘ralib yashash oqibatida atrofidagi yaqinlarining holidan xabar olmaslik, ularga yordam bermaslik qanday natijalarga olib kelishi targ‘ib qilinadi. Adib hikoyadagi voqealar syujeti orqali o‘quvchilarni hudbinlikdan qochib, altruist bo‘lishga, yaqinlariga himmatli bo‘lishga undaydi.

## **XULOSA**

Umuman olganda yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak:

- O'quvchilardagi kitobxonlik madaniyati ularning ma'naviy dunyoqarishi, axloqiy ongining oshishiga xizmat qiladi;
- Sharq allomalari asarlari, afsonalardagi futuvvat ilmi negizida altruistik motivlarning namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin;
- Altruizm o'zgalarga beg'araz yordam ko'rsatishga asoslangan milliy xususiyatlardan biridir;
- Maktablarda murabbiylik soatlarida baddiy asar mutoalasini targ'ib qilish orqali o'quvchilarda altruistik xulq motivlarini shakllantirish mumkin.

## **REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston 2017. B.48.
2. Кравченко С. Предвосхищение. Том 2. Словарь с комментариями. М.: ЛитРес, 2018. 465 с.
3. Navoiy A.«Mahbub ul-qulub» Asarlar 15 tomli. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1966, 13-tom. - 92-95 b.
4. Psixologiya fanidan izohli lug'at / M.G.Davletshin tahriri ostida -T.: TDPU. 1992, - 6 b.
5. Xoshimov O'. "Urushning so'nggi qurboni" hikoya. – T.: Ziyo nashri. 2019.160 b.
6. Qodiriy A. "O'tkan kunlar" roman. – T.: Sharq nashriyoti. 2014. 400 b



## **ERROR CORRECTION IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES**

**Majidova Gulrukh Kamaridinovna**

Jizzakh State Pedagogical Institute

[gulruxmajidova199@gmail.com](mailto:gulruxmajidova199@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*While learning foreign languages, correcting errors has already been considered to be one of the curtail aspect of teaching processes. But in fact, many teachers do not know much about error analysis and some related theories. They often have so negative perception toward errors made by their students that they could not tolerate any errors and they are willing to correct them as soon as they could encounter any. Consequently, although it seems for them to have been working hard enough and spend much time and energy working on correcting errors, their efforts in correcting errors is not effective and the students do not believe they have benefited a lot. On the other hand, the students often feel discouraged, as they have thought that there is a great gap between themselves and their teachers in dealing with errors and understanding of correcting errors. As it is necessary to have an understanding of dealing with errors in the article the development of the theory related to the concept would be briefly reviewed.*

**Keywords:** *error correction, Contrastive analysis, interlanguage, intralanguage, structural behavioristic school, transformational generative grammarians, Error analysis.*

### **АННОТАЦИЯ**

*При изучении иностранных языков исправление ошибок уже считается одним из второстепенных аспектов учебного процесса. Но на самом деле многие учителя мало что знают об анализе ошибок и некоторых связанных с ним теориях. Они часто настолько негативно относятся к ошибкам своих учеников, что не могут терпеть никаких ошибок и готовы исправлять их, как только обнаруживают их. Следовательно, хотя кажется, что они достаточно усердно работали и тратили много времени и энергии на исправление ошибок, их усилия по исправлению ошибок неэффективны, и студенты не верят, что они принесли большую пользу. С другой стороны, учащиеся часто чувствуют себя обескураженными, так как считают, что существует большой разрыв между ними и их учителями в том, как справляться с ошибками и понимать, как их исправлять. Поскольку*

*необходимо иметь представление о том, как работать с ошибками в статье, будет кратко рассмотрено развитие теории, связанной с концепцией.*

***Ключевые слова:** исправление ошибок, контрастный анализ, интеръязык, внутриязык, структурно-бихевиористская школа, трансформационно-генеративные грамматики, анализ ошибок.*

## **INTRODUCTION**

So as to analyze the errors made by the learners in a proper way, it is essential to distinguish “mistake” and “error”. Brown (2000), states that a “mistake” is closely connected to a performance error in that the students fail to utilize the bits of the language correctly that they have already learnt. While, an “error” refers that the learners deviate from the adult grammar of a native speaker which reflects the interlanguage competence of the learner. This accepted process is followed by the process of describing errors. Learners’ sentences are compared with the correct sentences in second language, and here errors can be found. Then the route is taken the next step—where the teacher explains the errors finding their sources of. A great deal of interlingual transfer from the native language is an inevitable characteristic feature which can be found in the early stages of learning the target language. In the early stages, the only linguistic system by which the learner can draw their understanding is their native language. These kinds of errors can be seen in all aspects of language learning. Intralingual transfer (within the target language itself) is also a significant factor. At an intermediate level, learners’ early experience and existing knowledge begin to impact on the structures within the target language itself. Most frequently, deviated intralingual transfer or overgeneralization can be seen and these kinds of errors are considered developmental errors. It is found that overgeneralization arises significant necessity to study the psychological process of language learners.

## **DISCUSSION AND RESULTS**

Correcting errors is considered to be a kind of feedback that the teacher gives on the language use of the students. It is undeniable that mistakes made by students while they are speaking or writing tend to be one of the most challenging tasks in teaching languages. So, it is pivotal for every teacher and instructor to consider the following issues with regard of error correction such as;

- the distinction between a mistake and error
- to what extend the teacher should deal with correction
- at what stages the teacher should correct the mistake

•how the teacher can cope with error correction without discouraging the students

Here, the thing one should focus on is that whether the language being learnt is first language or second language. The teacher should consider what happens in human's mind in the process of learning languages. With regard of that issue, two concepts have been differentiated by the American linguist Krashen (1987), who precisely distinguished between: first language acquisition and second language learning. Various schools appeared in linguistics and psycholinguistics who aimed at analyzing errors made by learners and to find the reasons. The schools among which structural behavioristic school and transformational generative grammarians should be mentioned. Behavioral scientists believe that the source of almost all learning failures can be identified if teachers analyze both the *internal conditions* (prerequisite skills) and the *external conditions* (instructional events) of learning. For example, if one of your learners can't seem to master writing a short paragraph, is it because he hasn't learned how to make up sentences? If he is having difficulty learning in writing, has he learned the bits of language such as subject, verb, object, attribute and adverbial modifier of time, place or tenses? If he hasn't learned parts of speech, can he make up sentence? At no point would the behavioral scientist conclude that the learner lacks ability or intelligence. If the teacher analyzes and probes deeply enough, eventually she can identify the source of the problem and teach or reteach the skills necessary for learning to continue.

Contrastive analysis (CA) and error analysis (EA) have been considered as the two main cornerstones in the domain of second and foreign language learning. In general, as Keshavarz (1999, p. 11) claimed, "...there have been two major approaches to the study of learners' errors, namely Contrastive Analysis and Error Analysis." He further argued that, "Error Analysis appeared with regard of demerits of Contrastive analysis which was widely approved way of describing learners' language in the 1950s and 1960s.

With regard of contrastive analysis it was explained by Paul Lennon that it is possible to define where the difficulty is in a particular foreign language which will be presented for native speakers of another language by systematically comparing the two languages and cultures. If the two languages and cultures are similar, difficulties in learning will not be expected, if they are different, then learning difficulties are to be expected, and the greater the difference are, the greater the degree of expected difficulty is. According to such analysis, it was believed, teaching materials could be tailored to meet the needs of learners of a specific first language

The process in Contrastive analysis involves the comparison of learners' mother tongue and the language being learnt. Based on those similarities or differences between two languages, assumptions were made on errors that learners would be likely or disposed to make as a result (Kim, 2001). In contrast Constructive Analysis which involves to describe differences and similarities of L1 and L2, James (1998 cited in Kim, 2001) claimed that, Error analysis aims at describing learners' interlanguage (i.e. learners' version of the target language) independently and objectively. He argued that what stands out in Error analysis is that is that the native language is not supposed to be mentioned for comparison. The aim of

Error Analysis is, in fact, to find " what the learner have acquired and have not" and to " ultimately makes the teacher to provide them not just with the information that their hypothesis is wrong, but also, vitally, with the right sort of information or instruction for them to form a more adequate concept of a rule in the target language" (Corder, 1974, p. 170).

Errors made by learners can be categorized onto two groups. According to Burt (1975) there are two distinctive categories of errors such as "global" and "local" errors. Global errors distract communication and they are hinders for the learner to understand some aspects of the message given by the interlocutor. On the other hand, only a single element of a sentence can be affected by local errors, but do not disturb a message from being comprehensible. In terms of Hendrickson' perspective (1980), It is necessary to correct global errors and they are generally held true. However, the expressions such as "a news", or "an advice" are systematic errors, and they have to be corrected. In dealing with pre-systematic errors, teachers can just give the form that is considered to be correct. With regard of systematic errors, as learners have already acquired the linguistic competence, they can understand their errors and make correction themselves. So what the teachers should do is just to remind them when and where they make such errors. So as far as considering what kind of errors should be corrected, it requires teachers' intuition and understanding of errors.

As far as error correction is concerned, the most argumentative issue is to correct them as soon as possible or to put off later. First, there is a concern with a dilemma—fluency versus accuracy. In communication, delayed correction is usually suggested otherwise the speakers can not concentrate their ideas. Some advanced students think that errors correction should be done considering determined type of errors committed. For instance, if they have pronunciation or grammatical errors, immediate correction is preferable, while within post-correction learners can not remember anything. Moreover, the overall situational context in the classroom should

not be underestimated. When the whole class knows a word, but only one of them may not be familiar with that word and needs to be corrected, he or she would feel awkward. So, it is complicated to decide when to correct the mistakes of the students. So it is concluded that both the teachers' intuition and the feedback from the students are equally important in correcting mistakes.

With regard of ways of correcting mistakes according to James (1998), it is advisable to follow the three principles while correcting errors. Firstly, the techniques employed in error correction would be able to improve the students' accuracy in their expression. Secondly, the students' reaction toward error correction should be taken into consideration and the face-threatening act should be avoided while correcting. It is believed that teachers' indirect correction is highly appreciated and suggested. Students are encouraged to do self-correction in heuristic method or presented the correct form, so that students couldn't feel embarrassed.

Compare the two situations:

(1) Student: "Where located the hospital?"

Teacher: "No, listen, Where is the hospital located?"

(2) Student: "Where located the hospital?"

Teacher: "Where is the hospital located? Well, it is difficult to explain, but it means..."

It is obviously seen that teacher's remodeling in (2) is more natural and sensible than the direct interruption in (1) that achieve both leading the student to produce accurate language units and prevent face-threatening act.

## **CONCLUSION**

In conclusion, it is curtail to state that teachers should get an overall knowledge about the students' errors. In the process of learning foreign languages trial and error occurrence is inevitable. So the teachers are suggested that they should learn to tolerate some errors, especially when they are local errors. Moreover the teachers can be informed though the errors how far the learners has progressed toward their learning goal and consequently, what there is for him or her to learn. So students' errors are valuable guidance for the teachers by which some remedial teaching can be organized based on their errors. Learning involves the process in which success is achieved by taking advantage of mistakes and by using the mistakes and obtaining feedback from the teachers and the students the learners can fill the gaps in their knowledge.

## **REFERENCE**

1. XIE Fang, JIANG Xue-mei. 2007. Error analysis and the EFL classroom teaching.
2. Brown, H. D. (2000). Principles of language learning and teaching. Longman, Inc.
3. Burt, M. K. (1975). Error analysis in the adult EFL classroom. TESOL Quarterly, 9: 53-63.
4. Paul Lennon. 2008. Contrastive Analysis, Error Analysis, Interlanguage.
5. Jame, C. (1998). Errors in language learning and use. Addison Wesley Longman Limited.

---

## **KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA KOMPLAENS NAZORAT TIZIMINING O'RNI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI: XORIJIY TAJRIBASI MISOLIDA**

**Maxsutaliyev Davlatali Muxtorali o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti  
“Madad” nodavlat notijorat tashkilotining  
Uchtepa tumani hududiy byurosi bosh mutaxassisi  
e-mail: [davlatalimaxsutaliyev@gmail.com](mailto:davlatalimaxsutaliyev@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida mamkakatimizda yangi va samarali tizim hisoblangan komplaynes nazorat tizimining ahamiyati, vujudga kelish omillari, uning shakllanishi va xorijiy davlatlar qonunchiliklari asosida ushbu tizimning o'ziga xos jihatlarning tahlili aks ettiriladi.*

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, komplaynes, komplaynes nazorati, shakllanish tarixi, “AQSh modeli”, AQShning SOX va FCPA qonunlari, korporatsiya, kontragent, korrupsiyaviy nizolar.

## **РОЛЬ И СПЕЦИФИКА СИСТЕМЫ КОМПЛАЕНС-КОНТРОЛЯ В БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ: НА ПРИМЕРЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА**

**Махсуталиев Давлатали Мухторали ўғли**

магистрант Ташкентского государственного  
юридического университета а также  
“Мадад” НПО главный специалист  
Учтепинского районного территориального бюро  
e-mail: [davlatalimaxsutaliyev@gmail.com](mailto:davlatalimaxsutaliyev@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются вопросы о роли и значении современной системы службы комплаенс контроля в сфере противодействия коррупции, её истории развития и преимуществах законодательства законодательство зарубежных страны по комплаенс-контролю.*

**Ключевые слова:** коррупция, коррупционное правонарушение, комплаенс, комплаенс контрол, история формирования, развитие служба законы США SOX и FCPA, "модель США", корпорация, контрагенты, коррупционные скандалы.

## **THE ROLE AND SPECIFICS OF THE COMPLIANCE CONTROL SYSTEM IN THE FIGHT AGAINST CORRUPTION: ON THE EXAMPLE OF FOREIGN EXPERIENCE**

**Makhsutaliyev Davlatali Mukhtorali ugli**

master student of Tashkent State University of law and  
Madad NGO chief specialist of Uchtepa district territorial bureau

### **ABSTRACT**

*The article examines the role and the effect of modern compliance control systems as a corruption control tool, its development and the advantages of the foreign countries legislation in terms of compliance control.*

**Keywords:** *corruption, corruption offense, compliance, compliance control service, history of formation, “USA model”, USA SOX and FCPA legal acts, corporation, sounterparty, corruption scandals.*

### **KIRISH**

O'zbekistonning yangilangan siyosati jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini oliy darajaga ko'tarish, zamonaviy samarali davlat boshqaruvini joriy etish, davlat xizmatida korrupsiyaviy holatlarning har qanday ko'rinishlariga qat'iy murossasizlik madaniyatini shakllantirishda yuksak g'oyalarga tayanmoqda. Avvalo, ushbu islohotlarning tub zamirida Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan tamoyiliga muvofiq barcha imkoniyatlar xalqimiz manfaatlarini yo'lida safarbar etilishi ustuvor vazifa etib belgilanmoqda. Shu o'rinda islohotlarning chinakam natijadorligiga erishish maqsadida davlat va jamiyatning har bir sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini izchil ta'minlab borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Ma'lumki, bu illatning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan.



Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko‘rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo‘l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo‘q. Shunday ekan, har bir millat mazkur illatga qarshi kurashish strategiyasini o‘zi belgilaydi.

Shulardan kelib chiqib, 2017 yil 3 yanvar kuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi.

Bundan tashqari qonunda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga doir tushunchalarga ta‘rif berilgan bo‘lib, ya‘ni korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini, yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir[1].

Mazkur Qonun o‘z navbatida, fuqarolarga korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning nima ekanligi va ularning salbiy illatlari haqida ma‘lumot beradi. O‘z navbatida **korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** - korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmishdir[2].

Bundan tashqari, hozirgi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ijobiy yutuqlarga erishgan rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, korrupsiya ko‘rinishlarining oqibati bilan emas, balki uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga asosiy e‘tibor qaratilgan va bu o‘z samarasini berganini amalda ko‘rib turibmiz. Xalqaro tajribada bu kabi profilaktik vositalardan biri korrupsiyaga qarshi muvofiqlik “komplaynes-nazorat” tizimi deb nom oladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko‘rsatdiki, bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning qonun hujjatlari va belgilangan standartlarga muvofiq faoliyat yuritishini ta‘minlovchi samarali tizimlardan biri sifatida korrupsiyaga qarshi kurashishda komplaynes nazorat tizimi hisoblanadi. “**Komplaynes**” tushunchasi (ingliz. compliance-muvofiqlik) qonunda o‘rnatilgan talab va qoidalarga muvofiq harakat qilish ma‘nolarini anglatadi. “Komplaynes nazorat” deb esa kompaniyaning belgilangan talab va qoidalarga muvofiq o‘z faoliyatini tashkil etishdan iborat bo‘lgan xizmat hisoblanadi [3]. Boshqacha qilib

aytganda rozilik, muvofiqlik va aniq belgilangan qoida, standart hamda ko'rsatmalarga muvofiq faoliyat yuritish degan ma'nolarni anglatadi.

Xalqaro tajribada komplaynes nazorat tizimining bir necha asosiy shakllari mavjud:

- tibbiyot, ta'lim
- davlat fuqarolik xizmatlari;
- bank va bojhona sohalari;
- monopoliya va korrupsiyaga qarshi kurashish;
- tadbirkorlik kabi sohalarda joriy etiladigan komplaynes- nazorat hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, korrupsiyaga qarshi komplaynes-nazorat tizimi - davlat organlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, banklar va xususiy sektor faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilishini ta'minlovchi, korrupsiya xavf xatarlari va manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash hamda ularga chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish kabi qator profilaktik choralarni o'zida mujassam etgan samarali tizimdir

“Komplaynes-nazorat” tizimi vujudga kelishining dastlabki asoslari 1884 yilda Germaniyada “Baxtsiz hodisalarning oldini olish va sug'urtalash assotsiyasi”ning (**Accident Prevention & Insurance Association**) tashkil etilishi bilan bog'liq.

Lekin, ushbu tizim rasman AQSH davlatida joriy etilgan. Ushbu tizim dastlab, 1906 yilda AQShda oziq-ovqat mahsulotlari va dori vositalarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalar faoliyatini nazorat qilish federal xizmatining (FDA, Food and Drug Administration) tashkil etilishi natijasida vujudga kelgan.

Mamlakat iqtisodiyotida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kompaniya va korporatsiyalarning tashkil etilishi ular faoliyatida korrupsiyaga qarshi profilaktik choralar joriy etishni zaruriyatga aylantirdi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan bugungi kungacha Volkswagen, Daimler, Siemens (Germaniya) Odenbrecht, Petrobras (Braziliya), Samsung Group, Hyundai Motor Co. (Koreya Respublikasi), BAE Systems (Buyuk Britaniya), Baker Hughes Inc, Panalpina World Transport (AQSh) va boshqalar kabi yirik kompaniyalar bilan nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishi ular faoliyatidagi korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarning mustahkam emasligi bilan asoslanadi va bu o'z davrida korrupsiyaga qarshi mavjud tizimni tubdan isloh etishni taqozo qildi. Bugungi kunda 100 dan ortiq mamlakatlardagi kompaniyalarda korrupsiyaga qarshi “komplaynes-

nazorat” tizimi joriy etilgan. Shuningdek, korrupsiya holatlarning oldini olish hamda kompaniyalarning (milliy va xorijiy) korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini tartibga solish zaruriyati dunyoda ilk bor AQSh kompaniyalarida so’ngra boshqa ilg’or horijiy mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qoidalar va majburiyatlar tizimini aks ettiradigan komplaynes xizmati paydo bo’ldi. O’z-o’zidan davriy shakllanish natijasida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qoidalar yig’indisi komplaynes nazorat tizimi bosqichma-bosqich yuridik normalar bilan tartibga solina boshlandi.

Xususan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Turkiya, Singapur, Malayziya, Braziliya, Sloveniya, Qozog’iston kabi bir qator xorijiy davlatlarda ushbu tizim korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi asosiy profilaktik choralardan biri hisoblanadi. Mazkur davlatlarda “komplaynes-nazorat” tizimining joriy etilishi, tashkilotlarning faoliyat yo’nalishlariga qarab majburiy ahamiyat kasb etadi.

Masalan, Fransiyada 800 000 yevrodan ortiq kapitalga ega bo’lgan davlat korxonalarida “komplaens-nazorat” tizimi joriy etilgan bo’lishi shart. Buyuk Britaniyaning 1 mlrd. funt sterling kapitali bo’lgan 700 dan ortiq davlat ulushiga ega korxonalarida tashkil etilgan ushbu tizim turli korrupsiya xavflaridan himoya qiluvchi kompleks choralar sifatida qo’llanilmoqda. Shuningdek, aksariyat xorijiy davlatlarda “komplaens-nazorat” tizimi alohida qonun hujjati bilan tartibga solingani ahamiyatga molikdir.

AQSh qonunchiligida mazkur tizimning qonun bilan mustahkamlanishi asosan 1977 yilda “Xorijiy korrupsiyaviy amaliyotlar to’g’risidagi akt” (FCPA-Foreign Corrupt Practices Act, 1977), 2002-yilda qabul qilingan “Sarbeynz-Oksli akti” (Sarbanes-Oxley Act, 2002), hamda “Dodd-frank akti” (Dodd -Frank Act, 2010) [4] singari qonunlarning qabul qilinishi mazkur tizimning rivojlangan AQSh tajribasini qisqa qilib aytganda “AQSh modeli”ni yaratishga xizmat qildi.

Bular natijasida AQSh bozorida ishtirok etuvchi har qanday korporatsiya va kompaniyalar o’z tarkibida “komplaens-nazorat” tizimini joriy etishi va davlat xizmatchilarining axloq kodeksini qabul qilishi shart etib belgilandi.

Bundan tashqari Buyuk Britaniya qonunchiligida ham korrupsiyaga qarshi kurashishda komplaynes nazorat tizimining joriy etilishiga bir qancha sabab va huquqiy asoslar mavjud. Masalan, asosiy antikorrupsiya qonuni 2010 yil 2011 yil 1 iyulda kuchga kirgan “Poraxo’rlik to’g’risida”gi qonun hisoblanadi. Ushbu aktning o’ziga xos xususiyati shundaki, uning qoidalari Britaniya jismoniy va yuridik shaxslariga teng darajada qo’llaniladi va uning ta’siri Buyuk Britaniyadan tashqarida sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan ham qo’llaniladi.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniyadagi korrupsiyaga qarshi faoliyatni tartibga soluvchi baza ham mavjud bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1889 yildagi “Davlat organlarining korrupsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonun;
- Korrupsiyaning oldini olish to'g'risidagi qonun 1906 yil;
- Katta ahamiyatga ega bo'lgan axborotni jamoatchilikka oshkor qilish to'g'risidagi qonun, 1998 yil;
- “Terrorizm, jinoyatchilik va xavfsizlikka qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun, 2001 y.
- Jinoyatdan olingan daromadlar to'g'risidagi qonun 2002 yil

Birlashgan Qirollik 1998 yilda OECDning 1997 yildagi Xalqaro biznes operatsiyalarida xorijiy davlat amaldorlarining poraxo‘rliklariga qarshi kurash to‘g‘risidagi konventsiyasiga qo‘shildi, shuningdek, 2003 yilda BMTning Korrupsiyaga qarshi konventsiyasini imzoladi.

Buyuk Britaniyaning korrupsiyaga qarshi qonunchiligi tarkibida alohida o'rinni deputatlar va davlat xizmatchilarining odo-axloq kodeksi egallaydi. Ushbu hujjatlar majburiy bo'lib, ko'rsatilgan toifadagi shaxslar tomonidan yuqori darajadagi moliyaviy intizom va shaffoflikka rioya qilishlarini anglatadi.

Bundan tashqari Sloveniyada mazkur xizmat faoliyati 2014 yil 26 aprelida qabul qilingan (“Sloveniya davlat xoldingi akti to‘g‘risida”gi) alohida qonun bilan tartibga solinadi. Sloveniya amaliyotida “komplaens-nazorat” xizmatining joriy etilishi davlat sektoriga kadrlarni tanlash jarayonlari maksimal shaffof mexanizmlar asosida o‘tishga imkon bergan va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishning mukammal tizimi yaratilgan. Qonunning o‘ziga xosligi shundaki, unda “komplaens-nazorat” xizmatida kadrlar masalasiga (compliance officer) to‘xtalib o‘tilgan hamda kompaniya ichidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabardor etishga qaratilgan (whistleblowing policy) aniq qoida va tartiblar keltirib o‘tilgan [5].

Shuningdek, “komplaynes-nazorat” tizimining o‘ziga xos xalqaro prinsiplari mavjud bo‘lib, xalqaro-huquqiy hujjatlarda ushbu tizimning aynan mazkur prinsiplariga ahamiyat qaratiladi. Ya’ni:

- shaxsiy namuna (**tone at the top**) - rahbariyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish va bunda jamoaga shaxsan namuna bo‘lishi;
- korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (**zero tolerance to corruption**) - xodimlarda korrupsiyaga nisbatan “0 (nol)” darajadagi murosasizlik madaniyatini shakllantirish;

- ochiqlik va shaffoflik (**oppenes and transparency**) -faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash;
- xabar berish siyosati (**internal and external whistleblowing policy**) - qonun buzilishi, manfaatlar to'qnashuvi hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida habar berish tartibi;
- komplaens dasturi (**compliance program**) - korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini qamrab oluvchi jarayonlar;
- komplaens xodim (**compliance officer**) - tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali yuritish uchun javobgar shaxs;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash (**sompliance risk assessment**) - faoliyatni turli korrupsiyaviy xavf-xatarlardan himoya qilish va ularni baholab borilishini monitoring qilish;
- samaradorlik va malaka oshirish (**sompetence and training**) - xodimlarni korrupsiyaga qarshi madaniyati va bilimni muntazam oshirib borish maqsadida o'qitish;
- tizimli tahlil (**monitoring**) - korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" xizmatining samarali faoliyat yuritib borishini muntazam ravishda baholab, monitoring qilish;
- kontragent (**due diligence**) - uchinchi tomon shaxslarning ishonchligini baholash [6].

"Komplaens-nazorat" tizimini o'zida joriy etgan xorijiy davlatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Xitoy, Sloveniya misolida) tajribasi va xalqaro kompaniyalar amaliyoti asosida Korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimini 3 xil model bo'yicha ajratish mumkin:

- "**ixtisoslashgan korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" xizmati modeli**"da korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimining asosiy vazifasi kompaniyaning faoliyati, va korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini xorijiy davlatlar va tashqi bozor qonunlariga muvofiq tashkil etish hamda kompaniya yoki tashkilotning xalqaro doiradagi imidjini oshirishga qaratilgan bo'ladi;

- "**moslashgan korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" xizmati modeli**"da asosan kompaniya va tashkilotning ichki tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati amalga oshiriladi va muntazam ravishda faoliyatni turli korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish hamda xavf-xatarlarni o'z vaqtida aniqlash kabi ichki profilaktik choralarni tatbiq etishga qaratilgan bo'ladi;

- "**aralash korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" xizmati modeli**"ning vazifasi kompaniya va tashkilotning milliy va xalqaro doiradagi nufuzini saqlash,

korruptsiya holatlari sodir etilishiga qarshi kurashish va bu boradagi faoliyatni milliy qonunchilik hamda o'rnatilgan qoidalarga muvofiq tashkil etishdan iboratdir.

Shu o'rinda mazkur tizimning o'ziga xos jihatlarini Amerika tajribasi misolida ko'rib chiqsak. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek "Xorijda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Akt" (FCPA - Foreign Corrupt Practices Act of 1977) hamda 2002 yilda "Sarbeynz-Oksli to'g'risidagi Akt" (SOX - Sarbanes-Oxley Act of 2002) kabi qonunlarining qabul qilinishi AQSh da komplaynes nazorat tizimining samarali joriy etilishi va rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlarni yaratib berdi. Mazkur qonunlarning tahlili natijasida ularni 2 bosqichga ajratgan holda komplaens tizimi faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq o'ziga xos jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Birinchi bosqich, "Xorijda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Akt"ning qabul qilinishidir. FCPAning asosiy talabi korporatsiya va kompaniyalarning tarkibida komplaens xizmati tashkil etilishi shart etib belgilandi[7]. Bunday talab asosan davlat ishtirokidagi kompaniyalarga taaluqli bo'lib, FCPA o'zida quyidagilarni aks ettirdi:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini o'zida mujassam etgan qat'iy nazorat qoidalari o'rnatildi.

2. Buxgalteriya hisobini yuritish shakllari va moliyaviy hujjatlarga qo'yiladigan talablar joriy yetildi.

3. Kompaniyaning davlat amaldorlari, shu jumladan, xorijiy davlat amaldorlari bilan munosbatga kirishdagi aloqalar bo'yicha qat'iy qoidalar o'rnatildi.

4. Har qanday chet ellik mansabdor shaxsga, shuningdek siyosiy lavozim nomzodiga va siyosiy partiyalarga moddiy yoki nomoddiy naf keltiruvchi har qanday holatlarni yuzaga keltirish, va'da berish yoki taklif etishga qaratilgan korrupsiya holatlarini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Qonun talablari qaysi davlat fuqaroligidan qat'iy nazar har bir jismoniy shaxs va kompaniyalar (milliy va xorijiy) kiradilar. Shu o'rinda xorijiy kompaniyalar faoliyatiga qonun talablari joriy etilishining alohida jihatlarini ko'rsatib o'tadi, ya'ni xorijiy kompaniya AQShda tijoriy faoliyat yuritayotgan bo'lsa, agar kompaniyaning aksiyalari davlat fond birjasida ro'yxatga olingan bo'lsa, shuningdek xorijiy kompaniyalar AQSh korporatsiya yoki kompaniyalari bilan hamkorlik o'rnatgan bo'lsa va ularning nomidan ish olib boradigan bo'lsa [8] qonun talablari ushbu jihatlarini qamrab oladigan har qanday xorijiy kompaniyalarga tadbiiq etilishi ko'rsatib o'tilgan.

Buning davomi sifatida kompaniyalarga korrupsiyaviy xavflarning oldini olishga qaratilgan qoidalar sifatida ichki buxgalteriya hisobini yuritish nazorati va

moliyaviy hisobotlarni boshqarishning samarali tizimini yaratishi bilan bir qatorda o‘z kontragentlari (fuqarolik huquqiy munosabatlarida shartnoma tuzuvchi taraf) bilan hamkorlikni o‘rnatish jarayonida ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishi va bunda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklardan holi bo‘lishini ta‘minlashi lozimligini ko‘rsatadi FCPAda o‘z sheriklarini korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida har tomonlama tekshiruvdan o‘tkazish majburiyatini yuklamaydi, ammo kompaniya xorijiy mansabdor shaxslarga pora berganligi va shu sababli shubhalarmonlik nufuzini saqlab qolish uchun javobgarlikka tortilishining oldini olish katta ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi.

FCPAGA muvofiq kompaniyalar faoliyatida korrupsiyani oldini olishga oid asosiy vositalardan biri aynan buxgalteriya xisobi nazoratining shaffofligi va aniqligini ta‘minlash orqali amalga oshirilishi ko‘rsatilgan. Har bir kompaniya buxgalteriya nazorati tizimini yuritishi majburiydir, bunday hisobotni yuritilishi yozuvlar, hisoblarni qalbakilashtirishga olib kelmasligi belgilangan. Qonunning “Savdo-sotiq va tijorat” nomli o‘n beshinchi bo‘limida “hisobot shakllari; buxgalteriya daftarlari, yozuvlar va boshqaruv hisobi”ning tartibi va ularga qo‘yilgan quyidagi talablar keltirilgan:

(A) kompaniyada amalga oshiriladigan bitimlar va moliyaviy operatsiyalarning hisoblarni aniq, shaffof va adolatli raqamlarida aks ettirib borish muntazamliligini ta‘minlash;

(B) kompaniyalar o‘rtasida shartnoma va bitimlar faqatgina rahbariyatning umumiy yoki maxsus ruxsati bilan amalga oshirish;

(C) bitimlar tuzilishida moliyaviy hisobotlarni tayyorlanishi, buxgalteriya prinsiplariga yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavflarning oldini olishga qaratilishi alohida ahamiyat kasb etadi [9].

Shuningdek, FCPA korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar yuzaga kelishiga qarshi mexanizmlar sifatida ikkita qoidalar guruhini belgilaydi: AQSh birjalarida ro‘yxatga olingan kompaniyalarning (AQSh va xorijiy) buxgalteriya hisoboti taqdim etishning shaffofligi va korrupsiyaga qarshi kurashishga oid o‘rnatilgan talablardir.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan qonun tahlilidan tushunish mumkinki, korporatsiya va kompaniyalar faoliyatida tashkil etiladigan komplaens xizmatlarning asosiy vazifasi aynan kompaniya nufuzini saqlash, milliy va xorijiy kontragentlar bilan munosabatlar jarayonida korrupsiya xavflari, huquqbuzarliklari yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan mukammal mexanizmlarini yaratish orqali namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich, AQShda “Sarbeynz-Oksli to‘g‘risidagi Akt”ning qabul qilinishiga to‘g‘ri keladi. Qonun yirik kompaniyalarning korporativ boshqaruv

tizimidagi chuqur muammolar va ularning insofsiz rahbarlari bilan bog‘liq bir qator korrupsiyaviy nizolarning natijasi hisoblanadi. Ya’ni 2000 yillar boshida Enron, WorldCom Global Crossing kabi korporatsiyalar ishtirokidagi yirik moliyaviy janjallar yuzaga kelishi bilan bog‘liqdir [10]. Bu kabi holatlarning ro‘y berishining asosiy sabablaridan biri sifatida korporatsiyalar ichki tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarining mustahkam emasligi etib belgilandi va ushbu holatlar SOXning qabul qilinishiga olib keldi.

Qonun o‘zida komplaens nazorat xizmatini tashkil etadigan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini kompaniyalar faoliyati bilan kengroq qamrab olinishi orqali “AQSh modeli” ni yanada takomillashtirdi. Qonun kompaniya va tashkilotlarning moliyaviy hisoboti va uni tayyorlash jarayoniga qo‘yiladigan talablarni sezilarli darajada kuchaytiradi, shuningdek, FCPAdan farqli o‘laroq korporativ ahloq kodeksini kompaniyalar tomonidan qabul qilish majburiyati belgilandi va aynan 2002 yildan Nyu-York fond birjasida (New York Stock Exchange, NYSE) [11] qatnashayotgan har qanday kompaniya korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida AQSh qonunlarida shratilgan talablarga bo‘ysunishi hamda o‘zida komplaens nazorat tizimini joriy etish majburiyatlari belgilandi. Qonunning maqsadi sifatida kompaniyalarning korporativ boshqaruv tizimiga ega bo‘lishi, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish va har bir kompaniyada rasmiylashtirilgan audit va balans tizimiga bo‘lgan talabni joriy etish orqali ularda chinakam korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarini shakllantirishdan iborat ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Bu o‘rinda qonunda aks etgan kompaniyalarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talablarning o‘ziga xos jihatlardan kelib chiqqan holda aynan komplaens nazorat tizimini tashkil etilishiga bog‘liq qoidalarni bir necha qismlarga bo‘lib tahlil qilish mumkin bo‘ladi.

SOX komplaens qoidalarining tadbiiq etilish doirasi. Qonun talablari biznes faoliyatini bevosita AQSh fond birjasi orqali amalga oshirayotgan barcha milliy va xorijiy kompaniyalar hamda ularning sho‘ba korxonalariga (**subsidiaru company**) tadbiiq etiladi [12]. SOXning audit tekshiruvi bilan bog‘liq talablari kompaniyalarda auditorlik tekshiruvini yuritadigan buxgalteriya firmalariga tadbiiq etiladi. Xususiy kompaniyalar, xayriya tashkilotlari va notijorat tashkilotlar odatda SOXning buxgalteriya hisobini yuritishga oid ayrim talablarigagina rioya etadilar.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida habardor etuvchilar (**whistleblowers**) himoyasi. SOXning 302-moddasida “moliyaviy hisobot uchun javobgarlik” va 404-moddasi “moliyaviy nazoratni boshqarish va baholash” kabi normalarga muvofiq kompaniya raxbariyati moliyaviy hisobotlarning aniq va shaffof hujjatlashtirilishi



korrupsiyaga qarshi kushashish mexanizmlarining to'g'ri tashkil etilishi komplaens xizmatining samarali faoliyat yuritishi uchun bevosita javobgar ekanligi belgilandi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens tizimini vujudga kelishida hamda ushbu tizimning rivojlanishida asosan AQSh muhim ro'l o'ynaydi. Bundan tashqari mazkur tizimning tartibga soluvchi qonunlar asosida ushbu sohada o'ziga xos "AQSh modeli" vujudga keldi va unga muvofiq komplaens xizmatning o'rni esa aksariyat holatlarda kompaniyalarning xorijiy faoliyat bilan bog'liq jarayonlarda korrupsiyaga qarshi kurashishni o'zida aks ettirgan bir qator profilaktik talablar va qoidalarni tadbiiq etilishida namoyon bo'ladi. Bundan ko'langan asosiy maqsad davlatning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish va jahon hamjamiyatida davlatning mazkur sohadagi o'rnini mustahkamlashdan iboratdir.

## **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/3088008>
2. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/3088008>
3. Foreign Corrupt Practices Act 1977 // PL 95 - 213, Title 1; 91 Stat 1494, Dec 19, 1977.
4. Sarbanes-Oxley Act of 2002. Corporate responsibility. // Public law 107. 2004-july 30, 2002 116 stat. 745
5. Good Practice Guidance on Internal Controls, Ethics and Compliance. [elektron manbaa]. URL: <http://www.oecd.org/pdf>
6. "ISO 19600:2014 Compliance management systems-Guidelines"//[elektron manbaa]. URL: <https://www.iso.org/ru/standard/62342>
7. E.Ivanov Anti-corruption compliance in BRICS countries //Антикоррупционный комплаенс-контроль в странах БРИКС// Монография. – М.: Юриспруденция, 2015. С.45.
8. "Compliance Programs for Private Companies" by Jeff J. Marwil and Jerry J. Burgdoerfer August 2016, p. 83.
9. A financial history of modern U.S. corporate scandals: from Enron to reform Jerry W/Markham of 2006, Taylor & Francis group, p.49.
10. "Syndromes of compliance" by M. Johnston, Colgate University, New York. Publisher: Cambridge University Press; Online publication date: September 2009, p.71-72

- 
11. D.Primakov Compliance practices: anti-corruption, banking compliance, sanction compliance and asset tracing)//Spetsialnye vidy komplaynesa: antikorrupsionnyy, bankovskiy, sanktsionnyy i rozyisk aktivov. – M.: Infotropic media, 2019 P.27
12. Якунчиков А. Международные стандарты в области комплаенсконтроля как инструменты координации в условиях экономической интеграции. – М.:Sovna, 2015 г., с.6

---

## **SOMONIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHAR MADANIYATINING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA MUNOSABAT**

**Yuldosheva Bibirajab Mirjonovna**

Buxoro davlat universiteti 2 bosqich tayanch doktoranti

E-mail: [b.m.yuldosheva@buxdu.uz](mailto:b.m.yuldosheva@buxdu.uz)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada Buxoro shahar madaniyatining o'rta asrlar davridagi qiyofasi, shahar infratuzilmasi va o'ziga xos mikroiklimi haqida so'z boradi. Buxoro shahrining tarixiy qiyofasi shakllanishiga salmoqli hissa qo'shilgan Somoniylar va Qoraxoniylar davrida Buxoro obod va xushmanzara shahar bo'lgan. So'z yuritilayotgan davrlarda shahar qiyofasi jiddiy o'zgarishlarga uchrab, qurilish-bunyodkorlik ishlari ko'paygan bo'lsada, shaharni doimiy suv va yashillik bilan ta'minlash, qumli shamollar va jazirama issiqdan himoyalaniish masalalari ham e'tibordan chetda qolmagan. Mazkur davrda atrof-muhit musaffoligini saqlash maqsadida saroy-bog'lar qurish ko'payadi.*

*Shuningdek, Amir Ismoil tomonidan Kanpirak devorning har yilgi hashari to'xtatilishining salbiy oqibatlari va mahalliy aholining jazirama issiqda ham salqin turadigan hovli-joylari haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Buxoro shahar tuzilishi, ko'handiz, shahriston, rabod, Rudi Zar, Kanpirak devor, cho'l shamollari, bog', mikroiklim, hayvonot bog'i, dolon.*

### **ABSTRACT**

*The article comprises the image of the medieval Bukhara city's culture, its infrastructure and the unique microclimate. During the reign of Samoni and Karakhoni, who significantly contributed to forming the ancient city, Bukhara was prosperous and magnificent. Those times the city witnessed serious developments; although the construction plans increased, maintaining the city with constant water and greenery, safeguarding the city from dusty storms and extreme hot were not overlooked as well. This was the period when in order to retain the purity of environment building palace-gardens throughout the city was extended in numbers.*

*Furthermore, the information about the devastating consequences of putting a stop to the annual reconstruction of Kanpirak walls by Emir Ismoil and about the houses of local folks, which were even cool in extremely hot summer times, is also included in it.*

**Keywords:** *The structure of Bukhara city, ko`xandiz, shaxriston, Rudi Zar, Wall Kanpirak, desert storms, garden, microclimate, zoo, dolon*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается средневековый образ городской культуры Бухары, инфраструктура города и его уникальный микроклимат. Бухара была процветающим и красивым городом во времена Саманидов и Караханидов, внесших значительный вклад в формирование исторического облика Бухары. Хотя облик города за рассматриваемый период кардинально изменился, строительство увеличилось, но водоснабжение и озеленение города, а также его защита от песчаных бурь и палящего зноя не остались незамеченными. За это время было построено много дворцов, чтобы сохранить окружающую среду в чистоте.*

*Амир Исмаил также рассказал о негативных последствиях ежегодной хашарной остановки Канпиракской стены и дворов местных жителей, в которых прохладно даже в палящую жару.*

**Ключевые слова:** *городская структура Бухары, кохандиз, шахристан, рабод, Руди Зар, Канпиракская стена, пустынные ветры, сад, микроклимат, зоопарк, долон.*

### **KIRISH**

Bugungi globallashuv davrida shaharlarining nufuzi har qachongidan ham ortib, tezlikda taraqqiy etmoqda. Shahar infratuzilmasini zamonaviylashtirish ba'zan atrof-muhit, ekologiyaga jiddiy zarar yetkazish hisobidan amalga oshirilmoqda. Shahar va unga yondosh hududlarda atrof-muhiti muvozanatining buzilishi o'sha hudud aholisi, o'simlik va hayvonot olami, havo va suvi, tarixiy binolariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bizga ma'lumki, Buxoro shahri o'zining 2500 yillik tarixida shaharsozlikning yuqori darajasini yaratgan. Shahar cho'l mintaqasida paydo bo'lsa-da, ming yillar davomida obod va gullab yashnagan maskan bo'lib kelmoqda. Bunga yurt egalarning shaharni rivojlantirish va atrof-muhitni asrash masalasida muvozanatni saqlaganligi sabab bo'lgan. Buxoro shahrining zamonaviy infratuzilmasini bunyod etishda shahar tarixida amalga oshirilgan atrof-muhitni asrashga doir ishlarni o'rganish davr talabidir.

### **METODLAR**

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, tizimlilik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda

Buxoro shahrining o'rtas asrlar davridagi qiyofasi, o'zgarishlari, mikroiklimi manbalar asosida o'rganilib, tahlil qilindi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Buxoro shahri - Markaziy Osiyodagi eng yirik siyosiy-iqtisodiy markazlaridan biri bo'lib, o'rtas asrlar davridan boshlab Sharq dunyosida ilm-fan va islom madaniyatining yirik o'chog'i sifatida e'tirof etilgan.

Buxoro shahri O'zbekistonning janubi-g'arbida, Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan [1]. X asrda yashagan buxorolik tarixchi Abu Bakr Narshaxiy Buxoro shahrining bunyod bo'lishi Rudi Mosaf<sup>351</sup> (Zarafshon daryosi) bilan bog'liqligini qayd qilgan. Shaharning vujudga kelishidan bugungi qadar yetib kelishiga Zarafshon daryosining hissasi tengsiz.

Buxoro vohasida mil. avv. VI-IV asrlarda Varaxsha, Ramish, Xo'ja Bo'ston kabi ko'hna shaharlar qatorida Buxoro shahrining ham shakllanish davri boshlanadi. Mil. avv. IV asrga kelib Buxoro shahri ikki qismdan: shahar va qal'adan iborat bo'lib, hududda sug'orma dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilik rivojlanadi [2]. Shu tariqa mil.avv. I ming yillikning o'rtalarida Buxoro shahri shakllana boshlaydi.

Buxoro shahri xalifalik tarkibiga kirguncha, Buxorxudotlar boshqaruvida bo'lgan. Ularning davrida Buxoro obod va rivojlangan shahar bo'lgan. Ilk o'rtas asr shaharlariga xos uch qismli bo'linish Buxoro shaharsozligida ham ko'zga tashlanadi. Shahar taxminan 30-35 gektar maydonni egallagan. Uni Ro'di Zar (Shohrud) arig'i kesib o'tgan. Shaharning shakllanishi va rivojlanishi asosan bir mavze atrofida kechgan. Shuning uchun ham hozirgi shaharning tuzilishi, tarkibida o'tmish shahar qoldiqlarini uchratish mumkin [3].

IX asrning o'rtalaridan Xuroson noibi Abu-l-Abbos Tusiy davrida Buxoroni tashqi hujumlardan mudofaa qilish maqsadida 700 gektardan oshiqroq joyni egallagan voha tevaragida bir necha yuz farsaxga cho'zilgan mudofaa devori qurila boshlangan. Devor 782—831 yillar mobaynida qurilgan bo'lib, qurilish ishlariga Buxoro qozisi Sa'd ibn Xalaf al-Buxoriy boshchilik qilgan. Devor «Kampirak» nomi bilan mashhur bo'lgan [4].

Kampirak devori shaharni tashqi dushmanlardan himoya qilish bilan birga, shubhasiz Qizilqum cho'lining qumli bo'ronlaridan ham himoya qilgan. Amir Ismoil Somoniy hukmronlik yillarida (888-907 yy) dashtliklarga harbiy yurishlar amalga oshirilishi ortidan devorning har yilgi ta'mirlash ishlari to'xtatib qo'yildi. Bu tadbir

<sup>351</sup> Руди Мосаф – Абу Бакр Наршахийнинг “Бухоро тарихи” асарида ҳозирги Зарафшон дарёси шундай номланади.

o‘z davri uchun ijobiy natijani bergan bo‘lsada, ammo kuchli salbiy oqibati keyinchalik namoyon bo‘ldi. Birinchidan, bu tabiat va insonni qamrab olishga, ularning yaxlitligiga qaratilgan davlat siyosatining barbod bo‘lganligini ko‘rsatdi. Ikkinchidan, voha sug‘oriladigan yerlarining yuza qismi cho‘l qumlari bilan ifloslanib, unumdor yerlarning tarkibi buzilishida namoyon bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida, somoniylar hukmronligining oxirida iqtisodiy inqirozni keltirib chiqardi. Mamlakat iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligiga asoslangan davlat uchun bu katta yo‘qotishlarga olib keladi. Uchinchidan, vohaning cho‘llashishi kuchaydi. Ma‘lumotlarga qaraganda, shu tadbirdan so‘ng cho‘l vohaning ba‘zi bir g‘arbiy viloyatlarini yutib yuborgan [5]. Shaharda mo‘tadil iqlimni saqlab turish va cho‘l ta‘siridan himoyalani barcha davrlarda ham xalqimiz uchun o‘ziga yarasha muammo tug‘dirgan.

IX asrning ikkinchi yarmidan - X asr oxiriga qadar Buxoro Somoniylar davlatining poytaxti bo‘lgan. Shu davrda yashagan Abu Mansur Saolibiyning «Yatimat ud-dahr» tazkirasida «Buxoro Somoniylar hukmronligi davrida shon-shuhurat makoni, saltanat ka‘basi va zamonasining ilg‘or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan va o‘z davrining fozil kishilari yig‘ilgan joy» deb ta‘riflangan [6]. Massonning e‘tiroficha, bu davr Buxoro shahri uchun yuksalish va gullab-yashnash davri hisoblangan. Shahar ilm-ma‘rifat va savdo-sotiq markazi bo‘libgina qolmay, turli kasb-hunarlarining ham markazi bo‘lgan. Buxoro ta‘lim tizimi tarixini o‘rgangan A. Jumanazorovga ko‘ra, madrasalar qurilishi ham aynan shu davrda ommalashgan.

Shahar islom dini, musulmon axloqi, madaniyati va huquqshunosligining Sharqdagi kuchli markazlaridan biriga aylangan. Shu tufayli IX asr boshlarida «Qubbat ul-islom» —«Islom dinining gumbazi» degan sifatga ega bo‘lgan [1].

Mazkur davrda shaharning tashqi qiyofasi jiddiy o‘zgarishlarga uchragan. Poytaxt Buxoroning umumiy maydoni taxminan 33-35 gektar bo‘lib, atrofi yetti darvozali devor bilan o‘rab olingan [7]. Shaharning ark-qal‘asi – Ko‘handiz, shahriston qismi – Shahri darun, tashqi qismi esa – Shaxri berun yoki Rabot deb atala boshlangan.

Maydoni taxminan 3,5 – 3,8 gektar bo‘lgan ko‘handiz atrofi xom g‘ishtli devor bilan o‘ralib, devorning tevaragi bo‘ylab pishgan g‘ishtdan o‘ziga xos “yopinchiq” qadama kiydirilgan. Ko‘handizda hukmdor qarorgohi - saroy, masjid, devon, qabulxona, xazina, zindon, kutubxona, soqchilar turar joyi va turli ustaxonalar joylashgan. Somoniy hukmdorlar davlatni ko‘handiz (dargoh)dan turib idora qilishgan. Somoniy hukmdorlardan Nasr II (914-943) zamonida Registonda hukmdor

va uning amaldorlari uchun yangi saroy (devon)lar qurilgan. Natijada go‘zal saroy va uning darvozasiga qaratib qurilgan o‘nta devondan iborat ajoyib bir me‘morchilik ansambli tashkil topgan [12]. Saroy atrofida garmselli shamol va jazirama oftobdan saqlash maqsadida so‘lim bog‘lar tashkil qilingan. Natijada o‘ziga xos salqin mikroiklim yaratilgan.

Ichki shahar (Shahri darun) tevaragidagi devorda yetti darvoza va chuqur handaklar bo‘lgan. U tarixan to‘rt qismga ajratilgan bo‘lib, mazkur qismlar bugungi kunda ham relef jihatidan bir-biridan ajralib turadi. O‘rta asr manbalarida mazkur davrdagi Buxoro “bir-biriga zid manzaralarga boy bir shahar” sifatida talqin etiladi. Keng ko‘chalar, xushifor hammomlar, katta bozorlar, muazzam masjidlar, adolatli hukmdorlar, savodli va farovon yashayotgan shahar aholisi, sifatli va yaxshi oziq-ovqat iste‘moli kabi ijobiy xususiyatlaridan tashqari peshayvoni bo‘lgan cho‘pkori imoratlar va tor uylarning nihoyatda zichligi, turar-joylarning qimmatligi, ichimlik suvining sho‘rligi, havo aylanmaydigan savdo rastalari, axlat to‘lib ketgan ariqlar, tez-tez bo‘lib turadigan yong‘inlar haqida ham o‘rta asr manbalarida qayd etib qoldirilgan [12].

Ichki shahar atrofi (rabod)da esa yangi mahallalar, guzarlar, bozorlar, ustaxonalar qad rostlagan. Rabot atrofi kengayib, 849-850 yillarda eski devoridan tashqari yana o‘n bir darvozali yangi devor bilan o‘rab olingan [8].

Qadim Buxoroda uy-joy va ko‘chalar joylashishida shamolning yo‘nalishi va havoning yaxshi aylanishi hisobga olingan. Vohada shamol asosan shimol va shimoli-sharqdan esganligi sababli, shaharning eski shahar qismidagi ko‘chalar tor, uylar shimoldan janubga tomon qurilgan. Natijada tor ko‘cha shamolni siqib chiqargan, shamolning tez harakatlanishi tufayli havo doimiy, tez-tez almashib turgan va havoning tozaligi, musaffoligini ta‘minlagan. Buxoro uy-hovlilarida asosiy hovliga kirish ingichka tirsaksimon yo‘lak – dolondan boshlanadi. Dolon soya-salqinni ta‘minlaydigan, havo va shamol oqimini yo‘naltiradigan usti yopiq yo‘lak bo‘lib, o‘rta asrlar davridan boshlab hududda tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqib qurila boshlangan [9]. Dolon qishda issiq, yozda salqinlikni ta‘minlashga xizmat qilgan. Shaharning markaziy qismidagi hovli-joylar atrofi odatda baland paxsa devor bilan o‘rab olingan bo‘lsa, shaharning nisbatan keyinroq qo‘shilgan qismi va shahar atrofidagi joylashgan uy-joylar qalin devorlar yoki ko‘plab daraxtlardan iborat bog‘lar bilan o‘rab olgan. Mahalliy aholi qum bo‘ronlari va shamollardan shu yo‘l bilan hovli-joylarini himoyalangan. Hozir ham voha uy-hovlilari atrofi sun‘iy to‘siq yoki tabiiy butasimon o‘simliklar bilan o‘rab olinadi.

Bu davrda oʻrta asr meʼmorchiligining noyob durdonasi Ismoil Somoniy maqbarasi (892-943) qurildi. Maqbara keng oʻlchamli, serjilo, devorlari hamon yangi qurilgandek taasurol qoldiradi.

Somoniyalar inqirozga uchragach, Qoraxoniylar, keyinchalik Gʻarbiy Qoraxoniylar davrida Buxoro shahar hayotida (XI—XIII asr) yana yangidan koʻtarilish davri yuz berdi. Bu jarayon birinchi navbatda shahar atrofidagi chegaralarda yaqqol koʻzga tashlanadi [8].

Gʻarbiy Qoraxoniylar hoqonlardan Tamgʻachxon Ibrohim (Boʻri tegin) (1043 yil hokimiyatga kelgan) va uning oʻgʻli Shams al Mulk (1068—1080) davrida Buxoroda shifoxona, madrasa, saroy, masjid va boshqa binolar qurilgan hamda obodonchilik ishlariga alohida ahamiyat berilgan [10]. Narshahiyning «Buxoro tarixi» asarida yozilishicha, Shams Mulk shaharning Ibrohim darvozasi oldidagi yerda qariyb yarim farsang keladigan joyda goʻzal bogʻlar va podsholikka xos otlar uchun oʻtloq joy barpo etib, uni Qoʻriq deb ataydi. Qoʻriqni baland devor bilan oʻrab ichiga bir qasr va bir kaptarxona quradi. Qoʻriq ichida bugʻi, kiyik, tulki, ayiq kabi yovvoyi hayvonlar saqlangan [11]. Demak, shaharda “hayvonot bogʻi” faoliyati yoʻlga qoʻyilgan, shu orqali tabiatni asrash tadbirlari ham amalga oshirilgan.

Qoraxoniylarning mashhur hukmdori Arslonxon Muhammad (1102-1130) davrida shahar atrofini va arkni oʻrab turgan devorlar taʼmirlanadi. Uning farmoni bilan shaharning Darvoza mahallasi oldida podsholikka xos saroy va hammom, masjid, 1127 yili esa Minorai Kalon quriladi [10]. Demak, Gʻarbiy Qoraxoniylar davrida Buxoro shahrining meʼmorchiligi va obodonchiligiga katta ahamiyat berilgan.

Rempelning yozishicha, rabodning 849-850 yillarda qurilgan devori 1139 yilda Xorazmshoh Sulton Takash tomonidan, 1143 yilda gʻuziylar tomonidan vayron qilingan. Ammo keyinchalik Arslonxon Muhammad va Tamgʻach Maʼsudxon davrida (1165) devor tezda qayta tiklangan [8]. Tamgʻach Maʼsudxon davrida ark qalʼasining tagi va minoralaridagi pishiq gʻishtlar buzib olinib, shahar devorlariga ishlatilgan. Hisor (qalʼa) bir yoʻla vayron boʻlgan va u qasrdan hech bir imorat va nishon qolmagan [11]. 1208 yili Buxoroni bosib olgan Muhammad Xorazmshoh rabod devorlarini tiklatdi, ammo 1220 yili Chingizxon bosqini vaqtida yana vayron boʻldi. Bosqinni oʻsha davrda yashagan muallif shunday taʼriflagan: “Omadand va kundand va soʻxtand va kushtand va burdand va raftand” (“keldilar va yemirdilar, yondirdilar va oʻldirdilar, taladilar va ketdilar”).



## XULOSA

Buxoro shahri oʻrta asr shaharsozligi eng yaxshi saqlangan tarixiy shahardir. Shaharning tarixiy qiyofasi shakllanishida Somoniy va Qoraxoniy hukmdorlarning xizmatlari katta boʻlgan. Buxoroning tarixiy markazidagi eng ulugʻvor boʻlgan inshootlar, jumladan Ismoil Somoniy maqbarasi, Minorai Kalon shu davrda qurilgan.

Shahar va unga yondosh hududlarda bogʻ-ekinzorlar, sugʻorish kanallari barpo etilgan. Hukmdor saroylarining atrofi yashil oʻsimliklar, mevali daraxtlar bilan oʻrab olingan. Shaharda noyob jonivorlarni muhofaza qilish va tomoshabogʻ maqsadida hayvonot bogʻi tashkil etilgan. Xullas, IX-XII asrlarda shaharsozlik shahar ekotizimini muhofaza qilish ishlari bilan hamohang olib borilgan.

## REFERENCES

1. Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2-jild. – T.: 2001. B 402.
2. Eshov B. Qadimgi Oʻrta Osiyo shaharlar tarixi. - Toshkent. 2006. B 173.
3. Mirjonovna, Y. B. (2021). THE INFLUENCE OF ARAB CALIPHATE ON FORMATION OF BUKHARA URBAN CULTURE. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 2(08), 28-32.
4. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 4-жилд. – Т., 2002. Б 439.
5. Ричард Нельсон Фрай. Бухара в Средние века. (На стыке персидских традиций и исламской культуры). (пер. О. И. Лапикова). Центрполиграф, 2016. С-76.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12-жилд. – Т., 2005.
7. Жуманазар Абдусаттор. Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент., “Академнашр”, 2017. Б 20.
8. Ремпель Л.И. Далёкое и близкое: страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. Бухарские записи. Ташкент, 1981. С 106.
9. Аҳмедов М. К. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1995. Б 96-97.
10. Шониёзов К.Ш. Бухоро Ғарбий Қорахонийлар ҳукмронлигида. (XI – XII аср) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 1997. - № 9-10-11. Б 39-45.
11. Наршахий. Бухоро тарихи. – Т., Камалак, 1991. Б 18.
12. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар. Бухоро. Биринчи қисм. Китоб-албом. Т.: “Uzbekistan today”, 2016. Б 11.

## **XITOIY BUDDAVIYILIGI TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK MASALALAR MUHOKAMASI**

**Mamatqulova Nilufar Xusanovna**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali o'qituvchisi

[mamatqulovanilufar1991@bk.ru](mailto:mamatqulovanilufar1991@bk.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur ilmiy maqola Xitoy buddaviyligining Tyantay maktabi ta'limotining ontologik va gnoseologik masalalariga bag'ishlangan. Maqolada Tyantay maktabi ta'limotida I nyan san syan doktrinasi va yagona Aql ta'limoti buddaviylikning kosmologik qarashlariga uzviy bog'liqligi ta'kidlangan.*

**Tayanch so'zlar:** *Xitoy Buddaviyligi, Tyantay, I nyan san syan doktrinasi, ontologiya, gnoseologiya, „beshta davr, sakkiz ta'limot“, „o'rta yo'l haqiqati“.*

### **Abstract**

*This scientific article is devoted to ontological and epistemological issues of the Tiantai School of Chinese Buddhism. The article emphasizes that the doctrine of the teachings of Iyang San-Qian and the doctrine of the unity of reason in the doctrine of the Tiantai school are inextricably linked with the cosmological views of Buddhism.*

**Keywords:** *Chinese Buddhism, Tiantai, Iyang San-Qian doctrine, ontology, epistemology, „Five eras, eight teachings“, „Mid-level truth“.*

### **KIRISH**

Milodiy 56 yilda xan sulolasidan bo'lgan imperator Min-dining tushiga oltin rang nur taratayotgan bir avliyo kiribdi. Tongda imperator o'zining donishmand amaldorlarini yig'ib, ulardan bu avliyoning kimligini izohlashni so'rabdi. Hamma tushning ta'birini bilmay turgan vaqtda, bir donishmand shunday debdi: „kamina qulingiz G'arbda ilohiy zot (shen) borligini eshitganman, uning ismi Buddha ekan. Aynan shu ilohiy zot tushingizga kirgan“. Shunda imperator G'arbiy O'lkalarga (si yuy – Markaziy Osiyo) elchilikni jo'natibdi, elchilki bir qancha vaqtdan keyin oq otda buddaviylik matnlari va muqaddas tavirlarini olib kelibdi. Ushbu otni escha ikki rohib Dxarmaratna va Kashyapamatanga kuzatib kelgan ekan. Imperiya poytaxti – Loyan shahrida rohiblarga hurmat ko'rsatilibdi va tez orada bu yerda birinchi buddaviylik monastiri – Oq Ot monastiri qad ko'taribdi [1. 38].

Albatta, yuqorida qayd qilingan hodisa afsona, uni aynan qabul qilmaslik kerak. Xitoyda ilk monastirlar (shu jumladan Loyanda ham) bir oz keyinroq – milodiy III asrdan avvalroq paydo bo'lganiga hech qanday shubha yo'q. Lekin ushbu afsona Xitoyga buddaviylikning kirib kelish vaqtini – milodiy I asrni to'g'ri

ko'rsatgan. Bundan tashqari maxalliy Chu podshohi In (Lyu In)ning maktubi matni saqlanib qolgan, ushbu maktub milodiy 65 yil yozilgan. Unda podshoh In buddaviylikning uch atamasi keltirilgan – upasaka (buddaviylik qavmi a'zosi), Buddha va shramana. Afsonada aks etgan yana bir muhim tarixiy hodisa – buddaviylikning Xitoyga Markaziy Osiyodan kirib kelishi hisoblanadi[1. 41].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Xitoyga buddaviylikning kirib kelishi va Xitoy buddaviylik an'alarining shakllanishi Xitoy tarixida madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning yaqqol misoli bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, xitoy va hind madaniyatining o'ziga xos sintezi mahsuli bo'lgan Xitoy buddaviylikning bu mamlakatdan Uzoq Sharqning barcha mamlakatlariga (Koreya, Yaponiya, Vetnam) tarqalishi diqqatga sazovordir[2. 96]. Xitoy buddaviylikni bu mamlakatlarga o'z yozuv tizimidan tashqari buddaviylikka xos bo'lmagan xitoy madaniyatining yo'nalishlari va xususiyatlarini ham olib kirdi. Shu tahlilda buddaviylikning "to'rt dengiz" osha tarqalishi Uzoq Sharq tarixiy-madaniy mintaqasining shakllanishiga va o'ziga xos tamaduniy jarayonning kechishiga hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'sir ko'rsatdi. Xitoy, aynan, buddaviylikni targ'ib qilish chog'ida ilk marta asosiy xususiyatlar va qadriyatlar tizimiga ega bo'lgan "begona" dunyoqarash bilan to'qnashdi. Buddaviylik uzoq asrlar mobaynida davom etgan murakkab jarayon, ya'ni Xitoyga madaniy jihatdan moslashuv natijasida ushbu jamiyatga abadiy singib ketdi va xitoycha dunyoqarashning ko'plab muhim yo'nalishlarini o'zgartirdi. Buddaviylik tarkiban mutlaqo yangi madaniy jihatni Xitoyga olib kirdi, xitoy madaniyati bu jihatni ming yillar mobaynida o'zlashtirdi, moslashtirdi va natijada ushbu madaniy sintezning hosilasi sifatida neokonfusiylilik, yangi konfusiylilik tizimi shakllandi. Buddaviylikning o'zi esa bu jarayonda katta o'zgarishlarga uchradi va maxayana an'analari doirasidagi buddaviylik konfessiyasiga aylandi. Shuning uchun ham buddaviylik an'alarining Xitoyda qaror topishi jarayoni asosli ravishda "Buddaviylikning xitoylashuvi"(chjungoxua) deb nomlandi. Buddaviylik hind madaniy an'alarining bir butunlikdagi yagona vakili sifatida buddaviylikning paydo bo'lishidan avval ham ikki ming yillik tarixga ega bo'lgan Xitoy tamaddunining mahobatiga teng kela olmasdi. Shuning uchun Buddaviylik o'zi ta'sir qilayotgan Xitoy madaniyatidan ko'ra ko'proq o'zgarishlarga uchradi.

Tyantay maktabi – Xitoyda shakllangan dastlabki buddaviylik maktablaridan biri hisoblanadi. Ushbu maktabning asoschisi rohib Chji-i (538-597 yillar) hisoblanadi, vaholanki, ushbu maktab ta'limotining asoslari uning ustozlari – Xuey-

ven va Xuey-si tomonidan yaratilgan. Maktabning nomi Sharqiy Xitoydagi (Chjeszyan muzofoti) Tyantayshan tog'lari nomidan olingan. Rohib Chji-i bu yerda uzoq vaqt davomida yashagan va faoliyat olib borgan. Maktabning asosiy aqidaviy matni "Nilufar sutrasi" (xitoycha, "Fa xua szin") bo'lganligi uchun aksariyat hollarda maktabni – Nilufar sutrasi maktabi (Faxua szun) ham deb nomlashadi.

Tyantay maktabining ushbu Nilufar sutrani afzal ko'rganligining sababi ushbu sutraning ta'limotlari tasnifi doktrinasini (pan szyao) boshqa maktablar ta'limotlaridan ustun bo'lgan. Bu doktrina "Beshta davr, sakkiz ta'limot" (u shi ba szyao) deb nomlangan.

Ushbu ta'limotga muvofiq Budda Shakyamuni nurlanishdan so'ng besh davr mobaynida "dengiz aksi" holatida (xay in sanmey), yuqori darajadagi diqqat va e'tiborni jamlagan holda faoliyat yuritgan ekan. Bu holatda Buddaning ongi sokin holatdagi dengiz sathi singari bo'lib, barcha narsa-buyumlarni o'zida aks ettirgan, Budda esa butun dunyoni cheksiz Aqlning mutloq birligi sifatida ko'rgan. Budda o'z hissiyotining natijasini "Avatamsaka sutra"da ifodalagan va ilohiy zotlar va bodxisattvalarga bayon qilgan, hatto ular uchun ham bu ta'limot murakab va tushunarsiz bo'lgan[3. 138]. Shunda Budda o'z shogirdlarining haqiqatni bosqichma-bosqich o'zlashtirishga tayyorlashga qaror qildi va ularga Banorasda (Varanasi) Bug'ular o'rmonida To'rt oliyanob haqiqat va sabab-oqibat kelib chiqishi (Xinayana) haqidagi ta'limotni o'rgatdi. Ular tomonidan ushbu ta'limot o'zlashtirilgandan so'ng Budda ongning maxayana nazariyasini (yogachara), undan so'ng esa dxarmalarning mohiyatsizligi va bo'shliqqa egaligi (madxyamaku) haqidagi maxayana ta'limotini o'rgatdi. Shundan so'ng shogirdlar oliy haqiqatni o'zlashtirishga tayyor bo'lganliklari ma'lum bo'ldi. Budda ularga o'z o'gitlarining yakuni bo'lgan "Nilufar sutrasi"ni o'rgatdi. Budda o'z vafoti va nirvanaga ketishi oldidan "Maxaparinirvana sutrasi"ni ham o'rgatdi. "Maxaparinirvana sutrasi" Tyantay maktabida "Nilufar sutrasi"ning oliy haqiqat ekanligini tasdiqlovchi sutra sifatida tan olinadi.

"Nilufar sutrasi"ning tarkibi "Avatamsaka sutra"dagi oliy haqiqatga aynan o'xshashligi, shaklan esa "Nilufar sutrasi" undan yuqoriroq ekanligi ta'kidlanadi: "Avatamsaka sutra"ni aqliy salohiyati eng yuqori insonlar tushunishida ham katta qiyinchiliklar uyg'otadi, "Nilufar sutrasi" esa quyi darajadagi ilmi insonlar uchun ham tushunarli bo'lib, hatto omi insonlarning ham talabini qondiradi. Bu holatdan "Nilufar sutrasi" ta'limotini yakuniga yetgan, mukammal, keng qamrovli, "doirali" (yuan) ta'limot sifatida xulosa qilish mumkin[4. 87].

Odatda Tyantay maktabi ta'limotini Nagarjunaning madxyamakasiga asoslanadi, deb baholashadi. Haqiqatda esa ushbu maktab ta'limoti mumtoz madxyamakadan ancha uzoq bo'lib, o'zida Tatxagatagarbxi nazariyasining variantini ifoda etdi. Tyantay maktabi ikki eng muhim g'oyasiga tayanadi: "ongning bir harakatida – uch ming dunyo" (i nyan san syan) doktrinasi va "yagona aql" (i sin; ekachitta) konsepsiyasiga. Maktab ta'limotining ruhiy amaliyot tomoni "intiho topish va mushohada qilish" formulasida aks etadi, bu formula ilk Buddaviylik amaliyotiga – shamatxa-vipashyanaga (xotirjamlik va tahliliy mushohada) borib taqaladi, lekin Tyantay maktabi doirasida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan[4. 89].

I nyan san syan doktrinasi va yagona Aql ta'limoti buddaviylikning kosmologik qarashlariga uzviy bog'liq. Bu qarashlar avvalo o'zida tirik mavjudotlarning har biri va uning joylashgan makoniga ong va unga muvofiq keladigan dunyoning kengaytirilgan alohida ikkiyoqlamaligi sifatida yondashuvchi dunyoqarashni o'zida ifoda etadi.

Tyantay maktabi an'alarida yuqorida qayd qilingan tirik mavjudotlar(shi)/dunyolar turining soni o'ndan oshadi. Bular sansaraviy mavjudotlarning olti dunyosi: ilohiy zotlar, titan-asurlar, insonlar (oddiy insonlar, omi insonlar nazarda tutilmoqda – prixagjana, su jen), hayvonlar, och ruhlar, do'zaxlar dunyolari kiradi. Sansara dunyolariga yana "oliyjanob shaxslar"ning to'rt dunyosi kiradi: (arya pudgala; syan): shravaklar, prateka-buddalar, bodxisattvalar va Buddaning dunyolari kiradi.

Yuqorida qayd qilingan dunyolarning har biri istalgan boshqasida hozir bo'ladi, ya'ni dunyolar bir-biriga o'tadi, kiradi, masalan, do'zax dunyolari Buddaning dunyosida hozir bo'ladi (mana shu nazariyadan Tyantay buddaviyligining g'oyat original gnostik g'oyasi shakllangan, ya'ni Buddaning tabiatida nafaqat ezgulikni, balki yovuzlikni ham uchratish mumkin), Budda dunyosi esa do'zax dunyolarida namoyon bo'ladi, o'n dunyoni o'nga ko'paytirsak, yuzta dunyoning miqdori kelib chiqadi. Har bir dunyo yana uch xil munosabatda ko'rib chiqiladi, ulardan har biri esa alohida dunyo statusini oladi (shi szyan): 1) mavjudotlar dunyosi (har bir dunyoni yashayotgan mavjudotlar yo'nalishida ko'rib chiqish), 2) besh skandx dunyosi (har bir dunyoni psixologik yo'nalishda mavjudotlar ongini rivojlantirish darajasi sifatida ko'rish), 3) dunyo-mamlakat (har bir dunyoni tirik mavjudotlar saqlanadigan makon sifatida ko'rish).

O'nta dunyoni uch soniga ko'paytirsak, o'ttizta dunyo bo'ladi. Ixtiyorimizda bo'lgan yuzta dunyoni o'ttizga ko'paytirsak, uch ming soni kelib chiqadi. Mana shu holatda Tyantay maktabi ta'limotini hind va xitoy an'alarining o'zaro ta'siri, ya'ni hind falsafasining ruhiyatshunosligi va xitoy kombinatorikasi va numerologiyasining

o‘zaro bir-biriga ta’siri natijasi sifatida baholash lozim. Numerologiya matemati va kvazimatematik ob’ektlar bilan mafkuraviy muhim ahamiyatga ega bo‘lgan operatsiyalar vositasida xitoy an’anaviy falsafasida muhim rol o‘ynagan.

Uch ming dunyoning barchasinafaqat ob’ektiv va tirik mavjudotlarning ongining tarkibi sifatida mavjud, balki ularning o‘zaro teng holatda mutloq Yagona Aqlga (i sin), Buddaning Aqliga tayanadi. Bu Aqlning har bir harakati dunyolarni butun holda va to‘liq yaratadi. Yagona Aql nazariyasi Abadiy Budda tyantay doktrinasi bilan uzviy bog‘liqdir.

“Nilufar sutrasi”da Budda shunday deydi: “faqat axmoqlargina meni Bodxi darahning tagida nurlangan Siddxartxa Gautama bilan aynanlashtiradilar”. Budda abadiy nurlanga, u hech qachon tug‘ilmagan va hech qachon vafot etmaydi. Tyantay maktabining asoschilari yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilib, Buddaning haqiqiy mohiyat, butun olam kabi real voqelik ekanligini, har bir mavjudot alohida ibtidodan buyon Buddaning nurlangan tabiatidan bahramand bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Tyantay maktabining bu g‘oyasi xitoy buddaviyligining (nafaqat xitoy buddaviyligining) boshqa barcha maktablaridan farq qiladi. Tyantay maktabi Buddaning tabiati nafaqat tirik mavjudotlarni (santana, “ruhiya kontinuumlar”), balki narsa-buyumlarni, “notirik tabiat” (“nokontinuumlar”)ni ham qamrab olganligi haqidagi g‘oyani ilgari suradilar, boshqa maktablar esa faqat tirik mavjudotlarga Budda tabiatidan nurlanganligini, notirik tabiat esa ular orqali izohlanadigan tushunchalar sifatida namoyon bo‘lishini ilgari suradilar. Tyantay maktabining bu o‘ziga xos panteizmi Uzoq Sharqning san’atiga katta ta’sir ko‘rsatdi, xususan, Xitoy va Yaponiyaning she’riyati va tasviriy san’atiga shunday ta’sir ko‘rsatdiki, ularda tabiat manzaralari Yagona Mutloqning ko‘pshaklli hodisalari sifatida tasvirlandi[5. 59].

Tyantay maktabi ta’limotida panpsixizm va panteizm unsurlari bilan cheklangan xitoy buddaviyligining substansionalizmi to‘liq tarzda namoyon bo‘ldi.

Tyantay maktabining yana bir yo‘nalishi – uning uchyoyqli haqiqat nazariyasi (san di) hisoblanadi.

Bu ta’limot shakliy jihatdan Nagarjunaning ikki haqiqat nazariyasiga muvofiq keladi, lekin mohiyatan bu nazariyadan keskin farqlangan holda ularning ba’zi g‘oyalariga tayanadi.

Tyantay maktabi ta’limotining birinchi haqiqati quyidagilarni ifodalaydi: har bir hodisa sababiy jihat bilan shartlangan, ushbu hodisa o‘z-o‘zicha mavjud bo‘la olmaydi va mohiyatsiz bo‘ladi, faqatgina o‘zini shakllanishiga sabab bo‘lgan

xususiyatlar va shartlar natijasi sifatidagina mohiyatga ega bo‘ladi. Bu “bo‘shliq haqiqati” (kun di) to‘liq ma’nodagi Nagarjuna ta’limotiga muvofiq keladi.

Tyantay maktabining ikkinchi haqiqati yolg‘on haqidagi haqiqat yoki shartli haqiqat (szya di) sifatida nomlanadi. Unga ko‘ra barcha hodisalar haqiqiy mohiyatdan mahrumdirlar, ular o‘zgarimas va doimiy asosga ega emaslar, shuning uchun ular xayoliy obrazlar va fantaziyalar natijalariga (xuan; xua) o‘xshashdirlar[5. 62].

Uchinchi haqiqat “o‘rta yo‘l haqiqati” (chjun dao di) deb nomlanadi, ya’ni ikki xil nuqtayi nazar o‘rtasidagi yo‘l haqiqatidir. Unga ko‘ra barcha hodisalar u yoki bu “dxarma tabiati”ga (fa sin) ega bo‘lib, ular Abadiy Buddaning abadiy aksi sifatida tug‘ilmaydilar va o‘lmaydilar.

Tyantay maktabi ta’limotida haqiqat deganda uchinchi haqiqatni tan oladilar, chunki qolgan birinchi va ikkinchi haqiqatlar o‘zlarida real voqelikni nomuvofiq va to‘liqsiz bilishni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, agar biz hodisani bir butun dunyoqarashdan tashqarida va hissiy dunyo va Buddaning Yagona Aqlining aynanligini bilmasdan ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u holda dastlabki ikki cheklangan nuqtayi nazarga kelishimiz muqarrar bo‘ladi. Yagona Aql nazariyasi o‘zining Buddaning mutloq nurlangan Aqli bilan aynanligini tasdiqlagan holda va buddaviylik dunyoqarashi doirasida o‘ziga xos “borliqni oqlash”ni (K.Yu. Soloninning talqini) amalga oshirgan holda, dunyo tushunchasini o‘z real voqeligida tiklaydi.

Uch haqiqat haqidagi ta’limotda sansara va nirvananing o‘xshashligi haqidagi buddaviylikning maxayana fundamental ta’limoti va Xitoy falsafiy tafakkurining an’anaviy naturalistik va kosmologik yo‘nalishlarining nisbiy va mutloq haqiqat haqidagi ta’limotlarining o‘zaro ta’sirining natijasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tyantay maktabining ruhiy amaliyoti “Moxe chji guan” (“Maxa shamatxa vipashyana”) – “Ong va tahliliy mushohadaning bezovtaligini to‘xtatish haqidagi Buyuk traktat” risolasida to‘liq ochib berilgan. Bu matnga ko‘ra, Tyantay maktabi mushohada qilish usullarini Budda Shakyamunidan yetib kelgan “oltin og‘zaki nasihat” va Nagarjunadan yetib kelgan “Hozirgi ustozning usullari” kabi ikki yoga usullarning sirli ravishda og‘zaki yetkazilishi tufayli qo‘lga kiritgan[5. 64].

Chji-ining traktatida ruhiy amaliyotning asoslari Tyantay ta’limotining barcha qoidalari va ushbu maktabning falsafiy kategoriyalari bilan birgalikda batafsil izohlangan.

Tyantay maktabi Xitoyda IX asrning o‘rtalarigacha rivojlanib, shundan so‘ng asta-sekinlik bilan tanazzulga yuz tutdi, lekin XI-XII asrlarda qisqa muddatda tiklanish jarayoni ham bo‘lib o‘tgan. IX asrning boshlarida yapon rohibi Sayt (767-

822) Tyantay (yaponcha Tenday) ta'limotini Yaponiyada targ'ib qila boshladi. IX-XII asrlarda Tyantay ta'limotini Yaponiyada davlat qo'llab quvvatladi va bu ta'limot keng tarqaldi. XIII asrda Tenday maktabidan rohib Nitiren (1222-1282) maktabi ajralib chiqdi. Nitiren maktabida asosiy urg'u "Nilufar sutrasi"ni sharaflash va uning nomini takrorlashga (yaponchasiga – "Namo mexo renge ke" – "qimmatli Ustozning "Nilufar sutrasi"ga sajda qilish") qaratilgan edi. Bu duo Tyantay maktabining shamatxi va vipashyana yo'nalishlarining murakkab mushohada amaliyotini o'rnini egallagan. Boshqa sohalarda Nitiren-syu maktabi tenday ta'limotining qoidalaridan foydalanadi. Ushbu maktab tenday ta'limotini – Yagona Arava ta'limotining eng oliy ko'rinishi sifatida baholaydi. Hozirgi vaqtda Nitiren-syu maktabi – Yaponiyadagi eng keng tarqalgan buddaviylik maktablaridan biri hisoblanadi. Tenday maktabi ham ayni vaqtda eng ta'sirli buddaviylik maktablaridan biri bo'lib qoldi. Tenday maktabining tasarrufida ko'p sonli monastirlar, ibodatxonalar, markazlar, xayriya fondlari va universitetlar mavjud.

Tyantay maktabi muayyan darajada Koreya va Vetnamda tarqalgan edi. Lekin vaqt o'tishi bilan ushbu maktab bu mamlakatlarda o'z ta'sirini yo'qotdi.

Tyantay maktabi ta'limotida ontologik va gnoseologik masalalarni ko'rib chiqqan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin. Mazkur maktab ta'limoti ontologiyasida panpsixizm va panteizm unsurlari bilan cheklangan xitoy buddaviyligining substansionalizmi to'liq tarzda namoyon bo'ldi.

## **XULOSA**

Mana shu holatda Tyantay maktabi ta'limotini hind va xitoy an'alarining o'zaro ta'siri, ya'ni hind falsafasining ruhiyatshunosligi va xitoy kombinatorikasi va numerologiyasining o'zaro bir-biriga ta'siri natijasi sifatida baholash lozim. Numerologiya matemati va kvazimatematik ob'ektlar bilan mafkuraviy muhim ahamiyatga ega bo'lgan operatsiyalar vositasida xitoy an'anaviy falsafasida muhim rol o'ynagan. Tyantay maktabi ta'limoti gnoseologiyasiga ko'ra uch ming dunyoning barchasi nafaqat ob'ektiv va tirik mavjudotlarning ongining tarkibi sifatida mavjud, balki ularning o'zaro teng holatda mutloq Yagona Aqlga (i sin), Buddaning Aqliga tayanadi. Bu Aqlning har bir harakati dunyolarni butun holda va to'liq yaratadi. Yagona Aql nazariyasi Abadiy Budda tyantay doktrinasi bilan uzviy bog'liqdir.

Buddaviylik tarkiban mutlaqo yangi madaniy jihatni Xitoyga olib kirdi, xitoy madaniyati bu jihatni ming yillar mobaynida o'zlashtirdi, moslashtirdi va natijada ushbu madaniy sintezning hosilasi sifatida neokonfusiylilik, yangi konfusiylilik tizimi shakllandi.



## REFERENCES

1. 中国佛小时 Chjungo fotszyao shi (Xitoy Buddaviyligi tarixi). T. 1. Pekin, 1982. 38-bet
2. Буддизм: история и культура: Сб. ст. / Отв. ред. Ветроградова В.В. - М.: Наука, 1989. 230 с.
3. 换产花 。佛小个迅带 Xuan Chanxua. Fotszyao geszun da i (Xitoy Buddaviyligi maktablari ta'limotlarining mohiyati). Taybey, 1973. 138-bet
4. [Торчинов Е.А.](#) Введение в буддологию. Курс лекций. — СПб.: [Санкт-Петербургское философское общество](#), 2000. 304 с.
5. Чебунин А. В. История проникновения и становления буддизма в Китае: [монография]. — Улан-Удэ: Изд.-полигр. комплекс ФГОУ ВПО ВСГАКИ, 2009. 278 с.
6. Xusanovna, M. N. (2021). XITOIY BUDDAVIYILIGINING CHAN MAKTABI (CHAN SZUN) HAQIDAGI MULOHAZALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 738-744.
7. Sulaymonov, J. B. (2021). XITOIY BUDDAVIYILIGI TA'LIMOTIDA BORLIQ VA BILISH MUAMMOLARINING QO 'YILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 572-579.

**YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA  
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI  
YANADA RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**Olim Poyanov**

Toshkent shahar yuridik texnikumi,  
o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, ikkinchi darajali yurist

**Shirin Ismatullayeva**

Toshkent shahar yuridik texnikumi, fakultet dekani

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi asosida ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan biri Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish masalalarini qisqacha yoritishga bag'ishlanadi. Mamlakatimizda insonning huquq va erkinliklarini, sha'nini, qadr-qimmatini, manfaatlarini, davlat organlarining jamiyat oldida hisobdorligini ta'minlash islohotlarning bosh maqsadi etib belgilanganligi xususida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Inson qadri, fuqarolik jamiyati, taraqqiyot strategiyasi, davlat dasturi, insonning huquq va erkinliklari, "yo'l xaritasi".*

**ISSUES OF INCREASING HUMAN DIGNITY AND FURTHER  
DEVELOPMENT OF A FREE CIVIL SOCIETY IN THE DEVELOPMENT  
STRATEGY OF NEW UZBEKISTAN**

**Olim Poyanov**

Deputy Director of Academic Affairs, Secondary Lawyer Tashkent city law  
technical school

**Shirin Ismatullayeva**

Tashkent City Law College, Dean of the Faculty

**ABSTRACT**

*This article is one of the seven priorities of the New Uzbekistan Development Strategy for 2022-2026 and one of the seven priorities developed on the basis of the state program for its implementation in the "Year of Human Dignity and Active Neighborhood". to briefly address issues of human dignity and the further development of a free civil society. It is said that the main goal of the reforms in our*

country is to ensure human rights and freedoms, honor, dignity, interests, accountability of government agencies to society.

**Keywords:** Human dignity, civil society, development strategy, state program, human rights and freedoms, "road map".

## **ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА И ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ СВОБОДНОГО ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**Олим Поянов**

Заместитель директора по учебной работе, юрист по вторичному праву  
Ташкентский городской юридический техникум

**Ширин Исматуллаева**

Ташкентский городской юридический колледж, декан факультета

### **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья является одним из семи приоритетов Новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы и одним из семи приоритетов, разработанных на основе государственной программы ее реализации в «Год человеческого достоинства и активного добрососедства». вопросы человеческого достоинства и дальнейшего развития свободного гражданского общества. Говорится, что главная цель проводимых в нашей стране реформ – обеспечение прав и свобод человека, чести, достоинства, интересов, подотчетности государственных органов перед обществом.*

**Ключевые слова:** Человеческое достоинство, гражданское общество, стратегия развития, государственная программа, права и свободы человека, «дорожная карта».

### **KIRISH**

Bugun xalqimiz hayotida ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tashabbusi bilan keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan, yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining qabul qilinishi mamlakatimizda tub demokratik islohotlar, transformatsion o'zgarishlarning yangi davrini boshlab berdi. Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan ishlar barcha sohalarni qamrab oldi. Eng asosiysi,

mamlakatimizda insonning huquq va erkinliklarini, sha'nini, qadr-qimmatini, manfaatlarini, davlat organlarining jamiyat oldida hisobdorligini ta'minlash islohotlarning bosh maqsadi etib belgilangandi. Taraqqiyot strategiyasi esa bu ishlarning mantiqiy hamda uzluksiz davomi bo'ladi, shubhasiz.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Sh.Mirziyoyev asarlari, ma'ruzalari mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ma'lumki, Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisida so'zlagan nutqining mazmun-mohiyati va ahamiyati, unda belgilab berilgan ustuvor vazifalar talaba yoshlar, davlat xizmatchilari, olimlar, ekspertlar, keng jamoatchilik tomonidan qizg'in kutib olindi.

Shu o'rinda, Prezident nutqi kelajakka yo'naltirilgani, mamlakatni rivojlantirish strategiyasining amaliy dasturi bo'lganiga e'tiborni qaratish lozim. Davlat rahbari o'z ma'ruzasida mamlakat hayotining barcha jabhalariga atroflicha to'xtalib o'tib, yangi g'oyalar, innovatsiyalar va yangiliklarni taklif qildi.

Sh.Mirziyoyev o'z nutqida Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Mazkur kontseptual hujjatda islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon qilib olindi. *"Xalqimiz talablarini inobatga olgan holda, biz Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqdik va saylov jarayonida uni o'ziga xos umumxalq muhokamasidan o'tkazdik. Bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida, "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo'yildi"*, deydi prezident.

Xususan, unda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmatini va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, adolatlilik ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy va ma'rifiy sohalarida islohotlarni amalga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bundan tashqari, global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalarga atroflicha to'xtalib o'tilgan.

Mazkur nutqda mamlakat rahbari kelgusi besh yil uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilab berar ekan, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini eng oliy qadriyat ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Ma'ruzaning e'tiborli jihatlaridan biri shundaki, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida birinchi o'ringa shaxs, inson qadri yuqori o'ringa qo'yilib, "inson – jamiyat – davlat" degan yangi tamoyil asosida davlat va jamiyat boshqaruvini tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda, amaliy natija, inson manfaati, uning qadr-qimmatini bosh maqsadga aylangan.

Tan olib aytish joizki, o'tgan besh yilda ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida qator tizimli islohotlar amalga oshirildi va ijobiy natijalarga erishildi, biroq shu bilan birga mazkur sohada samarali mexanizmlarni yaratishga to'sqinlik qilayotgan qator muammo va kamchiliklar ham yo'q emas. Kelgusi besh yilda bu borada ijtimoiy yo'nalishdagi islohotlar alohida ahamiyatga ega, albatta.

O'tgan yillar mobaynida ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ishlarga nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy himoya va doimiy yordamga muhtoj shaxslar bilan ishlashning "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi yangicha ishlash mexanizmi joriy etildi. Ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlanadigan aholi soni qariyb 1,5 barobar oshirildi.

Qayd etilganidek, ushbu taraqqiyot strategiyasi yetti yo'nalishdan iborat.

Birinchi yo'nalish inson qadriyatini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishga qaratilgan. Inson qadriyatini ulug'lash, har kimning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shuningdek, ushbu yo'nalishni amalga oshirish uchun quyidagi maqsad va vazifalar belgilab berildi:

1-maqsad: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish.

2-maqsad: Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'iniga aylantirish.

3-maqsad: Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish.

4-maqsad: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish.

5-maqsad: Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish.

6-maqсад: Davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish.

7-maqсад: Mamlakatimizdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish.

8-maqсад: Norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat'iy ijrosini ta'minlash.

9-maqсад: "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokraziyani bartaraf etish.

10-maqсад: Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish.

11-maqсад: Xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish.

12-maqсад: Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Bu yo'nalish doirasidagi vazifalar o'tgan besh yil davomida inson qadr-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarning uzviy davomi bo'ladi, ularni yangi pog'onaga ko'taradi. Xususan, Taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ning 3-bandida mahallaning "faol" modelini joriy etish hamda har bir fuqarolar yig'inini aholi muammolarini bevosita hal qilish, hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta'minlash ko'zda tutilgan. Buning uchun kelgusida davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga o'tkaziladi. Har bir mahallada hokim yordamchisi lavozimi joriy etiladi. Tuman byudjeti qo'shimcha manbalar bilan ta'minlanib, mahallaning alohida jamg'armasi shakllantiriladi. Markaziy idoralar transformatsiya qilinib, ixcham va samarali boshqaruv tizimi yaratiladi, bir xil yo'nalishdagi vazifalarni amalga oshirayotgan idoralar optimallashtiriladi. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlari kengaytirilib, ushbu maqsadda mahallaning alohida jamg'armasi tashkil etiladi. Bularning barchasi aholi muammolarini hal etishda sifat va samaradorlik oshishiga olib keladi. Umuman, strategiyaning har bir ustuvor yo'nalishi inson qadrini ulug'lashga xizmat qiluvchi vazifalarni qamrab olgan.

Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, — *"inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz"*.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Inson huquqlarini himoya qilish uzluksiz davom etadigan jarayon ekanligi nuqtai nazaridan xulosa sifatida aytish mumkinki, Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida mamlakatimiz inson qadrini yuksaltirish borasida kelgusi besh yillik uchun muhim vazifa va maqsadlarini belgilab olgan. Demakki, keng ko‘lamli islohotlar jarayoni izchil davom etib, ular sermahsul bo‘lishidan butun xalqimiz manfaatdor. Ularni amalga oshishi uchun esa har birimiz mas’uldirmiz. Zero mamlakatimiz kelajagi va rivoji uchun hamjihatligimiz va birdamligimiz muhimdir.

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda barcha davlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari ham kamarbasta bo‘lishiga ishonamiz.

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi hamda xalqimizni umumiy maqsadlar yo‘lida birlashtirib turadigan yaxlit ma’naviy asos va mezonga aylanadi.

## **REFERENCES**

7. Ta’lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O‘zbekiston, 2020.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O‘zbekiston, 2017.
9. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.Uz>
10. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.Uz>

## **XITOY TABIIY FALSAFASIDA ONTOLOGIYANING ASOSIY MUAMMOLARI**

**Xudaynazarova Laziza**

TDSHU Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi magistranti

**Ilmiy rahbar: f.f.d. Izzetova E.M.**

### **ANNOTATSIYA**

*Qadimgi Sharqning tabiatining asosi bu faqat falsafiy ta'limotdir, bu o'zgarishlarning oqimi, butun dunyo va doimiy ravishda yanilanib turadigan ko'plab metamorfozlar dunyosining haqiqiy tasviridir. Dunyoda barcha narsa alohida-alohida bo'lib, bir-biridan ajralib turadi, shuningdek, narsalar orasidagi aloqalar o'zlarining pozitsiyasini aniqlaydi. Shunday qilib, koinotdagi eng kichik narsa ham boshqa narsalar bilan birlashadi. Qadimgi Xitoy aholisining fikricha, "barcha zulmatlar yoyilgan tarmoqqa o'xshaydi va unda boshlanish yoki oxirat yo'q".*

***Kalit so'zlar:** Qadimgi Xitoy, tabiatfalsafasi, falsafa, tayan va shandi, in-yan, havo, gaz, nafas, efir.*

## **ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ В КИТАЙСКОМ ЕСТЕСТВЕННО-ФИЛОСОФСКОМ**

**Худайназарова Лазиза**

Магистр восточной философии и культуры, ТГУВ

**Научный руководитель: к.э.н. Иззетова Е.М.**

### **АННОТАЦИЯ**

*В основе природы Древнего Востока лежит лишь философское учение, правдивая картина течения изменения всего мира, мира множества метаморфоз, постоянно развивающихся. Все в мире обособлено и отлично друг от друга, и связи между вещами определяют их положение. Таким образом, даже самая маленькая вещь во Вселенной сливается с другими вещами. По словам древних китайцев, «вся тьма подобна раскинувшейся сети, у которой нет ни начала, ни конца».*

***Ключевые слова:** Древний Китай, натурфилософия, философия, тян и шанди, инь-янь, воздух, газ, дыхание, эфир.*



## **MAIN PROBLEMS OF ONTOLOGY IN THE CHINESE NATURAL PHILOSOPHICAL**

**Khudaynazarova Laziza**

Master of Department of Oriental Philosophy and Culture of TSUOS

**Scientific adviser: Ph.D. Izzetova E.M.**

### **ABSTRACT**

*The basis of the nature of the Ancient East is only a philosophical doctrine, a true picture of the course of change in the whole world, a world of many metamorphoses, constantly developing. Everything in the world is isolated and different from each other, and the connections between things determine their position. Thus, even the smallest thing in the universe merges with other things. According to the ancient Chinese, "all darkness is like a spreading net that has neither beginning nor end." Chinese believers called the real world chaos, implying an eternal wealth of diversity.*

**Key words:** Ancient China, natural philosophy, philosophy, tayan and shandi, yin-yang, air, gas, breath, ether.

### **KIRISH**

Koinotdagi barcha narsalarning o'zaro ta'sirini tasvirlash uchun ikkita dunyo kuchlarining izchil nazariyasi shakllandi: yigit kuchlari, erkak, yorqin, faol tamoyilni, haroratni va ayol kuchlarini, zulmatni, tinchlikni, sovuqlikni ramziy tasvirlaydi. Yan va Inning asosiy qarama-qarshi fazilatlarini qadimgi faylasuflar tomonidan yong'in (Yan) va suv (In), yani, Jan o'ziga xos xususiyatlarida olovga o'xshash va alomatlari bilan ajralib turadi: yorqin, issiq, yuqoriga va tashqariga yo'naltirilgan. In o'z xususiyatlarida suvga o'xshash va belgilar bilan ifodalanadi: zerikarli, sovuq, pastga va ichkariga yo'naltiriladi. Shundan kelib chiqadiki, tabiatda tinchlikka ega bo'lgan har bir narsa sovuq, sekin, kam funksiyaga ega va In; barcha xususiyatlar qarama-qarshi xususiyatlarga ega: ko'chma, issiq, tashqarida va yuqorida joylashgan, rivojlangan funksiyaga ega - Yanga tegishli. Yan va In nazariyasining asosiy bayonoti bizni dunyodagi barcha xilma-xillikda, shuningdek, murakkab hodisalarni tasvirlashga imkon beradi. Koinotda mavjud bo'lgan har bir narsa Yan va In (har qanday hodisa dam olish va faoliyat holatiga ega, har qanday ob'ekt yuqori va pastki va hokazo.) juda ko'p ma'nolarga ega va ular bir biriga o'zaro bog'liqdir. Qadimgi Xitoydagi In va Yan falsafiy ta'limoti ikki shalda o'z-o'zini tashkil qilish xususiyatiga ega. Ya'ni ayol-erkak, yorug'lik va qorong'ulik shaklida bo'ladi va shu

tarzda sinergetik hususiyat kasb etadi. Sinergetika tartib qanday kechishi mumkin degan savol tug'iladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

Sinergetikada tartiblilik va xaos, strukturaviylik ob'ektiv va teng deb e'tirof etiladi. Bunda xaos va stohastiklikka destruksiya deb emas, balki konstruktiv hodisa deb qaraladi. Bilimga sub'ektiv faoliyatning muttasil aralashuvi sinergetik bilimning muhim belgisidir. Bu bilan biz sinergetikani har xil tabiatli sistemalarda kechadigan fanning o'z-o'zidan tashkil bo'lish jarayonlarining umumiy prinsiplarini o'rganadigan metod ekanligiga amin bo'lamiz.

Ontologik jihatdan sinergetikaning evolyusion harakteriga qarab mo'ljal olishi borliqning muhim xususiyatlari - tarixiy davr, sistemalilik va rivojlanishiga boqliq ekanligini ko'rsatadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, aynan sinergetika tabiiy va yaxlit ijtimoiy sistemalarni bilishga yo'naltirilgan metod bo'lib, u asosan, falsafa va muayyan fanlarga oid bilimlarni bir-biriga o'tishiga asoslanadi<sup>352</sup>. Metodologik jiqatdan sinergetika aksariyat fanlarni bilish usullari, prinsiplari, tadqiqot usullarini birlashtirish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bu bilan sinergetika falsafa va fanga yangicha dunyoqarash nuqtai nazaridan yondashishni talab qiladi. Shuning uchun ham agar oldingi bosqichlarda fan, asosan, borliqning nisbatan tor, alohida parchasini tushunib etishga qarab mo'ljal olgan bo'lsa, sinergetikaning aksariyat kompleks tadqiqot dasturlari, fanlararo ilmiy tadqiqotlar bilan belgilanadi. Ushbu dasturlarning amalga oshirilishi natijasida nazariy va eksperimental tadqiqotlar bir sistemaga birlashtiriladi.

Barchamiz xaos - bu faqat salbiy tushuncha deyishga o'rganib qolganmiz. Zamonaviy fan esa buni aksini ko'rsatmoqda. Chunki, taraqqiyot uchun ham xaos zarur ekan. Faqat u me'yorida bo'lishi kerak. Chunki, xaossiz mukammal sistema o'zi tashkil bo'la olmaydi. Ya'ni, sinergetika g'oyasi xaossiz rivojlanish yo'q ekanligini ko'rsatadi. Koinot haqida gap borar ekan qisqa quyosh sistemasi to'qrisida fikr yuritimiz. Quyosh sistemasi organizm, o'z-o'zini tashkillashtiruvchi sistema sifatida muqitda, ya'ni galaktikada joylashgan. Uning aniq aspektlari to'qrisida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Masalan, mavjudligidan sistemaning knetik momentini olsak;  $L=3,14-10\ 48$ . Ushbu fakt o'z-o'zini tashkillashtiruvchi sistemada organizm hisoblanadi ya'ni "organizm-muhit" quyosh sistemasi uchun muhit bu galaktikadir. Jumladan, agar quyosh sistemasi galaktikaga o'z vektori  $L\ 1$  bilan ta'sir

<sup>352</sup> Бозаров Д. М. Сinergetik paradигма. – Т., 2009. – Б. 81.

ko'rsatsa, unda galaktika qam unga o'zini manfiy-L-vektori bilan ta'sir ko'rsatadi<sup>353</sup>. Sinergetika shu tarzda namoyon bo'lib o'z-o'zini tashkil etadi.

In va Yan fasafiy ta'limotida kasmalogiya nihoyatda katta ahamiyatga ega. Yorug'lik va qorong'ulik, ikki ibtodning dialektik shaklda kechishi In va Yan nazariyasiga to'g'ri keladi. Ushbu nazariy asoslari asrlar davomida muhokama qilingan. In qorong'u, ayol, Yan - yorqin, erkaklar prinsipidir. Ular besh unsurda o'z aksini topgan va bu o'z navbatida dunyodagi mohiyatni tashkil etadigan ikkita universal kuchlarni ifodalaydi. Dao muvozanatni o'rnatganidek, In va Yanga kerak. Tog'ning quyoshli va soyali tomoni singari, In va Yan ajralmas va bir-birini to'ldiradi. Hayot faqatgina qorong'i ranglarda va aksincha, bo'yalgan bo'lishi mumkin emas. Turli xil fikrlarni o'ylash befoyda bo'lishdir. Hayotni cheksiz quvnoq oqim deb qabul qilish uchun qilingan urinish oldindan hal bo'ladi va umidsizlikka olib keladi. Xuddi shu tarzda, yuz foiz erkak yoki yuz foiz ayol bo'lishi mumkin emas<sup>354</sup>. Bu Daosizmning asosiy tushunchasi: tabiatning barcha hodisalariga muvozanatli yondashish va tabiiy muvozanatni buzgan taqdirda tuzatish. Ushbu konsepsiya katta chegaraning ramzi - tayjiyni ifodalaydi. Qora rang Inni va oq - Yan nomini bildiradi. Ikki qarama-qarshilik bir-birini to'ldiradi va bir-biriga o'tadi. Hamma narsa erkaklar va ayollarning mavjudligi, qorong'i va yorug'likning namoyon bo'lishi bilan ifodalanadi, bu ayollik erkaklar elementlarini va aksincha. Shu bilan birga, Tai Chi uzluksiz harakatni, uzluksiz jarayonni nazarda tutadi.

In-Yanning ramziy ma'nosi Xitoy milliy hayot va madaniyatining barcha sohalarini qamrab oladi. In-Yan falsafasi mavjud tartiblarning bayonoti sifatida qabul qilinishi mumkin. Daosizm, hayotning dastlab bulutsiz ekanligini da'vo qilmaydi, va azob-uqubat faqat bezovta qiluvchi voqea. Har qanday hayotiy hodisaning asosi - o'sish va yo'qotish muvozanati, quvonch va qayg'u, daromad va yo'qotishdir. Bu sizning hayotingizdagi qora va oq rangli chiziqlardan mustaqil ravishda yashashga imkon beradigan har qanday narsalarning ikkilanishini tushunishdir. In-Yan muvozanatining yana bir namoyoni bor: In - passiv boshlanish, tinchlik va aks ettirish; Yan faol va ijodiy kuchdir. Ideal sifatida, bu kuchlar muvozanatni saqlash kerak. Daolar faoliyat yuritish davrlari va hayratlanarli tinchlik inson hayotida muqobil bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydi, aks holda uning faoliyati samarasiz bo'ladi. Insonning shaxsiyati In va Yan xususiyatlarini aks ettiradi. Jinsga qaramasdan, erkakning erkak

<sup>353</sup> Бозаров Д. М. Синергетик парадигма. – Т., 2009. –Б. 87.

<sup>354</sup> Го Мо-жо. Философы древнего Китая. - М., 1961. – С. 143.

va erkak sifati bor. Qarama-qarshilik In va Yan o'zgarish jarayonining tashabbuskori bo'lib, asosan, hal qilmaydi<sup>355</sup>.

Bu ibora Daochilik dunyoqarashning asosiy tamoyilidir, unga ko'ra inson tabiatining nomuvofiqligi narsalarning umumiy tamoyilini aks ettiradi. Daochilikning ko'ra, shaxsning shaxsiyati doimiy ravishda aniqlanmaydi, chunki u insonning U-Sing nima qilayotganiga aylanadi - Xitoy falsafasining asosiy toifalaridan biri; olamning asosiy parametrlarini belgilaydigan besh muddatli tizim. Falsafa bilan bir qatorda, an'anaviy xitoy tibbiyotida, boyluk-amaliyotda, jang san'atlarida va umerologiyada keng qo'llaniladi. U mavjud bo'lgan barcha narsalar va hodisalarning holatini va munosabatlarini tavsiflovchi beshta sinfni (Yog'och, olov, er, metall, suv) o'z ichiga oladi. Elementlarning ketma-ketligi "Shu Ching" kanonida, "Gongkong Fan" bo'limida aniqlanadi. U-Sinning kelib chiqishi quyidagi holatlarning paydo bo'lishidan oldin boshlanadi: Birinchi asrlik xaos (Hun Dun), Infinite (Ji), Great Limit (Tai Ji); In-Yan. Besh unurning ikki asosiy davriy o'zaro ta'siri bor: o'zaro avlod va o'zaro yengil. O'zaro avlod quyidagilardan iborat: Yog'och yong'indan, Yong'in Yerdan tug'iladi, Yer begona o'tadi, Metalldan suv keladi, Suv daraxtdan yashaydi. O'zaro o'zaro kelishuv quyidagicha: Yog'ochlar zabt etilgan Yer, Yer suvni bosib oladi, Suv yutadi, Yong'in mag'lubdir, Metal zabt etadi Yog'ochni<sup>356</sup>.

Samodagi ruhlar va Shan-di antik davrining eng oliy ruhi, mutlaq uyg'unlik va eng yuqori burchagiga aylanadi. Bu Yanning boshlanishi va ruhni saqlab qolishga yordam beradiganlardir kelajakda unga avlodlar kelishi mumkin bo'lgan individuallikdir. Shan-di - imperatorga, osmonning o'g'liga vakilik qiladi. Bu uyg'unlashtiruvchi va tartibga soluvchi ta'sirga qarama-qarshilik va bir vaqtning o'zida yunning boshlanishi dunyoni Gui kabi ruhlar bilan ifodalaydi, bu betartiblikni, tuzilmaga ega bo'lmagan massani va entropiyani, zararli va yo'q qilishni anglatadi. Bundan tashqari, ruhlar o'zlari va shan-di mo'jizaviy narsalar emas, balki faqat samoviy ruhlar bilan ifodalangan aniq tuzilish va ierarxiya bilan tuzilgan bo'lib, bir massaning abadiy to'qnashuvi (gui ruhlari, shu jumladan, tozalash) ni ifodalaydi.

Dunyoni xaos-tartibga solishning o'zgarishi sifatida tushunishning bunday g'ayrioddiy strukturasi, ba'zi tadqiqotchilarni dunyodagi in'ikoslarning muayyan birlashgan metafosunun borligi haqida gapirishga imkon berdi. Majmuaviy samoviy ierarxiyadan ruhlar tushunchalari nafaqat ob'yektlari, balki imperator-ierarxik birlikning metafoslari ham yotadi: ezoterik dunyoda betartiblik va tartib bu dunyoda doimo aniq tasavvurga ega. In - bu aniq ibtidoiy betartiblik, bu insonning o'z

<sup>355</sup> Го Мо-жо. Философы древнего Китая. - М., 1961. - С. 145.

<sup>356</sup> Bao Zhiming, 1990, "Language and World View in Ancient China," *Philosophy East and West*, 40(2): - P. 219.

manbasini (aniqroq, manbaiga) murojaat qilishi. Daochilik nuqtai nazardan xaos, shuningdek, barcha mistik maktablarda ijobiy xarakterga ega, chunki u dunyoning ajralmasligi va birligi ramzidir<sup>357</sup>. U mohiyatining aniq ta'rifisiz u yerda hech narsa tug'ilmasligi ehtimoli bilan dunyoning tug'ilishidan ko'p emas. Bu hamma narsaning imkoni va uning mutlaq amorfli va noaniqligi bilan hamma narsaga qodirligiga ega. Uning metaforalari "dastlabki kom", "g'orning bo'shlig'ini aks ettirish", "cheksiz" (yi, zi), "abadiy" (syan tien) tushunchalari. Bu yerda bilim va johillik, tug'ilish va o'lim, bo'lish va yo'qligida birlashtirilgan hech qanday shakl va chegarasi bo'lmagan turar joy<sup>358</sup>. Butun imperatorlik madaniyati - o'zlashtirilgan yon - "asl koma" ning ramziyligiga qarshi. "Nomlarni taqsimlash" va Xitoyning qadimiy mafkuralari va zamonaviy siyosatchilarning aniq qiymatni tartibga solish va yaratish uchun deyarli paranoyak asta-sekinlik bilan bo'lishish uchun yaratilgani in ustidan in tarqalishi tamoyilini amalga oshirishga urinishdan boshqa narsa emas. Shu bilan birga, bu dunyoviy madaniyat prinsipi - bu yerda Yan In ustidan hukmronlik qilmoqda, mistik paradigmadagi In esa In va Yanning muxolifat va bir-birini to'ldirishining yagona natijasidir. Shunday qilib, in-yanning tarkibi odatda mutlaq tartib va mutlaq betartiblik sifatida qabul qilinadigan voqealar almashinishning umuminsoniy shakli bo'lib chiqdi va bu xaos va inning boshlanishi Xitoyning mistik madaniyatining atributlari bo'lib chiqdi. Shuning uchun in bilan bog'liq bo'lgan har bir narsa yashirin bo'lib, ramzlar, raqamli va rangli sehrlar orqali bu dunyoda namoyon bo'lgan. Va natija sifatida mutlaq bo'lmagan mavjudotga teng keladigan sehrlilik sxemaning mavjudligini tushunish kerak edi. In va Yan qadimgi Daoizm falsafasi Daoizm maktabi konsepsiyalari bilan bir qatorda faol yoki erkaklar prinsipi (Yan) va passiv yoki feminen prinsip (In) kabi kuchlarni ikki tomonlama taqsimlashning xitoy timsolidir<sup>359</sup>.

11. Narziev O., Gulyamov S., *The Institutional and Legal Framework of Emerging Capital Markets: The Experience of CIS Countries.* // *Psychology and Education* (2021) 58(1), (Scopus) – Б. 157-177;

12. Narziev O.S. Securities Market Development in CIS Countries: Legislative and Regulatory Lessons from Kazakhstan, Russia, and Uzbekistan. Monograph. – Tashkent.: TSUL. 2021. – 155 p.
13. Narziev.O. Independence and Structure of State Securities Market Regulator in Uzbekistan. // Annual Report on Research and Education 2014, Nagoya University, March 2015 – P. 45-87;
14. Narziev.O. Problems and prospects of development legal bases of stock market regulation in Uzbekistan // Vilnius University Law Research Papers. 2009. Vol.71, – P. 70 -87;
15. Narziev.O.Extractive Industries Transparency Initiative Standards Implementation: Lessons for the Philippines. // The Nagoya journal of law and politics, 2014, Special Issue on Institution Design for Conflict Resolution and Negotiation : Theory and Praxis (February 1-2, 2014, Nagoya, Japan) – P. 289-320;
16. Narziev.O.Towards Medium Long-Term Development of Uzbekistan Stock Market. // Uzbek Journal of Legal Studies, Japan, 2018, Vol.2, – P. 5-10;
17. Pan, Eric J. “Structural Reform of Financial Regulation.” *Transnat’l L. & Contemp. Probs.* 19 (2010): 796.
18. Richard H. Pildes, “Separation of Powers, Independent Agencies, and Financial Regulation: The Case of the Sarbanes-Oxley Act,” *NYUJL & Bus.* 5 (2009): 485.
19. Richard J Herring and Jacopo Carmassi, “The Structure of Cross-Sector Financial Supervision,” *Financial Markets, Institutions & Instruments* 17, no. 1 (2008): 56.
20. Shen-Shin Lu, “Securities Regulation in Japan: An Update,” *Denv. J. Int’l L. & Pol’y* 22 (1993): 148.
21. Stephanie Meinhard and Niklas Potrafke, “Globalization–Welfare State Nexus Reconsidered”, *Review of International Economics* 20, no. 2 (2012): 271-287.
22. Нарзиев О. Правовой статус регулятора и структура регулирования рынка ценных бумаг.// Наукові тренди постіндустріального суспільства: матеріали II Міжнародної наукової конференції (Т.1), м. Запоріжжя, 3 грудня, 2021 р. / Міжнародний центр наукових досліджень. — Вінниця: Європейська наукова платформа, 2021, – P. 94-97;
23. Нарзиев О. С. Капитал бозори бизнесни молиялашнинг муқобил манбаси сифатида. // *Юрист Ахборотномаси*, Vol.1, Issue 6, 2020 – Б. 37-44;



## MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI

**Himmataliyev Do'stnazar Omonovich<sup>1</sup>,  
Xojiyev Xayrulla G'ulomqodirovich<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Chirchiq davlat pedagogika instituti professori,

<sup>2</sup>Samarqand veterinariya medisinasi instituti Toshkent filiali katta o'qituvchisi.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada muammoli ta'lim texnologiyasining mazmun- mohiyati ochib berish bilan bir qatorda uning xususiyati, ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari muammoli ta'lim texnologiyasining turlari va har biriga qo'yiladigan talablar bo'yicha mualliflar tomonidan kerakli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** Muammoli vaziyat, muammoli-modulli ta'lim texnologiyasi, tanqidiy fikrlash, tafakkur, ijodiy faollik, aqliy hujum, keys stadi.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье не только объясняется содержание технологии проблемного обучения, но и рассматриваются ее особенности и значение. Кроме того, авторы приводят информацию о видах технологий проблемного обучения и требованиях к каждому из них.*

**Ключевые слова:** Проблемная ситуация, проблемно-модульная технология обучения, критическое мышление, мышление, творческая деятельность, мозговой штурм, кейс-стади.

### ABSTRACT

*This article not only explains the content of problem-based learning technology, but also discusses its features and significance. In addition, the authors provide information about the types of problem-based learning technologies and the requirements for each of them.*

**Keywords:** Problem situation, problem-modular learning technology, critical thinking, thinking, creative activity, brainstorming, case study.

### KIRISH

Biz pedagoglar talabalarda bilim berishda ularda berilayotgan materiallarni ko'r-ko'rona yodlab olish emas balki tafakkur va anglab yetishlarini ta'minlashimiz, ularning ijodiy qobiliyatini shakllantirishimiz lozim bo'ladi. Bunday qarashlarni qancha-qancha allomalar o'zlarining asarlarida keltirib o'tganlar. Jumladan, Sharqning buyuk allomalaridan biri bo'lgan Muhammad Muso al-Xorazmiy shunday firlarni bayon etib ketgan:

- o'qitishda mustaqillik (ijodiy faollik);

- kuzatilgan voqea va hodisalarni tushintirishda muntazamlik, ketma-ketlik;  
- tajriba;  
- o'qitishning har bir vaziyatli, savol-javob shakli bilish jarayonini rivojlantiriladi[1].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O'tgan asrning 60-yillarida muammoli ta'lim L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Y.Lerner kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan. S.L.Rubinshteynning "Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi" degan g'oyasi muammoli ta'limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.

Muammoli ta'lim texnologiyasining eng asosiy yutuq tomoni va ahamiyati shundan iboratki, ta'lim oluvchi o'zida tanqidiy fikr yuritish bo'yicha ko'nikmalar hosil qiladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ta'limiy maqsadga to'liq erishish uchun jarayonni to'g'ri tashkil etish, talabalarda o'rganishga nisbatan motvatsiya hosil qilish, ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatish lozim bo'ladi. Oliy ta'lim tizimida yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda eng maqbul ta'lim texnologiyalardan biri bu-muammoli-modulli ta'lim texnologiyasidir. Rus olimi M.Choshanov ushbu texnologiya haqida quyidagilarni bayon qiladi- "Muammoli-modul texnologiyasi orqali o'qitishda asosiy e'tiborni biz talabalarning tanqidiy fikrlash orqali masalalarni hal qilishga o'rgatilishiga qaratishimiz lozim bo'ladi"[2]. Yana bir taniqli rus pedogog olimi A. Matyushkin fikriga ko'ra "muammoli ta'lim texnologiyasi ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantiradi[3]". Muammoli ta'lim deganda o'kuv materialini o'kuvchilar ongiga ilmiy izlanishga o'xshash vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rganish tushuniladi. O'kuvchi (talaba)ning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular talaba (o'kuvchi)ni ob'ektiv ravigsda izlanishga va mantikdn to'g'ri ilmiy hulosalar chiqarishni o'rganishga da'vat etadi[4].

Muammoli ta'lim texnologiyasidan nafaqat oliy ta'limda balki ta'limning barcha bo'g'inlariga tadbiq etish lozim. Chunki bog'cha yoshidanoq ta'lim-tarbiya jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim oluvchilarni fikrlash va tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishimiz mumkin bo'ladi. Bu amaliyot ta'limning qolgan bo'g'inlarida ham davom ettirilsa, ularda hosil bo'lgan ko'nikmalar orqali ta'lim beruvchining pedogogik vazifalarni bir muncha onsonlashishiga sababchi bo'ladi. Tafakkurning rivojlanishi orqali ta'lim oluvchi

nafaqat bilim olish jarayonida, balki hayotda ham qoqilmay to'g'ri faoliyat yuritishlariga sababchi bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishdagi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining faoliyati taqsimoti quyidagi jadvalda berilgan.

Ta'lim beruvchi:	Talaba:
<ul style="list-style-type: none"><li>• muammoli vaziyatni yaratadi;</li><li>• mantiqiy fikrlar va tadbirlarni tashkil etadi;</li><li>• tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarini shakllantirish orqali bilish faoliyatini jonlantiradi.</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>• muammoli vaziyatni tahlil qiladi;</li><li>• umumlashtirish, intellektual mashaqqatlarni hal qilish va xulosa chiqarish orqali bilishga bo'lgan qiziqishini qondiradi.</li></ul>

Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turibdiki, birinchi navbatda ta'lim beruvchi mavzuga doir muammoli vaziyatni yaratishi lozim bo'ladi. Bunda muammoli vaziyat juda ham onson ham emas va ta'lim oluvchilar yecha olmaydigan juda ham qiyin bo'lmasligi lozim. Qo'yilgan masala juda onson va jo'n bo'lsa, ta'lim oluvchilar masalani juda ham onson hal qiladilar va uning mohiyati past darajada bo'ladi. Agar qo'yilgan vazifa juda qiyin darajada bo'lsa, faoliyat davomida ta'lim oluvchi uni yecha olmasa ularda motivatsiya yo'qolishi mumkin.

Ta'lim beruvchining 2-navbatda qiladigan ishi muammoli vaziyat bo'yicha ta'lim oluvchilarga kerakli yo'nalishlar berib boradi. Buning mohiyatini bir misol tariqasida tushintirish mumkin, masalan: avtomobilni boshqarib ketayotgan haydovchiga yo'llarga o'rnatilgan yo'l belgilari. Bu belgilarga qarab haydovchi ham qoidalarga rioya qilib borish bilan birga, tegishli yo'nalishga harakatlanishini amalga oshiradi.

Muammoni hal etish davrida ta'lim oluvchilarda paydo bo'ladigan to'siqlarni hal etishda ta'lim beruvchi ularga kerakli paytlarda motivatsiyalar hosil qilib borishi lozim bo'ladi. Bu ta'lim beruvchi faoliyatning 3-vazifasiga kiradi.

Muammoli ta'limda o'qitish bosqichlari 6 tani tashkil etadi.  
Muammoli ta'limda o'qitish bosqichlari quyidagilardan iborat:



Yuqoridagi bosqichlardan samarali o‘tishda talabalar nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan birgalikda, amaliy-tadqiqot faoliyati bilan ham shug‘ullanadilar, ko‘pgina man‘balarga e‘tibor qaratadilar.

Pirovard natijada ko‘zlanga maqsadga erishib, o‘zlaridagi bilimga bo‘lgan ehtiyojni qondiradilar. Pedagogning muammoli ta‘limdagi eng asosiy vazifasi ana shu ehtiyojni ularda hosil qilish hisoblanadi.

Muammoli ta‘limning eng jo‘n shakli **“aqliy hujum”** taktikasi bo‘lib, bu orqali auditoriyani jonlantirib olish, ta‘lim oluvchilarning mavzu bo‘yicha dastlabki qarashlarini, bilimlarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Bunda ta‘lim oluvchilar auditoriyasiga qisqa savol o‘rtaga tashlanadi. O‘rtaga tashlanayotgan savol qisqa va jo‘n bo‘lishi kerak. Ushbu metodning asosiy sharti berilayotgan javoblar muhokama, tanqid qilinmaydi va javob berayotganlar baholanmaydi.

## **XULOSA**

Eng nufuzli xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonida muammoli ta‘limning “Keys stadi” metodidan keng ko‘lamda foydalaniladi.

“Keys”-“vaziyat”, “holat”, “stadi” esa “o‘rganmoq” ma‘nolarini anglatadi. Dunyo reytinglarida yuqori turuvchi nufuzli oliy ta‘lim muassasalarida umumiy o‘quv yuklamaning 30% gacha qismini ana shu texnologiya asosida tashkil etiladi.

Keyingi texnologiya muammoli-modulli ta‘lim texnologiyasi bo‘lib, bunday ta‘lim texnologiyasini “kompleksli ta‘lim texnologiyasi” deb ham atash mumkin. Bunday texnologiya orqali ta‘lim oluvchilar nazariy bilimga ega bo‘lish bilan birgalikda amaliy ko‘nikmalarni ham samarali o‘zlashtirib oladilar. Bu pedagogik

---

vazifani bajarish uchun avvalambor, muammo sifatida qo‘yilayotgan masala auditoriyaning intellektual darajasidan yuqori bo‘lmasligi lozim bo‘ladi.

### **REFERENCES**

1. Hoshimov K. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi – T. “O‘qituvchi” 2010 yil. 72-bet
2. Чошанов М.А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения-М: “Народное образования”№2, 1996.
3. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации мышления и обучении-Москва “Директ-медиа” 2014.
4. З.К.Исмоилова , Р.С.Мусаев, А.А.Шоюсупова. Ўқитишнинг замонавий технологиялари. Тошкент 2008.

## MATEMATIKA DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASHLARINI SHAKLLANTIRISH



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-3-1406-1419>

**Ummatkulova Sayyora Shavkatovna**

GulDU Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

**Xo'jaboyeva Zilola Solijon qizi**

GulDU Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Hozirgi paytda maktablarda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni har tomonlama etuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo'yicha bilimlar berish bilan birga ularga o'rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo'lishini ta'minlash, ularni qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llashlari uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish boshlang'ich matematik ta'limning asosiy vazifalariga aylanishi lozim. SHu nuqtai nazardan o'quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli, ularning to'plagan tajribasiga asoslangan masalalarni yechish usullariga va ularni qo'llashga o'rgatish o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularni ta'lim mazmuni va o'rganilayotgan tushunchalar mohiyatini ochib berishda foydalanish, o'zaro aloqadorlikda va o'quvchilar amaliy faoliyati tajribasi bilan qo'shgan holda o'qitish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu usullarni ishlab chiqish va amalda qo'llash o'qitish sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** tafakkur. Mantiqiy fikrlash, matematika, muammoli masala, jumboq.*

### АННОТАЦИЯ

*В настоящее время одной из основных задач обучения математике в начальной школе является воспитание учащихся как зрелых взрослых. При этом важно обеспечить их знаниями по математике, а также следить за тем, чтобы изучаемые ими знания были достоверными и основательными, и развивать навыки и умения их применять. Развитие навыков мышления, особенно в математике, и формирование умений и компетенций, необходимых им для успешного применения полученных знаний в будущей сознательной деятельности, должны стать основными задачами начального*

*математического образования. В связи с этим методы обучения решению математических задач в учебном процессе, в том числе жизненно важных вопросов, основанные на их опыте, и их применение имеют свои особенности, раскрывающие сущность содержания образования и изучаемых понятий. взаимодействие и преподавание в сочетании с опытом практической деятельности студентов являются актуальными вопросами. Разработка и внедрение этих методов поможет повысить качество и эффективность обучения.*

**Ключевые слова:** мышление. Логическое мышление, математика, решение задач, головоломки.

### **ABSTRACT**

*Currently, one of the main tasks of teaching mathematics in elementary school is to educate students as mature adults. At the same time, it is important to provide them with knowledge in mathematics, as well as to ensure that the knowledge they study is reliable and thorough, and to develop skills and abilities to apply them. The development of thinking skills, especially in mathematics, and the formation of the skills and competencies necessary for them to successfully apply the acquired knowledge in their future conscious activity, should become the main tasks of primary mathematical education. In this regard, teaching methods for solving mathematical problems in the educational process, including vital issues based on their experience, and their application have their own characteristics, revealing the essence of the content of education and the concepts being studied. interaction and teaching, combined with the practical experience of students, are topical issues. The development and implementation of these methods will help improve the quality and effectiveness of training.*

**Keywords:** thinking. Logical thinking, mathematics, problem solving, puzzles.

### **KIRISH**

Matematik masalalar yyechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Matematikada masalalar yyechishning nazariyasini amaliyotga tadbiq qilishning muhim yo'lidir. Masalalar yyechishning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonida muhim rolni va o'quvchilarni fikrlash qobilyatlarini o'stiradi, muhim ro'l o'ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan so'z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish

har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qo'llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan amalga oshadi.

Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi bog'lanishlarni amal komponentlari bilan natijalar orasidagi ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi bog'lanishlar bilan tanishishda mos sodda masalalardan foydalaniladi. Sodda masalalar o'quvchilarda murakkab masalalarni yechish uchun zarur, bo'ladigan bilimlar malakalar va ko'nikmalarni tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib odatda o'z ichiga ayrim bilimlarni oladi. Bu bilimlarni qidirish masala echuvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o'rgatish matematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi. O'quvchilarga tarbiya berishda ham hayotiy masalalar fikr doiralarni kengaytirishga yordam beradi. Masalalar ustida ishla ekan sistemali ravishda va rejali asosda o'quvchilarning xususiy malakalarini takomillashtirishga olib keladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Boshlang'ich sinflarda masalalarni o'rganish yangi tushunchalarni shakllantirish, sodda masalarni yechishdan murakkablarni yechishga o'tish yordamida amalga oshiriladi. Bunda qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishga doir har xil sodda masalalar ya'ni bir xil qo'shiluvchilarning yig'indisini topishga karrali va teng bo'laklarga bo'lishlarga doir sonni bir necha kattalashtirish va kichiklashtirishga oid masalalar sonlarni taqqoslashga amallarning noma'lum komponentlarni topishga doir sodda masalalar shuningdek turli murakkab masalalar shu jumladan keltirib echiladigan masalalar, ikki ko'paytuvchining yig'indisini topishga doir va unga teskari masalalar yig'indisini so'ngra ko'paytirish bo'lishga keltiradigan va boshqa masalalarni ko'rib chiqamiz.

Agar berilgan masala o'zining murakkabligi bilan sinfda echilgan masalalarga mos yoki o'xshasa u holda o'quvchilar taklif qilingan masalaning echilishi yo'lini mustaqil topishga o'rgatish kerak. Shu maqsadda o'quvchilar masalalar yechishga yaqinlashishning eng sodda umumiy usullarini egallashlari lozim.

**Sahnalashtirilgan masalalar.** Sahnalashtirilgan masalalarga katta e'tibor beriladi. Bu masalalarda bolalarning kuzatgan, ko'pincha o'zlari bevosita bajargan harakatlari aks ettiriladi. Bu erda savolga javob berish emas, balki bu berilgan sonlar



ko'rgazmali asosida ko'rinib turishi mumkindir. Birinchi sinf bolalari ko'pincha masalani yechishni bilmaydilar, chunki ular u yoki bu harakatni ifodalovchi (sarf qildi, bo'lishib oldi, sovg'a qildi va hakozi) so'zlarning ma'nosini tushunmaydilar. SHunning uchun maktabda, tayyorlov guruhida u yoki bu harakatni ifoda etuvchi so'zlarni mazmunini ochib berishga alohida e'tibor berish kerak. SHu maqsadda masala asosiga qanday amaliy harakatlarni kiritish zarurligini hisobga olish kerak. Bunda qarama- qarshi harakatni: keldi-ketdi, yaqin kelishdi-uzoqlashdilar, oldi-berishdi, ko'tarishdi-tushirishdi, olib kelishdi- olib ketishdi, uchib ketishdi nazarda tutuvchi yig'indi va qoldiqni topishga oid masalalarni taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

**Ko'rgazmali masalalar.** Dastlab bolalarga mavzu mazmuni to'g'risida gapiriladi, hamda berilgan sonlar tasvirlangan rasmlar ko'rsatiladi. Rasm bo'yicha birinchi masalani o'qituvchining o'zi tuzadi. U bolalarni rasmlarni ko'rib chiqishiga, berilgan sonlarni hamda miqdoriy munosabatlarning o'zgarishiga olib kelgan hayotiy harakatlarni ajratib olishga o'rgatadi. Masalan, rasmda 5 ta shar ushlagan bola tasvirlangan, u 1 ta sharni qizchaga bermoqda. Rasmni ko'zatayotib o'qituvchi: Bu erda nima tasvirlangan? Bola nima ushlab turibdi? Unda nechta shar bor? U nima qilmoqda? Biz nimani bilamiz? Masalani shartini tuzing. Nima haqida so'rash mumkin? deb so'raydi. O'qituvchi berilgan sonlarni o'zgartirib, bolalarni ayni bir mavzuda har xil mazmundagi yig'indi va qoldiqni topishga oid masalalarni o'ylab topishga, hikoya qilishga o'rgatishda foydalanadigan hohlagan mazmundagi rasm asosida masala tuzishga undaydi.

Matematik masalalar sodda va murakkab masalalarga ajratiladi. Bitta amal bilan echilishi mumkin bo'lgan masalalarga sodda masalalar deyiladi. Bir nechta sodda masalalardan tuzilgan va shu sababli ikki yoki undan ortiq amallar yordamida echiladigan masalalarga murakkab masalalar deyiladi.

Masalan: daraxt shoxida 6 ta qush bor edi. Ulardan 2 tasi uchib ketdi? Bu masalaga 2 ta teskari masala tuzish mumkin.

1) Daraxt shoxida bir nechta qush bor edi. 2 ta qush uchib ketgandan so'ng daraxt shoxida 4 ta qush qoldi. Daraxt shoxida nechta qush qoldi?

2) Daraxt shoxida 6 ta qush qo'nib turgan edi, bir nechta qush uchib ketgandan so'ng 2 ta qush qoldi. Nechta qush uchib ketdi?

Sodda masala orasidan bevosita ifodalangan masala ajratilgan.

1-masala. Bir qutida 8 ta olma bor bu olmalar ikkinchi qutidan 5 ta ortiq.

Ikkinchi qutida nechta olma bor.

Yechish:  $8-5=3$  ta (olma)

Javob: ikkinchi qutida 3 ta olma bor.

2-masala. Vali 6 ta quyon rasmini chizdi. Valini chizgan rasmlari Zokirni chizgan rasmlaridan 2 ta ortiq. Zokir nechta quyon rasmini chizdi?

Yechish:  $6-2=4$  ta.

Javob: Zokir 4 ta quyon rasmini chizdi.

Sodda masalalardan yig'indi va qoldiqni topishga doir masalalar.

3-masala. Ahmad 3 ta qo'g'irchoq va ikkita koptok rasmini chizdi. Ahmad nechta o'yinchoq rasmini chizdi?

Yechish:  $3+2=5$  ta.

Javob: Ahmad 5 ta o'yinchoq rasmini chizdi.

4-masala. Zokir olma daraxtidan 7 ta olmani oldi va 3 tasini edi. Zokirda nechta olma qoldi?

Yechish:  $7-3=4$  ta (olma).

Javob: Zokirda 4 ta olma qoldi.

5-masala. Stol ustida 4 ta qizil qalam bor edi yana unga 4 ta ko'k qalamni qo'shdi. Stol ustida nechta qalam bor edi:

Yechish:  $4+4=8$  ta

Javob: stol ustida 8 ta qalam bor edi.

Sodda masalalarni turlaridan yana biri sonni nechta birlik ortirish yoki kamaytirishga doir masalalar.


1. Ahmadda 6 ta, Salimda esa undan 2 ta ortiq qalam bor. Salimda nechta qalam bor?

Yechish:  $6+2=8$  ta (qalam)

Javob: Salimda 8 ta qalam bor.

Salim 4 ta qizil mashina rasmini Ahmad esa 3 ta yashil mashinaning rasmini chizdi. Ikkalasi nechta mashina rasmini chizdi?

Yechish:  $4+3=7$  ta.



Javob: Ikkalasi 7 ta mashina rasmini chizdi.

Matnli masalalar yechish bolalarda avvalo mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish ularning programmada belgilab berilgan nazariy bilimlarini o'zlashtirish bilan birga o'qovchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan: Agar biz o'quvchilarda qo'shish haqida to'g'ri tushuncha shakllantirishni istasak, buning uchun bolalar yig'indisini topishga doir etarli miqdorda sodda masalalarni deyarli har gal to'plamlarni birlashtirish amalini bajarib yechishlari zarur. Masalan: quyidagi masala berilgan.

Ahmadda 6 ta rangli va uchta oddiy qalam bor. Ahmadda hammasi bo'lib nechta qalam bor?

Buni yechish uchun oldin 6 ta cho'p oladilar va buning yoniga yana 3 ta cho'pni so'rib qo'yadilar, va hammasi bo'lib nechta cho'p bo'lganini sanaydilar. So'ngra masalani yechish uchun 6 ga 3 ni qo'shish kerkligi va hosil bo'lgan 9 son bu ikki sonning yig'indini bo'lishni tushuntiradi. SHunga o'xshash masalalarni ko'plab echib bolalar qo'shish amali haqidagi tushunchalarni asta sekin egallab boradilar va uni umumlashtrish asosida qo'shish uchun ularni birga sanash kerakligini tushunalilar. Masalan: amalning noma'lum kamponentini topishga doir masalani echayotib o'quvchilar arifmetik amallarning kamponentlari va natijalar orasidagi bog'lanishni ajratish va uni masalalar yechishga qo'llashga harakat qiladilar.

Masalalarda aniq material bo'lib ular yordamida o'quvchilarda yangi bilimlar vujudga keladi hamda uni yechish jarayonida fikrlash amallarini bajarishga o'rganadilar. Bunga 1-sinf matematika kursidagi sodda masalalardan keltiramiz

1. Bir likopchada 8 ta, ikkinchi likopchada birinchidagidan 2 ta ortiq anor bor. Ikkinchi likopchada nechta anor bor?

1- likopchada 8 ta anor, 2-chisida 2 ta ortiq.

Yechish:  $8+2=10$  ta.

Javob: Ikkinchi likopchada 10 ta anor bor.

2. Bir bidonda 10 l, ikkinchisida 3 l kam paxta yog'i bor. Ikkinchi bidonda necha litr paxta yog'i bor?

1-bidonda — 10 l

2-bidonda - ? -3 l kam.

Yechish:  $10-3=7$ l

Javob; Ikkinchi bidonda 7 litr paxta yog'i bor.

3. Maktab hovlisida 10 ta o'quvchi bo'lib, ulardan 4 nafari qiz bola.

Ularning nechitasi o'g'il bola.

O'g'il bola-? Jami- 10 ta. Qizlar-4 nafar Yechish:  $10-4=6$  ta.

Javob: olti nafari o'g'il bola.

Mavjud bilimlar va fikrlash qobiliyatlar tadbiiq qilinishi jarayonida mustahkamlanib boradi. Masalalarni shakllantirishda aniq material bo'lgan holda nazariyani amaliyot bilan o'qitishni turmush bilan bog'lab olib borish imkonini beradi. O'quvchi masalalarni echayotganda ko'p matematik tushunchalar aniq hayotda odamlarning tajribasida o'z ildizi ekanligiga ishonch hosil qiladi. Masalalar yechish orqali bilim va tajriba sohasida muhim bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishadilar. Masalan boshlang'ich sinflarda yechiladigan ko'p masalalarning mazmunida bolalar va kattalarning mehnati mamlakatimizning xalq xo'jaligi, texnika sport va madaniyatda erishgan yutuqlari yotadi. Masalalar yechish jarayonining o'zi ma'lum metodikada o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga ancha ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u aqliy operasialarni: analiz va sintez aniqlashtirish va taqqoslash umumlashtirishni talab etadi. Masalan: o'quvchi istagan masalani yechishda analiz qiladi. Savolni masala shartidan ajratadi. Yechish rejasini tuzayotganda sintez qiladi, bunda u aniqlashtirishdan foydalanadi, biror bir turdagi masalalarni ko'p marta yechish natijasida o'quvchi bu turdagi masalalarda berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanishlar haqidagi bilimni umumlashtiradi.

O'quvchilarni sodda masalalar bilan tanishtirish. O'quvchilarda eng oldin tanishadigan arifmetik masalalar tushunarli bo'lishi kerak yig'indi va qoldiqli masalalarga doir masalalar jumlasini kiradi. Bunday masalalarni yechish bilan tanishtirishni, parallel olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi, bunday masalalarga quyidagi masalalar kiradi.

1. Ahmad 3 ta qo'g'irchoq va 2 ta koptok rasmini chizdi. Ahmad nechta o'yinchoqning rasmini chizdi?

2. Bahodir jo'yakdan 6 ta bodring uzdi 2 ta bodringni edi. Nechta bodring qoldi?

Sodda masalalarning qiyinligi bo'yicha ikkinchi turi bu sonni bir necha birlik orttirish yoki kamaytirishga doir masalalardir, bunday masalalarga namunalar keltiramiz.

1. Zokirda 6 ta Ahmadda esa undan 2 ta ortiq daftar bor. Ahmadda nechta daftar bor?

Yechish:  $6+2=8$  ta.

Javob: Ahmadda 8 ta daftar bor.


2. Maysara 7 ta ertak, Go'zal esa undan 3 ta kam ertak o'qidi. Go'zal nechta ertak o'qigan?

Yechish:  $7-3=4$  ta

Javob: Go'zal 4 ta ertak o'qigan.

3. Botir 6 sm li kesma chizdi. Soʻngra uni 3 sm uzaytirdi. Kesmaning uzunligi qancha boʻladi? Yechish:  $6+3=9$  sm Javob: Kesmaning uzunligi 9 sm boʻladi.

Savatda 10 kg olma bor edi. Undan 8 kg olmani sotishdi. Savatda necha kg olma qoldi?



Yechish:  $10-8=2$  kg Javob: Savatda 2 kg olma qoldi.

Masalalarni tasvirlash usuli. Masaladagi berilgan sonlarning nechtaligini taʼkidlashga va ular oʻrtasidagi munosabatlarini aniqlay bilish koʻnikmasini rivojlantirishga imkon beruvchi eng muhim matn usuli-masalani tasvirlashdir. Bolalarning narsalarning chizmada tasvirlash usullari bilan tanishishi ham foydalidir. Dastlabki 1-2 ta masalani oʻqituvchining oʻzi tasvirlab chizadi.

Oʻqituvchi doskaning ichiga 5 ta qoʻziqorin va uning oldiga bitta qoʻziqorin solingan savatchaning rasmini chizdi. Bolalar oʻqituvchi qanday masalani chizganini topganlaridan kiyin oʻzlari hohlagan narsalar haqida masala tuzadi. Bolalarni masalaning javobi emas, balki masala shartini chizish kerakligi haqida bosh qotirish kerak, oʻqituvchi tez chiziladigan narsalarni tanlash haqida maslahat beradi. U bir nechta yaxshi chiqqan va 1-2 ta yaxshi chiqmagan rasmlarni tanlab oladi. Bolalar kim qanday masala tuzganini topadilar. Ular qaysi rasm boʻyicha masala tuzish mumkin, qaysi rasm buyicha masala tuzib boʻlmasligini, nima uchun xatosi nimada ekanligini aniqlaydilar. Rasmda masalada berilgan sonlar koʻrsatilishi kerakli haqida ishonch hosil qilinadi oʻzaro tekshirish olib borilsa yaxshi boʻladi. Ayirishga oid masala tuzishda koʻpincha ikkita rasm chizishga toʻgʻri keladi, birida kamayuvchi, ikkinchisida qoldiq va ayiruvchi chiziladi.

Masalan: birinchisida 6 ta archa, ikkinchisida 5 ta archa chiziladi.

Bolalarga hisoblash usulini oʻrgatish. Bolalar arifmetik amallarni ifoda etishga va uni asoslab berishga oʻrganib olganlaridan kiyin ularni hisoblash usullari bilan tanishtirish mumkin. Ular qoʻshish va ayirishni 1 ni qoʻshib va ayirib oʻrganib olishlari kerak. Bolalar ushbu usullarni egallab borishda qoʻshni sonlar oʻrtasidagi bogʻlanish va munosabatlarni tushunishga hamda sonlarning birliklaridan iborat tartibini bilishga tayanishlari lozim. Arifmetik amallarni oʻrgatish jarayonidagi

mashg'ulotning bir qismi sonlarni solishtirish va sonlarning birliklaridan iborat tarkibi haqidagi bilimlarni mustahkamlashga o'rgatadi. Bolalarga hisoblash usullarini qanday o'rgatish mumkin? Rasm buyicha quyidagi masalani tuzishni taklif etish mumkin. Bolalarni arifmetik amallarni ifoda etishni hisoblash usullaridan farq qila bilishga o'rgatish uchun qo'shishda "+" "ga" ayirishda "-" "dan" qo'shimchalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolalar hisoblash vaqtida olingan javob bilan birga arifmetik amallarni takrorlaydilar. SHunday kiyingi ular masala savoliga javob beradilar. Dastlab bolalar ko'rsatma material asosida keyinroq miyada sonlarning to'g'ri va teskari ketma- ketligi haqidagi bilimlar hamda ular masala o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni tushunishiga asoslanib hisoblaydilar.

Yil oxirida bolalar masala tuzishga undagi shart va savolni farq qila bilishi, berilgan sonlarni ajratib olishni, ular o'rtasidagi miqdoriy munosabatlar aniqlashini arifmetik amallarni to'g'ri to'plashni va ifoda etishni hisoblash usullaridan foydalanib harakat natijasini topishni va masala savoliga to'liq javob berishni bilishlari kerak.

Arifmetik masalalar yechish.

Masala yechishda " qo'shish " " ayirish " " barobar " matematik atamalaridan foydalanish zarur. Bolalar " yozishni " mashq qiladilar.

1-2 bola mustaqil " yozganlarini " o'qib beradilar.

"3 ta sharga 1 ta shar qo'shilsa 4 ta shar bo'ladi".

Kim masalani echadi? 3ga 1 ni qo'shish kerak.

Lolada nechta shar bo'ldi? 4 ta


Doskada 3 o'quvchi barobar 4 deb aytishadi.

Bolalar ko'pincha masalani hikoya, topishmoq bilan aralashtirib yuboradilar. Masalan: Akvariumda 6 ta baliq bor edi. Yana bir necha baliq solib quyishdi. Bu masalani yechish mumkinmi? YOki 4 og'ayni bitta tom tagida yashaydi. Bular masala emas, balki hikoya va topishmoqdir. Masalada eng kamida ikkita son ishtirok etishi uqtiriladi. Geometrik figuralar

Bolalarni geometrik figuralar bilan tanishtirishning asosiy vazifasi ko'pburchaklar bilan tanishtirishdir. Uchburchak, kvadrat, to'g'ri to'rtburchaklar ko'pburchaklarning turlari sifatida qaraladi. Dastur mazmuni shunday tuzulganki uni o'zlashtirish natijasida bolalarning ko'pburchaklar turlari haqidagi umumiy bilimlari kengayadi. Bu bolalarda elementar matematik tafakkurni o'stirishga imkon beradi. Figuralarning moddalari bilan shug'ullanish jarayonida bolalarning ko'pburchakning

ba'zi bir xususiyatlari haqidagi tasavvurlari shakllanadi. Ko'p burchaklar tomonlari burchaklari tengligi bilan aniqlanadi.

Birinchi tanishishda ko'rish, siljitish, paypastlash usullaridan kiyin son va o'lchashdan foydalanadilar. Avval umumiy belgilari: tomonlari, burchaklari, burchak uchlari ko'rsatilishi lozim. Bularni bolalar birinchi mashg'ulotlardayoq o'zlashtirib oladilar. Faqat nuqtalar qo'yib ularni birlashtirib, ko'pburchaklar chizganda qiynaladilar. xususiyatlarini o'rgana borish davomida uning yangi xususiyatlari ochila boradi: ularning 4 ta tomoni, 4 ta burchagi, 4 ta burchak uchi bor.



O'lchash asosida bolalar o'zlari uchun yangi xususiyatlar (teng va notenglikni) aniqlaydilar. O'lchov asosida bolalar o'zlari yangi xususiyatlar (teng va notenglikni) aniqlaydilar. O'lchov birligi qilib qog'oz tugmasi olinadi: kvadratga 1 ta tasma, to'g'ri turtburchak uchun ikkita tasma. Bolalar ixtiyorida doimo xilma xil ko'pburchaklar bo'lishi kerak. Buklash orqali bolalar bir figuradan boshqa figuralar hosil qiladilar. Ko'pburchaklarning xossalarini aniqlaydilar. bunda ayniqsa ko'pburchaklardan uchburchak hosil qilish va uchburchaklardan boshqa figuralar hosil qilishga ko'p e'tibor berish kerak.

Arifmetik masalalar yechish jarayonida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirish. Masalalar yechish matematikada o'qitishni muxim tarkibiy qismidir. Masalalar echmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Masalalar yechishida nazariyani amaliyotga tadbiiq qilinishi haqida fikr yuritishida natural sonlar arifmetikasini o'rganish maqsadga muvofiq masalalar va amaliy ishlar sistemasi asosida tuzilgan. Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi bog'lanishlarni amalda qo'llanishlarni bilan natijalar orasidagi baholashlarni ochib berishda har xil miqdorlar orasidan baxolashlar bilan tanishishiga yechish va ular haqida fikr yuritish katta axamiyatga ega bo'ladi.

Sodda va murakkab masalalarni fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib odatda o'z ichiga yashirin ma'lumotni oladi. Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqishni rivojlanadi. Umuman mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mexnatsevarlik maqsadga muvofiqdir.

Qo'shish va ayirishga o'rgatish 1 sinfda matematika o'qitishning asoslaridan biridir. Bolalar bog'chasida asosiy tayyorlov ishlari olib boriladi. Bolalar arifmetik masalalarni echib, hisoblash malakalarini egallab boradi. Bu arifmetik masalalarning ma'nosini tushunishiga hamda unga ongli ravishda yondoshishlar, xatoliklar natija hamda amallar komponenti orasidagi o'zoro bog'lanishlarni aniqlashga imkon beradi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar bir amalli oddiy masalalarni, ya'ni narsalar ustida ish bajarishdan qo'shish ayirishdan bevosita kelib chiqadigan (qo'shdik, ko'paydi, ayirdik, kamaydi) arifmetik masalalarni echadilar.

Bular yig'indi va qoldiqni to'pishga qaratilgan masalalardir. Bolalarga katta son kichik sonlarni qo'shish hollari bilan tanishtiriladi. Ularni avval 1 soni qo'shish va ayirish keyinroq 2 va 3 sonlarni qo'shish va ayirishga o'rgatib boriladi. Masalalar yechish bolalarga avvalo mukammal matematik tushunchalarni shakllantiradi. Fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O'ylash masalalarni hayotga tatbiq eta olish, har bir amaliarni ma'nosini tushunishdan iboratdir. Qo'shish amallariga doir masalalar yechishiga to'plam elementlarini birlashtirish natijasida belgilarni aniqlaydilar amaliarni nomalum komponenti (nomalum qo'shiluvchi, ko'payuvchi, bo'luvchi) topishga doir masalani echayotib bolalar arifmetik amallarni komponentlari va orasidagi bog'lanishni o'zlashtiradilar. Masalalar konkret material bo'lib, ular yordamida o'quvchilar yangi bilimlar vujudga keladi va mavjud bilimlar tadbiq qilish mobaynida mustahkamlanib boriladigan holda nazariyani amaliyot bilan o'qitish tushuntirish bilan bog'lab olib borish imkonini beradi. Arifmetik masalalar yechish o'quvchilar kundalik hayotida har kungi o'quv zarur bo'lgan amaliy fikrlarini vujudga keltiradi. Hayotdagi harid qilingan narsaning narxini ko'rishgan narxini olgan narsalarni narxini, ishga kech qolmaslik uchun uydan qachon chiqqanligi haqida fikr yuritiladi. O'quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish uchun masalalardan keng foydalaniladi. Masala tuza bilish ko'nikmasi uning tuzilishini o'zlashtirib olish uchun zamin yaratadi. Bolalar masala tuzish bilan 2 yoki 3 mashg'ulot o'tganidan so'ng tanishadilar ular masalada shart va savol borligini bilib oladilar. Masala shartini kamida 2 ta son bo'lishligi alohida ta'kidlanadi. O'qituvchi bolalarga masalani nima haqida gapirishini so'zlab beraman, siz bo'lsangiz men aytgan narsalarni hammasini chap tomoniga 3 ta olma o'ng tomoniga 4 ta olma qo'ydim. Stolga hammasi bo'lib nechta olma qo'yildi. Bolalarga tarbiya berishda ham maqsadli malakalarni roli katta masalalar o'quvchilarni fikri doiralarni kengaytirishiga yordam beradi. Masalalar yechish haqida fikr yuritish natijalarida shunday masalalar tarkib topadi.



Masalalarni tinglashni o'rganish va uni mustaqil o'qib o'zlashtirishdan boshlanadi. Masala shartini yaxshiroq o'zlashtirish maqsadida har bir o'quvchi masala matnini mustaqil o'qib chiqishi zaruri bo'lishi uchun ularga masalani oldin ovoz chiqarmay o'qishini so'ngra esa tovush chiqarib ifodali o'qishni taklif qilish kerak. Masalani ifodali o'qishda sonni ma'lumotli va masalani yechish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan elementlari tovush bilan ajratib olishlari uchun fikr yuritishlari o'rgatiladi. O'quvchi masalani yechish mobaynida ko'p matematika fikrlash son, arifmetik amallar, amaliarni bajarish tartibi haqida fikr yuritadilar, o'quvchilar masalalar yechish orqali o'quvchilar bilan va tarbiya sohasida muhim bo'lgan fikrlar bilan tanishadilar. Ko'p masalalarning mazmunida bolalarni va kattalarning mehnati mamlakatimizning xalq xo'jaligi mexanika fan va madaniyatida erishgan yutuqlari haqida fikr yuritadilar.

Masalalar yechish haqida fikr yuritish aqliy rivojlanishiga ancha ijobiy ta'sir ko'rsatadi chunki u aqliy operasialarni analiz va sentez, taqqoslash umumlashtirishni talab etadi. O'quvchi istalgan masalani echayotganda analiz qiladi savolini masala shartida fikr yuritadi. O'quvchilar masala yechish orqali izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanishlarini aniqlash uchun fikr yuritadilar. Masalalar yechish mobaynida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan belgilar sonlar va izlanayotgan son orasidagi masalalar ustida ishlashga doir o'quvchilarni avval bir turdagi masalalarni yechishga so'ngra boshqa turdagi masalalarni yechishga fikr yutita olib negaki masalalar yechish jarayonida berilgan sonlar va nomalum son orasidagi bog'lanishni aniqlash buning aloxida arifmetik masalalarni tanlashni o'rganadilar. YA'ni masalada arifmetik amalni tanlashga o'tish uchun fikr mulohaza yuritiladi. Masala yechish og'zaki yoki yozma ravishda bo'lishi haqida fikr mulohaza yuritadilar og'zaki yechishda tegishli arifmetik amallar va tushuntirishlar og'zaki bajariladi. Boshlang'ich sinflarda echiladigan masalalarni deyarli yarmi og'zaki bajarilishi kerakligi haqida mulohaza qiladilar. Masalalar yechish o'quvchilarda masala mazmuniga chuqurroq qarash haqida berilgan sonlar va izlanayotgan va orasidagi bog'lanishni har tomonlama fikrlash qobiliyati rivojlantiradi. O'quvchilarni mustaqil masalalar yechishiga o'rgatishning bir qancha bosqichini ko'rsatamiz.

1-bosqich masala o'quvchining yo'naltiruvchi savollar buyicha echiladi va bu yechish doskada va daftarga bir vaqtda bajariladi.

2-bosqich masala shartini o'qituvchi rahbarligida analiz qiladi va yechish rejasini tuziladi. Yechishni o'z doirasiga yozilmaydi og'zaki aytilmaydi ham. O'quvchilar esa uni mustaqil fikr yuritib boradilar.

3-bosqich o'qituvchi xabarligida masala faqat analiz qiladi. Yechish rejasi va yechishning o'zini o'quvchilar mustaqil bog'laydi.

4-bosqich masalani o'quvchining hech bir yordamisiz mustaqil yechish uchun fikr yuritadilar. O'quvchilarga masalalar yechish masalani tarkib toptirishga ijodiy harakatlari masalalar haqida fikr yuritishi maxsus ahamiyatga ega bo'ladi.

### **XULOSA**

Mantiqiy tafakkurni shakllantirish boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallarni shakllantirish imkoniyatlaridan foydalanish uchun har bir tushunchaning mohiyati, mazmuni va uning o'quvchilar amaliy tajribasiga asoslanilishi hamda ko'rgazmalilikning keng yo'lga qo'yilishi, taqqoslash, xulosa chiqarish va konkretlashtirishga o'rgatish bo'lish usullarining o'rganilishi bilan birga umuman boshqa amallardagi o'xshash qonuniyatlarni taqqoslash asosida keltirib chiqarishga hamda mashq va misollarni yechishni tahlil qilish asosida o'rgatilishi, xatolar ustida ishlash va bularning barchasidan samarali foydalanish asosini tashkil etadi. Boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar tushuncha o'qitilishini arifmetik amallar natijalar va komponentlari orasidagi bog'lanishning ahamiyatini hisobga olib, matematika o'qituvchilarining boshlang'ich ta'lim matematika kursini o'qitishda o'quvchilarda fikrlash ko'nikmalari, mashqlar yechishda mantiqiy asoslash va fikrlashni talab etadigan biz ishlab chiqqan tavsiyalardan foydalanishlari ularning umuman matematik tayyorgarligi, qiziqish va qobiliyatlari rivojining oshishiga xizmat qiladi. Kelgusida bu soha bo'yicha boshlang'ich sinflar matematika darslarida bo'lish tushunchasini o'qitishning har bir sinf bo'yicha konkret uslubiy tavsiyalari ishlab chiqilsa, o'quvchilarda hisoblash malakalarini o'stirish orqali tenglama va tengsizliklar, matnli masalalar yechishdagi qo'llanilishi usullarini sistemali va ketma-ketlilik asosida o'qitilishiga va bunda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadida mashqlar to'plamlari, multimedia va grafik vositalarni tayyorlash yo'lga qo'yilsa boshlanqich matematik matematik ta'lim samaradorligini oshirishda ijobiy natijalar beradi deb hisoblaymiz.

### **REFERENCES**

1. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo'llanma.) Toshkent. —SHarq 2005 yil.,
2. Bikbaeva N.U, R.I.Sidelnikova, G.A.Adambekova. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O'rta maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.) Toshkent. —O'qituvchi 2006 yil.

3. Jumaev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O'YU uchun ) Toshkent. —O'qituvchil 2014 yil. "Maktabgacha ta'lim" jurnali maqolalari
4. Bikboeva.N.U. Yangiboeva .YA. Ikkinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. —O'qituvchil 2012 yil.
5. Bikboeva.N.U. Yangiboeva E.Y. Uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. —O'qituvchil 2015 yil.
6. Jumaev M.E, Tadjieva Z.G. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'YU uchun darslik.) Toshkent. —Fan va texnologiyal 2015 yil.
7. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz) internet kutubxona
8. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) materiallari

## **JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG‘ULOTLARIDA QO‘LLANILADIGAN ASOSIY USLUBIY TAMOYILLAR**

**Mirzakarimov Xayotbek Xosilbekovich**

AQXAI O‘zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat kafedra o‘qituvchisi

**Mirzayev Mirkamol Qoratoyevich**

AQXAI O‘zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat kafedra katta  
o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan asosiy uslubiy tamoyillar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Faollashtirish jarayoni, jismoniy tarbiya darslari, mashg‘ulotlar, jismoniy mashqlar, uslubiy tamoyillar.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье представлена информация об основных методических принципах, применяемых в занятиях физической культурой и спортом.*

***Ключевые слова:** Активизационный процесс, занятия по физическому воспитанию, занятия, упражнения, методические основы.*

### **ABSTRACT**

*This article provides information on the basic methodological principles used in physical education and sports.*

***Keywords:** Activation process, physical education classes, classes, exercises, methodological principles.*

### **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2021 yilni “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yilli” deb nom berdilar. Barchamizga ma‘lumki jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda, aholi salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya va sportni o‘rni beqiyosdir. Mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma‘naviy salomatligini shakllantirishni, sog‘lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni singdirishning g‘oyat muhim sharti hisoblanadi. Aholini ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishlari, turli sport musobaqalarida ishtirok etishlari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Oʻsib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama aqliy, ahloqiy va jismoniy jihatdan rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport muhim ahamiyat kasb etadi va ularda mardlik, vatanparvarlik, sadoqat va halollik tuygʻularini shakllantirishda yordam beradi. Davlatimiz rahbari ijtimoiy, maʼnaviy-maʼrifiy sahalardagi ishlarni yangi tizim asosida yoʻlga qoʻyish boʻyicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdi. Bunda ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini nomoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yoʻnaltirilgan. Shunday yaratib berilgan imkoniyatlardan foydalanib, oʻquvchi yoshlarimizni qiziqishiga qarab sportning turli xil yoʻnalishlariga jalb qilib, ulardan yangi chempionlarni tayorlashimiz zarur.

Shu oʻrinda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini misol qilib keltirmoqchiman “Dunyoda qobilyatsiz bola boʻlmaydi, biz ana shu qobiliyatni koʻra olishimiz, taxlil qilib yuksaltirishimiz va shu qatorda oʻquvchilarning qobiliyatidan kelib chiqqan holda biror bir kasbga yoki hunarga yoʻnaltira olishimiz bizning eng asosiy vazifamizdir”.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

Jismoniy tarbiya mashgʻulotlari orqali olinadigan foyda juda koʻp, bu yoshlarda sogʻlom turmush tarzi muhimligini biladigan masʼuliyatli kattalar boʻlib yetishishiga yordam beradi. Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat jarayonini boshqaradigan, inson vujudiga, jismoniy oʻsishga taʼsir qiladigan tabiat qonunlari jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyotida printsip-tamoyil nomini olgan.

Organizm rivojlanishining umumiy tamoyillarini bilish va ularni amaliyotda qoʻllash, oʻquvchilar jismoniy tarbiyasi jarayonini yanada samarali darajaga olib keladi. Jismoniy tarbiya va pedagogikaga oid adabiyotlarda tamoyillar har xil taʼriflangan, lekin manbalarning tahlili shuni koʻrsatadiki, har xil nomlar bilan taʼriflangan bir printsip quyidagi mazmunlarni bildiradi:

-jismoniy tarbiya darslari jarayonida oʻquvchilarning har tomonlama rivojlanishlari uchun jismoniy mashqlarni ongli, tushungan holda tashkil etish;

-oʻrgatayotgan mashqlarni yaxshi oʻzlashtirilishi uchun koʻrgazmalilikning turli xil shakllaridan foydalanish;

-har bir oʻquvchiga taklif qilinadigan muayyan maqsadga yoʻnaltirilgan va psixologik ogʻirliklarning soddaligini, tushunarligini taʼminlash;

Shugʻullanuvchi oʻquvchilar avvalgi mashgʻulotlarda oʻzlashtirib olganlarini mustahkamlashlarida talabni kuchaytirish va keyingi mashgʻulotlar uchun zamin

yaratishni ta'minlash. Pedagogika fanida bu printsiplarni o'rgatishda taalluqligini hisobga olib, didaktik tamoyillar deb ataymiz.

Jismoniy tarbiya, jismoniy mashqlarga o'rgatish va shug'ullanuvchilarni bilimlar bilan qurollantirish, jismoniy sifatlarni tarbiyalashni o'z ichiga qamrab olganligi uchun tamoyillarni didaktik emas, metodik - uslubiy deb atash qonuniyroqdir. Ko'nikma va malakalarni shakllantirishda qo'llaniladigan asosiy uslubiy tamoyillar o'quvchilarning yoshlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, barcha uchun bir xil va zarurdir. Har bir tamoyilning mohiyatini va o'quvchilar jismoniy tarbiyasi jarayonida uni amalga oshirish yo'llarini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Onglilik va faollik tamoyili.

“Didaktik adabiyotlarda onglilik deganda, o'rganilayotgan temaga oid qonuniyat, ta'rif va faktlarni asosli egallash, xulosa va umumlashlarni chuqur, atroflicha fahmlash, tema yuzasidan bilimlarni izchil va to'g'ri bayon qila olish, bilimlarning ishonch va e'tiqodga aylanishi, o'rgatilgan bilimlardan turmushda mustaqil foydalana bilish kabilar tushuniladi. Onglilik bilimlarni ongli o'zlashtirishga yo'nalgan printsiptir.

Bilim malakalarni ongli o'zlashtirish quyidagicha xususiyatlarga ega: ta'limning maqsadi, hayot uchun zarurligini anglash; faktik materiallarni ongli egallash va ularni o'zaro farqlay bilish; bilimlarni o'rganish, mustahkamlash, takrorlash jarayonlarini sezish; tema yuzasidan o'zi erishgan natijalarni baholay bilish.

Faollik esa, o'z navbatida bolalarda mustahkamlikni tarbiyalash uchun asos bo'ladi. Bu printsiplar bir-birini to'ldiradigan hodisalar bo'lib, ularning mohiyatini tashqaridan ichkariga va ichkaridan tashqariga yo'nalgan jarayonlar sifatida tasavvur qilingandagina anglash mumkin. Faollik tashqaridan ichkariga yo'nalgan jarayon sifatida tasavvur etilsa, unda bolalarda mustahkamlikni shaxsiy sifat shaklida tarbiyalashni anglaymiz. Agar faollik ichkaridan tashqariga yo'nalgan jarayon sifatida qaralsa, unda insonning ichki intilishlari, emotsiyalari, qiziqishlari mustaqillikni shakllantirish vositasi ekanligini tan olishga to'g'ri keladi”.

Jismoniy tarbiya jarayoni-bu ikki tomonlama jarayondir. Bir tomondan o'rgatishga intilayotgan o'qituvchi, ikkinchi tomondan o'rganishga xohishi bo'lgan o'quvchi qatnashadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, agar o'quvchi oldiga qo'yilgan vazifaning mohiyatini tushunib etsa va uning hal etilishiga qiziqsa, o'rgatishning muddati tezlashadi va sifati yaxshilanadi.

Uslubiy adabiyotlarda onglilik va faollik alohida mustaqil tamoyillar hisoblanadi. Amaliyotda esa onglilik va faollik jarayoni o'zaro bog'liqdir, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Sababi shuki o'quvchining faolligisiz onglilikni

amalga oshirish mumkin emas, faoliyatning maqsadi esa ongli ravishda tushunib etilgandagina inson faol bo'ladi.

Faollashtirish jarayoni deganda o'qituvchi tomonidan shug'ullanuvchilarning intellektual, axloqiy, irodaviy va jismoniy kuchlarini o'rganib, tarbiya sifatini oshirish tushuniladi. Ammo mavjud tabiiy va ma'naviy qonuniyatlarni bilishning o'zi o'quvchilarni ongli va faol qila olmaydi. Bu vazifani o'qituvchi bajarishi kerak.

